TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM FIDOYILARI

## RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2023

PHILOLOGICAL SCIENCES
PEDAGOGICAL SCIENCES
SOCIAL SCIENCES AND HUMANITES
EXACT SCIENCES
NATURAL SCIENCES
ECONOMICS
ART AND CULTURE
MEDICAL SCIENCES
TECHNICAL SCIENCES

OPEN ACCESS

VOLUME 1




+998 97 277 78 01
WWW.REANDPUB.UZ
INFO@REANDPUB.UZ

doi CYBERLENINKA BASE OpenAIRE Google Scholar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

# «TA'LIM FIDOYILARI»

# ILMIY-USLUBIY JURNALI

## 1-SON, 1-JILD DEKABR 2022 1-QISM

## BARCHA SOHALAR BO'YICHA

TA'LIM FIDOYILARI RESPUBLIKA JURNALIDA
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION
YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLAR MAVZUSIDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Google Scholar OpenAIRE CYBERLENINKA doi

GUVOHNOMA № 1170

# TA'LIM FIDOYILARI

ISSN:2181-2160

SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8

WWW.REANDPUB.UZ

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TA'LIM FIDOYILARI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

## TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

**Azimov Jumanazar Turg'unovich**
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

**Dr. Israilov Mamarakhim**
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**Максудова Фируза Хуршидовна**
Тошкент фармацевтика институтининг «Дори воситаларининг саноат технологияси» кафедраси мудири

**Кожикбаева Зияда Адилбаевна**
Қорақалпоқ давлат университети Журналистика кафедраси доценти

**Аллаберганова Гулчехра Машариповна**
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университетининг "Умумий физика" кафедраси доценти

**Shamshiyeva Hulkar**
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

**Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich**
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

**Ustaboyev Abdullo Raximjonovich**
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

**Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna**
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Мирзабдуллаева Гулнора Мухаммаджон қизи**
Наманган муҳандислик-курилиш институти менежмент кафедраси ассистенти

**Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich**
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

**Shukhrat Batirovich Djabbarov**
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

**Baratova Maxbuba Mubinjanovna**
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Даулетмуратова Замира Уснатдиновна**
Қорақалпоқ давлат университетининг Қорақалпоқ тилшунослиги кафедрасининг ассистент-ўқитўвчиси

**Шокирова Ҳавасхон Нурмаматовна**
Фарғона халқ таълими бошқармаси Таълим маркази директори

**Erkaboy Yu. Derdibaev**
Тошкент давлат аграр университети, Дехкончилик ва мелиорация кафедраси профессори

**Saidova Markhabo Xabibullo kizi**
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

**Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich**
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

**Қодиров Зиёдин Мамадалиевич**
Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси

**Алимжон Тожиев Мўйдинович**
Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти

**Тожибоева Гулхумор Рахмонжоновна**
Андижон давлат университети умумий психология кафедраси катта ўқитувчи

**Юнусова Гулшод Назиховна**
Наманган давлат университетининг «Амалий математика ва ахборотлартехнологиялари» кафедраси катта ўқиитувчиси

**Ergashev Bobirjon Boxodirovich**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

**Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich**
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

**Набиева Саидахон Абдувахабовна**
Тошкент давлат техника университети Саноат иктисодиети ва менежменти кафедраси доценти (PhD)

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# XX ASR BOSHLARIDA JADIDLARNING MILLIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH G'OYALARI

*Madiyeva Shoxista Chorshanbiyevna Surxondaryo viloyati Angor tumani 1-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya**

Ma'lumki, jadidchilik ijtimoiy rivojlanishning tub burilishi bosqichida yuzaga keldi. Mahalliy taraqqiyparvarlarning mustamlaka Turkistonda inqirozli holatni, o'lkaning umumjahon jarayonlaridan tobora ortda qolayotganini, tub aholining erkparvarlik harakatlariga keskin zarba berilib, hamma joylarda bostirilishini, ma'naviyat sohasidagi turg'unlikni idrok etishlari jamiyatni atroflicha isloh etish kerak degan g'oyaning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston,jadidchulik harakatlari, ma'naviyat sohasi,  feodal zulm, Sho'royi Islom,  qo'mita;

**Kirish**

Turkistonda dastlabki jadid guruhlari XX asr boshlarida yuzaga keldi. Ja didlarning taniqli vakillari milliy ziyolilarning o'zagini tashkil etgan kishilar edi. Jadidchilik harakati ma'rifatchilik va siyosiy bosqichlami bosib o'tgan bo'lishiga qaramay davlatchilik masalasi ularning g'oyaviy maqsadlari asosini tashkil etgan.

Birinchi bosqichda milliy ziyolilar davlatni boshqarish uchun ma'rifatli kishilarni tarbiyalash, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ular yordamida milliy davlat manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratdilar. Ular xalqning turmush sharoitini yaxshilash uchun mustamlaka - feodal zulmi va og'ir majburiyatlardan xalos bo'lish, ma'naviy erkinlikka erishish zarur, deya hisoblagandilar.

**Asosiy qism**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1917-yil Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida, Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan so'ng ular bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, o'lkada Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar bilan ta'minlanish va konstitutsion tuzum o'rnatishni talab qildilar.

Shu yilning bahoridan jadidlar o'lka tub aholisining taraqqiyoti va mustaqilligi to'g'risidagi o'z g'oyalarini o'lkadagi demokratik inqilob bilan bog'lab, o'zlari e'lon qilgan tamoyillarni amalga oshirishga faol kirishdilar. Bu hol mahalliy hokimiyat tuzilmalarini shakllantirish chog'ida ancha to'liq namoyon bo'ldi.

Bir tomondan, o'lkada ishchi va soldat deputatlari Petrograd Sovetining da'vatiga muvofiq, ishchi deputatlari Sovetlari bilan soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshladi. Toshkent ishchi va soldatlari ana shu ishning tashabbuskorlari bo'ldi. Dastlab ishchi deputatlarning Toshkent Soveti, keyinchalik esa soldat deputatlari Soveti tashkil qilindi. Ko'p o'tmay, ular yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Tez orada shu Sovetning chaqirig'i bilan Turkiston shaharlari va ishchi posyolkalarida Sovetlar barpo etila boshladi.

Sovetlarni tuzish bilan bir vaqtda jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mitalarining va jamoat xavfsizligi qo'mitalarini tashkil etish boshlandi. Qo'mitalar joylarda muvaqqat hukumat organlari o'rniga da'vo qilib, barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchi sifatida faoliyat olib bordilar. Mazkur organlarning qonuniy huquqga ega ekanligi o'lka milliy jamoatchiligi tomonidan hamma joyda e'tirof qilindi.

1917-yil 14-martda Toshkentda chaqirilgan birinchi musulmonlar qurul toyida umumiy milliy markaz «Sho'royi Islom tashkil qilindi. Unga milliy liberal, progressiv harakat - jadidlar va ruhoniylarning "Jumhuriyati Ulamo" tashkiloti vakillari kiritildi. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlaridan farqli o'laroq yangi tuzilgan milliy tashkilot islom diniga e'tiqod qiluvchi tub aholidan saylangan deputatlar Soveti deb tushunildi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Boshqaruvning dastlabki majlisida 15 kishidan iborat boshqaruvni tuzish va muvaqqat Nizom qabul qilish qaror qilindi. Nizomga muvofiq Turkistonning barcha shaharlari va qishloqlarida «Sho'royi Islom tuzish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, o'lka musulmon aholisini jipslashtirishga, siyosiy ongini rivojlantirishga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol deputatlari Soveti tashkil qilindi. Ko'p o'tmay, ular yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Tez orada shu Sovetning chaqirig'i bilan Turkiston shaharlari va ishchi posyolkalarida Sovetlar barpo etila boshladi. Sovetlarni tuzish bilan bir vaqtda jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mita larining va jamoat xavfsizligi qo'mitalarini tashkil etish boshlandi. Qo'mitalar joylarda muvaqqat hukumat organlari o'rniga da'vo qilib, barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchi sifatida faoliyat olib bordilar. Mazkur organlarning qonuniy huquqga ega ekanligi o'lka milliy jamoatchiligi tomonidan hamma joyda e'tirof qilindi.

1917-yil 14 martda Toshkentda chaqirilgan birinchi musulmonlar qurul toyida umumiy y milliy markaz Sho'royi Islom tashkil qilindi. Unga milliy liberal, progressiv harakat -jadidlar va ruhoniylarning «Jumhuriyati Ulamo tashkiloti vakillari kiritildi. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlaridan farqli 'laroq yangi tuzilgan milliy tashkilot islom diniga e'tiqod qiluvchi tub aholidan saylangan deputatlar Soveti deb tushunildi.

Turkiston Sovetlari- - inqilobiy demokratiyaning xohish-irodasini ifodalovchi yevropalik ishchi va soldatlarning organi bo‘lib, jamiyatga ta'sir o'tkazish uchun yetarli kuchga ega edi. Shu boisdan ham ular Muvaqqat hukumat davlat muassasalari faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo‘lishga da'vo qilardilar:

- ijroiya qo'mitalar Sovetlarga nisbatan aholining ancha keng ijtimoiy milliy guruhlari namoyandalari bo‘lib, ularning tarkibiga turli partiyalar, jamoat t tashkilotlari kirgan. Ular barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchilar sifatida ish ko'rdilar va joylarda muvaqqat hukumat organlari rolini bajarishga da'vo qildilar;

Sho'royi islom» tashkiloti tashkiliy jihatdan tarkib topish paytidayoq musulmon aholining vakolatli organlari sifatida faoliyat olib borib, shu aholini xohish-irodasini ifoda etdi va uning manfaatlarini himoya qildi.

**Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki, Turkiston jadidlari, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar mustaqil, demokratik va milliy hukumat tuzishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Buni amalga oshirishda esa, bolsheviklar yordamidan foydalanmoqchi bo'ldilar. Biroq sovet hukumati mintaqa hududidagi davlatlarni tugatib, Rossiya tarkibiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1**.Alimova D., Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzimi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917-1990 yy.). T.: O'zbekiston, 2000. 165 b.

**2**.A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. T.: Ma'naviyat, 2000. 168 b.

**3**.Muhammad Aziz Maarg'iloniy. Tarixiy Aziziy: (Fargona chor mustamlakachiligi davrida) //So'z boshi va ilovalar mualliflari Sh. Vohidov, D. Sangirova. Mas'ul muharrir A. Qayumov. T.; Ma'naviyat, 1999. - 112b.

**4**.Rajabov Q. Buxoro Xalq Respublikasi: monarxiyadan demokratiya sari dastlabki qadamlar (1920-1924 yy.) // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari. Davriy to'plam N2.-T.: Sharq, 1999. B. 149-158.

**5**. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan.- T.: Yangi asr avlodi, 2006. 72 b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# FONETIKA - NUTQ TOVUSHLARINI O`RGANUVCHI BO`LIM

***Rashidova Gulbahor Gadayevna***

***Prezident agentligi tasarrufidagi Ishtixon ixtisoslashtirilgan maktab ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*.**

Biz texnika va texnologiyalar bilan hayotimiz osonlashgan bir davrda yashayapmiz.Barcha sohalarda bo`lgani kabi ta`lim sohasida ham bir qator innovatsion g`oyalar ta`lim sifatini ko`tarishga safarbar etildi. Yangi darsliklar, ko`rgazmalar va ko`rsatmali vositalar, electron kitoblar barchasi yangi davr kishisini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Ayniqsa ona tili fanini umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitilishiga e`tibor kuchaydi.

Ona tilini o`qitishda darslikdagi ma`lumotlarni berish bilangina cheklanish ta`lim sifatini ta`minlab bermay qoladi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o`qitish usullari orqali o`quvchini mavzuga jalb etishi va DTSdan ko`zlangan maqsadga yetishi lozim. Ayniqsa 5-sinfda ona tili fanidan Fonetika va Leksikologiya bo`limlarini o`qitishda biroz murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Shunda pedagog an`anaviy ta`lim metodlaridan chiqib, noan`anaviy yo`sinda saboqlarini tashkil etishi samarali natija beradi.

Fonetika bo`limi haqida biz o`quvchilarga 5-sinf yangi ona tili darsligida anchagina to`liq ma`lumot va tushuncha beramiz. 5-sinf ona tili darsligida fonetika bo`limiga oid nutq tovushlari, unli va undosh tovushlar nutq a`zolari haqida ma`lumotlar va fonetik o`zgarishlar haqida bilim, ko`nikma va malaka hosil qilishimiz o`zbek tili grammatikasiga kirishga debocha bo`lishi shubhasizdir.

So`z turkumlari 6-7 –sinfda o`tiladi , gap bo`laklari 8-sinfda o`tiladi , 9-sinfda qo`shma gaplar, ko`chirma gaplar o`tiladi.Shunday ekan, 5-sinf ona tili darsligini fonetika bo`limi bilan boshlaymiz . Agar shu bo`lim o`quvchilarga yaxshi o`qitilsa yuqori sinfda ham , to maktabni bitirganidan keyin ham bu o`quvchi oliy o`quv yurtiga kirishi uchun

tayyorlanayotgan vaqtda ona tilidan repititor o`qituvchi qidirmaydi .Shunday ekan , biz fonetika bo`limini keng va chuqur o`rgatish bilan ularga oson tushunishi uchun sodda usullardan foydalanib o`tishimiz mumkin .5-sinf ona tili darsligida berilgan 7- 36 dars mavzulari fonetika va grafika bo`limiga bag`ishlangan. Matn va lo`g`atlar bilan ishlash esa mavzularni mustahkamlashga va o`quvchini mustaqil va kireativ fikrlashga undaydi.

Demak , dastlab fonetika haqida ma`lumot beramiz . Fonetika so`zi grekcha ***phone*** so`zidan olingan bo`lib , " tovush " degan ma`noni bildiradi .

Fonetika –og`zaki nutqning tovush tizimini o`rganuvchi bo`lim .

Aslida tovushlar 2 xil bo`ladi :

1. Tabiiy tovushlar
2. Nutq tovushlari

Tabiiy tovushlar – tabiat hodisalari natijasida hosil bo`ladigan tovushlardir. Masalan, tevarak - atrofdagi mashina signali , daraxt barglarining shitirlashi , oyoq tovushi va boshqalar …

Biz fonetika bo`limida nutq tovushlarini o`rganamiz . Nutq tovushlari esa bu insonning nutq a`zolari harakati natijasida paydo bo`ladi .

Keling , avvalo , nutq a`zolarini bilib olamiz :5-sinf ona tili darsligida bu mavzuga bir soat ajratilgan. Mana shu bir soat dars davomida o`quvchilar nutq a`zolari haqida bilimga ega bo`lishadi.

O`pka, bo`g`iz , tovush paychalari , og`iz bo`shlig`i , tanglay , til, lab ,burun, tish , kabilar kiradi . Nutq a`zolarini tushuntirishda 5-sinf darsligidagi nutq a`zolari chizmasi kattalashtirilib ekranda rangli tasvirda ko`rsatish mumkin . O`qituvchi har bir nutq a`zosiga to`xtalib tushuntirishi kerak . Mana bu o`pkadan chiqadigan havo og`iz bo`shlig`iga kelib til va tish , lablar harakatidan tovush chiqishini aytishi lozim . Nutq tovushlarini talaffuz qilib, o`quvchilarga amalda tushuntirish samarali bo`ladi

Har qanday tovush havoning tebranishidan hosil bo`ladi .

2 ta o`quvchi doskaga chiqarilib qo`liga qizlar sakrab o`ynaydigan arg`amchi yoki shu kabi mustahkam ip beriladi . Ular shu arg`amchini ikki tomonga tarang tortishadi .O`qituvchi esa arg`amchini o`rtasidan tortib undan chiqayotgan tovushga o`quvchilarning diqqat qilishlarini so`raydi.

Nima uchun tovush hosil bo`ldi ? O`ylab ko`ring-a?

Chunki bunda havoning tebranishi bor .Havoning tebranishidan tovush hosil bo`ladi .Bizning nutq tovushlarimiz ham o`pkadan chiqayotgan havoning tebranishidan hosil bo`ladi .Biz tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz . Harfni esa yozamiz, ko`ramiz va o`qiy olamiz. Tovushning yozuvdagi belgisi harf deyiladi .Shu tariqa o`quvchilar grafika nimaligini ham bilib olishadi .

Men ***a*** deb talaffuz qilaman ,uni yozuvda ***a*** shaklida yozaman , deyish orqali o`quvchilarga tovush va harf alohida hodisa ekanligi singdiriladi . Biz bu dars orqali tovush haqida yana bir ma`lumotni berishimiz mumkin .

Nutqimiz gaplardan , gaplar so`zlardan , so`zlar bo`g`inlardan , bo`g`inlar esa tovushlardan iborat . Tovush boshqa bo`lakka bo`linmaydi .

Demak , bo`linishning oxirgi nuqtasi bo`lgan boshqa mayda bo`lakka bo`linmaydigan nutq parchasi tovush deyiladi .Nutq tovushlarini nutq jarayonida real talaffuz qilamiz va ularni qulog`imiz bilan eshitamiz . Shu tariqa o`quvchilarga birinchi dars : fonetika bo`limi haqida ma`lumot berilishi mumkin. Mashqlar bajarib bilimlar mustahkamlanadi .Keyingi darslarda unli tovush va undosh tovushlarning hosil bo`lishiga alohida to`xtalib ular haqida to`liq ma`lumot beriladi .

- O`pkadan chiqayotgan havo biror to`siqqa uchramasa,faqat ovozdan (undan) iborat, cho`zilish xususiyatiga ega , bo`g`in hosil qiladigan , urg`u qabul qiladigan tuvushlar unli tovush deyiladi .

Ular : a , o , i , u , e , o` .

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O`quvchilarga unli tovushlarni talaffuz qildiramiz . To`siqlarga uchramayotgani , faqat ovozdan iborat ekanligini yana uqtiramiz .Unli tovushlar to`siqqa uchramaydi ,biroq nutq a`zolari harakati natijasida paydo bo`ladi . Shuning uchun ularni 3 tomonlama tasnif qilishgan :

1. Tilning vertikal (tik )harakatiga ko`ra :
   1) Yuqori tor unli : i , u ( tilning o`rtasi yuqori tanglay tomon ko`tariladi)
   2) O`rta keng unli : e , o`
   3) Quyi keng unli : a , o
2. Tilning gorizontal (yotiq ) harakatiga ko`ra .
   1) Oldi qator inlilar : i , e , a
   2) Orqa qator unlilar : u , o` , o
3. Lablarning ishtirokiga ko`ra :
   1) Lablangan unlilar : u , o`
   2) Lablanmagan unlilar : i , e , a ,
   3) Oraliqdagi unli : o

Har bir tasniflar alohida yuqoridagi grafik orqali tushuntiriladi .

Masalan : 3- tasnif lablarning ishtirokiga ko`ra .

Agar lablarimiz unli tovushni talaffuz qilayotganimizda oldinga qarab harakatlansa ,ya`ni cho`chchaysa lablangan unli hisoblanadi : ular u, o` .Qani , hammangiz talaffuz qilib ko`ramiz..O tovushi oraliqda qoladi .Lablanganga ham , lablanmaganga ham kirmaydi . Yuqorida aytib o`tilgan 1– tasnif , ya'ni tilning tik harakatiga ko`ra tasnif ba`zan og`izning ochilishiga ko`ra deyilishi ham mumkin .

1.Tor unli : i, u

2. O`rta tor yoki o`rta keng unli : e, o`

3.Quyi keng unli : a,o

Haqiqatdan ham , og`iz i , u tovushida tor ochiladi , e , o` da esa o`rtacha,

a , o tovushida keng ochiladi .Bunday tushuntirish ham o`quvchilarni oson o`zlashtirishiga yordam beradi .

Tilning gorizontal ya`ni yotiq harakatiga ko`ra i , e , a tilning oldi qismida hosil bo`lgani uchun oldi qator ; u , o` , o orqa qator ekanligini talaffuz qildirib tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi . Unlilar tasnifi slaydlar yordamida ekranda kattalashtirib , o`quvchilarga tushunadigan sodda qilib o`tilishi lozim. Savol- javoblar bilan mustahkamlanadi , har bir darsni boshlashdan oldin o`quvchilarga muntazam tezkor savollar aynan fonetika bo`limi bo`yicha berib borilsa , ular bu tasniflarni oson yodlab oladi .O`quvchilarimiz to oliy o`quv yurtiga kirayotganda savol ichida savol tariqasida tuzilgan testlar berilsa ham , to`g`ri javoblarni topa oladi .Masalan :

Qaysi yasama so`zning so`z yasovchi qo`shimcha tarkibida yuqori tor unli qatnashgan ?

A) Gulzor
B) Paxtakor
C) Boyi
D) Gulni

Testni ishlash uchun o`quvchi avvalo yuqori tor unli qaysi ekanligini bilishi kerak , so`ng qo`shimchalarni ajrata olishi kerak .

Ushbu testda yuqori tor unli A , C ,D javoblarida bor . A javobni olmaymiz, chunki bunda yuqori tor unli u tovushi asosda (o`zakda) qatnashgan, D javobni ham ololmaymiz , chunki - ni qo`shimchasi so`z yasovchi qo`shimcha emas , demak ,to`g`ri javob C bo`lib boy so`ziga – i so`z yasovchi qo`shimcha qo`shilib fel yasagan . Men tanlagan mavzu shunday dolzarbki ,buni o`quvchi yaxshi o`zlashtirsagina keyin boshqa savollarga javob topa oladi Mana nima uchun abiturientlar ona tilidan test ishlashga qiynalishadi .Demak, biz 5- sinfdan boshlab har bir bo`limni o`quvchilarning puxta o`zlashtirishiga erishsak , ular ona tilidan berilayotgan testlarni tushungan holda qiynalmay bajarishadi .

unli tovushlar mavzusini mustahkamlash bilan bir nechta metodlarni dars davomida qo`llashimiz o`quvchilarning eslab qolishiga imkoniyat yaratadi.

“IZQUVAR O`QUVCHI” ta`limiy o`yini.

Mazkur o`yinda o`quvchilar guruhlarda faoliyat olib boradilar. Sinf doskasiga o`qituvchi bir necha unli tovushlari tushirib qoldirilgan so`zlar yozilgan kartochkalarni ilib qo`yadi. Stolda esa bir necha unli harflar yozilgan kichik kartochkalar turadi. Har bir guruhdan tayinlangan izquvar o`quvchi so`zda yetishmayotgan harfni topib, so`z hosil qiladi. qolgan guruh a`zolari harf haqidagi ma`lumotlarni aytadilar. va guruh uchun bir ball olib beradilar. Boshqa guruhlarda boshqa variantlar bo`lsa, ko`rib chiqiladi. va izohlanadi. Masalan, z…ra, q…t…q, …sm…n, q…y…q o`quvchilar berilgan so`zlarga kerakli tovushlarni ma`no farqlash vazifasi yuzasidan bilimlarini mustahkamlashda “IZQUVAR O`QUVCHI” ta`limiy o`yinining o`rni kattadir.

“IKKITA TO`G`RI BITTA XATO” ta`limiy o`yini

bu o`yin fonetika bo`limi yuzasidan istalgan mavzuning mustahkamlash qismida tashkillanishi mumkin. bunda sinf ikkita kata guruhga bolinishi mumkin.

Unli va undosh tovushlar yuzasidan mustahkamlash darsida o`qituvchi o`yin uchun birinchi guruhga unli tovush bilan boshlanuvchi so`zlar , ikkinchi guruhga undosh bilan boshlanuvchi so`zlarni topshiriq qilib beradi.

**ONA, AKA, GUL- mazkur uchtalikda “gul” so`zining undosh tovush bilan boshlanganini o`quvchi bilishi kerak.**

**Mazkur o'yin undoshlarning talaffuzi va imlosidagi barcha saboqlarda,bo'g'in va urg'u haqidagi darslarda ham o'wuvchilatga mavzuni o'zlashtirishida yaxshi natija beradi.**

**Fikrlarim xulosasi o'rnida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topfim:"Biz hozirgi zamon talablariga mod kelafigan va zarur**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**bilimlar bilan qurollangan,mantiqiy fikrlaydigan,liderlik qobiliyatiga ega bo'lgan vatanparvar yosh avlodni tayyorlashimiz kerak".**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .**


**1. 5- sinf Ona tili darsligi. Toshkent."Ma'naviyat nashriyoti 2020 yil**

**2. Saparboyev I. Ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'quvchilarda tayanch kompitensiyalarni shakllantirish yuzasidan YURIQNOMA.**

**Toshkent-2014-yi**

**3. htt://uzedu.uz/**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# SAMARALI O'QITISH JARAYONIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TATBIQ ETILISHI

Samarqand viloyati Narpay tumani 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Qilicheva Sitora

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash ,interaktiv metodlardan foydalanish,o'quvchilar ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka , o'zaro hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarni ravon bayon etishga chorlashi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** samarali, ona tili, adabiyot, dars, innovatsion texnologiya, metod, o'yin masofaviy ta'lim.

## Kirish

Ma'lumki bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur.

## Asosiy qism

Hech kimga sir emaski , umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurgaega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir. Allomalarimiz aytganidek: "Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi". Shunday ekan, o'quvchilarni mangu el – ona zaminga

mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, eng avvalo, ona tilini o'qitish jarayonida amalgaoshiriladi. Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisining xizmati naqadar mas'uliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars – muqaddas! Demak, maqsad bitta, u ham bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifatini oshirib, ularda kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o'z fikriga, o'z so'ziga ega bo'lgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib, yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek,hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda.

Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, endi o'qituvchidan an'anaviy darsdan noan'anviy darsga o'tish talab etiladi:

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;

b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;

e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Noan'anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi,Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars»,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

«Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Bu kabi interaktive metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanilishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savoljavob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi,qiziqishlari,o'gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatlari va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi.Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga ega.Chunki, bolalarni charchatmaslik va ularni oqilona tanlangan 3-4 daqiqalik harakatli o'yilar orqali miyaga va mushaklarga dam berish ham ustozning vazifasi hisoblanadi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, hozirgi zamon bilan bog'lash orqali ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ham oshirib borish, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berilishi lozim.

Shuningdek ona tili va adabiyot darslari davomida komputer texnologiyalardan foydalanishdir.Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi,so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim.Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini

ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga,ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

**Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mukinki, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar,o'yinlar va komputer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1**.Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).

**2.** To'qliyev B., Niyozmetova R. va b. Til adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.

**3.**Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.

**4.**Muslimov N. va b. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent, 2015.

**5.**Abdullayeva M. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnalogiyalari va loyihalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. – T., 2017.

**6.**Omonov H va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.,2012.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# UCHINCHI RENESSANS KITOBXONLIKDAN BOSHLANADI.

*Bektursinova Gúlmira*
*gulmira.bektursinova1992@mail.ru*
*(Ózbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali Madaniyat va kutubxona faoliyati kafedrasi óqituvchisi)*

**"Kitob beminnat ustoz, bilim va mánaviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai"**

**Alisher Navoiy.**

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bólgan. Har bir davrning óz extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati óz fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida etibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "Óqish madaniyati" kabi atamalar bilan qóllanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni tógri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, málumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan ózini qiziqtirgan málumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bólgan málumotlarni ola bilish, óz kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan tógri foydalanish yóllarini órganish ham tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini tóliq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qóllash órinlidir.[1]

Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka órganish uchun qanchalik kóp vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bağishladim, lekin hali ham órgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus ózining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday tárif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir kózadan ikkinchi kózaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb

yozadi H.Tóxtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga kótarilgan. Kitobxonlik kitobni tarǵib qilishgina emas, balki kitob óqishni, óqiladigan kitobni tanlay olishni, maǵzini chaqishni, yáni kitob yordamida ózini anglashni órgatish hamdir».

Mashhur fransuz faylasufi Frans Bekon "Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir" deb bejiz aytmagan. Zero, kitob aqlni charhlaydigan, aql buloǵini ochadigan va uni ilhomlantiradigan buyuk mó'jizadir. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati mánaviy taraqqiyotidagi beqiyos órni qadimdan málum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga gózallikka muhabbat uyǵotish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyǵusini paydo qiladi.[2]

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning ózi ham yuksak didga ega va márifatli va bilimli bólishlari kerak. Málumki, bola kitob óqishni bilgan taqsirdagina, kitob uning mánaviy hayotida muhim rol óynaydi. Kitob bolaning mánaviy boyishi uchun uni mánaviy, aqliy, estetik ósishga yóllashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga óqib berilgan birinchi kitob bólsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining óqishini eshitib, badiiy obrazlar gózalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi ósmirlik davrida uning mánaviy hayotining barcha sohalari: mehnat, óyin, musiqa, bolalar ijodi bilan boǵliq bólib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, ósmir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, óyin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli mánan barkamol shaxs bólib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson chánaviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob, kitobxonlikdir.[4]

Axborot oqimi kuchayib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborotlar bilan tólib toshgan bugungi kunda barcha fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning mánaviy tafakkurini tarbiyalash, ularda mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu

madaniyatni doimiy va muntazam kónikmaga aylantirish har qachongidan kóra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[3.b.1]

Málumki, tarixda ótgan buyuk allomalarning barchasi kitobni nurga, tafakkur quvvatiga, mánaviyat timsoliga, bilim manbaiga, eng yaqin maslahatdosh va sodiq dóstga tenglashtirganlar va qiyoslaganlar.

Insoniyat jamiyatining ikki ming yilligi davrida kóplab olamshumul kashfiyotlar qilingan bólsada uning taraqqiyotiga beqiyos hissa qóshgan buyuk voqea sifatida kitob chop etishning ixtiro qilinishi dunyo olimlari, siyosatchilari, jamoat arboblari jamoat tashkilotlari tomonidan bir ovozdan tan olingan.

Ota-onalar farzandlariga ularning yoshi, qiziqishi, didini hisobga olib kitob tanlashga yordam berishi, mutolaa uchun tanlangan kitobning tarbiyaviy jihatlariga alohida e'tibor berishlari talab qilinadi. Bunda avvalo ota-onaning ózlari muntazam mutolaa bilan shuǵullanishlari, farzandlariga namuna bóla olishlari asosiy ahamiyatga egadir. Tálim muassasalarida yáni bolalar boǵchalari, quyi sinflar, órta sinflar, yuqori sinflar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari óquvchilari, oliy óquv yurtlari talabalari uchun ularning yosh xususiyatlari, mutaxassisliklarini hisobga olgan holda óqib chiqishi zarur bólgan adabiyotlarning qat'iy róyxatini tuzish, órganish darajasini nazorat qilish, raǵbatlantirishning takomillashgan metodikasini yaratish zaruriyati paydo bólmoqda.[5.b 62]

Tálim muassasalarida kitob mutolaasi tarǵiboti millatning tili, tarixi, dini, mustaqilligi, erkinligi, manfaati nuqtai nazaridan amalga oshirilsagina maqsadga erishish mumkin.

Kitobxonlik - bu insonning óz ustida ishlashi, faoliyatini málum yónalishga burib yuborish, ongida málum tuyǵularni, etiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni óylashga, hayotda qanday yashashga órgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning mánaviy ógitlarini ilǵab olish va bular asosida óz hayot yóli dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir óqigan kitobidan yangilik topish, mánaviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yóllasa, uni óqimaslik johillikka, márifatsizlikka olib kelib, natijada mánaviy bolada qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat.[6]

Agar dorixonalar kóp bólsa, kasallar kóp bóladi. **Agar kitob dókon kóp bólsa, kitobxonlar soni ortadi.** Olam shunday mexanizm bilan yaratilgan. Odam kitob o'qisa, ruhiyati shakllanadi. Kitob miyadagi ishlamagan to'qimalarni ishlatadi. Bitta kitobni óqib ma'nan ozuqa olsa, u odam olimga teng. "Kitob tafakkur qanotidir", degan edi alloma adibimiz Oybek. Kitob óqigan inson, qaysi sohada ishlamasin, tóǵri fikrlash, oqu qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish kónikmasiga ega bóladi. Bundan tashqari, nutqi ravon bóladi, odamlarni óz ortidan ergashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar róyxati:

1. "Yangi Ózbekistonning istedodli yoshlari". Ilmiy ishlar tóplami. Ikkinchi kitob. Toshkent. "Tálim nashriyoti" 2021.5 b
2. XIX asrda bolalar kitobxonligi: "Yoshlarni mánaviy-axloqiy tarbiyalashda oila va kutubxona hamkorligi" mavzusidagi konfrensiya materiallari
3. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. T.: Fan, 2004.
4. E.I.Yo'ldoshev. Kutubxonada bolalar óqishiga rahbarlik qilish. T.: "O'zbekiston", 2002.- B 25
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-betlar
6. Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения и общедоступных библиотеках. Дисс.канд.пед наук. 1997.157с.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O`ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI JAHON BOZORLARIDA ILGARI SURISH YO`LLARI

***Odilova Aziza Akml qizi***
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*
*Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 2-bosqich talabasi*

*azizaodilova0806@gmail.com*

*tel : +998900897772*

## ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda dunyo miqyosida globalizatsiyaning kuchayib ketishi eng muhim jihat sifatida qaraladi. Ayni paytda bu jihatlar xalqaro maydondagi raqobatning keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro bozorlarda o'z mavqeini mustahkamlash uchun iqtisodiy faoliyatini kuchaytirishiga ham ta'sir ko`rsatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish har bir mamlakat uchun nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

***Kalit so'zlar :*** *Tashqi siyosat, Tashqi iqtisodiy faoliyat, Xalqaro valyuta fondi Import, Eksport,*

Shundan kelib chiqqan holda, dunyodagi shiddatli o'zgarishlar, yangi tahlikalar paydo bo`lishi va yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topishga majbur qilishi O`zbekistonga ham daxl qilmay qolmaydi. Bu xalqaro o`zgarishlar O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining barqarorligi va bosqichma-bosqichligi, uning asosiy yo`nalishlarini o'z o`rniga qo'yishga katta ta'sir ko`rsatadi. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilash taqozo etiladi. Tashqi siyosatning qanday asosiy vazifalarga yechim topish kerakligidan kelib chiqqan holda davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, islohotlarni amalga oshirish, hayot sifatini ko'tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish eng muhimi hisoblanadi. Hech qanday mamlakat jahonning boshqa mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirmasdan turib mustaqil holda rivojlana olmaydi. Bu esa, o`z navbatida, iqtisodiy rivojlanishning jahon tajribasini o'rganish, boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni talab etadi.

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalariga hozirgi bosqichdagi ustuvor masalalardan biri sifatida qaramoqda.

Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar barcha qonunlarda o'z aksini topmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va me`yoriy huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Bu tizim asosida tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy baza xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta`minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Bu farmonga ko`ra, keng iste`mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar xorijiy valyuta toshirish va uni Markaziy bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to`lashdan ozod qilindi. Bu farmonni ijrosini ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi respublikamizning Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va O`zbekistonning boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqdi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Hozirgi kunga kelib esa, O'zbekiston 140 dan ortiq davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan. Shulardan 42 tasi o'zaro savdoda qulaylik berish rejimi tadbiq etilgan, 47 ta davlat bilan esa investisiyalarni o'zaro himoya qilish bo'yicha bitimlar imzolangan (2006). O'zbekistonning Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa va Amerikaning 70 dan ortiq davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Yuqorida qayd qilinganidek, iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishida ustuvor hisoblangan bosqichda asosiy diqqat-e`tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu sababli ham, yuqorida sanab o`tilgan omillar sifatli tovarlarni yaratishga yo`naltirilgan imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, umumiy ko`rinishda tashqi iqtisodiy aloqalar bir necha yo`llar orqali amalga oshiriladi :

1. Import tovarlarining iste'molchilari ;
2. Eksport mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar darajasida

3. Xalq xo`jaligi darajasida- eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadiga xarajatlar, transport sarflari, import qilinayotgan tovar sarflari .

Jahon bozori bilan hamkorlikni rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror siyosati orqali amalga oshiriladi:

- islohot yo'llarida ularning amalga oshishi qator ijobiy natijalar bermoqda.
- tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borish ko`pgina yangi boshqaruv va tashkiliy-xo`jalik tuzilmalarini yaratishga imkon beradi:
- huquqiy va normativ bazalar ishlab chiqishga sabab bo`ladi; ular respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi,
- tashqi iqtisodiy kopmleks infratuzilmasining keng tarmog`i shakllanmoqda hamda tashqi savdo, elchixona, xalqaro iqtisodchilikda kasbiy mahoratga ega bo`lgan kadrlar tayyorlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari».
2. Mamatov S.A.: "Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o`rni va ahamiyati"
3. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING AYRIM JIHATLARI (cyberleninka.ru)
4. https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1245
5. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13161-o-zbekistonning-tashqi-iqtisodiy-aloqalari
6. http://taqvim.uz/uz/event/view/1473
7. http://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati.html

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# "TARIX-I ARBA ULUS" ASARI NOMSHUNOSLIKNING MADANIY YODGORLIGI SIFATIDA

***Mamadaliyev Sirojiddin Inomjon o'g'li***

***Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti***

## ANNOTATSIYA

Maqolada Mirzo Ulug'bekning "Tarix-i arba ulus" ("To'rt ulus tarixi") asarida qo'llangan onomastik birliklar, jumladan, antroponim, toponim, etnonimlar haqida fikrlar bayon etilgan. Mazkur yodgorlikda saqlanib qolgan tarixiy onomastik leksikonning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Nomlarning tarkibiy tahlili, etimologiyasiga doir fikrlar bayon etilgan. Onomastik birliklarning qo'llanish darajasi, statistikasini aniqlash maqsadida statistik metod va ularni katalog (kartochka)larga tushirish hamda sistemalashtirish uchun tasviriy hamda etimologik tahlil metodidan foydalanilgan. Maqola natijasidan olingan xulosalar bugungi kunda soha oldida dolzarb bo'lib turgan bir qancha muammolarni bartaraf etishda, xususan, hozirda tarkibi va ma'nosi lisoniy tadqiqqa muhtoj sanalgan ko'plab onomastik birliklarning etnogenezisi, etimologiyasi va lug'aviy qatlamlarini aniqlashda, ularning nominatsiyasini o'sha davr nuqtayi nazaridan baholashda, omonimlarning ilk shakli va qadimiy variantlari, ular bilan bog'liq fonetik, leksik jarayonlarni boshqa davr manbalari onomastikasi bilan o'zaro qiyoslash hamda shu orqali ilmiy xulosalar chiqarishda ahamiyatli hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** onomastika, antroponim, toponim, etnonim, laqab, madaniy yodgorlik, apellyativ nom, etimologiya, etnogenez, "To'rt ulus tarixi".

## KIRISH

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda jadal rivojlangan sohalardan biri onomastika (yun. *onomastikos* - nom berish san'ati)dir [1, 60]. Ushbu bo'limning o'rganish obyekti bo'lgan nomlar o'zining paydo bo'lishi, funksional xususiyatlari, shuningdek, mohiyatiga ko'ra ma'lum bir xalqning ma'naviyati, urf-odatlari, etimologiyasi, ijtimoiy-siyosiy va

falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi o'ziga xos lisoniy qatlam hisoblanadi. Bunday xususiyatlarni ochib berishda tarixiy onomastikaning o'rni beqiyosdir. O'zbek onomastikasining shakllanishi va rivojlanishida E.Begmatov, S.Qorayev, Z.Do'simov, T.Nafasov, T.Ernazarov, L.Karimova, N.Uluqov kabi olimlarning tadqiqotlari asosiy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu tadqiqotchilar nomshunoslik sohasidagi fundamental bilimlarni yaratishdi va tilshunoslikka tatbiq etishdi. Shunday bo'lsa-da, turli yo'nalishlarda tadqiq etib kelinayotgan nomshunoslik sohasining tarixiy-lisoniy va madaniy ahamiyatga molik qadimiy nomlarni diaxronik aspektda, ya'ni atoqli otlarning tarixiy rivoji va nominativ vazifalarini o'rganuvchi [1, 73] tarixiy onomastikasi bugungi kunda o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

O'tmish davrlarga mansub xalq tarixi, madaniyati va tili haqida muayyan qimmatga ega ma'lumotlarni ifoda etgan atoqli otlar – … o'zbek tarixiy onomastikasi, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy bitiklar (tarixiy asarlar, memuarlar, axloq-odobga, falsafa va diniy e'tiqodga bag'ishlangan qo'lyozmalar, Xiva, Qo'qon, Buxoro va boshqa xonliklarning yozma arxiv materiallari) dagi nomlar deyarli tadqiq qilinmagan [2, 22]. Ushbu manbalardagi tarixiy leksikonning ilmiy jihatdan tadqiqqa tortilishi nomlarning qadimiy qatlamlari, ya'ni atoqli otlarning paydo bo'lishiga ko'ra o'tmish davrlarga mansub ko'rinishlari, onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tuzilishi, ularning fondi va migratsiyasinining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek xalqining boy madaniy merosi va o'tmishdagi falsafiy qarashlari, udumlari, otlarning atalish sabablari, shuningdek, ular nomenklaturasining yaratilishida tilshunoslik sohasining o'rni va ahamiyatini ochib beradi. Millatimiz tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va madaniyati uchun qimmatli bo'lgan nomlarni o'zida saqlagan madaniyat yodgorliklari bo'lgan "Avesto", O'rxun-Enasoy obidalari, A.Navoiy asarlari, Z.M.Boburning "Boburnoma", A.Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarlari qatorida Mirzo Ulug'bekning "Tarix-i arba ulus" ("To'rt ulus tarixi") asari [3] ham alohida o'rin tutadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

XX asr oxirlariga kelib tarixiy nomshunoslikka e'tibor berila boshlandi. Uning mohiyatini ochish va qadimiy yodnomalar tilida saqlanib qolgan son-sanoqsiz leksik birliklarni o'rganish maqsadida bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Xususan, N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoevlarning Alisher Navoiy onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasiga, I.Xudoynazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Zero, bu kabi o'rganilgan ishlar tarixiy onomastikaning poydevori bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ammo sanab o'tilgan tadqiqotlar tarixiy nomshunoslik sohasidagi barcha muammo va masalalarning yechimini topib bera olmaydi. Yuqoridagi ishlarda asosan tavsifiy va statistik metodlardan foydalanilgan xolos. Tarixiy yodgorliklardagi onomoleksikonni tarixiylik tamoyiliga asoslangan tarixiy metod, qiyosiy-chog'ishtirma metod, birliklar ifodalaydigan ishora va belgilarga tayanuvchi semiotik metod, shuningdek, badiiy va publitsistik matnlarda qo'llangan onomastik birliklarning uslubiy talqinini berish, ularning matndagi funksional xususiyatini aniqlashda qo'llanuvchi stilistik metod, bundan tashqari, lingvopsixologik, etimologik metodlar asosida o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz o'rganishni maqsad qilgan Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asari XV asrda yaratilgan bo'lib, o'sha davrga xos bo'lgan o'tmishdagi nomlar haqida qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Bizning tadqiqimizga ko'ra, u o'zida 1148 ta tarixiy leksikonni mujassam etgan bo'lib, onomastika sohasining tarixiy antroponimiyasi, urug' va elatlarning o'ziga xos etimologiyasini ochib beruvchi madaniy yodgorliklar sirasiga kiradi. Ushbu asarning onomastik ko'lamini quyidagicha tadqiq qilish mumkin:

**1. Antroponimlar** yunoncha so'z bo'lib, *antropos+onoma* — atoqli ot so'zlaridan olingan va kishi atoqli otlarini ifodalaydi [1, 13]. …o'tgan davr mobaynida o'zbek tilidagi kishi nomlari yuzasidan olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar tufayli antroponimika

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

endilikda o'zbek onomastikasining rivojlangan bo'limiga aylandi. Bunda o'zbek ismlari, ularning leksik-semantik xususiyatlari, adabiy va lahjaviy ko'rinishlari, ismlarning grammatik tuzilishi, yasalishidagi o'ziga xosliklar, o'zbek ismlarining sotsiolingvistik-motivativ ma'nolarini izohlashga bag'ishlangan lug'atlar, o'zbek ismlarining o'z va o'zlashgan qatlamiga oid tadqiqotlar ismlar fondining taraqqiyoti hamda boyish xususiyatlariga daxldor tarixiy, etnik, madaniy-ma'naviy, lingvistik omillarga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo tarixiy yozma yodgorliklar, folklor asarlari, matnlari va boshqa manbalarda saqlanib qolgan antroponim materiallarini sinchiklab to'plash va o'rganish lozim. Bu ishda, ayniqsa, ba'zi obyektiv va subyektiv sabablar, tazyiqlar ta'sirida o'tmishda iste'moldan chiqqan nomlarni aniqlash, ularni yangidan iste'molga kiritish davr talabidir [2, 260].

Ana shu talab doirasida o'rganilayotgan "To'rt ulus tarixi" asari antroponimiyasining material fondi 680 tani tashkil etadi. Ushbu antroponimik nomlarni lug'aviy-nominativ nuqtayi nazardan tahlil qilinganda ismlar va laqablar quyidagi ko'rinishda uchrashini aniqlash mumkin:

*4)* bir komponentli ismlar – *Qo'bilayxon, Erdumchi, O'g'lay, Tobonxon, Naymanxon, Nangxon, Jamuqa, Shingun, Valixon, Go'rxon, Ko'shluq;*

*5)* tarkibli ismlar – *Qo'zi Suboj, Toyir Osun, Oloqush sakin, Yag'li Ko'yong, Go'tari Suzun, Omad Xo'jandiy, Aloulmulk Termiziy, Qoracha Hojib.*

Tarkibli ismlar o'z navbatida urug', elat nomi, ya'ni etnik laqab bilan yoki mansab va unvon bilan birga kelgan ismlarni ham o'z ichiga oladi: *Qonuqo no'yon, Arg'un o'g'a uyrot, Bilqutu qoon, Mo'tadim Billoh halifa.*

*6)* arabcha kunya shaklidagi ismlar – *Ofaridun Tur ibn Faridun, Sevinchxon ibn Boyduxon, Boyduxon ibn Oduxon, Oduxon ibn Etsizxon;*

*7)* laqablar – *Iskandari Soniy, G'oyirxon, Bolig'iy, Bolig' no'yon, Hoja Rukniddin soniy, Allomayi Xoja Nasiriddin Tusiy.*

**2. Toponim** yunoncha *topos* – joy va *onoma* – nom so'zlaridan tarkib topgan. Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir [5, 6].

Tadqiq etilayotgan asarning eng ko'p qismini antroponimlar tashkil etgan bo'lsa, undan so'ng toponimlar salmoqli o'rinni egallaydi. Unda toponimik materiallardan 287 tasi o'z aksini topadi. Asarda tilga olingan joy nomlari toponimikaning bir qismi bugungi kunda ham o'z ma'nosini saqlab kelmoqda. *Masalan, Hindiston, Xitoy, Jidda, Makka, Iroq, Ozarbayjon, Xorazm, Farg'ona, Samarqand va boshqalar.* Ammo til o'zgaruvchan hodisa bo'lgani bois so'zlarning ayrimlari butunlay iste'moldan chiqsa, ayrimlari esa o'z faolligini yo'qotadi va o'rniga boshqa birlik ishlatilishi kuzatiladi. O'z navbatida, tadqiqotimiz obyektida ham bunday toponim-arxaizm, ya'ni joyning hozirda iste'moldan chiqqan, tarix mulkiga aylangan nomi ham uchraydi. Xususan, *Talotin, Talosh, Salosi, Go'r, Jandum, Uvbo, Ahvaz, Tekyos, Xurcha, Bandari, Mukyon, Mazulfa, Najaf va boshqalar.*

Muallif ayrim apellyativ asosli nomlarni ham o'z izohi bilan keltirib o'tadi: *"...Hulokuxon ibn Tulixon ibn Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam o'zining katta bobosi ruxsatini olib, Pasokuh yo'li bilan Xuroson sari jo'nagan edi. Yo'l davomida tosh-u xarsanglarning ko'pligidan ularning otlaridan anchasining oyoqlari shilindi, yurishga majoli qolmadi. Nochor u otlarni o'sha sarzaminga qoldirdilar. Har firqadan bir necha odam ajratib, otlarni qo'riqlashga qoldirdi. ...Hulokuxon Xurosonga borib, otasi lashkariga qo'shildi. Qoldirilgan odamlarni eslamadi ham. Shu sababdan yorliqqa xilof tarzda o'sha joylarda yashab qoldilar. Qisqa bir davr ichida ulardan ko'plab farzandlar tug'ildi. O'sha sarzamin bugungi kunda Muriyi suturgoy nomi bilan mashhur bo'ldi. Mug'ul tilida otni muri deb atashadi. Suturgoy oqsoqlangan degani. Zeroki, aslida u odamlar otlar oqsay boshlagani sababidan o'sha joyda qolib ketdilar. Shu jihatdan ul mavzeni shu nom bilan ataganlar".* Shuningdek, asar fondida uchraydigan toponimika

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

leksikonini funksional-nominativ jihatdan oykonim, polisonim, oronim, nekronim kabi turlarga ham ajratish mumkin.

**3. Etnonim** so'zi yunoncha bo'lib, *ethnos – xalq + onoma – atoqli ot* so'zlaridan tashkil topgan. Har qanday etnos (urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqalar)ning nomi bir tilda mavjud etnonimlar majmuyi, yig'indisi, ro'yxati *etnonimiya*, nomshunoslikning, shuningdek, tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi esa etnonimika deb yuritiladi [1, 95].

Etnoslar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan. Bunday etnik birliklar o'zida ma'lum bir axborot tashiydi. Ular qadimiy so'zlar bo'lgani uchun xalqlarning etnogenezini, turmush tarzi, tili va diniga oid ko'pgina ma'lumotlarni mujassam etadi, shuning uchun ham etnonimlarni chuqur tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Etnonimlar etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali yaxshi o'rganilmagan sohasi bo'lib, xalqlar, millatlar etnogenezini yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi [5, 75]. "To'rt ulus tarixi" asari lingvistikaning onomastik materialiga boy manbasi bo'lishi bilan bir qatorda, etnonimlar etimologiyasini ko'rsatib beruvchi etnonimokon sifatida ham qaralishi mumkin. Asarda ayrim etnonimlarning kelib chiqishi haqida bir qancha ma'lumotlar beriladi: *"Sulton Muhammad O'zbekxon o'zining el-u ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga yetishgach, hazrati Sayyid Ota G'ayb ishorati va Olloh inoyati sababli ularning barchasini Movarounnahr diyori sari olib keldi. Hazrati Sayyid Otaga quloq solishdan bo'yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda qoldilar va qalmoq degan nomga mansub bo'ldilarki, buning ma'nosi "qolgan" demakdir. Hazrati Sayyid Ota hamda Sulton Muhammad O'zbakxon bilan hamrohlikda kelgan kishilardan: "Bu kelgan kim?" deb so'rardilar. Ularning sardorlari va podshohlari O'zbakxon bo'lgani uchun ularni o'zbek deb atardilar. Shu sababli o'sha zamondan boshlab kelgan kishilar "o'zbek" deb atala boshlandi. Qolib ketgan kishilar esa "qalmoq" deb ataladigan bo'ldilar".* Bu biroz munozarali bo'lsa-da, etnonimik birlikning etimologiyasini ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'rganilayotgan obyektda 71 ta etnik birlik qo'llangan bo'lib, ularni lug'aviy tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- yakka holda uchraydigan etnonimlar: *od, tammi, qarluq, qipchoq, samud, uyg'ur, jaloyir, darlakin kabi;*

- etnonimik indikatorlar bilan birga keladi va etnonim **urug', el, xalq, qavm, qabila** kabi so'zlar bilan ishlatiladi: *toyi urug'i, ash'ari urug'i, ziryoniylar qavmi, nayman qavmi, bodoy qabilasi, qirg'iz xalqi.*

Bundan tashqari, asarda *"Burqundan ikki o'g'il tug'ilgan. Birining nomiki Qabaqay deb ataganlarki, qaboqin qavmi uning naslidandir. Boshqasiga Qattag'on deb nom berganki, qatag'on qavmi undan",* shuningdek, Soljiyut nomidan saljiyut, Bodoy nomidan bodoy qabilasi kabi antropoetnonimlar ham qo'llangan. Bu esa ko'plab etnonimlarning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi. Turkiy xalqlar uzoq shakllanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu taraqqiyot davomida turk ulusi turli xalqlar bilan o'zaro aloqa o'rnatgan. Etnonimlarning kishi nomlari bilan bog'liqligi, tarixiy shaxslarning nomidan kelib chiqqanligi yoki elatning doimiy bajaradigan mashg'uloti, xalqlarning yashash joylari asosida shakllanganligi yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi.

## XULOSA

Tarixiy nomlar ajdodlarimizning o'tmishidan, ma'naviyatidan, yashash tarzidan darak beruvchi lisoniy xazinadirki, ularni o'rganish va tadqiq etish insonda o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantiradi hamda xalqning ma'naviy sarchashmalari tomon yo'l ochadi [6]. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asari milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan muhim tarixiy manba bo'lib, yuqoridagi onomastik ko'lamning komponentlari bilan bir qatorda gidronim, teonim, biblionim, kosmonim, agronim, xreonim kabi birliklarni ham o'zida tajassum etadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy nomshunoslikning asosi bo'lgan tarixiy onomastika qadimiy o'tmishimiz, madaniyatimiz va o'zligimiz haqida ma'lumot beribgina qolmay, ko'plab fanlarning bir qancha muammo va masalalariga yechim topa oladi. Xususan, xalq tarixi uchun madaniy va lisoniy ahamiyatga molik nomlar fondini o'zida mujassam etgan ushbu tarixiy asarning o'rganilishi nafaqat lingvistika, balki etnografiya, tarix, geografiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarning ham ma'lumotlar

xazinasini to'ldirib boradi. Eng asosiysi, leksik birliklarning kelib chiqish etimologiyasi, ularning morfem tuzilishi, ayni bir tushunchaning areal qo'llanishi haqidagi qimmatli dalillar o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda Mirzo Ulug'bekning "Tarix-i arba ulus" ("To'rt ulus tarixi") asari lisoniy meros sifatida beqiyos manbadir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган 2006. – Б. 60.
2. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. – Тошкент, 2013. – Б. 22.
3. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. – 421 b. Barcha misollar ushbu manbadan olindi.
4. Bunday asarlar ro'yxati haqida qarang: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – Б. 168.
5. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 6.
6. Шукуров Р., Жўрабоева Г. "Тарихи Рашидий" асари ономастикаси. – Фарғона, 2022. – Б. 15.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# MAVZU: AYRIM FANLARNI O`QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV: MUAMMO VA YECHIMLAR.

# SUBJECT: INNOVATIVE APPROACH IN TEACHING CERTAIN SUBJECTS: PROBLEMS AND SOLUTIONS.

# ТЕМА: ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ПРЕПОДАВАНИИ НЕКОТОРЫХ ПРЕДМЕТОВ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ.

*Muminova Umidaxon To`xtamurodovna*

*22-IDUM ning biologiya fani o`qituvchisi*

*Andijon viloyati Marhamat tumani*

**Annotatsiya.** Pedagogika sohasidagi ko`p yillik ish tajribamizdan shu narsa ma`lum bo`ldiki, darsliklarimizdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf eta olsak, o`quvchilarimizni bilim olishlari yanada osonlashar ekan. Hozirgi kunda O`zbekiston yoshlari xalqaro baholash tizimi bo`lmish PISA testlariga tayyorgarlik ko`rayotgan bir paytda bu ayniqsa zarur bo`lib qoldi. Ushbu maqolada maktablarda tabiiy fanlarni o`qitishda vujudga kelayotgan va maktab o`quvchilarini fanlarni o`zlashtirishlarida qiyinchilik tug`dirayotgan ayrim muammolar va ularni hal etishga takliflar keltirilgan.

**Abstract.** From our many years of work experience in the field of pedagogy, we have learned that if we can eliminate some shortcomings in our textbooks, it will be easier for our students to learn. Nowadays, this is especially necessary when young people of Uzbekistan are preparing for PISA tests, which is an international assessment system. In this article, some problems that arise in the teaching of natural sciences in schools, which cause difficulties for schoolchildren in mastering the sciences, and suggestions for their solution are presented.

**Абстрактный.** Из нашего многолетнего опыта работы в области педагогики мы узнали, что если мы сможем устранить некоторые недостатки в наших учебниках, нашим ученикам будет легче учиться. В наше время это особенно необходимо, когда молодежь Узбекистана готовится к тестам PISA, являющимся международной системой оценивания. В данной статье представлены некоторые проблемы,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

возникающие при обучении естествознанию в школе, которые вызывают трудности у школьников в освоении наук, и предложения по их решению.

**Kalit so`zlar.** Ta`lim, biologiya, ayrim fanlar, qiyinchilik, murakkab, fikr, tushuncha, soddalashtirish, oson tushinish.

**Key words.** Education, biology, some sciences, difficulty, complex, thought, understanding, simplification, easy to understand.

**Ключевые слова.** Образование, биология, некоторые науки, трудность, сложность, мысль, понимание, упрощение, легко понять.

**Kirish**. O`zbekiston o`zining rivojlanish yo`lini aniq qilib Harakatlar strategiyasida belgilab olgan va bu ishlarni 2017-2021 yillarda amalga oshirish rejasini tuzib chiqqan. Joriy 2020-yilimiz muxtaram prezidentimiz tomonidan " Ilm- ma`rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e`lon qilinishi ham bejiz emas, chunki hech bir davlat ilm- ma`rifatsiz, ta`lim- tarbiyasiz rivojlana olmaydi.

**Tahlil va natijalar**. Ta`limning asosiy bo`g`ini maktablar hisoblanadi, sababi bola 3 yoshdan 7 yoshgacha 3-4 yil bog`chada, 7 yoshdan 18 yoshgacha 11 yil maktabda ta`lim-tarbiya oladi. Ushbu 11 yil nafaqat ko`pligi bilan, balki, bola shu vaqt davomida bolalik, o`spirinlik, o`smirlik bosqichlarini bosib o`tishi, unda murakkab fiziologik, psixologik o`zgarishlar bo`lishi hamda shu vaqt davomida u turli xil fanlardan turli murakkablikdagi bilimlarni puxta o`zlashtirishi kerakligi talabi bilan ham ahamiyatlidir.

O`quvchilarga bilim berar ekanmiz shu bir vaqtning o`zida o`qituvchilarimizni "Qanday o`qitsam o`quvchilarim yaxshiroq tushunadi? Qanday usul bilan mavzuni soddalashtirishim mumkin? Ushbu mavzuni qaysi fanlar bilan bog`lashim kerak? Shu mavzuga boshqa fanlar nuqtai nazaridan qanday yondoshish mumkin? -degan savollar o`ylantirib kelmoqda. Ko`p vaqtlardan buyon ushbu savollar pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir. Biz kabi ko`p sonli o`qituvchilar fikr- mulohazalarini umumlashtirgan holda, quyidagi taklifni kiritmoqchimiz.

Tabiiy fanlar o`z ichiga fizika, kimyo, biologiya va geografiyani olar ekan, ularning barchasi tabiat xodisalari va qonuniyatlarini o`rgatishga qaratilgandir. Shunday ekan ushbu

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

fanlarni mavzular jihatdan bir-biriga moslashtirib o`qitsak, darsliklarni shunga mos ravishda tayyorlasak, o`quvchi hamda o`qituvchilar uchun qanchalar qulaylik va yengillik yaratilar edi. Masalan: geografiya fanidan 7-sinfda "Biogeografik viloyatlar" mavzusi o`qitiladi, aynan shu mavzu biologiya fanidan 10-sinfda o`qitiladi. Biologiyaning "Oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar mavzulari 9-10-sinflarda, xuddi shu mavzular kimyo fanida ham o`qitiladi, ammo boshqa vaqtda. Kimyo fanidan 9-sinfda "Uglevodlar tarkibi va guruhlarga bo`linishi, "Disaxaridlar, "Polisaxaridlar" mavzulari berilgan va aynan shu mavzular biologiya fanidan 10-sinfda o`qitiladi. Bunday misollarni fizika va kimyo fanlari o`rtasida ham ko`plab keltirish mumkin. Agarda biz ushbu fanlarni darslik kitoblarini yozgan mualliflarni bir joyda to`plab, umumiy hamkorlikda, hamfikr xolda mavzularini bir-biriga moslashtirgan holda qayta tuzib chiqa olsak, o`quvchilarga o`zlashtirishiga katta yordam bergan bo`lardik. Bunda o`quvchilar o`zlari (o`qituvchinig yordamisiz ham) fanlararo bog`liqlikni tushunishib, mavzularga har bir fan nuqtai nazaridan yondoshib, tushunchalari to`liqroq, chuqurroq bo`lishiga, o`zlashtirishlari osonroq va mukammalroq bo`lishiga erishardik. Bunda geografiyada boshlangan mavzu biologiyada, biologiyada boshlangan mavzu kimyoda, kimyoning mavzusi fizikada davom ettirilardi.




**Bu borada bizga bir necha usullar yordam beradi. Shulardan biri "Loyiha" metodi.**

**"Loyiha" metodi** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

**Quyidagi chizmada "Loyiha" metodining bosqichlari keltirilgan (chizma).**




**Chizma. "Loyiha" metodining bosqichlari**

**"Loyiha" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.
4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.
6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

**"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:**

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- jamoa ishi.

**O'QUV- TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI BOSQICHLARI:**




O'quvchilarimizning xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etishlari uchun maktabda egallagan nazariy bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

- ta'lim sifatini xolisona monitoring qilish imkonini beradigan miliiy baholash tizimini yaratish;
- ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish;
- xalqaro ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- xalqaro tadqiqotlar asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va o'quv adabiyotlarni yaratish;
- xalqaro tadqiqotlar yo'nalishlari doirasida savollar miliiy bazasini yaratish va o'quv dasturlarini integrasiyalash;
- xalqaro tadqiqotlarga asoslangan holda tegishli fanlardan o'qitishning ilg'or shakllari, metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini xalqaro tadqiqotlar talablariga moslashtirish.

PISA – o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematik va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

**Tadqiqotchilik davomida o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni egallaydilar:**



-rejalashtirish

-tabiat hodisalarini kuzatish;

-tajribalar o'tkazish;

-ma'lumotlar yig'ish;

-ma'lumotlarni qayta ishlash;

-natijalar yuzasidan xulosa chiqarish

-natijalarni taqdim etish

**Tadqiqot obyekti** - tadqiq etilayotgan jonsiz va jonli tabiatdagi jarayort va hodisalar Obyekt muammoli holatni keltirib chiqaradi va u o'rganish uchun tanlanadi. Tadqiqot obyekti 'Nimani tadqiq etmoqchisiz?' degan savolga javob beradi

**Tadqiqot predmeti** - tadqiqot obyextning hal qilinayotgan muammo bilan bogliq bo'rgan jihati yoki xusu- siyati. Tadqiqot predmeti "Obyektning qaysi jihatini tadqiq etmoqchisiz?" degan savolga javob beradi. Tadqiqot predmeti tadqiqot obyektidan kelib chiqadi. Tabiat obyektlari, hod sa va jarayonlami o'rganishda tabiiy fanlar muhim o'rin tutadi. Tabiiy fanlarga fizika, krmyo. biologiya. geografiya. astronomiya kab fanlar kiradi. Tabiiy fanlarning vazifasi tabiat qonunlarini o'rganish. shunirtgdek, ulardan inson manfaatlari yolida oqilona foydaianish va tabiatni muhofaza qilishga yordam benshdan

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

iborat Tabiiy-ilmiy bilimlar insonning amaliy faoliyatidagi kuzatish. tajriba o'tkazish. g'oyalami ilgan surishi natijasida vujudga keladi.



**Yuqoridagi kabi savollar barchamizni qiziqtirishi tabiiy.**

Muammoning yechimini tayyor shaklda o'zlashtirishimiz yoki mustaqil tadqiq etishimiz mumkin. Tadqiqot yangi bilimlarni kashf etish, ya'ni ilmiy bilish ja-rayonidir. Masalan, astronom-olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasida yulduzlar yorug'lik va issiqlik hosil qiluvchi ulkan samoviy jismlar ekanligi aniqlangan.

Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida rentgen va ultrato- vush apparatlari, universal lazer sistemalari yaratilgan.

Tadqiqot olib borish uchun bajariladigan ishlar rejasi tuziladi. Tadqiqot rejasi tadqiqot-chining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishga yordam beradigan faoliyat izchilligini aks ettiradi, shuningdek, muammolarni hal qilish usullarini ham ko'rsatadi.PISA – xalqaro baholash dasturi, shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivasiyasi haqida qimmatli ma'lumot to'playdi va o'quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni baholab beradi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi yoshlarning fikr va munosabatlari, taklif va yechimlarini baholaydi.

PISA – dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida xalqaro baholash dasturlarini o'tkazishga asoslanib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga e'tibor qaratadi.

**Xulosa.** Hozirda har bir o`qituvchiga darslarida PISA testlaridan foydalanish, o'quvchilarida ushbu testlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirib borish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish davomida o`quvchilarimizda aynan fanlarni

biri- biri bilan bog`lash muammosi, savolga turli hil fanlar nuqtai nazaridan yondoshish ko`nikmasi juda pastligi eng dolzarb muammo sifatida o'rtaga chiqib keldi. Agarda ushbu muammoni hal eta olsak, biz nafaqat PISA tadqiqotlariga tayyorgarlik ko`rishni, balki o'quvchilarni bilim olishi hamda o'qituvchilarning o'qitish jarayonini ham ancha yengillashtirgan, qulaylashtirgan bo`lar edik. Fikr va tushuncha qanchalar sodda, har tomonlama tushunarli va to'liq bo'lganda, uni o'zlashtirish shunchalar oson bo`ladi. Yoshlikda olingan bilim, toshga o`yilgan naqsh kabidir. O'quvchining qanday inson bo'lib kamol topishida oila va maktabning o`rni beqiyos shubhasiz!

**Foydalanilagan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar" -Qarshi.: Nasaf, 2000 yil.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot" -Toshkent.: Fan, 2005-yil
3. Maktab kimyo fani darsliklari.
4. Maktab biologiya fani darslikalri.
5. Maktab geografiya fani darsliklari.
6. Maktab fizika fani darsliklari.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" FANINI O'QITISHDAGI ISH DAFTARLARI VA ELEKTRON MATERIALLARNING AFZALLIKLARI

*Begliyeva Yagshigul Achilovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani*

*5-son DIUM boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Boshlang'ich sinflarda ona tili hamda o`qish savodxonligi fanlarini o'qitish metodikasi uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlarida ona tili o'qitishdan tubdan farq qiladi. Mazkur maqolada ushbu jarayonda qo`llanilishi mumkin bo`lgan vositalar, jumladan ish daftarlari va elektron materiallarning qulayliklari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar**: Morfologiya, so'z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh, uzluksiz ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

## KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimida ona tili o'qitishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning nutq madaniyatini oshirish, ular ongida o'z ona tiliga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish kabi qator masalalarni qamrab oladi.

Lekin bu bilan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili darslari bir xil qolipda o'qitiladi va tashkil etiladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki barcha bosqichda ona tili fani turlicha shaklda va mazmunda o'qitiladi hamda o'rgatiladi. Har bir bosqichda mazkur fanni o'qitish bir-biridan birmuncha farq qiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, boshlang'ich sinflar ham shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi. Bular:

Kichik yosh- 1 va 2 sinflar;

Yuqori bosqich- 3 va 4 sinflar.

Quyi bosqichda o'quvchilarga morfologiyaning asosi bo'lmish so'z turkumlari alohida o'rgatilmaydi. Uning o'rniga 1 sinfning ikkinchi yarimidan boshlab, o'quvchilarga savol berish orqali so'zlarni farqlash o'ragatiladi. Masalan:

Savol: Bu kim?,

Javob: Bu- ona.

Savol: Bu nima?,

Javob: Bu- daraxt.

Savol: Mashina nima qilayapti?,

Javob: Mashina yurayapti va hakozo. Shu tariqa 2 sinfda ot va fe'l kabi so'z turkumlar haqida dastlabki tushunchalar berib boriladi.

Uchinchi sinfdan so'ng o'quvchilar so'zlarni turkumlarga bo'lib o'rganishga kirishadilar. Shaxs va narsaning nomini bildirganlar ot, belgisini bildirganlar sifat, son sanog'i va tartibini bildirganlar son,ular o'rnida qo'llaniladiganlar olmosh, ish harakatni bildirganlar esa fe`l ekanligini o'zlashtira boradilar.

**TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Professor S.Matchonov, H.Bakieva, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva va G.Xolboevalaro'zlarining "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darsligida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga morfologiyadan o'rgatiladigan turkumlar va ularning kismlarini ajratib, quyidagi jadvalda aks ettiradilar va bu kabi jadval vositasida o`rgatish muhim didaktik ahamiyatga ega:

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi | Shaxs va narsaning belgisini bildiradi | Shaxs, narsaning sanog'i va tartibini bildiradi | Kishilik olmoshlari shaxsni bildiradi vaot o'rnida qo'llaniladi | Shaxs , narsaning harakatini bildiradi |
| Kim? nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladi | Qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi | Necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi | Kishilik olmoshllari kim? So'rog'ijavob bo'ladi | Nima qildi?, Nima qiladi?,nima qilyapti, nima qilmoqchi?kabi so'roqlariga javob bo'ladi |
| Birlik va ko'plikda qo'llanadi | O'zgarmaydi | Asosan o'zgarmaydi | Ular birlikva ko'plikda bo'ladi | Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi |
| Egalik qo'shimcha lari bilan o'zgaradi | Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi | Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasidakeladi | Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalar bilan qo'llanadi | Shaxs-son qo'shimchalarbi lan tuslanadi |
| Kelishiklar bilan turlanadi | Sifatlar yasaladi | Sonlar yasalmaydi | Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi | Uch zamonn ibildiradi |
| Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi | | | Olmoshlar yasalmaydi | Gapda kesi mvazifasida Keladi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Otlar yasaladi | | | | Fellar Yasaladi |

Mazkur jadvalda tilshunoslikning morfologiya bo'limiga teshishliboshlang'ich sinflarda o'raniladigan turkum va bo'limlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu jadvaldan o'rin olgan ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda morfologiyaning qator qismlari o'rgatilgani bilan bir necha turkum va ularning bo'limlarini o'qitish nazarda tutilmaydi.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo'llanmalarning "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Abobe Fotoshop", "3D Max", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o'zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O'qish, ona tili fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o'qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o'yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobilyatini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Bugungi kunda ta`limning barcha qismida bo`lgani kabi boshlang`ish ta`limda ham elektron resurslar muhim ahamiyatga ega. Ushbu resurslarni qo`llash bolaning tez o`zlashtirishi, mavzuni teran anglashi hamda eslab qolish qobiliyatining oshishiga olib kelishi shubhasiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Jomiy Bahoriston. "Yangi asr avlodi", 2017 yil.
2. Matchonov S. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, "Ishonchli hamkor", 2021 yil.
3. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi, Toshkent, 2017 yil.
4. Hamroev M.A. Ona tili. O'quv qo'llanma. Toshkent,2017 yil.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ПОСТРОЕНИЯ СИСТЕМЫ АВТОМАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ МНОГОМЕРНЫМ ОБЪЕКТОМ ПО ОДНОЙ ВЫХОДНОЙ КООРДИНАТЕ

Юнусова С Т.- доцент Ташкентский государственный технический университет,

каф. «Системы обработки информации и управления».

**Аннотация.** В работе рассмотрена возможность построения автоматической системы регулирования с контролем влажности хлопка в обратной связи путем сравнения двух значению, отражённых от образцов, - эталонного и сформированного из обрабатываемых хлопка. Сложность заключается в различных физических свойствах из разных партий хлопка-сырца и производственных условиях работы датчика. Предложена группировка факторов, влияющих на величину отраженного сигнала, и получена однозначная зависимость сигнала с чувствительного элемента и влажностью путем использования разности множеств значений, отраженных сигналов от двух образцов - эталона и контролируемого, сформированных из хлопка-сырца одной партии. Для определения значений неизменяемых факторов предложена использовать модель процесса в виде системы уравнений, характеризирующая зависимость измеряемых переменных от неизменяемых. ***Множество выходных сигналов будет определяться как произведение множества возможных значений коэффициента передачи первичного преобразователя на множество матриц***. При наличии взаимовлияния факторов предложен использовать операции разности множеств факторов с учетом типов взаимодействия факторов. При этом ***операция определения разности множеств может быть осуществлена не одним способом (вычитанием), но и вычислением отношения сигналов*** определение всех уравнений факторов, характеризующих свойства объекта управления и изменения их во времени осуществляется решением системы уравнений, показывающая взаимодействия факторов.

***Ключевые слова:*** автоматическое регулирование; обратная связь разность множеств; хлопок- сырец; влажности.

## Введение.

Хлопок-сырец - один из наиболее ценных и востребованных видов сырья, из которого вырабатывают до 350 видов продукции широкого потребления технического назначения. Хлопковое волокно служит основным видом сырья для текстильной, трикотажной и других отраслей легкой промышленности. Семена и линт используются как для посева хлопка, так и в пищевой и в химической промышленности, в её стратегически важных областях. Из него вырабатывают самые разнообразные ткани, швейные нитки, вату, искусственный шелк, кордные нити, применяемые в автомобильной промышленности, фильтры, приводные ремни, искусственную кожу и многое другое. Получение высококачественной продукции в основном зависит от хранения и процесса переработки хлопка-сырца. Основная масса хлопка-сырца укладывается в бунты и крытые склады на длительное хранение для переработки его в течение всего года до поступления нового урожая. В результате

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

изменяются его физические свойства и, вследствие этого, требуется управление процессами первичной обработки хлопка. От правильного хранения хлопка-сырца зависит не только сохранность его природных свойств, но и качество получаемого волокна, семян, линта и в значительной степени - экономические показатели работы производства [1].

В различных отраслях деятельности человека часто приходится иметь дело с автоматическими системами управления, в которых состояние объекта управления характеризуется множеством выходных координат. Во многих случаях последние не поддаются контролю по отдельности, а влиянием их на выход нельзя пренебречь. Такое положение характерно для химической технологии, когда требуется контролировать многокомпонентную смесь и для биологических объектов в пищевых производствах, и при обработке сельскохозяйственной продукции для дальнейшего использования в промышленности.

Как правило, при автоматическом регулировании одного параметра технологического процесса влияние остальных надо компенсировать либо обеспечить их неизменный уровень. Последнее не всегда возможно. В других случаях приходится прибегать к различным способам для уменьшения влияния факторов, не подлежащих регулированию, но вносящих ошибку в контроль управляемого параметра.

Одним из наиболее проблемных процессов в первичной обработке хлопка является линтерование семян хлопчатника. Линт является важным сырьем в химической технологии. Но в то же время переоголение семян приводит к большим потерям посевного материала.

Из приведенных выше сведений можно сказать, что при актуальности автоматизации процессов джинирования и линтерования при первичной обработке хлопка существуют трудности контроля опушенности обрабатываемого биологического продукта и, как следствие, построения автоматической системы регулирования.

**Метод решения**

Как уже было отмечено, это объясняется наличием многих факторов, которые существенно влияют на результаты контроля и управлением процесса переработки хлопка. К ним относятся как физические, товарные свойства, так и особенности производственных условий, при которых обрабатывается хлопок [2 - 8]. При попытках решить эту задачу отдавалось предпочтение применению датчиков с компенсацией второстепенных факторов путем сравнения результатов контроля интересующего нас продукта с результатами контроля аналогичным датчиком того же продукта, значения уровней второстепенных факторов которого такие же, как и у контролируемого образца [5, 6]. Под второстепенными факторами здесь понимаются некоторые качественные и количественные характеристики продуктов переработки, изменение которых не является параметром, характеризующим процесс, но влияет на

результаты контроля. Однако проведённые работы не позволили создать датчик опушенности. Высказанные предложения по результатам предварительных опытов требуют детальной проверки и доказательств на формальном уровне и анализе возможностей других принципов построения таких устройств

Результаты контроля параметра можно представить в виде дискретных значений выходной величины преобразователя, дискретность которой будет определяться разрешающей способностью прибора. Обозначив через $\chi_{i\,вых}$ все возможные значения выходного сигнала преобразователя от 0 до $n$, получим $\chi_{i\,вых} = f[\chi_{i\,вх}]$ где $\chi_{i\,вх}$ - некоторое значение входного сигнала преобразователя, которому соответствует выходной сигнал $\chi_{i\,вых}$ .

Правда, нужно отметить, что поскольку входная величина является непрерывной, то ее можно рассматривать как центр некоторого отрезка $2\delta$, который определяется как $|\chi_{i-1вх} - \chi_{i+1вх}|$. Однако, если величина $\chi_{вх}$ обусловлена множеством факторов, включая и уровень контролируемого технологического параметра, то тогда $\chi_{вх}$ будет функцией множества переменных. Но если возможные изменения каких-либо переменных не приводят к изменению уровня входного воздействия $\chi_{вх}$, т.е. оно меньше 8 то в случае, если это условие справедливо для всех факторов, кроме одного, $\chi_{вых}$ будет являться однозначной зависимостью от $\chi_{вх}$ . Но при, контроле опушенности хлопковых семян, как показали предварительные опыты, второстепенные факторы часто превосходят эти величины и не могут быть отброшены. Поэтому необходимо предусмотреть дополнительные действия, позволяющие избавиться от дезинформации, вносимой этими факторами. Принципиально это можно осуществить с помощью системы датчиков, которые имеют разные зависимости выходной величины от входной [2], т. е., если можно получить систему из $m$ уравнений для $m$ датчиков:

$$\begin{aligned} \chi_{1вых} &= f_1(\chi_{1вх},....,\chi_{к\,вх},....,\chi_{mвх}); \\ \chi_{j\,вых} &= f_j(\chi_{1вх},....,\chi_{квх},....,\chi_{m\,вх}); \\ \chi_{m\,вых} &= f_m(\chi_{1вх},....,\chi_{к\,вх},....,\chi_{m\,вх}); \end{aligned} \qquad (1)$$

где $\chi_{k\,вх}$ - условная входная переменная, определяемая уровнем каждого из $m$ факторов.

Зная функциональные зависимости в (1) $f_1,....,f_m,$ можно решить эту систему уравнений и таким образом найти все уровни факторов, определяющих $\chi_{jвх}$. При этом все зависимости

$\chi_{j\,вых} = f_j(\chi_{1вх},....,\chi_{квх},....,\chi_{m\,вх});$ типами.

При аддитивном типе сигнала

$$\chi_{вых} = k_1\chi_1 + .....k_k\chi_k + .... + k_m\chi_m \; ; \qquad (2)$$

при мультипликативном

$$\chi_{вых} = \varphi(\chi_2,....., \chi_k,...., \chi_m) \times (k_1\chi_1 + k_k\chi_k + .... + k_m\chi_m); \qquad (3)$$

- при смешанном типе

$$\chi_{вых} = \varphi(\chi_2,....., \chi_k,...., \chi_m) \times (k_1\chi_1 + k_k\chi_k + .... + k_m\chi_m); \qquad (4)$$

Смешанный тип сигнала, относят обычно к какому-либо из первых типов, в зависимости от того, какая составляющая преобладает - мультипликативная или аддитивная.

С учетом (2) - (4) задача представляется вполне разрешимой, однако при большом $m$ такой путь едва ли целесообразен, а при контроле в потоке и едва ли технически осуществим, хотя бы из-за различной инерционности датчиков.

Поэтому требуется провести анализ возникающей задачи. Пусть каждой условной входной переменной соответствует свой фактор, который в случае контроля опушенности целесообразно подразделить на три группы.

К первой группе относятся факторы, на изменение уровня которых в технологическом процессе не воздействуют целенаправленно, ко второй группе - фактор, который подвергается целенаправленному воздействию в технологическом процессе, и к третьей - факторы, влияющие на входной сигнал и являющиеся следствием особенностей условий эксплуатации технологического оборудования, включая сам датчик.

К первой группе, таким образом, будут относиться: $a$ - селекционная разновидность хлопка; $b$ - сортность хлопка-сырца; $c$ - влажность; $d$ - засоренность; $e$ - температура; $f$ - механическая поврежденность; $g$ - срок хранения хлопка-сырца до обработки; $h$ - зажгученность хлопковых волокон.

Ко второй группе при контроле опушенности будет относиться один фактор: $p$ - влажности

К третьей группе при контроле с применением оптического преобразователя относятся: $r$ - неравномерность подачи хлопка к месту контроля; $s$ - запыленность оптической системы.

При таком соответствии фактор опушенности $h$ соответствует условной переменной $X_9$. Условные переменные в данном случае следует понимать как изменение входного сигнала при изменении уровня какого-либо фактора при постоянстве уровней всех остальных. В этом смысле семантика фактора сводится к множеству реально возможных уровней, которые могут вызвать изменение входного сигнала датчика $\chi_{вх}$ на величину, равную или большую с при постоянстве уровней всех остальных факторов. Тогда запишем

$$A = \{a_1,...., a_l\}; \; B = \{b_1,...., b_l\}; \; ......; \; P = \{p_1,...., p_p\};......$$

Множества $A, B,......., P$ и т.д. имеют разную физическую природу и не могут быть объединены в одно множество. Однако, если рассмотреть входные сигналы преобразователя, которые являются относительными, тогда можно представить

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

полученные множества, включая множества, соответствующие условиям эксплуатации $R$ и $S$, в виде:

$$A=\left\{\chi_{1_{1вх}},\ldots\chi_{1_{l\,вх}}\right\};\; B=\left\{\chi_{2_{l\,вх}},\ldots,\chi_{2_{g\,вх}}\right\};\ldots,$$

$$P=\left\{\chi_{9_{l\,вх}},\ldots\chi_{9_{l\,вх}}\right\},\ldots,S=\left\{\chi_{11_{l\,вх}},\ldots,\chi_{11_{s\,вх}}\right\}.$$

Теперь эти множества входных сигналов одной физической природы. Они могут быть рассмотрены как подмножества одного множества.

$$EI=\left\{\begin{matrix}\chi_{11_{вх}},\ldots,\chi_{1_{вх}},\chi_{21_{вх}},\ldots,\chi_{2_{g\,вх}},\ldots,\\ \chi_{9_{1\,вх}},\ldots,\chi_{9_{p\,вх}},\chi_{11_{l\,вх}}\ldots\chi_{11_{s\,вх}}\end{matrix}\right\}$$

Предположим, что выбрано такое устройство, которое позволяет исключить неравномерность подачи хлопка, т.е. фиксируется фактор $z$**,** а контроль производится в течение такого времени, при котором фактор $p_i$ не является постоянным. В этом случае световой сигнал, поступающий на чувствительный элемент (входной сигнал чувствительного элемента) будет определяться множествами возможных значений ***p*** и **s.** Поскольку за возможные значения приняты дискретные уровни факторов, определяемые чувствительностью измерительного прибора, то множества входных воздействий от изменения опущенности

имеют вид: $P=\left\{\chi_{9_{l\,вх}},\ldots\chi_{9_{l\,вх}}\right\}$,

а от изменения светового потока - $S=\left\{\chi_{11_{l\,вх}},\ldots,\chi_{11_{s\,вх}}\right\}$

Согласно формуле (2) выходной сигнал в этом случае

$$\chi_{вых}=k_9\chi_{9\,вх}+k_{11}\chi_{11_{вх}} \qquad (5)$$

При $k_9=\text{const}$ и $k_{11}=\text{const}$ всегда можно подобрать несколько пар действительных чисел - значений $\chi_8$ и $\chi_{10}$ для удовлетворения этого равенства. То есть соответствие $EO\subseteq HxL$, где $EO$ - множество выходных сигналов не является однозначным, а следовательно, и функциональным [8].

При большем числе изменяющихся входных сигналов, соответствующих множествам значений факторов, полученные выражения еще более усложняются, так как в правой части появляются еще и другие множества от соответствующих факторов.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Таким образом, формально первая задача при контроле многомерных объектов, сводится к получению однозначного соответствия множеству ЕО множеств, полученных из факторов $a, b, c, ......, p, ....., s.$ Для формулы (5) этого можно добиться, положив одно из слагаемых постоянным. Поскольку представляет интерес изменение $\chi_9$, то постоянным необходимо сделать второе слагаемое. Множество выходных сигналов будет определяться как произведение множества возможных значений коэффициента передачи первичного преобразователя на множество матриц $EO: K = \{k_1, k_2 ....., k_s\}$, или, в матричной форме, $K = k_1, k_2, ....., k_s$ и $ElxK = EO$. Положив $k_j = const$, получим $K = k$ и $EO = Elk$.

Пусть температура сушильного барабана осуществляется одним датчиком. Это может быть любое из системы уравнений (l), в зависимости от того, какова физическая природа датчика. Для получения функционального соответствия необходимы неизменные значения факторов $a, b, c, ......, p, ....., s.$ либо надо выбрать такой первичный преобразователь, чтобы коэффициенты передачи для этих факторов у данного преобразователя равнялись нулю, либо учитывалось влияние изменения значения каждого фактора поправочным коэффициентом.

Однако, даже при предположении, что можно учесть влияние дискретного изменения значений факторов селекционной разновидности, сортности и срока хранения, остается значительное число факторов, как из первой, так и из третьей групп, которые будут вносить погрешность в результаты контроля. Одновременное равенство нулю всех коэффициентов передачи для какого-либо физического преобразователя факторов влажности, засоренности, температуры, механической поврежденности и остальных едва ли возможно. Такие же рассуждения справедливы и для факторов третьей группы.

Представляя некоторые множества значений входных сигналов, формируемых изменением каждого из факторов, можно записать

$$EI = \begin{Bmatrix} \chi_{11_{вх}}, ...., \chi_{1_{вх}}, \chi_{21_{вх}}, ....., \chi_{2_{g\,вх}}, ...., \\ \chi_{9_{1вх}}, ...., \chi_{9_{p\,вх}}, \chi_{11_{l\,вх}} ... \chi_{11_{s\,вх}} \end{Bmatrix}$$

Предполагая что эти сигналы поступили на два совершенно идентичных преобразователя, получаем два одинаковых множества. Допустим, что оба преобразователя имеют одинаковые статические характеристики, изменением которых во времени можно пренебречь, т.е. это изменение происходит достаточно медленно или одинаково для обоих преобразователей. Далее допустим, что в данный момент времени значения факторов имеют фиксированные величины, которые составляют множества $EI$, являющиеся входными сигналами обоих преобразователей:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

$$EI^{*}=\begin{Bmatrix}\chi_{11_{вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{1_{вх}}{}^{*},\chi_{21_{вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{2_{g\,вх}}{}^{*},\ldots,\\ \chi_{9_{1вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{9_{p\,вх}}{}^{*},\chi_{11_{l\,вх}}{}^{*}\ldots\chi_{11_{s\,вх}}{}^{*}\end{Bmatrix};$$

$$EI^{**}=\begin{Bmatrix}\chi_{11_{вх}}{}^{**},\ldots,\chi_{1_{вх}}{}^{**},\chi_{21_{вх}}{}^{**},\ldots,\chi_{2_{g\,вх}}{}^{**},\ldots,\\ \chi_{9_{1вх}}{}^{**},\ldots,\chi_{9_{p\,вх}}{}^{**},\chi_{11_{l\,вх}}{}^{**}\ldots\chi_{11_{s\,вх}}{}^{**}\end{Bmatrix}.$$

Теперь представим, что каждое из двух множеств входных сигналов формируется отдельным образцом хлопка, отличающимся значением только одного фактора влажности $p^{*}$ в первом образце от $p^{**}$ во втором. В этом случае получим два множества:

$$EI^{*}=\left\{\chi_{1_{jвх}}{}^{*},\ldots,\chi_{9_{1вх}}{}^{*},\ldots\chi_{9_{f\,вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{9_{p\,вх}}{}^{*},\ \chi_{11_{f\,вх}}{}^{*}\right\} \qquad (6)$$

$$EI^{**}=\left\{\chi_{1_{f\,вх}}{}^{**},\ldots,\chi_{9_{f\,вх}}{}^{**},\ldots\chi_{11_{f\,вх}}{}^{**}\right\}, \qquad (7)$$

где $\left\{\chi_{1_{f\,вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{1_{f\,вх}}{}^{**},\ldots\chi_{9_{f\,вх}}\neq^{**},\ldots,\chi_{11_{f\,вх}}{}^{*},\ \chi_{11_{f\,вх}}{}^{**}\right\}$

Индекс $f$ здесь обозначает фиксированное значение параметра (фактора).

Найдем разность множеств $EI^{*}/EI^{**}$. Поскольку задачей контроля и регулирования является поддержание постоянства влажности, то в данном случае интерес представляет его отклонение от требуемого. Если положить, что значение влажности у первого образца может принимать все возможные значения, соответствующие

$\chi_{9_{1вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{9_{f\,вх}}{}^{*},\ldots\chi_{9_{p\,вх}}{}^{*}$ (в том числе и значение, равное $\chi_{9_{f\,вх}}{}^{**}$, а во втором образце влажности формирует постоянную составляющую входного воздействия $\chi_{9_{f\,вх}}{}^{**}$, то тогда разность множеств (6) и (7) будет выглядеть так:

$$EI^{*}/EI^{**}=\left\{\chi_{9_{l\,вх}}{}^{*},\ldots,\ldots,\ldots\chi_{9_{p\,вх}}\right\}$$

$$(\chi_{9_{f\,вх}}{}^{*},\ldots,\chi_{9_{f\,вх}}{}^{**}\ EI^{*}/EI^{**}). \qquad (8)$$

При постоянстве статических характеристик преобразователей $EO_1 = EI^* k_9$, $EO_2 = EI^* k_9$, разность множеств

$$EO_1 / EO_2 = \left\{ k_9 \chi_{9_{l\,вх}}{}^*, \ldots, \ldots\ldots, \ldots k_9 \chi_{9_{p\,вх}}{}^* \right\},$$

или $$EO_1 / EO_2 = k_9 \chi_{9_{l\,вх}}{}^*, \ldots, \ldots\ldots, \ldots k_9 \chi_{9_{p\,вх}}{}^*$$

Полученные выражения показывают простейшее взаимное соответствие между множествами $EO_1 / EO_2$ и $\boldsymbol{P}$ при соответствии множеству $K$ , которое состоит в данном случае из одного элемента $k = k_9$.

Таким образом, если требуется вести контроль над одним изменяющимся фактором, характеризующим объект, при постоянных остальных, то требуется реализовать операцию разности множеств факторов. Процесс реализации этой операции определяется типом взаимодействия факторов по формулам (2) - (4). Из этих рассуждений следует, что при необходимости контроля нескольких факторов требуется воспользоваться либо системой уравнений (1), либо выбрать такие первичные преобразователи в количестве, соответствующем числу исследуемых факторов, чтобы коэффициенты их статических характеристик были равны нулю или близки к этому значению по всем каналам преобразования, кроме одного, соответствующего исследуемому фактору с тем, чтобы были получены несколько однозначных соответствий в количестве, равном числу контролируемых факторов.

**Заключение**

Из сказанного о контроле многомерных объектов сделаем следующие выводы. При контроле уровней факторов, влияющих друг на друга, в многомерном объекте невозможно пользоваться одним преобразователем. Для контроля одного параметра необходимо воспользоваться либо системой датчиков, имеющих возможность сформировать соответствующее множество выходных сигналов, приведенных к сигналам одной физической природы, и затем с помощью средств вычислительной техники получить значение регулируемого параметра (фактора), либо реализовать операцию определения разности множеств сигналов, сформированных от двух проб согласно формулам (2) - (4), положив неизменные уровни факторов как помехи. При этом следует обратить внимание на то, что реализация операции определения разности множеств может быть осуществлена не одним способом (вычитанием), но и вычислением отношения сигналов. Для определения всех уровней факторов, характеризующих объект контроля, в том числе и при изменении их во времени, необходимо воспользоваться системой уравнений (1) и с помощью средств вычислительной техники решить ее.

**Литература.**

[1]. Cotton: World Statistics. Bulletin o f the International Cotton Advisory Committee, NY,November 2015.http://www.ICAC.org., http://www.USDA.gov.

[2]. Parpiev A.P, Mamatov A.Z, Usmankulov A.K. (2000) Maximum permissible temperatures in the drum dryer. IzvestiyaVuzov, 1:35-36.

[3]. Usmankulov A. (2002) Improving the efficiency o f the drying process o f raw cotton in a drum dryer, Diss. for the degree of candidate o f technical Sciences Tashkent; ppl28.

[4]. Mamatov A.Z. (1995) Modeling o f raw cotton drying technology to improve the quality o f fiber, Diss. On competition of a scientific degree, doctor of technical Sciences Tashkent; pp 248.

[5]. Yunusova S.T, Kholmatov D.A, Atajonov M.O, Khuzhanazarov U.O. (2020) Formalization of the cotton drying process based on heat and mass transfer equations., HUM Engineering Journal, Vol. 21, No. 2, 256-265. https://d0i.0rg/l 0.31436/iiumej.v21 i2.1456

[6]. Sidikov I.H, Atajonov M.O, Yunusova S.T, Nashvandova. G.M. (2020) Adaptive analytical control of technological parameters based on the probability method of oil refining installations, European Science Review, Scientific Journal, l(2):78-83 https://doi.org/10.29013/ESR-20-L2-78-83.

[7].Сиддиков И.Х, ЮнусоваС.Т, Хужаназаров У.О. (2020) Нечетко-логическое регулирование процесса сушки хлопка. *Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари, № 2 (12),июнь 2020* Тошкент.45-48

[8]. Kholmatov DA, Yunusova ST, Setmetov NU, Khuzhanazarov U.O. (2019) Software tool monitoring process ofprocessing raw cotton. International Journal o f Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 6(2): 8140-8143.

[9]. Yunusova ST. (2019) Fuzzy logic model of temperature control of a drying unit based on a probabilistic approach. Collection o f reports of the Republican scientific and practical conference on "Innovations in the development of information and communication technologies" April 15-17.

[10]. Kholmatov DA, Yunusova ST, Setmetov NU, Khuzhanazarov U.O. (2019) Software tool monitoring process ofprocessing raw cotton. International Journal o f Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 6(2): 8140-8143.

[11]. Д.А. Халматов, У.О. Хужаназаров, С.Т. Юнусова, Р.Н.Измайлова (2019) Разработка нечеткой модели управления температурой сушильного агрегата вероятностным методом. Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности *№1/2019.*, 78-83.

[12].Siddiqov IH, Yunusova ST, Izmailova NR. (2018) Algorithm for optimization ofthe membership function of the fuzzy control model on the basis of the probabilistic approach. WCIS - 2018, Tenth World Conference on Intelligent Systems for Industrial Automation October 25-26, Tashkent, Uzbekistan, 251-254

[13]. Kholmatov D. A, Yunusova S. T. Setmetov N. U, Khuzhanazarov U. O. (2014) Information and algorithmic technological monitoring system algorithmic processes processing of raw cotton., WCIS-Eighth World Conference on IntelligentSystems for Industrial Automatic.Toshkent .261-264

[14]. Yunusova S.T. (2013) On the formalization ofthe optimization criterion ofthe cleaning process ofraw cotton to Tashkent State Technical University. Bulletin. 3:35-40.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Umumiy o'rta ta'lim tizimida tarix fanining uzviyligini ta'minlash

***Ismailov Sherzodbek Yakubjanovich***

Prezident ta'lim muassasalari agentligi qoshidagi Kosonsoy ixtisoslashtirilgan maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

**Annotatsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor juda yuksak darajada. Ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va O'zbekistonda ta'lim oluvchilarni xalqaro talablarga javob beradigan tarzda o'qitish uchun tizimda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Quyida shu jarayonlarni tashkil etishda tarix fanini o'rni, mamlakatimizda tarix fanini o'qitish uzviyligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan ishlar va tarix fanini o'qitishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va xalqaro miqyosda tarixni o'qitilishi haqida ma'lumotlar berishga harakat qilindi.

**Annotatsiya:** Сегодня внимание, уделяемое системе образования в нашей стране, очень велико. В целях адаптации системы образования к международным стандартам и подготовки студентов в Узбекистане в соответствии с международными требованиями в системе проводится ряд реформ. Ниже представлена роль истории как предмета в организации этих процессов, работа, проводимая для обеспечения целостности преподавания истории в нашей стране, и информация, на которую следует обратить внимание при преподавании истории и изучении истории на международном уровне была предпринята попытка предоставить информацию обо всём этом.

**Abstract:** Today, the attention paid to the education system in our country is very high. In order to adapt the education system to international standards and

teach students in Uzbekistan in a way that suits international requirements, a number of reforms are being implemented in the system. Below is the role of history in the organization of these processes, the work carried out to ensure the integrity of history teaching in our country, and the information that should be paid attention to in the teaching of history and the study of history at the international level. an attempt was made to provide information about the search.

**Kalit so'zlar:** *konsepsiya, tendensiya, yangi aspektdagi metodika, o'quv-metodik ta'minot, integratsion mexanizm.*

**Ключевые слова:** концепция, тенденция, методология в новом аспекте, учебно-методическое обеспечение, механизм интеграции.

**Keywords:** concept, trend, methodology in a new aspect, teaching-methodical support, integration mechanism.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida tarix fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2035 -yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori, 2019 -yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli hamda 2019- yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli va va 2019 -yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 11-iyuldagi "O'zbekiston tarixi" telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 24 -yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida tarix ta'limini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi, jumladan:

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

Tarix ta'limi me'yoriy xujjatlarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

Tarix ta'lim bo'yicha maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini uzviyligini ta'minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;

Tarix ta'lim mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitishning yangi aspektdagi metodikasini ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida tarix ta'limining o'zaro integratsiyasini ta'minlash va bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish orqali hayotga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

Tarix ta'lim mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan tarixiy savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

Ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;

Tarix ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

O'quv-tarbiya jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Tarix ta'limining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

Globallashuvning kuchayib borishi jarayonlarida erkin fikrlash va fikrlar har-xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish, yurt ravnaqi va vatanparvarlik tuyg'usidan kelib chiqqan holda o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirish;

Me'yoriy xujjatlarda nazarda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tarix faning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta'minlash va fanni rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida tarix fani bo'yicha davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;

Tarix fani bo'yicha uzviylikni e'tiborga olgan holda ta'lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

Tarix fani o'quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

Tarix fanini o'qitish bo'yicha o'quv-metodik majmualarni (darslik, ishchi daftar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi va boshqa) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;

Tarix fanini o'qitishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish va boshqalar.

Har bir o'qituvchi bugungi kun talabidan kelib chiqib fanni o'qitishda ilg'or tajribalarni qo'llashga harakat qilishi va buning uchun xalqaro tajribani o'rganishi shart. Ilg'or xorijiy tajribalar va xalqaro standartlardan foydalanib tarix fanini quyidagicha o'qitishni joriy qilish mumkin.

Milliy an'analar uyg'unligida tarix fanini o'qitishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- O'quvchilarni yoshligidan mashhur ajdodlarimizga nisbatan faxr va g'urur hissida tarbiyalash maqsadida boshlang'ich sinflar darsliklarida buyuk siymolar va mashhur sarkardalar haqida tarixiy ma'lumotlarni ko'proq yoritish;

O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida darsliklardagi buyuk siymolar va mashhur sarkardalar haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy o'quv-didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar, multimedia mahsulotlari bilan yanada boyitish;

Maktab xonalarini jihozlashda zamonaviy maktab loyihasi doirasida tarixiy shaxslar va obyektlar rasmlaridan keng foydalanish va shu jarayonda qiziqarli ma'lumotlardan ham foydalanish;

Tarix fanini o'qitishda mavzulardan va hudud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta'limga keng o'rin berish va o'quvchilarda tarixni u yoki bu davri haqida tasavvur shakllantirish uchun tarixiy asarlar, badiiy adiyotlar, tarixiy va hujjatli filmlardan ko'proq foydalanish;

Jahon tarixini o'rganish bilan bir vaqtda O'zbekiston tarixini o'rganishga ko'proq e'tibor berish, mavzularni kengroq yoritish, ularni yaxshiroq o'zlashtirish uchun mustaqil o'qishga ko'proq e'tibor qaratish;

Tarixni o'rganishni mustaqil ishlash bilan birgalikda olib borish uchun har bir maktab kutubxonalarini ko'proq tarixiy – badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish, jahon tarixiga doir ilmiy va badiiy kitoblarni o'zbek tiliga ko'p roq tarjima qilish;

Maktablarda tarix fanini o'qitishda kerakli bo'lgan tarqatma va ko'rgazmali qurollarni ( tarixiy xaritalar, mavzuli xaritalar, xrestomatiyalar va multimedia mahsulotlari ) ko'proq va zudlik bilan yetkazib berish choralarini ko'rish;

Onlayn maktab dasturi hamda O'zbekiston tarixi, dunyo bo'ylab telekanallari bilan hamkorlikda maktablar uchun eng murakkab, o'quvchini o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzular doirasida darslar va qiziqarli onlayn ekskursiyalar tashkil etish va ulardan darslarda keng foydalanish;

O'quvchilarda milliy urf – odatlarga sodiqlik, vatanparvarlikni kuchaytirish hamda bugungi globallashuv jarayonida milliy tarbiyani saqlab qolish maqsadida, shuningdek

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

dunyodagi mavjud dinlar haqida haqqoniy va to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun O'zbekiston musulmonlari idorasi va din ishlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlikda 9-11 sinflarda dunyo dinlari tarixi fanini qayta joriy etish, bu fanni o'qitish uchun yetarli bilimga ega o'qituvchilarni tayyorlash hamda mukammal o'qitilishiga e'tibor qaratish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining uzviyligini ta'minlash va jahon tajribasidan keng foydalanish qanday natijalar beradi ?

Tarix fanini ko'rgazmali tarzda va mustaqil mashg'ulotlar bilan o'qitilishi o'quvchilarda qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar tarixiy bilim, ko'nikma va malakalarni, bitiruvchilarda esa davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojidagi jarayonlarni tahlil qilishda, ta'limning barcha bosqichlarida tarixiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish, mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'lgan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashni shakllanishiga olib keladi.

Maktablarda tarix fanini o'qitish bevosita bitiruvchilarda tarixiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, shu bilan birga tarixiy voqea va hodisalarni hozirgi davr bilan qiyoslash, tarixdan saboq va tajriba olish, ajdodlarimiz tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni anglay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi

Tarix fani o'quvchilarda asosiy tarixiy bilimlarni berish bilan bir vaqtda ijtimoiy–gumanitar fanlar (barcha fanlar desak ham adashmaymiz) bo'yicha bilimlarini umumlashtirish va yagona tarzda qo'llash uchun integratsion mexanizm vazifasini ham bajaradi va o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda juda muhim o'rin tutadi.

Konsepsiya asosan maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida tarix ta'limini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlarini va amalga oshirish maqsadlarini belgilab beradi. Unda quyidagilarni joriy qilish ko'zda tutilgan.

Me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish,rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan milliy

xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda foydalanish;

Tarix ta'limini me'yoriy hujjatlarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablarni xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash,ta'limning barcha tizimlarini malaka talablarini uzviyligini ta'minlash va amaliyotga tadbiq etish;

Tarix o'qitishni sifat jihatidan yangilash, yangi metodikalarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma – bosqich joriy etish;

Tarix ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni va zamonaviy usullarni joriy etish va boshqalar.

Konsepsiyaga ko'ra tarix fanining o'quv – metodik ta'minotini ishlab chiqishda uz-viylikni ta'minlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida tarix fani bo'yicha davlat ta'im standarti-ni ishlab chiqish;

Tarix fani bo'yicha uzviylikni e'tiborga olgan holda ta'lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

Tarix fani o'quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

Tarix fanini o'qitish bo'yicha o'quv – metodik majmualarini (darslik, ishchi daftar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) yangi avlodini bosqichma - bosqich ishlab chiqish;

Tarix fanini o'qitishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalaridan kelib chiqib baholash tizimini ishlab chiqish.

Albatta tarix fanini o'qitishda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu fanga bo'lgan e'tibor va uning o'qitilishi bo'yicha tajribalarni o'rganish va ularning orasidan eng munosib jihatlarini moslashtirgan holatda o'zlashtirish muhimdir. Dunyoning ilg'or mamlakatlarida tarix fani qanday o'qitiladi?

Rossiyada – 5 –sinfdan boshlab 9-sinfgacha tarix davrlarga bo'lib o'qitiladi va yuqori sinflarda asosan rossiya tarixining eng shonli davrlari qaytadan takrorlanadi. Asosan

vatanparvarlik targ'ib qilinadi va rus xalqining muvaffaqiyatli janglari va g'alabalari juda keng yoritiladi

Ispaniya maktablarda tarix fa-nini o'qitishda asosan diniy va madaniy ma'lumotlarni o'rga-nishga juda katta ahamiyat beriladi. Eng ko'p e'tibor 3 mingdan ortiq milliy va diniy bayramlar tarixini o'rganishga qaratiladi.

Amerika qo'shma shtatlarida asosan o'quvchilarga mustaqil ishlash orqali aqsh tarixi o'qitiladi. Boshqa mamlakatlar tarixi haqida ma'lumotlar umumiy va juda oz miqdorda tushuntiriladi. Agar o'quvchilar biror hudud tarixini o'qishni xoxlashsa mustaqil o'zlashtiradilar.

Germaniyada –5-9 sinflarda dunyo tarixi davrlarga bo'lib o'qitiladi. Yuqori sinflarda esa o'quvchilardan alohida guruhlar shakllantirilib, tarixning ma'lum davrlari kengaytirilgan tarzda o'rgatiladi. 1960-yillargacha ikkinchi jahon urushi va fashizmni mag'lubiyati haqida darsliklarda umuman yozilmagan. Zamonaviy germaniyada esa bu davr ajdodlari xatolaridan saboq chiqarish maqsadida ancha keng o'rganiladi.

Fransiyada tarix asosan badiiy ada-biyotlar, komikslar,rasmlar orqali o'rgatiladi. Zamonaviy fransuz darsliklarida sanalar, raqamlar juda kam keltiriladi,ammo rasmlar va ko'rgazmali vositalar juda ham ko'p.

Buyuk britaniyada tarix asosan mamlakatning shonli g'alabalari va qo'lga kiritilgan hududlar va ulardagi inglizlar faoliyatidan iborat. Qo'lga kiritilgan hududlardagi salbiy faoliyat albatta yoritilmaydi.

Yaponiya boshlang'ich maktablarida gumanitar fan doirasida umumiy ma'lumotlar beriladi, o'rta maktabda asosan dunyo tarixi bilan uyg'un tarzda yaponiya tarixi o'rganiladi. Yuqori maktablarda esa jahon tarixi va yaponiya tarixi alohida fan tarzida o'qiti-ladi. Yuqori maktablarda o'quvchilar bu fanlarni tanlov tarzida tanlab o'qishadi. Yaponiyada tarix fani aniq belgilangan va doimiy nazorat qilib boriladigan reja va darsliklar asosida o'qitiladi.

Xalqaro ekspertlar bergan ma'lumotlarga ko'ra yapon tarix fani darsliklari boshqa osiyo mamlakatlaridagi darsliklardan siyosiylashmagani bilan (xolisligi bilan) ajralib

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

turadi.Yuqori maktabda tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga juda katta e'tibor beriladi va o'quvchilar tarixni ma'lum davrini juda qunt bilan, batafsil o'rganib chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Amaliy ishlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratib beriladi.

Shaxsan men ilg'or xorijiy tajribalar va xalqaro standartlardan foydalanib tarix fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor bergan bo'lar edim, ya'ni milliy an'analar uyg'unligida tarix fanini o'qitishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

O'quvchilarni yoshligidan mashhur ajdodlarimizga nisbatan faxr va g'urur hissida tarbiyalash maqsadida boshlang'ich sinflar darsliklarida buyuk siymolar va mashhur sarkardalar haqida tarixiy ma'lumotlarni ko'proq yoritish lozim.

O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida darsliklardagi buyuk siymolar va mashhur sarkardalar haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy o'quv-didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar, multimedia mahsulotlari bilan yanada boyitish kerak.

Maktab xonalarini jihozlashda zamonaviy maktab loyihasi doirasida tarixiy shaxslar va obyektlar rasmlaridan keng foydalanish va shu jarayonda qiziqarli ma'lumotlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarix fanini o'qitishda mavzulardan va hudud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta'limga keng o'rin berish va o'quvchilarda tarixni u yoki bu davri haqida tasavvur shakllantirish uchun tarixiy asarlar, badiiy adabiyotlar, tarixiy va hujjatli filmlardan ko'proq foydalanish

Jahon tarixini o'rganish bilan bir vaqtda o'zbekiston tarixini o'rganishga ko'proq e'tibor berish, mavzularni kengroq yoritish, ularni yaxshiroq o'zlashtirish uchun mustaqil o'qishga ko'proq e'tibor qaratish kerak.

Tarixni o'rganishni mustaqil ishlash bilan birgalikda olib borish uchun har bir maktab kutubxonalarini ko'proq tarixiy – badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish, jahon tarixiga doir badiiy va ilmiy kitoblarni o'zbek tiliga ko'proq tarjima qilish va ulardan darslarda mustaqil ish tarjida keng foydalanish lozim.

Maktablarda tarix fanini o'qitishda kerakli bo'lgan tarqatma va ko'rgazmali qurollarni ( tarixiy xaritalar, mavzuli xaritalar, xrestomatiyalar va multimedia mahsulotlari ) ko'proq va zudlik bilan yetkazib berish choralarini ko'rish

Onlayn maktab dasturi hamda O'zbekiston tarixi, dunyo bo'ylab telekanallari bilan hamkorlikda maktablar uchun eng murakkab, o'quvchini o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzular doirasida darslar va qiziqarli onlayn ekskursiyalar tashkil etish va ularni darslarda keng foydalanish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining uzviyligini ta'minlash va jahon tajribasidan keng foydalanish qanday natijalar beradi ?

Tarix fanini ko'rgazmali tarzda va mustaqil mashg'ulotlar bilan o'qitilishi o'quvchilarda qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar tarixiy bilim, ko'nikma va malakalarni, bitiruvchilarda esa davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojidagi jarayonlarni tahlil qilishda, ta'limning barcha bosqichlarida tarixiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish, mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'lgan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashni shakllanishiga olib keladi. Maktablarda tarix fanini o'qitish bevosita bitiruvchilarda tarixiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, shu bilan birga tarixiy voqea va hodisalarni hozirgi davr bilan qiyoslash, tarixdan saboq va tajriba olish, ajdodlarimiz tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni anglay olish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi

Tarix fani o'quvchilarda asosiy tarixiy bilimlarni berish bilan bir vaqtda ijtimoiy–gumanitar fanlar (barcha fanlar desak ham adashmaymiz) bo'yicha bilimlarini umumlashtirish va yagona tarzda qo'llash uchun integratsion mexanizm vazifasini ham bajaradi va o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda juda muhim o'rin tutadi.

**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Марк Ферро написал книгу «Как рассказывают историю детям в разных странах мира» в 1981 году.

2. https://mel.fm/zhizn/knigi/1605294-histroy_world
3. https://www.ucheba.ru/article/3185
4. https://smapse.ru/s-kakih-rakursov-shkoly-raznyh-stran-prepodayut-istoriyu/
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F%D0%B8%D1%8F
6. www.lex.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Matematika darslarida interfaol va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati

# Importance of using interactive and information and communication technologies in mathematics lessons

# Важность использования интерактивных и информационно-коммуникационных технологий на уроках математики.

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi

**matematika fani o'qituvchisi Shaketova Gulmira Abubakirovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika darslarida innovatsion texnologiya-lardan foydalanishning afzalliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Abstract:** This article focuses on the advantages of using innovative technologies in mathematics classes.

**Аннотация:** Данная статья посвящена преимуществам использования инновационных технологий на уроках математики.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** maktabda o'quvchilarni matematika fanidan zamonaviy usullar orqali tarbiyalashning samarasini ko'rsatib berish.

**The purpose of writing this article** is to show the effectiveness of modern methods of educating students in mathematics at school.

**Цель написания данной статьи** - показать эффективность современных методов обучения учащихся математике в школе.

**Usullar:** "Charxpalak", "Fikriy hujum", "Emable", "FSMU texnologiyasi", "Baholash jadvali", "6x6x6", "Klaster", "Zakovatli zukko".

**Methods:** "Charkhpalak", "Brainstorming", "Emable", "FSMU technology", "Evaluation table", "6x6x6", "Cluster", "Ingenious clever".

**Методы:** «Чархпалак», «Мозговой штурм», «Эмейбл», «Технология ФГМУ», «Оценочная таблица», «6х6х6», «Кластер», «Гениальный умник».

**Natija:** O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, ularning ushbu fan bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

**Result:** increase students' mathematical literacy, develop their knowledge in this subject.

**Результат:** повышение математической грамотности учащихся, развитие их знаний по данному предмету.

**Kalit so'zlar**: innovatsion texnologiya, emable, baholash jadvali, tafakkur...

**Key words:** innovative technology, emable, evaluation table, thinking...

**Ключевые слова:** инновационная технология, emable, оценочная таблица, мышление..

O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish juda qiyin. Bu vazifani amalga oshirishda innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda o'quvchilarning matematik bilim darajalarini ko'tarish juda muhim. O'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va komil inson qilib voyaga yetkazish nafaqat darslar jarayonida, balki sinfdan tashqari ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshirishni talab etadi.

Mazkur metodik tavsiya o'qituvchilarga o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning fanga bo'lgan qiziqishini orttirishda yaqindan yordam beradi. Ushbu tavsiyanoma matematika o'qituvchilari va shu sohaga qiziquvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning samaradorligini ta'minlash, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish malakali mutaxassis-pedagoglar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida begilangan ustuvor vazifalarlardan biri pedagoglar kasb mahoratini takomillashtirish, o'qituvchi faoliyatini loyihalash, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat[1].

Men pedagoglarga innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish bo'yicha o'z tavsiyalarimni aytib o'tmoqchiman.

---

[1.]N.Boltayev, Sh.Narimov, S.Abdalova. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish usullari. –T.: "Ta'lim texnologiyalari" jurnali, 2006 yil 3-son,12-bet

**Pedagoglar ta'limda yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblayman:**

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologoyalarni fanlar bo‘yicha qo‘llash prinsiplarini bilishi;
-ta'limiy va ishchanlik o‘yinlarini bilishi hamda muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
-o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo‘llarini bilishi;
- o‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;
-ko‘rgazmali o‘qitish usullarini bilishi va egallashi;
-ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, namunaviy-imitasiya o‘quv-mashg‘ulotlarini o‘tishi hamda ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.

**Metod –** biror harakatni amalga oshirish yo’li, usuli yoki ko’rinishidan iborat. Pedagogik texnologiya o’quv jarayoni (ya’ni o’qituvchining o’quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko’p darajada bog’langan.

Pedtexnologiya standartlarni to’la o’zlashtirishni, sifat darajasini kafolatidir. Pedagogik texnologiya o’quv jarayonining shunday loyihasini u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha o’qituvchiar foydalana oladilar.

O‘quvchi o‘qitilmaydi – uni mustaqil mutolaa qilishga o‘rgatiladi.

O‘quvchiga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozistiyada tura olishga o’rgatiladi.

Barcha o’quvchilarni o’z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o’zlashtirib olishlari kafolatlanadi.

Ayniqsa, matematika fani murakkabligi, qiyinchilik darajasi va ko‘proq vaqt talab etilishi, shuningdek, izlanish sababli boshqa fanlardan farq qiladi. Shuning uchun bu fanni o‘rgatishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta.

**"Emable"usuli.** Bu usulni ko'pchilik mavzularni qo'llash mumkin. **Emable –** inglizcha so`zdan olingan bo`lib, " Imkon bermoq" degan ma'noni bildiradi.

Bu usuldan 7-sinf algebra darsida "Algebraik kasrlarni ko`paytirish va bo`lish (505-508-misollar)" mavzusida qo'llaganda quyidagicha foydalaniladi. (506-508-mashqlarning juft misollardan tanlanadi, 2 daqiqa mobaynida o`quvchilar o`z imkoniyatlaridan kelib chiqib ball to`playdilar, har bir to`g`ri yechilgan misol uchun 1 baldan beriladi) Monitor orqali 18-slayd o`quvchilarga ko`rsatiladi. [2]




**"FSMU texnologiyasi"**ning 4 bosqichi yozilgan quyidagi ko'rinishdagi qog'ozlar tarqatiladi hamda yakka tartibda ushbu qog'ozni o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldirish topshirig'i beriladi:

**«Trapesiyada uchta to'g'ri burchak bo'lishi mumkin emas»**

**F (fikringizni bayon eting)**

**S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating)**

**M (ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol(dalil) keltiring)**

**U (fikringizni umumlashtiring)**

---

2. O'.Q.Tolipov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "Maktab va hayot" jurnaliga ilova, 11(035)-nashr, 2003-yil, 43-bet.

Har bir o'quvchi yuqorida berilgan fikrga («Trapesiyada uchta to'g'ri burchak bo'lishi mumkin emas») nisbatan o'z munosabatini bildirgan holda qog'ozni to'ldirib bo'lgach,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

o'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi va har bir guruhga FSMU texnologiyasining yuqoridagi mazmundagi 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi.

**"Baholash jadvali" usuli**. Bu usul guruhlar bilan ishlaganda samara beradi. Bunda guruh sardorlari olingan ballarni tushirib boradi, dars oxirida ham g`olib guruh, ham "Yengil zo'r o`quvchi" aniqlanadi va rag`batlantiriladi. Guruh sardorlari a'zolarilarini tanishtiradilar (guruhning nechanchi a'zosi ekanligi emblem orqali ko`rsatiladi, guruh sardorlari **1-a'zo hisoblanadi)** va qisqacha o`z guruhlariga nom berilgan buyuk alloma haqida ma'lumot beradilar. "Baholash jadvali"ni to'ldirish o'quvchilarga tushuntiriladi.

"Baholash jadvali"Sana :_____________ Sinf : _____________

„_________________________ " guruhi, guruh sardori_________________

- "Matematika fanlar ichra shoh,
- uning sirlaridan bo'lingiz ogoh!"
- 1 * 8 + 1 = 9
- 12 * 8 + 2 = 98
- 123 * 8 + 3 = 987
- 1234 * 8 + 4 = 9876
- 12345 * 8 + 5 = 98765
- 123456 * 8 + 6 = 987654
- 1234567 * 8 + 7 = 9876543
- 12345678 * 8 + 8 = 98765432
- 123456789 * 8 + 9 = 987654321

**"6x6x6" USULI.**Bu usul yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish

mumkin. Bu usul asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasida esa o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosalangan muammoni muhokama qiladi..Bu usulni masalalar yechish va mustahkamlash darslarida qo`llash juda samaralidir.

**"Klaster"usuli.** Bu usul o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur usul turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.Ushbu usul aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi.Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.

**"Zakovatli zukko" usuli.** Mazkur usul bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega."Zakovatli zukko" usuli o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Bu usul o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Matematika darslarida ushbu usulni o'quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

**"Charxpalak" usuli**. "Charxpalak" texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi.

Shuningdek, matematika darslarini samarali tashkil etishda **"Fikriy hujum" usuli**dan




foydalanish ham juda samara beradi. Bu usulda o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

Matematika darslarida AKTdan foydalanish uchun, avvalo, kompyuter dasturlari va ulardan foydalanish yo'llarini bilib olish zarur. Bu esa kompyuter dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki kompyuterni qo'llash orqali ularning ijodiy ko'nikmalarini rivojlanishiga ham yordam beradi. [3]

Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini bir yo'nalishi ayrim

o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellastirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini

---

[3.] R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU, 2004-yil

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ta`minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma`lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediyasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda




ma`lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

Matematika fanini kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p:

_ o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi;

_ mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi;

_ o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi;

_ kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanadi;

_ o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi;

_ kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

_ kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi .




O`quvchilarni fanga qiziqtirish, ularning matematik savodxonligini oshirish, butun dunyo yoshlari bilan bahslasha oladigan barkamol avlod qilib tarbiyalash bizning eng oliy maqsadimiz va bu borada bizga axborot texnologiyalari mash`ala vazifasini bajarishini unutmasligimiz lozin

Mustaqil fikrlaydigan, zakiy, barkamol avlodni tarbiyalash biz ustoz-murabbiylar zimmasiga ekan, zamon bilan hamnafas harakatlanish va zamonaviy usullarda mavzularni o`quvchilarga tushuntirish asosiy vazifamiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar" – Qarshi. Nasaf. 2000

2. N.Boltayev, Sh.Narimov, S.Abdalova. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish usullari. –T.: "Ta'lim texnologiyalari" jurnali, 2006 yil 3-son.

3.R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU, 2004-yil

4. O'.Q.Tolipov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "Maktab va hayot" jurnaliga ilova, 11(035)-nashr, 2003-yil

5. Darsliklar asosida metodik qo`llanmalar

6. Qo`shimcha ma'lumot uchun elektron manzillar: *www.eduportal.uz*, *www.ziyonet.uz*, *www.istedod.uz*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Жиззах Политехника институти, Хорижий тиллар кафедраси вб доценти Элова Умида Рўзимуродовна

Электрон почта:umidaumi1997@gmail.com

Телефон номер: 938234044

**Олий ўқув юрти талабаларининг инглиз тилидги оғзаки нутқ кўникмаларини виртуал ёндашув асосида шакллантириш.**

**Аннотация** Ушбу мақолада тил билишнинг ҳақиқий иқтисодий қийматга эга эканлиги, хорижий тилларни ва ўзга маданиятларни ўқитиш ва ўрганиш, халқаро ҳамжамият билан ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳамда фан нуқтаи назаридан алоқаларнинг ривожланиши ва тажриба алмашинув жараёнида муҳим ўрин тутиши каби масалалар акс эттирилган.

Шунингдек виртуал олам билан тизимли ишлашни йўлга қўйиш ва бу борада ахборот тенологияларидан мақсадли фойдаланиб оғзаки нутқ кўникмаларини шакллантиришнинг айрим омил ва воситалари ҳақида фикр ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** рақамли технология, виртуаллик, вертуал технология, лингвистик компонентлик, мулиьмидиал ресурс, инновацион технологиялар

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как то, что языковые знания имеют реальную экономическую ценность, преподавание и изучение иностранных языков и культур, развитие отношений с мировым сообществом с социально-экономической, культурной и научной точек зрения, важная роль в процессе обмена опытом.

Также предоставляются мнения и советы по различным переменным и методам развития систематической работы с виртуальным миром, а также развития способностей устного общения с использованием информационных технологий и их связей.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, виртуальность, виртуальные технологии, языковой компонент, мультимедийный ресурс, инновационные технологии.

Жаҳон таълим муассасаларида бугунги кунда ёшларга сифатли таълим бериш, бунинг учун малакали кадрларни тайёрлаш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган. Айниқса, инглиз тилини ўқитишда рақамли технологияларни қўллашнинг натижавийлиги, қўллаш даври, соҳаси, самарадорлиги ва фойдаланиш услублари бўйича илмий изланишлар олиб борилиб, эришилган илмий ва назарий натижалардан амалиётда кенг фойдаланиб келинмоқда. Жумладан, АҚШ, Германия, Россия ва Япония каби ривожланган мамлакатларда таълим олувчиларга инглиз тилини ўқитишда виртуал технологиялар орқали лингвистик компетентликни шакллантиришда ўқитишнинг самарали усулларини қўллаш, янги ёндашувлар ва техника ва технологияларни ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ қилишнинг ўқув методик таъминотини такомиллаштириш бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Дунё миқёсида барча соҳалар билан бир қаторда таълим соҳасида ҳам инглиз тилини ўқитишда бир қанча компетенцияларни шакллантириш, чет тилини ўқитиш таълимини инновацион таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда ташкил қилиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Хусусан, технологик, иқтисодий, маънавий ва ижтимоий интеграллашув жараёни жадал кечаётган бир пайтда хорижий тилни мультимедиал ўқув ресурслар ҳамда виртуал технологиялар асосида ўқитишда талабаларда лингвистик компетентликни ошириш орқали халқаро малака талабларига мос рақобатбардош кадрлар тайёрлаш мазмуни ва унинг илмий-методик базасини мустаҳкамлашнинг дидактик таъминотини такомиллаштиришга оид илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимиз олий таълими соҳасида ривожланган хорижий давлатлар тажрибаларга асосланган ҳолда рақамли технологиялар орқали чет тилини ўқитиш, талабаларда лингвистик компетентликни шакллантиришнинг меъёрий асослари ва моддий техник базаси яратилди. Таълим тизимининг сифат ва самарадорлигини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

оширишда, чет тилини ўқитиш муаммолари бўйича бир қанча олимларимиз ўз хиссаларини қўшишган, жумладан, Р.Ҳ.Джураев, Р.Г.Сафарова, Х.И.Ибрагимов, Ш.С.Шарипов, Б.С.Абдуллаева, Ш.А.Абдуллаева, А.Т.Нурманов, Ж.А.Ҳамидов, Б.Х.Рахимов, А.А.Абдуазизов, Ж.Ж.Жалолов, Л.Т.Аҳмедова, Т.Қ.Сатторова, Г.Бакиева, Х.С.Муҳиддиновалар, рақамли технологиялар асосида таълим жараёнини ташкил этиш масалалари У.Ш.Бегимқулов, О.Х.Тўрақулов, У.У.Жуманазаров, Н.А.Муслимов, М.Б.Уразова ва бошқа олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Лингвистик компетентликнинг умумий моҳияти Д.Хаймс томонидан кўплаб илмий нашрларда баён этилган. Шунингдек, талабалардан нафақат луғат ва грамматик қоидаларни билиш ва чет тилида ўзлаштирилган билимлар асосида лингвистик компетентликни ҳам баён қилиш имконияти сифатида қаралган ва тилни маълум бир тизимли механизм сифатида тушинган.

компетенциянинг асосий таркибий қисми ҳисобланган лингвистик компетенция – талабаларда тилга оид қуйидаги лингвистиканинг таркибий қисмларини ўзлаштиришга ёрдам беради: фонетик, лексик, грамматик.

Дарҳақиқат, виртуал технологиялар талабларга олий таълим тизими олдида хорижий тилларни инновацион технологиялар таркиби хисобланган мувофиқ билиш соҳасидаги компетентлик даражасини ошириш вазифаси турибди. М.Я.Виленскийнинг «Олий таълимда касбга йўналтирилган таълим технологиялари» қўлланмасига мурожаат қилсак, унда олий таълим тизимига оид иккита устувор вазифа ёритилган. Биринчидан, таълим технологияларини такомиллаштириш орқали кадрлар тайёрлаш даражасини ошириш; иккинчидан, ОТМ битирувчисининг билим, кўникма ва қобилиятлар мажмуи, шунингдек, касбий фаолият вазифаларини муваффақиятли бажарилишини таъминлаш вазифасини қўяди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Таълимни ташкил этиш жараёнида виртуал технологиялар ёрдамида кўпгина афзалликларга эга эканлигини кўриш мумкин. Шунинг билан бирга, талаба билимларни ушбу усул ёрдамида ўзлаштириши ўқув материали ҳамда олинган ахборотни тақдим этишда қўлланиладиган амалиётга ҳам боғлиқ. Онлайн тренингларни мисол сифатида виртуал технологиялар ёрдамида таълимни ташкил этиш жараёнида талабаларга қулайлик яратиладиган қуйидаги келтириши мумкин:

1. Таълимни ташкил этиш жараёнида виртуал технологиялардан фойдаланган холда ўқитувчи ва талабалар ўртасида ўзаро дўстона, ижобий, ижодий, илмий муҳит ташкил этилади. Талаба бу жараёнда ўзини эркин ҳис этиб, мустақил фикрлаш имконияти яратилади.
2. Талабалар оладиган ахборот ҳақида мазкур жараёнда маълумотга эга бўлади, жумладан, фан бўйича ўқув режа, ўрганиши зарур бўлган мавзулар кетма-кетлиги, ўқитувчи томонидан фанни ўзлаштиришга оид адабиётлар, ўқитувчи талабаларнинг электрон почта орқали топшириқларни берилиши ва бажарилишини назорат қилиш технологияси, масалан, сайт ўрнига электрон таълим ёрдамида етказиш методи танланади.
3. Интерактив ўқитиш усулидан фойдаланишда асинхрон ва синхрон фаолият талабалардан ақлий ҳужум методи ва мавзуни билиш имконияти кенгаяди. Виртуал видеокурсларни кўриш жараёнида талабалар интернет ёрдамида, шунингдек, муайян мавзуни тушуниб олиш ёки кўникмаларга эга бўлиш имконини яратадиган автоном режимда тўлиқ ўқув курсларини кўриш имкониятига эга бўлади.

Бундай муаммолар қаторига, олий таълим муассасаларида хорижий тилни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, улар хорижий тил ўқитиш билан боғлиқ муаммоларни келтириб чиқармоқда. хорижий тил таълими учун тузилган ўқув дастурлари, дарсликлар ва қўлланмаларни, шунингдек, касбий тайёргарлигига қўйилган талаблардан келиб чиқиб, уларни қайта ишлаш зарурияти, таълимни ташкил этиш билан боғлиқ муаммоларни, ўқув хоналарини замонавий ўқув воситалари билан жиҳозлаш, хориждаги илғор ўқитиш технологияларни

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

ўрганиш ҳамда уларни амалиётда қўллашга қаратилган турли методик ишланмалар ва кўрсатмалар тузиш каби масалаларни киритиш мумкин.

Биринчи босқич талабаларининг олий ўқув юртдаги шароитга мослашиши (адаптация) даврида уларда ўрганилаётган чет тилига нисбатан зарур касбий мотивациянинг шакллантирилмаганлиги чет тили ўргатиш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатиш ҳолати ҳам аниқланди.

Талабаларнинг бўлажак касблари билан боғлиқ касбий мотивация ҳосил қилишларида, уларда чет тилини ўрганиш учун бўлган истак-хоҳишнинг барқарор бўлишини таъминлайди.

Лингвистик компетенциясини виртуал технологиялар ёрдамида шакллантириш жараёнини биз юқоридаги тадқиқот ишлари таҳлил қилинган олимларнинг компетенциявий ёндашувлари илмий ғояларига таянган ҳолда талабаларнинг мавжуд ҳолатини ўрганиш бўйича тажриба-синов ишларини олиб бордик ва ушбу илмий назарий ғоя юзасидан ўзимизнинг қарашларимизни илгари сурдик. Бизнинг назаримизда лингвистик компетенцияни шакллантириш қуйидаги таркибий босқичлардан иборат:

ўқув жараёнини АКТ воситалари асосида ташкил этиш; Лойиҳалаштириш ва ўқув жараёни;

Лингвистик компетенцияни шакллантиришда, ўқув жараёнини олиб

боришда талабаларнинг виртуал технология моҳиятини етказиш ва натижани баҳолаш келгуси фаолиятини дастурлаштиришда

виртуал технологиялардан фойдаланиш кабиларни инобатга олиб,

албатта, бу жараённи самарали ташкил этишда нафақат ўқитувчи балки талабадан ҳам лингвистик компетентлик талаб этилади деб ҳисоблаймиз.

Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида, компетенциявий таълимни ташкил этишда олий таълимида кўпроқ қуйидаги таълим принципларига таянилади: илмийлик, тизимлилик, изчиллик, кўргазмалилик, таълим ва тарбиянинг узвийлиги, онглилик, тушунарлилик, назария ва амалиёт бирлиги, узвийлик принциплари. уларнинг лингвистик компетентлигини шакллантиришда виртуал технологияларидан фойдаланиш устувор эканлиги тадқиқот муаммосига оид илмий таҳлиллар асосида аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Р.Ҳ.Джураев, Investigated Methods of Improving the Efficiency of diagnosing teaching “Учебное пособие” /Ташкент. 2006.
2. Р.Г.Сафарова “ Pedagogical tools that serve the development of cultural views in the subjects of the educational process”. / Eastern European Scientific Journal/ 2020.
3. А.А.Абдуазизов, “ English Phonetics a theoretical course. Publishing house “ Musiqa” Tashkent, 2007.
4. Ж.Ж. Жалолов, “ English language teaching methodology/ Course book. Tashkent. 2015.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ona tili darslarida tinglab tushunishga o'rgatish

**Sh.Yuldasheva- pedagogika fanlari nomzodi**

**dotsent Nizomiy nomidagi TDPU**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarni tinglab tushunishga o'rgatish metodikasi va qo'llaniladigan usullar yoritib berilgan. O'quvchilarni tinglab tushunishga o'rgatishdagi bosqichlar, mashqlar: maxsus bo'lmagan mashqlar, maxsus mashqlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek tinglab tushunish bosqichlari va mashqlarni bajarish metod va uslublari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tinglab tushunish, matn, audiomatn, anglash, tayyorlov mashqlari, tinglashga tayyorlash, tinglash jarayoni, maxsus bo'lmagan mashqlar, maxsus mashqlar.

Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida[1] maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini ta'kidladi. Maktablarning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologi-yalarini qo'llash bo'yicha vazifalar belgilab berildi. Hozirgi kunda mazkur vazifa-larni bajarish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, ona tili-dan yangi o'quv dasturi va mazkur dastur asosida darsliklar yaratildi va amaliyotga joriy qilindi.

Yangilangan dasturda umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishdan maqsad o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya,

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 19.01.2020

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushuncha-larni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kom-petensiyalarni shakllantirishdan iborat deb ko‘rsatilgan.[2]

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda tinglab tushunish-ning o‘ziga xos o‘rni bor. Nutq faoliyatining mustaqil turi bo‘lgan tinglash bilan kundalik faoliyatimizning har qadamida duch kelamiz: turli xil e'lonlar, radio va va televidenie yangiliklari, ma'ruzalar, suhbatdoshlarning hikoyalari, aktyorlar-ning chiqishlari, telefondagi suhbat jarayoni boshqalar.

Tinglab tushunish atamasi ikkinchi tilni o‘rgatishga oid ilmiy –metodik ada-biyotlarda keng va atroflicha o‘z aksini topgan. Ammo ona tilini o‘qitishga oid ilmiy-metodik adabiyotlarda nisbatan yaqinda qo‘llanila boshlandi.

Tinglab tushunish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, ham tinglash, ham tushunishni o‘z ichiga oladi.Tinglash-nutq faoliyatining retseptiv turi, bir vaqtning o‘zida nutqni eshitish orqali idrok etish va tushunishdir[3]. Nutqni tinglab tushunish daganda ovozli nutq (gapirish ) chog‘ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anglaniladi. Aslida “gapirishni tinglab tushunish” degan ma'qulroq.[4] Demak, tinglab tushunish o‘zgalarning nutqini quloq orqali eshitish, uni tahlil qilish va ma'lum xulosalar chiqarishdir

Milliy dasturda tinglab tushunish “Anglash”ning bir turi sifatida ko‘rsatilib, sinflar kesimida u yuzasidan hosil qilinadigan kompetensiyalar sanab ko‘rsatiladi. Chunonchi, 2-sinfda tinglab tushunish yuzasidan quyidagi kompetensiyalarni hosil qilish ko‘rsatib o‘tiladi:

---

[2] Umumiy o`rta ta'limning Milliy dasturi, Ona tili, 1-11-sinf, loyiha-T.:2020 5-b.

[3] Мехтиханлы Севиндж Габиль. Аудирование как главный аспект в обучении русскому языку иранских студентов, Филология и лингвистика №1 2017 г.

[4] J. Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi, -T.: 2012 219-b

- suhbatni tinglab tushuna olish, zarur o'rinlarni qayd qila olish;

- tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay olish;

- berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;

- jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish; ham keltiriladi.

- maqollar va hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish.[5]

Keltirilgan parchadan shu narsa ma'lum bo'ladiki, 2-sinf o'quvchilari jonli nutq

va audiomatn shaklidagi matnlarni tinglaydilar va ular yuzasidan kompetensiyalar hosil qiladilar. Mazkur dastur asosida yaratilgan darsliklarda tinglab tushunish

o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi asosiy vositalardan biri

sifatida talqin etiladi. Didaktik nuqtai nazardan esa tinglab tushunish ona til dars-larda o'qitish vositasilaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham manbalari turlicha, uslubiy rang-barang matnlarni tinglaganlar, ular yuzasidan ma'lum xulosalar qilganlar, tushun-ganlar. Lekin maktabga kelganda tinglab tushunishning maqsadi, sifati, hajmi ham o'zgaradi, didaktik tamoyillar asosida murakkablashib boradi. Bolalar maktabda, dars jarayonida o'qituvchi, sinfdoshlari va turli audiovositalardagi nutqlarni eshita-dilar, tinglaydilar va h.k. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tinglab tushunish uchun o'qituvchining nutqi namuna bo'lishi lozim. O'qituvchilar jonli nutq bilan bir qatorda ona tili darslarida yordamchi vosita sifatitida audio, vidio va multimediya matnlarlardan ham foydalanmoqdalar. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida bu vositalardan nutqning bir turini, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

---

[5] Umumiy o'rta ta'limning Milliy dasturi, Ona tili, 1-11-sinf, loyiha-T.:2020 23-b

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Tinglab tushunishga o'rgatishda ikki tur mashq ajratiladi.[6] 1.Maxsus bo'lmagan mashqlar. 2.Maxsus mashqlar. Maxsus bo'lmagan mashqlarda tinglab tushunish yo'l-yolakay o'rgatiladi.O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti,mav-zuni tushuntirish jarayoni birinchi mashq turiga oiddir.

Maxsus mashqlarga tinglab tushunishga tayyorlov va sof nutqiy mashqlar kiradi. O'qituvchi dars jarayonida audiomatndan foydalanishda quyidagilarga ahamiyat berishi lozim. Birinchidan, nimani o'rgatish, ikkinchidan, qanday qilib o'rgatish va, nihoyat, tushunganlikni qaysi yo'l bilan aniqlash.

Tinglashga tayyorgarlik bosqichidagi maxsus mashqlar quyidagilarni mujassamlashtiradi:

Tayyorlov mashqlari. 1.Tinglash uchun matn tanlash. 2. Matnni tushunishda qiyinchilik tug'diradigan vaziyatlarni bartaraf qilish. 3.O'quvchirarni eshitishga tayyorlash. Yuqoridagi har bir jarayonni alohida –alohida ko'rib chqamiz.

1.Tinglash uchun matn tanlash. Tinglash uchun matn tanlash o'ta mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. O'quvchilar matnni tinglash jarayonida axborot olish bilan bir qatorda tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini, tilning o'ziga xos jihatlarini amaliy o'zlashtiradilar, ta'lim olish bilan bir qatorda ma'lum tarbiyaviy xulosalar chiqaradilar. O'quvchilarning yosh xususiyatiga ko'ra nutqni eshitib tushunishdagi xotira imkoniyatlarini hisobga oladigan boisak, matnning hajmiga ham e'tibor berilishi lozim. Amaldagi 1-3- sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida audiomatnni eshitish topshiriqlari berilgan. Masalan, 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslig'ida "Nobel mukofoti" audiomatnini tinglang[7] topshirig'i berilgan, o'qituvchi kitobida esa matn keltiriladi. Audiomatnlar to'plamida audiomatn mavjud. Quyida tinglash uchun berilgan matnni keltiramiz.[8]

Nobel mukofoti

[6] Jalolov J.. Chet tili o'qitish metodikasi, -T.: 2012 231-b
[7] Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf 1-qism, -T.: 2021 13-b.
[8]Ona tili va o'qish savodxonligi.O`qituvchi kitobi, 2-sinf -T.: 2021 16-b.
.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Alfred Nobel 350 dan ortiq harbiy qurollar ixtiro qiladi. Lekin yillar o‘tib, ixtirochi qilgan ishlaridan afsuslanadi. Chunki uning yovuz qurollari mingla odam-larning hayotiga zomin bo‘lgandi. Aytishlaricha, olim odamlar uni kechirishiuchun Nobel mukofotini o‘ylab topgan. Nobel mukofoti har yili fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot, tinchlik sohalarida buyuk ishlar qilgan odamlarga topshiri-ladi.

Ilk Nobel mukofoti 1901-yili Anri Dyunan va Frederik Passi ismli odamlarga topshirilgan. Nobelni qo‘lga kiritgan odamga medal, diplom va ko‘p miqdorda pul beriladi.Hozir Nobel fondi mablag‘lari 300 million AQSH dollariga yaqinlashi qol-gan. Agar bu mukofotni qo‘lga kiritsangiz, 1100000 AQSH dollariga ega bo‘lasiz. Mukofotni qo‘lga kiritish uchun Nobel qo‘mitasiga o‘zingiz murojaat etmaysiz. Balki ishlaringizga yuqori baho bergan dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari xat yozishadi.Har yili mukofot qo‘mitasiga minglab nomzodlar haqida murojaatlar kelib tushadi.Avvaliga 300ta nomzod saralab olinadi va ularning ismi sir saqlanadi.

Oktyabr oyida esa barcha yo‘nalish g‘oliblari aniqlanadi. 10-dekabrda Shvet-siya hamda Norvegiya davlatlarida tantanali taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tadi.

Darslikda audiomatn yuzasidan 5ta topshiriq havola qilinadi. “O‘qituvchi kitobi”da esa ularning bajarilishi yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Ilmiy –metodik adabiyotlarda o‘quvchilar diqqatiga havola qilinadigan matnlarga qo‘yiladigan ta-lablar ko‘rsatib o‘tilgan.[9] Shu nuqtai nazardan yuqoridagi matnni endigina 2-sinfda o‘qishni boshlagan o‘quvchilar uchun berilishini o‘ylab ko‘rish lozim.

2. Matnni tushunishda qiyinchilik tug‘diradigan vaziyatlarni bartaraf qilish.Bu bosqichda matndagi leksik va grammatik birliklar ustida ustida ishlanadi. O‘qituv-chi matndagi ma’nosi tushunarsiz, ko‘chma ma’noda qo‘llangan, talaffuzi qiyin so‘z va iboralarni aniqlab shu so‘zlar ustida ishlash metodikasini belgilab oladi. Yuqorida keltirilgan matndagi Alfred, harbiy qurollar, ixtiro qiladi, yovuz qurollar, odamlarning

[9] K. Qosimova|, S. Matchonov,X. G'ulomova, Sh. Yo‘ldosheva,Sh. Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi.-T.:2009 290-291-bet

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

hayotiga zomin bo'lgandi, fiziologiya, ilk, Anri Dyunan va Frederik Passi, medal, Nobel qo'mitasiga, yo'nalish g'oliblari, Shvetsiya, Norvegiya davlatlari so'z va iboralarning ustida fonetik va semantik ishlarni amalga oshirish lozim.

3.O'qituvchlarni matnni tinglashga tayyorlash.Bu bosqichda bir necha xil ish turlaridan foydalanish mumkin:

- O'quvchilarning diqqatini obyektga qaratish maqsadida "Eshitishga tayyorla-ning", "Matnni diqqat bilan tinglang", "Nobel mukofoti" audiomatnini tinglang ka-bi o'quvchilar diqqatini jamlashga yordan beradigan gaplardan foydalanish

- Matn yuzadidan topshiriq berish. Masalan, matndagi bir tovush bilan farq qil-gan so'zlarni aniqlang.

**Kuz**[10]

Yana xazonrezgilik, Oq yaktakli qayinlar
Bog'lar rangi siniqdi. Taqdi yana zar baldoq.
Dilda hokim ezgulik, Qushlarga gap tayinlab,
Anhorda suv tiniqdi. Chag'chag'laydi zarg'aldoq.

*Tursunboy Adashboyev*

*-Matnga oid rasm, narsalarni namoyish qilish.* "Nobel mukofoti" audio-matnini *tinglashdan oldin mukofot rasmini ko'rsatish mumkin.* Tinglash jarayoni. Tinglab tushunishning muvaffaqiyati amalga oshishida quyidagi omillar nazarda tutiladi: tinglovchining o'ziga xos jihatlari (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqati); tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, ohangi, tiniqligi, til materiali hajmi, shakli va h.k.). Matnni tinglash jarayonida ovozning barchaga eshitilarli, tiniq bo'lishi, shuningdek o'qilish ohangi, tempi va tezligi talab darajasida bo'lishi oquvchilarni matnni tushunishlarini yengillashtiradi..

[10] R. Ikromova, X. G'ulomova,Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili, 4-sinf uchun darslik, -T.:2020 5-b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Matn o'quvchilarning o'zlashtirishlariga, berilgan topshiriqlar darajasiga qarab bir necha marta eshittirilishi mumkin. Biz misol qilib keltirgan audiomatnni o'quvchilar berilgan topshiriqlarni tekshirib olishlari uchun yana bir bor eshittirish taklif qilinadi.

Tinglab tushunishga o'rgatishda quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi:

- matn nima haqida ekanligini aniqlash;
- matnga sarlavha toppish;
- matn qismlarini aniqlash;
- ishtirok etuvchilarni aniqlash;
- matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish;
- diologik nutqdagi so'zlovchilarning nutq ohangini belgilay olish;
- lug'at bilan ishlash mashqlari;
- matn bo'yicha savollar tuzish, ularga javob berish;
- jumlalarning o'rni almashtirilib qo'yilgan matn parchasini mantiqiy tartibda joylashtirish;
- matn mazmunini rejaga qarab gapirib berish;
- eshitilgan matndagi voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish;
- matn yuzasudan turli lingvistik topshiriqlarni bajarish.

O'quvchilarni tinglab tushunishga o'rgatish bosqichma-bosqich davom etadigan ish jarayoni hisoblanadi. Ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tavsiya qilinadigan matnlarga bog'liqdir. Matn o'quvchilarga axborot vositasi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zbek tilining boyligi, go'zalligini aks ettirgan bo'lishi lozim. Ayni vaqtda bolalarning saviyasi va yoshiga mos bo'lishi, ularda qiziqish uyg'otishi kerak. Tavsiya qilingan matnlar qanchalik talab darajasida bo'lmasin, o'qituvchining kreativligi, metodik ilmi yetarli bo'lmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 19.01.2020

2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy dasturi, Ona tili, 1-11-sinf, loyiha-T.:2020

3. Мехтиханлы Севиндж Габиль. Аудирование как главный аспект в обучении русскому языку иранских студентов, Филология и лингвистика №1 2017

4.J. Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi, -T.: 2012

5. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf 1-qism, -T.: 2021

6. Ona tili va o'qish savodxonligi.O'qituvchi kitobi, 2-sinf -T.: 2021

7. K. Qosimova|, S. Matchonov,X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva,Sh. Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:2009

8.R. Ikromova, X. G'ulomova,Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili, 4-sinf uchun darslik. -T.:2020

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

RAXMATOVA XALIMA NABIEVNA

SIRDARYO TUMANI XALQ TA'LIMI BO`LIMIGA QARASHLI 23-MAKTAB DIREKTORI

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim sub'ektlarining manfaatli xamkorligining ta'lim sifatini yaxshilashdagi axamiyati oila ta'lim saloxiyatining ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi o`rni, ota-onalarni ta'lim sub'ektisifatida faolligini ta'minlash, ularning pedagogik saloxiyatini yaxshilashning pedagogik shart sharoitlarini yaratish masalasi tadqiq qilingan.

TAYANCH SO`ZLAR : milliy dastur, takomillashtirish, texnologiya, ta'lim-tarbiya, Davlat dasturi, malaka oshirish, faoliyat.

Xar bir xalq, xar bir millatning

Ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan

avlod takdiri bilan uzviy bog`liqdir.

Mamlakatimiz mustakilligi milliy ta'lim soxasida tub isloxatlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olinga xolda, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash yo`nalishlari bo`yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o`quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi.

Xozirgi vaqtda mamlkatitmizning barcha soxalarida isloxatlarni amalga oshirish,odamlarning dunyoqarashini o`zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beraditgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni xayotning o`zi taqazo etmoqda.Respublika ta'lim tizimini mustaxkamlash, uni zamon talablari biln uyq`unlashtirishga katta axamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi isloxatlar talablari bilan chambarchas boq`langan bo`lishi muxim axamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash , Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarni takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalallardan biridir.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o`qituvchi oquv bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini xam ta'lim mazmuniga mos xolda tanlay olishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyixalash shartlaridan biri 2 tashkiliy shakllarni» to`g`ri tashkil etish sanaladi. Didaktik jarayon u yoki bu texnik vositlarning ta'lim mazmuniga mos xolda uzluksiz qo`llashni taqoazo etadi. Bu o`ynalish zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo`llanishida muximdir.

O`qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni tuzish talablari bilan tanish bo`lishi va uning eng ma'qul variantini xar bir dars mavzusiga bog`lik xolda loyixalashi kerak. Bu talablar jadallashtirish va tabiatan monandlik tamoyilidir.

Ta'lim sifatini oshirish, fan va texnologiyalaning eng so`nggi yutuqlarini amaliyotgajoriy etish asosida ijodkor, kasb-xunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan,tashabbuskor va tadbirkor, uz javobgarligini xis etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muxim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda o`qitishning an'anaviy kurinishidan fark qiladigan zamonaviy texnologiyalarni q`o`llash, o`qitish jarayonini yagona shaklda keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Xar bir o`smirning bilimdonligi va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish,inson faoliyatini turli soxalarda joriy qilib ko`rish, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo`llanilishi lozim.

O`smir yigit va qizlar nafaqat bo`lg`usi katta xayotga tayyorgarlik ko`radilar, balki ana shu xaqiqiy xayot bilan yashaydilar.

Pedagogik texnika – bu shunday bir malakalar yig`indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko`rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o`z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi.

O`zbekistonning mustaqilligi tufayli ota-bobolarimizning axloq-odob xaqidagi xikmatli xikoyalari,naql rivoyatlari yoshlarningt ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muxim axamiyat kasb etmoqda. Buni bizx odobnoma fanining ukitilishi misolida kurishimiz mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil kilishda esa xar bir pedagog odob-axloq xaqidagi bilimlarga ega bo`lishi kerak.

Keyingi yillarda davlatimizda qabul kilinayotgan ta'lim va tarbiya to`g`risidagi qator me'yoiy xujjatlar , jumladan, « Ta'lim tugrisidagi» Konuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, maxalla va o`quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pog`onaga ko`tarishga taqazo etadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Yana shuni ta'kidlab o`tish kerakki tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda xuquq- targ`ibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg`armalar, ko`mitalar va tashkilotlar bilan xamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. N.Azizxodjaeva Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.2006 yil
2. Yoshlarni tarbiyalashda oila maxalla va ukuv yurtining xamkorligi amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

# ILM-FAN VA TEXNIKA

**Sottorov Suhrob Umrbek o'g'li**
**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, 3-bosqich talabasi**

***Annotatsiya:*** *Ma'lumki, har qanday holatda ham ilmiy-texnika taraqqiyotining bosib o'tgan tarixiy asoslari bor. XX asrning o'rtalariga kelib fanning ijtimoiy hayotdagi roli mislsiz darajada oshdi. Fanlar taraqqiyotidagi inqiloblarning xarakteri o'zgardi, ya'ni ilm sohasidagi inqiloblar texnika sohasidagi axborotlar bilan uyg'unlashib ketdi va ilmiy – texnika inqilobi yuzaga keldi. Mazkur maqolada ilm-fan va texnika taraqqiyoti hamda uning ahamiyati haqida bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ilm-fan, texnika, axborot texnologiyalar, avtomatlashtirish.*

XX asr 40 – yillarining oxirlaridagi ilmiy – texnika inqilobi fanining bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanish natijasida fanning o'zida, texnikada va ishlab chiqarishda katta sifat o'zgarishlariga olib keldi. Natijada har 10-15 yilda ilmiy faoliyat hajmi ikki marta oshib kela boshladi. Shu narsani mamnuniyat bilan qayd etish mumkinki XX asrning 70-yillaridagi olim va ilmiy xodimlar soni butun fan taraqqiyoti davrlarida yashagan olimlar sonining 90 % dan ko'prog'ini tashkil etadi, degan xulosalarga ham kelindi.

Umuman olganda, shuni qayd etish mumkinki, jahon miqyosida ilmiy xodimlarning o'sish foizi aholining o'sish foiziga qaraganda bir necha marta ortiq, ya'ni fan va ta'lim ijtimoiy salohiyatning muhim omiliga aylandi. Natijada XX asrlarda ixtisoslashgan ilmiy tashkilotlar (muassasalar) soni keskin ravishda oshdi. Fan sohalari bo'yicha ilmiy muassasalar tashkil bo'la boshladi hamda yangi nomdagi fanlar yo'nalishlari va ularga xos ta'lim mazmuni yuzaga kela boshladi. Jumladan, kibernetika (iqtisodiy kibernetika, bio – med kibernetika, texnika kibernetikasi va h.k.), matematik lingvistika, geofizika, biotexnika, ehtimollar nazariyasi, informatika, texnik estetika va shu kabilar yangi nom olgan fan yo'nalishlaridir. Bularning hammasi fan sohalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Jumladan, Ona vatanimizda qadimgi matematika, falakiyot ilmi, tibbiyot, geodeziya, geografiya va shu kabi fanlar rivojida uyg'onish davrlari, ya'ni Sharq madaniy yuksalishining "Oltin davri" deb atalgan bo'lsa, bugungi kunda ham ma'lum va mashhurligini yo'qotgan emas, ya'ni bugungi kunda matematik statistika va integral tenglamalar, sonlar nazariyasi, hisoblash matematikasi sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ehtimollar nazariyasi bo'yicha "Toshkent maktabi" deb nom olgan ilmiy yo'nalish dunyoga mashhur. Yadro fizikasi va geofizika va elektronika, aerogidromexanika va gaz dinamikasi yutuqlari xalq xo'jaligining turli sohalariga tadbiq qilinmoqda. Bioorganik va fizik, kimyo, o'simlik moddali va yuqori molekulalar birikmalar kimyosi ko'plab tabiiy va sun'iy kimyoviy moddalarni olish imkonini berdi. Botanika va seleksiya, zoologiya va medisina, biokimyo, biofizika va geologiya yirik muvaffaqiyatlarga erishdi. Keyingi chorak asr davomida ilmiy – texnik taraqqiyotga nazar tashlasak, bu davr ichida ko'pincha, ayniqsa fizika, matematika, mexanika, kimyo, biologiya kabi aniq fanlar va shu bilan birga texnikada tamomila yangicha sifat va tamoyillarga ega bo'lgan qonunlar, nazariyalar va gipotezalarning vujudga kelganligini shohidi bo'lamiz. Fanlarning o'zaro hamkorligi tezlashib, fanning yangi sohalari paydo bo'la boshladi. Bular ta'lim mazmuniga ham

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

sezilarli ta'sir ko'rsatdi va bular o'z navbatida texnika – texnologiya taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda xalq xo'jaligini boshqarishni avtomatlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu borada fan - texnika yutuqlarini o'z navbatida yoshlarga yetkazib borish, hozirgi zamon darslarga qo'yilgan talablardan biridir.

Ta'lim mazmunida "Fan ta'lim amaliyot" integrasiyasining zarurligi. Fan va texnikaning ishlab chiqarish bilan yaqindan integrasiyalashib borish bu davr taqozosidir. Shuning uchun ham bugungi yoshlar maktablarni bitirib hozirgi zamon texnikasining asoslari haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Bugungi yuksalayotgan fan va texnikamiz bizga jamiyat qonunlari va tabiatdagi hodisalar mohiyatini, bizni o'rab turgan muhitni rivojlantirishni tushunib yetishga yordam beradi. Ilg'or fan va texnika – texnologiyalar tufayli inson atrof – muhit bilan faol hamkorlikda bo'ladi, uning yashash sharoitlari yaxshilanadi.

XIX asrning oxiri XXI asrning boshlarida fan va texnika misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Bu davrda sanoat, transport va boshqa sohalarni avtomatlashtirishga kirishildi. Avtomatik boshqarish nazariyasiga asoslangan "Kibernetika" nomli yangi fan vujudga kelishiga asos bo'ldi. O'tgan yillar mobaynida yetuk olimlar yordamida kibernetika fanining texnik asoslari bo'lmish kompyuterlarning o'nlab, yuzlab turlari yaratilgan bo'lib, ular hisoblash jarayonini yengillashtiradi. Shunga qaramay, bugungi kunda yaratilgan kompyuterlarning turli ko'rinishlarini, ya'ni kompyuterlarni va mini – kompyuterlarni takomillashtirishga olimlar tezlik bilan kirishdilar.

Kelgusi davr komputerlari sekundiga ulardan bir necha ming barobar tez ishlaydigan bo'lishi kutilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bugungi dunda hisoblash ishlarini tezkor bajarish uchun ko'plab kompyuterlar zarur. Kompyuterlardan fizika, matematika, astronomiya, kimyo, geofizika, texnika va boshqa bir talay fan sohalariga oid turli xil murakkab matematik masalalarni yechishda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ayniqsa, atom energiyasi, qurilish, kosmik fazoni zabt etish va boshqa ko'pgina sohalarning beqiyos rivojlanishini ularga hisoblash texnikasini keng ko'lamda qo'llanilayotganligining natijasi deb qarash mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, fizika, matematika, elektronika kabi fanlarning eng ulkan yutuqlarini mujassamlashtirilgan kompyuterlar shu paytgacha yaratilgan har qanday hisoblash mashinalaridan ham ustunlik qiladi.

Hozirgi kunda komputerlar qo'llanilmayotgan biron sohani topish qiyin. Ular dastgoh, sex, zavodlarni boshqarishda ham insonga yaqindan ko'maklashmoqda. Komputerlarning ikki muhim xususiyati: hisoblashni tez bajarishi va xotirasida katta hajmdagi axborotni ishlab chiqish uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratib bermoqda. Turli xil jarayonlarni har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ma'lum tarzdagi hisoblash operasiyalarini tezlashtirish, aqliy faoliyatining ayrim tomonlarining modellashtirish va shu kabi ishlarni avtomatlashtirishni talab qiladi. Bu esa faqat hozirgi kunimiz kashfiyotlari emas, balki kelajagi porloq davlat barpo etish uchun jiddiy harakatlarning biridir. Tadqiqotlar insonning uzoq yashashi, farovon turmushi uchun yaratilishini e'tiborga olib bu sohadagi olimlarning keyingi maqsadi odam turli organizmlarga mos ishlab chiqilgan tizimlarni birlashtirish "Sun'iy odam" yasashdek buyuk maqsadga qaratilgan. Umuman olganda hozirgi zamon fan – texnika inqilobi avtomatika, uning elementlari va vositalari

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

yadrosini tashkil qiladi va bunday bo'lishi hozirgi davr taqozosi. Demak, uchinchi ming yillik birinchi asrida yashovchi barkamol avlod muntazam ravishda ilmiy - texnik taraqqiyot bilan tanishtirilib borilmog'i lozim ekan. Bu taraqqiyotdan tanish bo'lish uchun bugungi kunda Respublikamizda keng imkoniyatlar mavjud. Ular: masofaviy ta'lim, "Internet" tarmog'iga ulanish, elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va hokazolardir.

Demak, har bir yosh uchinchi ming yillikning birinchi asri bo'lmish "XXI asr – intellektual asr" ning faol ishtirokchisi bo'lish uchun ular mazkur davrning ta'lim – tarbiya sivilizasiyasining faol ishtirokchisi bo'lmog'i lozim va buning uchun zamonaviy ta'lim mazmunini yuqoridagi kabi fan va texnika yutuqlari bilan boyitib borish kerak. Buning uchun barkamol avlodni shakllantirishni quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi: xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlariga suyangan holda ta'lim – tarbiyani rivojlantirishning jahon talablarini hisobga olib DTSni takomillashtirish; shakllanishi lozim bo'lgan barkamol avlodning ma'naviy – ma'rifiy tarbiyasida boy milliy, madaniy – tarixiy an'analari, xalq urf – odatlari va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakllar hamda manbalarni ishlab chiqish va joriy qilish; uzluksiz ta'lim tizimida o'quv – axborot muhitini yaratish; uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari bazasida ta'lim jarayonining axborotli ta'minotini rivojlantirish; uzluksiz ta'lim tizimida kompyuter – kommunikasiyasi tarmoqlari (komputerlar, kompyuterli tizimlar, kasbiy kompyuterli o'yinlar, elektron telekonferensiyalar va h.k.) dan keng foydalanishga erishish; uzluksiz ta'lim tizimi – dagi yutuqlarni keng joriy etishda ommaviy axborot vositalaridan muntazam foydalanib borish mexanizmlarini asoslash; yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish; uzluksiz ta'lim tizimida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini salmog'ini kengaytirish, "Fan ta'lim amaliyot" integrasiyasining uzluksiz ta'lim tizimiga samarasini aniqlab borish; uzluksiz ta'lim tizimiga ilg'or rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlashga erishish, hamkorliklarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va h.k. Insoniyat madaniyatining butun rivojlanishi fan-texnika taraqqiyoti (F.T.T.) bilan qattiq bog'langan Lekin bu taraqqiyot jarayonida ishlab chiqarish kuchlari tez va chuqur o'zgargan ayrim davrlar ham bo'lgan.

XVIII-XXasrlarda bir qancha mamlakatlarda sanoatda keskin burilish bo'lgan davr ana shunday davrlardir. Bu davrlarda qo'l mehnati yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tildi. XX asrning o'rtalaridan boshlangan hozirgi FTT ham shunday keskin burilish davridir. FTT insoniyat ishlab chiqarish kuchlarida tub sifatiy burilish bo'lib, u fanni jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishiga asoslangan. FTT asta-sekin rivojlana borib, keyin insonning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarining benihoya o'sishiga turtki bo'ladi. Biz FTT yanada chuqurlashib borayotgan davrda yashayapmiz. Hozirgi zamon FTT 4 ta asosiy hususiyatga ega: Birinchidan, ko'p qirrali bo'lib, hamma tarmoqlar, hamma sohalarni mehnat jarayonini, turmush sharoitini, madaniyatini, kishilar ruhiyatini o'zgartiradi. Agar ilgari sanoatda burilishning ramzi deb bug' mashinasi hisoblangan bo'lsa, hozirgi FTT ning ramzi EHM, kosmik kema, samolyot, AES, televizor, telefon, mini

kompyuterlar bo'lishi mumkin. Hozirgi FTT ning ko'p qirrali ekanini geografik jihatdan ko'p sharxlash mumkin. Chunki FTT dunyoning barcha mamlakatlariga, Yerning butun geografik qobig'iga, shuningdek koinotga ham ozmi-ko'pmi ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, fan-texnika qayta qurishni nihoyatda tezlashtirib yubordi. Bu tezlanish ilmiy kashfiyot bilan uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish o'rtasidagi vaqtning keskin qisqarganida mahsulotlarning juda tez ma'naviy eskirib qolishida va binobarin, muntazam yangilanib turishida o'z ifodasini topdi. Uchinchidan, insonning ishlab chiqarishdagi o'rnining tubdan o'zgarishiga olib keldi. FTT mehnat resurslari malakasi darajasiga talabni keskin oshirdi. Bu talab sizlarning har biringiz uchun ham zarurdir. Bu hol ingson faoliyati barcha sohalarida aqliy mehnat salmog'ini oshirdi, ya'ni mehnatni aqliylashtirish ro'y berdi. To'rtinchidan, FTT ning muhim hususiyati shuki, FTT II-jahon urushi vaqtida harbiy texnika inqilobi sifatida paydo bo'ldi. 1945 yil Xirosimada portlagan atom bombasi harbiy-texnika inqilobi boshlanganligi haqida jar soldi. Butun "sovuq urush" davomida fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari harbiy maqsadlarda foydalanishga qaratildi. Iqtisodchilar, faylasuflar va sosiologlar hozirgi zamon FTT ko'p qirrali bo'lib, yagona murakkab tizimdan iborat. Bu tizimda uning 4 ta tarkibiy qismi bir-biri bilan o'zaro juda bog'lanib ketgan, deb hisoblaydilar. Bu 4 ta tarkibiy qism:

1.Fan
2.Texnika va texnologiya.
3. Boshqaruv.
4. Ishlab chiqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar

4) Haqiqat manzaralari. Mumtoz faylasuf. T., "Yangi asr avlodi", 2002.
5) N. Shermuhammedova. Falsafa va fan metodologiyasi. T. , 2005.
6) Abduqahhor Ibrohimov. Ma'mun akademiyasi. T., 2005.
7) http://encvclopedia.org

Elektron pochta manzili : sottorovsuhrob@gmail.com
Telefon raqami: (94) 312 87 77

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : ТИЛ- МИЛЛАТ БОЙЛИГИ

БОБОЕВА ХИЛОЛА САИДАКБАРОВНА - СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ САРДОБА ТУМАНИ

АННОТАЦИЯ : Она тилимизнинг халкаро микиёсидаги урни , давлат тили сифатида сиёсий –хукукий, ижтимоий-иктисодий, маънавий-маърифий хаётимизда фаол кулланиши

ТАЯНЧ СЎЗЛАР : таълим-тарбия, мақом, маданият,кўзгу, анъаналар, имконият, миллат, давлат тили, коммуникация

« Кимда-ким ўзбек тилининг бор латофа-
тини, жозибаси ва таъсир кучини, чексиз
Имкониятларини хис қилмокчи бўлса,
Мунис оналаримизнинг аллаларини,минг
Йиллик достонларимизни, ўлмас мақом-
ларимизни эшитсин, бахши ва хофиз-
ларимизнинг сехрли қўшиқларига
Қулоқ солсин…

Ш.Мирзиёев

Тил - миллат тимсоли, маданий ва маънавий бойлиги. Тил орқали хиссиётларимизни етказиб берамиз, алока қиламиз. Биз севиб ўқиган асарлар, намойиш қилинган кинолару, эшитган кушиқларимиз,айнан тил оркали дунёга келади.

Тил хар бир миллатнинг кўзгуси, унинг хақиқий сарчашмасидир. Тил бор экан, миллат бархаётдир. Тилни онага қиёсланиши бежис эмас, инсон ўз онасини кўрмасдан, унинг соф мухаббатини, мехрини туймасдан яшай олиши мумкин эмас.

Тил хар бир миллат маданиятининг ўзагидир. Шу сабабли хам тилнинг сакланиши халқ тараққиёти ва келажагини белгилайди. Тил халқни бирлаштиради, тарбиялайди, ўқитади, урф-одат, анъаналарни сақлайди. Она тилимизнинг халқаро миқиёсидаги обрў-эътиборини юксалтиришда, уни миллий ва умумбашарий

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тушунчалар асосида тараккий этган тиллар сафига кўшишда хар биримиз тилимизга чукур хурмат билан ёндашишимиз керак.

Тил миллат киёфасининг бир бўлаги. Дунёдаги барча халқлар ўзининг миллий расмий тилига эга деб айтолмаймиз. Чунки бу халқнинг мустақиллигига боғлик. Тил нафақат муомала воситаси- балки халқнинг маданияти,урф-одати,унинг турмуш тарзи,тарихидир.

Хар қайси халқ ёки миллатнинг маданиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одат ва анъаналари,тили, маданияти ва қадриятларидан айрим холда тасаввур этиб бўлмайди. Халқнинг Ватани, давлати каби яня бир буюк, эхтимолки, бирламчи бойлиги бор. Бу унинг- тилидир. Айнан тил одамлар гурухини бир миллат сифатида бириктиради, яъни халқни- халк,миллатни- миллат қилади.

Инсон учун унинг ватани,ота-онаси, оиласи қанчалик қадрли бўлса, унинг она тили хам шу қадар азиз ва муқаддас бўлади.

Мана ўттиз йилдан ошди, дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимизнинг жипслиги, маданияти, маънавиятининг асосий белгиси сифатида энг ёрқин давр сифатида хотирамизда мухрланиб қолади. Тил байрами- бу тарихий воқеа, мамлакатимизда она тилига бўлган доимий эътибор ва ғамхўрликнинг изчил давоми бўлиб, тилимизни асраш унинг поклиги ва ўзига хослигини сақлаш, янада бойитиш ва ривожлантириш йўлидаги энг мухим қадамлардан бири сифатида қадрлидир.

Тил- инсоният тарихидаги энг буюк кашфиёт бўлиши билан биргаликда буюк имконият хамдир. Унинг тараққиёти- мансуб халқ маънавиятининг, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маънавий ривожланишининг ифодасидир.

Тил инсоният учун Аллох таоло томонидан берилган улкан неъматлардан биридир. Тил орқали қалбимиздаги яширин сўзларимизни, туйғуларимизни ифода қиламиз. Мана шу сўзлашув орқали инсон бошка мавжудотлардан устун ва мукаррамдир. Инсон ўз она тилиси билан улғаяди, камолга етади. Мана шу тил билан яшаб ўтади. Комилликнинг биринчи белгиси хам тилда намоён бўлади. Зеро нутқнинг гўзаллиги, тилнинг бурролиги, ифоданинг аниқлиги инсон учун ўзига хос хусндир,бу хусн охир оқибатда жамият ва миллатнинг хуснини кўрсатади.

Она тилини севмаган одамда ўзи туғилиб ўсган заминга,аждодларимиз минг йиллар давомида яратган буюк маданий меросга , ота-онага, урф-одатларимизга мухаббат бўлмайди.

Хозирги кунда ўзбек тили давлат тили сифатида сиёсий-хуқуқий,иқтисодий-ижтимоий, маънавий-маърифий хаётимизда фаол кулланмокда.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Тонгдек оромбахш, қуёшдек нурли, она оғушидек иссиқ, бахордай тароватли, ёздек хароратли, куздек саховатли, қиш қорларидек беғубор туйғуларимизнинг таржимони бўлган, миллатимиз рухини ифода этувчи она тилимиз, бизни юксак маънавиятга, маданиятга, истиқлолу истиқболга етакловчи бебахо неъматдир. Шу боис хар биримиз она тилимизни асраб авайлашимиз, эъзозлашимиз керак. Зотан тилмизга эътиборли бўлсак, миллатимиз қалби она тилимиз хеч качон завол топмайди. Донишманд ота-боболаримиз азалдан нутқ маданиятига катта эътибор беришган. Улар қолдирган асарларни ўқир эканмиз, хар бир сўз ўз ўрнида кўлланганига гувох бўламиз.Зеро фарзандларимиз бизнинг асл адабий ўзбек тилини авлодларга тўла тўкис етказиб беришни тилнинг мустахкамланишига асос бўлади.

Шундай экан, она тилимизни асраб авайлаш,уни эъзозлаш хар биримизнинг зиммамизга катта маъсулият юклайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Тил миллат кўзгуси. Халқ сўзи. 2020- йил 19 -октябрь
2. Тил миллатнинг маънавий бойлигидир. Ш.Очилова

# ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Эсанова Зилола Гайбуллаевна***

***учитель русского языка высшей категории.***

***Кашкадаринская область, Нишанский район***

***СГОШ №13***

**Аннотация:** В данной статье рассматривается содержание и сущность использования информационно-коммуникационных технологий в обучении русскому языку. Кроме того, выделены дидактические принципы использования ИКТ на занятиях по иностранному языку. В статье анализируются образовательные задачи, возможности, компоненты и специфика ИКТ.

**Ключевые слова:** компьютерные технологии, ИКТ, дидактика, компонент, учитель, компьютер, русский язык.

## ВВЕДЕНИЕ

В современном мире, когда одной из актуальных социальных задач становится сближение людей разных стран, значимость изучения и преподавания русского языка как иностранного значительно возрастает. Поэтому проблема оптимизации и интенсификации преподавания русского языка как иностранного остается одним из приоритетных направлений развития в условиях реформирования узбекского образования. В успешном разрешении этих задач огромную роль играет роль преподавателя в использовании новых методов, новых технологий обучения в зависимости от различных целей, условий обучения. Все более важное место в структуре профессиональной компетентности педагога занимают компьютерные технологии. Как подчеркивают специалисты (1, 127), по мере совершенствования педагогического процесса компьютеры приобретают все большее значение для создания и поддержания интерактивного обучения, моделирования специальной

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

учебной среды, стимулирования изучения иностранного языка в контексте диалог культур.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**

В настоящее время в Узбекистане идет формирование новой системы образования, направленной на вхождение в мировое информационно-образовательное пространство. Этот процесс сопровождается существенными изменениями в педагогической теории и практике учебно-воспитательного процесса, связанными с внесением коррективов в содержание технологий обучения. Справедливо считается, что образовательные технологии должны быть адекватны современным техническим возможностям, так как должны способствовать гармоничной интеграции учащегося в информационное общество.

Проблемы, состояние и направления развития информационных технологий, возможности их применения на уроках русского языка становится реальностью образовательного процесса, что актуализирует вопросы их эффективного использования как новых средств обучения для совершенствования качество обучения. (В.П. Беспалько, А.Г. Гейн, С.Г. Григорьев, В.В. Гриншкун, Г.М. Коджаспирова, А.А. Кузнецов, С.В. Панюкова, Н.В. Папуловская, И.В. Роберт, Д.Д. Рубашкин, Г.К. Селевко, Е.С. Полат, А.Ю. Уварова, О.Н. Шилова и др.).

**РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ**

Под информационными технологиями понимается совокупность методов, производственных процессов и программно-аппаратных средств, обеспечивающих сбор, обработку, хранение, распространение и отражение информации. Процесс информатизации охватывает практически все сферы материального производства, социальной сферы, образования. Объектами процессов информатизации являются сообщения, документы, базы данных, информационные технологии, программное обеспечение, информационно-вычислительные системы и сети.

О компьютерных технологиях обучения можно говорить в полной мере, соблюдая такие принципы функционирования, как системный подход, создание

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

единой информационной базы, обратная связь, интерактивное взаимодействие, открытость и постоянное развитие.

Возможности использования компьютеров рассматриваются в дидактической литературе следующим образом:

– ЭВМ как вспомогательное средство обучения для организации преимущественно самостоятельной деятельности (преимущественно обучающего характера);

– Компьютеры как средство создания новой среды обучения, инструмент познания;

– Компьютер как средство связи и источник информации;

Под информационной (компьютерной) технологией обучения понимается процесс подготовки и передачи обучаемому информации с помощью компьютера. Информационные технологии могут включать в себя различные методы обучения: программированное обучение, интеллектуальное (проблемное) обучение, экспертные системы, системы учебной коммуникации.

По мнению Н.В. Апатовой, важнейшими характеристиками обучения информационным технологиям являются:

1. Виды обучения компьютерным системам (программное, проблемное обучение, тестирование);

2. Используемые средства обучения (гипертекст, мультимедиа);

3. Инструментальные системы (языки программирования, авторские системы, базы данных, текстовые редакторы) (5, 110).

С внедрением в педагогическую систему компьютеров и современных технологий нельзя не отметить основные возможности новых средств обучения:

– использование компьютерных технологий для организации интеллектуального досуга.

Дидактический принцип научности также требует, чтобы модели в компьютерной обучающей программе были точными, многократно проверенными.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Способы усвоения учебного материала, предусмотренные программой, должны формировать у школьников умения и навыки научного поиска.

## ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, активизация интеракций на уроках с использованием ИКТ положительно влияет на интенсивность обратной связи в процессе обучения, что является источником совершенствования, его результативности и качества.

Иными словами, внедрение информационно-коммуникативных программ в образовательный процесс неизбежно влечет за собой существенные изменения в структуре всей педагогической системы. В то же время схема «человек-компьютер-человек» имеет неизмеримо большие возможности, она способна предложить принципиально новый подход к решению задач обучающего характера, отличный от традиционного метода.

## ЛИТЕРАТУРЫ

1. Азимов Э.Г. Теория и практика использования компьютерных программ в обучении русскому языку как иностранному. – Свет, 2010. – 149 с.

2. Чибухашвили В.А. Возможности использования компьютерных технологий на уроках русского языка в небольшой сельской школе - http://www.mgopu.ru/Journal/05_chibushvili.htm

3. Гершунский Б.С. Философия образования XXI века (в поисках практико-ориентированных образовательных концепций). - М.: Владос, 2017. - 214 с.

4. Проколиенко Л.Н. Методические проблемы использования ЭВМ в обучении // Компьютер в обучении: психолого-педагогические проблемы (круглый стол) // http://www.voppsy.ru/issues/1986/866/866042.htm

5. Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. – Москва: Просвещение, 2014. – 189 с.

6. А.Гарцов. Актуальные вопросы компьютерной лингводидактики // Компьютерная лингводидактика: теория и практика: курс лекций / под ред. А.Д.Гарцов. - Москва: Изд-во Российского университета дружбы народов, 2016. - 211 с.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI

**Soliyeva Laylo Nuriddinovna**
Navoiy viloyat G'ozg'on shahar 1-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, bu jarayonda, fanlar o'rtasidagi integratsiya holati, innovatsion metodlarni yaratishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada, "Reklama", "Kamalak jilosi", "Juft barmoqchalar", innovatsoin "Krassvord" metodlari tavsiya etilgan.
**Kalit so'zlar:** innovatsiya, metod, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, pedagogik yangilik, texnologiya, axborot texnologiyalari, integratsiya, Microsoft Excel dasturi.

*"Tarbiya biz uchun yo hayot* - *yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir." A.Avloniy*

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o'qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo'llanilishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.

*"Reklama"* metodi, asosan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materiallarni beradi, ularda

"Reklama qiling!" birikmasi yozilganligi asosiy qoidadir.

O'quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos sifatlar, xatti-harakatlar, asardan parchalar, rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, mazkur metoddan sinfdan tashqari o'qish darslari uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, boshqa o'quvchilarga o'qish uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. "Reklama" metodining afzalligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, jamoa oldida nutq so'zlash, o'z fikrini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi;
- dars jarayonining mazmunli tashkil qilinishiga erishiladi, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ularda kitobga bo'lgan hurmat shakllanadi, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, sog'lom raqobat muhiti paydo bo'ladi, o'zgalar fikrini hurmat qilish, ularni diqqat bilan tinglash, o'z diqqatini jamlash va fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

*"Juft barmoqchalar"* metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.



1-rasm. "Juft barmoqchalar" metodining tasviriy ko'rinishi

"Juft barmoqchalar" metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchining estetik didi shakllanadi, ijodiy fikrlashi ortadi, badiiy san'at va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi oshadi;
- o'quvchining qo'l matorikalari rivojlangan holda uning intelektual fikrlash qobiliyati shakllanadi;
- o'qituvchi jamoasini darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faollikka chorlash bilan bir qatorda mavzuni qay darajada tushunishganligini bilib oladi;

- o‘quvchida ona tili fani bilan bir qatorda matematika, rasm va texnologiya faniga bo‘lgan qiziqish ortadi. Chunki, o‘quvchi “Juft barmoqchalar” ni yasash jarayonida rasmni chizadi, kesadi va hisob-kitob qilib barmoqlarida tasvirlaydi;

*“Kamalak jilosi”* metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so‘z turkumidagi so’zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo‘llash mumkin. Ya’ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo‘lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo‘la oladi.

“Kamalak jilosi” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o‘quvchi ranglar orqali so‘zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o‘quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, ularda atrofmuhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko‘nikmalari shakllanadi;
- o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnlilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.
- *“Krossvord” metodi* avvaldan qo‘llanilib kelinayotgan metodlardan biri bo‘lib, uni har bir sinfning far bir darsligida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositasi bo‘lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Ammo, kompyuterning Microsoft Excell dasturi orqali tayyorlangan krasswordlar avvalgilariga qaraganda, samaraliroq natija berishini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri, Microsoft Excell dasturi biroz murakkab hamda formulalar asosida ishga tushiriladi, biroq, o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasidagi bilimlarni egallagan bo‘lishlari davr talabidir.
- Innovatsoin krasswordlardan boshlang‘ich ta’limning har bir bosqichida, shuningdek, yuqori sinflar dars jarayonlarida ham foydalanish mumkin. Microsoft Excell dasturida tayyorlangan krasswordni bajarishdan oldin o‘quvchilarni krasswordni bajarishga undovchi fikrlarni keltirish va bu orqali ularning qiziqishlarini yanada oshirish mumkin.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




2-rasm. Krasswordni to‘ldirishdan oldingi holat

- Innovatsion krasswordni yechish jarayonida, o‘quvchilar xato javob bersalar “smayl”imiz xafa bo‘lish shakliga o‘tadi, agar to‘g‘ri javob bersalar “smayl”larning kulayotganligini ko‘rish mumkin. Krasswordning afzalligi shundaki, o‘quvchilar tomonidan belgilangan javoblarning to‘g‘riligini tekshirish o‘qituvchi tomonidan emas, kompyuter dasturi tomonidan aniqlanadi va ekranda paydo bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni baholashda o‘qituvchi imkoniyatining oshirilishi va vaqt tejamkorligiga erishilishini ta’minlaydi. Yakunda barcha javoblar to‘g‘ri va aniq bo‘lsa, o‘quvchilarga nisbatan maqtov so‘zlarini ekranda ko‘rishimiz mumkin.




3-rasm. Krasswordni to‘ldirishdan keyingi holat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

"Microsoft Excell dasturida yaratilgan innovatsion "Krossvord" metodi orqali o'quvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchilarda bajarilayotgan krassvord mavzusida oid bilimlar bilan birga

"Informatika" fani haqidagi bilimlar ham shakllanadi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan xabardor bo'ladi; o'quvchilarda texnologiyalarga nisbatan qiziqish, ulardan foydalanish keng

eshtiyoqi shakllanadi, shuningdek, darslarda axborot

- texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini yuksaltiradi, dars muhitining yaxshilanishini ta'minlaydi;
- o'quvchilar tomonidan belgilangan javoblarning to'g'riligini tekshirish o'qituvchi tomonidan emas, kompyuter dasturi tomonidan aniqlanadi va ekranda paydo bo'ladi. Bu o'quvchilarni baholashda o'qituvchi imkoniyatining oshirilishi va vaqt tejamkorligiga erishilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2008
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001
3. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.


## References


1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2008
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001
3. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITILISH METODLARI

*Navoiy viloyati G'ozg'on shahar*
*1-umumuy o'rta ta'lim maktab*
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*
*Farida Rahmatova*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'quvchilar bilim oladigan manbalar bo'yicha o'qitish samaradorligini oshirish usullari haqida fikr yuritilgan. Shuning bilan birga bir nechta usullarni samarali qo'llash misol tariqasida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** metod, suhbat, tushuntirish, induksiya, deduksiya, analogiya, tahlil, sintez, taqqoslash, muammoli, izohli, illustrativ, reproduktiv.

## KIRISH

Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari dolzarbligini talab etmoqda. Bu esa o'z o'rnida, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, o'qitish uslublari, ularni ti- zimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasi o'qitish va umuman, ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishishda eng muhim jihatlardan biridir. O'qish va o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birga- likdagi faoliyat usullari bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga erishiladi. O'qituvchilarning qobiliyati, tafakkuri rivojlanadi. Shuning uchun zamonaviy

fan-texnika va axborot texnologiyalarining ilg‘or yutuqlari asosida boyitib borilgan o‘qitish metodlari tarbiyalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish, rag‘batlantirish va nazorat qilishni nazarda tutadi. Shuning uchun ular uch guruhga bo‘linadi[11]:

- o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari;
- o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirishmetodlari;
- o‘quv-bilish faoliyati samadorligininazorat qilish metodlari.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

**O‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari** bir necha guruhga bo‘linadi, bular(1-rasm):

1. O‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha: og‘zaki, ko‘rsatmali, amaliy metodlar.
2. O‘quvchi fikrining yo‘nalishi bo‘yicha: induksiya, deduksiya, analogiya.
3. Pedagogik ta’sir boshqarishning darajasi, o‘quvchilarning o‘qishida mustaqillik darajasi bo‘yicha: o‘qituvchi boshchiligida bajariladigan o‘quv ishi metodi hamda o‘quvchilarning mustaqil yillari metodi.
4. O‘quvchilarning mustaqil faolliklari darajasi bo‘yicha: izohli-illustrativ, re-produktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

Endi o‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha taqsimlangan guruhni alohida tahlil qilib o‘tsak. Yuqorida keltirilganlardan ma’lumki, bular og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy metodlardan iborat edi.

Og‘zaki metodlar qisqa muddat ichida hajmi bo‘yicha eng ko‘p axborot berish, o‘quvchilar oldiga jumboqlar qo‘yish, ularni hal qilish yo‘nalishlarini izlab topishiga ko‘maklashish, umuman olganda o‘quvchini og‘zaki ishlash qobiliyatini rivojlantirish

11 Abdullaeva H.A., Bikboeva N.U. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. – T.: «Boshlang‘ich ta’lim», 2018.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

imkonini beradi. Bu metodlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda o'ziga xos sharoit yaratadi. Ularni, ya'ni og'zaki metodlarni ham alohida ko'rib chiqsak[12]:

**Tushuntirish.** Bilimlarni tushuntirish metodi shundan iboratki, bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O'quv materialining bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma'lumotlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o'quvchilarga o'quv qurollarini ishlatish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni berishda foydalaniladi.




**1-rasm. O'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari**

Boshlang'ich matematika kursining bir qator masalalarini og'zaki tushuntirish usuli bilan bayon qilish zarur. Og'zaki tushuntirish usulida zamonaviy axborot-texnologiyalari, maxsus gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin, bu o'quvchilarda matematik figuralarni tasavvur qilish va ularni anglab yetishga katta yordam berishi mumkin.

**Suhbat.** Eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan bo'lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo'llanilishi mumkin, ya'ni yangi materialni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llanilishi mumkin.

[12] G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: «Ta- fakkur», 2011.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Hikoya.** O'qituvchi bilimlarni tushuntirishni hikoya (ertak) ko'rinishida amalga oshi- rishi mumkin. Bundan asosan matematika tarixining rivojlanishi, o'lchov tizimlari ri- vojlanishi haqida va boshqa matematika tarixiga oid ma'lumotlarni berish uchun foydalaniladi.

**Amaliy metodlar.** Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mukammallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan metodlar amaliy metodlardir. Bunga yozma va og'zaki mashqlar, amaliy laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba'zi turlarini kiritish mumkin. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish metodi sifatida qo'llaniladi.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Boshlang'ich sinflarda matematikadarslarini zamonaviy pedagogik texnologiya- lar asosida tashkil etish tajribasidan kelib chiqib va olib borilgan izlanishlarimiz asosida mazkur yo'nalishda quyidagilarnitaklif qilamiz:

– o'qituvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari haqida asosli bilimlar- ga ega bo'lishi, bu sohada metodik jihatdan o'z ustida doimiy ravishda ishlashi lozim;

– har bir darsda bir-biriga mazmunan yaqin didaktik o'yinlarga bir oz yangi ele- mentlar qo'shib foydalanish, bunda didaktik o'yinlar shartini to'g'ri izohlashga e'tibor berish.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Abdullaeva H.A., Bikboeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. – T.: «Boshlang'ich ta'lim», 2018.
2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: «Ta- fakkur», 2011.
3. Axmedova N., Inoyatova M., Matnazarova K. Boshlang'ich ta'limdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari. Metodik tavsiyalar. – T.: library.ziyonet.uz/ru/book/ download/16233, 2015.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIKANING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

**Samiyeva Dilora Ma'murovna**
Navoiy viloyati G'ozg'on shahar 1-maktab boshlang'ch ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim didaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, boshlang‘ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko‘nikma, samara, malaka, yondashuv, o‘qitish, metod.

## KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jarayonida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim didaktikasi asoslarini idrok etib olish maqsalga muvofiqdir.

Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. “Didaktika” so‘zi lotincha bo‘lib, o‘qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o‘rganadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

1) o‘qitish;
2) ta’lim berish; 3) o‘qish. Didaktikaning o‘qitish kategoriyasi ta’limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi.

Didaktikaning ta’lim berish kategoriyasi quyidagilarni bildiradi: - bilim berish;

- ma’lumotlar uzatish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;
- o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim berish kategoriyasi o‘qituvchining (pedagogning) faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Didaktikaning o‘qish kategoriyasi quyidagilarni ifodalaydi:

- o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlariga muvofiq bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishi;
- o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va mustaqil fikrining shakllanishi.

O'qish kategoriyasi ta'lim oluvchilar faoliyati bilan amalga oshiriladi. Didaktikaning asosiy vazifasi o'quv faoliyatini amalga oshirishdir. O'quv faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- bilimlar majmuini berish va egallash;
- o'quv faoliyatini turli vositalar va metodlar asosida tashkil etish; - o'quvchilarning savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning bilish tajribasini kuchaytirish.

Didaktikaning o'quv faoliyatidagi samaradorligi ichki va tashqi mezonlar bilan belgilanadi. Bunda ichki mezon ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan iborat, tashqi mezon esa ta'limning umumiy samaradorligi bilan belgilanadi. Bu mezonlar asosida o'quv faoliyati tartibga solinib boriladi va unda sifat hamda samaradorlik darajalariga ko'ra o'quv faoliyati baholanadi.

Didaktika nazariyasi va amaliyotiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada ayniqsa chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (XVII asr) "Buyuk didaktika" asari muhim hisoblanadi. Bu asarda quyidagilar didaktikaning asosiy tamoyillari sifatida asoslab berilgan: a) bolaparvarlik;
b) xalqparvarlik;
d) insonparvarlik;
e) bag'rikenglik.

Didaktikaning mazkur tamoyillari hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonida qabul qilingan bo'lib, ular pedagogik qonuniyatlar sifatida qaraladi. Bunday yondashuv natijasida butun dunyo ta'lim tizimida gumanizm ideal g'oya sifatida qabul qilingan.

Unga ko'ra, ta'lim olish va ta'lim berishda insonning yoshi, jinsi, irqi, millati va ijtimoiy mavqei hisobga olinmaydi. Shu jihatdan keyingi 4 asr davomida pedagogika fani insonparvarlik san'ati sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

O'zbekiston sharoitida o'quv faoliyati didaktikaning qonuniyatlari va tomoyillariga qat'iy amal qilingan holda tashkil etilgan. Shu sababli mamlakatimiz ta'lim tizimi xalqlarning ilg'or rivojlanib boruvchi ta'limi ro'yxatiga kiritilgan. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari. O'zbekiston pedagogik fanlari tarkibida boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 7-11 yoshli o'quvchilarni bilim olamiga olib kirish;
- mazkur yoshdagi o'quvchilarni jamiyatning talab va ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish;
- boshlang'ich ta'limda eng zamonaviy va maqbul o'quv fanlarini qo'llash.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim didaktikasida asosiy e'tibor o'qitish va o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishiga qaratiladi. Shu sababli 2020-2021 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim davlat standartlari qayta ko'rib chiqildi va o'quv fanlari maqbullashtirildi. Misol uchun, o'zbek pedagogikasi tarixida ilk bor "Tarbiya" o'quv fani yaratildi va ta'lim jaraèniga tatbiq etildi. Boshlang'ich sinflarda mazkur fan o'quvchilarning ongi, dunèqarashi va axloqini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asosan shakllantirishga yo'naltirilgan.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning sifat va samaradorligiga erishish bosh maqsad hisoblanadi. Shu jihatdan o'zlashtirish jarayoni quyidagi darajalar asosida baholanadi:

1) fanlarning (hodisalarning, voqelikning, faktlarning) o'quvchilar tomonidan farqlanishi va o'zlashtirilishi;

2) fanlar materiallarini tushunishi va ular asosida o'quvchilarning o'z bilimlarini boyitib borishi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qituvchilarning individual o'qtitish uslublari muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'limida bin nechta fan o'qituvchilari o'quv faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Mazkur o'qituvchilarning har biri o'zining individual o'qitish uslubiga ega. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim davlat standartlariga muvofiq o'qituvchilarning turli o'qitish uslublari pedagogik qonuniyatlar asosida umumiylashadi. Bunda quyidagi qonuniyatlar asosiy vazifani bajaradi:

- mavzularning tushuntirish va o'rgatish metodlari asosida yoritilishi;
- har bir o'quvchining mavzularni o'zlashtirishga erishilishi;
- o'quvchilarning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos o'quv vositalarining tanlanishi;
- o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilishi.

## NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavakat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jamiyatda kitobxonlik qadriyati qayta tiklandi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim didaktikasida ham yangilanish ro'y berdi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilaring kitob o'qishlari va ularni muhokama qilishlari boshlang'ich ta'lim didaktikasining tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik olimlarning oldida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishi zarur bo'lgan adabiyotlar majmuini tuzish va kitobxonlikning didaktik muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jaraènida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari to'g'risida aniq bilimga ega bo'lishi kerak.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'lim, kompyuterli texnologiyali ta'lim kabilar keng qo'llanilmoqda. Shu sababli bunday texnologiyali ta'lim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruryat bo'lib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz quyidagicha: kompyuter kabi texnik imkoniyatlar boshlang'ich ta'limda maqsad emas, balki vosita bo'lishi kerak. Bunday yondashuv 7-11 yoshli o'quvchilarning texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi: a) o'quv jarayonini eng yuqori talablar asosida tashkil etish;

b) boshlang'ich ta'limni professional o'qituvchilar bilan ta'minlash;

d) boshlang'ich ta'lim davlat standartlarini qat'iy bajarish.

## MUHOKAMA

Mazkur mezonlarga binoan boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlang'ich ta'limda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llanilayotganligi bois boshlang'ich ta'limning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan baholanmoqda. Biroq, boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo O'qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o'qituvchining asosiy maqsadi o'quv fanlarini talab darajasida o'qitish, tushuntirish va uning yo'nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak:

- boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha bilimlarni egallash;
- boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir qo'shimcha adabiyotlarni o'qish;
- "Boshlang'ich ta'lim" jurnali va "Ma'rifat" gazetalari bilan muntazam tanishib borish;
- Ustozlardan boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir maslahatlar olish.

## XULOSA

O'zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy

pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning boshlang'ich ta'lim didaktikasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarining bilim va ko'nikma darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni bitiruvchilar ushbu ta'lim maskanlarining qaysi birida ko'p o'qishiga qarab boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

Shunday qilib, hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim didaktikasi" mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi.// "Xalq so'zi"gazetasi 2020 yil 1 oktabr soni.
2. Abdullayeva B. va boshq. Общая педагогика. – T.,2017.
3. Kupisevich Ch.Osnovы общеу didaktiki. – M.,1986
4. Jabborova Onahon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. International journal of psycological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.
5. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.
6. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.
7. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitelnogo isskustva v nachalnoy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862870.
8. Tojiboeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209215.
9. Musurmonov Raxmatulla, Musurmanova Maluda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 777-783.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# KONSTITUTSIYAVIY BURCH-HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Baxromova Laylo Rayim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

laylorayimovna@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bir birini to'ldiruvchi tuzumlar ekanligi hamda fuqarlik jamiyatini rivojlatrishda Konstitutsiyada belgilangan inson va fuqarolarning burchlari muhim omil ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, burchlar, demokratiya.

O'zbekiston – suveren demoktarik respublika. Mamlakatimiz mustaqillik, suverenitet va demokratiyaga erishgunicha qanchadan-qancha murakkab tarixiy hodisalarga yuz tutgani barchamizga ma'lum. 1991-yilda Mustaqillikka erishilgandan so'ng, 1992-yil 8-dekabrda o'zining oliy qomusi Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu juda muhim tarixiy hodisa edi. Hozirgi taraqqiy etayotgan O'zbekistonning yuksalishida Konstitutsiyamizning o'rni katta. Buning isboti sifatida Konstitutsiyamizning asosiy maqsadi inson va fuqarolarning huquqlari ustunligi (Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, 2-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi, 7-modda)ni keltirishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining alohida o'rni mavjud. Qolaversa, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bir birini to'ldiruvchi tushunchalar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq nazariyasiga ko'ra fuqarolik jamiyati huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan usul hisoblanadi. Fuqarolik jamiyat insonsonga uning iqtisodiy, madaniy va siyosiy shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zinio'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqgisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pul-moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichmabosqich o'tish orqali ro'y beradi.

Huquqiy davlat esa barcha faoliyati huquqiy normalarga, shuningdek, inson qadr-qimmati, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, fundamental huquqiy prinsiplarga bo'ysunadigan davlat.[13]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi insonparvar huquqiy demokratik davlat barpo etishni ko'zlab o'zining muxtor vakillari siymosida davlatimizning asosiy qonunini qabul qilishi ta'kidlab o'tilgan. Mamlakatimiz milliy davlatchiligi davrida konstitutsiya va qonunlarning ustunligi g'oyasi xalq ijtimoiy ongining tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Qonunni chetlab o'tish emas, aksincha, qonun talablari asosida, unga mos va muvofiq ravishda yashash lozimligini kishilar ongiga tobora singdirish zarur. Insonlar o'z huquqlaridan to'la-to'kis foydalanar ekan, bir paytning o'zida qonunda belgilangan burchlarini bajarishi ham talab etiladi. Negaki, ushbu burchlar ularga o'zlarining sog'lig'i, tinchligi, farovon hayot kechirishlari uchun kafolat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi fuqarolarning burchlari deb nomlangan bo'lib, 47-52-moddalarni o'z ichiga oladi.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.(47-modda)

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilganlik respublikada shu qonunning ustun ekanligini tan olganlik hisoblanadi. Bu esa respublikamizda qat'iy qonuniylikni ta'minlashni taqozo etadi.Qonuniylik esa dabvlatda, jamiyatda mustahkam huquqiy tartib, barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikning asosidir.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.(48-modda.)

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir (49-modda).

O'zbek xalqi boy tarixiy, madaniy me'ros sohibidir, ammo, tariximizning ayrim davrlarida o'zi yaratgan madaniy meroslarni asrashga imkoni bo'lmagan. Ayniqsa, Sobiq sho'ro davrida tarixiy obidalar, madaniy me'roslar e'tiborsiz qoldirilgan. Boy tariximizni kelajak avlod uchun asrab avaylash, ularning kamol topishiga katta sabab bo'la oladi.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar (50-modda).

Inson tabiatning eng muqaddas boyligidir. Inson salomatligi, uning taqdiri, hayoti uchun tabiiy muhit nihoyatda zarur. Tabiiy muhit qanchalik sog'lom bo'lsa insonlar ham, ayniqsa yoshlarning barkamol bo'lib yetishida, baquvvat va jismonan sog'lom bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyamizning ushbu normasini amalga oshirish hamda mazmunini ochib berish uchun bir qancha qnun hujjatlatlari ham qabul qilingan bo'lib, ular:

"O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni

"Yer to'g'risida"gi

"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi

"Davlat sanitariya to'g'risida"gi

"Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hudular to'g'risida"gi

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi muhim qonun hujjatlaridir.

Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar (51-modda)

Soliqlar jismoniy va yuridik shaxslarning davlatga to'laydigan, qonun yo'li bilan belgilangan to'lovi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar (52-modda)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.2-47-48-49-50-51-52-moddalar.

2. Марченко М. Н. Правовое государство // Энциклопедия юриста. 2005.

3.Червонюк В. И. Правовое государство // Конституционное право России: энциклопедический словарь. М.: Юрид. лит., 2002.

# АСОСИЙ ЭКИН СИФАТИДА МАККАЖЎХОРИ НАВЛАРИНИ СУВТЕЖАМКОР ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТАРТИБЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ.

***Исаева Лайло Бахтиёровна.*** *Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти докторанти.*

***Шодиев Ойбек Саъдуллаевич*** *Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти магистранти.*

***Хусенов Муроджон Ражабович.*** *Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти талабаси.*

***Нажмиддинов Мангуберди Маьруф ўғли.*** *Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти талабаси.*

**Аннотация**: Маккажўхори энг қимматли, юқори ҳосилли дон экини ҳисобланиб озиқ – овқат, ем – хашак, техник ва агротехник аҳамиятга эга. Озиқ-овқат сифатида маккажўхорининг дони ишлатилади. Унинг дони жуда ҳам тўйимли ҳисобланиб, таркибида ўртача 10,6% клетчатка, 1,4% кул моддалари бор. Лекин, маккажўхори донида оқсил миқдори кам бўлади. Шу сабабли маккажўхори унига 25-30% буғдой уни қўшиб нон ёпилади. Маккажўхори дони таркибида ёғ моддаси (4,3-5,0%) кўп бўлганлиги учун унинг уни тез ачийди. Дон муртаги махсус машиналарда ажратиб олиниб, қолган қисмидан ун тайёрланади, чунки маккажўхорининг муртаги таркибида 25 – 40 % гача мой моддаси бўлиб, ундан озиқ – овқат учун ишлатиладиган мой тайёрланади. Бундан ташқари, маккажўхори донидан ёрма тайёрланади, сут –

мум пишиш даврида уни қовурилган (бодроқ) ва қайнатиб пиширилган ҳолда озиқ – овқат сифатида ишлатиш мумкин. Шу даврда унинг донидан консерва тайёрлаш ҳам мумкин. Ем – хашак сифатида маккажўхорининг дони ва пояси ишлатилади. Унинг дони жуда тўйимли (1 кг маккажўхори дони 1,34 кг озуқа бирлигига эга) ҳисобланиб, уй паррандаларига ва молларга бутунлигича ёки ёрма ҳолида берилади.

**Калит сўзлар:** Маккажўхори, юқори ҳосил, ем – хашак, тўйимли, маккажўхори дони, маккажўхори уни.

Разработка процедур полива сортов кукурузы как основные сельсы.

***Исаева Лайло Бахтиёровна доктарант***

**Аннотация** Кукуруза - ценнейшая, высокоурожайная зерновая культура, имеющая пищевое, кормовое, техническое и агротехническое значение. Зерна кукурузы употребляются в пищу. Его зерна очень питательны, содержат в среднем 10,6% клетчатки и 1,4% золы. Однако количество белка в зернах кукурузы невелико. Поэтому кукурузу покрывают хлебом, добавляя в нее 25-30% пшеничной муки. Благодаря высокому содержанию жира (4,3-5,0%) в зернах кукурузы, он быстро ферментирует. Лузга зерна отделяется на специальных машинах, а остальная часть идет на приготовление муки, поскольку в кукурузной шелухе содержится 25-40% жира, который используется для растительного масла.

**Ключевые слова**: Кукуруза, высокий урожай, фураж - кормовая, питательная, кукурузное зерно, кукурузная мука.

***Development of procedures for irrigation of corn varieties as main crops.***

***Isayeva Laylo Bakhtiyorovna***., *Doctoral student*

**Anotation** Corn is the most valuable, high-yielding cereal crop with food, fodder, technical and agrotechnical significance. Corn kernels are used as food. Its grains are very nutritious, containing an average of 10.6% fiber and 1.4% ash. However, the amount of protein in corn kernels is low. That is why corn is covered with bread by adding 25-30% wheat flour to it. Due to the high content of fat (4.3-5.0%) in corn kernels, it makes it ferment quickly. Grain husks are separated on special machines and the rest is used to make flour, because corn husks contain 25-40% of fat, which is used for cooking oil.

**Keywords**: Corn, high yield, fodder - fodder, nutritious, corn grain, corn flour.

Кириш. Дунёда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари, саноатни хомашё, чорвачиликни эса озуқага бўлган талабини қондиришда дала экинларининг биологик хусусиятлари, тупроқ ва иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда уларни етиштириш агротехнологияларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маккажўхорининг майдони дунё бўйича буғдой ва шолидан кейин учинчи ўринни, ем-хашак экинлар гуруҳида эса биринчи ўринни эгаллайди. Бугунги кунда маккажўхори экин майдони АҚШда 22,5 млн., Хитойда 20,6 млн., Бразилияда 11,8 млн. гектарни ташкил этади. ФАО маълумотларига кўра, экинлар структурасида маккажўхори майдони буғдойга нисбатан АҚШда-23 фоиз, Австралияда-63 фоиз, Германияда-70 фоиз, Францияда-43 фоиз, Россияда-3,5 фоиз кўп миқдорда жойлаштирилиб, ўртача ҳосилдорлик гектарига 7-10 тоннани ташкил этмоқда.

Дунёда маккажўхорини асосий ва такрорий муддатларда етиштиришда суғориш усули ва суғориш тартибларини такомиллаштириш орқали тупроқда озиқа моддалар мувозанатини мақбуллаштириш, юқори дон ва яшил масса ҳосили олиш, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари, саноатни хомашё ва чорвачиликни тўйимли озуқа билан таъминлашга эришилмоқда. Бу борада фосфоритлар негизида ишлаб чиқилган янги ўғитларни азотли ва калийли минерал ўғитлар билан биргаликда қўллашнинг маккажўхорини ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ҳамда уларни

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қўллашнинг мақбул технологиясини ишлаб чиқиш бўйича илмий-тадқиқотлар долзарб бўлиб ҳисобланади.

Маккажўхори дунёда энг кўп етиштириладиган ва тарқалган донли экинлардан ҳисобланиб, дунё деҳқончилигида энг қадимий экинлардан биридир. У ем-хашак, озиқ-овқат ва техникавий экин ҳисобланади. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО)нинг маълумотларга кўра, дунё бўйича 2019 йил маккажўжори (дон учун) 192 млн. га экилган бўлиб, жами ҳосилдорлик 1046 млн. тоннани ташкил қилган. Экин майдони ва юқори ҳосил етиштириш бўйича АҚШ биринчи, Хитой иккинчи, эгаллаган.Республикамизда ўртача ҳар йили 30-32 минг га майдонга (асосий экин сифатида) маккажўхори (дон учун) экилади.

**Тажриба олиб боришда тупроқда амалга ошириладиган ишлар:**

- тупроқнинг морфологик тузилиши тажриба қўйишдан олдин ўрганилди. Бунинг учун сизот сувлари сатҳигача бўлган чуқурликда тупроқ қирқими қазилиб, тупроқнинг генетик қатламлари бўйича морфологияси аниқланди.

- тупроқнинг сув ўтказувчанлиги ҳар йили тажриба амал даври бошида ва амал даври охирида барча вариантлар бўйича аниқланди.

- тупроқнинг чегаравий дала нам сиғими 2х2 метр ўлчамдаги майдонга рамка қўйиш йўли билан тажриба бошида аниқланди.

- тупроқнинг намлиги суғоришлардан олдин систематик равишда термостатда куритиш йўли билан аниқлаб борилди. Тупроқ намуналари ҳар бир вариантда 3 та қайтариқда 1,0 метрли қатламнинг ҳар 10 см қатламларидан олиниб, таҳлил қилинди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- суғориш муддати ва меъёрларини аниқлашда тажриба схемасига мувофиқ тупроқнинг суғоришлардан олдинги намлиги орасидаги ЧДНСга нисбатан фарқ С.Н.Рыжов формуласи бўйича ҳисобланди.

- тажриба даласига берилаётган сув миқдори Чиполетти (ВЧ-50) сув ўлчагичлари ёрдамида ва томчилатиб суғоришда датчик ёрдамида ҳисобга олиб борилди.

- сизот сувлари сатҳининг ўзгариши тажриба майдонида ўрнатилган 3 та кузатув қудуқлари ёрдамида аниқлаб борилди. Қувурлар 40 мм диаметрда бўлиб, 2,5 метр чуқурликка ўрнатилди. Қувурларнинг қуйи 1,2 метрли қисми ғалвираксимон тешикчалардан иборат бўлиб, улар фильтр (капрон материал) билан ўралган. Сизот сувлари сатҳи ҳар 10 кунда 1 марта ўлчаб борилди.

- сизот сувларининг минераллашганлик даражаси барча кузатув қудуқлари бўйича шўр ювишдан олдин ва шўр ювиш тўлиқ тугагандан кейин ҳамда ўсув даврининг охирида аниқланди, шунингдек қуруқ қолдиқ , хлор-иони ва сульфат миқдорлари аниқланди.

- тупроқни туз режимини аниқлаш учун тадқиқотнинг бошланишида, ўсув даври бошида ва охирида ҳар бир дала ва вариантлар бўйича тупроқ намуналари олиниб, қуруқ қолдиқ, хлор-иони ва сульфат миқдори аниқланди, (0-30; 30-50; 50-70 ва 70-100 см. да).

- тажриба қўйишдан олдин тупроқнинг 0-30, 30-50 см қатламларидаги гумус миқдори И.В.Тюрин усулида, азот ва фосфорнинг умумий миқдорлари Л.П.Гриценко, И.М.Мальцева усулида, нитратли азот калориметр усулида, ҳаракатчан фосфор Б.П.Мачигин, алмашинувчи калий эса П.В.Протасов усулида аниқланди.

- барча агрокимёвий таҳлиллар «Методика агрохимических анализов почв и растений» асосида олиб борилди.

**Хулоса:**

1. Тажриба қўйиш учун дала танланиб унинг тупроқ кесмаси қазилди ҳамда генетик қатламлар бўйича таърифланди ва морфологик белгилари ўрганилди.

2. Дала тажрибаси майдонининг тупроғини ҳажм массасини ўрганиш мақсадида (умумий тагликда) баҳорда уч нуктада тупроқни ҳар 10 см қатламидан то 0-100 см қатламигача уни ҳажм массаси аниқланди. Куз пайтида бу иш тажрибанинг барча вариантларида амалга оширилди.

3. Баҳорда тупроқнинг сув ўтказувчанлигини умумий тагликда уч нуқтада, кузда эса барча вариантлар бўйича аниқланди.

4. Тупроқнинг намлиги суғоришлардан олдин систематик равишда термостатда қуритиш йўли билан ҳар бир вариантда 3 та қайтариқда 1,0 метрли қатламнинг ҳар 10 см қатламлари бўйича аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Александрова Л.Н., Найденова О.А. – Лабораторно-практические занятия по почвоведению. Изд-во «Колос», 1976, 275 с.

2. Белоусов М.А-Физиологические основы корневого питания хлопчатника, Ташкент, изд-во «Фан», 1975, 175 с.

3. Гаркуша Ф, Яцюк М.М. Почвенный раствор. Почвоведение с основами геологии. 140 - 193 с.

4. Гедроиц К.К -Учение о поглотительной способности почв, М.1933, 176-194 с.

5. Генкель П.А. Физиология растений с основами микробиологии. Изд-во «Просвещение», Москва, 1965. 242 – 302 с.

6. Конобаева Г.М. – Почвы Узбекистана, их районирование и качественная оценка. Изд-во «Мехнат», Ташкент, 1985, 199 с.

8. Ковда В.А. – Почвенный раствор. В учебнике «Почва и почвообразование», Москва, «Высшая школа», часть I, с. 152-164.

9. Ковда В.А - Происхождение и режим засолённых земель, М-Л. Изд-во АНСССР, 1937, 91-102 с.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ: ТАЪЛИМНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШДА ЯНГИ ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР

# ТЕМА: НОВЫЕ ИДЕИ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИЙ В РЕФОРМЕ ОБРАЗОВАНИЯ.

# TITLE: NEW ECONOMIC INNOVATION IDEAS IN EDUCATION REFORM.

---

***Бурхонова Муножатхон Махкамбоевна***

***Марҳамат, №16 мактаб ўқитувчиси***

***эл. почта:*** ***burhonova.munojathon@mail.ru***

***telefon: +998 91 493 80 64***

---

**Аннотация:** Ушбу мақолада таълимга рақамли тизимларнинг кириб келишининг авфзаллиги ва кулайликлари хақида, ва бу Ҳаракатлар стратегиясидаги мақсадларимизга тезроқ эришишимиздаги дадил қадамлардан бўлади деб хисоблаган ғояларим хақида ёзмоқчиман. Бу ўзгаришлар жамиятимиздаги маънавий, иқтисодий ёҳуд хуқуқий коррупциянинг олдини олади, ёки маълум бир маблағ ва вақтни тежаб қолади деб ҳисоблайман.

**Калит сўзлар:** рақамли иқтисодиёт, таълим тизими, тежаб қолиш, кулайликлар яратиш, ривожланиш, дифференциялашган таълим, рақобат, коррупция.

**Аннотация:** этой статье я хочу написать о преимуществах и недостатках интергации цифровых систем в образование и о идеях, которые, как я считаю, станут смелыьи шагами, которые мы можем предпринять для достижения наших целей в Стратегии действий (Стратегии развития). Я считаю, что эти изменения предотвратят моральную, экономическую или юридическую коррупцию в нашем обществе или сэкономят деньги и время.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, система образования, сбережения, создание возможностей, развитие, дифференцированное образование, конкуренция, коррупция.

**Abstract:** In this article, I want to write about the advantages and disadvantages of integrating digital system into education and the ideas that i bellive will be the bold steps we can take to reach our goals in the Action strategy. I bellive that these changes will prevent moral, economic or legal corruption in our society, or will save some money and time.

**Key words:** digital economy, education system, saving, creating, opportunities, development, differentiated education, competition, corruption.

**Кириш.** Мухтарам Президентимиз томонидан ёшларга кўрсатилаётган юксак эътиборни қуйдагилардан хам билишимиз мумкин:

1. 30-июнь санаси "Ёшлар куни" сифатида нишонланадиган бўлди.
2. 1999-йилда "Зулфия" номидаги давлат мукофоти таъсис этилди бу мукофот 14 ёшдан 22 ёшгача бўлган қизларни рағбатлантиради.
3. "Ниҳол" мукофоти таъсис этилиши том маънода уларга кўрсатилаётган юксак эътибор ва ғамхўрлигини ёрқин ифодасидир.
4. Қуролли кучлар сафида муддатли харбий хизматини ўтаб бўлган ва бошқаларга наъмуна бўлган йигитлар учун республика олий ўқув юртларига ўқишга киришда тест синовларидаги энг кўп баллнинг 25% миқдорда қўшимча балл шаклида имтиёз бериш бэлгиланди.
5. Ёшлар учун мустахкам қонунчилик базаси яратилди. Хусусан 23 та қонун ва 100 дан ортиқ меёрий хуқуқий хужатлар қабул қилиниб хаётга изчил тартбиқ этилмоқда.
6. Президентимизнинг 2017-йил июлдаги фармонига мувофиқ мамлакатиммиздаги барча харбий академик лицэларга "Темурбеклар мактаби" номи берилди. Ёшларни янада рағбатлантириш мақсадида "Мард ўғлон" мукофоти таъсис этилди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

7. “Ал-Хоразимий мактаби” ташкил этилди Ушбу мактабга ўқувчилар 5-синфдан бошлаб ёзма ва оғзаки синов натижаларига кўра танлов асосида қабул қилинади.
8. 2017-йил умумтаълим ва ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизимида туб ислоҳотлар йили бўлди. Халқ қаблхоналари ва Президентнинг виртуал қабулхонасига тушган таклиф ва мулоҳазалар, шунингдек, республика мактабларидаги битирувчиларнинг ота-оналари ўртасида ўтказилган сўровнома нчиқиб, Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 9+3, яъни 12 йиллик мажбурий таълимдан 11 йиллик таълимга ўтилди.

Аммо, бу каби ютукларимизни ҳар қанча санамайлик, мавжуд муаммоларимизга ечим бўла олмайди. Йиғилиб қолган муаммолар соҳани туб ислоҳ қилишни, дунёнинг ривожланган мамлакатлари тажрибасидан фойдаланиш зарурлигини тақазо қилди.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.**

**АҚШ таълим тизими.** Дифференциал таълим.

Ривожланган мамлакатларда оммавий ўрта мактабларнинг яратилиши таълим-тарбия дифференцияси муаммосини янада кескинлаштирди. Бундай ҳолат умумий таълим диверсификациясининг сифат даражаси бошқача тизим заруратини кэлтириб чиқарди. Ўқувчиларнинг иқтидори, қизиқиши, ўзлаштиришига кўра дифференциал тайёргарликни кучайтириш ва мураккаблаштириш - замонавий мактабнинг глобал йўналишига айланди. Дифференциянинг асосий шакллари - ўқув муассасаларини турли типларга бўлиш, бир мактаб ичида поток ва профилларга, синфда гуруҳларга ажратиш назарда тутилади. Дифференциал таълим муаммоси бунда танлов воситаси бўлиб ҳисобланади. Одатда табақаланиш (дифференция) бошланғич мактабни битиргандан кейин бошланади. У турли типдаги таълим муассасаларида амалга оширилади. Масалан: Англияда грамматик ва замонавий мактабларда, Германияда реал билим юрти, гимназия ва асосий мактабларда, Францияда технологик, касбий ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

умумтаълим лицейларда, Россияда оддий ўрта мактаб, лицей, коллеж, гимназияда ва б. Бу ўқув муассасаларида дифференциянинг асосий ўзига хос бэлгиси дастурлардир. Бир ўқув муассасаси доирасида дифференция кенг ёйилган. Масалан, АҚШ ва Япония катта ўрта мактабларида типдаги умумтаълим ва махсус дастурлар мавжуд.

Японияда таълим интизоми ва академик ютуқлар (Хироши Ишида, Сатоши Мива). Япония таълим даргоҳларида тартибсизлик ва жиноятларнинг содир бўлиш даражаси жуда паст эканлиги кўрсатилган. Япония мактабларидаги юқори даражадаги тарбия ота-оналар, таълим даргоҳлари ходимларининг ўта талабчанлиги, ҳамда ўрта таълим ва ундан кейнги таълим даргоҳларидаги иерархал тартибланиши сабабдир. Япон таълим даргоҳларида талабалар орасидаги хулқбузарлик даражасини ёритиш осон эмас. Японияда, таълим интизоми муҳити талабанинг ютуқларига тўғридан-тўғри таъсир ўтказмайди. Нима бўлганда ҳам, зўравонликни бошидан кечирган талабалар тест натижалари зўравонликка ҳеч ҳам учрамаганларга нисбатан пастроқдир.

Японияда юқори синфга ўтгач ўқувчилар ўз ихтиёрига кўра, жамиятшунослик, этика, табиийёт, мусиқа, санъат, махсус фаолият, жисмоний тарбия, техник маҳорат ва уй хўжалигини юритиш каби мажбурий фанлардан ташқари ўқувчилар чэт тили, қишлоқ хўжалиги ёки математикадан чуқурлаштирилган курс каби фанларни танлашлари мумкин.

Жаҳон тажрибаси таълим тизимида илғор таълим.

АҚШ таълим тизими. Америкада 3 ёшгача бўлган болалар тарбияси билан оналар шуғуллан. Бошланғич мактаб 6 ёшдан то 13-15 ёшгача бўлган болаларни қамраб олади. Бу бошланғич мактабларда умумий саводхонлик ва касбга йўналтириш вазифалари ҳал этилади. Синфдан-синфга кўчиш ўқувчининг ўзлаштирганлик даражасига боғлиқ. Бошланғич таълим турли штатларда турлича бэлгиланган (4, 5, 6, 8 йил). Мактабларда турли хил тўгараклар, учрашувлар, шоулар ва саёҳатлар уюштирилади, аммо уларнинг ҳаммасига ҳақ тўлаш лозим.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўрта мактаблар қуйи ва юқори босқичлардан иборат.9 синфни битирган талабалар танлов асосида ўрта мактабга қабул қилинади. Ўрта мактабларда тўрт йўналишда касб-ҳунар асослари бериб борилади. 1- касб-ҳунар таълими, 2- бизнес таълими, 3- савдо ва саноат таълими ҳамда 4-қурилиш таълими. Олий таълим 4 асосий босқичда амалга оширилади.

**Тадқиқот методологияси.**

Ҳозирги кунда таълим соҳасида мавжуд куйидаги муаммоларни кейс-стади усулида баён этмоқчиман.

1-микрокейс.

Маълум бир вақт давомида ўқувчини эркин шахс сифатида камол топиши учун уларга хаддан зиёд эркинлик бериб қўйдик. Бу вақт ичида ота-оналар ҳам уларда аввалдан шаклланиб улгурган “мактаб тартибга солади” деган тушунча билан бефарқ бўлдилар. Ҳатто айрим гуруҳ ота-оналар “ўқитувчи ўқувчини сўкишга, танбех беришга мутлақо хаққи йўқ!”-деган тушунчани “шиор” қилиб олиб, уни ота-оналар мажлисларида, турли йиғинларда анча-мунча тарғибот қилишга ҳам улгурдилар. Натижада мактабларда 1-ўринда ўқувчи, 2-ўринда ота-она, 3-ўринда мактаб рахбарлари ва оҳирги ўринда ўқитувчи бўлиб қолди. Бу ҳолат ўқитувчи ўз дарсларида ўқувчиларни назорат қилиб туришини буткул издан чиқарди, ўз навбатида шунга мос равишда дарс самарадорлиги пасайиб кетди, ҳозирда бунга “ўқитувчи яхши дарс ўта олмагани учун” деб қаралмоқда. Баъзан ота-оналар боласига паст бахо қўйибсан деб ҳам кэлишади.

Саволлар:

1. Ўқувчига ота-она ё ўзи тарбия бермаса, ё ўқитувчига тарбия бергани қўймаса, унда ким тарбия берсин, кўчами?
2. Тартиб-интизом бўлмаган жойда таълимни ривожлантириш мумкинми, яъни таълимни тарбиядан ажратиб бўладими?
3. Яйраб дарс ўтиши учун барча қулайликлар яратилса қайси ўқитувчи ситқидилдан жон куйдириб ишламайди?

3-микрокейс.

Биринчи президентимиз И.А.Каримов "Хеч бир нарса мамлакатни спортчалик дунёга танита олмайди"-дегандилар ва шу ондан бошлаб спортни молиявий жихатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда эътибор шу қадар кучайдики, хатто ўқитувчи ва ўқувчилар ҳам "КСЖ"га пул йигиб берамиз. Бу ишларнинг натижаси сифатида эришган ютуқларимиз ҳар биримизга маълум, спортчиларимизни рағбатлантириш ҳам аъло даражада.

Аммо математика бўйича халқаро олимпиада ғолиби Бекзод Нуриддиновга навбатдаги фахрий ёрлиқ ва кичик мукофот, Канн кинофестивалида Гран При ғолиби бўлган Шокир Холиқовга чой сервиси совға қилингани ажабланарли.

Саволлар:

1. Биз таниқли давлат қурмоқчимизми ёки ҳар томонлама ривожланганми?
2. Таълим, айниқса мактаб таълими ҳар қандай соҳанинг пойдевори эмасми?
3. Мустаҳкам пойдевор ҳар қандай ривожланишнинг асоси эмасми?

**Таҳлил ва натижалар:**

1. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев айтганидек ўқитувчиларни обрўсини кўтариш учун нима қилиш керак?
2. Коррупция бор жойда ривожланиш бўлмайди, шундай экан ўз соҳасида виждонан меҳнат қилаётган ҳар бир ходим ва рахбарнинг хуқуқ ва эркинликларини таъминлаш учун қандай чора қўлласак бўлади?
3. Қонун устиворлигини таъминлаш ва коррупциянинг ҳар қандай кўринишига барҳам беришда рақамли тизимларнинг ўрни қандай?
4. Ушбу тадбирлар "Ҳаракатлар стратегияси"да кўзлаган мақсадларимизга қай даражада мос кэлади?

5. Рақобатсиз ўсиш бўлмайди, таълим соҳасида ишлаётган ҳар бир ўқитувчининг ўртасида соғлом рақобатни таркиб топтириш, ўзаро курашни кучайтириш орқали таълим самарадорлигининг ўсишига эришиш учун нима қилиш керак?
6. Дарс, таълим-тарбия жараёнини янада яхшилаш, меҳнат самарадорлигини ошириш, ўқитувчи ва ўқувчига қўшимча қулайликлар яратиш учун қандай чора- тадбирлар қўлласак бўлади?
7. Таълимда рақамли тизимларни қўллашнинг замонавий имкониятлари қандай?
8. Таълим тизимига рақамли инновацияларни киритиш орқали биз нималарни иқтисод этишимиз мумкин?
9. Ушбу чора-тадбирлар “5 ташаббус” бўйича қандай самара бериши мумкин?

**Хулоса ва таклифлар**:

Мухтарам президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан 2020-йил “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”-деб эълон қилинди, демакки мақсадимиз аниқ, ҳар бир соҳага рақамли тизимларни киритиш орқали маълум бир маблағ ёки вақтни тежаб қолиш ва ривожланишдир.

**I.** Таълим сохасидаги ўзаро соғлом рақобатни вужудга келтириш ва бу орқали дарс самарадорлигини ошириш учун шундай бир тизимни яратайликки, бунда 25 йил ишлаган ўқитувчи хам ўз устида тинмай ишлайдиган бўлсин, ё талаб даражасида яхши ишласин, ёки бутунлай бу сохадан чиқиб кетсин.

Бу борада қуйидаги таклифларни билдирмоқчиман:

1. Хар бир ўқитувчи билан хар йили августда янги мехнат шартномаси тузилсин. Мактаб рахбари хар бир ўқитувчининг май ойида ёзган йиллик хисоботларини ўқиб чиқиб, ўқувчилардан ярим йилликда ва йил якунида олинган сўровнома натижаларига караб, кимни ишда олиб қолиши, ким билан шартномани бекор қилиши хақида июнь-июль ойларида ўйлаб кўриб қарор қилсин, шошилмасдан, тазйиқларсиз.
2. Дарс соатларининг тақсимоти тоифаларга қараб бўлиниши қонунда белгилаб қўйилсин. Шунда ўқитувчилар ўз-ўзидан тоифасини оширишга қараб интила

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бошлайди.Бирор бир ишни қойиллатмасдан туриб, иш стажи кўплиги ва ёшининг катталигини пеш қилиб,ёшларга йўл бермасликка чек қўйилади шунда.

Масалан: фақат олий тоифага 25 соатгача, 1-тоифага 20 соатгача, 2-тоифага 15 соатгача, мутахассисга 10-соатгача дарс берилсин (мактабнинг мавжуд имкониятларидан келиб чиққан холда).

3. Дарс соатлари тақсимланаётганда 1-навбатда ўқувчилардан олинган сўровнома натижалари инобатга олинсин.

Масалан: мактабда 1та олий тоифали ўқитувчи бор дейлик. Билими зўр, лекин педагогик махорати этишмайди. Дарслари жуда суст, ўқувчиларга ёқмайди. Сўровномадаги фикрлар ўқитувчига сабаб қилиб кўрсатилади ва унинг дарслари камайтирилади. Уни ўрнига янги мутахассислар иш билан таъминланади, ёки шу мактабдаги бошқа ўқитувчига имкон берилади. Шу ондан бошлаб улар ўртасида кундан кунга қуйидагилар учун рақобат кучайиб боради:

А) Ўқувчиларга ёқадиган қилиб, жонлироқ, янгича усулларда дарс ўтиш (бунда дарс фақат ўйинлардан иборат бўлиб қолмаслиги керак).

В) Тезроқ тоифа олиш (хозирги аттестация низоми жуда адолатли ишлаб чиқилди ва тўғри олиб борилмоқда. Унга ўзгартиришлар киритилмайди деб умид қиламан.)

С) Кейинги йили у билан яна шартнома тузишлари учун замин яратиб бориш.

Д) Тажрибали устозлар дарсларига тахлилга кириб, устун жихатларини ўзлаштириш, ўз камчиликларини бартараф этиш, бунинг учун улар тинмай дарс тахлилларига кирадилар.(Хозирда очиқ дарсга хам ялинсангиз зўрға 2-3та ўқитувчи киради холос). Бу мақсад ўқитувчига хар куни, хар соатда тинчлик бермайди ва хеч қандай назоратсиз хам ўз устида тинмай ишлайди.

4. Мактабларда ўқувчилар билан тушунтириш ишлари тўғри йўлга қўйилсин. Улар ўқитувчининг билим савиясига, мавзуни тушинтириб бера олиш қобилиятига, педагогик махоратига алохида бахо бера олсинлар. Фикрларини аниқ фактлар билан ифодалай билсин.

Ўқитувчининг устамасига келсак, янги 823-қарор жуда асосли ва ўз вақтида қабул қилинди. Фақат бир бандига, яъни “иш стажига қараб” деган жойини “тоифасига қараб”-деб ўзгартирсак, у янада адолатли ва рақобатга чорловчи бўлар эди. Стаж бу вақт дегани, вақт эса ишлаган учун ҳам, ишламаган учун ҳам бирдай ўтаверадида.

**II.** Ўқитувчи ва ўқувчиларга қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида.

Ўқитувчилар ўз билимларини ўқувчиларга тўлиқ бера олишлиги, ўз махоратини 100% намоён этиб,ўз дарсидан ўзи қониқиши учун унга баъзи бир шароитларни яратиб беришимиз керак.

Биринчидан; бошланғич синфларда ўқувчи сонини 20тадан оширмаслик керак. Чунки боланинг ақлий фаолияти энг фаол, қизиқувчан ва диққат эътиборли бўлган ёшлари 1-4- синфларга тўғри келар экан. Бу даврда болага иложи борича кўпроқ тушунча бериб қолиш керак. Бу ёшда у илмнинг қадрини ва касбларнинг фарқини тушиниб етмоғи лозим. Бунинг учун ўқитувчи 45 дақиқа дарснинг 5 дақиқасини ташкилий қисм билан ўтказса агар, қолган 40 дақиқада хар бири билан 2 дақиқа бўлса хам ишлай олиши керак.

Мен турли мактабларда бошланғич синфларни кузатиб шуни билдимки, бошланғич синфида 8-12та ўқувчи ўқитаётган мактабнинг ўқувчилари хар қандай хатто ихтисослашган мактабларнинг ўқувчиларидан яхши фикрламоқда ва билмоқда. Муҳтарам президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъбири билан айтганда “Агар пойдевор мустаҳкам бўлса, бақувват бўлади.” Биз улкан билим эгаларини тайёрламоқчи бўлсак, уларни бошланғич синфларда тўғри ва тўлиқ онгини шакллантириб олишимиз керак. Мана шу онлардаёқ бола тушунмаган фанини ёмон кўра бошлайди. Тушунмовчиликлар кўпайгани сари боланинг билим олишга иштиёқи ва хохиши пасайиб боради.

Иккинчидан; юқори синфларда ўқувчилар сонини 26тадан оширмаслик, чунки, миқдор ошган сари сифат пасаяди ва бу хеч кимга сир эмас (фалсафа қонуни).

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Учинчидан; ўқувчиларни 5-9-синфларда ўзлаштириш даражасига қараб “а”,”б”,”с” синфларга ажратиб олиш. Бунда “а”-синфга 20тадан ошмаган энг иқтидорли ўқувчилар қамраб олинса ва улар мавзуларни бир марта тушунтирилгандаёқ тўлиқ тушуниб етсалар, бундай синфларда дарс ўтиш ўқитувчига хузур бағишлаган бўларди.

“б”-синфга ўртача ўзлаштириш қобилиятига эга бўлган ўқувчилар қамраб олинса ва уларга, агар яхши ўзлаштирса “а”-синфга ўтишлари мукофот, ёки аксинча, ўқишлари пасайиб кэтса, “с”-синфга ўтиб қолишлари жазо сифатида қўлланилса, жуда яхши бўларди.

“с”-синфга ўзлаштириши паст бўлган ўқувчилар қамраб олинса, ўқитувчи хам ўқувчиларнинг ўзлаштиришини хисобга олган холда дарсни ташкил этарди. Бундай бўлиниш ота-оналарда хам қизиқиш ўйғотиб, фарзандининг ўқишига бўлган эътиборини кучайтирар эди.

Бундай бўлиниш ўқитувчи ва ўқувчига дарсда қулайлик туғдириб, яхши педагогик ва психологик мухитни яратишга, дарс самарадорлигини оширишга катта ёрдам беради. Бундай табақалаштириш “Дифференсиялашган синф тизими” дейилиб, юқорида айтиб ўтилган, дунёнинг кўплаб, ривожланган давлатларида синовдан ўтган ва ўзининг ижобий самарасини берган. Хозирда яна кўплаб давлатлар ушбу тизимга ўтмоқдалар. Назарий жихатдан олиб қаралганда, биздаги ўзлаштириши ҳар хил ўқувчиларга бир хил усулда дарс ўтилиши нотўғри деб ҳисоблайман.

10-11-синфларда улар танлов асосидаги синфларда (ҳозирда жорий этилиб, синовдан ўтказилаётган) ўзи танлаган мутахассисликлари бўйича билим олишда давом этсалар яхши бўларди.

Тўртинчидан; ўқувчиларнинг мактаб тўғрисидаги тасаввурини, мактабга бўлган муносабатини, тушунчасини тубдан ўзгартириб, мактабга нисбатан хурмат ва эътибор уйғотишимиз керак. Ўқувчиларда пайдо бўлган “ўқишга кириб олсам бўлди, менга шу 2-5та фан керак холос, уни репетиторда ўқийман, мактабга онда-сонда шунчаки хужжат учун боряпманда”-деган тушунчасини йўқотишимиз керак.

Бунинг учун ҳам қуйидаги таклифларни билдирмоқчиман;

1. Мактаб битирувчиларининг давлат имтихони улар учун энг катта, маъсулиятли ва хал қилувчи имтихонга айлансин. Шунда ўқувчи ва ота-оналарнинг мактаб тўғрисидаги фикрлари ва мактабга бўлган муносабати тубдан ўзгарар эди. Бунинг учун мактаб битирув имтихонлари хар бир мактабда, ИИБ ходими назоратида (маъсулиятни янада кучайтириш ва шаффофлик учун) кириш имтихонларига ўхшаб ташкиллаштирилса, камералар қўйилиб, ота-оналар бориб кузатиб турса, ўзгача маъсулиятли холатда ўтса мактабнинг обрўси ортарди. Баъзи ўқувчилар битирув имтихонига хам кечикиб келиб, баъзан келмай хам кўяди, ўқитувчи ва синф рахбари ялинса хам назар- писанд қилмайди. Шундай холларда ота-она хам бепарволигини кўриб, мактабга ачинаман.
2. Битирув имтихони тест асосида ташкил этилиб, унинг натижаси ўқувчининг келажагига бевосита таъсир кўрсатсин. Масалан: хар бир фандан 40тадан савол берилиб, ўқувчи бир неча фанлардан 30% дан кам олса, у синфдан –синфга қолдирилсин. 30-40% тўплаганга маълумотнома берилсин,40-50% гача тўплаганга фақат коллежга хужжат топширишга рухсат, 50% дан юқори олганларгина хужжатларини олий ўқув юртига топшира олсин.
3. Шу билан бирга баъзи бир имтиёзлар хам жорий этилсин,масалан: тегишли фанлардан 65-75% олганларга олий ўқув юртига кириш балига 10 бал, 75% дан юқорисига 20 балл қўшиб берилсин.
4. Бу усул олтин медаль ёки қизил аттестат беришдан кўра халол бўларди, бахоларни ошириб қўйиш, таниш-билишчилик қилмасдан, ўқувчи хақиқий билимига яраша мукофотини хам оларди.
5. Шунда ўқувчилар ва ота-оналарнинг болага нисбатан назорати, хам билимига талаби, келажагига, дарсларига эътибори кучаяр эди. Мактабга қизиқишлари ортиб, ўқитувчилар ва уларнинг дарслари хақида суриштириб, дарсларга нисбатан талаби ва эътибори кучаяр эди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқувчилар мактабда барча фанларни сидқидилдан яхши ўқиб боришликнинг фойдаси катта бўлишини, ва ўқимасдан юришликнинг зарари хақида хам яхшилаб билиб олиб, гувохи бўлсаларгина, барчаси билимга интиладилар. Бундай гурухларда дарс ўтиш хузур бағишлайди.

6. Бу усулда имтихон олинганда ДТМда барча битирувчилар ва уларнинг билим даражаси хақида тўлиқ маълумот хосил бўлади, бундан ташқари Республика миқёсида вилоятлар, туманлар, мактаблар, фанлар, хатто ўқитувчиларнинг рейтингини чиқариш имкони туғилади.

**Рақамли тизимлардан таълимда фойдаланиб, маблағ ва вақтни тежаб қолиш мақсадида:** Билишимча кўпчилик ривожланган давлатларда мактаб битирув имтихонлари қаттиқ давлат назорати остида бўлар экан, чунки у кириш имтихони ўрнини хам босиб, хаққоний ва шаффоф бўлиши таъминланар экан.Бунда ўқувчи мухим деб хисобланган барча фанлардан (10-12тагача фандан) тест имтихонлари топшириб, улар ДТМда текширилиб, натижаси ўзига қайтарилар экан.

Масалан:

Ф.И.Ш. Бурхонова Муножат Махкамбоевна

Адрес: Андижон вилояти Мархамат тумани

Синф: 16-мактаб 11-синф

| Фанлар | Тўғри жавоблар | Нотўғри жавоб | Самарадорлик % | балл |
|---|---|---|---|---|
| Алгебра | 30 | 10 | 75 % | |
| Физика | 20 | 20 | 50 % | |
| Биология | 30 | 10 | 75 % | |
| Кимё | 20 | 20 | 50 % | |

Бу жадвалда республикамизнинг барча олий ўқув юртларида имтихон олинадиган фанлар тўлиқ акс этиши керак.

Ушбу натижаларга кўра ўқувчи ўзи истаган олий ўқув юртига бориб хужжат топширар, қабул пайтида унинг шу сохага керакли 5та фанининг натижаси йиғиндиси интернетга жойланар экан. Қабул 3 кун давом этиб, натижасини интернет орқали барча кузатиб туриши мумкин.

1. Бунда ўтиш бали давлат томонидан барча олий ўқув юртлари учун белгилаб қўйилади. Масалан: тиббиёт институтлари 165 баллдан юқори

   ва шу каби барча нуфузли институтлар хам.

Педагогика университэтлари 140 баллдан юқори, бунда баллар ўқув юртининг нуфузи ва унга бўлган талабга, қолаверса хар йилги ўтиш баллига қараб белгиланади.

2. Балл билан бирга нечта бюджэт ва нечта контракт қабул қилиниши хам интернетда аввалдан эълон қилинади.

Масалан: Андижон Тиббиёт Институтига 100та ўрин берилди дейлик, унга хужжат топширганлар сони 100дан ортиб кетса, балл жихатдан пастга тушиб бораётган ўқувчи ўзини интернетдан кузатиб тургани холда тезда хужжатини олиб, бошқа институтга топшириш имконияти бўлади, албатта, қабул кунлари турлича белгиланади.

3. Агар битта ўринга 2та ўқувчининг бали тенг келиб қолса, унда унинг қолган фанлари натижалари инобатга олинади ва хеч қандай эътирозга ўрин қолмайди.
4. Бу билан биз ўқувчиларда “мен 5та фанни ўқисам бўлди, қолгани керак эмас” деган тушунчани йўқотишга эришамиз.
5. Ўқувчиларда ва ота-оналарда мактабга нисбатан қизиқиш уйғонади, натижада улар ўқитувчиларни яхши-ёмонга ажрата бошлайдилар ва ўз-ўзидан кучли ўқитувчини талаб қиладилар.
6. Ўқитувчилар ўқувчиларга “ўқиб келинг” деб ялинишдан кутилади ва дарслар насихат қилиш билан эмас, балки хақиқий билим бериш билан ўтади.
7. Бунда ўқувчи 1йил умрини бехуда йўқотмайди. Давлатимиз эса энг кучли ўқувчиларни олий ўқув юртларига қамраб олиш имкониятига эга бўлади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Агар ўқувчи битираётган йили яхши натижа кўрсата олмаса у кейинги йили яна имтихон топширсин, битирувчилар билан бирга, шунда у мактабда синфдан-синфга қолиб ўқишга мажбур бўлади. Бундай синфлар тўлов асосида (пулли) ташкил этилса, хамма давлат томонидан бепул таъминланаётган бундай кенг шарт-шароитларнинг қадрига ўз вақтида этадиган бўларди. Кўп холларда ўқитувчи болага таълим ва тарбия бериб, орада танбех ёки жазо бергани учун ота-оналардан гап эшитиб, рахбарият олдида юзи қизарганда қаттиқ жахлим чиқади. Болани энг қимматбахо кийинтириб, ўқув куролларини таъминлаб қўйиш билан ота-она вазифаси тугаб қолмайди. Ўқитувчига боланинг одоби ва билими керак холос, у бошқа хеч нарса талаб қилмайди. Мактабда 1-ўринга билим ва одобни чиқаришимиз керак, бўлмаса ахвол яхшиланмайди.

Дарсликлар билан таъминлашда ҳам рақамли тизимдан фойдалансак, яъни дарсликлар маълум сайтда электрон шаклда мавжуд бўлса, ҳар бир мактабни ўз логини, ҳар бир ўқувчининг ўз пароли бўлса ( уни дарсликка ижара ҳаққи тўлагандай шаклда олади), юқори 9-10-11-синф ўқувчилари ўзининг шахсий ноутбуклари билан келсалар (ҳозирги кунда ҳар бир ўқувчида қимматбахо смартфон борлигини, уни ўрнига ноутбук олиб беришларини сўрасак, давлатимиз 3 йиллик истемолчи кредитларини жорий этганини ҳисобга олсак, ота-оналарда эътироз бўлмаса керак), улар қайси дарслик (эскисими ё янгиси), қайси фан керак бўлса ўша сайтдан ўзининг пароли орқали кириб тортиб олаверади. АҚШда ўқувчилар 1-синфга ноутбук билан келишаркан. Албатта бунинг учун аввало чекка мактабларни ҳам тезкор интернет билан жихозлаш лозим. Шунда биз дарсликлар ишлаб чикаришга сарфланаётган қанча маблағни тежаб қолган бўлардик.

1-жадвал

| Дарслик сони | 1та дарслик ўртача нархи | Умумий нархи. |
|---|---|---|
| 9-синф. 10 млн. нусха | 20 000 сўм | 200 млрд. |

| | | |
|---|---|---|
| 10-синф. 9 млн. нусха | 22 000 сўм | 198 млрд. |
| 11-синф. 9 млн. нусха | 25 000 сўм | 225 млрд. |
| | Жаъми сумма: | 623 млрд. |

Агар бунга ота-оналар дарслик ижараси учун тўлайдиган суммани қўшсак:

2-жадвал

| Синфи | Ўқувчи сони | 1 йиллик ижара нархи | Умумий сумма |
|---|---|---|---|
| 9 - синф | 700 000 | 32 000 сўм | 22 400 000 000. |
| 10 - синф | 680 000 | 35 000 сўм | 23 800 000 000 |
| 11 - синф | 680 000 | 38 000 сўм | 25 840 000 000 |
| | | Жаъми сумма: | 72 040 000 000 |

Ушбу тежаб қолинган суммаларни мактабларни тезкор интернет билан, фан кабинетларини электрон доска ва бошқа жиҳозлар билан жиҳозлашга сарфласак бўлади. Бу ишлар билан биз “ 5 ташаббус”нинг 3-ва 4-соҳаларини

анча ривожлантирган бўлардик. Дарслик етишмовчилигини, уларни қайта ишлаб чиқаришни буткул унитардик.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Мирзиёев Ш.М. ―Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз! мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.–Т.:―Ўзбекистон!, 2016.–56б.
2. Мирзиёев Ш.М.- Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови! мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Т:-Ўзбекистон!, 2017. – 48 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: ―Ўзбекистон! – 2017.– 102б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: ―Ўзбекистон!, 2017. – 488 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: ―Маънавият!, 2008.–176 б.
6. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар.
7. Муталипова М.Ж., Ходжаев Б.Х. Қиёсий педагогика.-Т: 2015й.
8. Джусубалиева Д.М. Сравнительная педагогика. Методический альманах.-Алматы, 2007.
9. Урастаева Г.Д. Сравнительная педагогика. -Алматы, 2006.
10. Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи.-Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2005.
11. Ишмухамедов Р. ва б. Таълимда инновацион технологиялар. - Т.:Истеъдод, 2008.
12. Абдуллаева Х.А. Машғулотларда фаол таълим усулларидан фойдаланиш.

– Фарғона: ФарДУ, 2008.

13. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технологиялар. – Т.: ―Fan va texnologiyalar‖ нашриёти, 2008. – 164 б.
14. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами / Мет.қўлл. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан – Т.: ТДИУ, 2013. – 137 б.
15. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар / Таълим муассасалари ўқитувчилари учун амалий тавсиялар. – Т.: ―Истеъдод‖ жамғармаси, 2008. – 180 б.
16. Ишмуҳамедов Р., Абдуқародиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар / Таълим муассасалари ўқитувчилари учун амалий тавсиялар. – Т.: ―Истеъдод‖ жамғармаси, 2009. – 160 б.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТИ МУАММОСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

**Закирова Зулфия Тураевна**

Сирдарё ВХТБ га қарашли 70-сонли

мактаб-интернати психологи

**Аннотация:** мақолада ижтимоий-психологик портрет, унинг предмети ва объекти, шахснинг ижтимоий-психологик талқин этишнинг ижтимоийлашуви таъсир кўрсатувчи омилларининг назарий асослари ёритилган.

**Калит сўзлар**: руҳият, психолог, портрет, шахс, ижтимоий, объект, муносабат, оила, таълим, ахборот

Психолог-мутахассис инсон руҳиятининг даволовчиси сифатида қаралади. Психолог касби одамларни мураккаб ёки ностандарт вазиятларда қўллаб-қувватлаш ва ишлаш билан боғлиқдир. Шу боис бугунги кунда назариётчи психолог ва амалий психолог, психолог-тадқиқотчи, ташкилий психология, клиник- психолог, юридик-психолог, таълим муассасаси психологи ва бошқа фаолият йўналишида ишлаётган психологлар мавжуд. Бу эса жаҳондаги психологлар фаолиятини тизимлаштириш ва тартибга солиш учун зарурат туғдиради. Психологик портрет-инсоннинг мураккаб психологик тавсифи бўлиб, унинг ички заҳираси ва муайян муҳим шароитларда мумкин бўлган ҳаракатлар тавсифини ўз ичига олади. Бошқача қилиб айтганда, инсоннинг психологик портрети - бу шахснинг шахсий хусусиятларини сўз ёки ёзма равишда ифодалашдир . Агар психологик портрет тушунчасини ижтимоий-психологик потрет билан ўзгартириш зарур бўлса, у ҳолда шахснинг хислат ва хусусиятларини ижтимоий муҳит ёки ижтимоий муносабатлар тизимида тасвирланиши назарда тутиш керак бўлади. Психологик портрет ёки ижтимоий-психологик портрет ҳақида сўз борганда уларнинг ўрганиш предмети ва объекти бевосита шахсга бориб боғланади. Жаҳон психологиясида шахснинг ижтимоий-психологик талқин этишнинг илк манбаи унинг ижтимоийлашуви билан боғлиқдир. Шунга кўра шахс ижтимоийлашуви деганда унга таъсир кўрсатувчи омиллар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тушунилади .Ижтимоийлашув - шахсни ижтимоий муносабатлар ва муносабатлар тизимига киритиш жараёни бўлиб, натижада у жамиятнинг тўлақонли аъзосига айланади. Аслида, бу шахсни шакллантириш жараёни, чунки ижтимоийлашув даврида инсон шахсга айланади. Бу борада психоанализ асосчиси З.Фрейднинг муносабатлари мавжуд. ижтимоийлашувни инсоннинг ижтимоий ўзаро муносабатларда мажбурий иштироки ва унинг ижтимоий қонунларига бўйсуниши деб ҳисоблаган. Оила, таълим муассасалари, тенгдошлар гуруҳи ва оммавий ахборот воситалари шахс ижтимоийлашувининг асосий институтларидир. Шу билан бирга болалар ва ўсмирларнинг ижтимоийлашуви жараёнида уларнинг роли ёшга қараб ўзгаради ва турли маданиятларда фарқ қилади. Ижтимоийлашувнинг қуйидаги параметрларини ажратиш мумкин: таркиб, кенглик, механизмлар, ижтимоий институтлар, омиллар, ижтимоийлашув босқичлари. Биз талаба-психологнинг касбий шаклланиши босқичидаги ижтимоий-психологик портретига доир тадқиқотимизда шахс ижтимоийлашувига таъсир кўрсатувчи омилларни инобатга олишимиз зарур бўлади. Г.М.Андреева ижтимоийлашувнинг уч босқичини аниқлайди: меҳнатдан олдинги, меҳнат ва меҳнатдан кейинги. Ушбу ёндашув ижтимоийлашув ижтимоий тажрибани, биринчи навбатда, иш жараёнида ўзлаштиришни назарда тутишини ҳисобга олади.Меҳнатдан олдинги босқич инсон ҳаётининг меҳнат фаолияти бошланишигача бўлган даврини қамраб олади ва ўз навбатида икки даврга бўлинади:

- эрта ижтимоийлашув даври: боланинг туғилишидан мактабга қабул қилинишигача;

- ўқиш даври: мактаб, университет ёки бошқа таълим муассасасида ўқишнинг барча вақти.

1. Ижтимоийлашувнинг меҳнат босқичи инсоннинг камолот даврини, меҳнат фаолиятининг бутун даврини қамраб олади. Меҳнат фаолияти ижтимоий тажрибани ўзлаштириш ва такрор ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатмайди. Шахс ижтимоий камолотга эришса, ижтимоийлашув жараёни маълум даражадагина

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тугалланади. Кўпгина психологларнинг таъкидлашича, ижтимоийлашув жараёни инсоннинг бутун ҳаёти давомида давом этади, лекин катталарнинг ижтимоийлашуви болаларнинг ижтимоийлашувидан фарқ қилади. Катталар ижтимоийлашуви ташқи хатти-ҳаракатни ўзгартиради ва инсонга маълум кўникмаларни эгаллашга ёрдам бериш учун мўлжалланган. Болаларнинг ижтимоийлашуви қадрият йўналишларини шакллантиради ва хатти-ҳаракатларнинг мотивацияси билан шуғулланади. Уларнинг ижтимоийлашуви жараёнида девиант хулқ-атворда намоён бўладиган муваффақиятсизликлар бўлиши мумкин. Кўп жиҳатдан психологик портрет ҳақида сўз борганда унинг қирраларини белгиловчи шахс тузилмасига таяниш муҳимдир. Шунинг учун шахс тузилмаси таҳлилига мурожаат қиламиз. Шахснинг концептуал тузилмасининг таркибидаги хусусиятларни ёритиш ҳисобига ижтимоий-психологик портретни тузиш имконияти ошади. Шахс концептуал тузилмасига кўра психологик портретни қуйидаги жабҳаларга ажратишимиз мумкин:

Шахс йўналганлиги: эгоизм, натижа, ҳокимиятга эга бўлиш, альтруизм, жараён, эркинлик, мавжуд бўлиш. Ижтимоий-психологик даражада: олим, хавотирли-шубҳаланувчи, масъулиятли ижрочи, раҳбар, интуитив, ихтирочи-конструктор, эмотив, эмотив бўлмаган.Психологик даражада: сенсор интроверт, сенсор экстраверт, фикрловчи интроверт, фикрловчи экстраверт; интиуцив экстраверт, интуицив интроверт, эмоционал экстраверт, эмоционал интроверт. Психофизиологик даражада: ижтимоий темп, темп, ижтимоий эрглик, эрглик (қувват, куч, меҳнат), пластиклик, ижтимоий пластиклик, эмоционаллик, ижтимоий эмоционаллик. Ушбу шахс тузилмасининг таркибий қисмларидан талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портретининг касбий камолотидаги аҳамиятини ўринли ҳолатларида ўрганишда фойдаланилади .Психологик портретни тузиш билан боғлиқ масалаларни ёритишга зарурат туғилганда унинг алгоритмини инобатга олиш лозим. Россиялик психолог Светлана Трошина томонидан тақдим этилган мақолада

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

психологик портретни ташкил этувчилари қайд этилган . Мазкур манбага кўра биринчи намуна:

- инсоннинг темпераменти;
- ақлий меҳнантга мойиллиги ва интеллектуаллик даражаси;
- етакчи характер хислатлари;
- ўзини-ўзи баҳолаш даражалари;
- шахснинг йўналганлиги;
- кадриятлари;
- эмоционал-иродавий соҳаси;
- коммуникатив кўникмалари;
- мотивация соҳаси;
- индивидуализм-жамоавийлик.

Психолог Д.Милай томонидан тақдим этилган психологик портрет тузилмаси қуйидагилардан иборат .Мақолада келтириладиган ҳолатларга кўра асосий психологик портретни ташкил этувчилар сифатида қуйидагилар темперамент, характер, қобилиятлар, йўналганлик, ёритилади: эмоционаллик, интеллектуаллик, коммуникабеллик, ўзини-ўзи баҳолаш, иродавий сифатлар, ўзини-ўзи назорат қилиш, жамоат ишларидаги қобилиятлар, мотивация, ижтимоий установкалар. Ижтимоий-психологик портретни таҳлил қилишнинг ўзига хос томонлари тўғрисидаги барча таҳлилларни умумлаштириш психологиядаги шахс тузилмасининг умумий кўринишини ифодалашга олиб келади. Шунга кўра тузилмани қуйидагича ифодалаш мақсадга мувофиқ. Шахснинг психологик тузилмаси:

Шакллантирувчи омиллар: табиий ва ижтимоий муҳит таъсирида фаолиятнинг шаклланиши.

Шахснинг қирралари: индивидуал-психологик, дунёқараш, ижтимоий-психологик. Индивидуал-психологик томонлари: психик жараёнлар, психик хусусиятлари, психик ҳолатлар, психик ҳосилалар.Дунёқараш жиҳатлари: ахлоқий

қиёфаси, дунёқараши, маънавий қиёфаси. Ижтимоий психологик томонлари: бошқа инсонларга муносабатлар, ижтимоий роллар, ижтимоий позициялари, ижтимоий установкалар. Талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портретини тадқиқ этилишига доир материаллар таҳлили мазкур тадқиқотнинг эмпирик жиҳатларини ёритишда шахс назариялари ва шахс тузилмасига доир қарашларга таяниб амалга оширишни тақозо этади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Барсова, Анна Формула личности, или Как свои недостатки превратить в достоинства / Анна Барсова. - М.:АСТ-Пресс Книга, 2017. – 320

2. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник / Г.М. Андреева. 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Аспект - Пресс, 2014. - 365 с.

3. Молоканов М.В. Личностные компоненты профессиональной успешности практических психологов : Дис. … канд. психол. наук. -М., 1994. - 178 с. 116. С.Н Норқобилова Талаба шахсига касбий шаклланиш таъсирининг психологик жиҳатлари. Автореферат Т.:2010 22 б

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# СОВРЕМЕННЫЕ УРОКИ БИОЛОГИИ

**Аликулова Нафиса Убайдуллаевна**
**учитель Биологии**

**Аннотация:** В статье выделяются и описываются характерные особенности проведения лабораторных занятий по школьному курсу биологии путем включения работы с определителями для активизации познавательной деятельности, развития самостоятельности, ответственности ученика.

**Ключевые слова:** интернет, урок, общеобразовательной школы, интерактив, доска, мультимедиа, лаборатория, фронталь, витртуал

В условиях внедрения электронного образования в общеобразовательные школы Узбекистана, все более актуальным становится вопрос использования ИКТ и интернет-ресурсов на уроках биологии. Современные уроки значительно отличаются разнообразием форм и методов преподавания. Возможности ИКТ реализуются на всех этапах урока по биологии. Сегодня я уделю внимание использованию виртуальных лабораторных работ на уроках биологии.

В самом простом понимании биология - наука о жизни и развитии живых тел. Изучение в школе предмета "Биология" только на вербальном уровне не создает правильного представления об изучаемых объектах и явлениях. Поэтому главной задачей учителей биологии является разумное использование в учебном процессе наглядных средств обучения.

В обычных условиях мы не всегда можем наблюдать некоторые биологические явления (например, фотосинтез, синтез белка, репликация, прорастание семени и т.д.) и проводить определенные опыты (наблюдение за размножением и питанием инфузории туфельки, изменение окраса животных и т.д.). Здесь очень удобно применять именно виртуальные лабораторные работы, которые открывают перед учителем и учащимся массу возможностей. Работа в сети интернет или с заранее подготовленными программами позволяет не только сформировать, но и закрепить знания, умения и навыки учащихся.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Исходя из обеспечения общеобразовательной школы вычислительной техникой, есть возможность в двух вариантах использовать виртуальные лаборатории:

1.В кабинете есть один персональный компьютер, на котором установлен компьютерный курс, использующийся в демонстрационном режиме.

2.Урок проводится в мультимедийном кабинете с использованием локальной версии компьютерного курса.

Чаще мной используется первый вариант работы, так как не всегда есть возможность работы в мультимедийном кабинете. У детей есть возможность работы с интерактивной доской по очереди для проведения лабораторных опытов или для выполнения проверочных работ.

При работе в мультимедийном кабинете учащиеся работают индивидуально или в мини-группах, что позволяет самостоятельно выполнять работу и формулировать вывод.

Однако работа с виртуальной лабораторной работой не всегда способна сформировать необходимые навыки. Во время работы с компьютером ученик работает только с мышкой, отрабатывая только алгоритм работы и навыки обращения с техникой, а работая вживую при приготовлении микропрепарата, работой с микроскопом, лупой и другим оборудованием формируются совсем другие навыки. Все это следует учитывать при планировании лабораторных работ.

Таким образом, я выделяю классификацию форм урочного использования виртуальных лабораторных работ:

- демонстрационное (перед реальной работой) использование:
- показать фронтально, с большого экрана или через мультимедийный проектор, последовательность действий реальной работы;
- обобщающее (после реальной работы) использование:
- во фронтальном (демонстрация, уточнение вопросов, формулирование выводов и закрепление рассмотренного) или индивидуальном (математическая сторона

экспериментов, анализ графиков и цифровых значений, изучение модели как способа отражения и представления реальности) режимах;

- экспериментальное (вместо реальной работы) использование:
- индивидуальное (в малых группах) выполнение заданий в виртуальной лаборатории без выполнения реальной работы, компьютерный эксперимент.

Как и в реальной лабораторной работе, в виртуальной необходимо учить навыкам исследования: - выдвижению гипотез и их проверке, - стандартизации условий, - четкому фиксированию условий и результатов экспериментов (сначала в заготовленных учителем таблицах, печатных или электронных), - выбирать критерии, формат представления результатов, а затем и планировать, наконец, самостоятельную исследовательскую работу.

Электронные учебные здания, используемые на уроках:

2. Флеш – анимации и интерактивные задания.

3. Интернет ресурсы:

- www.virtulab.net
- http://files.school-collection.edu.ru/dlrstore/052e6bd6-0b80-46cd-88a3-7624fb79ad83/ResFile.SWF
- http://oadk.at.ua/load/biologija/interaktivnye_video_laboratornye_biologija/78.
- http://mirbiologii.ru/
- http://fullbiology.ucoz.ru/load/flash_animacija/sbornik_flash_animacii_po_obshhej_biologii/35-1-0-48
- http://tana.ucoz.ru/

Компьютерные модели легко вписываются в урок и позволяют организовать новые нетрадиционные виды учебной деятельности учащихся.

Внедрение в учебный процесс ИКТ изменяет методы преподавания, делает обучение более содержательным и зрелищным. Обучение становится более

активным, это позволяет заинтересовать слабоуспевающих учеников, а для сильных- придать процессу обучения характер исследования, а также активизировать процесс контроля усвоения материала.

Во внеклассной работе применение виртуальных лаборатории помогает проводит интересные лабораторные занятия, а затем на практике проверить виртуальные исследования.

Внедрение виртуальных лабораторных работ мною только начинают внедряться, а значит, есть еще много задач, которые предстоит решить.

**Исползованные литературы**

1. A.Zikiriyayev, A.To„xtayev, I.Azimov, N.Sonin.,9-sinf "Biologiya (sitologiya vagenetika asoslari)" "Yangiyo„l poligraf servis" 2019.

2. A. G„afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O.Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova.,10-sinf "Biologiya" Sharq 2017.

3. A.Sattorov., AL va KHK "Informatika va axborot texnologiyalari". "Oq`ituv chi" 2013.

4. R.Boqiyev., AL va KHK "Informatika". "Fan va texnologiya". 2012.

5. Сосновський Ю.В., Соколова Т.О. Технология використания комьютерных моделей при вивчении медичноий биологичной физики //[Электронный ресурс].

6 .F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo'rayev "O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. "Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari. 2- modul, 2-nashr. T., "Bekinmachoq-plyus".2013

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IXTIROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING SAMARALI USULLARI

**G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtirochilik qobiliyatini shakllantirishda TRIZ texnologiyasining samarali usullaridan foydalanishning ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** TRIZ texnologiyasi, ixtirochilik qobiliyati, matematik bilim, sintez

Bugungi kunda pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni tashkil etishning kognitiv, o'yin, izlash va tarbiyaviy o'zaro ta'sir elementlari sintez qilinadigan yangi shakllaridan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Ixtirochilik qobiliyatli bolalarni aniqlash va rivojlantirish, ularning potentsial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish davlat va jamiyatning ustuvor ijtimoiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda matematika zamonaviy insoniyat bilimlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi shubhasiz haqiqatdir. Matematikada bolalarning intellektual rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud: aqliy operatsiyalar (tahlil, taqqoslash, tasniflash), jarayonlar (xulosa chiqarish, umumlashtirish, fikrlash va hk) va nutq. Ushbu imkoniyatkar dashqari o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar, didaktik o'yinlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarning darsda kutilgan natijaga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirishning mavjud usullarida bolalar tomonidan mantiqiy xarakterdagi vazifalarni bajarishga juda kam joy ajratilgan, ular vaqti-vaqti bilan qo'llaniladi.

Bunday vaziyatdan chiqish yo'lini TRIZ texnologiyalaridan boshlang'ich sinf matematika darslarida faol foydalanishda ko'rishimiz mumkin, chunki yangi, g'ayrioddiy narsalarni

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

yaratish qobiliyati bolalik davrida, tasavvur va fikrlash kabi yuqori aqliy funktsiyalarni rivojlantirish orqali yotadi. TRIZ texnologiyasi aniq matematik tushunchalarni shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadigan ijodiy salohiyatni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

TRIZ metodikasi taxminan 50 yil oldin Genrix Saulovich Altshuller tomonidan ixtiro qilingan va ishlab chiqilgan. Dastlab, u texnik muammolarni hal qilishda yordam berish uchun yaratilgan va fikrlash, moslashuvchanlik, izchillik, mantiqiy qurilish va o'ziga xoslikni rivojlantirishga hissa qo'shgan. Ushbu texnikaning asosiy vazifasi bolani qutidan tashqarida o'ylashga va o'z echimlarini topishga o'rgatishdir.

TRIZ yangi texnik g'oyalar ishlab chiqarishni aniq fanga aylantiradi, chunki qidiruv o'rniga ixtirochi vazifalarni hal qilish mantiqiy operatsiyalar tizimida bekor qilinadi. Tizim vositasidan foydalanishingiz mumkin bo'lgan "ijodiy tushunishlar" ni kutish mantiqsiz va isrofgarchilikni kutish mumkin emas, bu to'g'ri yo'nalishda va juda katta qiziqish uyg'otadi.

TRIZning maqsadi nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantirish, balki ularni sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunib, sistematik fikrlashga o'rgatish, tarbiyachilarga atrofdagi dunyoning birligi va qarama-qarshiligini tushunishga qodir bo'lgan ijodiy shaxs sifatlarini konkret amaliy tarbiyalash vositasi berish va ularning kichik muammolarini hal qilishdir.

TRIZ texnologiyasida o'quvchilar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermasligi, haqiqatni unga ochib bermasligi, uni qanday topishni o'rgatishi kerak. Agar bola savol bersa, darhol tayyor javob bermang. Aksincha, siz undan bu haqda nima deb o'ylashini so'rashingiz kerak. Uni mulohaza qilishga taklif qiling va yetakchi savollar bilan bolani o'zi javob topishga undang. Agar u savol bermasa, o'qituvchi ziddiyatni ko'rsatishi kerak. Shunday qilib, u bolani javob topishingiz kerak bo'lgan vaziyatga tushiradi.

Boshang'ich sinfda matematik kontseptsiyalarni shakllantirish, o'quvchilarning ixtirochilik, fikrlash va matematik qobiliyatlarni sezilmasdan rivojlantirib borish uchun qo'llanadigan TRIZ texnologiyasiga asoslangan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Masalan, quyidagi o'yinlardan keng foydalaniladi: 1. "Nima bo'lgan - nima bo'ldi" ob'ektining rivojlanish yo'nalishini aniqlash uchun o'yinlar Savol: 15 raqami bo'lgan va endi 5 raqamiga aylandi. D: 15-10=5 Savol:qaysi raqamni olsak 5 raqami hosil bo'ladi. Savol: 15 raqami bor edi, ammo hozir 10 ga teng. Savol: 10 raqamini olish uchun nima qilish kerak? D: 15-5 = 3

Bu o'yinni asosan boshlang'ich 1- sinflarda qo'llashimiz mumkin.

TRIZ texnologiyasiga asoslangan matematik o'yinlarning turlaridan biri bu Dienesh bloklari, Kuisener tayoqchalari, hisoblash tayoqchalari, Nikitinning kubiklari va kvadratlari, turli xil jumboqlar bilan o'quv o'yinlari. Bu o'yinlardan dars davomida foydalanish o'quvchilarning ixtirochilik qobiliyatini o'stiradi, balki, mantiqiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Gieneshning mantiqiy bloklari (LBD) mavhum - didaktik vositalar. Bu o'yin rang, shakli, kattaligi, qalinligi bilan bir-biridan farq qiladigan shakllar to'plami. LBD'lar berilgan xususiyatlarga ega to'plamlarni modellashtirishga imkon beradi, masalan, qizil bloklar, kvadrat bloklar va hk. To'plamlarini yaratish. Bloklarni guruhlash, keyin esa ularni berilgan xususiyat bo'yicha tasniflash mumkin: bloklarni kattaligi bo'yicha guruhlarga ajratish (katta va kichik, rang (qizil va qizil emas) va Bolalar uchun to'plamdagi yanada murakkab operatsiyalar (birlashma, qo'shilish, qo'shish, kesishish) aniqlanishi mumkin.

Bundan tashqari jumboq o'yinlari yoki geometrik konstruktorlar azaldan ma'lum bo'lgan. O'yinning mohiyati - ob'ektlarning siluetlarini modelga yoki dizaynga muvofiq tekislikda tiklash. Zamonaviy pedagogikada bunday jumboq o'yinlari ma'lum: Tangram, Sehrli doiralar, Pifagor jumboqlari, Kolumbus Egg, Vetnam o'yini, Pentamino, Yurak yoki barg. Barcha o'yinlarni umumiy maqsad, harakat usullari va natija birlashtiradi.

Matematikada sinfda ishlashda TRIZ-dan foydalanish samaradorligiga vaqti-vaqti bilan yangi texnikani qo'llaganimizdan so'ng ko'zlagan natijaga erishmiz. Bunday sinflardagi bolalarni sun'iy ravishda qo'zg'atishga hojat yo'q. Bolani g'ayrioddiy dunyoga olib borish,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

biz bir vaqtning o'zida uning uchun ixtirochilik tasavvurini rivojlantiramiz va tadqiqotlar va qidiruv vaziyatlari natijasida biz matematik qobiliyat va tushunchalarni shakllantiramiz.

Dars davomida bolalar TRIZ texnologiyasi samaradorligi tufayli bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu holda eng samarali quyidagi texnik va usullar hisoblanadi:

1. Aqliy hujum.

Bu usul odamning assotsiativ qobiliyatlarini faollashtiradigan izlanishning inertial yo'nalishidan qochishga imkon beradi. Ushbu usul ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum bir mavzu bo'yicha ko'p sonli g'oyalar berish, muammoning asl yechimini tanlash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

2. Morfologik tahlil.

Bolalarda ma'lum bir mavzu doirasida ko'p sonli turli xil toifadagi javoblarni berish qobiliyati shakllanadi. Fikrlash harakatchanligini shakllantirish, o'zgaruvchanlik printsipini bola tomonidan o'zlashtirish.

3. Sinektika.

Shaxsiy assimilyatsiya / empatiya / - ob'ektga hamdard bo'lish qobiliyati.

Ramziy o'xshashlik - ob'ektni xarakterlash uchun belgilar, taqqoslashlardan foydalanish.

To'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik - bu boshqa bilim sohalarida shunga o'xshash jarayonlarni izlash.

4. Tizim operatori.

Bolani o'tmishi, hozirgi va kelajagi bo'lgan ob'ektga nisbatan mustaqil fikr yuritishga undaydi.

TRIZ texnologiyasi universal vosita sifatida deyarli barcha faoliyat turlarida (ta'lim jarayonida ham, o'yinlarda ham, ) ishlatilishi mumkin.Bu orqali maktab yoshidagi bolaning

ongida dunyoning yagona, uyg'un, ilmiy asoslangan modelini shakllantirishga imkon beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat yaratiladi, qaror natijalari almashiniladi, bir bolaning qarori boshqasinnig fikrini faollashtiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, uning rivojlanishini rag'batlantiradi

Shunday qilib, TRIZ inson faoliyatining barcha sohalarida va barcha asrlarda qo'llaniladigan samarali usul hisoblandi. Bu tizimli muammolarni hal qilishga, shuningdek tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Dimitrova T.V "Boshimda yuzta xayol" 1996-y

2. Voltov A.V "Ta'lim muassasasining asosiy ta'lim dasturining modellari: Mintaqalar tajribasi" Moskva 2011-y

3.www.googe.uz

4.www.minikar.ru

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READANDPUB.UZ

# O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ KO'RINISHLARINING SHAKLLANISHI.

**Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi** Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy psixologiya yo'nalishi II-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar:** Aminova Dilnoza Orifjonovna Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada o'smirlik davrida xulq-atvorning ko'rinishlari hamda uning shakllanishini psixologik diagnostika qilish amliy va nazariy tavsiyalar berish.

**Kalit so'z:** O'smirlik davri, psixologik xususiyatlar, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor, diagnostika.

Notaga qarab kuylash eng muhim amaliy malakalardan biridir, bu nota bo'yicha notanish kuyni kuylashdir. Notaga qarab kuylash malakasi asta-sekinlik bilan ishlab chiqiladi va o'quvchining ishlash jarayonida eshitish tajribasining ahamiyati metroritmni his qilishi, nota cho'zimlarini to'g'ri bilishligi, jo'rsiz kuylashni bilishi, nota va nota yozuvlarini bilishligini talab qiladi. Bu jarayonda ladni bilish, lad aylanmalarini his qilish qobiliyatlari, ladni va tonallikni ushlab turishni bilish ham muhimdir. Ish jarayonida ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ham axamiyat berish zarur. Notaga qarab kuylash malakasini rivojlantirish jarayonida tushunarli va ifodali kuylashga erishish lozim. O'quvchiga tonallikdan chiqmagan holda nota matnini oldinroq doimiy kuzatib,

to‘xtamasdan kuylashga o‘rgatish zarur. Kuylashni boshlashdan oldin ijro etiladigan misollarni tahlil va muhokama qilish muhim. Kichik sinf o‘quvchilari o‘qituvchi bilan birgalikda, yuqori sinf o‘quvchilari esa mustaqil ravishda bu ishni amalga oshiradilar. Misollarni tahlil qilishda uning tuzilishi, ladi, metroritmi va boshqa xususiyatlariga axamiyat berish kerak. Berilgan tonallikda ovozni sozlash tayyorgarligini ko‘rish, notaga qarab kuylashda juda muhimdir. Notaga qarab kuylash ham kichik sinflarda jamoa yoki guruhlar bilan o‘tkazilib, keyinchalik yakka kuylashga o’rgatishi mumkin. Yod olingan kuyni boshqa tonallikda transpozitsiya qilish, shuningdek notanish kuylarni ham kuylash jarayonida transpozitsiya qilish juda muhim va foydalidir.

Metroritmni his qilishni tarbiyalash.

Lad intonatsion malakani rivojlantirish singari, metroritmni his qilishni tarbiyalash ham muhimdir. Metroritmni rivojlantirish ish jarayonining har bir turida mavjud. Lekin yanada muvaffaqiyatliroq, samarali natijalarga erishish uchun ba’zida o’rganiladigan asarning metroritmik darajasini tushunish, ajratib va alohida ishlab chiqish, shuningdek maxsus ritmik mashqlardan foydalanish muhim. Boshlang‘ich ritmik mashqlarni tanlashda, ritmni his qilish, ayniqsa bolalarning harakat holati bilan bog‘liqligiga tayanish kerak. Bolalarda boshlang‘ich nota cho’zimlarini tasavvur qilishida, aynan mana shu harakatlarga asosiy e’tibor beriladi. Metroitmni his qilishni rivojlantirishda drijyorlik qilish katta rol o‘ynaydi, ammo bu ishni mustaqil bajarish lozim.

Musiqiy ongni tarbiyalash (eshitish orqali tahlil qilish).

Eshitish orqali tahlil qilish solfedjio kursida kuylash bilan bir qatorda o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishda asosiy shakllardan biri hisoblanadi. Har qanday tushuncha uni qabul qilishdan boshlanadi. Shuning uchun o‘quvchini musiqani to‘g‘ri tinglashga o‘rgatish asosiy vazifalardan biridir. Turli xil musiqiy ko‘rinish va tushunchalarni o‘rganish hamda ulardan xabardor bo‘lishda musiqani qabul qila bilish muhim eshitish bazalarini yaratadi. Shu bilan birga qolgan ish shakllari bilan chambarchas bog‘liqdir. Eshitish orqali doimiy tahlil qilish o‘quvchiga ichki eshitish tasavvurini to‘plash, musiqa xotira va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Solfedjioda eshitish orqali tahlil qilish o‘quvchini musiqiy amaliyot bilan bog‘lab cholg‘uda asarlarni tahlil qilib ijro etishiga yordam beradi. Eshitish orqali tahlil qilish bir vaqtning o‘zida ikki yo‘nalishda olib borilishi kerak.

- musiqiy asarning to‘liqligicha yoki parchasini tahlil qilish;
- musiqiy til elementlarini alohida tahlil qilish.

To‘liq tahlil qilish.

Tahlilning bunday shaklining asosiy maqsadi – o‘quvchilarga musiqani tinglashni o‘rgatishdir. Bir ovozli kuylarni tinglash mobaynida o‘quvchilar uni emotsional qabul qilish bilan birga, kuyning tuzilishi, asosiy qoidalari, mantiqiy fikrni ketma-ketligi va uni rivojlantirib tahlil qilishlari, undagi tanish ritmik va melodik (musiqiy) aylanmalarni ajratib, alteratsiya belgilari, xromatizmlar, modulyatsiyalar va h.k. larni tinglab, ularga izoh berishlari zarur.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ko'p ovozli musiqani tahlil qilishda, o'quvchilar unda o'tilgan garmoniyalarni (akkordlar, intervallar) eshitishlari, xususiyatlarini tahlil qila bilishlari (kuy, akkompanement), polifoniya turlariga ahamiyat berishlari zarur.

Musiqiy til elementlarini alohida tahlil qilish.

Tahlilning bu turining maqsadi, eshitish qobiliyatini oshirish, asarning ifodali vositalari: tovushqatorini tahlil qilish, gamma, gammalardan parchalar, ladning alohida pog'onalari, musiqiy aylanmalar; ritmik aylanmalar; intervallarni melodik tovushlarda tepaga va pastga eshitilishi, garmonik tovushlarda, tovushlarda, lad pog'onalarining tonalligida, alohida va ketma-ket olingan shakllarda; akkordlar va ularning aylanmalari tor joylashuvida, melodik va garmonik eshitilishini aniqlashdan iboratdir.

Shunda yodda tutish kerakki, mazmun-mohiyatiga qaramay, ish jarayonining bu bo'limi solfedjio darslarija ustunlik qilmasligi lozim. Intervallar va akkordlarni eshitish orqali aniqlash maqsad bo'lib hisoblanmaydi.

Musiqiy diktant.

Diktant – solfedjio kursining eng qiyin ish shaklidan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning musiqiy xotirasini rivojlantiradi, musiqani ongli idrok qilishga va musiqiy talaffuzning boshqa elementlarini his qilishga ko'maklashadi, eshitilgan kuyni yozishni o'rgatadi.

O'quvchilarning olgan bilim va malakalari diktant yozishda namoyon bo'ladi va eshitish qobiliyati qay darajada ekanligini aniqlab beradi. Shu bois, ushbu shaklda ishlashga shoshilmasdan, bir oz vaqt (guruhlarning shakllanish darajasiga qarab) turli xil tayyorlov mashqlari bilan shug'ullanish kerak. Diktantni muvaffaqiyatli yozish, shuningdek, o'quvchilarning mustaqilligiga, ularning musiqiy xotirasiga, ladni eshitishiga, melodik harakatlarni (tepaga, pastga, oraliq masofalar, akkord tovushlari bo'yicha va h.k.) mo'ljallay bilishiga bog'liqdir.

Musiqa shakli tuzilishini tahlil qila bilish (kuyni jumla va iboralarga bo'linishi), shuningdek, kuyning metroritmik strukturasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lish (uning xajmlari, taktlarning tuzilishi, ritmik sur'atlarning xususiyatlari) o'quvchilar uchun juda muhimdir.

Diktant shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu diktantning namunaviy tahlili ham bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'qituvchisi yordamida kuyning ladini va tonalligini, uning xajmlarini, tempini, tarkibiy jihatlarini, ritmik sur'atlarning xususiyatlarini aniqlaydilar, kuyning muntazam ravishda rivojlanishini tahlil qiladilar, shundan so'ng kuyni yozishga kirishadilar.

Bunday diktantlar bilan bir qatorda, namunaviy tahlilsiz diktantlar ham berilishi lozim. Bunday diktantlar bir necha bor takroriy ijro etilganidan so'ng, o'quvchilar tomonidan yoziladi. Dastlab diktant 2-3 marotaba (bu vaqtda o'quvchilar kuyni eshitishadi va eslab qolishadi), keyinchalik 3-4 daqiqa oralig'ida yana bir necha marotaba takrorlanadi.

Og'zaki diktant shaklidan keng foydalanish lozim. Chunki bu shakldagi diktant o'quvchilarga ayrim murakkab kuylarni tushunib qabul qilishlariga, musiqiy xotiralarini rivojlantirishga yordam beradi. Ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilarga tanish kuylarni yozish, qisman uy vazifasiga berish tavsiya qilinadi. Bu aytilgan kuyni eslab

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

qolishga va uni tushunishga yordam beradi hamda eshitilgan ohangning nota tasvirlari bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Diktant bilan ishlashning eng muhim omili – bu uni tekshirish va xatolarini tahlil qilish hisoblanadi. Tekshirish shakllari turli xil bo‘lishi mumkin (pedagog tomonidan daftarlarni tekshirilishi, o‘quvchilar bir-birlarining daftarlarini tekshirishi, o‘quvchilardan biri diktantni doskaga yozishi yoki foptepianoda ijro qilishi, sinf esa diktantni tovush nomlarini aytishi va dirijyorlik qilishi). Uyda diktantni yoddan o‘rganib, transpozitsiya qilib, fortepianoda ijro etish mumkin.

Ijodiy malakalarni tarbiyalash.

O‘qitish jarayonida ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ijodiy malaka o‘quvchilarning emotsional va fikran musiqaga bo‘lgan munosabatlarini o‘sishiga, har birining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishiga, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, aynan shu fanni muvafaqqiyat bilan tushunishga va amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

Bolaning ijodiyoti mustaqil harakatlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, u ruhiy yetuk bo'lishi, musiqiy vazifalarni bajarishda dadil bo‘lishi, tezkor qarorlarni qabul qilishni o‘rganishi, analitik fikrlay olishi kerak. Solfedjio dasrlarida ijodiy mashqlar eshitish qobiliyatini faollashtiradi, musiqa eshitishning turli tomonlarini chiniqtiradi, shuningdek, tinglash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijodiy ishlashning eng muhim shartlaridan biri, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichida, his-tuyg'ularga tayanish hisoblanadi. Shu bilan birga, mashqlarni kursning asosiy bo‘limlari bilan bog‘lash zarur. Bu mashqlardan asosiy maqsad – o'quvchilarning nafaqat ijodiy malakasini rivojlantirish, balki kuylash, diktant yozish, eshitish orqali aniqlash kabi malakalarini yanada oshirishga yordam berishdan iborat. Ijodiy mashqlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Ijodiy vazifalar o‘quvchilarga mos bo‘lishi zarur. Bolalarda oz bo‘lsada, musiqiy-eshitish bo‘yicha bilim va ko'nikmalar zaxirasi hosil bo‘lishi bilan ijodiy ishlarni 1-sinfdanoq boshlash mumkin. Ijodiyotning asosiy ko'rinishi – improvizatsiya qobiliyati hisoblanadi:

- javobli iboralarni yakunlash;
- berilgan ritmik sur'atdagi kuylarni oxirigacha bastalash;
- berilgan matnga kuy bastalash.

Akkompanementlarni jamlash ham ijodiy ishlar turkumiga kiradi.
Majburiy tekshirish yoki sinfda muhokama qilish shartlari bilan ijodiy vazifalar uy vazifasi qilib berilishi mumkin. Eng yaxshi ishlardan diktant yozishda, kuylashda, transpozitsiyalashda va h.k.larda material sifatida foydalanish mumkin. Kichik sinflarda eshitish qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy misollar samarali hisoblanadi.

Nazariy ma'lumotlar.

Bu bo‘lim musiqaning boshlang‘ich nazariyasi va musiqiy savodi bo‘yicha muhim bilimlar ketma-ketligini o‘z ichiga oladi.

Har darsda o‘tilgan mavzu takrorlanib, mustahkamlangandagina yangi mavzu o‘zlashtirilishi mumkin. Nazariy ma'lumotlar o‘quvchilarning musiqiy-eshitish tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi shart. Ayniqsa, kichik sinf o‘quvchilari darslarida nazariy

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ma'lumotlar, musiqiy materiali ham shunga mos bo'lgan eshitish tayyorgarligi bilan mustahkamlanishi kerak.

Barcha o'tilgan musiqiy til elementlarining (intervallar, akkordlar, gammalar, melolik va garmonik aylanmalar va h.k.) fortepianoda qayta chalinishi nazariy materialni o'zlashtirishga, tonalliklarni erkin topa olishiga katta yordam beradi. Solfedjio darslarida o'quvchilar nota yozadilar, kuylaydilar xamda musiqiy asarlar va ularning parchalarini taxlil qiladilar. Shuning uchun, ularni musiqiy atamalar, templar, dinamik belgilar va ijrochilik tabiati bilan tanishtirish zarur. Bu esa barcha ta'lim yillari davomida amalga oshiriladi.

Biror-bir musiqa asarining mazmunini «o'qiy olish», uni tushunib yetish, hamda qanday tuzilganligini «ko'rish» uchun avvalo musiqa tilini bilish, musiqiy fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. «Musiqa tili» degani bu musiqiy ifodalilik va tasvirlilikning vositalaridan tashkil topgan tizim demakdir. Bular tovush balandligi, cho'zim, metr, ritm, interval, akkord, lad, tonallik, kuy kabi vositalardir. Musiqiy tilning vositalari musiqaning tarkibiy elementlari hisoblanadi. Musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'lim musiqa nazariyasiga oid fanlarda bayon qilingan. San'atshunoslikning bir sohasi musiqashunoslikdir. U o'z navbatida quyidagi bilim sohalarini qamrab oladi: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy etnografiya, musiqiy tanqid, musiqiy akustika, musiqiy psixologiya va boshqa sohalar. Musiqa nazariyasi ilmiy va o'quv fanlarning majmuasi bo'lib, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqiy shakl, polifoniya, solfedjio, cholg'ulashtirish kabi fanlarni o'z ichiga oladi va musiqani nazariy nuqtayi nazardan o'rganadi.

Musiqa haqidagi ta'lim tizimining boshlang'ich qismi — Musiqa elementar nazariyasi – umuman musiqaning asosiy elementlari va ayniqsa, kuy va uning sirlarini o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Musiqa elementar nazariyasi o'quvchilarda mustaqil musiqiy fikrlay olish ko'nikmaning rivojlanishiga asos soladi. Bunga tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan lad, ritm, kuy, xromatizm kabi mavzular imkon tug'diradi. Bu asosiy vazifalardan tashqari mazkur bólim o'quvchilarga musiqiy asarlar matnini ongli o'zlashtirishda yordam beradi. Nihoyat, musiqa elementar nazariyasi boshqa fanlar bilan baravar o'quvchilarning umumiy musiqiy va madaniy saviyasini o'sishiga ko'maklashadi.

1-sinfdan boshlab har bir dars quyidagi vazifalarni o'zida mujassamlashiradi.

- uy vazifasini tekshirish;
- yangi mavzuni nazariy tushuntirish;
- kuylash uchun mashqlar;
- musiqiy misollar kuylash;
- og'zaki va yozma mashqlar;
- ritmik harakatlar bajarish;
- eshitib aniqlash;
- diktant;
- uyga vazifa.

Darslarning qiziqarli darajasini oshirish maqsadida dars davomida turli xil o'yinlar va boshqotirmalardan foydalanish mumkin. Solfedjio fanini o'qitishda B.Kalimikov va G.Fridkin, N.Laduxin, A.Ostrovskiy qalamiga mansub darsliklar, A.N.Azimova va

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

N.X.Baxtiyorova, A.Mansurov va D.Payziyeva, F.Muxtorova va N.Sultonboyeva, A.N.Azimova va Z.M.Madelova, A.N.Azimova va M.E.Turg'unboyevalar tayyorlagan o'quv qo'llanmalar asosida olib borilmoqda. Bolalar musiqa va san'at maktablarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejasida, o'quv yili davomida o'quv darsturlari talablariga muvofiq solfedjio, musiqa adabiyoti va maqom alifbosi darslarida guruhlar o'rtasida o'rta xisobda 6-11 nafar o'quvchilardan tashkil topadi va bu fan majburiy fan hisoblanadi.

Óquv rejasi bóyicha óquv fani solfedjio fanini ózlashtirish muddati- xaftasiga 1,5 akademik soat: 5 yillik óquv ta'limi bóyicha 1-4 sinflarda va 7 yillik óquv ta'limi bóyicha1-6 sinflarda belgilangan.5 yillik óquv ta'limi bóyicha bitiruv 5- sinf va 7- yillik óquv ta'limining bitiruv 7- sinfida solfedjio fanini óqitish haftasiga 2 akademik soat belgilangan.

Solfedjio fani ko'p vazifalarni o'z ichiga olganligi sababli 1,5 akademik soat mavzuni o'quvchilarga to'liq yetkazib berishga nazariya bo'limi o'qituvchilariga ozlik qilmoqda. Sababi, tashkiliy qism 2 daqiqa, uy vazifasini so'rash 10 daqiqa, yangi mavzuni tushuntirish 10 daqiqa, kuylash uchun mashqlar 15 daqiqa, musiqiy misollar kuylash (bir ovozli) 15 daqiqa, musiqiy misollar kuylash (ikki ovozli) 15 daqiqa bo'lsa berilgan 67 daqiqa tugaydi. Bundan tashqari, har bir dars davomida og'zaki va yozma mashqlar, eshitib aniqlash, ritmik harakatlar bajarish, diktant yozish kabi vazifalar bajarilishi lozim. Buning uchun albatta pedagoglar uchun berilgan vaqt yetmaydi.

Masalan:, o'quv dasturida berilgan 4-sinf 7 yillik kurslar uchun 3-chorakning 1-mavzusini olamiz. Darsning mavzusi: Uchtovushlik. Uchtovushliklar ko'rinishi. Uy vazifasini so'rash, 2-chorak mavzulari yuzasidan savol-javob orqali o'tkaziladi. Yangi mavzu uchtovushlik. Uchtovushliklar ko'rinishi katta mavzu bo'lganligi uchun 15 daqiqa nazariy tushuntirib beriladi. Aytaylik, 15 daqiqa kuylash uchun mashqlar bajariladi (ovoz sozlash mashqlari). Kuylash uchun mashqlar bir ovozlik uchun kamida 15 daqiqa kuylanadi. Chunki, sof intonatsiyada kuylash uchun órta hisobdagi 9 nafar óquvchining har birini alohida-alohida eshitib ishlash lozim. So'ngra ikki ovozlik kuylanadi. Ikki ovozlik murakkab bo'lganligi uchun o'quvchilar bilan dars davomida chuqurroq yondashuv zarur. Har bir ovozni ishlash uchun 15 daqiqa oz. Ana endi yangi mavzuni mustahkamlash uchun og'zaki va yozma mashqlar ham bajarilishi lozim. Darsning berilgan vaqti esa kuylash davomida poyoniga yetadi. Bundan tashqari, oldinda dars davomida bajarilishi kerak bo'lgan eshitib aniqlash, ritmik harakatlar bajarish, musiqiy ijodiy ko'nikmalarini o'stirish uchun mashqlar, diktant yozish kabi vazifalar ham turibdi. Lekin vaqt yetmaganligi sababli har darsda yuqoridagi bajarilishi kerak bólgan vazifarning yo unisi yok bunisi bajariladi.Shuning uchun ham bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilar solfedjio fanidan o'quv dasturi bo'yicha berilgan mavzularni, talablarni to'liq bajara olmayaptilar. Bu muammoning yechimi shundan iboratki musiqa va san'at maktablaridagi solfedjio darslarini musiqa nazariyasi hamda solfedjio fanlariga ajratish zarur. Shunda musiqa nazariyasi fani uchun 45 daqiqa, solfedjio fani uchun 45 daqiqa etib belgilansa darsga albatta ko'zlangan maqsadlarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.I.A.Akbarov "Musiqa lug'ati" Toshkent o'qituvchi – 1997
2.A.N.Azimova, N.X.Baxtiyorova Solfedjio I Toshkent – 2016
3.A.Mansurov, D.Payzieva Solfedjio II Toshkent – 2016
4.F.Muxtorova, N.Sultonboeva Solfedjio III Toshkent – 2013
5.A.N.Azimova, Z.M.Madelova Solfedjio IV Toshkent – 2016
6.RajabovaNodira Fattoh qizi Solfedjio Buxoro nashriyoti - 2000
7. Oydin Abdullaeva Solfedjio Toshkent yangi nashr – 2012
8. Ibroximjonova Gavxar Amanbayevna, Umarova Lola Akbarovna, Xodjayeva Maxfuza Xalilovna, Xalilov Faxriddin Nuriddinovich. Musiqa elementlar nazariyasi. Garmoniya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2017
9. M.B. Agayeva, I.Y.Sivaya, L.L.Demidova, Sh.X. Djalalova. Solfedjio Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun o'quv dastur Toshkent – 2019

# GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK KO`NIKMANI SHAKLLANTIRISH

**Xudoyberdiyeva Xolida- Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 3-umumta`lim maktabining geografiya fani o`qituvchisi**

**Annotatsiya:** maqolada geografik ko`nikmani shakllantirishda amaliy ishlarni olib boorish, kartalar va globus bilan ishlash, tabiatni kuzatish kabi geografiyaga xos ko`nikma va malakalar hosil qilish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** ko`nikma, malaka, bilim, geografik, o`qituvchi, o`quvchi, geografiya, amaliy ishlar

Hozirgi ta'lim o`quvchilardan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish bilan birga, ulardan aqliy faoliyat usullarini ham egallab borishni talab etadi. Bilimlarni egallash va ularni turli amalaiy ishlarda tatbiq etish jarayoni–ikkita geografik ob'yektni qiyoslashda, ulardagi umumiylik va tafovutlarni aniqlashga, karta va boshqa bilim manbalari asosida geografik tavsif tuzishda o`quvchilar turli ko`nikma va malakalarni tatbiq etadilar.

O`quvchilarning geografik bilimlarni o`rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o`qituvchi tomonidan tashkil ettirilishiga bog`liq. O`qituvchi o`quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, o`quvchilar o`sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o`qituvchi o`quvchilar o`rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o`quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o`quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi. Geografik ko`nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko`nikma va malakani shakllanishlari bilan chambarchas bog`liq. O`quv ishlari uslubiyatini bilish ko`nikmalarini shakllantirish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Ilg`or geografiya o`qituvchilari va metodistlar o`quvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beradilar. Geografiya ta'limi ko`pgina amaliy ishlar bajarishni talab etadi. Umumta'lim maktablarida geografiya fanlaridan tashkil etiladigan amaliy mashg`ulotlar mazmunan boyligi, egallanayotgan nazariy bilimlarni to`ldiruvchi,

tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro aloqadorlikning mohiyatini ochib beruvchi amaliy shaklidir. Amaliy ishlar o`quvchilarning nazariy bilimlarini amalda tatbiq etishga, materiallarni ongli va puxta o`zlashtirishga, amaliy ahamiyatga ega bo`lgan ko`nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi.

Amaliy ishlar kurs mazmuniga qarab belgilanadi. Amaliy ishlarni olib borishdan maqsad turli mamundagi kartalar va globus bilan ishlash, tabiatni kuzatish kabi geografiyaga xos ko`nikma va malakalar hosil qilishdan iborat. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko`nikmalar mazmun jihatdan emas, balki bajarish murakkabligi bo`yicha ham farq qiladi. Masalan dunyo tomonlarini aniqlash oddiy ko`nikma bo`lsa, topografik planni o`qish va uni tuzish esa murakkab ko`nikma hisoblanadi.

Har bir geografik ko`nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko`nikma va malakalar bir paytning o`zida shakllantiriladi. Masalan topografik planni o`qish ko`nikmasi o`z ichiga yo`nalishlarni aniqlash, masshtab yordamida plandagi masofalarni o`lchash topografik belgilarni o`qish, joyda ob'yektlar o`rtasidagi aloqadorlikni o`rnatish kabilarni oladi.

Ob-havoni kuzatish ko`nikmasi deganda termometr, barometr, flyuger bilan ishlash, koz bilan bulutlar shakli va turlarini, ob-havoning boshqa alomatarini aniqlash tushuniladi. Shular ichida faqat ob-havo haroratini aniqlash va barometr bilan ishlash malaka darajasigacha ko`tarilishi mumkin.

Geografik ko`nikma va malakalar ko`p hollarda bilim sifatini belgilaydi. Mashqlar jarayonida oddiy ko`nikmalar asta-sekin malakaga aylanadi. Amalaiy ko`nikma va malaklarni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zi ko`nikma va malakalar oz vaqt va ko`p kuch talab qilsa gerbariylar yig`ish, kompasdan, nivelirdan foydalanish va hokazolar, ba'zilari juda murakkab harakat metodlarini va ko`p vaqt talab qiladi. Masalan: mo`ljal olish, graduslar va kilmetrlar hisobida aniqlash, manzilgohlar, hududlar o`rtasida fazoviy bog`liqlikni qiyoslash, geografik koordinatalarni aniqlash, kartada ko`rsatilgan ob'yektlar va hodislar o`rtasidagi sabab-oqibatlar

aloqadorligini o`rnatish, alohida ob'yektlar-daryo, ko`l, suv ombori, botqoqlikni ta'riflash, ko`rsatilgan hududni mamlakat, tuman, shaharning tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ta'rifini yozish.

Geografik kartani o`qish ko`nikmasi sekin asta rivojlantiriladi, barcha sinflarda davom etadi. O`quvchilar karta bilan ishlash jarayonida turli mazmundagi umumgeografik, iqlim, tuproq, iqtisodiy kartalarning shatli belgilari bilan ham tanishadilar va ko`nikmalar hosil qiladilar. O`quvchilar raqamli ma'lumotlar bilan ishaganlarida turli jadval, grafik va diagrammalar tuzishga o`rganadilar. Bu ishlar kurs materiallarini yaxshi o`zlashtirishni ta'minlaydi. Iqtisodiy kartalarni o`rgatish ko`nikmasi turli metodlar orqali shakllantirilishi mumkin. Masalan, karta orqali shaharlarga iqtisodiy-geografik ta'rif berilganda o`quvchilar uning xomashyo va tayyor mahsulotlar olishdagi va chiqarishdagi aloqalarini, kelajkdagi rivojlanishiga oid ma'lumotlarga oldindan ega bo`lishi kerak. Yuqori sinflarda iqtisodiy geografik kartalarni o`qish ko`nikmasini shakllantirish birmuncha qiyin kechadi. Bu yerda reja asosida ta'rif berish yetakchi rolni o`ynaydi. Masalan, sanoat tarmoqlariga tavsif berish rejasi, tarmoqlar, shaharlar, davlatlarga ta'rif berish rejalari bunga misol bo`la oladi. Ushbu fanning o`ziga xos xususiyatlari-harakatchanligi, ekologiya bilan aloqadorligi, ko`p mamlakatarda iqtisodiy rivojlanishning barqaror emasligi, iqtisodiyot, aholiga oid ko'pgina ma'lumotlarning vaqt o`tishi bilan o`zgaruvchan ekanligi bu borada o`quv qo'llanmalarini doimo yangilab turishni taqozo etadi.

Amaliy va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarga erishiladi: maqsadlar qo`yish jarayoni matn, karta, rasm mazmuniga savollar tuzish, javob qaytarayotgan o`quvchiga qo`shimcha savol berish, Masalaning shartlariga turli savollar qo'yish va hokazolarda amalga oshadi.

- O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o`quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo`llashga yordam beradi.

kuzatishlar, amaliy ishlar, tajribalar davomida yaxshi o`zlashtirilgan bilimnigina emas, balki ularni qo`llashni ham talab qiladigan savollar va muammolarni o`z ichiga oladi, murakkabroq izlanishlar amalga oshiriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISHI SIFAT KAFOLATI

**Bo'ribekova Muhayyo Nurillaevna**
**Sirdaryo viloyati Guliston shahar 8-son umumiy o'rta ta'lim maktabida biologiya fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'qituvchiningmalaka oshirishi uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz malaka oshirish, mustaqil bilim olish, kontent, elektron platforma.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonlariga moslashtirish, xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarimizni faol ishtirokini ta'minlash, milliy o'quv dasturlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs bo'lib hisoblanadi. Islohatlarning sifati va samaradorligi o'qituvchining ijodkorligi, faolligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonini tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ilg'or pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida darsni tashkil etuvchi, yuksak shaxsiy fazilatlarga ega o'qituvchilarni tyyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi mustaqil bilim olishi va malaka oshirib borishi lozim.

Mustaqil malaka oshirishning maqsadi – rahbar xodim va pedagoglarning o'z lavozimlari, mutaxassisligi, o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarini kengaytirish, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, milliy g'oya yo'nalishidagi nazariy va amaliy bilimlarini yangilash, ilg'or tajribani o'rganish va qo'llash, takomillashtirish, o'z ilg'or tajribasini yaratishdan iborat jarayondir. O'z ustida izchil ishlashlari natijasida ularning fikrlash doirasi kengayadi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi. O'qituvchining malakasini oshirish yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. **Mustaqil bilim olishi va malaka oshirishi**
2. **Metodik xizmat ko'rsatuvchi tayanch markazda**
3. **Yosh mutaxassislarmaktabida mustaqil bilim olish**
4. **Uzluksiz malaka oshirish**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Mustaqil bilim olish va malaka oshirish.** O‘quvchilarning yoshi, psixologik holatlarini hisobga olgan holda o‘quv fanlari xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturidagi mavzularni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikalari va ularning afzallik tomonlari bo‘yicha tavsiyanomalar tayyorlanadi. Tavsiyanomalar, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, o‘quv qo‘llanmalar asosida o‘qituvchi o‘quv dasturdagi mavzularni o‘qitish metodikalarini, fanning nazariy materiallarini mustaqil o‘rganadi.

**Metodik xizmat ko‘rsatuvchi tayanch markazlarda mustaqil malaka oshirish.** Ta’lim tizimida tayanch maktablar ahamiyati oshirilib, ular haqiqiy ma’noda metodik xizmat ko‘rsatuvchi tayanch markazlarga aylantirildi. Barcha fanlar bo‘yicha shunday markazlar tashkil etilib, o‘qituvchilar metodik kunlarida ushbu markazlardagi ilmiy-metodik majmualardan foydalanishlari, ilmiy-amaliy seminar mashg‘ulotlarini muntazam ravishda o‘tkazib borish, unda tajribali metodist, ilg‘or o‘qituvchi, olim va boshqa mutaxassislarning bevosita ishtirok etishi ta’minlanadi. Bu markazlarda seminar mashg‘ulotlarni o‘tkazgan o‘qituvchilar rag‘batlantirib boriladi. Bu markazda o‘qituvchi dars jarayonida uchragan muammolarni yechish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

**Yosh mutaxassislar maktabida mustaqil bilim olish.** Hududlar va o‘quv fanlari bo‘yicha yosh mutaxassislar maktabi ishini tashkil qiladi. Yosh mutaxassislar uchun muntazam ravishda mavzuli, muammoli va maqsadli o‘quv-seminarlari tashkil etib boriladi. Maktabda ham ilmiy-metodik seminar, trening mashg‘ulotlarini tashkil etish, tajriba almashish keng yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.Bu uchun o‘quv muassasalarida ijodkor, izlanuvchan o‘qituvchi kadrlarni tanlash, ular bilan muntazam shug‘ullanish, ularning faoliyatlari o‘z vaqtida moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladi, jamoada ijodiy o‘sish uchun sog‘lom muhit yaratish ta’minlanadi. O‘qituvchi mustaqil malaka oshirishi va bilim olishi bilan birga uzluksiz malakasini oshirib boradi.

**Uzluksiz malakasini oshirish.** Uzluksiz malakasini oshirish uchun mashg‘ulotlar maktabda, hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari, nodavlat ta‘lim

muassasalari va pedagogika institutlarida tashkil etiladi. Maktabda uzluksiz malaka oshirishning asosiy tashkiliy shakli pedagog kadrlarning yakka tartibda shaxsiy dasturi (ish rejasi) asosida uzluksiz mustaqil malaka oshirishlari hisoblanadi. Maktablarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy-metodik seminar va trening mashg'ulotlari tashkil etiladi, shuningdek, tajriba almashiniladi. Ustoz-shogird tizimi takomillashtiriladi.

Maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va metodbirlashma rahbarlari o'qituvchilarning o'z ustilarida ishlash rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan faoliyatini ham o'rganadi, unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mavjud bo'ladigan kamchilik va muammolarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy va metodik yordam ko'rsatadi.

**Hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida.** Hududiy milliy markazlarida mashg'ulotlar an'anaviy va onlayn shaklda tashkil etiladi.O'qituvchi faoliyatining kasbiy diagnostikasi uni yanada yuqori natijaga erishishini ta'minlash uchun o'zlashtirishi va o'z faoliyatida qo'llashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ish ko'nikmalari va malakalarni aniqlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab, xulosalar chiqariladi. Xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini "Hayot davomida o 'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirildi va kredit-modul tizimijoriy qilindi.Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi "Uzluksiz kasbiy ta'lim"maxsus elektron platformasi ishga tushirildi. Malaka oshirish tizimida ta'lim maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilish, boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borilishi belgilandi.

Unga ko'ra:

- xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlari o'rganiladi;

-har bir xalq ta'limi xodimining elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

- xalqta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

- an'anaviy o'qitish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan,onlayn va boshqa turlari joriy etiladi.

Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishning an'anaviy va onlayn shakllari uchun:

- har bir fan bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish kursining maqsad va vazifalari asosida 36 soatlik hajmdagi dastur va ishchi o'quv reja dastur tuziladi.

Har bir mavzu uchun kontent tayyorlanadi. Kontentlar pedagog kadrlarga qo'yilgan davlat talablari asosida shakllantiriladi.Ular:

1.Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

2. AKT va media savodxonlik

3.Uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari

4.Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi

5.Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

6.Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari

7.O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professor-o'qituvchilari hamkorligida biologiya fani o'qituvchilarini malakasini oshirish kurslari mashg'ulotlarini onlayn tashkil etish uchun kontentlar tayyorlandi.Yuqorida belgilangan davlat talablari asosida 7 ta modul bo'yicha 36 ta mavzu tanlab olindi. Har bir mavzuda: mavzu videodarsi, mavzu ma'ruzasi, mavzuga doir test, glossariy, mavzu taqdimoti, mavzuni o'zlashtirganligini aniqlash uchun nazorat topshirig'i, asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan iborat kontentlar tayyorlandi va A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot institutining elektron ta'lim platformasiga joylashtirildi. Bu kontentlar asosida respublika biologiya fani o'qituvchilari o'z malakalarini onlayn shaklda oshirish jarayonida foydalanishmoqdalar.

O'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishini tashkil etish bilan o'qituvchining ichki garmoniyasini ocha borib, mantiqiy mulohaza yuritishning nafisligi va go'zalligini tushunishni shakllantirib, mutaxassislik fani tushunchalarini egallash orqali konpetensiyalarni shakllantiradi. Uzluksiz malaka oshirishni yangilangan dastur va davlat talablariga javob beradigan kontentlar asosida tashkil etish shart va zarur, kontentlarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondoshadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega mas'uliyatli, zamonaviy, innovatsion yondashuvlar asosida milliy ta'lim tizimini takomillashtirish,texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishda moddiy baza, o'quv rejalar, dastur va majmualar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi malaka oshirish jarayonini tashkil etishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun kontentlarni tayyorlovchi mutaxassis-o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qoladi. Har qanday yaratilgan kontent o'qituvchining qiziqishiga, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i lozim. Uzluksiz malaka oshirish sifati va samaradorligi o'qituvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq. Uzluksiz malaka oshirish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning multimedia vositalaridan o'rinli foydalanishdir. Bu vositalardan o'tilgan materiallarni takrorlashda, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlashda, mustaqil ishlarda, vebinarlar o'tkazishda, kontent yaratish orqali mavzu mazmunini tushuntirishda samarali foydalanish mumkin. Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil qilishda kontentlardan foydalanish malaka oshirishning zamonaviy turi hisoblanib, bunda kompyuter yordamida malaka oshirish jarayonini turli usullarda tashkil qilish va o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonidagi ko'p holatlarini nazorat qilish mumkin

bo'ladi. Kontentlar yordamida uzluksiz malaka oshirishni tashkil etishda nazorat qilinadigan parametrlar to'plami keng bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarniko'rsatish mumkin:

O'qituvchi kontentlar asosida tashkil etilgan mavzuni mustaqil holda o'zlashtirayotganida, tushunmagan joylarini, tushunarli bo'lmagan materiallarni qaytadan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi uchun har bir kontent oxirida o'zini o'zi baholash imkoniyati yaratiladi. O'qituvchilarning mustaqil o'rganishi va bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanadi va bu topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi. Kontent oxirida o'qituvchilar bilim darajasini aniqlash va natijalari bilan tanishtirish, kerakli ko'rsatmalar berish belgilangan. Har bir o'qituvchining bilim darajasi yangi mavzu o'tilganga qadar qanday bo'lganligini aniqlash maqsadida oldin o'tilgan mavzu asosida testdan o'tkaziladi, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan tushunchalar alohida qayd etiladi. O'zlashtirilmagan tushunchalar yangi mavzu bayonida uchraydigan bo'lsa, u holda o'qituvchiga o'zlashtirilmagan tushunchalar haqida metodik yordam beriladi.

O'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'qituvchilarga uzluksiz malaka oshirish faoliyati davomida olgan bilimlari asosida ish faoliyatini tashkillashtirishda innovatsion texnologiya elementlaridan to'g'ri foydalanish imkoniyatini yaratish;

- uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish orqali o'qituvchiga keyingi faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini mustaqil ta'lim asosida mustahkamlab borish uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga imkoniyat yaratish;

- uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish asosida o'qituvchilar malaka oshirish faoliyatlarini to'liq nazoratga olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

O'qituvchilarning nodavlat ta'lim muassasalarida, pedagogika institutlarida malaka oshirishlari ham pedagogika markazlaridagidek tashkil etilish belgilangan. O'qituvchi

xohlagan, o'ziga ma'qul deb bilgan ta'lim muassasasida malaka oshirishi mumkin. Bir yilda bir marta malakasini oshirishi shart hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin: o'qituvchining kasbiy o'zini rivojlantirish jarayonida innovatsion faoliyat muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi ushbu jarayonda burilish holati, kasbiy o'zini rivojlantirishining muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish bosqichlari:

birinchi bosqich: o'qituvchi o'z faoliyatining muvaffaqiyati shaxsiy rejalarini hayotga tadbiq etishga bog'liqligini anglab yetadigan darajada o'z o'rnini topishdan iborat,

ikkinchi bosqich: o'ziga xos ichki va tashqi kasbiy muloqot borasidi – qo'yilgan pedagogik vazifalarni yechishning turli variantlarini tanqidiy tahlil qilish,

uchunchi bosqich: ustuvorliklarni tanlash, pedagogik faoliyatning an'anaviy uslublarini innovatsion namunalar bilan taqqoslash asosida o'zining muallifligidagi variantlarning asoslarini tuzish, bunda innovatsion namunalar interfaol – o'yinli metodik mashg'ulotlarda ifodalanadi,

to'rtinchi bosqich: o'rnashib qolgan namunalardan voz kechish – o'z tajribasining refleksiyasi, o'z muallifligidagi metodik pedagogik tizimni asoslab berish va sinovdan o'tkazishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Пулотов А.М. Инновационный подход к профессиональной подготовке педагогов дошкольных образовательных организаций. // Вопросы дошкольной педагогики. - 2020. - № 9 (36). - С. 3-6. - URL: https://moluch.ru/th/1/archive/179/5669/.

2. Yuldashev M.A. ―Xalq ta`limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. 2017 y.

3.Sh.Po'latov. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarish. O'quv uslubiy majmua. 2018y.

4. Evropa Kommissiyasi (2007): Hayot davomida o'qish uchun asosiy malakalar – Evropa Standartlari.

5.Evropa Kommissiyasi (2010): Ta'lim va o'qitish 2010 Dasturi, - O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish Mavzuiy Ishchi Guruhi, Limassoldagi Tenghuquqli ta'lim olish to'g'risidagi hisoboti, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.

6. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. –T., 2009.

7. Baybaeva M. X. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbiy yo'nalganlik // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2005.

# TO'GARAK DARSLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

**Sattarova Fotima Xasanovna**

Sirdaryo viloyat Xovos tuman 6-umumta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS*

***Аннотация.*** *В этой статье был проанализирован общий обзор цели и содержания оценивания по изучению грамотности чтения у детей начальных классов в рамках международного исследования PIRLS - Прогресс в международном исследовании грамотности чтения.*

***Ключевые слова:*** *Грамотность чтения, критическое мышление, PIRLS*

***Abstract.*** *In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS- Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.*

***Key words:*** *Reading literacy, critical thinking, PIRLS*

***Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo'ladi.***
*Shavkat Mirziyoyev*

**Ta'limdagi o'zgarishlar bugungi davrda yurtimiz kelajagining mustahkam poydevori hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan uzluksiz va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi oddiy ta'lim jarayoni ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda o'quvchining o'ziga xos psixologik xususiyatlari,**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir o'quvchilar auditoriyasining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi.**

**O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyatning ustunligi har tomonlama samaralidir.**

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e`tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas`uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ch sinf o'qituvchilarining vazifasi mas`uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

**Bugungi kunda boshlang`ich ta'limning ham o'z o'rni va o'z mavqeiy bor, ular ham nufuzli xalqaro baholashga oid dasturlarda qatnashayapti, ya'ni PIRLS *(Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish)* xalqaro tadqiqotlari. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.**

O'z tajriba jarayonimdan misollar keltirib o'tsam. To'garak darslarimda, mavzularni o'tish jarayonida iloji boricha mavzuga ijodiy yondoshgan holda o'tishga harakat qilaman. Mavzularni PIRLS topshiriqlari asosida tayyorlayman, o'quvchilarim bilan ham darsga ijodiy yondoshgan holda kirishaman. Bunday faoliyatim o'quvchilarimni yanada bilimli, fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishimga sabab bo'lmoqda.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ



Hozir sizlarga to'garak darslarimda PIRLS baholash dasturiga oid tayyorlagan topshiriqlarimdan namuna keltirmoqchiman.

## BAXTLI BO'LISH OSONMAS

(O'zbek xalq ertagi)

Qadim zamonda bir yigit baxt qidirib yo'lga tushibdi. Oldidan to'rt tomonga ketadigan yo'l ko'rinibdi. Bu tomonga borsammikan yoki u tomongami? Qaysi yo'l baxtga olib borarkan?-deb yigit uzoq o'ylabdi.

Shunda bir kampir o'tib qolibdi. -Onajon, ayting-chi, bu yo'llardan qaysi biri baxtga eltar ekan?

Shunda kampir:

-Sen baxtni topish uchun hamma yo'lni bosib o'tishing kerak,-debdi.

Yigit avval uzoq o'ylabdi. So'ng katta g'ayrat bilan yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Birinchi yurgan yo'lidan u bir do'st topib, u bilan boshqa hamma yo'llarni birga bosib o'tishibdi.

Yigitlar ko'p mashaqqatlar bilan katta shaharga yetishibdi. U yerda bozorga duch kelishibdi. Bir boy odam bilan tanishib, uning bog'ida bog'bon bo'lib ishlashga rozi bo'lishibdi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Yigitlar astoydil mehnat qilgani uchun bog‘dagi hamma mevalar mo‘l hosil beribdi. Boy yigitlarni odobliligi, mehnatsevarligi uchun juda yaxshi ko‘rib qolibdi. Ularning mehnatini munosib taqdirlabdi.

Boyning ikkita go‘zal qizlari bor ekan. Boy bu ikki yigitni qo‘ldan chiqarmaslik uchun ularni kuyov qilishni o‘ylabdi va yigitlarga bir necha shartlar qo‘yibdi.

Aqlli yigitlar boy aytgan shartlarni bajonu dil bajarishibdi. Boy endi yanglishmaganini, har ikki yigit kuyov bo‘lishga arzirli ekaniga ishonib, qirq kecha-kunduz to‘y-tomosha qilib, yoshlarga baxt-saodat tilabdi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. Yigit yo‘lga nimani qidirib chiqibdi?

A) Oltinni

B) Boylikni

C) Baxtni

D) Do‘stni

2. "Qidirib" so‘zini ma’nodoshini toping va yozing.

___

3. Ushbu rasm matndagi qaysi so‘zga mos deb o‘ylaysiz, javobingizni yozing.



___

4. Uning oldidan qanday yo‘l chiqibdi?

A) *Uch tomonga* ketadigan yo‘l ko‘rinibdi

B) *Ikki tomonga* ketadigan yo‘l ko‘rinibdi

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

*C) Pastki tomonga* ketadigan yo‘l ko‘rinibdi

*D) To‘rt tomonga* ketadigan yo‘l ko‘rinibdi

5. Yigitning oldidan kim chiqib qoldi va yigit unga qanday savol bilan murojaat qildi? Fikringizni bayon qiling.

6. Kampir yigitning savoliga nima deb javob beribdi?

A) Bitta yo‘lni bosib o‘tishing kerak

B) Ikkita yo‘lni bosib o‘tishing kerak

C) Uchta yo‘lni bosib o‘tishing kerak

D) Hamma yo‘lni bosib o‘tishing kerak

7. Yigit o‘ylab turib, yo‘l yuribdi-yo‘l yursa ham mo‘l yurib u yerdan kimni topibdi va ular birgalikda hamma yo‘llarni bosib qayerga yetib kelishibdi?

8. Yigitlar yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib shaharda bir boy odamni uchratibdi va boyning yerida kim bo‘lib ishlabdi?

9. Boy odam nima uchun yigitlarni yaxshi ko‘rib qoldi?

A) Chunki ular mehnatkash edi

B) Chunki ular oliyjanob, mehnatkash edi

C) Chunki ular mehribon, odobli edi

D) Chunki ular odobli, mehnatsevar edi.

10. Bu ikki mehnatkash yigit qo‘ldan chiqib ketmasligi uchun, boy odam ularga nimani taklif qilibdi?

**11. Boy odam necha kun to'y qilib berdi?**

A) Uch kech-kunduz to'y qilib berdibdi

B) Qirq kecha-kunduz to'y qilib berdibdi

C) Yetti kech-kunduz to'y qilib berdibdi

D) O'n kech-kunduz to'y qilib berdibdi

**Kabi savollar tuzishga harakat qilaman, bu savollar o'quvchilarni savodxonligini oshirish bilan birga ularning tafakkurini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, tabiatga va atrof muhitga bo'lgan do'stona munosabatini shakllantiradi.**

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilar matn mazmunini anglash va o'qishi mobaynida uning badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi. Mavzuda asossiy g'oyalar, asosiy g'oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahoratini o'rganadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo`llanma.T.2019-yil
2. http://www.ziyonet.uz. - axborot ta'lim portal
3. Matchonov, A.Shojalilov 4-sinf O'qish kitobi 2017 yil

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O'QUV JARAYONIDA KO'RGAZMALI VA TARQATMALI MATERIALLARDAN FOYDALANISH

**Alimova Dilorom Xudayqulovna**

Sirdaryo viloyat Xovos tumani
xalq ta'lim bo'limining
boshlang'ich ta'lim metodisti
***telefon: 97-276-03-30***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish texnologiyasi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, moddiy, nomoddiy, texnik ko'rgazmali materiallar, ta'lim vositalari ko'rgazmali material sifatida, axborot beruvchi, topshiriq oluvchi va nazorat qiluvchi tarqatmali materiallar, ularning afzallik va kamchiliklari hamda ulardan darslarda foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ko'rgazmalilik, tarqatmalilik, ma'ruza darsi, amaliy mashg'ulot, ta'lim vositasi, texnika vositasi, o'qituvchi, ta'lim oluvchi.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫСТАВОЧНО-РАЗДАТОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация**. В данной статье рассматривается технология использования наглядных пособий и раздаточного материала на уроке. В частности, представлены материальные, нематериальные, технические наглядные пособия, средства обучения в качестве наглядных пособий, информационные, задания и контрольные раздаточные материалы, их преимущества и недостатки, а также способы их использования на занятиях.

**Ключевые слова:** демонстрация, раздача, лекция, практические занятия, учебное пособие, техническое средство, преподаватель, обучаемый.

## USE OF EXHIBITION AND DISTRIBUTION MATERIALS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abstract.** This article discusses the technology of using visual aids and handouts in the classroom. In particular, material, intangible, technical visual aids, teaching aids as

visual aids, informational, assignment and control handouts, their advantages and disadvantages, and ways to use them in the classroom are presented.

**Keywords:** demonstration, distribution, lecture, practical training, teaching aid, technical tool, teacher, learner.

## KIRISH

Pedagogika, psixologiya fanlarini o'qitishda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish ta'lim oluvchilarning pedagogik yoki psixologik muammolarga oid bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda hamda ularga oid muammolarning yechimini topishda katta yordam beradi. Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», degan fikrlari so'zimizning isboti bo'ladi.

Misol tariqasida yana bir ibratli fikrlardan quloq tutsak. Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida «Oltin qoida»ni ifodalagan. «O'quvchilar-deb yozadi u, - sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasida, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni-tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilish olishlari kerak… birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim». Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali vositalardan va taqatma materiallardan foydalanish ancha samara beradi va o'quvchi darsda foydalangan ko'rgazmali vositalar orqali mavzuni yaxshiroq tushunib boradi.

Boshlang'ich ta'lim har qanday ta'limning asosi, poydevoridir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ta'lim poydevorini shunday qo'yish kerakki yuqori sinfdagi

bilimlarni chuqur egallab borishi zarur. Boshlang'ich sinfda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish o'quvchini darsga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi deb o'ylayman.

Bugungi kunda darslarda ko'rgazmali qurollar bilan nomoddiy ko'rgazmali materiallardan ham keng foydalanilib kelinmoqda. Nomoddiy ko'rgazmali materiallar deyilganda, dars jarayonida so'z bilan o'qituvchi tomonidan ma'lumotlarni yodga tushirish, ta'lim oluvchilarning xayolida gavdalantirish mumkin bo'lgan ichki, xayoliy tushunchalar, ya'ni adabiyot, san'at asarlari, badiiy film, badiiy asar qahramonlari, hayotda yuz beradigan turli voqea, hodisa va turli vaziyatlarni tasavvur qilish orqali hosil qilish tushuniladi.

Darslarda ko'rgazma va tarqatma materiallardan foydalanish har bir o'quvchini harakatga keltiradi, chunki har bir o'quvchini oldiga kelgan tarqatmaga u o'zi javob berishi kerak. Shuning uchun har bir o'quvchida alohida mas'uliyat xissi shkllanadi. Tarqatma materiallarning maqsadi nimadan iborat.

Tarqatmali materiallarni maqsadi va mazmuni jihatidan uch turga ajratish mumkin: axborot beruvchi, topshiriq oluvchi va nazorat qiluvchi. Tarqatmali materiallar ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirish va nazorat qilishda ham keng qo'llaniladi. Bunda nazorat varaqalari ko'rinishida tayyorlangan test savollari, savolnomalar, krossvordlar, jadvallar, chizmalar, masala va mashqlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, tarqatmali materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin.

Men o'z darslarimda tarqatma materiallardan va ko'rgazmali qurollardan keng foydalanaman. Har bir darsim uchun mavzuga oid ko'rgazma va tarqatmalar tayyorlab boraman. Bu o'quvchilarimni bilish qobiliyatini yanada oshirib bormoqda. Misol tariqasida aytib o'tsam. **“Nuqtalar”** deb nomlangan ko'rgazmali qurolimdan hamma fandan bemalol foydalanishim mumkin, buni tarqatma material sifatida ham foyalanish mumkin. Bu o'quvchilarimga yanada qiziq.

Misol uchun bu ko`rgazmalar yoki tarqatma sifatida ishlatsam tarqatma materialimni uch guruhga beraman va har bir guruh a'zosi bir-biriga o'xshamagan rasmlarni yoki geometrik figuralardan nuqtalarni birlashtirish orqali chizib berishadi. Bunda g'olib

komanda bir xil figuralarni bir-birini takrorlamagan holda chizishlari talab qilinadi. Bunda o‘quvchilarim nuqtalarni birlashtirish yordamida bunday natijalarga erishishadi. Bu ko‘rgazmamdan ham ona tili o‘qish savodxonligida ham matematika darslarida foydalanaman. O‘quvchilarimi bilish faoliyatini oshirishda bu katta natija berib kelmoqda.



Buyuk sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sinoning qa’yd qilishicha, inson o‘zining o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishida, narsaning tashqi xossalalarini o‘rganishda, uning aslini va tavsirini ko‘rib, o‘zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday fanda avvalo, narsalarning ta’rif zarur. Ularning mavjudligini esa, pirovard natijada isbotlash vositasida bilinadi. Chunki ular mazkur fan aniqlaydigan hodisalardan iborat bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki ko‘rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o‘tishning barcha shakllari, uslublarida qo‘llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko‘rgazmali qurollarsiz o‘tib bo‘lmaydi. Darsni tashkil etishda ko‘rgazmali qurollar muhim o‘rin tutadi. Didaktikaning asosiy printsiplaridan biri ham darsning ko‘rgazmaliligini ta`minlashdan iboratdir.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Sarsenbayeva R. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T

2. Rashidov X. va boshqalar. «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. /O'quvuslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). – T.: O'MKHTTKMO va UQTI

3. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya»

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# INSHONI TASHKIL ETISH USULLARI

***Rasulova Iroda Qodir qizi***

*Samarqand viloyati Oqdaryo tuman*

*XTBga qarashli 19-umumiy o'rta ta'lim*

*maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Hazratqulov Mutallib***

*Ilmiy rahbar:*

***Annotatsiya: Inshoni tashkil etish metodlari haqida to'xtalib o'tildi.***

Insho ijodiy ish bo'lganligi sababli o'quvchidan yuqori darajadagi mustaqillik va faollikni, matnda faqat o'z shaxsiy fikrini ifodalashni talab qiladi. Materialni tayyorlash, uni tizimlashtirish, inshoning rejasini tuzish, fikrlar orasida mantiqiy bog'lanish o'rnatish, munosib so'zlar, iboralar va so'z birikmalarini tanlash, gaplarning qurilishi hamda ular orasidagi bog'lanishni aniqlash, imloviy jihatdan tekshirish – bu murakkab harakatlar majmui o'quvchidan nafaqat barcha aqliy salohiyatini ishga solish uchun kuchli bosimni, balki o'z intellektual faoliyatini boshqarish malakasini ham talab qiladi. Insho kirish qismining vazifasi asosiy qismga o'tish yo'lini to'g'ri belgilashdir. Kirish uch-to'rt jumladan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Uni kattalashtirib yuborishdan saqlangan ma'qul. Inshoning asosiy qismi va xulosasi undagi yetakchi, zarur komponentlar hisoblanadi. Inshoning shu ikki qismi muallifning mavzuni qanchalik tushunganligi darajasini namoyish etadi. Inshoning yakunlovchi qismida ish yuzasidan asosiy xulosalar, mustaqil qabul qilingan qarorlar, umumlashma va qisqacha rezyume o'rin oladi. Inshoning yakunlovchi qismi ham muallifdan diqqat va e'tiborni talab qiladi. Inshoning bu qismi muallifning mustaqil tafakkuri darajasi, saviyasi hamda dunyoqarashi haqida umumiy tasavvur paydo qiladi. Ko'rinadiki, insho "mavzu", "epigraf", "kirish", "asosiy qism" va "xulosa"dan iboratdir. Inshoni yozdirishda o'quvchilarga bir nechta mavzular orasidan birini tanlash imkoniyati berilgani tuzuk. O'quvchiga berilgan bu tanlash imkoniyati uning keyingi faoliyatining samarali bo'lishi garovidir. Inshoda epigraf majburiy narsa emas. Ammo to'g'ri tanlangan epigraf insho muallifining mavzuni chuqur anglaganligini namoyish etadi. U o'zida insho muallifining qarashlarini ifodalaydi. Yaxshi epigraf inshoni bezaydi. Noto'g'ri qo'yilgan epigraf esa yaxshigina yozilgan inshoning qadrini tushirishi va uning baholanishiga aks ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Inshoning kirish qismi aniq, o'ziga tortadigan tarzda bo'lgani ma'qul. Ishning kirish qismida inshoda ko'tarilgan ayni masala aks etmog'i maqsadga muvofiqdir. Inshoning kirish qismi ma'lum yo'nalishlarda tashkil etiladi. Masalan: – tarixiy kirishda tarixiy davr, o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, siyosiy va madaniy hayotiga qisman to'xtalinadi;

– analitik kirish qismi nisbatan ustuvorlik kasb etadi. Unda insho muallifining analitik tafakkuri, tahlilchilik qobiliyati va shaxsiyati namoyon boʻladi; – biografik kirish qilinganda asarning yaratilishi bilan bogʻliq dalillar, asar muallifining hayotidagi muhim jihatlar va muallifning qarashlari oʻz ifodasini topadi; – qiyosiy kirishda inshoda ilgari surilgan voqea-hodisa yoki timsollarning qiyosiy tahlili oʻsha davrdagi analogi bilan taqqoslanadi; – lirik kirish qismi keng tarqalgan turlardan biri boʻlib, unda muallif insho predmetining oʻziga ta'siri, hayotiy tajribasi bilan bogʻlanadi. Inshoning asosiy qismi mavzuda hal qilinishi lozim boʻlgan asosiy fikrning kengaytirilgan tahlili boʻlib, unda rejada belgilangan masalalarning ochilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Asosiy qismda insho muallifi oʻz qarashlarini aytadi va fikrlarini albatta asardan misollar keltirgan holda dalillaydi. Mavzuni har tomonlama va har xil nuqtai nazarlarga asoslangan holda ochishga harakat qilinadi. Ishning asosiy qismida insho muallifining ovozi, soʻzi, munosabati, qarashlari oʻz aksini topmogʻi lozim. Asosiy mavzu har xil pozitsiyalardan muhokamaga tortilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Insho muallifning ijod mahsuli boʻlganligi uchun unda oʻzgalarning fikrini takrorlash mumkin emas. Lekin boshqalarning qarashlarini muhokamaga tortish, ularga munosabat bildirish inshoning qimmatini oshiradi. Xulosa ham inshoning muhim qismlaridan hisoblanadi. Unda insho muallifi oʻz tahlili va muhokamalaridan kelib chiqib fikrini aytadi, xulosasini chiqaradi. Katta xulosa bu – katta minus. Chunki bu muallifning oʻz fikrini qisqa va loʻnda ifodalash qobiliyatiga ega emasligini namoyish etadi. Inshoni shakllantirishga quyidagi metodik talablarni qoʻyish mumkin:

1. Agar insho mavzusi koʻchirma boʻlmasa, u qoʻshtirnoqsiz yoziladi. Inshoning sarlavhasi biror asardan olingan koʻchirma shaklida boʻlsa u qoʻshtirnoqda yoziladi.

2. Epigraf qoʻshtirnoqsiz, betning oʻng tomonidan yoziladi. Ostidan inshoga epigraf qilib olingan misralar muallifining ismi-sharifi yoziladi. Agar asarning nomi ham keltirilishi lozim topilsa, muallifning ismi-sharifidan soʻng asarning nomi qoʻshtirnoqda yoziladi.

3. Epigrafdan keyin (agar u bor boʻlsa, albatta) yoki mavzudan soʻng satrning oʻrtasidan "Reja" soʻzi yoziladi va ikki nuqta qoʻyiladi.

4. Insho rejasining asosiy tuzilishi rim raqamlari bilan uch qismdan iborat shaklda yoziladi: I. Kirish. II. Asosiy qism. III. Xulosa.

5. Agar insho hajman katta boʻlishi nazarda tutilgan boʻlsa, uning kirish va xulosa qismlari ham ma'lum darajada kengaytirilgan boʻladi. Inshoning asosiy qismi hamisha kengaytirilgan tarzda yoziladi. Asosiy qism arab raqamlari bilan (qavsga olinmagan holda) uch, toʻrt yoki undan koʻproq bandni qamrab oladi va raqamlardan soʻng nuqta qoʻyiladi. Har bir band oʻz holicha yana (bir, ikki) boʻlimlarga boʻlinishi mumkin va ular harflar bilan ifodalanib qavsda beriladi.

6. Inshoning har bir qismi yakunlanganda oxiriga nuqta qoʻyiladi. Keyingi qismi yangi satrdan katta harf bilan boshlanadi. Asosiy qismning boʻlimlari ham shunday rasmiylashtiriladi. Agar boʻlimlarda kichik boʻlimchalar mavjud boʻlsa, boʻlimning

yakunida ikki nuqta qo'yiladi va kichik bo'limchalar kichik harf bilan boshlanadi hamda oxirida nuqtali vergul qo'yiladi. So'nggi kichik bo'lim yakunida esa nuqta qo'yiladi va inshoning keyingi qismi yangi qatordan, katta harf bilan boshlanadi.

7. Insho rejasida qisqa jumlalarda ifodalangan qarashlarni inshoning asosiy qismi va undagi bo'limlar batafsil ochib beradi. Insho rejasida «A. Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'ri» yoki «Otabek – men sevgan qahramon» shaklida sarlavhaga moyil jumlalar ishlatilmasligi kerak. Rejani rasmiylashtirish qoidasi boshqacha bo'ladi. Masalan, «A. Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rida tarixiy shaxslar va geografik nomlar talqini» yoki «Otabek shaxsiga xos bo'lgan fazilatlar va asarda ularning namoyon bo'lishi» shaklida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

8. Insho rejasini shakllanirayotganda fe'lning faqat noaniq shaklidan foydalaniladi. So'roq yoki undov gaplardan foydalanilmaydi.

9. Inshoda ko'chirmalardan foydalanilganda ko'chirma qo'shtirnoqda yoziladi va uning muallifi ko'chirma oxirida qavs ichida ko'rsatiladi.

10. Insho bandlari asosiy matnda xatboshilar bilan ajratiladi.

11. Insho rejasidan keyin uning asosiy matni yangi satrdan, bosh harflar bilan boshlanadi.

12. Agar inshoda yil, oy va kun yozilishi zarurati bo'lsa, ular arab raqamlari bilan, asr esa rim raqami bilan yoziladi. Agar asr arab raqami bilan yozilsa ham xato hisoblanmaydi, inshoni baholashga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin belgilangan tartibda yozilgani maqsadga muvofiqdir.

13. Inshoda ko'chirmalardan foydalanilganda tinish belgilari ona tili darslarida o'zlashtirilgan bilimlar asosida rasmiylashtiriladi. She'rlardan foydalanilganda esa she'r matni sahifaning o'rtasidan yoziladi.

14. Inshoda xat aniq, husnixat qoidalariga amal qilingan holda yozilishi joiz. Insho har qanday odamning bilimliligi, savodxonligi, intellektual darajasi va madaniyatini aks ettiradigan ish turidir. Inshoni tekshiruvchi uning mazmun-mohiyati va tuzilishiga qarab muallifning shaxsiga ham baho berishi mumkin.

15. Imtihon insholarini yozishga to'rt soat vaqt ajratiladi. Shu to'rt soatning uch soatini insho yozishga rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu muallifda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. Badiiy so'z ko'magida insho yozishni muvaffaqiyatli tashkil etish – o'quvchilarni mustaqil hamda ijodiy fikrlashga, fikrini ravon va izchillikda ifodalashga, o'z xulosasini chiqarish hamda qarashlarini asoslashga yo'naltirish demakdir. Bu, o'z navbatida, adabiyot darslarining vazifalaridan biridir.

**Adabiyotlar:**

1.Husanboyeva.Q, Shodiyev.F, Hazratqulov.M. Boshlang'ich ta'limda adabiyot o'qitish metodikasi. SamDU.2019.350 b.

2.Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Sinfda o'qish metodikasi. SamDU.2020.156 b.

3.Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Language Teaching. – Great Britian: Oxford university press, 2013. –289 p.

4.Jennu Leach., Bod Moon. Learners & pedagogu. –London, 1999. –281 p.

5.Peter Lang., Yacov Katz., Isabel Menezes. Affective education. (A Comparative View.) –London and New York, 1998. –261 r.

6.https://ru.wikipedia.org/wiki. Vikipediya. Svobodnaya ensiklopediya.

УЎК:633.853.52;632.122:631.4:631.548.5

# SOYANI SUG'ORISH TARTIBLARINING, TUPROQNING SUV –FIZIK XOSSALARI, SUG'ORISH SONI VA MAVSUMIY SUG'ORISH MEYORIGA TA'SIRI

Qodirov Zayniddin Zaripovich, q.x.f.f.d, dotsent, "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti, Buxoro
Qurbonova Moxi Ostonovna, 2-bosqich magistrant, "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti, Buxoro
Yusupova Oynura Mehriddinovna, 1-bosqich talaba, "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti, Buxoro

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Buxoro viloyatining o'tloqi-allival tuproqlari sharoitida, asosiy ekin sifatidan yetishtirilgan soyaning "Nafis" navining turli sug'orish tartiblarida soya ekilgan tajriba maydonni tuprog'ining suv-fizik xossalariga ta'siri hamda soyani o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Sug'orish, sug'orish tartibi, sug'orish tizimi, sug'orish usuli, g'ovaklik, suv o'tkazuvchanlik.*

***Аннотация.*** *В данной статье в условиях лугово-аллювных почв Бухарской области изучено влияние сои, выращиваемой в качестве основной культуры, на водно-физические свойства опытного участка посевов сои при разных режимах орошения сорта «Нафис» и рост, развитие и урожайность сои.Секрет объяснен.*

***Ключевые слова:*** *Орошение, режим орошения, система орошения, способ орошения, пористость, водопроницаемость.*

***Annotation.*** *In this article, under the conditions of meadow-allive soils of the Bukhara region, the influence of soybean grown as the main crop on the water-physical properties of the experimental plot of soybean crops under different irrigation regimes of the Nafis variety and the growth, development and yield of soybeans was studied. The secret is explained.*

***Key words:*** *Irrigation, irrigation regime, irrigation system, irrigation method, porosity, water permeability.*

Bugungi kunda dunyo ahalisi turli sabablarga ko'ra oziq –ovqat yetishmasligi tufayli aziyat chekmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bu jahonda aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri, deganidir. Bundan tashqari, yer shahri aholisining 30 % dan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy microelement

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqdaki, bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Respublikamiz aholisining jadal o'sib borishi va aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ortib borishi soha vakillari oldida bir qator dolzarb masalalarni qo'ymoqda. Bular: aholini ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash, chorvachilik ozuqa bazasini yaxshilash, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish. Mamlakatimizda soya moyli ekinlar maydonlarining kengaytirilishi va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarining ko'payishi aholining yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish hamda chorvachilikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

2020-2021-yillarda Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi "Muhammad Choriqiy" fermer xo'jaligida asosiy ekin sifatida soyaning "Nafis" navi tajriba dalasida ekildi. Tajriba tizimiga asosan, dala tajriba ishlari 3 ta variantda va 3 ta qaytariqlarda amalga oshirildi. Bo'laklar o'lchami quyidagicha: egat uzunligi L=100 m, egatlar orasidagi masofa 0,6 m, qator soni 8 ta, shundan 4 tasi hisobiy qatorlar, qolgani himoya qatorlari, u holda bitta variant maydoni 8x0,6x100=480 $m^2$, bir qaytarilish maydoni 480 x 3=1440 $m^2$, umumiy tajriba maydoni 1440x3=4,320 ga va tajriba tizimi sxemasi.

1 – jadval.

Tajriba tizimi

| **Variyant №** | **Nav** | **Sug'orishlardan oldingi tuproq namligi, % (CHDNS ga) nisbatan** | **Ildiz tarqalgan faol qatlam chuqurligi, sm** | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | **Gullashgacha** | **Dastlabki gullash davri** | **Gullash, dukkaklarni shakllanishi va pishish davri** |
| 1 | | 70-70-60 | 50 | 70 | 100 |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Nafis | 70-75-75 | 50 | 70 | 100 |
| 3 | | 70-80-80 | 50 | 70 | 100 |

Vegetatsiya boshida tajriba maydoni tuprog'idan namunalar olinib taxlil qilindi. 2021 yilda tajriba dalasi tuprog'ining haydalma, 0–30 sm qatlamida gumus miqdori 0,870 % ni va umumiy azot 0,084 % ni, yalpi fosfor 0,127 % ni tashkil qilgan bo'lsa, harakatchan shakldagi miqdori, ya'ni harakatchan azot 11,2 mg/kg ni, fosfor miqdori 20,4 mg/kg va kaliy miqdori esa 151,1 mg/kg miqdorida tuproq tarkibida borligi aniqlandi. Kuzatuvlar davomida tuproqning haydov osti qatlamidagi ozuqa miqdorlari ham tahlil qilib borildi, bunda tuproq tarkibidagi ozuqa miqdori haydov qatlamiga nisbatan bir muncha kam bo'lganligi ko'rindi. Masalan, gumus miqdori haydov qatlamida 0,870 % ga teng bo'lgan bo'lsa haydov osti 30-50 sm qatlamda 0,787 % gumus miqdori mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, umumiy azot 0,068 % ni hamda yalpi fosfor 0,111 % ga teng bo'lgan bo'lsa, harakatchan shakldagi azot miqdori 10,6 mg/kg ni, harakatchan fosfor 19,7 mg/kg ni tashkil qilgan bo'lsa, kaliy miqdori 143,7 mg/kg ga teng bo'ldi.

**2-jadval**

**Amal davri boshida tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy ko'rsatgichlari, tuproq og'irligiga nisbatan**

| Tuproq qatlamlari, sm | Ozuqa moddalar tarkibi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | yalpi miqdori, % | | | harakatchan shakli, mg/kg | | |
| | Gumus | Azot | Fosfor | N–$No_3$ | $P_2O_5$ | $K_2O$ |
| **2020 yil** | | | | | | |
| 0-30 | 0,876 | 0,096 | 0,128 | 13,5 | 19,6 | 158,2 |
| 30-50 | 0,845 | 0,081 | 0,127 | 12,3 | 18,4 | 154,5 |
| **2021 yil** | | | | | | |
| 0-30 | 0,879 | 0,094 | 0,122 | 12,6 | 19,8 | 152,4 |
| 30-50 | 0,810 | 0,078 | 0,119 | 11,8 | 18,5 | 148,6 |

Tuproqning g'ovakligi hajmiy va solishtirma massasi ko'rsatkichlari asosida hissoblash yo'li bilan aniqlanadi. Aniqlangan ma'lumotlarni ko'rsatishicha tajriba maydoni tuproqning haydalma qatlamidagi g'ovaklik o'rtacha 48,5 % ni, haydalma qatlam ostida 43,2 % ni va o'rtacha 1 m qatlamda 44,7 % ni tashkil qildi. Tuproq g'ovakligi bo'yicha haydalma qatlam, haydalma qatlam osti va o'rtacha 1 m qatlamda o'rtacha g'ovaklashgan tajriba maydoni tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi tadqiqot boshida (5.04.2021 yil) silindrlar usulida 6 soat davomida aniqlandi. Olingan tadqiqot natijalari 3- jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha eng ko'p suv sarfi o'lchashning dastlabki birinchi soatida kuzatildi (o'rtacha 194,3 $m^3$/ga ), keying 2 va 3 soatlardagi suv sarfi 46,7-64,3 $m^3$/ga kamaydi, qolgan 3 soat davomida tuproqqa shimilgan suv miqdori 61,3-97,6 $m^3$/soat bo'ldi. Umuman, tajriba maydoni tuprog'ining 6 soat davomida shimilgan suv miqdori o'rtacha 689,0 $m^3$/ga dan iborat bo'ldi.

**1-rasm. "Muhammad Choriqiy" fermer xo'jaligi soya ekiladigan dala maydonida, tuproqning suv o'tkazuvchanligini aniqlash jarayoni**



Soyani "Nafis" navini yetishtirishda turli sug'orish tartiblari, sug'orishlar soni va mavsumiy sug'orish meyoriga ta'sir ko'rsatdi. Tajriba maydonida yetishtirilgan soya

o'simligining "Nafis" navini sug'orish meyorlari va sug'orish sonlari, sug'orishlardan oldingi qabul qilingan tuproq bamligiga, ekinning ildizi tarqalgan faol qatlam chuqurligi bog'liq holda bo'lganligi aniqlanadi.

Tajribaning barcha variantlarida birinchi sug'orishdan oldingi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70 % faol qatlam chuqurligi 50 sm bo'lganda bir martalik sug'orish meyori 610-647 $m^3$/ga ni tashkil qilgan. Keyingi sug'orishda barcha variantlarda soya o'simligining ildiz va yer usti organlarini jadal o'sish fazasiga kirishi munosabati bilan sug'orishdan oldingi tuproq namligini aniqlash chuqurligi 70 sm qilib belgilandi va nazariy sug'orish meyorini belgilashda ham shu chuqurlik olingan.

Yuqorida keltirilgan holat bo'yicha tajribaning 1 variantida ya'ni sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 70 % ( CHDNS ga nisbatan ) bo'lganda o'rtacha 2 yillik amaliy sug'orish meyori 786 $m^3$/ga, sug'orishdan oldingi tuproq namligi 75% ( CHDNS ga nisbatan) bo'lgan 2 variantda 648 $m^3$/ga, sug'orishdan oldingi tuproq namligi 80 % 3-variantda 546 $m^3$/ga ni tashkil qildi.

Soya navlarining gullash va donining shakllanish fazalarida suvga bo'lgan talabi keskin oshib borishini hisobga olib, shu o'suv fazasidan boshlab sug'orishlardan oldingi tuproq namligini aniqlash uning chuqurligini 100 sm qilib belgilandi.

Tajribaning 1 variantida sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 70 % bo'lganda ( CHDNS ga nisbatan) sug'orish 5 marta bo'lib, sug'orish meyori esa 614-1216 $m^3$/ga ni tashkil qildi.

Sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 75-80 % (CHDNS ga nisbatan) bo'lgan 2-3 variantlarda sug'orish soni 6 marta, sug'orish meyori 608-991 $m^3$/ga va 543- 815 $m^3$/ga dan iborat bo'ldi. Yuqorida keltirilgan soya navining sug'orish sonlari, har galdagi va mavsumiy sug'orish meyorlarini tahlil qilib xulosa qilish mumkin.

Umuman olganda ekinlarni sug'orish ishlarini amalga oshirishda tuproqning mexanik tarkibi va sizot suvlarining sathini hisobga olish lozim. Hududning iqlim shartlariga bog'liq holda sug'orish meyori 700 dan 4500 $m^3$/ga bo'lishi mumkin. O'suv davridagi sug'orishlarning aniq meyori va muddati namligi barqaror bo'lmagan mintaqalarda yarim

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

metr qatlamdagi, qurg'oqchil mintaqalarda esa 70 sm qatlamdagi, tuproq namligini o'lchash bilan belgilanadi. Namlik yetishmaydigan mintaqalarda tuproqning yuqorigi unumdor qatlamini muqobil namlikda ushlash va ekin maydoni mikroiqlimini yaxshilash uchun kichik meyorida ( 300-400 $m^3$/ga) tez-tez sug'orib turish lozim. Soya rivojlanishining gullash va dukkak hosil davrida suvga bo'lgan talabi yuqori bo'ldi. Shu sababli sug'orish vaqtini kechiktirmaslik lozim. Soya barglarning qisqarishi va xiralashishi sug'orish muddati kelganligini bildiradi. Sug'orishlar don to'lishishidan so'ng to'xtatiladi. Sug'orishni erta yakunlash hosilni kamaytiradi, kechiktirish esa vegetatsiya davrining uzayishiga sabab bo'ldi.

## XULOSALAR

1. Tajriba maydoni tuproqning sug'orishlardan oldingi namlik darajalari dastlabki o'suv fazasidagi barcha variantlarda, tuproqning quruq vazniga nisbatan 16,8-17,5 % ni, tuproqning CHDNSga nisbatan esa 68,3-71,1 % ni sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 75 % bo'lgan variantlarda tuproq namligi 17,8-18,9 % va 73,0-76,8 %, sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 80 % bo'lgan variantlarda esa 19,1-20,4 % va 78,0-82,3 % bo'lganligi aniqlandi.

2. Asosiy ekin sifatida yetishtirilgan soyani "Nafis" navining sug'orishlardan oldingi tuproq namligi butun o'suv davri davomida 70 % (CHDNSga nisbatan) tartibda saqlanganda sug'orishlar orasidagi davr 20-22 kun, 75 % bo'lganda 16-18 kun, 80 % bo'lganda esa 13-14 kun bo'lganligi va birinchi sug'orishni tuproq namligi zahirasiga bog'liq holda iyun oyining birinchi o'n kunligida, oxirgi sug'orishni esa sentyabr oyining birinchi o'n kunligida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lishligi aniqlandi.

3. O'rganilgan soyani "Nafis" navlarini dastlabki gullash davrigacha bir marta 580-623 $m^3$/ga meyorda sug'orish, gullash davrining dastlabki bosqichida ikkinchi sug'orishni amalga oshirish va bunda sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 70 % bo'lganda 856 $m^3$/ga, 75 % bo'lganda 685 $m^3$/ga va 80 % bo'lganda esa 557 $m^3$/ga meyordada sug'orish, uchinchi va undan keyingi sug'orishlar soya navlarini gullash va don shakllanishi davomida o'tkazilib, bundan tuproqning sug'orishlardan oldingi tuproq namligi 70 % bo'lganida 3

marta, 1198-1231 $m^3$/ga, 75 % bo'lganda 4 marta 951-991 $m^3$/ga va 80 % bo'lganda 5 marta 797-817 $m^3$/ga meyorda sug'orish talab qilindi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Agrobank. 100 kitob to'plami. "Soya va maxsar yetishtirish" 46-kitob, 7-bet.
2. Isaev S., Mardiev SH., Qodirov Z.-Modeling the absorption of nutrients by the roots of plants growing in a salted -Integration of the fao-56 approach and budget. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 6, 2020.
3. Isaev S., Qodirov Z., Xamraev K., Atamuratov B., Sanaev X.-Scientific basis for soybean planting in the condition of grassy alluvial soil prone to salinization // Journal of Critical Reviews, Vol 7, Issue 4, 2020.
4. Isaev S., Qodirov Z., Saylikhanova M. and Fozilov Sh-**Influence of elements of irrigation technology of medium and late varieties of soybean on soybean yield**-IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 937 (2021) 022129, https://doi. doi:10.1088/1755-1315/937/2/022129.
5. Amu-Buxoro ITHB tashkiloti texnik hisoboti. 2021-yil.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ УЙҒУНЛИГИ МАЪНАВИЯТНИНГ ЮКСАЛИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

**Ибодуллаева Гулшан Саъдиевна**

Сирдарё вилояти

Педагогларни янги методикаларга

ўргатиш миллий маркази

**Аннотация:** мақолада таълим ва тарбияни уйғунликда олиб бориш иқтисодий, ижтимоий ва маънавий юксалиш омили эканлиги, тарбиянинг б л ш м а қ с а д , инсоний фазилатлар, миллий ва умуминсоний қадриятларни хулқ-атворга таъсири таъкидланган.

**Калит сўзлар:** метод, ўқув, тажриба, ижтимоий-гуманитар , ислоҳот, фазилат хулқ-атвор, тарбия, ёшлар, стратегияси

Бугунги Ўзбекистонда таълим соҳасида амалга оширилган ишларни объектив баҳолаш, халқ таълими тизими ривожланишига у ёки бу маънода таъсир этувчи омилларни тадқиқ этиш заруратга айланди. Ўзбекистонда ҳам замонавий таълим тизимини яратиш, ўқитиш методлари, таълим стандартлари, дарслик ва ўқув қўлланмаларини янгилаш зарурати, билим беришда чет эл илғор тажрибаларидан оқилона фойдаланиш, таълимни тарбия билан уйғунликда ташкил этиш масаласи ижтимоий-гуманитар фанлар, жумладан, тарих фани олдида турган долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Дарҳақиқат, “Агар кимда-ким мактаб бу фақат Халқ таълими вазирлигининг иши, деб ўйласа, мутлақо янглишади. Мактаб таълими соҳасидаги ислоҳотлар вазирлик ва идоралар, тармоқ раҳбарлари, барча даражадаги ҳокимлар, илмий ташкилотлар, зиёлилар, кенг жамоатчиликнинг вазифаси бўлиши шарт ва зарур”.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Таълим ва тарбияни уйғунликда олиб бориш иқтисодий, ижтимоий ва маънавий юксалишга олиб келади.

Тарбия фанининг бош мақсади – ўзида инсоний фазилатларни мужассам этган, маънан етук, билимли, жисмонан бақувват, фаол фуқаролик позициясига эга, ўз нуктаи назарини ҳимоя қила оладиган, миллий ва умуминсоний қадриятларни хулқ-атворида уйғунлаштирган замонавий, баркамол авлодни тарбиялашдан иборат. Тарбия фани Концепцияси, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги, “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунлари, халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган ҳужжатлари, хусусан “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги, “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги конвенциялар, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Ёшлар-2030” стратегияси ҳамда Ўзбекистон Республикасининг таълим тўғрисидаги қонун ҳужжатларига асосланганлиги билан аввалги йилларда қабул қилинган ҳужжатлардан тубдан фарқ қилади.

Концепцияда белгиланган вазифалар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси талаблари, Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси, миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, мамлакатимиздаги жтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда амалга оширилиши белгилаб берилди. Концепция умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартларида белгиланган талабларнинг (кейинги ўринларда – Малака талаблари) негизи ҳисобланади. Концепция “Тарбия” фанини ўрганиш босқичлари, ўқув фани бўйича таълим мазмуни ва малака талабларининг тузилишини белгилаб берди. Ҳар бир босқичда ўқувчиларни миллий ва умуминсоний қадриятларни ҳурмат қилиш руҳида тарбиялашга эътибор қаратилган.

Тарбия фанини яратиш ва узлуксиз таълим тизимига жорий этиш учунишлаб чиқилган ДТС талаблари асосида бошланғич синфларда (1-4-синфлар) ўқувчилар бу

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

фанни ўзлаштириши орқали, орзуларини аниқлай олиш, мақсад қўя олиш ва амалга оширишга ҳаракат қилиш, масъулиятни англаш, ҳамкорлик қила олиш, этикет қоидаларига эга бўлиш, тўғри ҳаракатларни қўллаб-кувватлаш ва амал қилиш, жараёнларда ташаббус кўрсатиш, ўз-ўзини ривожлантириш ва

фаолиятини танқидий таҳлил қила олишни шакллантириши лозимлиги белгилаб берилди. Шунингдек, Ўрта ва юқори синфларда қуйи синфлардаги кўникмаларини ривожлантирган ҳолда танқидий тафаккурга эга бўлиш, жамоада ҳамкорлик қила олиш; масъулият ва мажбуриятига амал қилиш, мустақил соғлом фикрга эга бўлиш, этикет қоидалари ва соғлом турмуш тарзига амал қилиш, жисмоний ва интеллектуал имкониятларини ривожлантириш, фаол фуқаролик позициясини намоён қилиш, ижтимоий борлиқни ҳис этиш ва ундан завқлана олиш кабилар белгиланди. Битирувчи синфларда (10-11 синфлар)да эса, янги иш ўринларини ярата олиш, меҳнат жамоаси ва мутахассислар билан самарали ҳамкорлик қила олиш, ўз-ўзини ривожлантириш, билимини мунтазам равишда ошириб боришни тизимлаштира олиш, бурч, мажбурият ва ҳуқуқларини билиш ва уларга риоя қилиш, фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш; ўз хатти-ҳаракатларини танқидий баҳолай олиш, маънавий-ахлоқий фазилатларга эга бўлиш билан бир равишда тарғиб ҳам қила олиш сингари билим, кўникма, малака ва компетенцияларга эга бўлишлари белгилаб берилди. Бу эса, ўқувчиларни бахтли ва муваффақиятли ҳаётга тайёрлашга замин яратиши назарда тутилган. Айни шу маънода, мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш соҳасида олиб борилаётган ислоҳотлар даражасининг кенг кўламлилигини Президентимизнинг 2019 йилнинг 27 декабрида "Янги Ўзбекистонни, албатта, ёшлар билан бирга қурамиз. 2020 йил ёшларга оид давлат сиёсатида туб бурилиш йили бўлади"[1], деб таъкидлаганлари ҳам бу борада амалга оширилаётган ислоҳотларнинг истиқболини намоён қилмоқда.

# Миёнкол микровоҳасининг этногеографияси.

**Норкулова Гулида Содиковна**
**Низомий номидаги ТДПУ 2 курс магистранти**

**Аннотатсия;** Миёнколни нафақат Зарафшон водийсининг, балки бутун Бухоро хонлигининг аҳолиси зич, географик қулай, ҳосилдор тупроқли, деҳқончилик маданияти юксак даражада ривожланган ҳудуди бўлиб, жуда ҳосилдор, сув билан яхши таъминланган, деҳқончиликка қулай, қадимдан аҳоли яшаб келган жойдир. Миёнкол алоҳида маъмурий бирлик сифатида маҳаллий аҳоли томонидан Ним Суғда деб аталган. Оқдарёнинг шимолидан то яқиндаги тоғгача бўлган ҳудуд- Суғди Калон деб юритилган. "Ним Суғда" ва "Суғди Калон" атамалари қадимий топонимлар сирасига кириб, шубҳасизки, бу ҳудуд аҳолиси Суғдиёна аҳолиси билан бир хил бўлган

**Калит сўзлар;** Миёнкол, Зарафшон, Ним Суғд, Оқдарё, "Самария" Зарафшон, Сўғд, зардуштийлар, Говбанд, Ойтамғали, Миср, Самарқанд, хиёнтйлар, Қипчоқлар, қарлуқ, турк, чигил.

Ўзбекистон ҳудудида кўплаб тарихий археологик жойлар мавжуд бўлиб, уларнинг ўрганилиши турлича ҳисобланади. Хусусан археологик олимлар ва манбалар асосида ўрганилган ҳудудлар ҳам кўп, лекин ҳали ҳануз ўрганилиш даражаси микёсларига кўра очилмаган жойлар мавжуд. Самарқанд вилоятида жойлашган Миёнкол ҳудуди ҳам тарихан ҳали тўлиқ очилмаган ҳудудлардан бири бўлиб, тарихга назар ташласак стратегик муҳим жойлардан бири ҳисобланади. Дунёдаги илк свилизатсиялар Миср, Месопатамия, Ҳараппа каби Икки дарё оралиғида бўлган ушбу ҳудуд тарихда муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлиб, аҳоли зичлиги, савдо-сотиқ кенг ривожланганлиги билан ажралиб туради.

Рус тадқиқотчиларининг кўпчилиги Миёнколни нафақат Зарафшон водийсининг, балки бутун Бухоро хонлигининг аҳолиси зич, географик қулай, ҳосилдор тупроқли, деҳқончилик маданияти юксак даражада ривожланган ҳудуди сифатида таърифлайдилар.

Миёнкол ҳудудларида археологик тадқиқотлар олиб борган олима Г.А.Пугаченкова шундай ёзади: "Миёнкол ҳудудлари жуда ҳосилдор, сув билан яхши таъминланган, деҳқончиликка қулай бўлиб, қадимдан аҳоли яшаб келган жойдир. Миёнкол алоҳида маъмурий бирлик сифатида маҳаллий аҳоли томонидан Ним Суғда деб аталган. Оқдарёнинг шимолидан то яқиндаги тоғгача бўлган ҳудуд- Суғди Калон деб юритилган. "Ним Суғда" ва "Суғди Калон" атамалари қадимий топонимлар сирасига кириб, шубҳасизки, бу ҳудуд аҳолиси Суғдиёна аҳолиси билан бир хил бўлган"[18].

[18] Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля.-Ташкент: Фан, 1989. С-9

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Қадимда Суғд- суғдиёна деб аталган ўлканинг асосий шаҳарларидан бўлмиш ҳозирги кунда Оқдарё, Иштихон номи билан бизга маълум бўлган туманда Дабусия, Ванг, Офаринкент, Даҳбед, Хартанг, Иштихон, Доиж (ҳозирги Лойиш), Соғарж каби жойлар узоқ тарих давомида мавжуд бўлиб, манбаълар орқали бизга ўтмишнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳамда этник лавҳаларидан сўзлайди.

Манбаларда бу ҳудуд Иштихон, Соғарж, Офаринкент каби муҳим стратегик аҳамиятга молик қадимий шаҳарларига эга бўлиб, улар ўз даврида воҳанинг маъмурий, иқтисодий, савдо-ҳунармандчилик ва маданий марказлари ҳисобланганлиги таъкидланади.

Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларидаги каби Миёнкол воҳасида ҳам турли элат ва қабилаларнинг кўчиб келиб жойлашуви орқали бу ерда этник жараёнлар бўлиб ўтган.

XVI асрга оид баъзи манбаларда маълум вақт давомида Миёнколнинг марказий ва юқори қисми Офаринкент, қуйи қисми эса Суғди Ҳурд деб аталишда давом этганлиги таъкидланади. Воҳанинг ғарбий ҳудудлари эса, Иштихон шаҳри билан биргаликда Анҳор тумани тасарруфида бўлган. XVIII асрнинг иккинчи ярмига келиб эса, бу ҳудудда Офаринкент тумани қаторига Пайшанба ва Янгиқўрғон туманлари қўшилган.

Сўғдиёнада мил.авв. II-I асрларга тегишли бир гуруҳ бош суяклар ўрганилган, улар шимолий Бақтриянинг кушон уруғларига тегишли чорвадор аҳолига мансублигидан дарак беради. Юежи қабилалари асосан брахекифал европоидлари бўлиб, улар Бақтрияга Сўғдиёна орқали ўтганлиги туфайли уларнинг излари Суғдда ҳам учраши бежиз эмас.

Андроново уруғ жамоалари тезда бутун Зарафшон водийси бўйлаб кенг тарқалади. Уларнинг маданият излари Зарфшон водийсининг деярли барча ҳудудларида мавсумий манзилгоҳлар, қабристон ва ёлғиз қабрлар кўринишидаги ёдгорлик сифатида бизгача етиб келган[19].

Зарафшон тоғ тизмаларининг водийга яқин жойида, қадимдан Канчач, Ёри ва Жилау полуметалл конлари мавжуд бўлиб, археологик маълумотларга кўра, ана шу маъдан конлари энеолит ва бронза даврида Саразм металлургия марказини таркиб топишига олиб келган. Қадимги Саразм аҳолисининг анъанавий машғулоти деҳқончилик бўлиб, улар Отчопар сойи ҳосил қилган Ойимкўл атрофида зироатчилик билан шуғулланганлар. Ойимкўлнинг шимоли то Зарафшон дарёсининг соҳилига қадар бободеҳқонларнинг экин майдонлари бўлиб, кейинчалик бу жойларда ўзбек ва

[19] А.Асқаров "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-226

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тожикларнинг ёнма-ён ва аралаш Авазали, Гуруч ва Соҳиб Назар қишлоқлари қад кўтаради. Уларнинг жанубий ва шарқий қисмида адирликлар бўлиб, бу жойлар Авазали ва бошқа қишлоқ аҳолисининг лалмикор деҳқончилик далалари бўлган. Ана шу адирликлар майдонида энеолит ва бронза даврларида боболдеҳқонларнинг қишлоқлари жойлашган. Бу жойлар қадимда "Сари-замин" аталиб, ёдгорлик суғдча "Саразм", яъни Зарафшон дарёси водийсининг бошланиши маъносини англатган[20].

Кушонлар даври Сўғдиёнасининг ўтроқ аҳолиси шарқий ўрта ер денгизи типида эди. Сўғдиёнанинг маҳаллий чорвадор аҳолиси ҳам улардан фарқ қилмас эди. Чунки уларнинг этник илдизлари қон қардошликка бориб туташар эдилар.

Баъзи манбаълар эса Офаринкент тарихини хиёнийларга бориб тақайди. Хиёнийларнинг бир қисми III асрда Орол ва Каспий денгизининг шимолий минтақаларидан келиб, Сўғдиёнани (асосан унинг марказий ҳудуди Зарафшон воҳасини) эгаллаганлар. Иккинчи бир гуруҳ олимлар фикрига кўра уларнинг кушонлардан бир қисми, Эрон типли халқлар эканлигини такидлайдилар. Учинчи гуруҳ олимлар хиёнийларни хунлардан ажралиб чиққан (хиёнийлар) этник гуруҳ деб қарайдилар. Хиёнийларнинг бир гуруҳи III-IV асрларда Юебан хунларидан ажралиб Мовароуннаҳрга келиб Зарафшон воҳасини эгаллаган бўлишлари керак. Бизнингча кейинг гуруҳ олимларининг фикрлари ҳақиқатга яқин бўлишлари керак[21]. Энди шу ўринда бир савол туғилади албатта бу тепалик ҳақида шундай чалкаш маълумотлар борки бунга тарихий ҳақиқат назаридан жавоб топиш яна археологик тадқиқотлар натижасидан кейинги хулосага қолади.

Тарихда юежиларни эроний типли қабилалар сифатида ўрганиб келинди. Аммо уларнинг шарқий Туркистондан (туркий тип дунёсидан) чиқиб, Даван, Уструшона ва Суғдиёна вилоятларидан оралаб, дастлаб шимолий Ҳиндистонгача кириб борганларида улар туркийда сўзлашганлар ва Мовароуннаҳр аҳолисини этник таркибида туркий этнос улуши сезиларли даражада ташкил этган[22].

Маҳмуд Кошғарий ҳам Чочнинг шимолидаги Исфижоб(Сайрам)дан то Тароз ва Боласоғун (Еттисув)гача бўлган ҳудудларнинг туркий аҳолиси орасида Самарқанд ва Бухоро томонлардан кўчиб келган суғдийлар ҳам яшашини таъкидлайди. Суғдийларнинг турклашиш жараёни айнан илк ўрта асрларда, айниқса хиёнийлар, кидарийлар, эфталийлар ҳамда турк хоқонлиги даврида жадал кечди. Суғдларнинг турклашиш жараёни шунчалар жадаллашдики, илк ўрта асрлар даври йилномаларида баъзан суғдийлар туркларнинг бир қабиласи сифатида тилга олина бошлайди[23].

---

[20] А.Асқаров "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-233

[21] К. Шониёзов. «Қарлуқ давлати ва қарлуқлар» Тошкент 1999 йил б-172-173

[22] А. Асқаров «Ўзбек халқининг этногенизи ва этник тарихи» Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-384

[23] А.Асқаров "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-387

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Суғд шаҳар ва қишлоқлари гавжум, ерлари обод ва унумдор, улар оралаб ўтган канал ва ариқлар тоза, сувлари зилолдек мусаффо, ҳар бир аҳоли пункти боғларга ўралган бўстон эди. "Суғдда канал бўйларида жойлашмаган, экин экилмайдиган, деҳқончилик билан шуғулланилмайдиган, аҳоли зич яшамайдиган, улуғвор қасрлари ва мустаҳкам обод қишлоқлари бўлмаган биронта ҳам аҳоли манзили бўлмаса керак" деб ёзади Ибн Ҳавқал[24].

Мовороуннаҳр шаҳарларининг аҳоли сони масаласида ёзма манбаъларда деярли маълумотлар учрамайди. Уларни катта шаҳар, ўртача катталикдаги шаҳар, кичик шаҳар, қалъа-қўрғон каби категорияларга бўлиб ўрганилса-да, аммо аҳоли сони ҳақида маълумотлар учрамайди. Масалан, марказий Суғдда X асрда 13 та шаҳар бўлиб, Самарқанд Марказий Суғднинг бош шаҳри ҳисобланган. Панжикент, Иштихон, Кушон, Дабусия ва Робинжон каби шаҳарлар ўртача катталикдаги шаҳарлар туркумига киритилган. К.Шониёзовнинг тахминий ҳисоб-китобига кўра, ўша кезларда Самарқанд шаҳрида 100-110 минг атрофида аҳоли яшаган деб фараз қилинса, Панжикентда 40 минг атрофида аҳоли яшаган. Ундан кейинги Иштихон, Кушон, Дабусия ва Робинжонда эса 10мингдан ортиқ аҳоли яшамаган. Кичик шаҳарларда эса 6-7 мингдан ортиқ аҳоли яшамаган. Шунда Зарафшон ўрта оқимидаги барча шаҳарларда аҳолининг сони 230 мингдан ошмайди. Бу рақамга қалъа-қўрғонлар ва қишлоқ аҳолиси кирмайди[25].

В.В.Бартольд араб ва форс манбаларига асосланиб, Зарафшон воҳасида мавжуд бўлган 223та қишлоқ номларини келтиради. Шулардан 101 таси Самарқанд вилоятида бўлган. Вилоятда аҳолининг тиғиз яшашини ҳисобга олинса, у ҳолда Зарафшоннинг ўрта оқимида яна юздан ортиқ қишлоқлар бўлган[26].

Сўғдиёнанинг марказий қисмини шартли равишда икки вилоятга бўлиш мумкин:

1. Зарафшон воҳасининг ўрта ва юқори қисми –Самарқанд вилояти, манбаъларда Самарқанд Суғди дейилади;
2. Шу дарёнинг қуйи оқимлари (Кармина ва ундан кейинги ҳудуд – Бухоро вилояти ёки Бухоро воҳаси). Нурота, Қоракўл ҳам Бухоро вилояти таркибида бўлган[27].

Зарафшон дарёсининг ўрта оқимларидаги йирик шаҳарлардан яна Иштихон, Дабусия, Кушон, Рабинжон тилга олинади. Бу шаҳарларнинг аҳолиси, тахминан 10-15 минг кишига яқин бўлган. Қишлоқлар ҳам оз бўлмаган. В.В. Бартольд асарларидан бирида араб географларининг асарларига асосланиб, Зарафшон водийсидаги мавжуд

[24] А.Асқаров "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-397
[25] К. Шониёзов. "Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни" Тошкент "Шарқ" 2001 йил б-200
[26] А.Асқаров "Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи" Тошкент "Ўзбекистон" 2019 йил б-398
[27] К. Шониёзов. «Қарлуқ давлати ва қарлуқлар» Тошкент 1999 йил Б-83

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

223та қишлоқнинг номини келтиради, шулардан 101таси Самарқанд вилоятида қайд этилган. Таъкидлаб ўтиш жоизки, араб географлари фақат йирик қишлоқларни тилга олганлар, 5-10 та хонадони бўлган, сийрак жойлашган қишлоқлар уларнинг назаридан четкада қолган, албатта.

Самарқанд вилоятининг шаҳар ва қишлоқларида яшовчи аҳолининг асосий қисмини ўзбек ва тожик халқлари ташкил қилган. Буларнинг бири оз ёки кўп бўлган дейишга ҳеч асос йўқ. Манбаларда бу халқлар бир-биридан ажратилмаган, улар ҳамма вақт ўзаро дўст-иноқ яшаганлар[28].

Турғун аҳолининг асосий қисмини ўзбек ва тожик халқлари ташкил қилган, буларнинг бири оз ёки кўп бўлган, дейишга ҳеч асос йўқ. Бу ҳудудда араблар ҳам яшаганлар, лекин улар ўша даврларда сон жиҳатидан унча кўп бўлмаган[29].

Араб ва форсий тилли манбаларда қайд этилишича, туркий халқлар қайси ҳудудда яшамасинлар сўғдийлар ва уларнинг кейинги авлодларидан бири тожиклар ҳам ўша ерларда яшаб келганлар. Шунинг учун ҳам Маҳмуд Кошғарий (XI аср) ўз даврида кенг тарқалган қуйидаги халқ мақолини келтиради; “Тотсиз(сўғдийсиз) турк бўлмас, бошсиз бўрк бўлмас”. Бошқача қилиб айтганда, Бош бўрксиз бўлмагандек, турк ҳам сўғдийсиз бўлмаган[30].

Туркий аҳоли билан шаҳар ва қишлоқларда бирга яшаган сўғдийлар турк ва сўғд тилини баравар билганлар. Сўғдийликларнинг айрим гуруҳлари туркий халқлар билан кўп йиллар ёнма-ён (баъзан аралаш) яшаб, кейинчалик ўз тилларини унутиб, туркий тилда сўзлаганлар.Бу жараён билан туркийлашиш жараёни ҳам туркийзабон аҳолини сон жиҳатидан бир мунча кўпайишида маълум ҳисса қўшилган. Ўз навбатида туркий тилли этносларнинг айрим гуруҳлари сўғд тилини яхши ўзлаштириб олганлар[31].

Хитой солномаларига кўра, чжоуву (чжао-у) ларнинг Кан хонадони вакилларидан Самарқанд ихшидлари сулоласи, Бухоро, Хоразм, Кушония, Марв каби мулкларнинг ҳукмдорлари етишиб чиққан. Бу сулоланинг 22 вакили 400 йил давомида Бухорони, Кан сулоласининг Самарқанд тармоғи эса милоднинг I асридан Кушония, Иштихон, Кеш, Нахшаб, Уструшона, Чоч, Хоразм, Фарғона ва Амударё жанубидаги мулкларни бошқарган[32].

хитой манбаларидан бири “Суй шу”да: “Кан(Самарқанд) ҳукмдорлари чжаовулар ўрнини туркий “ўн ўқ” сулоласи вакиллари эгаллади деб, бежиз таъкидламаган. Агар хитой манбаларида чжаоу (t'siau-miu) ва мусулмон манбаларидаги (* - جموكjamug) айнан бир хил бўлса, Ўрта Осиёни бошқарган

---

28 К. Шониёзов. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент 1999 йил Б-83
29 К. Шониёзов. “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” Тошкент “Шарқ” 2001 йил б-200-201
30 К. Шониёзов. “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” Тошкент “Шарқ” 2001 йил б-262
31 К. Шониёзов. “Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни” Тошкент “Шарқ” 2001 йил б-262
32 А. Отахўжаев. “ Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари” Тошкент 2010. Б-66

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

хонадоннинг этник мансублиги ойдинлашади. О.И. Смирнованинг фикрича, гарчи улар туркий қавм юэчжилардан бўлсалар-да, Ўрта Осиё муҳитида йиллар давомида кучли эронлашиш жараёнини бошидан кечирганлар. Юэчжи каби “келгиндилар” эса асрлар давомида маҳаллий маданиятни ўзлаштириб, этномаданий синтезда хусусан, суғдийлар маданияти шакллантиришда фаол иштирок этишган. Шундан хулоса қилиш мумкинки, юэчжиларга мансуб Суғднинг ҳукмрон доиралари маҳаллий аҳоли билан ассимилияциялашиб кетган[33].

Суғдаклар қадимги ипак йўлидаги кўплаб шаҳарларда яшаб , уларнинг кўплари батамом туркийлашиб кетган. Буларнинг каттагина гуруҳи Боласоғун шаҳрида ҳам яшаган. Боласоғун суғдаклари ҳақида гапириб “улар Самарқанд ва Бухоро ўртасидаги Суғддан бўлиб, кейин турклашиб кетган одамлар”, деб ёзган эди Маҳмуд Кошғарий[34].

IX-X асрларда Мовороуннаҳрнинг иқтисодий ва маданий жиҳатдан ривожланган ҳудудлардан яна бири Суғд (Сўғдиёна) эди. Бу ўлканинг тараққий этишида воҳани кесиб оқадиган Зарафшон дарёси ва ундан сув оладиган катта-кичик каналлар- ариқларнинг аҳамияти бениҳоят катта бўлган. Бу ариқлар туфайли воҳадаги ерлар, боғ-роғлар, дарахтзорлар, мевазорлар муттасил сув билан таъминланиб келинган. Воҳани ўраб олган тоғ олди минтақаларида (хусусан, Зарафшон дарёсининг ўрта ва юқори қисмида) аҳолини буғдой, арпа ва бошқа донли экинлар билан таъминлайдиган ҳосилдор лалмикор ерлар мўл эди. Бу ерлардан олинадиган донли маҳсулотларнинг бир қисми бозорга-сотишга ҳам чиқарилган. Тоғли ва тоғ олди роёнларида серўт яйловлар ҳам оз бўлмаган. Бу яйловлар йирик шохли моллар, от йилқи ва қўй-эчкиларни боқишга қулай эди.

Воҳага туташ чўлларда асосан кўчманчи ва ярим кўчманчи чорвадорлар (асосан туркий халқлар) жойлашган бўлиб, улар қўй-эчки, туя ва от йилқиларни кўплаб сақлаганлар. Чорвадорлар билан бирга воҳада турғун яшовчи аҳоли (ўзбек ва тожик халқларининг аждодлари) доимий иқтисодий алоқада бўлиб, бозор орқали ўз молларини пуллаб ёки алмаштириб турганлар. Шу йўсинда олиб борилган ўзаро муносабатда воха аҳолисининг иқтисодий ва маданий жиҳатдан ривожланиб боришини таъминлаган[35].

Шундай қилиб авваллари Ним Суғд, Офаринкент, кейинчалик Миёнкол тарзида шухрат қозонган ўлкада Соғарж баъзан Соғирж деб номланган аҳоли яшайдиган жой ҳам бўлган.

Илк ўрта асрларда Суғднинг Марказий – Самарқанд Суғди, Ғарбий – Бухоро Суғди ва Жанубий – Қашқадарё (Кеш ва Насаф) қисмлари ўзига хос тараққиёт босқичида эдилар. Хусусан, Бухоро Суғди мустақил равишда 585-782 йилларда

---

33 А. Отахўжаев. “ Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари” Тошкент 2010. Б-67

34 К. Шониёзов. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент 1999 йил Б-69

35 К. Шониёзов. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент 1999 йил Б-81

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Buyuk mutafakkir alloma Abu Nasr al-Farobiy (873-950)ning ijodida san'at: amaliy va nazariyga ajratilgan. Aristotel fikriga qo'shilgan holda, san'atni taqlidiylikdir deb biladi. Bu taqlidiylik idrok etuvchida hissiyot va tasavvurni uyg'otadi. San'atkor o'z hayoliy kuchi, ijodiy qudrati bilan umumiy g'oyalarni yakka qiyofalarda in'ikos ettiradi. San'at insonni taqlidiylikka o'rgatadi. Ya'ni inson hayotida doimo taqlidiylikka buysunadi, doimo yaxshilikka intilib yashaydi, o'zida yaxshi va go'zal fazilatlarni shakllantirib, go'zal hatti-harakatlarni, go'zal qilmishlarni o'rganadi, doimiy tarzda o'z-o'zini ustida ishlash lozimligini ta'kidlaydi[61]. San'at turlari xilma xil predmet, alohida yo'nalish va usullardan iborat bo'lishiga qaramasdan, ular odamlar tasavvuri va sezgilarini bir maqsadga – taqlid qilishga yo'naltiradi degan fikrni ilgari surgan. Alloma "go'zal fazilatlar", "go'zal ishlar" kabi iboralarga o'z asarlarida juda ko'p e'tibor qaratgan. "SHe'r san'ati", "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" risola, "Musiqa haqida katta kitob" asarlarida san'atning yuzaga kelishida garmoniya, mukammallik, xaos, ichki va tashqi ta'sir, maromli harakat, taqlidning o'rniga alohida e'tibor qaratgan.

Balzak "T.Manro qarashlari arab tilida ijod qilgan boshqa bir O'rta Osiyoning yirik olimi Farobiy fikrlari bilan hamohangdir. Manro tomonidan san'atga qiyoslangan oshpazlik, attorlik mollari bilan shug'ullanish, o'zini tuta bilish qoidalarini o'rganish, Farobiydagi san'at darajasiga ko'tarilgan tikuvchilik, tibbiyot, notiqlik san'ati va x.k.lar aslida badiiy ijod emas, aksincha, dunyoni anglashning har xil shakl va usullaridir va ularda estetik element mavjud bo'lib, ular faqatgina maqsadga muvofiqlik qonuniyatlariga emas, balki,

[61] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.112-113.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

go'zallik qonuniyatlariga ham asoslanadi. Ammo, Farobiy va Manro fikrlarida ratsionallik ham mavjud"[62], deb ta'kidlaydi. Garchi, Markaziy Osiyo xududlarida estetika fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, biroq o'rta asrlarning yirik qomusiy allomalari ijodida san'atning mohiyati keng tadqiq etilgan.

Jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan qomusiy olim Ibn Sino (980-1037) asarlarida san'atning insonga ham ma'nan, ham jisman ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ibn Sinoning 3 ta asari san'atga taalluqli bo'lib, "Fan ash-she'r" asarida she'r san'ati taqlidiy fikr natijasida uch xil yo'l bilan yuzaga keladi, ya'ni "lahn-uyg'unlik", "kalom-so'z" (majoziy obrazli so'z), "vazn". She'r san'ati inson fe'l-atvori, ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, insonni to'lqinlantiradi, ya'ni inson hissiyotga beriladi, taajjubga tushadi, g'arazli ishlardan tiyiladi deydi. SHuningdek, she'rga quyidagicha ta'rif beradi: "She'r deb, obrazli so'zlardan iborat bo'lgan maromli, bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga o'xshash bo'lgan satrlarga aytiladi". Musiqa san'ati esa insonga lazzat bag'ishlaydi, harakatga keltiradi, go'zallikni xis qilishga undaydi. Allomaning "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Qush risolasi" asarlarida inson g'am, alam bilan emas, xursandchilik, kulgi bilan yashashi lozim, inson umrini gul obraziga o'xshatadi, inson ham gul kabi insoniyat hayotiga mazmun, go'zallik va xushbuy tarovat baxsh etadi deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning san'at haqidagi nazariyalari "Umar Xayyom, Mirzo Bedil singari Sharqning buyuk ruboiynavislariga namuna bo'lib xizmat qildi".

**Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, san'at shunday tafakkur, nazariy aqldan yuqori turuvchi transendental bilimni hosil qiluvchi inson faoliyatining sohasiki, unda aprior his-tuyg'u va aprior aql, tafakkur o'zaro ichki uyg'unlikda (garmoniya) go'zallik va ulug'vorlik mezoni bilan baholanadigan transendental (ilohiy, intuitiv) bilim hosil qiladi. Ma'naviy jarayon sifatida, san'at o'z murakkab ichki tizimi tufayli inson tafakkurining barcha yorug' va qorong'u, baland va past, chuqur va yuzaki holatlarini ifodalaydi. U odamlarda tasvirlangan, ifodalangan narsa, hodisa va kechinmalarning estetik qadriyatliligini namoyon qiladi, narsa-hodisalarga**

[62] Борев Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С.33.

**nisbatan estetik baholash qobiliyatini shakllantiradi. O'quvchi va tomoshabin voqelikni san'atkor ko'zi bilan ko'rishga majbur bo'lsa-da uning estetik didi, olam, tabiat va inson mohiyatini anglaydigan estetik ongini shakllantiradi.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - B.112-113.
2. O'zbekiston falsafasi tarixi. I jild. - Toshkent: Noshir, 2013. - B.63.
3. Академия художеств Узбекистана, 2001. – С.132-133.Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология. – Ташкент: Мировая культура.
4. Бальзак об искусстве. – Москва-Ленинград: Искусство, 1941. – С.199-200.
5. Борев Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С.33.
6. Гегель Г.В. Философия духа. Том.3. – Москва: Мысл, 1977. – С.54.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# "САВАТ" БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР РАҚС – КОМПОЗИЦИЯСИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

**Барно Холиқова,**
**Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳридаги 1-мусиқа ва санъат мактаби рақс синфи ўқитувчиси**

**Аннотация.** Мазкур мақолада "Сават" болалар фольклор рақс композициясининг маърифий – тарбиявий аҳамияти ва ифода услублари тадқиқ қилинди.

**Калит сўзлар:** болалар рақси, фольклор элементлари, янги Ўзбекистон, маданий мерос, тарих, миллий ўзлик, маросим.

Азал – азалдан фольклор халқнинг ўз ўтмишини билиш ва истиқболини тўғри белгилаб олишига хизмат қилувчи муҳим омил ҳисобланади.Хусусан, болалар фольклор рақслари ватанни севиш ва у билан фахрланишга даъват этади, миллий қадриятларни асраб – авайлашга ундайди. Зеро, ўз маънавий бойликларини эъзозлаган миллатнинг илдизи бақувват, иродаси мустаҳкам бўлади.

Асрлар давомида аждодларимиз томонидан шакллантириб келинган болалар фольклор рақслари миллий маданиятимизнинг ажралмас қисмига айланган. Профессор И.Жабборовнинг фикрича, "миллий руҳият, ижтимоий онг, оилавий ва маънавий ҳаётнинг ҳозирги давр талабига жавоб бера оладиган даражада ривожланиши, шубҳасиз, халқнинг эркинлиги, унинг давлат тузилиши билан бевосита боғлиқ"[63].

[63]Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Т.: "Шарқ" нашриёти., 2008. -Б. 8.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Кўҳна Туронзаминда, Сирдарё бўйларида яшаган қабилаларнинг ҳам бошқариш қонунлари, ўзига хос урф – одатлари бўлган. Мухтарам Президентимиз тўғри таъкидлаганларидек, "Қадимий Турон ҳудудида сак – массагетларни руҳлантириб, душманларга қарши аёвсиз жангга бошлаган, Тўмариснинг учига куч қўшган кудрат куч халқ орзуси эмасмиди? "[64]

Истиқлол шарофати билан фольклор санъатининг йўқолиб бораётган турларини қайта тиклаш, уларни халқимиз ва ёш авлод онгига етказиш борасида катта ислоҳотлар амалга оширилди. Энг муҳими, бу жараён ҳамон давом этмоқда. Айниқса, ҳар йили Мустақиллик ва Наврўз байрамларини нишонлашга бағишланган тантанали тадбирларда уларни оммалаштиришга қаратилган эътибор туфайли асрлар давомида оғиздан – оғизга, аждодлардан – авлодларга ўтиб келаётган фольклор қўшиқ – рақсларнинг кенг тарғиб қилинаётганлиги миллий маданиятимиз ва маънавиятимиз тараққиёти учун амалий аҳамиятга эга бўлмоқда. Уларнинг кенг миқёсда оммавийлашиб бориши санъатимиз ва маданиятимизни мазмунан бойитмоқда, миллатимизнинг маънавий қиёфасини асраб қолишга, ёшларимизни ватанга муҳаббат, юртга садоқат руҳида тарбиялашга ўзининг ижобий таъсирини ўтказмоқда.

Маънавиятни асрашнинг энг муҳим имкониятларидан бири маданий мерос, анъана ва урф – одатлардир. Уч қисмдан иборат "Сават" болалар ракс – композициясида Сирдарё вилоятига хос бўлган меҳнат жараёнлари, айнан халқимиз орзулари замирида шаклланган меҳмондўстлик, бағрикенглик, меҳр – оқибат каби қадриятлар тараннум этилади.

Композициянинг биринчи фасли "Сават тўқиш" бўлиб, унда ибтидоий даврда Сирдарё бўйларида ўсган қамишлар, уларни ўришдан тортиб, ўша қамишлардан тўқилган илк саватларнинг тарихи, дастлабки болалар ўйинлари

[64] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: "Ўзбекистон" нашриёти.,2021. -Б. 16.

кўрсатилади.Мутахасисларнинг фикрича, “Миллий ўйинлар ёшларни тарбиялашда муҳим ўрин тутади.Чунки, ҳар бир миллатнинг ўйини жойнинг шароит ва имкониятлари, урф – одатлари ва яшаш тарзини ўзида мужассамлаштирган бўлади. Ўзбек миллий ўйинлари ёшларда чаққонлик, тез фикрлаш, топқирлик каби ижобий хислатларни шаклантиришга хизмат қилиши кўп бора исботланган” [65].

Аждодларимиз ҳаётидаги турли хил одатлар, ҳаёт тарзи рақслардаги бир қатор эпизодларнинг шаклланишига асос бўлган. Дарахт экиш учун жой тайёрлаш, кекса отахонларнинг дуоси билан ниҳол қадаш, унга сув қуйиш, новдаларни парваришлашдан бошлаб то сават тўқишгача бўлган жараён рақс ҳаракатларида ифодаланади.

“Сават тўқиш” рақси қуйидагича ижро этилади:

1.Иштирокчилар 8 – 10, 12 – 14 ёшли 10 нафар қизалоқлар ва 2 нафар ўғил боладан иборат.

2.Чанқовуз садолари остида 2 та қизалоқ саҳнага югуриб чиқади.

3.Саҳнада 2 та қиз ерда ўтириб, “Бештош” ўйнаётган бўлади.

4.Икки томондан яна иккитадан қиз чиқади.

5.Панжаларини кенг очганча аввал ўнг томонга;

6. Кейин чап томонга қўлларида “Бештош” ўйинининг ҳаракатларини кўрсатишади;

7.Чанқовузга доира садолари қўшилади.

8.”Бештош” ўйнаётган қизлар ўрниларидан туриб, дугоналарига қўшилишади.

---

[65]Мавлонов А. Миллий ўйинлар – беназир бойлик. Мукаррама Турғунбоеванинг ижоди ва унинг ўзбек саҳна хореографияси ривожи учун қўшган ҳиссаси. Т.: “Мумтоз сўз” нашриёти., 2014. -Б. 174.

9.2 та қиз чиройли саватча кўтариб, саҳнага чиқади.

10.Саҳнадаги қизлар сават кўтарган дугоналарини ўраб олишади.

11.Бир – бирига гап бермай, чуғурлаб, саватчи қизалоқларга саволлар беришади;

12.Сават кўтарган қизлар имо-ишоралар билан сават тўқиш ҳаракатларини кўрсатишади.

13. Чанқовуз ва доира садолари алмашиб, қизлар ҳаракатига жўр бўлиб туришади.

14.Қизлар қўлларини кенг ёйганча, "қанот" ҳаракатини ифодалаб, саҳнанинг иккинчи томонига ўтишади.

15.Ўсаётган дарахтни, шамолни тасвирлашади.

16.Саҳнанинг бир чеккасида кичкина белкуракларда ерни юмшатаётган болалар ва кекса отахон кўринади.

17.Юмшатилган ерга сув қуюб, отахоннинг дуоси билан ниҳолни экишади.

18.Қиз ва ўғил болалар биргалашиб, ниҳолни парваришлаш, унга сув қуйиш ҳолатларини кўрсатишади.

19. Дарахт сал улғайгач, авайлаб, унинг ён шохларини кесиб олишади.

20.Доира садолари тезлашади.

21.Қиз ва ўғил болалар баҳслашиб, сават тўқишга киришиб кетишади.

22.Доира ритмлари тезлашади, қизлар бир – бирларини даврага тортиб, рақсга тушишади.

23.Тайёр саватчаларга дарахтда пишган мевалардан солишади.

24. Саватларни бир – бирига узатиб, қўл ушлашиб, биргаликда рақсга тушишади.

25.4 та қиз саватни икки қўллаб боши баробар кўтариб, тўрт қадам олдинга ўтишади.

26.4 та ўғил бола қўлларида таёқ билан чиқиб, “Таёқ” рақсини ижро этишади.

27.Яна 4 та қиз гул териш ҳаракатини ифодалаб, саватчи қизларнинг ёнига ўтишади.

27.Икки томондан саватни ушлаб, биргаликда рақсга тушилади.

Мазкур ҳаракатлар орқали болаларни ўраб турган табиат, воқеа ҳодисалар ҳақида мажозий маънода сўз юритилади. Ҳар бир ҳаракат ва имо – ишора ўзига хос мазмун касб этади. “Сават” рақслар туркумининг бош мавзуси энг аввало болаларни миллий урф – одатлар билан яқиндан таништириш, уларни меҳнатсеварлик, эзгулик, меҳр – оқибат, умуминсоний қадриятларга муҳаббат руҳида тарбиялашдир.

Сирдарё вилояти болалар фольклор рақслари ранг - баранг бўлиб, турли жумбоқли ўйинлар, топишмоқлар, предметли ва маиший рақслар каби турларни ўз ичига олади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти.,2021.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.ЎзА, 2020й.,4 февраль.

3. Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). Т.: “Шарқ” нашриёти., 2008.

4. Мавлонов А. Миллий ўйинлар – беназир бойлик. Мукаррама Турғунбоеванинг ижоди ва унинг ўзбек саҳна хореографияси ривожи учун қўшган ҳиссаси. Т.: “Мумтоз сўз” нашриёти., 2014.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O'QISH DARSLARIDA BADIIY ASAR MAZMUNINI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

**Erkinova Guljaxon Olimovna**

**Andijon davlat pedagogika instituti Ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistranti**

**Annotatsiya:** Zamonaviy maktablarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma- xil topshiriq turlaridan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi.

**Kalit so'zlari:** badiiy asar, o'qish darsi, tahlil qilish, asar g'oyasi, metodik qoidalar, bilish faoliyati, adabiy janr.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi)

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqning o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. O'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof- muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish- kelmasligini

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari — ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari — sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir sujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

2- sinf "O'qish kitobi"da keltirilgan „Kamaychi shoh" ertagida „yov qora bulutday yopirilib kelayotgan ekan", „Kuychi terak" ertagida „Terakning shoxlari xuddi surnay chalgandek ovoz chiqarib, yaproqlari esa shildirab raqsga tushar ekan", „To'rg'aylar qo'shiq aytib, ularga jo 'r bo'lar ekanlar", „Oh, deb nola qilibdi terak", „Ustun ularning nag'malariga jo'r bo'lib, sho'x-sho'x kuy chalibdi" kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko'p. Ular ustida ishlash o'quvchi nutqini o'stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga ham o'rgatadi.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Maqol janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Misol uchun „ Yurt boshiga ish tushsa, Er yigit hozir" maqolida boshiga so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan, o'quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Tarixiy asarlarda ham ta'sirchan, tasviriy- bo'yoqdor so'zlar ko'p uchraydi. Iboralar doim ko'chma ma'no ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Matndan iboralar aniqlangach, ma'nosini izohlashdan tashqari, ularga ma'nodosh yoki qaram a- qarshi ma'noli iboralarni toptirish ham yaxshi samara beradi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o'xshatishlar juda ko'p. Masalan, „Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo'lim qotdi" topishmog'ida o'xshatish, bu yerda "muz-novvot"ga o'xshatilgan. Boshqa bir topishmoq: „Chiq-chiq" ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi", bunda jonlantirish qo'llangan.

„O'jar toshbaqa" masalida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, „Kosang joningga huzur", „Senga qalqon usti- bosh", „Parcha go'sht bo'lib yurar", „Jish Toshbaqa" kabi ibora, birikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda ulardagi ma'noni boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan: „Kosang joningga huzur" — Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi" kabi.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy- ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir- biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini tushuna boradilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matnni to'g'ri o'qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti- harakati sabablarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang'ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o'quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti- harakatini ular yashagan davr va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish zarur.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlarini o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir, bu asarni to'g'ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko'nikmasini, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. Muallif badiiy asarda tasvirlangan hayotiy dalillarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi vakillariga o'z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotiy materiallarga bahosi aniq dalillar asosida yaratilgan badiiy asarning g'oyaviy mag'zini tashkil etadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Asarning g'oyaviy yo'nalishi yozuvchining dunyoqarashiga bog'liq. Asarning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchiga ta ’sir kuchi uning g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

Psixolog olimlarning ko’rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o’zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo’lib, asarga, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o’z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o’quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo’ladi:

- Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
- Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o’quvchilar o’z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so’z boyligi, tajriba yetishmaydi. O’qituvchining vazifasi o’quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko’rsatish va o’quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

1 .O’quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2. Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur.

Turli janr badiiy asarlar qurilishi, uslubdagi o'ziga xos narx ega bo'lib, hujjat o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik ham o'ziga xos xususiyat ega. Masalan, she'riy asarlar matni matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy- ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar talab qilish.

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo’lib o’qituvchi o’qish darslarining ta’lim- tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o’ziga xos xususiyatlari va o’quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi. Badiiy asarda barcha komponentlar o’zaro bog’langan bo’ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qaxramonlarning yangi- yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o’qishni, idrok etishni, ya’ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o’qilgandan so’ng analiz qilinadi, so’ng yana yuqori sifatli sintezga o’tiladi.

Asarni o’qishga kirishishdan oldin o’quvchilarni badiiy asarni o’qishga tayyorlash lozim bo’ladi. O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun davolash ishlari o' tirish. Tayyorgarlik ishlarining vositalaridan iborat bo'ladi: O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni o'ngli idrok saqlash ta'sir ko'rsatadigan

yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'sharo it olish lariga ya. Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga harakat uyg'otish. O'quvchilarni asarni emosional idrok tayyorlash.

Badiiy asar ustida ishlashning 2- bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asos yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqyealar va uning rivojlanishi)ni, kompozisiyani, ishtirok etuvchi shaxslarning axloq va harakterli yordami, asarning g'oyasini ishlab chiqishi. Asarni metodik tasvirlardan biri asar mazmunini uningiy-ifodali tahlil qilish bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim- tarbiya vositalarini umumiy ravishdagi amalga oshirish. Bu xizmat asar ustida ishlashning asos yo'nalishini tahlil qilish, matnni sinovdan o'tkazish jarayonida o'quvchilarni topshiriqlarni va muhokama qilish uchun kerakli savollarni harakterini aniqlab olish yordam beradi. Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning turli xil metodlaridan foydalaniladi: O'qishdan oldin, o'qish jarayonida va o'qishdan keyin. Shunday qilib, asar matnini tahlil qilishda, umuman, sifatli asarlarni o'rganishda o'quvchilar shaxsiyiga kuchli ta'sirlarni o'rganishda mos, bilimlarning o'z imkoniyatlarini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlillardan o'rganish.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsam, o'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir- biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarini qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi.

O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirish ham muhim o'rin tutadi.

Badiiy asar ustida ishlashni to 'g 'ri tashkil qilish uchun shakl va mazmun birligi haqidagi qoida ham e'tiborga olinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T., 1998-yil.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

2. Alimov Sh. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan'anaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlar. Andijon 2009

3. Абдуллаева, Г. Э. O'qish darslarida matn ustida ishlash / Г. Э. Абдуллаева, Зулхумор Курбанова. —Молодой ученый. — 2017.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# *ИНТЕГРАТИВ ДАРС МАШҒУЛОТЛАРИНИ ЎТКАЗИШДА МУЛЬТИМЕДИА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ*

**Тўйчийева Мафтуна Дурбек қизи**

**Жиззах шахар**

**14-сонли мактаб технология фани ўқитувчиси**

**Илмий рахбар: Нодирова Ҳилола Сирожоновна**

Мултимедиа ( лотинча- кўп ва воситачи— бўлмок)- компютернинг матн, график, товушли ва видеомаълумотлар билан ишлашга имкон берувчи қурилмаси. Ана шундай қурилма ўрнатилган компютер мултимедиа компютер дейилади. ҳозирда деярли барча компютерлар мултимедиа қурилмалар билан таъминланган. Буларга СЕ- КОМ, СЕ- КУ компакт дискларини ўқийдиган диск юритувчи қурилмалар, товуш платалари, видеокарталар ва бошқалар киради. Кейинги вақтларда мултимедиа қурилмалар стандартига график тезлатгичлар ва катта ҳажмли универсал компакт дисклар ҳам қўшилди.

Мультимедиа технологияларнинг дидактик имкониятлари ўкув материалларини турли формат, ранглар ва шаклларга эга бўлган матнлар, жадвал-лар, статик ва динамик графиклар, анимацион моделлар ва интерфаол сервис дастурлари қўллаш ҳисобидан кескин ошади. Дарс мазмунини очиб берувчи жараёнларни тегишли изоҳлар бериб, турли вариантларда намоён этиш ва зарурий ҳолларда орқага қайтариш/ такрорлаш билим олиш суръатини ўқувчилар салоҳиятига, ахборотни қабул қилиш, қайта ишлаш ва хотирада сақлаб қолиш суръатига мослаштириш, таълим жараёнининг муҳим компоненти бўлган кайтар алоқани доимий сақлаб туришга имкон яратади. Мутахассислар аниқлашларича, ўқувчиларнинг оператив хотираси ҳажми анъанавий маъруза натижасида ошиши 36% га ва мультимедиа техноло- гияларига асосланган маъруза натижасида 88% га ошиши кузатилган. Бундан ташқари, 2- нчи ҳолда ўқувчиларда асабий{ }3{ў}рикишнинг камайиши, кайфият яхшиланиши, дарс жараёнида қатнашиш фаоллиги, диққатнинг концентрацияси ва йўналганлиги ҳам сезиларли даражада ошиши кузатилган. Машғулотларни замонавий таълим технологиялари талабларига мослаб илмий-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

услубий ва услубий- дастурий жиҳатдан тайёрлаш, кўп қиррали жараён бўлиб, педагогдан Фаннинг фундаментал асосларини чуқур билиш, турдош фанлардан олган билимларини интегратив дарс тамойиллари асосида уйғунлаштириш ва ўқув материалларини фанлараро боғлиқликни очиб берув- чи энг янги маълумотлар билан мунтазам тўлдириб боришни талаб этади. Мультимедиа технологияларига асосланган интегратив дарснинг ўқув ва синов- назорат материалларини тайёрлаш ҳам ўзига хос хусусиятларга эга.

Ўзбекистон Республикасидаги шиддатли ўзгаришлар таълим тизимига ҳам жаҳон миқёсида кенг йўл очиб бермокда, замонавий информацион технологияларнинг тезкор ривожланиши, глобал телекоммуникацион технологияларнинг такомиллашиб бориши электрон таълим муҳитида инсонни ишга бўлган муносабатини креатив ёндашувини талаб этмокда. Замонавий дунёнинг инновацияларига мослашиш, доимий янгиланувчи жамият ҳаётига ёш авлодни тайёрлаш ва уни замон талабларига мувофиқ такомиллаштириш жараёнларида фаол иштирок этиш қобилиятини ривожлантириш умумий ўрта таълим муассасаси педагогини муҳим касбий вазифаси ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг имкониятларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш, умумий ўрта таълим муассасалари таълим сифати ва самарадорлигини ошириш10 каби йўналишлар белгиланиб, бу борада умумий ўрта таълим муассасаси педагогларини креативлигини ривожлантириш катта аҳамият касб этади. Саноатнинг, хусусан, мамлакатнинг иқтисодий ривожланиши инсон ресурсларининг креатив қобилиятлардан фойдаланишига боғлиқ. Шу билан бирга, креатив одамларнинг шаклланиши таълим тизимининг вазифаларидан биридир. Креативлик ҳар қандай фаолиятда шахснинг янги, оригинал ғояларни яратиш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

# The effectiveness of Dhikr and Sufi idea of "the Ideal man" in mental wellness. The teachings of Bahauddin Naqshband

Kilicheva Karamat

*Department of Media management and media design, Journalism and Mass Communication University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan*[1]

karomatkilicheva320@gmail.com

**Abstract.** Spirituality is an integral factor of mental and physical health. And Sufism is a philosophical religious movement in Islam. The ultimate aim of Sufism is union with God, which is reached with the practice of Islam. Therefore, the objective of this paper is to review past studies regarding Sufi principles and specifically the practice of dhikr, and investigate their potential in mental/psychological condition. This article will also highlight the principles of some of the most widely known Sufis, namely Bahauddin Naqshband, Khoja Ahror Wali, and Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani.

**Keywords**: *Sufism, dhikr, spiritual healing, tasawwuf, Sufi Order, Naqshbandi Order, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahror Wali, Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani*

## Introduction

Human experience in mental and physical wellness has a spiritual dimension. Back then, it was considered by the majority scientists that psychology and psychiatry are not related to spirituality and religion. However, recent studies strongly suggest that spiritual and religious practices are actually helpful to cope with stressful events of life. Many psychologists now believe that religion and spirituality are important factors in life (Verghese, 2008). Sufism is a progressive doctrine that originated in the Islamic world in the mid-eighth century. In Islam, Sufism is considered to be the path followed by individuals who have strived to acquire divine qualities and live in accordance with requirements of God's knowledge and love, and subsequently experience spiritual delight (Gülen, 2006). The science of Sufism

has its own history and its own process of formation. It is not limited to the theoretical side, but also implements the principles of Sufism through the teachings, which one of best features of Islamic mysticism. This implementation is called "*tasawwuf*" in theory, and "*tareeqah*" in practice (Sharipova & Gulamova, 2021).

Sufi Orders began to be established approximately in the 12th and 13th centuries and were founded all around the Muslim world, from North Africa to Central Asia. The head of an order is called *sheikh* or *pir*. Those sheikhs or pirs taught their disciples (*Murids*) the theoretical principles of Sufism and performed with them Sufi rituals of *dhikr* (Joshon, 2000). The sect and doctrine founded by Bahauddin Naqshband in the 14th century is called Naqshbandi Order. On the basis of the teachings of the Bahauddin Naqshbandi sect, the main criteria that lead mankind to greatness are the ideas of intelligence, strong intellect, spiritual gesture, generosity, honest labor and awareness. From this point of view, the teachings of the Bahauddin Naqshband sect have their own special pedagogical direction and have complex historical and spiritual roots. Khoja Ahror Wali also made significant contributions to the theory and practice of mysticism. The interpretation of Qur'anic verses and the interpretation of hadiths have a special place in his cultural heritage. There are 356 saints in the Muslim world, 3 of whom are recognized as The Great Saints (*Qutb ul-Aqtab*). One of these three was Khoja Ahror Wali (Bokir, 1995).

**The teachings of Bahauddin Naqshband**

Hazrat Muhammad Bahauddin Shah Naqshband was one of The Seven Pir known in the world of Islamic spirituality. The name *Naqshband* is sometimes considered to be connected with embroidering craft, since he in fact assisted his father in embroidering. However, it is commonly believed to refer to correcting the divine name of Allah to the qalb by means of dhikr. Allah gave Bahauddin Naqshband the prophecy of "*Balogardon*" (the repellent of calamities). As Qur'an and Hadith keep protects one from calamities, the teachings of the Bahauddin Naqshband sect are based on the both Qur'an and Hadith (Komilov, 2009).

The humanistic ideas expressed in the Naqshbandi Order and their characteristics are described as follows:

- Bahauddin Naqshband's motto "*Dil ba yoru, dast ba kor*" (Heart in God, hands in work) encourages an individual to live an honest life with honest labor. In this case, humanity has the right to develop its family, the spiritual maturity of a man begins with the family, to work hard for the welfare of the country, to engage in trade. Therefore, this Order developed and spread at a rapid pace.
- This feature of Naqshbandi Order teaches young individuals such qualities as diligence, appreciation of honest work. The teachings of Naqshbandi set out exemplary ideas for finding an honest earning through honest labor (Sobirova, 2020).

The motto "*Dil ba yor, dast ba kor*" (Heart in God, hands in work) reveals aspects of Naqshbandi Order that differ in all directions in the world of Islamic spirituality and mysticism. For instance:

(1) In the world of mysticism, mainly people have renounced the pleasures of this world and have been preoccupied with greed and secularism. Bahauddin Naqshband, on the other hand, explained that the closest way to attain the guardianship of Allah is to live in a society with honest labor and to embroider Allah in the heart at all times.

(2) A human can attain spiritual wealth through the careful acquisition of knowledge and profession. For this reason, Bahauddin Naqshband emphasizes that enlightenment and profession are a powerful influence on the spiritual maturity and development of society (Komilov, 2009; Bokir 1995).

Abdul Khaliq Ghijduvani, who was also one of The Seven Pir, was the spiritual teacher of Bahauddin Naqshband and taught "*Dikr-i Khufiya*" (characterized by search for divine enlightenment and silent dhikr). (Bokir, 1995; Nazarov, 1998). The "Dhik-ri Khufiya" of the teachings of the Naqshbandi Order represents the following qualities and attributes:

(1) The best of dhikr deeds is superior to almsgiving and zakat, and consist the "*Ishq Allah*" is the highest love, and its owner looks at all people, nature, the whole being and its products with the eyes of true love. His heart will be rich only in positive qualities, attributes. Such people are able to dedicate their lives to those around them

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

because they have a deep understanding of the value of the event by following the path of honest living even in their daily lives.

(2) The true remembrance of the true qalb makes the "*dhikr-i dhakir"* (literally the "mentioner") a man of good manners and noble attitudes, and helps him overcome lustful desires.

(3) From a socio-secular point of view, human communication (treatment, attitude) eliminates all negative traits such as lying, jealousy, greed, and prevents a person from joining evil groups of people.

(4) From a religious point of view, dhikr removes a person's ignorance and forms the fortress of Allah in his heart.

(5) From a socio-psychological point of view, "Dhikr-i Khufiya" frees the memory from unpleasant, negative perceptions. Also teaches an individual self-awareness and self-management.

At the heart of the mystical teachings of Bahouddin Naqshband (1318-1389) is the idea of forming a perfect man. The tax he created, that is, the principle of teaching Talib-i Ilm, consists of three stages: *muqallid*, ideal and perfect. The *muqallid* (imitator) follows what he hears. The ideal cannot get out of his body. The perfect cannot be perfect without the upbringing of the perfect.

**Conclusion**

The ideas of Sufism guide an individual towards spiritual self-realization and provide spiritual nourishment for the freedom of the soul, the freedom of thought. In the eyes of mystical sheikhs, it is not enough to be aware of the Shari'a and the teachings in order to reach the truth first, a spiritually mature person should be intelligent. enlightened, and knowledgeable. The doctrine of Naqshbandi is distinguished by its closeness to life, richness in moral ideas, in particular, the reflection of the dreams and aspirations of people. The principles of Sufi scholars (Pirs) have not lost their significance today. By following the teachings of Naqshbandi Order, people can be generous, compassionate, and be united in

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

the socio-political, economic and cultural development of society. In today's society, the word "self-awareness" is frequently used.

**References**

Al-Haramain, E. (2011). Shifting orientation in Sufism: its development and doctrine adjustment in history. *IJIMS, Indonesian Journal of Islam and Muslim Societies, 1(2), 273-296.*

Bokir, M. (1995). Bahouddin Balogardon [Bahauddin Balogardon]. In M. Hasaniy (Eds.), *(pp. 25).* Yozuvchi.

Gülen, F. (2006). *Key concepts in the practice of Sufism, Emeralds of the heart.* Second Edition. The Fountain: Fairfax, Tughra publisher.

Haque Nizamie, S., Ul Haque Katshu, M.Z., & Uvais, N.A. (2013). Sufism and mental health. *Indian Journal of Psychiatry 55, 215-223.*

Joshon, M.A. (2000) *Tasavvuf va nafs tarbiyasi* [Tasawwuf and nafs education]. (pp. 80). Cho'lpon.

Komilov, N. (2009). *Komil Inson* [The Perfect Man]. In B. Sharipov & L. Igamova (Eds.), *Tasavvuf* (pp. 9-22). Movarounnahr.

Sobirova, Z.M. (2020). The role of Sufism teaching in spiritual education of youth. *The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(8), 553-556*

Verghese, A. (2008). Spirituality and mental health. *Indian Journal of Psychiatry, 50(4), 233-237.*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIKANING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

**Tosheva Shaxnoza**
Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim didaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, boshlang‘ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko‘nikma, samara, malaka, yondashuv, o‘qitish, metod.

## KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jarayonida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim didaktikasi asoslarini idrok etib olish maqsalga muvofiqdir.

Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. “Didaktika” so‘zi lotincha bo‘lib, o‘qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o‘rganadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

3) o‘qitish;

4) ta’lim berish; 3) o‘qish. Didaktikaning o‘qitish kategoriyasi ta’limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi.

Didaktikaning ta’lim berish kategoriyasi quyidagilarni bildiradi: -
bilim berish;

- ma’lumotlar uzatish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;
- o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim berish kategoriyasi o'qituvchining (pedagogning) faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Didaktikaning o'qish kategoriyasi quyidagilarni ifodalaydi:

- o'quvchilarning davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi;
- o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishi;
- o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va mustaqil fikrining shakllanishi.

O'qish kategoriyasi ta'lim oluvchilar faoliyati bilan amalga oshiriladi. Didaktikaning asosiy vazifasi o'quv faoliyatini amalga oshirishdir. O'quv faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- bilimlar majmuini berish va egallash;
- o'quv faoliyatini turli vositalar va metodlar asosida tashkil etish; - o'quvchilarning savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning bilish tajribasini kuchaytirish.

Didaktikaning o'quv faoliyatidagi samaradorligi ichki va tashqi mezonlar bilan belgilanadi. Bunda ichki mezon ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan iborat, tashqi mezon esa ta'limning umumiy samaradorligi bilan belgilanadi. Bu mezonlar asosida o'quv faoliyati tartibga solinib boriladi va unda sifat hamda samaradorlik darajalariga ko'ra o'quv faoliyati baholanadi.

Didaktika nazariyasi va amaliyotiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada ayniqsa chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (XVII asr) "Buyuk didaktika" asari muhim hisoblanadi. Bu asarda quyidagilar didaktikaning asosiy tamoyillari sifatida asoslab berilgan: a) bolaparvarlik;
b) xalqparvarlik;
f) insonparvarlik;
g) bag'rikenglik.

Didaktikaning mazkur tamoyillari hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonida qabul qilingan bo'lib, ular pedagogik qonuniyatlar sifatida qaraladi. Bunday yondashuv natijasida butun dunyo ta'lim tizimida gumanizm ideal g'oya sifatida qabul qilingan.

Unga ko'ra, ta'lim olish va ta'lim berishda insonning yoshi, jinsi, irqi, millati va ijtimoiy mavqei hisobga olinmaydi. Shu jihatdan keyingi 4 asr davomida pedagogika fani insonparvarlik san'ati sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

O'zbekiston sharoitida o'quv faoliyati didaktikaning qonuniyatlari va tomoyillariga qat'iy amal qilingan holda tashkil etilgan. Shu sababli mamlakatimiz ta'lim tizimi xalqlarning ilg'or rivojlanib boruvchi ta'limi ro'yxatiga kiritilgan. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari. O'zbekiston pedagogik fanlari tarkibida boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 7-11 yoshli o‘quvchilarni bilim olamiga olib kirish;
- mazkur yoshdagi o‘quvchilarni jamiyatning talab va ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish;
- boshlang‘ich ta’limda eng zamonaviy va maqbul o‘quv fanlarini qo‘llash.

Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim didaktikasida asosiy e’tibor o‘qitish va o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishiga qaratiladi. Shu sababli 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich ta’lim davlat standartlari qayta ko‘rib chiqildi va o‘quv fanlari maqbullashtirildi. Misol uchun, o‘zbek pedagogikasi tarixida ilk bor “Tarbiya” o‘quv fani yaratildi va ta’lim jaraèniga tatbiq etildi. Boshlang‘ich sinflarda mazkur fan o‘quvchilarning ongi, dunèqarashi va axloqini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asosan shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasida o‘qitishning sifat va samaradorligiga erishish bosh maqsad hisoblanadi. Shu jihatdan o‘zlashtirish jarayoni quyidagi darajalar asosida baholanadi:

3) fanlarning (hodisalarning, voqelikning, faktlarning) o‘quvchilar tomonidan farqlanishi va o‘zlashtirilishi;

4) fanlar materiallarini tushunishi va ular asosida o‘quvchilarning o‘z bilimlarini boyitib borishi.

O‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim didaktikasida o‘qituvchilarning individual o‘qtitish uslublari muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, hozirgi kunda O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limida bin nechta fan o‘qituvchilari o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Mazkur o‘qituvchilarning har biri o‘zining individual o‘qitish uslubiga ega. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim davlat standartlariga muvofiq o‘qituvchilarning turli o‘qitish uslublari pedagogik qonuniyatlar asosida umumiylashadi. Bunda quyidagi qonuniyatlar asosiy vazifani bajaradi:

- mavzularning tushuntirish va o‘rgatish metodlari asosida yoritilishi;
- har bir o‘quvchining mavzularni o‘zlashtirishga erishilishi;
- o‘quvchilarning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos o‘quv vositalarining tanlanishi;
- o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilishi.

## NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavakat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jamiyatda kitobxonlik qadriyati qayta tiklandi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim didaktikasida ham yangilanish ro‘y berdi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaring kitob o‘qishlari va ularni muhokama qilishlari boshlang‘ich ta’lim didaktikasining tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik olimlarning oldida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qishi zarur bo‘lgan adabiyotlar majmuini tuzish va kitobxonlikning didaktik

muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jaraènida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari to'g'risida aniq bilimga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'lim, kompyuterli texnologiyali ta'lim kabilar keng qo'llanilmoqda. Shu sababli bunday texnologiyali ta'lim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruryat bo'lib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz quyidagicha: kompyuter kabi texnik imkoniyatlar boshlang'ich ta'limda maqsad emas, balki vosita bo'lishi kerak. Bunday yondashuv 7-11 yoshli o'quvchilarning texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi: a) o'quv jarayonini eng yuqori talablar asosida tashkil etish;

b) boshlang'ich ta'limni professional o'qituvchilar bilan ta'minlash;

d) boshlang'ich ta'lim davlat standartlarini qat'iy bajarish.

## MUHOKAMA

Mazkur mezonlarga binoan boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlang'ich ta'limda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llanilayotganligi bois boshlang'ich ta'limning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan baholanmoqda. Biroq, boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo O'qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o'qituvchining asosiy maqsadi o'quv fanlarini talab darajasida o'qitish, tushuntirish va uning yo'nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak:

- boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha bilimlarni egallash;
- boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir qo'shimcha adabiyotlarni o'qish;
- "Boshlang'ich ta'lim" jurnali va "Ma'rifat" gazetalari bilan muntazam tanishib borish;
- Ustozlardan boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir maslahatlar olish.

## XULOSA

O‘zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim didaktikasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning boshlang‘ich ta’lim didaktikasi muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarining bilim va ko‘nikma darajasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limni bitiruvchilar ushbu ta’lim maskanlarining qaysi birida ko‘p o‘qishiga qarab boshlang‘ich ta’lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang‘ich ta’lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

Shunday qilib, hozirgi zamon “Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi” mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o‘rin tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan Murojaat nutqi.// “Xalq so‘zi”gazetasi 2020 yil 1 oktabr soni.
11. Abdullayeva B. va boshq. Общая педагогика. – T.,2017.
12. Kupisevich Ch.Osnovы obщеy didaktiki. – M.,1986
13. Jabborova Onahon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. International journal of psycological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.
14. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.
15. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.
16. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitelnogo isskustva v nachalnoy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862870.
17. Tojiboeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209215.

18. Musurmonov Raxmatulla, Musurmanova Maluda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 777-783.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Negativizm va inqiroz

*Yaxyoyeva Muxayyo Hikmatullo qizi*

***Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi***

***Qayumova Go'zal Narzullayevna***

**Annotatsiya:** Nutq rivojlanishining tezroq sur'ati ulardagi inqirozning konstruktiv komponentining erta shakllanishiga olib keladi. Oila tuzilishi omillariga kelsak, inqirozning konstruktiv komponenti yolg'iz bolalarda va onalar tarbiya jarayonida faol ishtirok etadigan oilalarda yaxshiroq shakllanadi. Negativistik ko'rinishlarga oilaning to'liqligi va oiladagi bolalar soni omillari ta'sir ko'rsatadi - to'liq oilalarda, shuningdek, uchta bolali oilalarda (ikki bolaga nisbatan), ota-onalarning norozilik xatti-harakatlarini engish osonroq. Aka-uka va opa-singillari bo'lgan bolalar inqirozga nisbatan rashk va somatik reaktsiyalarni ko'rsatish ehtimoli ko'proq. Moslashuv davridan keyin maktabgacha ta'lim muassasalariga tashrif buyurish inqirozning konstruktiv tarkibiy qismini shakllantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Yosh krizis namoyon bo'lishi, "yutuqlar bilan faxrlanish", krizisning salbiy belgilari, nevrotik reaktsiyalar, oila tuzilishi, to'liq/to'liq ota-ona, aka-uka, sotsializatsiya.

**Anotation:**A faster temp of language development in  leads to the earlier formation of the constructive component of the crisis. With regard to the factors of family structure, the constructive component of the crisis is better formed in children with- out siblings and in families where mothers are actively involved in the upbringing process. The factors «complete/one-parent family» and «amount of children» influence on the negativistic manifestations of the crisis — in complete families and families with three children (compared with two) parents better cope with child's protest behavior. Children with siblings often manifest jealousy and somatic reactions to the crisis. Going to kindergarten after a period of adaptation promotes the formation of constructive component of the crisis.

**Keywords:** age crisis, manifestations of the childrs crisis, «pride of achievement», negativistic symptoms, neurotic reactions, family structure, complete/one-parent families, siblings, socialization.

Более быстрый темп развития речи приводит к более раннему формированию у них конструктивной составляющей кризиса. Что касается факторов структуры семьи, то конструктивная составляющая кризиса лучше сформирована у единственных детей и в семьях, где матери активно включены в процесс воспитания. На негативистские проявления влияют факторы полноты семьи и количества детей в семье — в полных семьях, а также в семьях с тремя детьми (по сравнению с двумя) родителям легче справляться с протестным поведением. У детей, имеющих сиблингов, чаще проявляются ревность и соматические реакции на кризис. Посещение дошкольных образовательных учреждений после периода адаптации способствует формированию конструктивной составляющей кризиса.

**Ключевые слова:** возрастной кризис проявления лет, «гордость за достижения», негативист-ские симптомы кризиса, невротические реакции, структура семьи, полная/неполная семья, сиблинги, социализация.

Bizga yaxshi ma'lumki, inqirozli holat odam hayoti va faoliyatining buzilishidir. Uning oqibatida noadekvat ijtimoiy xulq – atvor, xatti – harakatlar, shuningdek asab – psixik va somatik holatining buzilish kelib chiqadi. Shaxs inqirozli holatdan odatiy hayot tarziga qaytish uchun ko'p kuch talab qilinadi, chunki odam inqirozga nisbatan munosabatini o'zining xulq –atvorni o'zgachaligi bilan adashtirishi mumkin.

Krizis - erta va maktabgacha yoshdagi bolalik o'rtasidagi chegara - bolalar hayotidagi eng qiyin bosqichlardan biri. Bu ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilgan tizimini yo'q qilish, o'z "men" ni taqsimlash inqirozi. Bu yosh juda muhim hisoblanadi, chunki bir necha oy ichida bolaning xatti-harakati va uning boshqa odamlar bilan munosabatlari sezilarli darajada o'zgaradi. Amerikalik psixolog E.Eriksonning fikricha, aynan shu yoshda bolalarda iroda, mustaqillik va mustaqillik shakllana boshlaydi.

Vygodskiy batafsilroq ishlab chiqilgan. U bunday davrlarning 3 ta umumiy xususiyatini aniqlaydi:

1. Qo'shni asrlardagi krizisning boshlanishi va tugashini tavsiflovchi chegaralar nihoyatda noaniq - uning boshlanishi va tugash davrini aniqlash qiyin. Biroq, davrning o'rtasida, qoida tariqasida, to'satdan keskinlashuv boshlanadi - inqirozning o'ziga xos apogeiyasi va hayotning barqaror bosqichlaridan yorqinroq farqlanish holati.

2. Inqiroz davrlarini boshdan kechirayotgan bolalarning ko'pchiligini ta'lim olish qiyin deb topiladi. Bolalar yaqinda ularning tarbiyasi va ta'limining normal jarayonini ta'minlagan pedagogik ta'sir tizimidan chiqib ketganga o'xshaydi. Tanqidiy yillarda bolalarning rivojlanishi ko'pincha boshqalar bilan ko'proq yoki kamroq o'tkir to'qnashuvlar va og'riqli ichki nizolar bilan birga keladi.

3. Bu davrlardagi rivojlanish barqaror asrlardan farqli o'laroq, bunyodkorlik ishlaridan ko'ra ko'proq halokatli bo'ladi. Shaxsning progressiv shakllanishi susayadi va rivojlanishning oldingi bosqichida shakllangan narsaning yo'qolishi va qisqarishi jarayonlari birinchi o'ringa chiqadi.

Uning "3-yil inqirozi" asarida L.S. Vygodskiy "yetti yulduzli alomatlar" ni tasvirlab berdi, bu 3 yil inqirozining boshlanishini ko'rsatadi.

1 alomat - negativizm. Istisnosiz, bolalarning barcha harakatlari oqsoqollar aytganiga zid ravishda sodir bo'ladi: u faqat kattalardan biri tomonidan taklif qilingani uchun hech narsa qilishni xohlamaydi, ya'ni. bu harakatning mohiyatiga emas, balki kattalarning bu harakatni taklif qilishiga to'g'ridan-to'g'ri javobdir. Salbiy reaktsiya oddiy itoatsizlikdan 2 ta muhim jihatdan farq qiladi. Birinchidan, bu erda ijtimoiy munosabatlar birinchi o'ringa chiqadi, ya'ni. negativizm insonga qaratilgan. Ikkinchidan, o'z affektiga zid harakat qilish qobiliyati mavjud.

Inqirozining 2-alomati o'jarlik bo'lib, uni qat'iyatlilikdan ajratish kerak. Bu bolaning biror narsani talab qilganda bunday reaktsiyasi, u buni chindan ham xohlagani uchun emas, balki

talab qilgani uchun. O'jarlikning motivi shundaki, bola o'zining dastlabki qaroriga bog'liq va yo'q uni tark etmoqchi. O'jarlik 2 ballni qat'iylikdan ajratib turadi: 1-chi - motivatsiyaga munosabat (negativizmga o'xshash), ya'ni. bola, qoida tariqasida, istamagan narsani talab qilishi mumkin; 2 - o'ziga nisbatan yangi munosabat - bola o'zi aytgani uchun shunday harakat qiladi va o'z qaroriga oxirigacha amal qiladi.

Bu yoshning 3-alomati - qaysarlik. Ushbu alomat 3 yillik inqiroz uchun asosiy hisoblanadi. Bu tendentsiya ko'proq tarbiya me'yorlariga, 3 yoshdan boshlab shakllangan turmush tarziga qarshi qaratilgan, balki ma'lum bir shaxsga yoki ma'lum bir ko'rsatkichga ziddir - bu shaxssizdir.

4 alomat - irodalilik. Bu mustaqillikka haddan tashqari moyillikning namoyon bo'lishidan iborat. Endi bola hamma narsani qilishni va o'zi qaror qilishni xohlaydi. Bu istak ko'pincha bolalarning qobiliyatlariga mos kelmaydi va bu kattalar bilan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

5 alomat - norozilik - g'alayon. Bolalarning harakatlari o'ziga xos bo'ysunmaslikni oladi, go'yo bola atrofdagilar bilan urushayotgandek. Janjal va mojarolar odatiy holga aylanadi.

6 alomat - amortizatsiya. Bolaning ko'z o'ngida ilgari o'ziga xos, qiziquvchan, qadrli bo'lgan narsa qadrsizlanadi. Xulq-atvor normalari, eski odatlar va boshqalar qadrsizlanishi mumkin. Bunday harakatlar bolalarning boshqa odamlarga va o'zlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirayotganligini ko'rsatadi. U psixologik jihatdan oilasidan ajralgan.

7-alomat - despotizm. Bola oila a'zolari ustidan despotik hokimiyatni amalga oshirishga harakat qiladi. U o'z talablarini qo'yadi: nimani xohlamaydi, nimani xohlaydi; nima qilinadi, nima bo'lmaydi; ular nimaga majburdirlar va nimalarni bajarishga majbur emaslar.

Bolalar inqirozning barcha xususiyatlarini istisnosiz ko'rsatishi shart emas. 3 yillik inqiroz - avtoritar tarzda o'zini tutadigan ota-onalarga qarshi isyon, normalarga qarshilik va eskirgan vasiylik - axir, bola o'sdi. Bu mustaqillikni xohlaydigan va o'z "men" ni namoyon qilish imkoniyatlarini talab qiladigan bolaning noroziligi. Birinchi belgi - bu so'zning bolaning

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

lug'atida paydo bo'lishi. Bolalar 2 yildan keyin o'zlarini shu tarzda chaqira boshlaydilar, shuning uchun yosh inqirozining xususiyatlari avvalroq paydo bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, muhim va yangi qoida K. N. Polivanova tomonidan etti yil inqirozi misolida barcha toifadagi alomatlarning psixologik ma'nosini tushuntirish edi. Shunday qilib, salbiy alomatlarning ma'nosi shundaki, yaqin kattalar bilan yaxlit munosabatlarda qoidaga bo'lgan munosabat ajralib turadi. Ota-onalarga nisbatan negativizm yangi xulq-atvorni shakllantirishning o'ziga xos shakli sifatida tushunilishi mumkin, deb taxmin qilingan.

Salbiy xulq-atvorga ega bo'lgan ayollar inqiroz alomatlari "o'chirilgan" tengdoshlariga qaraganda maktabga yaxshiroq tayyorlanishadi .Biz, shuningdek, yetti yoshli inqirozning boshlanishi bolaning aqliy rivojlanishining umumiy sur'ati bilan bog'liqligini aniqladik va bu inqiroz hayotning yettinchi yilida maktabga yuqori darajada tayyor bo'lgan bolalar tomonidan yanada yorqinroq boshdan kechiriladi. tayyorgarlik daraja past bo'lgan bolalarda inqiroz belgilari kamroq aniqlanadi.  Haqiqatan ham, negativistik alomatlar bolaning rivojlanishida ham o'z ahamiyatiga ega, yagona savol - ularning zo'ravonlik darajasi, ularning konstruktiv alomatlar bilan aloqasi va ular qabul qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning o'ziga xos shakllari.

Bu tabiiy ravishda inqirozning muvaffaqiyatli kechishi mezonlari haqida savol tug'diradi. Bunday mezonlar sifatida quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin: inqirozning konstruktiv komponentining jiddiyligi; uni o'z vaqtida hal qilish; vaziyat va ular paydo bo'lgan mikroguruh ichidagi salbiy alomatlarning kontsentratsiyasi; nevrotik reaktsiyalarning yo'qligi; reaktsiyalarda patologik stereotipning tabiatining yo'qligi; bolaning normal ijtimoiy moslashuvi. Shunday qilib, mahalliy fanda yoshga bog'liq inqirozlar psixologiyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida ushbu davrlar "rivojlanish akti" ma'nosiga ega bo'lgan normativ deb hisoblanadi. Inqirozlarning asosiy neoplazmalari aniqlangan, asosiy simptomlarning turli toifalari o'zlarining psixologik ma'nosiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Madaniyatlararo aspektdagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi

shundaki, Xitoy namunasida rad etish va infantilizatsiyaga bo'lgan munosabat, nevrotik reaktsiyalardan tashqari, negativistik belgilar bilan ham o'zaro bog'liqdir. Shunday qilib, bolaning qabul qilinishi qanchalik yuqori bo'lsa, salbiy xatti-harakatlar kamroq ifodalanadi ($p <0,01$). Bolaning infantilizatsiyasiga bo'lgan munosabat qanchalik katta bo'lsa, o'jarlik ($p <0,01$) va norozilik qo'zg'oloni ($p <0,05$) shunchalik aniq bo'ladi. Bolalarning salbiy hissiy ko'rinishlarini baholash, bola infantilizatsiya qilinganida yuqoriroq va nazorat ostida, ayniqsa rus namunasida.

Shunday qilib, tadqiqotning gipotezasi umuman tasdiqlandi. Bolaning hissiy jihatdan qabul qilinishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning xatti-harakatlarida salbiy va nevrotik reaktsiyalar kamroq namoyon bo'ladi. Yuqori nazorat bolalarda nevrotizmga olib kelishi mumkin, lekin ayni paytda bu kattalarga nisbatan munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, bu "yutuqlar bilan faxrlanish" ni anglatadi. Biz o'g'il bolalar uchun infantilizatsiyaga bo'lgan munosabatning salbiy oqibatlari haqida gapirishimiz mumkin: u qanchalik baland bo'lsa, nevrotik reaktsiyalar shunchalik aniq bo'ladi va bolaning ob'ektiv dunyoga munosabati qanchalik sekin o'zgaradi, ya'ni konstruktiv komponent kamroq aniqlanadi. inqiroz. Xitoylik bolalarda rad etish va infantilizatsiyaga bo'lgan munosabat, nevrotik reaktsiyalardan tashqari, negativistik alomatlar bilan ham o'zaro bog'liqdir. Salbiy alomatlarning ma'nosini bir ma'noda talqin qilish qiyin. Bir tomondan, ular nevrotik reaktsiyalar va ota-ona munosabatlarining kamroq konstruktiv ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Boshqa tomondan, ular inqirozning konstruktiv komponenti bilan ham o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida nevrotik reaktsiyalar bilan ham bog'lanishi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, inqiroz davridagi rivojlanish bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda davom etadi va qarama-qarshi tendentsiyalarni birlashtiradi. Olingan ma'lumotlar inqiroz davrida ota-ona va bola munosabatlarini optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Kelajakda biz oila omillarining keng doirasini (shu jumladan, oilaning o'zaro ta'sirining turli xususiyatlarini va oila tuzilishini batafsilroq tahlil qilishni) o'rganish bilan bolalik inqirozlari bo'yicha bir qator tadqiqotlarni rejalashtirmoqdamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanadataraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.22.2

2.Акимова М.К., К.М.Гуревич. Психологическая диагностика. –Москва, 2005;

3.Abdurasulov R., Qarshiboyeva G., Ibaydullayeva U. Psixologik maslahat. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent: BAYOZ, 2017. –B.168.;

4.Abdurasulov R., Meliyev X., Rixsiyeva M . Maktab psixologining kundalikkitobi. Metodik qo'llanma. –Jizzax: Sangzor, 2005. –B.116.;

5.Вагин И.О. Психология жизни и смерти. –Москва: Харьков. 2001.;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# KASHKAR RUBOB

*Bmsm No. 10, Uchkuduq district, Navoi region*

*Head of the Sakha Orchestra, folk instrument section*

*The teacher is the son of Muqimov Shahboz Zahir*

**Abstract:** This article provides information about rubob, types of rubob, and kashkar rubob, which is one of the Uzbek folk instruments.

**Keywords:** rubab, Uzbek, Tajik, Uyghur, Afghan rubab

## INTRODUCTION

It is known that musical instruments are the material and spiritual wealth of nations. For example, each nation has its own musical instruments that celebrate its national heritage and traditions created over time through national melodies and through examples of practical art created specific to the nation's national spirituality. It should be recognized that the world of Uzbek musical instruments is rich and colorful in terms of meaning and material. In addition, the history and heritage of the nation, which is high in spirituality, is also great. It is known from history that Uzbek folk instruments were formed in a colorful and unique way, and musical instruments suitable for all branches of music were formed and developed over centuries.

## MAIN PART

Rubob is a stringed instrument. It is clicked with Nohun (mediator). Widespread among Uzbek, Tajik, Uyghur, Afghan and other eastern peoples. According to some scientists, the modern violin was created in ancient times from a 2-stringed bow. Currently, there are three types of rubob: Kashgar rubob, Afghan rubob, and Pamir rubob. Afghan rubobi is also called Tajik or Bukhara rubobi.[2]

### The ruler of Kashgar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Kashkar rubob is spread from Kashkar. That's why it is called Kashkar Rubobi. The length of the Kashgar ruby is 80-100 cm. The bowl-shaped bowl of the Kashgar rubob is made from the wood of hardwood trees such as mulberry. The top of the cup is covered with skin. The handle of the Kashgar rubob is long and the end is curved. In front of the calyx there are two horn-like protuberances. They not only give shape, but also serve as a support for the left hand when playing high notes. There are 19 to 24 veils in a Kashgar rubobi bundle. Curtains in old rubabs are made of gut, while curtains of modern rubabs are made of metal. The Kashgar ruby has five strings. The 5 strings of the Kashgar rubob are usually tuned in the interval of a quarta-quinta. The bottom two strings are played in pairs. It is tuned to make a 1-"lya" sound when played open. The 3rd and 4th strings are also played in pairs. These strings are tuned to produce a 2-"mi" sound when played open.

The 5th string is usually a nylon string and is tuned to make a 3- "si" sound when played open. The range of the Kashkar rubob is about 3 octaves.

Rubab's voice is resounding. The ease of mastering the performance, the development of skilled rubobchi-composers (Muhammadjon Mirzayev and others) caused the popularization of this sound among amateur and professional musicians in Uzbekistan and Tajikistan from the 1940s.

Rubob prima, a reworked modern type of Kashgar rubob, is close to the Russian domra in terms of its capabilities, and is tuned in the range of 4 metal tori fifths. It is used in an orchestra and as a solo piece. Uzbek composers Muhammadjon Mirzayev, musicians A. Bobokhanov, N. Kulabdullayev, composers Ibrahim Hamroyev, Mustafa Bafoyev and others created works of various genres for Kashgar rubobi.[1]

## CONCLUSION AND DISCUSSION

In conclusion, it should be said that the Uzbek cultural heritage is rich in musical instruments, and each of them has a long history, structural development, and technical improvement. According to performance criteria, Uzbek folk instruments are divided into two groups. The first group includes all traditional folk instruments. The second group

includes improved, i.e. reconstructed (reconstructed) instruments in connection with the cultural development of the 20th century. The Kashgar rubob also has its own history, playing styles and even a modern appearance.

**REFERENCES**

1. UzME, Tashkent, 2000-2005

2. www.wikipedia.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Tarbiya usullari va shakllari




**Sirdaryo viloyati Xovos tumani**

**27-umumiy o'rta ta'lim maktabining**

**O'quv tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari**

**Raxmatov Sadiriddin Xabibullayevich**

**Annotatsiya**:**Ushbu maqola tarbiya metodlari (usullari) o'qituvchi-tarbiyachining o`quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarni singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llari haqida.**

**Kalit so'zlar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

**Хавосский район Сырдарьинской области**

**27-я общеобразовательная школа**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Заместитель директора по образованию**

**Рахматов Садириддин Хабибуллаевич**

**Аннотация:** Воспитательные приемы (методы) данной статьи – это способы воздействия учителя-воспитателя на учащихся, привитие им положительных поведенческих навыков и умений, правильно с воспитательной точки зрения организовать их жизнь и деятельность. способы.

**Ключевые слова:** воспитание, методы воспитания, виды методов воспитания, методы, служащие формированию общественного сознания, методы привыкания и обучения деятельности, методы поощрения и наказания в воспитании.

**Khavos district of Syrdarya region**

**27th general secondary school**

**Deputy Director of Education**

**Rakhmatov Sadiriddin Khabibullayevich**

**Abstract:** The educational methods (methods) of this article are the ways of the teacher-educator to influence the students, to instill in them positive behavioral skills and skills, to organize their life and activities correctly from an educational point of view. about the ways.

**Key words:** education, methods of education, types of education methods, methods that serve to form social consciousness, methods of habituation and training in activities, methods of encouragement and punishment in education.

**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot,**
**yo najot – yo halokat, yo saodat**
**yo falokat masalasidir.**

Abdulla Avloniy

**REJA:**

**I.Kirish.**

**II.Asosiy qism.**

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni.
3. Tarbiya metodlarining tasnifi.
4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni.
5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

**III.Xulosa**

**1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.**

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

***Tarbiya metodi*** (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda ***tarbiya vositalari*** tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

**2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni**

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

***1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.*** Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

***2. Tarbiya mazmuni.*** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

***3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.*** U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

***4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.*** O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

***5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.*** Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni indivudual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

***6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.*** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir.Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

***7. Tarbiya vositalari.*** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

***8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.*** Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'kituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

***9. Tarbiya vaqti.*** Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

***10. Kutiladigan natija.*** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

**3. Tarbiya metodlarining tasnifi**

Zamonaviy pedagogikada ba'zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilari faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi uo'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S. Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O‘quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi birinchi sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarni ular uchun yangi bo‘lgan mehnat faoliyatini o‘rgatishda o‘quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, ularga o‘quvchilarning qat’iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to‘g‘ri kirib kelishga, ularni o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o‘quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o‘quv ishi natijalari rag‘batlantirib borishni taqozo etadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.




1-shakl.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o‘quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me’yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me’yorlar shaxsning e’tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma’naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi.

Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

**4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni**

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi». Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima

uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o'zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zlari yolg'on so'zlaydilar?», «Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zlari pora oladilar?». Agar o'qituvchi va boshqa ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonnning ma shhur mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o' rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachi ning o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, - deydi Arastu, - ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilo lmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar s en o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqso n va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?».

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «**Rushnoinoma**», «**Qobusnoma**» Farididdin Attorning «**Pandnoma**»si, O'bayd Zakoniyning «**Sad pand**» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolotlaydi.

**5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari**

**Rag'batlantirish metodlari** – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofatlash va boshqalar kiradi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

**Jazo berish metodlari** – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham hilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini, ijtimoiy hayotining obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar:**

**Metod** – lotincha metodos so'zidan olingan bo'lib, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot tushunchalarini anglatadi. O'qitish va tarbiyalashning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki yo'llari, uslublari, vositalari majmui tushuniladi.

**Tarbiya metodlari** – metod lotincha metodos – yo'l so'zidan olingan. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayn maqsadga erishish yo'li tushuniladi.

**Rag'batlantirish** – talabaning namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, devoriy gazetada talaba to'g'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning suratini maxsus doskaga qo'yish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish.

**Mashq** - bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga oatlantirish

**Jazolash** – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish.

**English:**

**Method** – It is derived from the Latin word methods, which means research, theory and teaching. It is understood that a set of tads of the inner paths that are specific to the real processes of instruction and upbringing as a scientific concept, the term "method" is broadly understood as a means of achieving a specific goal.

**Teaching methods** – the way to achieve the educational goal. When applying to school practice, the methods are influenced on the consciousness, will, emotions and behavior of these pupils.

**Incentive** – give exemplary behavior to student's behavior, award certificate with honorary diploma, give a briefcase on the poster to send a photo to a special board on behalf of his parents.

**Exercise** – balanced and comprehensive organization of children's activities, their adaptation to compliance with ethical standards and conduct rules.

**Punish** – negative attitudes towards behavior and behavior of the pupil.

**Tarbiya usuli** tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

**Nimalarni tarbiya vositasi deb hisoblash mumkin?**

**Tarbiya vositalari** biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio,televideniye). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'kuvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi - tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim.

**Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning tarbiya jarayonidagi ahamiyati qanday?**

Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini eng maqbul usulini tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart - sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan.

1. Tushuntirish (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish).

3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).

4. Jazo (ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh berish va h.k.)

**arbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish** bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar, 2) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajriblarni shakllantirish usullari, 3) o'z - o'zini tarbiyalash usullari, 4) rag'batlantirish usuli va jazolash usullari.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.** Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundan iboratki ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashishishi uchun ijtimoiy ongni shakllanti-ruvchi usullar ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faolligini tarbiyalash lozim. Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllan-tirishda eng muhim ishlatiladigan omildir.

Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli milliy g'ururli qilib tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarda mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashning roli katta.

**Suhbat va hikoya.** O'quvchi shaxsini g'oyaviy - axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin. Axloqiy mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi hamda inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati), ta'lim va bilimga oid mavzularda (koinot hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o'quvchilarni qalbidagi fikrlarini aytishga jasoratini uyg'otishga, o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bu borada bahs va munozaralarning ahamiyati katta.

**Hikoya.** O'quvchilar, odatda hayotdan va boy badiiy adabiyotdan olingan aniq misol bilan to'liq hikoyalarni tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tarixiy, tabiiy boyliklari, san'at haqida hiqoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniye, Internet tarmoqlaridagi, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'kuvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar orqali ravon va jonli o'tkazilishi kerak.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsida va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar. Xulq atvor bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota - onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Bolalar o'z ota - onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar. Ularga taqlid qilishga intiladilar. Namuna xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota - bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush inida ko'rganini qiladi», «Onasini ko'rib qizini so'ra», «Axloqni axloqsizdan o'rgan», «Bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi». Shu oddiy iboralar ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligining guvohi bo'lamiz.

**Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.** Bola rivojlanishining o'zligini bilishning asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim - tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilar bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga ijodiy faoliyat tajribasini hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko'pchilik jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

**Mashq va o'rgatish usullari.** Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq- bolalarni axloq mezonlari va xulq- atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq - muayyan hatti- harkatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

**O'rgatish**. Ijodiy xulq- atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar

amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud. Faoliyatda mashq qilish mehnat ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarini boshqarish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi.

**Topshiriq.** O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

**Pedagogik talab** - bu usul tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatla qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu haraktda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin[1].

**O'z - o'zini tarbiyalash usullari.** O'quvchida o'z - o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z - o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini - o'zi idora qilishi organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z -o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydilar. O'z - o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarga mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi.

**O'z - o'zini tahlil qilish- o'**z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga xatti - harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi. O'z - o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish - turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O'z- o'zini baholash-** o'quvchining qobiyalitini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam beradi. O'z - o'zini baholash o'zining imkoniyatlarini hisob - kitob qilish, baholash, chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam

beradi.

Tarbiyada **rag'batlantirish usulidan qanday foydalaniladi, uning qanday turlari va ahamiyati bor?** degan savol ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. O'quvchi bolalarning har biri o'sib kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezish kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unga bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga undaydi.

Rag'batlantirishning quyidagi turlari mavjud.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O'quvchining kuchi yetadigan mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; Maqtash: (ota - ona, jamoa oldida); Esdalik sovg'a berish; Maqtov yorlig'i berish; Stipendiya bilan taqdirlash; teleko'rsatuvlarda maqtash; Hurmat taxtasiga rasmini qo'yish; Qo'llab-quvvatlash; Ma'muriyat va jamoaning minnnatdorchiligi; Musobaqalarda bayroq ko'tartirish; Gazetada e'lon qilish ; Televideniyeda ko'rsatuv uyushtirish; Rag'batlantirish pedagogik talab asosida bo'lishi lozim. Tarbiyalovchi oshirib maqtashi, boshqa o'quvchi- yoshlarga taqqoslab kesatishga yo'l qo'ymasligi, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanligini oshirish lozim.

**Jazolash** - tarbiyalanuvchining xatti - harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo - bu tarbiyalanuvchi manfaati uchun qo'llaniladigan tarbiya usuli.

Tanbeh berish - eng yengil jazo chorasi bo'lib hisoblanadi.

Ogohlantirish - noma'qul xatti - harakatlarning oldini olish uchun ishlatiladi.

Hayfsan berish - tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa, o'quvchi intizomni buzaversa, hayfsan beriladi.

Uyaltirish - odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or - nomus sharmu hayodir.

Odamda izzat - nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, o'zini - o'zi avvalo hurmat qilsa unda or - nomus kuchli bo'ladi.

Xalqimiz uyat - o'limdan qattiq deb bejiz aytmagan. Shu sababli bolani ha deb uyaltirmasdan boshqa vositalarni ham qo'llash kerak.

Jazo haqqoniy me'yorda qo'llanilsa samarali bo'ladi.

Shunday qilib: Tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Yuqorida ta'riflab berilgan tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun ham tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi bu qoida va usullarning to'g'ri qo'llanishiga, bu vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

**Muammoli pedagogik vaziyatlarni yeching.**

1. 2- sinfda har xil buyumlar: qalam ruchka, rezinka va boshqalar yo'qola boshladi. Bir kuni sinfdagi qizchaning bosh kiyimi yo'qoldi. O'qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to'g'risidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

O'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'llagan. Bu metodning samaradorligi nimalarga bog'liq. Har doim ham ushbu metod samara beradimi?

2. Muallim quyidagicha hikoya qiladi: «O'g'lim (9 yosh) qorong'idan va balandlikdan qo'rqadi. Men imkon boricha uni ko'proq ana shu qo'rquvni yenga oladigan sharoitga qo'yaman: Goho ob-havo qandayligini bilib kelish uchun kechqurun hovliga, goho go'yo esdan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong'i xonaga yuboraman.

O'yin paytida ayrim paytlari chuqurlikka sakraymanda, «Daraxtning hov anavi novdasini menga olib ber. Uni emas, narigi, yuqoridagisini» deyman.

O'qituvchi to'g'ri qiladimi? Bu qanday tarbiya metodi.? U nima uchun samarali?

3. Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi yerda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchiga «qog'ozni ol», deb murojaat qildi. O'sha o'quvchi sekin partadan turib «men tashlamaganman, nega olarkanman» deb, yana joyiga o'tirdi.

O'qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta'sirlanishi qanday bo'ladi va bu nimaga bog'liq?

5. O'qituvchi o'zini-o'zi darsdan chiqarib yuborgan holni eshitganmisiz? Bunga quyidagi voqea sabab bo'lgan edi: o'qituvchi dars o'tish uchun sinfga kirsa, tanaffusda navbatchilar sinfni darsga tayyorlamagan, doska o'chirilmagan, latta yo'q, bo'r yo'q. O'qituvchi : «Shunday oddiy masalani hal qila olmagan yomon o'qituvchi dars o'tishi mumkin emas»,- deb sinfdan chiqib o'qituvchilar xonasiga ketdi. Uch minutdan keyin esa sinf o'quvchilaridan vakillar borib, o'qituvchidan kechirim so'rab, uni sinfga qaytishini iltimos qilishdi.

Vaziyatni tahlil qiling. O'qituvchi to'g'ri yo'l tutdimi? O'quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash usullari qaysi hollarda samara beradi?

**Rag`batlantirish metodi nima va uning qanday turlari mavjud?**

Rag'batlantirish metodlari

O'quvchilarni tarbiyalashda rag'batlantirishning o'rni katta. Rag'batlantirish o'quvchi ning ruhini, kayfiyatini ko'taradi, ularni tetiklantiradi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, o'z kuchiga ishonchini orttiradi. Maktab tajribasida rag'batlantirishning turli shakllari qo' llaniladi: ma'qullash, ko'ngilni ko'tarish, ishonch bildirish, maqtash, yozma tashakkur , mukofotlash. Bundan tashqari jamoat tashkilotlari faoliyatida raqbatlantirish shakllari mavjud, Ma'qullash: boshni qimirlatib ma'qullash yuv va qo'l harakatlari bilan "ball i", "barakallo", "rahmat", "juda soz" kabi so'zlar orqali.

Ko'ngilni ko'tarish, dalda berish ba'zan o'qishda va ishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'quvchilar ko'nglini ko'tarish va dalda berish kerak bo'ladi. Ishonch bildirish. O'quvchi kuchi yetadigan biror vazifani topshirish. Masal an, nazorat ishini yig'ishtirish va h.k.

Qayd etish. O'quvchilar xulqinnng yaxshilanib borayotganligini qayd etish. Devoriy gazeta, maktab uzelida va h.k. Maqtash. Kishini maqtash juda foydali deydi M.Gorkiy, - chunki bu narsa uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi, o'z kuchiga ishonchni orttiradi. Sinf yig'ilis hi, hurmat daftariga, maktab hurmat taxtasiga yozish, rasmini qo'yish shakllari ham mavjud. Mukofotlash. Yoshma tashakkur va minnatdorchilik xatlari.

**5. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.**

Jazolash metodlari

O'quvchilarni tarbiyalash metodlari orqali majbur etish, jazolash tadbirlari ham mavjud. T urli odobsizlik, jaholatlardan o'zini tiyish, o'zini tuta bilish faqat ishontirish yo'li bilan em as, balki majbur etish va turli jazo choralarini qo'llash yo'li bilan ham tarbiyalanadi. Maktabda qo'llanadigan jazo choralari: o'qituvchi, sinf rahbari, maktab direktori va o'rinbosarlarining tanbehi, parta sinf doskasi yoniga tikka turkizib qo'y ish, bajarilmagan topshiriq yoki uy ishini darsdan so'ng bajartirish uchun olib qolish , pedagogika kengashiga chiqarish xulqiga quyilgan bahoni pasaytirish, sinfni iflos qi lgani uchun uni tozalashga majbur etish, bir sinfdan boshqa sinfga va maktabga o'tkazish va h.k. Bundan tashqari do'q-po'pisa qilish, uyaltirish qizartirish, qopalash yullari ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish; jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlarga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim hislatlaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.

4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) – 2007 yil.

5. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.

6. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006, 250 bet.

7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.

8. Quronov M. Otalar kitobi.

9. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.

10. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish



**Sirdaryo viloyati Xovos tumani**

**27-umumiy o'rta ta'lim maktabining**

**ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari**

**Urolov Fozil Shodmonovich**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik asoslari yoritib berilgan. Shuningdek maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar, ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, uzluksiz tizim.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Хавосский район Сырдарьинской области**

**27-я общеобразовательная школа**

**заместитель директора по духовно-просветительской работе**

**Уролов Фозил Шодмонович**

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены педагогические основы профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ. Также в статье кратко рассматриваются существующие проблемы в правильной ориентации студентов на профессию, пути устранения недостатков на практике.

**Ключевые слова:** общее среднее образование, профессия, социализация, самооценка, технологическое образование, непрерывная система.

**Khavos district of Syrdarya region**

**27th general secondary school**

**deputy director of spiritual and educational affairs**

**Urolov Fozil Shodmonovich**

**Abstract:** This article describes the pedagogical foundations of vocational orientation of students in general secondary schools. Also, the article briefly discusses the existing problems in the correct orientation of students to the profession, the ways to eliminate shortcomings in practice.

**Key words:** General secondary education, profession, socialization, self-evaluation, technological education, continuous system**.**

**REJA:**

**1.Kirish.**

**Asosiy qism.**

1. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ayrim jihatlari haqida.
2. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari.
3. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashning o'ziga xos xususiyatlari
4. Kasb madaniyati.
5. Kasbiy-yo'naltirilgan o'qish texnologiyasi.
6. **Xulosa**

Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi,

kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo'lishi zarur. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktabrda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga izgil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'grisida"gi 473-sonli qaroriga uzluksiz ta'lim tizimida maktab bitiruvchilarining o'z kasbiy qiziqish va layoqatlari asosida ta'limning keyingi turi va bosqichlariga jalb qilinishi, o'zining tayyorlov yo'nalishlariga to'g'ri va samarali yo'naltirishning muhim masalasi sifatida qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar mazmunida qayd etilganidek "umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari va mayilliklari, layoqatlari hamda qobilyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda o'smirlarni kasbiy o'zligini anglash va hayot yo'lini tanlashda maslaxat beruvchi omil" sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Hukumat qaroralarining ijrosini ta'minlash yuzasidan o'quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakillantirishda, ularni ta'limning keying turiga to'g'ri jalb qilish uchun kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, me'yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo'lgan hamda yangilanib, o'zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog'liqdir. Shu bois ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy-amaliy yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning qiziqishlari va mayiliklari, tug'ma layoqatlari hamda qobilyatlarini aniqlash borasida "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari"ning yangi taxrirdagi majmuasi yaratildi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish va Vazrlar maxkamasining 2004 yil 9 iyuldagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 321-sonli qaroriga asosan o'quvchilarni kasb -hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari samaradorligini oshirish, ularni psixalogik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab-chiqarish, amalga tadbiq etish mqasadida xalq ta'limi vazirligining 2006-yil 17 martda "O'quvchchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixalogik-pedagogik Respublika tashhiz markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to'g'risida"gi

60-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o'quv-me'yoriy xujjatlarning yangi tahriri ishlab chiqildai.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedogog hodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning zamirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobilyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakillantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi. O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakillantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatlari (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hakozalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib,uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqqiyatini kafolatlaydi.

Mavjud obektiv va subektiv omillardan unumli faydolana olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga hissa qo'shadi. Bundan tashqari uzluksiz ta'lim tizimini joriy etilishiga yangi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning ishga tushirilishi natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-yillik ta'limga o'tishga bitiruvchilarni ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'liq qamrab olish samaradorligini ta'minlash mazkur

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

jarayonlarni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror topdirish ta'lim islohatlari doirasida dolzarb masala sifatida qo'yilmoqda. O'quvchi-yoshlar o'ratasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra tehnalogik bo'lishi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatningyaxlitjarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish imloniyatini beradi. Minglab kasblar olamidan o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatlrni hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lishi, kasb-hunarga yo'nalganligini samaradorligini muhim omillari bo'la oladi. Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnlogk yondashuv-bu o'qvchi oshlar tomonidan o'zlashtirilagan nazriy amaliy ko'nikma va malakaga aylantirish, ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasni yuzaga keltirish hamda kasbiy qobilyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan

faoliyat jarayonida amalyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmuyi bo'lib xizmat qiladi. U quyidagi tarkibiy tuzilmaga asoslanadi.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qtuvchi, ustoz, murabbiy, ta'lim hodim, mutaxassis, raxbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar soxibi bo'lishi lozim. Darhaqiqat o'quvchi yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashni, uni o'rnganish, malakali mutaxasis bo'lib yetishishiga talim-tarbiya beruvchilarning ma'lakali mutaxasis bo'lib yetishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviyasi axloqiy fazilati bilimda maxorati mehnat sevarligi fidoiyligi bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy komolati muhim ahamatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati ham alohida o'rin tutadi. Zero mutaxassis hodimning maxoati yoki kasb madanyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda ta'luqli bo'lgan odob-qoidalar yoki madaniyat mavjud. Masalan, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajakini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.

**Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ayrim jihatlari haqida**

Hozirgi kunda yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yunaltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini

shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z

ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

Texnologiya fani o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma'lumotlarni muayyan mavzularga bog'lagan holda o'quvchilarga yetkazishi lozim. O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o'qituvchisi o'z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o'qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o'quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat

hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;

- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi.

Texnologiya o'qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o'z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;

- kasblarning demogratik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

- o'quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo'yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

- o'quvchilarni o'z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o'rni haqida malumot berish;

- o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

- o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

- o'quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinab ko'rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko'rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;

- o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o'tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarning o'z ahamiyati bor. Chunki barcha o'quvhcilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o'ziga yarasha turli xil sabablari bor .Bu o'rinda men o'zim ishlayotgan maktab bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan davra suhbatlari, anketa surovnomalari o'tkazdim.Masalan:

Kasbga yunaltirishni qachondan boshlash kerak? degan savolga quyidagi diagrammadagi ko'rinishda javoblar olindi. O'quvchilarning 57 %i maktabdanoq kasbiy yo'naltirishni amalga oshirishni boshlash kerak deb hisoblaydi. O'quvchilarning 22 %i buni bog'cha paytidan boshlash kerak, 14 %i esa tanlash bosqichini kolledjdan boshlash kerak deb hisoblaydilar.

Kasbga yo 'naltirishni kim amalga oshirishi kerak degan savolga o 'quvchilarnin javobi qo'yidagicha taqsimlandi: psixologlar (32 %), o'qituvchilar (28%) va ish beruvchilarning o'zlari (13%). Bundan tashqari, 13%i bu ishni aholi bandligini ta'minlash markazi zimmasiga topshirish kerak degan fikrni bildirishgan. "Boshqa" javob variantini tanlagan ishtirokchilarnng 14%i, quyidagi javob variantlarini berdilar: ota-onalar, shaxsning o'zi, yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi, ota-onalar o'qituvchilar bilan birgalikda, ushbu masalada ko'plab tuzilmalarning integratsiyalashgan yondashuvi va sherikligi bo'lishi zarur.

Faoliyatim davomida bunday surovnoma va anketalarning bir qanchasini o'tkazdim. Ko'rinib turibdiki maktab o'quvchilarini kasb tanlashida o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini ahamiyati juda katta.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarigacha davom ettiriladi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat namda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga yo'naltirish o'quvchi shaxsi, barkamol inson rivojlanishi, manfaatlar, qiziqishlarni amalga oshirish muhiti, harakatlantiruvchi mexanizmlar bilan bog'liqdir. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim qadamlardan biridir. Odatda insondan hayotimizdagi asosiy qadriyatlar nima deb so'ralsa, u "sevimli insonlar" va "sevimli ishim"deb javob beradi. Shuning uchun kasb tanlashda adashishkechirilmas xato. Ko'p hollarda bu xatolik inson o'z-o'zini yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi. Ko'ngilga yoqadigan ish topish va bu ishda muvaffaqiyat qozonish uchun, avvalambor o'zining xohish va moyilligini aniqlab olish kerak, keyin shunday kasb tanlash kerakki uning xohish, moyilligiga mos tushishi kerak. Har qaysi insonda turli layoqat,temperament, yashashdan maqsadi bo'ladi. Ba'zi birlar butun bir korxonani muvaffaqiyat bilan boshqaradilar, boshqalar uchun esa bitta mas'uliyatli qaror qabul qilish ham azobli kechadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bir odamga to'g'ri kelgan kasb ikkinchi insonga to'g'ri kelmasligi mumkin. Hayotda xohishi, qiziqishi, layoqati, qadriyatlar tizimi, mobilligi, xarakteri bir-biriga to'la mos keladigan insonlar yo'q, faqat o'xshash insonlar bor, ya'ni ularning ko'pchiligida shaxs tipi (turi) bir-biriga to'la mos tushadi. Bu o'xshashlik har qaysi odam uchun qaysi sohada muvaffaqiyat qozonish, qaysinisida esa ishlolmasligi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerakligi uchun muhim shart-sharoitdir. Bugungi dolzarb muammolardan biri o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik – pedagogik tashxis ishlari samaradorligini oshirish va maxsus ehtiyojga muhtoj bolalarning jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, kasb-hunarga to'g'ri va ongli ravishda yo'naltirish masalalarini qamrab olgan amaliy- uslubiy yordam, yo'naltiruvchi tavsiyalar berish zarur. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari butun pedagog jamoaning, mahalla ahlining, oilaning, barcha- barchaning ishidir. Kasblarni to'g'ri va ongli tanlashda pedagog va psixologlarning o'rni ahamiyatlidir.Shu jumladan, psixologlar "Kasb tanlash motivini aniqlash", "Xolland", D.D.S., ya'ni Differensial-diagnostik so'rovnoma, "Qiziqishlar xaritasi" kabi metodikalarni o'tkazgandan so'ng, boladagi qiziqish, moyilliklari, layoqatlari, motiv va qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Bolalardagi qiziqish, qobiliyat aniqlangandan so'ng, bolani shu tanlagan kasbi bo'yicha yo'naltirish lozim, chunki boladagi bor layoqat, qobiliyat rivojlantirilsa, u o'z kasbining ustasi, mahoratli kasb egasi bo'lib yetishadi. Ingliz bioximigi S.Rouz, kishi qobiliyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda, sotsial sharoitda ko'proqdir deb ta'kidlaydi. Ingliz psixologi D.Kidjin ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida so'z yuitiladi. Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning sotsial sharoiti belgilaydi, deb uqtiradilar. Masalan, Gelvetsiy o'z vaqtida, tarbiya yordamida geniy yaratsa bo'ladi, degan edi. Hozirgi

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

zamon olimlaridan amerikalik U.Eshbi, kishining qobiliyati yashab turgan vaqtida stixiyali ravishda o'z-o'zidan va ongli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o'laroq masalalarni yechish uchun tegishli dastlabki rejalar va programmalar vujudga keladi, deb ta'kidlaydi. Ijodiy programma va zo'r ishchanlik qobiliyati mavjud bo'lsa, faoliyatda eng yuksak yutuqlarga erishiladi. Masalan Firmen, qobiliyat muhitga bog'liq, deb hisoblaydi. Muvaffaqiyatli faoliyatning eng muhim shartlaridan biri tasvirlayotgan narsangga nisbatan muhabbatingdir, deb yozgan edi mashhur rassom Yu.Neprinsev. Mashhur peyzajchi, tabiat kuychisi V.V.Meshkov ham ana shu fikrda edi. Rassomga fidokorlik, ijod o'tida yonish zarurdir. Agar bu o't kuchli bo'lsa, rassom ehtirosli va hayajonlantiruvchi rasm ishlashni oxiriga yetkaza oladi, chunki asar nafaqat aql va o'tkir kuzatuvchanlik bilan, balki ishga halol munosabatda bo'lish bilan bunyod etiladi. I.Repin rassomlikka shunchalik ehtiros bilan berilib ketgan ediki, hatto mehmonlar huzurida dam olayotganida ham qalami qo'lidan tushmas edi. O'ng qo'li charchab qalam bo'lishi va rivojlanishi uchun zamindir. Hatto kishi asosiy hayotiy faoliyat sifatida bitta muayyan faoliyatni tanlab olganda ham bu faoliyatda yuksak muvaffaqiyatlarga erishishiga har tomonlama rivojlanganligi sabab bo'ladi. Ko'pchilik yirik yozuvchilar, yuqorida ko'rsatilgandek, faqat professional yozuvchi sifatida mashhur bo'lganlar, lekin ular yanada aniqroq, jonliroq, yorqin adabiy obrazlarni yaratishga yordam beruvchi vosita sifatida rasm solishga, rassomlikka va muzikaga murojaat qilganlar (A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov va boshqa ko'pgina yozuvchilar). Masalan, Repinning musiqani tushunishi va uni ehtiros bilan sevishi, yorqin badiiy kartinalar yaratishida musiqiy obrazlar unga yordam bergani bizga ma'lum. Kishining har tomonlama rivojlangan bo'lishi o'z imkoniyatlarini to'g'riroq baholash va shunga muvofiq ravishda asosiy faoliyatini aniqlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari, u hamma qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi, ular hammasi birgalikda hatto bitta muayyan faoliyatda bitta qobiliyatning mazkur faoliyatda bergan samarasiga qaraganda, haddan tashqari yuqori samara beradi. Agar qobiliyat-bu shaxs xususiyatlarining "ansambli" bo'lsa, iste'dodning oliy darajalari-talantlik va geniallik-odamning yuksak darajada rivojlangan qobiliyatlari "ansambli" bo'ladi. Qobiliyatning eng yuqori darajasi "talant" deb ataladi. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyat, tabiiy iqtidor hamohangligidir. Talant haqida xalqning o'zida "Xudo bergan" degan gap bor. O'z navbatida tabiiy iqtidor, qobiliyat, talant hayotiy kasbiy tajriba va zo'r mehnat bilan uyg'unlashsa mahorat shakllanadi. Agar qobiliyatning yuqori darajada namoyon bo'lishi "talant" deb atalsa, talantning yuqori darajada namoyon bo'lishi buyuklikdir. Buyuklik – bu inson ijodiy kuchining yuksak darajada namoyon bo'lishi. Nemis faylasufi Shopengauer bu haqda shunday deydi: "Hech kim tekkiza olmagan mo'ljalga tekkizgan mergan- talantdir, hech kim ko'rmagan mo'ljalga tekkizgan mergan - buyukdir". Maktab o'quvchilari bir-birlaridan o'z qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Qobiliyat notekis rivojlanadi, rivojlanishning vaqtincha to'xtab qolishi ko'pincha jadal rivojlanish bilan almashinadi. Bu hol individuallashni, maxsus pedagoglik nazokatini talab qiladi. Ba'zan birovlarga oshiqcha talablar qo'yib, qo'shimcha topshiriqlar berish lozim, boshqalarga esa yordam berish kerak, toki ularning qobiliyati tezroq rivojlanib, bilimlar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

bilan yanada to'lsin, kerakli xususiyatlari, kompensatsiyalovchi (tiklovchi) mexanizmlari shakllansin. Shuni esda tutish kerakki, tani sog', psixik jihatdan sog'lom bolalar orasida qobiliyatsizlari bo'lmaydi, balki ular orasida faqat shundaylari bo'ladiki, ularning nimaga qobiliyatli ekanini biz bilmaymiz. Shu sababli bolalarni sabot bilan o'rganish va ular qobiliyatini baholashga optimistik ravishda yondoshish-qobiliyat tarbiyachisining zaruriy fazilati bo'lib hisoblanadi. Qobiliyat muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi. Hammadan oldin musiqaviy qobiliyat ro'yobga chiqadi, hamma buyuk musiqachilar 4-5 yoshidanoq muvaffaqiyat bilan kuy chalishni bilar edilar. Undan keyin 6-8 yoshdan rassomlik qobiliyati yuzaga chiqadi. Bu yoshdagi bolalarda koloritli original rasm namunalari solishini kuzatish mumkin. Iste'dodli bolalarning rassomlik asarlari ko'rgazmalarini o'tkazish dunyo tajribasida keng tarqalgandir. Demak, ma'lum tabiiy imkoniyatlar mavjud bo'lganda har tomonlama rivojlanganlik chinakam talant va geniallikning rivojlanishi uchun asosiy shart-sharoitdir. Hatto, ochiq-oydin tabiiy imkoniyatlar mavjud bo'lmaganda ham, shaxsning har tomonlama rivojlangan bo'lishi kishi qobiliyatining o'zi tanlagan yagona faoliyatga nisbatan yuqori darajada rivojlanishi va faoliyatda ancha yuksak ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlaydi. Biz bolalarimizni kasb tanlashiga befarq bo'lmasdan maktab psixologi, rahbariyati, qolaversa sinf rahbarlari bilan tez-tez uchrashib, boladagi moyillikni, qobiliyatni rivojlantirishimiz lozim. Sinf rahbarlari ham har bir o'quvchisini darslarda, tashkiliy ishlarda kuzatib, bolani o'rganib, maktab psixologi va ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Maktab psixologi olingan test natijalari bilan sinf rahbarlari va o'qituvchilarni xabardor qilishi va kerakli maslahatlarni berib borishi,o'quvchilarni o'zida bor qobiliyat va moyilliklaridan xabardor qilib ikkilanishlar oldini olishi lozim. Kerak bo'lsa ota-onalarni ham test natijalaridan, bolalarining bor qobiliyatlaridan xabardor qilishi darkor. "Biz o'z iste'dodli fidoyi bolalarimizni kasb va bilim cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz_kerak. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlartayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni yuksak darajada bajarish borasida, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasb-hunar ta'lim muassasalarining ahamiyati muhim sanaladi. Bu borada Yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlamoqchimiz: "O'rta maxsus, kasb- hunar ta'lim muassasalari har – bir xududning o'ziga xos, jo'g'rofiy, etnik xususiyat, ehtiyojlaridan kelib chiqib, tashkil etilishi hamda unda tahsil olayotgan o'quvchilarning ota – onalari bag'rida o'qib, kasb – hunar egallashlari qolaversa, o'sha xududning madaniy – ma'rifiy markaziga aylantirish, yoshlarni chinakkam barkamol kadrlar qilib tayyorlashga bo'lgan talabdandir" deya e'tirof etganlar. Ushbu fikrlari orqali jamiyat va davlat rivojlanishida yoshlarni har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash ertangi kunimiz uchun zamin yaratilishiga ishonch bildirganlar. Shunday ekan, bu borada kasb-hunar muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tadbirlarining o'rni va ularni o'tkazishning mazmun mohiyatiga to'xtalmay iloji yo'q. Kasb-hunar ta'lim muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda tadbirlarni tashkil etish va ularni o'tkazib borishdan maqsad, o'quvchi yoshlarni kasblar dunyosiga olib kirish, tanishtirish, qiziqtirish hamda qobiliyati, moyilligi bor o'quvchilarni ongli tarzda kasb tanlashlariga zamin yaratib beruvchi omil bo'libsanaladi. Kasbga old ma'lumotlarni tahlH qilish,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

natijalarni solishtirtsh, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydl. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, ota-onalarning hamkorligini seminar-treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tatbiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini zamon talabi darajasida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Maktab amaliyotchi psixologlari kursining tinglovchilari fikrlaridan kelib chiqib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- O'quvchilardagi kuchli ehtiyojni seztsh va ular qiziqqan kasb doirasida individual suhbatlar olib borish.
- Kasblarning turlari, hududdagi, viloyatdagi, respublikadagi, jahondagi mavjud kasblar bo'yicha axborotlar berish, bolaning ijodkorligi, diqqati, iroda-matonati, qat'iyligi, sabri, tashabbusi-iqtidori, intizomi va dunyoqarashiga ko'ra zaruriy maslahatlarni uzluksiz olib borish.
- O'quvchilarimiz o'zgaruvchanligini inobatga olib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ibratli shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

Mustaqillik yillaridagi kasbiy sohalar bilan bugungi kundagi zamonaviylikka asoslangan kasblar o'rtasida farqlar sezilmoqda. Qizlarni har tomonlama kamolotga boshlovchi kasb-hunarlar shu darajada ko'payib ketdiki, endilikda o'g'il bolalar uchun ham turli to'garaklar, markazlarning ochilishiga bo'lgan talab ortmoqda. Ayniqsa, nafaqat qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak, balki o'g'il bolalarni ham oila qurishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga yo'naltirilgan kasb-hunar markazlari ochilishi ham ayni muddaodir. ProfessorTursunali Qurbonovning «Ota bo'lish osonmi?» nomli kitobini barcha o'quvchilar, balog'at yoshidagi o'spirinlar o'qishlarini juda-juda istardim. Chunki kasb-hunarga yo'naltirish insonni jamiyatga foydasi tegishiga, yomon yo'llardan qaytarishga turtki beradi. Xalqimizning «Yigit kishiga qirq hunar oz», «Hunardan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» kabi maqollari bejiz aytilmagan. Hamma jabhalarda ham kasbini to'g'ri tanlagan va sevgan inson katta yutuqlarga erishgan, ulkan kashfiyotlar qila olgan. Sportchilarimiz va turli soha egalarining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini keltirish mumkin. Ularning bari fidoyi kasb egalari bo'lib, tinimsiz mashqlar, samarali ijod tufayli yurtimizni butun jahon tanishiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. O'zga yurtlarda O'zbekiston baytog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangraganda faxrlanish tuyg'ulari paydo bo'lib, insonning

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

shu kasb va uning egasiga havasini orttiradi. Qolaversa, mamlakatimizda maorif sohasi, ta'lim-tarbiyaning uzluksiz tizimida, jumladan, maktab sohasida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Ota-onalarda ham farzandiningkelajagiga bo'lgan qiziqishiari ancha oldin sezila boshladi. Mehnat bozorining qishloqlarda shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb-hunar ta'limining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga kirishildi. Bu borada muammo ko'p bo'lishiga qaramay, o'n ikki yillik umumiy o'rta ta'lim yo'nalishi o'quvchilarda kasbga yo'naltirish va ta'limning amaliy yo'nalganligi yetarli darajada bo'lishini ta'minlashga harakat boshlandi. Natijada, yigit va qizlar o'z qobiliyatlari, istaklari ijodiy mehnat moyilliklariga monand hayot yo'lini belgilay olishga harakat qilmoqdalar. O'quvchilarda alohida qobiliyatni topish, ajratish va aniqlashda maktab amaliyotchi psixologidan tortib, shahar-tuman XTMMTTEB tashxis bo'lim-markazlarigacha, hamkorlik tashkilotlarigacha harakat qilmoqdalar. Chunki kasb-hunarga yo'naltirish – umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarni yurtimizning munosib egalari qilib tarbiyalashda muhim bosqichdir. Ayni paytda har bir yosh haqiqiy qiziqish va qobiliyatini, ehtiyoj-xohishini bilib olishi kerak. O'qituvchi bo'lishni orzu qildimi, u shu kasbning mehnati va zahmatini tasavvur qila olishi, ruhan tayyor bo'lib, eng kerakli bo'lgan bilimlarni egallab borishi shart. Hunarga qiziqdimi, tanlagan kasbidan uyalmasligi, zamonaviy kasb deb o'ylashi, jamiyatdagi ehtiyojini bilishi, o'rganishi talab etiladi. Tanlangan har bir kasb uchun xohish va iste'dod zarur. Evaziga nima olish mumkin? Kelajagi qanday bo'ladi? kabi savollarga javob topilishi kerak. Kasb-hunarni to'g'ri tanlash uchun yoshlar o'zlarining imkoniyati, qobiliyati, shaxsiy xislatlarini hisobga olishlari zarur. O'quvchilar, ko'pincha, kasb tanlashda obro'li insonlarga, ota-onalari, aka-opalariga taqlid qiladilar. Kelajaklari haqida tasavvurlar qiladilar. Bu jarayonni maktabdagi psixologik xizmat davom ettiradi. Yuqori malakali kadr bo'lishda kasb tanlashning ahamiyati katta ekan, bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:
–aniq maqsadni belgilay olish;
– vazifalarni aniqlash;
- mazmun-mohiyatini tushunish;

– samaraliligini tasavvur etish;

– muammolardan qo'rqmaslik;
– baho bera olishi kasbiy faoliyatda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchining shaxsiy va professional tayyorgarligida, samarali aniq metod va ta'sir etuvchi xususiyatlarni aniqlashda, maslahat va tavsiyalar berishda, qiyinchiliklar sabablarini aniqlashda, asoslab berishda, kasb madaniyatini shakllantirishda ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar jamoasi, maktab amaliyotchi pixologining, mahoratli pedagogning o'rni muhim. Bunda pedagogik korreksiya va diagnostikadan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bu psixologiyaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo'nalishi bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o'z-o'zini baholash, «Psixologik himoya usullari»dan foydalanish, psixik holatlarni, xarakterning asosiy sifatlarini

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

o'rganishda muhim.Kasb-hunarga old suhbatlar jarayoni o'quvchilarning qiziqish havaslarini, tasavvur-larini, xayol va tafakkurlarini o'rganishda muhim bo'lsa, testlar o'quvchini o'rganishda, uning xususiyatlarini, qobiliyatlarini, xarakterlarini, tafakkur va muloqotchanliklarini, o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhimdir. Hozirgi kunda aqlan zukko, qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil, mulohazali yigit va qizlarga qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlaryaratilgan. Zamon talablariga javob beruvchi kasb-hunar maskanlarida o'qitish ishlarida mahoratli pedagoglarning o'rni beqiyos. Zero, insonning o'z o'rnini topishi bugungi kundagi dolzarb muammodir. O'quvchining o'z imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi, qiyinchiliklarni yengib chiqishinun «Nima uchun shu kasbni yoqtiraman?» mavzuidagi davra suhbatlarini o'tkazish, kasbning yaxshi va yomon tomonlarini tahlil etish, tanqidiy ko'z bilan qarashga chorlash o'quvchi va o'qituvchi uchun ahamiyatlidir. O'quvchining, eng avvalo, o'z-o'zini to'g'ri anglashi va tushunishi, baholashi, munosabatlar o'rnatishi, «Kim bo'lsam ekan?» savoliga aniq javob topishi, mehnat jarayonida o'z-o'zidan qoniqishi, ongli kasb tanlashi o'zi va jamiyat uchun foydalidir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi muammolarga ham duch kelinmoqda:

– maktablarda kasb tanlash haqidagi maxsus fanlarning yo'qiigi;
– maktab amaliyotchi psixologlarning tajribasizligi;
– hamkorlikdagi uzilishlar;
– O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda har biriga alohida yondashuv yo'qligi;
– kasbiy tayyorgarlik madaniyati va pedagoglar mahoratining yetishmasligi.
Shunday ekan, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi muammolarni hal etishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish samaralidir:

1) kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik korreksiya va diagnostikadan foydalanish zarur;

2) yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda rnahoratli pedagoglar, psixologlar, rahbarlar, ota-onalar, faollar hamkorligidagi uzviylikni ta'minlash, umumiy rahbarlik nazorat tizimini to'g'ri tashkil etish;
3) korxonalarga amaliyot uchun borishning sifat darajalarini ko'tarish;
4) maxsus kechalar, davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlarni mazmunli tashkil etish;
5) o'quvchilarning har yili kasbiy, tibbiy, pedagogik, psixologik ko'rikdan o'tishlariga jiddiy e'tibor qaratish;
6) shahar-tuman XTMMTTEB qoshidagi tashxis markazlarini va umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kasbga yo'naltirish xonalarini zamonaviy, innovatsion, kompetensiyaviy yondashgan holda bezatish;
7) ta'lim muassasalarining o'quv-moddiy negizini takomillashtirish.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasb-hunarga yo'naltirishda kuzatish orqali hayotni o'rganish, xarakter, qobiliyat, kayfiyatlarni kuzatish bilan turli tuzatishlar olib boriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Insonning tashqi ko'rinishlari: harakatlari, so'zlashi, boshqalar bilan aloqasi, xulq-atvori o'rganiladi. Belgilangan reja yoki dasturga muvofiq kuzatish asosiy maqsadga tezroq yetkazadi. Maktab psixologi olingan test natijalari bilan sinf rahbarlari va o'qituvchilarni xabardor qilishi va kerakli maslahatlarni berib borishi,o'quvchilarni o'zida bor qobiliyat va moyilliklaridan xabardor qilib ikkilanishlar oldini olishi lozim. Kerak bo'lsa ota-onalarni ham test natijalaridan, bolalarining bor qobiliyatlaridan xabardor qilishi darkor. "Biz o'z iste'dodli fidoyi bolalarimizni kasb va bilim cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz_kerak. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlartayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni yuksak darajada bajarish borasida, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasb-hunar ta'lim muassasalarining ahamiyati muhim sanaladi. Bu borada Yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlamoqchimiz: "O'rta maxsus, kasb- hunar ta'lim muassasalari har – bir xududning o'ziga xos, jo'g'rofiy, etnik xususiyat, ehtiyojlaridan kelib chiqib, tashkil etilishi hamda unda tahsil olayotgan o'quvchilarning ota – onalari bag'rida o'qib, kasb – hunar egallashlari qolaversa, o'sha xududning madaniy – ma'rifiy markaziga aylantirish, yoshlarni chinakkam barkamol kadrlar qilib tayyorlashga bo'lgan talabdandir" deya e'tirof etganlar. Ushbu fikrlari orqali jamiyat va davlat rivojlanishida yoshlarni har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash ertangi kunimiz uchun zamin yaratilishiga ishonch bildirganlar. Shunday ekan, bu borada kasb-hunar muassasalarida umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda tadbirlarni tashkil etish va ularni o'tkazib borishdan maqsad, o'quvchi yoshlarni kasblar dunyosiga olib kirish, tanishtirish, qiziqtirish hamda qobiliyati, moyilligi bor o'quvchilarni ongli tarzda kasb tanlashlariga zamin yaratib beruvchi omil bo'lib sanaladi.

Shuni ta'kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman . Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman . Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O'zMU, 2003. 156-b

2. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.

3. Shakhlo Khakimovna Kharatova "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" Science and Education ISSUE 3, March 2022;

4. Maxmudova.D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.

5. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O'zMU, 2003. 156-b

6.Maxmudova .D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.

7. http s://t.me/dokument

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

*Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi Davlatova Zamira Tagayevna*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot berish.

***Kalit so'zlar:*** intarfaol metodlar ,innovatsiya, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyillar.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovatsion) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Iinnovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi.

Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi.
"Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish toboro keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi vata'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya-yangilik kiritish,yaratishdir. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalarini egallash jarayonidgi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha-interaction,ya'ni inter-aro,o'zaro,asta harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. “Baliq skeleti” texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida “Yo'l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari

ko'rsatib berildi. Unda " Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi", deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda : "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash " umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.

O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan,innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta"lim muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.

2. Tolipov O' Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006

3. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
4. Internet ma'lumotlar.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READPUB.UZ

# TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLAR MUTAXASSIS SIFATIDA ISH YURITISHINING NAZARIY AMALYOTI

**Azizova Manzura Mahmudovna Namangan viloyati Chust tuman XTBga qarashli 66-umumiu o'rta ta'lim maktabining amalyotchi psixologi**

## Annotatsiya

Mazkur maqolada amaliyotchi psixologlarning egallashi lozim bo'lgan xususiyatlari va mutaxassis sifatida jamiyat hayotidagi o'rni muhokama qilingan. Shuningdek, amaliyotchi psixologlarning axloqiy va kasbiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional, etika, estetika, psixologik xizmat, intellektual ,korreksiya;

## Asosiy qism

Hech kimga sir emaski , psixologik xizmat zamonaviy ta'lim tizimining uzviy tarkibiy qismi bo'lib, u bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ularning intellektual va shaxsiy imkoniyatlarini, bolaning moyilligi, qobiliyati, qiziqishlari va moyilligini óz vaqtida aniqlash va maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi, birinchi navbatda bolani biladigan va chuqur tushunadigan ikkalasini ham tushunadigan shaxsdir. Aqliy rivojlanish, shuningdek, uning yosh xususiyatlari va individual farqlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u kattalar psixologiyasiga rahbarlik qilishi kerak chunki maktabgacha ta'lim muassasasidagi bola doimo kattalar bilan muloqotda bóladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida psixologning asosiy vazifalari – bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ularning hissiy holatini ta'minlash har bir bolaning qobiliyatlarini erkin va samarali rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratlarni yaratishdan iboratdir.

Bugungi kunda ko'pchilik umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini

bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o‘zgarmaganini ko‘rishgach, ularda «Maktab psixologining o‘zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug‘iladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o‘rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko‘pincha amaliyotning ular oldiga qo‘ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak.

Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o‘rta ta’lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1.Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash, ularda o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2.Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o‘rganilishini ta’minlash:

3.Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o‘qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o‘tishi kerak bo‘lgan birinchi to‘siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo‘shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo‘shilib keta olmasa, o‘z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

Dastlabki qadamlarni qo‘yishda ota - onalar bilan aloqa o‘rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo‘lishi va o‘zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim. Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1.O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2.O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3.O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning oldini olgan ma'qulroq) lozim bo'ladi. O'qituvchi psixologning mijozi va yaqin hamkori sifatida O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan ob'ektdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;

b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka.

v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi. Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya.

Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi kimdir birozdan so'ng kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. SHunda u pedagoglar orasida tan olinadi. O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bundan ko'zlangan

asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir.

Ushbu mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o'qituvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma'lumotga ularni o'z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki «O'zim yordamimni taklif qilaymi yoki o'qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?» Mayli bu savolga har kim o'z vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin psixolog bir narsani unutmasini, o'qituvchilarning unga murojaat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog'liq emas. Bu ko'proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqotga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi. 2019

**2.** Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.

**3.**Tolibjonovich, M. T .(2021) SHARQ UYG'UNLANISHI VA UNING MADANIYATI MEROS: XORIJIY TADQIQOTCHILARNING NARSASI. ResearchJet Journal of Analysis and Ixtirolar, 2(05), 211-215.

**4.** Jabbor Usarov. (2019 yil, iyun). O'quvchilarni rivojlantirish uchun o'qitish usullaridan foydalanish Qobiliyatlar. Progressiv fanlar va texnologiyalar xalqaro jurnali, 15 (1), 272-274

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARNI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi
300-IDUM boshlangich sinf o'qituvchisi
Jamoliddinova Nodira Muhamedtursunovna

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinfda ona tili darslarida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.Nutqning turlari, o'quvchilar nutqini o'stirishning ahvoli,nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq,nutq o'stirish ,erkin fikrlash,so'z,bog'lanishli nutq,tashqi nutq,ichki nutq.

**Nutq-** kishi faoliyatining turi,til vositalari (so'z,so'z birikmasi,gap) asosida tafakkurni ishga solishdir.Nutq o'zaro aloqa va xabar,o'z fikrini his hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi.O'quvchi uchun nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa,nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi,lug'ati,sintaktik qurilishini bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi.Nutq faoliyati uchun,shuningdek,o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir nechta shartlarga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak.O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talababi,o'quvchi o'z fikrini,nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat hisoblanadi.
2. Har qanday nutqning mazmuni,materiali bo'lishi lozim.Bu material qanchalik to'liq,boy,qimmatli bo'lsa,uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.Shunday ekan,o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oida mashqlarning materiali haqida bo'lib,o'quvchining nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z,so'z birikmalari,gap,nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi.Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.O'quvchilarga til namunalarini berish,ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur.Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish,ya'ni,birinchidan,yaxshi nutq namunasini idrok etish,ikkinchidan,o'rgangan til vositalaridan foydalanib,o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

**Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi**:

1) so'z ustida ishlash;

2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni,fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha o'quvchilar yozma ishlarda imlo va

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda koʻpincha mavzuga aloqasi boʻlmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega boʻlishi, materialning toʻgʻri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda toʻgʻri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim.

**Nutq turlari**:kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular oʻz fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda oʻylab oladilar.Bu **ichki nutq** hisoblanadi.Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan "oʻylangan"(fikrlangan) nutqdir,bu nutq fikrlovchi kishining oʻziga qaratiladi. **Tashqi nutq** tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi-tashqi nutqda nutq a'zolarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi; ichki nutqda nutq a'zolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni oʻstirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. Oʻylash, fikr yuritish ichki nutq asosida boʻladi. Ichki nutq oʻquvchini tashqi nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga oʻrgatadi. Ichki nutq jarayonida oʻylash oʻquvchining nutqi va tafakkurining oʻsishida muhim vositadir. Maktabda oʻquvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham oʻstiriladi. Bolalar ichda oʻqishga oʻrganadilar va ichki nutqda materialni oʻzlashtiradilar, turli vazifalarni oʻzlari hal qiladilar, asosiysi — oʻzlarining ogʻzaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar. Fikrni ifodalash usuliga koʻra nutq ogʻzaki va yozma boʻladi. Ogʻzaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: ogʻzaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Ogʻzaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa koʻrish va harakat (qoʻl harakati) sezgisi asosiy oʻrin tutadi. Ogʻzaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning oʻzaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo ogʻzaki nutq aniq hayotiy sharoitda. bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi. Ogʻzaki nutq koʻpincha **dialog tarzida,** yozma nutq esa **monolog tarzida**

bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

Nutq haqida bir nechta tushunchalar mavjud.Masalan: "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir.Nutq bo'lmasa,tafakkur ham bo'lmaydi,til materiali bo'lmasa,fikrni ifodalab berib bo'lmaydi" 8

**Nutq — o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi muhim vosita.**

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va buyon etilsagina, muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. „Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi. Til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi": Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasani, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta

olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.Har bir o'quvchi nutqini rivojlantirib,shakllantirib borish,albatta,mehnat talab etadi. O'qituvchi buning uchun o'quvchilar bilan muntazam ishlashi,ularning xato va kamchiliklarini muntazam bartaraf etib borishi kerak.Zero,har bir mukammal,yetuk shaxs o'qituvchilar qo'l ostidan yetishib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova ,Sharofat Yo'ldosheva,Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T: "Noshir",-2009.

2.Ivanov P.I.Umumiy psixologiya.---- " O'qituvchi",1967.306-bet. 3.http://ilmiy.bmti.uz.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Саноат корхоналари инновацион салоҳиятига таъсир қилувчи омиллар** доц. С.А. Набиева , ТДТУ

Корхоналар инновацион салоҳиятининг шаклланиши ва ривожланиши ёки даражаси ўзгариши маълум бир омиллар таъсири натижасида содир бўлади. Корхона инновацион салоҳиятини бошқаришни объектив ва ҳар томонлама тадқиқ этиш давомида, унга таъсир ўтказувчи омилларни аниқлаш ва тизимлаштириш муаммоси долрзарб ва етарлича ишлаб чиқилмаган бўлади.

*Инновацион салоҳият* омили деганда, корхона инновацион ўсишининг жадаллиги ва тавсифига таъсир ўтказувчи шартлар, сабаб ва кўрсаткичларни тушунамиз. Бунда инновацион жараён, кўплаб омилларнинг ўзаро таъсири натижаси сифатида майдонга чиқади.

Корхона инновацион салоҳиятининг шаклланиши ва амалга оширилиши, илмий-тадқиқот ва тажриба-констукторлик ишланмаларидан то маҳсулотнинг оммавий ишлаб чиқариш ёки инновацион технологияларни қўлланилишигача, инновацион жараённи жадаллаштирувчи омиллар ва шароитлар мажмуининг ўзаро тизимли таъсири билан боғлиқ.

Инновацион салоҳият амалга оширилаётган ва тугатилиш босқичларидаги мавжуд инновацион лойиҳаларда, шунингдек, инновацион фаолиятнинг ривожланиш элементларининг барчасини ўзаро боғловчи воситаларни қамраб олувчи инфратузилмада акс этади.

Инновацион салоҳиятнинг шаклланиши ва амалга оширилиши, инновацияларнинг ишланиши ва тарғиб қилинишини секинлаштирувчи ва рағбатлантирувчи омиллар макро-, мезо-, микробосқичларга таъсир ўтказади.

Макро ва мезобосқич омиллари инновацион лойиҳаларнинг муваффақиятли амалга оширилишини белгилаб беради. Давлат ва ҳудудий органларнинг асосий вазифаси, инновацион соҳага инвестициялар оқимини таъминлашга қулай иқтисодий шарт-шароитларни яратиш ҳисобланади. Инновацион фаолиятнинг микробосқичда ривожланиши, минтақа ва мамлакат иқтисодиётининг ўсиш нуқталарини шакллантирувчи, минтақавий тизимларнинг самарали ривожланиши орқали амалга оширилади.

Инновацион салоҳиятга бевосита таъсир кўрсатувчи микробосқич омилларини батафсил таҳлил қилиб ўтамиз.

Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, инновацион салоҳиятга таъсир ўтказувчи омилларнинг таснифи айни вақтда ишлаб чиқилмаган. Кўплаб муаллифлар корхонанинг инновацион салоҳиятига таъсир ўтказувчи омилларга ўз эътиборини қаратган. Т.Г. Филосова ўз китобида, саноат корхоналарида инновацияларга тўсқинлик этувчи қуйидаги омилларни қайд этиб ўтган:

- иқтисодий-молиявий ресурслар билан кам таъминланганлик, давлат томонидан кам молиялаштирилиш, инновацияларни тарғиб қилишга юқори сарф-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

харажатлар, иқтисодий хавфнинг юқори даражаси, инновациялар қайтимларининг узоқ муддати;

- ишлаб чиқариш - малакали кадрлар етишмаслиги, янги технологиялар, сотиш бозорлари тўғрисида зарур маълумотларнинг йўқлиги, ташкилотнинг инновацияларни тезда қабул қила олмаслиги, бошқа ташкилотлар, корхоналар ва илмий ташкилотлар билан ҳамкорликни яхши йўлга қўйилмаганлиги ёки йўқлиги;

- бошқа омиллар - инновацион маҳсулотга истеъмолчилар томонидан паст нархдаги талаб, инновацион фаолиятда етарлича қонуний ва меъёрий-ҳуқуқий асосларнинг, тартибга солишнинг йўқлиги, давлат томонидан инновацион фаолиятни етарлича рағбатлантирилмаслиги, суст ривожланган инновацион инфратузилма, технология бозорида ривожланишнинг йўқлиги.

Бошқа бир олим, А.А. Бовин эса ташкилотнинг инновацион муҳитга қуйидаги таъсир ўтказувчи омилларни келтириб ўтади ва таҳлил қилади:

- ижтимоий инфратузилма (ишчиларнинг таълим, тиббий ва маданий иншоотлардаги хизматлардан фойдаланиш имконияти);

- алоқа соҳаси (алоқа, ахборот ресурсларидан фойдаланиш имконияти мавжудлиги);

- табиий - географик шароитлар (транспорт, моддий-техник, энергия, ёқилғи ва хомашё ресурсларининг мавжудлиги);

- технологик ва илмий-техник соҳа (ишланмалар бозорининг мавжудлиги, илмий-тадқиқот институтлари ва бошқаларнинг мавжудлиги);

иқтисодий ва молиявий соҳа (инновацион фаолиятнинг давлат томонидан миллий ва минтақавий даражада қўллаб-қувватланиши, инновацион ишланмалардан манфаатдор инвесторларнинг мавжудлиги);

- сиёсий-ҳуқуқий соҳа (инновацион ва илмий-техник соҳани ҳуқуқий тартибга солишда миллий, минтақавий режа ва дастурларнинг мавжудлиги);

- хўжалик юритишнинг стратегик қамрови (бозорнинг муайян сегментида инновацияларнинг пайдо бўлиш тезлиги);

- меҳнат ресурслари бозори.

Иқтисодчилар А.В. Аньшин ва А.А. Дагаев тадбиркорлик тузилмасида янгиликларнинг жорий қилиш имкониятларини белгилаб берувчи омилларни кўриб чиқишади ва уларни иккита ташқи ва ички омилларга ажратишади. Ташқи омиллар, ўз навбатида, уч гуруҳга бўлинади: рақобат, талаб, ишлаб чиқариш-техник омиллар.

Ички омиллар таркибида эса қуйидагиларни ажратиб кўрсатади:

• янгиликларга ташкилот бошқармасининг муносабати;

• бўлимлар ва ходимларнинг ўзаро муносабатларида оддийлик ва тўсиқларнинг йўқлиги;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- мавжуд ташкилий тизимдан ташқаридаги ҳодисаларга эътибор ва уларнинг муҳимлиги;
- ички бўлимларнинг мустақил ҳаракатланиш даражаси;
- бўлимлар ва алоҳида ходимларнинг иқтисодий манфаатдорлиги;
- инновацион лойиҳаларни кўриб чиқишнинг мослашувчанлик даражаси;
- янги бўлимларни ташкил этишда ташаббусларнинг мавжудлиги;
- илмий-техник инфратузилманинг ривожланиш даражаси;
- постинновацион тизим реабилитациясининг мавжудлиги.

Фикримизча, келтирилган таснифлар, корхона инновацион фаолиятига таъсир кўрсатувчи омилларнинг фақатгина кичик бир қисмини қамраб олган. Шуни таъкидлаш жоизки, илмий адабиётларда инновацион салоҳиятга бевосита таъсир ўтказувчи омиллар аниқланган эмас.

Тадқиқотимизнинг асосий мақсади корхона инновацион салоҳияти ва унинг таснифлаш белгиларининг тизимлаштирилишига таъсир ўтказувчи омилларни аниқлашдан иборат.

Фикримизча, корхона инновацион салоҳиятига таъсир кўрсатувчи омилларни бир қатор белгиларига кўра таснифлаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Амалга оширилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан, бошқарувчанлик даражасига кўра, корхона инновацион салоҳиятига таъсир ўтказувчи омилларнинг таснифий белгилари таклиф қилинган.

Келиб чиқиш манбаларига кўра, омиллар табиий-иқлимий, ижтимоий, молиявий-иқтисодий, саноат-технологик, илмий-техник ва ташкилий-бошқарув гуруҳларига бўлинади.

Табиий-иқлимий омиллар саноат корхоналари инновацион фаолияти натижаларига катта таъсир ўтказади. Корхона инновацион фаолияти ривожланиши ва инновацион салоҳиятнинг ўсишига сув таъминоти билан таъминланганлиги, қулай иқлим, иш шароитлари, йирик ёқилғи ва хомашё манбаларининг мавжудлиги катта ҳисса қўшади.

Табиий-иқлимий шароитнинг мураккаблиги, ишчи кучининг етишмаслиги, ишлаб чиқариш кучлари, транспорт ривожланиш даражасининг пастлиги, аксинча корхона инновацион салоҳияти ривожланишига тўсқинлик қилиши, билан биргаликда, корхона инновацион салоҳият даражасига салбий таъсир кўрсатувчи юқорида келтирилган муаммолар ечими учун жуда катта маблағ талаб қилади.

Ижтимоий омилларга демографик вазият, ижтимоий кескинлик даражаси, ишчиларнинг яшаш шароити, корхонада соғломлаштириш, спорт ва маданий ҳордиқ ишларини ташкиллаштириш, кадрларнинг маданий, таълимдаги умумий даражаси ва бошқаларни киритиш мумкин. Булар корхона ишлаб чиқариш ресурсларининг

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

самарали ва тўларoқ қўлланишига, инсон капиталининг коорпоратив ривожланиши ва шаклланишини таъминлашга хизмат қилади.

Молиявий-иқтисодий омиллар маблағ, хомашё, материаллар билан таъминланганликни, қўшимча маблағларни жалб қилиш имкониятлари даражасини аниқлайди. Инновацион салоҳиятнинг молиявий-иқтисодий омилларини тадқиқ қилиш, энг аввало, корхонанинг инновацион ривожида молиявий имкониятларини тадқиқ қилиш имкониятини, корхонанинг ҳозирги ва келажакдаги молиявий ҳолатида инновацион стратегия ривожланишининг йўналишини олдиндан ишлаб чиқиш имкониятини беради.

Саноат-технологик омиллар корхонанинг ишлаб чиқариш ресурслари ва технологияларининг самарали ва тўлиқ фойдаланишини аниқлаб беради.

Илмий-техник омилларга ИТТКИ ўтказилиши, интеллектуал мулкнинг мавжудлигини қамраб олади.

Ташкилий-бошқарув омиллар таҳлили инновацион инфратузилманинг ривожланиш даражасини, самарали инновацион менежментни, инновацияларни бошқаришда маркетинг стратегиясини, инновацияларни молиялаштиришни ташкиллаштиришни, инновацион фаолият вазифаларига ташкилий тузилманинг мос келишини аниқлашга ёрдам беради.

Оммалашиш даражасига кўра омиллар умумий ва махсус омилларга ажратилади. Умумий омиллар, иқтисодиётнинг барча тармоқларида қўллланиладиган омилларни қамраб олади. Махсус омиллар бўлса, корхона ёки иқтисодиётнинг алоҳида тармоқлари шароитида қўлланиладиган омилларни ўз ичига олади. Омилларнинг бундай тақсимланиши инновацион салоҳиятнинг янада аниқроқ баҳоланишини, ишлаб чиқариш тармоқлари ва алоҳида корхоналарнинг афзалликларини ҳисобга олишга имкон яратади.

Ўз таркибига кўра омиллар оддий ва мураккаб турларга бўлинади. Оддий омиллар корхона кўламини, ўз ичига олувчи соҳани, ишлаб чиқариш турини қамраб олса, мураккаб омилларни бир қанча унсурларга ажратиш мумкин. Масалан, молиявий инновацион салоҳият ўз таркибига давлатнинг молиялаштиришини, кредитлашни ва ташкилотнинг ўз маблағларини қамраб олади.

Шунингдек, омилларни расмийлаштириш имкониятларига кўра таснифлаш мумкин. Расмий таъриф ва тавсифларга мос келадиган, яъни миқдорий кўрсаткичлар шаклида баҳоланадиган (инновацион салоҳиятнинг ресурслар таркибининг тавсифи) ва расмий таъриф ва тавсифларда қийин намоён бўладиган омиллар, яъни инновацион ғоя ва ечимларни татбиқ қилинишида аниқ бир гуруҳ ходимларнинг имкониятлари, инновацион ривожланишга корхонадаги жамоанинг қаршилик даражаси, жамоада синергетик самарадорликни таъминлаш, ишчиларнинг инновацияларни қабул қилишга тайёрлик даражаси каби омилларни келтириш мумкин.

Муддатига кўра инновацион салоҳият доимий ва ўзгарувчан омилларга ажратилади. Доимий омиллар ўрганилаётган ҳодисага унинг содир бўлиш жараёнида (корхонанинг соҳага мансублиги, иқтисодий ва инновацион сиёсатнинг ривожланиши, корхона кўлами, ишлаб чиқариш тури) узлуксиз таъсир кўрсатади. Ўзгарувчан омилларнинг ҳам таъсири вақти-вақти билан намоён бўлади, янги техникани ўзлаштирилиши, маҳсулотнинг янги турлари, ишлаб чиқаришнинг янги технологиялари ва ҳ.к.

Таъсир кўрсатиш кучининг давомийлигига кўра узоқ муддатли, яъни инновацион салоҳият даражасига узоқ муддат давомида таъсир ўтказувчи (глобаллашув жараёни ва халқаро меҳнат тақсимоти; давлат инновацион сиёсатининг самарадорлиги; иқтисодиёт, бозор, талаб ва истеъмол ривожланишининг узоқ муддатли босқичлари) ва қисқа муддатли, яъни инновацион салоҳиятнинг даражасига қисқа муддат давомида таъсир ўтказувчи (бозор конъюнктураси, талаб, қисқа муддатда янгиликларни татбиқ қилишдаги тебранишлар) омилларга ажратиш мумкин.

Инновацион салоҳият даражасига таъсир ўтказиш босқичига кўра, омилларни асосий ва иккинчи даражали омилларга ажратиш мумкин. Асосий омилларга натижавий кўрсаткичларга энг асосий, ҳал қилувчи таъсирларни ўтказувчи омилларни киритишимиз мумкин. Иккинчи даражали омиллар сифатида, шу вазиятдаги шароитларда инновацион салоҳият даражасига ҳал қилувчи таъсирларни ўтказмайдиган омилларни айтишимиз мумкин. Бу ерда шуни эътиборга олиш керакки, вазиятдан келиб чиқиб худди ўша бир омилнинг ўзи ҳам асосий, ҳам иккинчи даражали бўлиши мумкин.

Корхона инновацион салоҳиятига таъсир ўтказиш тавсифига кўра омиллар: инновацияларни сустлаштирувчи (қонунчилик базасининг мукаммал эмаслиги, янгиликларни ишлаб чиқишнинг юқори қиймати, инновацияларни тарғиб этишнинг узоқ муддати), инновацияларни рағбатлантирувчи (ишлаб чиқариш базасининг сақлаб қолиниши ва кенгайтирилиши, ходимлар малакасининг оширилиши, инновацион маҳсулотга самарали талабнинг мавжудлиги) ва инновацияларга ҳар икки тарафлама (иқтисодиётдаги молиявий инқироз ҳолатлари) таъсир ўтказувчи омиллар сифатида таснифланади.

Инсон фаолиятидан келиб чиқиб омилларни объектив ва субъектив омилларга ажратиш мумкин. Объектив омиллар, масалан, инсоннинг ҳоҳиш иродасига боғлиқ бўлмаган турли сув тошқинлари, ер силкинишлари, тўфонлар, вулқонлар каби табиий офатлар кирса, субъектив омиллар юридик ва жисмоний шахсларнинг фаолияти билан боғлиқ. Ишлаб чиқариш тизимига кўра инновацион салоҳиятнинг омиллари ички ва ташқиларга ажратилади.

Бизнинг фикримизга кўра, инновацион фаолиятга таъсир ўтказувчи омилларни яна бир хусусият, бошқарув даражасига кўра ҳам таснифлаш лозим. Корхонанинг инновацион мақсадларини маълум бир инновацион салоҳият даражасида амалга

ошириш мумкин. Шунинг учун ҳам, корхона инновацион салоҳиятини келтириб чиқаришга, сақлашга, ундан фойдаланишга ва уни баҳолашга жуда катта эътибор қаратилмоқда. Корхона инновацион салоҳиятининг максимал даражаси омилларнинг муайян комбинациялари орқали шаклланади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАР

АМАРБАКИЕВ РУСТАМ НАРИМАНОВИЧ – СИРДАРЁ ТУМАНИДАГИ 8-МАКТАБ ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИСИ

АННОТАЦИЯ : Ушбу мақолада бугунги кунда хорижий тилларни ўқитишда педагогик технологиянинг ахамияти ва қўлланиши хақида фикр юритилади. Таълим жараёнида интерфаол усуллар ва уни амалга оширишда ўқитувчида мавжуд бўлиши керак булган компетенция хақида тавсиялар берилади.

ТАЯНЧ СУЗЛАР : Хорижий тиллар, педагогик технологиялар, таълим жараёни , компетенция , инновация, метод, таълим мазмуни.

Таълим-тарбия жараёнини самарадорлигини ошириш орқали келгуси тараққиётни янада ривожлантириб, мустахкамлашга асос солинади. Хар бир ўқитувчи яхши биладики, дарс ўқув-тарбия жараёнининг асосий шаклидир. Шунинг учун ўқитувчи, аввало, дарс утиш ва дарсни такомиллаштириб бориш хақида ўйлайди , изланади.

Таълимда юқори самарадорликка эришиш учун ўқитишнинг ноанъанавий методлардан, яъни замонавий педагогик технологияларнинг турли методларидан дарс мавзусига мос равишда фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Бу мураккаб ва узоқ давом этадиган жараён бўлиб, ўқитувчининг машаққатли мехнати билан босқичма-босқич махорат пиллапояларини эгаллаб, унинг юксак педагогик даражасига кўтарилишидир. Юқори кўрсатгичга эришишни мақсад қилган ўқитувчи,аввало, хаб бир дарсга ижодий ёндашиши,дарс жараёнида кўзда тутилган барча босқичларни эркин амалга ошира оладиган касбий махоратга эга бўлиши керак. Касбий махорат эса ўқитувчи шахсидаги табиий имкониятлар,педагогик-психологик иқтидор,ўз ишига маъсулият билан қараш, ўқувчидаги ўзгаришларни ўз вақтида сезиш , бола шахси, ўқувчилар жамоасига тўгри таъсир эта олишнинг амалий намоён бўлишидир.

Замонавий дарсда педагогик технология методларини қўллаш орқали дарс давомида ққўшимча маълумотлар асосий мавзуни қамраб олиши керак. Бунинг учун хар бир дарсда педагогик технологиянинг ўтилаётган мавзуга мос ва қулай бўлган методларидан фойдаланиш керак. Бу фаолиятни амалга оширишда ўқитувчидан юксак педагогик махорат талаб қилинади.

Технологиялардан фойдаланиб, ўқитишнинг бир қанча ўзига хос афзалликлари мавжуд. Бундан ташқари , у ўқитиш тизимини анча самарадорлигини оширади ва ўз

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

навбатида тил ўрганаётган ўкувчини замон билан хамнафас бўлиб,олга интилишига кўмаклашади. Технология аста-секинлик билан анъанавий ўқитишнинг ўрнини эгалламоқда. Бугунги кунда телевизион дастурларда бир қанча инглиз тилини ўргатишга кўмаклашувчи янги дастур ва кўрсатувлар мунтазам равишда узатилиб келинмоқда.

Шуни хам алохида таъкидлаб ўтиш керакки, бугунги кунда ўқитишнинг самарадорлигини ошириш учун Ўзбекистонда янги замонавий инновацион технологиялардан фойдаланишнинг янги методлари жорий қилинди. Мультимедиа асосида чет тили ўргатилаетган ўқувчи турт кўникмани ривожлантириш , қизиқарли материаллар орқали хам кўриб, хам эшитиб ўрганиш имконияти пайдо булди. Бундан ташқари ўқувчи жонли харакатларни кўриб баъзи сузларнинг маъносини тахлил қила олади ва уни тушинишга харакат қилади. Албатта хар қандай чет тили дарсларида замонавий технологиялар компьютерлбатта хар қандай чет тили дарсларида замонавий технологиялар компьютер, радио, СД , ДВД қққкўллаш таълим жараёнини янада олга силжиб,усиб келаётган ёш авлодга чет тилларни тезроқ ўрганишнинг имкониятини беради.

Инглиз тили дарслари давомида баъзи ўқитувчиларнинг технологияларни қўллашни билмасликлари ва фойдаланмасликлари, ўқувчиларнинг бир мунча зериктиришига олиб келади. Айнан шу сабабли яъни ўрганувчининг иштиёқини сўндирмаслик учун дарс давомида технологиялардан ва камида компьютердан фойдаланиш ўрганувчининг қизиқишини ортиб боришини янада таъминлайди. Бундан келиб чиқадики , дарс давомида технологиялардан шунчаки фойдаланиш эмас, балки уларни ўз ўрнида қўллай билиш ва технологиялардан фойдаланиш ўқувчи билимини оширишга хизмат қилишини таъминлаш асосий вазифа хисобланади.

Сузлашиб ва ёзиб ўрганишда хам технологиядан фойдаланган холда дарс утиш жараёни мультимедиалардан фойдаланиб, ўрганувчиларга видеофильмлар, роликлар намойиш қилиш ва уни мухокама қилиш жуда самарали усул хисобланади. Бунда ўрганувчиларга таниш булган лугат ишлатиши, яъни мураккаб сўзлар иштирок этган булса сузларга изох бериш, янги сўзлар билан боглиқ булган машқлар бажариб олингач, видеоматериални намойиш этиши мумкин.

Муаммоли таълим технологияси. Муаммоли вазият яратиш,саволлар қўшиш, масалар ва топшириқларни таклиф қилиш,мухокама юритиш ва хулосанинг тўгрилигини тасдиқлашдир.

Интерфаол метод технологияси. Ўқувчиларнинг ижодкорлигига таяниш, дарсда эркин бахс-мунозара шароитини тугдиришга қаратилган. Бунинг учун синф кичик гурухларга бўлинади ва дарс давомида шу гурухлар билан ишланади.

Дидактик ўйинлар технологияси. Дарсда турли дидактик ўйинларнии қўллаш орқали жонланиш, фаол харакат ва қизиқиш уйготиш.

Синов дарслари. Ўқувчиларнинг муайян билим ва кўникмаларини тест топшириқлари ёки назорат варақлари орқали синаш мақсадида ўтказиладиган дарслар.

Ўқувчиларнинг келгусидаги муваффаққияти, уларнинг хар томонлама камол топиши,кўп жихатдан бошлангич таълимнинг сифатига боглиқ. Дарс жараёнида янги услублар, ўқитишнинг интерфаол усуллари жорий қилинаётгани, юртимизда маънан ва жисмонан баркамол авлодни вояга етказишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Хорижий талларни ўргатишда педагогик технологиялар. А.Э.Кенжабаев

2. Инновацион таълим жараёнида болаларда экологик тушунча ва тасаввурларни шакллантириш. 2016 йил. Д.Т.Пулатов

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : Бошлангич синфларда хорижий тилларни ўқитишда педагогик технологиялар

Муқимова Махфуза Хамидовна - Сирдарё туманидаги 22- сонли умумтаълим мактабининг инглиз тили ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ: Мақола бугунги кунда бошлангич синфларда хоирижий тилларни ўқитишда педагогик технологияларнинг ахамияти ва қўлланиши хақида фикр юритилган. Таълим жараёнида турли интерфаол усулларни қўллашда ўқитувчида мавжуд бўлиши керак бўлган компетенцияни шакллантриш бўйича тавсиялар берилган.

ТАЯНЧ СУЗЛАР : хорижий тиллар, педагогик технологиялар, таълим жараёни, компетенция , инновация, метод, таълим мазмуни

Республикамизда жахон хамжамиятига янада интеграциялашувига йўналтирилган тизим яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги»Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўгрисида»ги ПК-1875-сонли қарори тасдиқланди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида халқнинг бой, интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлари, замонавий маданият, иқтисодиёт ,фан , техника ва технологияларнинг ютуқлари асосида кадрлар тайёрлашнинг мукаммал тизимини шакллантириш Ўзбекистон тараққиётининг мухим шартидир, деб алохида таъкидлади.

Бугунги тарккиёт хар бир ўқитувчидан ўзига хос ижодкорлик, малака ва тажрибани тақазо этмокда. Бу уз навбатида хорижий тиллар фани ўқитувчилари зиммасига катта маъсулият юклайди. ПК-1875 – сонли қароргини тизимли амалга ошириш мақсадида бошлангич синфларда хорижий тилни ўқувчиларга ўргатишдан мақсад ,уларнинг шу тилда сўзлашиш , ёзиш , тинглаб ва ўқиб тушиниш каби куникмаларни шакллантириш билан бир қаторда болаларнинг тафаккури, мулоқот маданияти, билим олишга қизиқиши ,фаоллик ,мустақиллик,мехнатсеварлик ,қизиқувчанликни уйготишга қаратилади.

Болаларнинг аклий ва нутқий қобилиятини муваффақиятли ўстириш келгусида фанларни пухта ўзлаштиришга имконят яратади. Ўқувчиларда чет тили орқали мустақил ва ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришда илгор педагогик технологиялар ўзига хос ахамият касб этади.. Бугунги кунда ўқитувчига қўйиладиган мухим талаблардан бири хам илгор педагогик технологиялар билан

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

танишиш , амалда қўллаш ваш улар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдан иборат.

Узликсиз таълим тизимининг хамда бўгинларида хам ўқитувчи дарс жараёнида ноанъанавий дарсларда педагогик технологиялардан фойдаланади, лекин бошлангич синфларда хорижий тилларни ўқувчиларга ўргатишда хорижий тил ўқитувчиси ўқувчиларнинг психологик, педагогик ва физиологик ривожланиш қоидаларини билиб, ўрганиб дарснинг мақсад ва мазмунидан келиб чиқиб, педагогик технологияларни дарсда қўллаш мақсадга мувофикдир.

ўқитувчи дарс жараёнида педагогик теъхнологияларни ишлатишда қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

- ўқувчилар онгида муайян мавзу асосида янги тушунчаларни хосил қилиш;

- янги мавзуга оид коида, атамалар мохиятини очиб бериш;

- -янги мавзуни ўтилган мавзулар билан изчилликда етказиш;

- ўқувчиларнинг фикрлаш даражасини ривожлантириб бориш;

- таълимий ўйинларнинг изчиллиги,хилма-хиллиги ва қизиқарли бўлишига эришиш;

- шу машгулотнинг ўзида янги билим асосида шаклланган кўникмаларини текшириб бориш;

- ўқувчиларнинг психологик хусусиятларини хисобга олиш;

- дарс жараёнида ўқувчилар иштирокини кучайтириб бориш;

Келажагимиз булган ёшларнииинг эркин фикрловчи,баркамол шахс булиб шаклланиши учун уларни хар томонлама ривожлантириш зарур. Жумладан, хорижий тилларни ўрганиш даражалари мазкур мақсадни амалга оширишда ўқувчиларнинг психологик, жисмоний ва ижтимоий жихатларини ўрганиб, ўзларини эркин тутиши ва фикрини мустақил ифодалашда тўсиқ буладиганг салбий психологик холатларни аниқлаш ва бартараф этишда қўлланилиши лозим.

Бошлангич синф ўқувчилари дарсларининг тугри, аниқ , изчил самарали булиши учун бугунги кунда ўқитувчи қуйидагиларга эътибор бериши лозим. Педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг билим , кўникма ва малакаларни пухта ўзлаштириши, таълимнинг тушунарлилик, изчиллилик ва киришимлилик, назарияни амалиёт билан боглаш,кўргазмалилик, бугунги куннинг янги ёндашувлари, мультимедиа ўқувчиларнинг онглилигини амалга ошириш орқали таъминланади.

Мактаб ёшдаги ўқувчиларда инглиз тили саводхонлигини тўгри ташкил эти шва узлуксиз тамойиллари асосида ривожлантириб бориш уларнинг келажакда хорижий тил ўрганишга қизиқиш билан ёндашишга ва самарали равишда инглиз тилида сузлашувга ўргатади. Бу эса хорижий тил ўқитувчисига ўзига хос машаққатли мехнатни талаб қилади. Педагогик технологиялардан ўқитувчи дарс жараёнида мажбурий фойдаланиши шарт эмас. Педагогик технология дарс мазмуни, мақсадига қараб ишлатилса , у ижобий самара беради. Ўнг ёшдан сунг, хорижий тилларни ўрганувчи болаларнинг факат 5 % гина сўзларни тугри талаффуз этиши мумкин. Шунинг учун хам хорижий тилларни ўрганишни эрта бошлаш самарали хисболанади. Хорижий тилни педагогик технологиялари оркали ўқитиш ёшларни келажакда мустақил фикрга эга баркамол авлод бўлиб тарбияланишида мухим ахамият касб этиши лозим

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бошлангич синфларда хорижий тилларни ўқитишда пелагогик технологиялар. А.Кенжебаев
2. Бошлдангич синфларда чет тилларни ўқитишнинг психологик асослари ва самарали технологиялари. Илмий методик қўлланма

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

МАВЗУ : Маънавий-аҳлоқий тарбия асослари

КАРИМОВА РАЪНО ҚЎШНАЗАРОВНА - Сирдарё вилояти Сардоба тумани Халқ таълими бўлими методисти

АННОТАЦИЯ: Бола трабиясида оиланинг ўрни. Меҳнатнинг тарбиядаги мухим жихатлари ва унинг болага ақлий ва жисмоний тарбия бериши, маънавий ва маърифий ишларнинг болага таъсири. Ота- онанинг болага тўғри тарбия бериши, махалланингт ва мактабнинг тарбиядаги роли.

ТАЯНЧ СУЗЛАР : Аҳлоқий тарбия, жамият, маънавий тарбия, истиқбол, тафаккур.

> "...Болаларнинг юз чиройлигига она
> қорнидаёқ замин тайёрланади. Бун-
> дан кейин у чиройлиликни ўзгартира-
> диган куч йўқ..."

Оила муаммоси кишилик жамиятининг хамма босқичларида умумдавлат аҳамиятга эга бўлган. Ота- она фарзанд туғилишидан олдинёмон ҳаракатлардан олдин тийилиши, аёл учун ёқимли шарт –шароит яратилиши лозим. Шундагина соғлом фарзанд дунёга келади. Соғлом туғилган фарзанд ота-онанинг бахти, жамият кўркидир.

Инсоннинг умри узлуксиз, босқичма-босқич ривожланиш хусусиятига эга. Лекин ҳаётнинг мазмунли бўлишида бериладиган таълим-тарбиянинг дастлабки пойдевори- оилада- ота-она томонидан яратилади. Хўш, бола қандай одоб-ахлоққа доир билимни оилада олиши керак, бу билимларнинг салмоғи нима билан ўлчанади.

Уларни:

- яхши хулқ атворни ўргатиш ва тарбиялашда;
- авлод ва қариндошлар ҳақида мехр уйғотувчи икки оғиз ширин сўзда;
- меҳнат инсон кўрки эканлигида;
- халқ ўйинларида;
- боболар ўгитларида кўриш ва илғаш мумкин;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ота-она фарзандларини билимли, маълум касб-хунар эгаси комил инсон бўлиб етишишини орзу қилади.

Оилада фарзандларни баркамол этиб тарбиялаш учун хамма ота-оналар хам педагогик билим ва махоратга тўлиқ эга деяолмаймиз. Шу сабабли мактаб маъмурияти маънавий ва маърифий тарбия ишлари рахбарлари томонидан ёш ота-оналар учун қисқа курс , семинар, бахс уюштиришлари ва илғор оилавий тажрибаларни оммалаштиришлари лозим. Шу сабабдан ёш ота-оналар учун фарзанд тарбиялаш, унинг одоб-ахлоқи ва маънавий юксаклигига доир қуйидаги йўналишларни белгилайди.

Одоб дастлаб ота-онанинг болага меҳр кўзи билан қарашидан бошланади. Ота-она аввало ўз хатти-харакатлари орқали ёмонлик келтирувчи воқеани у содир бўлишидан аввал олдини олишлари керак. Болага радио-телевизор орқали кўрган ва кўча-кўйда бўлган ёмон воқеаларга изох бериб, ўз муносабатларини билдиришлари лозим. Эшитган эртак ва ўқиган асарларидаги ёмон шахслар, хамда яхши инсонларнинг фазилатларини изохлаб, сабабини тушинтириш муҳимдир.

Инсон меҳнати билан руҳан шод ва хаёти мазмунлидир. Биз ота-оналар болаларни руҳан меҳнат қилишга ўргатсак, уни кундалик хаётига зерикиш, хуноб бўлиш, инжиқлик ва тажанг бўлиб юриш холатига мутбало бўлишдан халос қилган бўламиз. Болага ёшига мос мехнат турларини берсак, у ақлий ва жисмоний соғлом бўлиб ўсади. Оила аъзоларининг мехнати тақсимотига кўра топшириқлар берилиши зарур.

Мехнат- тарбия воситаси. У инсон хаётининг кўрки хисобланади. Оилада дастлаб болаларда мехнатга мухаббатни оддий топшириқлардан бошлаш мухим. Оилада ақлий мехнатни жисмоний мехнат билан яқинлаштриш керак. Бола жисмоний бажарган мехнатидан завқланиб, хурсанд бўлиши лозим.

Болаларни кўча ва жамоат жойларида хатти-харакатларининг одоб доирасида бўлишида ота-она қуйидагиларга амал қилиши керак. Атрофдагиларга салом бериб, таъзим қилиш. Кўча қоидаларига амал қилиш, кўчага чиққанда хар тарафга қараб, аланг-жаланг бўлмай, уйга қайтиш. Кўчада юрганда бирор нарсага зарар етказмаслик, синдирмаслик, гулларни узмаслик, учраган нарсага чизмаслик, жамоат жойларда қаттиқ гапирмаслик ёки қахқаха кулгилар одобдан эмаслигини ўргатиш лозим.

Тарбия қакидаги гоя авлод-аждодларимиздан бизга етиб келган буюк мергос булиб, у комил инсонни вояга етказиш мухимдир. Тарбия туғилган кундан бошланиши лозимдир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Тарбия- тарихий ва ижтимоий ходисадир. Тарбия инсонларнинг фаолияти жараёнида уларнинг онги ва иродасинми ўстиришга хизмат қилади. Шу билан бирга , тарбия ижтимоий ходиса бўлиб, инсоният тараққиётининг турли босқичларида узига хос мазмун ва амалга ошириш шаклига эгадир.

Маънавий-марифий тарбия ишлари рахбарлари , ўқитувчи , тарбиячилар тарбиявий тадбирларни мазмундорлигини таъминлашда бой миллий ва умуминсоний қадриятлардан кенг фойдаланиши, тарбиявий таъсирга эга булган манбаларни ажрата билиши керак.

Маънавий баркамолликнинг кўринишларидан бири- мехнатсеварликдир. Халол мехнат кишиларни кўтаради, инсон хаётининг туб мохиятини ташкил этади.

Маънавий баркамол инсоннинг яна бир фазилати Каттага хурмат,качикка шавқатли бўлишдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. И.Каримов. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. 1992 йил
2. Маънавий ва ахлоқий тарбия асослари. Ж.Хасанбоев.М.Турапова

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Abdulla Qodiriy ijodi va shaxsiyatida qishloq xo'jaligining o'rni va roli .**

"Abdulla Qodiriy Aqliy mehnat kishilariga har mahal ham nasib

Bo`lavermaydigan darajada jismoniy mehnatga o'ch kishi edi.

(Yozuvchi; Oybek hotiralaridan )

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Ulug` O`zbek dibi atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy ijodi va shaxsiyatida qishloq xo`jaligining o`rni haqida atroflicha fikr yuritiladi va adib ijodining o`ziga xos xususiyatlari haqida ham fikr yuritiladi bu maqola nafaqat adabiyotga qiziquvchi adabiyotshunoslar uchun balki qishloq xo`jalik xodimlari keng kitobxonlar uchun ham muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Kolxoz, Dehqon, jamiyat, qishloq xo`jaligi, chopiqchi, "Obit ketmon" qissasi, birigada;

**Asosiy qism**

a'lumki, 10-aprel o'zbek adabiyotining atoqli vakili o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy tavallud topgan kun…
Shu bilan birga 1-aprel 1914-yil esa adibning matbuot sahifalarida ilk marta Abdulla Qodiriy nomi ostida birinchi habari chop etilgan kun ham hisoblanadi.Ana shu ulug' sanalarga bag'ishlab bir narsalar qoralashni niyat qilib yurardik , shu niyatda bugun qo'lga qalam olishga jur'at etdik.
Istiqlol yillarida adib nomini adabiylashtirish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi . 1994-yil Adib nomiga davlat mukofoti ta'sis etilishi , yozuvchiga o'limidan so'ng , Mustaqillik va Navoiy , buyuk ximatlari uchun ordenlar bilan taqdirlanishi , turli ko'chalar va muassasalarning adib nomlarini va hokazolarni sanab o'tishi mumkin .Bu hayrli ishlar ayniqsa so'nggi ikki yil davomida o'zgacha qiyofa kasb etdi . Jumladan muhtaram Prezidentimizning 2018 –yil 3-dekabrda adib nomini adabiylashtirish borasida farmoniga asosan vatanparvar adib xotirasiga ehtirom ko'rsatish milliy adabiyotimiz rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini ulug'lash maqsadida poytaxtimiz markazida Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i oldida ijod maktabi va muzey barpo etilishi boqqa kiraverishda buyuk yozuvchiga ehtirom tariqasida yozuvchi haykali o'rnatilishi xuddi shuningdek, adib yashab ijod qilgan uyda ham adib uy muzeyi tashkil etilishi nafaqat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

adabiyotimiz ixlosmandlarining el-yurtimiz butun xalqimizni quvontiradigan hammani ko'nglidagi ish bo'ldi deb ayta olamiz .Shunindek, ijod ijod maktabi negizida

" Turon" kutubxonasining qayta tashkil etilishi ham mamlakatimiz manaviy dunyosi ma`rifati borasida katta bir hayrli ish bo'ldi.
Bularning hammasi albatta, ulug' adibimizning , millatimiz , adabiyotimiz ,va eng muhimi tilimiz oldida qilgan buyuk xizmatlari oldida ozlik qiladi . albattabiz Bugun ushbu maqolamizda adib qalamiga mansub , go'zal hikoyalar –yu o'sha mashhur birinchi o'zbek romanlari "O'tgan kunlar " , "Mehrobdan chayon " romanlarini tahlil qilishi,niyatida emasmiz bu borada xurmatli adabiyotshunos olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borishgan va olib borishyapti ham. Qodiriy ijodini tahlil qilish fikridan yiroqmiz.Yuqoridagi amalga oshirilgan ishlarni eslatib o'tishdan maqsad shunchaki Abdulla Qodiriy hazratlarining muborak nomlarini abadiylashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan aziz yurtdoshlarimizni yana bir bor tanishtirib o'tish edi. Bu maqolamizda Abdulla Qodiriy ijodi va shaxsiyatida jismoniy mehnat qishloq xo'jalikning o'rni qanchalik darajada ahamiyat kasbetganligi to'g'risidagi mulohazalarimizni jurnalxonlar, gazetxonlarimiz bilan o'rtoqlashish xolos.
Xo'sh… Abdulla Qodiriy shaxsiyatida jismoniy mehnat va qishloq xo'jaligi qay darajada muhim ro`l o'ynagan .Eng avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki , Abdulla Qodiriy hech qachon yozuvchilikni tirikchilik manbai deb bilmagan . Hattoki o'sha vaqtda yozuvchilarga beriladigan moddiy yordamlarni ham boshqalarga ulashadi , yozuvchi Oybekni rafiqasi hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti ( sobiq Toshkent qishloq xo'jaligi instituti)ning professori Zarifa Saidnosirova o`zining " Oybegim mening " nomli hotiralar da kitobida shunday xotiralarni keltiradi"…bir gap yozuvchilar uyushmasida a'zolarga yordam deya o'sha qiyichilik hech qayerdan oziq ovqat non yetishmaydigan bir zamonlarda yozuvchilarga ozgina bo`lsada yengilik qilish maqsadida asal tarqatishdi shunda Abdulla aka o'zlariga atalgan ulushlarini ham mening o'z bog'imda asal bor, yetarli deya bizga ulashgani va shu muhitda bizga juda katta yordam bo'lganda deya xotirlab yozadi; Z.Saidnosirova Yuqorida maqolamizga yozuvchi Oybekning xotiralarini epigraf qilib olgan edik, o`sha hotiralarida yozuvchi yozgandi Qodiriy "Aqliy mehnat kishilariga har doim ham nasib qilavermaydigan darajada jismoniy mehnatga o'ch kishi edi, deb yozgan hotirasidan ham Qodiriyning naqadar qishloq ho`jaligidan bo`lgan tajribali Dehqon yozuvchi bo`lganligini bilib olishimiz mumkun.

Balki, shuning uchunmikan yozuvchining qishloq ho`jaligi borasida, qishloq ho`jaligi hayotidan olib yozilgan asarlari ocherk, qissa va fe`letonlari o`ta ishonchli ta`sirli yozilib, o`z davrida yozuvchiga katta shuhrat keltirishida muhim ro`l o`ynagan bo`lsa ajabmas.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Bu boradagi yani biz so`z yuritadigan qishloq ho`jaligi borasidagi Abdulla Qodiriyning eng katta asari "Obid ketmon" qissa yoki uni hajm jihatdan roman desa ham bo`ladi qissasi hisoblanadi.

Bu qissa o`zbek adabiyoti tarihida kolxoz qishloq ho`jaligi agrar hayotimizdan olib yozilgan to`ng`ich ulkan asar hisoblanadi.

-uni yozuvchi yelkalarida ryukzak ,qishloqma-qishloq , yalang oyoq yurib, dala dashtlarni kezib, qo`llarida ketmon paxta chopiqlarida qatnashib, bobodehqonlarimiz bilan suhbatlashib yozganlar (Habibulla Qodiriy "Otam haqida" kitobidan olindi Toshkent; 1985-yil qayta to`ldirilgan ikkinchi nashr bundan kegin keltiriladigan qo`shimchalar ham shu nashrdan olindi. M.Yarashov)

Abdulla Qodiriy qishloq ho`jaligi hayotidan olib yozilgan ushbu asarini asosan o`ziga tajriba o`rganish maqsadida Toshkent viloyatining shimolidagi ko`kterak va uning atrofidagi boshqa qishloqlarni tanlab oladi. U yerlarga bir necha bor yayov chiqib, bir necha kunlab turadilar kolxoz, qishloqlar bilan tanishadilar.

O`z davrining eng sohibkor dehqon keksalari bilan tanishib suhbatda bo`ladilar tajriba o`rganadilar.ana shunday insonlardan biri deya eslaydi; H.Qodiriy – Ko`kteraklik Inog`omjon ota ismli keksa sohibkor dehqon bilan tanishib u bilan to umrining ohirigach do`st bo`lib qoladi. O`sha Inog`omjon ota A.Qodiriyning ko`kterakda nimalar qilgani ushbu asarni yaratilishi to`g`risida hotirlab shunday degan ekan-"Abdulla akamlar (garchi yoshi ulug` bo`lsada adibga hurmat tariqasida "Aka" deb murojaat qilar ekan) ko`kterakda bir necha vaqt guzarda, kolxoz idorasida rais, xosilot ,buxgalter, hisobchilar bilan so`zlashib yurdilar a`zolar bilan birigada aylanib yurib, ish boshida bo`ldilar, a`zolar bilan tanishdilar. Shunday bir kulgu yodimda: bir kuni tushki payt Abdulla akamlar bilan aylanib bir birigadaga bordik. A`zolar paxta chopish qilishardi u kishi ularning tepasiga borib Xorma- bor bo`l qilib, ishga razm solib turdilarda chopiqning qoida usulini so`radilar kegin bir ketmonchini - "qani siz ketmonni berib, dam olib turingchi bir o`zimni sinab ko`ray dedilar kulib va ketmonni olib chopiq qila boshladilar. Chopiqchilar Abdulla akamning bu ishqibozliklaridan kulishdi, yiroq yaqindan ko`z tashlab tomosha qilishdi. Chopiqchilarning ko`plari Abdulla akamning jismoniy mehnatga haddan ziyyod ishqibozliklariga tan berib qoyil qolishdi va kulishdi…"

Darhaqiqat Abdulla Qodiriy ijodida ham shaxsiyatida ham qishloq ho`jaligi masalasi muhim ro`l o`ynaganini yuqorida keltirilgan hotiralardan bilib olish qiyin emas.

Modomiki mavzuimiz Abdulla Qodiriy ijodi va shaxsiyatida qishloq ho`jaligi masalasida ekan yana yozuvchining shu mavzudagi asarlariga hususan, ana shu mavzudagi yirik nasriy asari "Obid Ketmon" Qissasiga va shu haqidagihotiralarga ko`proq quloq tutishga va shu bilan birgalikda ushbu asari qahramonini Abdulla Qodiriy bilan

qiyoslashga ehtiyoj sezamiz o`zimizda….Dadam deya; yozadi Habibulla Qodiriy o`sha "Otam haqida" nomli hotira kitobida ‘’ -men Kolxozda yurganimda xaqiqatdan ham Obid Ketmonning ba`zi xususiyatlariga ega bo`lgan bir tipni ko`rdim deydilar. Shunungdek, o`rni kelib, muallifning o`zlarini ham, qisman bo`lsada Obid Ketmonga timsol qilib ko`rsak bo`lmasmikan?..
Ahir u kishi ham ko`p vaqtlarini peshona bog`lab quyoshda yer chopish, tepa buzib zambil G`altakda tuproq tashish yer chopish yer ochish, Dehqonchilik qilish, qishloq ho`jaligi ishlari bilan muntazam shug`illanganlar . shirkat a`zosi va uning rahbarlaridan biri bo`lganlarku … "deya yozadilar. Ushbu hotiralarga qo`shimcha ravishda shuni ham aytishimiz mumkunki, biz Toshkent davlat agrar universiteti talablari bilan Abdulla Qodiriy uy muzeylariga tashrif buyurganimizda Adibning nabirasi,O`zbekistonda hizmat ko`rsatgan madaniyat hodimi Xondamir Qodiriy biz bilan suhbat jarayonida: -Qodir bobomizdan qolgan katta bog`imizning eng tekis suv chiqadigan joylarini lalmi joylarini buvamizning aka ukalari Rahimberdi va Qudratilla ammakilarimizga ro`zg`ori og`ir men har holda yozuvchiman deya yordam bo`lsin deya bo`lib berib o`zlariga esa eng qiyalik suv chiqishi amri mahol bo`lgan o`nqir- cho`nqir joylarni o`zimizga qoldirib mana hozir biz turgan qiyofaga keltirish uchun yoz faslidagi asosiy vaqtlarini manashu qirlarni o`z qo`l kuchlari yordamida tekislash suv chiqarishga sarflab o`tkazarkanlar deya; so`zlab otdilar -Xondamir Qodiriy.

Shu o`rinda Yana bir haqiqatni aytib o`tishni joiz deb bilamiz maqolamizni boshlarida eslaganimizdek, Abdulla Qodiriy hech qachon yozgan asari orqasidan keladigan mablag`ga qiziqmagan. Tirikchik manbai esa o`z qo`l kuchi bilan mehnat qiladigan bog`i orqasidan bo`lgan bu borada ham, Habibulla Qodiriy juda chiroyli bir hotira yozadilar.. "..Issiq saraton yoz kunlari edi bir kuni peshin choqlarda shiypon ro`parasida tepalik tokzor ichiga ekilgan jo`hori, mosh, loviyalarni Dadam bilan chopiq qilish bilan band edik ittifoqo Jurnalist Ismoil Obidov qo`lida eski qora charm portfelda darvozadan asta kirib keldi va Dadamning yuqorida ekanliklarini bilib to`g`ri ish joyimizga chiqib to`htadi ko`rishib xorma, bor bo`l qilishdi hol ahvol so`rashib oralarida tahminan shunday qisqacha suhbat bo`lib o`tdi.. – kechirasiz- dedilar Dadam ishda davom qilib, ozgina qoldi bitirib quyay so`ng uyga tushamizda nami issiqda darrov qochadi, chopiq qiyinlashadi.
Ishlayver, ishlayver ishim zarur emas dedi; I.Obidov Dadamning tezkor shaxt ishiga qarab turdida achingan ohangda dedi:
-Men senga hayronman Abdulla !
-Xo`sh nega dedilar Dadam ishida davom etib
-Sen o`zing kimsan, yozuvchimi? Dehqonmi?
Dadam kuldilar: -unisi ham, bunisi ham
-Yo`q sen kulma dedi u jiddiy –o`zing yozuvchi bo`sang …og`ir mehnat qilish senga

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

nechun kerak? Dadam yana kuldilar:
-Oilani boqish uchun..
–Oilani yozuvchilikdan boqib bo`lmaydimi?
-Bo`ladi –dedilar dadam horg`in ohangda va ishidan to`htab ketmon dastasiga suyanib jiddiylashdilar, aytingchi Ismoil Obiy yozganlarim sizga yoqadimi ?
-Ha juda yoqadi
-Ko`rdingizmi axir ketmon bilan mehnat qilib oila boqmaganimda , yozganlarimni sevib o`qimas edingiz..ya`ni pul topish niyatida qilingan yozuvchilikda va umuman biror manfaat bilan o`lchanadigan sa`natda sifat bo`lmaydi.

Albatta bu so`z bilan men hammani og`ir og`ir mehnatga chaqirmoqchi emasman. Biroq , o`zim yoshlikdan bunga o`rganganman. Og`ir mehnat menga aslo halal bermaydi aksincha jisman ruhan o`zimni sog`lom tetik sezaman degan hotiralarida yozgan edi…..H.Qodiriy "Darhaqiqat, Yozuvchining Donishmandona aytgan so`zlari bugungacha o`z qadrini yo`qotgani yo`q o`sha so`zlariga o`rni kelganda kichik mulohazalarimizni qo`shmoqchimiz.

Darhaqiqat , yozuvchining yuqoridagi donishbanoma aytgan so'zlari bugungacha o'z qadrini yo'qotgani yo'q.O'sha so'zlariga o'rni kelganda kichik mulohazalarimizni qo'shmoqchimiz.Yuqoridagi Qodiriy aytganlaridek biror manfaat bilan o'lchanadigan ijodiy ishda sifat bo'lmaydi ming afsuski , bugungi kunlarimizda bir ikki marta ekranlarda yoki matbuotda ko'rinib o'zlaridan qo'shtirnoq ichida "yuldu"yasab olgan "ijofkorlarimiz" ming mazza matrasiz bachkana kino, sahna asari kabi manfaat yo'lida yaratgan " ijod namunalarini" ko'rganingda atoqli adibimizning qanchalar to'g'ri fikrlarini aytganiga imkon keltirasan kishi .. Abdulla Qodiriy yaratgan har bir asarini ko'ngil ehtiyojidan kelib chiqgan holda yaratganlar . Moddiy tomonini o'ylab ham ko'rmagan, balki shuning uchun ham adibimiz yozgan asarlarbasrlar osha o'z qadrini yo'qotmay o'quvchilari sonini ko'paytirib borayotganligining sababi bo'lsa ajab emas.

Abdulla Qodiriy hazratlarining jismoniy mehnatga haddan ziyod o'ch ekanligini shu mavzuda yozgan asarlarini sanaydigan , esliydigan tahlil qiladigan bo'lsak bir kitobga tartib berishimizga to'g'ri keladi, shuning uchun ularni topib o'qishni hurmatli kitobxonlarga havola etamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** "Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida" to`plab nashrga tayyorlovchi X. Qodiriy- Toshkent G`.G`ulom Nomidagi adabiyot va sa`nat nashriyoti 1986-yil

**2.** Abdulla Qodiriy 5 jildlik asarlar to`lami 3-jild "Obid ketmon" qissa kolxoz xayotidan Toshkent 2018 –yil "Info capital group" nashriyoti

**3.** Abdulla Qodiriy 5 jildlik asarlar to`lami 5-jild "Otam Xaqida" (X.Qodiriy xotiralar) Toshkent 2018 –yil "Info capital group" nashriyoti

**4** Abdulla Qodiriy kichik asarlar to`plab nashrga tayyorlovchi X. Qodiriy, SH. Turdiyev Toshkent G`.G`ulom Nomidagi adabiyot va sa`nat nashriyoti 1969-yil

**5 Sobir Mirvaliyev** Abdulla Qodiriy kashfiyoti Toshkent "Mashhur press" nashriyoti 2018-yil

**Muhammadali YARASHOV,**

**Respublika yosh olimlar kengashi a`zosi,**

**Toshkent davlat agrar universiteti talabasi, matbuot va media bo`limi yetakchisi ,**

**Urgut tumani "Murodqishloq" MFY yoshlar yetakchisi.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM SOHASIDA ONA TILI VA ADABIYOT TA'LIMINING MAQSADI VA VAZIFALARI, O'QUVCHILARNING TAYYORGARLIK DARAJASIGA QO'YILADIGAN ZARURIY MINIMAL TALABLAR

**Roza Gafurovna Ostonova**

Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 193- sonli IDUMning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ta'limning barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishdan iboratdir.Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil etish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar.

Ona tili kommunikativ kompetentsiyasi – ona tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyati.

Kompetentsiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Lingvistik kompetentsiya -til sathlari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish) egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetentsiya -so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda vositalarini tanlash imkonini yaratadi.

Pragmatik kompetentsiya - kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib

keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi.

O'quvchining mustaqil fikrlashi, o'zgalar fikrini anglashi, nutq va muloqot madaniyati rivojlanishi uchun ona tili ta'limi standart talablariga javob berishi, ona tilini kommunikativ va lingvistik kompetentsiyasi bo'yicha etarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

Shu maqsadda ushbu o'quv fanining asosiy mazmunida quyidagi talablar ko'zda tutiladi:

1. Ona tilidan muloqot malakasini egallash (kommunikativ kompetentsiya).

2. Til materiali va vositalarini nutqda qo'llay bilish uchun etarli bilimlarni

o'zlashtirish (grammatik kompetentsiya).

Ushbu mazmun asosan kommunikativ kompetentsiyani egallash orqali ona tilini o'rgatishning umumta'limiy maqsadini ko'zda tutadi.

Kommunikativ kompetentsiya.

Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy uch turi: o'qish, gapirish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan bilim va ko'nikmalar me'yorini belgilab beradi. Bunda o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olishi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasi, fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olishi, tilning ifoda vositalaridan o'rinli va unumli foydalana bilishi, imloviy savodxonligi kabi kompetentsiyalarni egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

2. Grammatik kompetentsiya.

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ma'lumotlar berish, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o'zlashtirish, muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarni yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr mulohazasini shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

Ona tili ta'limi mazmuni yuqoridagi ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va 1-4-, 5-9-sinflar hamda akademik litsey va kasb-hunar kolleji DTS larining har birida o'zining ifodasini topadi. Ona tili uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim maktabgacha ta'limdan keyingi bosqich sanaladi.

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari, muhimi, umumdidaktik hamda o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi, xususan maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida, muloqot va munosabatning hamma turlarida ona tilidan erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur.

Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining majburiy ta'lim bitiruvchilarga qo'yiladigan majburiy minimal talablar

Bilishi kerak bo'lgan:

Grammatik bilimlar: Fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bog'lanishli nutq, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar, ularning muhim belgilari, tushunchalar bilan bog'liq grammatik atamalarni bilish.

Nutqiy kompetentsiya. O'qish - harflarni to'g'ri talaffuzi, so'zlarni to'g'ri o'qilishi, gap ohangi, gapdagi tinish belgilarining talaffuzi, sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri

foydalanish, so'z urg'ulari, murakkab tipdagi ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuzi, mumtoz adabiyot namunalarini, so'z, ibora va atamalarni to'g'ri talaffuzi, ma'nosini anglash.

Fikrni og'zaki bayon qilish- og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi, monologik nutq, dialogik nutq mantiqiy jihatning aniq bo'lishi, matn mazmunining mos bo'lishi.

Fikrni yozma shaklda bayon qilish- matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish, husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish, so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash, tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish, matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va ma'nodoshlarini qo'llay olish, matnda xatboshilarining yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash, uyadosh so'zlardan foydalana olish, diktant, bayon, insho, maqola, ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, tushuntirish xati, tilxat, ariza, ma'lumotnoma, hisobot, ishonch xati, axborot) ni yozish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf tanlash, xatboshini to'g'ri belgilash, til birliklarini fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik, tahlil qilish.

Adabiy ta'lim o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Majburiy ta'lim tizimidagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qusur haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilar og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojida muhim omil vazifasini ado etadi.

Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining bitiruvchilariga qo'yiladigan majburiy minimal talablar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Bilishi kerak bo'lgan:

Tushunchalar: Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati, badiiy so'z qudrati, so'zning ifoda imkoniyatlari, so'z orqali inson ruhiy olami, his-tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi, adabiyot va ma'rifat, adabiyot va ma'naviyat, adabiyot va tarbiya, xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti namunalari va ularning ijodkorlari, adabiy tur va janrlar haqida umumiy bilimga ega bo'lish.

Adabiy –nazariy bilimlar: xalq og'zaki ijodi: maqol, topishmoq, tez aytish, ertak, rivoyat, hikoyat, masal, lof, latifa, afsona, xalq qo'shiqlari, doston va uning turlariga xos qonun-qoidalar; epik tur va uning janrlari: hikoya, qissa, romanga xos nazariy tushunchalar; lirik tur va uning janrlari: she'r, ruboiy, qit'a, g'azal, tuyuq, muxammas, masnaviy va boshqalarga xos qonun-qoidalar; dramatik tur va uning janrlari: drama, komediya, tragediyaga xos nazariy tushunchalar; syujet, kompozitsiya, obraz, prototip, badiiy asar tili, ijodiy metod, uslub, she'riy san'atlar va ularga oid nazariy qoidalar.

Adabiy jarayonlar: adabiyot so'z san'ati ekanligini, o'zbek adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, mumtoz sharq adabiyoti, zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti, adabiy-badiiy asarlar mazmuni, g'oyasi va muammosi, ijodkorlarning hayoti va ijodi, asosiy va ikkinchi darajali voqealar, asar qahramonlarini tavsiflash, o'zaro qiyoslash, matnning tezis va rejalari, muallif nuqtai nazari, asarga nisbatan o'z nuqtai nazarini asoslash, adabiyot tarixining asosiy tamoyillari, adabiy qahramonlarning ma'naviy olami, jahon adabiyoti, o'zbek adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni, roman janri, badiiy asarda milliy ruh ifodasi, ruhiy tahlil, adabiyotdagi komil inson tasviri, tashxis, musammat, lirik qahramon obrazi, tragik obrazlar va hayot haqiqati, so'z san'atining obrazliligi, tarixiy-adabiy jarayonga xos asosiy qonuniyatlar, adabiy tur va janrlar, muayyan bir badiiy asarning turi va janri, asar badiiyatiga xos xususiyatlar.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.

2.Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.

3.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.

4.Azizxo'jaeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.

5.Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. – T.: Sharq, 1998.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURINI TATBIQ ETISH

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi
300-IDUM boshlangich sinf o'qituvchisi
Asadova Munira Yerdanovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Milliy o'quv dasturini tatbiq etish haqida keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy o'quv dasturi, mustaqil faoliyat, variativ o'quv dasturlari, kontekst, madaniy savodxonlik, Singapur modeli.

**Annotation:** this article provides information on the implementation of the National Curriculum in Primary Education

**Keywords:** national curriculum, independent activity, variable curricula, context, cultural, literacy, Singapore model.

**Аннотация:** в этой статье представлена информация о реализации Национальной учебной программы в начальном образованиию

**Ключевые слова:** национальный учебный план, самостоятельная деятельностьб вариативный учебный план, контекст, культурная грамотность, сингапурская модель.

**"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qachon bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".**

**Sh.M.Mirziyoyev**

Bugungi davr dunyo ta'limi oldiga ham katta vazifalarni qo'ymoqda. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan.

Bugungi kunda respublikamiz maktablarida Milliy o'quv dasturi bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi milliy o'quv dasturi avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? Ushbu savolga Respublika ta'lim markazi direktori Shuhrat Sattorov AOKA press-xolida o'tgan brifingda javob qaytardi:

- Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan.

- Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya 50% amaliyotdan iborat bo'ladi va o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

- O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi.

- Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi.

- Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi.

O'zbekistonda maktab ta'lim sifatini yaxshilash uchun Milliy o'quv dasturi tomonidan qo'shilgan hissa sezilarli darajada, masalan:

-o'quv dasturini keng isloh qilish uchun kelishilgan yaxlit hujjat loyihasini taqdim etadi;

-o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

-o'qituvchilar uchun kuchli pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quv natijalari va o'quv dasturlarining mazmuni har ikkala o'quvchining va o'qituvchilarning qiziqishini ta'minlashi uchun ishlab chiqilgan bo'lib, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ishtiyoqini uyg'otadi;

-haqiqatdan ham "vakolatga asoslangan" modelni rag'batlantiradi;
-o'qituvchilar doimiy ravishda osongina baholanadigan aniq tuzilgan, o'lchanadigan vakolatlar bilan ishlashda o'quvchilarning ishonchini va ko'nikmalarini shakllantiradigan amaliy yondashuvlardan foydalangan holda sezilarli taraqqiyotga hissa qo'shishi mumkin;
-darslarni rejalashtirish va o'tkazish uchun baholashdan foydalanadigan va tabaqalashtirilgan mazmun o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondira oladigan o'quv va o'qitish uslubini rag'batlantiradi. Pedagogikaga yondashuvning bu o'zgarishi vakolatga asoslangan o'quv dasturini samarali amalga oshirishning kalitidir;
- barcha fan yo'nalishlari bo'yicha yuqori ilmiy darajani qo'llab-quvvatlaydi. Milliy o'quv dasturi asosan O'rta ta'limning Xalqaro Umumiy Sertifikati (IGCSE) va A-Darajasi bilan mos keladi va agar yangi o'quv dasturi ingliz tilida o'qitilsa va xalqaro malakalar qabul qilingan bo'lsa maktab bitiruvchilari yetakchi xalqaro universitetlarda (shu qatori Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi o'quv muassasalarda) o'qishni davom ettirishi mumkin;
-xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotga ko'proq mos kelish uchun xalqaro eng yaxshi amaliyot va innovatsion ta'lim islohotlaridan foydalanadi;
-muhim manbalardan foydalangan holda tayyorlangan, dalillarga asoslangan o'quv materiallariga kirishni ta'minlaydi;
-sezilarli darajada kuchli javobgarlikni o'rnatadi;
-O'zbekiston o'zining ta'lim natijalarini yetakchi xalqaro taqqoslovchilar bilan taqqoslashini ta'minlaydi;
-o'quv dasturini isloh qilish jarayoni ham tizimli, ham o'lchovli bo'lishini ta'minlash uchun amalga oshirish uchun batafsil yo'l xaritalarini o'z ichiga oladi.
Xalqaro baholash taqqoslashlarida yutuqlarni yaxshilash bo'yicha milliy kun tartibini hisobga olgan holda (masalan, PISA / TIMSS va boshqalar), yutuqlar va taraqqiyot darajasi sezilarli darajada yaxshilanishi muhimdir. Taklif etilayotgan Milliy o'quv dasturi standartlari akademik ko'rsatkichlarni barcha fan sohalari bo'yicha avvalgi standartlarga qaraganda ancha yuqori darajada ushlab turadi va dunyoning yetakchi ta'lim tizimlariga mos

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

keladi. Milliy o'quv dasturi yuqori koʻrsatkichlarni doimiy ravishda qoʻllab-quvvatlagan Singapur kontekstiga katta e'tibor qaratadi.

Ushbu model boshqa joylarda amalga oshirilgan jiddiy ishlarni davom ettirish imkoniyatini beradi. Bu harakatlarning takrorlanishiga yoʻl qoʻymaydi, shuningdek, Oʻzbekiston sharoitiga moslashuvchan koʻp manbali yondoshuvga imkon beradi. Biron bir kontekstda har qanday yondashuvning muvafaqiyati boshqasida muvafaqiyatni kafolatlamasa ham, ushbu model muhim manbalar bilan ishlab chiqilgan dalillarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini beradi

Ushbu model Oʻzbekistonga Singapur va Amerika Qoʻshma Shtatlari tajribasi asosida yaxshi moliyalashtirilgan va sinchkovlik bilan kuzatiladigan ta'lim yondashuvlaridan foydalanishga imkon beradi, bu esa Oʻzbekistondagi yangi modelni yaratish noldan kelib chiqadigan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Ba'zi fan sohalarida bu sezilarli moslashishni talab qilishi mumkin ammo bu asosan kontekstdan mustaqil boʻlgan tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) kabi fanlarda unchalik sezilmaydi. Milliy o'quv dasturi doimiy ravishda dunyodagi eng samarali ta'lim tizimlaridan biri boʻlgan Singapur ta'lim tizimi saboqlariga asoslangan. Koʻpgina mamlakatlar, shu jumladan Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil va Kanada, standartlarni, xususan, STEAMni oshirish uchun Singapur modelini qoʻlladilar.

Madaniy savodxonlikni xaritalash metodikasi Oʻzbekistondagi muayyan fanlarning oʻquv dasturlari mazmuni va tegishli standartlarni aniqlash uchun taklif etiladi. Madaniy savodxonlik ma'lum bir madaniyatni anglash va unda erkin qatnashish qobiliyatini anglatadi.

Milliy o'quv dasturi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lsada, maktablarda baholash yuqori darajada olib borilmasa, uning samaradorligi sezilarli darajada pasayishi mumkin. Agar oʻqituvchilar ishni yuqori darajada baholasa, o'quvchilar tashqi imtihonlarda muvaffaqiyatsiz boʻlishlari mumkin; Agar oʻqituvchilar ishni oʻta murakkab standart asosida baholasalar, oʻquvchilar qiyin ahvolga tushib qolishlari mumkin; Agar oʻqituvchilar baholari bemantiq boʻlsa, bu ichki baholash ma'lumotlarini va maktab, mintaqa va mamlakat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

darajasidagi aralashuvlarni sezilarli darajada buzishi mumkin. Ushbu xatarlarni bartaraf etish uchun nisbatan past narxlarda amalga oshiriladigan taqqoslash vositalari tavsiya etiladi. Sinov modellari o'qitish metodikasi va o'quv dasturining mazmuniga ta'sir qiladi, shuning uchun Moo'quv dasturi va ta'lim standartlarini ishlab chiqishni yakunlash uchun ushbu masalani hal qilish kerak. PISA, TIMSS, PIRLS kabi yirik namunalarga asoslangan xalqaro baholash, avvalambor, o'quvchilar faoliyatini boshqa ta'lim tizimlari bilan taqqoslashga qaratilgan. Ushbu baholashlar, hisobot berish uchun foydali vositalar bo'lishiga qaramay, har tomonlama baholash vositasi yoki sinf amaliyoti bilan aloqa qilishning bevosita vositasi sifatida foydalanishga mo'ljallanmagan.

Yangi darsliklarni ishlab chiqish yuqori darajada mahalliylashtirilgan kontentni yaratishga imkon berishi mumkin bo'lsa-da, u past sifatli kontentga, xarajatlarning ko'payishiga va tender, shartnomalar tuzish, shartnomalarni boshqarish va hokazolarga tegishli muvofiqlik muammolariga olib kelishi mumkin. Ushbu muammolar, vaqt cheklangan bo'lsa, sinov paytida ayniqsa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuv bilan maktablarda foydalanish uchun "kartografik" manbani ishlab chiqish mumkin. Unda hal qilinishi kerak bo'lgan turli xil vakolatlar haqida umumiy ma'lumot beriladi va keyinchalik ular bir qator manbalardan olingan oldindan qo'llanilgan darsliklarda aniq tarkib bilan bog'lanadi. Bu potentsial ravishda tejashni ta'minlashi va tasdiqlangan manbalardan foydalanishi mumkin, ammo, shubhasiz, avvalgi modelga qaraganda kamroq "mahalliylashtirilgan" bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogdan juda ko'p kasbiy va insoniylik xislatlari talab etiladi. Masalan, bugungi kunda Milliy o'quv dasturi asosida 1-2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda eng samarali interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkillashi, oz vaqtda ko'p natijaga erishish usullaridan foydalanishi, o'quvchilarini darsga qiziqtira olishi, dars jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olishi va o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash talab qilinadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz va muttasil ishlashi, o'zini isloh etib borishi, bilimi va xulqini doimiy takomillashtirib borishi zarur. Zero, mamlakatimizda o'qituvchilarga yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Prezidentimizning “O‘zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e’zozli inson — bu muallim!” yoki “O‘qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!”23, deb ta’kidlab turganligining o‘zi biz pedagoglarga katta kuch-quvvat bag‘ishlashi kerak, deb o‘ylayman.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 1-oktabr O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlagan tantanali marosimdagi nutqi. 2021 yil 1 oktabr.

2. Yangi milliy o’quv dasturi avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? AOKA press-xolida o‘tgan brifing. 2020-yil.

3. Recommendation to National Curriculum Framework Uzb. Milliy o’quv dasturi haqida ma’lumotlar majmuasi.

4. G‘afforova T Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.

5. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.

6. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2009.

7. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.

8. Internet ma’lumotlari: www. ziyonet.uz

9. www.pedagog.uz

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK MASHQLARNING O'RNI

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi
300- IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Nazarova Qunduz Sherqobilovna

**ANNOTATSIYA:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik mashqlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar**: Grammatik mashqlar, lingvistik mashqlar**,** malakali kadr, ta'lim usullari, mashqlar tizimi.

**АННОТАЦИЯ: в** этой статье обсуждается важность лингвистических упражнений на уроках родного языка в начальной школе.

**Ключевые слова:** грамматические упражнения лингвистические упражнения, квалифицированный персонал, методика обучения, система упражнений.

**ANNOTATION:** this article discusses the importance og linguistic exercises in elementary school mother tongue lessons.

**Keywords:** grammar exercises, linguistic exercises, qualified personnel, teaching methods, exercise system.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev – "Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"– deb ta'kidlaydilar.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tarbiya, tabiiy fanlar darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslarida o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq "dars" degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarda so'z va gapga lingvistik munosabat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, mavhum tafakkurni o'stirish jarayonida shakllantiriladi va tilning semantik hamda grammatik tomonining bir-biriga ta'sirini anglashni bildiradi.

O'quvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari bo'lgan so'z, morfema, so'z birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli o'zlashtiradilar. So'zga lingvistik munosabat so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni o'rtasidagi bog'lanishini aniqlash, so'zni morfemik tahlil qilish va so'zga leksik ma'no berishda morfemaning o'rnini tushunish; so'zni grammatik tahlil qilish va shu so'zning muayyan so'z turkumiga oid ekani bilan uning grammatik belgilari o'zaro bog'liqligini tushunish ko'nikmasining shakllanishiga qarab o'sib boradi.

Lingvistik munosabat o'quvchilarda asta-sekin shakllantirib boriladi, ularda bilish, tushunib olish saviyasi ham har xil bo'lishi mumkin. Masalan, II sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmalarini topadilar, ammo u so'z birikmasidagi so'zlar o'zaro qanday, ya'ni nimalar yordamida bog'langanini tushuntira olmaydilar. IV sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmasini topadilar va so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar (kelishik, shaxs-son qo'shimchalari) yoki ohang yordamida bog'langanini tushuntiradilar, ya'ni bog'lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko'rsatadilar. Bu so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish mohiyatini elementar darajada tushunish bo'lib, uni yuqori sinflarda chuqurroq (so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish turlari, bosh va ergash so'zning xususiyatlarini) tushunadilar.

O'qituvchi o'quvchilarda so'zga, so'z birikmasi va gapga lingvistik munosabatni ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq o'stirib boradi, xususan, o'rganiladigan kategoriyani o'quvchi tushunib olishiga g'amxo'rlik qiladi.

Bugungi kunda til ta'limini lingvistik mashqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ulardan ona tili o'qitishning hamma bo'g'inlarida, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READPUB.UZ

foydalaniladi. Garchand, lingvistik mashqlarning qo'llanish doirasi keng bo'lsada, haligacha ularning hamma e'tirof etgan ta'rifi, tarkibiy qismlari, tiplari va tizimi xususida aniq tasavvurlar mavjud emas. Lingvistik mashqlar o'quvchilarda irodani tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Iroda, psixologlarning ta'biri bilan aytganda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z faoliyatini ongli tashkil etish, faoliyat jarayonida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish vositalarini, usullarini izlashni taqozo etadi. O'z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o'tkazish yo'li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi masalasi haligacha o'rganilgan emas. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko'nikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatik mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatika sohasiga tegishli bo'lganligi bois cheklangandir. Binobarin, uning istilohi o'rnida «lingvistik mashq» istilohini ishlatish ma'quldir. Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda o'qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o'tkaziladi. U ongli hayotning alohida soniyalari, hayotning o'zi demakdir.

Mashqlar tizimi tushunchani o'zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o'quvchilar mustaqilligi o'sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko'zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o'zaro bog'lanishiga asoslangan. Lingvistik mashqlar turli asosga ko'ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil bo'ladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, lingvistik mashqlar ikki katta guruhga bo'linadi:

1) *morfologik mashqlar* (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi);

2) sintaktik mashqlar.

Agar o'quvchilar faoliyatining xarakteri, ya'ni mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo'linadi.

Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra *sintaktik mashq*, faoliyat xarakteriga ko'ra *sintetik-analitik mashq* hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam ko'llaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu *leksik-morfologik mashq*dir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlash uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (so'z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko'ra bu mashq *sintaktik mashq* hisoblanadi.

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so'z turkumiga ko'ra (morfologik) tahlilni, gap bo'laklariga ko'ra (sintaktik) tahlilni o'z ichiga oladi.

Gap bo'laklariga ko'ra tahlil o'quvchilar o'zlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga ko'ra, I sinf o'quvchilari "ega" va "kesim" atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh bo'laklarini amaliy ravishda topish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, ya'ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'z (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan so'z(kesim)ni topadilar. Masalan, *Bolalar olmalarni terdilar* gapini tahlil qilishda o'quvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: "Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? – *bolalar* (so'zning tagiga bitta to'g'ri chiziq chizadilar). *Bolalar* – nima qildilar? – *terdilar* (so'zning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar). *Bolalar terdilar* – gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) – *olmalarni*".

II sinfda I sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Masalan, II sinf o'quvchisi *"Chiroyli gullar adirlarni bezadi"* gapini quyidagicha tahlil qiladi:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READPUB.UZ

“Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? – *gullar* – ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? *Ochildi* – nima qildi? – kesim (tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadi). Qayerlarni? (bezadi) – *adirlarni* – ikkinchi darajali bo'lak, gapni to'ldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) – *chiroyli* (gullar) ikkinchi darajali bo'lak, egani izohlayapti. *Gullar bezadi* – gapning asosi. *Chiroyli gullar* va *adirlarni bezadi* – so'z birikmasi”.

III-IV sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan o'zgarmaydi, ammo so'z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'qituvchilar o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy yondosha olishi kerak. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida lingvistik mashqlarni bajarish jarayonida ham noan'anaviy usullarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlagan tantanali marosimdagi nutqi. 2021 yil 1 oktabr.

2. N.Shayxislamov Gender tilshunosligining fundamental nazariy asoslari va gender masalalari. “ONA TILI DARSLARIDA FILOLOGIK MASHQLARNING TUTGAN O'RNI” 144-146-betlar.

3. Yulchiyeva. Z. “Ta'lim fidoiylari” 434-436-betlar 2022-yil “BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH” 434-436-betlar 2022-yil

4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.

Toshkent "O'qituvchi" 2004.

5. Avliyakulov N.X., Namozova N.J. Muammoli o'qitish texnologiyalari. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 80 b.

6. G'afforova T Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.

7. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.

8. Internet ma'lumotlari: www. ziyonet.uz

9. www.pedagog.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TASVIRIY SAN'AT FANING O'QUVCHILARNI ESTETIK JIHATDAN TARBIYALASHDAGI O'RNI

**Rasm chizmoq – fikr yuritmoq demakdir.**
**P.P.Chistyakov**



**Toshkent viloyati Bo'ka tumani**

**2-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**Tasviriy san'at o'qituvchisi**

**Ibroximova Gulchehra Xaytqulova**

**Annotatsiya**: Maqolada o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy san'at faning va o'qituvchining o'rni, maktabda o'qitiladigan tas'viriy san'at o'quv fanining maqsad-vazifasi - mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari, tasviriy san'at o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda, fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stirishi haqida fikrlar berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar**: Estetik, ijodiy tasavvur, badiiy did, estetik hissiyot, badiiy tarbiya, ma'naviy zavq, ijodiy tafakkur, rang birikmalari, klassifikatsiyalash, ko'z xotirasi, realistik rasm, dizayn, badiiy bezash.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Бокинский район, Ташкентская область**

**2-я общеобразовательная школа**

**Учитель рисования**

**Иброхимова Гульчехра Хайткулова**

**Аннотация:** В статье роль изобразительного искусствознания и педагога в эстетическом воспитании учащихся, цель и задача преподаваемого в школе предмета изобразительного искусства - виды по содержанию и сущности, изобразительное искусство. о развитии у учащихся духовного мировоззрения, мировоззренческих убеждений, мыслительных способностей, зрительной памяти, творческого воображения, художественного вкуса, эстетического чувства.

**Ключевые слова**: Эстетика, творческое воображение, художественный вкус, эстетическое чувство, художественное воспитание, духовное наслаждение, творческое мышление, цветовые сочетания, классификация, зрительная память, реалистическая живопись, замысел, художественное оформление.

**Boka district, Tashkent region**

**2nd general secondary school**

**Art teacher**

**Ibrokhimova Gulchehra Khaitkulova**

**Abstract:** In the article, the role of the visual art science and the teacher in the aesthetic education of students, the purpose and task of the visual art subject taught at school - types according to the content and essence, visual art It is given ideas about the development of students' spiritual outlook, ideological belief, thinking ability, visual memory, creative imagination, artistic taste, and aesthetic feeling.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Key words**: Aesthetics, creative imagination, artistic taste, aesthetic feeling, artistic education, spiritual pleasure, creative thinking, color combinations, classification, eye memory, realistic painting, design, artistic decoration.

**Reja:**

**I.Kirish.**

**II.Asosiy qism.**

1.Tasviriy san'at faning o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashdagi o'rni

2. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirish
3. Tasviriy san'at darslarida didaktik prinsiplardan foydalanish yo'llari
**III.Xulosa**

**Kirish.**

**Tasviriy san'at** - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni ob'yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretliligidan illyuzionizmga. o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy kiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzuumidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.



Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qad. tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READANDPUB.UZ

libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marxumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida Tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gor devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'yxayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan (qarang Ibtidoiy san'at).

Ijtimoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi Tasviriy san'at rivojida muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at inson faoliyatining ma'lum sohasiga aylanib davr ruhiyati, uning siyosiy, ma'naviy va nihoyat estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylandi. Qad. Sharq mamlakatlarida, jumladan Qad. Misrda Tasviriy san'at insonning dunyo, borliq to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko'tarilgan fir'avnlarni ulug'lash quroliga aylandi. Yunonistonda Tasviriy san'at jamiyatning erkin fuqarosiga qaratilgan va antik mifologiyaning g'oyalarini plastik moddiylashtirilgan ko'rinishida kamol topdi, Qad. Rim realizmida murakkab inson jismi namoyon bo'ddi.

Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan hisoblangan O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi O'zbekiston hududida ham Tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, Sug'd, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir.

O'rta asrlar Tasviriy san'ati uslub jihatidan rangbarang, turlari keng va xilmaxil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston, Indoneziya, HindiXitoy o'lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O'rta Sharq mamlakatlarida miniatyuraning o'ziga xos turi yaratilgan bo'lsa, O'rta asr Yevropa madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e'tiqod va dunyoqarashlar zaminida o'ziga xos yo'nalish va, mazmun kashf etdi, ikona san'ati ravnaq topdi. Roman uslubi va gotikaaa barpo etilgan me'moriy obidalarda san'atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi.

13—16-asrlar Tasviriy san'atida dunyoviy mavzu va qarashlarning kuchayib borishi tasvirlarda borlikda mavjud shakl va ko'rinishlarning ortishi bilan belgilanadi. Shu harakat va taraqqiyotda Tasviriy san'atning qonunqoidalarini ilmiy asosda o'rganishga qiziqish ortdi. Optika, anatomiya, perspektiva, nursoya nazariyasiga oid muhim tadqiqotlar qilindi. Moybo'yoq texnikasi mukammallashdi, ijodkorlar antik san'at an'analariga tayangan holda Uyg'onish davri insonparvarlik g'oyalarini moddiylashtirishga harakat qildilar.

17—19-asrlarda Tasviriy san'at uslub jihatidan rangbarang, milliy mahalliy maktablar rivoji bilan san'at olamining kengayishi boshlandi. Bu davrda, ayniqsa, monumental san'at o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi, rassomlar, me'morlar, haykaltaroshlar, hunarmandlar san'atlar sintezining ajoyib namunalarini yaratdilar. Bu yutuklarda rassom va haykaltaroshlarning o'rni aloxdda. Tasviriy san'at tur va janrlari ko'paydi, realistik yo'nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyurmort, maishiy janr) yetakchi o'ringa chiqa

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

boshladi. Uygʻonish davri Tasviriy san’atiga xos boʻlgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibligi oʻrnini joʻshqin shakl va ranglar oʻyini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. 17-asrdan Tasviriy san’atda klassitsizm yoʻnalishi hukm surgani holda borliqni oʻziga oʻxshash shakllarda aks ettiruvchi asarlar yaratilishi ortib bordi. Akademik ta’lim tizimining yoʻlga qoʻyilishi professor san’at maktablarining taraqqiyotini ta’minladi. Mumtoz (klassik) realistik (akademik) san’at uslublaridan chekinish, noan’anaviy uslublar izlashga intilish boshlandi. Bu hol impressionizm, postimpressionizm va boshqa uslublarning shakllanishi va rivojlanishida oʻz ifodasini topdi.

20-asr Tasviriy san’ati murakkab va ziddiyatli. Bir tomonda klassik realistik san’atning talab va uslublari saklangani holda uni ifodaviyligiga e’tibor qaratilishida, ishlangan har bir obrazni chuqur majoziy mazmunlar bilan toʻldirishga intilish kuzatilsa, aksincha noan’anaviy Tasviriy san’at uslubida yangi ifoda va tasvir vositalarini topishga, butunlay yangicha san’at yaratishga intilish xarakati kuchliligi namoyon boʻlmoqda.

Oʻzbekiston Tasviriy san’at i jahon hamjamiyatida sodir boʻlayotgan jarayonlar bilan hamnafas boʻlib, gʻar bir ijodkor oʻz qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi.

Umumiy ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o'zlashtiradilar, bu esa ularni g'oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, maktabda o'qitiladigan tas'viriy san'at o'quv fanining maqsad-vazifasi - mazmun-mohiyatiga ko'ra:

1. Borliqni idrok etish (1- 4-sinflarda);

2. Badiiy qurish-yasash (1-4-sinflarda);

3. Narsani o'ziga qarab tasvirlash;

4. Kompozitsion faoliyat;

5. San'atshunoslik asoslari (san'atni idrok etish) kabi dars mashg'ulotlar asosida faoliyat ko'rsatadi.



Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, jamiyatdagi go'zalliklarini to'liq idrok etish qobilyatini tarbiyalashdir. Go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyoqarashini boyitadi.

Estetikaning isonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi hisoblanib, mehnatni quvonch va ma'naviy zavq manbaiga aylantirishga yordam beradi.

Estetik tarbiya jarayonida kishilarning qarashlari, his-tuyg'ulari, didi shakllanadi. Bu shakllanish esa g'oyaviy-siyosiy tarbiya bilan, ijodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishnigi na emas, balki ularda go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar go'zallik va nafislikni ko'ra bilishi va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zallikni, shakllarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xayolida saqlanadi. Manzaraning, daraxt shoxlarining, barglarning, gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holatlari, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko'rinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarining 90% dan ortiqrog'ini ko'z orqali oladi. Bu kishilar hayotida ko'zning roli beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'zning imkoniyatlari o'rganishni talab etadi. Maktabda esa ko'z xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirnshda boshqa fanlarga qaraganda tasvirii san'at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tasviriy san'atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi.

Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitilishining pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglik-faollik, ko'rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyligi va yangi o'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi.2

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o'z o'rnida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarda materialistik dunyoqarash shakllantiriladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rganish odamlarga qanday imkoniyatlar yaratishini atroflicha ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarga rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib berish kerak. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobilyatining shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo'llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o'yinchoqlar, o'quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko'pgina soxalarida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Maktabda tasviriy san'atning asosiy amaliy vazifalaridan biri o'quvchilarni real rasm chizish usullari bilan qurollantirishdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga rasm chizish qurollari bilan qanday muomalada bo'lish, to'g'ri va egri chiziqlarni qanday o'tkazish, hajmli buyumlarni tekislikda qanday

tasvirlay olish yo'llarini o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarning ijodiiy qobiliyatlarini o'stirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, o'qituvchi bolalar bilan ishlashning to'g'ri metodikasini ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirish.



Ijodkor shaxsning rivojlanishi, uning badiiy qobiliyatlari san'at fanini o'qitishning maqsad va vazifalari bilan bevosita bog'liq. Umumiy ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o'zlashtiradilar, bu esa ularni g'oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy ` 54 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi. Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, jamiyatdagi go'zalliklarini to'liq idrok etish qobilyatini tarbiyalashdir. Go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyoqarashini boyitadi. Estetikaning isonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi hisoblanib, mehnatni quvonch va ma'naviy zavq manbaiga aylantirishga yordam beradi. Estetik tarbiya jarayonida kishilarning qarashlari, his-tuyg'ulari, didi shakllanadi. Bu shakllanish esa g'oyaviy-siyosiy tarbiya bilan, ijodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishnigina emas, balki ularda go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar go'zallik va nafislikni ko'ra bilishi va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zallikni, shakllarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xayolida saqlanadi. Manzaraning, daraxt shoxlarining, barglarning, gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holatlari, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar. Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning ` 55 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko'rinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarining 90% dan ortiqrog'ini ko'z orqali oladi. Bu kishilar hayotida ko'zning roli beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'zning imkoniyatlari o'rganishni talab etadi. Maktabda esa ko'z xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirnshda boshqa fanlarga qaraganda tasvirii san'at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tasviriy san'atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi. Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitilishining pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketmaketlik, onglik-faollik, ko'rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyligi va yangi o'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o'z o'rnida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarakatrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarda materialistik dunyoqarash shakllantiriladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rganish odamlarga qanday imkoniyatlar yaratishini atroflicha ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarga rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib berish kerak. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobilyatining

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo'llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o'yinchoqlar, o'quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko'pgina soxalarida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Maktabda tasviriy san'atning asosiy amaliy vazifalaridan biri o'quvchilarni real rasm chizish usullari bilan qurollantirishdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga rasm chizish qurollari bilan qanday muomalada bo'lish, to'g'ri va egri chiziqlarni qanday o'tkazish, hajmli buyumlarni tekislikda qanday tasvirlay olish yo'llarini o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarning ijodiiy qobiliyatlarini o'stirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, o'qituvchi bolalar bilan ishlashning to'g'ri metodikasini ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

**Tasviriy san'at darslarida didaktik prinsiplardan foydalanish yo'llari**

Har bir fan o'qituvchisi kabi san'at o'qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o'rganishlarini talab qiladi.

Didaktika (grekcha didasko - o'qitaman) ta'lim va ma'lumot haqidagi fandir. Insonning tarbiyasi rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida ta'lim va ma'lumot muhim ahamiyatga ega. Didaktika fani ta'lim va ma'lumotning muhim muammolarini o'rganish bilan birga «kimni o'qitish kerak», «nimaga o'rgatish kerak», «qanday o'qitish kerak» kabi savollarga ham javob bo'ladi.

Hozirgi davrda ham didaktikaning muhim vazifasi ta'limning mazmunini bir asosiy masala barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratish bo'lib qoldi.

Ko'pgina tasviriy san'at o'qituvchilarning darslarida didaktik o'yinlar zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, didaktik o'yinlar bolaning 1

ko'rish va sezish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Keling tasviriy san'at darslarida didaktik o'yin turlarini ko'rib chiqsak:

1."Teginishni bilish" o'yini.

Didaktik vazifa: ob'yektlarni shakli va rangi orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

O'yin vazifasi: Qanday sabzavot yoki meva ekanligini bilish, xato qilmaslik.

Materiallar: Meva va sabzavotlar to'plami, mato sumkasi.

O'yin harakatlari: Savatda sabzavot va mevalar yotadi. Bolalar o'z navbatida keladi, qo'lini sumkaga tushiradi, mahsulotni sezadi. Bu uning shakli, qattiq yoki yumshoq, uning yuzasi, silliq yoki qo'pol, odatda qanday rang ekanligini va oxir-oqibat u qanday sabzavot yoki meva ekanligini aytishi kerak. Vazifani to'g'ri bajargan kishi meva yoki sabzavot shaklida belgi oladi.



2. "Quvnoq naqsh" o'yini.

Didaktik vazifa: Naqsh va uning elementlari haqidagi tushunchalarni

mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

Materiallar: Sabzavotlar, mevalar, gullar, barglar.

O'yin harakatlari: Har bir jamoa oldida sinf doskasida naqsh yaratish bo'yicha jamoaviy ish uchun toza qog'oz chizig'i biriktirilgan. O'qituvchining buyrug'iga ko'ra, har bir jamoaning birinchi vakillari o'z guruhlariga mos keladigan, naqshning birinchi elementini tanlaydi va biriktiradi. Keyin ikkinchi vakillar, uchinchisi va boshqalar paydo bo'ladi, har bir kishi naqshning bir elementini tanlaydi va biriktiradi, shakli va rangi hisobga olinadi. Talabalar o'yin qoidalarini buzmasdan ishni to'g'ri, chiroyli va tezkor bajaradigan jamoa g'alaba qozonadi.

3. "Mening do'stlarim" o'yini.

Didaktik vazifa: O'zbek xalq ertaklari va qahramonlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

Materiallar: "O'yinchoqlar" dekorativ chizig'i, ertak qahramonlariga asolangan multiplikasiya (applikatsiya).

Darsning vazifalari: Qadimgi o'zbek xalq va zamonaviy ertak qahramonlari va hayvonlarining yaxshi va chiroyli dunyosi haqidagi fikrni chuqurlashtirish.

4. "Sovuq va issiq ranglar" o'yini.

Didaktik vazifa: rang va uning tuslari

haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

O'yin harakatlari: Talabalar ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh qor malikasining tojini bezash uchun ranglarni tanlashi kerak, ikkinchi guruh esa qushning patlarida ranglarni tanlaydi. Har ikki guruh ranglar aralashmasi qanday rang hosilasini topadi. Ranglar hosilasini topgan guruh g'alaba qozonadi.

5. Crossword "kalit so'zni toping" o'yini

Didaktik vazifa: badiiy atamalar zahirasini to'ldirish. O'yin harakatlari: o'zaro faoliyat jumboqni hal qilish va kalit so'zni o'qish. Ularni tuzishda talabalar lug'atlar, turli xil adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Crossword jumboqlarini, testlarni yaratish va hal qilish jarayoni asosiy tushunchalarning mazmunini egallashga yordam beradi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ta'kidlash joizki, so'nggi paytlarda psixologlar, o'qituvchilar, o'yin inson hayotida barcha davrlarini qamrab olishi, bu yosh belgisi emas, balki uning hayotiy faoliyatining muhim shakli ekanligini belgilaydilar.

## XULOSA



Birinchi Prezident I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida tasviriy san'at xaqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "…Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Uyg'onish davri rassomlari "qo'l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytganlar. Ular bu fikrga tajribaga tayanish, bilish va tasvirlash, tabiatni intuitiv tushunish asosida kelganlar. Bugungi kunda tasviriy san'at fani insonning fikrlash faoliyati tabiatini ochib bermoqda. Boshlovchi rassomning inson bosh shaklini tasvirlashi uchun plastik anatomiya yordam beradi. Har gal o'quv topshiriqlarini bajarishida boshlovchi rassom yangilikni bilib oladi, boshqacha o'rganadi, odamlar yuziga professional nazar bilan qaraydi, portretni tasvirlash san'atida yangi ko'nikmalarni egallaydi, boshqacha aytganda turli maqsadlar faol ijodiy faoliyatga kirib keladi. O'quv tasvirini chizishda birinchi asosiy metodik ko'rsatmani pedagog berishi kerak. Keyinchalik esa. rassomning ijodiy faolligi rivojlanib, unda o'z tasvirlash usuli paydo bo'ladi. Bunga esa o'quvchilar tajribali pedagog yordamida erishishlari mumkin, pedagog esa buning uchun umumiy ko'rsatmalardan individual ko'rsatmalarga o'tishi kerak va har bir o'quvchi qobiliyatini hisobga olishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulov S, Tolipov N. "Tasviriy sanat o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulotlar)" Toshkent-2007 yil

2. Abdirasilov S. Boymetov B, Tolipov N. Tasviriy san'at. T.:Cho'lpon, 2006yil

3. Boymetov B, Abdurasulov S. Chizmatasvir. T.: G'.G'ulom - matbuot ijodiy uy. 2004 yil

4. Avliyakulova N.M. "Tasviriy sanat o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. 2021yil

5. Sultonov X. E. "Rangtasvir" (Akvarelda naturmort ishlash, o'quv qo'llanma T.:"VNESHINVESTROM" MChJ, 2019.

6. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi

# TEXNOLOGIYA FANINING ZAMONAVIY O'QITISH VAZIFALARI

Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlang'ich fani o'qituvchisi

Safarova Mavjuda

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada texnologiya darslari haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o'rni va texnologiya darslarida zamonaviy texnikalardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** texnologiya darslarida , texnikalar, ko'nikma, o'quv predmeti, ta'lim muassasalari, umummehnat;

## KIRISH

"Texnologiya" darsligi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'lmang, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida texnika va texnik usullarni tanlashi – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan texnikalar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga , mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

## ASOSIY QISM

Mehnat ta'limining tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilarda mehnatsevarlik, ma'suliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

o'quvchilarning aqlie o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarnirig rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari asosida tarbiyalaydi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanashida yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O'quvchilarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, Grafaproektor yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalarda foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'Iim jarayoniga tadbiq etish muhim ta'limiy ahamiyatga ega.

Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnikalarning qo'llashning asosiy bo'limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to'liq o'rganasiz. Shuni e'tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlarini o'rganayotgan o'quvchilar ham o'rganadilar. Siz mashg'ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko'plab sohalarga oid kasbhunar turlari bilan tanishasiz. Kelajak hayotingizda shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, o'z sohasining mohir ustasi bo'lib yetishasiz. Bu bilan siz jamiyatimiz ravnaqi uchun o'z hissangizni qo'shasiz.

Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so'zining ma'nosini bilish maqsadga muvofiq.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

«Texnologiya» so'zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno» - hunar yoki san'at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida e'tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo'lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman.

Bundan tashqari, o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;
- texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;
- buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;
- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

## XULOSA

Dars o`tish jarayonida ta'lim vositalarida zamonaviy tenikalardan unumli foydalanish, o`tilgan materialni yaxshi eslab qolishga, mustaqil fikrlay oladigan o`quvchining shakllanishiga, ta'lim mazmunini o`zlashtirishga yordam beribgina qolmasdan, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning shakllanishiga, rivojlanishiga yordam beradi. O`z-o`zini baholash o`sadi, muloqotga kirishish ko`nikmasi takomillashadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qollanma. T.; TDPU. 2007-yil.

3.M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2000 y.

4.N.Djamilova va O.U.Xasanboeva "Pedagogika fanlarini o`qitish metodikasi" T., 2009y

5.Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004

# Matematika darslarida didaktik o'yinlar.

-Xolmatova Ozoda Olimovna-

Zarafshon shahar 1- sonli

XTCHO'IDM

matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Uchbu maqolada men darslarimda foydalanadigan ba'zi didaktik matematik o'yinlar haqida gapirmoqchiman, chunki matematika darslarida didaktik o'yin nafaqat o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi, o'ylantiradi, balki bolaning mustaqilligini, tashabbuskorligini va irodasini rivojlantiradi. G'ayratli bolalar dastur materialini osonroq o'zlashtiradilar, muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Shuning uchun matematika darsiga o'yin va o'yin mashqlarining kiritilishi o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, tashabbuskorlik, "Jonli matematika", "Aytmayman", "Kim tezroq, kim aniqroq?!", "O'zingizni sinab ko'ring","Bo'linadi- bo'linmaydi","So'zni to'ping".

Maktabning birinchi yillarida matematika eng qiyin, ba'zi bolalar uchun esa sevilmaydigan fanga aylanadi. Buning sababi, ayrim bolalarda aqliy faoliyatning tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash va farqlash kabi funktsiyalari hali ham etarli darajada rivojlanmagan. Bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun birinchi bosqichlarda ularning o'quv faoliyatiga qiziqishini uyg'otish, ularni o'ziga jalb qilish, faollashtirish kerak. Mavzuga bo'lgan qiziqishni uyg'otishning eng samarali vositalaridan biri didaktik o'yindir.

Darsda o'yin texnikasi va vaziyatlarni amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: didaktik maqsad o'quvchilar oldiga o'yin topshirig'i shaklida qo'yiladi; o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi; o'quv materiali uning vositasi

sifatida ishlatiladi, o'quv faoliyatiga raqobat elementi kiritiladi, bu didaktik vazifani o'yinga aylantiradi; didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijasi bilan bog'liq.

Didaktik o'yinlarning ahamiyati:

- kichik yoshdagi o'quvchilarning kognitiv qiziqishini sezilarli darajada oshiradi;
- dars yorqinroq, hissiy jihatdan to'yingan bo'ladi;
- o'rganish uchun ijobiy motivatsiya shakllanadi;
- ixtiyoriy diqqat rivojlanadi, mehnat qobiliyati oshadi;
- jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish

O'yin texnologiyasining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va roli, o'yin va o'quv elementlarining uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik o'yinlarning funktsiyalari va tasnifini tushunishiga bog'liq.

**Kognitiv faoliyatning tabiatiga ko'ra** didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. bolalar bajarishni talab qiladigan o'yinlar. Ushbu o'yinlar yordamida bolalar modelga muvofiq harakatlarni bajaradilar (raqamli iboralarni o'ylab toping, naqsh qo'ying, shunga o'xshash rasmni chizing)
2. harakat talab qiladigan o'yinlar. Ular hisoblash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ("Matematik baliq ovlash", "Labirint", "Qanday qilib tepaga chiqish kerak", "Oynani to'ldirish", "Kemaning yo'nalishini aniqlash")
3. qidiruv va ijodkorlik elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar ("Diraviy misollar to'plash", "Matematik tırtıl")

**Amaldagi materialning tabiatiga ko'ra** didaktik o'yinlar shartli ravishda ob'ektlar bilan o'yinlar, stol o'yinlari va so'zli o'yinlarga bo'linadi.

**Funktsiyaga ko'ra** didaktik o'yinlar quyidagilarga bo'linadi:

1. tarbiyaviy;
2. nazorat qilish;
3. umumlashtirish.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Agar** o'quvchilar unda qatnashsa, yangi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lsa yoki ularni o'yinga tayyorgarlik jarayonida egallashga majbur bo'lsa, o'yin tarbiyaviy bo'ladi. Bundan tashqari, bilimlarni o'zlashtirish natijasi qanchalik yaxshi bo'lsa, kognitiv faoliyat motivi nafaqat o'yinda, balki matematik materialning mazmunida ham aniqroq namoyon bo'ladi.

O'yin **nazoratdan iborat bo'lib, didaktik maqsadi - ilgari olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash, tekshirish.** Unda ishtirok etish uchun har bir o'quvchi ma'lum matematik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.
**Umumlashtiruvchi** o'yinlar bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. Ular turli xil o'quv vaziyatlarida harakat qilish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan fanlararo aloqalarni o'rnatishga hissa qo'shadilar.

**Ishtirokchilar soniga ko'ra** didaktik o'yinlar: jamoaviy, guruhli va individual bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinlardan darsning alohida bosqichlarida, o'yin momentlari sifatida foydalanish mumkin.

Men didaktik o'yinning ahamiyatini bolalarda qanday reaksiya uyg'otayotganiga qarab emas, balki har bir o'quvchiga nisbatan ta'lim muammosini hal etishda qanchalik samarali yordam berishini hisobga olgan holda aniqlayman.

Dars uchun har qanday didaktik o'yinni tanlashda men quyidagi **savollarni** o'ylayman :

1. O'yinning maqsadi. Uni amalga oshirish jarayonida qanday ko'nikma va malakalar shakllanadi? O'yin davomida qanday tarbiyaviy maqsadlar qo'yiladi?
2. Bu mening sinfimdagi o'quvchilar uchun mumkinmi?
3. O'yinda barcha bolalar teng ishtirok etadimi?

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

4. O'yinni sarhisob qilish.

Darsda didaktik o'yin o'tkazish uchun, agar kerak bo'lsa, men har bir guruhga kuchli va zaif o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni kiritish uchun oldindan guruhlar tuzaman. Har bir guruhga mas'ul shaxsni ajrataman. Qoidaga ko'ra, bu yaxshi o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan yoki guruh ishini tashkil eta oladigan eng uyushgan o'quvchi.

Og'zaki mashqlarni darslarda muhim o'rin tutaman. Bunga barcha o'quvchilarni jalb qilish uchun men signal kartalaridan foydalanaman. Ular o'quvchilarni intizomga solishga yordam beradi va shu bilan birga materialni o'zlashtirish haqida ma'lumot oladi. Ularning yordami bilan siz o'yin shaklida ko'plab og'zaki mashqlarni bajarishingiz mumkin.

Darslarimda quyidagi o'yinlardan foydalanaman.

"Jonli matematika"

Barcha o'quvchilar 0 dan 9 gacha raqamlar bilan kartaga ega. Men misolni o'qidim (9 × 8). 72-raqamli kartaga ega bo'lgan o'quvchi o'rnidan turadi yoki qo'lini ko'taradi.Bo'lish uchun misollar keltirgan ma'qul, chunki javoblarda bir xonali sonlar olinadi. O'yin jismoniy faollikni talab qiladi, shuning uchun uni darsning o'rtasida jismoniy daqiqa o'rniga o'tkazishingiz mumkin.

"Aytmayman"

O'yin shunday qurilgan: bolalar, masalan, bir vaqtning o'zida 20 dan 50 gacha hisoblashadi. Masalan, 6 ga bo'linadigan raqamlar o'rniga ular: "Men aytmayman!" !«. Men bu raqamlarni doskaga yozaman. Yozuv paydo bo'ladi: 24, 30, 36, 42, 48. Keyin, har bir raqamni yozib olgan holda, o'quvchilar misollarni nomlaydilar: 24:6=4, 30:6=5 va hokazo.Ushbu o'yin diqqatni o'zgartirish mexanizmlarini maqsadli shakllantirishga yordam beradi.

"O'zingizni sinab ko'ring"

Men har qanday raqamlarni ko'paytirish natijalari yozilgan kartalarni tayyorlayapman, masalan, 195. Men kartani ko'rsataman va o'quvchilar bunday javob bilan ko'paytirish uchun misol yozadilar.

"Bo'linadi- bo'linmaydi"

Men har xil raqamlarni ko'rsataman va agar raqam qoldiqsiz, masalan, (4) ga bo'linadigan bo'lsa, o'quvchilar qarsak bilan tasdiqlashadi.

"So'zni to'ping"

Doskada o'ng va chap tomonda teng miqdordagi misollar mavjud. Doskaga ikkita jamoa chiqadi. Signalda chaqirilganlarning har biri misollardan birini echadi va tayyorlangan kartalar orasidan misolning javobiga mos keladigan raqamga ega kartani tanlaydi (kartaning orqa tomonida xat yozilgan). Birinchi bo'lib so'zlarni tuzgan jamoa g'alaba qozonadi.

Ushbu o'yinda fanlararo aloqa ham amalga oshiriladi, chunki lug'at so'zlari yoki har qanday qoida uchun so'zlarni tuzish mumkin.

Bular matematika darslarida o'quvchilarning faolligini faollashtiruvchi ish turlarining bir qismidir. Yuqorida tavsiflangan vazifalarni bajarayotganda, bolalar o'ylaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi. Va bu bilimlarni yanada mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

## Qo'llanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.

2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Moliya ” nashriyoti, 2003 y. – 171 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. “Nasaf”, 2000 y.-80 b.

5. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: “Fan”. 2005.

6. Farberman. B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001

7. Dadamirzaev G’. Pedogogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar. Metodik qo'llanma. - Namangan, NamMPI, 2008 yil, 30 bet.

8. www. ziyonet.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

# RELYATIVISTIK DINAMIKA ELEMENTLARI

**Abdiraxmonov Abdig'ani Mavlon o'g'li**

**O'zMU fizika fakulteti fizika yo'nalishi 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada relyativistik dinamika elementlari haqida so`z yuritilib, inersial sanoq sistemasi va nisbiylikning mexanik prinsipi hamda tezliklarni qo'shishning relyativistik qonuni ko`rib chiqilgan.

**Kalit so`zlar**: *sanoq sistemalar, inersial sanoq sistemalari, jism harakati, noinersial, moddiy nuqta, sterjen uchlari, sanoq sistemalari, nisbiy harakatlanish.*

Jismning to'g'ri chiziqli tekis harakati yoki tinch holati nisbiy bo'lib, u sanoq sistemasiga bog'liq. Aytaylik, bir - biriga nisbatan biror tezlanish bilan harakatlanayotgan ikki sanoq sistemasi mavjud bo'lsa, ushbu sistemalarning birinchisida tinch holatini saqlayotgan jism ikkinchi sistemada tezlanish bilan harakatlanadi. Demak, Nyutonning birinchi qonuni barcha sanoq sistemalarida bajarilavermas ekan. Lekin shunday sanoq sistemalar mavjudki, ularda erkin yoki kvazi erkin jism o'zining tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi. Bunday sanoq sistemalarini inersial sanoq sistemalari deb ataladi. Nyutonning birinchi qonuni bajariladigan sanoq sistemalarini inersial sanoq sistemalari deb, aks holda esa noinersial sanoq sistemalari deb atay olamiz.




1-rasm

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

**Biror inersial sanoq sistemasiga nisbatan to'g'ri chiziqli tekis harakat qilayotgan ixtiyoriy sanoq sistemasi ham inersial sanoq sistemasi bo'ladi.**

1 – rasmda K sistemaga nisbatan K' sanoq sistemasining to'g'ri chiziqli tekis harakati ko'rsatilgan.

Jism harakati sanoq sistemasiga nisbatan aniqlanadi. Sanoq sistemasini tanlash kuzatuvchining ixtiyorida. Shuning uchun bir harakatni turli sanoq sistemalariga nisbatan tekshirish natijasida bu sanoq sistemalaridan birortasini boshqalarga nisbatan imtiyozli deb hisoblash mumkinmi? Bu savolga javob berish maqsadida etarlicha aniqlik bilan inersial sanoq sistemasi deb hisoblash mumkin bo'lgan K sistemaga nisbatan K' sanoq sistemasining to'g'ri chiziqli tekis harakatini tekshiraylik. Soddalashtirish maqsadida K' sistema K sistemaga nisbatan $V_0$ tezlik bilan OX o'q yo'nalishida harakatlanadi, deb hisoblaylik (1-rasm).

t = 0 vaqtda ikkala sanoq sistemasi bir-birining ustiga tushadi. $t \neq 0$ da K sanoq sistemasining boshi (ya'ni $0^1$ nuqta) K sanoq sistemasida $X = V_0 \cdot t$; u = 0; z = 0 koordinatalar bilan aniqlanuvchi nuqtada joylashgan bo'ladi. U holda moddiy nuqta (A) ning ixtiyoriy paytda ikkala sanoq sistemasidagi koordinatalari Galiley almashtirishlari deb ataladigan quyidagi munosabatlar bilan o'zaro bog'langan:

$$x = x' + v_0 t; \quad u = u'; \quad z = z'; \quad t = t'; \qquad (1)$$

bundagi t va t′ mos ravishda K va K′ sanoq sistemalaridagi soatlar ko'rsatayotgan vaqtlar. Agar vaqt hisobi ikkala sanoq sistemalarining boshlari (0 va 0′ nuqtalar) biri – birining ustiga tushib turgan paytdan boshlansa, ikkala sistemadagi bir xil soatlar bir xil vaqtlarni ko'rsatishi ( ya'ni $t = t^1$ ) tabiiy hol ekanligiga o'rganib qolganmiz.

Demak, bir sanoq sistemasidan (K) dan ikkinchi sanoq sistemasi ($K^1$) ga o'tganda koordinatalar o'zgaradi, ya'ni koordinatalar nisbiy kattaliklardir. Vaqt o'tishi esa sanoq sistemalarining nisbiy harakatlanishiga bog'liq emas, ya'ni vaqt absolyut kattalikdir.

Endi biror sterjen uzunligini ikkala sistemada aniqlaylik.

Sterjen uchlari (A va B nuqtalar) ning K sistemadagi koordinatalarini mos ravshda $X_1$, $U_1$, $Z_1$ va $X_2$, $U_2$, $Z_2$ deb belgilasak, uning uzunligi

$$l = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2} \qquad (2)$$

bo'ladi. $K^1$ sanoq sistemasi esa K ga nisbatan OX yo'nalishida $V_0$ tezlik bilan harakatlanyapdi. Shuning uchun $K^1$da sterjen uchlarining koordinatalari mos ravishda

$$x_1^1 = x_1 - V_0 t \qquad x_2^1 = x_2 - V_0 t$$
$$y_1^1 = y_1 \qquad y_2^1 = y_2$$
$$z_1^1 = z_1 \qquad z_2^1 = z_2$$

bo'ladi.

Natijada sterjenning $K^1$ sanoq sistemasidagi uzunligi uchun

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

$$\ell' = \sqrt{\left(x_2^1 - x_1^1\right)^2 + \left(y_2^1 - y_1^1\right)^2 + \left(z_2^1 - z_1^1\right)^2} = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2} \qquad (3)$$

Ifodani hosil qilamiz (2) va (3) larni o'aro taqqoslab

$$\ell = \ell' \qquad (4)$$

degan xulosaga kelamiz. Umuman, bir sanoq sistemasidan ikkinchi sanoq sistemasiga o'tganda biror kattalikning qiymati o'zgarmasa, bu kattalik mazkur almashtirishga nisbatan i n v a r i a n t deyiladi. U holda (4) ifodaga asosan, quyidagini ayta olamiz: uzunlik Galiley almashtirishlariga nisbatan invariyantdir.

Harakatlanayotgan moddiy nuqtaning K va K′ sanoq sistemalaridagi tezliklarining proeksiyalari orasidagi bog'lanishni topish uchun (1) ifodalardan vaqt bo'yicha hosila olamiz:

$$\begin{aligned} V_x &= \frac{dx}{dt} = \frac{d}{dt}(x' + V_0 t) = V_x^1 + V_0 \\ V_y &= \frac{dy}{dt} = \frac{d}{dt}(y') = V_y^1 \\ V_z &= \frac{dZ}{dt} = \frac{d}{dt}(z') = V_z^1 \end{aligned} \qquad (5)$$

Bu munosabatlarni vektor ko'rinishda

$$\vec{V} = \vec{V}' + \vec{V}_o \qquad (6)$$

shaklda yozish mumkin.

Bu (6) ifoda tezliklarning qo'shilish qonuni bo'lib, uni quyidagicha tavsif qilish mumkin: moddiy nuqtaning K sanoq sistemasidagi tezligi ( $\vec{V}$ ) shu nuqtaning K′ dagi tezligi ( $\vec{V}'$ ) va K′ ning K ga nisbatan tezligi ( $\vec{V}_o$ ) ning vektor yig'indisiga teng.

(5) ifodalardan vaqt bo'yicha hosila olsak, moddiy nuqtaning K va K′ sanoq sistemalaridagi tezlanishlarining proeksiyalari orasidagi bog'lanishni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} a_x &= \frac{dV_x}{dt} = \frac{d}{dt}(V_x' + V_0) = \frac{dV_x'}{dt} = a_x' \\ a_y &= \frac{dV_y}{dt} = \frac{d}{dt}(V_y') = a_y' \\ a_z &= \frac{dV_z}{dt} = \frac{d}{dt}(V_z') = a_z' \end{aligned} \qquad (7)$$

Vektor ko'rinishda (7) ifodalarni

$$\mathbf{a} = \mathbf{a'} \qquad (8)$$

shaklda yozamiz. Demak, moddiy nuqtaning K sanoq sistemasidagi tezlanishi ( **a** ) va K′ sanoq sistemasidagi tezlanishi ( **a'** ) bir xil ekan. Boshqacha aytganda, tezlanish Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Tajribalarning ko'rsatishicha, barcha inersial sanoq sistemalarda jism massasi bir xil qiymatga ega va u harakat tezligiga (yorug'lik tezligidan ancha kichik tezliklar nazarda tutiladi) bog'liq emas:

$$m = m' . \qquad (9)$$

Nyuton mexanikasida o'rganiladigan kuchlar, xususan elastiklik kuchi yoki torishish kuchi jismning ayrim qismlari orasidagi masofaga bog'liq. Masofa (uzunlik) Galiley almashtirishlariga nisbatan invariant. Ba'zi kuchlar, masalan, ishqalanish kuchlari o'zaro ta'sirla shuvchi jismlar tezliklarning farqiga bog'liq. Tezliklar farqi, (6) munosabatga asosan, bir inersial sanoq sistemasidan ikkinchisiga o'tilganda o'zgarmaydi ($V_2$ - $V_1$ = $V'_2$ - $V'_1$ ). Shuning uchun klassik mexanikada kuch Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir, ya'ni

$$\vec{F} = \vec{F}' \quad . \qquad (10)$$

Dinamikaning asosiy qonuni – Nyutonning ikkinchi qonuni

$$\vec{F} = m \cdot \vec{a} \qquad (11,a)$$

ga etibor bersak, undagi barcha kattaliklar [(8), (9) va (10) ga qarang.] Galiley almashtirishlariga nisbatan invariant. Binobarin, dinamika asosiy qonunining K sanoq sistemasiga nisbatan **$V_0$** tezlik bilan harakatlanayotgan K′ sanoq sistemasidagi matematik ifodasi

**G“′** = m′ ·**a′** (11,b)

Mazkur qonunning K sanoq sistemasidagi ifodasiga to'liq mos keladi. Demak, barcha inersial sanoq sistemalarida ayni bir mexanik hodisa bir xil tarzda sodir bo'ladi va mazkur inersial sanoq sistemasida o'tkaziladigan mexanik tajribalar yordamida sanoq sistemasi tinch turganligini yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatlanayotganligini aniqlab bo'lmaydi.

Asrimiz boshida fizik olimlarni hayratga solgan mazkur muammoni hal qilish uchun Puankare va undan mustaqil ravishda Eynshteyn quyidagi xulosaga keldilar: Galiley almashtirishlaridan farqlanadigan yangi almashtirishlardan foydalanish zarurki, bu almashtirishlarga nisbatan Maksvell tenglamalarining ifodalari o'z ko'rinishlarini o'zgartirmasliklari lozim. Bunday o'zgarishlarni Eynshteyn quyidagi ikki prinsip asosida keltirib chiqardi:

1. Nisbiylik prinsipi, fizik qonunlar (mexanik, elektromagnitizm, optika.... qonunlari) barcha inersial sanoq sistemalarida o'rinlidir. Boshqacha aytganda ayni bir fizik hodisani inersial sanoq sistemalarining birida kuzatish tufayli olingan natijalar boshqa inersial sanoq sistemalarida olingan natijalardan farqlanmaydi. Galileyning nisbiylik prinsipi ham xuddi shuni ta'kidlar edi, lekin unda faqat mexanik hodisalar (barcha fizik hodisalar emas) haqida mulohaza yuritilgan edi.

2. Yorug'lik tezligining doimiylik prinsipi. Yorug'likning vakuumdagi tezligining qiymati barcha inersial sanoq sistemalarida bir xil bo'ladi. U yorug'likning tarqalish

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

yo'nalishiga hamda yorug'lik chiqaruvchi jism va kuzatuvchining harakatiga bog'liq emas. Bu prinsip klassik mexanikadagi tezliklarni qo'shish qoidasiga mutloqa ziddir.

Nisbiylik nazariyasining zaminida yotuvchi ikki prinsipning birinchisiga asosan, fizika qonunlari barcha inersial sanoq sistemalarida bir xil ko'rinishga ega bo'lishi, ya'ni Lorens almashtirishlariga nisbatan kovariant bo'lishi lozim. Eynshteynning ko'rsatishicha, moddiy nuqta dinamikasining asosiy qonuni

$$\frac{d\vec{p}}{dt} = \vec{F} \qquad (12)$$




2-rasm

Lorens almashtirishlariga nisbatan kovariant bo'lishi uchun, moddiy nuqta impulsi

$$\vec{p} = \frac{m_0\vec{V}}{\sqrt{1-\beta^2}} \qquad (13)$$

ifoda bilan xarakterlanishi lozim. Bu ifodadagi

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1-\beta^2}} \qquad (14)$$

kattalikni (ya'ni V tezlik bilan harakatlanayotgan jism massasini) relyativistik massa deb, $m_0$ ni esa tinch xolatdagi jism massasi deb ataladi. Ba'zan, qisqaroq qilib, $m_0$ ni jismning tinchlikdagi massasi deb xam ataladi. Jism relyativistik massasining uning harakat tezligiga bog'liqligi 2 - rasmda tasvirlangan.

**Harakat tezligi (V) yorug'lik tezligi (S) ga yaqinlashganda relyativistik effekt keskinroq namoyon bo'ladi, jismning massasi nihoyat tez ortib boradi, V = C da esa massaning qiymati cheksiz katta bo'ladi. Shuni ham qayd qilaylikki harakat tezligiga monand ravishda jism massasining relyativistik ortishi zamonaviy tezlatkichlarda juda katta tezliklargacha tezlatilgan zarralar misolida tekshirilgan va tasdiqlangan.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## 3.Tezliklarni qo'shishning relyativistik qonuni. Hodisalar orasidagi interval

Lorens almashtirishlariga asoslangan mexanikani Nyuton mexanikasidan farq qilish maqsadida relyativistik mexanika deb yuritiladi. Relyativistik mexanika qoidalari klassik mexanika qoidalaridan farqlanadi. Xususan, K inersial sanoq sistemasiga nisbatan $\vartheta_0$ tezlik bilan 0X o‘q yo‘nalishida to‘g‘ri chiziqli tekis harakatlanayotgan $K^1$ sanoq sistemasidagi moddiy nuqtaning 0X o‘qi yo‘nalishidagi harakat tezligi $\vartheta'$ bo‘lsin. Mazkur moddiy nuqtaning K sanoq sistemasidagi tezligi (v) ning qiymati, klassik mexanikadagi tezliklarni qo‘shish qoidasiga asosan ((6) ifodaga q.) $\vartheta = \vartheta_0 + \vartheta'$ shaklda aniqlanar edi. Relyativistik mexanikadachiq Bu savolga javob berish uchun $\vartheta$ va $\vartheta'$ orasidagi munosabatni aniqlaylik. Moddiy nuqtaning K sanoq sistemasidagi tezligini

$$\vartheta = \frac{dx}{dt} \qquad (15)$$

$K^1$ sanoq sistemasidagi tezligini esa

$$\vartheta = \frac{dx'}{dt} \qquad (15')$$

shaklda yoza olamiz. Lekin $\frac{dx}{dt}$ ni dx va dt differensiallarning nisbati deb qarash va bu differensiallarni Lorens almashtirishlarini xarakterlovchi (13) dan foydalanib topishimiz mumkin:

$$dx = \frac{dx' + \vartheta_0 dt'}{\sqrt{1-\beta^2}}; \qquad dt = \frac{dt' + \frac{\vartheta_0}{c^2}\cdot dx'}{\sqrt{1-\beta^2}}$$

Buni hisobga olgan holda (15) ni quyidagicha yozamiz.

$$V = \frac{dx}{dt} = \frac{dx' + V_0 dt'}{dt' + \frac{V_0}{C^2}dx'} = \frac{\frac{dx'}{dt'} + V_0}{1 + \frac{V_0}{C^2}\frac{dx'}{dt'}} = \frac{V' + V_0}{1 + \frac{V_0 V'}{C^2}}. \qquad (16)$$

Demak, klassik mexanikadagi $\vartheta = \vartheta_0 + \vartheta'$ qoidani relyativistik mexanikada qo‘llab bo‘lmaydi. Binobarin, (16) ifodada yorug‘likning vakuumdagi tezligi (c) dan katta tezliklarni inkor etuvchi nisbiylik nazariyasining prinsipi o‘z aksini topgan. (16) - ifoda relyativistik mexanikada tezliklarni qo‘shish qonunini ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurazzoqov A. A., Nazirov E. N. “Yosh fizik ensiklopedik lug`ati” Toshkent - 1989.
2. A.K.Kikoin, I.K.Kikoin “Molekulyar fizika” Toshkent – 1978.

3. L.C.Jdanov va N.I.Xlebnikov "Fizika kursi texnikumlar uchun" ikkinchi qism. Toshkent – 1967.
4. www.ziyonet.uz
5. www.uzvip.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : ЧЕТ ТИЛИНИ БИЛИМ ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ

Хайитқулова Сайёра Нарзуллаевна- Сирдарё туманидаги 13-сонли умумтаълим мактабининг инглиз тили ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ : Таълим бераётган кадрларнинг чет тилини билиш даражасини аниклаш ва уларни таълимга булган эхтиёжини аниклаб, кандай тартибда уларга сертификатларни кулга киритиш. Уларга куйиладиган тест синовларни тартиби хакида тушунча берилади. Тест синовларида олган балларига бахо бериш тартиби ва сертификатлар олиш учун белгиланган коидаларга риоя килиш тартиби ёритилди

ТАЯНЧ СЎЗЛАР: сертификат ,синов , электрон , ариза , коммуникация, талаб, натижа.

Халқ тизимидаги мактабларда, афсуски, йиллар давомида йиғилиб қолган муаммоларимиз бор. Уларнинг асосийларига ечим сифатида ўқитувчиларнинг чет тилларни билиш салохияти ва малакаксини ошириш вазифаси қўйилди. Бугун айрим мактабларда чет тилларни ўқитиш сифати қониқарсиз.

Юртимизда хорижий тилларни ўргатиш бўйича келажак учун мустахкам пойдевор бўладиган янги тизимни йўлга қўйиш вақти-соати келди. Бунинг учун мактаб, лицей, коллеж ва олий ўқув юрти битирувчилари камида иккита чет тилини мукаммал билиши зарур.

Шу мақсадда Вазирлар Махкамаси хузурида Хорижий тиллар агентлиги ташкил этилаётгалиги жуда мухим ахамият касб этади. Мазкур агентлик олдига катта вазифалар белгилаб берилди.У дунёда самарали натижа берган ўқитиш методикалари, дастур ва дарсликларини таълим тизимига жорий этиб, хорижий тилларни мукаммал ўзлаштиришга кўмаклашади. Агентлик хорижий тилларни билиш рейтингини юритган холда чет тили ўқитувчилари учун малака талаблари ва бахолаш мезонларини ишлаб чиқади.

ўқитувчиларга муносиб шароитлар яратиш, малакасига ққкараб рағбатлантириш, халкаро сертификатнинг дастлабки ва ўрта даражасини олганлар ойлик маошига 40 фоиз, юқори натижа кўрсатганларга 50 фоиз устама берилиши билим ва таълим бериш сифат кўрсаткичлари ошишида ижобий натижа кўрсатади.

Вазирлар Махкамасининг 9 сентябрдаги қарори билан Президент соврини учун « Хорижий тилларни ўқитиш буйича энг яхши мактаб» танловини ўтказиш тартиби

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тўғрисидаги низом тасдиқланди. Низомга кура , Хорижий тилларни ўқитиш бўйича энг яхши мактаб танлови хар йили инглиз, немис, француз тиллари ўқитилаётган мактаблар ўртасида ўтказилиб келинмоқда. Танловда хар бир мактабдан битта тил буйича битта терма жамоа иштирок этади. Терма жамоа 7-9 синфларда ўқийдиган 5 нафар ўқувчидан ташкил топади.Республика босқичида 1- ўринни қўлга киритган мактаб Президент совриниi сохиби сифатида эълон қилинади.

Таълим тизининг барча босқичларида чет тилларни узлуксиз ўрганишни ташкил килиш, шунингдек, ўқитувчилар малакасини ошириш, хамда замонавий ўқув-услубий материаллар билан таъминлаш янада такомиллаштиришни тақазо этади. Замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган холда ўқитишнинг илғор услубларини жорий этиш йўли билан, ўсиб келаетган ёш авлодни чет тилларга ўқитиш, шу тилларда бемалол сузлашишни ўргатишдан иборатдир.

Чет тилини билиш даражасини аниқлаш:

- чет тилини билиш даражаси тест синови, ёзма иш ва оғзаки сухбат ўтказиш йўли билан аниқланади., у қуйидаги билимлардан иборат

- « тинглаб тушиниш" бўлими- оғзаки нутқни кабул қилиш кўникмаларини эшитилган матнлардаги асосий фикр ва деталнi тушиниш махоратини текширади;

- «ўқиш» булими –ўқилган матнлардаги асосий фикр ва детални тушиниш махоратини текширади;

- «лексик грамматик компетенциялар» булими – грамматик тузилишни ва луғат захирасини фарқлаш хамда улардан туғри фойдаланиш махоратини текширади;

- « ёзма иш» булими – тегишли даражадаги грамматик тузилишдан ва талабгорнинг луғат захирасидан фойдаланган холдаа берилган мавзулар бўйича бир-бири билан боғланган матнлар тузиш махоратини текширади;

- « гапириш»- бўлими- тегишли даражадаги грамматик тузилишдан ва луғат захирасидан фойдаланган холда берилган саволларга мос жавоб бериш ва ўз нуқтаи назарини асослаш махоратини текширади;

- тест синовини ўтказиш учун топшириқлар Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг давлат таълим стандартига мувофиқ хар бир даража уун Давлат тест маркази томонидан ишлаб чиқилади;

- Чет тилини билиш даражасини аниқлаш юзасидан талабгорларни тест синовларига мустақил тайёрлаш учун зарур материаллар Давлат тест марказининг Интернет жахон ахборот тармоғидаги расмий веб-сайт ига жойлаштирилади;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- тест синовини ўтказиш тартиби Давлат тест маркази томонидан белгиланади;

Чет тилини билиш даражаси тўғрисидаги давлат намунасидаги B2 ва ундан юқори даражадаги малака сертификатга эга булган умумий урта, ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари педагоглари аттестация жараёнида малака синови учун белгиланган максимал балл билан бахолаш ва синовдан озод этилиши кўрсатилган.

Хар қандай холатда ўқитувчининг сифати муваффаққиятни таъминловчи омил хисобланади…агарда ўқитувчиларни материалларни инглиз тилида етказиб беришга ўргатишаётган бўлишса ва улар ўзларига ишонса, талабалар таълим олади, бироқ бунинг акси бўлса, яъни улар ўзларига ишонмаса , бу фожиа.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Мактабда инглиз тилини ислохатлар кутмоқда. 2019 йил

2. Инглиз тилини билиш даражасини аниқлаш. 73-сонли қарор 2022 йил 16 декабрь

3. Чет тилини билиш даражасини аниқлаш ва малака сертификатини бериш тартиби туғрисидаги Низомни тасдиқлаш хақида

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ТЕМА : РАЗВИТИЕ РЕЧИ И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ

РУЗИКУЛОВ АСИЛБЕК ТУРДИМУРАДОВИЧ- учитель русского язкка и литературы в 13 -школе Сырдарьинской области

АННОТАЦИЯ: Статья посвящена проблеме развитию речи школьников с узбекским языком обучения и актуальным вопросам методики преподавания русского языка как неродного.

ОПОРНЫЕ СЛОВА: методика, система обучения, воспитания, аспекты преподавания.

Важнейшей задачей обучения русскому языку в узбекской школе является развитие связной речи учащихся, что обусловлено принципом коммуникативной направленности обучения. Решения коммуникативных задач должно привести к тому, чтобы оканчивающие национальную школу хорошо владели родным и русскими языками.

На сегодняшний день, трудно представить урок без современных педагогических технологий. Современные подходы к модернизации национального образования, внедрение стандартов нового поколения определяют приоритетные цели и задачи, решение которых требует высокого уровня познавательными потребностями, нацеленных на саморазвитие и самореализацию, умеющих оперировать полученными знаниями, ориентироваться в современном информационном пространстве, продуктивно работать, эффективно сотрудничать, адекватно оценивать себя и свои достижения. На современном этапе развития обществе перед школой стоит задача всестороннего развития личности ученика, обладающей необходимым набором знаний, умений и качеств, позволяющих ему уверенно чувствовать себя в самостоятельной жизни.

Учителю русского языка и литературы в национальной школе постоянно приходиться работать- это развитие связной речи в неродном языке. Очень важным в развитии речи учеников является формирование навыков связного изложения мыслей в устной и письменной форме.

Порой ученик свободно говорящий по-русски, затрудняется или стесняется если предложить ему передать свои высказывания на письме- в виде небольшого сочинения- рассуждения или письма к товарищу.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Преподавания русского языка в начальных классах узбекской школы предполагает формирование у учащихся навыков, позволяющих их понимать на слух элементарную русскую речь, свободно воспроизводить её простейшие образцы в пределах учебной сферы.

Главная задача каждого учителя – развить у учащихся интерес к учению , научить учиться. Учителю необходимо не только доступно всё рассказывать и показывать, но и научить ученика мыслить,привить ему навыки практических действий. Этому помогут способствовать эффективные методы и приёмы обучения. Для того , чтобы оно устойчиво, динамично и эффективно развивалось, необходимо постоянно организационно изменяться и двигаться вперёд.

Обучение должно быть построено как процесс «открытия» каждым школьником конкретного знания. Учитель должен организовать учебный процесс так, что из пассивного слушателя ученик превратился в самостоятельную, критически мыслящую личность. В настоящее время важно обеспечить общекультурное, личностное и познавательное развития ребёнка.

Активные методы обучения- это методы, которые побуждают учащихся к активной мыслительной и практической деятельности в процессе овладения учебным материалом. Особенности активных методов обучения состоит в том, что в их основе заложено побуждение к практической и мыслительной деятельности, без которых нет движения вперёд в овладении знаниями.

Методика преподавания русского языка- этот наука о принципах, путях и средствах обучения русскому языку. Методика начального обучения нерусских учащихся имеют свою специфику в отличии от методики русского языка в русской школе.

Сознательность усвоения русского языка, в частности, грамматических понятий, занимает важное место в узбекской школе. Ученик должен уметь пользоваться на практике всеми изученными правилами. Прочные навыки могут быть выработаны лишь процессе активной работы учащихся. Активность при усвоении учебного материала в свою очередь способствует воспитанию внимания.

Практическая направленность преподавания русского языка и связь с теории с практикой- основные задачи обучения русскому языку нерусских учащихся. Практическое знание русского языка в нашем многонациональном государстве является необходимым условием, требованием самой жизни.

На уроках русского языка в классах первой задачей является создание у детей элементарной словарной и артикуляционной базы; вторая задача- научить понимать на слух простые фразы и несложный разговор; третья задача- научить отвечать на простые вопросы и задавать такие же; четвёртая задача- научить школьников

связному рассказыванию, в основе которого лежит построение типовых словосочетаний и предложений; пятая задача- научить усваивать содержание текста, без чего нельзя добиться осмысленности и сознательности чтения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдурахманова И.Э перевод как средство обучения на уроках родного русского языка. В 777-9 классах. 1996 год
2. А.Азизов. Сопоставления русского и родного языка 1989 год
3. В.Адрианова. Совершенствования обучения русской устной речи в узбекских школьников

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IXTIROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING SAMARALI USULLARI

**G'aniyeva Maftuna Abduaziz**
**GulDU tayanch doktoranti.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtirochilik qobiliyatini shakllantirishda TRIZ texnologiyasining samarali usullaridan foydalanishning ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** TRIZ texnologiyasi, ixtirochilik qobiliyati, matematik bilim, sintez

Bugungi kunda pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni tashkil etishning kognitiv, o'yin, izlash va tarbiyaviy o'zaro ta'sir elementlari sintez qilinadigan yangi shakllaridan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Ixtirochilik qobiliyatli bolalarni aniqlash va rivojlantirish, ularning potentsial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish davlat va jamiyatning ustuvor ijtimoiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda matematika zamonaviy insoniyat bilimlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi shubhasiz haqiqatdir. Matematikada bolalarning intellektual rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud: aqliy operatsiyalar (tahlil, taqqoslash, tasniflash), jarayonlar (xulosa chiqarish, umumlashtirish, fikrlash va hk) va nutq. Ushbu imkoniyatkar dashqari o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar, didaktik o'yinlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarning darsda kutilgan natijaga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirishning mavjud usullarida bolalar tomonidan mantiqiy xarakterdagi vazifalarni bajarishga juda kam joy ajratilgan, ular vaqti-vaqti bilan qo'llaniladi.

Bunday vaziyatdan chiqish yo'lini TRIZ texnologiyalaridan boshlang'ich sinf matematika darslarida faol foydalanishda ko'rishimiz mumkin, chunki yangi, g'ayrioddiy narsalarni yaratish qobiliyati bolalik davrida, tasavvur va fikrlash kabi yuqori aqliy funktsiyalarni rivojlantirish orqali yotadi. TRIZ texnologiyasi aniq matematik tushunchalarni shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadigan ijodiy salohiyatni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

TRIZ metodikasi taxminan 50 yil oldin Genrix Saulovich Altshuller tomonidan ixtiro qilingan va ishlab chiqilgan. Dastlab, u texnik muammolarni hal qilishda yordam berish uchun yaratilgan va fikrlash, moslashuvchanlik, izchillik, mantiqiy qurilish va o'ziga xoslikni rivojlantirishga hissa qo'shgan. Ushbu texnikaning asosiy vazifasi bolani qutidan tashqarida o'ylashga va o'z echimlarini topishga o'rgatishdir.

TRIZ yangi texnik g'oyalar ishlab chiqarishni aniq fanga aylantiradi, chunki qidiruv o'rniga ixtirochi vazifalarni hal qilish mantiqiy operatsiyalar tizimida bekor qilinadi. Tizim vositasidan foydalanishingiz mumkin bo'lgan "ijodiy tushunishlar" ni kutish mantiqsiz va isrofgarchilikni kutish mumkin emas, bu to'g'ri yo'nalishda va juda katta qiziqish uyg'otadi.

TRIZning maqsadi nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantirish, balki ularni sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunib, sistematik fikrlashga o'rgatish, tarbiyachilarga atrofdagi dunyoning birligi va qarama-qarshiligini tushunishga qodir bo'lgan ijodiy shaxs sifatlarini konkret amaliy tarbiyalash vositasi berish va ularning kichik muammolarini hal qilishdir.
TRIZ texnologiyasida o'quvchilar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermasligi, haqiqatni unga ochib bermasligi, uni qanday topishni o'rgatishi kerak. Agar bola savol bersa, darhol tayyor javob bermang. Aksincha, siz undan bu haqda nima deb o'ylashini so'rashingiz kerak. Uni mulohaza qilishga taklif qiling va yetakchi savollar bilan bolani o'zi javob topishga undang. Agar u savol bermasa, o'qituvchi ziddiyatni ko'rsatishi kerak. Shunday qilib, u bolani javob topishingiz kerak bo'lgan vaziyatga tushiradi.

Boshang'ich sinfda matematik kontseptsiyalarni shakllantirish, o'quvchilarning ixtirochilik, fikrlash va matematik qobiliyatlarni sezilmasdan rivojlantirib borish uchun

qo'llanadigan TRIZ texnologiyasiga asoslangan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, quyidagi o'yinlardan keng foydalaniladi: 1. "Nima bo'lgan - nima bo'ldi" ob'ektining rivojlanish yo'nalishini aniqlash uchun o'yinlar Savol: 15 raqami bo'lgan va endi 5 raqamiga aylandi. D: 15-10=5 Savol:qaysi raqamni olsak 5 raqami hosil bo'ladi. Savol: 15 raqami bor edi, ammo hozir 10 ga teng. Savol: 10 raqamini olish uchun nima qilish kerak? D: 15-5 = 3

Bu o'yinni asosan boshlang'ich 1- sinflarda qo'llashimiz mumkin.

TRIZ texnologiyasiga asoslangan matematik o'yinlarning turlaridan biri bu Dienesh bloklari, Kuisener tayoqchalari, hisoblash tayoqchalari, Nikitinning kubiklari va kvadratlari, turli xil jumboqlar bilan o'quv o'yinlari. Bu o'yinlardan dars davomida foydalanish o'quvchilarning ixtirochilik qobiliyatini o'stiradi, balki, mantiqiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Gieneshning mantiqiy bloklari (LBD) mavhum - didaktik vositalar. Bu o'yin rang, shakli, kattaligi, qalinligi bilan bir-biridan farq qiladigan shakllar to'plami. LBD'lar berilgan xususiyatlarga ega to'plamlarni modellashtirishga imkon beradi, masalan, qizil bloklar, kvadrat bloklar va hk. To'plamlarini yaratish. Bloklarni guruhlash, keyin esa ularni berilgan xususiyat bo'yicha tasniflash mumkin: bloklarni kattaligi bo'yicha guruhlarga ajratish (katta va kichik, rang (qizil va qizil emas) va Bolalar uchun to'plamdagi yanada murakkab operatsiyalar (birlashma, qo'shilish, qo'shish, kesishish) aniqlanishi mumkin.

Bundan tashqari jumboq o'yinlari yoki geometrik konstruktorlar azaldan ma'lum bo'lgan. O'yinning mohiyati - ob'ektlarning siluetlarini modelga yoki dizaynga muvofiq tekislikda tiklash. Zamonaviy pedagogikada bunday jumboq o'yinlari ma'lum: Tangram, Sehrli doiralar, Pifagor jumboqlari, Kolumbus Egg, Vetnam o'yini, Pentamino, Yurak yoki barg. Barcha o'yinlarni umumiy maqsad, harakat usullari va natija birlashtiradi.

Matematikada sinfda ishlashda TRIZ-dan foydalanish samaradorligiga vaqti-vaqti bilan yangi texnikani qo'llaganimizdan so'ng ko'zlagan natijaga erishmiz. Bunday sinflardagi

bolalarni sun'iy ravishda qo'zg'atishga hojat yo'q. Bolani g'ayrioddiy dunyoga olib borish, biz bir vaqtning o'zida uning uchun ixtirochilik tasavvurini rivojlantiramiz va tadqiqotlar va qidiruv vaziyatlari natijasida biz matematik qobiliyat va tushunchalarni shakllantiramiz.

Dars davomida bolalar TRIZ texnologiyasi samaradorligi tufayli bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu holda eng samarali quyidagi texnik va usullar hisoblanadi:

1. Aqliy hujum.

Bu usul odamning assotsiativ qobiliyatlarini faollashtiradigan izlanishning inertial yo'nalishidan qochishga imkon beradi. Ushbu usul ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum bir mavzu bo'yicha ko'p sonli g'oyalar berish, muammoning asl yechimini tanlash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

2. Morfologik tahlil.

Bolalarda ma'lum bir mavzu doirasida ko'p sonli turli xil toifadagi javoblarni berish qobiliyati shakllanadi. Fikrlash harakatchanligini shakllantirish, o'zgaruvchanlik printsipini bola tomonidan o'zlashtirish.

3. Sinektika.

Shaxsiy assimilyatsiya / empatiya / - ob'ektga hamdard bo'lish qobiliyati.

Ramziy o'xshashlik - ob'ektni xarakterlash uchun belgilar, taqqoslashlardan foydalanish.

To'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik - bu boshqa bilim sohalarida shunga o'xshash jarayonlarni izlash.

4. Tizim operatori.

Bolani o'tmishi, hozirgi va kelajagi bo'lgan ob'ektga nisbatan mustaqil fikr yuritishga undaydi.

TRIZ texnologiyasi universal vosita sifatida deyarli barcha faoliyat turlarida (ta'lim jarayonida ham, o'yinlarda ham, ) ishlatilishi mumkin.Bu orqali maktab yoshidagi bolaning ongida dunyoning yagona, uyg'un, ilmiy asoslangan modelini shakllantirishga imkon beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat yaratiladi, qaror natijalari almashiniladi, bir bolaning qarori boshqasinnig fikrini faollashtiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, uning rivojlanishini rag'batlantiradi

Shunday qilib, TRIZ inson faoliyatining barcha sohalarida va barcha asrlarda qo'llaniladigan samarali usul hisoblandi. Bu tizimli muammolarni hal qilishga, shuningdek tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Dimitrova T.V “Boshimda yuzta xayol” 1996-y

2. Voltov A.V “Ta'lim muassasasining asosiy ta'lim dasturining modellari: Mintaqalar tajribasi” Moskva 2011-y

3.www.googe.uz

4.www.minikar.ru

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Мавзу : Педагогик фаолиятда низоли вазиятлар. Стресс ва уларни бошкаришнинг психологик асослари.

Р Е Ж А :

I. **Кириш.**
II. **Асосий кисм:**

1. **Жамоадаги низо ва уни ечимга олиб келиш.**
2. **Низоли вазияларнинг турлари.**
3. **Стресс ва уларни бошкаришнинг психологик асослари.**
4. **Жамоадаги низони бошкариш тартиблари.**

III. **Хулоса.**
IV. **Фойдаланган адабиётлар**
V. **Мундарижа**

Аннотация

Малумки, хар кандай фаолият тури Менежмент асосида курилади, чунки шу фаолиятни амалга оширишда кузланган максадга эришиш, бажариладиган вазифаларни таксимлаш, ижросини назорат килиш, шунингдек, самарадорликка эришиш учун шу фаолиятда иштирок этувчилар манфаатларини химоя килиш, рагбатлантириш чора тадбирлари Менежмент жараёнида ташкил этилади ва мувофиклаштирилади.Низо купинча тажовуз, тахдид, мунозара, душманлик, уруш ва х.к.лар билан тенглаштирилиб, доимо номакбул ходиса сифатида кабул килинади, унга имкони борича йул куймаслик, ёки тезлик билан вужудга келган пайтда хамла этиш зарур деб хисоблайдилар. Низога нисбатан бундай муносабат"Низодаги шахс", "Ёшлар ва низолар ечими", "Илмий менежмент" ва "Жамоадаги низо ва уни ечимга олиб келиш" номли укув кулланмага мансуб муаллифлар асарларида акс эттирилган. Мен хам ушбу мавзуда яъни педагогик фаолиятда низоли вазиятларнинг келиб чикиш ахволлари ва унинг олдини кай тарзда олиш чораларини урганиб чикиб , уларнинг хал этиш йуллари ва асосларини ёритиб беришга харакат килганман.

## КИРИШ:

Инсон уз хаётида болалик давриданок бошка инсонлар билан турли ижтимоий муносабатларга киришади. Чунки, инсон хаёти бошкалар билан буладиган турли узлуксиз муносабатлардан иборат булган жараёндир. Ана шу муносабатлар эса хар доим хам бир текис, силлик ва тинч давом этавермайди. Хаётнинг бир текис давом

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

этишини турли низо ва зиддиятлар бузиб туради. Биз уни фан тилида конфликтлар деб атаймиз. Низо хар бир инсон хаётига алокадор булган узига хос жараён булиб, хеч бир инсон узини комил ишонч билан низоли вазиятлардан мухофаза килмаган, деб айта олмайди., чунки инсон уз хаёти давомида турли конфликтлар билан тукнаш келади. Низолар табиий ходиса булиб, бу вазиятдан чикишда окилона йул тутишинсон тарбияси, унинг шаклланишининг зарурий талабларидан биридир. Сунгги вактларда инсонга булган турли илмий – техник, маънавий – иктисодий таъсирларнинг хаддан зиёд ортиб бориши , замонавий хаётда яшаш тарзининг мураккаблик мураккаблик томон ортиб бораётганлиги одамлар тукнаш келиши мумкин булган турли конфликт вазиятларни хам юзага келтиради.Болалик даврида уйинчокларни ташлаш, бировларга хасад килиш ёки угил болаларнинг жанжал килиб урушганини куп кузатгансиз. Мана шундай низолар кейинчалик оилада , эру – хотин, кайнона – келин, ака – опалар, якинлар, дустлар, турли ижтимоий гурухлар уртасида, шунингдек мехнат жамоасида хам вужудга келиши мумкин. Жамоада содир булиши мумкин булган низоларнинг узига хос хусусиятлари мавжуд. Бу низолар мана шу жамоада ишлаётган барча ходимларга уз таъсирини утказмай колмайди.

Инсоний муносабатларнинг ҳар қандай тизимида ҳам фикрларнинг ранг-баранг бўлиши ва улар ўртасида фарқларнинг бўлиши муқаррар ҳолдир. Фикрлар ранг-баранглигининг асосий сабаблари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

1. Алоҳида шахс ва жамоатчилик манфаатларининг мос келмаслиги;

2. Айрим алоҳида жамоа аъзолари хатти-ҳаракатларининг ижтимоий, гуруҳий номаларга зид келиши (тартибсизлик, интизомнинг бузилиши, ишнинг самарасизлиги ва ҳоказолар);

3. Жамоа аъзолари қарашларидаги номувофиқликлар;

4. Ишни ташкил этиш ва меҳнатга муносабатдаги фарқлар;

5.Ишчи ходимлар ўртасидаги вазифаларнинг тўғри тақсимланмаганлиги.

Низо – мулоқот иштирокчиларининг ҳар бири учун муҳим бўлган муаммони ҳал этиш вақтида улар ўртасида вужудга келган қарама-қаршилик ва курашнинг кескин кучайиб кетиш жараёнидир. Низонинг асосимулоқот иштирокчиларининг бири иккинчисининг ўз эҳтиёжларини қондириш, ўз мақсадларига эришиш жараёнига тўсқинлик қила бошлаши туфайли поайдо бўлади ва бу низоли вазият сифатида қаралади. Мулоқот иштирокчиларининг Ушбу низоли вазиятда вужудга келган тўсиқни бартараф этиш учун амалга оширувчи ҳаракатлари низони, яъни очиқдан очиқ қарши курашни келтириб чиқаради. Демак низонинг формуласини қуйидагича ифодалаш мумкин:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Муаммо Қ низоли вазият қ низо.

Жамоада ёки шахслараро низо ва унинг моҳияти Жамоада н*изолар* – ўзаро таъсир кўрсатаётган кишиларнинг қарама-қарши туриши, бунда фикрлар, позициялар, қарашлар тескарилигини тушунамиз.

Низолар турли хил кўринишда бўлади

- Низоларнинг кимлар орасида юзага келишига кўра фарқлари шахслараро, гуруҳлараро, шахсий, этник, миллий;
- хусусиятига кўра: очиқ, ёпик, узоқ муддатли, қисқа;
- Деструктив ва конструктив низолар

**Конструктив низолар:**

Фикрлар қарама-қаршилиги намоён бўлаётганда зиддият манбаи яширинмаган бўлса, низо жамоа ҳаётида ижобий рол ўйнаши мумкин. Низонинг айнан шу хусусиятини олимлар "низонинг конструктивлиги" деб аташади. Конструктив низода қарама-қаршилик ижобий натижага йўналади, асосланган қарорларни қабул қилишга ёрдам беради ва жамоадаги ўзаро муносабатларни ривожлантиради

**Деструктив низолар:**
Шахсий ғурурлари диққат марказида бўлиб, низонинг асл сабаби четда қолиб кетади.

**Деструктив низо**.

Унинг келиб чиқиш сабаблари қуйидагилардан иборат;

- -шахсий хусусиятларни бир-бирига мос келмаслиги туфайли вужудга келади
- - муносабатларнинг бузилишига олиб келади
- -иштирокчилар сони ортиб боради
- -қарама-қарши томонга нисбатан негатив баҳолар кучайиб боради
- -низо жараёнидаги объектнинг шахсга кўчиши осон юз беради

**Продуктив низо**нинг келиб чиқиш сабаблари қуйидагилардан иборат

- -нуқтаи - назарларнинг бир-бирига мос келмаслиги сабабли вужудга келади;

- -муаммони кенгроқ қарши олишга олиб келади;
- -оптимал ечимнинг топилишига ёрдам беради;
- - шахсга кўчирилмайди.

**Низоли вазиятларнинг бир нечта турлари мавжуд:**

1) Таъсирнинг йўналишига кўра: вертикал ва горизонтал низолар;

2) Низони ҳал қилиш усулига кўра: антогонистик ва келишувга олиб келадиган низолар – компромисс;

3) Намоён бўлиш даражасига кўра: очиқ, яширин, потенциал, асосли.

4) Иштирокчилар сонига кўра: шахсий, шахслараро, гуруҳлараро;

5) Келиб чиқиш табиатига кўра: миллий, этник, миллатлараро, ишлаб чиқариш, ҳиссий-эмоционал.

Конструктив низолар - муносабатларнинг яхшиланиши, муаммонинг икала томон учун ижобий ҳал этилишига олиб келади. Деструктив низолар – муносабатларнинг ёмонлашувига, муаммонинг ҳал этилмаслигига олиб келади. Давом этишига кўра узоқ муддатли - рўёбга чиқиш босқичи чўзилиб кетган низо, қисқа муддатли – рўёбга чиқиш босқичи узоқ давом этмайдиган низо турлари фарқланади. Психологлар мулоқотдаги низоларни олдини олиш учун қуйидаги қоидаларга амал қилиш лозимлигини уктириб ўтадилар:

- танқид ва айбловни кўп ишлатмаслик, кўп нолийвермаслик;

- фикрни қисқароқ гапларда ифодалаш;

- эътиборли тингловчи бўлиш;

- овознинг имкон қадар самимий жаранглашини таъминлаш;

- қатъий фикр билдиришдан сақланиш;

- буйруқ оҳангидан воз кечиш;

- «ҳеч қачон» ва «ҳар доим» сўзларидан эҳтиёткорлик Билан фойдаланиш;

- ижобий эмоцияларни сақлаб туриш, кўпроқ табассум қилиш.

**Низоли ҳолатларда шахс эгаллаган позициясига кўра тоифаларга ажратилади:**

1) Намойишкорона тоифадаги низоли шахс;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

2) Ригид тоифадаги низоли шахс;

3) Бошқариб бўлмайдиган тиофадаги низоли шахс;

4) Аниқликни талаб этадиган тоифадаги низоли шахс;

5) Низосиз тоифадаги низоли шахс;

6) Мақсадга йўналтирилган тоифадаги низоли шахс.

Раҳбар фаолиятидаги энг муаммоли масалалардан бири-бу ходимлар билан бўладиган зиддият, низолар. Ушбу масала бўйича таниқли психологлар Ершов А.А.(Шахс ва жамоа: Жамоадаги шахслараро низоларни бартараф этиш), Кичанов И.М. (Зиддиятлар: ёқлайдиганлар ва қаршилар.), Смолин Г.Л. (Зиддиятларни тадқиқ қилиш тамойиллари) бир неча ишларни амалга оширганлар. Бизнинг асосий мақсадимиз-раҳбарларда низога нисбатан конструктив муносабатларни шакллантириш, зиддият ҳам бошқарувнинг асосий воситаси эканлигини англатиш, низоларни бартараф этилмаса жамоадаги ишни тўғри йўлга солиш қийин эканлигини тушунтириш.

Айрим раҳбарлар зиддиятни келиб чиқиш механизмларини чуқур ўрганмайди, баъзилари эса зиддиятдан қочади, бефарқ бўлади. Бу иккала қараш нотўғри. Бефарқлик низоларнинг чуқурлашиб кетишига олиб келади. Сиз жамоада содир булган зиддиятдан ташкарида булла олмайсиз. Агарда сиз конфликтга умуман аралашмасангиз хам, сиздан унга нисбатан уз муносабатингизни билдиришингиз суралганда, хохланг – хохламанг зиддиятга нисбатан уз фикрингизни , уз хулосаларингизни айтишга мажбур буласиз. Бу эса кайсидир масалаларда бир ёки бошка томоннинг манфаатларини устун куйишингизга, бирор томоннинг ёнини олишингизга сизни мажбур этади. Агарда сиз максадли равишда жамоадаги конфликтдан узингизни олиб кочиб, узингизни бетараф деб эълон килганингизда хам, хар куни уша жамоада булганингиз учун, конфликтнинг кандай ривожланаётганлиги, томонлар узини кандай тутаётганлигини беихтиёр кузатиб борасиз, охир окибат узингизни хакикатдан хам зиддиятдан ташкаридаман, деб хис кила олмайсиз.

Жамоада вужудга келган хар турли конфликтларга нисбатан пассив эмас, фаол ёндашган маъкул. Сиз узингизнинг бир томоннинг ёнини олган, ёки иккинчи томон учун буйсунган холда эмас, балки, манна шу конфликтли вазиятни вужудга келтирган муаммони аниклашга саъй - харакат килиб, бутун жамоа диккатини шахслараро муносабатларни тафтиш килишга эмас, балки муаммони аниклашга, унинг ечимини кидиришга, томонлар манфаатларини узаро якинлаштиришга, хар икки томонни хам кониктирадиган, муаммонинг ягона ечимини кидиришга сафарбар этишимиз лозим булади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Зиддият сабабларидан баъзи вазиятларни кўриб чиқиш мумкин.

1-вазият: Раҳбарнинг хонасида мажлис бўлмоқда. Мусобақа натижалари ҳақидаги масала кўрилмоқда. 3-ошхонанинг фаолияти яхши бўлгани учун энг биринчи ўринни уларга берилмоқчи бўлинди. Бошқарма раҳбарларидан бири эса бу қарорга қарши фикр билдириб, бу ошхонада тайёрланадиган овқатнинг калорияси(қуввати) пастлигини билдирди. Шунда ошхона бошлиғи ўрнидан туриб, қарши фикр билдирган раҳбар унинг ошхонасига тез-тез кириб овқатланиб юришини, ҳар доим ўзининг ичкари хонасида унга сифатли овқат беришини, аммо бир марта кирганда вақти йўқлиги учун умумий овқатланиш хонасида овқат берилгани учун у ҳозир қарши бўлаётганини айтиб ўтди. Мана-зиддият. Бу низонинг илдизи шахсий адоват натижасидага бориб тақалади. Зиддият базаси илгари ошхонанинг ўзида пайдо бўлган, деган хулосага келиш мумкин. Бу низоли вазият бўлиши мумкин. Зиддиятда оппонент-баҳсда шахсга нисбатан қарши фикрлар билдирадиган киши, ҳам ошхона бошлиғи, ҳам унга қарши фикр билдирган  раҳбар бўлиб ҳисобланади. Лекин улар шахс сифатида эмас, бири ошхона бошлиғи, бири бошқарма аъзоси сифатида оппонентлик ролини ўйнайди. Зиддиятли вазиятларда камида иккита оппонент қатнашиши керак. Зиддиятни ҳал қилиш учун оппонентлардан бири "кучли" бўлиши лозим. Аниқроғи, оппонент фикри кучли, асосли, бошқаларни ишонтирадиган бўлиши керак. Зиддият кучи мақсаднинг даражасини таққослашда  акс этади. Юқоридаги вазиятда бошқарма аъзоси ошхона ҳақида фикрларини ёзма равишда қолдириб кетса ҳам бўларди. Шунда юқоридаги зиддият келиб чиқмаган бўлар эди. Чукни ошхона бошлиғи ҳам бошқарма аъзоси ҳам иш юзасидан бўладиган муносабатлар доирасидан чиқиб кетганлар. Улар шахсий муносабатлар асосида низога дуч келдилар.

Зиддиятлар бошқа шахсларга юқиши "наслдан наслга ўтиши" мумкин. Масалан, айрим ҳолларда ишнинг келажаги учун фойдали бўлиши, айрим низонинг сабаби йўқолса ҳам у қайтадан вужудга келиши мумкин. Низоли вазият ҳолда шахснинг ўзига –соғлиғига зарар бўлиши мумкин. Низодан сўнг кишининг кайфияти пасаяди, қўли ишга бормаслиги мумкин. Зиддиятли вазиятни тўрт қисмга бўлиш мумкин: объектив мақсадга йўналтирилган, объектив мақсадга йўналтирилмаган, субъектив мақсадга йўналтирилган ва субъектив мақсадга йўналтирилмаган. Юқоридаги вазиятда (ошхона бошлиғи билан бошқарма ходими ўртасидаги можаро) объектив мақсадга йўналтирилган вазият тури амалга оширилган. Объектив зиддият ҳеч қачон субъектив зиддиятга айланмаслиги керак.

2-вазият: қорхонанинг барча бўлимларидаги бошлиқлар цех  бошлиғидан шикоят қилдилар. У барча бўлимлардан келадиган маҳсулотни яшикларга жойлаб  жўнатиши керак. Улар озгина адашса ҳамманинг иши бекор бўлади. Натижада ҳеч ким мукофот ололмайди. Лекин техник назорат бўлими бошлиғи мукофотга алоқаси бўлмагани учун назоратни кўчайтирмайди. Кераксиз бўлиб қолган маҳсулот учун масъулиятни цех бошлиғи ўз зиммасига олмайди. Объектив ҳолат бўйича бу зиддият доимо бўлиб

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

келади. Юқоридаги бўлимлардаги бошлиқлар цехларда бўлаётган низоларини яхши тушунмайдилар. Бу зиддиятни бартараф қилиш учун ташкилий жадвални қайтадан кўриб чиқиш керак. Назорат бўлими марказлашган тартибда бўлиши лозим.

Кичик-кичик зиддиятларга эътибор берилмаса, бартараф қилинмаса у катта зиддиятга айланиб, ривожланиб кетиши мумкин.

Ташкилий-технологик, иқтисодий, микро- ижтимоий тизимлар бўйича зиддиятли вазиятлар кишилар иродасига боғлиқ бўлмаган ҳолда юзага чиқади. Тасаввур қилинг, сизни бошқа жойга ишга ўтказишди. Агар янги иш жойингиз ўйингизга узоқ бўлмаса, эски ишингизга ўхшаса бу сизни қониқтиради. Лекин янги ишингиз яхши бўлгани билан аввалги танишларингиз бу ерда йўқ, янги жойда янги танишлар билан мулоқотда бўлишингиз керак. Кишилар янги ишга кирганда у ердаги ҳолатни ўрганиб чиқадилар. Вақти келиб у бу жойни тарк этади, унинг ўрнига янги ходим ишга келади. Бу ҳолат давом этади, бу ишчи ўрингa бири келиб , бири кетади. Агар бош бухгалтер раҳбарнинг йиғилишига кириб кетса, уни ҳеч ким ўрнида ўтирмайди демайди. Ҳар бир киши ўз вазифасини бажараверади. Иш ўрни ташкилотнинг таркибий қисми ҳисобланади. Ҳар бир мажбурият ҳуқуқ билан белгиланиши керак.

Ҳар бир мажбурият ва ҳуқуқ бир-бири билан мувозанатли бўлиши керак, яъни ҳар бир мажбурият ҳуқуқ асосида таъминланган бўлиши лозим. Ишлаб чиқаришда маҳсулотлар етарли бўлмаса зиддиятлар келиб чиқиши мумкин. Иш тўхтаб қолганда ҳам низолар келиб чиқади. Раҳбар буни олдини олиш учун ҳаракат қилиши керак. Гуруҳ бўлиб ишланадиган жойларда бир ишчининг ишга келмаслиги бутун жамоага салбий таъсир этиши мумкин. Келмаган ишчининг ўрнига бошқа ишчи ишлагиси келмайди, ”нимага мен уни ўрнига ишлашим керак?” “бу менинг мажбуриятимга кирмайди” каби талабларни қўйиши мумкин. Бундай ҳолатда раҳбар билан ишчи ўртасида зиддият келиб чиқиши мумкин. Ҳар бир раҳбар ходимларнинг бажарган ишини сифатига қараб мукофотга тавсия қилиши керак. Рағбатлантириш масаласини ўринбосарлари билан келишган ҳолда белгилаши лозим. Акс ҳолда зиддият, низолар келиб чиқиши мумкин. қорхонада ташкилий масъулият энг муҳим стимўл (қўзғатувчи) бўлиб хизмат қилади.

Иш ўринлари ўртасидаги боғлиқликни кўриб чиқадиган бўлсак, бу алоқалар учга бўлинади: технологик, ахборот, иерархик. Ташкилий -технологик тизимда технологик алоқалар ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ. Технологик алоқа кишиларнинг неча йилдан буён ишлаётганига, хулқ-атвор психологиясига, малакасига боғлиқ. зиддиятни келиб чиқишига сабаб бўлувчи омиллардан бири-бу битта ходимга бир неча бошлиқларнинг кўрсатма беришларидир. Оқибатда ходим кимни кўрсатмасини бажаришни билмай қолади. Оппонентлар бу ерда раҳбарлардир. Жамоада ходимлар қанчалик кам бўлса раҳбар улар билан низога бормай ишлай олади. Жамоа аъзолари кўп бўлса, раҳбар фақат шароитни яратиш билан боғлиқ

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

вазифаларнигина бажаради. Чунки ходимлар билан бевосита мулоқотда бўлиш имконияти бўлмайди.

Раҳбар қўл остидаги ўринбосарлар қанчалик кўп бўлса, уларнинг ҳар бири бошлиқнинг кўзига камроқ кўринишга ҳаракат қиладилар. Чунки раҳбар уларни ҳаотик (тартибсиз) бошқаради. Айрим раҳбарлар барча ишни, ҳатто бошқарувни ҳам ўринбосарларига топшириб қўяди. Ўзи масъулиятдан қочиб юради. Лекин бундай усулда иш олиб борилса зиддиятлар келиб чиқиши мумкин.

Зиддиятнинг келиб чиқишига сабаб бўлувчи манбалардан бири- бу бошқарувда вазифаларнинг тўғри, аниқ тақсимланмаганлигидир.

Ташкилий-технологик ва иқтисодий хизматлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни учта типини ажратиш мумкин:

1. Ташкилий-технологик мақсад устуворлиги. Масалан, бош муҳандис, директор ўринбосари каби лавозимдагиларда бу устуворлик кучли бўлади.

2. Устуворлик иқтисодий тизимда ҳам бўлади. Чунки барча ташкилотлар иқтисод асосида кўрилади.Масалан, артеллар, хўсўсий ишлаб чиқариш, кооперативлар.

3. Ташкилий-технологик ва иқтисодий мақсадлар тенг ҳуқуқли бўлиши керак. Агар бири(бош экономист) иккинчиси(бош муҳандис)нинг устидан бошлиқ бўлиб қолса зиддият келиб чиқиши мумкин. Шунинг учун бу лавозимлар тенг ҳуқуқли бўлиши мақсадга мувофиқдир.

**Низо рўй бергач уларни бартараф этиш учун қуйидагиларга амал қилиш тавсия этилад:**

1) Вазминликни сақлаб қолиш;

2) Низонинг асосий сабабини аниқлашга интилиш;

3) Шахсий соҳадаги тўқнашувга йўлқўймаслик;

4) Ҳар бир сўз ва иборадан эҳтиёткорлик билан фойдаланиш;

5) Компромисс учун очиқ бўлиш;

6) Суҳбатдошнинг ҳар бир гапини диққат билан тинглаш ва таҳлил қилиш.

Сиз жамоада содир булган зиддиятдан ташкарида булла олмайсиз. Агарда сиз конфликтга умуман аралашмасангиз хам, сиздан унга нисбатан уз муносабатингизни билдиришингиз суралганда, хохланг – хохламанг зиддиятга нисбатан уз фикрингизни , уз хулосаларингизни айтишга мажбур буласиз. Бу эса кайсидир масалаларда бир ёки бошка томоннинг манфаатларини устун куйишингизга, бирор томоннинг ёнини олишингизга сизни мажбур этади. Агарда сиз максадли равишда жамоадаги конфликтдан узингизни олиб кочиб, узингизни бетараф деб эълон

килганингизда хам, хар куни уша жамоада булганингиз учун, конфликтнинг кандай ривожланаётганлиги, томонлар узини кандай тутаётганлигини беихтиёр кузатиб борасиз, охир окибат узингизни хакикатдан хам зиддиятдан ташкаридаман, деб хис кила олмайсиз.

## ПСИХОЛОГИЯ ФАНИДА СТРЕСС ТУШУНЧАСИ:

Стресс термини XX асрнинг 40 йилларига келиб оммавийлашди. Биринчи бўлиб стресс бўйича 1932 йил физиолог Уолтер Кенон ва 1936 йил йилда врач Ганс Сельелар чуқуррок тушунча беришга ҳаракат қилганлар. Канадалик олим Г.Селье «стресс ҳар доим ҳам зарарли эмас, баъзида инсон организмига ёрдам, фойда бериши мумкин» деган фикрни беради.

Стресснинг ижтимоий, психик ва физиологик стресс шакллари мавжуд. Стрессдан ҳимоя қилувчи установкалар каталоги

**Кўрсатма:** стрессор ҳолати хавф солаётган оғир шароитларда қўйидаги каталогдан олдиндан танишиб ўтирмасдан 7 тадан 10 тагача пунктги танлаб олинг (яхшиси танлаб олган пунктлардаги фикрларни ёзиб олганингиз маqул) ва шошилмасдан ўқиб, Ушбу фикрлар тўғрсида яхшилаб уйланг.

- Мен қандай кўринаман, деган фикрни миянгиздан чиқариб ташланг, асосийси-иш
- Қаддингиз ҳолатини текширинг
- Ўз ҳаётингиздаги асосий мақсадни эсланг
- Гуёки ҳеч нарса бўлмагандай ишни давом эттиринг
- Ҳаёл сўраётганингиз йўқма?
- Бошқа вариантни изланг.
- «Ўз-ўзидан бўлади»-деган қонунга итоат этинг
- Ўйлаб кўринг, майда-чуйдаларни асосий деб ҳисоблаётганингиз йўқми?
- Менинг адресимга бўлган танқид-ўз-ўзимни мукаммаллаштиришга бўлган шахсий резервидир.
- Баъзида чекиниш –доно ҳаракат қилишдир.
- Тушуниш-бу юксакликка кўтарилмоқдир.
- Паст товушларга қулоқ солинг

- Энг ёқимли нарса-кўпинча энг хавфли нарсадир
- Ўзингизни азаблаб қийнаманг, бу ожизларнинг иши
- Нолиманг.
- Кўчаларда айланиб юринг
- Ортиқча нарсани ўйлаб топманг
- Чуқур-чуқур нафас олинг
- Воқеага юмор билан ёндашинг
- *Скарлет О, Харанинг* "Мен бу нарса тўғрисида эртага уйлайман" формуласини эсланг

**Рахбарлар томонидан жамоа этикасининг бузилиши.**

Мехнат жамоасида ходимлар бир – бирларига узаро хурмат ва бир – бирларига зарар етказмасликкахаракат килиб, ишлашлари лозимдир. Аммо шунга карамасдан, баъзан улар уртасида, купрок жамоа рахбарининг уз кулидаги ходимларига нисбатан жамоа этикасининг бузулиш холлари учраб туради. Улар куйидагилардан иборатдир;

- Рахбарнинг уз кулида ишлаётганларга нисбатан димогдорлиги, узиникатта тутиши, уларни бехурмат килиши;
- Берган ваъдалари устида турмаслик;
- Уз фикирларидан узгача булган карашларини ёктирмаслик, уларни инкор этиш, уларни билдирган кишиларни таъкиб остига олиш;
- Танкид ва уз – узини танкидни бугиб куйиш;
- Уз кулидаги ходимлар хукукларини чеклаш;
- Ходимларга уларнинг лавозим вазифаларидан ташкари шахсий мажбуриятларни юклаш ва уларнинг бажарилишини талаб этиш;
- Барча учун мухим булган баъзи маълумотларни яшириб, улардан жамоани бехабар колдириш ( масалан, штатлар кискариши, ёки, чет элга хизмат сафарига бориш учун келган хабар);
- Инсон нафсониятини пастга урадиган танкид билан шугулланиш;
- Ходимлар орасига атайлаб галва ва нифок солиб куйиш;
- Ходимларни гурух – гурух килиб, улар уртасидаги низоларни келтириб чикариш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- Ходимнинг вактини тежамаслик (масалан, ходим агар рахбар билан мухим масала юзасидан маслахатлашмокчи булса, уни бир неча кун кутишга мажбурлаш;
- Хонасига кирган одам билан уз когозларидан куз узмай сухбатлашиш ;
- Кирган одамга «утиришни» таклиф этмаслик ва бошк ;

**Жамоада конфликтни бошкариш тартиблари:**

1. Конфликтни вужудга келганини, унинг мавжудлигини тан олиш ва уни урганиш.

2. Конфликтга тортилган ходимлар, бевосита конфликт иштирокчилари хамда конфликтга алокадор булмаган, аммо манна шу жамоа ходимларининг зиддият тугрисидаги холис фикр – мулохазаларни урганиш

3. Конфликтнинг асл мазмунини, нима сабабдан келиб чикканлигини аниклаш. Зиддиятнинг шахслараро ёки томонлараро конфликт эканлигини белгилаш. Шунингдек, жамоадаги осойишталикни бузиш, жамоага уз салбий таъсирини утказишга, сабаб булаётган одам мавжудлиги ёки йуклигини аниклаш. Умуман конфликт вазиятининг субъектив ва объектив келиб чикиш сабабларини урганиш. Объектив сабаблар (масалан, компьютернинг бузилиб колганлиги, электр чирогининг учиб колганлиги, когозларнинг етишмовчилиги в ах.к.) мавжудлиги аникланса, уларнинг олдини олиш чораларини куриш.

4. Конфликт ечимларини режалаштириш. Конфликт ечимини топиш буйича турли альтернатив усуллар, йуллар ва сценарийларни ишлаб чикиш. Конфликтнинг кандай ривожланиб ва усиб бориши мумкинлигини аниклаш. Конфликтнинг олдини олиш чораларини куриш.

5. Конфликт жараёнидга барча ходимларни жалб килишга харакат килиш. Купчилик холларда биргаликда зиддият мазмуни, унинг келиб чикиши ва унинг ечимини топиш буйича хамкорликда чора – тадбирларни белгилашнинг узи конфликт вазиятни юмшатишга, томонлар манфаат ларини уйгунлаштиришга, умумий максадларни топишга, шунингдек, уйгунлик асосида томонларни янгитдан бир – бирига очик мухокамага куйиш, хар бир ходимнинг фикр ва карашлари самимий баён килинишига эришиш карашлардаги плюрализмга эришиш, конфликт ечими буйича хар бир томон карашларининг йулга куйиш жамоадаги хар турли кескинликлар, мавхумлик,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

гина – кудрат, гийбат, хафагарчилик, фикрларнинг ичда колиб кетиши, галамислик, фитна, бухтон ва аник булмаган маълумотларнинг таркалишини олдини олади.

6. Бутун жамоадаги диккатни конфликтнинг мазмунини, муаммонинг мохиятини англашга каратиш ва йуналтириш яхши натижа беради. Чунки конфликт – бу хаётнинг ёки жамоадаги фаолият жараёнининг охири эмас. Жамоа бундан кейин хам биргаликда, хамкорликда ишлаши лозим. Иш юзасидан эса турли зиддиятлар булиши мумкин. Иш юзасидан булган зиддиятларга иш жараёнини яхшилаш учун вужудга келган янги вазият, иш унумдорлигини ошириш имконияти, мехнат жараёнларидаги низоларни олиб ташлаш оркалиянги муносабатларни урнатиш жараёни сифатида караш уринлидир.Конфликт келиб чикишидан сунг вужудга келган янги вазият айнан янги карорлар учун йул очиб беради. Йигилиб колган муаммоларни юзага чикаради. Уларнинг ечимини топишга бутун жамоани йуналтиради. Ташкилотдаги мухит канча осуда ва тинч куринмасин унинг ички ривожланиш тамойилларида конфликтлар режалаштирилган ва табиий урнаштирилган булади. Конфликт жамоадаги муаммони ёркин ва аник куриш, уни хис кили шва унинг ечимини топи шоркали, янги илгор ва тараккиёт тамойилларини белгилаб олиш учун шарт – шароитлар яратади. Бу холат – конфликт мазмунида яширинган унинг яратувчанлик имкониятларини курсатади. Агар ташкилот рахбари жамоада иш жараёнида юзага келиши мумкин булган зиддиятларни олдиндан башорат кила олса ёки вужудга келган конфликтларни яратувчанлик тамойиллари асосида ривожлантира олса, жамоа ичидаги зиддиятлардан куркмаса, манна шу ташкилотда усиш ва улгайиш таъминланган булади.

7. Конфликт ечими доирасида кабул килинган карорларнинг бажарилишини таъминлаш ва конфликт вазиятни хамкорликда кабул килинган ечимга олиб келиш . Хар бир томоннинг амаллари аник, узаро мувофиклашган, бир – бирини тулдирган, адолатли ва оддий булиши зарур. Ечимни уз вактида топиш конфликтнинг кучайиб кетмаслигини таъминлайди.

8. Конфликт вазият буйича белгиланган карор ва хулосаларнинг уз вактида белгиланган карор ва хулосаларнинг уз вактида жорий этилишини таъминлаш зарур. Конфликт вазиятда бир марта карор кабул килиб, муаммо уз ечимини топди деб уйлаш нотугридир. Бу карорларнинг бажарилишигина

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

конфликтнинг хакикий ечими булла олади. Вазият конфликт ечими топилганини курсатиши мумкин, аммо анна шу конфликт ечими амалга оширилдими, бу сизнинг кейинги саъй-харакатларингизга бевосита боглик булади.

**Жахл ва газабни жиловлаш буйича 10 фойдали маслахат**

1. Паузадан фойдаланинг.

   Агар сиз жахл туфайли узингизни йукотиб, газабга берилиб кетаётганингизни сезсангиз, пауза килинг. Хамсухбатингизга жуда жахлингиз чикаётганини айтиб, «Мен – тасдик»лардан фойдаланинг. Албатта кейинрок яна кайта мавзу мухокамасига кутулишга харакат килинг.

2. Жисмоний машклар билан узингизни чалгитинг. Кучага чикиб сайр килинг, велосипеда учишингиз мумкин, тошлар кутаринг, сузинг, тункалар ёринг, тока чикинг, телевизор каналларини пультсиз узгартиринг, бирор машк килиш билан газабингизни енгиб чикинг.

3. Санаб куринг. Газаб устун келаётганида, ичингизда 10 гача санаб куринг ёки 2000 гача. Диккатингизни ракамлар тартибига бери шоркали сиз барибир жахлдан тушасиз.

4. Хат ёзинг. Агар кимдандир жахлингиз чикаётган булса, унга ёзинг. Унга юрагингиздаги хама дард аламларингизни тукиб солинг, уни сукишга эринманг. Хатни ёзиб булгандан кейин, укиб чикинг – да, кейин йиртиб ташланг.

5. Медитатция килинг. Кулай жойлашиб олинг. Тинчланинг, кузларингизни юминг. Чукур нафас олинг. Нафасни бироз ушлаб туринг. Аста – секин нафас чикаринг. Хаёт мазмуни хакида уйлаб куринг. Сизни нима рохатлантиради?! Узок ва чиройли улкаларга учиб кетаётганингизни тасаввур килинг. Агар сиз машхур эстрада хонандаси булсангиз зур буларди-а?! Йук ундан – да зур орзу-хаваслар хам бор. Сиз ката бизнесменсиз. Маблагларингизни хайрия ишлари учун сарфламокчисиз. Етим болалар учун махсус мактаб курдингиз. Якинда сизнинг фабрикангиз очилди. Канча одам иш билан таъминланди. Ушанда сизни хафа килган одам билан канака гаплашишингизни узингиз биласиз.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

6. Ижод билан шугулланинг. Газабнинг расмини чизинг. Газабингиз хакида шеър ёзинг. Уз газабингиз ижод оркали чикиб кетишига ёрдам беринг.

7. Иссик ванна ёки душ кабул килинг.

8. Сухбатлашув ва дардлашув.Якин дустингиз билан гаплашиб куринг. Дустингизга уз хиссиётларингиз хакида гапириб куринг. Баъзан дил изхори хар кандай усулдан купрок ёрдам беради.

9. Уй хайвонингизни эркаланг. Уй хайвонлари тинчланишнинг яхши воситасидан бири хисобланади. Уз кучугингиз билан уйнанг ёки мушугингиз билан мудраб олинг, кушларингиз билан гаплашиб куринг, баликларингизнинг сузишини томоша килинг в.х.

10. Диккатингизни бошка нарсага каратинг. Узингизни бирор иш билан машгул килиб куринг. Телевизор куринг.мусика тингланг. Кинога боринг. Компьютерда утиринг. Сизни хавотирга солаётган фикрлардан узингизни чалгитиш учун бирор бошка нарса билан шугулланинг.

Низоларни бошкариш инсондан узига хос малакаларни талаб килади. Аммо конфликтларни бошкаришга урганган инсон хар доим уз хаётини, атрофдагилар хаётини муаммолардан тозалаб, уларнинг тугри, адолатли ва осуда яшашлари учун мукобил шарт шароитлар вужудга келтира олади. Низо бартараф этилмай муносабатлар бутунлай тугалланса, буни фақат позиция (нуктаи назар)ларнинг бир-бирига тўғри келмаслиги туфайли рўй берган ходиса деб ҳисоблаш лозим. Демак биз ўзаро мулоқотда низоларнинг пайдо бўлмаслигига ҳаракат қилмоғимиз, суҳбатдошимизни тўғри тушунмоғимиз керак. Шундагина атрофдагилар билан бўладиган мулоқотимиз муваффақиятли амалга ошади.

Мавзу буйича мавжуд илмий ва укув адабиётларини тахлил килиш хамда педагогик жараённи кузатиш оркали куйидаги хулосага келдим. Мактаб жамосида низоларнинг келиб чикмасликнинг мухим вазифаси педагоглар орасида маънавий вазиятни яхшилашдир. Бунинг учун мактаб ва жамоат ташкилотларининг рахбарлари педагогларнинг хаёти, фаолияти, муамала-муносабатлари кайси омил (фактр) ва шарт- шароитларига богликлигини аниклаб билиб олшлари зарур. Характерига кура обеъктив ёки субеъктив шароитлар, омиллар булиши мумкин.Узбекистон Ресбубликасида ёшларни укитиш ва тарбиялашда максад бирлиги; давлвт таълим тизимини устувор йуналишда каторига киритиб, хар йили

бюджетдан катта микдорда маблаглар ажратаётгани макталарнинг укув моддий базасини мустахкамлашга корхоналар, муассалар эътибори жалб килинаётгани; муаллимларнинг моддий ахволи, обрусини, педагогик махоратини ошириш борасидаги гамхурликлар педагогик жамоаларда муомала одобини шакллантириш учун объектив факторлардир. Лекин айнан бирор мактабда мавжуд муомала одоби шу мактабнинг узига хос шарт-шароитларига, купинча хар бир муаллимнинг педагоглик маданияти ва махоратига, мактаб рахбарларининг билимдонлиги, ахлокий маданияти, ахлокий киёфаси, бошкарув услуби, муросага кела билиши, низоли вазиятларни бартараф этиш усуллари, норасмий алокаларнинг характери кабиларга боглик булади.

Жамоада низоли вазиятлар келиб чикмаслигининг шаклланишига жамоат ташкилотларининг роли каттадир. Улар муаллимнинг обрусини ошириш, жамоат ишларига фаол катнаштириш йули билан укитувчининг ахлокий ва педагогик маданияти, масъулиятини оширишга кумак беради. Жамоат ташкилотлари мактабда мехнат интизомини мустахкамлаши, укитувчиларга талабчанликни, уларнинг масъулият хиссини ошириш, кадр-кимматини саклаш, кобилият ва талантини намойиш этишига кумаклашиши зарур. Муаллим хар сузини уйлаб гапириши, бошкаларнинг, касбдошларининг сузи, фикри, мулохазаларини тинглай билиш шунингдек уз ишлаётган жамоасида турли хил низоларни келтирмаслик хам педагогик жамоада узаро муомала-муносабатларини яхшилашга, шунингдек жамоада турли хил низоларни келиб чикишини олдини олишга хизмат килади.

Фойдаланилган асосий адабиётлар:

1. Природа феноменалогия и динамика конфликтов в современном мире. Тез.Док. Международной научно – практической конференции. 1993йил 2 – часть – 184 – с.
2. Н.Н.Рыбакова «Конфликт и взаимодействие в педогогическом процессе. Москва. «Просвищение1991 йил. 64 – с.
3. С.М.Емильянов. «Практикум по конфликтологии» СПб .Питер. 2000 йил – 360 с.
4. А.Я.Анцупов,А.А.Малышев «Ввидение в конфликтологию». Москва. 1996 йил.-551 –с
5. Бурдыгина Т.Н., Королёва Е.В., Юрченко П.Г. Проблемные ситуации в школе и способы их решения: практическое пособие. – М.: АРКТИ, 2006. – 234 с.
6. Ғозиев Э. Умумий психология. Тошкент, 2002.
7. Ғозиев Э. Психология. Тошкент, «Ўқитувчи», 2003.
8. Давлетшин М.Г. Умумий психология. Тошкент, ТошДПУ, 2002.
9. Каримова В. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Тошкент, 1989.

**Қўшимча адабиётлар:**

1. Карнеги Д. Муомала сирлари. Тошкент, «Наврўз», 1992.
2. 2. Қосимов С., Мўминов Н. Раҳбарлик қобилияти ва бошқарув масалалари. Тошкент, 2001.
3. 3. Адизова Т. Бошқарув мулоқоти психологияси. Тошкент, 2000.
4. 4. Эргашев П. Мулоқот психологияси (маърузалар матни). Тошкент, 2003.

**Интернет манбалари:**

1. http://www.yspu.yar.ru.
2. http: www.lib.psixology.msu.ru
3. http: www.lib.psixology.ru
4. 3.http: www.lib.psixology.rin.ru
5. 4.http: www.lib.psixology.narod.ru

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# QARIYALARDA PARKINSON KASALIGIDA XAMSHIRALIK PARVARISHI.

G'ANIEVA NODIRA SALIMOVNA

ZUBAYDULLAEVA GULCHAMAN SALIMOVNA

KATTAQO'RG'ON ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada qariyalarda parkinson kasaligida xamshiralik parvarishi va shifokor tafsiyalari va eng so'ngi davo choralari haqida fikrlar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Parkinson kasalligi, inson, sog'lom odam, aterosklerotik, ensefalit, meningit, D vitamini, Akupunktur.

Qariyalarning dardini eshita, tushuna olish, ular bilan insoniy muloqotga kirisha bilish, bemor oldida javobgarlikni to'la his etib, uning sog'lig'ini ijobiy tomonga o'zgartirish shu kunning talabidir. Hamshiralik ishini fan va sanoat darajasiga ko'targan amerikalik nazariyotchilardan biri V. Xenderson tibbiyot hamshiralarining noyob vazifasi – inson, sog'lom odam yoki bemorga o'zining sog'lig'ini tiklashi, mustahkamlashi, umrini osoyishta yashab o'tishiga ko'mak bera oladigan darajada malaka va bilimga ega bo'lishdan iborat, deb hisoblaydi.

Butun dunyodagi zamonaviy olimlar, aniq sabablarni aniqlash va sabablari noaniq va xilma-xil Parkinson kasalligining oldini olish uchun imkoniyat topish uchun muvaffaqiyatsiz harakat qilmoqda. Bularning eng keng tarqalgan qismlari quyidagilardir:

-tomirlardagi aterosklerotik o'zgarishlar, shuningdek boshqa qon tomir o'zgarishlari;

-miyyani (ayniqsa takroriy) va miyaning ta'sir ko'rsatadigan boshqa shikastlanishlarini;

-ensefalit, meningit va miyaning boshqa yallig'lanish kasalliklari;

-miyaning neyronlarning genetik mutatsiyasiga;

-yaqin va uzoq qarindoshlaridan meros olish;

-toksik moddalar inson organizmiga toksik ta'sir ko'rsatadi;

-organizmdagi D vitamini etishmovchiligi, tez-tez yoshlik davrida kuzatiladi.

Parkinson kasalligi ikkinchi eng keng tarqalgan neyrodejenerativ kasallik va eng keng tarqalgan harakat buzilishi. Parkinson kasalligining o'ziga xos xususiyati mushaklarning nazoratini asta -sekin yo'qotishi, bu esa oyoq -qo'llar va boshning titrashiga, qotib qolishga, sekinlik va muvozanatning buzilishiga olib keladi. Semptomlar yomonlashganda, yurish, gapirish va oddiy vazifalarni bajarish qiyinlashishi mumkin.

Parkinson kasalligining rivojlanishi va buzilish darajasi odamdan odamga farq qiladi. Parkinson kasalligi bilan og'rigan ko'p odamlar uzoq umr ko'rishadi, boshqalari esa tezroq nogiron bo'lib qoladilar. Parkinsonning yiqilish bilan bog'liq shikastlanishi yoki pnevmoniya kabi asoratlari. Biroq, Parkinson kasalligi bo'lgan va bo'lmagan patentsial populyatsiyalarni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, kasallikka chalinganlarning umr ko'rish davomiyligi umumiy aholi soniga teng.

Parkinson kasalligiga chalinganlarning aksariyati 60 yoshdan katta. Umumiy umr ko'rish davomiyligi oshgani uchun, kelajakda Parkinson kasalligi bilan kasallanganlar soni ko'payadi. Katta yoshli Parkinson kasalligi tez-tez uchraydi, lekin erta boshlangan Parkinson kasalligi (21-40 yoshda) va voyaga etmagan Parkinson kasalligi (21 yoshgacha) boshlanishi mumkin.

Parkinson kasalligi ko'p hollarda qariyalarda yuzaga keladi. 50 yoshlarda o'tgan ko'plab odamlar uchun bu kasallik tahdidi kun sayin ortib bormoqda. Kasallikning boshlanishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan asosiy omil - bu irsiy kasallikdir.

Jismoniy mashqlar yoki maxsus tibbiyot jismoniy madaniyat uzoq vaqt davomida to'liq motorning funksional imkoniyatlari bo'lgan odamni yashash imkoniyatini berishga imkon beradi. Jismoniy mashqlar majmuasi hamshira tomonidan individual ravishda tanlanadi.

Hamshira ushbu quyidagi terapiya usullaridan foydalanishni tavsiya etib o'zi ham qariyalar bilan kasallikni yengadi. Ya'ni:

- Akupunktur;
- An'anaviy tibbiyot yordamida davolash;
- Suyuq azot bilan neyronlarni muzlatish.

Bugungi kunda kasallik davolanmaydi. Ammo kasallikning namoyon bo'lishi va rivojlanishini kamaytirishga qaratilgan ma'lum bir terapiya mavjud.

- Sog'lom turmush tarzi. Alkogol va nikotin yo'q. Bundan tashqari, ko'plab dorilar alkogol bilan birlashadi. Toza havo. Kichik sayohat, sekin qadam.
- Tegishli parhez. Quvvat muvozanatli bo'lishi kerak, juda ko'p vitaminni o'z ichiga oladi. Yarayin, oqsillar va uglevodlar faoliyatiga qarab. Menyudagi tolalar bo'lgan mahsulotlarni kiritganingizga ishonch hosil qiling. U shirin va sho'rlikni kamaytirish kerak. Yog 'ovqatini rad eting. Etarli suyuq iching. Quvvatni kuniga 6 ta qabulda bo'linadi.
- Massaj
- O'rtacha jismoniy mashqlar. Majmuada qo'rqoq mushaklarni cho'zish mashqlari bo'lishi kerak. Ajratishlarsiz, bo'g'imlarning ishini yaxshilash uchun aylanma

harakatlar. Nafas mashqlari. Piyoda yurish. Sinflar uchun dumbbelllar kichik vazn uchun mos keladi. Vaqt o'tishi bilan yuk biroz ko'tarilishi mumkin.

Umumiy gimnastikani bal raqsi bilan almashtirish mumkin. Parkinsonizmizm bilan og'rigan bemorlar uchun maxsus raqs terapiyasi mavjud. Guruhlarda maxsus rejalashtirilgan darslar mavjud. Raqslar nafaqat tanalarini, balki psixologik aloqada ham yordam beradi.

Kasalxonaga yotqizish to'g'ri qaror bo'ladi. Nazorat ostida davolanish usulini yanada samarali tanlash mumkin. Parkinsonni davolashda hamshiralar parvarishi juda ham zarur. Agar kasallikning taraqqiyotining rivojlanishi dori-darmonlar bilan to'xtatilmasa, shifokor maxsus elektrodlardan aziyat chekayotganlarning miyasida joylashtirishni hamshiralarga aytib. Hamshiralar parvarishni so'ngi bosqichini qo'llaydi. Ushbu maxsus elektrodlar bilan miya bilan pulslar va signallarga xizmat qilishadi va o'z faoliyatini o'rnatadilar. Bugungi kunda bu kasallikni to'xtatishning eng samarali usuli hisoblanadi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Иргер П.М. Нейрохирургия: darslik– М., 1982
2. Ромоданов А.П., Мосийчук Н.М., Рудяк К.Э. – Нейрохиругия: дарслик – Киев -1992
3. Руководство по нейротравматологии. / А.Н.Коновалов – М.2004
4. Лебедев В.В. Руководство по неотложной нейрохирургии – М.,Медицина, - 1987
5. Микронейрохирургия (англ.) .
6. Хирургия ЦНС под ред. Угрюмова В.М.1 том, 2 том.1969. (в библ.).
7. Ромоданов А.П., Рудяк К.Э. –Опухоли головного и спинного мозга Киев- 1980 – 995 с.
8. Арутюнов А.И. Руководство по нейротравматологии., ч.1, 1978; ч.2, 1979.
9. Арендт А.А., Нерсесянц С.И., Основы нейрохирургии детского возраста, 1968.
10. Неврологическая хирургия (англ.) .
11. А.П Гайдар Практическая нейрохирургия. 1996.
12. А А Скоромец Топическая диагностика заболеваний нервной системы.1982.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Comparative study of phraseological expressions with the component "rest" in the English and Uzbek languages

**Nadirova Hilola Sirojonovna**
**Djizzakh SAMBHRAM University**

***Annotatsiya:*** *Qabul qilingan izlanishlar zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan bo'lib, turli til guruhlariga mansub Indo-Evropa oilasining ikki tilidan biri bo'lgan roman-german (ingliz tili) va turkiy (o'zbek tili). Tadqiqotning maqsadi, ikkala qiyoslangan tillarda (ingliz va o'zbek tillarida) «rest» fe'llarning tarkibiy qismlari bilan frazeologik birliklarning qiyosiy tahliliga asoslangan bo'lib, ularning so'zma-so'z nuqtai nazaridan ham, ularning tipologik o'xshashliklarini va farqlarini ochib beradi hamda matn tarkibidagi operatsion birliklarga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ifodalangan birliklar; universitet ta'limi; qiyosiy aspekt; semantik tasnif; talabalarning ta'lim olishlari; umumiy va o'ziga xos xususiyatlar.*

***Аннотация:*** *Исследования посвящены современным проблемам современной лингвистики и являются одним из двух языков индоевропейской семьи языков: римско-немецкий (английский) и турецкий (узбекский). Целью исследования является изучение сравнительного анализа компонентов глаголов «rest» на обоих сравнительных языках (английском и узбекском), а также их литературной точки зрения, их типологических сходств и и объясняет разницу между операционными единицами в тексте.*

***Ключевые слова:*** *фразеологизмы; университетское образование; сравнительный аспект; семантическая классификация; студенческое образование; общие и специфические характеристики.*

***Annotation:*** *The undertaken research is devoted to an actual problem in modern linguistics, comparative study of phraseology on the material of one of the two languages of the Indo-European family, which belong to different language groups: German (English) and the Turkish (Uzbek language). The purpose of the study is that based on a comparative analysis of phraseological units with components – "rest" verbs in the two compared languages (English and Uzbek) to reveal their typological similarities and differences, both in terms of expression, and in terms of content, paying at the same time special attention to the operation units in the text.*

***Key words:*** *phraseological units; university education; comparative aspect; semantic classification; student's education; common and specific characteristics.*

Any analysis of a phraseological unit, anyway, involves an appeal to the problem of its meaning. The obvious fact that words undergoing the process of phraseology are included in the complex semantic processes [1,66]. The study of phraseology with the general seme – condition of rest is quite relevant, as the condition of rest, along with the movement are one of the most frequently used semes, as evidenced by the wide variety of verbs and phraseological units with the same value [2,56]. The purpose of the study is that based on comparative analysis of phraseological units with components – "rest" verbs in the two compared languages (English and Uzbek) to reveal their typological similarities and differences, both in terms of expression, and in terms of content. The objective predetermined a number of research tasks: - Identify the phraseological units of the type studied in the two compared languages, using common criteria and uniform terminology;[3, 158] - Identify phraseological semantic groups of phraseology with the "rest" verb in English and Uzbek languages; - To determine the total and differential in filling phraseological semantic groups with English and Uzbek phraseological units with "rest" verbs.

The most useful in the formation of phraseological units are the following "rest" verbs: to sleep, to lie, to rest, to sit. "Rest" verbs have a semantic capacity and different variety of direct and figurative meanings, and are included as main components of the set phrases.

After the analysis of the English and Uzbek phraseological units with "rest" verbs were identified as a semantic group: the human condition.

Let's describe in detail of the group:

**Human condition.**

Everyone can be in different conditions: mental, emotional, physical. Changing, they accompany human life in its relations with the people, society, etc. This group includes idioms, indicating the emotional and physical condition of the person.

**1. The emotional state.**

The emotional state of a person can be both positive and negative. However, most of the "rest" verbs in phraseological units transmit only negative emotions.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

English idioms with the components «**to lie**» and «**to sit**» express predominantly a state of anxiety, anguish and helplessness:

*Lie at smb's heart;*

*Lie at smb's door;*

*Lie heavy on one's conscience;*

*Lie on one's back;*

*Sit on thorns.*

The verb «**to sit**» in the English language can also express positive emotions such as joy, *delight, happiness:*

*Sit on a cloud;*

*Sit on top of the world.*

Uzbek idioms with the verb «**uxlash**», «**yotish**», «**o'tirib qolish**» transmit only negative feelings such as envy, despair, anger and displeasure:

*Hasaddan ko'zga uyqu kelmaslik* – anyone feels acute envy of someone else's success;

*O'tirib qolish* – expression of despair, impotence, inability to do anything to get out of a difficult or hopeless situation.

Only one idiom in Uzbek language with the verb «**yotib qolmoq**» can transmit a positive emotional state:

*Ko'zga uyqu kelmaslik* - passionately wants something, wants the implementation of something.

**2. The physical state.**

Phrases with the component «**to sleep**», «**to lie**» in English and «**uxlash**», «**hordiq olish**», «**yotish**» indicate a variety of human conditions, including the states of sleep and death.

**a. State of sleep.**

In English idioms with the verb «**to sleep**», in the first instance, disclose a method and a way of sleep, as well as the state of insomnia:

*Sleep like a baby;*

*Sleep like a log(top);*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

*Sleep with one eye open;*

*Not to sleep a wink.*

In the Uzbek language idioms with the verb **«uxlamoq»** corresponding to the verb **«to sleep»** with the method and image of sleep are also numerous:

*O'likdek uxlamoq*

*Arqonday cho'zilib uxlamoq*

*Shirintoylardek uyquda.*

**b. State of death.**

In Uzbek idioms with component **«uyquga ketmoq»** and **«yotmoq»** in most cases indicate the condition of death:

*Umrbod uyqu;*

*O'likdek uxlash;*

*Qabrda orom olmoq;*

*Oxirgi marotaba uyquga ketish;*

*Tobutda yotish;*

*Qabrda yotish.*

The verb **«orom olish»** or **«hordiq olish»** in the Uzbek language, which can be interpreted as **«to sleep, to indulge in sleep, to rest, to die»** within a phraseological unit also expresses the state of death:

*Mangu dam olish;*

*Uzoq uyquga ketish;*

*Xudo panohida tinch dam olish.*

As we can see, in the Uzbek language such idioms are numerous. However, on the other hand, in the English language, there are only three phraseological units with components **«to sleep»** and **«to lie»**, corresponding to the verb **«uxlamoq»** and **«yotmoq»** within the meaning of the state of death:

*Lay smb. to sleep;*

*Sleep the sleep that knows no breaking (waking);*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

*Lie in state.*

Idioms, revealing the state of rest, relaxation process, a complete physical and peace of mind can be divided into two sub-groups at the same time: the physical and the emotional. Since peace in most cases means relaxation and recreation of a person both physically and mentally. However, idioms, revealing the state of a person resting are scarce both in English and in Uzbek.

In English, these idioms are expressed by the verb **«to sleep»** and **«to rest»**, the verb **«hordiq olmoq»** in the Uzbek language, which corresponds to the verb **«to sleep»** and **«dam olmoq»**, corresponding to the verb «to rest» in the English language:

*Have one's sleep out – uxlab turmoq;*

*Rest in peace;*

*Rest on one's laurels;*

*Yaxshi hordiq olmoq.*

Having considered all phraseological units with different verbs of rest in English, as well as phraseological units in Uzbek language, we concluded that the most common "rest" verbs are "to lie", "to sit" in the English language and their corresponding verbs "yotmoq" and "o'tirmoq" in the Uzbek language. These "rest" verbs are active components in each of the phraseological semantic groups. Since these "rest" verbs, both in English and Uzbek languages in addition to their initial meanings (rest) within a phraseological unit can reveal a variety of conditions. However this can't be said about the verb "to sleep" and "to rest", because our study made it apparent that the main meaning of these verbs is just rest.

## References

1. Verdiyeva, Z. (1986). Semantic fields in Modern English: Textbook. Allowance for ped. Institutions. M .: Higher School.

2. Gatiatullina, Z. (1968). A comparative study with EF component - a verb of motion: Abstract. Dis. ... Cand. Philology. Science / Z.Z.Gatiatullina. - M., 1968.

3. Kunin, A. (2005). English-Russian phrasebook. 6th edition M .: Living language.

4. Molotkov, A. (1986). Phraseological dictionary of Russian language. 4th edition, M .:

Russian language.
5. Cambridge International Dictionary of Idioms. – Cambridge University Press, 1998. – 587 p.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Инглиз ва ўзбек тиллардаги мақолларнинг мавзу жиҳатдан бир-бирига ўхшаш жиҳатлари

Эргашев Фазлиддин
Жиззах SAMBHRAM Universiteti
2-bosqich talabasi
Илмий рахбар: Сиддиков Мехрож

Инглиз ва ўзбек мақолларида халқнинг ўтмишидан бугунги кунгача бўлган барча ўзбек ва инглиз миллатига хос урф-одатлар ўз аксини топган ва халқ оғзаки ижодининг намуналари сифатида мақоллар бу вазифани бажаришда етакчилик қилади.Миллатни ўзлигини кўрсатувчи милий қадриятларни, халқнинг маданиятини ифодаловчи омиллардан бири бу халқ оғзаки ижодидир. Халқ оғзаки ижодининг энг муҳим жиҳатларидан бири бўлмиш мақоллар тилшунослик ва фолклоршиносликда ўрганилаётган энг муҳим мавзулардан биридир. Мақоллар халқ донишмандлигининг нодир намуналари сифатда оғзаки бадиий ижодининг кенг тарқалган мустақил жанридир. Мақоллар халқнинг асрлар давомида ҳаётий тажрибаларида синалган ижтимоий-сиёсий, маънавий-маданий,ахлоқий-фалсафий қарашларининг ғоят ихчам, лўнда, сиқиқ ва образли ифодасидан туғилган ҳодисадир. Мақоллар махсус ижод қилинмайди, балки маълум бир шароит тақозаси сифатидаги ҳукм бўлиб юзага келади. Улар инсонларнинг турли соҳалардаги фаолиятлари жараёнида узоқ муддатли синовлардан ўтган турмуш тажрибаларининг ҳосиласи, барқарор ва ўзгармас, тўғри ва ҳаққоний хулосаси тарзида юзага келганлигини кўрсатади. **Мақол** атамаси **арабча- қавлун-гапирмоқ, айтмоқ**сўзидан олинган бўлиб, айтилиб юрилидиган ифода ва ибораларганисбатан қўлланилади.Барча томонидан деярли бир хилда тушуниладиган ибора,ифодалар асосан мақол жанрини ташкил қилади.Халқ мақоллари омманинг муайян воқеа,ҳодисалар ҳақида хулосаларини ҳукм ва тавсияларини ўзида мукаммал тарзда мужассамлаштирган ўзига хос бадиий шаклга эга бўлган ифода ва иборалардан иборатдир.Дунёда ўз мақолларига эга бўлмаган халқнинг ўзи йўқ.Чунки ҳар бир халқ

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ҳаётий тажрибаларини мақоллар шаклида авлодларга қолдиради.Шунинг учун ҳам турли халқлар оғзаки ижодида мазмун ва шакл жиҳатдан бир-бирига яқин ҳамда ҳамоҳанг мақоллар кўп учрайди.Чунки ҳар бир халқ ҳаёти ва тарихида жуда кўп ўхшашликлар,умумийликлар мавжуд.

Инглиз тилида мақол атамаси асосан **"proverb"**сўзи орқали ифодаланади.Баъзан кўплаб атамаларда: **adages, dictum, maxims, mottoes, precepts, saws** сўзлари орқали ҳам мақол тушунчасини беришимиз мумкин. Ўзбек мақоллари сингари инглиз халқ мақоллари ҳам инглиз фолклорларнинг энг кенг тарқалган жанрларидан биридирКўпинча тузилиши фолклорларда ўрганилиши ва яна бошқа жиҳатлари билан ўзбек мақолларига ўхшаш ҳолда умумий жиҳатларини кўрсатади.Яъни инглиз тилида **мақол "proverb", матал" saying"** ва **топишмоқ "riddle"**лар бир-бирига яқин халқ оғзаки жанрлар ҳисобланади. Мақоллар ўз ва кўчма маъноларда қўллана олиш имкониятига эга бўлса маталлар фақат кўчма маънода қўлланилади.

Мақоллардаги **панд насиҳат характери** жонли ва кучли таъсирчанлигини оширади. Масалан: Инглизча **"A bad excuse is better than none"**ўзбек тилига-хоҳламасдан кечирим сўраш, умуман сўрамагандан яхши деб таржима қилинади.Ўзбекча муқобил варианти сифатида **"Яхши гап билан илон инидан чиқар,ёмон гап билан мусурмон динидан "** мақолини келтирамиз. Ўзбек ва инглиз халқ мақоллари мавзу жиҳатдан жуда ранг-барангдир. Агар барча инглиз ва ўзбек халқ мақоллари келтирилган тўпламларини кўриб чиқадиган бўлсак, уларда ўзбек халқи ҳаётининг ҳар бир жабҳасида учрайдиган нарсалар ва турли хил ҳодисаларнинг мақолларда ифодаларишига гувоҳ бўламиз.

Ватанпарварлик **-"Every bird likes its own nest", "Булбул чаманни севар-Одам ватанни"**

Тўғрилик ва эгрилик: **"Ill gotten, ill spend" - "Ҳаромдан келган ҳаромга кетар"**

Яхшилик ва ёмонлик:**"Forgive and forget"- "Ёмонликни яхшилик билан енг"**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дўстлик ва душманлик:**"A friend in need is a friend indeed"- "Жонга куйган жондан дўст, жонга куймас қандай дўст"**

Гўзаллик ва хунуклик:**"Beauty will buy no beef"-"Чиройига нон ботириб еб бўлмас"**

Оила:**" A good wife makes a good husband"-"Эрни эр қиладиган ҳам хотин, қора ер қиладаган ҳам хотин"**

Демак, ўзбек ва инглиз мақолларида мавзу жиҳатдан бир-бирига ўхшаш мақолларнинг эквивалентларини топиш мумкин.Натижада ҳар қандай мавзудаги мақолни олманг,ҳар иккала тилда ўз муқобил вариантига эгадир.Бунинг асосий сабаби шуки,барча инсониятга хос хислатлардир.Дунё миллатлари орасида инглиз халқининг характери мағрур ва хурмат талаблиги билан ажралиб туради.Бу жиҳат мақолларда ҳам кўринади**.**

Инглизча**:"Bettergo to heaven in rags than hell in embroidery."**

Ўзбекча**:"Бой бўлиб безиллагунча,Қул бўлиб кўпориб юр"-**

**Dog does not eat dog-Қарға қарғанинг кўзини чўқимайди**

**Barking dog seldom bite-Кўп вовиллаган ит тишламайди**

**When the cat is away,the mice will play-Мушук йўқ бўлса сичқон байрам қилади.**

Ўзбек мақолларида **"ит"**ва **"мушук"**образларни кўпроқ салбий маънода,салбий образда ишлатилади.Масалан**:Ит ҳурар карвон ўтар-The dog bark,but caravan goes on.**

Инглизча келтирилган **"Every cloud has a silver lining"**аслида ўзбек тилига ҳар бир булутнинг кумуш ҳошияси бор деб таржима қилинади.Келтирилган таржима орқали бирор ибратли фикрни дархол англаб олиш бироз қийин.Инглизчадан ўзбекчага таржимақилинган мақол оддий бир гапдек бўлиб қолади.Агар берилган таржимани мазмунан таҳлил қиладиган бўлсак,булутнинг кумуш ҳошиясига эга эканлиги аслида

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ёмғирнинг ёғиши билан баҳоланади.Бир қарашда мақолда ишлатилган сўзлар **“cloud”, “булут”,”silver”,”кумуш”**ҳеч қандай салбий маънога эга эмас.Бироқ мақолнинг умумий мазмунидан келиб чиқадиган бўлсак об-ҳавнинг булутли бўлиши салбий ҳолатни ифодалайди, булут бўлиб ер-у заминга ёмғир ёғиши ва бу орқали халққа ризқ-насиба келиши ижобий ҳодиса сифатида баҳоланади. Кўчма маънода ифодаланган булутнинг кумуш ҳошияси ёмғир ёғиб элга рисқ улашиши, табиатни мусаффо қилиши ва баъзан инсонлар қалбидаги ғуборни ювиш билан баҳоланади.

Хулос, инглиз ва ўзбек халқ мақоллари бу халқимизни маданий меросидир. Улар ўзбек ва инглиз халқининг барча ўй фикрлари, дунёқараши, турмуш тарзи феъл атвори ва эътиқоди акс этади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси   Тошкент-2003 (5-жилд)
2. О.Сафаров Ўзбек халқ оғзаки ижоди   Тошкент-2000-256б
3. The oxford dictionary of English provebsWilliam George Smith  2002
4. Oxford concise dictionary of proverb oxford university press  2003-364p
5. www phrases.org.UK/meanings/proverb

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**STEAM bizga nimani o'rgatadi ?**

Subhonov Dilshod
Jizzax SAMBHRAM Universiteti
2-bosqich talabasi
Ilmiy raxbar: Raxmankulova Dilora

Bugungi kunda STEAM-ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunad ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (rivojlanish) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

-o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
-tanqidiy fikrlash;
-tanlashni amalga oshirish;
-muammolarni eta olish;
-ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

-odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish. Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo'lmaydi!

Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda.

Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi.

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

-Muammolarni keng qamrovli tushunish;

-Ijodiy fikrlash;

-Muhandislik yondashuv;

-Tanqidiy fikrlash;

-Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

-Dizayn asoslarini tushunish.

-Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va

- ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

- **STEAM** yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy etuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko'p axborot bilan chalg'itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir.

Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O`qituvchining pedagogik mahorati va qobiliyati

**To'raqulova Xolida Ilhomovna**
Jizzax shahar 29- umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Ilmiy raxbar: p.f.n (PhD) To'raqulov Ulug'bek Xolbo'tayevich**

Ta'lim – tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o`sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirgan hamda jamiyatda o`z munosib o`rnini egallashga qodir bo`lgan – komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga etkazishdir.

Bugungi kunda ilm – fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha talim muassasalarida ta'lim – tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko`tarishni talab etmoqda. Bu o`z o`rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o`qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo`lmaydigan bir haqiqat borki – qilingan barcha sa'y – harakatlar oxir – oqibat o`qituvchi mehnati orqali o`z natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlilik, ko`rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish va doimiy ravishda o`z ustida ishlab mahoratini oshirib boorish talab etiladi. Bu esa farzandlarimizning chuqur bilim egallashlarida asosiy rol o`ynaydigan sifatli darsda namoyon bo`ladi.

Bugun har bir o`qituvchi o`ziga ishonib topshirilgan har bir soat darsni mahorat bilan tashkil etishi, darsni muqaddas deb bilishi va unga zarracha xiyonat qilib bo`lmasligini his etishi lozim. O`qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta'lim muvaffaqiyati va samarasi garovidir. Shunday ekan, har bir o`qituvchi darsga sifatli va puxta tayyorgarlik bilan kirishi va bor kuch va imkoniyatini ishga solib tashkillashtirishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, har bir fan o`qituvchisi faoliyati asosini sifatli dars o`tish, o`quvchilarga yaxshi ta'lim – tarbiya berish tashkil etadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

V.A. Suxomlinskiy o'zining «CHin insonni qanday tarbiyalash kerak» degan asarida «O'qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo'lmaydi», tikuvchi bir soatdan keyinroq uz ishining hosilini kuradi., pulat erituvchi bir necha soatdan sung olovdagi metal oqimidan shodlanadi. Bu uning orzusini yuksak chuqqisi yer haydovchi, don sepuvchi g'allakor bir necha oydan keyin dalada ustirgan boshoqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O'qituvchi esa o'z ijodining mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O'qituvchi har bir minut, har bir daqiqada o'zining o'ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisidan har birin i ko'rib turishi, u shu daqiqada nimalar o'ylayotganligini, qanday g'am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak-degan fikrlarni bayon etadi. Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya buyicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o`z ichiga oladi. Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta uzlashtirishdan iboratdir. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol uynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni urganish va ularning tug'ri fe'l atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Pedagog o`z faoliyatini tashkil etishida pedagogik qobiliyatlar muhim sanalib ularning har birining qay darajada yahshi rivojlanganligi o`qituvchining mahoratini o`sib borishidagi asosiy omil hisoblanadi. Demak har bir o`qituvchi qanday qobiliyatlarga ega bo`lishi kerak? Shu o`rinda V.A.Krutetskiyning pedagogga xos qobiliyatlarni umumlashtirib, ularning turlari ko'rsatib o'tamiz:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1.Didaktik qobiliyatlar – o'quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, o'quvchilarda fanlarga qiziqishni uyg'otish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat.

2.Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, kimyo, ona tili, adabiyot, tarix va b. fanlar asoslarini puxta o'zlashtirishga imkon beradigan qobiliyat.

3.Perseptiv qobiliyatlar – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati.

4.Nutq qobiliyati – shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati.

5.Tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish qobiliyati.

6.Avtoritar qobiliyat – o'quvchilarga hissiy-irodaviy ta'sir etish orqali ular o'rtasida obro' qozonish imkoniyatini yaratuvchi qobiliyat.

7.Kommunikativ qobiliyat – o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondoshishning samarali yo'lini topish, birgalikda maqsadga muvofiq o'zaro pedagogik aloqa bog'lovchi pedagogik taktning mavjudligini ifodalovchi qobiliyat.

8.Pedagogik xayol – pedagogning o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy jihatdan loyihalash-tirishda o'z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko'ra olishni ta'minlovchi qobiliyat.

9.Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning bir vaqtda o'z diqqatini bir qancha jarayonga qarata olishini tavsiflovchi qobiliyat.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, qobiliyatli va mahoratli o'qituvchi oldida hozirgi kun talabi asosida vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, buyuk vatanni dildan sevadigan va bu yo'lda o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Axborot texnologiya kommunikatsiyalari-LMS

**Abdug'aniyeva Visola**
**Jizzax SAMBHRAM Universiteti**
**BSc yo'nalishi 2-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar:Nadirova Hilola Sirojonovna**

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hayotimiznng barcha jabhalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham juda katta islohotlar amalga oshirildi, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini olib kirish, ta'limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish alohida ahamiytl kasb etadi. Hozirgi paytda ta'limga axborot kommunikatsion texnologiyalarini jadal tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, yetakchi pedagogik- uslubiy g'oyaga aylangan. Oliy ta'lim tizimida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega bo'lgan, yuksak malakali, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha zamonaviy o'qitish metodlarini yaratish va ular bilan fan manbalarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislarning axborot hamda kommunikatsiya tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlari shu fanlarda o'qitilayotgan an'anaviy bo'limlar bilan chegaralanib qolmasligi zarur. Hozirgi zamon ziyoli kishisidan o'quv multimedia ilovalarini hayotga keng tatbiq etish bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lishi, birinchi galda esa multimedia vositalari va ularning imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi va ulardan hayotda amaliy foydalanish hamda hal qilinayotgan masalaning zarur yechimni ola bilishni talab etiladi. Bugungi kunda o'quv multimedia ilovalariga bo'Igan qiziqish keskin ortib bormoqda. Kompyuter texnikasining oxirgi paytlarda rivojlanib borishi ularning o'quv multimedia ilovalarini amalda tadbig'iga keng istiqbol yaratdi. Hozirgi kunda multimediya vositalaridan foydalangan masofaviy ta'limni tashkil qilish, o'rganuvchilarning mustaqil fikrlashlari va bilim olishlari sifatini yaxshilaydi. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimining rivojlanib borishi tahlilidan shuni ko'rish mumkinki,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan bir qatorda masofaviy o'qitish modeli ham shakllanib bormoqda. Ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar masofaviy ta'limni XXI asrdagi ta'limning asosiy shakllaridan biri deb hisoblamoqdalar. Masofaviy o'qitishning asosiy shakllaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, u dasturlangan ta'lim g'oyasini rivojlantiradi, ta'lim texnologik variantarining hali o'rganilmagan yangi qirralarini ochadi. Axborot texnologiyalari bu o'quvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo'lib, uning vositasi kompyuter hisoblanadi . Masofaviy ta'lim jarayonidagi ta'lim tizimini boshqaruvchi dasturiy mahsulot bo'lgan LMS (Learning Management System) tizimlaridan foydalangan holda tashkil etish mumkin . Bunday e-learning sistemalarni, ko'pincha, boshqaruv ta'limoti (Learning Management Systems - LMS) yoki virtual yaratish qurollari (Virtual Learning Environments - VLE) deb ataladi. LMS - bu nafaqat onlayn-kurslarni tuzish va ishlash, balki, uning yordamida o'quv veb saytlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan aslahalar omboridir LMS tizimi masofali o'quv jarayonida keng qamrovli imkoniyatlar va o'quv jarayonida qo'l keladigan ko'plab o'quv materiallarining keng ko'lamda yoritilishi, bilim saviyasini tekshirish va boshqaruvida ishlash imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda LMS tizimida taxminan 2 mln nafar faoliyat olib boruvchilar qayd etilgan, 200-ta davlatda 70-tildagi 46 ming o'quv portallari va 300 nafar dasturchi-ishlab chiqaruvchilar faoliyat olib bormoqda . LMS yordamida bir o'qituvchining yetarlicha sa'y-harakatlari bilan elektron o'quv kursini yaratish mumkin. LMS kurslarini yaratish uchun avvalambor ma'ruza matnlari, amaliy va laboratoriya ishlari, taqdimotlar, audio va video uchun materiallar tayyor bo'lsa, ularni LMS ga yuklashingiz mumkin. LMS da elektron ma'lumotlaringizni joylashtirish va o'z kursingizni yaratish juda oson. LMS larkibda moduli mavjud bo'lib, u uning nisbatan murakkab qismlaridan biri hisoblanadi.Ta'lim jarayonida aloqa ta'lim muhitining juda muhim bo'lgan qismi bo'lsa,natijaviy baholar esa ta'limning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Test vaxshi loyihalangan bo'lib, o'quvchilar manbani kerakli darajada o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qiladi. Agar teskari aloqa yetarlicha tezkor bo'lsa, u holda uning yordamida o'zlarining ishini

baholash va keyingi faoliyatini belgilab olish imkonini berishi mumkinligi sababidan test jarayoni o'quvchilar uchun zarur bo'lgan qurolga aylanishi mumkin . Ishlab chiqaruvchular LMS tarkibda moduliga katta hajmdagi parametrlami qo'shganlar. Bu narsa birinchi tarafdan testni sozlashni bir necha marta murakkablashtirsa, ikkinchi tarafdan esa testni nihoyatda egiluvchan qilishga imkonini beradi.Test yaxshi loyihalangan bo'lib, o'quvchilar manbani kerakli darajada o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qiladi. Agar teskari aloqa yetarlicha tezkor bo'lsa, u holda uning yordamida o'zlarining ishini baholash va keyingi faoliyatini belgilab olish imkonini berishi mumkinligi sababidan test jarayoni o'quvchilar uchun zarur bo'lgan qurolga aylanishi mumkin. Tizimni ishlab chiqaruvchilar LMS tarkibda "Test" moduliga katta hajmdagi parametrlarni qo'shganlar. Bu narsa birinchi tarafdan testni sozlashni bir necha marta murakkablashtirsa, ikkinchi tarafdan esa testni nihoyatda egiluvchan qilish imkonini beradi. Testlash jarayoni interfeysini o'zgartirish mumkin. O'quvchilar testni bir yoki bir necha martalab bajarishlari mumkin. List moduli 2 ta komponent (qism, jihoz) dan tashkil topgan: test va savollar ombori. Test savollar bazasidan qo'shilgan turli tipdagi savollardan tashkil topadi. Har bir urinish avtomatik ravishda belgilanadi. O'quvchi testni tugatganidan so'ng test savollariga to'g'ri javoblarni ko'rishi mumkin. Bundan tashqari ushbu modulga o'qituvchiga baho qo'yish uskunasi tegishlidir . Savollar ombori ajratilgan yoki kursga belgilangan mavzular to'g'ri kelishi intizomi tartibiga qarab tuziladi. Savollar turli tipda berilishi mumkin. Masalan: bir variantli javobi bilan, ko'p variantli javobi bilan va javob yozish imkoniyati borligi. Bundan tashqari o'quvchilar mazkur savol-javobini tushuntirib berishlari mumkin. Masofali kursni loyihalashda savollar omborini bo'limlar, semestrlar va boshqa tashkiliy sxemalar kabi mavjud mavzularda yaratish mumkin. Test elementlari test topshiriqlari majmuini yaratish imkonini beradi. Testlar topshiriqlari to'g'ri - noto'g'ri, qisqa matnli javob, yozishmalar, insho va boshqalarni tashkillashtirishda ko'mak beradi. Barcha savollar ma'lumotlar bazasida saqlanadi va keynchalik o'sha kursda (yoki boshqalarda) qayta Ishlatilishu mumkin. Sinovlar o'qituvchilar tomonidan (to'g'ri javoblarni ko'rsatish)

yoki nazorat qilish (baholash) bo'lishi mumkin.LMS Moodle tizimida savollar bankini yaratish jarayoni juda ko'p vaqt va internetga doimiy ulanishni talab qiladi.

Bir so'z bilan aytganda axborot asrida rivojlanish talaygina.Bu yo'lda albatta biz yoshlarning o'rni beqiyos.Ta'lim tizimiga yangiliklar kiritilar ekan,biz bundanda ko'proq izlanishda bo'lishimiz lozim.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув.

Сиддиков Мехрож
Жиззах SAMBHRAM Университети
2-боскич магистранти

Инновация тушунчасига берилган бир қанча таърифларнинг таҳлилига кўра, инновациянинг ўзига хос мазмуни ўзгаришларни ташкил этади, инновацион фаолиятнинг асосий функцияси ўзгартиришдан иборат деган хулоса келиб чиқади.

“Инновация” ва “инновацион жараёнлар” иборалари ўзаро яқин ва ўхшаш, лекин бир хил маънони англатмайди. Инновацион жараён инновацияларни вужудга келтириш, амалиётга татбиқ этиш ва оммалаштириш фаолиятлари билан боғлиқ.

Ўқитувчилар касбий компетентлиги асосан инновацион жараёнларда ривожланади. Адабиётларда инновация бўйича жуда кўп тушунчалар келтирилган. Масалан, унинг мазмуни ва моҳияти, ички тузилишига кўра техникавий, иқтисодий, ташкилий, бошқарув ва бошқа инновация турларига ажратилган. Инновациянинг белгилари сифатида, унинг  кўлами ( глобал ва локал кўлами), ҳаётий даврининг ўлчамлари ( босқичларга ажратиш ва таҳлил қилиш ), амалиётга татбиқ этиш жараёни қонуниятлари ажратиб кўрсатилган.

Ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириш мақсадида инновацион жараёнларни ташкил этиш ҳамда кўзланган натижаларга эришишда, энг аввало, ўқитувчи фаолиятидаги мавжуд муаммоларни  ўрганиш ва таҳлил қилиш, мавжуд муаммоларни бартараф этишда бажарилиши зарур бўлган вазифаларни, мақсадни аниқлаш, шунингдек, ўқитувчининг имконияти ва эҳтиёжларидан келиб чиқиб инновацион жараённинг мазмун ва моҳиятини белгилашнинг сифати ва бажарилиш самарадорлиги раҳбарларнинг фаолиятига қай даражада боғлиқ бўлса, ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириш йўналишларида белгиланган мақсадларга кўра юқори натижаларга эришиш уларнинг инновацион фаолияти ҳамда инновацион жараёнларга қизиқишларига шу даражада боғлиқ бўлади.

Таълим муассасаларида ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириш йўналишларида ташкил этиладиган инновацион жараёнларни самарали бошқариш, мазкур жараёнга ўқитувчиларнинг қизиқишларини ривожлантириш ҳамда кўзланган натижаларга эришишда инновацион жараёнларни олдиндан лойиҳалаштириш ва бунда инновациаларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш зарур.

Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириб боришда, энг аввало, кўзланган мақсадга эришишда муассасанинг истиқбол мақсади ва имкониятларини ўқитувчилар манфаати билан уйғунлаштиришни ҳамда таълим муассасасининг фаолиятини замонавий ўзгаришларга мослаштириб бориш, таълим инновацияларини жорий этишни назарда тутувчи узоқ муддатли бошқарув дастурларини бошқарув жараёнига татбиқ этиш зарур.

Умумий ҳолда, таълим муассасасида ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятини ташкил этишга объектив ва субъектив омиллар сабаб бўлади. Объектив омилларга давлатнинг янги таълим сиёсати, таълим соҳасидаги фундаментал ва амалий тадқиқотлар, таълим муассасасининг инновацион фаолият йўналишидаги тажрибаларини келтиришимиз мумкин.

Субъектив омилларга ижтимоий-ҳудудий эхтиёж, таълим муассасаси фаолиятининг ривожланиш жараёни, ўқитувчиларнинг билим, кўникма ва малакалари, илмий салоҳиятининг ўсиши, бошқарув хусусиятларининг ўзгариши мисол бўлади.

Таълим муассасаси ўқитувчиларининг инновацион фаолиятини ташкил этишнинг педагогик шартлари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- инновацион фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи назарий-педагогик қоидалар мажмуини ишлаб чиқиш;
- назарий-педагогик қоидалар мажмуи инновацион фаолиятнинг асослари билан белгиланиши;
- инновацион фаолиятнинг мақсади, вазифаси, мазмуни ҳамда уни ташкил этиш тамойилларини ўз ичига олиши.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Таълим муассасаси ўқитувчиларини инновацион фаолиятга жалб этувчи омиллар инновацион фаолиятга уларни мотивлаштириш ( ундаш ) воситалари сифатида хизмат қилади. Ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятини ташкил этиш ишлари асосий мақсадга эришишга йўналтирилган бўлади ва шу муносабат билан таълим муассасасида асосий ўзгаришлар вужудга келади.

Мазкур йўналишда инновацияларни татбиқ этиш методлари ва воситаларига:

- ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятини таҳлил қилиш асосида уларни инновацион фаолиятга ва унинг натижавийлигига ишбилармон ўйинлари орқали ишонтириш;
- ўқитувчиларнинг инновацион жараёнларни ташкил этишга қизиқишини шакллантириш;
- илғор тажрибаларга эга бўлган малакали ўқитувчилар фаолиятини кузатишга йўналтириш;
- ўқитувчиларнинг ўзаро бир-бирини кузатиши ва назорат қилиши учун турли чора-тадбирлар белгилаш;
- устоз-шогирд институтини амалиётга татбиқ этиш;
- инновацион фаолият амалиёти бўйича ахборотлар билан таъминлаш;
- инновацион фаолиятни лойиҳалаштириш ва моделлаштириш йўналишидаги семинарлар, маслаҳатлар;
- инновацион фаолият стратегияларини шакллантиришга кўпроқ тажрибага эга бўлган ўқитувчиларни жалб этиш мисол бўлади.

Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг инновацион моделларини татбиқ этиш самарадорлигининг аҳамиятли кўрсаткичлари уларнинг ўкув-методик қўлланма ва кўрсатмалар тайёрлаш, турли хил тадқиқотлар ишларини бажаришдаги фаоллиги, яъни инновацион фаолият кўрсатиш кўникмаларини шаклланганлигини ифодалайди.

Таълим муассасалари педагог ходимларининг инновацион фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда таълим муассасаси раҳбарларини инновацион фаолиятга ундовчи ва мазкур йўналишдаги иродавий хатти-ҳаракатларини таъминловчи асослар тўртта асосий гуруҳга ажратилади:

- биринчидан, бу янгилик киритиш натижасида вужудга келадиган, хурмат-эътибор, ҳокимият, ваколат ва мавқе билан тўғридан-туғри боғлиқ бўлган шахсий қизиқишлар;
- иккинчидан, ташкилий тизимнинг самарали ривожланишига мос равишда ўзини-ўзи касбий ривожлантиришга интилиш;
- учинчидан, жамоанинг таълимий муҳитда инновацион жараёнларнинг аҳамиятини англаши;
- тўртинчидан, инновацион фаолиятнинг мазмун ва моҳиятини тушуниш ва мантиқан заруриятини қабул қилиш.

Ҳозирги кунда амалга оширилаётган замонавий ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар бевосита таълим тизимига ўз таъсирини кўрсатади. Таълимни янгилаш ва узвийлигини таъминлаш уни демократлаштиришни, ижтимоийлашуви ва инсонпарварлашувини, бошқарувда маъмурий буйруқбозлик тизимидан воз кечишни, интегратив жараёнларни кучайтириш, таълимнинг ишлаб чиқариш билан алоқасини такомиллаштиришни назарда тутади. Бу жараёнлар ижтимоий-маданий вазиятларнинг объектив ўзгаришлари билан боғлиқ ҳолда мазкур тизимнинг инновацион фаолиятларга бўлган эҳтиёжини белгилайди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AT PHYSICS LESSONS

Toshbekov Jamshid G'ulom o'g'li

Studend 2nd of Pedagogical University in Jizzakh

Supervisor: Raxmankulova Dilora G'ulomovna

Sambhram University in Jizzakh

## Abstract

The article highlights the role and importance of the use of innovative technologies in the teaching of repetition and generalization in the teaching of physics. As well the article is devoted to the issues of effectiveness of education through conducting lessons implementing modern pedagogical technologies.

**Keywords:** repetition, generalization, levels of mastery, mass, force, weight, Newton's laws.

## Introduction

By increasing the efficiency of the educational process, the foundation will be laidfor further development and strengthening of future development. Every teacher knows that a lesson is a basic form of the educational process. Therefore, the teacher, first of all, thinks about passing the lesson and improving the lesson, is searched. Today, at a time when educational reforms are underway in the country,improving the quality of teaching mathematics and science, substantiating the level of mastery of students based on pedagogical technologies by clearly definingeducational, pedagogical, developmental and interest goals at modern lessons andfurther active, creative, innovative ideas young people need to be educated. It is known that the definition of content in modern physics lessons is organized and conducted on the basis of state educational standards, curriculum, textbooks and manuals, information from Internet sources. In order for the content of physics tocorrespond to the level of scientific and technical progress, advanced production technologies, culture of the society, the physics teacher must choose specific material from different sources, get acquainted with the problems in the field, organize

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

their study without violating the logic of the subject. In doing so, he mustcompare the material he has identified with both the syllabus and the textbook.

## Material and Methods

The most important main issues that need to be studied and mastered, and the materials presented in the form of information are identified. Depending on theirlevel of complexity, the essence of physical concepts, quantities, mathematical expressions, and experiments are determined. In modern review and generalization lessons from the basics of physics, the material should be selectedin such a way that the knowledge is not ready in the form of conclusions, but allows students to independently find the right answer to the questions posed. In creating such conditions, it is necessary to be able to use and apply innovative pedagogical technologies, to take into account the nature of science. It is known that innovation (innovation) is the introduction of news. A.I. Prigogin understands innovation as purposeful changes that introduce new, relatively stable elements into a particular social unit - organization, population, society, group, which is aninnovative activity. A new direction in the development of education - the term "innovative pedagogy" and its specific research appeared in Western Europe andthe United States in the 60s of the twentieth century [1].

Given that students majoring in physics and mathematics will become scientists or engineers in the future, it is not enough to organize practical training in this form. In order for students to gain an excellent knowledge of physics, they need to present quality and assessment issues in addition to traditional ones in the classroom.

Qualitative issues require a correct understanding of the underlying process and an understanding and description of the interdependence of processes based on physical laws. [2]

## Discussion

Physics is always moving from theory to practice. Therefore, the lesson can be presented in the form of a laboratory without directly explaining the topic, and then the question of the content and on what basis it is based can be brought to theattention of students. Or by placing the tools randomly on the lab table, students are asked to choose the tools they need for the job. This method can be used in small groups using interactive methods.

So, there are some problems with the use of innovative pedagogical technologiesin the organization and conduct of repetition and generalization lessons in physicsin general secondary schools. Including:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

-Adequacy of information about physical quantities, concepts, mathematicalexpressions, formulas, units, measuring instruments, which should be systematized, determined and revived in the classes of physics through repetitionand generalization, should be taught on the basis of new methods. should be remembered for a long time and be sufficient for use in the subsequent sections of physics;

- The need to use new methods of an analytical nature, which serve to distinguish similar concepts (body weight, gravity, body mass);
- It is necessary to restore the known rules and apply them to the desired result;
- Given that the methods used in the lessons of repetition and generalization are based on the topics covered, the lessons should not be boring, but require high levels of mastery, independent inquiry, critical thinking, and the development of creative activity in students. In this case, the basic concepts taught in the "Dynamics Department" in our example, body mass, body weight, interaction, force, gravity, relativity of motion, etc., are expanded and deepened in all other branches of physics.

The following handouts are also helpful and effective for using in Physics classes.

1 "Sound sources". Sound appears in sound sources (musical instruments, loudspeakers, human vocal cords, etc.). To learn how the sound is formed, we take a metal ruler and place it on the edge of the desk with the tip protruding long.We hold the rest by hand. When we release the long end, we see that the line tip is starting to vibrate. Does it make a sound? We repeat the experiment by pushingthe tip of the ruler over the desk. In this case, a sound is heard. As we reduce thevibrating part of the ruler, the sound becomes more audible. This occurs when theruler vibrates at least 16 times per second. Consequently, objects that can vibratemore than 16 times per second can be sound sources.

2 "Concepts and magnitudes that characterize vibration." Any repetitive action iscalled a repulsive action. The number of oscillations per second is called the oscillation frequency. The frequency is denoted by the letter n (new). If an objectoscillates 1 time in 1 second, its frequency is assumed to be 1 Hertz (Gts). 1 Gts
= 1 / second The human ear can sense sounds from 16 Gts to 20,000 Gts. 16 Gts and Ki

The less sounds are called infrared and ultrasound over 20,000 Gts. Ultrasound isheard by dogs, horses and some other animals.

3 "Camerton". A device that emits sound at a specific frequency is called a tuningfork. The tuning fork was invented in 1711 by the English musician J. Shorom and was used to tune musical instruments. The tuning fork consists of a two- horned metal rod with a handle in the middle. When a rubber stick hits a branch of the tuning fork, a certain sound

is heard. To make sure the tuning fork vibrates,we hang a light balloon on the string and touch it to the second branch of the tuning fork. You can see that the balloon is also vibrating when a sound comes from the tuning fork. It is mounted in a wooden box to amplify the sound coming from the tuning fork. This box is called a resonator. The sounding mouth of a manis like a tuning fork. When the tongue is a vibrating body, the oral cavity and throat act as resonators.

4 "Sound receivers". Examples of the natural receptors of sound are the auditory organs of humans and animals. There is a special membrane inside the ear that vibrates when sound is received from it, and signals from it are transmitted to thebrain. The sensitivity of the human ear varies. Young people and the elderly do not hear at the same time. Similarly, the frequency ranges in which animals hear sound is different. The dolphin receives ultrasounds up to 200,000 Gts. An artificial instrument that receives sound is a microphone. The word "microphone"is derived from two Greek words: micros - small and phone - sound. In the microphone, sound vibrations are converted into electrical vibrations, which are then amplified in special amplifiers. It is also possible to test students' knowledge by distributing handouts based on the mastered texts using Charkhpalak technology.

And also, when passing the topic "Swimming conditions of objects" using the method of "find a partner" (this experiment can be done in several ways), put thenecessary tools on the table in a mixture, and each group is given a separate task for each method. selects and does the work independently. Some demonstration experiences do not have to be demonstrated by the teacher. He can give it to students as homework. For example, topics such as "Law of refraction of light", "Diffusion", "Dispersion of light" can be assigned in this way. Students are giventhe following task:

1. Go home, put a glass of water in it and put a pencil or your finger in it and observe. You repeat the experiment 3 times. What did you see? Write in yournotebook.
2. Paint a container of water and write down what you see in your notebook. Or spray some pungent liquid into the room and write in your notebook how you felt.
3. Go home and take a chicken patty and hold it in your eyes and look at the sun.What did you see? Write in your notebook. Another method. Having a silent experience on a topic that was sent or read to you the day before, “What was that?Explain this. Who was the first to make this discovery?” and develop students' independent thinking skills.

## Conclusion

All in all, the purpose of the use of modern technology is to teach students to thinklogically in the classroom, to express themselves freely, to evaluate themselves, to work

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

individually and in groups, the transition of the teacher to a real teachingactivity, that is, not to teach the child, but to guide students in their work on learning, mastering knowledge, making them comfortable, easy, to achieve a continuous improvement of the quality of students' knowledge and the level of their pedagogical skills, as well as the rapid selection and effective application ofmethods, the correct selection and effective application of methods in practice1. Thus, the application and correct organization of pedagogical technologies at thelessons of generalization and consolidation in physics, knowledge of the basic laws of nature on a scientific basis, the development of students' mastery. It provides a broader level creative and logical thinking, the study of natural phenomena by comparison, teaches to systematize the acquired knowledge, and in the future serves to nurture creative and active youth.

## References

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogical technologies and pedagogical skills. - T.: Literary Foundation of the Writers' Union of Uzbekistan, 2006. - p.52.
2. Tursunmetov Q.A., Uzoqov A.A., Boriboev I. A set of problems in physics. Curriculum for academic lyceums and professional colleges. 4th edition. Teacher, 2005
3. Ishmuhamedov R.J., Abdukodirov A.A., Pardaev A.X. Innovative technologies in education. - T.: «Iste'dod», 2008.
4. Yuldashev J.G'., Usmonov S.A. Introduction of modern pedagogical technologies. - T.: "Science and technology", 2008. –124-p.
5. Izbosarov V.F., Kamolov I.R. Mechanics. – T.: "LIDER PRESS", 2009

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nurmatova Kamilla

Jizzax SAMBHRAM Universiteti

2-bosqich talabasi

Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni echish yo'llari bilan tanishadilar va ularni-egallagan zahoti aniq bir masalalarni echishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlang'ich sinf ta'limi dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yo'naltirish orqali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini ajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir, o'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z echimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohozalari va hatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko`rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushutishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi.

O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari; bu aqliy taraqqiyot va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulg`aygan sari aqdiy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o`spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir.

O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona' munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq normativ talablar qo'yadi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar quyishi, ularning xatti-xarakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdogilari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslubi mavjud.

Avtoritar uslub: bu qatgaqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'yso'nishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiq qo'l qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shundan tuplari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi, o'qituvchi dars davomida

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

o'quvchilaridan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruhsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri singdiriladi o'quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumdadan, nerv tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emosional sovuqlik sinfda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozir javoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. O'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan murmala-munosabat uslubining ahamiyati juda katta.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mo'him xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida etakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda katta.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА БИЛИШ ФАОЛЛИГИ

JVXTXQTMOHM "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi Nodira Toshpo'latova Xudjamuradovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 15- umumiy òrta ta'lim maktabi boshlanģich sinf òqituvchisi Xolova Madina Bazarovna

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishni tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u bugunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi, Bolani qor, yomgir qanday yo\ishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo'lgan masafani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Nima orqali**?**» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakko'rining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi-individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, muloxaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xo'susiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida

tafakkur operasiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidgi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funktsiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning dikkati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funktsiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatta intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida baxtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xo'susiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olaydilar va diqqat obektlar ustida uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivasiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab solishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolannng xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat. albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvo'rini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlar qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini bilganlar.Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar tuqiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar zamirida ularning qurquvni engishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi.

Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilingani

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tasavvur qiladi. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivasiyasi uchun zamin tayyorlaydi.

Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TEXNOLOGIK TA'LIM FANINI O'RGATISHGA OID O'QUV-METODIK TA'MINOT RESURSLARINI SHAKLLANTIRISH.

**To'raqulov.U.X – ped.fan.fals.dokt.(Phd), TDPU.**

**Annotatsiya:**Mazkur maqolada texnologik ta'lim metodikasi fanini o'rganishga oid o'quv-metodik ta'minot tizimini shakllantirishni ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qaraladi

Ushbu maqoladan fanlarni o'qitishni takomillashtirish muammosi bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** texnologik ta'lim; fan; o'quv-metodik; o'rganish; ta'minot resurslar; shakllantirish;takomillashtirish ; innovatsion; rivojlangan ; kuzatishlar ; izlanishlar; birinchi; ikkinchi ; toifali; metodik ko'rsatma; tadqiqot; metodikasi; mukammal; tayyorlash; majmua ; tavsiya ; ko'rsatma ; andozalash.

**Аннотация:** В этой статье эта статья считается научной и методической интеграцией системы преподавания методологической поддержки обучения технологических образовательных методов

Эта статья может быть использована в проблеме улучшения преподавания наук.

**Ключевые слова:** технологическое обучение; наука; образовательные и методические; изучение; ресурсы поставки; формирование; улучшение; инновационный; развитый; наблюдения; исследовать; первый; второй; категория; методические инструкции; исследовать; методология; отлично; подготовка; сложный; рекомендуемые; инструкции; шаблон.

**Annotation:** This article is considered to be a scientific and methodological integration of the teaching system for methodological support for teaching technological educational methods.

This article can be used in the problem of improving the teaching of sciences.

**Key words:** technological training; the science; educational and methodical; study; supply resources; formation; improvement; innovative; developed; observations; examine first; second; category; guidelines; examine methodology; excellent; preparation; complicated; recommended; instructions; template.

Ma'lumki, hozirda innovatsion rivojlangan, intellectual salohiyatli yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bunga sabab ular "XXI asr intellektuallashtirilgan asr" ning faol ishtirokchisi bo'lish kerak va bu orqali jamiyat intellektual salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shiladi. Bu borada ilm-fan va texnika-texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlasnishi va takomillashuvi uzluksiz ta'lim tizimining turli yo'nalishlaridagi muammolarining optimal yechimlarini topishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday imkoniyatlar muayyan fanlarni o'qitishdan boshlab, to

muayyan yo'nalish bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashgacha bo'lgan ta'lim jarayonini takomillashtirish fundamental-didaktik asoslaridan biri bo'la oladi. Bu borada tabiiyki, har qanday fanni o'qitishda yoki ixtiyoriy bir yo'nalishda zamonaviy raqobatbardosh yetuk kadrlarni tayyorlashda ham albatta, ularga tegishli davlat hujjatlari, bo'lajak mutaxassislarga bo'lgan extiyoj hamda ular bo'yicha faoliyat olib borishga (ta'lim berishga) oid ilmiy-metodik ta'minot, keyin boshqa ilmiy-informatsion, o'quv- metodik resurslar, o'quv- didaktik ta'minotlarga e'tibor beriladi. Bunga mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, ta'lim yo'nlishlari o'quv rejalari va DTS hamda ularga mos har bir fan bo'yicha ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

Taqdim etilayotgan ushbu maqolada ham texnologik ta'lim metodikasi faning o'quv-metodik ta'minot resurslarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasini hal qilish maqsad qilib olingan.

Ushbu sohadagi olib borgan kuzatishlarimiz va izlanishimizlar natijalariga asoslanib qayd etish mumkinki, bunday mavjud imkoniyatlar bilan birga muayyan bir fanni o'qitishni yoki muayyan bir yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga yanada takomillashtirish uchun qaralayotgan muammoni hal qilishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan maqsadli foydalinish kerak [1-4]. Bu orqali ta'lim jarayonini yoki bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishga erishish mumkin. Bu esa muayyan fanni o'qitishning yoki bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini, shu jumladan o'quv-metodik, o'quv- didaktik, o'quv-axborotli, o'quv-metodik, ta'minotlarni takomillashtirish muammolarini hal qilishni talab etadi.

Bu qayd etilgan ta'minotlarni mukammal tayyorlab olishda o'quv-metodik ta'minot resurslarning ahamiyati beqiyos, ya'ni ular yordamida har qanday o'quv-metodik, qolaversa ilmiy- metodik ta'minotni ham takomillashtirish mumkin bo'ladi. Shuning bilan birga qayd etish mumkinki, o'quv – metodik ta'minot resurslarining majmuasini tayyorlab olish negizida muayyan fanni o'qitishning yoki muayyan bir yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoning optimal variantlaridan birini qo'lga kiritish fafolatlanadi.

Shu sababli ham mazkur tadqiqot ishida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda **Texnologik ta’lim metodikasi** fanini o’qitishining o’quv – metodik ta’minoti resurslarini shakllantirish muammosini hal qilishga kirishdik. Bundan ko’zlangan maqsad o’rganilayotgan fanni innovatsion texnologiyalar negizida o’qitishni takomillashtirish muammosini hal qilishdan iborat.

Qo’yilgan muammoni hal qilishda dastlan texnologik ta’lim metodikasi fanini o’qitishni takomillashtirishning o’quv- metodik resurslarini shakllantirishga harakat qildik va bu tadqiqot ishiga oid resurslarni quyidagidek toifalarga ajratib oldik:

1. **Birinchi toifali resurslar**. Bu o`quv jarayoniga tegishli resurslar bo’lib, unda quyidagidek tarkibiy qismlar bo’ladi: DTS; metodik ko’rsatma; moddiy-texnik ta’minot; ta’lim texnologiyalari; o’qitish algoritimi; o’qitishning asosiy vositalari; o’qitishning yordamchi vositalari; o’quv-metodik ta’minot; o’quv-metodik ta’minot majmuasi modeli; o’quv fani dasturi; metodlar komponentlari; mashg’ulotning na’munaviy tuzilishi; andozalash; o’quv jarayoning texnologik xaritasi; o’quv jarayoniga oid didaktik materiallar va shu kabilar;

**2. Ikkinchi toifali resurslar.** Bu metodik ta’minotga tegishli resurslar bo’lib, unda quyidagidek tarkibiy qismlar bo’ladi: metodik tavsiyanoma va qo’llanma; o’quv-metodik majmua; metodik ta’minotni yaratishning asosiy tamoyillari; metodik ta’minotni shakllantirishga oid nizomlar; o’rgatish vositalari; metodik ishlanmalar (texnologik ta’lim fanini o’qitish metodikasi fanini takomillashtirish bo’yicha); metodik qo’llanmalar (fanlarni o’qitishni takomillashtirish bo’yicha); ta’lim metodlari; ta’limga oid innovatsion metod va texnologiyalar (agar ular mavjud bo’lmasa, u holda texnologik ta’lim metodikasi fanini o’qitishni takomillashtirishga oid innovatsion metod yoki texnologiya ishlab chiqiladi) va h.k

**3. Uchinchi toifali resurslar.** Bu muayyan fanni o’qitishni axborotlashtirishga tegisli resurslar bo’lib, unda quyidagi tarkibiy qismlar bo’ladi: matnli materiallarning electron varianti; kompyuterli ta’lim dasturlari; o’quv mashg’ulotining tashkiliy-tuzilmaviy modeli;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

matematik modellar; algoritmlar; konseptual modellar; kasbiy kompyuterli tranajyorlar; multimedia materiallari; kompyuter jamlamasi; axborot tashuv vositalari (disk, fleshka, planshet, mobil telefon va h.k); proektor slaydlar; vebinar texnologiyalardan foydalanishga oid ukuna va apparatlar majmuasi; o'qitishni takomillashtirishning dasturiy vositalari; pedogogik dasturiy vositalar (o'rgatuvchi dasturlar, axborot-qidiruv dasturlari, nazorat dasturlari, ekspert baholash dasturlari va h.k.) va shu kabilar.

Texnologik ta'lim metodikasi fanini o'qitishda bunday o'quv- metodik resurslar majmuasini tayyorlab olish orqali qaralayotgan fanni o'qitishning innovatsion metod yoki texnologiyasini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratildi va ayniqsa, ushbu fanni o'qitishning raqamli texnologiyasini shlab chiqishga ham muhim didaktik asos bo'la oladi. Qayd etilgan resurslardan foydalangan holda texnologik ta'lim metodkasi fanini o'qitish jarayonini amalgam oshirish quyidagidek bosqichla asosida – olib borilsa samaraliroq bo'ladi:

- texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha dasturiy- metodik taminot tizimining samarodorligi ko'rsatgichlarini belgilash va asoslash;
- texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha dasturiy- metodik tizim ishi natijalarini tahlil qilish va ular asosida lozim topilganda o'quv-metodik resurslari tizimi tuzilishiga tuzatishlar kiritish (korrektirovkalar qilish );
- mutaxassis- o'qituvchilarga shakllantirilgan o'quv-metodik resurslar asosida mashg'ulot olib borishga tavsiyalar tayyorlash;
- o'quv- metodik resurslar negizida texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha mavzularni o'rganishni dastlabki ekspertizadan o'tkazish;
- texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv- metodik resurslarni amaliyotga joriy etishga topshirish va unga mos metodik tavsiyanoma hamda ko'rsatmalar tayyorlash.

Yuqorida qayd etilgan o'quv-metodik resurslar toifalari texnologik ta'lim metodikasi fanini o'qitishdagi tashkiliy- tuzilmani asoslab olishga imkoniyat yaratdi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

Asosan olingan tashkiliy-tuzilma texnologik ta'lim metodikasi faning o'quv-metodik resurslarini mukammal shakllantirish uchun eng avvalo o'rganilayotgan fanga oid **o'quv-metodik majmua** kerak bo'lishligini ta`kidladi. Bunga sabab o'quv-metodik majmua muayyan fanni o'qitish jarayonining tizimlashgan ko'rsatkichlarini o'z ichiga qamrab oluvchi amaliyotda qo'llaniladigan barcha o'quv-metodik hujjatlari (o'quv rejalar, fan dasturlari, o'quv- metodik qo'llanmalar va h.k.) to'plami bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quv- metodik majmuasining **asosiy maqsadi** muayyan fanni o'qitishning optimal variantini ishlab chiqishga didaktik jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'lsa uning **asosiy funksiyasi** ta'lim oluvchilarning muayyan fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustaqil bilim olish hamda mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlardan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.fals.dokt. (PhD)...diss.-T., 2020, 187 b.

2. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashni axborotli qo'llab-quvvatlash// O'zMU xabarlari.-T., 2018.-№ 1/5.-B. 337-340.

3. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash bosqichlari// ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. IMJ.-T., 2018.-№1.B. 62-66.

4. To'raqulov U.X. Ta'lim mazmunini intellektuallashtirishga innovatsion-integrativ yondashuv// Zamonaviy tadqiqotlar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlantirish tendentsiyalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Jizzax, 2019.-B. 338-340.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# DARS MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISHNING ALGORITMIK BOSQICHLARI

**Xolbo`taeva.V.O. JDPU 4-bosqich talabasi.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha olib boriladigan dars mashg'ulotlarining algoritmik bosqichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Ushbu maqoladan dars mashg'ulotlarini olib borishni optimallashtirish muammos bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** algoritmik; dars; mashg'ulotlar; bosqichlar; maqsadlar; ketma-ketlik; mavzu;strategiya; ilmiy-metodik; tizimi oshiriladi; ta'lim; o'zlashtirish; maruza;aniqlash;resurslar; amaliy; topshiriqlar;ko'zlangan maqsad;pedagogik samaradorlik; tavsisiyalar;baholanadi; ko'rsatmaviy; o'quv-metodik; o'qitish algoritmi;o'qitish jarayoni; ishlab chiqish; texnologik xarita; ko'nikma.

Аннотация: В этой статье эта статья считается научно-педагогическим обоснованием алгоритмических этапов классов, проведенных технологическим образованием.

Проблема должна использоваться для оптимизации классов этой статьи.

Ключевые слова: алгоритмический; урок; классы; этапы; цели; последовательность; тема; стратегия; научно-методический; увеличит систему; образование; мастерство; лекция; идентификация; ресурсы; практично; задания; цель; педагогическая эффективность; оценивается;образовательные и методические; алгоритм преподавания; процесс обучения; разработка; технологическая карта; навык.

Annotation: In this article, this article is considered a scientific and pedagogical substantiation of algorithmic stages of classes conducted by technological education.

The problem should be used to optimize the classes of this article.

Key words: algorithmic; lesson; classes; stages; goals; sequence; subject; strategy; Scientific methodical; will increase the system; education; skill; lecture; identification; resources; practical; tasks; target; Pedagogical efficacy; evaluated; educational and methodical; teaching algorithm; learning process; development; routing; skill.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni va bu bo'yicha faoliyat yuritishga asoslangan ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining intellektuallik darajasiga qarab muntazam ravishda rivojlanib, takomillashib boradi, ya'ni bunday jarayon va unga mos tizimlar dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda qayd etish mumkinki ta'lim jarayoni ham muntazam ravishda harakatlanib turuvchi dinamik tizimdan iborat bo'ladi. Shu sababli ham ta'limga oid har qanday muammoning rejalashtirilgan yechimini qo'lga kiritishga oid algoritmik tizimni ishlab chiqish ta'limni optimallashtirish muammosini hal qilishdagi **dolzarb** muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

**Bunga sabab** ta'lim jarayonini optimallashtirish muammosini hal qilishda qo'yilgan maqsad tadqiqot manbai,belgilangan vazifalar, algoritmik tizim va unda foydalaniladigan vositalar doimo o'zaro bog'liqlikda, deb qaraladi.

Taqdim etilayotgan mazkur maqolaga ham texnologik ta'lim metodikasi bo'yicha olib boriladigan dars mashg'ulotlarini olib borishning algoritmik bosqichlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashni maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'lumki ta'lim jarayonini optimallashtirishda rejalashtirilgan natijaga erishishlikni kafolatlash qaralayotgan jarayonlar kechishinining algoritmik bosqichlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek,algoritmik bosqichlar va unga asoslangan tizimlar ta'lim-tarbiya jarayonlari yoki muayyan yo'nalish bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning barcha bosqichlarida qo'llaniladi va bu qo'yilayotgan muammoning optimal yechimlaridan birini qo'lga kiritishiga ko'rsatmaviy-didak asoslardan biri bo'la oladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ma'lumki, muayyan fanni o'qitish yoki ayni bir yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonlari jamiyat taraqqiyotining intelektuallik darajasiga qarab muntazam ravishda innovatsiyalashib boraveradi. Shuning uchun bunday jarayonlarga oid dars mashg'ulotlarini olib borishning metodologik xarakterga ega bo'lgan algoritmik bosqichlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.Bunga sabab bunday algoritmik ketma-ketliklar ilm-fan va texnika- texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini xisobga olgan holda takomillashtirishgan ta'lim jarayonini olib borishga ko'rsatmaviy-didaktik asos bo'la oladi.

Mazkur tadqiqot ishida ham yuqorida bayon qilingan o'quv-metodik ta'minot modeli, o'quv-metodik ta'minot (texnologik ta'lim metodikasi faniga oid), o'quv-metodik ta'minot resurslari (o'quv resurslari, metodik ta'minot resurslari, axborot resurslari) va ularga asoslanib mashg'ulotni olib borishning algoritmik bosqichlarini ilmiy- metodik jihatdan asoslash mumkin.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalariga asoslanib texnologik ta'lim metodikasi fanini o'qitish bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarning algoritmik bosqichlari quyidagi ketma-ketlik bo'yicha tayyorlash ma'qul ekanligini ko'rsatadi [1-4]:

**Birinchi bosqich:** Bunda mashg'ulot mavzusi aniqlash va mavzuga oid ma'lumotlarini yig'ish jarayoni amalda bo'ladi;

**Ikkinchi bosqich:** Bunda mavzu bo'yicha bosh va maqsadlar ketma-ketligi aniqlab, mavzuni o'rganish strategiyasi ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olinadi.

**Uchinchi bosqich:** mavzuga oid yig'ilgan ma'lumotlar mavzuni o'rganishdagi maqsadlar ketma-ketligini e'tiborga olgan holda tizimlashtiriladi hamda ular bo'yicha ta'lim oluvchilarning mavzuni o'zlashtirganligini aniqlash mezoni tayyorlab olinadi.

**To'rtinchi bosqich:** Bunda mashg'ulot maqsadi va vazifalarini e'tiborga olgan holda mavzuga oid resurslarni jamlab olish amalga oshiriladi hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishiga oid yo'riqnoma va ko'rsatmalarni tayyorlash ham ushbu bosqichda amalgam oshiriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Beshinchi bosqich:** Bu bosqichda belgilangan mavzu bo'yicha nazorat va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan materiallar ta'lim oluvchilarga yetkaziladi va ta'limda ko'rgazmalik tamoyiliga kuchliroq e'tibor beriladi. Bunga hozirda keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan slaydlar, virtual ma'lumotlar, pedagogik dasturiy vositalar kabilar ayni shunday mashg'ulotlarni olib borishni optimallashtirishga muhim didaktik materiallar bo'la oladi.

**Olinchi bosqich:** Bunda mashg'ulot davomida bayon qilinadigan nazariy ma'lumotlar bo'yicha mavzuni o'zlashtirilganligini aniqlash uchun savollar tuziladi va bu savollar yordamida ta'lim oluvchilarning egallagan belgilarini aniqlash masalasi hal etiladi.

**Yettinchi bosqich:** Bunda mashg'ulotga oid amaliy topshiriqlar va mashqlar belgilanib olinadi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilardagi mavzu bo'yicha egallagan ko'nikma va malakalarni aniqlashdan iborat.

**Sakkizinchi bosqich:** Bunda belgilab (asoslab) olingan ketma-ketlikka asoslanib dars mashg'ulotlarini olib boorish jarayoni amalga oshiriladi.

**To'qqizinchi bosqich:** Bunda dars mashg'ulotlarini olib boorish bo'yicha qo'lga kiritilgan pedagogik samaradorlik baholanadi va bu olib borilayotgan mashg'ulot bo'yicha tayyorlab olingan texnologik xarita yordamida amalgam oshiriladi.

**O'ninchi bosqich:** Erishilgan natijalarga asoslanib mashg'ulotni olib boorish baholanadi va ularga oid tavsiyalar tayyorlanadi.

**Bunday** ketma-ketlik o`ziga xos o`qitish algoritmik orqali amalga jshiriladi va jarayonining algoritmidan iborat bo'lib, uning yordamida ta'lim jarayonida axborotlardan samarali (mantiqiy ketma-ketlik asosida) foydalanishga erishish mumkin bo'ladi.

O'qitish algoritmi mavzuni o'rganishning tashkiliy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqishga ko'rsatmaviy asos bo'la oladi. O'quv-metodik ta'minot resurslari negizida o'qitish jarayoniga oid ma'lumotlar bazalarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

O'qitish algoritmlari ta'lim jarayoniga oid qator muammolarning yechimlarini hal qilishda quyidagidek keng imkoniyatlarni yaratadi:

- O'qitish algoritmini ishlab chiqish negizida olib boriladigan ta'lim jarayoning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlovchi qa'tiy mantiqiy ketma-ketlik yaratiladi;
- O'qitish algoritmini ishlab chiqish negizida ta'limning didaktik asoslaridan amaliyotda foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etishga keng imkoniyatlar yaratiladi;
- O'qitish algoritmini ishlab chiqish orqali ta'limda yangicha sifat ko'rsatkichlariga erishish mumkin bo'ladi;
- O'qitish algoritmini ishlab chiqish yordamida o'qitishning asosiy va yordamchi vositalarini ajratib olish mumkin;
- O'qitish algoritmini ishlab chiqish yordmida samarali o'qitish texnologiyalarini yaratishga erishish mumkin va bunda o'qitishga axborot tanlash jarayonlari ham optimallashtiriladi va shu kabilar.

Bu qayd etilgan imkoniyatlarning asosiy negizini texnologik ta'lim metodikasi fanini o'rganish jarayonida foydalaniladigan tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali metariallar, amaliy-labaratoriya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan qurol va asboblar, o'quv- kino uskunalar va boshqa apparatlar, shuningdek, mavzuga oid boshqa o'quv materiallaridan maqsadli foydalanish tashkil etadi.

Tadqiqotimizning ushbu qismida **xulosa** o'rni ta'kidlash mumkinki,texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borishning algoritmik tizimi qaralayotgan fan bo'yicha ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim,ko'nikma va malakalarini qo'lga kiritishning optimal variantini yaratishga to'liq imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqilgan va ilmiy-metodik jihatdan asoslangan algoritmik tizim universal (metodologik) xarakatga ega. Shuning uchun hamundan boshqa yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini bajarishda ham foydalanishga tavsiya etish mumkin.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.fals.dokt. (PhD)...diss.-T., 2020, 187 b.

2. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashni axborotli qo'llab-quvvatlash// O'zMU xabarlari.-T., 2018.-№ 1/5.-B. 337-340.

3. To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash bosqichlari// ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. IMJ.-T., 2018.-№1.B. 62-66.

4. To'raqulov U.X. Ta'lim mazmunini intellektuallashtirishga innovatsion-integrativ yondashuv// Zamonaviy tadqiqotlar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlantirish tendentsiyalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Jizzax, 2019.-B. 338-340.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ПЕДАГОГ ШАХСИДА ИЖОДКОРЛИК ФУНКЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Муллажонов Жавлон**

**Жиззах SAMBHRAM Университети**

**2-боскич талабаси**

Шахс мустақил фикрлаши туфайли воқеликни умумлаштирган холда билвосита ва бевосита акс эттаради. Нарса ва ходисалар ўртасидаги ички мураккаб боғланишлар, муносабатлар, хоссалар, хусусиятлар ҳамда механизмлар тушунади, англаб етади.

Бинобарин, шахс муайян қонун, қонуният ва коидаларга асосланган табиий ижтимоий ҳодиса ва воқеаларнинг вужудга келиши, кечиши, ривожланиши хамда уларнинг оқибатини олдиндан пайқаш, башорат килиш имкониятига эга. Ҳозирги замон одамнинг билиш ва ақлий фаолиятини оқилона омилкорлик билан ташкил килишдан ижодий фикр юритиш алоҳида аҳамият касб этади.

Шахс инсонлар оламида яшар эканлар, ўз фаолиятларини турмуш тарзиларига мослаштириб борадилар. Мослаштириш эса инсонни ижод қилишга чорлайди. Маълумки инсонлар фаолияти кўп қирралидир. Бу фаолият олам сирларини билишга унинг баъзи сохадагиларини бўйсундиришга қаратилган. Соҳаларнинг ўзи минг-минглаб жараёнларни ўзида қамраб олади, уларни билиш учун кўплаб авлодларнинг ҳам фаолияти етарли эмас. Шундай бўлсада, ҳар бир авлод ўз замони талабларидан келиб чиқиб янгиликлар яратишга интилади. Ижод ёрдамида бу ютукларга эришади. Ютуқлар эса моддий ва маънавий кадриятлардан ташкил топади.

Ижоднинг тарихи антик даврга бориб тақалади. Антик даврда биринчилар каторида ижод жараёнининг моҳияти хусусида тўхталганлардан бири

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Афлотундир. Унинг фикрича, ижод - бу инсоннинг ақлий фаолияти борлиқни олий даражада акс этиш нуктасидир. Файласуф Августиннинг фикрича ижод Аллохгагина тааллуқли бўлган жараёндир.

Умуман олганда ижодни тор ва кенг маънода тушунмоқ лозим. Инсонни тор маънода тушунганда уни олимлар фаолиятида эмас, балки хар бир одам инсон фаолиятида ҳам мавжуд бўлишини унутмаслик керак. Демак ижод оддий кундалик илмий мураккаб зиддиятли бўлиши мумкин.

Илмий ижод тизимли бўлиб, унда инсон фаолиятининг кўп кирралари билими, малакаси, тажрибаси, асбоб ускуналар билан қуролланганлиги, адабиётларга бойлиги иш-жой шароитларининг махсуслиги ва бошқалар билан ажралиб туради.

“Ижод–шахс ёки жамиятнинг табиий, ижтимоий ва маънавий оламни инсонниг мақсад ва вазифаларига унинг эҳтиёжлари, истаклари ва имкониятларига мувофиқ равишда ўзгартириш борасида бунёдкор фаоллиги тушунилади. Ижод - бу шаклланган стреотиплар, одатлар, анъаналар ва шартилиликлар доирасидан онгли равишда чиқиш демакдир”.

Хулоса килиб айтиш мумкинки, ижод - бу изланувчининг маълум янгилих яратиш учун объектга каратилган шахсий кобилиятдан келиб чиқувчи хиссий билиш ва туйғуларни амалга ошириш жараёнидир.

Турли хил педагогик билим ва кўникмаларни шакллантириш даражаси педагогик махоратнинг умумий даражасини келтириб чикаради. Н.В.Кузьмина педагогик фаолиятни қамраб олиши мумкин бўлган 5 та даражани ажратиб кўрсатади. Уларнинг биринчиси репродуктив даража, иккинчиси адаптив даража, учинчиси локал-моделлаштирилган ва тўртинчиси тизимли моделлаштирилган даража, бешинчи даража бевосита ўкитувчининг ижодкорлигини камраб

олинганлиги сабабли унинг мазмун моҳиятини батафсил ёритишга ҳаракат қилдик.

Бешинчи даражани педагогик фаолиятдаги ижодий истакларнинг ривожланишидаги энг юқори босқич сифатида караш тўғри бўлади. Адаптация босқичига педагогик ижодкорликнинг бошланғич даври ва намоён бўлиш шакли сифатида караш мумкин. Ижоднинг нисбатан юкори шакли бир канча тизм ва тузилишлар бутунлигидаги билимнинг турли хил элементлари интеграцияси жараёни деб ҳисоблаш мумкин. Ҳақиқий ижодкорлик даражасининг янги махсулдор усулларини яратишда намоён бўлади. Педагогик ижодкорликнинг тўлдирувчи белгилари янги педагогик усулларни ташкил қилиш тезлиги, уларнинг турли хиллиги қайта қуришга тайёрлигида намоён бўлади.

Л.В.Иванцова педагог-мастер ва педагог мастер бўлмаганларнинг педагогик фаолияти белгиларини солиштириб, шундай хулосага келди, яъни педагог ижодкорлигининг белгилари сонига ўқитувчи ўзининг келажак учун ҳаётий ва касбий қадриятларидаги йўналиш ҳисобига киритишга тўгри келади.

Л.Д.Столяренко ўзининг "Педагогик психология" номли китобида педагогик ижоднинг куйидаги турларини ажратиб кўрсатади.

1. Дидактик ижод - бу ўқув материалини танлаш ва тизимлаштиришнинг турли усулларини ўйлаб топиш, унинг берилиши ва ўкувчиларнинг ўзлаштириш методлари бўйича таълим доирасидаги фаолиятидир.
2. Технологик ижод - бу педагогик технологиялар ва лойихалар соҳасидаги фаолият яъни ўкувчилар тарбияси натижалилигини кўтаришга ёрдам берадиган янги педагогик тизим, педагогик жараён ва ўкув вазиятини топиш хамда ташкил килишдир.
3. Ташкилотчилик ижоди - бу режалаштиришнинг назоратнинг кучларни тақсимлаш, ресурслар мобилизацияси, ўқувчи ва педагогни ўзаро таъсири ўртасидаги алока ва бошқаларнинг янги усулларини яратиш бўйича

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ташкиллаштириш ва бошқариш фаолияти доирасидаги ижоддир. Ташкилотчилик ижоди максадга энг киска йўлда эришишга ёрдам берадиган барча омиллардан унумли фойдаланишни мехнатни илмий ташкиллаш- тиришни таъминлайди.

Киши фаолиятида ижодкорликнинг намоён бўлиши унинг шу соҳада эришадиган муваффақиятларининг гаровидир. Ижодкорликнинг ўқитувчи

фаолиятида намоён бўлиши бошқа соҳада фаолият юритувчи кишиларникига қараганда анча мураккаб шу билан бирга кенг камровли хамдир. Негаки ўқитувчи бевосита одамлар билан олиб борадиган фаолиятида ижодкорликнинг намоён бўлиши унинг шу одамларнинг келажак ҳаётига таъсири билан боғланади.

В.К.Боярчук ўзининг тадкикотларида ўкитувчи ижодкорлигининг унинг фаолиятида кай даражада намоён бўлиши ҳамда педагог учун ижод ва изланишнинг нечоғли зарурлиги ҳақида айтиб ўтади. У педагогик ижодкорлик ўқитувчи маълумотларини талабаларга кандай усулда етказиб бера олишда ўз ифодасини топади деб таъкидлаб ўтган.

И.В.Басов ўқитувчининг ижодкорлигининг унинг учун зарур бўлган малакалар қаторида кўради. Унинг фикрича педагог учун зарур бўлган асосий малакаларни куйидагича изохлайди:

1) ўкитувчининг коммуникативлиги;
2) диагностика;
3) психологик-методик режалаштириш;
4) ташкилотчилик;
5) гностик (билим етказиб бера олиш);
6) изланувчанлик (ижодкорлик);

Ушбу малакаларни ўзлаштириш учун ўқитувчи интеллектуал ривожланишига кенг доирадаги қизикиш ва кўникмаларга, жонли ва фаол характерга эга бўлиши керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

С.И.Архангелский "ўкитувчининг асосий вазифаси - ўзининг предмети бўлса, яхши моҳирона дарё бериш, ўкув ахборотларини чуқур тушунтириб бериш, талабаларни билим олишга жалб этиш, уларда мехнатсеварлик ва тиришқоклик туйғуларини уйготиш, илмий масалаларни мустакил ечимга йўналтириш, унинг фикр ва қарашлари кенглигини ривожлантиришдир" деб таъкидлайди.

Юкоридаги фикрлардан кўринадики, ўкитувчининг ижодкорлиги унинг шахс хусусиятлари ва сифатлари билан боғлиқ бўлиб, шахснинг индивидуал психологик хусусиятлари хамда педагогик услубларнинг ўзига хослиги билан белгиланади. Педагогик ижодкорлик педагогнинг юкоридаги хислатларнинг иштироки натижасида келиб чикадиган хислатдир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## Шекспир фожиаларининг ғоявий-бадиий хусусиятлари

Хайруллаев Бегзод
Жиззах Sambhram Университети
2-боскич талабаси

XVI асрнннг сўнгги йилларида инглиз абсолютизми мамлакат тараққиётига тўсқинлик қилувчи тузумга айлана бошлади, инқирозга юз ўгирди. Мамлакатда, айни замонда, буржуа муносабатларига хос бўлган зиддиятлар, қишлокда деҳқонлар ва майда дворянларнинг ерсизланиши, шаҳарларда эса майда косибларнинг хонавайрон бўлиши ҳам мазкур тузумдан норозилик туғдиради. Айниқса бутун оғирлиги халқ устига тушган урушларнинг тўхтамай давом этиши, кексайган қироличанинг кундан-кун ортиб бораётган зулми норозиликни янада кўчайтиради.

Буржуазия ўзининг *норозилиги,* монархияга қарши курашини дин инқилоби, пуританизм учун кураш ниқоби остида олиб боради. Ҳатто инглиз буржуа революцияси ҳам юзаки қараганда диний мазҳабларнинг кураши сифатида ўтди. Инглиз тарихининг ўша даврига хос бўлган бу ўзгаришлар социал, сиёсий, иқтисодий зиддиятлар давр идеологиясига таъсир этмай, гуманистлар ижодида ўз аксини топмай қолмади. Маълумки, гуманистларнинг идеали кўпни кўрган ва билган, қўлидан ҳар қандай ҳунар, иш келувчи, турли саргузашгларни бошдан кечирган, истеъдодли, умуман «универсал инсон» эди. Аммо, инсон шахсининг дин ва феодал кишанларидан озод этилиши гуманистлар назарида тутган бахтли ҳаётга олиб келмади. Гуманистларнинг орзулари амалга ошиб, табиат, жамият, инсон имкониятларидан тўғри фойдаланиб, гўзал ҳаёт қуриш ўрнига фақат ортиб бораётган йиртқичлик ҳукмронлиги ўрнатилганини, адолатсизликиннг бир тури — феодализм ўрнига иккинчиси — капитализм келиб чиққанини замонанинг доно вакиллари аниқ англайдилар. Афиналик Тимоннинг «Жаҳонда ҳамма ўғри!» деб хитоб қилиши ҳам бежиз эмас эди. Тўғри, на Шекспир ва на унинг замондошлари «феодализм», «капитализм»

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

деган тушунчаларни билмаганлар, лекин нималар ва кимлар жамият, халқ ва шахсга бахтсизлик келтиришини яхши билганлар. Замона норозилиги, Шекспир трагизми ва Ҳамлет маҳзунлигининг асосин социал сабаблари ҳам худди ана шу гуманистлар идеали билан замона ўртасидаги зиддиятда эди.

Шекспир ўз асарларида фақат субъектив фожиали кечирмаларини тасвирлабгина қолмай, давлат ва жаҳон миқёсидаги объектив фожеа вазиятларини ҳам тасвирлайди. Шекспир трагедияларида фақат якка шахсларнинггина фожеаси берилмайди, уларнинг мазмуни умуман ҳаёт фожиасидир. Ҳамлет, Отелло, Лир, Макбет, Брут, Кориолан, Антоний, Тимон каби трагик қаҳрамонлар турли давр, халқ, табақа вакиллари, уларнинг фожиаси ўша давр инсонияти фожиасидир.

Гегель, «Чин фожиали воқеа бўлиши учун индивидуал озодлик ва мустақиллик принципи уйғонган бўлиши керак, ёки ҳеч бўлмаганда, ўз ҳаракати ва унинг натижаларини ўзи ҳимоя қилинишини *ўзича,* эркин англаб етиши зарур...»[66], деган эди. Агар грек трагедиялари асосан жамият билан боғланган бўлса, Уйғониш даври, Шекспир трагедияси асосан шахс, индивидуал характер билан боғлиқ, лекин унинг жисмоний азоби билан эмас, ҳатто ўлим ҳам фожиали факт сифатида қабул қилинмайди. Умуман айтганда, Шекспир асарларида табиат фалокатлари эмас, балки жамиятда инсонлар характери, манфаати тўқнашувидан фожиа келиб чиқади, бир инсон иккинчи одамга қилган ёмонлигидан фожиа туғилади. Шекспир пьесаларида илоҳий тақдир, пешонага ёзилиш каби тушунчаларга ўрин берилмаган. Тўғри, арвохлар, ажиналар, парилар асарларда учрайди, лекин инсон тақдирини улар ҳал этмайди, воқеанинг боришига унчалик таъсир ҳам қилмайди (Ҳамлет отасининг арвоҳи айтганларига ишоимайди). Замонасининг фарзанди бўлган драматург асарларида ғайри табиий кучларнинг иштирок этиши ажабланарли ҳол эмас.

[66] Гегель. Соч., т. XIV, М., 1958, стр. 371 (Таржима – Х.Ф.).

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Фожиа тушунчасини англаб етиш, ёритиш Шекспир ижодининг балоғатга етиши билан боғлиқ. Хроника («Ричард II», «Ричард III») ва комедияларида («Венециялик савдогар») Евузлик ва Яхшнлнк кураши шу турдаги бошқа асарларга нисбатан мураккаброқ берилади (Ричард Ш, Шейлок образлари). Лекин илк давр асарларида, хатто «Ромео ва Жульетта»да ҳам фожиа ҳаётнинг *юзаки* кўриниши сифатида тасвирланган: жинояткорлик, фисқу-фужурлар кўп одамларга азоб-уқубат, ҳалокат келтиради ва охирида гуноҳкорлариинг ҳалокати билан тўхтатилади. Шекспирнинг етук трагедияларида фожиа келтирувчи юзаки объектив ҳо-дисалар билан бир каторда қаҳрамонларнинг чуқур руҳий кечинмалари ҳам берилади. Шекспир инсон қалбидаги дард-аламларнинг даҳшатли картиналарини яратади. Ҳамлет, Отелло, Лир, Брутларнипг руҳий кечинмалари фақат юксак даражадаги идрок ва уларни куршаган борлиқ ҳаётни англаб етшинниг натижаси эди. Шекспир қаҳрамонларини бир нарса – бир инсоннинг иккинчи инсонга бўлган муносабати ҳаяжонлантиради (Ҳамлетни ларзага солган нарса отасининг ўлими эмас, балки «қандай қилиб Клавдий ўз акасини ўлдирсин?», «Гертруда шунчалик тез қиролни эсдан чиқарсин?» каби саволлар эди).

Шекспир қаҳрамонларини атрофдагиларнинг уларга бўлган муносабати ниҳоятда қизиқтиради. Ана шу масала ўткир фожиалар туғдиради, инсон жамиятда яшаб ёлғиз бўлиши, энг яқинлари ундан юз ўгиришлари мумкин экан (Лир, Тимон). Бошқаларга фойданг тегса яхши, тегмаса ёмон бўлсанг, бундай яхшиликнинг нима кераги бор? Ана шу фожиа вазияти орқали драматург худбинликни фош этади. Агар феодализм жамиятида бу масала бурч сифатида қўйилса, эндиликда ўзини англаб, ўз қадрига етган инсон учун бурч етарли эмас, у бурчдан ташқари инсонин муносабатни ҳам талаб қилади. Лир қизларидан фарзандлик бурчини эмас, балки инсоний иззат-ҳурмат кутади. Шекспир трагедияларидаги фожиа инсон шахсининг тараққиётидан келиб чиқади. Манфаатпарастликдан келиб чиққан фожиа руҳий сабаблардан келиб

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

чиққан фожиага нисбатан ҳеч нарса бўлмай қолади. Фожиали қаҳрамонлар кўп фикр юритадилар, онгли равишда ҳаракат қилишга уринадилар, аммо Ҳамлет, Брутлариинг онгли, олижаноб ҳаракатлари фалокат ва ҳалокатга олиб келади. Онгли деб ҳисобланган ҳаракат мақсадга эриштирмаганидек, ҳис-туйғу, муҳаббат (Отелло), кучли ирода (Лир) ҳам бахтли ҳаётга йўл-ланма бўла олмайди.

«Ромео ва Жульетта»да ёмонликнинг илдизи қаҳрамонларда эмас, балки уларни куршаган ташқи дунёда, ана шу дунё билан тўқнашувда улар ҳалок бўладилар. «Юлий Цезарь» ва «Ҳамлет»да ҳам ёмонлик қаҳрамонларда эмас, уларни куршаган ҳаёт, муҳит, тузумда, улар ана шу адолатсиз тузумни яхшиламоқчи бўладилар, аммо кураш уларнинг ўзларини ҳам ифлослик ботқоғига ботириши мумкин. Лекин кейинги трагедияларда ёмонлик ҳур-матга сазовор кишилар қалбидан ҳам жой эгаллаган, бу масала Шекспир учун ҳаётнинг энг машъум масалаларининг бири эди.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Холбеков М.Н. Шекспир. – Т.: Фан, 2010. 78 б.

2. Athos T. The art of Shakespeare. – London, 1964. - 198 p.

3. Гамлет, принц датский: трагедия в в 5-ти ….. Пер.М.Лозинскаго. М.: Искуссово, 1965. -202 с.

4. Шекспир. Танланган асарлар. 5-жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-1985.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг хулқ-атворини ўқувчи тарбиясидаги аҳамияти**

Шукурова Гулноза
Жиззах SAMBHRAM Университети
2-боскич талабаси

Бугунги кунда мактабда ўқийдиган фарзанди бўлган ҳар бир оила, ҳар бир шахс умумтаълим муассалари ва унда фаолият олиб борувчилар билан бевосита тўқнашади. Чунки педагогик жараён – бу таълим ва тарбиянинг бирлигини таъминлаш йўли билан таълим мақсадидан унинг натижасига томон амалга ошириладиган ҳаракатдир.

Педагогик жараён тарбиявий муносабатларнинг ташкил этиш усули сифатида иштирокчилар ривожланишининг ташқи омиларини мақсадли йўналтирилган ҳолда танлаш ва фойдаланишдан иборат. Педагогик жараён қаерда ва қандай педагог томонидан амалга оширилишидан қатъи назар битта тузилмага эга бўлади:

Мақсад – тамойиллар – мазмун – усуллар – воситалар – шакллар.

Педагог касби одамнинг шу касбий схемаси тавсифномаси хислатлари бўлган ―инсон – инсон типидаги касбларга тааллуқли. Педагог учун касбий муҳим бўлган сифатлар тузилмаси объектив (касбий билимлар, касбий кўникмалар, психологик ва педагогик билимлар) ва субъектив тавсифномалар (психологик позициялар, установкалар, шахсий хусусиятлар) блокларида акс эттирилиши мумкин. Ҳар қандай ўқув фани педагогининг психологик сурати қуйидаги тузилмавий компонентлар:

- инсоннинг индивидуал сифатлари, яъни унинг индивид сифатидаги хусусиятлар (мижоз, истеъдод нишоналари ва ҳ.к.);

- шахсий сифатлар, яъни унинг шахс сифатидаги хусусиятлари (инсоннинг ижтимоий моҳияти);

- коммуникатив (интерфаол) сифатлар;

- мақомли-позицияли, яъни жамоадаги ўрни, роли, муносабатлари хусусиятлари;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- фаолиятли (касбий-предметли);

- ташқи ахлоқий кўрсаткичларни ўз ичига олади.

Умумий педагогик қобилиятлар тузилмасида учта гуруҳни ажратиш мумкин:

Ўқитувчининг тарбиявий вазифаларини амалга ошириш билан боғлиқ бўлган шахсий қобилиятлар (перцептив қобилиятлар, педагогик тасаввур, ўз-ўзининг психик жараёнларини, эмоционал соҳа ва ахлоқни бошқариш қобилияти).

Мулоқот ва ташкилий вазифаларни амалга ошириш билан боғлиқ ташкилий-коммуникатив қобилиятлар (коммуникатив қобилият, педагогик такт, ташкилий, суггестив қобилиятлар).

Ўқувчиларга ахборот узатиш, уларда фаол, мустақил, ижодий тафаккурни шакллантириш билан боғлиқ дидактик қобилиятлар (болаларга ахборот узатиш қобилияти, экспрессив-нутқий қобилият, академик (билишга оид) қобилиятлар, диққатни тақсимлаш).

Педагог муайян педагогик ҳаракатлар асосида битта эмас, балки хусусиятлар гуруҳини фаоллаштиради. Бунда, албатта, педагогик маданиятнинг ўрни бўлакча. Педагогик маданият тушунчаси остида инсоннинг педагогни касбий ахлоқи ва фаолияти усуллари, педагогик қадриятларнинг динамик тизими сифатида қараб чиқиш мумкин бўлган умумий маданий қисми тушунилади. Бу унинг ёрдамида касбий билимлар бериладиган маълумотлилик даражасидир. Педагогик маданият компонентларининг тўртта гуруҳи ажратилади:

Педагогик позиция ва педагогнинг касбий-шахсий сифатлари – бу тегишли ахлоқда намоён бўлувчи борлиқнинг муайян томонларига шахсий муносабат. Педагогик позиция – бу ўқитувчи томонидан қилинадиган муайян ахлоқий танловдир. Педагогик позиция учун икки томон характерли: дунёқарашли (педагог томонидан касбнинг жамоатчилик аҳамиятини англаниши, танловнинг тўғрилигига ишонч, инсонпарварлик тамойилларига йўналиш) ва ахлоқий (педагогнинг қабул қилган қарорлари учун масъулиятни зиммасига олиши, ўқувчи шахсининг ўз-ўзини рўёбга чиқариши учун шароит яратиш). Педагогик позиция педагогни шахсий-касбий сифатлари, унинг қизиқишлари ва маънавий эҳтиёжлари орқали амалга оширилади. У педагогик меҳнатга муносабат, маънавий сифатлар, шахснинг йўналганлигини ўз ичига олади.

Педагогик билимлар ва уларга муносабат, шунингдек, тафаккур. Билимлар методологик, назарий, умумпедагогик, амалий (яъни педагогик жараённинг алоҳида

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

соҳаларидаги билимлар), хусусий-амалий (алоҳида фанлар бўйича билимлар) бўлади. Билимларга муносабат фикрлаш даражаси билан белгиланади. Педагогик тафаккур танқидий фикрлаш (ўқувчилар билан ўзаро ҳаракатни таҳлил қилиш зарурияти); фикрлашнинг ижодий яратувчан йўналганлиги; муаммоли-вариатив тафаккурни ўз ичига олади.

Касбий малакалар ва педагогик фаолиятнинг ижодий характери. Малакаларнинг қуйидаги гуруҳлари ажратилади: ахборотга оид малакалар (ахборотни танлаш ва тузилмага солиш); мақсад қўйиш ва ўқув-тарбиявий фаолиятни режалаштириш малакаси; ташкилотчилик малакалари; коммуникатив малакалари; таҳлил ва ўз-ўзини таҳлил қилиш малакаси; педагогик техникадан фойдалана олиш ва бошқалар.

Ижодий фаолият тажрибасининг кўрсаткичлари, биринчидан, ўқувчилар позицияси билан боғлиқ вазиятни таҳлил қилишнинг яққол ифодаланган малакаси ва иккинчидан, педагогик билимлар ҳамда ғояларнинг янги элементларини ярата олиш, анъанавийдан фарқли бўлган усул ва воситаларни ишлаб чиқариш ҳисобланади.

Шахснинг ўз-ўзини бошқариши ва касбий ахлоқ маданияти (биринчи навбатда, педагогик хушмуомалалик). Ўз-ўзини бошқариш – бу педагогик талаблар, ўқувчиларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишларини қон, ўқувчиларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишларини қондириш йўналишидаги фаолликка мувофиқ дириш йўналишидаги фаолликка мувофиқ бўлган ахлоқ. У меъёрий (билимлар, тушунчалар ва педагог шахсига талаблар мажмуи), регулятив (педагог томонидан ўз ахлоқида рўёбга чиқариладиган туйғулар, муносабатлар, эътиқодлар) ва фаолиятли-ахлоқий компонентлар (ўз ахлоқини назорат қилиш ва коррекциялаш йўналишида иродавий жараёнларни рўёбга чиқариш) орқали амалга оширилади.

Педагогик фаолият бошқа ҳар қандай фаолият каби муайян стил билан характерланади. Педагогик фаолият стили – бу фаолиятнинг усуллари, йўлларини, профессионал тарзда ишлаб чиқилган, бироқ унинг идивидуаллиги билан қўшилиб кетган, унинг мавжуд бўлишини реал шароитларида намоён бўлувчи педагог ахлоқининг ҳаракат тарзининг барқарор тизимидир. Стил фаолиятнинг ўзига хослиги, унинг субъектлари – ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг индивидуал-психологик хусусиятлари билан шартланади.

Адабиётларда педагогик фаолиятнинг авторитар, демократик, ножўя ишларга бепарво қаровчи стиллари ажратилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Авторитар стил учун синф жамоасига бўлганидай ҳар бир ўқувчининг ҳаётий фаолиятига тааллуқли масалаларни якка ҳолда ечишга, қатъий ва кенг қамровчи назоратга умумий тенденция характерлидир. Педагог шахсий установкаларидан келиб чиқиб, ўзаро ҳаракатнинг ўрни ва мақсадларини белгилайди, топшириқни бажариш усулларини кўрсатади. Авторитар стилда иш олиб борувчилар ўқувчиларнинг мустақиллиги ва ташаббускорлиги аҳамиятини етарлича баҳоламайдилар. Бу стил ўз амрини ўтказувчи тактика ва васийлик, буйруқ оҳанги ёрдамида рўёбга чиқарилади. Педагогнинг ҳукмини ўтказувчи босимига қарши ўқувчиларнинг ҳаракатлари кўпинча барқарор низоли вазиятларнинг юзага келишига олиб келади. Бундай стил педагог ва ўқувчилар ўртасидаги мулоқот ҳамда муносабатларда ўтиб бўлмас девор, мазмуний ва эмоционал тўсиқларни олдинга суради (―бундайлар билан яхшиси алоқа қилма‖).

Гарчи, умуман олганда, педагогик мулоқотнинг бундай стили салбий баҳога лойиқ бўлса-да, замонавий ижтимоий психология шундай шароит ва вазифалар мавжудки, қачонки авторитар стил бирмунча адекват бўлиши ҳаққоний таъкидланган.

Раҳбарликнинг ножўя ишларга бепарво қаровчи (ёки либерал) стилнинг асосий хусусиятлари шундан иборатки, педагог энг кам даражада фаолиятга киришишга интилади (ўзини четга олади), яъни бу фаолиятнинг натижалари учун ўзидан масъулиятни соқит силади. Бундай педагоглар ўзларининг функционал мажбуриятларини фақат дарс бериш билан чекланганча расмий тарзда бажарадилар. Ушбу стил асосида ўқувчиларга лоқайдлик ва қизиқмасликдан иборат аралашмаслик тактикасини кўзда тутади. Либерал стил ўқувчиларга керакли талабларни ифодаламайди, ўқув жараёнида секин-аста талабларни мураккаблаштириш заруриятини кўрмайди, шунинг учун истиқболда энг кам ютуқлардан қониққанча ўқувчиларнинг олдинга силжишига умид қилиши мумкин эмас.

Демократик стилда педагог ўқувчиларнинг ўзаро ҳаракатдаги роли, ҳар бирини умумий ишни ҳал қилишга жалб қилишга йўналтирилган. Бу стилнинг асосий хусусияти – ўзаро қабул қилиш ва ўзаро ориентация. Бундай стилга риоя қиладиган педагоглар учун ўқувчиларга фаол-ижобий муносабат, уларнинг имкониятлари, муваффақият ва омадсизликларини адекват баҳолаш, ўқувчиларни, уларнинг мақсадлари ва ахлоқлари сабабларини чуқур тушуниш, унинг шахсини ривожланишини олдиндан айтиб бера олиш хосдир. Натижада ўқувчиларда ўзи ва ўз кучларига ишонч, мулоқотчанлик, ўзаро ишончли муносабатлар, гуруҳли жипслик ривожланади. Бундай стилга эга бўлган ўқитувчи ўқувчилар олдига вазифаларни

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

онгли тарзда қўяди, салбий установкалардан қочади, у баҳолашда холис, мулоқотда кўп қиррали ва ташаббускордир.

Педагогик вазифаларни бирмунча самарали ечишга ўқитувчининг ўқувчиларни индивидуал хусусиятлари, уларнинг шахсий тажрибаси, имкониятлари ҳамда эҳтиёжларининг ўзига хослигини инобатга оладиган айнан демократик стил имкон беради. Бундай стилни касбий ўз-ўзини англашнинг юқори даражасига эга бўлган, ўз ахлоқи ва адекват ўз-ўзини баҳолашни доимий равишда таҳлил қилишга қодир инсонгина ишлаб чиқиши мумкин.

Психологик босим ўтказиш учун қуйидагилардан фойдаланилади: ташаббусни қўллаб-қувватламаслик, ўз мавзуларини киритиш, қарор қабул қилиш учун вақтни қисқартириш, ўзининг имкониятларига шама қилиш ва ҳ.к.

Шахснинг психик муҳитига кириб бориш "қалб торларини чертиш", яъни унинг учун аҳамиятли бўлган кечинмалар (баланд бўлмаган бўй, касаллик, семизлик), ўзининг келиб чиқишидан фахрланиши, қандайдир типдаги одамларга чидамсизлик, хобби, қизиқувчанлиги орқали содир бўлади.

Одамнинг шахсий сифатларидан фойдаланиш унинг ўзи қарор қабул қилиши жараёнини имитация қилишни ўзида акс эттиради. Биринчи қадам – мотивлар рақобатини (ёки долзарблаштириш) ни яратиш. Иккинчи қадам – рақобатлашувчи мотивларни манипуляторга керак бўлган мотив фойдасига ўзгартириш.

Ўқитувчилардаги манипулятив хулқ-атвор ўқувчиларда ҳимоясиз ахлоқ:

омадсизликдан қочиш мотивининг ютуққа эришиш мотивлари устидан устунлик қилишига;

ўз-ўзини паст баҳолаш ва интилишнинг паст даражасига;

юқори хавотирланувчанликка;

ўз-ўзига ишонмасликка;

юзага келган вазиятдан чиқиш йўлларини излаш истагининг йўқолишига;

у ёки бу қийинчиликни енгиб ўтишда салбий тажрибанинг юзага келишига кўмаклашади.

Натижада бола ҳимоясиз бўлишга кўникади ва ўз мақсадларига эришиш учун бундан фойдаланади. У бошқаларда ачиниш, ҳамдардлик туйғусини уйғотади, уларни ўзи ҳақида қайғуришга ундайди. Ачинаётган одам юмшоқ кўнгил бўлиб қолади, уни

бошқариш осонлашади. Бундан келиб чиқадики, у ҳам ўзида манипулятив хулқ-атворни намоён эта бошлайди.

Шу ўринда ўқитувчиларнинг умумтаълим мактабларида муваффақиятли иш олиб боришлари учун бир қатор тавсияларни келтирамиз:

Ўқитувчи мактабда фақат ишчи кайфиятини намойиш этиши даркор. Шахсий муаммолари билан боғлиқ салбий ҳиссиётлар таълим муассасалари остонасида қолмоғи шарт.

Ўқитувчи ҳар қандай турдаги низолардан қочмаслиги лозим, у низоларнинг ечиш жараёнини ижобий оқимга йўналтириши ва низонинг чўзилиб кетмаслигига интилиши керак.

Ўқитувчи барча ўқувчиларга бир хилда адолатли муносабатда бўлмоғи зарур.

Ўқитувчининг бутун фаолияти таълим ва тарбия жараёнига қаратилиши даркор.

Ўқитувчи ўқувчиларни камситмаслиги, синфдошлари олдида уялтирмаслиги, аксинча, уларни ўз даражасигача —кўтаришга уриниши зарур.

Ҳамкасбларига нисбатан ахлоқнинг фақат ассертив шаклини намоён этиши лозим.

Хулоса тарзида шуни айтмоқчимизки, болаларнинг қалбига фақатгина яхшилик уруғларини қадайлик – уйда ота-оналар, мактабгача таълим муассасасида тарбиячилар, умумтаълим мактабларида эса ўқитувчилар ўз фаолиятлари доирасида бунга ўта масъулдирлар.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.

2. Pedagogika /O'quv qo'llanma. Munavvarov A. tahriri ostida. – T.: O'qituvchi.

3. Pedagogika /A.Q.Munavvarovaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi.

4. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.

5. М.Саипова. Педагоглардаги манипулятив хулқ-атвори. Мақола -2018 йил.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Ақидапарастликка қарши мафкуравий профилактика**

***Суванкулова Маржона***

Жиззах SAMBHRAM Университети

2-боскич талабаси

Мафкуравий тарбия тушунчаси педагогика фанида гарчи мавжуд бўлсада, у ошкор айтилмас эди. Шўро даври таълим тизимида мафкуравий тарбия асосий мезонлардан бири саналсада, бу расман тан олинмас эди.

Ўтиш даврида, айникса бир мафкурани ўрнига иккинчи бир мафкуранинг келиш жараёнида мафкуравий тарбия жуда муҳимдир.

Мафкуравий тарбия тушунчаси биз учун ҳозирги пайтда янгиликдир, гарчи у тарихий тушунча бўлсада, бемалол айтиш мумкинки, тарбия: ахлоқий, ақлий, жисмоний, эстетик, диний турлари каби мафкуравий тарбия ҳам тарбиянинг муҳим шаклларидан биридир. Шу ўринда мафкуравий таълим ва тарбия тушунчаларини ўзаро нисбатан узвийлигини алоҳида таъкидлашимиз керак. Албатта, тарбия азалий ва абадий жараён, таълим маълум босқичларда, маълум даврларда, алоҳида шаклларда олиб бориладиган маърифий жараёндир. Биз мафкуравий тарбия жараёнини кенг масштабда олиб қарамоғимиз шарт. Бу жараённи амалиётга татбиқ этиш таълим масканларида, айникса ёшлар орасида олиб бориш бирмунча енгилроқдир, лекин аҳолини катта ёшдаги кишилари орасида мафкуравий тарбияни олиб бориш, сингдириш бирмунча қийинчиликлар туғдиради.

Мафкуравий тарбиянинг асосий тизими қуйидагиларни қамраши лозим бўлади:

- Тарбияда улғаяётган инсон шахсини олий ижтимоий қадрият деб тан олиш. Ҳар бир инсоннинг ўзига хослигини ҳурматлаш, унинг ижтимоий ҳуқуқи ва эркинлигини эътиборда тутиш:
- Миллий ўзига хос анъаналарга таяниш, лекин тарбиянинг миллий "бунёдкорлиги" ёш авлоднинг кўпмиллатли ва жаҳон маданияти дурдоналарини қизиқишларини, интилишларини инкор қилмаслик:
- Ёшлар ҳаётий фаолиятида тарбиявий жараённинг асосини ташкил қилиш: Ёшлар таълим даргоҳида нафақат бўлғуси ҳаётга тайёргарлик кўрадилар, балки ана шу ҳақиқий ҳаёт билан ҳамнафас яшайдилар.
- Мафкуравий тарбия миллий мафкуравий тарбия тушунчасини "миллат" доирасида эмас, балки халқ доирасида хазм этиши лозим.
- Мафкуравий тарбия нафақат бирон бир таълим тизими босқичида, балки барча узлуксиз таълим тизимида бир вақтнинг ўзида, бирданига амалга оширилиши лозим бўлади.

Мафкуравий тарбия бош ғоя негизига қурилмоғи зарур.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- Мафкуравий тарбия соф халқчил, инсонпарварлик ва ватанпарварлик ғояларига асосланмоқликни ташкил этади.

Мафкуравий тарбия омилларига мурожаат қилишдан олдин, шу жараённи асосий мақсади нимага қаратилганлигини аниқлаб олиш лозим. Мустақиллик неъматларидан бири - бу эркин фикрлаш, эркин ва мустақил бўлган инсонни тарбиялашдан иборатдир.

[14] Гунзенова К.В., Мантатова Л.В. - Институционализация устойчивого развития. -Улан-Удэ: Изд-во ВСГУТУ, 2016. -С.18.

[15] Маркузе Г. Одномерный человек. -М.: REFL-book, 1994. -С.10.

[16] Хардт М., Негри А. Империя. -М., 2004. -С.125.

[17] Осина О.Н. Основания культуры как факторы цивилизационного становления. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата философских наук. -Саратов, 2005.

[18] “Ўзбекистон ёшлари дунёқарашида диний ва миллий қадриятларнинг социо-маданий, ижтимоий жиҳатларини ўрганиш бўйича” Социологик дастур. В рамках инновационного проекта А-ОТ-2021 «Создание электронной трансдициплинарной платформы комплекса религиозно-национальных ценностей узбекского народа». - Ташкент, 2021.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

[19] Шахвердян А.Р. Модели развития малых и крупных национальных экономик. // Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2014. -№9 (338). Экономика. Вып. 44. –С.54.

[20] Электронный ресурс: https://iiv.uz/ru/pages/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-farmonlari

[21] Электронный ресурс: https://president.uz/ru/lists/view/231

[22] Электронный ресурс: https://repost.uz/tretiy-renessans

[23] Электронный ресурс: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=17038994

[24] Электронный ресурс: https://koronavirus.center/news/dvesti-deyateley-kultury-i-nauki-prizvali/207502

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Халқ оғзаки ижоди ва анъанавийлик

**Тўлаганова Гулноз Абдуғаффоровна**

**Сурхондарё вилояти Денов туманидаги 75-мактабнинг Ижодий-маданий масалалар бўйича тарғиботчиси.**

**Аннотатсия: Ушбу мақола педагогика олий ўқув юрти талабалари учун Халқ оғзаки ижоди-Фолклоршунослик фанидан, талабаларнинг назарий билимларини оширишда самарали фойдаланиш усулари ҳақида маълумот беради.**

**Калит сўзлар: Оғзаки ижод, анъанавийлик, вариантлилик, сўз санъати, ёзма адабиёт, оғзаки ва ёзма маълумотлар.**

Дарҳақиқат, дастлабки, яратилиш давриданоқ халқ оғзаки ижоди халқимизнинг ҳали ёзилиб улгурмаган тарихига айланди десак муболаға бўлмайди. “Оғзаки ижод”, “Халқ оғзаки ижоди” ҳамда “Оғзаки адабиёт” сингари номлар билан аталган бадиий адабиётнинг турмуш ҳаёт дарслиги сифатида ёш авлодни тарбиялашдек муҳим вазифани бажариб келаётир.

Кейинчалик, ёзув маданияти юзага келгач, ўзида сўз санъати асарларини яратиш иқтидорини ҳис қилган, халқ орасидан чиққан одамлар бевосита халқ оғзаки адабиётига суянган ҳолда ўзларининг ижодига мансуб бўлган дастлабки асарларини яратдилар. Бадиий адабиётнинг ушбу йўналиши шаклланиб ривожлангач, ёзма адабиёт тушунчаси пайдо бўлди. Яратилиш усулига кўра бир-биридан бутунлай фарқ қилувчи оғзаки ва ёзма адабиёт бир-бирини инкор қилмади, аксинча ижодий ҳамкорликни давом эттираверди.

Шуни ҳам алоҳида эътироф этиш керакки, халқ оғзаки ижоди жаҳон фольклоршунослиги фани тан олган, Анъанавийлик, оғзакилик ва бадиҳагўйлик, жамоалик ва оммавийлик, вариантлилик ва версиялилик ҳамда анонимлик яъни (асарни яратган муаллиф исмининг номаълумлиги) бешта хусусиятни ўз ичига олди.

Кейинги йилларда Халқ оғзаки ижоди асарлари билан яқиндан муносабатда бўлиш яна бир хусусиятнинг намоён бўлишини тасдиқламоқда.

Буни биз мутахассислар тили билан шартлилик деб аташимиз мумкин. Аммо илмда бу ҳақида маълумотлар келтирилмаган.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Собиқ шўро тузумида сиёсий вазият нуқтаи назаридан ёндашган олимлар халқ оғзаки ижодининг асосий белгиси сифатида жамоаликни илгари сурганлар. Бу фикр ўтган асрда эълон қилинган олий ўқув юртлари дастурлари ва дарсликларида муҳим ўрин тутган эди. Мазкур тамойил оғзаки асарларни яратишда якка шахс иштирокини шубҳага солган.

Алпомиш, Равшан достонлари бир пайтлар "Халқчиллик байроғи остида " яратилган достон сифатида тақиқланган. Қувонарлиси бугунги кунда халқ оғзаки ижодига бўлган муносабат ижобий томонга ўзгариб, мазкур ижодни чуқур илмий асосда ўрганишга муяссар бўлдик. Бутун дунё халқлари ижодида бўлганидек, ўзбекларда ҳам оғзаки ижод асарларининг яратилиши ҳамда уларнинг ижроси асрлар давомида шаклланган ва бугунги кунгача давом этиб келаётган анъаналарга суянади.
Минг йиллардан буён мақолдан топишмоққача, қўшиқдан достонларгача бўлган асарлар оғзаки анъанада яратилмоқда, оғзаки тарзда яшаб келмоқда. Фольклор асарларининг ижроси ижро қилиниш вазияти ва ижро усули жиҳатидан анъанага эга. Шунингдек, анъанавийлик оғзаки асарларнинг матнида намоён бўлади.

Анъана сўзга ўзбек тилининг изоҳли луғатида: "Ҳаётда қарор топган (топаётган) удум, урф-одат ва бошқа амаллар" деб таъриф берилган. Таърифларни тўй ёки бошқа йиғинларни ўтказиш тартибига мос равишда татбиқ қиладиган бўлсак, мазкур тадбирни уюштириш қоидалари тушунилади. анъана ҳақида сўз борар экан, бевосита ижро анъанаси ҳақида ҳам фикр билдириш лозим.

Ижро анъанаси деганда , достончиликка алоҳида тўҳталиш муҳим. Фозил Йўлдош ўғли, Эргаш Жуманбулбул ўғли, Пўлкан, Ислом шоирлар анъанаси бугунги кунда ҳам Шоберди бахши, Шомурод бахши, Қаҳҳор бахши ижросида тўлиқ сақланган. Достон ижросидаги дўмбирада куй чалиш, терма айтиш, шеърий парчаларнинг мазмуни, бўғин сонига қараб куй танлаш ҳозир ҳам сақланиб қолган.

Қашқадарё, Сурхондарё ва шу ҳудудларида истиқомат қилувчи бахшилар дўмбира жўрлигида бўғизда достон айтсалар, Гурлан, Хива, Урганч атрофидаги бахшилар жўровозликда очиқ овоз билан достон ижро этадилар.

Демоқчимизки, халқ оғзаки ижоди асарларини ижро этиш анъанаси, умуман олганда, юртимиз вилоятларида, асосан, аввалги кўринишда яшаб келмоқда.

Анъанавийликдаги матн анъанаси ижродан анча мураккабдир. Халқ оғзаки ижодида асарнинг тўлиқ моҳияти унинг матнида намоён бўлади.

Унутмаслигимиз керакки, Халқ оғзаки ижодидаги матн анъанаси ҳар бир жанрга мансуб асарларда намоён бўлади. Хусусан, мақоллардаги ҳажм чекланганлиги, мазмун кўламининг кенглиги, қўшиқларнинг лирик моҳияти, эртаклар ҳажмининг

муайян ўлчов билан белгиланмагани, достон ҳажмининг чекланмагани, латифалардаги воқеани қисқа муддатда айтиб улгуриш қоидаси ва ҳоказоларнинг ҳаммаси матн анъанаси билан боғлиқдир. Маълумки, бадиий адабиётда бадиий воситаларнинг такрорланмас ўрни бор. Бу воситалар маънавий ва лафзий санъатлардан ташкил топади ва сўз санъати намунасига жозиба бағишлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

Тоштемир Турдиев. Шажара. 1991-йил. "Нур" нашриёти.

Жўра Норалиев. Алпомиш юртга қайтди. 1998-йил "Ёзувчи " нашриёти.

# ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ-КОММУНИКАТИВ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

***Искандарова Гулноза Бобурмирзаевна,***
***Сурхандарё вилояти Қумқўрғон туманидаги***
***33-сонли умутаълим мактабининг***
***инглиз тили фани ўқитувчиси***

**Аннотация:** *Мазкур мақолада иглиз тили ўқитувчиларининг профессионалкоммуникатив фаолиятини такомиллаштиришга доир айрим хорижий тажрибалар муҳокама қилинган. «Тил портфеллари», "Silent way", Пимслернинг тил ўргатиш методи (Пол Пимслер) кабиларга қисқа шарҳ берилган.*

**Калит сўзлар:** *профессионал-коммуникатив фаолият, «Тил портфеллари», "Silent way", Пимслернинг тил ўргатиш методи.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается зарубежный опыт совершенствования профессиональной и коммуникативной деятельности учителей английского языка. Изложены краткие портфолио, такие как «Языковые портфолио», «Silent way» и метод обучения языку Пимслера (Пол Пимслер).*

**Ключевые слова**: *профессионально-коммуникативная деятельность, «языковые портфолио», «Silent way», методика преподавания языка Пимслера.*

**Annotation.** *This article discusses some foreign experience in improving the professional and communicative activities of English teachers. Brief portfolios such as «Language Portfolios», «Silent way» and Pimsler Language Teaching Method (Paul Pimsler) are stated.*

**Key words**: *professional and communicative activity, «language portfolios», «Silent way», Pimsler language teaching methodology.*

Таълим ислоҳотларини амалга оширишнинг устувор субъекти ўқитувчи омили бўлар экан, унинг шахси ва прфессионал-коммуникатив компетентлик даражаси таълим тизими олдига қўйилаётган вазифаларнинг самарали бажарилиши ва кутилган натижаларга эришишни ифода этади.

Янги давлат таълим стандартларининг жорий этилиши яна бир бор инглиз тили ўқитувчларига касбий фаолиятни сезиларли ўзгартирувчи ва янги мазмун билан тўлдирувчи талабларни қўймокда. Чунки мазкур стандартлар компетентли-фаолиятли ёндашувга асосланган бўлиб, улар аждодларидан билим, кўникма ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

малакаларни шакллантириш эмас, балки узлуксиз таълим олиш, эҳтиёжлари ва қобилиятларини ривожлантиришга лаёқатли шахсни таркиб топтиришга йўналтирилганлиги билан фарқ қилади. Шундай экан, ўқитувчи касбий масъулиятининг ошиши ва жамиятдаги ролининг ўзгариши уларни таълим жараёнидаги жадал ўзгаришларга тез мослашиш, ўта фаоллик, доимий ўзини ривожлантириш ва мустақил билим олишга тайёр бўлиш, ўқитишнинг замонавий ёндашувлари ва технологияларидан бохабар бўлиш ҳамда уларни самарали қўллай олиш сифатларига эга бўлишларини тақозо қилади.

Албатта, инглиз тили дарсларини бугунги кунда янги педагогик технологиялар ва замонавий методларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Америкалик психолог олимлар Р.Карникау ва Ф.Макэлроунинг тадқиқотига қараганда, шахснинг табиий физиологик, психологик имкониятлари муайян шаклларда ўзлаштирилган билимларни турли даражада сақлаб қолиш имконини беради. Шахс манбаъни ўзи ўқиганда 10%; маълумотни эшитганида 20%; содир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараённи кўрганда (иллюстрация) 30%; одир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараённи кўриб, улар тўғрисида маълумотни эшитганида (демонстрация) 50%; маълумот (ахборот)ларни ўзи узатганида (сўзлаганида, билимларини намойиш этганида ) 80%; ўзлаштирилган билим (маълумот, ахборот)ларни ўз фаолиятига тадбиқ этганида 90% хажмдаги маълумотларни ёдда сақлаш имкониятига эга экан

Халқаро ташкилотлар ва ривожланган давлатлар томонидан қабул қилинган 2030 йилгача янги таълим концепциясида «Таълим–тараққиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи ва барқарор ривожланиш мақсадларига етказувчи муҳим фаолият», деб таърифланган. Таъкидлаш лозимки, жаҳонда инглиз тили ўқитувчилари профессионал фаолиятининг турли босқичларида уларнинг касбий маҳоратини баҳолаш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ушбу масала бўйича жаҳонда амалга оширилган дастлабки тадқиқотлар сирасига Гарвард университетининг таълим факультетида жорий қилинган «Холмс гуруҳи лойиҳаси» ни мисол қилиб келтиришимиз мумкин. Ушбу кенг қамровли тадқиқотнинг биринчи

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

босқичи «Эртанги кун ўқитувчилари» деб номланиб ўқитувчиларни профессионал фаолиятга тайёрлаш ва уларни жамиятдаги нуфузини ошириш чораларини излашга қаратилган эди. Жаҳон миқёсида бу каби тадқиқотлар ҳали ҳануз давом этмоқда. Қуйида хорижда тил ўргатиш тажрибасининг айрим методлари билан танишамз:

**Тил портфеллари.** 2010-2011 йилларда таҳсил олувчиларнинг чет тилларни ўзлаштиришларига қулайлик туғдириш мақсадида махсус тил портфеллари методикаси Евроиттифоқ амалиётига киритилган эди. Ҳозирда мана шундай тил портфеллари кенг ривож топмоқда. Яъни, ҳар бир ўқувчининг хорижий тил бўйича ўқиган ва ишлаб чиққан материаллари мазкур портфелга жамланади. Бу тил портфелларининг энг муҳим жиҳати шундаки, ўқувчи мустақил равишда ўзининг тил билиш динамикасини кузатиб бориши, зарур ўринларда тил билиш малакасини кучайтириш зарурлиги англаш имконияти туғилади. Тил портфеллари кейинчалик ўқувчининг мустақил ўқув воситасига айлана боради ҳамда унинг ўқиш ва таълим олиш жараёнига бевосита алоқадорлиги, манфаатдорлигини таъминловчи бош унсурга айланади.

**"Silent way"** (жимлик методи) ўтган асрнинг 60-йилларида вужудга келган. Бу усулда хорижий тилга табиий имконият сифатида қаралади. Чунки ҳар бир инсонда барча тилларга бўлган тил ўрганиш қобилияти мавжуд бўлади. Тил ўрганиш қобилияти инсонларда табиий равишда мавжуд бўлади. Шунга кўра, агар инсон хорижий тилни ўрганмоқчи бўлса, унга халақит бермаслик, балки унга шарт-шароит яратиб бериш зарур бўлади. Шу боис, мазкур метод тарафдорлари фикри бўйича чет тили ўқитувчиси ўқувчининг имкониятларини рўёбга чиқаришга шарт-шароит яратиши даркор, билакс ўқувчини бошқариши эмас. Мазкур метод бўйича ўқувчининг узоқ вақт «жим» ўтиришига имкон яратилади. У ўзи гапириб кетмагунича, ундан гапириш талаб этилмайди. Бу гўдакларнинг ўз она тилида гапириб кетиши шарт-шароитига ўхшаб кетади. Чунки гўдаклар ҳам гарчи бировларнинг барча гапларини тушунсалар ҳамузоқ вақт ўзлари гапирмайдилар. Шу билан бирга, ўқитувчи ҳам гапирмайди. Балки сўзларнинг турли символларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

кўрсатиш орқали тил бойлиги кўпайтирилади. Символлар кейинчалик сўзлар билан узвий боғлиқликда хотирада сақланиб қолади.

**Пимслернинг тил ўргатиш методи** (Пол Пимслер) асосий тўрт категориядан иборат бўлган тизимга асосланади. Улар–антиципация, тизимланган интервал такрорлар, сўз ядроси ва чекланган таълим. Антиципация асосида ўқувчи хорижий тил материалини бир вақтнинг ўзига ҳам кўради, ҳам эшитади, ҳам талаффуз қилишга ўрганади, ҳам ўз хотирасида уни жонлантиришга уринади. Мазкур метод асосидаги дарсликлар Pimsleur Language Programsмаркази томонидан ишлаб чиқилиб Simon &Schusterнашриёти томонидан нашр қилинади. Ҳар бир дарс 30 минутлик кассетада жамланган аудио-дарсдан иборат. Бугунги кунда мазкур метод асосида турли коммуникацион ишланмалар кенг кўламда ишлатилади. Улар ичида аудио ва видео кассеталар, интернетга жойланган очиқ дарслар, CD дисклар мавжуд. Писмслернинг методи кўпчилик замонавий методлар каби кўпроқ хорижий тилда сўзлашиш ва мулоқот қилишга ўргатади, лекин ўқувчи диққатини хорижий тилда ёзиш ва ўқиш малакаларига йўналтирмайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Incheon Decloration/ Education 2030: Framework for Action Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all.–p.4-5. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002305/230514e.pdf.

2. The Holmes Partnership Trilogy: Tomorrow's Teachers, Tomorrow's Schools, Tomorrow's Schools of Education. (2007). New York, N.Y.: Peter Lang.

3. Пискунова Е.В. Процедуры приема на работу и оценки профессиональной компетентности учителя за рубежом // СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2007.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

# O'quvchilarni vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar

## Рекомендации по воспитанию учащихся в духе любви к Родине и патриотизма

## Recommendations for educating students in the spirit of love for the motherland and patriotism

**Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi**

**33-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari**

**Yakubov Karim Maxmudjanovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida yoritilgan bo'lib, unda yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о любви к Родине и воспитании в духе патриотизма у студентов, а также о воспитании молодежи в духе патриотизма и национальных ценностей.

**Annotation:** This article describes the love of the country and education in the spirit of patriotism in students, and it talks about the education of young people in the spirit of patriotism and national values.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Цель написания данной статьи** - воспитание молодого поколения в духе любви к Родине.

The purpose of writing this article is to educate the young generation in the spirit of love for the country.

**Usullar: "Mantiq va ma'rifat", "Infogramma", "Animatsion xarita", "Kim topqir", "Aql-idrok".**

**Методы:** «Логика и просветление», «Инфограмма», «Анимационная карта», «Кто находчивый», «Интеллект».

**Methods:** "Logic and enlightenment", "Infogram", "Animated map", "Who is resourceful", "Intelligence".

**Natija:** O'quvchilarda buyuk ajdodlarimizning hayot yo'li orqali vatanparvarlik, yurtiga sadoqat g'oyalari shakllanadi.

**Результат:** Представления о патриотизме и верности Родине формируются у студентов через жизненный путь наших великих предков.

**Result:** The ideas of patriotism and loyalty to the country are formed in students through the life path of our great ancestors.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, e'tiqod, ensklopediyalar, tarix…

**Ключевые слова:** патриотизм, национальные ценности, вера, энциклопедии, история...

**Key words:** patriotism, national values, faith, encyclopedias, history...

**"Biz uchun dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bu- farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash vazifasidir."**
**Sh. Mirziyoyev.**

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta'lim–tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliyligimiz tiklanib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochildi. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi qisqa davr ichida yoshlar uchun mukammal sharoitlar yaratildiki, bunga yurtimizda qad ko'tarayotgan zamonaviy maktablar, akademik-litsey va kollejlar hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga o'tmish madaniy merosimizni o'rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz va xalqimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o'tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Shulardan ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meros va o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ajoyib, ilg'or fikrlar borki, bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun qimmatli qadriyat ekanligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ulug'bek, Ali Qushchi, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning millatimiz, yurtimiz taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari katta ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimizni qadriga eta oladigan, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni tarbiyalash bugun zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardandir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta ma'suliyat yuklaydi.

Vatan sha'nini har narsadan ustun qo'ya bilgan, o'z tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana bilgan shaxsgina O'zbekistonimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Inson ma'naviyatida eng qadrlanadigan tuyg'ulardan biri bu vatanga e'tiqoddir. Vatanga e'tiqod, vatanparvarlik to'g'risida so'z yuritishdan oldin "vatan", "vatanparvarlik" va "e'tiqod" tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lmoq darkor.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.[1]

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan - kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui.

Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir etuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi.[2]

Bu ta'riflarni mushohada qilib qaralganda, ikkala ta'rif bir-biridan anchagina farq qilishini kuzatish mumkin. Birinchi ta'rifda bir muncha umumiylikka yo'l qo'yilgan; ikkinchi ta'rifda esa, to'laroq, xususiyroq holda yondashiladi, ya'ni

tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati.- M.: Rus tili, 1-tom. 1981-y. 173- b.
[2] O'zbekiston milliy ensklopediya.- T.:Davlat ilmiy nashryoti, 2-tom, 2001-yil. 395- b.

taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmuidan iboratligi aytilgan. Qadimgi ajdodlarimiz ham vatan tuprog'ini muqaddas bilganlar vatanning bir qarich tuprog'i uchun jangu-jadallar qilganlar. Inson uchun na molu-dunyo, na toju taxt vatan mehriga tenglasha olmaydi. Chunki, shu vatanda uning qovmu-qarindoshlari yashaydi. O'ziga o'xshagan millat vakillari, huddi uningdek qoshu ko'zga, rang, tili va dili bir xil bo'lgan kishilar, unga tanish va huzur baxsh etadigan ona tabiati mavjuddir. Vatandan ayriliq, inson uchun katta fojia sanaladi. Musofirlikda inson hech qachon shodon yashay olmaydi. Ko'ngli o'ksik, qalbi yarim bo'ladi.

Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo uning insonda mavjud psixoligik his-tuyg'u ekanini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai-nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekani - bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qayerni vatan deb bilgani esa bilishning xususiylik tomon boradigan yo'lidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, ularni tahlil va talqin etib, vatan tushunchasi ta'rifini o'quvchilarga tushunarli tarzda, o'z fikr va qarashlarimizni ifoda etishga harakat qildik.

Vatan - bu biz tug'ilib, voyaga etayotgan zamin; bu biz qadrlaydigan qadriyatlarimiz; bu mehnatkash halqimiz, mahalla, oila, qo'ni-qo'shnilarimiz; bu ajdodlarimizdan meros qolgan jonajon O'zbekistonimiz.

Vatan, vatanparvarlik, vatanga e'tiqod so'zlari doimo biri-ikkinchisini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, "vatanparvarlik" tushunchasining mazmuni, mohiyatini tushunib olish lozim. **"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da** vatanparvarlik - kishilarning ona-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun
umumiy bo'lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u,
ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.[3]

Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini to'g'ri tushunish, istiqlol manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qo'yishdir". Demak, vatanparvarlik tuyg'usi nasldan naslga o'tadigan, tug'ma his-tuyg'ular jamlanmasi emas, balki, tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, go'zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to'kish, xalqining farovon hayoti uchun o'z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo'yish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o'z hissasini qo'shish bilan namoyon bo'ladigan hatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga e'tiqod vatanparvarlikni to'ldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir bo'lagidir.
Vatanga e'tiqod, vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, kerak bo'lsa vatan uchun jonini fido qilish xalqimizning azaliy e'tiqodlaridan biridir. O'z vatani ozodligi yo'lida qo'liga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazm
mard va jasur o'g'loni Jaloliddin Manguberdidir. Jaloliddin Manguberdining hayoti va vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish o'quvchilarning vatanga e'tiqod, ona vatanga cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jaloliddin Manguberdi o'zining butun hayoti davomida o'z xalqi va

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go'zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi.

[3] O'zbekiston milliy ensklopediya.- T.:Davlat ilmiy nashryoti, 2-tom, 2001-yil. 395- b.

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi.



Uning ibratli hayoti, millatga va vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati, mustahkam e'tiqodi har birimiz uchun namuna va o'rnakdir. Jangovor salohiyati va lashkarboshilik mahoratini o'rganish, ularni kelgusi avlodga targ'ib etish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Uning vatan ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini targ'ib va tashbiq qilish yosh avlodni vatanga, el-yurtga e'tiqod tomon yetaklaydi.

O'zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir. U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, uning sarhadlarini kengaytirib, markazlashgan, cheksiz hududga ega bo'lgan mamlakat barpo etib, ilmu–ma'rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go'zal bog'u–rog'lar, tog'lardek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O'z millati qadriyatlarini ulug'ladi, ularning qadriga etdi. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik uning butun hayotiy faoliyatini tashkil etdi. Shu bois Amir Temur «Kuch adolatdadir» degan hukmni chiqardi. Bu haqqoniy ibora asrlar davomida xalqimiz uchun dastak bo'lib kelmoqda.



Amir Temur o'z vasiyatida ham millat taqdirini o'yladi, farzand va nabiralariga millat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

haqida qayg'urishni, kambag'al va yo'qsillarning boshini silashni vasiyat qildi, oxirgi onlarida ham xalqi, millatini o'yladi:

«O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tadbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. "Adolat va Ozodlik» dasturingiz, rahbaringiz o'lsun. Men kibi uzun saltanat surmak istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir da'fa chekkandan so'ngrada uni ustalikla qo'llangiz. Orangizga nifoq tuxumlar ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz tosh boshingizdan tushmas"[4]

Shoir Alisher Navoiy vatan tushunchasini ona yurt, o'rin, tug'ilib o'sgan joy,



maskan, manzil ma'nolarida ishlatganlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy yosh avlodni kelgusida vatanga e'tiqodli, axloqli, mehnatsevar, oliyjanob insonlar qilib etishtirish uchun ularni yoshligidanoq tarbiyalash, o'qitish kerakligini uqtiradi.

Navoiy asarlarining barhayotligi uning xalqchilligidadir, shuning uchun u bugungi kunda ham hayot darsligi vazifasini o'tamoqda. Uning pand-nasihatlari asrlar davomida avlodlarni diyonatga, adolatga, mehnatsevarlikka, vatanga e'tiqodli bo'lishga chorlaydi.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardik.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: **"Xalqning aniq maqsad sari**

---

[4] Amir Temur o'gitlari- T.:Navro'z, 1992-yil, 9- bet

**harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi,**

**jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".**

Quyida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tarbiyaviy soatlarda interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etgan bo'lardik.

**"Mantiq va ma'rifat" usuli.** Bu usulda o'quvchilar 2 guruhga ajratilib, savollar bilan murojaat qiladi va javoblar birgalikda muhokama qilinadi.

1.Eng mo'tabar so'z qaysi?

2. Mustaqillik so'ziga ma'nodosh so'zni ayting….

**"Infogramma" usuli**. Bunda o'quvchilarga buyuk ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlarni grafik chizma yoki rasmli ko'rinishda aks ettirib berishlari lozim bo'ladi. Usulni kichik guruhlarga bo'lib tashkil etsa yaxshi samara beradi.




**"Animatsion xarita" usuli** ham ushbu mavzu uchun mos usuldir. Bu usulda o'quvchilar guruhlari ajdodlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar xaritasini chizishadi. Xaritada "Buyuk siymolar", "Tarixiy shaharlar" kabilarnig rasmi chizilib, xarita ostida esa, shu so'zlarning ma'nosi ko'rsatiladi.

Ushbu boshqotirma esa o'quvchilarning topqirligini sinovdan o'tkazish maqsadida qo'llanadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Tug'ilib o'sgan diyor? 2.Chegara so'zining ma'nodoshi nima? 3.Ko'plik qo'shimcha? 4.III shaxs birlik qo'shimcha qaysi? 5. Aziz va mo'tabar…**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| V | A | T | A | N |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| S | A | R | H | A | D | L | A | R | I | M | U | Q | A | D | D | A | S |

Shuningdek, **"Aql-idrok"** usulidan foydalanish ham mavzu mustahkamlashda yordam beradi.

**Siz qalbingizni faxrga to'ldirgan omil nima?**

Yurtimiz ozodligi, tinchlik, o'z xohlagan yo'limizdan borish imkoniyatlari yaratilganligi qalbimni g'ururga to'ldiradi.

Vatanimiz o'zining milliy davlat ramzlari bayrog'i, gerbi va madhiyasi va o'z o'rniga ega ekanligi bilan faxrlanaman.

Buyuk allomalar va jasur o'g'lonlar yutrida dunyoga kelganimdan g'ururlanaman.

Markaziy Osiyoda vatanga e'tiqod g'oyasi qadimiy va boqiydir. Qadimgi yozma bitiklar, xalq og'zaki ijodi va adabiyoti, buyuk allomalar asarlari va falsafiy qarashlari fikrimizga yaqqol dalil bo'ladi.

Vatan tuyg'usi muqaddas tuyg'u ekan, xalqimiz asrlar osha bu tuyg'uni asrab-avaylab kelganlar. Shu tuyg'u ularni doimo bir maslak sari birlashtirgan, buyuk kurashlar va yengilmas jasorat sari yetaklagan, ularni dushman oldida yengilmas qilib, g'alaba nashidasini surmoqlikka olib kelgan. Xalqimiz doimo tinchlik va totuvlik tarafdori bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston milliy ensiklopediya.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.- 703-b.

2.Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir.-T.: O'qituvchi,1996.-158-b.

3.Amir Temur o'g'itlari.- T.: Navro'z, 1992.- 63-b.

4.Vatanni sevmoq iymondandur.- T.: Adabiyot va san'at, 1995.- 64-b.

5.Vafoyev O. Vatan-Faxrimiz, g'ururimiz.//Muloqot.-2001.- №1.- B.9-12.

6.Donishmandlar odob-axloq to'g'risida.- T.: O'qituvchi, 1986-yil. 134-b.

7.Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi.- T.: O'zbekiston, 1996-y

8.Ochilov M. Muallim-qalb me'mori. Saylanma.-T.: O'qituvchi, 2001-yil, 430-b.

# MAQOLANING BOSH SARLOVHASI

# СТАТЬЯ ОСНОВНОЕ НАЗВАНИЕ

# ARTICLE MAIN TITLE

***Familiya Ism Otasining ismi*** *(to'liq qisqartirilmagan holatda)*
*Ish yoki o'qish manzili (to'liq qisqartirilmagan holatda)*

**Annotatsiya:** *Maqsad. Usul. Natija. Xulosa.*

**Annotatsiya:** *Цель. Метод. Результат. Выводы.*

**Abstract:** *Background. Methods. Result. Conclusion.*

**Kalit so'zlar:** *fazaviy xarakteristikalar; zanjir.*

**Ключевые слова:** *фазовые характеристики; цепь.*

**Keywords:** *phase characteristics; circuit.*

Текст статьи. Текст статьи. Текст статьи. Текст статьи. Текст статьи. «Цитата» [1, с. 35]. Текст статьи. Текст статьи. Текст статьи. Текст статьи.




***1-rasm. Rasm sarlavhasi***

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. "Iqtibos" [1, p. 368]. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni.

(bir)

bu yerda: shkivni isitish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori;

dastlabki tezlik bilan harakatlanuvchi yukning massasi;

termal ishning mexanik ekvivalenti;

kinetik energiyani boshqa issiqlik bo'lmagan energiya turlariga aylantirishni, FP ning aloqa zonasida va FPning haqiqiy aloqa maydonida o'ziga xos bosimning notekis taqsimlanishini hisobga oladigan koeffitsient;

FP ning issiqlik oqimlarini taqsimlash koeffitsienti.

Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni.

***1-jadval***

**Jadval nomi**

| **Matn** | **Matn** | **Matn** | **Matn** | **Matn** |
|---|---|---|---|---|
| Matn | Matn | Matn | Matn | Matn |
| Matn | Matn | Matn | Matn | Matn |
| Matn | Matn | Matn | Matn | Matn |

Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. "Iqtibos" [2]. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni.

# Qishloq xo'jaligi mahsulotlari haroratini masofadan boshqarish uchun ko'p kanalli qurilmani ishlab chiqish.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti 2-bosqich magistranti Raximova Nigina Murod qizi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari haroratini masofadan boshqarish uchun ko'p kanalli qurilmani ishlab chiqilishi tarixi va uning afzalliklari haqida ma'lumot beriladi.
**Kalit so'zlar:** Qishloq xo'jalik sovutgichlari, monitoring, mikrokontroller, TCP/IP, internet, server, mijoz, kompyuter.

**Абстракт:**В данной статье представлена информация об истории развития многоканального устройства дистанционного контроля температуры сельскохозяйственной продукции и его преимуществах.
**Ключевые слова:** Сельскохозяйственные охладители, мониторинг, микроконтроллер, TCP/IP, интернет, сервер, клиент, компьютер.

**Abstract:**This article provides information on the history of the development of a multi-channel device for remote control of the temperature of agricultural products and its advantages.
**Key words:** Agricultural coolers, monitoring, microcontroller, TCP/IP, internet, server, client, computer.

Hisoblash va konvergentsiyaning tez rivojlanishi telekommunikatsiya texnologiyalari asoslarini global miqyosda o'zgartirishga qaratilgan savdo, siyosat va madaniyat-barchamizga yashash, ishlash, o'rganish va yo'limizni qayta belgilash imkoniyatini berdi. Internet-bu turli xil ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan butun dunyo bo'ylab tarmoq kompyuterlar o'rtasida uzatilishi mumkin bo'lgan imkoniyat hisoblanadi. Internetdan foydalanish-bu ishonchli ma'lumotlarni to'liq va aniq shaklda yig'ish usulir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chidamliligini maksimal darajada oshirish uchun minimallashtirilgan qishloq xo'jaligi sovutgichlarini saqlashni avtomatlashtirish tizimining investitsiya xarajatlari (ACS) ob'yektlarga vaqti-vaqti bilan tashrif buyurishni qisqartirish, ob'yektlarni masofadan kuzatish va nazoratqilish internet orqali tekshirildi. Kam xarajatli tizimni loyihalash vajoriy etish harorat va nisbiy namlikni kuzatish, shuningdek sharoitlarni nazorat qilish uchun ACS ichida taqdim etilgan. Ushbu tizim yordamida ulangan har qanday mijoz kompyuter Internet ACSni istalgan vaqtda va dunyoning istalgan joyida kuzatish imkoniyatiga ega.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Kerakli apparat mikrokontroller va unga hamroh bo‘lgan elektronni o‘zichiga oladi.Sxema, server kompyuteri, RS-232 seriyali port, harorat va nisbiy namlik datchiklar va ikkita aktuator. Mikrokontroller tomonidan to‘plangan ma'lumotlarni uzatadi.

Sensorlarni server kompyuteriga ketma-ket port orqali. Server va mijoz kompyuterlari TCP/IP protokoli yordamida Internet orqali muloqot qiladi. Natijada ma'lumot oson va ishonchli tarzda nazorat qilinadi. Mijoz shuningdek aktuatorlarni yoqishi va o‘chirishi mumkin.

Harorat va nisbiy namlik haqida ma'lumot to‘plash uchun apparat muhit va ularni Internet orqali masofaviy kompyuterga yuborish o‘rnatildi.

Tehron universiteti bog‘dorchilik bo‘limining ACS ichida The taklif qilingan tizimning ishlashi ikki hafta davomida tekshirildi.2006-yilning yozi natijalar juda qoniqarli bo‘lgan.

Internet orqali qishloq xo‘jaligi sovutish ombori (ACS) kabi ob'yektlarga o‘zgarishlarni sinab ko‘rish, kuzatish, nazorat qilish va amalga oshirish mumkin. Bu borada Kim va Chun uchun masofaviy monitoring va nazorat qilish tizimini ishlab chiqdilar.Internetdan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi ombori (Kim va Chun, 2001)Toran rivojlandi.Internet orqali real vaqt rejimida masofadan boshqarish tizimi (Ishtiaqva Ajay, 2002) The mualliflar ulangan masofaviy robot-transport vositasidan iborat boshqaruv tizimi yaratildi.

So‘nggi yillarda eksperimental nazorat va monitoring shaxsiy kompyuterlar (kompyuterlar) tomonidan qurilmalar juda keng tarqalgan bo‘lib, 2004 va 2006-yillarda issiqxonlar uchun kompyuterga asoslangan nazorat va monitoring tizimlari ishlab chiqilganigini alohida qayd etish lozim.Navbati bilan paddy quritgich (Omid, 2004; Omid vaboshq. 2006) ishlab chiqilgan. Bunday tizimlar internetdan foydalangan holda yangilanadi va masofadan boshqariladi.

Guzman internetga asoslangan masofadan boshqarish laboratoriyasini ishlab chiqdi.Ya’ni issiqxona iqlimini nazorat qilish texnikasini o‘rgatish uchun issiqxonaning masshtabli modeli turli apparat va dasturiy platformalardanf oydalanishni amalga oshirdi. (Guzman va boshq., 2005). Crowley va boshqalar haroratni nazorat qilish uchun simsiz sensorlar tarmog‘ini joriy qildi.

Materiallar va uslublar. Vositachilik qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bir qator dasturiy vositalar mavjud. Bulardan biri internet bo‘lib, internet orqali ma'lumotlar uzatiladi. Juda boshqacha yo‘llar bilan bo‘lsa ularning barchasi bir xil funksiyalarni bajaradi. Internet aloqalarining bir nechta nozik tomonlari ko‘lamini yanada yaxshiroq tushunish uchun kerak.Bu yerda tasvirlangan va qilingan ishlar, eng muhim jihat-bu Internet protokoli (IP) hisoblanadi.

IPni tanlash datagram deb nomlanuvchi ma'lumotlar formatini va ma'lumotlarni uzatishning aniq usuli hisobanadi. Eng keng tarqalgan uchta protocol quyidagilar (Stallings, 1994): (i) uzatishni boshqarish protokoli (TCP/IP) va(ii) Foydalanuvchi Datagram Protocol (UDP/IP). TCP va UDP-bu uslublar ma'lumotlar mijoz/server o‘rtasida uzatiladi. TCP/IP asosan ishlatiladi, chunki u mavjud juda ishonchli defakto universal standartga aylanadi. Avtomatik ravishda ketma-ket paketlarni vaqt shtamplash va tekshirish orqali xatolar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

nazoratini o'rnatadi. Tushirilgan paketlar yo'qolgan taqdirda, uni olish uchun so'rov yuboriladi. Qayta uzatiladi. Bu juda qulay, chunki u dasturchilarga kamroq narsani beradi.

Biroq, oldinga va orqaga tekshirish uzatish tezligini sekinlashtiradi. UDP eski uslubdagi pochta yetkazib berish tizimiga o'xshaydi, ya'ni ma'lumot fayllar yoki xatlar shaklida yuboriladi. Bu yerda ishlatiladigan TCP ma'lumotlar joylashgan joy ko'proq suhbat xonasiga o'xshaydi, ya'ni o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir mavjud mijoz va server. Bu onlayn chat xonalarida ishlatiladigan narsaga o'xshaydi.

Internet aloqasining ikkinchi asosiy jihati soket dasturlashdir. Soketlar o'z kompyuterlarida portlarni ishga tushiradilar. Soketni sozlash mumkin. Ma'lumotlar portini tinglash yoki ulanish va keyin masofaviy portga uzatish. (Stallings,1994). Windowsga asoslangan tizimlar Microsoft ActiveX-ning Winsockga tayanadi.Komponent, tarmoq aloqalari uchun. Winsock Windows socket uchun qisqa Windowsni ishlab chiqish uchun API (dasturiy dasturlash interfeysi).TCP/IP protokoli orqali boshqa mashinalar bilan bog'lana oladigan dasturlar. Bu erda Internet aloqa dasturlari Winsock yordamida yaratilgan. TCP yoki UDP Winsock dasturchiga mijoz/server dasturini yaratishga imkon beradi.

Umumiy tizim tavsifi**.** Internet orqali masofaviy monitoring tizimi arxitekturasi quyidagilarga asoslanadi: mijoz-server arxitekturasi. 1-rasmda umumiy tizim ko'rsatilgan. Ushbu rasmda,Internet bitta shaxsiy kompyuterga (mijoz deb ataladigan) o'rnatilgan o'rni kabi apparat vositalarini boshqarish imkonini beradi, boshqa kompyuterda (server deb ataladi). Boshqacha qilib aytganda, biz masofadan boshqarishimiz mumkin yoki Internet orqali qurilmalarni kuzatishimiz mumkin.

Bu kabi ilovalarni bajarishimizga imkon beradi.

1-rasm. Qishloq xo'jaligini masofadan boshqarish va nazorat qilish tizimining blok-sxemasi saqlash joyi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Qishloq xo‘jalik sovutgichlarini (ACS) avtomatlashtirish (masalan, misterlarni yoqish/o‘chirish) va ma'lumotlarni yig‘ish (masalan, harorat va nisbiy namlikni o‘lchash). Tizim1-rasmda ko‘rsatilgan uchta asosiy kichik tizimdan iborat: (1) masofaviy kompyuter, (2)server kompyuteri va (3) saqlash moslamasi.

Ushbu quyi tizimlar bu yerda qisqacha tushuntiriladi:

Masofaviykompyuter: ma'lumotlarni yig‘ish tizimining bir qismi bo‘lmagan har qanday shaxsiy kompyuter. Masofadan foydalanuvchi serverga kirishi va Internet orqali ma'lumot olishi mumkin. Aktuatorlar o‘rni bilan ulangan mijoz tomonidan Internet orqali boshqarilishi (yoqish/o‘chirish) mumkin.Ruxsat. Masofaviy kompyuter (mijoz) kompyuter server orqali aloqa qiladi yangi holatni so‘rash, harorat va RH sensorlari ma'lumotlarini olish qobiliyati,ob'yekt sharoitlarini rejalashtirish (harorat va nisbiy namlik,vaqt) va relelarga buyruqlar yuborish.Server PC**:** Bu yerda Windows server 2002 ostida ishlaydigan shaxsiy kompyuter. Kompyuter to‘g‘ri marshrutlashni boshqarish uchun turli xil vositalar va xizmatlarni ishga tushiradi-aloqa, harorat va RH tendentsiyasi. Barcha o‘lchovlar birinchi saqlanadi, qayta ishlanadi va server kompyuterida grafiklarda ko‘rsatiladi. Server masofaviy foydalanuvchiga Internet orqali masofaviy kirish, autentifikatsiya va h.kazolarga kirihga ruxat beradi. Kompyuterlar TCP/IP orqali LAN va Internetga ulangan bo‘ladi.

Saqlash ob'yekti: qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari tegishli sharoitlarda saqlanadi. Ular atirgul saqlaydigan Tehron universitetining bog‘dorchilik bo‘limidan foydalanilgan. Bu yerga harorat va nisbiy namlik

(RH) eng muhim omillar edi. Bu ACSda kuzatilishi va nazorat qilinishi kerak. Ushbu inshoot




Figure 3. Screen capture of IP prompt window




Figure 4. Screen capture of client form

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

boshqaruvchi, sensorlar va aktuatorlar qurilmalari bilan jihozlandi. Ushbu qurilmalarning tavsiflari quyida berilgan: asosiy boshqaruv kengashi server kompyuteri va ko'plab sensorlar bilan ketma- ketin terfeysga ega mikrokontroller va ACS ob'yektini nazorat qilish va nazorat qilish uchun o'rni.




Figure 5. Screen capture of server form

Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini to'g'ri saqlash, yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari bilan insonlarni ta'minlash muammosini hal qilish, mahsulotlarning tashqi ko'rinishi, mazasi va ozuqalilik sifatini saqlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari haroratini masofadan boshqarish uchun ko'p kanalli qurilmani ishlab chiqish hamma davrda ham juda muhim sanalgan. Omborxonalarda ozuqa va urug'lik donlar, ko'k ozuqalar (pichan, senaj, silos), kombikorm, parranda va sut mahsulotlari, undan tashqari kartoshka, ildiz mevalilar, har xil sabzavotlar saqlanadi. Yurtimizda bu borada qishloq xo'jaligida omborxonalarga bo'lgan talab keraklicha qondirilmagan. Xo'jaliklarda saqlash tartibi noto'g'ri olib borilganligidan juda katta iqtisodiy talofatlar ko'rilmoqda. Masalan, saqlash tartibi buzilganidan pichan, comon va silosda ozuqa moddalarning yo'qolishi 20% dan ortganligini kuzatish mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzoq saqlashga qo'yilganda omborxonalarda yuklash va tashishni, mahsulotni buzilishdan saqlash va mikroiqlim ko'rsatkichlarini boshqarishni, saralash va mahsulotni tushirishni, yuklashda mahsulotning soni va sifatini nazorat qilishni, saqlash va tarqatishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish vositalaridan foydalaniladi. Omborxonalarda mikroiqlimning asosiy ko'rsatkichlari–har orat va saqlanayotgan mahsulot og'irligiga to'g'ri keladigan nisbiy havo namligi hisoblanadi. Kartoshka va sabzavot saqlash omborxonalarida har oratni avtomatik boshqarish jarayoni murakkabdir. Birinchidan, juda ko'p miqdorda kartoshka va sabzavotlarni avtomatik boshqarish uskunalari yo'q bo'lgan omborlarda saqlanayotganda har orat iliq bo'lsa, mahsulot chirishni boshlaydi va bu tez tarqaladi. Ikkinchidan, odatda kartoshka va sabzavotlarni minimal har oratda saqlashga harakat qilinadi, bunda kun birdaniga sovib ketsa, tashqi qatlamda joylashgan mahsulotlar muzlaydi. Uchinchidan, mahsulot saqlanishini nazorat qilish uchun uni yupqaroq yoyiladi va orasidan yurish uchun yo'lakcha qoldiriladi, bu esa omborxona hajmidan kam foydalanishga olib keladi. Bularning hisobiga kartoshka va sabzavotlarni

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

avtomatlashtirilmagan omborxonalarda saqlashda uning foydali hajmi omborxona umumiy hajmining 40% ni tashkil etadi, mahsulotning buzilishi esa 30% gacha bo'ladi.
Aktiv shamollatish omborxonalarda har orat-namlik holatini optimal ushlab turishni ta'minlaydi. Shu bilan birga aktiv shamollatish saqlanayotgan mahsulot tashqarisidagi namlikni kasallanishga olib keluvchi mahsulot ichidan chiqayotgan namlikni yo'qotadi.Saqlanayotgan mahsulot massasiga havo markazdan qochma yoki osli ventilyatorli oqim shamollatish tizimi yordamida beriladi. Shamollatish tizimining ish tartibi tashqi havo har oratiga, saqlanayotgan mahsulot turi va massasiga bog'liq. Saqlanayotgan mahsulot har oratini pasaytirish uchun tashqi havo ventilyator yordamida shamollatish kanali orqali mahsulotga purkaladi. Tashqi havo har orati past yoki yuqori bo'lsa, ventilyator mahsulotga ichki (retsirulyasiya) havoni haydaydi Qishda mahsulot tashqi va ichki havo aralashmasi bilan aktiv shamollatiladi, havo sovib ketganda esa ichki havo bilan (retserkulyasiya) shamollatiladi. Yilning boshqa davrida kunning sovuq vaqtidan tashqi havo bilan, yoki maxsus sovitish uskunalari sovitilgan havo bilan shamollatiladi. Barcha holatlarda havoning nisbiy namligi kartoshkada kondensat hosil qilmaydigan darajada maksimal bo'lishi kerak. Shamollatilayotgan havo namligi kamayib ketsa kartoshkaning og'irligi va tabiiy ko'rinishi yo'qoladi.Xuddi shunday agrotexnik talablar boshqa turdagi sabzavotlarni saqlash omborxonalarining mikroiqlimini avtomatik boshqarish tizimiga ham qo'yiladi. Avtomatika tizimini ishlab chiqishda va tanlashda saqlanayotgan mahsulot massasining uzatish funksiyasini va asosan «Saqlash» tartibidagi yuqori bo'limini bilish kerak. «Davolash» va «Sovitish» tartiblarida saqlanayotgan mahsulotning har orati doimo belgilangandan yuqori bo'lib, aktiv ventilyasiya tizimining ishlash vaqti programmali relening sozlanishiga yoki tashqi muhit har orati va saqlanayotgan mahsulotning massasiga bog'liq. Saqlanayotgan mahsulot massasining uzatish funksiyasini ventilyasiya qilinayotgan havo va saqlanayotgan mahsulot og'irligining issiqlik almashinuvi dinamik tenglamasidan analitik ravishda aniqlash mumkin. Issiqlik almashinuvi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida murakkab jarayon hisoblanadi. Mahsulotning yuzasidagi har orat faqat yuzadan ajralib 186 chiqayotgan issiqlikning intensivligi bilan emas, balki mahsulotning ichki bioximik jarayonlari natijasida hosil bo'lgan ichkari qismidan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori bilan ham aniqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqolada arzon narxlardagi tizimni loyihalash va amalga oshirish, harorat va nisbiy namlikni kuzatish, shuningdek, sharoitlarni nazorat qilish, qishloq xo'jalik mahsuotlarini salqinda saqlash (ACS) ob'yektlari haqida. Ushbu tizim ideal uzoqda bo'lganda o'z ACSni kuzatish va boshqarishni xohlaydigan foydalanuvchilar uchun javob beradigan qulaylikka ega. Ushbu tizim Internet orqali boshqarilishi mumkinligi sababli, foydalanuvchi osongina boshqarishi mumkin. Dunyoning istalgan nuqtasidan istalgan vaqtda ACSni kuzatib boring va boshqaring.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.“Avtomatika va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish” R.T Gazieva . S.T.Yunusova.
2.N.R.Yusupbekov va boshq. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b
3.Gaziyeva R.T... Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarni avtomatlashtirish T. , Taмaddun, 2017 , 224 b.
4.N.R.Yusupbekov va boshq. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b.
5.Internet saytlarivametodikqo‘llanmalar.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
* Teach language learning strategies and emphasize that a given strategycan often enhance performance in multiple skills.

**CONCLUSION**

This article has been made as a guide for teachers of English as a foreign language to develop the students´ abilities in the language. It is the application of an integrating approach for the development of communicative skills in the classroom, in which the four skills in the acquisition of knowledge of a foreign language can be taught in a coherent way, and practiced together, with a distinction of the importance of one upon the others.

With careful reflection and planning, any teacher can integrate the language skills and strengthen the tapestry of language teaching and learning. When the tapestry is woven well, learners can use English effectively for communication.

## REFERENCES

Mohan, B. (1986). "Language and content." Reading, MA: Addison Wesley.

Nunan , D. (1989). "Designing tasks for the communicative classroom." Cambridge, UK: Cambridge University Press.

Oxford, R. (1996). "Language learning strategies around the world. Cross-cultural perspectives." Manoa: University of Hawaii Press.

Peregoy, S.F., & Boyle, O.F. (2001). "Reading, writing, and learning in ESL." New York: Addison Wesley Longman.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TASAVVUR VA SO'Z YASALISHIDA NUTQ MUNOSABATI.

*Jovqoshev Yusuf*

*Jizzax Sambhram Universiteti*

*2-bosqich talabasi*

Aloqa vositasi bo'lgan tilning bilish jarayonida katta ahamiyatga egaligini tasavvur misolida yaqqol ko'rish mumkin, chunki tasavvur hissiy bilishning eng rivojlangan, yuqori bosqichga ko'tarilgan shaklidir. Buning sababi aks etirilayotgan predmet va hodisalar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tasavvur abstraktsiyalash imkoniga ega bo'ladi, binobarin, mana shu jarayonda muayyan umumlashtirish bo'lganligi sababli tasavvur bilishni abstraktt tafakkurga yaqinlashtiradi.

Tasavvur nima, uning bilish jarayonidagi o'rni qayerda?

Tasavvur haqida buyuk rus fiziologi I. M. Sechenov bunday yozgan edi: "Hamma takrorlanuvchi, bir-biriga yaqin taassurotlar bizning xotiramizda yakka holda emas, balki (ayrim hollarda xususiy momentlarni saqlasa-da) bir butun holda saqlanib qoladi. Shuning natijasida minglarcha bir-biriga yaqin aloqa birlashadi, umuman, agar hamma ko'rgan, eshitgan va sinagan taassurotlarimizni millionlar deb hisoblasak, ularni bir necha so'z yordamida ifoda qilish mumkin" [67].

I.M. Sechenovning bu so'zlari tasavvurning fiziologik asoslarini tushunishga zamin bo'ldi. Darhaqiqat, bizning miyamizga ta'sir qiluvchi predmet va hodisalarning ayrim va yakka-yakka belgilari onda-sonda takrorlangan taqdirda, ulardagi umumiy va barqaror belgilar tez-tez qaytalanib turadi. Xuddi ana shu takror ta'sir qiluvchi jihatlar tasavvurning shakllanishiga sabab bo'ladi. I.M. Sechenov fikrlarini tasdiqlagan va ularni yanada rivojlantirgan akademik I.P. Pavlov tasavvur ham bilishning boshqa shakllari kabi reflektor mohiyatiga ega ekanligi asoslab berildi. Tashqi dunyo taassurotlarini qabul qiluvchi miya shu qo'zg'atgichlarga shartli bog'lanish bilan javob berar ekan ular miyada muayyan "iz" qoldiradi. Mana shu "iz"larning jonlanishi, faol holatga o'tishi tasavvurning fiziologik asosini tashkil qiladi. Biz avval ko'rgan, eshitgan, bilgan predmet va hodisalarning xotiramizda qaytadan gavdalanishi miyaning ana shu qobiliyatiga asoslanadi.

Tasavvur sezgilar negizida paydo bo'ladi, ammo tasavvurning mazmuni aks ettiriluvchi tashqi dunyoga bog'liq. Binobarin, tasavvurning mazmuni masalasini uning kelib chiqishi haqidagi masala bilan almashtirib yuborish to'g'ri emas. Tasavvur sezgidan

[67] Исмоилов Б. Дунёни билишда тил ва тафаккур бирлиги, Т.: Фан, 1966. 38 б.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

paydo bo'ladi, ammo sezgilarning oddiy yig'indisi emas, balki ulardan sifat jihatdan farqlanuvchi oddiy obrazdir.

Psixologiyada tasavvur ikkiga: yakka va umumiy tasavvurga bo'linishi isbotlangan. Darhaqiqat, ilgari aks ettirilgan ayrim, muayyan predmetni, aytaylik, ma'lum bir binoni tasavvur qilishimiz mumkin. Bu, albatta, yakka tasavvur bo'ladi. Ammo shunday tasavvur ham bo'ladiki, bunda biz bironta muayyan narsa yoki hodisani emas, balki umuman narsa yoki hodisani ko'z oldimizga keltiramiz. Umumiy tasavvurda narsalarning individual xususiyatlari emas, balki ularning bir butun guruhiga, sinflariga xos belgilari aks ettiriladi.

Yakka yoki umumiy tasavvurning paydo bo'lishida kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadi ham asosiy rol o'ynaydi. Bunda biz hissiy bilish obrazlarining shakllanishida tilning ahamiyatini yana-da yaqqolroq ko'ramiz. Shu narsa xarakterliki, umumiy tasavvurning paydo bo'lishida bosh miya po'stlog'ida qo'shimcha asab aloqalari yuzaga kelib, yangi obrazning hosil bo'lishida ana shu aloqalar fiziologik asos bo'ladi.

Demak, bundan tasavvur jarayoni mavhumlashtirish elementlarini ham o'z ichiga oladi, - degan xulosa kelib chiqadi. Bu esa umumlashtirishning eng muhim shartidir. Mavhumlashtirishda, hozirgina aytganimiz kabi, umumlashtirish uchun predmet va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlari ajratib namoyon etiladi. Agar biz biron narsaning, masalan, terak daraxtining aniq obrazini tasavvur etmoqchi bo'lsak, tabiiy ravishda juda ko'p muayyan terak daraxtlarining muhim bo'lmagan belgilari e'tiborga olinmay, uni umuman ko'z oldimizga keltiramiz. Tasavvurdagi mavhumlashtirish tushunchadagi mavhumlashtirish uchun zamin sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvur predmetdan, u bilan bevosita to'qnashishdan ana shu yo'l bilan uzoqlashadi.

Tasavvurda aks etgan belgilar ayni paytda o'xshash jihatlariga ko'ra birlashadi, umumlashadi. Biroq turmush, ishlab chiqarish ehtiyoji maqsadga tezroq erishish va dunyoni o'zgartirish ishlarini yengillashtirish uchun kishilarning predmet va hodisalarni iloji boricha mukammalroq bilishlarini taqozo etadi. Bunda kishilar o'z ongida narsa va hodisalarning ko'zga darhol tashlanuvchi tashqi aloqalari bilan birga ularni tashqi tomondan payqab bo'lmaydigan murakkab, muhim aloqa va munosabatlarini ham aks ettirishlari lozim.

"Bizning ijtmoiy tafakkur xazinamiz – deb yozgan edi L. Levi-Bryul, – umumlashtirilib, bir-biriga bog'liq tushunchalar yordamida bayon etiladi[68]. Bu o'rinda tasavvurning tushunchadan, tafakkurdan to'la metafizik ajralganini ko'ramiz. Sezgi, tasavvur, tushuncha va boshqalar aks etuvchi predmet yoki hodisani bilishning yagona jarayonini ifodalaydi. Obyektiv voqelikda narsalarning ichki va tashqi xususiyatlarini bir-biridan ajratish mumkin bo'lmaganidek, hissiy bilishni aqliy bilishdan ajratish mumkin emas. Tashqi dunyoning birligi in'ikos jarayonining birligini belgilaydi.

[68] O'sha asar. 53-b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Kishining obyektiv dunyoni hissiy aks ettirishi hayvonning aks ettirishidan shu bilan farq qiladiki, kishining hissiy organlari faoliyatiga tafakkur faoliyati qo'shiladi. Mana shu mavhum tafakkur bilishning oily shakli sifatida hissiy bilishni boshqarib turadi. Kishilarning ijtimoiy amaliyoti tufayli miya ishining, tashqi dunyoni aks ettirish organi ishining butun jarayoni jamiyat qonunlari nazorati ostida bo'ladi. Demak, tasavvurning tafakkur bilan uzviy aloqasi zaruriyati kishilarning ijtimoiy amaliyotiga bog'liq.

Tasavvurning hosil bo'lishi hamda rivojlanishida tafakkurdan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiqlik katta rol o'ynaydi. Biz istagancha aniq voqeani bevosita qabul qilganimizday, tasavvur etishimiz mumkin, shuningdek, bundan voqealarning guruh yoki turkumlarini ham umuman tasavvur etsa bo'ladi. Bu tasavvurdan ko'zda tutmagan maqsad va g'oyaga bog'liq. Bu buyuk san'atkorlarning ijodiy metodlarini tadqiq etishda yaqqol ko'rinadi.

Tasavvurdan ko'zda tutilgan maqsad va g'oya aniq bo'lgandagina boy va aniq tasavvur hosil bo'ladi. "Tasavvurga asoslanib rasm chizishda,— deb yozadi professor Ye. I. Ignatev,— avval shu rasmi chizilayotgan predmetning o'zini bevosita chizganda miyamizda qolgan izlarning murakkab sistemalari qo'zg'aladi. Demak, bunda xuddi rasm bevosita chizilgandagiday «adaptatsiya» sistemasi takrorlanadi"[69].

Ignatevning qayd etishicha, ko'rgazmali tayanch bo'lmaganligi uchun fikr yaxshi ishlaydi, bunday paytda predmet haqidagi barcha bilimlar yordamga keladi.

Binobarin, tasavvur bilan tafakkur orasida jips aloqa mavjud. Mana shu aloqa tufayli tasavvur predmet va hodisalarning muayyan umumiy tomonlarini aks ettiradi. Ba'zi tadqiqotchilarimiz tasavvur so'zning moddiy qobiqda bevosita mujassamlashadi, deydilar. Bu bilan ular tasavvurni tushuncha bilan ayniylashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar.

So'z moddiy jarangining hissiy obraz va mavhum tafakkur bilan munosabatini chegaralamaslik, tilning umuman dunyoni tushunishdagi, xususan hissiy bilishdan aqliy bilishga o'tishdagi rolini noto'g'ri tushunishga sabab bo'ladi.

Tasavvurning til bilan aloqasini aniqlash uchun tilni bilishning hissiy shakli sifatidagi o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, tushuncha, ya'ni so'z tafakkuri bilan o'zaro aloqasini ko'rsatish kifoya. In'ikosning hissiy shakllari: sezgi, qabullash va tasavvur in'ikos predmetiga bevosita bog'liqligi diqqatga sazovor.

Ma'lumki, tushuncha bir jinsli predmet va hodisalarning guruh yoki tabaqalarning muhim belgilarini umumlashtirgan holda aks ettiradi. Hissiyotda narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilari bevosita sezilmaydi. Shuning uchun ong predmetlarni

---

[69] Игнатев Э. И., О некоторних особенностях изучения придставление и воображения, "Известия", М.: 1956-йил, 9-стр.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

yaxshiroq va mukammalroq bilish uchun in'ikos predmetlaridan "uzoqlashishi" kerak. Ammo ideal narsa moddasiz yashay olmaydi. Ideal tushunchaning so'zning moddiy qobig'iga o'ralishi zarurligining sababi ham shundadir.

Kishilar tushuncha, muhokama va xulosalar, ya'ni til bilan bog'liq bo'lgan abstraktt tafakkurning asosiy shakllari yordamisiz fikrlay olmaydilar. Ammo tasavvur fikr emas, balki ongning xissiy shakli, ya'ni fikr uchun material, xolos. Tasavvur asosida so'zda shakllangan tushunchalar vujudga kelgandagina mantiqiy tafakkur paydo bo'ladi.

Tasavvur tilga bevosita emas, balki so'z tafakkuri orqali bog'liqdir. Bu tushuncha bilan so'z orasidagi aloqa sifat jihatdan bir-biridan farq qiladigan va o'zaro ta'sir etuvchi ikki signal sistemasining aloqasidan iboratdir.

Tasavvurni tilga bevosita aloqador deb biluvchi tekshiruvchilar hissiy bilish bilan aqliy bilish orasidagi farqni e'tiborga olmaydilar. Bu bilan ular tasavvurdan tushunchaga dialektik o'tishda tilning rolini kamsitadilar.

Demak, til bilan aloqador bo'lgan tasavvur bilishning so'z moddiy qobig'i yordamida ifodalanuvchi shakli sifatida qaralishi mumkin emas.

Tasavvur so'z ma'nosi ham bo'lolmaydi, u so'z ma'nosi bilan maxsus aloqaga kirishishi mumkin, xolos. Shakllanayotgan va rivojlanayotgan tasavvur til yordamida so'z ma'nosiga emas, balki tushunchaga aylanadi. Bolalar bilan o'tkazilgan tajribalar, tilshunoslik ma'lumotlariga qaraganda, dastlabki so'zlar grammatik jihatdan shakllanganga, ya'ni ularda tushuncha ifodalanganga qadar ma'nolari yordamida tasavvur bilan ma'lum munosabatga kirishgan.

Tajribalarga nazar tashlaylik.

Go'daklarning narsa va hodisalarni dastlabki umumlashtiruvlarida so'zning rolini aniqlashga bag'ishlab tajribalar o'tkazildi. So'z ma'nolari shakllanishining dastlabki bosqichida tasavvur bilan bevosita bog'lanishi aniqlandi. 1 yoshdan 2,5 yoshgacha bo'lgan bolalarda dastlabki so'zlarning barqaror va aniq ma'nosi bo'lmaydi, ular hali grammatik jihatdan shakllanmaganidan chinakam so'zlar sanalishi ham mumkin emas, ammo ularning ma'nosi aks etuvchi predmetning belgilarni umumlashtiradi. Dastlab ular yagona predmet haqida bola tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan «nom-so'zlar» tarzida paydo bo'ladi. Go'dakning bu tasavvuri tushunchaga aylanganga qadar ko'proq umumiy va barqaror belgilarni aks ettirish hamda aniq elementni siqib chiqarish yo'li bilan rivojlanadi.

Noaniq va noturg'un so'zlarning ma'nolari dastlab yagona tasavvur bilan bog'lanadi va noaniq «nom-so'zlar» tushunchani ifodalovchi, grammatik shakllangan to'la ma'noli so'zlarga aylanganga qadar, bu tushunchalar taraqqiyot darajasiga ko'ra, predmet va hodisalarning ko'proq umumiy belgilarini aks ettira boshlaydi.

So‘z ma’nosi bilishning hissiy bosqichidayoq so‘z ma’nosi bilan tasavvur hosil etgan tushunchadan oldin yuzaga keladi. Demak, so‘zning shakllanishi tasavvurga ham bog‘liqdir, chunki in’ikos payti so‘z ma’nosining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, tasavvur faqat tushunchani emas, balki so‘z ma’nosini ham tayyorlaydi. Bu esa tasavvur, so‘z ma’nosi va tushunchaning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu bog‘liqlik kishining til yordamida dunyoni bilish jarayonining birligini tashkil etadi.

Tasavvurdan tushunchaga so‘z yordamida bevosita qo‘zg‘atgichlarning jarangi va bosh miya qobig‘idagi asab aloqalari tufayli o‘tiladi.

Kishi dunyoni so‘z qo‘zg‘atgichlari vositasida anglaganda ikkinchi signal sistemasidan birinchiga xabar boradi. So‘z qo‘zg‘atgichlar (tovush, qurish va kinestetik) ikkinchi signal sistemasiga muvofiq analizatorlar tomonidan tahlil etiladi va pirovardida nutqni harakatga keltiruvchi analizatorning miya po‘stlog‘idagi oxuriga kelib tushadi.

Bu jihatdan sistema impulslari avvalgi qo‘zg‘atgichlarning ana shu so‘zda belgilangan hamda predmet va hodisalarning ilgarigi izlarini qo‘zg‘atadi.

Demak, miya aniq qo‘zg‘atgichlarni tayyor holda oladi. Biroq miyada avvalgi qo‘zg‘alishlarning izlari bo‘lganidan haligi qo‘zg‘atgichlarning impulslari birinchi signal sistemasidan ikkinchisiga boradi. Ikkinchi signal sistemasi esa hissiy bilishning oldingi, xususiy va ijtimoiy tajriba bilan aloqasini amalga oshiradi.

Afsuski, tasavvur bilan tushuncha o‘rtasidagi umumiy jihatlarda ba’zan anglashilmovchilik paydo bo‘lishi mumkin. Bu anglashilmovchilik ba’zi mualliflarning hissiy bilish dunyoning faqat ayrim, tasodif tomonlari haqidagina bilim beradi, ularning umumiy va zaruriy tomonlari esa faqat ratsional bilish bosqichida aks ettiriladi, deb o‘ylashlarida ko‘rinadi. Predmetlarning umumiy tomonlari hissiy bilishda ham, abstraktt tafakkurda ham aks ettiriladi. Ammo har qaysi bosqichda bu in’ikosning darajasi turlicha bo‘ladi, ya’ni hissiy bosqichda aks etila boshlagan muhim tomonlar ratsional bosqichda to‘la in’ikos qilinadi. Tasavvurdagi umumiylikda, albatta, muhim tomonlar bor, ammo bular to‘la mohiyat bo‘la olmaydi, chunki tasavvurda bundan tashqari yana ko‘rgazmali tomonlar ham mavjud.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Игнатев Э. И., О некоторних особенностях изучения придставление и воображения, “Известия”, М.: 1956.
2. Исмоилов Б. Дунёни билишда тил ва тафаккур бирлиги, Т.: Фан, 1966.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИ КОМПЕТЕНТЛИГИГА ҚЎЙИЛГАН АСОСИЙ ТАЛАБ

***Очилов Хасан***

*Жиззах Sambhram Университети*

*2-боскич талабаси*

Миллий таълим тизимида замонавий ўқитувчининг ахборот-коммуникация технологиялари соҳасидаги компетентлиги (АКТ-компетентлиги)ни шакллантириш – глобаллашаётган дунёда миллий таълим амалиётида актуал муаммолардан бири бўлиб келмоқда. Сўнгги йилларда АКТ бўйича ўқитувчининг компетентлиги тушунчаси илмий-педагогик асарлар, меъёрий ҳужжатларда кўп қўлланилиб келиниб, касбий фаолиятда турлича қўлланилиб, турлича натижалар олинаётганлиги билан кўп музокараларга сабаб бўлмоқда.

Бугунги кунда ушбу тушунча таълим тизимининг барча босқичларида қўллаш мумкин бўлган компетент ёндашувликка айланди. Таълим тизимида ушбу тушунча 2005 йиллардан қўлланила бошланганлигини, техник ва технологик янгиликлар жуда тез амалга ошаётганлигини ҳисобга олсак кўпгина ўқитувчилар олий таълим муассасаларида ушбу йўналишда тўлақонли билимларни олишмаган. Шу муносабат билан ўқитувчиларда АКТ бўйича компетентликни шакллантириш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб келмоқда. Давлатимиз томонидан мустақиллигимизнинг дастлабки йиллариданоқ таълим тизимига кенг эътибор қаратилиб, таълим муассасалари замонавий ўқув-техник воситалар, компьютер техникалари билан таъминланиб, интернет, ZiyoNET тармоқларига уланди. Барча ихтисосликлар бўйича электрон дарсликлар, виртуал лабораториялар ва электрон ахборот таълим ресурслари яратилиб, мунтазам замонавий фан-техника ютуқларини қўллаган ҳолда янгиланиб борилмоқда. Ушбу шароитларнинг яратилганлиги таълим тизими ходимларидан юқори АКТ компетентлигига эга бўлиб, мунтазам касбий маҳоратлари, омилкорликларини ошириб боришни тақозо этмоқда. Шу билан бир қаторда яна бир муаммо компьютер техникаси ва техник воситалардан фойдалана олиш бу тўлиқ АКТ бўйича компетентликка эга деб тушунишга асос бўла олмайди. АКТ компетентлилиги деганда техник ва технология воситаларни аниқ мақсад ва масаларни ҳал қилишда тўғри қўллай олишни ҳам тушуниш лозим. Ўтказилган сўровлар ва тадқиқотларлар натижасида ўқитувчиларнинг жуда кам қисми таълим тизимида АКТни қўллаш янгича таълимий қараш эканлигини, касбий омилкорликни кўрсатиш воситаси эканлигини, янги таълимий муҳитда таълим мазмуни ва сифатини оширишга имкон берувчи восита ва технология эканлигини тушунишганлигини қайд

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қилмоқда. Бу эса малака оширишга ихтисослашган таълим муассасалари, марказлар олдида янги таҳрирда ўқув-режа ва дастурларни шакллантириб амалий ўқувлар, семинарлар ва махсус курслар ташкил этиш заруриятни қўймоқда.

Қуйида ўқитувчи АКТ бўйича компетентлилигининг асосий учта аспектларини келтирамиз:

•АКТ йўналишида етарли функционал саводхонликка эга бўлиш;

•Касбий, ижтимоий ва шахсий фаолиятда эффективлиги асосланган шаклдаги АКТни қўллаш;

•АКТни таълим тизимидаги янги парадигманинг асоси, ўқувчиларни ахборотли жамиятнинг бир субъекти сифатида уларнинг ривожланиши, чуқур билим олиши, янги интеллектуал билим ва натижаларни олишига имкон берувчи восита сифатида қабул қилиш зарур.

Ўқитувчининг АКТ компетентлилиги қуйидагиларни амалга оширишни таъминлаши зарур:

•Янги таълимий мақсадлар қўйиш;

•Таълим беришнинг янги шаклларини ташкил этиш;

•Касбий фаолиятни янги мазмунда ташкил этиш;

Ачинарли бир ҳолат бор, яъни ўқитувчи бир неча бор АКТ йўналишида ўз касбий билим, кўникма ва малакалари ошириб қайтиб, муассасада зарурий техник ва технологик воситаларга эга бўлиб ушбу воситалардан таълим жараёнида фойдаланилмайди. Ушбу ўқитувчи АКТ йўналишида тест синовлардан муваффақиятли ўтган. Ушбу ўқитувчини АКТ бўйича етарли компетентликка эга деб бўладими? Албатта йўқ, чунки ушбу ўқитувчи бир томонлама тайёргарликка эга. Қуйида даражаларнинг характерланиши ва қўлланилишини кўриб чиқсак.

**Билиш даражалари.** Функционал саводхонлик – бу АКТ бўйича компетентлиликнинг базавий даражаси бўлиб, ўқитувчида техник ускуналар, дастурий таъминот ва электрон ахборот таълим ресурсларидан фойдалана олиш билим ва кўникмаларига эгалигини таърифлайди. Умумпедагогик тайёргарлик-таълим жараёнида АКТни қўллай олиш билим ва кўникмаларига эга бўлишишни, педагогик тайёргарлик эса ўз ихтисослигига оид дарсларда АКТни қўллай олиш билим ва кўникмаларига эга бўлишни тақозо этади.

**Фаолият даражалари**. Ушбу даражада АКТ йўналишидаги функционал саводхонлик таълимий масалаларни ечишда АКТдан самарали фойдаланишни ташкил қилади. Ташкилий инновациялар деганда ўқитувчи томонидан янги ташкилий-технологик фаолиятни самарали ташкил этиш тушунилади. Жумладан,

•таълим жараёнида ташкилий ва кузатув локал формаларини қўллаш;

•масофадан ўқитишни, сиртқи ва уйда ўқитишни ташкил қилиш;

•ўқувчиларни индивидуал ўқув режалари асосида таълим олишини ташкил этиш ва мониторингини олиб бориш;

•ягона таълим жараёнида дарснинг, мактабдан ва синфдан ташқари, мустақил ва тарбиявий ишларнинг янги формаларини ташкил этиш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Мазмуний инновациялар деганда тизимли, мақсадга йўналтирилган, электрон ахборот ресурсларни самарали фойдаланган ҳолда янги билим чўққиларни заб қилишга эришиш тушунилади. Ушбу жараён таълим мазмунини модернизациялаш, таълим сифатини янги сифат даражасига кўтариш, таълим беришнинг илғор технологияларини сифатли қўллашни ва холисона баҳолашни ташкил этишда кўмаклашади. Мазмуний иннвациялар қуйидаги мажмуий қисмлардан иборат бўлиши мумкин:

•электив курслар, ўқув амалиётларини, профилли ва касбга йўналтирувчи курслар, тўгаракларни ташкил қилиш;

•таълим беришнинг муаммоли ва лойиҳали шаклларини яратиш;

•таълим жараёнини ўқувчиларнинг индивидуал ва гуруҳли фаолият олиб бориш имконини берувчи шаклларда ташкил этиш;

•ўқувчиларда АКТдан фойдаланган ҳолда берилган мисол ва масалаларни ўзаро ҳамкорликда ечишни ташкил этиш;

•билимларни баҳолашда янги диагностик, мониторинг воситалари ва тизимларидан фойдаланиш (фанлараро мониторинг, рейтинг тизими, ўқувчилар билимининг ривожланиш динамикаси);

Мазмуний инновациялар ўқитувчининг касбий компетентлиги, АКТ бўйича компетентлилигининг самаралилигини билдирувчи даражаси ҳисобланади.

Юқорида қайд этилган АКТ компетентлилигининг босқичлари, даражалари замонавий ўқитувчини шакллантиришнинг асосини ташкил қилади. Бу эса ўз навбатида ўқитувчи-мураббийлардан АКТ, педагогика, психология, педагогик маҳорат, хорижий тиллар каби йўналишларда ўз касбий билим, кўникма ва малакаларини, умумий қилиб айтганда ўз компетентликларини мунтазам ошириб боришна тақозо этади. Зеро келажаги буюк давлатнинг фарзандларини билимли, доно бўлишлари учун замонавий фан-техника ютуғларидан фойдаланган ҳолда, менталитетимизга мос равишда таълим-тарбия бериш биз ўқитувчиларнинг асосий вазифамиз этиб белгиланган.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TILNING TAFAKKUR BILAN BOG'LIQLIGI.

***Murodullayeva Nigina***

***Jizzax Sambhram Universiteti***

*2 bosqich talabasi*

Tafakkur alohida tarzda tuzilgan materiya – miyaning oliy mahsuli, obyektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va harakatlardagi in'ikosining faol jarayonidir. Boshqacha aytganda, tafakkur obyektiv olamning inson miyasida mavhumlashgan, til bilan ifodalanib aks etishidir.

Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va voqelikning vositali in'ikosini ta'minlab, uning qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Abstraksiya, analiz va sintez, muayyan vazifalarni o'rtaga tashlash va ularni hal etish yo'llarini topish, gipotezalarni, g'oyalarni ilgari surish kabi jarayonlar tafakkurga xos xususiyatlardir.

Inson ongining taraqqiyotida nutq, til g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Tilning paydo bo'lishi bevosita uzviy ravishda bog'liqdir. Odamning o'zini ham, tilini ham ijtimoiy mehnat yaratadi.

Til tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Inson nutqi bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, fikrlash ham bo'lmaydi. Chunki nutq fikrlashning qurolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq, tilning ham bo'lishi mumkin emas. Til va tafakkur bir-birisiz mavjud bo'lmasa ham, biroq ular aynan bir xil narsa emas. Tafakkur obyektiv borliqning in'ikosidir. Til esa fikrni ifoda etish qurolidir, uni qayd etish va boshqa kishilarga yetkazish, bildirish vositasidir. Til faqat tafakkurning ifodasi emas, balki uning tayanchi va taraqqiyot qurolidir.

Kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va kashf etilgan barcha narsalar va hodisalar, tushunchalarni o'zida aks ettiruvchi til buyuk umumlashtiruvchilik rolini bajaradi. Jamiyatning taraqqiy etishi bilan tafakkur singari til ham taraqqiy qilib boradi [70].

Kishilarda nutq mehnat faoliyati jarayonida bir-birlari bilan aloqa qilish vositasi sifatida rivojlanadi. Hayvonlarda esa, nutq yo'q, boshqacha aytganda, hayvonlar gapirmaydi. Ularning hayot sharoiti shundayki, ularda so'zlashishga zarurat va imkoniyat yo'q. Hayvonlarning aloqa qilish vositasi har xil signallar berish bo'lib xizmat qiladi. Bu signallar tovush chiqarib yoki imo-ishora bilan beriladi. Maymunlarda bu hol, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Ammo "signal" berish sistemalariga nutq boshlang'ichlarining vujudga

[70] Туленов Ж., Ғофуров З. "Фалсафа", Т.: 1997-йил, 184-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

kelishi uchun yagona shart-sharoit deb qarash kerak. Nutq aloqa qilishning sifat jihatdan yangi vositasi boʻlib, faqat odamga xosdir.

Til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish vositasi fikrning bevosita ifodasidir. Kishilar fikr ayriboshlamasa, umuman zarur moddiy boyliklarni ishlab chiqara olmagan, tabiat kuchlariga qarshi birgalikda kurasha olmagan boʻlar edi. Fikr ayriboshlash esa faqat til yordamida yuzaga chiqishi mumkin. Til tafakkurning borliq shakli, tafakkur esa tilning mazmunidir. Insoniyat bilan birga paydo boʻlgan til uning hayotida eng muhim rol oʻynab kelgan va bundan keyin ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Til eng avvalo, inson va uning shakllanishidagi zaruriy shartlaridan biridir. Aniq nutqning paydo boʻlishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman oʻzgartirib yuboradi.[71]

Til tufayli inson tafakkuri boyiydi, moddiy dunyodagi narsa va hodisa, predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ularga oid fikrlarni soʻz bilan ifodalash imkoniga ega boʻldi.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning oʻzaro bogʻliqligi alohida koʻrsatib oʻtiladi. Bunda insonlar psixikasi bilan hayvonlar psixikasi oʻrtasidagi asosiy farqlardan biri namoyon boʻlishi ta'kidlanadi. Hayvonlarning oʻta oddiy, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat hayvoniy harakat tafakkurligicha qoladi; ular hech qachon mavhum, bevosita bilish darajasiga yetmaydi. Hayvonlarning tafakkuri ayni chogʻda goʻyo koʻz oʻnglarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish koʻradi. Ana shunday oddiy tafakkur hayvoniy harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda boʻladi va bundan hayvoniy harakat tarzida uning doirasidan chetga chiqmaydi. Faqat nutq paydo boʻlgach, bilinayotgan obyektdan ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus soʻz yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tugʻiladi. Tafakkur soʻzda oʻzining moddiy qobigʻiga ega boʻladi, tafakkur faqat soʻz orqali boshqalar uchun va oʻzimiz uchun ham bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib boʻlmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bogʻliq holda paydo boʻladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli sur'atda oʻylangan boʻlsa, u soʻzlarda ogʻzaki va yozma nutqda shunchalik aniq va yaqqol sifatlangan boʻladi yoki qandaydir fikrning soʻz orqali ifodasi qanchalik koʻp takomillashgan, sayqallangan boʻlsa, ayni shu fikrning oʻzi shunchalik yaqqol va tushunarli boʻladi.[72]

Kishi oʻzining fikr–mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni oʻzi uchun ifodalaydi. Fikr soʻz iboralarida ogʻzaki yoki yozma soʻz iboralarida mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak boʻlganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq oʻylab tekshirib koʻrish va qayta oʻylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib koʻrish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib,

[71] Туленов Ж., Ғофуров З. "Фалсафа", Т.: 1997-йил, 184-бет.
[72] Yoʻldashev I., Sharipova Oʻ. Tilshunoslik asoslari T.: 2007. 31-bet.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bogʻliqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy soʻz qobigʻida mavjuddir.[73]

Tilning paydo boʻlishi, uning takomil topib borishi, odamzodning bunday buyuk ne'matga noil boʻlishday murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamiyatining hal qiluvchi omili ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli toʻliq anglaganga qadar koʻp zamonlar oʻtgan. Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shunday haqiqatni izlab turli-tuman tajribalar oʻtkazilgan.

Katta shov-shuvga sabab boʻlgan "Tarzan" haqidagi "Mutloq hukmronlik" filmini eslaylik: kema halokatidan soʻng angliyalik er-xotin omon qoladilar va oʻzlarini yovvoyi junglida koʻradilar. Kunlar oʻtib ular farzandli boʻladilar. Bola hali chaqaloqligida ona kasallikdan vafot etadi, ota esa maymunlar hujumidan halok boʻladi. Chaqaloqni maymunlar oʻzlari bilan olib ketadi va bola maymunlar orasida, maymunlar "inida koʻrganini qilib", balogʻatga yetadi. Uning harakati maymuniy, oziqlanishi maymunlarga xos, tili, dard-u qaygʻusi maymunlarga xos… insoniy harakat va nutq unga tamoman begona… hatto insonlar orasiga qaytib, toʻr-besh inglizcha soʻzlarni oʻrganganidan keyin ham bu "yot" muhitga koʻnika olmaydi, yana jungliga qochib ketadi.

Ma'lumki, har bir inson oʻzi yashab turgan muhitda, jamiyatda ulgʻayadi, tarbiya topadi. Albatta, har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma'naviy komillik, milliy oʻzlik tarbiyasining asosiy oʻchogʻi bolani oʻrab turgan ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, oiladir. Bilamizki, hali tili chiqmagan chaqaloq bir kunda oʻz ona tilida gapira olmaydi. Uning tili bir nech oylar, yillar ichida asta-sekin shakllanib, ravonlashib boradi. U dastlabki til ruhiyatini ona suti va ona allasi orqali oladi. Ona allasi orqali bola orom olish bilan birga uning koʻngil dunyosiga milliy ruh kiradi.

Demak, bolaning ilk til malakasi dunyoni milliy koʻz bilan idrok qilish tajribalari oilada tarkib topadi. Til haqida olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt shunday deydi: "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatning dunyoni koʻrishining farqliligi natijasidir".

Agar chuqurroq oʻylab qarasak, har bir millatning oʻziga xos koʻrish tarzi, oʻziga xos idrok intizomi, oʻziga xos tafakkur tamoyili bor.

Amerika tilshunosi Benjamin Li Vorf: "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganda, inglizcha oʻylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti boshqacharoq boʻlar edi" – degan edi. Tilning mohiyati, vazifasi koʻpincha benihoya joʻn talqin etiladi. Goʻyoki til – eng muhim aloqa vositasi boʻlgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning koʻplab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni koʻrish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Qolaversa, til har bir insonning, millatnig ichki dunyosini,

[73] Умумий психология. Т.: Ўқитувчи. 1992.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ma'naviyatini butun borligicha ifodalovchi omil hamdir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ekanligini unutmaslik lozim. [74]

Aytilganlardan xulosa shuki, til bilan jamiyatning uzviy aloqadorligi isbot talab etilmaydigan hodisadir. Til bilan jamiyatning oʻzaro bogʻliqligi ularning har ikkisi bir vaqtda yuzaga kelganligini, jamiyatning jamiyat boʻlishida tilning asosiy vazifani bajaruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini, shunga koʻra tilsiz kishilik jamiyatining mutlaqo boʻlishi mumkin emasligini asoslaydi.

Undan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga ogʻzaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod oʻtgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi.

Til ilm olishda zamon va makon gʻovini oʻrtadan koʻtaradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega boʻlamiz, hatto kelgusiga oid ma'lumotlarni ham olamiz. Koinotning hamma yeridagi ma'lumotni soʻz bilan ifodalab bildirish mumkin.

Har bir oʻquvchi maktabda qanchadan-qancha bilim oladi. Shu bilimlarni olishga til tufayli muyassar boʻladi. Aks holda xar bir oʻrgatilayotgan narsani, hech boʻlmaganda uning suvratini oʻquvchiga koʻrsatish kerak boʻlar edi. Bu, albatta, juda koʻp vaqtni va joyni talab qilar edi.

Bugina emas, biz til tufayli sezgi uzvlari bilan bilib boʻlmaydigan narsalarni ham oʻrganamiz. Koʻrinishi, shakli bor narsalarning suvrati ongimizga oʻrnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat soʻz shaklida oʻzlashtiramiz. Xuddi shuningdek, mavjudotning koʻrinmas ichki jihatlarini ham soʻz shaklida oʻzlashtiramiz va til vositasi bilan oʻzgalarga tushuntiramiz.

Tilning oʻrganish va oʻrgatishni juda osonlashtiradigan yana bir xususiyati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. Soʻz yordamida biz mavjudotni oʻrganib umumiy tushunchalar xosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalarini oʻrganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tugʻdiradi. Til tufayli biz haq bilan nohaqni, yaxshi bilan yomonni bir-biridan farklashni oʻrganamiz.

Shunday qilib til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekan. Ammo tilning ahamiyati bu bilan tugamaydi. Uning juda ulugʻ badiiy ahamiyati ham bor. Tilning badiiy imkoniyati cheksizdir. Til imkoniyatining cheksizligi va ahamiyatining nihoyatda ulugʻligi uning ham moddiy, ham ma'naviy olamlarni qamrab olganligidir.

Butun mavjudotning, xususan, insonning tuzilishi, yurish-turishida qanchadan-qancha yetuklik, jumladan, goʻzallik bor. Ammo tabiiy goʻzallikdan tashqari yana inson

[74] Yo'ldoshev A., Sharipov O'. Tilshunoslik asoslari, T.: 2007. 38-bet.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

vujudga keltiradigan sun'iy go'zallik ham bor. Hunarmand-u san'atkorlar buyumlarga, inshootlarga go'zal tus beradilar. Usta dehqonlar go'zal bog'-u rog'larni vujudga keltiradilar. Kuychilar kuy, ashulachilar ashula, raqqosalar raqs, naqqoshlar naqsh yaratadilar.

Mana shularning hammasi va ularning go'zalligi til vositasida aks ettiriladi. Bu tilning go'zallikni ifodalashdagi xizmatidir. Ammo tilning o'zidan ham go'zallik moddasi sifatida, xususan, qalam-u so'z ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til yetuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir. **Birinchidan,** til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lsa, **ikkinchidan**, tilning o'zi go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi minglab chechanlar tilning mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdek foydalanadilar va shu bilan o'quvchi yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar.

Tilning go'zallikni ifodalashi yoki aks ettirishi qanday amalga oshadi? Buning javobini olish uchun avval "go'zallik nima?" degan savolga javob berishimiz kerak. Chunki go'zallikni har xil tushunish mumkin. Ayniqsa, insondagi go'zallikning nimadan iboratligini bilib olish uchun ko'p bilim va tajriba lozim.

Ba'zan yirtqich hayvonlar ko'rinishda uy hayvoniga nisbatan ko'rkam bo'lishi mumkin, ammo mohiyatan zararli bo'lgani uchun u kishida haqiqiy go'zallik zavqini uyg'otmaydi, aksincha, kishi ko'ngliga dahshat soladi yoki uni jirkantiradi.

Ayrim zaharli o'simliklar rangdor guli bilan, masalan, rayhonga nisbatan yaxshiroq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Ammo u uning tabiatini bilgan kishiga rayhonga nisbatan go'zal bo'lib tuyulmaydi.

Go'zallikni to'g'ri tushunib, undan bahramand bo'lish uchun zaruriy shartlardan yana biri shuki, hamma holda ham go'zallikdagi tabiiylik sun'iylikka nisbatan ustun turadi. Inson tabiiy go'zallikka sun'iy go'zallik qo'shadi, lekin uning o'rni va me'yori bor.

Til bir jihatdan tabiat va insondagi go'zallikni aks ettiruvchi vosita bo'lsa, ikkinchi jihatdan unda go'zallikni vujudga keltiruvchi jihatlar ham mavjud. Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsak, uning kishini hayratga soladigan darajada yetukligi bor.

Qaysi bir tilni olmang, undagi tovushlar yuzga yetmaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ttiz bitta tovush bor. O'zbek tiliga tarixan nazar solgan vaqtimizda yoki shevalarni hisobga olganimizda ko'proq bo'ladi, ammo qirqtadan oshmaydi. Mana shu qadar ozgina tovushdan o'zbek tili tarixida milliondan ortiq so'z yasalgan va bu so'z yasalishi kerak bo'lgan taqdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkoniyat dunyodagi hamma tillarga xos.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Demak, tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til bajaradi. Albatta, har bir inson tafakkurdagi fikrlarni ifodalashda shu inson nutqining naqadar takomil topganligi muhim sanaladi. Chinakam nutq madaniyati shu tilning butun boylik va go'zalliklaridan foydalana olish, uni ne'mat sifatida idrok etish asosida shakllanadi.

Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim masalalaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari nutqiy madaniyat ko'nikmalari malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi bejiz emas.

Respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan: "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa juda ko'plab hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Fikrni o'z ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda etish uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak, busiz ona tiliga sohiblik degan tushuncha ham ma'noga ega emas. Chunki nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Tilning mana shu yetukligi uning o'zining go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta'minlaydi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# G'AFUR G'ULOM IJODIDA YOSHLAR TARBIYASIGA E`TIBOR VA BU BORADA MILLIYLIKNING O'RNI

***Chinnibekov G'iyos***

Jizzax Sambhram Universiteti
2-bosqich talabasi

G'afur G'ulom ijodi, uning asarlari, hattoki hayot tarzi ham, shubhasiz yosh avlod, bolalar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Adibning har bir asarida u, yoki bu jihatdan yosh avlod tarbiyasiga e`tibor qaratiladi. Muallif o'z asarlarida tarbiya masalalarini didaktik, pand-nasihat usulida emas, aksincha badiiy yorqin obrazlar va tasvirlar orqali aks ettiradi.

G'afur G'ulom o'zbek milliy xususiyatlari va milliy xarakterining o'suvchi tomonlariga e'tibor berdi va buni xalqning fidokorona mehnat aktivligida ko'rsatadi. Avvalo, u mehnatsevarlik, qahramonlik, do'stlik, birodarlik, ahillik va insonparvarlik kabi umumiy hislatlar o'zbek xalqi milliy xarakterining ham ajralmas ma'naviy-ahloqiy va psixologik fazilatlari bo'lib, bu hislatlarni u tabiatiga, ichki va tashqi yovlarga qarshi asriy kurashda qozonganini xalqlar do'stligi va qardoshligi qurshovida toblanganini ta'kidlaydi. Ayni zamonga shoir milliy xarakterning fikr va tuyg'ularda, xalqning fe'l atvori va xatti-xarakterlarida ifodalangan psixologik xarakteristikalarni tarixiylik bilan badiiy izohlaydi. Yana shunisi tahsinga loyiqki, lirik qahramon xarakterini gavdalantirib beradigan milliy muhit passiv fan bo'lib qolmasdan, balki aktiv ravishda obrazning qon tomirlariga singadi; lirik qahramonning takrorlanmas individual taqdiri xalqning tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy tajribasining zarrasi sifatida aks etadi. Shu bilan birga shoir o'zbek xalqining milliy iftihori, vatanparvarlik intilishlari qardosh xalqlar mehnatkashlari manfaatlari bilan chatishib ketganini ko'rsatadi, o'z xalqining o'tmishi, hozirgi va porloq kelajakdagi internatsional belgilarini g'urur bilan kuylaydi. G'afur G'ulom o'zbek xalqini, uning ayrim vakillari turmushini, faoliyatini, ichki dunyosini tasvirlar ekan, o'z davri voqeligining eng muhim va tipik tomonlarini yoritadi hamda bu o'ziga xosliklarni yosh avlodga o'rnak sifatida ko'rsatadi.

G'afur G'ulom Sharq she'riyati tarixini ham rus va Yevropa poetik madaniyatini ham mukammal bilgan va o'zlashtirgan shoir edi. Ammo uning ijodida Jambulga xos soddalik bilan Umar Xayyomga xos falsafiylik va teranlik ko'proq bo'rtib turadi. Bu holni shoirning o'zi ham his etadi va she'rida o'zini hatto "G'ulomuf nomli Xayyom" (13-tom, 305-bet) deb ataydi. Bu nomdagi ijodning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda shoir yashagan davrning o'ziga xos poetik yilnomasi ro'y-rost jonlanadi.

Xalq hayotida, mamlakat hayotida ro'y bergan har bir hodisa: yillik paxta planning bajarilishidan to fashizm ustidan erishilgan g'alabagacha, paxtakorlarning mehnati-yu, Mirzacho'lning o'zlashtirilishidan to tinchlik uchun kurashgacha bo'lgan voqealar shoir ijodining mundarijasini belgilab keladi. Yuqoridagi jarayonlarni badiiy tasvirlashda milliy rih ifodasida bo'lgan badiiy detallardan G'afur G'ulom samarali foydalandi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangan dastlabki kunlardanoq o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatning boy salohiyati, insoniyatning eng yovuz dushmani bo'lgan fashizmni tezroq tor-mor qilish ishiga safarbar qilinadi. O'zbekiston madaniyatining barcha yo'nalishlari, arboblari va xodimlarining fidoiyligi va vatanparvarligi tufayli juda qisqa muddatlarda urush davri ehtiyojlari va talablari oqimiga yo'naltirildi.

"Chin arafa" 1945 yilda yozilgan 5 yillik g'am anduh, qanchadan-qancha qora xatlar, insoniyat boshiga fashizm balosini yog'dirgan mislsiz fojealardan nafas rostlagan, yorug' kunga ming bor mashaqqat bilan yetib kelgan, bayramlar u yoqda tursin, hatto bu 5 yillik dahshatli ko'rguliklar, jabrdiyda o'zbek xalqining timsoli lirik qahramon:

Yuzimni yoritdi kechagi to'kilgan yosh,
Bugun bayram keltirdi kechagi hajr-u firoq, -

deya shukrona aytadi.

Shodlik qo'shini bosdi saodat ko'chasini,

Go'daklar jaranglatar hayitlik tangasini.

Kelinchaklar axtarar pardoz qutichasini,

Qirq kokil bo'sin deydi, qistaydi yangasini,

Bugun chin arafadir.

"Ey mening farzandlarim, qunduz qosh, qora ko'zlar", - deya o'zbekning portretini, timsolini chizgan shoir, keyingi satrlarda ham g'oyat chiroyli milliy detallarda, milliy bayramimiz bo'lgan hayit arafa kunlaridagi shodiyonaning tasvirini chizadi. "Go'daklar jaranglatar hayitlik tangasini", "Kelinchaklar axtarar pardoz qutichasini", "Qirqkokil bo'lsin deydi, qistaydi yangasini".

Go'dak kulsa olam kuladi. Dunyoning barcha shodligi bolajonlar uchun. Hayit-arafa kunlari har bir o'zbek oilasida farzandlariga hech bo'lmasa bitta yangi kiyim kiydiriladi va albatta ota-onalari, amma-xolalari, amaki-tog'alari tomonidan hayitlik tangalari ulashiladi. Qadim-qadimdan hayit-arafa kunlarida qavm-u, qarindoshlari jonu jigarlari, qo'ni-qo'shnilar yangi tushgan kelinchakni yo'qlab, qo'lidan bir payola choy ichish uchun u tushgan xonadonga sovg'a salomlar bilan kirib boriladi. Kelinchakning chiroyli libosida o'zlaricha oro bergan, sochlarini qirq kokil qilib o'rdirgan (yangi o'zbek kelinchagining sochi qirq kokil qilib o'rilishi kerak) kelnchak qo'li ko'ksida, kelin salomlar bilan mehmonlarni kutib oladi.

She'rning mazmun mohiyatini to'ldirishda, boyitishda mana shu satrlarning ham beqiyos o'rni bor.

Ertaga tong otardan nog'orada zilu bam,

Chaling, Ahmadjon ota navoni savti bilan…

Doira-yu, nog'orasiz o'zbekning shodiyonasini tasavvur etish qiyin albatta. Ammo shoir cholg'uchiga "chaling Ahmadjon ota navoni savti bilan" deganda qanday estetik-tarbiyaviy ta'sirni nazarda tutdi ekan?!

Bizga ma'lumki, she'r 1945-yil II jahon urushi tugagan paytda yozilgan. Urush keltirgan ofat, ayrilig'-u, judoliklarni o'zbekning navo kuyichalik ta'sirchan pardalarda ifoda etadigan kuy bo'lmasa kerak. Ayrilish, haydalish, judolik kuyini chalishni mashshoqdan so'ragan Otabek "Navo"ning yuraklarini zir titratuvchi nolishiga chidolmay, ko'z yoshlari daryo bo'lib betini yuvganini buyuk Qodiriy qanday hassoslik bilan tasvirlaganini eslang-a!

Shoir mehnatsevarlik, qahramonlik, kamtarlik, do'stlik, birodarlik, ahillik va insonparvarlik milliy xarakterining ham ajralmas, ma'naviy-ahloqiy, ruhiy fazilatlari ekanligini, bu fazilatlar xalqning turmushida, faoliyatida, oddiy kundalik ro'zg'orida bo'y ko'rsatadigan ishni tasvirladi. Milliy sharoit zamirida badiiy ifodasini topgan hayotiy mazmun milliy "libosda" ko'rinadi. Milliylik esa ona tili, kompozitsion tasviriy vositalar obrazlilikda, shuningdek, yuqorida ko'rib o'tganimizdek detallarda ham namoyon bo'ladi. Bu jihatlar esa, shubhasiz shoirning yosh avlodlarga qarata aytgan o'gitlari, desak xato bo'lmaydi.

**Adabiyotlar ro`yxati**

1. G'afur G'ulom. Viqor lirika. Toshkent-1980.

2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. X tomlik. 2-6 tomlar. Toshkent-1984.

3 . G'afurov I. Mangu latofat T.: Sharq, 2007

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## XIV-XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOT

***Akaboyev Ruzimurod***
***Jizzax Sambhram Universiteti***
***2-bosqich talabasi***

Qariyb bir yarim asr davomida mo`g`ullar istibdodi ostida xonavayron bo`lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo`g`ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo`lgan intilish g`olib keldi. Mo`g`ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo`zg`oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo`zg`olonlari ro`y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo`g`ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o`rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg`onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o`z tamoyillari, yo`nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnahrdagi Sharq Uyg`onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko`rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o`sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko`plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm- ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o`rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo`g`rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o`rganishga havas kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e'tiqodiga ko`ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlkatning rivojlanishiga hissa qo`sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o`ziga xos o`rni bo`lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o`n ikki bog` va qasr yaratadi, shahar arki Ko`ksaroy, uning atrofida esa Bo`stonsaroylar bino etadi. Jome' masjidi, maqbaralar, me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o`zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo`ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo`ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o`qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur'on, Hadis, fiqh o`rganilgan. Shuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko`ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar ham o`rgatilgani haqida ma'lumotlar bor.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o`zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o`rgatishga ko`proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa'diy Sheroziyning «Guliston», «Bo`ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar ham o`qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o`quv ishlarini yuritish belgilangan1.

Ulug`bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G`ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo`lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko`zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug`bek 1428—1429 yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada «Ko`ragoniy jadvali»ni, ya'ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo`lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo`lsa, XIV— XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro`yxatdan o`tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarining shu davrda to`liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg`onish davri bo`lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo`la oladi.

Bu davrda o`zbek adabiyotida ham ancha siljish ro`y berib, Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o`zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug`bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag`batlantirdi, uning o`zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo`yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug`bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o`sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqea hisoblandi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid bin Ma'sudi, Mo`yiddin va uning o`g`li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Hirotda esa Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug` rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho`qqilariga ko`tarildilar.

Ulug`bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o`sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o`ynadi. Astronomiya to`g`risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali Qushchini o`z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to`la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang`ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo`linib ta'riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko`chib o`tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotda fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo`lga qo`yishda, u erni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Hirot to`g`risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko`rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko`priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirotda Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar — Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda — Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Hirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda «Hirot yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920 yilgacha qo`llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-ahbob» tazkirasi, Mutribiyning «Tazkira — tush shuaro» (1604—1605) to`plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo`lgan «Boburnoma» o`sha davrda yaratilgan asarlar orasida o`ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim» («Etti iqlim») degan geografik bibliografik lug`at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga etdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo`lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do`stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to`g`risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo`ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o`qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o`qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o`rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilar edilar. O`quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV— XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko`tarildi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# INTERFAOL TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISh ORQALI BO'LAJAK BOJXONA XIZMATI ORGANI XODIMLARIDA HUQUQIY MADANIYaTNI TAKOMILLAShTIRISh

***Абдурахимов Асилбек***

"Трансбанк".Жиззах филиали ходими

## Annotatsiya

Maqolada interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish orqali bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarida huquqiy madaniyatni takomillashtirish metodlaridan foydalanish, bo'lajak bojxonachilarning darsga qiziqishlari, ixtiyoriy qatnashishlari, mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari, o'z-o'zini huquqiy tarbiyalashga bo'lgan intilishlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol, bojxona xodimi, huquq, pedagogika, metod, ta'lim, tarbiya, shakl, vosita.

## Аннотация

В статье рассматривается использование методов повышения правовой культуры будущих таможенников за счет использования интерактивных методов обучения, развитие интереса будущих таможенников к урокам, добровольное участие, самостоятельное обучение, стремление к само-правовому образованию.

**Ключевые слова:** Интерактивный, сотрудник таможни, право, педагогика, метод, образование, воспитание, форма, средства.

## Annatation

The article discusses the use of methods to improve the legal culture of future customs officers through the use of interactive teaching methods, the development of the interest of future customs officers in lessons, voluntary participation, self-study, the desire for self-legal education.

**Key words:** Interactive, customs officer, law, pedagogy, method, education, upbringing, form, means.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarida huquqiy madaniyatini takomillashtirish uchun, eng avvalo kursantlarning maksimal darajadagi faolligi zarur, chunki ularda huquqiy madaniyat ma'lum bir kasbiy tajribalar asosda shakllanadi. Shuning uchun bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy madaniyatini takomillashtirishda huquqiy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, pedagogik-psixologik asoslari, huquqiy madaniyatni auditoriya va auditoriyadan tashqarida shakllantirish usullari, huquqiy madaniyatni shakllantirishda maqbul ta'lim metodlari, shakl va vositalarini tanlash, kursantning faolligi va mustaqilligini ta'minlash, muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ta'limning faol va interaktiv metodlarini qo'llash va eng maqbul metodlarni saralab olish pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab etadi[1].

Kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlar muhim o'rin tutadi. Bu esa, birinchi navbatda, kursantlarga ko'p qirrali dunyoqarashni, fuqarolik nuqtai nazaridan erkin, ongli fikrlash, faoliyat ko'rsatishga qaratilgan. Shu sababdan umumkasbiy va ixtisoslik fanlar mantiqiy ketma ketligi tuzilishini ta'minlash, mavzularni ishlab chiqishda va ularni o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishda eng samarali va innovatsion metodlarni tanlash, ulardan foydalanish imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur.

Huquqiy fanlarni o'qitish jarayonida kursantlarda huquqiy madaniyatini shakllantirishdan ko'zlangan maqsad – ularga nazariy bilimlar berish va chuqurlashtirib borish, bo'lajak bojxonachilarning huquqiy bilimlarni egallash imkoniyatlarini aniqlash hamda ularda huquqiy faoliyatni tashkil etishning amaliy ko'nikmasi va malakasini hosil qilish uchun pedagogik shart-sharoitni yaratishdan iboratdir.

Har bir mashg'ulot maqsadi qanchalik aniq belgilanib olingan bo'lsa, unga erishish shuncha oson bo'lishi doimo amaliyotda tasdiqlanib kelgan. Ushbu maqsadga erishishda o'qituvchining kasbiy mahorati, o'quv materialining xususiyatlari, shart-sharoit, kursantlarning faolligi, mustaqilligi, ilmiy-uslubiy ta'minot, dars jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik munosabatlari kabi omillar alohida hisobga olinishi kerak[3].

Shu bois, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha huquqiy ta'limni tashkil etishda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratdik:

1. Huquqiy ta'limning ilmiylik jihati – bo'lajak bojxonachilarni qonunchilik va huquqqa oid turli tushunchalarning mazmuni va mohiyatini anglab yetish orqali fan asoslarini chuqur egallashga, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini, ahamiyatini bilishga, hatti-harakatida sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunib yetgan holda faoliyat ko'rsatishlariga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

2. Huquqiy ta'limning qadriyatli (ahamiyatli) jihati – insonlar, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda barcha fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, qadrlanadigan, ularning manfaatlariga hurmat qiladigan yozma manbalar,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

mutafakkirlar ma'naviy merosidagi huquqqa oid qarashlar, g'oyalar, shuningdek, inson erkinligini asoslaydigan O'zbekiston Respublikasining Konstitutitsiyasiga va adolatli qonunlar tizimiga, barchaning qonun oldida teng ekanligi, qonunga itoat va uni hurmat qilish ijtimoiy ehtiyojga aylanishiga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

3. Huquqiy ta'limning me'yoriylik jihati – huquq davlat tomonidan yaratilib, joriy etilar ekan, huquqiy normalarning umummajburiy mohiyatga ega ekanligi, huquqiy normalar davlat va jamoat tashkilotining maxsus yuridik hujjatlari (qonunlar, farmonlar, qarorlar)da mustahkamlanib, tegishli kodekslar, to'plamlar, Nizomlarda aks ettirilishi, huquqiy munosabatlarning haqqoniylik va nohaqlik, qonuniylik va g'ayriqonuniylik, jazolanish va jazolanmaslik nuqtai-nazaridan tartibga solinishi kabilarni yoritish bilan izohlanadi.

4. Huquqiy ta'limning amaliy jihati – bo'lajak bojxonachilarning o'zgartirgan huquqiy bilimlarining, huquqiy kompetensiyalarini ularning bevosita huquqiy faoliyatida qo'llanilishi, huquqiy munosabatlar jarayonida ko'nikma va malakalarini namoyon qilishi, huquqiy faollik ko'rsatishi, huquqiy harakat va harakatsizlikning qonuniyligiga erishish, huquqbuzarliklarning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Huquqiy ta'limni tashkil etish jarayonida bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarini huquqiy madaniyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

– huquqiy ta'lim maqsadi, mazmuni, vazifalari va tamoyillarining birligi hamda yaxlitligi;

– bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarida huquqiy madaniyatni takomillashtirishning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

– huquqiy madaniyatning takomillashtirish tuzilmasi (huquqiy axborotni muhit, huquqiy munosabatlar, ehtiyojlar, qiziqish, maqsad, rag'bat, faoliyat) mohiyati va mazmuni yoritish;

– bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarini qonunlarni hurmat qilish, ongli ravishda bo'ysunish, qonun talablariga og'ishmay amal qilish, o'z fuqarolik burchini anglashga qaratilgan huquqiy faoliyat ko'rsatishga tayyorlash;

– bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlari huquqiy madaniyatining ularning ijtimoiy faoliyatidagi, shaxsiy va kasbiy kamolotidagi o'rni va rolini ta'riflash.

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarida huquqiy madaniyatning auditoriya va auditoriyadan tashqarida shakllantirish usullarini quyidagicha belgilab oldik:

Auditoriya sharoitida: huquqiy fanlar doirasida huquqiy bilimlarni o'zlashtirish. Mazkur jarayon eng avvalo o'qituvchining ma'lumotini o'qitilayotgan huquqiy fanga mosligi, layoqati, har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, pedagogik mahorati, o'quv-

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

uslubiy majmuani bevosita tayyorlashi, bo'lajak bojxonachilarning darsga qiziqishlari, ixtiyoriy qatnashishlari, mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari, o'z-o'zini huquqiy tarbiyalashga bo'lgan intilishlariga bog'liqdir.

Auditoriyadan tashqarida: egallangan huquqiy bilimlar, huquqiy savodxonligi asosida amaliy faoliyat ko'nikmalarini hosil qilish jarayoni.

Bunda, turli ko'rik-tanlovlar o'tkazish, "Adolat", "Bojxonachilar" to'garaklarida qatnashish, "O'z huquqingizni bilasizmi?" mavzusidagi fan olimpiadalari, ilmiy anjumanlar, bahs-munozaralar, uchrashuvlar, rolli o'yinlar orqali egallangan bilimlar hamda hosil qilingan ko'nikmalar asosida huquqiy faoliyat malakasi hosil qilinadi.

Huquqiy madaniyat uzoq muddat, keng ko'lamda va samarali tashkil etiladigan huquqiy ta'lim-tarbiya natijasida hosil bo'ladi va yuksalib, rivojlanib boradi.

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy madaniyatini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqishda bir qator interfaol ta'lim metodlari mazmuni va qo'llash prinsiplari o'rganildi.

Interfaollik, bu o'zaro munosabatda bo'lmoq, dialog rejimida o'qimoq ma'nosini bildiradi. Dialog an'anaviy o'qitish uslublarida ham mavjud, jumladan "o'qituvchi-ta'lim oluvchi", "o'qituvchi-ta'lim oluvchilar guruhi" ko'rinishida. Interaktiv o'qitishda esa dialog "ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchi", "ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchilar guruhi", "ta'lim oluvchi-auditoriya", "ta'lim oluvchilar guruhi-auditoriya" (guruhlar prezentatsiyasi), "ta'lim oluvchi-kompyuter" kabi ko'rinishlarda ham bo'ladi. Ta'lim oluvchi ma'ruzada faqat "passiv" ishtirokchi sifatida emas, balki "aktiv" ishtirokchi sifatida qatnashadi. Interfaol o'qitish an'anaviy ma'ruza uslubini ko'zda tutmaydi va shu bilan bir qatorda ma'ruza mashg'ulotlarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo'ymaydi. Intefaol o'qitishda ma'ruza va amaliyot bir butun mashg'ulotning qismlari deb qaraladi va bu o'qituvchi hamda ta'lim oluvchining o'zaro ta'siri hamda kursantlarning mashg'ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Ma'lumki, an'anaviy ma'ruza darslarida o'qituvchi faolligi ta'minlansa, amaliy mashg'ulotlarda ta'lim oluvchi faolligi talab etiladi. Interaktiv uslubda o'qituvchidan mashg'ulot davomida ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasining bir ko'rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog'liq holda ustamonlik bilan ravon o'tishi talab etiladi.

Ayrim pedagoglar o'qitishning interfaol uslublari deganda zamonaviy o'quvvizual materiallar (oddiy, multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.)dan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va b.)dan foydalanish, ma'ruza matnlarini oldindan ta'lim oluvchiga taqdim etib, ta'lim oluvchining darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlash kabilarni tushunishadi. Albatta bu to'g'ri fikr emas. O'qitishning interfaol

uslublari deyilganda birinchi navbatda ta'lim oluvchining o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interfaol uslubdagi mashg'ulotda ta'lim oluvchi berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim[2].

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida xodimlarining huquqiy madaniyatini takomillashtirish bosqichlarini interfaol metodlardan foydalanib olib borishda ta'lim oluvchi o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida faol rol o'ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

1. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: «Fan», 2000. -125 b.
2. Yershova L.A. Pravovaya kultura doljnostnых lis i puti yee formirovaniya: Avtoref. diss… kand.yurid.nauk. – M.: 1991 – 40 s.
3. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar ta'limida asosiy tushunchalar mohiyati (bilim, ko'nikma, malaka, kompetentlik)//Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. №4, 2016 y. -B.66-72.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O'QUV JARAYONLARIDA LECTORA DASTURIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Hamroyeva Iroda Odilovna**
GulDU Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi

**Annotatsiya:** Lectora - universal muhit bo'lib imkoniyatlari keng, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik, Java, Flash va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi. Ta'lim tizimlarida qulaylik bilan namoyish qilish maqsadida foydalanuvchi uchun maxsus bilim talab qilinmaydigan, imkoniyati keng, interfeysi qulay bo'lgan Lectora dasturidan foydalanishni tavsiya etamiz.

**Kalit so'zlar:** Lectora dasturi, intellektual o'qitish, interaktiv ta'lim materiallar, masofaviy o'qitish, elektron darsliklar.

**Аннотация:** Lectora-универсальная среда с широкими возможностями визуальной графики и позволяет создавать слайды, состоящие из текста, изображений, рисунков, графики, эффектов анимации, звука, видео, Java, Flash и т.д. С целью удобного отображения в образовательных системах рекомендуем использовать программу Lectora, которая не требует от пользователя специальных знаний, имеет широкий охват, удобный интерфейс.

**Ключевые слова:** Программа Lectora, интеллектуальное обучение, интерактивное обучение материалы, дистанционное обучение, электронные учебники.

**Annotation:** Lectora is a universal environment with extensive visual graphics capabilities and allows you to create slides consisting of text, images, drawings, graphics, animation effects, sound, video, Java, Flash. For the purpose of convenient display in educational systems, we recommend using the Lectora program, which does not require special knowledge from the user, has a wide coverage, user-friendly interface.

**Keywords:** Lectora program, intelligent learning, interactive learning materials, distance learning, electronic textbooks.

Elektron ta'limni rivojlantirishda hozirgi zamon talabiga ko'ra talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada men Lectora dasturini e'tirof eta olaman.

Lectora dasturi 1999-yil Trivantis Corparatsiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, ayni damda bu dasturdan 64 davlat foydalanib keladi. Dastur orqali:

- Masofali va onlayn ta'lim kurslarini yaratishda;
- Yaratilgan taqdimot fayllarini hamkorlikda ishlatishda;
- Oraliq, nazorat va yakuniy testlar yaratishda;
- Biror formatdagi fayllarni boshqa formatlarga o'tkazishda;

Lectora dasturida yaratilgan o'quv materialni dinamik web-sayt ko'rinishda, bitta faylga yig'ilgan .exe ko'rinishda, hech qanday dasturlash tillarini bilmay turib ham o'tkazish mumkin.

Dastur orqali nazorat ishlarining elektron ko'rinishini tashkillashtirish mumkin, 7 xil (yolg'on/rost, bitta to'g'ri javobli, bir necha to'g'ri javobli, moslikni topish, esse, qisqa javob kiritishli) so'rovnomalarni yaratish mumkin.

| Lektoraning kuchli tomonlari | Lektoraning zaif tomonlar |
|---|---|

| | |
|---|---|
| ➢ Elearning grafik kutubxonalariga bepul kirish<br>➢ Ekranni suratga olish va simulyatsiya qilish uchun juda yaxshi<br>➢ ReviewLink-dan foydalangan holda onlayn sharhlovchining hamkorlik qilish vositasi mavjud<br>➢ Powerpoint-ni import qila oladi<br>➢ Flashda yaratilgan animatsiyalarni qo'llay oladi<br>➢ Java orqali yaratilgan sodda dasturlarni o'z ichiga sig'dira oladi<br>• | ➢ Cheklangan qo'llab-quvvatlash bilan tik o'rganish<br>➢ Interfeys foydalanuvchilarga qulay, sezgir yoki ulardan foydalanish oson emas<br>➢ Onlayn sharhlarga ko'ra, Lectora mijozlarni qo'llab-quvvatlash biroz sekin va juda foydali emas |

Lectora dasturini hamma dasturlar singari kuchli va kuchsiz tomonlari bo'lgani bilan bu uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Internet asrida yashar ekanmiz dars jarayonidagi power pointda tayyorlangan slayd orqali dars o'tish odatiy holga aylanib ulgurdi. Agar biz darslarimizni slaydsiz ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz deb xisoblaydigan bo'lsak Lectora bunga ham o'zining ijobiy javobini xozirlab turganiga guvoh bo'lamiz. Bunga misol sifatida Lectorada tayyorlangan dasturni ko'rsatish mumkin.

TA’LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




Bu rasmda ishimizning tayyor holatini ko‘rib turibmiz, tanlangan rasm, kursni boshlash va chiqish tugmalarini mavjud, biz esa kursni boshlash tugmasini bosib darsni boshlaymiz. Boshqa mavzu kerak bo‘lsa chiqish tugmasini bosib chiqib ketishimiz va o‘zimizga kerakli mavzuga kirishimiz mumkin.




Kerakli mavzuni tanlab kursni boshlash tugmasini bosib kirdik. Bu yerda mavzuga mos

- Kompyuter qurilmalari;
- Savol-javob;
- Ma’ruza;
- Amaliy mashg‘ulot;
- Testlar;
- Dastur haqida;

- Kompyuter konfiguratsiyasini aniqlash;

kabi tugmalar mavjud. Bu esa yangi mavzuni talabalar o'zlashtirishlari, o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashlari so'ng esa takrorlash imkonini beribgina qolmay, shu bilimlarni tekshirib ko'rish imkoniyatini ham beradi.




Kursni boshlaganimizdan so'ng, kompyuter qurilmalari tugmasini bosib shu bo'limga kirdik. Bu bo'limda:

- Kompyuterni yig'ish;
- Tizimli blok;
- Portlar;
- Kompyuter qanday ishlaydi;

kabi tugmalar mavjud. Bu bo'limlarni yaratishdan maqsad talabalarda kompyuter haqida aniq tushuncha hosil qilish.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




Kompyuterni yig'ish tugmasini bosgandan so'ng bizda kompyuterni yig'ish oynasi ochildi. Bu yerda amaliy bajarilgan ishlar orqali talabada kompyuter qurilmalari, ularning joylashuvi, vazifasi haqida to'g'ri tushuncha xosil bo'ladi.




Tizimli blok tugmasini bosganimizda esa ekranda tizimli blok degan bo'lim namoyon bo'ladi. Protsessor yoki keys ichidagi qurilmalar ularning bir biri bilan bog'liqligi qanday joylashganligi xaqida talabada aniq taassurot xosil bo'ladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




Bosh menyudagi ma’ruza tugmasi bosilganda esa xuddi shunday birin ketin slayd shaklda o‘ta boshlaydi. Bu esa talaba matnda nima xaqida gap ketayotganligini anglashda ham ko‘rib, ham eshitib axborotni qabul qilishini anglatadi.




Bu suratdagi ma’ruzaning keyingi slaydi aks etgan bo‘lib unda ham xar bir qurilma haqida tarif va tushuncha berib o‘tilgan.



Savol-javob tugmasi bosilganda esa ekranda varinatli savollar ketma-ket namoyon bo‘la boshlaydi. Bu yerda har bir savolga berilgan javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi darxol ko‘rsatilib ketiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. E.Z.Abdullayev, Y.G‘.Rahmonova “Lectora masofali ta’lim jarayonida elektron o‘quv kontentini yaratish texnologiyasi”. To‘plam. Andijon. 2017y. 63-64b.
2. S.T.Qilichev, U.S.Samatov “Magistrlar tomonidan elektron ta’lim resurslarini yaratishda foydalanilayotgan dasturlar tahlili”. GulDU Axborotnomasi. Guliston. 2021y. 12-16b.
3. S.P.Allayarov, I.O.Hamroyeva “Lectora dasturi va undan foydalanish”. Uslubiy qo‘llanma. Guliston. 2022y. 24bet.

**INTERNET SAYTLARI:**

4. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal
5. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi
6. www.taiwebs.com – Trivantis kompaniyasi sayti.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM JARAYONIDA MEDIA SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

*Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 26-maktab Zarifa Normatova*

**Kalit so'zlar**:uslub, dars, o'qituvchi, o'quvchi, texnologiya
**Ключевые слова:** Метод, урок, учитель, ученик, технология

**Key word:** Methot, teaching, the lesson, teacher, pupil, texnologik

O'zbekiston Respublikaisida davlatimiz tomonidan yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularni har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda darslarni zamonaviy va innovatsiyon texnologiyalar, mediya ta'lim asosida tashkil etishning o'rni beqiyosdir.

Media ta'lim interfaol, o'quvchiga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda.Media ta'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi.O'quv xonalariga matbuot, televidenie, radio, kino, video va internet olib kirilmoqda. Bularning barchasi media ta'lim nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda.Zamonaviy ta'limda media ta'limning asosiy mazmuni media madaniyat (kino san'ati, badiiy televidenie va badiiy media) tilini, uning tarixini bilish, tushunishdir. Uning pedagogik strategiyasi media matnlarni badiiy tahlil qila olish, uni talqin qilish asosida baho berishdan iboratdir.Media qanday shakllanadi, u haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmunini malardan iborat va o'quvchilar uni qanday qabul qiladilar – bu savollar hozirgacha turli munozaralarni tug'dirmoqda. Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'limning markazida o'quvchi shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklarini hisobga olish, olingan axborot asosida tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.Turli davlatlar olimlarining fikrlariga ko'ra, media ta'lim-tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi. Media ta'limning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni tobora jadallashib borayotgan axborot oqimida, har xil axborotni olish, tushunib yetish, uning inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga o'rgatishdan iborat. Media ta'lim olingan axborotni integratsiya qilish, shu asosida shaxsiy fikrni bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli axborot xurujlariga qarshi fik bildirish orqali o'quvchining ijtimoiy faolligi oshadi, media axborotdan faol va to'g'ri foydalanish madaniyati shakllanadi. Shu orqali berilayotgan axborot haqida fikr yurita boshlaydi.Shuning uchun ham media mashg'ulotlar:«Badiiy-imitatsiyali», kichik senariylar, media matnlar tuzish, uni inter faol usulda namoyish etish;Teatrlashgan vaziyat hosil qilish (media matn asosida ayrim

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

epizodlarni sahnalashtirish, media matn jarayonini namoyish etish); • Tasviriy-imitatsiya tayyorlash (afishalar yaratish, foto ko'rgazma, ma'lum mavzudagi asarlar rasmlarini namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi. Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi.Bu holat o'quvchining umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi Media mashg'ulotlar berilayotgan axborotni qabul qilish, o'zlashtirish jarayonida ikkita yangi komponent ishtirokini ta'minlaydi.

1. Media mashg'ulotlarda kompyuterlar universal holda qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. Dasturiy ta'minot ayrim mavzularni o'qitish va o'zlashtirish uchun media ta'lim qulay muhit yaratadi.Unda ta'lim mazmuni aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi, chizmalar, rasmlar, jadvallar, videofragmentlar, ovozli, animatsion ta'minot kreativ bilan namoyish etiladi. Media mashg'ulotlarning afzal jihati shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ijod qila olish qobiliyatlarini rivojlantiradi, Shu munosabat bilan media mashg'ulotlar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina o'quv fani mazmuni nuqtayi nazaridan yondashmasdan, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Media mashg'ulotlar kompyuterlashtirilgan o'quv xonalarida, multimedia proyektor yordamida o'tkaziladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ishmuhamedov R. J, Abduqodirov A. ,Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T. :Iste'dod, 2010.

2. Ishmuhamedov R. J. ,Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T. : "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. 279b.

3. Mutalipova M. ,Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T. :TDPU, 2017.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Adabiyot darslarida qo'llanadigan usullar hamda ularning afzalliklari.

# Методы, используемые на уроках литературы, и их преимущества

# Methods used in literature classes and their advantages.

**Djuramuratova Rayxon Turdiyevna**
**Surxondaryo viloyati Termiz shahar**
**12-umumiy o'rta ta'lim maktabi**
**ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot darslarida qo'llanadigan usullar hamda ularning afzalliklari xususida so'z boradi. Unda interfaol usullardan bir qanchasidan foydalanish haqida tushuncha beriladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы, используемые на уроках литературы, и их преимущества. Он дает представление об использовании нескольких интерактивных методов.

**Abstract:** This article discusses the methods used in literature classes and their advantages. It provides insight into the use of several interactive methods.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** adabiyot darslarini samarali tashkil etish va darslarda interfaol usullardan foydalanishni targ'ib qilish.

**Цель написания данной статьи** – способствовать эффективной организации занятий по литературе и использованию интерактивных методов на занятиях.

**The purpose of writing this article** is to promote the effective organization of literature classes and the use of interactive methods in classes.

**Usullar:** "Sehrli kvadrat", "Lahzada javob", "Pinbord", «Bumerang» texnologiyasi, ."MUTOLAA ZAVQI", "G'ildiraklar", "Meni aldab ko'ring"

**Методы:** «Волшебный квадрат», «Мгновенный ответ», «Пинборд», технология «Бумеранг», «УДОВОЛЬСТВИЕ ЧТЕНИЯ», «Колеса», «Попробуй меня обмануть».

**Methods:** "Magic square", "Instant response", "Pinboard", "Boomerang" technology, "READING PLEASURE", "Wheels", "Try to trick me"

**Natija:** O'quvchilar badiiy adabiyotga, xususan, kitob mutolaasiga qiziqtirish.

**Результат:** Заинтересовать учащихся художественной литературой, особенно чтением книг.

**Result:** To make students interested in fiction, especially in reading books.

**Kalit so‘zlar:** muallif, badiiy adabiyot, g‘ildiraklar, interfaol metodlar, afzalliklar.

**Ключевые слова:** автор, художественная литература, колеса, интерактивные методы, преимущества.

**Key words:** author, fiction, wheels, interactive methods, advantages.

Mustaqillik yillarida barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimiga ham alohida e’tibor qaratilib, bu tizim oxirgi yillarda to‘la isloh etilayotgani sir emas, albatta.Barcha fan yo‘nalishlarida bo‘lganidek, ona tili va adabiyot fanlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, jumladan, mavzularning optimallashuvi, nutq madaniyatini oshirishga oid mavzularning kiritilishi, mustaqil o`qilgan asarlarni o`rganish uchun soatlar ajratilishi fikrimiz dalilidir.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon miqyosida munosib o'rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo'nalishlarda g'oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday intilishlar bilan yashayotganimiz, ilm-fan, texnika, san' at, adabiyot sohasida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan-bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik berganini hammamiz chuqur anglaymiz. Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda, e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy svilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy, diniy ilmlarning ayniqsa, o'zbek tili va adabiyoti bilan bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko’tarilishida ona

yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. O'zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta’sir ko'rsatgan ana shunday ulug' zotlardan Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy me’rosining boqiyligi badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Tariximizning qaysi davrini olmaylik yurtimizda ilm-u ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to’xtamaganini xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng murakkab davrlarda ham yaqqol nomoyon bo’lib kelgan. Jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo’la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi vakillarning adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissasi, yurtimizning taraqqiy toptirish maqsadidagi ezgu ishlari avlodlar xotirasidan also o'chmaydi. Ana shunday buyuk allomalar yurti bo'lgan bu zaminda biz yosh avlod adabiyotimiz maydonida yangi kashfiyotlar yaratishimiz, mumtoz namunalarimizni asrab-avaylashimiz kerak.

Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va umuman texnika olami inson hayotida tobora kengroq va mustahkamroq o'rin olib borayotgan bir zamonda adabiyot o'qish, kitobxonlik muammosining yanada dolzarblik kasb etishi sir emas.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ



*Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi bo'lmaydi.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Zero, kitob va kitobxonlik inson ma'naviy olamining ajralmas qismi ekan, badiiy adabiyot o'qishni o'rganish, kitobxon ma'naviyatini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy vazifa bo'lib qolaveradi. Shunga ko'ra adabiyotni o'qish uchun uni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot fanini o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar kam emas. Demak, adabiyot fani san'at bilan tenglashadigan fan. Adabiyot bu so'z san'ati. Amaliyotchilik nuqtayi nazaridan qaraydiganlar esa adabiyot fanini boshqa fanlarning o'tilishiga bevosita yordam beradigan, har bir darsning samarali bo'lishiga amaliy ko'mak bera oladigan soha deb bilishadi. Albatta, barcha fanlarni asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda muayyan sohalarga oid bilimlarining asosini shakllantirishdan iborat[1].

Bu o'rinda o'qituvchining mahorati ham, darsni yuksak darajada tashkil etilishi ham adabiyot o'qitishning birinchi masalasi ekanligini aytib o'tish joiz. Ayni paytda o'qituvchi kitob ustida ishlashni badiiy o'qishni tashkil etishni, badiiy asarni chuqur tahlil etishni, ifodali o'qishni, turli pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib o'quvchilarni qiziqtira olishni bilishi zarur. Umumta'lim maktablarda o'qituvchi o'zbek adabiyotini

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

o'qitishning yangicha usullarini yaratishi, oddiylikdan, bir xillikdan holi bo'lib, darslikni do'stona muhitda o'rgatishi, yangi-yangi ma'lumotlar berishi, mavzuni rang-baranglashtirishi, bir narsani qayta takrorlamasligi, asar matnidan o'qib, gapirib berishi, o'qigan matnni bir boshdan mustaqil analiz qilishi va unga baho berishi hech shubhasiz o'quvchini adabiyotga, fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Buning uchun kitobni o'quvchining eng yaqin do' stiga aylantirishi kerak. O'qituvchi adabiyot darsini shunday tashkil etishi kerakki, unda bola uning olamiga sayr qilishi, asarni shunchaki o' qib emas,

[1]. Gavharxon Eshchonova. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Urganch, 2012-yil.

balki uning qahramoniga aylanishi, asar uning xotirasida abadiy muxrlanib qolishi kerak. Shu o‘rinda ta’lim metodlari va ularning turlari haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Ta’lim metodlari va ularning turlari.**

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim olish (ma’lumot olish) jarayoni – bu ma’naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir.

Bu jarayon ta’lim oluvchining o‘zi orqali yoki boshqa birov- ta’lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

Metod – grekcha Metodos so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Ta'lim metodini(usulini) -** ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

**Ta'lim modelini,** esa bir yoki bir nechta ta'lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin.

**Ta'lim metodi -** bu ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo'l-yo'rig'i.

**Quyida adabiyot darslarida qo'llanadigan usullar hamda ularning afzalliklarini ko'rsatib o'tamiz.**

**"Sehrli kvadrat" usuli.** Belgilangan strelka asosida mantiqiy bog'liqlikni hisobga olgan holda "?"belgisi o'rniga kerakli ma'lumotlarni yozing.

| | |
|---|---|
| Hamid Olimjon | ? |
| ? | 1926-yil |

| | |
|---|---|
| ? | ? |
| Hikoyalar to`plami | ? |

Badiiy adabiyot mutolaa etishni yanada yaxshilash, o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini orttirish, ko'proq mustaqil ravishda badiiy asar o'qishga jalb etish maqsadida, o'quv yilining boshlanishida boshlang'ich sinflar uchun alohida, 5-7 sinflar uchun alohida va 8-9-sinflar uchun alohida badiiy asarlar belgilangan, oyning boshlanishida sinflarga badiiy asarlar e`lon qilinadi va oy davomida mutolaa etiladi. Oyning oxirgi haftasida o'qilgan asar yuzasidan baxs-munozara o'tkaziladi, mas'ul o'qituvchi tomonidan tayyorlangan muammoli savollar va sahna ko'rinishlari orqali o'quvchilarning fikr-mulohazalari eshitiladi, test sinovlari orqali o'qilgan asar yuzasidan bilimlari sinaladi, bu holat har oy davom etaveradi. Shu tariqa "eng yaxshi kitobxon" g'olibi sinflar kesimida aniqlanadi. Maktab kutubxonasi badiiy adabiyotlar bilan doimiy tarzda boyitilib boriladi. Adabiyot

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

darslarida adabiy o'qish, ifodali o'qish, matnni izohlash, yod olish, qayta hikoyalash, matnning rejasini tuzish, asarning ajratib olingan alohida bir qismi, nomlanmagan asarlar (xususan, klassik adabiyotimizdagi lirik asarlar)ga sarlavha topish, asar muallifi yoki qahramonlarga maktublar yozish, adabiy asarga taqrizlar,insholar yozish pedagogik amaliyotchilikning bir ko'rinishidir. Adabiy mavzudagi yozma ishlar, adabiy o'qish mashg'ulotlarida asarning mazmunini chuqur anglab olish maqsadida o'tkaziladi.[2]

Bu yozma ishlar asar mazmunini, obrazlar xarakterini reja asosida yozma hikoyalash va matnni yozma tahlil qilishdan, savollarga yozma javob berish va

---

2.Niyozmetova Adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish" T.2014-yi

o'qilgan asardagi asosiy fikrni, uning mazmunini qisqacha yozib olishdan, annotatsiya yozish va parcha, epigraflar tanlashdan iborat bo'ladi.

## «Lahzada javob» usuli

Bu usulda o'quvchilar berilgan savollarga tez sur`atda beradi. Eng ko'p to'g'ri javob bergan guruh g'olib hisoblanadi.

Navoiy ijodi bo'yicha 6-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "Lahzalik aql charxi" usuli savollari, masalan, quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Alisher Navoiy tavallud topgan yil. (1441-yil)
2. Alisher Navoiy tug'ilgan shahar. (Hirot)
3. A.Navoiy otasining ismi. (G'iyosiddin)
4. Yosh Alisherni hayajonga solgan asar. ("Mantiq ut-tayr")
5. Navoiyning do'sti. (Husayn Boyqaro).
6. Navoiyga homiylik qilgan hukmdor. (Abulqosim Bobur).
7. Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida qaysi shaharda tahsil olgan? (Samarqandda)
8. Nizomiddin Mir Alisherning taxalluslari. (Navoiy, Foniy)
9. Foniy so'zining ma`nosi. (O'tib ketuvchi, vaqtincha)
10. Navoiyning ilk devoni qaerda tuzilgan? (Samarqandda)



TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Adabiyot fanini o'qitishda o'qituvchining pedagogik mahorati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki u ta'limning eng samarali usullaridan oqilona foydalansagina ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Maqsadga erishish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga ham bog'liqdir.

O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir guruhga mos keladigan usul tanlamog'i lozim. Hatto, bir o'qituvchi bir xil usulda ikki xil guruhda dars o'tib ham bir xil natijaga erisha olmaydi. Chunki, har xil xarakterli o'quvchilarni bir xil usul bilan o'qitib bir xil natijaga erishish mumkin emas. Buning uchun guruh o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini bilib, ularning nimalarga qodirligini aniqlab dars boshlash yaxshi natija beradi.

**O'qituvchi o'zida bir qator sifatlarni mujassam etmog'i zarur:**

1.Pedagogik amaliyotchilik

2.Ilmiy tadqiqotchilik.

3.Tashkilotchilik.

4.Adabiy vositachilik.

5.Badiiy ijrochilik.

**"Pinbord" usuli.**

Bu usul aqliy hujum metodining bir ko'rinishi bo'lib, unda qo'yilgan muammoni hal qilish bo'yicha g'oyalar alohida qog'ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar bo'yicha sinflarga bo'linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




O'zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo'nalishi etib belgilangan.Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg'urmagan xalq, millat va davlatning istiqboli bo'lmaydi. Barkamol avlod tarbiyasida juda ko'plab omillar zarur bo'ladi, ulardan biri bu kitobdir. U xoh badiiy adibiyot, xoh darslik yoki she'riy asar, enciklopediya bo'lsin, bari insonni ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda biz noan'anaviy ta'limga murojaat etamiz.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda ham bir qator interfaol usullarni qo'llash zarur.

**"Meni aldab ko'ring" bahs-o'yini:** Bunda darsda kam qatnashgan o'quvchilar tanlb olinadi va shoir hayoti va ijodidan 3 ta xoh to'g'ri, xoh noto'g'ri ma'lumot raqibga aytiladi.Raqib ushbu ma'lumotlar haqiqat yoki haqiqat emasligini aytadi.

Ushbu bahs 2 ta(raqib bilan 4 ta) o'quvchi bilan o'tkaziladi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

N a m u n a:

| Ma'lumotchi | Raqib |
|---|---|
| - "Quyosh bilan bahs" she'riy to'plami bor.<br>- Shoir Turob To'la "O'zbekning Lermontovi" deb atagan.<br>- "Sevgi" deb nomlangan she'rida rahmsiz muhabbat zardobi qaynatiladi | 1.Yolg'on. "Quyosh bilan suhbat".<br>2. Rost.<br><br>3.Yolg'on.Shoirning "Sevgi! Sening shirin tilingdan…",-deb boshlanuvchi "Monolog" she'ri bor. |

**"MUTOLAA ZAVQI" innovatsion usuli** orqali o'quvchilar o'qigan badiiy asarlari yuzasidan mustaqil, ijodiy fikrlarini, taassurotlarini maxsus ko'rgazmadagi ijod barglariga yozadilar. Har oy yakunida fikrlar kutubxona mudirasi va o'qituvchilar tomonidan o'qiladi. Eng ta'sirchan fikr muallifi badiiy asar bilan taqdirlanadi.[3]

---

[3.] Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-yil. №5. 90-93-bet

O'quvchilar **«Bumerang» texnologiyasi**dan foydalanib jadvalga joylashtiradilar . Bu usul ham bevosita o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mushohadaga undaydi.

| | | |
|---|---|---|
| **A.Qodiriyning O'tgan kunlar"romani** | Romandagi "ota-ona orzusi" tufayli baxtsiz bo`lgan insonlarni yozing va izohlang. | |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# "G`ildiraklar" usuli

Masalan, Abdulla Qahhorning «Bemor» va boshqa hikoyalarini o'tganda hikoyadagi davr bilan bugungi davrni taqqoslab o'rganish mumkin.

.




Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ma'suliyat bilan, ijodiy yondashishni talab qilmoqda. Adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zgalarni va o'zini tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'irlashda g'ayratli bo'lsagina dars kashfiyot darajasiga yetadi. To'laqonli muvaffaqiyat qozonish uchun adabiyot o'qituvchisining pedagogika va psixologiya turkumidagi, ayniqsa, bolalarning yosh fiziologiyasi, ularning olamni qabul qilish va o'zlashtirish xususiyatlari, qiziqishlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni beradigan fan asoslaridan xabardorliklari ham taqozo etiladi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati, hatto uning shaxsiyati shakllanishi va rivojidagi o'rni beqiyosdir. Agar Sirojiddin Sayyid aytganidek, bola «diliga nedir yuqtirsa», adabiyot muallimi o'z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasi ta'minlangan bo'ladi.

Ma'naviyati boy va go'zal axloqli shaxsni tarbiyalash uchun badiiy adabiyotni o'quvchining hayotiy ehtiyojiga adabiyot darslarini ma'naviyatni shakllantiruvchi vositaga aylantirish kerak. Shunda o'qituvchi o'z maqsadiga yetadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Gavharxon Eshchonova. “Adabiyot oʻqitish metodikasi” fanidan amaliy mashgʻulotlar. Urganch, 2012-yil.

**2.**R.Niyozmetova Adabiyot darslarida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish” T.2014-yil

3.“Umumtaʻlim fanlari metodikasi” jurnali, 4-son, 2018-yil.

4.Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-yil. №5. 90-93-b.. 4.Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Biologiya darslarida o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatishda vitaminlardan foydalanish usullari.

# Методика использования витаминов в обучении студентов здоровому образу жизни на уроках биологии.

# Methods of using vitamins in teaching students a healthy lifestyle in biology classes.

**G'afforova Dilorom Djalilovna**
**Surxondaryo viloyati Termiz shahar**
**12-umumiy o'rta ta'lim maktabi**
**biologiya fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya darslarida o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatishda vitaminlardan o'rinli foydalanish usullari haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о целесообразности использования витаминов при обучении школьников здоровому образу жизни на уроках биологии.

**Abstract:** This article talks about the appropriate use of vitamins in teaching students about a healthy lifestyle in biology classes.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga rioya etishga o'rgatish.

**Цель написания данной статьи:** научить школьников вести здоровый образ жизни.

**The purpose of writing this article:** to teach students to follow a healthy lifestyle.

**Usullar:**"Imkoniyat", "Bu qiziq", **"Bilag'onningsavoli", "Bunibilganyaxshi", "Taqdimot"...**

**Методы:** «Возможность», «Интересно», «Вопрос от эксперта», «Полезно знать», «Презентация».

**Methods:** "Opportunity", "It's interesting", "Question from the expert", "Good to know", "Presentation"

**Natija:** O'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish va mustaqil hayotga yo'naltirish.

**Результат:** Развитие у студентов эстетической культуры и ориентации на самостоятельную жизнь.

**Result:** Development of students' aesthetic culture and orientation to independent life.

**Kalit so‘zlar:** vitamin, oqsil, Kazimej Funk, salomatlik, bilag‘on, masala…

**Ключевые слова:** витамин, белок, Казимей Функ, здоровье, пульс, вещество...

**Key words:** vitamin, protein, Kazimej Funk, health, pulse, matter...

Har bir inson go‘zal bo‘lishni xohlaydi. Buning uchun, avvalo, sog‘lom bo‘lish kerak. Kelishgan qad-qomatli bo‘lish, yengil va ravon qadam tashlash go‘zallikning muhim belgilaridir. Sportning yengil atletika, suzish turlari, raqs mashqlariham qomatni chiroyli qilishga yordam beradi. Sportning boks, kurash turlari esa kuchli bo‘lishga; futbol, voleybol, karate kabi turlari epchil, chaqqon bo‘lishga yordam beradi. Piyoda ko‘p yuring, yuguring, suzing, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullaning, shunda siz sog‘lom va go‘zal bo‘lasiz.

Har bir davlatning sog‘lom turmush tarzini kafolatlovchi, xalqning rostmana qadriyatiga aylangan omillari bor. Ular yashash sharoiti, tabiati, fe’l-atvoridan kelib chiqib, o‘z sog‘lom turmush tarzini ta’minlaydilar. Masalan, Xitoy sholizorlarida to‘qson yoshlilar ham bemalol mehnat qila oladi. Chunki ular baland ovozda kuylaydi, hecham tushkunlikka tushmaydi. Shifokorlarning aytishicha, yaxshi kayfiyat sog‘liqqa foydali ekan. Finlyandiyaliklar toza havoda sayr qilishni yoqtirishadi. Islandiyaliklar baliq moyini ko‘p yeydi, fransuzlar taomdan lazzatlanishni xush ko‘rishadi. Koreyaliklar nuqul jilmayadi. Ular, «kulgi umrni uzaytiradi», deyishadi. Shu kabi sog‘liqni saqlashning turli usullari bor. Bunga amal qilish, siz o‘ylaganchalik qiyin emas, ko‘p vaqt ham talab qilmaydi. Masalan, biror narsa qilayotib, qo‘shiq ayting, ovqatlanayotganda taomingizdan lazzatlaning, doim jilmayib, atrofingizni kulgi bilan charog‘on qiling, toza havoda miriqib aylaning. Shunda kasallik sizni hecham bezovta qilmaydi, oromingizni o‘g‘irlamaydi.

Ushbu maqolada o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishda vitaminlardan o‘rinli foydalanish usullari haqida to‘xtalib o‘tishdan avval, quyidagi ma’lumotlarni keltirmoqchiman.

Bilim-dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Zeroki, bilim bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi, Savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopokdan ajratib beradi. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarib, yomon fe'llardan, bema'ni ishlardan qaytaradi. Ertamiz egalarini bilimli, zakovatli qilib tarbiyalash, ularning qalbiga ona tabiatga mehr uyg'otish bugun barcha ustoz-murabbiylar oldida turgan asosiy vazifadir.

Biologiya fani o'qituvchilari zimmasiga eng mas'uliyatli vazifalardan hisoblangan – ona tabiatni o'rganish, hayvonot va nabodot dunyosidan o'quvchilarni boxabar qilish bilan birga ularni sog'lom turmush tarziga rioya etishga o'rgatish vazifasi yuklatiladi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – bugungi kun o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko'rishning garovi sog'lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o'z sog'lig'imizni o'ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko'plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo'lamiz.

— Olimlarning fikricha, sog'lom turmush tarzi olti asosiy shartga amal qilishga asoslanar ekan.

— **Ulardan birinchisi, to'g'ri ovqatlanish bo'lib,** kundalik iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarni organizmning fiziologik, biologik talablari asosida tanlash va iste'mol qilishdir. To'g'ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, u o'zining fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og'irlik qilmasin, aksincha, tez va oson hazm bo'lib, organizmni kerakli ozuqaviy moddalar bilan ta'minlasin.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Ikkinchi shart** — doimo harakatda bo'lish. Kishi kundalik hayotda jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, badanni chiniqtiruvchi muolajalar bilan ko'proq shug'ullansa, organizmdagi fiziologik, biologik jarayonlar faollashadi. Natijada, kayfiyat ko'tarilib, ishchanlik qobiliyati ortadi. Shubhasiz, bu salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

**Uchinchi shart** — kun tartibi va ishni biologik rejim asosida tashkil qilish. Koinotda tabiiy hodisalar ma'lum bir tartib asosida takrorlanadi. Xususan, quyoshning har kun ma'lum vaqtda chiqishi va botishi, yil fasllarining har yili takrorlanishi tabiatdagi barcha harakatlar ma'lum bir tartibga bo'ysunishidan dalolatdir. Va inson ham bundan mustasno emas.

Misol uchun, inson tanasidagi faollik kunduzi ortadi, kechasi susayadi. Shu bois ham ish kuni, dam olish vaqti to'g'ri rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

**To'rtinchi shart** — ruhiy osoyishtalikni ta'minlash. Ma'lumki, bizning tanamiz, ichki a'zolar faoliyati asab tizimiga bevosita daxldor. Ularning me'yoriy faoliyati ruhiy holatimiz, kayfiyatimizni belgilaydi. Shu ma'noda huda-behudaga jizzakilik qilmay, yaxshi narsalar haqida o'ylab, oqilona fikrlash, yomonliklardan tiyilish, nafsga erk bermaslik, xushfe'l, xushmuomala bo'lish sog'liqni saqlash va mustahkamlashning garovidir.

**Beshinchi shart** — ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik singari zararli odatlardan tiyilish. Bu illatlarning sog'liq va turmushga ziyoni bisyorligini alohida ta'kidlab o'tirishga hojat yo'q. Zero, bunday kishilarning hayotga befarq, kun o'tsin uchun yashovchi, o'z sog'lig'i va kelajagini o'ylamaydigan zaif odamlarga aylanib qolishi hayotda ko'p kuzatilgan. Bu achinarlidir.

**Oltinchi shart** — ozodalik, orastalikka rioya qilish, atrof-muhitga munosabat masalasi. Kundalik hayoti asnosida inson atrof-muhitga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hayotimiz uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatlardan chiqindi hosil bo'lishi o'ta tabiiy hol[1].

Bilasiz, chiqitlarni to'g'ri kelgan joyga tashlash tufayli atrof-muhit ifloslanadi: suv, tuproq va havoda salomatlikka salbiy ta'sir qiluvchi omillar vujudga keladi. Shuning uchun ham ozodalikka qat'iy amal qilish kundalik turmushimizda odatiy holga aylanishi kerak.

**O'quvchilarga "Vitaminlar" mavzusini quyidagicha o'rgatish maqsadga muvofiq.**

**"Bu qiziq" usuli.** Bunda mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.



Kazimej Funk 1884-yil 23-fevralda Varshavada dermatolog vrach oilasida dunyoga kelgan. 1912-yili fanga "Vinaminlar" atamasini kiritgan.

**Bu qiziq!**

Vitaminlar biologik faol moddalar bo'lib, organizmda moddalar almashinuvida qatnashadi. Rusolimi N.I. Lunin (1853—1938) 1880-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida vitaminlar hayvonlar organizmi uchun muhim modda ekanligini birinchi bo'lib isbotladi. Uning xulosasiga ko'ra, ovqat tarkibida oqsillar, yog'lar, uglevodlar, tuzlar va suvdan tashqari, alohida moddalar ham bo'ladi, bularsiz organizm yashashi mumkin emas, deyilgan edi. Keyinchalik bu noma'lum muhim

---

[1]. "Muhofaza" gazetasi 2015- yil, 1-son, 23-bet

moddalar 1912-yilda K. Funk tomonidan *vitaminlar*, deb nomlandi (*vita* — hayot degan ma'noni bildiradi).

Vitaminlaming 40 dan ortiq turi bo'lib, ularning har biri odam organizmida muhim fiziologik vazifani bajaradi

**Xristian Eykman 1858- yil 11-avgustda Niderlandiyaning Nyoykerke shaharchasida dunyoga kelgan.**

Medisina yo'nalishi bo'yicha "Nevritga qarshi vitamin o'ylab topganligi" uchun *Nobel* mukofotiga sazovor bo'ldi.[2]

Bu kabi qiziqarli ma'lumotlar ham o'quvchilarni mavzuni tez va oson o'zlashtirishiga hamda eng asosiysi sog'lom turmush tarziga rioya etishga o'rgatadi.




Vitaminlar- organizmdagi kechadigan muhim jarayonlarni amalga oshirishga kerakli kimyoviy tabiati turlicha bo'lgan quyi molekulyar organik birikmalar hisoblanadi.

---

[2].8-sinf uchun darslik kitobi.O.Mavlonova va boshqalar. Biologiya. Odam va uning salomatligi. Toshkent, "O'qituvchi" nashryoti, 2019-yil, 100-bet

**"Bilag'onning savoli" usuli.**



Bunda bilag'on tomonidan tayyorlanga qiziqarli savollar topiladi.

**1.Odam tinch holatda bir minutda 9 litr havo oladi. Agar sinfda 25 ta o'quvchi bo'lsa 45 minutda necha litr havo oladi?**

**Yechish:**

1 ta odam – 9 litr

X = 25*9/1=225/1=225 litr.

25 ta o'quvchi – X

Bundan foydalanib sinfning 45 minutda necha litr havo olishini aniqlaymiz.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1 minutda 25 ta o‘quvchi – 225 litr

45 minutda 25 ta o‘quvchi – X

X = 45*225/1=10125/1=10125 litr.[3]




[3].Azimov va boshqalar “Biologiya metodik qo‘llanma”, “Ibn Sino” 2002-y.

**“Juftlab yozing” usuli.**

Bunda vitaminlarning qanday kasallikka davo bo‘lishi yoritiladi.

A vitanim a) singa kasalligi

B1 vitanim b) shapko‘rlik kasalligi

B12 vitanim d) Raxit kasalligi

C vitanim e) beri-beri kasalligi

D vitamin f )kamqonlik kasalligi

**“Buni bilgan yaxshi” usuli.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Bunda o'quvchilarga mavzu bo'yicha o'rgangan bilimlarini hayotish tajribalar, qiziqarli ma'lumotlar asosida ko'rsatib beriladi Biologiya hayot haqidagi fan bo'lib, unda o'quvchilar sog'lom turmush tarzini o'rganadilar. Ularni to'g'ri hayotga yo'naltirish har bir fan o'qituvchisining zimmasidagi vazifadir.




**"Imkoniyat" usuli.**

Bu usulda dars yakunida o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga o'rganilgan mavzu bo'yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzish topshiriladi. Bu vazifani a'lo darajada bajargan o'quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o'quvchilarda test yechgan o'quvchiga nisbatan quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- o'z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;
- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o'zi ham savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish;

-bilimini mustaqil ravishda oshirib borish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilar.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| A<br>Retinol | B<br>$B_1$, $B_2$ | C<br>Askorbin kislotasi | D<br>Xolekalsiferol |
|---|---|---|---|
| Baliq yog'i<br>Sariyog'<br>Tuxum sarig'i<br>Jigar<br>Sabzi<br>O'rik<br>Qizil qalampir<br>Pomidor<br>No'xat | bug'doy non<br>loviya<br>No'xat<br>Tuxum sarig'i<br>yong'oq<br>moljigar<br>olma<br>karam<br>sabzi<br>sut, sut<br>mahsulotlari | Na'matak<br>Ko'k piyoz<br>olma<br>kartoshka<br>karam<br>pomidor<br>apelsin<br>limon<br>sarimsoq<br>smorodina<br>Ko'katlar | Baliq yog'i<br>sut, sut<br>mahsulotlari<br>Tuxum sarig' i<br>Jigar<br>buyrak |




**"Taqdimot" usuli.** Bunda o'quvchilarga mavzular davomida tegishli rasmlar, ko'rgazmalar asosida mavzu taqdim etiladi.

Barkamol shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan. Buning isbotini ulug' alloma Abu Nasr Farobiyning: "Inson erishadigan eng yuksak kamolot - tabiat ato qilgan kamolot darajasining o'zidir, inson erishgan barkamollik, niyat va erkin tanlov natijasidir",- degan fikrlaridan anglaymiz. Bugungi kun o'qituvchining asosiy vazifasi ham o'quvchini komil

inson qilib tarbiyalash, uni tanlagan tanlovlariga erishish yo'lida fidoiylik ko'rsatish ekanligini anglash lozim.Bu borada biologiya fani o'qituvchisining vazifasi, o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga rioya etgan holda tarbiyalash, o`quchini tabiatga va ekologiyaga munosabatini yaxshilashdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Azimov va boshqalar "Biologiya metodik qo'llanma", "Ibn Sino" 2002-y.

2.Biologiya (Ma'lumotnoma) Toshkent -2003-y.

3. "Biologiya o'qitish metodikasi" G.O'rinova 2020-yil.

4. "Muhofaza" gazetasi 2015- yil, 1-son

5. 8-sinf uchun darslik kitobi.O.Mavlonova va boshqalar. Biologiya. Odam va uning salomatligi. Toshkent, "O'qituvchi" nashryoti, 2019-yil.

6.Darsliklar bo'yicha metodik qo'llanmalar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil etish usullari

# Методы эффективной организации занятий в начальной школе

# Methods of effective organization of elementary school classes

**Navoiy viloyati Zarafshon shahar**
**4-umumiy o'rta ta'lim maktabi**
**boshlang'ich sinf o'qituvchisi**
**Ashilova Gulzira Duysinovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil etish usullari haqida yoritilgan bo'lib, unda interfaol usullar, ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы эффективной организации занятий в начальной школе, рассказывается об интерактивных методах и их важности.

**Abstract:** This article covers the methods of effective organization of elementary school classes, it talks about interactive methods and their importance.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy usullar orqali tarbiyalashning samarasini ko'rsatib berish.

**Цель написания данной статьи** - показать эффективность обучения учащихся начальных классов современными методами.

**The purpose of writing this article** is to show the effectiveness of educating primary school students using modern methods.

**Usullar: "Tasavvur va tasvir", BREYN RING", "INSERT" strategiyasi, "Zakovatli zukko".**

**Методы:** «Воображение и образ», «БРЕЙН РИНГ», стратегия «ВСТАВКА», «Гениальный гений».

**Methods:** "Imagination and image", BRAIN RING", "INSERT" strategy, "Ingenious genius".

**Natija:** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

**Результат:** Развитие устной и письменной речи учащихся.

**Result:** Development of students' oral and written speech.

**Kalit so'zlar:** interfaol, samara, usullar, nutq, so'z boyligi, matn, ijodkorlik...

**Ключевые слова:** интерактив, перформанс, приемы, дискурс, лексика, текст, творчество...

**Keywords:** interactive, performance, methods, discourse, vocabulary, text, creativity...

Barchamizga ma'lumki, ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilayapti. Keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarni zakovatli, zukko etib tarbiyalash zarur. Chunki, boshlang'ich ta'lim-ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish juda muhim.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:**

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi.Masalan "Qushlar bizning do'stimiz" mavzusi berilgan.Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Matnni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, matn uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

4. Materialni tartibga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

5. Fikrni adabiy til m e'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi. Buning uchun bayon va inshoni nutqiy shakllantirishdan oldin unga til tom ondan tayyorgarlik ko'riladi.

6. Matnni og'zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi.

7. Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi. O'quvchilar material tanlashda va uni joylashtirishda, so'z tanlash, so'z birikmasi va gap tuzishda o'zlari yo'l qo'ygan kamchilikni, xatoni fahmlashga o'rgatib boriladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalaming bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

Ona tili darslarida asosiy diqqat bolaning nutq va lug'at boyligini o'stirish, imloviy savodxonligini tarkib toptirish, ya'ni to'g'ri o'qish va yozish hamda husnixat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan.bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiyaniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ona tili fanida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalish usullari haqidagi

(so‘z yasalishiga doir); so‘zlarning leksik-semantik guruhi ha qidagi (leksikologik); o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari o‘zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko‘nikma va malakalarni ham o‘z ichiga oladi.[1]
Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan.

Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ona tili fanida beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi (grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalish usullari haqidagi (so‘z yasalishiga doir); so‘zlarning leksik-semantik guruhi ha qidagi (leksikologik); o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari o‘zbek tili kursi fonetik, gra fik, morfologik, sintaktik va boshqa ko‘nikma va malakalarni ham o‘z ichiga oladi.

[1] Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent- 2017-yil, 17-bet

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O'qitilayotgan ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo'naltirish, fikr muhsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish)da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o''quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. O'quvchini nutqiy madaniyatga, muxtasar matn yaratishga o'rgatishda qarshimizdagi eng dolzarb vazifa – til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish, ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqani mustahkamlash, matn ustida ishlash orqali o'quvchi so'z boyligini oshirish, maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy vositalar yordamida nutqiy zaxiralarni boyitishdan iborat. O'quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, xatboshi va MSB (murakkab sintaktik butunlik)larni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tanish belgilari, grammatik bog'lamalar haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Zero, "... lug'at zaxirasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon bo'ladi.."[2].

Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv – universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish (undosh so'zlar ustida ishlash, berilgan so'zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so'zlar

[2].Pedagogika. O'quv-qo'llanma.T .: O'zR FA "Fan".2006-yil. 56-bet

bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. Demak, o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra mustaqil matn yaratish ko’nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to‘la bajarish – o‘quvchi kommunikativ savodxonligini ta‘minlash masalasi, ona tili ta’limida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya’ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o‘rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy davomi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o‘rganiladi, o‘quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o‘z yechimini topadi.

Ta’kidlash joizki, ta’lim sifatini oshirishda dars jarayonida o‘qituvchi faqatgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan, ijodkorlik va ijodiy muhitni shakllantirishi muhim omillardan sanaladi. O‘zbek tilini o‘rgatishda darslikda berilayotgan materiallarni yetkazib berishda o‘quvchilarning qobiliyati va iste’dodini hisobga olgan holda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu esa o‘qituvchidan ko‘plab ijodiy ishlashni talab qiladi. Jumladan:

- tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda materiallarni matn yoki surat holida, balki multimedia imkoniyatlaridan foydalanib boshqa ko‘plab shakllarda yetkazib berish imkoniyati mavjud.

- o‘quvchilarni gapirishga o‘rgatishda dialogik va monologik nutqni o‘stirishga e’tibor qaratish;

- o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida o‘zbek tili lug‘at boyligidan faol foydalanish, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar bilan boyitish uchun lug‘at bilan ishlash mashqlarini izchil yo‘lga qo‘yish;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- rasm va fotoalbomlar, diafilmlar yordamida ko'rganlarini hikoya qilishga, har bir darsda o'zbekcha gazeta va jurnallardan kichik hajmli xabarnomalarni ifodali o'qish va hikoya qilib berishga o'rgatish, notanish so'zlarning lug'atini tuzish va ularni yod olishni talab qilish;

- nutqiy mavzu mazmuniga mos metod va usullardan soddadan murakkabga ko'ra foydalanish;

- bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchini iqtidorli o'quvchiga biriktirib qo'yish va olib borilayotgan ishlarni kuzatib borish;.

- o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni o'qituvchi oldindan belgilab olishi va eng qulay metodlar yordamida uni bartaraf etishi tavsiya etiladi.

O'qituvchi qaysi sinfda ishlashidan qat'iy nazar, u bog'lanishli nutqdagi tadrijiylikni aniq tasavvur etishi , matn yaratishga oid barcha metodik maqolalar bilan tanishib chiqishi lozim.

To'la savodxonlikka erishishning muhim omillaridan biri, o'quvchilar nutq madaniyati ustida ishlash, ularni og'zaki va yozma nutqlaridagi kamchiliklami o'z vaqtida aniqlash va tuzatishdan iboratdir.[3]

Shuning uchun 1-4 -sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida bir turdagi yozma ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki yozma ishning barcha turlari ustida mashg'ulot olib borish, o'quvchilarda fikrni keng ko'lamda va xilma-xil ravishda bayon eta bilish qobiliyatini o 'stirish lozim.



TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

[3]Ona tili o'qitish metodikasi-K.Qosimova va boshqalar. Toshkent, “Nosir” nashryoti,- 2009-yil, 7-bet

**“BREYN RING” usuli.**

Texnologiya ikki raundda o‘tkaziladi. Har bir raunda oltita topshiriq mujassamlashtiriladi. O‘qituvchi slaydlarni namoyish etib, topshiriqni ikki marotaba o‘qiydi. So‘ng: “vaqt ketdi” jumlasini ishlatadi. Shundan so‘ng guruh o‘quvchilari topshiriqni bajarishga kirishadi. Topshiriq bajarilgach, guruhdagi o‘quvchilar qo‘llarini ko‘tarib xabar berishlari shart. Har bir guruhdan spiker (boshlovchi) tanlanadi. Spiker doskada bajarilgan topshiriqni izohlab berishi lozim. Birinchi raundda so‘ng reklama e’lon qilinadi. Bu reklama – uyga berilgan vazifani tasviriy so‘z vositalari asosida ifodalashdan iborat. Reklama uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ikkinchi raundda faoliyat baholanadi. Har bir to‘g‘ri izohlangan javob uchun -2 ball, to‘liq bo‘lmagan javoblar uchun 1 ball. Noto‘g‘ri javoblar uchun 0 ball belgilanadi. Umumiy ballar yig‘indisi guruhlarga taqdim etilgan jamoaviy nazorat varoqlariga tushuriladi. O‘qituvchi faollarni baholaydi.




**Zamonaviy ta’lim metodlari**

**Individual yondashuv.**

(o ‘quvchilar orasida sog ‘lom muhitni yaratishda qo ‘l keladi.)

Individual yondashuv orqali bolalarning imkoniyat va qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish, shaxsiy sifatlarini qamrab olgan holda maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratish, yakka holda suhbatlashish, o‘z xulqini to‘g`rilashga , his-hayajonini boshqarishga o‘rgatish, tengqurlari va katta yoshlilar bilan munosabatlarini shakllantirish mumkin.

**“INSERT” strategiyasi.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:**

-kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;

-har bir guruhlar o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so'raladi;

-o'quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadildr;

-bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;

-so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;

-guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);

— guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;

— guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi;

— liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;

-guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

**Strategiyani qo'llashda o'quvchilar quyidagi sxemalar bo'yicha faoliyatini tashkil etadilar:**

**Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:**

| Maxsus belgilar | Maxsus belgilarning ma'nosi |
|---|---|
| Z | Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa |
| S | Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa |

| | |
|---|---|
| ? | Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa) |

**Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarning natijalarini o'rganish chog'ida:**

| Maxsus belgilarning tartib nomeri | Guruhlar nomlari | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Ulug'bek | Beruniy | Ibn-Sino | Ali-Qushchi |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

Strategiyani o'quvchilar mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

**"ZAKOVATLI ZUKKO" metodi.**

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi o'quvchlarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

**“Ovozga qo‘yish” usuli.**

Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo‘yicha ovozga qo‘yish; har bir fikr bo‘yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so‘ng yana ovozga qo‘yish; xulosalash uchun tashkil etiladi.

Bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Maqsad gapni cho‘zish emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O‘quvchi fandan-fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va kishi har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko‘rishga qiziqadi, ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keladi”, - degan edi. Buyuk bobokalonimiz ta’kidlaganidek, bir xillikdan qochib, xotiraga malol kelmaydigan usullardan foydalanib tashkil etilgan dars esa o‘quvchilar xotirasida abadiy saqlanib qoladi, albatta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Pedagogika. O‘quv-qo‘llanma.T .: O‘zR FA “Fan”.2006-yil.

2. “Umumta’lim fanlar metodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son

3. Ona tili o'qitish metodikasi-K.Qosimova va boshqalar. Toshkent, “Nosir” nashryoti,-2009-yil.

4.Internet saytlari.www.ziyouz.com kutubxonasi

-ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz

# The importance of using innovations in education.

**Surkhandarya region Termiz city English teacher of the 12 th general secondary school Hamrayeva Nafisa Zuyadullayevna**

**Abstract**

Purpose – The purpose of this paper is to present an analytical review of the educational innovation field in the USA. It outlines classification of innovations, discusses the hurdles to innovation, and offers ways to increase the scale and rate of innovation-based transformations in the education system. Design/methodology/approach – The paper is based on a literature survey and author research. Findings – US education badly needs effective innovations of scale that can help produce the needed high-quality learning outcomes across the system. The primary focus of educational innovations should be on teaching and learning theory and practice, as well as on the learner, parents, community, society, and its culture. Technology applications need a solid theoretical foundation based on purposeful, systemic research, and a sound pedagogy. One of the critical areas of research and innovation can be cost and time efficiency of the learning. Practical implications – Several practical recommendations stem out of this paper: how to create a base for large-scale innovations and their implementation; how to increase effectiveness of technology innovations in education, particularly online learning; how to raise time and cost efficiency of education. Social implications – Innovations in education are regarded, along with the education system, within the context of a societal supersystem demonstrating their interrelations and interdependencies at all levels. Raising the quality and scale of innovations in education will positively affect education itself and benefit the whole society. Originality/value – Originality is in the systemic approach to education and educational innovations, in offering a comprehensive classification of innovations; in exposing the hurdles to innovations, in new arguments about effectiveness of technology applications, and in time efficiency of education.

**Keywords:***Implementation, Innovation, Educational technology, Time efficiency*

## Introduction

Education, being a social institution serving the needs of society, is indispensable for society to survive and thrive. It should be not only comprehensive, sustainable, and superb, but must continuously evolve to meet the challenges of the fast-changing and unpredictable globalized world. This evolution must be systemic, consistent, and scalable; therefore, school teachers, college professors, administrators, researchers, and policy makers are expected to innovate the theory and practice of teaching and learning, as well as all other aspects of this complex organization to ensure quality preparation of all students to life and work. Here we present a systemic discussion of educational

innovations, identify the barriers to innovation, and outline potential directions for effective innovations. We discuss the currentstatus of innovations in US education, what educational innovation is, how innovations are being integrated in schools and colleges, why innovations do not always produce the desired effect, and what should be done to increase the scale and rate of innovation-based transformations in our education system. We then offer recommendations for the growth of educational innovations. As examples of innovations in education, we will highlight online learning and time efficiency of learning using accelerated and intensive approaches.

**What is educational innovation?**

*Creativity is thinking up new things. Innovation is doing new things (Theodore Levitt)*

To innovate is to look beyond what we are currently doing and develop a novel idea that helps us to do our job in a new way. The purpose of any invention, therefore, is to create something different from what we have been doing, be it in quality or quantity or both. To produce a considerable, transformative effect, the innovation must be put to work, which requires prompt diffusion and large-scale implementation.Thus, innovation requires three major steps: an idea, its implementation, and the outcome that results from the execution of the idea and produces a change. In education, innovation can appear as a new pedagogic theory, methodological approach, teaching technique, instructional tool, learning process, or institutional structure that, when implemented, produces a significant change in teaching and learning, which leads to better student learning. So, innovations in education are intended to raise productivity and efficiency of learning and/or improve learning quality. For example, Khan's Academy and MOOCs have opened new, practically unlimited opportunities for massive, more efficient learning. Efficiency is generally determined by the amount of time, money, and resources that are necessary to obtain certain results. In education, efficiency of learning is determined mainly by the invested time and cost. Learning is more efficient if we achieve the same results in less time and with less expense. Productivity is determined by estimating the outcomes obtained vs the invested effort in order to achieve the result. Thus, if we can achieve more with less effort, productivity increases. Hence, innovations in education should increase both productivity of learning and learning efficiency. Innovation can be directed toward progress in one, several, or all aspects of the educational system: theory and practice, curriculum, teaching and learning, policy, technology, institutions and administration, institutional culture, and teacher education. It can be applied in any aspect of education that can make a positive impact on learning and learners. To raise the quality of teaching, we want to enhance teacher education, professional development, and life-long learning to include attitudes, dispositions, teaching style, motivation, skills, competencies, self-assessment, self-efficacy, creativity, responsibility, autonomy to teach, capacity to innovate, freedom from administrative pressure, best conditions of work, and public sustenance. As such, we

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

expect educational institutions to provide an optimal academicenvironment, as well as materials and conditions for achieving excellence of the learning outcomes for every student (program content, course format, institutional culture, research, funding, resources, infrastructure, administration, and support).unding, resources, infrastructure, administration, and support). Education is nourished by society and, in turn, nourishes society. The national educational system relies on the dedication and responsibility of all society for its effective functioning, thus parental involvement, together with strong community and society backing, are crucial for success. A national education system is commonly the product of a distinctive set of historical, political, social, cultural, and economic effects. As it is a complete system, its different areas are not only interrelated and interdependent but act together. Subsequently, any change in one of them may generate a change in others. A few examples of innovations in some areas that made a drastic impact on the whole educational system are:

• political (NCLB (No Child Left Behind Act), Race to the Top);
• social (Equal Opportunities Act, affirmative action policy, Indivuals with Disabilities Education Act); • philosophical (constructivism, objectivism);
• cultural (moral education, multiculturalism, bilingual education);
• pedagogical (competence-based education, STEM (curriculum choices in school: Science, Technology, English, and Mathematics);
• psychological (cognitive science, multiple intelligencies theory, Maslow's hierarchy of needs, learning style theory); and
• technological (computer-based learning, networked learning, e-learning).

Though these innovations left a significant mark on education, which of them helped improve productivity and quality of learning? Under NCLB, we placed too much focus on accountability and assessment and lost sight of many other critical aspects of education. In drawing too much attention to technology innovations, we may neglect teachers and learners in the process. Stressing the importance of STEM at the expense of music, arts and physical culture ignores young people's personal, social, emotional, and moral development. Reforming higher education without reforming secondary education is futile. Trying to change education while leaving disfunctional societal and cultural mechanisms intact is doomed. It is crucial, therefore, when innovating to ask, "What is this innovation for?" "How will it work?" and "What effect will it produce?". Many of us educators naively believe grand reforms or powerful technologies will transform our education system. Did we not expect NCLB to change our schools for the better? Did we not hope that new information technologies would make education more effective and relieve teachers from tedious labor? However, again and again we realize that neither loud reforms nor wondrous technology will do the hard work demanded of teachers and learners.Innovations can be categorized as evolutionary or revolutionary (Osolind, 2012), sustaining or disruptive (Christensen and Overdorf, 2000; Yu and Hang, 2010).

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Evolutionary innovations lead to incremental improvement but require continuity; revolutionary innovations bring about a complete change, totally overhauling and/or replacing the old with the new, often in a short time period. Sustaining innovation perpetuates the current dimensions of performance (e.g. continuous improvement of the curriculum), while disrupting innovation, such as a national reform, radically changes the whole field. Innovations can also be tangible (e.g. technology tools) and intangible (e.g. methods, strategies, and techniques). Evolutionary and revolutionary innovations seem to have the same connotation as sustaining and disruptive innovations, respectively.

**Effects of technology innovations in education**

*A tool is just an opportunity with a handle (Kevin Kelly).*

When analyzing innovations of our time, we cannot fail to see that an overwhelming majority of them are tangible, being either technology tools (laptops, iPads, smart phones) or technology-based learning systems and materials, e.g., learning management system (LMS), educational software, and web-based resources. Technology has always served as both a driving force and instrument of innovation in any area of human activity. It is then natural for us to expect that innovations based on ET applications can improve teaching and learning. Though technology is a great asset, nonetheless, is it the single or main source of today's innovations, and is it wise to rely solely on technology?

The rich history of ET innovations is filled with optimism. Just remember when tape recorders, video recorders, TV, educational films, linguaphone classes, overhead projectors, and multimedia first appeared in school. They brought so much excitement and hope into our classrooms! New presentation formats catered to various learning styles. Visuals brought reality and liveliness into the classrooms. Information and computer technology (ICT) offered more ways to retrieve information and develop skills. With captivating communication tools (iPhones, iPads, Skype, FaceTime), we can communicate with anybody around the world in real time, visually, and on the go. Today we are excited about online learning, mobile learning, social networking learning, MOOCs, virtual reality, virtual and remote laboratories, 3D and 4D printing, and gamification. But can we say all this is helping to produce better learning? Are we actually using ET's potential to make a difference in education and increase learning output?

**Globalization in education**

Along with developing our own innovations and creating a broad base for implementation, it might be useful to look outside the box. As the world becomes more and more globalized, national education systems are shedding their uniqueness and gaining a more universal, homogeneous look (e.g. the Bologna process, which has brought 50 national higher education systems to a common denominator in Europe and beyond) (Bologna process, 2016). Scholars indicate there is "[…] the need for US universities to keep up

with the rest of the world in today's highly competitive educational marketplace" (Wildavsky et al., 2012, p. 1). It is also economically and culturally beneficial to learn from each other in the spirit of global cooperation and share one's achievements with others. While in the context of globalization it may be convenient to have a common education system across the world, however, to satisfy the needs and expectations of the nation-state it is necessary to continue innovating within one's own system. The rich international educational palette offers unique solutions to many issues facing US schools and universities.What attractive innovative approaches exist in the world that could be applied to the US education system? To mention just a few, the Confucian culture of appreciating education in China, Japan, South Korea, and other South-East Asian nations which brings students' and parents' positive and respectful societal attitudes toward education and educators; cultural transformation in education and quality teacher preparation in Finland, Singapore, and Shanghai; organizational innovations in schools of Ontario, Canada. In Finland, a new ecosystem for learning was created (Niemi et al., 2014). Singapore, for one, has become one of the top-scoring countries on the PISA tests by cultivating strong school leadership, committing to ongoing professional development, and exploring innovative models, like its tech-infused Future Schools (EDUTOPIA, 2012b). In Shanghai, China, every low-performing school is assigned a team of master teachers and administrators to provide weekly guidance and mentorship on everything from lesson plans to school culture (EDITOPIA, 2012a). The list of international innovations to cogitate is, fortunately, extensive. Is this what our educational innovators could do something about?Daniel Willingham demonstrates a very interesting angle in international education that substantially differs from ours: "In China, Japan and other Eastern countries, intelligence is more often viewed as malleable. If students fail a test or don't understand a concept, it's not that they are stupid – they just haven't worked hard enough yet. This attribution is helpful to students because it tells them that intelligence is under their control. If they are performing poorly, they can do something about it […] Children do differ in intelligence, but intelligence can be changed through sustained hard work" (Willingham, 2010, p. 131). There are numerous exciting foreign examples for the US educators to learn from and innovate, implementing and adapting them to US schools.

**Learning faster, learning better, and at a lower cost?**

*You don't have the time, you make the time (Thorin Klosowski)*

Among many points for educational innovations time definitely deserves close attention. Time is a significant factor in education. Attempts to save time on learning and raise its productivity are well known to each of us. To increase learning efficiency using so-called accelerated and intensive approaches is a promising path for innovation. These two approaches demonstrate the difference between evolutionary and revolutionary disruptive approaches. Innovation, as we know, can be called to life by social, political, or

"Rolli va ishbop" interaktiv o'yini bu, qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo'lib, ularni kutilmagan vaziyatga duchor qilish orqali shu vaziyatda qatnashchilardan kimningdir rolini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intixosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi. Rollar o'yini nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj.Moreno aytganidek, "Role" so'zi lotincha rotula (kichik g'ildirak yoki g'o'la) so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik pesaning aktyor uchun qog'ozga yozigan va dumaloq naycha qilib o'ralgan varaqdagi so'zlari edi. Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so'z aktyorlar "Rolli va ishbop" yini ma'nosini anglata boshladi.

Rolli o'yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining rolini o'ynashni, yoki o'zini boshqa vaqt oralig'ida ko'rsatishini ko'zda tutadi. Kishi rolni qabul qilganidan keyin shu roldagi personaj kabi his qilishga, harakat qilishga va o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. Boshqa qatnashchilar biron bir maqsad bilan rol o'ynayotganlarini kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo'llaniladi.

Ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof - muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z - o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

O'yinni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:

– ta'limiy (didaktik) maqsad;
– tarbiyaviy maqsad;
– faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;
– ijtimoiy maqsad.

S.Kallaganning ta'qidlashicha, rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar:

– Jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;
– o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etadi;
– o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bemalol, o'ziga ishongan holda, hotirjam harakat qilishlariga erishish;
– sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi(shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);
– sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

qilmaslik.

**Ishbilarmonlik teatri** - qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xattiharakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan senariy tuziladi. Bu yerda, ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri hatti-harakatni tanlash, muhim hisoblanadi. **Psixodrama va sostiodrama** - bu rolli o'yinga, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu erda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi. Bu bosqich o'z navbatida ikki qismdan iborat: o'yinniishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin senariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ishbilarmonlik o'yini, senariysi quyidagilardan iborat: o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi.

O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

– guruhni shakllantirish;
– mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
– muammo va vaziyatni vujudga keltirish;
– rollarni taqsimlash,
– o'yin reglamentini o'rnatish;
– materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;
– maslahatlar berish.

**"Ishbop o'yin" metodi** - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarni qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarni imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ham ega

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarni belgilaydi. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruh xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

XULOSA

Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uyg'otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo'ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg'onadi, bilimga qiziqish uyg'onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash o'quvchilarning o'qishga ijlbiy munosabatlarini tarbiyalaydi o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bilitshga qiziqish kichik maktab o'quvchisini izlanishga o'rgatadi udoim har xil savollarga javobni qidirishga o'rganadi. O'quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsional ko'tarinkilik muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat jarayon natidasiga ijobiy ta'sir qilb qolmy balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Kakhkhorov S.K., Rasulova Z.D. (2020). Methodology of improving the professionalactivity of the future teacher of technology on the basis of modern educational technologies. *Universal J. of Educational Research*. 8:12, pp. 7006-7014.

2. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 8:1, pp. 30-34.

3. Дилова Н.Ғ. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. *Замонавий таълим.* №3, 63-68 б.

4. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. *European science*, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Matematika darslarida didaktik o'yinlarnig o'rni

Xolmatova Ozoda Olimovna-
Zarafshon shahar 1- sonli
XTCHO'IDM
matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Uchbu maqolada men darslarimda foydalanadigan ba'zi didaktik matematik o'yinlar haqida toxtalib o'tmoqchiman, chunki matematika darslarida didaktik o'yin nafaqat o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi, o'ylantiradi, balki bolaning mustaqilligini, tashabbuskorligini va irodasini rivojlantiradi. G'ayratli bolalar dastur materialini osonroq o'zlashtiradilar, muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Shuning uchun matematika darsiga o'yin va o'yin mashqlarining kiritilishi o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, tashabbuskorlik, "Jonli matematika", "Aytmayman", "Kim tezroq, kim aniqroq?!", "O'zingizni sinab ko'ring","Bo'linadi- bo'linmaydi","So'zni to'ping".

Maktabning birinchi yillarida matematika eng qiyin, ba'zi bolalar uchun esa sevilmaydigan fanga aylanadi. Buning sababi, ayrim bolalarda aqliy faoliyatning tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash va farqlash kabi funktsiyalari hali ham etarli darajada rivojlanmagan. Bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun birinchi bosqichlarda ularning o'quv faoliyatiga qiziqishini uyg'otish, ularni o'ziga jalb qilish, faollashtirish kerak. Mavzuga bo'lgan qiziqishni uyg'otishning eng samarali vositalaridan biri didaktik o'yindir.

Darsda o'yin texnikasi va vaziyatlarni amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: didaktik maqsad o'quvchilar oldiga o'yin topshirig'i shaklida qo'yiladi; o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi; o'quv materiali uning vositasi

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

sifatida ishlatiladi, o'quv faoliyatiga raqobat elementi kiritiladi, bu didaktik vazifani o'yinga aylantiradi; didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijasi bilan bog'liq.

Didaktik o'yinlarning ahamiyati:

- kichik yoshdagi o'quvchilarning kognitiv qiziqishini sezilarli darajada oshiradi;
- dars yorqinroq, hissiy jihatdan to'yingan bo'ladi;
- o'rganish uchun ijobiy motivatsiya shakllanadi;
- ixtiyoriy diqqat rivojlanadi, mehnat qobiliyati oshadi;
- jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish

O'yin texnologiyasining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va roli, o'yin va o'quv elementlarining uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik o'yinlarning funktsiyalari va tasnifini tushunishiga bog'liq.

**Kognitiv faoliyatning tabiatiga ko'ra** didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

4. bolalar bajarishni talab qiladigan o'yinlar. Ushbu o'yinlar yordamida bolalar modelga muvofiq harakatlarni bajaradilar (raqamli iboralarni o'ylab toping, naqsh qo'ying, shunga o'xshash rasmni chizing)
5. harakat talab qiladigan o'yinlar. Ular hisoblash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ("Matematik baliq ovlash", "Labirint", "Qanday qilib tepaga chiqish kerak", "Oynani to'ldirish", "Kemaning yo'nalishini aniqlash")
6. qidiruv va ijodkorlik elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar ("Diraviy misollar to'plash", "Matematik tırtıl")

**Amaldagi materialning tabiatiga ko'ra** didaktik o'yinlar shartli ravishda ob'ektlar bilan o'yinlar, stol o'yinlari va so'zli o'yinlarga bo'linadi.

**Funktsiyaga ko'ra** didaktik o'yinlar quyidagilarga bo'linadi:

4. tarbiyaviy;
5. nazorat qilish;
6. umumlashtirish.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Agar** o'quvchilar unda qatnashsa, yangi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lsa yoki ularni o'yinga tayyorgarlik jarayonida egallashga majbur bo'lsa, o'yin tarbiyaviy bo'ladi. Bundan tashqari, bilimlarni o'zlashtirish natijasi qanchalik yaxshi bo'lsa, kognitiv faoliyat motivi nafaqat o'yinda, balki matematik materialning mazmunida ham aniqroq namoyon bo'ladi.

O'yin **nazoratdan iborat bo'lib, didaktik maqsadi - ilgari olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash, tekshirish.** Unda ishtirok etish uchun har bir o'quvchi ma'lum matematik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.
**Umumlashtiruvchi** o'yinlar bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. Ular turli xil o'quv vaziyatlarida harakat qilish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan fanlararo aloqalarni o'rnatishga hissa qo'shadilar.
**Ishtirokchilar soniga ko'ra** didaktik o'yinlar: jamoaviy, guruhli va individual bo'lishi mumkin.
Didaktik o'yinlardan darsning alohida bosqichlarida, o'yin momentlari sifatida foydalanish mumkin.
Men didaktik o'yinning ahamiyatini bolalarda qanday reaksiya uyg'otayotganiga qarab emas, balki har bir o'quvchiga nisbatan ta'lim muammosini hal etishda qanchalik samarali yordam berishini hisobga olgan holda aniqlayman.
Dars uchun har qanday didaktik o'yinni tanlashda men quyidagi **savollarni** o'ylayman :

5. O'yinning maqsadi. Uni amalga oshirish jarayonida qanday ko'nikma va malakalar shakllanadi? O'yin davomida qanday tarbiyaviy maqsadlar qo'yiladi?
6. Bu mening sinfimdagi o'quvchilar uchun mumkinmi?
7. O'yinda barcha bolalar teng ishtirok etadimi?
8. O'yinni sarhisob qilish.

Darsda didaktik o'yin o'tkazish uchun, agar kerak bo'lsa, men har bir guruhga kuchli va zaif o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni kiritish uchun oldindan guruhlar

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tuzaman. Har bir guruhga mas'ul shaxsni ajrataman. Qoidaga ko'ra, bu yaxshi o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan yoki guruh ishini tashkil eta oladigan eng uyushgan o'quvchi. Og'zaki mashqlarni darslarda muhim o'rin tutaman. Bunga barcha o'quvchilarni jalb qilish uchun men signal kartalaridan foydalanaman. Ular o'quvchilarni intizomga solishga yordam beradi va shu bilan birga materialni o'zlashtirish haqida ma'lumot oladi. Ularning yordami bilan siz o'yin shaklida ko'plab og'zaki mashqlarni bajarishingiz mumkin. Darslarimda quyidagi o'yinlardan foydalanaman.

"Jonli matematika"

Barcha o'quvchilar 0 dan 9 gacha raqamlar bilan kartaga ega. Men misolni o'qidim (9 × 8). 72-raqamli kartaga ega bo'lgan o'quvchi o'rnidan turadi yoki qo'lini ko'taradi.Bo'lish uchun misollar keltirgan ma'qul, chunki javoblarda bir xonali sonlar olinadi. O'yin jismoniy faollikni talab qiladi, shuning uchun uni darsning o'rtasida jismoniy daqiqa o'rniga o'tkazishingiz mumkin.

"Aytmayman"

O'yin shunday qurilgan: bolalar, masalan, bir vaqtning o'zida 20 dan 50 gacha hisoblashadi. Masalan, 6 ga bo'linadigan raqamlar o'rniga ular: "Men aytmayman!" !«. Men bu raqamlarni doskaga yozaman. Yozuv paydo bo'ladi: 24, 30, 36, 42, 48. Keyin, har bir raqamni yozib olgan holda, o'quvchilar misollarni nomlaydilar: 24:6=4, 30:6=5 va hokazo.Ushbu o'yin diqqatni o'zgartirish mexanizmlarini maqsadli shakllantirishga yordam beradi.

"O'zingizni sinab ko'ring"

Men har qanday raqamlarni ko'paytirish natijalari yozilgan kartalarni tayyorlayapman, masalan, 195. Men kartani ko'rsataman va o'quvchilar bunday javob bilan ko'paytirish uchun misol yozadilar.

"Bo'linadi- bo'linmaydi"

Men har xil raqamlarni ko'rsataman va agar raqam qoldiqsiz, masalan, (4) ga bo'linadigan bo'lsa, o'quvchilar qarsak bilan tasdiqlashadi.

"So'zni to'ping"

Doskada o'ng va chap tomonda teng miqdordagi misollar mavjud. Doskaga ikkita jamoa chiqadi. Signalda chaqirilganlarning har biri misollardan birini echadi va tayyorlangan kartalar orasidan misolning javobiga mos keladigan raqamga ega kartani tanlaydi (kartaning orqa tomonida xat yozilgan). Birinchi bo'lib so'zlarni tuzgan jamoa g'alaba qozonadi.

Ushbu o'yinda fanlararo aloqa ham amalga oshiriladi, chunki lug'at so'zlari yoki har qanday qoida uchun so'zlarni tuzish mumkin.

Bular matematika darslarida o'quvchilarning faolligini faollashtiruvchi ish turlarining bir qismidir. Yuqorida tavsiflangan vazifalarni bajarayotganda, bolalar o'ylaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi. Va bu bilimlarni yanada mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

**Qo'llanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.

2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 y.-80 b.

5. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: "Fan". 2005.

6. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001

7. Dadamirzaev G'. Pedogogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar. Metodik qo'llanma. - Namangan, NamMPI, 2008 yil, 30 bet.

8. www. ziyonet.uz

# ONA TILI DARSLARIDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH METODIKASI

Temirov Xushbaxt Hamidjonovich

Namangan viloyati Pop tumani

50-maktab Ona tili va adabiyoti fani

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablari ona tili darslarida so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili darslari, so'zning morfemik tarkibi, morfema, metodika, so'z yasovchi qo'shimchalar.

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega.

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi.

Morfema ikki turga bo'linadi; 1. O'zak morfema – so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema 2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va ma'nolarining shakllanishi xizmat qiladigan morfema.

Qo'shimchalar 2 turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar. So'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladigan.

2. Forma yasovchi qo'shimchalar so'zlarning grammatik formalarini shakllantirib, turli grammatik ma'nolarini ifodalaydi.

So'zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini aniqlashning asosiy usullarini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalar so'zlarining leksik ma'nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

So'z morfemani rolini anglash, shuningdek qo'shimchalarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar

so'zning leksik ma'nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so'zlardan ongli foydalanishlarni oshirish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining yetakchi tamoyili bo'lib, bunga binoan so'zlar va ularning tarkibiy qismi, (o'zak va qo'shimchalar) asliga muvofiq yoziladi. O'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik so'z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini o'rganishning muhim vazifalaridan biri o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, xususan, til birligi sifatida so'zni umumiy bilib olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarni aqliy faoliyatini o'stiradigan mavxumlashtirish, analiz, taqqoslash ko'nikmalarni shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq, so'zning morfemik tarkibi 2-sinfda o'rganiladi. 3-sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o'rganish sistemasi nimaligi aniqlab olamiz. Til materialini o'rganish sistemasi deganda, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o'zaro bog'lanishdagi bilimlar kompleksini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Mavzuni o'rganishda 4 bosqich amalga oshiriladi:

1-bosqich – so'z yasalishini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi-o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishni tushunishga tayyorlash.

2-bosqich – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning asosiy o'quv vazifasi so'zlarning ma'nolari qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

qo'shimchalar bilan tanishtirish. "O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllanitirish; bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

"O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy va mazmuniy umumiylikning (ma'nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlashtirishga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Ta'limning bu bosqichida o'quvchilarning morfema haqidagi bilimlarni yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilayapti. Shuning uchun o'qituvchi tarkibi va yasalish usuli o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan so'zlarni tanlaydi. Bu so'zlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni o'quvchilar bilib olishlarga doimiy g'amxo'rlik qiladi. 3-bosqich – o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari va tildagi rolini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga "o'zak", "so'z yasovchi qo'shimcha", "forma yasovchi qo'shimcha" tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi. Masalan, so'zda har bir morfemaning rolini o'zlashtirish asosida o'quvchilar so'zning leksik ma'nosi bilan uning morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni bilib oladilar. Bracha vazifalar bilan bog'liq holda, so'zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O'zakni o'rganishning xususiyatlari. "O'zak" tushunchasini shakllantirishda o'quvchilar o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekanini va u barcha bir xil o'zakli so'zlarning ma'nosidagi umumiylikni o'z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

So'z yasovchi qo'shimchaning roli bilan tanishtirish va shu asosda so'z yasovchi qo'shimchali so'zdan o'z nutqida ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'no tushunishi muhim ahamiyatga ega.

Forma yasovchi qo'shimchalarni o'rganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Forma yasovchi qo'shimchada grammatik funktsiya yetakchi hisoblanadi, bu bilan u so'z yasovchi qo'shimchadan farqlanadi.

4-bosqich – so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash, (3-sinf). So'zning morfemik tarkibini o'rganish sistemasida bu bosqichning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'rganishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan (baliqchi, ishchi; sinfdosh, sirdosh; bog'bon, oshpaz, kitobxon) shuningdek fe'ldan (elak, kurak, yutuq); sifat ko'proq otdan (suvli, suvsiz, o'tli, o'tsiz) shuningdek fe'ldan (maqtanchoq, o'tkir, sezgir

Fe'llar otdan (ishla, gulla, gapir) sifatdan (oqla, yaxshila, eskir, qoray) yasaladi. O'quvchilarni so'z yasalishi xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi forma yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'qituvchining vazifasi yangi so'zni

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so'zidan –chi qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash, (baliqchi), uning leksik ma'nosini tushuntirish qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik taxlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Bunday mashq turlaridan ayrimlari:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik-so'z yasalishi tomonidan taxlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi. O'qituvchi rahbarligida bir o'zakdosh so'zdan boshqasi qanday, qaysi morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zga o'zakdosh bo'lgan bir so'z toping. Uning qaysi turkumiga kirishini ayting va uni so'z tarkibiga ko'ra taxlil qiling.

Olma daraxti ko'p joy (olmazor). Paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan kishi (paxtakor). O'quvchilar o'qituvchi yordamida shu so'z qaysi so'zdan va qanday qo'shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so'z turkumiga kiradigan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So'z yasashga doir vazifalar.

Oq, ish, so'zlardan –la, -chi qo'shimchalari yordamida yangi so'zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini isbotlang.

Ish, paxta, kolxoz otlaridan o'zakdosh otlar yasang. So'zlarni tarkibiga ko'ra taxlil qiling. Fe'ldan ot yasash uchun qanday qo'shimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar o‘quvchilardan so‘z yasalishi xususiyatlariga, so‘zlarning morfemik tarkibiga e’tibor berishni talab etadi va so‘zning morfemik tarkibi shu so‘zning muayyan bir so‘z turkumiga oid ekani bilan bog‘liqligini aniqlashga qaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Boshlang’ich ta’lim bo’yicha yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar.

2.Boshlang’ich ta’lim bo’yicha yangi tahrirdagi o’quv dasturi // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – betlar.

3.A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o’qitish metodikasi. T.: O’qituvchi, 1992.

4.G’ulomov. Ona tili o’qitish printsiplari va metodlari. T.: O’qituvchi, 1992

5.www.referat.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ: ЎКУВЧИЛАРНИНГ БИЛИМИНИ БАХОЛАШ ТИЗИМИ

**АЛМЕНОВ АВЕСХОН АЛИБОЙ УҒЛИ** - Сирдарё туманидаги 4- умумтаълим мактабининг Ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари

АННОТАЦИЯ : Ўқувчиларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражасини бахолаш ва назорат турлари орқали бахолаш, билим ва кўникмаларни аниқлаш, чорак давомида олиб бориладиган ўқувчиларнинг билимларининазорат қилиб бориш ушбу мақолада ёритиб берилди. Хар қандай назорат тури қандай шаклда бахоланиши ва назорат ишлари ўқитувчилар томонидан ишлаб чиқилши, талаб даражада тузилиши, стандартга хослиги таьминланади .

ТАЯНЧ СЎЗЛАР: Бахолаш тизими, ўзлаштириш даражаси, жорий назорат, оралиқ назорат, малака, кўникима, тест, натижа, якуний назорат.

Бахолаш ва унинг ахамияти. Таълим олувчилар томонидан ўқув материаллари ўзлаштирилганлиги, кўникма ва малакалар хосил бўлганлигини текшириш ва бахолаш таълим жараённинг зарур таркибий қисми хисобланади. Бу фақат ўқитиш натижаларини назорат қилиш эмас, балки ўқув жараёнининг турли босқичларида таълим олувчиларнинг билиш фаолиятига рахбарлик қилиш хамдир. Бахолаш таълим жараённинг маълум босқичида ўқув мақсадларига эришганлик даражасини олдиндан белгиланган мезонлар асосида ўлчаш, натижаларни аниқлаш ва тахлил қилишдан иборат жараёндир. Билимларни текшириш ва бахолашнинг таълимий ахамияти шундан иборатки, бунда ўқув материалининг ўзлаштирилганлиги хақида таълим берувчи хам, таълим олувчи хам муайян маълумотга эга бўлади.

Билимларни, кўникма ва малакаларни назорат қилиш ва бахолашнинг тарбиявий ахамияти шундаки, бунда таълим олувчиларнинг укишга, ўз ютуклари ва муваффақиятсизликларига нисбатан муносабати шаклланади, қийинчиликларини енгиш истаги туғилади.

Баъзан бахолаш жараёнида таълим олувчи қўшимча билим , кўникма ва малакаларга хам эришади. Таълим жараёнида ўзлаштирилмаган тушунчаларнинг мохиятига тушуниб етади, бахолашни таълим олиш жараённинг давоми, деб хам айтиш мумкин.

Натижаларни бахолаш орқали бир пайтнинг ўзида бутун таълим тизими ва унинг компонентлари текширилиб кўрилиши керак. Бу билим таълим тизимида кутилаётган натижага эришаётганлик даражаси текширилиб ўлчанади.

Таълим бериш давомидаги назорат натижаларини ўлчаб бориш, билим, кўникма ва малакаларни бахолаш ўқувчининг ўзлигини англаши учун бир имкониятдир.

БАХОЛАШ МЕЗОНЛАРИ

Хар қандай бахолаш натижалари ўзаро таққосланиши, яъни ўлчаниши лозим бўлади. Уларни таққослаш бахолашдан олдин ёки кейин ишлаб чиқилган мезонлар асосида амалга оширилиши мумкин. Бахолаш мезонлари ўқув мақсадларига қай даражада эришилганликни англатувчи кўрсаткичдир. Бу кўрсаткичлар сонлар « беш,тўрт,уч», ёрдамида тавсифланиши мумкин. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, бахолаш мезонлари таълим олувчининг қайси ўзлаштириш даражасини намойиш қилишига қараб мос қўйиладиган бахо кўрсаткичининг тавсифидан иборат. Билимларни текшириш ва бахолаш муайян дидактик талабларга жавоб бериши керак. Текшириш ва назорат қилиш, доимий тарзда бўлиши шартдир. Бу талабга риоя этилмаса, таълим олувчиларнинг укишига нисбатан муносабати ёмонлашади, билимларнинг сифатига салбий таъсир килади.

Тест ўқув материалининг барча асосий мохиятини ўз ичига олиши мумкин, таълим натижаларини бахолашнинг тест усули билимни аниқ ват тўгри бахолайди, бунда бахолашнинг кўрсаткич даражаси олдиндан белгиланади ва хамма ўқувчилар учун бир хил бўлади.

Ўқувчиларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражаси қуйидаги назорат турларини ўтказиш орқали бахоланади:

- жорий назорат – суровлар, назорат ишлари ёки тестлар тарзида ўқувчиларнинг билимлари, кўникма ва малакалари мунтазам назорат қилинади;

- оралиқ назорат- чорак тамом бўлганда ва ўқув дастурининг тегишли бўлими тугаллангандан кейин ўқувчиларнинг билимлари, кўникма ва малакаларини бахолаш учун амалга оширилади. У ёзма назорат иши ёки тестлар шаклида ўтказилади. Ушбу назоратда фойдаланиладиган материаллар ўқув фани ўқитувчиси томонидан тайёрланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги ПФ-5712-сонли Фармонида Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб PISA Халқаро миқиёсида ўқувчиларни бахолаш дастури рейтинги бўйича жахоннинг биринчи 30 та илғор мамлакатлари қаторига киришига эришиш белгилаб қўйилган.

« PISA « халқаро саводхонлигини бахолаш тадқиқотнинг асосий мақсади расман қуйидагича белгиланган. 15 ёшли ўқувчиларнинг илм-фан жамияти талабларига жавоб бериши қандай холатда ? Бахолаш тадқиқотининг бош мақсади эса, ўқувчиларнинг мактабда ўрганаетган билимларини кундалик хаётда қўллай қандай холатда эканлигини аниқлашдан иборат.

Халқаро бахолаш дастурларида муваффақкиятли иштирок этиш, бевосита таълим сифатини ошириш билан боғликдир. Унда иштирок этиш , нафақат Ўзбекистон , балки жахон хамжамиятида ўқувчиларнинг ўқув дастурларини ёдда сақлаб қолганлигини бахолашдан уларнинг компетенцияларини бахолаш, яъни мактабда эгаллаган билимларини реал хаётий вазиятларда қўллай олиши, ижодий ва мантикий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш ва уни бахолашга ўтишда мухим восита бўлиб хисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР :

1. Ўқитиш натижаларини бахолаш тамойиллари.
2. Мезонларни бахолаш. Нaралиева Ш.Ж
3. 2021йилдан ўқувчилар билими халқаро стандартлар асосида PISA тизимида бахоланади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : Ўкув машғулотининг тахлили ва унинг методикаси

НАЖМУЛЛАЕВА ЗЕБО ХОЛДАРОВНА - СИРДАРЁ ТУМАНИДАГИ 2-УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИНИНГ ДИРЕКТОРИ

АННОТАЦИЯ : Ушбу мақола айнан замонавий дарслар ва уларга қўйиладиган талаблар асосида ўқитувчининг касбий махоратини тахлил этиш йўл-йўриқларига бағишланган бўлиб, унда замонавий дарсларнинг ташкилий шакллари, дарсларни ташкил этиш методикаси борасидаги фикр ва мулохазалар баён қилинган. Мақола ўқитувчилар узлуксиз таълим тизими рахбарлари ва тадқиқотлар учун мулжалланган.

ТАЯНЧ СЎЗЛАР : Қўлланма, методика, даср тахлили, фикр ва мулохаза, дидактика, услуб, кўникма ва малака, тажриба

Дарс ўқитувчининг илмий ва илмий-педагогик махоратини белгиловчи асосий мезондир. Бир соатлик дарс дарс машғулотларини йирик санъат асарига қиёслашнинг мохияти хам шунда. Ўқувчисига инсонпарварлик намунасини кўрсата олган, унинг мехри ва хурматини қозона билган ўқитувчи устоз деган улуғ номга сазовор бўла олади. Дарснинг хар бир дақиқасини бебахо билиб, ўқувчини фаоллаштира оладиган, унинг мустақил фикрини ўстириш оркали дарс мақсадига эришишига интилгани ўқитувчи, вақтни тўғри тақсимлаш, дарс машқулотларининг хар бир қисмида кўргазмали воситалардан унумли фойдаланишни йўлга қўйиш орқали ўқувчида мантиқий тафаккурни ривожлантириш сари йўл оча боради.

Изланувчан ўқитувчи таълимий мақсадни тарбиявий мақсад билан уйғунлаштира олади. Бундай изчиллик боланинг ақлий ривожланиши йўлида янги имкониятлар яратади. Бугунги кунда анъанавий педагогикани ютуғи сифатида янги педагогик технологиялар таълим жараёнига татбиқ этила бошлади.Шунга мувофиқ кафолатли натижага эришиш учун дарс мақсади илмий-методик талабларга мувофиқ аниқ қўйилган бўлиши лозхим. Мақсадларни қўйиш усуллари:

- дарс машғулотининг илмий-методик хусусиятига кўра ўқитувчининг максади;

- ўрганиладиган билим мазмунига мувофиқ мақсадни белгилаш;

- ўқувчининг ўқув-билиш фаолияти орқали мақсадни белгилаш;

- ўқувчининг индивидуал-психологик, интеллектуал ва шахсий ривожланиш қобилиятларига қаратилган мақсадни белгилаш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дарснинг самарадорлиги унинг илмий-методик мақсадга мувофиқ тарзда қурилиши, давлат таълим стандартлари билан , дарслик, ўқув –методик мажмуалар орасидаги узлуксизликнинг таъминлашишига кўп жихатдан боғликдир.

Дарс – таълим жараёнинг асосий шакли.

Дарс бевосита ўқитувчи рахбарлигида муайян ўқувчилар гурухи билан белгиланган вақт оралиғида олиб бориладиган машғулот тури. Хар бир ўқитувчи ўз навбатида, дарс ўтиш баробарида дарс тахлили ва унинг методикасини хам билиши шарт. Аммо , бу ўринда шу нарсани алохида қайд этиш лозимку, дарс тахлили ва унинг методикаси қандайдир бир андозали нарса эмас. У ўқитувчининг изланувчанлиги ва ижодкорлигига қўйилган илмий талабга кўра доимо ўзгариб, такомиллашиб боради. Дарс тахлилининг мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан холда, хар бир ўқитувчи умумий йўналишдаги дарс тахлилини фарқлаши билан биргаликда, ўзининг ихтисослигига оид дарс тахлилини хам яхши билиши лозим. Давлат таълим стандартлари асосида тайёрланган ўқув дастурларига мувофиқ бошланғич синфлар учун, жисмоний дарслар учун ва умуман, хар бир фан йўналишларига хос дарс тахлили ва унинг илмий асосланган методикаси хамон ишлаб чиқилган эмас.

Бугунги кунда савдо дўконларида дарс тахлилига, ўқитувчининг конспект режаларига оид махсус дафтарлар сотилмоқда. Бу хол камлик қилганидек, вилоят ўқитувчилар малакасини ошириш институтлари тингловчиларига дарс тахлилининг тайёр андозасини тавсия этишади. Бундай холлар ижодкор ўқитувчининг касбий фаолиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Бўлажак ўқитувчиларга дарс тахлили ва фан йўналишига хос методикасини қанчалик билиш , хамда қўллай олишига қараб, унинг ўз сохасининг билимдонлиги, ижодкорлиги, педагогик махоратига бахо берса бўлади.

Бўлажак ўқитувчиларга дарс тахлили ва унингт методикаси хақида билим бериш, педагогик амалиётда оладиган бу масалага алохида тахлил кўзи билан жиддий қараш мухим ахамият касб этади.

Ўқитувчи ўқувчини қуруқ ёдлашга мажбур этмаслиги лозим. Ўқувчининг узи қизиқиб, мустақил фикр асосида билишга интилсин. Хар бир дарс фикрлаш, илм асосида билим эгаллаш дарсига айлансин. Ўқувчининг фикр юритиш қобилиятидан келиб чиқиб, хар бир сўзи жонли, жўшкин, илмий ва амалий асосланган бўлиб борсин. Ана шундай дарслар ижодий ва илмий асосланган дарслар бўлиб , ўз самарасини беради.

Юқори синфларда даср берувчи ўқитувчилар жуда камдан-кам холларда бошлангич синфларга дарс кузатгани киришади. Ўз навбатида, бошлангич таълим ўқитувчилари хам юқори синфлар дарсларини деярли кузатишмайди ва дарс

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тахлилларида иштирок этишмайди. Ўқитувчи дарс кирганда унинг қўлида синф журнали, давлат таълим стандартлари асосида тайёрланган ўқув дастурни , календар –мавзу режаси, дарс конспекти, дарслик ва хамда кўрсатмали жихозлари бўлади.

Дарс тахлили ва уни такомиллаштириш бугунги кунда педагогика фани олдида турган долзарб вазифа хисобланади. Бу ишга махоратли ўқитувчи узининг салмокли хиссасини қўшиб бориши унинг касб бурчи хисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Дарс тахлили ва унинг методикаси. Х.Абдукаримов. ГДУ 2009

2. Дарс тахлили. И.Мирзаев Тошкент 1999 йил

3. Дарс кузатиш ва тахлил қилиш усуллари

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАВЗУ : ТИЛ – ХАЛҚ РУХИ, МАЪНАВИЯТИМИЗ КЎЗГУСИ

TO`RAKULOVA DILFUZA SUVANKULOVNA – СИРДАРЁ ТУМАНИДАГИ 13-МАКТАБ ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИСИ

АННОТАЦИЯ : Ушбу мақолада миллат кўзгуси тил хақида тушунча берилди. Давлат тилига эьтибор. Унинг мохияти,бархаётлиги хақидаги мавзу ёритилиб берилган

ТАЯНЧ СЎЗЛАР : Миллат рухи, алоқа воситаси, иллат, маданий- маърифий, туркий тил.

Тил - халқ рухи…..

Тил – миллатни дунёга миллат қилиб танитадиган энг мухим белгиларнинг энг асосийси. Ер юзида олти мингдан ортиқ миллат , эллатлар мавжуд. Улар бир-бирлари билан ўз тилларида сўзлашганликлари боис миллат, элат, деган номга эгадирлар. Тилсиз халк бўлмайди., халқсиз эса тилнинг мавжуд бўлиши мумкин эмас.

Дунё тиллари ичида энг гўзал ва жозибадор тиллардан бири - бу ўзбек тилидир..

Тилда халқнинг рухи акс этади, тил ўлса шу тилга мансуб миллат хам ўлади , аксинча, тил тирик ва соглом экан, шу тилда сўзлашувчи халқ хам тирик ва соғлом булади. Соглом халк узлигини теран англайди, ўзлигини англаган халқ эса хеч қачон бошка халққа қарам бўлмайди.Бу ғояни яхши англаган халқимиз ўтган асрнинг80-йиллари охирларига келиб ўзбек тилига давлат мақоми беришни талаб қила бошлади. Натижада 1989 йилнинг 21 октябрь куни Ўзбекистон Республикасининг давлат тили хақидаги Қонуни эълон қилинди ва ва бир ярим асрлик қарамликдан сўнг ўзбек тили яна давлат тили мақомини олди. Тилнинг ривожланиши, даврларутиши билан ўзгаришини инобатга олган холда тилни доимий харакатда дейишга хақлимиз.

Хар қандай озодлик, эркинлик тил озодлигидан бошланади. Шу боис она тилимизга давлат тили мақоми берилган кунни истиқлол ва мустақилликка эришиш йўлида қўйилган энг дадил ва энг шарафли қадам.

Буюк бобоколонимиз Алишер Навои « Тилга эътиборсиз - элга эътиборсиз», деб бежизга айтмаган. Чунки қайси халк она тилига нисбатан юксак мехр-мухаббат кўрсатмас, уни бошқа тиллар билан айрибошлар экан, бу халқнинг келажаги бўлмайди, у ўз – ўзидан инқирозга учраб, дунё халқлари қаторидан тушиб қолади.

Тил – миллатнинг маънавий бойлигидир. Тил нафақат муомала востиаси- балки халқнинг маданияти, урф-одати, унинг турмуш тарзи, тарихидир. Турли халқаларнинг тилларига хурмат эса ўз навбатида ўзаро тушиниши, мулоқатларга имконият яратади. Тилларни сақлаб қолиши учун эса бу тилларни қўллаб қувватлаш зарурдир.

Она тилимиз хозирги кунга қадар бир қатор баланду пастликларни кўрган, кези келганда чуққиларни забт этган, кези келганда жарлик остонасида заиф ва бахтсиз титраган тилдир.  Ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий хаётида ва халкаро миқиёсида нуфузини ошириш, ўсиб келаётган ёш авлод онгида миллат бойлиги хисобланмиш она тилимизга, халқимизнинг минг йиллик тарихи, урф-одатлари ва анъаналарига хурмат хиссида тарбиялаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мухим- «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари туғрисида» ги Фармон қилиниши , хамда узбек тилига давлат тили мақоми берилган кун – 21 октябрь санасини  «Ўзбек тили байрами куни « деб эълон қилиниши мамлакатимизда давлат тилининг тулақонли жорий  этилишини таъминлашга қаратилган яна бир жиддий қадамдир.

Тил хар бир миллатнинг қалби, ғурури, мустақиллик белгиси, келажаги. Тилсиз хеч бир миллат тулақонли халқ бўла олмайди. Усиз Ватаннинг эрки йуқ.

Давлат тили мавзусининг сийсий майдонгга чиқишнинг ўзи жуда катта воқеа эди. Мустабид тузум бироз булса-да халққа рўшнолик кўрсатиб, ошкораликнинг ёқимли шамолидан барча маърифатпарвар инсонлар бахраманд бўла бошлаганди.

Она тили -  муқаддас тушунча. Хар бир инсон ўз она тилини улуғлайди. Кўкка кўтаради. У орқали дунёни танийди, кашф этади, жамиятда ўз ўрнини топади. Тил инсоннинг рухиятига миллийликни сингдиради.

Тил – миллатнинг кўзгуси бўлиб, унда тарих- ўтмиш ва келажак жонланади.

Узбек тилида тўғри, ифодали сўзлаш ва ёзиш, она тилимизнинг софлиги ва бойлиги тўғрисидатинмай ғамхурлик қилиш, унинг истеъмол доирасини кенгайтириш давлатимиз фуқароларининг бурчи саналади.

Бугунги кунда мамлакатимизда Давлат тили билан бирга бир қаторда бошка тилларни ўқитиш хам кенг йўлга қўйилган.Миллатларни миллатлардан ажратиб урувчи асосий белгиларидан бири бут ил экан, хар бир инсон уз тилини билиши, уни улуғлаши ва шу билан бирга бошқа миллатларнинг она тилларига хам хурмат билван қараши лозим. Шундагина тилнинг , миллатнинг қадри ва обрўйи, нуфузи ошади.

Инсон ўз она тилиси билан улғаяди, камолга етади. Мана шу тил билан яшаб ўтади. Комилликнинг биринчи белгиси хам тилда намоён булади. Зеро , нутқнинг гўзаллиги, тилнинг бурролиги, ифоданинг аниқлиги инсон учун ўзига хос хусндир. Бу хусн охир-оқибатда жамият ва миллатнинг хуснини кўрсатади.

Она тили халқни бирлаштиради, тарбиялайди, ўқитади, урф-одат, анъаналарни сақлайди. Шундай экан , она тилимизнинг халқаро миқиёсида обрў-эьтиборини юксалтиришда, уни миллий ва умумбашарий тушунчалар асосида тараққий этган тиллар сафига қўшишда хар биримиз тилимизга чуқур хурмат билан ёндашишимиз керак. Зеро , тили бор экан, миллат бебаходир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЙТЛАР:

1. Она тили – миллатнинг рухи, ор-номусидир. Ш.Мавлонов.
2. Тил миллат кўзгусидир.
3. Она тили- миллатнинг рухидир

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# KIMYO DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN METODLARNING PEDAGOGIK MOHIYATI

**Bayzaqova Ma'rifat To'rabekovna**
**Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 7-umum ta'lim maktabning kimyo fani o`qituvchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida interfaol metodlarning ahamiyati darslarda qo'llanilishi, kichik guruhlarning ishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, metod, kubik usuli, galereya, masala, mantiqiy, material, induktiv, deduktiv, tahlil.

Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi. "Metod" yunoncha metodos so'z bo'lib, «yo'l», tatbiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pedagogik metodlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatning xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

**Galereya-metodi.** Kichik guruhlarning barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi. Namuna: Bu metod ko'pincha kimyodan masalalar yechish darslarida yaxshi samara beradi.

Bunda o'qituvchi bir necha maslalarni topshiriq sifatida beradi.Har bir guruhni yechimini tekshirib eng oson va qulay usulda ishlangan yechim tanlanadi.

Masala:Odam tana massasining 20 % ini suyaklar tashkil etadi, suyaklardagi kalsiy ftoridning massa ulushi esa 0,3 % ni tashkil etsa, massasi 70 kg bo'lgan odam tanasidagi ftor massasini aniqlang?

**Masala:** Meditsinada narkotik preparat sifatida ishlatiladigan modda C, H va Cl dan iborat.Shu moddadan 0,956 gr yonganda 0,352 gr CO2 0,072 gr suv olindi.Moddaning molekulyar massasi 119,5 gr bo'lsa uning formulasini toping?

**Mantiqiy metod.** Bundao'quv materiali mazmunining yo'nalishini belgilab, o'quvchi va talabalar uchun bosh g'oyani ajratish, o'rganilayotgan ob'ektni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglash imkonini yaratadi.

•Bu metodlar guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, asosiy g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat:

• induktiv metod – xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, talabalar faoliyatini xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslubi;

•deduktiv metod umumiy qonunlarni bayon qilish, o'quvchi va talabalarning faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltirish uslubi;

•tahlil metodi axborotni anglab idrok etish, o'rganilgan ob'ektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, o'rganilgan ob'ektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash uslubi;

• bosh g'oyani ajratish metodi o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga bo'lish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni, shuningdek, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

• qiyoslash metodi qiyosiy ob'ektlarni aniqlash, ob'ektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi;

•umumlashtirish metodi o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinakmikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o'zida mujassamlashtiradi.

**Mustaqil ish metodlari** guruhiga ko'rgazma vositalari, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash metodlari kiradi.Bu guruhga o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o'yin, o'quv munozaralari, o'quvchi va talabalarning taxsil olishdagi burch va mas'uliyatini shakllantirish metodlari mansub bo'lib, ular quyidagi:

•o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirish metodlari talabalarda ijobiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, taajjublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o'quvchi va talabalarni rag'batlantirish va tanbeh berish uslubi;

•didaktik-o'yin metodi o'yin syujetini tanlash, o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o'quv-bilishga oid o'yinlarni tanlash, o'quvchi va talabalarni rag'batlantirish uslubi;

• o'quv munozaralari metodi o'quv bahslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratish, ilmiy bahslarni vujudga keltirish, o'quvchi va talabalarni muvaffaqiyatlarga yo'llash, o'quvchi va talabalar tomonidan fikrini bayon qilish, ular javobidagi xatolarni to'g'rilash, o'quvchi va talabalarni rag'batlantirish uslubi;

• o'quvchi va talabalarning tahsil olishdagi burch va mas'uliyatini shakllantirish metodi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, o'quv talablarini qo'yish, o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi. Bu metodlar guruhiga og'zaki va yozma nazorat, laboratoriya va amaliy ish yordamida nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat varag'i va testlar yordamida nazorat metodlari misol bo'ladi va quyidagi:

• og'zaki va yozma nazorat metodlari o'quvchi va talabalarning bilimlarni mantiqiy izchil bayon qilishga o'rgatish, nutqni o'stirish, talabalar javobidagi tipik xatoliklarni aniqlash va unga barham berish uslubi;

• laboratoriyava amaliy ish yordamida nazorat metodlari o'quv va amaliy ko'nikmalarni aniqlash, o'quvchining o'quv jihozlari va asboblar bilan ishlash ko'nikmalarini aniqlash, bajarilgan topshiriqlarning sifatini aniqlash va baholash, ish mazmuniga bog'liq holda ob'ektlar va asboblarni to'g'ri tanlash, ishni yakunlash va natijasini rasmiylashtirish, olingan natijalarning to'g'riligini aniqlash uslubi;

• o'z-o'zini nazorat qilish metodlari o'quv materiali yuzasidan qisqa reja, savollar tuzish, asosiy g'oyani ajratish, savollarga javoblar topish, masalalar yechish va ularni namunaga muvofiq tekshirib ko'rish, taqqoslash, olingan natijalarning to'g'riligini tekshirish uslubi;

Pedagog axborot texnologiyalari muhitida faoliyat yuritishi davomida matnli, audio-video, biper matnli qo'llanmalar, grafik illyustratsiyalar, o'quv kompyuter dasturlari, modellashtirilgan dasturlar, avtomatlashtirilgan laboratoriyalardan foydalanishi shartligini inobatga olsak, har bir koordinata ma'lum bir kompetensiyani ta'minlovchi tarzida idrok etish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. ―O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar‖ seriyasidan.–T.:TDIU, 2013

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: ―Iste'dod‖ jamg'armasi, 2008

Nazarova Azima Botabekovna
O'zbekiston Respublikasi IIV
Qoraqalpoq akademik litseyi
tarix fani o'qituvchisi

# TARIX DARSINI TASHKIL ETISHNING AYRIM PEDAGOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola tarix fanining ba'zi metodologik muammolarini,akademik litsey tarix ta'limi, undagi yuz bergan o'zgarishlar, tarixni o'rganishningahamiyati haqidagi qarashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, akademik litsey tarix ta'limining zamonaviy konsepsiyasi, O'zbekiston tarixini o'rganishdagiilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** tarix fani metodologiyasi, tarix tamoyillari, tarixiy tafakkur, tarix ta'limining zamonaviy konsepsiyasi.

## KIRISH

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Jahon tarixi fanida e'tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobillik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o'qitishda tadbiq etila boshlandi. Tarix ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. Akademik litseyuchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi. Bugungi kunda akademik litsey tarix o'qituvchisi samarali ta'lim berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Agar o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'qitish metodlarini tanlash muammosiga Ya.A.Komenskiy, I.Pestalossi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiylar ma'lum

darajada e'tibor berishgandi. Ya.A.Komenskiy o'qitish metodlariga g'oyat katta ahamiyat berib, agarda bilim cho'qqilariga juda ozchilik qiyinchilik,ming azob bilan yetib borar ekan, buning sababi insoniyat erisha olmaydigan biror narsaning mavjudligida emas, balki metodlarning chalkashligidadir, deb hisoblagandi. U bilish qobiliyatini yuzaga chiqara oladigan usullarga rioya qilishni va ularni sharoitlarga qarab qo'llashni talab etgandi.

Respublikamizda tarix fanini falsafiy yondashuv asosida tadbiq qilish N. Jo'raev tomonidan taqdim qilingan. Tarix fanini o'qitishning uslubibo'yicha esa T.Toshpo'latov va Y.G'afforovlar tomonidan taqdim qilingan o'quv- uslubiy, didaktik ta'minot ham alohida ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tarix fanining akademik litsey kursi uchta vazifani bajarishga qaratilgan:

- o'quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlash;
- o'quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix,
- xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo'lishni ta'minlashga;
- o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarning bilimlarini mustaqil o'zlashtirish va qo'llashga o'rgatishdir.

O'quvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. O'quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mavjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilano'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliyva umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchinishaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Tarix darslari

o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Akademik litsey tarix ta'limining zamonaviy konsepsiyasi tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quvfani akademik litsey da gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalari, atamalariva tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi.

**NATIJALAR**

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyani amalga tadbiq etish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaga tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.
5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilganyutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda tarix fanining metodik muammolaridan biri akademik litsey da tarix ta'limini zamonga mos, hozirgi taraqqiyot talablariga javob beradigan konsepsiyasini shakllantirish va amalga oshirishdir. Akademik litsey ta'limi o'zining uzoq yillar davomida tanlangan boy tajribasiga ega. To'plangan tajriba hozirgi murakkab davrda tarix o'qitishda muhim o'rin tutadi, undan unumli foydalanish zarur.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Abduraxmanova J. N. (2020). Innovatsion tajriba maydoni – "maktab–laboratoriya"ning ta'lim tizimidagi o'rni. Mug'allim hem o'zliksiz bilimlendiri. (Issue 1) – B. 22-26.
2. Gafforov Ya. X. (2019). THE STATE OF HUSTORICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II. USA(Philadelphia) . -P. 173-175.
3. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. Self Sketches as a Toolin the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology. 2020/2/29. Vol.63 № 2 (2020). 224-231.
4. G'afforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the "Great Game". Journal of Critical Reviews, 7(11), 2798-2802.
5. Toshev, S. (2020). O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixini o'rganishda turk tilidagi manbalarni o'rni. In Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari (pp. 121-127)
6. JI Suyundikovich. (2020). TARIXNI O'QITISH METODIKASI RIVOJLANISHITARIXIDAN. Fan va ta'lim, 1 (5), 195.
7. Mardonov, Sh., Toshtemirova, S., Ahmadjonov, B., & Koshanova, N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of The Educational Cluster. International Journal of PsychologicalRehabilitation, 27(07), 8104-8111.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# "Китобхонлик кечаси"

Эгамова Насиба Турсунбоевна-
Андижон вилояти Марҳамат
Туманидаги 22-ИДУМ рус тили ва
адабиёти фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Таълим сохасида инновацион ғоялар билан ишлаш, талаб этилмоқда. Тарбиялаётган фарзандимизга ўзлигини англатишимиз учун барча таъсирчан воситалардан унумли фойдаланишимиз зарур.

Таълим-тарбиянинг шакли ва мазмуни қизиқарли ва хилма хил бўлса, унинг самараси шунчалик тез намоён бўлади ва ўқувчининг бутун хаёт тарзига ижобий таъсир қилади Ушбу ғоянинг мақсади таълим сифати ва самарадорлигини ошириш, ўқувчи ёшларни билимли, ҳар томонлама ривожланган, юксак маънавиятли баркамол инсон қилиб тарбиялаш, уларда ватанга мухаббат, инсонларга мехрибонлик, ота-оналарга хурмат туйғуларини шакллантириш, тавсия этилаётган ғоялар барча умумтаълим мактаблари учун мўлжалланган бўлиб**,** ўз самарадорлиги билан таълим-тарбия сифатини оширилишига муносиб хисса қўшади.

**Калит сўзлар:** мафкура, бадият водийси, китобхонлик кечаси, рухият, жахолат.

Мафкуравий курашлар қизғин тус олган бир даврда турли ниқоблар остидаги ёт ғоялар таъсирига тушиб қолмаслик учун кишида маънавий химоя қобиғи бўлиши шарт.

Шундай таҳдидлардан ёшларни ҳимоялаш, уларни миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялашда китобнинг ўрни беқиёс.

Ёш авлодни ижодий фикрлайдиган, дунёқараши кенг ва иродаси мустаҳкам қилиб тарбиялашда бадиий асарлар катта аҳамият касб этади. Бадиий асар инсон руҳияти билан боғлиқ кечинмаларни теран идрок қилиш асосида ўқувчиларни атрофлича фикр юритиш,

ибрат олиш, хулоса чиқариш ва ҳаётда қатиятли бўлишга ундаш билан алоҳида эътиборга лойиқ. Болаларга билим ва тарбия берувчи асосий манбаа китобдир.

Китоб ўқиш мактабдаги таълим жараёни билан узвий боғлиқ. Китобхонликни оширишда тадбирларнинг бир хил мавзуда, оддий ва анъанавий ўтказиш, ўқувчини зериктириб қўяди. Бунда танланган мавзу қизиқарли,уларни билимини оширишга хизмат қиладиган бўлиши керак. Ҳозирги пайтда мамлакатимизда кўплаб янги асарлар нашрдан чиқмоқда.

Лекин кўпроқ тарихий асарларга мурожаат қилиш ўқувчини ўз миллати тарихини, буюк аждодларимиз ҳаётини ўрганиши уларни ҳаётга бошқача қарашга ўргатади.

"Ўзимдаги барча яхши фазилатлар учун китоблардан миннатдорман", - деган эди машхур рус ёзувчиси М. Горкий .

Дархакикат, инсон маънавий ва рухий камолотида китобларнинг ўрни беқиёсдир.

Мана уч йилдирки бизнинг мактаб ҳам «Энг зукко китобхон» тадбири ўтқазиб келинмокда.

Ушбу тадбирни хақли равишда «Бадият водийсига саёхат» дейиш мумкин. Чунки тадбир нафакат иштирокчи укувчиларда, балки барча ўқитувчилар, томошабинларда катта таасурот колдирмокда.

Куйи синф ўқувчилар , 5-6 – синф ўқувчилари хам тадбирда катнашиш истагини билдиришмокда.

**Ушбу тадбирни ўтказишдан мақсад:**

а) ўқувчилар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш , мумтоз асарларга, машхур ёзувчиларнинг ижодига кизикиш уйғотиш;

б) ўқувчилар қалбида она Ватанга, ота-онага, буюк аждодларимизга хурмат , садокат хамда муҳаббат туйғусини ошириш;

д) ўсиб келаётган ёш авлод калбида гузалликка , инсоний фазилатларга мухаббат, ёвузлик, жахолатга карши нафрат хиссини ошириш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

с) ўкувчиларни она Ватанимиз тинчлиги , равнаки йўлида жанбозлик курсатиш , ўз халки учун фидойи, маънавий етук ва баркамол инсон бўлишга даъват этишдан иборот.

**«Энг зукко китобхон » кўрик-танловини ўтказиш тартиби:**

- Мактабнинг 9-синф ўқувчилари ўқитувчилар томонидан танланган асарни маълум вакт давомида мутоола килиб, асарнинг ўзларига ёққан кисмидан сахна куриниши ёки шеърий, насрий монолог тайёрлайдилар. Хаьат аъзолари томонидан тузилган саволларга жавоб берадилар. Тадбирнинг 1-боскичида барча 9-синф ўқувчилари иштирок этади.
- Тадбирнинг 2-боскичида хайьат аъзолари томонидан энг билимли деб топилган китобхонлар (синфнинг 12 ёки 14 нафар ўқувчиси) иштирок этади. Ушбу боскичда 1-боскичдаги асар эмас, айнан ўша ёзувчининг бошка асари тахлил килинади. 2-босқич якунида ўқувчилар орасида ҳар бир синфдан бир нафардан энг билимли ўқувчи аникланади
- Кўрик – танловининг 3-боскичида ғолиблар ўртасида савол жавоб кечаси ташкил қилинади. Хакамлар хаьатининг хулосасига кўра энг билимли , зукко деб топилган ўқувчига бир ойлик 300000 сўм микдоридаги пул мукофоти, 2-,3-ўрин сохибларига мактов ёрлиқлари хамда эсдалик совғалари берилади.

Мактабимизда «Энг зукко китобхон» тадбири 2020-2021-ўқув йилидан бошлаб ўтказиб келинмокда.

2020-2021-ўқув йилида буюк хамюртимиз, улуғ шоир З.М. Бобурнинг «Бобурнома» асари, машхур ёзувчи П. Кодировнинг Бобур ва унинг фарзандлари хакидаги «Юлдузли тунлар» хамда «Авлодлар давони» романларини ўқувчиларимиз хаяжон ва катта кизикиш билан ўқиб чикдилар.

2021-2022- ўқув йилида ўқувчиларимиз халкимизнинг севимли ёзувчиси Ўткир Хошимовнинг «Икки эшик ораси» романи, «Дунёнинг ишлари» қиссасини ўқиб чикдилар.

Бу йилги ўқув йилида ўқувчиларимиз қалбида кардош халқлар адабиётига мухаббат уйғотиш мақсадида, айни кунларда 80 йиллиги кенг нишонланаётган машхур қирғиз адиби, ўзбек халкининг хам севимли ёзувчиси хисобланган Чингиз Айтматовнинг «Асрга татигулик кун» романи хамда «Оқ кема» қиссасини ўқувчилар хукмига хавола қилдик. Айни кунларда 9-синф ўқувчилари «Асрга татигулик кун » романини қизикиш билан мутола килмокдалар.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# KREDIT MODUL TIZIMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MUSTAQIL TA'LIMNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.

**Rajabova Dilfuza Abdumajitovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:**Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kredit modul tizimida ta'lim samaradorligini rivojlantirish va mustaqil ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:**zamonaviy ta'lim**,**bilim,tendensiya,kredit-modul,mustaqil ta'lim,texnologiya,tizim,tadqiqot,ECTS,elektron ta'lim, innovatsiya, qobiliyatlar, kompetensiya. xalqaro baholash.

**Аннотация:**В статье описано развитие образовательной эффективности студентов высших учебных заведений в кредитно-модульной системе и самостоятельном обучении на основе инновационных технологий.

**Ключевые слова:** современное образование, знания, тенденция, кредитный модуль, самостоятельное обучение, технология, система, исследование, ECTS, электронное обучение, инновации, способности, компетентность. международная оценка.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.Kredit-modul tizimi joriy etilish tarixiga nazar solsak, XIX asrning ikkinchi yarmida AQSH OTMlari fan dasturlarida, amaliyotda o'z ahamiyatini yo'qotgan (lotin tili va h.k.) ko'pgina fanlarning borligi natijasida talabalarning o'qishga qiziqishi sustlashib ketgani va OTMlarini "yaxshi" o'qib bitirgan talabalarning ham hali zamonaviy, "yaxshi mutaxassis" bo'lib shakllanmagani natijasida paydo bo'ldi. 1869- yil Garvard universitetiga Charles Elliot prezident etib saylanadi va ko'p o'tmay u universitetdagi qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlarini bekor qiladi.Natijada, universitet talabalarida taklif etilgan fanlar orasidan o'zlari xohlagan,

qiziqqan fanlarni tanlab o'qish imkoniyati yaratiladi. Shunday qilib, 1872-yil Garvard universitetida ilk kredit-modul tizimi joriy etiladi. Bu islohot AQSH yoshlari orasida Garvard universitetiga bo'lgan qiziqishni oshirib yuboradi. Universitet o'quv dasturidagi fanlar ham tabiiy ravishda saralana boshlaydi. O'z davrida amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan, iqtisodiyot, mehnat bozori kabi fanlar o'quv dasturlardagi asosiy fanlarga aylanib boradi.1989-yilga kelib, Evropada Amerika kredit tizimi va Niderlandiya oliy ta'lim tizimiga asoslangan holda yangi kredit-modul tizimi qoidalari ishlab chiqildi va u European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlandi [1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori 1-ilovasi, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida NIZOMga ko'ra esa, "2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich (ECTSga asoslangan) kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etiladi" [2].

Kredit-modul tizimiga o'tish, talabaga ko'plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berish bilan birga, uning shaxsiy javobgarligini oshiradi. Buni kredit-modul tizimida, birgina mustaqil ta'lim soatlari umumiy ta'lim soatlarining bakalavriat bosqichida 60%, magistratura bosqichida esa 70% ligidan ham anglash mumkin. Demak, bu tizim talabalar mustaqil ta'limiga asosiy e'tiborni qaratuvchi tizim. Demak, bu tizimda to'g'ri tashkillashtirilgan mustaqil ta'lim ta'lim samaradorligini oshiradigan asosiy omil hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va talabada shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakaga qaratilgan ta`lim shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida asosan auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talaba mustaqil ta'limi o'qituvchi rahbarligi ostida (kurs ishi, kurs loyihasi, malakaviy bitituv ishlari, konferensiyalarga tezis, maqola tayyorlash va h.k.lar) va o'qituvchi rahbarligisiz (asosan, ma'lum bir kursni belgilangan qismini talabaning o'zi mustaqil o'qib o'zlashtirishi uchun)

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tashkil qilinadi. Aksariyat hollarda talabalar mustaqil ishlab, o'z-o'zini boshqarishga, nazorat qilishga va baholashga o'rganadi, bu ularga o'z faoliyatini anglash, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasini o'zi aniqlash, xatolarini ko'rish va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi[3].

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir [4]. Biroq talabalar mustaqil ta'limida o'qituvchining jarayonni to'g'ri tashkillashtirishi, bu jarayonda talabalarga berayotgan motivatsiyasi va ularning faoliyatini nazorat qilishi juda muhimligini yoddan chiqarmaslik kerak.Shunday ekan avvalo, har bir professor-o'qituvchi talabalar mustaqil ta'limini fanning xususiyatidan kelib chiqib, innovatsion metodlar orqali tashkil qilish metodikasini yaxshi o'zlashtirishi va bu jarayonda talabaga yetarlicha yordam bera olishi kerak. Shu maqsadda, talabalar uchun eng asosiy bo'lgan o'qituvchi rahbarligisiz talabaning mustaqil ta'limida samaradorlikka erishish uchun, bugungi kunda o'qituvchi talabaga qanday aniq hujjatlarni, axbototlarni yetkazishi kerakligiga, ya'ni fanni mustaqil o'zlashtirmoqchi bo'lgan talaba qo'lida nimalar bo'lishi kerakligiga to'xtalsak.

— Avvalo, talabaning qo'lida sillabus – fanning talaba uchun mo'ljallangan ishchi o'quv dasturi bo'lishi shart. Chunki, talaba belgilangan fanni qachon, qancha muddatda, qanday adabiyotlardan foydalanib o'zlashtirishi mumkinligini bilish orqali fan haqida sirtdan bo'lsada, umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, sillabusda bu kurs bo'yicha qachon, qanday nazoratlar bo'lishidan, o'qituvchidan qachon maslahatlar olsa bo'lishigacha, barcha-barchasi aks etgan bo'ladi.

— O'quv adabiyotlarning ro'yxati bilan birgalikda, hech bo'lmaganda asosiy adabiyotlarning elektron formati talabaga taqdim qilinishi kerak.

— Mazkur fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, internet havolalar to'plami – dayjest ham o'qituvchi tomonidan talabalarga yetkazilishi kerak.

— Fan bo‘yicha atamalarning qisqacha izohi – glossariylar o‘qituvchi tomonidan tayyorlanib talabaga berilishi kerak. Shu bilan birga shu ko‘rinishdagi ma’lumotnomalarning havolalari va kerak bo‘lsa, ularning asosiylari elekton shaklda talabaga yetkazilishi maqsadga muvofiq.

— Topshiriqlar to‘plami, ya’ni mashqlar (misol, masalalar) talabaning nazariy bilimini mustahkamlash bilan birga, bilimlarini amaliyotga joriy qilish ko‘nikmasini shakllantirishi bilan juda muhim. Muammoli vaziyatlarga tegishli keyslar esa, bundan tashqari talabaning mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Fan ichidagi ma’lum bir mavzularga doir mantiqiy, sifatli animatsiyalarga ega bo‘lgan prezentatsiyalar yoki video materillar talabaning fanga qiziqishini oshiradi.

Talabalar fan yuzasidan o‘zaro fikr almashishi uchun yaxshi imkoniyatlardan biri bu forumlar. Hozirgi kunda talabalar telegram guruhlari orqali bir-biriga g‘oyaviy va ma’lumotlar bilan yordam berishi orqali ham ma’lum bir kursni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun imkoniyatlar bor. Shu bilan birga hozirda jahonda keng tarqalgan mobil ilovalardan foydalanib talabalar mustaqil ta’limida yuqori samaradorlikka erishish mumkin va h.k.

Xulosa qilib aytganda, zamon talablariga javob beradigan, nafaqat zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, balki qabul qilingan axborotlarni o‘zining rivojlangan tahliliytanqidiy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va sara axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni reja qilgan ekanmiz, oliy ta’limda mustaqil ta’limni tashkillashtirishda ma’suliyat bilan yondashgan holda, bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. https://mt.bimm.uz. Kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish. Oliy ta’lim professor o‘qituvchilari uchun masofaviy kurslar.

2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga 1- ILOVA Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida NIZOM.

3. G'.Dadamirzayev, S.Vahobova. Modulli ta'lim mustaqil ish uchun maqsadga erishish vositasi sifatida. International Scientific Journal http://www.internauka.com.

4. Florian Geyer. The Educational SySTEAM in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website http://www.ceps.eu)© CEPS, 2009.

5.Florian Geyer. The Educational SySTEAM in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website http://www.ceps.eu)© CEPS, 2009.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Asosiy qomusimizda ta'limga yangicha yondashuvning aks etishi

Qurbonov Sayqal Sa'dulayevich
Surxondaryo viloyati Uzun tumani
41-maktab direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Konstitutsiyamizda ta'limga oid o'zgarishlarning aks etishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy qonun, pedagog, majburiyat, kasbiy, faoliyat, norma.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini e'lon qildi.Loyihada asosiy qonunning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o'zgartishlar kiritish hamda 16 ta normani o'z ichiga olgan 6 ta yangi modda (prim-moddalar) qo'shish taklif etilmoqda. Bu o'zgarishlar ichida ta'lim sohasiga oid 41-modda ham bor. Va unda quyidagi masalalar belgilab berilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgarish kiritishga doir takliflar ichida 41-moddani o'zgartirish bo'yicha bildirilgan takliflar ijobiy yechim topishi amalda konstitutsiyamizning milliy qiyofasini belgilab beradi. Boisi ushbu takliflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi ham mas'uliyatli vazifasidir. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo'l qo'yilmaydi" degan normalar bilan boyitish taklif qilinmoqda. Bu mamlakatimizning qisqa tarixida yuz bergan salbiy holatlar hamda ushbu holatlarning xalqimizning milliy mentalitetiga zid bo'lganligi sababli ko'pchilik fuqarolarimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'lganligi bilan bog'liq holatlarning oldini olish imkonini beradi. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan naql bor va ustozlarni hurmat qilish milliy xarakterimizning ajralmas qismidir. Afsuski, 2017 yilgacha o'qituvchilar, hatto maktab o'quvchilarining ham paxta terimiga majburlanishi, bu davrda mashg'ulotlar chetga surib qo'yilishi, bu ham yetmagandek, ayrim rahbarlarning o'z vakolatlaridan chetga chiqib, ta'lim muassasalari o'qituvchilarini obodonlashtirish, hatto qurilish ishlariga majburlanishi oxir-oqibat ta'lim tizimiga putur yetkazdi. Buni to'g'ri

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

anglagan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, prezidentlik muddatining birinchi kunlaridanoq ta'limni isloh qilishni, birinchi navbatda o'qituvchilarning obro'-e'tiborini oshirishdan boshlash lozimligini ta'kidlab kelmoqda. Va yangilanayotgan konstitutsiyaning 41-moddasini yuqoridagi normalar bilan boyitishi haqidagi takliflari ham, o'sha keyingi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan ijobiy ishlarning navbatdagi bosqichi bo'ldi, deb o'ylayman.

Ushbu moddaga kiritilayotgan yangi normalardan yana biri – iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar ta'lim olishlarini davom ettirishlarini davlat o'z zimmasiga olayotganligidir. Ma'lumki, yangi konstitutsiyada konseptual o'zgarish yasayotgan normalardan biri – mamlakatimizni "ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinayotganidir. Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglikning ta'minlanganligidir. Shunga ko'ra, 41-moddaga kiritish taklif etilayotgan yuqoridagi norma davlat iste'dodli yoshlarni keng, jumladan moddiy ahvolidan ham qat'i nazar, qo'llab-quvvatlashini nazarda tutadi.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonda keng o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" va "Zakovat" tanlovlari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi hamda iqtidorli yoshlarning xorijiy nufuzli ta'lim muassasalarida tahsil olishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "El-yurt umidi" jamg'armalari faoliyatining davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani shular jumlasidandir. Xususan, iqtidorli yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishlari va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishlarini rag'batlantirish uchun ushbu sertifikatga ega bo'lgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. 2021 yil 1 maydan 5 turdagi, 2022 yil 1 yanvardan 13 turdagi (jami 18 turdagi) xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. Bugunga qadar mazkur tizim orqali 5441 nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berildi va bu qariyb 10 mlrd so'mni tashkil qilmoqda.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ushbu normalarning konstitutsiyaga kiritilishi koʻpchilikni qiziqtirayotgan yana bir muammoga ham ijobiy yechim boʻlib, oʻz hissasini qoʻshadi. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda mulkchilik shakli turlicha boʻlgan oliy ta'lim muassasalari koʻpayib bormoqda. Ayrim xususiy ta'lim muassasalari ta'lim berish sifatiga koʻra mamlakatimizning otaxon universitetlarini ham ortda qoldira boshladi. Iste'dodli yoshlarning ushbu muassasalarda tahsil olishlari esa, ulardagi iste'dodning yanada sayqallanishiga olib keladi. Yangi konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan davlatning ijtimoiy ekanligi, iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi hamda 41-moddada taklif etilayotgan yana bir norma – mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha turdagi ta'lim muassasalari rivojlanishi uchun davlat teng sharoitlar yaratib berishi toʻgʻrisidagi normalarga tayangan holda aytish mumkinki, yangilangan Konstitutsiya iste'dodli yoshlarni eng yaxshi ta'lim muassasalarida, u xoh xususiy boʻlsin, xoh davlatniki, ta'limni davom ettirishlari uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "**Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi**".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori
2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalg aoshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. CHunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, intelektual mulk ulushi Evropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020 yilning 12 oktyabr` kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan yig'ilish ham "Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg'onish davri uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi" mavzusiga bag'ishlangan edi. O'shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "**Ta'lim to'g'risida**"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Namangan davlat universitetida ham izchil amalga oshirib kelinmoqda. Binobarin keyingi uch yil ichida fakul`tetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta'im yo'nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga etkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo'lgan universitet talaba yoshlari soni 5100 nafardan qariyib 21000 nafarga etdi.

Professor-o'qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga etdi. Universitetda 2018-2019 o'quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 fizni tashkil etib, bironta ixtisoslik bo'yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bomagan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta'lim sifatini ta'minlash yo'lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo'yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 17 ta tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish maqsadi belgilab olingan.

Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, YUrisprudentsiya (faoliyat turlari bo'yicha),

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), Zooinjeneriya: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 2021 yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma'noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Universitet yirik ilmiy-tadqiqot markazi sifatida Namangan davlat universitetida media markaz tashkil etish, Akvakul`tura bo'yicha o'quv-amaliy trenajer tashkil etish, “Dorivor o'simliklardan shifobaxsh ichimliklar tayyorlash”, shifobaxsh profilaktik sumalak ishlab chiqarish texnologiyasi, Farg'ona vodiysida tarqalgan kamyob va yo'qolib borayotgan hamda endem turlarning tirik kollektsiyasi, elektron fotoal`bomi va raqamlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish kabi yirik xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. *Yunusov A.* Yangi tahrirdagi Konstitutsiya: ta'limga yondashuvni o'zgartirish vaqti keldi. Kun.uz. 01.07.2022

2. Konstitutsiyaga taklif etilayotgan o'zgarishlar ro'yxati. Kun.uz. 25.06.2022

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

3. Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar muhokama qilindi. Xabar.uz. 28.06.2022

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Сирдарё вилояти Боёвут тумани**
**4-умумий ўрта таълим мактаби**
**логопед-ўқитувчиси**
**Зияев Шухрат Шокирович**

## ИНСОНДАГИ АРТИКУЛЯЦИОН ЗОНАЛАР.

***Биз ёшлар билан кўпроқ гаплашиб,***
***уларнинг қалбига қ улоқ солиб,***
***дардини билиб, муаммоларини ечиш***
***учун кўмак беришимиз керак.***
***Ш.Мирзиёев***

Ҳаётда ҳар бир кишида турли хил нутқ нуқсонларининг учраши, уларни коррекцион тарбиялаш йўллари билан бир қаторда, марказий нерв системасининг турли қисмларида марказга интилувчи ва марказдан қочувчи импульслар мавжуд бўлиб, ҳар қандай марказий нерв системасининг алоқадор нутқ бузилишларида, нутқнинг ҳаракатга келтирувчи органларни зарарланиши кузатилади. Нутқнинг бузилиши марказий нерв системаси билан боғлиқ бўлган барча нутқ бузилишларида ҳаракат моторикаси ҳам бузилган бўлади. Замонавий кореккцион педагогикада нутқ нуқсонларининг бартараф этишда массажнинг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Унинг таъсир хусусиятлари марказий нерв системаларини тинчлантиришга катта таъсир этади.

Массажнинг физиологик таъсирида нерв системаси маълум роль ўйнайди.

Массаж қилинадиган жой, массаж таъсирининг характери кучи ва қанча даволаш давом этишига қараб, бош мия пўстлоғининг функционал ҳолати ўзгаради.

Массажнинг организмга ёки нутқ зоналарига таъсир механизимида (нерв) асаб омил билан бир қаторда гуморал омил ҳам катта роль ўйнайди.

Массаж таъсирида терида биологик фаол (актив) ўзгаришлар ҳосил бўлиб, қон айланишини фаоллаштиради. Улар нерв импульсларини ўтказишда қатнашади. Массаж тўқималарга механик таъсир кўрсатиб, лимфа қон тўқмалар орасидаги суюқлик айланиши (церкуляцияси)ни кучайтиради.

Натижада қон ва лимфа димланиш йўқолиб, моддалар алмашинуви ва массаж қилинаётган жой териси орқали нафас олиш кучаяди. Мускулларнинг қисқариши функцияси ва тонуси ошади.

Нутқ нуқсонларини коррекциялашда: дизартрияда ринолалия, дудуқланиш ва бошқа нутқ нуқсонларида: лаб, танглай лунж, юз қисм пешона даҳан ва хокозоларни силаш орқали массаж усулларидан фойдаланилади. Ҳар бир нутқ камчиликларини комплекс равишда бартараф этиш ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан бири

нутқ нуқсонларини бартараф этишда массажнинг турли хил кўринишларидан фойдаланишда айниқса нуқтали массаж юз мускулларини массаж, хиқилдоқ соҳалари массаж, ёки бўйин массажидан логопедик амалиётда фойдаланишда катта аҳамиятга эгадир.

Инсон юзида бошқа аъзоларига нисбатан, асаб толалари, қон томирлар ва лимфа томирлари таъминланган.

Бу юз мускуллари ҳолатига таъсир этади, уларнинг ёрдамида инсоннинг ҳолатида нозик ўзгаришлар хиссий туйғулар кўринади. Юз териси механик таъсирга айниқса сезгир бўлади. Шунинг учун уқалаш таъсирларида асаб ва юз мускуллари орасидаги нозик таъсирлар ёрдамида инсонинг ҳолати ва кайфияти номоён бўлади.

Уқалаш организмга физиологик таъсир этади. Организмда (танада) уқалаш таъсирида бир қанча умумий ва маҳаллий таъмирлар кечади, унда бутун органлар, системалар, тўқималар иштирок этади. Тери ташқи қисми улкан хиссий майдон бўлиб, тери анализаторларининг переферик қисми, демак у марказий асаб тизими билан узлуксиз боғлиқ.

Уқалаш давомида нафақат терининг тузилиш қисмига балки унинг томирларига ёғ клечаткаларига ҳам таъсир кўрсатади. Шу муносабат билан умумий асаб қўзғалишлари ўзгаради, ишлаётган ёки сусайган (пасайган) рефлекслар уйғонади МНС ҳолати тўлалигича ўзгаради уқалаш терида секрет функцичсини яхшилайди уларни озиқланиши ўзида яхшиланади, қон алмашинув жараёни кўтарилади. Уқалаш тери ҳолатига катта таъсир этади. Капиляр тизими рефлекс қисм ҳисобланади. Уқалаш орқали капиляр ҳолатидан ўзгариш бутун томирлар тизимида ўзгариш бўлади деган маънони англатади. Уқалаш таъсирида капиляр кенгаяди. Қон ва томирлар орасидаги қон алмашинуви ўзгаради. Ритмик иш жараёнлари қондан артерия бўйлаб қон алмашинувини енгиллаштиради. Вена қонини оқимини тезлаштиради. Уқалаш бутун мимик фаолият тизимига рефлекатор таъсир этади, шу билан лимфа томирларини иш фаолиятини яхшилайди. Уқалаш таъсирида маълумки, мускуллар тизими ҳолати ҳам яхшиланади. Биринчи навбатда мускул тўқималаридан сезувчанлик ортади, қисқартирувчи функциялардан кучи ва ҳажми, мускуллардан шу фаолияти ортиб, босимдан кейинги фаоллиги тикланади. Уқалашдан диференциал фойдаланиш мускулларни қисқарувчи тонусида, сусайишида эса аксинча ёрдам беради, артикуляцион характлардан кординацион мустақил ҳаракатларига ёрдам беради. Мускуллар функцияси боғловчи тўқима аппаратлари билан боғлиқ. Уқалаш таъсирида боғловчи аппаратлардан ҳаракат ва чўзилувчанлиги ортади, уқалашда таъсир кучи ва танада жавоб реакцияси ўртасида мукаммал боғлиқлик мавжуд. Эпчил секин уқалашда уқаланаётган пайтида қўзғалувчанлик пасаяди. Бу тинчлантирувчи таъсир этиб ёқимли илиқлик сезилади, аҳвол яхшиланади, тез ва чаққон ҳаракатлар уқалашда қўзғалувчанликни оширади. Шундай қилиб логопедик уқалаш бутун организмга ижобий таъсир этади, асаб ва мускуллар тизимини ўзгартиради.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Логопедик уқалашнинг асосий мақсадлари:

1. Умумий мускуллар тонусининг нормаллашуви: мимик ва артикуляцион мускуллар фаолияти яхшиланади.

2. Артикуяцион аппарат мускулларида парез ва фалажлар камаяди.

3. Нутқ аппарати мускулларида ҳаракат потологичларидан камайиши (амнезия, гиперкнизия, судроги) тортишишларни камайиши.

4. Проперецептив таъсирлар стимули.

5. Артикуляцион ҳаракатлар амплетудаси ва ҳажмини оширади.

6. Нутқ аппарати переферик мускуллари гуруҳи фаоллашиб, қисқарувчи фаоллиги ошади.

7. Артикуляция органлари кординацияси ихтиёрийлиги шаклланади.

Нуқтали уқалашни ривожланиш тарихи.

Нуқтали уқалаш тахминан 5 минг йил аввал узоқ Шаркда вужудга келган. Ҳозирги кунда Хитой, Корея, Муғилистон ва Япония давлатлари ҳудудига тўғри келувчи жойларда яшаган қадимги шифокорлар ҳар бир органлар билан ҳамжиҳат фаолият юритишини исботлаб берганлар. Шу билан бирга маълум жойга органга тегишли бўлган марказлар биологик фаол нуқталар ҳам аниқланган. Бундай нуқталарнинг умуман 700 га яқини ҳақида маълумот берилган бўлиб, бироқ кўп фойдаланиладиганлари 150 га яқин. Биолагик фаол нуқталарнинг нуқтали уқаланиши жуда кўп даврлар ўтса ҳам ўз самарасини кўрсатади ва фойдали эканлиги исботланди, ҳамда бу кунларга қадар етиб келди. Ушбу усул нисбатан оддийлиги ва онглиги билан ўз фойдасини кўрсатади ва бошқа усуллардан фарқ қилади. Нуқтали уқалаш асосан ҳам игна билан даволашдаги кабидир, ягона фарқи шундаки, биологик фаол нуқталарга игна билан эмас, балки бармоқ ёки кафт билан таъсир этилади. Биолагик фаол нуқталарни чуқур ўрганиш шуни кўрсатадики, нуқталарга таъсир этиш асаб тизимини тинчлантиради ёки фаоллаштиради, бу эса таъсир этиш усули ва техникасига боғлиқ бўлади, шунингдек, қон айланишини тезлаштиради, тўқималарни кўпайишига ички секреция безларини, бошқара олинишига, касалликни камайишига асаб толалари ва мушаклар зўриқишини камайтиришга эришиш мумкин. Таъқиқланган ҳолатлар: хавфсиз ва хавфли ўсмаларнинг пайдо бўлиши, танадаги юқори ҳарорат, силнинг фаол шакллари, ошқозон яра касалликлари, кескин кўнгил айниши қон касалликлари, руҳий касалликларини қўзғалган ҳолатлари, ҳомиладорлик ва қарилик. Шу билан бирга нуқтали уқалаш оч қоринга ва ҳаво босими кескин камайган ҳолатда ҳам амалга ошириб бўлмайди.

Нуқтали уқалаш методикаси: Биологик фаол нуқталарни иложи борича аниқ топиш, айниқлаш муҳимдир. Хитойда нуқталарни аниқ топиш учун индивудиал шундан фойдаланишган. Индивидуал цунь-3 чи бармоқни (эркакларда чап кафтнинг аёлларда ўнг кафтнинг) букиш натижасида ўрта фаланга бумалари орасидаги ҳосил бўлган масофа ҳисобланади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўлчов бирлиги сифатида қабул қилинган абсолют цунь 2,5 см.га тенгдир.

Болалар, ўсмирлар ва катталарни уқалашга тайёрлаш.

Уқалашдан олдин бўшашиш; атрофдаги ўй-хаёллардан вақтинча холис бўлиш керак, қўлни иситиб, ҳамда бармоқ учи билан нуқтани аста пайпаслаб топиш талаб этилади. Биологик фаол нуқталарни босишда оғриқ ёки санчиқ ҳисси юз беради, босишни бармоқ ёстиқчалари билан амалга ошириши талаб этилади. Нуқталарни босиш қўпол кескин бўлмаслиги, қаттиқ оғримаслиги ёки кўкариб кетмаслиги қатъийдир. Бу жараён бармоқ ёки кафт оғирлиги билан тўхтовсиз енгил силаш ёки босишни ҳис қилдириши керак. Агар бола оғриётгани (айтса-астароқ уқалаш зарур, агар бош айланиш юзага келса уқалашни тўхтатиш керак. Бармоқ ҳаракатлари тўхтовсиз равишда, горизантал соат стрелкаси бўйича айлантириш ёки тебратиш маълум миқдорда босиш билан бирга алмаштириб юборилади. Қадимги Шарқ китобларида тинчлантирувчи уқалашни қуёш ботгандан сўнг, тўлин ой вақтида қилиш орқали таъсир этиш ёки таъсир кучини аста-секин ошириб бориш орқали бармоқ ёстиқчалари билан босиш ва чуқурчада бармоқни ушлаб туриш орқали бажарилади. Бу усулни 3-4 марта қайтариш керак бўлиб, ҳар гал бармоқларни нуқтадан олмаган ҳолда дастлабки ҳолатга қайтарилади ва яна қайта бажарилади. Ушбу усул шунингдек, ҳавотирли ҳолат асаб бузилганида ўз самарасини беради.

Тетиклантирувчи уқалаш; янги ой чиққанда кўпроқ самара беради. У қисқа вақтга қаттиқ босиш ва нуқтадан бармоқни тез, кескин олиш билан ажралиб туради.

Тетиклантирувчи усулга узилишини тебратиш ҳам мисол бўла олади. Таъсир этиш вақти 0,5-1,0 дақиқадир. Бу усул шунингдек, тутқаноқ вақтида ва жисмоний толиқишда ҳам ўз самарасини беради. Коррекцион педогогикада биологик фаол нуқталарни уқалашни бош миянинг органик жароҳатланиши асоратлари натижасида хулқ ва ақлий ривожланишида нормадан четга чиқиш кузатилган болалар билан ишлашда (асорат билан кечган ҳомиладорлик, инфекция, туғруқ вақтида трамвалар, бош мия жароҳатлари) қўллаймиз. Болаларнинг ушбу тоифага кирувчи қисми барча болалар муассасаларида кўп учрайди. Уларни жуда тез толиқишлари, асаб тизимининг бузилганлиги, диққатларини қийин йиғиши, иш қобилиятларини турғун эмаслиги, паришонхотирлик, юқори қўзғалувчанлик, фикрларни тормозланиб қолиши, уришқоқлик ёки аксинча пассивлик, депрессив ҳолатдаги юришлар, йиғлоқилик каби белгилардан ажратиш мумкин.

Биз биологик фаол нуқталарга таъсир этиб, гипертонусни бўшаштириш мушаклар функцияни фаоллаштириш ёки фаоллигини нормага келтириш, вегетатив ёки трофик бузилишларни пасайтириш, болани умумий ҳолатини яхшилаш, унинг ишчанлигини ошириш, нутқ марказларини қўзғалувчанлигини нормага келтириш, нутқнинг асаб тизими томонидан бошқарилишининг бузилишини қайта тиклаш мумкинлигига амин бўлдик.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Нуқтали уқалаш оддийлиги ва аҳолининг кенг қатлами учун қулайлигига, ёши бўйича, чегарага эга эмаслигини ҳисобга олган ҳолда; биз ота-оналарга уй шароитида нуқтали уқалашни амалга оширишни ўргатишга ҳаракат қилдик. Коррекция ишлари қанча эрта бошланса, самараси ҳам шунчалик яхши булади. Биз ишлашимиз жараёнида нуқтали уқалашни дастлабки босқичларида қўллаймиз, кейин эса болаларга ўз-ўзларини уқалашнинг элементларини ўргатамиз. У ёки бу нуқсон билан оғриётган катта ёшдаги инсон ҳам ўз-ўзини нуқтали уқалаши мумкин.

Ҳар куни ўтказиладиган ва узоқ муддатни ташкил қилувчи машғулотларга тайёрланиш керак бўлиб, улар қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилади:

Бунда биринчи ва иккинчи курслар орасидаги оралиқ 7 кун; иккинчи ва учинчи курслар орасидаги оралиқ 3 ойдан иборат. Сўнгра курслар 2-3 йил давомида ярим йил оралиғи билан такрорланади. Бу курс 15 та даволаш жараёнидан иборат бўлиб, нуқтали уқалаш 30 дақиқадан ошмаслиги лозим. Нуқтали уқалашнинг самараси боладаги нутқий нуқсонни даражаси, хулқи компенсатор имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ҳар-хил бўлиши мумкин. Айрим ҳолларда биринчи курсдан кейин айрим яхши ўзгаришлар кузатилади, лекин бу уқалашни тўхтатиш керак дегани эмас. Агар яхши  натижа бермаса  ҳафа бўлиш керак эмас, вақт ва матонат талаб этади. Халқимиз бекорга “Сабрнинг таги сариқ олтин” деб айтмаган. Матонат ва меҳнат албатта уз натижасини беради. Курслар оралиғидаги оралиқ  вақтда касалликнинг кайтарилиши мумкин, бу ҳолатда уқалашни дарҳол бошлаш зарур. Коррекцион ишда энг муҳими вақтни, қўлдан бой бермаслик керак.

Бу ишларни амалга оширишда гигиеник талабларга ҳам қатъий амал қилиниши шарт.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конститусияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.–48 б.

4. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни 2020 йил 23-сентябр.

5. “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сонли Қарори.

6. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

7. Аюпова М.Ю. Логопедия. Дарслик. Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007.

8. Нуркелдиева Д.А., Аюпова М.Ю., Ахмедова З.М. Бармоқлар машқи ва логопедик ўйинлар. Тошкент “Янги аср авлоди” 2007.

9. “Қувноқ логоритмика” Д. Джуманова, Ю.К. Прусакова, методик қўлланма, 2009 йил.

10. Ш.Зияев, Р.Плиева, М.Зияева. “Логопедик массаж усуллари” - Т.: “TAMADDUN”, 2022.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Зияева Моҳидил Бахтиёровна,**

**Ҳ.Худойбердиева номидаги**

**Ижод мактаби ўқитувчиси.**

# ЎҚУВЧИЛАРДА УЧРАЙДИГАН НУТҚ НУҚСОНЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ.

Ўқувчиларнинг нутқ нуқсонларини бартараф этишда аввало уларнинг ёш хусусиятлари ҳисобга олинади.

Нутқ нуқсонларини кореккциялашга йўналган психологик-педагогик ишлар комплексининг қисми у коррекцион таъсирининг ишнинг бошланғич босқичларида логопедик уқалаш орқали амалга оширилиши мақсадга мувофиқ саналади.

Кўпгина ҳолларда нутқ органларини уқалаш логопедик таъсирларнинг зарурий натижаси ҳисобланади, бунда техник таъсирларнинг фаол методи, мускуллар аҳволини ўзгартириб, асаб қон томирлари ва нутқ аппарати переферик толаларига таъсир кўрсатади. Логопедик массаж логопедик техникаларидан бири бўлиб, нутқ талаффуз томони, юзнинг эмоционал (ҳиссий) тузилишига таъсир этади.

Артикуляцион бузилишларда логопедик массаж пассив, пассив-фаол ва фаол артикуляцион машқлар билан олиб борилади.

Нутқ нафаси, овоз, ҳиссий нормаллаштиришда уқалаш анаънавий логопедик ёки релаксацион машқлар билан фойдаланилади.

Логопедик массажни логопед-дефектолог ёки логопедик уқалаш малакаларига эга бўлган, яъни мускулларнинг анатомиясини ва физиологиясини биладиган, махсус курсларни ўтаган, мутахассис бўлиши ва нутқ фаолиятини ривожланиши, нутқ камчиликларининг этиопатогенезидан ҳабардор бўлиши керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Уқалаш элементларини ота-оналарга махсус инструкторлар ўтиб ўқитиш орқали амалга ошириш мумкин.

Логопедик массаж (уқалаш маъносида) коррекцион – педагогик таъсир этувчи методлардан бири бўлиб, бир қатор оғир нутқ камчиликларида қўлланилади, бироқ бу борада чиқарилган методик маҳсулотлар логопедик амалиётда ҳали кенг қўлланилмайди. Аммо логопедик массаж усулининг қўлланилиши фойдадан холи эмаслигига ҳеч қандай мутахасис қаршилик билдирмайди, хусусан, нутқнинг оғир бузилишларида; дизартрия, ринонолия, дудуқланишларда алоҳида массажлардан фойдаланилади.

Массаж инсон танасига жисмоний ва бақувват таъсир қилиш усулларидан биридир. У инсонни тинчлантиради, оғриқни енгиллаштиради, касалликни енгишга, ақлий, нутқ ва жисмоний ривожланиш жараёнига ёрдам беради.

Ҳеч бир халқ массаж яратиш ва методикаси ишлаб чиқилишини ўз ҳисобига ёзиб қўя олмайди. Одам бу содда, самарали муолажага қачон мурожаат қилганини аниқлаш мушкул. Эҳтимол бу касаллик кескин оғриқни сезган узоқ аждодларимиз шикастланган жойни жадал ишқалаган пайтидан, қадим замонларда содир бўлгандир. Массаж қадимий Хитой, Хиндистон, Кадимий Греция, Римда кенг тарқалган эди. Лекин шубхасиз, массаж ривожланиши тарихидаги энг олий ўрин Грецияга тегишлидир. Бу ерда илк бор уни турли жисмоний машқларда татбиқ қила бошладилар. Бу ерда у нафақат соғликни мустаҳкамлаш ва асраш усулларидан бири, балки касалликни даволаш энг яхши воситаси сифатида тасдиқланади. Масалан, тиббиёт отаси бўлмиш Гиппократ, хусусан, елка чиқишини даволаш ҳақида ёзган! "... Шифокор массажда ҳам тажрибали бўлиши керак, сабаби массаж жуда кучсизланиб қолган бўғимни боғлаши ва жуда қаттиқ бўғимни юмшатиб юбориши мумкин!". Айтилганидек, массаж қадимда бутун дунёда ишлатилган, факат ўзининг методикаси ва хусусиятлари, шифокори, табиатшунос Абу Али Ибн Сино (Авицена) ўзининг "Тиббий фан қонуни" китоби "Йиллар орасида силжиганлар учун массаж ҳақида"

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

(катта ёшдаги одамлар) бўлимида массаж ҳаммага зарур, фақат бир хиллар учун енгил, бошқалар учун эса кучли бўлиши кераклиги ҳақида ёзган. Ва уни каттиқ мато ёки қўллар билан қилиш кераклигини тавсия этган. Ҳозирда массаж нафақат ўз аҳамиятини йўқотмади, балки энг катта машхурликка эга бўлди. Шундай қилиб, массаж беморларни операцияга тайёрлашга ёрдам беради, ундан ва тикланиш давридан сўнг керакли тикланиш воситаси ҳисобланади, узоқ ётишдан сўнг мушаклар атрофияси билан курашишга ёрдам беради

"Массаж" (уқалаш) деганда инсонга хуш ёқувчи, ёқимли, соғломлаштирувчи усуллар кўз олдимизга келиши аниқ. Массаж сўзи французчадан олинган бўлиб, ишқалаш маъносини беради. Араб тилида эса охиста тегиш маъносини англатади. Лотинчада эса "Масса" - бувала", қўллар билан босиш маъносини англатади. Қадимги яхудий тилида "машин" – пайпаслаб кўриш маъносини англатади. Грекчада эса "Массо" – қўл билан сиқиш маъноларини англатади.

Массажнинг эрамиздан аввалги 2500 йил олдин пайдо бўлганлиги ҳақида маълумотлар бор, улар фақат тасвирий кўринишда гувоҳлик беради.

Қадимги Мисрликлардан бизгача тошларга ўйилган суратлар орқали етиб келган.

Массажнинг ривожланишига Шарқнинг буюк олими Абу Али ибн Сино жуда катта ҳисса қўшган бўлиб, даволовчи массажни соғломлаштиришга хизмати ҳақида ўзининг қимматли фикрларини ёзма манбааларда қолдирган. "Тиб қонунлари" китобида инсоннинг организмига массаж қилиш ва унинг усулларининг қай даражада фойдалилиги ҳақида ёзиб қолдирган. Кучли массаж – баданни мустаҳкам қилади. Узоқ қилинган массаж – танани оздиради. Мунтазам қилинган массаж – танани ўстиради, яйратади.

Массаж ҳар хил ёшдаги инсонлар учун тетиклик ва кайфият бағишлайди. Куч-кувватни тиклаш, саломатликни яхшилашга хизмат қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Массажнинг тарихи бу соғликнинг, кувватнинг ва гўзалликнинг тарихидир.

Нутқ нуқсонларини коррекциялашда массаж усуллари. Логопедик массаж - техник таъсирларнинг фаол методи, мускуллар аҳволини ўзгартириб, асаб қон томирлари ва нутқ аппарати переферик толаларига таъсир кўрсатади. Логопедик массаж логопедик техникаларидан бири бўлиб, нутқ талаффуз томони, юзнинг эмоционал (хиссий) тузилишига таъсир этади.

Логопедик амалиётда уқалашдан фойдаланишнинг кўрсатмалари. Ҳар қандай соматик ёки инфекцион касалликлар массажни ўтказишга салбий таъсир кўрсатади. Шунингдек, тери кассалликлари стоматит оғиз бўшлиғидаги юқумли кассалликлар, лимфа безларидаги шишлар ҳолатида массаж ўтказилмайди. Массаж курсини қабул қилишдан олдин невропатолог ва педиатр хулосалари керак.

Массажни олиб бориш учун умумий тавсиялар. Логопедик массаж; тоза, иссиқ ва яхши такомиллашган хонада ёки бинода ўтказилади. Муолажа ҳафтада 2 марта кун ора олиб борилади.

Бошланғич даврда муолажа 5-7 минут, тугаш даврида 20-25 дақиқа давом этади.

Массажни бошлашдан олдин мутахассис ота-оналарга массажнинг зарурлигини ва саралилигини тушунтириш керак. Массаж давомида бола оғриқни сезмаслиги керак. Шуни инобатга олиш керакки тил ва оғиз бўшлиғини массаж қилинганда болаларда ёқимсиз сезги кузатилади. Агар бола тормозланган ёки машғулотга нисбатан салбий муносабатда бўлса, массажнинг бошланғич даври қисқа ва тил учи, лаблар, юқори ва пастки жағларни силаш билан чегараланган бўлиши керак. Массажни жароҳатланган жойлардан бошлаш тавсия этилмайди. Жароҳатланган жойга аста-секинлик билан ёндашиш керак. Амалиётдан маълумки, муолажада ёқимсиз сезгилар болаларда тез йўқолиб боради.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Бирламчи диагностика (ташхис). Логопедик уқалашни тайинлашда врач томонидан тиббий хулосани ўтган ҳолда бажариш мақсадга мувофиқдир. Тиббий хулоса невролог симпоматикани мавжудлигини кўрсатади. Шу билан бирга парез (фалажи) ни борлигини, мускулларни локал бузилишларини кўрсатади, қоидага кўра логопедик массаж врач тавсиясига кўра ўтказилади. Иш бошлашдан олдин логопедик нутқ нуқсонини тузилиши турлари шакли аниқланиб олиниши, шундан кейин керакли уқалаш олиб борилади. Маълумки, уқалаш ўтказилиш кераклигини асосий сабаби мускуллар тонусини яхшилаш. Улардаги бузилишларни нормаллаштиришдир. Айрим вақтларда логопед медицина хулосасига қарамасдан мустақил равишда мускуллар ҳолатини диагностикасини олиб бориш мумкин. Бу ҳолат логопедга аниқ уқалаш усулини белгилашга ёрдам беради.

Логопед қуйидаги мушаклар ҳолатини аниқлайди:

Танани юқори ярим қисми:

Бўйин:

Мимик мускуллар:

Артикуляция мушаклари.

Бу кўриниш, пайпаслаш. Динамик ва статистик машқлар бажаришда кузатилади.

Кузатиш. Болани кузатаётганда бошини танага нисбатан туришига, одатий ассиметрик ҳолатлар йўналишига аҳамият берилади. Юриш кўришда бурун – лаб қатламларини силлиқлигига. Оғиз бурчагига. Кўз айлана қовоқлар атрофига ва оғизни очиқ. ёпиқ ҳолатига, сўлак оқиши. Оқимаслигига эътибор берилади. Шунингдек, тери қисмларини тузилиши массажни олиб боришда тери ҳолати катта рол ўйнайди. Чунки массаж тери қатламларига таъсир этиб ўзгаришлар ҳосил қилади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: "Ўзбекистон", 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. "Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз" мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: "Ўзбекистон", 2016. – 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. "Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови" мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конститусияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017.–48 б.

4. Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги Қонуни 2020 йил 23-сентябр.

5. Аюпова М.Ю. Логопедия. Дарслик. Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007.

6. Ш.Зияев, Р.Плиева, М.Зияева. "Логопедик массаж усуллари" - Т.: "TAMADDUN", 2022

7. "Қувноқ логоритмика" Д. Джуманова, Ю.К. Прусакова, методик қўлланма, 2009 йил.

8. Нуркелдиева Д.А., Аюпова М.Ю., Ахмедова З.М. Бармоқлар машқи ва логопедик ўйинлар. Тошкент "Янги аср авлоди" 2007.

# XALQNI ROZI QILISH KONTSEPSIYASI

**Jizzax viloyati Mirzachòl tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi**

**To'xtamisheva Xolida**

## Annotatsiya

Hech kimga sir emaski, so'nggi yillarda barcha soha va yo'nalishlarda fundamental islohotlar amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uning birinchi maqsadi etib belgilangan. Mazkur maqolada ham xalqni rozi qilish kontsepsiyasi haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, strategiya, Xalqaro hamjamiyat, taraqqiyot, g'oyaviy mazmun, ma'rifat markazi;

## Kirish

Umuman olganda, jamiyat manfaatlari va istiqboliga mutlaqo zid keladigan bu kabi holatlarga barham berish orqali metin bardoshli xalqimiz iroda ko'rsatib, istiqlol deb atalmish ulug' nematga ega bo'ldi. XX asrning so'nggi choragida sobiq sovet davlatining qulashi natijasida ayrim mamlakatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ham 1991-yilda o'z mustaqilligini elon qilib, Xalqaro hamjamiyatning to'laqonli subyektiga aylandi. Har qanday millat, xalq o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan o'zing yashashini va kelajagini ta'minlovchi asoslarini yaratishi ham lozim. Bunday asoslar mustaqilikka erishgan mamlakatning iqtisodiyoti qay tarzda tashkil etilganligi, xalqning qanday huquq va erkinliklarga ega bo'lganligi, davlat hokimiyati qo'liga qanday vakolatlar berilganligi hamda xalqning qanday ma'naviy-madaniy imkoniyatlari borligiga,ularning g'oyaviy mazmuni qanday bunyodkor mafkuralar tizimiga asoslanganligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi xalqlarning mustaqil hayot kechirish faoliyatlarining asoslari hisoblanadi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Asosiy qism**

Bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma’rifiy sohalardagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta’minlashga qaratilgan izchil, puxta o‘ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda.

E’tiborlisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbus asosida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma’qullandi.

Rezolyutsiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e’tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

Inson qadri ulug‘lanayotgan yurtimizda Prezidentimiz 2021-yil 5-iyulda imzolagan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilingani jamiyatdagi juda ko‘p masalalarni yechdi. Mazkur hujjat o‘zining xalqchilligi, jamiyatdagi barcha masalalarga eng haqqoniy va adolatli javob berishi bilan ahamiyatlidir.

Yangi tahrirdagi ushbu qonun AQSH, Yevropa Ittifoqi va boshqa ilg‘or davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha markazlari hamda xalqaro tashkilotlari mutaxassislari taklif va tavsiyalarini o‘rgangan holda ishlab chiqildi. Yangi qonunning oldingisidan asosiy farqli jihatlari shundaki, unda fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlari kuchaytirildi, har bir inson haq-huquqini ta’minlashning yangi mexanizmlari joriy etildi, shuningdek, davlatning din ishlari bo‘yicha siyosati takomillashtirildi.

Yana bir asosiy jihat – diniy ta'lim tizimidagi yangiliklar alohida muhim o'rin tutadi. Islom dini rivoji yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk bobolarimizning diniy va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Toshkentda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ochilgan. Shuningdek, uchta yirik oliy diniy ta'lim va 10 ta o'rta maxsus islom bilim yurti faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa, o'zining mahobati va Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotgan yurtimizda ilmiy salohiyati tufayli ma'rifat maskaniga aylanishi kutilayotgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi xususida alohida to'xtalib o'tish joiz. Zotan, xalqimizning boy diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadigan mazkur ilm-ma'rifat markazi hozirdanoq o'z mahobati, amalga oshirayotgan ma'naviy, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan butun dunyo havasini keltirmoqda.

Yurtimiz aholisining diniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda bir necha diniy oliy ta'lim muassasalarida "Qur'oni karim va tajvid" o'quv kurslari tashkil etilgani yanada ahamiyatlidir. Bu bilan aholining diniy bilimlarni egallashga ehtiyoji to'laqonli ta'minlanishiga erishilmoqda. Ayni paytda mazkur kurslarda aholining turli qatlamlari va turli yoshdagi yuzlab tinglovchilar tahsil olmoqda.

Davlatimiz rahbarining qat'iyati, tashabbusi bilan Haj va Umra ziyorati qayta tiklandi. Pandemiya tufayli ushbu muqaddas diniy amallarni bajarish imkoniyati cheklangan edi. Biroq yurtimizda bu murakkab vaziyatni bartaraf etishdagi sa'y-harakatlar natijasida aholi dinimizning muqaddas amallarini bajarish imkoniga ega bo'ldi.

Mazkur islohotlar ko'p millatli xalqimiz hayoti, farovon turmushi, yorqin istiqboli, farzandlar kamoloti va orzu-istaklari ro'yobida o'z ifodasini topmoqda.

To'g'ri yo'l doimo ezgulikka yetaklaydi. U biroz mashaqqatli, sinovlarga boy bo'lishi tabiiy. Yurtimizdagi diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar nafaqat vatandoshlarimiz, balki

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

xalqaro maydonda nufuzli insonlar tomonidan e'tirof etilayotgani quvonarlidir. Jumladan, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida Saudiya Arabistoni Podshohligining Toshkentdagi favqulodda va muxtor elchisi Yusuf al-Utaybiy bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot davomida so'nggi yillarda islom ilm-fani va madaniyatining boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, eng muhimi, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish uchun xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa ta'lim muassasalari tashkil etilishi muhim qadam ekani alohida qayd etildi.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalardagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil, puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur tadbirlarda ishtirok etgan ekspertlar yurtdoshlarimizga hayotiy misollar, turli ibratli hikoyatlar orqali o'z fikr-mulohazalarini yetkazmoqda. Uchrashuvlarda milliy o'zligimiz, asriy qadriyatlarimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi xurujlar, diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlaridan xabardor bo'lish kerakligi ta'kidlanayotir.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yib, innovatsion taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston milliy taraqiyot manzili sari yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bugungi kunda yurtimizdagi tub o'zgarishlar, faol konstruktiv yangilanishlar jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongu tafakkuri o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Zotan , murakkab va serqirra jarayon bo'lmish hayot suratlarning tezlashishi har bir kishidan mustaqil fikirlash, mustahkam irodali bo'lish hamda qat'iy faol fuqorolik pozitsiyasini egallashni talab

qilmoqda. Milliy yuksalish har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanishi, ularning turmush-tarzi yaxshilanishi bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayondir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б..

2 Qarang: Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2.  Т., 1996.– Б.

3.Egamberdiyev E. Mikroiqtisodiyot asoslari. T:, «0'qituvchi» 1995.

4. I.Ergashev, O.Muhammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov, Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari,©"MASHHUR-PRESS" 2018.

5. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА БОЛАЛАР ХОТИРАСИНИ ЎРГАНИШ ВА УЛАРНИ ХОТИРАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ДОИР МЕТОДЛАР

**Маттиева Мавлуда Мусаевна**

**Сурхондарё вилояти Денов тумани**

**1-мактаб бошланғич таълим ўқитувчиси**

**Аннотация** Р. Мэйли тести ҳақида. Р. Мэйли тестининг 7 ёш ва ундан катта синалувчиларнинг хотирасини ўрганишга мўлжалланганлиги ҳақида. Тадқиқотнинг икки босқичлиги ва унинг кўриш ва эшитиш хотирасини ўрганиш босқичларидан иборатлиги тўғрисида.

Босқичда расмда тасвирланган предметларни хотирада експериментатор ўқиб берган сўзларни (предмет номларини) эшитиб эсда олиб қолиш қобилияти ўрганилади.

Р. Мэйли тести 1961 йилда ишлаб чиқилган бўлиб 7 ёш ва ундан катта синалувчиларнинг хотирасини ўрганишга мўлжалланган. Тадқиқот икки босқичдан, яъни кўриш ва эшитиш хотирасини ўрганиш босқичларидан иборат.

Босқичда расмда тасвирланган предметларни хотирада експериментатор ўқиб берган сўзларни (предмет номларини) эшитиб эсда олиб қолиш қобилияти ўрганилади. Бу тадқиқот бир пайтда ўтказилмайди, бу эса хотиранинг ўрганилаётган жиҳатларини чуқурроқ таҳлил қилиш имкониятини беради.

Тажриба ўтказиш учун турли предметлар тасвирланган 60 та сўзлар тўплами 2 қатори берилади. Кўриш хотираси ўрганилаётганда қуйидаги кўрсатма берилади. "Сизга турли предметлар тасвирланган расмлар кўрсатилади. Сиз уларнинг номини исталган тартибда айтишингиз керак". Расмларнинг ҳар бири 2 сония кўрсатилади. 10 сония танаффусдан сўнг синалувчи предметлар номини айтади. Экспериментатор тўғри айтилган предметларни ҳам, хато айтилган жавобларни белгилаб боради. Расмларнинг 2 сериясини бошқа куни, сўзлар қатори бўйича тажрибалар ҳам бошқа кунлари ўтказилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| 1-босқич | | 2-босқич | |
|---|---|---|---|
| **Расмларнинг 1-серияси** | **Расмларнинг 2-серияси** | **Расмларнинг 1-серияси** | **Расмларнинг 2-серияси** |
| нўхат | чиғаноқ | картон | жадвал |
| эшак | кроват | вагон | ҳафта |
| калит | труба | деҳқон | сўм |
| арава | нок | пианено | қарға |
| қўнғирокча | супурги | туфли | автобус |
| стол | эчки | харита | ари |
| олча | букет | тепалик | кўзойнак |
| этик | транвай | ушоқ | сув |
| вилка | арра | пиёла | овчи |
| балиқ | стул | кўмир | куй |
| бочка | бола | олмохон | булут |
| бош | болға | қирол | терак |
| буфэт | шиша | йигитча | қалам |
| атиргул | машина | апелсин | велосапед |
| парвоз | тароқ | дастурхон | ботаника |
| крэсло | замбарак | шўрва | айиқ |
| байроқ | дарахт | палто | салон |
| хўроз | олма | мушук | соғил |
| қайчи | китобча | пичоқ | бурун |
| зонтик | шилияпа | таклифнома | қопқоқ |
| кўза | уй | сирка | меҳмонхона |
| сигир | ит | гул | совун |
| диван | скамейка | меҳнат | илон |
| каптар | эшик | осмон | това |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| | | | |
|---|---|---|---|
| соат | риёла | гугурт | қуш |
| қария | дарё | сиёҳ | салат |
| кўзойнак | телифон | қулф | ракэта |
| чироқ | скрепка | кул | нонушта |
| ойоқ | тамаки қутиси | сойабон | қор |
| гитара | от | ёнғин | фаввора |

Эшитиш бўйича экспремент ҳам шундай ўтказилади. Синалувчига қўйидагича кўрсатма берилади. "Сизга турли предметлар номи ўқиб эшиттирилади. Сиз уларни номини исталган тартибда айтишингиз керак". Экспериментатор тўғри айтилган предметларни ҳам, хато айтилган жавобларни ҳам белгилаб боради. Олинган натижалар фоизлар миқдорий ўлчаш орқали таҳлил қилиниши мумкин.

Экспериментатор болаларнинг ёшига қараб жадвалдаги сўзларни белгилаш мумкин. Бунда сўзлар сони 1- синфлар учун 15-20 тадан ошмаслиги керак. Жадвалдаги сўзлар ўрнига арифметик рақамлар ҳам қўйиш мумкин.

**ПИКТОГРАММА МЕТОДИКАСИ.** Методикани ўтказишдан мақсад: Пиктограмма методи ёрдамида ассотциятив жароёнлар, ёрдамида тушунтириш ва фикрлаш хусусиятлари аниқланади.

Методикани ўтказиш тартиби : Синалувчига стимул сўзлар ёзилган қоғоз берилиб, ҳар бир сўзни рамзий расмлар орқали ифодалаш таклиф этилади. Расмнинг сифати аҳамиятга эга эмаслиги таъкидланади.

**Стимул сўзлар:**

1. **Касаллик**
2. **Ғам-қайғу**
3. **Хурсандчилик**
4. **Севги-муҳаббат**

9. **Билим**
10. **Байрам**
11. **Бойлик**
12. **Кекса киши**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| | |
|---|---|
| **5. Ғалаба** | **13. Шифокор** |
| **6. Дўстлик** | **14. Бахт** |
| **7. Уруш** | **15. Ўқитувчи** |
| **8. Хайрлашув** | **16. Билим** |

Тажриба байённомасида шахснинг расм ва унинг изоҳи ҳақидаги фикрлари ёзиб борилади. Синалувчи чизган расмлар иложи борича кенгроқ изоҳлаб бериш керак. Экспериментатор қуйидагиларга эътибор бериши лозим:

1. Стимул сўзи билан чизилган расмнинг ўзаро боғлиқлиги;
2. Синалувчининг сўзлари қанчалик рамзлар ёрдамида ифода эта олиш;
3. Пиктограмманинг ҳиссий бойлигига эътибор бериш.

Бола хотирасини кучайтириш ва яхшилаш учун бир қатор тавсиялар мавжуд .Кўпинча болаларда хотиранинг пасайиши чарчаш билан боғлиқ бўлади. Бошланғич мактаб ёшида чарчоққа мактаб ўқув дастурини ўзлаштириш қийинчилиги сабаб бўлиши мумкин. Бугунги кунда асаб тизимини ҳаддан ташқари юклаб юбориш кўпинча теледастурларни томоша қилиш ва компютер ўйинлари ўйнаш билан ҳам боғлиқ. Бола чарчамаслиги ва телевизор олдида эмас, балки тоза ҳавода тенгдошлари билан ўйнаб, дам олишига эътибор беринг.

Хотирасида нуқсони бўлган ва хатто ривожланишдан кечикаётган болаларга , сироп ва таблеткалар шаклида мавжуд интеллан препарати кўрсатилади. Мия фаолиятини рағбатланиши учун ушбу восита 3 ёшдан бошлаб белгиланиши мумкин. Педиятрия амалиётида Аминалон (таблетка) ва Пантогам (сироп шклида) ҳам кенг қўлланилади. Чарчоқни йўқотиш ва эътиборни кучайтириш учун Биотредин воситаси буюрилиши мумкин, унинг фаол компетентлари пиридоксин ва Л-терионим ҳисобланади.Организмда бу таркибий қисмлар глиценга айланади, у эса мия тўқималарида модда алмашинувини яхшилайди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Бола хотирасини мустаҳкамлаш учун унинг фикрлаш доирасини кенгайтириш керак. Масалан бола шеър ёд олаётганда "олма" сўзи учраб қолса, унинг фикрида бу жумла нафақат юмолоқ шаклидаги мева билан балки бозор расталаридаги мевалар, филимдаги қип- қизил олма, шарбат қутисидаги расм , умуман олганда бошқа нарсалар билан боғланиши керак, ана шундай боғламлар қанчалик кўп бўлса эста тутиш қобилияти шунчалик кучли бўлади. Масалан телифон рақамдаги сонларни маълум ҳаётий ҳодисалар билан боғлаш, ҳар бир соннинг бош ҳарфини кетма-кет қўйиб, ҳосил бўлган сўзни эслаб қолиш мумкин. (Баъзан кулгули сўзлар ҳосил бўлиб қолиши мумкин) Бундай боғлиғликларни чексиз амалга оширса бўлади, бу хотиранин кучайтиришнинг энг мухим сири.Масалан 4 сонинг бош ҳарфи Т, 3 сонинг бош ҳарфи У, 9 сонинг бош ҳарфи Т, демака "Тут" сўзи ҳуосил бўлди. Яна бир мисол 8 сонинг бош ҳарфи С, 3 сонинг бош ҳарфи У, 4 сонинг бош ҳарфи Т, демак "Сут" сўзи ҳосил бўлади.

| 4 | 3 | 9 |
|---|---|---|
| Т | У | Т |

| 8 | 3 | 9 |
|---|---|---|
| С | У | Т |

Биз бу хотира машқларини ўз ўрнида қўллаб борсак мустақил Ўзбекистонимизнинг келажаги бўлган хар томонлама етук фарзандларни, интеллектуал салоҳияти баланд авлодни тарбиялашга ўз ҳиссамизни қўшган бўламиз.

**Адабиётлар**

1. **С.Х Жалилова, Н.А Ғайибова -"УМУМИЙ ПСИХОДИАГНОСТИКА"**
2. **Интернет ресурслари**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Мактаб тарих дарсларида ўлкашуносликни ўрганиш ва бунда этнография, топонимик манбаларнинг роли

Сафарова Гулчехра Абдурашитовна

Сурхондарё вилояти Қизириқ тумани

17-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада ўлкашуносликни ўрганиш ва бунда этнография, топонимик манбаларнинг роли, этнография, Қанғли – Қипчоқ, этнология, санъат, фольклор, этник ва оилавий тузум, лексикограф, этногенез, антропология, Фарғона этнографик экспедитсия, “Ҳудуд ул-олам”, топономика, Микро топономика, Микробика, Объект, Ном, Экспликация, Этнография, Этимологик, Семантик хусусида сўз юритилади.

.

Мактабларда нафақат тарих дарсларида балки синфдан ташқари ўтказиладиган “Ўлкашунослик тарихи” тўгараклари машғулотларида ўлкашуносликни ўрганиш ва бунда этнография, топонимик манбаларнинг роли беқиёсдир.

Этнография халқлар ҳақидаги фан бўлиб, у халқни ўрганувчи, таърифловчи фан ёки халқшунослик фани деб ҳам юритилади. Этно-графия сузи лотин тилидан олинган бўлиб, “Etnos”- халк, “Grafos”- таъриф деган маънони англатади.

Этнография- дунё халқларининг маданиятини, маиший хаёти-ни, келиб чикиши ва маданият тарихини, узаро алоқа ва муносабат-ларини ўрганувчи тарихий фандир.

Этнография тарихий фанлар, айникса археология, антрополо-гия, география ва тилшунослик билан бевосита боғлиқдир. Бундан ташкари у ёзма манбалар, географик хужжатлар, моддий ва маи-ший материалларда ҳам фойдаланади.

Мана шу хусусиятлари билан этнография бошка фанлардан фарқ қилади.

Инсон ақл-заковати ва кули билан яратилган ҳамма нарса маданият этнографиясидир. Маданият ҳам уз навбатида иккига бу-линади:

1. Моддий маданият;
2. 2. Маънавий маданият.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Этнография фақат моддий маданият билан маънавий мааният ўртасидаги асосий фарқларнигина ўрганиб қолмай, балки улар ўрта-сидаги ухшашлик, умумий қонуниятларни ҳам ўрганади.

Бу қонуниятларни тадкик қилиш эса, инсониятнинг умумий тарихий тараққиёти қонунларини билиш имкониятини беради. Этнографлар олдида тўрган кенг ва хилма-хил масалалар этнография фанини бошка яқин фан соҳалари билан узвий боглабгина қолмай, унинг узини ҳам, бир катор ихтисосларга бўлиб юборди.

Булар:

1. Хўжалик ва техника тарихи;
2. Халқ меморчилиги ва тасвирий санъат:
3. Урф-одат ва маросимлар;
4. Этник оилавий тузум,
5. Кийим-кечак ва уй-рузғор;
6. Ижтимоий ва маиший турмуш ихтисослари ва ҳоказолар.

Одатда этнография айрим қитъалар, мамлакатлар ёки халқларга қараб, урф-одатлари ҳақида маълумот беради.

Ўзбек халқининг келиб чикиши ҳақида хар хил чалкаш фикрлар илгари суриб келинаётган эди. Қачонки, Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг бу мураккаб ва чалкаш масалани ечимига ўзбекча, кенг ва ҳақиқий бахо бериш имконияти пайдо бўлди.

Собиқ совет даврида айрим тадқиқотчилар ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихини шайбонийлар даври истилоси билан боғлайдилар.

Маълумки Дашти Қипчокда ташқил топган Оқ Ўрда ва Шайбон улусида, яъни Сирдарё, Орол денгизи ва Волга бўйлари оралиғидаги кенг ҳудудда кўчиб юрган, XIV асрнинг ўрталаридан бошлаб ўзбеклар деб юритилаётган турк-мўғул қабилалари билан боғлаб нотўғри хулосага келинди.

Масалан: С. А. Токарев ***"Основы Этнографии"*** (М. 1968) ва И. Жабборов ***"Ўзбек халқ этнографияси"*** ("ФАН" нашриёти) асарларида шу фикр илгари сурилади.

С. Л. Толстов, А. Ю. Якубовский, Я. Г. Гуломов, М. Г. Вахобов ва бошкалар ўзбек халқининг бошлангич ядроси Ўрта Оси-ёда яшаган қадимги суғдийлар, хоразмийлар, сак қабилалари ва масссагетлар, кейинрок кўчманчиликдан деҳқончиликка утиб туркий тилда суздашувчи чигил, қарлуқ яғмо, арғун каби гуруҳлардан иборат эканлигини, ўзбек элатининг асоси XI-XII асрларда тугаганлигини ва XVI аср бошларида пайдо бўлган кўчманчи Шайбоний ўзбекларининг ўзбек халқининг қадимги ядросига аралашиб кетиб, факат уз

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

номинигина берганлигини кучли далиллар, факт ва материаллар билан исботлаб берганлар.

Қадимги Турон ерларида яшаган ўтроқ деҳқон ва кўчманчи чорвадор аҳолининг асрлар давомида яқиндан олиб борган иктисо-дий ва этник алоқалари натижасида бу ҳудудда даставвал қадимий ёзма манбаларда Суғд, Хоразм, Паркана, Шак ва Тохар номлари остида тилга олинган като воха халқлари ташқил топади.

Милоддан аввалги I мингйилликнинг ўрталарида Туркий қабилаларнинг жануб томон бошлаган силжишлари милод бўсағасида Ю-эчжи ва хуннларнинг кириб келиши билан янада кучайди.

ЎзФАнинг Тарих ва Археолгия институтлари томонидан уюш-тирилган кўп йиллик самарали ишлари натижасида ўзбекларнинг авлод аждодлари қадимдан ўтроқ, йирик суғориш ишларига асосланган, деҳқончиликка мустақил, ўзига хос юқсак маданиятга эга бўлганлиги исботланди.

Бу ҳолат Ўрта Осиё халқлари гуё тарихий халқ эмас, уларнинг маданияти Эрон ва бошка мамлакатларнин маданиятига тобе, деган ҳар хил даъволарни фош қилди ва пучга чиқарди.

Хоразмда, Чирчиқрабод, Ботишмулла, Қуйқирилганқалъа, Тупроққалъа каби ёдгорликлардан қазиб топилган ажойиб архитектура, санъат ва ёзув дурдоналари, Болаликтепа ва Панжакентда кашф этилган ҳар хил маросимларни тасвирловчи ранг-баранг расмлар ва Варахшанинг гўзал жангчи хайкали ва безаклари бутун антик давр ичида қурилган хашаматли шаҳар ва қалъалар дабдабали  суғориш иншоотлари, бепоён экинзорлар ўзбек ва бошқа Ўрта Осиё халқларининг узоқ ўтмишда нихоятда зўр иккисодий ва маданий  тараққиётга эга эканлигини яққол кўрсатиб турибди.

VII-VIII асрларда Туркий аҳолининг катта қисми Еттисув, Шош ҳамда Фарғона водийларида, камрок қисми Зарафшон ва Каш-кадарё вохаларида яшар эди. Улар туркийлар тилини қабул қилган туб жой аҳолидан ҳамда бу ерга келиб ўрнашган кўпгина туркий қабила ва уруғлардан иборат эди. Айрим Суғдий хужжатларда келти-рилган маълумотларга қараганда туркий аҳоли урнашган бу ўлка VII асрдан бошлаб, Туркистон номи билан атала бошлаган.

Айни замонда Еттисувда урнашиб қолган Суғдийларнинг  со-ни ҳам анчагина эди. Улар бу ерга асосан халқаро савдонинг кенга-йиши ва бу савдодан манфаатдор Суғднинг V-VII асрлада олиб борган ҳарбий юришлари оқибатида келиб қолган эдилар. Суғдларнин савдо ва хунармандчилик манзиллари Талос ва Чу водийларида Чимкентдан то улуг Хитой деворигача бўлган ерларда жойлашган.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Узоқ асрлар давомида шаккланиб келган юқори даражадаги маданий замин булмаганида илк феодализм даврида ва IX- XII асрларда бутун Ўрта Осиё шу жумладан Ўзбекистонда фан ва маданият гуркираб усиб, жахонга Абу Али Ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Муҳаммад ибн Мусо Ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий каби фаннинг кўп соҳаларини мукаммал эгаллаган улугвор сиймо-ларни етказиб бериши мумкин эмас эди.

Маҳмуд Кошғарийнинг ***"Девони луготит-турк"*** номли ноёб асарида ўзбек халқининг энг қадимги туркий тилда гапирувчи аждодларимиздан бири бўлган чигил қабилалари Искандар Зулкарнайн юриш қилган даврдаёқ кўп нуфузли этнографик гуруҳлардан хисоблангани ҳақида маълумот беради.

XI асрнинг етук шоири ва олими Юсуф Хос Ҳожиб томонидан яратилган ўз даврининг зўр бадиий асари ҳисобланган ***"Қутадғу билик"*** нинг ана шу чигил қабилалари тили асосида ёзилганини ва бундай ажойиб асар агар узоқ асрлар давомида иқтисодий, маданий бирлик негизида дунёга келган умумий бир тил бўлмаган холда пайдо бўла олмаслигини ҳам эътиборга олсак, у вақтда ўзбек халқининг тили ниҳоятда узоқ тарихга эга эканлигига ишончимиз комил бўлади.

Махмуд Кошғарийнинг айтишича, илк ўрта асрларда ҳам туркча ҳам Суғдийча сўзлайдиган, яъни икки тили бўлган ва фақат туркча гапирадиган кишиларнинг жуда кўплигини, лекин фақат суғдча сўзлайдиган кишиларнинг мутлақо йўқлигини ҳам туркий тиллар эски тилларни сиқиб чиқарганлигини айтади. Демак, ўзбек халқи эр. аввалрок, муайян бир ҳудудда ўзига хос моддий ва маънавий бирлик ярата бошлаб аста-секин тил жиҳатидан ҳам умумийликка эриша бошлаган. Натижада XI - XII асрларга келиб, ўзбек халқи асосан шаклланади.

Ўзбек халқининнг авлод-аждодлари тўғрисидаги баъзи маълумотлар қадимги ёзма манбаларда ҳам учрайди.

Қадимий Ўрта Осиё халқлари ҳақидаги маълумотлар билан қадимги юнонлар эр. авв. VII асрда Проконнеслик Каистробий уғли Аристей давридан танишадилар. Аристейнинг айтишича, у сирли сабабларга кўра Проконнесни ташлаб узоқ ўлкаларга Исседомлар яшаган жойларга саёҳатга жўнаган. Аристейнинг қадимги Ур тўғрисидаги маълумотлари ёзма адабиёт тарихидаги энг қадимийсидир.

Эрамиздан аввалги VII-VI асрларда шаклланиб, ривож топган Юнон лирикасида айниқса Алиман ва Тимдар асарларида ҳам Ўрта Осиё халқлари ҳақида маълумотлар бор.

Эсхил Бактриялик баъзи лашкарбошилар номларини келтиради: Такаган, Артам, Фарнух, Парф, Анхар, Арсам, Севалис ва бошқалар.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Бундан ташкари қадимги Хоразмийлар, Суғдийлар ва Сак ёки Массагетлар ҳақидаги айрим маълумотлар антик давр муаллифлари Милетик Гекатий, Страбон, Геродот, Арриан ва Птоломей асарлари-да қадимги Фаршлар ёзувлари ва бутун Ўрта Шаркда таркалган муқаддас китоб ***“Авесто”*** да мавжуд.

Эрамиздан олдинги II асрлардагиХитой элчиси ва сайёхи Чжи-Цзяннинг

Довон ва Қанғуй давлатлари ҳақида қолдирган баъзи маълумотлари ҳам этнографик

жиҳатдан диққатга сазовор.

Араб истилосидан кейинги асрга оид этнографик маълумотлар маҳаллий ва араб сайёҳларинин асарларида мавжуд. IX-XII аср муаллиф-ларидан Ибн Хурзодбий, Ал- Балхий, Ал-Истахрий, Ибн-Хавкал, Маъсудий, Ёкут сингари йирик биограф ва саёҳатчилар, маҳаллий муаллифлардан файласуф, мусиқашунос Абу Наср Форобий, машҳур энциклопедист олим Абу Райхон Беруний ва буюқ табиб Абу Али ибн Сино, этнограф, биограф, тарихчи олим Абу Саъд Абдушарм ибн Муҳаммад Сомоний ҳамда номаълум муаллиф яратган ***“Ҳудуд ул-олам”*** номли асарларда Ўзбекистон ҳудудида ўша даврда яшаган аҳли тўғрисида баъзи этнографик лавҳалар келтирилган.

Чингизхон билан Европа монархлари ва Рим папаси ўртасида савдо, сиёсий ва дипломатик муносабатлар ўрнатишга қизиқишди. Биринчи бўлиб папа Иннокентий IV 1245 йилда Франциялик Иоан Плано Карпини бошчилигида монархлардан иборат элчиларини юборди.

Худди шу мақсадда ва шу йул билан 1249-51 йилларда сафар қилган Плано Карпини ватандоши Вильгелм Руберкович асарида ва Венециялик Марко Поло асарларида ҳам Ўрта Осиё ўлкалари ҳақида этнографик маълумотлар келтирилган.

Қудратли ва улкан давлат ташқил қилган Амир Темур ва унинг ворислари ҳукмронлик қилган даврда Ўрта Осиё шу жумладан, Ўзбекистон йирик маданият марказига айланади ва унинг бошқа мамлакатлар билан ҳар томонлама алоқалари кучайди. Бу даврга оид қизиқарли баъзи этнографик маълумотларни испан элчиси рицар Рью Гонзалес де Клавихонинг асарида, Низомиддин Шомий, Абдураззок Самарқандий ва бошкаларнинг асарларида учратиш мумкин. Йирик давлат арбоби, саркарда, шоир З. М. Бобурнинг “Бобурнома” асарида ҳам муҳим этнографик маълумотлар кўплаб келтирилади. XVI аср бошларида Ўрта Осиёни босиб олган кўчманчи ўзбекларнинг этник таркиби, жойлашган ҳудуди, турмуши ва урф-одатлари ҳақида Маъсуд ибн Кухистонийнинг ***“Тарихи Абулхайрхоний”***, Камолиддин

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Биноийнинг ***“Шайбонийнома”*** ва Абулхайр Файзуллох Рузбеххоннинг ***“Мехмонномаи Бухоро”*** номли асарида қимматли маълумотлар келтирилган.

Биноийнинг “Шайбонийнома” асари 1450-1505 йиллар ичида юз берган ижтимоий-сиёсий воқеаларни қисқа ва лекин аниқ баён этган. У муҳим географик маълумотлар, яъни Сирдарёнинг ўрта оқимида жойлашган Сайрам, Сигнок, Арнук, Ўтрор, Туркистон, Ўзган, Оққурғон ва Хоразмга тобе шаҳарлардан Урганч, Булдумсоз, Адок ва бошқалар ҳақида ҳам маълумотлар беради.

Масалан: кўчманчи ўзбек қабилалари ва уларнинг ижтимоий-сиёсий хаётдаги ўрни учрайди.

Ўрта Осиё ва Козоғистоннинг XV асрнинг иккинчи ярмида ва XVI асрнинг бошларидаги тарихини ўрганишда Рузбеххоннинг “Мехмономаи Бухоро” асари зўр қимматга эга. Асарнинг биз учун қиймати шундаки, унда Дашти Кипчок, Туркистон ва Қозок улусининг географик ҳолати, ўзбек ва қозоқларнинг келиб чиқиши, этник таркиби, туриш-турмуши, урф-одати, шунингдек зодагонларнинг хўжаликда қўл меҳнатидан фойдаланиш ҳоллари ҳақида бениҳоя қимматли маълумотлар учрайди.

Ўрта Осиё ўзбек хонлари пайдо бўлгандан кейин, Марказлашган Рус давлати билан улар орасида мунтазам равишда савдо-сотиқ, дипломатик муносабатлар ўрнатила бошлайди. 1558 йилда Хитойга Ўрта Осиё орқали савдо йулини аниқлаш мақсадида Москвага келган Англия савдо компанисининг вақили Антони Женкинсон бошлаб берди. У ўз мақсадига эриша олмаган бўлсада, бу ўлкалар ҳақида анчагина маълумотлар тўплаб берди. Бухорога рус элчиси бўлиб келган, Флорио Беневени Хивага ҳам бориб, шу мамлакатлар тўғрсида қимматли географик маълумотлар олиб келган. Кўҳна Хоразм аҳолисининг XVIII аср ўрталаридаги турмуши тўғрисидаги муҳим этнографик маълумотларни 1740-43 йилларда Дмитрий Гладишев ва Иван Шурикин бошчилигидаги Орол денгизи ва Хива экспедицияси ҳамда 1753 йилда Самара савдогари Данил Руковскийнинг Хивага қилган саёҳати даврида тўпланган метериаллардан олиш мумкин.

1774 йилда Оренбург чўлларида қозоклар томонидан асирга олинган рус унтер-офицери Филип Ефримов асирликдан қочиб, Қўқон, Марғилон, Қошғар, Ёркент, Тибет, Ҳиндистон ва Англия оркали 1782 йилда Россияга қайтиб келади ва кўрган билганларини ёзиб қолдиради.1781 йилда Бухорога элчи бўлиб келган Линдиёр Доф ва Бекчурин ва 1794-98 йилларда Бухорога саёҳат қилган Т. Бурнашевнинг хикоялари ҳам келтирилган. Шу даврдаги Хива хонилигига оид тарихий ва этнографик маълумотлар хоннинг таклифи билан Хоразмга келган кўз доктори машҳур Бланкеннагеннинг ёзиб қолдирган хотиралари мавжуд.

Ўзбек халқ этнографиясиги оид материаллар тўплами даври XIX асрда бошланади. XIX асрнинг биринчи ярмидан Н. Н. Муравёв, А.Ф. Негрий, Н. В. Ханиқов, П. И. Данилевскийлар ўтказган ишлар Ўрта Осиё халқлари шу жумладан, ўзбеклар этнографиясини ўрганишдаги дастлабки илмий қадамлар бўлди.

1819-20 йилларда Хива хонлигига саёҳат қилган капитан Н. Н. Муравьёв Ўзбекистон ССР таассуротларини асар қилиб чиқаради. Н. Н. Муравьёв асарининг баъзи бобларида бевосита ўзбекларнинг табиати, диний эътиқодлари, урф-одатлари, маърифати, кийим-кечаги, уй-рўзгорлари, уруғ-аймоғи каби соф этнографик маълумотлар келтирилган. Унинг айтишича, Бухоро томонидан келган ўзбеклар асосан 4 тоифадан: ***киёт -кўнғирот - уйгур-найман, қанғли-қипчок, нукус манғитдан*** иборат: ҳар 1 тоифа мустақил хоким-иноқга эга, аммо уларнинг энг каттаси киёт-кўнғирот-инокидир.

1820-йилда Бухорога жўнатилган А. Ф. Негри бошчилигидаги дипломатик миссия қатнашчиларидан Э. А. Эверслин, Х. Пандер, П. Яковлев, Будрин ва полковник П. Мейендорфларнинг китоб ва хотиралари бой тарихий этнографик маълумотларга эга. турли тилларда ташкил қилинган Г. Мейндорфнинг ***"Оренбургдан Бухорога саёҳат"*** номли китобида Бухоро хонлигининг географик ўрни, ижтимоий иқтисодий аҳволи, давлат тузилиши ва аҳолиси ва машғулотлари, қишлоқ хўжалиги суғорилиши системаси, ҳунармандчилиги, ички ва ташқи савдо, оила ва хотин- қизларнинг турмуши ҳақида маълумотлар келтирилган. бу соҳада айникса, 1833-1841 йилларда Оренбург губернаторининг махсус топшириғига биноан ишлаган В. М. Доллнинг берилган маълумотлари диққатга сазовордир.

1840-1850 йиллар ичида Козоғистон ва Ўрта Осиё ҳамкорлиги этнографиясини илмий жиҳатдан ўрганишда ака-ука Николай ва Яков Ханиковларнинг хизмати катта бўлган.

Яков Ханиковнинг 1851 йилда нашр қилинган "***Орол денгизи ва Хива хонлиги картасига муҳокама"*** асарида этнографияга алоҳида эътибор берилган. Н. Хаников 1843 йилда Бухоро хонлиги ҳакидаги илмий асарни нашр қилдиришга муяссар бўлади.

Этнографияга оид муҳим маълумотлар 1843 йилда Хива хонлигига дипломатия миссия тартибида келган полковник Г. Н. Донилевский, О. Р. Н. Базинер асарларида ҳам келтирилган.

Ўша йилларда атоқли олим В.В.Григорев Оренбургда яшаган ва у Россияда биринчи бўлиб шарқ халқлари тарихи турини ўқита бошлади, унинг 200 дан ортиқ илмий ишлари орасида Ўрта Осиё ҳамкорлиги, жумладан ўзбекларга тегишли асарлари ҳам мавжуд.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1851 йилда Оренбургга келиб саёҳат қилган В. В. Вельяленов Зукков ҳам ўзбек халқларига оид бир қанча қизиқарли тарихий асарлар яратган.

1858 йилда Ломоновский Н. Л. Игнатев бошчилигидаги Хива ва Бухорога юборилган йирик дипломатик миссия ҳам анча самарли иш олиб борган. Турк тилларини яхши билган, машҳур Венгр шаркшунос олими Херман Вамбери 1863 йили дарвеш либосини кийиб, савдо карвони билан Хива, Бухоро, Самарканд ва бошқа Ўрта Шарқ мамклакатларига саёҳат қилди. Бу сайёҳнинг Ўрта Осиё ҳақидаги ёзган асарларида маҳаллий аҳоли, шу жумладан ўзбек халқи энографиясига оид қизиқарли маълумотлар бор. У ўзбек уруғлари ҳақида гапириб, биринчи бўлиб ўзбек сўзининг келиб чиқиши ҳақида мулоҳаза юритади. Кўк Ўрда шаҳрида Волга билан Орол денгизи орасидаги яшовчи турк мўғул қабилаларида жўжи сулоласидан туққизинчи ҳукмдор бўлган Ўзбекхоон мисолига нисбат бериб, ўзларига бир сиёсий қўшма ном, ўзбек номи билан қабул қилганлар.

Асар муаллифи 32 ўзбек қабилаларининг рўйхатини берди ва уларнинг кийим-кечаклари, таомлари, ўйин ва мусиқа асбоблари, урф-одатлари ва диний маросимлари тўғрисида хикоя қилади. XVI-XIX аср ўрталаригача бўлган давр ичида маҳаллий муаллифлар томонидан яратилган тарихий асарларда ҳам баъзи бир мухим этнографик лавҳалар бор. Истеъдодли шоир ва мусиқашунос Хофиз Таниш Бухорийнинг ***“Абдулланома”*** асари Ўрта Осиё, Козоғистон шунингдек,қисман Афғонистон ва Эроннинг XVI-асрдаги ижтимоий -сиёсий тарихини уз ичига олади. Асарда этнографик маълумотларга ҳам бойдир. Масалан, ўзбек халқи таркибига кирган уруғ ва қабилалар тўғрисида маълумот беради.

Абулғози ибн Муҳаммадхон Хоразмийнинг бир канча бой чет тилларига таржима қилинган ***“Шажараи Турк“*** ва ***“Шажараи Тарокима”*** каби асарлари мавжуд.

Машҳур ўзбек тарихчилари ШерМуҳаммад Мунис, Муҳаммад ризо Огаҳий ва Муҳаммад Юсуф Баёнийларнинг ***“Фирдавсул-икбол; Риёзут -давлат“ , “Зубдат ут-таворих”*** номли, ***«Гулшани давла», “Шамсул-икбол”,”Шажараи Хоразмшохий”*** каби асарларида XVII-асрнинг II-ярмидан то XX-аср бошларигача Хоразм ва қўшни ҳудудуларида рўй берган тарихий воқеалар юксак маҳорат билан тасвирланди. Ўзининг бой мазмуни, иқтисодий, ижтимоий маълумотларининг кўплиги ва ранг-баранглиги билан ажралиб турган бу тарихий асарлар ўша даврдаги ўзбек халқи этногра-фиясини ўрганиш учун муҳим манба бўла олади.

Ўзбек халқининг этнографиясини ўрганиш билан шуғулланган М. П. Остраумов, М. С. Литошин сингари тадқиқотчилар мустамлакачилик маъмурларининг хизматчилари бўлиб ўз асарларида чоризмнинг мустамлакачилик сиёсатини тарғиб қилдилар. Бироқ, уларнинг асарларида ҳам шахсий жамоаларнинг

турмуши, маданий ҳаётига доир фактларга асосланган бир қанча диққатга сазовор материаллар учрайди.

А. П. Федченко ҳам ўз рафиқаси билан юриб, ўзбек халқ этнографиясига оид жуда кўп маълумотлар тўплаган ва ***"Қўқон хонлари "*** асарини ёзган. Этнография материалларини кенг оммага етказиш ва уларни сақлаб қолишда илмий журналлар, статистик бошқармаларнинг справочник тўпламлари ҳамда ***"Туркестанский ведомости***" газетасининг хизматлари катта бўлди.

Шундай қилиб, XIX-асрнинг II-ярми XX-аср бошларида ўзбек этнографиясини ўрганишда илмий жиҳатдан диққатга сазовор бир қанча ишлар пайдо бўлиб, жузъйи тадқиқотчи олим ва ўлкашунослар сафи кенгайиди. Улар ўз асарларида ўзбек ва бошқа Осиё халқлари маънавий ва маърифий турмушининг хусусиятлари , урф-одатлри, уруғ-аймоғлари ва қабилачилик тузуми, диний эътиқодлари ва бошка этнографик хусусиятларини таърифлаш билан бирга, уларнинг маъносини илмий жиҳатдан шархлашга интилганлар, лекин ўз даврининг ҳукмрон идеаллари таъсирида бўлган бу тадкиқодлар бирмунча нуқсонлардан холи эмас, албатта. Ижтимоий масалаларни шархлашда тадқиқотчиларнинг ожизлиги, субъектида иркий концессияларнинг ҳукм сурганлиги уларнинг кўп асарларида ҳам ўз асосини топган.

1918 йилда ташкил қилинган Туркистон халқи университетида ўзбек этнографиясидан махсус курснинг ўқитила бошланиши Туркистон ҳудудида этнографик тадқиқотлар ўтказишга катта эътибор берилаётганидан далолат беради. 30-йилларга келиб, атоқли олимлардан С. П. Толстов ва Л. П. Потоповлар ўзбеклар ва Ўрта Осиёдаги бошқа халқларинг этнографиясини ўрганиш ишларини жонлантириб юборади.

Хоразмда чорак асрдан ҳам кўп вақтда иш олиб борган С. П. Толстов раҳбарлигидаги археолог-этнографларнинг комплекс экспедицияси Ўзбекистон халқларининг турмуш ва маданиятини ўрганишда янги саҳифа очди. Бу экспедиция, асосан қадимги Хоразм маданияти ёдгорликларини ўрганиш билан бирга Хоразм

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

воҳасидаги ўзбекларинг этнографиясини ҳам текширди. II-жахон урушидан кейинги даврда экспедиция таркибида икки ўзбек этнография отряди тузилди. Улар шимолий ўзбеклар этнографияси ва жанубий ўзбеклар этнографияси отряди эди.

Хоразм экспедицияси Ўзбекистон ҳудудида яшовчи, лекин ин-қилобдан илгари бутунлай унутилиб қўйган қорақалпоқ халқларини ўрганиш соҳасида ҳам катта ишлар қилди. Экспедициянинг Қора-қалпоғистон отрядига атоқли этнограф Т. А. Жданко раҳбарлик қилди. Бу олим коракалпокларнинг тарихий этнографиясига бағишланган ажойиб асар ёзди. Отрядда маҳаллий этнографлардан С. Камолов, Пусбергенов ва Шеликеновлар иштирок этдилар.

Атоқли тарихчи-энографлар А. Ю. Якубовский, А. А. Семёнов ва П. П. Ивановлар ўзбек халқининг келиб чиқиши ва этник таркиби масалаларига ўзларининг чуқур мазмунли асарларида кенг ўрин берганлар. Бу муҳим масалаларни ёритишда Р. Г. Мўминова ва Б. А. Ахмедовлар ҳам маълум ҳисса қўшганлар. Тарих ва археология соҳасида қилинган илмий ишлардан кенг фойдаланган М. Вахобов ўзбек халқи этнографиясига оид асарни яратди.

Миллий масала ҳар доим долзарб бўлиб келган. Ҳар бир халқниг миллий шакланиши, этник умумийлиги ва хусуситялари, ўзаро яқинлашуви каби масалаларни чуқур тушуниш учун айрим этнографик гуруҳларни ҳар томонлама ўрганиш зарур. Ўзбекларнинг айрим қабила ва уруғларини тақиқ қилишда этнографлардан В. Г .Машкова, К. Л. Задихина, К. Шониёзова, Т. Файзиевларнинг илмий ишлари диққатга сазовордир.

Ўзбекистон тарихига оид кўп томли йирик илмий асарни этнографияга бағишланган бўлимлари фаннинг сўнгги ютуқлари асосида мутахассис тадқиқотчилар томонидан ёзилаган ***“Жаҳон халқлари”*** сериясcида босилиб чиққан икки томли ***“Ўрта Осиё ва Козогистон халқлари “*** номли монументал илмий асар деярли бутун этнографик тадқиқотларининг ютуқларини ўзида мужасамлаштирган. Асарнинг “Ўзбеклар “ номли бобини ёзиш ва таҳрир қилишда маҳаллий этнографлардан О. А. Сухарева, М. А. Бекжонова, И. Жабборов ва бошқалар қатнашган.

Ўзбек халқининг этнографиясини ўрганиш мустақиллик қўлга киритилгандан сўнг янги босқичга кўтарилди.

Эндиликда ўзбек этнографлари олдида инсониятнинг порлоқ келажаги бўлган ёш авлодни ўлка тарихига эътиборли ва муҳаббат нуктаи-назарида бўлиш каби ҳис туйғуларни сингдириш маъсулияти турибди.

Бу вазифа мактабларда албатта, ўлкашунослик тарихи тўгараклари орқали амалга оширилиб борилади,албатта.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Топономика ҳақида тўхталадиган бўлсак, топономика географик номларнинг киши исмларининг келиб чикишини ўрганадиган фан сифатида майдонга келди. Топономикани ***“Замин тили”*** деб аташади. Топономик термини лотин тилидан олинган бўлиб “топон” жой ва “анома” ёки “онима” ном, умуман жой номини ўрганидан фан деган маънони билдиради. Географик номлар ва замин карида ётган, ўрганилмай ётган номлар, инсонларга қўилган исмлар, топономикани ўрганиш манбаи ҳисобланади.

Микро топономика микро объектларни номларини тадкиқ қилади.

Ҳозирги вақтда топономика фақат йирик объектларнинг номларинигина эмас, балки микро объектларни ҳам номларини ўрганмокда.

Географик терминлар топономик штабига кирмайди. Аммо улар топономикани ўрганишда катта аҳамиятга эгадир. Номсиз “объект” топоним эмас. Топономика географик объектларни эмас, балки уларнинг номларини ўрганади. Топонимлар бир вақтнинг ўзида тилшунослик тарихий ва географик фактлар хисобланади,ҳамда манба сифатида муҳим аҳамият касб этади.

Топономиканинг турли хусусиятлари тилшунослик, тарих, географик археология ва бошқа фанлар билан алоқасига боғликдир. Топономик материалларни тадкиқ қилинаётган тарихий маълумотлар, айниқса археологик текшириш натижаларига суянган ҳолда иш кўриш зарур. Чунки топономика кўпинча тарих далилларга ва исботларга муҳтождир. Масалан, бирор ёдгорликни номини ўрганиш учун албатта уни қайси даврда яратилганлигини ва нима сабабдан шу ном берилганлигини тарихий давр шарти нуқтаи назаридан тадкиқ қилиш талаб қилинади.

Топономика методологиясига мувофиқ уни фан сифатида ўрганишда қуйидаги

асосий талабларни хисобга олиш лозим:

- топонимларни пайдо булишига доир маълумотлардан фойдала-нинш;
- номларнинг мавжуд бўлган барча формаларини аниқлаш;
- ном ва терминларни ўша жой номи билан боғлик ҳолда танлаш ва энг муҳимларини ўрганиш зарур.

Топономик асослар вақт, манбалар ва йуналишлар буйича жойларга аҳолининг кўчишини ўрганиши меъёрига боғлиқ. Топонимлар аниқ тарихий жараён, мисол учун аҳолининг кўчиши маданий иқтисодий ва тил муносабатлари вужудга келади ҳамда тарқалади. Топономика жамиятни муҳим воситаси бўлган тилини, экономикаси, маданияти ва тарихий тараққиётини ўрганиш жараёнида ўсиб ривожланиб боради.

Топономик номлар манбаи ва уларни ўрганишда кўлланиладиган метод ва уларнинг тўғрилигини аниқлаш максадида: ёзма ва бошқа манбаларни,қўл ёзмалар, архив материаллари, хаттотлар кўчириб ёзилган китоблар, аҳоли яшаган чегараларни акс эттирувчи бош ва махсус карталар ва экспликация карталари билан солиштириб чиқилади.

Топономикада ҳам моддий ва маданий ёдгорликлар ўрганилгандек оддийдан муракабга яъни бугунги кундан асрлар ичкарисига кириб боради. Билиш мураккаб процессдир.

Топономика ўзи объектни ёшини ҳам аниқлайди. Ўз навбатида топономик номлар тарих учун ҳам бебахо манбадир. Географик номлар узоқ муддатли бўлиб маълум территориядаги у ёки бу халқларнинг тили ҳақида гувохлик беради.

Топономик материаллар йиғишда ва жой номларини келиб чиқишини ўрганишда этнография ҳам катта роль ўйнайди. Ҳозирги вақтда топонимлар жой номларини факат этнологик ва анъанавий жиҳатдан эмас, балки сўз ясаш жиҳатдан ҳам таҳлил қилмокдалар.

Ўрта Осиё, жумладан , Ўзбекистон топонимларини ўрганиш ҳам узоқ тарихга эга.

Бу жиҳатдан Маҳмуд Қошғарийнинг ***“Девонул луғатул турк”*** Наршахийнинг ***“Бухоро тарихи”*** З.М.Бобурнинг ***“Бобурнома”*** асарлари катта аҳамиятга эга. Республика жой номларининг келиб чиқиш тарихини этнонимларини бирор халқ, миллат, қабила, элат, уруғ аймоқ номларини ўрганувчи ҳамда географик терминларни ўрганишда ўзбек олимлари жуда катта ҳисса кўшдилар.

Топономикани ўрганиш материаллар тўплашдан бошланади. Топономик материаллар йиғиш ишини, бошлашдан аввал, материалларни қандай ва қаердан тўплаш ва кимлар билан қандай мавзуда суҳбатлар ўтказишнинг хеч бўлмаганда тахминан  иш режа ва дастури ишлаб чикилиши лозим. Мана шу режа ва дастур юзасидаги пухта тайёргарлик ишлари олиб борилади, сўнг дала тадқиқот ишларига эътиборни қаратади.

Сўраш ва суҳбат натижасида олинган материалларни  тадқиқ қилишда топономик материаллар бўйича коротекалар, кейин шу асосида луғатлар тузилади. Кейинчалик тадқиқотлар фактларни  ҳисобга олган ҳолда бир типдаги оммавий топонимларни синчиклаб ўрганиш катта аҳамиятга эгадир. Тадқиқ қилинган ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тўпланган топономик материаллар ўлкашунослик музейларида сақланади. Шунингде, махсус кутубхоналарда алоҳида бўлим сифатида ҳам сақланади.

Топономик материаллар тўплами кўпинча шу ўлка тарихини ўрганиш иши билан параллел ҳолда олиб борилади.

Тарих ва география ўқитувчилари топономикани ўрганиш жараёнида тилшуносликка оид бўлган материаллар улар билан биргаликда ёки уларнинг бевосита маслаҳатлари билан ҳал қилсалар жуда яхши натижа берар эди.

Ўлка тарихини яхши ўрганмай туриб, топономикадан ўлкашуносликни муҳим манбаи сифатида фойдаланиш ниҳоятда қийин. Ўлкашунослик билан шуғулланадиган ўқитувчилар топономикага доир адабиётлар билан яхши танишиб чиқишлари керак. Ўзбекистон тарихига доир топономик материалларни ўрганишда топономик ва географик луғатлардан фойдаланиш мумкин.

Энди Ўзбекистон республикасига тегишли бўлган топономик жой номларини айримларини санаб ўтамиз:

Марғилон Фарғона вилоятидаги қадимги шаҳар. Дастлаб Марғилон **"Маргинат "** деб аталган. Марғилон этимологияси *Марг, Мургоб, Маргон, Маргрибита, Маргуб* каби топонимлар этимологияисга ўхшаш бўлиб тожикча "Марг- *ўтлоқ*" деган сўздан олинган деб тахмин қилинади. Марг сўзи қадимги сўғд тилида *"булоқ"* маъносини ҳам англатади.

Жиззах- Ўрта Осиёдаги энг қадимги шаҳарлардан биридир. Бу қалъани асли

номи *Диззак* X асрларда ҳам шундай деб аталган. Диз қадимги суғд тилида *"қалъа"*

*"истеҳком"* демакдир. *"Ак"* эса биздаги "ча" қўшимчасига тўғри келади. Демак

Диззак-қалъача демакдир.

Регистон Самаркандда, Регистон номи билан юритиладиган бозор ва арк мавжуд, ва ***рег*** тожикча **қум *истон*- жой ёки қумлик жой** деган маънони англатади.

***Бешбола*** ўзбек уруғларидан йирик бир шахобчасининг номи республикамизда бешбола номли бир неча топонимлар бор.

***Оқтепа***- бу сўз ***"деҳқон"*** сўзи билан бевосита алоқадор. Деҳқон термини V-VI асрларда пайдо бўлган. Деҳқон ўрта асрларда йирик феодал ҳисобланган. Одатда феодал деҳқонлар, тўғон бошида атрофи девор, хандақлар билан тўсилган мустаҳкам кўрғонларда яшаганлар. Бундай кўрғонларнинг харобалари хозирги вақтда оқ тепалар деб юритилади. Масалан: Тошкент шахрида 8 та оқтепа мавжуд.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

***Найман*** – ўзбек, қозок, қорққалпоқ, қирғиз, нуғой ва олтой халқларининг таркибига кирган йирик қабила уюшмаси, ўзбек найманлари Зарафшон вохаси, Фарғона водийси ва Хоразмда яшаганлар. Ҳозирда Ўзбекистонда мазкур номлар билан аталувчи қишлоқлар мавжуд.

Шундай қилиб, келтирилган тарихий географик атамаларнинг номи топонимларга асосланиб турли туман номларнинг баъзи бир гуруппларига мисол келтирдик холос.

Агар ўқувчи ёки талаба ўз қишлоқ ёки тумани териториясидаги номларни келиб чиқиши билан қизикса, топонимик маълумотларга яна ҳам мурожаат қилиши лозим бўлади. Бу борада ҳар бир мактабнинг тарих фани ўқитувчиси томонидан ташкил қилиниб ўтказилаётган "Ўлкашунослик тарихи"тўгаракларинг аҳамияти ва роли каттадир.

Адабиётлар:

1. Каримов И. А. Ватан саждагох каби муқаддасдир. Т. «Ўзбекистон» 1996 йил.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент «Ўзбекистон» 1996 йил.
3. Қориев С. Географик номлар маъносини биласизми? Т.70
1. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик Тошкент ўқитувчи 1978 йил.
2. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент. "Ўзбекисон» 1997 йил.
3. Чориев З Тарихий атамаларни қисқача изохли луғати Тошкент. 1999й.
4. Жаббаров И. " Ўзбек халқ этнографияси" Тошкент. 1964й.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni va roli**

Tuychiyeva Nigora Salimjonovna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
1-maktab tarix fani o'qituvchisi

**Annotasiya.** Amir Temur. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni va roli. «Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobi. Amir Temur davri manbashunosligi. Temur yurishlari va temuriylar tarixi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, vatanimiz tarixini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Sal kam bir yarim asr davom etgan, dastlab rus podshosi, so'ngra bol'sheviklar o'rnatgan sho'ro saltanatining mustamlakachiligidan ozod bo'lish katta tarixiy voqea bo'ldi. Uning aks sadosi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va milliy qadriyatlarni, o'zlikni anglash, ayniqsa, tariximizga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinib turibdi. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug' allomalarining mamlakat qolaversa jahon tarixida tutgan o'rni, xizmatlarini e`zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e`tirof ettiradi. Biz tutgan bu yo'l buyuk sohibqiron Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Qubro, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqa allomalarimizning tavallud topgan sanalarini nishonlashda o'z isbotini topdi.

O'zbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilg'or va etakchi davlatlari qatorida bo'lishini ta`minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan-O'zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma`naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk bobolarning hayoti

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim.

Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e`tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan vak madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o'rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib etishadilar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Ulug' bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o'lchov bilan baholab bo'lmaydi. Uning to'g'risida keragidan ortiqcha ko'p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini inkor etadi. B uyozma manbalarning ba`zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo'lsa, boshqa birovlarida g'arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko'rolmaslik jarayonida turib, sub`ektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan. Bunday manba asarlarining mualliflari ulug' bobolarimiz Amir Temurni «qonxo'r», «bosqinchi», «kallakesar», «o'g'ri» va hakozo deb tuhmat qiladilar. Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G'arbiy Evropaning ilg'or mamlakatlari Angliya, Frantsiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e`zozlab o'quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913 yildayoq Ovrupa sharqshunoslarining Amir

Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan asarlar ro'yxati bibiliografiyasini chop etgan edi.

Taniqli frantsuz olimlari L. Keren «Temerlan yoxud sohibqiron salatanati» va J. Ru «Temerlan» nomli kitoblarida har biri amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro'yxatini keltirgan bo'lsalar, «Ulug'bek astranomiya sultoni» (Parij-1994) nomli to'plamda 40 asr, «Samarqand 1400-1500: Temerlan poytaxti: saltanat va uyg'onish yuragi» (Parij-1995) nomli asarda 27 kitob haqida ma`lumot berilgan.

Abdulhay Habibiyning 1974 yili Tehronda nashr etilgan 1018 sahifadan iborat «Temur davri san`atlari» nomli asari Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixi, majaniyati va san`atiga oid kitob va risolalar ro'yxati hamda dunyoning qaysi kutubxonalarida saqlanayotganligi bilan tanishtirishga bag'ishlangan.

«Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobida 23 asar va kitob ko'rsatilgan (Yosh Leninchi gazetasi 1991 yil 1 iyun') yoki N. Muhiddinovning «Temuriylar tarixi-xalqimiz tarixi» maqolasida temuriylar sulolasi to'g'risidagi 44 dan ortiq manba, asarlar ro'yxati berilgan (Fan va turmush 1992 yil 11-12 sonlar).

Akademik B. Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur» asarlarida sohibqiron va temuriylar sulolasi haqida ko'pgina tarixiy hamda hozirgi zamonda chop etilgan kitoblar tahlil berilgan.

Rus sharqshunoslari ham XIX asrning II-yarmidan Amir Temur shaxsini o'rganishga astoydil kirishganlar. eng avvalo bir qancha xorijiy davlatlarda chiqqan asrrlar rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli sharqshunos olim N. Ostroumovning tashabbusi bilan va uning rahbarligida frantsuz tilidan tarjima qilingan «Temur tuzuklari» ni va e. M. Langleyning «Temur hayoti» nomli asarlarini ko'rsatish mumkin.Bulardan tashqari Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohati kundaliklari» 1990 yili Moskvada «Nauka» nashriyotida qayta nashr etildi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

N. Likoshin o'zbek tilidan Amir Temurning «Tarjimai holi»ni 1894 yilda rus tilida nashr qilgan.

T. N. Granovskiy, M. I. Ivanin, D. N. Logofet, L. Zimin, I.I. Umnyakov va boshqa bir qator rus sharqshunoslari Amir Temurning sarkardalik mahoratiga e`tibor berilgan maqolalarni chop ettirishgan. Rus temurshunosligida ayniqsa, salmoqli o'rinni mashhur akademik V. V. Bartol'dning chuqur tadqiqotlari «Turkiston mo'g'ul istilosi davrida», «Ulug'bek va uning davri» kitoblari, hamda taniqli sharqshunos A. Yu. Yakubovskiyning «O'zbekiston xalqlari tarixi» ning Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan bo'limi, uning hammualliflikda B. D. Grekov bilan yozgan «Oltin O'rda va uning qulashi» va boshqa bir necha maqolalari muhim o'rinni egallaydi.

Bu va bir qator ko'zga ko'ringan temurshunoslarning maqolalari 1922 yili nashr etilgan katta hajmli to'plamda berilgan.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Ulug' bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o'lchov bilan baholab bo'lmaydi.

Shuni chuqur taassuf bilan ta`kidlamoq lozimki, XX asrning 60-80 yillarida markscha-lenincha mafkura tayziqi ostida bo'lgan ayrim sovet tarixchi olimlari Amir Temur shaxsini «faqat qora ko'zoynak orqali» talqin etadilar. Ular Amir Temur bobomizni «qonxo'r», «bosqinchi», «kallakesar», «o'g'ri» va h. k. deb atadilar.

Sobiq sho'rolar davrida markscha-lenincha mafkura hukmronligi tufayli Amir Temur haqida ijobiy fikr bildirilgan asar yoki maqola yozish u yoqda tursin, buyuk vatandoshimizning hatto nomini ham tilga olish ta`qiqlab qo'yilgan edi. Amir Temurning nomi faqat qora bo'yoqlarda o'quv qo'llanmalari va darsliklarga kiritildi.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur?

Birinchidan, o'z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo'lmaydi. CHunki har bir xalqning o'z tarixi mavjud. O'z tarixini bilmagan, uning ijobiy va salbiy

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tajribalarini o'rganib, tegishli xulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotning qadrini va muammolarini tushunib eta olmaydi, o'z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo'la olmaydi. Biz kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug' hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qattiyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o'rganish faqat ilmiy va ma`rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shikllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo'lida foydalanish zarur.

Tarix har bir insonni o'z vataniga muhabbat, sadoqat, o'z xalqining o'tmishi qaqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bularni Amir Temur tarixi saboqlari deb atash mumkin. Saboqlarning eng asosiysi quyidagilardir:

Birinchisi, Amir Temur 150 yil qaramlikdan so'ng, o'zbek milliy davlatchiligining mustaqilligini tiklagan, mamlakat va mintaqalarni birlashtirgan, o'z zamonasi uchun dunyo miqyosidagi taraqqiyparvar markazlashgan davlat boshqaruv tizimini yaratgan.

Ikkinchisi, sohibqiron o'z saltanatida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta`minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan. Buning natijasida iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilgan. Bu zotning adolatli, xalqparvar siyosati natijasidir. Bunday siyosat tufayli xalq bilan davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik, bir-birini qo'llab—uvvatlash yuzaga kelgan, davlat butun choralar bilan o'z fuqarolari haqida g'amxo'rlik qilgan. Aholiga jabr-zulm o'tkazganlarni, o'g'ri-talonchilarni, bosqinchilarni qatti- jazolagan, xalq esa bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatni qo'llab-quvvatlagan, u o'rnatgan qonun-qoidalarga rioya etgan.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Uchinchisi, Amir Temur dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan. Uning hukmronlik davrida va shundan keyin mulkchilik munosabatlari, soliq tizimi taraqqiy etgan.

To'rtinchisi, Amir Temur fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari olimlar, san`atkorlar, me`morlar, yozuvchilar, shoirlarga alohida qamxo'rlik ko'rsatib turgan. Bunday siyosatning natijasi o'laroq sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Beshinchisi, Amir Temur mohir va muzaffar sarkarda sifatida mamlakatning mudofaa qudratini ta`minoti, uni qurollantirish, harbiy intizom masalalariga alohida e`tibor bergan.

Oltinchisi, Amir Temur saltanatning barcha mintaqalaridagi haqiqiy ahvol, mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narx-navo, joylardagi tartib intizom haqida anih, to'g'ri ma`lumotga ega bo'lishga katta e`tibor bergan. Buning uchun maxsus axborot to'plovchilardan, aloqa xizmatchilaridan, joylarga topshiriq bilan yuboriladigan ishonchli vakillardan foydalangan. Sohibqiron bevosita xalq bilan uchrashib turgan, xalqning arz va shikoyatlarini bevosita ko'rib va eshitib hal qilgan.

Ettinchisi, Amir Temur mansabdor shaxslarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ular faoliyatini nazorat qilish masalalariga katta e`tibor bergan. Biror kishini u yoki bu lavozimga tayinlashdan uning nasl-nasabini, bilimini, qobiliyatini, hayotiy tajribasini, ahloqiy hislarini, o'z kasbiga, vataniga, xalqiga sadoqatini hisobga olgan. Mansabdorlar faoliyatiga baho berishda xalqning ular haqidagi fikri, adolat va insof bilan ish ko'rishlari, masalalarni qonuniy hal qilishlari asosiy me`yor bo'lib xizmat qilgan.

Sakkizinchisi, Amir Temur saltanatida davlat ahamiyatiga molik masalalar kengashlarda maslahatlashib hal etilgan. Sohibqiron va temuriylar o'z atrofiga olimu-fuzalolarni to'plab, davlatni boshqarishda ular bilan bamaslahat fikrlarini hisobga olib ish ko'rganlar.

To'qqizinchisi, Amir Temur shariat va «Tuzuklar» asosida jamiyat huquqiy hayotini boshqarishni yo'lga qo'ygan.

O'ninchisi, Amir Temur jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutgan va ularning manfaatini hisobga olgan va ta`minlagan.

O'n birinchisi, Amir Temur o'z davri shart-sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatda qat`iy, faol hamda maqsadga muvofiq harakat qilib, o'z saltanatini jahon miqyosiga olib chiqqan.

O'n ikkinchisi, Amir Temur saltanatida ibratli, ijobiy jihatlar, tadbirlar hukm surganligi bilan bir qatorda illatlar, qonunbuzarliklar, haqsizliklar, hatto yovuzliklar ham bo'lgan. Zotan bu xalqimiz o'tmishida tarixiy va siyosiy voqealarga, qarama-qarshiliklarga eng boy davrdir. eng asosiysi, bu davrni yoritishda bir tomonlikka-faqat ijobiy va salbiy jihatlarni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilmaslik zarur. Umuman, Amir Temur va temuriylar tarixiga har tomonlama, ilmiy, umuminsoniy nuqtai nazardan yondoshish va baho berish kerak.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, har bir mustaqil davlat o'zining milliy mafkurasiga ega bo'lishi shart. Busiz tom ma`nodagi milliy davlatning bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda amir Temur saltanati va nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Amir Temur davri manbashunosligi

Amir Temur va temuriylar davriga oid arab tilidagi yozma manbalar sirasida arab tarixchisi ibn Arabshohning (1389-1450) «Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomli asari alohida o'rin tutadi. Asar ko'proq «Temur tarixi» nomi bilan keng tarqalgan. Saroy tarixchilarining ko'pgina asarlaridan farqli bu kitob qudratli, mustaqil, katta saltanat yaratgan Amir Temurning hayotini xolis va bir qadar tanqidiy ravishda yozilgan noyob yodgorlikdir. Ibn Arabshoh uzoq yillar Samarqandda yashagan (1401-1408), shu erda to'laqonli ma`lumot olgan va Amir Temur saroyiga yaqin bo'lgan. Hukmdorlarning unga munosabatini muttasil sezib turgan. Muallifning o'zi ma`lumot berishicha, bu asariga manba bo'lib uning shaxsiy mushohada va xotiralari, Amir Temurning yurishlarida ishtirok etgan arboblarning hikoyalari xizmat qilgan. 1436 yilda yozilgan Ibn Arabshohning bu asari Amir Temur va temuriylar davriga oid frantsuz, lotin, ingliz va g'oyatda qisqartirilgan holda turk tillariga tarjima qilingan. Afsuski ushbu

tarjimalarning hammasi tegishli ilmiy izohlarsiz bajarilgani uchun ham ularni ilmiy jihatdan mukammal deb bo'lmaydi. Ibn Arabshohning asari U. Uvatov tomonidan, 1992 yilda Toshkentda 2 jildda keng tarzdagi ilmiy izohlar bilan o'zbek tilida nashr etildi. Ibn Arabshohning bu asari Amir Temurning hayoti va faoliyati haqidagi qimmatbaho ma`lumotlarni qamrabgina qolmay, unda o'sha davr madaniy hayoti to'g'risida ham muhim faktlar keltirilgan. Muallifning o'sha davrda yashab ijod qilgan mashhur olimlar, munajjimlar, muhaddislar, tabiblar, turli kasb va hunarmandlarning mohir ustalari, o'sha zamonda keng ko'lamda qo'llanilgan uyg'ur yozuvi haqidagi ma`lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibn Arabshoh asarining maxsus bir bo'limi amir Temurning yuksak insoniy fazilatlari va alohida xislatlariga, sohibqironning tashqi siymosi va odatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu tarzdagi ma`lumotlar o'sha davrga oid boshqa manbalarda uchramaydi. Shu bilan birga XV asrda yashagan arab tarixchilarining ko'pgina asarida Amir Temurning faoliyati, uning misr mamlakatlari sultonlari azqZahir Barquq va nosir Faraj, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari bilan o'zaro munosabatlari haqidagi ko'pgina ma`lumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarda Amir Temur va turk sultoni Boyazid va Misr sultonlari o'rtasidagi munosabtlarga doir ko'p ma`lumotlar berilgan. Mana shu asarlar jumlasiga Ibn Xoldun (1372-1449), Badruddin al-Ayniy (1360-1451), Taqiyuddin al-Maqriziy (1364-1442), Shahobiddin al-Qalqashandiy (1355-1418), Ibn Xajar al-Asqaloniy (1372-1449), Shamsuddin as-Saxoviy ()1427-1497), ibn Tag'riberdi (1411-1469), Ibn ash-Shihna (1348-1412), Jaloluddin as-Suyutiy (1445-1505), Sarimuddin Ibn Duqmoq (1349-1406), Nosiruddin Ibn al-Furot (1336-1404), Ibn Iyos (1448-1524) va boshqa qator tarixnavislarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Amir Temur hayoti va faoliyati to'g'risida sharq tillarida ko'pgina asarlar yaratilgan. Ushbu qo'lyozma asarlarning bir qismi Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Masalan, Hofizi Abruning «Zubdat ut-Tavorix» (Tarixlarning qaymog'i) asarining bir qo'lyozmasi hozir Istambulning eng yirik kutubxonasi Sulaymoniyada saqlanadi. Inv. № 4371.

Rashididdin Fayzullohning Amir Temur yurishlari to'g'risida hikoya qiluvchi «panjgona» asari To'pqapi saroy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma asar Sulayomoniya kutubxonasining o'zidagi ahmad Solis fondida inv.№ 2937 «Nasabn6omai muluk» (Podsholar nasabnomasi) nomi bilan mavjuddir.

Olim al-Haj Abdul G'ofur Kerimiyning «Umdot ut-Tavorix» (tarixlarning tayanchi) kitobi Amir Temurga bag'ishlangan. Ushbu asar yirik olim Najab Osim tomonidan Usmon Tarixi jamiyati to'plamiga ilova sifatida nashr qilingan (1913y).

Shuningdek Turkiyada birin-ketin nashr etilib, ham G'arbda, ham Sharqda paydo bo'lgan va ilm ma`rifat ahli orasida keng tarqalgan quyidagi kitoblarni ko'rsatish mumkin.

Tarjimon Najoti Luchal tomonidan Turk tiliga o'girilgan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asari. Zakiy Validiy To'raqo'rg'onning «Tahqiq nasab Amir Temur» (Amir Temur shajarasi to'g'risida tadqiqotlar), professor A.A. Semyonovning Temur va temuriylarga bag'ishlangan Go'ri Amir maqbarasi naqshlari to'g'risida «Dahmadagi yozuvlar» bo'lib, uni turk tiliga abdul Qodir inon tarjima qilagan. V.V. Bartol'dning 1927 yilda turk tiliga tarjima qilingan va Istambulda chop etilagn «O'rta Osiyo tarixidan saboqlar», Tohir o'g'li Oqdos tomonidan turk tiliga tarjimak etilib, 1930 yilda Istambulda e`lon qilingan. Shuningdek «Ulug'bek va uning zamoni» va boshqa ko'pgina asarlarni ko'rsatish mumkin. Keyinroq, 1965 yilda anqarada F. Talerning Turkiyalik olim Ahmad Otash tarjimasida «Temuriylar davrida tarix fani» chop qilingan.

Amir Temur yurishlarining guvohi-tarixchi olim Toj Salmoniy o'z davrida fors tilida «tarixnoma» kitobini yozgan. Tarixchining ushbu kitobini Izmir shahridagi egey universitetining professori Ismoil Og'a turk tiliga ag'darib 1988 yili Anqarada nashr qilgan.

Uzoq yillardan buyon Temur yurishlari va temuriylar tarixini o'rganish bilan shug'ullanayotgan taniqli tarixchi ismoil Og'a 1991 yili anqarada Turkiya tarixchilari jammiyatida «Temur va uning davlati» degan ilmiy asarini e`lon qilib, unda Temurning yurishlarini batafsil tasvirlaydi, ulug' sarkarda vafotidan keyin temuriylar orasidagi ichki zidddiyatlarni ochib beradi.

Yirik turk olimi Zaki Validiy To'g'on «Buyuk turk hukmdori Shohrux» kitobini e`lon qilgan. Turk olimi Sulaymon Fohmiy esa, 1843 yilda Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirot ush-Shuaro» kitobini turk tiliga tarjima qilib, Istambulda nashr qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, jahon sharqshunosligida 600 yildan beri Amir Temurga bag'ishlangan ko'pdan-ko'p tarixiy ilmiy va badiiy asarlar, risola va maqolalar chop etib kelindi. Avvalambor, bu sohibqiron bilan zamondosh va bevosita muloqotda bo'lgan, uni ko'rgan yoki eshitgan mualliflarning asarlari, sharqona tarixnavislik an`analariga rioya qilib bitilgan solnomalardir.

Bunday asarlar qatoriga sharqning mashhur olim va adiblaridan Sharofuddin Ali yazdiy va Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» Hofiz Abro'ning «Tarix sirasi», G'iyosiddin Alining «Temurning Hindistonga yurish kundaligi», Mirxondning «Sofldik bog'i», Muiniddin Natanziyning «Tarixlar» saylanmasi va asarlar kiradi. Ammo Amir Temur zamondoshlari qalamiga mansub barcha asarlarni birdek ob`ektiv xolis yozilgan deb bo'lmaydi.

Islomiy olimlar asarlarida Amir Temurning bir-biriga qarama-qarshi ikki xil obrazi mavjud. Birinchisi-go'yo Amir Temur atrofdagilarga qo'rquv va dahshat soladigan berahm, qattiqqo'l hukmdor va sarkarda. U o'z maqsadiga erishishda har qanday imkoniyatni, bu unga qimmatga tushsa ham, qo'ldan boy bermaydi, o'z qo'li ostidagilar hayotini yaxshilash, mazmunli qiziqarli qilish haqida tashvish chekmaydi, zero, uning tasavvurida hayot bu omad, mehnat va doimiy kurashdir.

Ikkinchisi-aql-farosatli, adolatli hukmdor, u yomonlik va axloqsizlikni ko'rishga ko'zi y

o'q, cheksiz harbiy talant sohibi. U harbiy harakatlar olib borish texnikasini bekamu-ko'st biladi. Amir Temur davlatchilik, fan va me`morchilik rivojiga katta hissa qo'shgan insondir.

Birinchi obraz ko'proq arab va forsiy manbalarda keng tarqalgan. Bu narsa ko'proq birinchi navbatda amir Temurning Movarounnahr davlatini birlashtirish uchun olib borgan ko'p sonli yurishlari, so'ng esa, G'arbiy, Shimoli-G'arbiy, Sharqiy Hindistonni zabt etish

uchun olib borgan yurishlari oqibatidir. Bu yurishlar Amir Temur faoliyatining katta qismini tashkil etgan va unga sohibqiron o'zi ham alohida ahamiyat bergan. Katta bir buyuk davlatni boshqarish ham o'z navbatida undan katta kuch va doimiy suratda urushga tayyor turishni talab qilgan.

Amir Temurning bunday obrazi yoyilishiga yana bir sabab uni mo'g'ul CHingizxon bosqinchilariga aloqador hisoblashlari va Schingizxon bilan qarindosh deb o'ylashlaridir. Gap shundaki, mo'g'ullar tomonidan amalga oshirilgan barcha vayrongarchilik va urushlar aybi asossiz ravishda Amir Temurga nisbatan ham berilgan. Holbuki, Amir Temur hech qachon CHingizxon kabi qonxo'r va zolim bo'lgan emas.

Amir Temur haqidagi bunday yanglish tasavvur qisman hozir ham uchrab turadi. Lekin u mamlakatni boshqargan paytda bunyod etilgan va bizgacha etib kelgan me`morchilik obidalari, san`at asarlarini ko'rsak, biz Amir Temurdagi nozik ta`b, yuksak madaniyatni sezamiz va bu obrazning ijobiy fazilatlari ayrim manbalarda xaspo'shlab o'tilganini ko'ramiz.

**Adabiyotlar**

1.Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T., "Sharq", 1997. 381-bet.
2.Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullaxon Karamatov tarjimasi. T., G'.G'ulom, 1991. 109-bet.
3.B.Ahmedov. Tarihdan saboqlar. T., "O'qituvchi", 1994.
4.Ye.Berezinov. Buyuk Temur. T., "Sharq", 1996.
5.Amir Temur va uning dunyo tarixidagi o'rni. (Buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalq ilmiy konferensiyasi ma'ruzalari bayoni). S., 1996.

# Тарих дарсида муваффақиятга эришиш учун вазият яратиш йўллари

Култаева Малика Нуралиевна

Сурхондарё вилояти Жарқўрғон тумани

2-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**АННОТАЦИЯ.**Мақолада мактабларнинг тарих дарсларида муваффақият қозониш учун шароит яратиш,вазият, муваффақият, алоқа услуби, тушунча ҳақида сўз юритилади.

Замонавий мактабларнинг тарих дарсларида муваффақият қозониш учун шароит яратиш бу муҳим ва долзарб масалаларидан биридир.

Ўрганишдаги муваффақият - бу ички кучларнинг ягона манбаи, бу қийинчиликларни енгиш учун энергия беради, ўрганиш истаги.

Муваффақиятга баркарор, доимий равишда эришилган такдирда, одамнинг имкониятлари учун яширилган улкан нарсадан халос бўлиш учун реакция пайдо бўлиши мумкин.

Мактаб таълимида ўқитувчининг вазифаси ҳар бир ўқувчига ютуқ қувончини ҳис қилиш, ўз имкониятларини англаш, ўзига ишониш имкониятини беришдир.

Ўқитувчи ўқувчиларнинг синф ичида ва ундан ташқарида муваффақиятга эришишига туртки берадиган ижтимоий-ҳиссий кўникмаларини ривожлантиради. Ўқувчиларнинг ижтимоий ва ҳиссий кўникмаларини ривожлантириш мақсадида ўқитувчи: ўқувчиларга қарор қабул қилиш ва синф доирасида фойдали аҳамият касб этувчи вазифани ўз зиммасига олиш учун имконият бериш орқали уларга мустақилллик ҳиссини сингдиради.Ўқувчилар синф доирасидаги тадбирларда ихтиёрий равишда иштирок этиш орқали ўз мустақиллигини намоён этади; диққатни фақатгина ўқувчиларнинг билими ёки жисмоний имкониятларига қаратмасдан, уларнинг саъй -ҳаракатларини таъкидлаш, улар тўқнаш келаётган муаммоларга ўрганиш жараёнининг бир қисми сифатида қараш, ўқувчиларни қисқа ва узоқ

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

муддатли мақсадларни белгилашга чорлаш орқали уларда қатъиятлиликни тарбиялайди; тенгдошлари билан алоқа қилиш, масалага ўзгаларнинг нигоҳи билан қараш, ҳамдардлик қилиш, ҳис -туйғуларни бошқариш ҳамда ижтимоий муаммоларни ечиш орқали муомала кўникмаларини шакллантириш воситасида ижтимоий ва ўзаро ҳамкорлик кўникмаларини тарбиялайди. Ўқувчилар ижтимоий ва ўзаро ҳамкорлик кўникмаларини тенгдошлари билан муносабатлар орқали намоён этади.

Педагогик нуқтаи назардан, муваффақият ҳолати - бу мақсадга мувофиқ, уюшган шароит, бу шароитда ҳам шахс, ҳам бутун жамоа фаолиятида сезиларли натижаларга эришиш мумкин. Ўқитувчининг вазифаси ҳар бир ўқувчига ютуқ қувончини ҳис қилиш, ўз имкониятларини англаш, ўзига ишониш имкониятини беришдир. Замонавий жиҳозлар самарали ишлаш учун чексиз имкониятлар очишига қарамай, синфда муваффақият қозониш учун шароит яратиш жуда қийин. Аммо, амалиёт шуни кўрсатадики, замонавий талаба тезда тўяди, унга тобора кўпроқ янги техника ва усуллар керак.

Дарсни тайёрлашда бу эътиборга олинади, шунга мувофиқ дарс тайёрланмоқда. Хўш, дарсда муваффақиятли вазиятни қандай яратиш керак? Ўқитувчи ишидаги асосий парадигма "ҳар бир болага ўзларини исботлашларига имконият беринг". Муваффақиятли вазиятда яшаб, бола қадр-қимматга, ҳаётдан қониқишга еришади. Шундан келиб чиққан ҳолда, ўқитувчи ўз фаолияти тўғрисида қуйидагилар ҳақида ўйлаши керак: • безовталикни йўқотиш; • юқори мотивация; • талабанинг обрўсини ошириш; Талаба фаолиятининг ҳар бир тафсилотини юқори баҳолаганлик . Агар барча болаларга "ҳикояларни ўргатиш" имконсиз бўлса, унда тарихдан қўрқмасликни ўргатиш, уни севишга ўргатиш амалга ошириладиган мақсаддир.

Айнан шу мақсадда менинг дарсдаги фаоллигим. Бу нимада аниқ намоён бўлади? Муваффақиятли вазиятни яратишда мен ўқувчининг нуқтаи назари бўйича иккита асосий таркибий қисмни ажратаман, биринчидан, дарсда ўқитувчи томонидан ўрнатилган "ташқи" шартларни, иккинчидан, талабага боғлиқ бўлган "ички" шартларни. Бошқача айтганда, дарсда безовталикни ва юқори мотивацияни бартараф етишни таъминлаш керак. Ушбу ғояга асосланиб, мен муваффақиятли вазиятга эришиш воситаларини танлайман, уни қуйидаги босқичларга бўлиш мумкин:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1) ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ҳамкорликни ташкил этиш воситалари; 2) дарсга тайёргарлик жараёнида талаба учун синфда ва уйда қулайлик яратиш учун воситалар; 3) билим, кўникмаларни ўзлаштириш мониторинги воситалари; 4) ушбу барча воситаларни амалда қўллашга имкон берадиган бундай дарс алгоритмини яратиш. Дарсдаги ҳамкорлик нимага боғлиқ?

Менимча, дарсдаги дўстона муҳит муҳим аҳамиятга эга ва уни яратишда ўқитувчи ҳал қилувчи рол ўйнайди. Биринчидан, бу ўқув жараёнининг етакчиси. Иккинчидан, бу унга таъсир қилиши мумкин. Бу дарсдаги психологик вазият билан боғлиқ бўлиб, у ўқитувчининг ташқи кўриниши, имо-ишоралари ва юз ифодалари, ўқитувчининг мулоқот услуби, синфни бошқариш услуби ва бошқалар билан белгиланади. Дарс, биринчи навбатда, ўқитувчининг синфда гуруҳ ва ҳар бир ўқувчи билан бизнес алоқаси. индивидуал равишда, биз ушбу жараёнда шахсий бошланғични минималлаштиришимиз ёки болаларга "бизда ҳамма нарса яхши, биз қувноқ ва дарсларга тайёрмиз, шу билан уларни бизнинг издошларимизга ергашишга ундашимиз" керак. масалан. "Имо-ишоралар ва юз ифодалари ўқув жараёнининг муваффақиятига қандай таъсир қилиши мумкин?" - деб сўрайсиз.

Ўқувчиларга бўлган муносабат ҳар доим ўқитувчи улар билан мулоқотда намоён бўлади ва у нафақат оғзаки шаклда амалга оширилади. Кўз, имо-ишора, поза, ҳатто жим бўлиш ҳам жавоб ёки шерикнинг мурожаатидир. Ўзимизни қандай бошқаришимиз, оғзаки бўлмаган алоқа воситаларидан қандай фойдаланишимиз - бола билан ҳамкорлик қилиш имкониятига, унинг бизга бўлган ишончига сезиларли даражада таъсир қилади. Шунинг учун, ўқитувчи, менинг фикримча, яширадиган ҳеч нарсаси йўқлигини кўрсатиб, талабалар олдида доимо кўриниб туриши керак (суҳбат давомида столдан тўсиқлар бўлмайди). Шу билан бирга, "ёпиқ" имо-ишораларга йўл қўйилмайди: қўллар ва оёқларни кесиб ўтиш, табассум билан кутиб олиш, қошларини очмаслик, кафтларни очмаслик, муштларни юммаслик ... Ўқитувчи унинг кайфиятини кузатиши керак. У дарҳол қайғули, тушкун кайфиятни кўтариши керак.

Йигитлар баланд кўтаринки, хушчақчақ, хушчақчақ кайфият билан ажралиб турадиган одамларни кўпроқ жалб қилишади. Аксинча, улар ғамгин, жирканч ва зерикарли одамлардан қочишади. Болалар қайғу, катталарнинг тушкунлик кайфиятида. Шахсий фазилатларга

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

асосланиб, ўқитувчи талабалар билан мулоқот қилиш қоидаларини танлайди, бу улар билан алоқа ўрнатишга ва ҳамкорлик ҳолатини яратишга олиб келади. Ўқитиш ва таълим жараёнларининг самарадорлиги ушбу алоқа ва етакчиликнинг услуб хусусиятларига боғлиқ.

Мулоқот услуби ўқитувчи ва талабаларнинг ижтимоий-психологик ўзаро муносабатларининг индивидуал типологик хусусиятларини англатади. Мулоқот услубида ифода топинг: - ўқитувчининг коммуникатив имкониятларининг хусусиятлари; - ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатларнинг устунлиги; - ўқитувчининг ижодий шахсияти. Менимча, биринчи ва учинчи услублар ҳамкорликка олиб келмайди. Аммо шу билан бирга, авторитар жамиятда, масалан, мактабда демократ бўлиш жуда қийин. Шунинг учун мен иккита услубнинг комбинациясидан фойдаланиш вариантини танлайман: демократик ва авторитар. Бир томондан, ўқитувчи ишнинг умумий мақсадларини белгилайди ва топшириқни қандай бажариш кераклигини кўрсатади.

Биз болага масъулиятли ва интизомли инсон сифатида қараймиз ва унга бу ҳақда хабар берамиз. - Шундай қилиб, биз унинг чинакамига айланиши учун зарур шарт-шароитларни яратамиз. Бундай тайёргарликка бўлган шубҳалар муваффақиятга психологик муносабатни келтириб чиқаради ва кучга ишонч бағишлайди. Топшириқни бажаришдан олдин, болада ўзига бўлган ишончни шакллантириш керак, ҳамма нарса яхши бўлади, деб айтиш керак. Ўқитувчининг сўзлари катта таъсир кўрсатиши мумкин: "Мен сизга ишонаман", "Агар уриниб кўрсангиз, муваффақиятга эришасиз." Акс ҳолда, салбий муносабат худди шу механизмни қўзғатади, аммо аксинча. Бола ўзини ёмон ҳис қилади ва ўқитувчи шу билан унинг келажакдаги ночорлик комплексига пойдевор қўяди.

Ва ушбу фаолиятни ташкил этиш аллақачон ўқитувчи ва талабанинг биргаликдаги ижоди бўлиб, у ерда улар тенг томонлар, ходимлар сифатида иштирок этадилар. "Муваффақият қонуни" да айтилишича: ўқитувчи муваффақият қувончини бошдан кечирган ўқувчи учун муваффақият келтириши мумкин, фақат бахтли одам бахтли одамни тарбиялайди. Муваффақиятли вазиятларни яратиш дарсга таъсир қилишни ўрганиш орқали ўрганишга бўлган қизиқишни ривожлантириши мумкин: • янгиликнинг таъсири; Хилма-хилликнинг таъсири; • ўйин-кулгининг таъсири; • шакллар ва тақдимот услубининг жозибаси таъсири; • ёркин бадиий воситалардан фойдаланиш самараси; • тасвирларнинг таъсири; • ўйин эффекти; Талабанинг ажаблантирадиган таъсири; • қидирув эффекти.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Талаба - ўқитувчи ҳамкорлигининг "очиқ истиқбол тамойили",менинг тушунишимча, бу ўқувчига дарс давомида унинг ҳаракат йўналишини мустақил равишда бошқаришга имкон берадиган услублар тўпламидир, бу маълум вақт оралиғида шахсий мақсадлари, фаровонлиги ва кайфиятига боғлиқ бўлади. Бунга қуйидагилар киради: ўз-ўзини ҳурмат қилиш, сизнинг (талаба) фаолиятини режалаштириш. Ўз-ўзини баҳолаш - бу ўқувчи йил давомида ёки чоракда ҳаракат қиладиган натижадир. Сиз буни ўзингиз танлашингиз мумкин ва ўқитувчини мақсад ҳақида хабардор қилиш орқали талаба унга қандай тайёргарлик кўришни ҳал қилиш имкониятига эга бўлади.

Натижада ўзаро тахминлар бўйича келишув "тузилди". Бу бир томондан ўқувчининг ва ўқитувчининг ташвишини камайтиради. Чорак натижаларига кўра, биргаликда фикр юритиш ва натижага нима учун эришилмаганлигини / натижага эришиш мумкинлигини ва ундан юқори мақсадларни қўйиш мумкинми ёки мумкинми, ёки бир мунча вақт ўз-ўзини талаб қилиш даражасини пасайтириш керакми? Режалаштирилган бирон бир мақсадга қандай йўлдан боришни билмасдан эришиш мумкин эмас, чунки талаба нафақат дарсликни тўлиқ ўрганишини, балки унга эришиш учун қандай ҳаракатлар кераклигини ҳам билиши керак. Бу ерда "Эълон" ва талабанинг ўқув материаллари ўқитувчи ва талабага ёрдам бериши мумкин.

"Эълон" қабулхонаси - ўқитувчи талабани бўлажак мустақил тест, билимлар тести тўғрисида олдиндан огоҳлантиради ва талаба нима қилиши кераклигини олдиндан муҳокама қилади: Масалан, иншо режасини кўриб чиқинг, биринчи вариантни тингланг. жавоб. Қайсидир маънода, у яқинлашиб келаётган ҳаракатларнинг репетициясига ўхшайди. Шубҳаланувчилар учун бундай тайёргарлик муваффақиятга психологик тайёргарликни яратади, кучга ишонч бағишлайди. Ўқув услубий мажмуа -талабада параграфлар, хариталар ва ҳоказолар учун вазифалар белгиланади, улар билан танишиб чиққач, бола қобилиятини баҳолашга янада яқинлашиши ва кучларини тақсимлаши кераксиз стрессли вазиятлардан қочишга ёрдам беради.

Шундай қилиб, юқорида айтилганларнинг барчасини кузатиб, биз талаба ўқитувчи ўргатадиган киши эмас, балки ундан ўрганган киши бўлган вазиятга тушишимиз мумкин. Ўқитувчи талабаларга янги маълумотларни етказадиган мутахассис сифатида ишламайди,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

балки ўқув жараёнининг ташкилотчиси, талабалар ташаббусининг етакчиси бўлиб, уларга керакли ёрдам ва қўллаб-қувватлашни таъминлайди. Бу дарсда ўқув жараёнининг асосий "ходими" ўқувчи бўлиб, унинг ўқув фаолияти таълим ва шахсиятини шакллантиришга объектив қаратилган. Муваффақиятли вазиятга эришиш учун воситаларнинг иккинчи гурухи - бу синфда ва уйда талабага қулайлик яратиш, дарсга тайёргарлик кўриш.

Мактабга борадиган ҳар бир бола, бугунги кунда дарсда уни нима кутаётганини билишни хоҳлайди? Ва енг муҳими, бугун дарсда нима қиламиз, ўқитувчи нима ҳақида сўрайди, қандай мустақил ёки назорат иши ёзамиз, уй вазифаси нима бўлади. Талаба учун ўқув услубий мажмуа ушбу саволларга жавоб беришга ёрдам беради. Бу нима? Бу ўзига хос тематик ва дарсларни режалаштириш, аммо талаба учун,унинг тузилиши қуйидагича: 1. Ўрганилаётган мавзу. 2. Таълим стандарти: а) талаба билиши керак; б) талаба бунга қодир бўлиши керак. 3. Уй вазифаси. 4. Хабарлар мавзулари. Кўрсатилган уй вазифаси қатламли характерга эга ва бир нечта қисмлардан иборат. Баъзилари мажбурий ва тўғри тўлдирилганда талабалар 4 балл олади.

Беш балл олиш учун сиз қўшимча топшириқларни бажаришингиз керак. Агар сўралса, талаба вақтини ҳисобга олган ҳолда ушбу вазифаларни олдиндан бажариши мумкин. Ўқув услубий мажмуа -даги энг қимматли нарса, ўрганилаётган мавзу бўйича ҳар кимнинг қобилиятлари ва имкониятларига мос равишда мустақил мустақил ишларни ташкил етишга ёрдам беришидир. Ҳар бир мавзуни очишда тематик равишда урғу берилган абстрактдан фойдаланилади, унда мавзунинг енг муҳим жиҳатлари таъкидланади. Бу иккита мақсадга эришишга имкон беради: биринчидан, хатни ёддан ёдлаб олишни олдини олади, иккинчидан, талабага матндан жавоб учун зарур бўлган маълумотларни танлашга имкон беради, бу бизнинг дарсликларимизнинг катта ҳажмлари учун муҳим бўлган тахминий жавоб режасини билади ва шу билан кераксиз ортиқча юкламасликка ёрдам беради. уй вазифасини тайёрлаш пайтида талаба.

Мажмуадаги барча дарслар талабаларнинг ижодий фаолияти учун асос бўлган ягона алгоритм асосида қурилган. Шунингдек ўқув услубий мажмуа, агар бола дарсда бўлмаган бўлса, йўқолган мавзуни тўлиқ ўрганишга ёрдам беради. Мураккаб бўлиб, талаба дарсга борар екан, у ҳақида ҳамма нарсани билади, яъни ўзини қулай ҳис қилади. Ўқув услубий

мажмуанинг мавжудлиги боланинг дарсдаги стрессини тўлиқ енгиллаштиради, бу унинг соғлиғига ижобий таъсир қилади. Ўзини у ёки бу талабалар гуруҳига муаллим эмас, балки талабанинг ўзи ҳам талаб қилади! Дифференциал таълим ҳар бир ўқувчига ўз вақтида ишлашга имкон беради, вазифани бажаришга имкон беради, ўқув фаолиятига қизиқишни оширишга ёрдам беради ва ижобий ўқув мотивларини шакллантиради.

Дифференциал таълимнинг асоси талабаларнинг кўп босқичли гуруҳларини шакллантиришдир. Ҳар бир гуруҳ учун ўқитувчи машғулотнинг мазмуни ва болаларнинг эҳтиёжларига мос келадиган нарсаларни танлайди. Бундай гуруҳларни яратиш янги материални ўрганиш, олинган билимларни мустаҳкамлаш ва қўллаш босқичида бўлиши мумкин, билимларни назорат қилиш ва текшириш кўп босқичли бўлиши мумкин. АКТ,уларсиз бирорта ҳам дарсни ўтказиш мумкин эмас, чунки улар бир вақтнинг ўзида иккита талаба хотирасини: эшитиш ва ингл. Сўз билан тасвирлаб бўлмайдиган мураккаб тизимларни "бармоқлар устига" кўрсатишга рухсат беринг. Бундан ташқари, улардан интерфаол режимда фойдаланиш мумкин, шундан сўнг дарс "иш" дан баъзи талабалар ўзларини яратишни хоҳлайдиган қизиқарли ўйинга айланади, бу эса уларга ўз кўникмаларини кенгайтириш ва ўқитувчини мажбурламасдан мавзуни чуқурроқ киритиш имконини беради.

Ва чиқиш пайтида, ўз маҳсулотларини намойиш қилиш пайтида, болалар улар учун синфдошларининг мазмунли баҳосини олишади. Муваффақият ҳолатини яратиш учун қандай бошқариш воситаларидан фойдаланиш керак? Баҳолаш деярли ҳар доим табиатан субъективдир, шунинг учун ўқитувчининг касбий маҳорати жуда муҳимдир ва салбий натижалар мавжуд бўлса, бирор нарсада муваффақият қозониш ва уни бутун синф ва ўқувчиларга намойиш эта олиш керак. Ва бу ерда асосий нарса рағбатлантирувчи баҳолаш функциясидир, чунки муваффақиятга эришиш шароитида бола қадр-қимматга ега бўлиб, ҳозирги пайтда ҳаётдан мамнун бўлади ва бу унинг хилма-хиллигидаги бахтдир. Болалар билан ишлашда сиз "шахсий эксклюзивликни таъкидлаш" техникасидан фойдаланишингиз мумкин.

Уни амалга ошириш учун ўқитувчи бир ёки бир нечта болалар учун шахсан ишлаб чиқилган кўп даражали вазифаларни, кроссвордларни ишлаб чиқади. Турли хил синфлар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

учун ўқув материалини умумлаштириш учун дарснинг турли хил суръатлари ва турли хил саволлар тизимлари тақдим этилади. Фаолиятнинг зарур усули - бу қисмнинг юқори баҳоси - энг қийин, чунки баъзан синфдаги барча болалар буни қадрлашлари ва вазиятни қўллаб-кувватлашлари учун сиз энг юқори баҳо берадиган қисмни ажратиш қийин. Бунинг учун мукофот балларидан фойдаланаман. Улар сизнинг болангизга ижобий баҳо бера олмаган жавобингиз учун мукофотлашингизга имкон беради ва дарс учун бир нечта шундай жавоблар бўлиши мумкин ва талаба, у баҳо олганига ишонган ҳолда, дарс охирида ўқитувчига боради ва жавобан сиз бугун етарли ишламаганлигингизни эшитади

Қандай қилиб у ўз фаолиятини исботлай олади? Ва агар бу жуда камдан-кам қўлини кўтариб, жавоб беришдан қўрқадиган бола бўлса? Қандай қилиб уни фаолиятга рағбатлантириш керак? Соврин баллари, биринчидан, ўқувчиларни дарсдаги фаолиятини нисбатан холисона назорат қилишга имкон беради, иккинчидан, улар сизга жавоб беришда дадил бўлишга, хато қилишдан қўрқмасликка имкон беради, чунки улар нотўғри жавоб учун "иккитани" қўймайдилар, учинчидан, улар сизга кўпроқ фойдаланишга имкон беради. билимларни тўғирлаш ва фронтал сўровда болалар сони, тўртинчидан, уларнинг ёрдами билан сиз болани кичик жавоблардан бошлаб ва батафсил жавоблардан бошлаб, босқичма-босқич жавоб беришга ўргатишингиз мумкин; алгоритмга мувофиқ фикр юритиш қобилияти шаклланади: кучли, ўртача ва заиф форма учун гапириш қобилияти.

Бундан ташқари, турли хил ҳаракатлар учун дарсларда талаба ютуқ баллари кўринишида бонусларни олади ва йиғади ва улар нималарга сарфланиши мумкинлигини фақат ўзи белгилайди. Бундан ташқари, талаба баҳолашни белгилайди, чунки уларнинг ҳар бири ҳар хил қийматга эга, уни йил бошида ўқитувчи талабалар билан биргаликда аниқлаган. Шундай қилиб, у ўз ютуқларини бошқаради ва мустақил равишда қарорлар қабул қилади. Танланган технология муваффақиятининг енг муҳим кўрсаткичи бу синфдаги яхши ният ва атмосфера жавобидан қўрқишдир. Талабаларнинг бундай ҳиссий ҳолатини маркировка ҳақидаги хавотир каби тузатиш учун мен талабаларга паст баҳони тузатишга имконият бераман. Бу қўшимча дарс ёки машғулот учун вақт бўлиши мумкин.

Асосийси, бола олинган белгининг дунёнинг охири эмаслигини билади, ҳамма нарсани тўғрилаш имконияти мавжуд. Таълим тизимимизнинг асосини синфлар тизими ташкил

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

этади. Унинг доирасида муваффақиятли вазиятни самарали яратиш мумкинми? Албатта, ҳа, агар юқорида санаб ўтилган барча усулларни амалиётда қўллашга имкон берадиган бундай дарс алгоритми яратилса. У учта дидактик бирликдан иборат бўлиши керак: 1. билимларни тузатиш. 2. Билимни назорат қилиш. 3. Янги материални ўрганиш. Маълумки, боланинг ақлий фаолиятининг энг катта даражаси 15-35 дақиқалик дарснинг ўртасида содир бўлади. Билимларни муваффақиятли топшириш учун шарт-шароитлар яратиш учун уни белгиланган вақтда ўтказинг.

Дарснинг биринчи босқичида, билимларни тўғрилашни ва дарсга "юмшатиш" ни осон ва қисқа саволлардан бошлаб мураккаброқ ва батафсил саволларга ўтишни бошланг, шунда боланинг мияси аста-секин янги мавзуга ўтади ва дам олиш режимидан ишчи дарсга ўтади. шарт. Тўғри жавоблар учун совринли балларни тақсимлаш билан, олдинги сўровдан фойдаланиш, уй шароитида болалар уйда жавоблар тайёрлаган саволларни бериш ўринли бўлади. Сиз ишнинг қуйидаги шаклларидан фойдаланишингиз мумкин: ўзаро савол ва гуруҳларнинг топшириқлари, ўзаро тушунтириш, эвристик суҳбат, интервю. Шу билан бирга, ўқитувчи ўқувчиларнинг билимларини тўғрилайди, билимлардаги бўшлиқларни ва материални тушунишда хатоларни аниқлашга вақт топиши мумкин.

Қандай бўлмасин, дарсга тайёрланмаган ёки етарлича тайёрланмаган ўқувчилар билимлардаги бўшлиқларни тўлдиришлари ва муваффақиятга кўпроқ ишонч билан бошқаришлари мумкин, ва шунинг учун камроқ стресс ва салбий. Натижада, вақтни назорат қилишни бошлаши билан, болалар имкон қадар ўзларини ифода этишга тайёр бўлишади. Муваффақиятли вазиятни яратиш учун билимларни ёзма равишда назорат қилиш (мен асосан ундан фойдаланаман, чунки у қисқа вақт ичида барча талабаларнинг билимларини текширишга имкон беради) ортиқча бўлиши керак. Яъни, ўқувчиларга маълум бир балл учун маълум миқдордаги балларни тўплаш вазифаси берилади. Ҳар бир топшириқ учун баллар берилади ва "аъло" баҳоси учун зарур бўлганлардан кўпроғи мавжуд.

Шундай қилиб, талаба вазифаларни танлашда ўзгарувчан бўлиб кўринади ва у ўзи керак бўлган белгини олиш учун қанча ва қандай тартибда бажариш кераклигини мустақил равишда ҳал қилади. Шунинг учун у ўзи учун жавобгардир, бу талаба ва ўқитувчи ўртасидаги зиддиятни камайтиради. Шу билан бирга, ўқитувчига илғор талабалар учун иш

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ва мураккаб топшириқларни киритиш имконини беради. Иккинчи вариант - мониторинг: тайёргарлик даражаси паст бўлган талабалар репродуктив даражадаги топшириқларни ижобий баҳо бериш учун ўқитувчиларнинг мажбурий изоҳлари ва дастурлашлари билан оладилар. Конструктив даражада ишлайдиган болалар ўзлари учун вазифани танлаш имкониятига эга.

Ўқувчиларга топширикни тушуниш ва бажаришга ёрдам берадиган ижодий топшириқлар аниқ кўрсатмалар билан, баъзан эса бажариш намунаси билан берилиши мумкин. Шундай қилиб, ўқув дастурининг дастлабки босқичлари талабани муваффақият қозониш, ўз қобилиятларига ишонч ҳосил қилиш ва ўзларини исботлаш. Дарснинг кейинги босқичида - янги материални тушунтиришда - мавзуни сиқилган шаклда тақдим этишда ишлатаман, у сизга визуал ва хотирасидан дарҳол фойдаланишга имкон беради, бундан ташқари, хаёлий фикрлаш қобилиятига эга бўлган талабалар сифатида ва мавҳум фикрлашга эга бўлганлар ўзаро боғлиқ элементлар тизими сифатида. Бу сизга янги материални яхшироқ тушунишга имкон беради.

Аммо дарснинг сўнгги босқичида ақлий фаоллик пасайганлиги сабабли бу ерда эслатма ёзиш ва диаграмма тузиш учун восита хотираси ишлатилади. Бундан ташқари, у ўқувчилар параграфдан олинган билимларни кетма-кет эмас, балки танлаб олишлари мумкин бўлган мавзуни ўрганиш учун "скелет" беради, бу режада шифрланган саволга жавоб беришга ёрдам беради. Шунингдек, дарснинг ушбу босқичида сиз фокуслардан фойдаланишингиз мумкин: оммавий нутқ ёки рол алмашинуви. Бундай ҳолларда, сўз янги материалнинг барча ёки бир қисмини олдиндан тушунтиришни тайёрлайдиган энг кучли / тайёр болаларга берилади. Биринчи ҳолда, ўқитувчининг ҳамроҳи сифатида ҳаракат қилиш, иккинчисида - уни алмаштириш. Уларга у билан тенглашиш, бўйсуниш эмас, балки ўқув жараёнининг шериги бўлишларига нима ёрдам беради. Хулоса қилиб айтмоқчиманки, бола ўқиш истагига тўла мактабга келади. Агар бола ўрганишга қизиқишни йўқотса, нафақат оилани, балки мактабни ва уни ўқитиш усулларини айблаш керак. Муваффақият - бу боланинг ички кучининг манбаи бўлиб, қийинчиликларни енгиш учун енергия беради, ўрганиш истаги. Болада ўзига ишонч ва ички қониқиш пайдо бўлади. Буларнинг барчасига асосланиб, биз хулоса қилишимиз мумкин: мактабдаги муваффақият эртанги ҳаётдаги муваффақият!

Бугунги ўқитувчи техника асри ўқитувчиси, замонавий ўқитувчи. Демак, унинг дарси ҳам замонавий ёндашувларга асосланган бўлмоғи керак.

Адабиётлар:

1. Азимбаев М.С., Адилов Ж.Х. Ўзбекистон тарихини ўқитишда “оғзаки тарих” (oral history) асосидаги кўмакчи-ўқув қўлланма // Фан соҳасида инновациялар: назария ва амалиёт. Иқтидорли талабалар илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.: ЎзМУ. 2011.
2. Азимбаев М.С. Оғзаки тарих (Oral history) услубининг Ўзбекистондаги истиқболлари // Тарихий манбашунослик муаммолари. Конференция материаллари тўплами. – Т., 2013.
3. Азимбаев М. С. Тарихни ўрганишда “оғзаки тарих” (Oral history) услуби // ЎзМУ хабарлари, 2013. Махсус сон.

4.Белкин А. С. Ситуация успеха. Как ее создать? М.: Просвещение, 1991.

5. Казакова Е. Путь по лестнице успеха // Народное образование, 1996. № 6. С. 87–90.

6. Анализ ситуации - условие успеха // В. Соловьева, М. Глазунова, Е. Полевая и др. // Народное образование, 1996. № 1. С. 80-84.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Мактаб таълимида дарсларни ахборот ва илғор педагогик технология асосида ўқитишнинг дарс самарадорлигини оширишдаги аҳамияти

**Курбонов Зирилбой Норбоевич**

Сурхондарё вилояти Қизирик тумани 30- мактаб

маънавий маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари

Таълим тараққий этаётган бугунги кунда таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини ошириш ва бунда илм-фан,техника тараққиётидан кенг фойдаланиш, фойдаланганда ҳам унумли ва тушунган ҳолда фойдаланиш, эгаланган компетенцияларни ҳаётда, амалиётда қўллай олиш муҳим аҳамият касб этади. Ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этиш бугуннинг долзарб вазифаларидандир. Шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан бирга, унинг салбий оқибатлари ҳам ҳаётимизга кириб келмоқда. Бундай хатарлардан ҳаётимизни асраш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, аввало, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган асарлар орқали, бугунги кунда жаҳон майдонида юз бераётган кескин ақл-заковат ва истеъдод мусобақасида беллашувга қодир бўладиган ёшларни тарбиялашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқдаки, бунинг учун таълим муассасаларида дарс бериб,фаолият юритиб келаётган ўқитувчига замон билан ҳамнафас бўлиш, талаб даражасида меҳнат қилиш, ўқувчи ёшларга таълим-тарбия беришдек вазифа катта масъулият юклайди.

Замонавий ўқитувчи бугунги “ахборот асри” деб номланган янги даврда:

- ўз билимларини мунтазам ошириб боришлари;
- ахборотларни тўплаш;
- уларни таҳлил қилиш;
- ахборотни қайта ишлаш ва уларни узатиш;
- муаммолар ва келишмовчиликларни ҳал этиш;
- мустақил қарорлар қабул қилиш;
- ижтимоий - иқтисодий ҳамкорлик қилиш;
- илғор технологиялардан фойдалана олиш ва уларни амалиётга татбиқ эта олишлари талаб этилади.

Шунингдек, улар:

- мактабда меҳнат қилиш лаёқатига тайёр бўлишлари;

ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- олган билимларини амалиётга татбиқ эта олишлари;
- кундалик ҳаётда қўлловчи технологиялардан хабардор бўлиш-лари;
- муаммо хусусида чуқур фикрлаш ва ўз билимини ошириб бориш;
- меҳнат жамоаси ва мутахассислар билан ҳамкорлик қила олиш;
- зарурат бўлганда қарорлар қабул қилиш,
- муаммоларни ҳал этиш ва янги фикрлар яратишда технология-лардан фойдалана олишлари талаб этилади.

**Ахборот билан ишлаш компетенциясини шакллантиришда:**

❖ мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудиовидеоёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқалар) фойдалана олиш;

❖ медиавоситалардан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш, хавфсизлигини таъминлаш ва фойдаланишда медиамаданият (турли медиа асарларни таҳлил қилиш, баҳолаш, яратиш учун зарур бўладиган билим, кўникма ва малакалар йиғиндиси)га риоя қилиш;

❖ маълумотлар базасини ярата олиш, асосийларини танлай олиш ва уларни таҳлил қила билиш;

❖ кундалик фаолиятда учрайдиган ҳужжатлар билан ишлай олиш (оддий табрикномалар ёза олиш, анкеталар тўлдириш, меҳмонхона рўйхатида ўзи тўғрисидаги маълумотларни қайд эта олиши ва бошқалар)ни билиши ва амалда қўллай олиши керак бўлади.[1]

**Демак,** таълимда компетенциявий ёндашув орқали ўқувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли типдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатишимиз, таълим муассасасида умумтаълим фанлари бўйича ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишлари билан биргаликда, ўз фикрини бошқаларга тушунтира олиш, бошқаларни тинглаб уларни тушуна олиш, баҳсга киришиш, кундалик ҳаётда муваффақиятларга эришиш учун ўқувчи ушбу ахборотларни излаб топиши, таҳлил қилиш, билим, кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётларида учрайдиган муаммоларни ҳал этишда фойдалана олишларини шакллантиришимиз зарур.

Буларни албатта, ҳар бир ўқитувчи ўзининг самарали дарслари орқали амалга оширади. Бу борада, айниқса, таълим - тарбияни медиатаълим орқали амалга оширса, амалий натижа яққол кўзга ташланади.

Медиа таълим интерфаол, ўқувчига индивидуал таъсир этадиган усул сифатида таълим жараёнига жадал суръатлар билан кириб келмоқда. Медиатаълим ўқувчини шахсий фикр юритишга, ижодкорлик фаолиятларини ривожлантиришга, ахборот олиш уни қайта ишлаш, синтез қилиш, шахсий хулосалар чиқаришга ўргатади.[1]

Синф хоналарига матбуот, телевидение, радио, кино, видео ва интернетлар олиб кирилмоқда. Буларнинг барчаси "медиадарслар" номи билан таълим жараёнини ташкил этишга ёрдам бермоқда. Шу муносабат билан мактаб таълимига

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

медиадарслар киритилмокда. Медиадарсларнинг қандай методик имкониятлари бор ва улар қандай афзалликларга эга?

- Ўқув жараёнида бир вақтни узида ўқитувчи назарий ахборотларни бериш билан материалларни юқори даражадаги замонавий техника воситасида намойиш этиш имкониятига эга бўлади. Ўқув объектларини ва воқеаларини моделлаштиради, уни автоматик равишда тест кетма-кетлигида намойиш этади, тасвирини туширади.
- Ўқув меҳнат фаолиятларини ташкил этишда компьютер техникаларини қўллаш, фойдаланиш имкониятини туғдиради. Шахсан ўзлари ўқув материалини амалиётда синаб, бажариб бориш имкониятига эга бўладилар.
- Ўқувчининг якка тартибда ишлаган ҳолда қизиқиш ва ижодий ишларини такомиллаштириш имконияти яратилади.
- Мультимедиатехникаси уларнинг ўқув мазмунини ўзлашти-ришларига кизиқишини янада оширади.
- Ўқувчида кўргазма–образли таъсирда фикр юритишга, моторик ва вербал коммуникатив кўникмаларнинг шаклланишига олиб келади.
- Ахборот билан ишлаш (ахборот қидириш, зарурларини ажрата билиш, қайта ишлаш, тартибга келтириш). Ахборотлар мазмунини тушуниш. Мантиқий яқинларини ажратишга ўрганади. Шулар асосида ахборотни олиш маданияти шаклланади.

Медиатаълимнинг бош мақсади – асосий қонунларни тушунишга ёрдам бериш, оддий йўналишлардаги медиаахборотлар тилини ўрганиш; ўқувчини бадиий ўсиши, ривожланишига ҳисса қўшиш, медиатекстларни малакали таҳлил эта олиш, ўргатиш ва қабул қилиш кўникмасини шакллантиришдан иборат.[2]

Унинг педагогик стратегияси медиатекстларни бадиий таҳлил кила олиш, унга луғавий асосида баҳо бера олишдан иборатдир.

Медиатаълим (“Медиатаълим деганда педагогика назарияси ва амалиётида махсус билим соҳаси сифатида қаралиётган оммавий коммуникация воситаларини эгаллаш учун назарий ва амалий кўникмаларини шакллантиришни тушуниш лозим”. ЮНЕСКО)[3] қандай шаклланади? У бир хақиқатни ифодалайди-ми, кимнинг манфаатини кўзлайди, унинг мазмуни нималардан иборат ва ўқувчилар уни қандай қабул қиладилар?

Таъкидлаш жоизки, медиатаълимнинг марказида ўқувчи шахси туради, унинг қизиқиш, хоҳиш, истаклари ҳисобга олиниши, олинган ахборотларга танқидий кўз билан қараб, уларни танқидий фикрлашга ўргатиш керак.

Россия ва бошқа мамлакатлар олимларининг  фикрига кўра, медиатаълим тарбиявий, таълимий аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчиларни ўқув-билиш жараёнида креатив фикрлашга ўргатади.[2]

Медиатаълимнинг ўқув-билиш жараёни қуйидаги босқичлардан иборат:

• медиатаълим тарихи ҳақидаги билимлар, унинг тузилиш назариясини ўрганиш-ўзлаштириш;

• медиатекстларни онгли қабул кила олиш, унинг тилини билиш ва "ўқита олиш" шу ҳақида тасаввурларини кенгайтириш, кўриш орқали хотирасини мустаҳкамлаш, танқидий, мантиқий, ижодий, образли, муаммоли фикр юритишни ўрганиш;

• медиа материалларни креатив фикрлаш орқали амалиётда фойдаланишдан иборат.[4]

Медиатаълимнинг энг муҳим вазифаларидан бири ўсиб келаётган янги авлодни тобора жадаллашиб бораётган ахборотлар оқимида ҳар хил ахборотларни олиш, тушуниб етиш, уни инсон психикасига таъсирини билиш ва ундан тўғри, мақсадли фойдаланишга олиб келади.

Медиатаълим олинган ахборотларни интеграция қилиш шу асосида шахсий фикрини билдириш ва қайта олишга чорлайди. Ўз фикрини эркин билдириш, шахсий ривожланиш, турли информацион хуружларга қарши фикр билдириш орқали унинг ижтимоий жамиятдаги фаоллиги ошади. Медиа ахборотлардан фаол ва тўғри фойдаланиш маданияти шаклланади. Шу орқали берилаётган ахборот ҳақида фикр юрита бошлайди ва ахборот билан ишлаш компетентлиги шаклланади.

Медиатаълимда ўқувчи креатив фикр юритади, яъни янги тушунчаларни ўзлаштира бошлайди. Жумаладан, "фабула", "сюжет", "мавзу", "конфликт", "композиция", "кадр", "план", "монтаж" каби тушунчаларни ўқув жараёнига алоқадорликда тушуниб, амалда қўллаб, ўзлаштириб боради.

Шунинг учун ҳам медиадарслар:

• "Бадиий имитацияли" – кичик сценариялар, минисценария, медиатекстлар тузиш, уни интерфаол усулда намойиш этиш;
• Театрлашган вазият ҳосил қилиш, (медиатекст асосида айрим эпизодларни инсценировка қилиш, медиатекст жараёнини намойиш этиш);
• Тасвирий–имитация тайёрлаш (афишалар яратиш, фотокўргазма, маълум мавзуда асарлардаги расмларни намойиш этиш) кабиларнитушуниш, қўллай олиш кўникмасини ҳосил қилади.[5]

Юқоридаги дидактик материалларни тайёрлаш, намойиш этиш, таҳлил асосида хулоса қилиш, ўқувчини эмоционал қабул қилиш орқали нафис санъатни тушунишга олиб келади. Бу ҳолат ўқувчини умуминтеллектуал ривожланишида, билим олиши, тарбия топишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Медиадарслар берилаётган ахборотларни қабул қилиб олиш, ўзлаштириб олиш жараёнида икки янги компонентлар иштирокини таъминлайди:

***Биринчидан***, медиадарсларда компьютерлар универсал ҳолда қўлланиши ва иштироки билан характерланади.

***Иккинчидан***, анъанавий технологиялар воситалари ёнига дастурли воситалар тўлдирувчи бўлиб киради. У ҳолда айрим предметлар, темаларни ўқитишга,ўзлаштиришга қулай муҳит яратади. Унда таълим мазмуни текста аниқ, равон шакллантирилган бўлади. У таълим мазмуни тасвирланган ҳолда схема, расмлар, жалваллар, видеофрагментлар, овозли, анимацион таъминотлар билан намойиш этилади.[3] Юқоридаги фаолиятни амалга оширишда компьютер ва дастурлар бир-бири билан уйғунлашган, мослашган ҳолда бир-бирини тўлдириши керак; таълим мақсади, мазмуни, шакли, ўқитиш методлари, ўқитувчи ва ўқувчилар фаолияти мувофиқлаштирилади.

Бундай ҳолда ташкил этилган медиатаълимнинг дидактик принциплари, имкониятлари кенгаяди, бойиб боради. Бу эса, таълимни янги принцип - индивидуаллаштирилган, фаоллаштирилган ҳолда ташкил этишни таъминлайди.

Медиадарсларнинг энг афзаллик томони шундаки, таълим жараёнида ўқувчиларнинг ҳозирги ахборот оқимлари жадаллашаётган бир вақтда мустақил ижод қила олиш имкониятлари, қобилиятларини ривожлантириб боради. Шу муносабат билан медиадарслар мазмунини белгилаш, ташкил этишда фақатгина, предмет ёки мавзу мазмунига қараб қолмай, балки унинг таълимий, тарбиявий, умумривожлантирувчи жиҳатларини ҳам ҳисобга олиш керак бўлади. Улар ахборотдан фойдаланиш маданиятини шакллантиришга йўғирилган бўлмоғи, яъни керакли ахборотни олиш қобилиятини, уларни янги техникалар ёрдамида қайта ишлаш, амалиётда қўллаш кўникмаларини ривожлантиришга қаратилиши талаб этилади.

Медиадарслар компьютерлаштирилган синфларда, мультимедиани проекторлар билан жиҳозлашда ўтказилади.Бу дарсларни ташкил этишнинг ўзига яраша санитар –гигиеник меъёрлари, узлуксизишлаш меъёрлари мавжуд. Масалан:

1-синфларда- 10-12 минут;

2-5 синфларда– 15-16 минут;

6-7 синфларда– 20-22 минут;

8-9 синфларда 25-28 минутгача ишлаш мумкин.

Компьютерлашган синфларда ўқув фаолиятининг намунали-самарали кечиши учун у ерда қўшимча жойлаштирилган ўқув столларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бу ҳолат санитар меъёрларга риоя этиш, ўқувчининг ўқув фаолиятини

бошқа жойда ташкил этиш имкониятини яратади. Бундай алмашинувлар ўқувчини саросимага қўйишдан саклайди.

Агар ўқитувчи кўргазмали тасвирлардангина фойдаланса, уларни бир комплект компьютерда экранга намойиш этиш билан чекланади. Синфда ўқувчилар билан ишлашни қуйидагича ташкил этиш мумкин:

- топшириқ, машқларни бажаришда амалий машғулотларни индивидуал ишлаш;
- умумий ўқув лойиҳаларини модели экспериментни бажаришда кичик гуруҳларда ишлаш;
- медиадарсларни ташкил этишда ҳам ўқув жараёнининг ҳамма компонентлари ўз аксини топиши ва фаолият компьютер ва компьютерсиз алмашиниб туриши мумкин;
- фаоллаштириш (ўқув материалини такрорлаш, материални биринчи бора ўзлаштириш, компьютерда ёки компьютерсиз.
- билим, кўникма, малакаларни шакллантириш, ўқув ахборотлари блокининг моҳиятини билиб, тушуниб олиш ва уни мустаҳкамлаш) компьютерда ёки унинги штирокисиз.
- Ўқув материалларини амалда қўллай олиш, ўқув материалини ўзлаштирганлигини назорат қилиш: компьютер ва компьютерсиз вариантда.

Юқоридагилардан маълум бўлдики, медиадарсларни тайёрлаш, самарали ўтказиш, ўқитувчиларнинг ўзини компетентлик даражаси юқори бўлиши учун қуйидагилар талаб этилади:

- Юқори даражадаги касбий маҳорат компетентлигига эгабўлиш;
- замонавий методик тайёргарликка эга бўлиш;
- ўқувчи билан мулоқотга киришиш, малакали психологик, педагогик билимларга эга бўлиш яъни коммуникатив компетенциясига эга бўлиши;
- юксак маънавий, маърифий маданиятга эга бўлиш яъниумуммаданий компетенциясига эга бўлиши;
- замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини ўзлаштириб олиш ва интернетдан фойдаланиш - ахборот билан ишлаш компетенциясига;
- ўқув фаолиятига инновация, педагогик технология, интерфаол усулларни ўзлаштириш - математик саводхонлик, фан - техника янгиликларидан хабардор бўлиш компетенцияси орқали ўқув жараёнини ташкил эта билиш ва амалга ошира олиши талаб этилади.[5]

Бир сўз билан айтганда, мактаблар малакали медиапедагогларни кутмокда. Фикримизча, ўқитувчилар ўзларининг индивидуал дастурларида медиа дарс нима, унинг моҳияти, мазмуни нимадан иборатлигини шахсан ўзлаштириш орқали, таянч ва хусусий компетенцияларга эга бўлиши орқали мактабларда медиатаълимни йўлга қўйишлари, шунингдек, таълим тараққиётида ўзларининг катта ҳиссаларини қўшиши мумкин.

Медиатаълимнинг устиворликларини ҳисобга олиб, қуйидагиларга эътиборни қаратиш жоиздир :

1.1. Медиа ва ахборот саводхонлиги бир бутун жараён сифатида қабул қилиниши ва ўз ичига компетенциялар мажмуи (билим ва кўникмалар)ни олиши лозим;

1.2. Медиатаълим тингловчиларни медиа ва ахборот каналлари билан ўзаро ҳамкорлик қилиш учун касбий саводхонликни шакллантиришга мақсадли равишда йўналтириши керак;

1.3. Ўқитувчиларни ахборотни қидириш, саралаш, баҳолаш ва узатиш кўникмаларига эга бўлишлари жоиз;

1.4. Медиатаълим ўқитувчилар томонидан ўқувчилар ва уларнинг шахсиини тушиниш, ҳамкорлик педагогикасининг ҳаётий зарурати сифатида қабул қилиниши лозим.

Хулоса, медиатаълим педагогларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш билан бир каторда дарс жараёнида ўқувчиларнинг билим, маълумотнинг тез, тушунарли ва ёдда қоларли бўлишини таъмирловчи таълим усули эканини билан ҳам муҳим ўрин тутади.

**Адабиётлар**

1. Каримов И. А. Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006: Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.
3. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.
4. Беспалько В.П. «Слагаемые педагогические технологии». - М. Педагогика 1989.
5. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

6.Бекназарова С.С., Абдурахманов, К.П. Разработка медиаобразовательных курсов на примере дистанционной обучающей среды–медиаобразовательного портала www.mediaedu.uz. М., Mediaeducation 1/2012

7.Луман Н. Медиа коммуникации. М.: Логос, 2005. 280 с.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Эвристик усулларни ижодий тафаккурни ривожлантиришдаги ўрни

Исломова Шахло Саъдуллаевна

Сурхондарё вилоят Шеробод тумани 2-мактаб

тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Эвристик усуллар. Эвристик усулларни ижодий тафаккурни ривожлантиришдаги ўрни. Тафаккур, фикрлаш жараёни. Мустақил фикрлаш. Муаммоли таълим.

Эвристик усуллар, масалан, дастлабки маълумотлар тўла ёки ишончли бўлмаган ҳолда ҳосил бўлган ижодий масаланинг ишга яроқли лекин доим ҳам оптимал бўлмаган ечимини топиш эҳтимолини оширади. Эвристик услублар жуда мураккаб, кўзда тутилмаган вазиятларда ҳам ечимини топиш имконини беради. Эвристика мақсадга эришишга кўмаклашадиган ҳаракатлар услубини белгилайди.

**Тафаккур-** инсон онгининг билиш объектлари ҳисобланмиш нарса ва ҳодисалар ўртасида мураккаб, ҳар томонлама алоқаларнинг бўлишини таъминловчи умумлашган ва мавҳумлашган акс эттириш жараёнидир.

Дунёни тушуниш, англаш ва унга онгли муносабат билдириш жараёни тафаккур, фикрлаш дейилади. Тафаккурнинг олийлиги шундаки, у идрокдан фарқли равишда бевосита акс эттириш бўлмай, нарсалар ва уларнинг хоссаларини, воқеаларни улар йўқ пайтда ҳам акс эттиришга имкон беради. Масалан: Амир темур давлати ҳақида сўз кетганда ўқувчи Амир Темур ҳақидаги кинофильмни кўрмаган бўлса ҳам, марказлашган давлат хусусиятларини билгани учун ушбу ахборотни тушуниб, уни қабул қилади. Бунинг асосида тафаккур жараёни ётади.

Тафаккурни таъминловчи инсон органи- бу бизнинг миямиз бўлиб, энг элементар ҳаракатларни режалаштиришдан тортиб, мураккаб, мавҳум теоремаларни исбот қилишгача қаратилган операциялар мияда содир бўлади. Инсон миясининг фикрлаш қобилияти ва имкониятлари шунчалик салмоқлики, айрим олимларнинг фикрича унинг ишлаш имкониятларини тасаввур қилишнинг ўзи мушкил.

Мияга келган барча ўй-хаёллар-бу фикрлардир. Нормал ўқувчини, инсонни фикрсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ҳар он, ҳар дақиқада одам мияси қайдайдир фикрлар билан банд бўлади. Уларни тартибга солиш, керагида диққатни жалб қилиш, ички ёки ташқи нутқ воситасида уни ечиш яъни ифодалаш-**фикрлаш жараёнидир**.

Фикрлаш жараёни аслида маълум бир масалани, муаммо ёки жумбоқни ҳал қилиш керак бўлганда пайдо бўлади. Фикрлаш доимо бир нарса хусусида камида битта ечимни бериши шарт, акс ҳолда у бошқа жараёнга-хаёл, фантазияга айланиб кетиши мумкин.

**Хаёл-**янги образлар ва тахминларни шаклланиш жараёни бўлса, **фантазия** – хаёлни борлиқдан, ҳақиқатдан бироз узоқлашуви жараёнидир.

Шундай қилиб, муаммо ёки жумбоқ бизни фикрлашга мажбур этади. Психологларнинг фикрича, ҳар қандай масалани ёки муаммомни ечиш мобайнида ўқувчи унинг шартларини бир неча вариантда тасаввур қилсагина ечимга келар экан. Чункит кимдир жуда тез фикрлайди, кимдир секин фикрлайди. Шунинг учун ҳам тест ечиш жараёнида ёнма-ён ўтирган икки ўқувчи бир хил ечимни белгиласада, ўша ечимга келиши йўллари ҳар бир ўқувчида ўзига хос бўлади.

**Мустақил фикрлаш-** шахснинг шундай қобилиятики, у туфайли одам нарса ва ҳодисалар хусусида ўз қараши ва ностандарт ечимларга эга бўлади. Масалан: аниқ предмет ручкани нима эканлигини ва нима мақсадда ундан фойдаланиш мумкинлигиникўпчилик билади. Бу-ёзув қуроли. Лекин, мустақил ностандарт тафаккурга эрк берилса, унинг кўрсаткич сифати, ёки санок таёқчаси сифати, ёки ғалтакка ўхшатиб ип ўраш мумкинлиги каби ўнлаб функцияларини санаб бериш

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

мумкин. Демак, мустақил фикр инсоннинг нарса ва ҳодисалар, жамиятда рўй бераётган воқеаларнинг моҳияти хусусида ўз қарашлари бўлишини тақозо этади, унинг билиш ва англаш имкониятларини чегарасини кенгайтиради.

Муаммоли таълим бу-ўқувчига бериладиган билимнинг қайси қисмини, қандай йўл билан бериш муаммосини самарали ҳал қилишга қаратилган ўқитувчи фаолиятидир. Муаммоли таълим дарсда бир вақтнинг ўзида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги ҳаракати бўлиб, у ўқувчи шахсидаги муҳим белги-ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради. Н.Г.Дайри айтганидек, дарсда ўрганиладиган мазмуннинг мураккаб қисмини ўзлаштиришда ўқитувчининг фаолияти қандай бўлса, ўқувчи фаолиятини ҳам шу даражага етказиш муаммоли таълимнинг асосий мақсадидир. Муаммоли таълим- ўқувчиларнинг эркин фикрлашларига, ўзининг фикрини эркин баён қила олишларига ва фикрларини янада ривожлантиришларига таъсир этишдир. Бунда ўқувчи диққат билан тинглаши, мустақил ва ёлғиз фикрлаши, жамоа бўлиб фикрлаши, таҳлил қилиши, кўпчилик бўлиб муҳокама қилиши ва тўпланган фикрни баён қила олиши керак.

Агар ўқитувчи янги мавзуни таъсирли баён қилиб, кўргазмалардан унумли фойдаланса, баён ниҳоясида айрим ўқувчилар билан иш олиб борса, ўқув жараёни самарали бўлди ёки фаол бўлди, деб ҳисоблаш мумкин. Аммо бу таълим усули анъанавий таълим беришдир.

Муаммоли таълим ўқитувчидан аниқ ҳаракат қилишни, дарснинг ҳар бир минутини ҳисобга олишни, ушбу вақтда керакли самара ҳосил бўлиши учун ўзининг барча имкониятларини ва маҳоратини ишга солишни талаб этади. Бу масалани ҳал этишнинг муҳим шарти ўқитувчининг бўлажак ўқув машғулотига тайёргарлигидир. Тайёргарлик жараёнида муаммоли таълимнинг барча кўринишларини ҳисобга олиш ва уни услубини ишлаб чиқиш зарур. Муаммоли таълимга тайёргарлик кўришда ўқитувчилар қатор қийинчиликларга дуч келадилар. Бу қийинчиликларни енгишда ўқитувчини инновацион ижодий лабораториясининг аҳамияти катта.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ана шундай қийинчиликлардан бири дарсни муаммоли ташкил қилиш ва муаммони ўрганиш усулини танлашдадир. Чунки танланган усул фақат ўқув материалини ўзлаштиришни таъминлабгина қолмай, балки ўқувчилар фаолиятида мустақилликни ҳам таъминлаши зарур.

Иккинчи қийинчилик эса муаммоли таълимни кўринишини аниқлашда юзага келади, яъни ўқитувчи муаммони ечишга синфдаги барча ўқувчиларни жалб қиладими ёки вазифани айрим гуруҳ ўқувчиларига бажартирадими? Бу қийинчилик ўқитувчида муаммоли вазият ва муаммонинг баёни ҳақидаги тасаввурлврни етишмаслигидан келиб чиқади.

Учинчи қийинчилик эса дарсда ўқувчиларни қизиқишини уйғотиш ва уни узлуксиз ривожлантириб боришида кўринади. Чунки ўқувчилар диққатини бир нуқтага мунтазам тўплашга ўқитувчининг тажрибаси ва маҳорати етмаслиги мумкин.

Муаммоли таълим ҳақидаги тўпланган маълумотларга асосланиб, шуни таъкидлаш лозимки, бу таълим тури илмий-услубий жиҳатдан 3 кўринишга эга. Муаммоли вазиятни вужудга келтириш, Муаммонинг қўйилиши, Муаммонинг ечимини топиш.

Муаммоли вазиятни ўқув машғулотларининг барчасида шакллантириш мумкин. Уни дарс жараёнида қанча кўп шаллантириш ўқитувчига боғлиқ. Муаммоли вазиятнинг аҳамияти шундаки у ўқувчилар диққатини бир жойга (муаммога) қаратади ва ўқувчиларнинг изланишига, фикрлашга ўргатади. Муаммоли вазиятни яратганда ўқитувчи ўқувчилар ўз диққатларини нималарга қаратишлари кераклигини айтиши мақсадга мувофиқдир. Масалан: «Чор Россиясининг Хива хонлигини босиб олиши» мавзусида ўқувчилар диққатини икки муаммога қаратиш зарур. Бунинг учун ўқитувчи :

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1. Хива хонлигининг бўйсундирилиши Россияга қандай манфаат келтирар эди? деган саволни қўйиб муаммоли вазиятни яратади ва ўқувчиларнинг фикрларини эшитади. Барча фикрларни эшитгач саволга якуний хулосани эълон қилиши керак.

2. Туркманларнинг қўзғолонини таҳлил қилинг. Нима учун қўзғолон енгилди? Бу савол билан ўқитувчи иккинчи муаммоли вазиятни вужудга келтирди. Ўқувчилар ечим жараёнида ўқитувчи билан бирга ҳаракат қилиб, муаммо юзасидан фикр ва мулоҳазаларини баён этиб, муаммонинг ечимига ўз ҳиссаларини қўшадилар.

Муаммони ечиш жараёнида ўқитувчи ўқувчиларга энг зарур фикрни айтмайди, аммо шу фикрни шакллантирувчи далилларни, фактларни келтириб ўтиши керак бўлади.

Умумий ўрта таълимни ривожлантиришда инновацион технологияларнинг ўшзига хос ўрни мавжуд. Ана шундай методлардан бири “Муаммоли вазият” методи бўлиб, бу метод таълим олувчиларда муаммоли вазиятларнинг сабабини ва оқибатларини таҳлил қилиш ҳамда уларнинг ечимларини топиш бўйича кўникма ва малакаларни шакллантиришга қаратилган. Дарс жараёнида ушбу методдан фойдаланганда ўқучилар мустақил фикр юртишга, муаммонинг сабаб ва оқибатларини таҳлил қилишга, унинг ечимини топишга ўрганадилар.

“Муаммоли вазият” методи учун танланган муаммонинг мураккаблиги ўқувчиларнинг билим даражаларига мос келиши керак. Ўқувчилар қўйилган муаммонинг ечимини топишга қодир бўлиши керак, чунки муаммони ечимини топа олмаса ўқувчиларнинг қизиқишлари сўниши ва болалар ўзига бўлган ишончини йўқотиши мумкин.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

"Муаммоли вазият" методининг таркибий тузилиши қуйидагича:

Муаммоли вазият тавсифини келтириш

↓

Ўқувчиларни гуруҳларга бўлиш

↓

Гуруҳлар муаммоли вазиятнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаши

↓

Гуруҳларнинг муаммоли вазиятни оқибатлари тўғрисидаги фикрларини жамланиш босқичи

↓

Гуруҳларни муаммоли вазиятни ечимини ишлаб чиқиш босқичи

↓

Тўғри ечимларни танлаш босқичи

Тарих дарсларида "**Муаммоли вазият**" методини қўллаш босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Ўқитувчи мавзу бўйича муаммоли вазиятни танлайди, мақсад ва вазифаларни аниқлайди, муамммони баён қилади.
2. Ўқитувчи ўқувчиларни топшириқнинг вазифалари ва шартлари билан таништиради ва ўқувчиларни кичик гуруҳларга ажратади.
3. Кичик гуруҳлар берилган муаммоли вазиятни ўрганадилар ва муаммонинг келиб чиқиш сабабларини аниқлайдилар. Барча гуруҳлар муаммони сабабларини ўрганиб чиққач, тақдимот ўтказадилар. Барча гуруҳлардаги муаммонинг сабабалари тўғрисидаги бир хил фиклар жамланади.
4. Бу босқичда берилган вақт мобайнида гуруҳлар муаммонинг келиб чиқиш мумкин бўлган оқибатларини ишлаб чиқадилар ва ўз ишларини тақдимотини ўтказади. Тақдимотдан кейин бир хил фикрлар яна жамланади.
5. Энди гуруҳлар муаммони ечишнинг турли йўллари ва имкониятларини муҳокама қиладилар, таҳлиллар ўтказадилар. Муаммоли вазиятни ечиш йўлларини ишлаб чиқадилар ва уни тақдимотини ўтказадилар.
6. Барча гуруҳларнинг тақдимотидан кейин бир хил ечимлар жамланади. Ўқитувчи ўқувчилар билан биргаликда муаммоли вазиятни ечишнинг энг мақбул вариантларини танлаб олади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Масалан: 9 синф "Ўзбекистон тарихи" фанидан "Х1Х аср охири ХХ аср бошларида Туркистонда иқтисодиёт ва савдонинг ривожланиши" мавзусини ўрганишда "муаммоли вазият" методидан фойдаланиш яхши самара беради. Бу мавзуда асосий муаммо Чор Россиясини Туркистон билан иқтисодий муносабатлари муаммоси бўлиб, ўқитувчи ушбу муаммо асосида муаммоли топшириқни қўяди. Муаммо: **"Туркистонда "пахта талвасаси" муаммоси",** унинг келиб чиқиш сабаблари ва оқибатлари, унинг ўша даврдаги ечими ва бугунги кундаги ҳолат ҳақида ўқувчиларнинг мустақил фикрлари ва уларнинг ушбу муаммони ечиш ҳақидаги таклиф вариантлари ўрганилади.

1 босқич: Ўқитувчи муаммони эълон қилган, ўқувчиларни 4 та кичик гуруҳга ажратади ва барча гуруҳлар муаммонинг келиб чиқиш сабабаларини таҳлил қиладилар. Бунда 9 синф "Ўзбекистон тарихи" дарслигидаги матндан ҳам фойдаланиш тавсия этилади.

2 босқичда гуруҳлар тақдимоти ўтказилади. Ҳар бир гуруҳга 3 дақиқа вақт берилади. Гуруҳлар тақдимоти тугагач бир хил фикрлар жамланади. Муаммонинг асосий сабаби қуйидагилар эканлиги аниқланади:

-Ўрта Осиёнинг ҳарбий стратегик аҳамиятга эга бўлган географик жойлашуви;

-Х1Х аср охирида Америка пахтасининг нархини ошиши;

-Америка пахтасининг Россияга ташиб келтирилишини қимматга тушиши;

-Туркистонда ер майдонларининг кўплиги ва ишчи кучининг арзонлиги;

-Тошкент яқинида тажриба селекция базасининг ташкил этилганлиги;

-Россиялик тижоратчиларни Туркистон иқтисодиётига сармояларини сарфлашни бошланиши;

-Туркистонда Россия банклари тизимининг кенгайиши ва уларни пахтачилик билан боғлиқ соҳаларга кредит, ссуда, қарз беришни ўз қўлида тўплаганлиги;

-Туркистонни Жаҳон капиталистик хўжалик тизимига аграр хомашё қуйруғи сифатида тортилиши;

3 босқичда кичик гуруҳлар "пахта талвасаси" муаммосининг оқибатларини таҳлил қиладилар ва гурух тақдимотини тайёрлйдилар. Вақт 6 минут. Тақдимот учун вақт 2 минутдан. Тақдимот якунида барча гуруҳлардаги бир хил фикрлар жамланади. Бу фикрлар:

-Турикистон Россиянинг пахта мустақиллигини таъминлади;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

-1884 йилда Америка ва маҳаллий пахта навини чатиштириш натижасида аъло сифатли янги пахта нави яратилди;

-Пахта агросаноат мажмуаси вужудга келди, пахта майдони-пахта тозалаш заводи (Туркистонда)-тўқимачилик фабрикаси (Россияда);

-Пахта интеграцияси йирик савдо саноат компанияларини пайдо бўлишига олиб келди;

-Туркистон қишлоқлари товар ишлаб чиқарувчига айланди;

-Чоракорлар ва мардикорлар қишлоқда пахта етиштиришда асосий ишчи кучига айланди;

-Туркистонлик маҳаллий майда ер эгаларининг қашшоқлашуви ва касодга учраши тезлашиб, ерлар йирик мулкдорлар томонидан арзон гаров сотиб олинди;

-Туркистонда ғалла етиштириш кескин камайиб кетди, натижада ўлка Россиядан келтириладиган озиқ овқат маҳсулотларига боғланиб қолди;

-майда ҳунармандчилик ишлаб чиқариши инқирозга учради ва ҳунармандлар ишсизлар сафини тўлдириб борди;

-Россия капитали маҳаллий саноатни синдириб, ўз маҳсулоти учун бозор яратди;

-Ўлканинг қолоқлиги ва аҳолининг қашшоқлиги одатий ҳолга айланди ва Чор Россиясининг тартиботи ва тузилмалари зўравонлик билан ўрнатилди.

4 босқичда ўқувчилар ўз гуруҳларида муаммони ечишнинг турли имкониятларини таҳлил қилиб, ечим вариантларини ишлаб чиқадилар. Барча гуруҳларнинг тақдимотидан сўнг барча гуруҳлардаги бир хил ечим йўллари ўқитувчи раҳбарлигида танлаб олинади. Булар қуйидагилар:

1 ечим йўли. Туркистон аҳолисини дунёқарашини ўзгартириш ва саводхонлиги ошириш йўли билан мустамлака сиёсатини, иқтисодий қарамликни бартараф этиш мумкин эди. Бунинг учун Туркистон фуқароларида миллийлик ва ватанпарварликни шакллантириш керак эди.

2 ечим йўли: Туркистонни ташқи дунёдан узиб қўйилганлигига эътибор берадиган бўлсак, маҳаллий бой савдогарлар ўз манфаатларини миллат манфаатидан устун қўймасдан, қишлоқларни ривожлантиришга маблағ сарфлаганда, қишлоқда маҳаллий саноатни ривожлантиришга аҳамият қаратганда "пахта талвасаси" йилларида майда ҳунармандчиликни капитал маблағлар билан таъминлаш имкони бўлар эди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3 ечим йўли: Туркистон пахтаси фақат Россияга жўнатилмасдан, пахта толасига эҳтиёжи бор бошқа давлатларга ҳам сотилиши йўлга қўйилиши, яъни Туркистонни ташқи иқтисодий ва сиёсий алоқаларини ривожлантиришга маҳаллий миллат етакчилари кўпроқ аҳамият қаратиши лозим эди. Россия капиталига қарши тура олиш учун маҳаллий капитал маблағлари бирлаштирилганда, ўлканинг иқтисодий мустақиллигини қайта тиклаш имконияти яратилар эди ва ҳ.к.

Ўқитувчи дарснинг якуний хулосаларини ўқувчилар билан биргаликда яратади ҳамда гуруҳ ишларини ва ишлаш жараёнидаги ўқувчиларнинг фаолиятини баҳолайди.

Тарих дарсларида ушбу методдан фойдаланиш ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобилиятларини шакллантиришга ёрдам беради, муаммонинг сабаб, оқибат ва ечимларини топишга ўргатади. Шунингдек, ўқувчиларнинг билим ва қобилиятларини баҳолаш учун яхши имконият яратади, ўқучиларни тизимли фикрлашга, ҳар қандай ҳатти-ҳаракатнинг натижаларини таҳлил қилишга ўргатади. Дарс жараёнида мотивациянинг юқори даражада бўлишини таъминлайди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳар бир фан ўқитувчиси ўз дарсини қизиқарли ва сифатли ташкил этишда турли усуллардан, хусусан, интерфаол усуллардан, илғор педагогик технологиялардан унумли, ўз ўрнида, мавзуга мос ва хос холатда фойдаланиши керак.

Дарс жараёнида ўқитувчи ўқувчиларни кенг фикрлашга,ҳамкорликда ишлашга ўргатишда уларнинг ижодкорлигини оширишда муаммоли таълим методларидан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Юқорида айтиб ўтганимиздек, ўқувчилар эътиборига хавола этилган муаммони ечиш жараёнида ўқитувчи ўқувчиларга энг зарур фикрни айтмайди, аммо шу фикрни шакллантирувчи далилларни, фактларни келтириб ўтиши керак бўлади. Шу тарика, ўқитувчи ўз олдига қўйган мақсадга ва дарс самарадорлигига эришади.

## Адабиётлар

1. И.А.Каримов. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори Тошкент. «Шарқ», 1997 йил.

2. Ж.Ғ.Йўлдошев «Таълим янгиланиш йўлида». Тошкент. «ЎҚитувчи» 2000й.

3. Таълим тараққиёти. Тошкент. «Шарқ» 1999 йил.

4. Мустақиллик. А.Жалолов ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. Тошкент «Шарқ»-1998 йил.

5. Ж.Ғ.Йўлдошев, С.А.Усмонов. «Педагогик технология асослари». Тошкент. Ўқитувчи-2004йил.

6.ziyonet.uz

7.pedagog.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ***Тарих дарсларида илғор педагогик технологиялардан фойдаланишнинг роли ва аҳамияти***

Панжиева Сайёра Ибрагимовна

Сурхондарё вилояти Музробот тумани 40-мактаб

тарих фани ўқитувчиси

***Аннотация.*** ***Педагогик технология ҳақида. Педагогик технологиялар ва уларнинг тавсифи. Аудитория билан ишлашнинг ижтимоий-психологик шартлари. Фаол ўқитиш методлари ва уларни ташкил этиш. Баҳс турлари. Ёзма баҳсни ўтказиш қоидалари.***

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда жаҳон таълим майдонига киришга йўналтирилган янги таълим тизими қарор топди. Бу жараён билан бир вақтда педагогик ўқув-тарбия жараёнининг назарияси ва амалиётида сезиларли ўзгаришлар содир бўлмоқда. Таълимдаги ёндашувлар таркиби ўзгармоқда ва бошқача муносабатлар, педагогик менталитетлар ўрнатилмоқда.

Таълим таркиби янги процессуал маҳоратлар, ахборотлар билан ишлаш қобилиятининг ривожланиши, илмий муаммо ва бозор амалиётининг ижодий ечимининг таълим дастурларини индивидуаллаштиришга қаратилиши билан бойитилмоқда.

Ахборотнинг анъанавий усуллари-оғзаки ва ёзма нутқ, телефон ва глобал масштабли телекоммуникацияларни ишлатиш билан алмаштирилмоқда.

Педагогик жараённинг муҳим таркиби бўлиб талаба билан педагогнинг шахсга йўналтирилган ўзаро муносабатлари ҳисобланади. Ижтимоий билимга тенг бўлган педагогик технологияларнинг ташкил топишда фаннинг роли ортиб бормоқда.

Педагогик таълим технологияларнинг психологик-педагогик нуқтаи назардан такомиллашувининг асосий йўналишлари қуйидагилар билан ифодаланади:

1) Ёдлашдан эслаб қолиш функциясига ўтиш, яъни ўзлаштирилганини ишлатиш имконини берувчи ақлий ривожланиш жараёнига ўтиш.

2) Билимнинг ассоциатив статистик моделидан ақлий ҳаракатнинг динамик таркибий тизимларига ўтиш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3) Ўртача талабага йўналтирилганликдан ўқитишнинг дифференциалланган ва индивидуаллаштирилган дастурларига ўтиш.

4) Талабанинг ташқи мотивациясидан ички маънавий иродали тартибга солинишга ўтиш.

Таълимда замонавий дидактика ва таълим таркибларининг самарадорлигини ошириш, янги ғоя ва технологияларнинг илмий ишлаб чиқилиши ва амалий асосланиши ишлатилмокда. Бунда ҳар хил педагогик тизим билан ўқитиш технологиялари ўртасида боғлиқлик, амалиётда давлат таълим тизимининг янги шакллари (қўшимча ва альтернатив) нинг апробацияси, ҳозирги замон шароитида ўтмишнинг педагогик тизимларини қўллаш муҳим ҳисобланади. Бундай шароитда педагог, бошқарувчи кенг кўламли замонавий инновацион технологиялар, ғоялар, укув муассасасилар, йўналишларда маълум бўлган нарсаларни қайта очишга вақтини сарфлаш керак эмас.

Бугунги кунда саводли мутахассис бўлиш учун таълим технологияларнинг ҳаммасини ўрганиш лозим.

Ҳозирги вақтда педагогик луғатда педагогика тушунчаси мустаҳкам ўрнашган. Лекин уни тушуниш ва ишлатишда турли хил ўқилиши мумкин.

***Технология***- бу бир ишда, маҳорат ва санъат қўлланиладиган усуллар йиғиндисидан иборат.

***Педагогик технология***-таълим шакли, усули, услублари, тарбиявий воситаларнинг махсус йиғилишини аниқловчи психологик-педагогик кўрсатмаларнинг мажмуидир.

***Педагогик технология***-бу ўқув жараёнини амалга оширилишининг сермазмун техникасидир. (Г. Беспалько)

***Педагогик технология***-ўқитишнинг режалаштирилган натижаларига эришиш жараёнининг тавсифларидир.

***Технология***- бу санъат, маҳорат ва қобилият, ишлов услубларининг мажмуидир. (Шепель)

***Педагогик технология***-бу ўқув жараёнининг лойиҳалаштирилиши, ташкил этилиши, ўтказилиш бўйича барча тавсилотлари билан ўйлаб чиқилган жамоа педагогик фаолиятининг модели ҳисобланади. У талаба ва педагогларга қулай шароитлар яратиши шарт. (Монахов)

***Педагогик технология***-бу таълим шаклларини оптимизациясини ўзига мақсад қилиб олган инсон ва техник ресурслари ва уларнинг ўзаро таъсирини ҳисобга олган

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ҳолда ўқитиш жараёнини ташкил этиш, қўллаш ва аниқлашнинг ҳамда билимларни ўзлаштиришнинг услубларидир[i]. (ЮНЕСКО)

***Педагогик технология***-педагогик мақсадларга эришиш учун қўлланиладиган шахсий, интелектуал, услубий воситаларнинг амал қилиш тартибидир. (Кларин)

Педагогик технология тушунчасига бир катор педагог олимлар томонидан турлича таърифлар берилган, масалан У.Толиповнинг “Педагогик технология: назария ва амалиёт” номли монографиясида куйидагича ифодаланганлигини куйидагича келтириб утдик.

*Педагогик технология аспектлари.*

Педагогик технология тушунчаси 3 аспектда намоён бўлиши мумкин:

***1. Илмий аспект***-педагогик технология педагогик фаннинг қисми сифатида таълим услублари, таркиби ва мақсадларини ишлаб чиқади ва ўрганади, ҳамда шу билан бирга педагогик жараёнларини лойиҳалаштиради.

***2. Процессуал-тавсифий аспект*** - таълимда режалаштирилган натижаларга эришиш учун жараённи тасвирлаш, мақсад, таркиб, услуб ва воситалар мажмуидир.

***3. Процессуал-амалий аспект*** - педагогик (технологик) жараённинг амалга ошиши, барча педагогик методологик (услубий), инструментал воситаларнинг амал қилиш.

Шундай қилиб, педагогик технология фан сифатида амал қилиб, таълимнинг янада рационал йўлларини тадқиқ этади.

Бу эса таълимда қўлланиладиган усуллар, тамойиллар ва регулятивлар тизими сифатида ҳамда таълимнинг реал жараёни сифатида бажаради.

«Педагогик технология» тушунчаси таълим тажрибасида 3 даражада қўлланилади:

**1. Умумий педагогик даража:**

Умумпедагогик (умумдидактик, умумтарбия) технология берилган ҳудуддаги таълим масканида таълимнинг маълум даражасидаги тўлиқ умумтаълим жараёнини тавсифлайди.

Бунда педагогик технологиянинг педагогик тизимида фарқлар мавжуд: унга таълим мақсадлари, таркиби, воситалари ва услубларининг мажмуи, жараёнда субъект ва объектларнинг фаолият алгоритми киради.

**2. Қисман педагогик даража:**

Қисман предметли педагогик технология «қисман методика» тушунчасини беради, яъни бир фан доирасида тарбия ва таълим, услуб ва воситалар мажмуидир.

**3. Чегараланган даража:**

Чегараланган технология-таълим-тарбия жараённинг алоҳида қисмларини ифодалаб, хусусий дидактик ва тарбия масалаларини ечади. (фаолиятнинг алоҳида турларини технологияси, тушунчаларнинг шаклланиши, янги билимларни ўзлаштириш, материални назорат қилиш ва қайтариш технологияси)

Шунингдек технологик таркиблар фарқланади: Усуллар технологик занжирга бирикиб яхлит педагогик технология (техник жараён)ни ташкил этади.

***Технологик жадвал-*** технологик жараённинг шартли тасвири, унинг алоҳида функционал элементларига бўлиниши ва улар ўртасидаги мантиқий алоқаларнинг белгиланиши.

***Технологик ҳарита-*** жараённи босқичма-босқич усулда ифодалаш, бунда мақбул бўлган воситалар кўрсатилади (бу одатда график шаклда ифодаланади).

***Технологик нюанслар-*** адабиётда одатда педагогик тизим тушунчаси педагогик технология сифатида кўрсатилади. Лекин педагогик технология кенгроқ маънодаги тушунча бўлиб, ўзига хос педагогик фаолиятнинг объект ва субъектларини олади.

**Қўлланилишига кўра технологияларни 3 синфга ажратиш мумкин:**

а) умумий педагогик технологиялар;

б) хусусий педагогик технологиялар;

в) кичик педагогик технологиялар, моделлар;

**Фалсафий жиҳатдан технологиялар:**

а) материалистик;

б) идеалистик;

в) илмий;

г) диний;

д) гуманистик;

е) мажбурий.

**Психик ривожланиш омили бўйича:**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

а) биоген, яъни инсоннинг жипсланган ривожланишига таъсир кўрсатувчи технология; бу технология асосан жисмоний тарбия каби фанларда қўланилади.

б)социоген, яъни шахснинг социологик онгини ривожлантиришга қаратилган технология, булар қаторида жамиятшунослик, ҳуқуқшунослик, социология, сиёсатшунослик каби фанларни санаб ўтиш мумкин.

в) психоген, яъни инсонинг психологик ривожланишига таъсир кўрсатувчи технология; булар жумласига психология, этика, эстетика, маънавият, руҳият, диншунослик каби фанларни киритишимиз мумкин.

**Илмий тажрибани ўрганиш бўйича:**

а) рефлексив, яъни айрим тажрибаларнинг шартли рефлекс тарзида ёки одатий ҳолда бир авлоддан иккинчисига ўтиши;

б) ривожлантирувчи, яъни олдингилар тажрибаларини умумлаштириб, ўз тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда мавжуд технология билан уйғунлаштириш;

в) гештальт, яъни ушбу технология талабанинг ҳис туйғуларини қамраб олади;

г) бихевиористик, бу технология талабаларнинг ташқи ҳатти-ҳаракатларига асосланган бўлади.

а) ахборот технологиялар (билим, малака, кўникмани шакллантиришга қаратилган технология);

б) операцион технология (фикрлаш малакасини шакллантиришга қаратилган технология);

в) эстетик-аҳлоқий технология.

г) бошқарувчилик хусусиятини шакллантирувчи технология;

д) эвристик технология (ижодий ёндашувни шакллантирувчи технология);

е) амалий ҳатти-ҳаракатларни шакллантирувчи технология.

**Педагогик технологиялар педагогнинг талабага нисбатан муносабатига қараб бир қанча турларга бўлинади:**

1) авторитар технология; бунда педагог асосий субъект сифатида бошқарувчи, текширувчи, талаб қилувчи бўлиб майдонга чиқади, талаба эса тобе сифатида тан олинади.

2) дидактик технология, бунда педагогнинг ўрни маълум юқори бўлиб, бу технология марказида таълим жараёни туради ва тарбиядан устунлик қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3) шахсга йўналтирилган технология, бунда тизимнинг марказида талаба шахси туради, талабанинг ривожланишида соғлом психологик хусусиятни ташкил қилиш, имконият ва қобилиятларни ўстириш асосий бўлиб ҳисобланади. Бу йўналиш ҳам ўз навбатида 3 гуруҳга бўлинади:

а) инсоний (шахсий) технология, бу технология ўзининг психотераптик хусусияти билан ажралиб туради.

б) ҳамкорлик, бу ўзаро тенглик, демократизмга асосланган технология;

в) эркин тарбия, талабага бунда танлаш, эркинлик, мустақиллик берилади;

г) экзотерик, онгдан ташқари билимларни ўрганишга қаратилган технологиядир.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда таълимда замонавий дидактика ва таълим таркибларининг самарадорлигини ошириш имкониятлари, янги ғоя ва технологияларнинг илмий ишлаб чиқилиши ва амалий асосланиши қўлланилмоқда. Замонавий технологик мутахассис бўлиш учун таълим технологияларининг барчасини, шу жумладан педагогик компонентларини чуқур ўрганиб, таҳлил қилиш лозим.

Педагогик луғатда педагогик технология тушунчасига турли хил йўллар билан ёндашилган, шунинг учун бизнинг тушунчада педагогик технологиялар ҳар хил муаллифларнинг таърифларини умумлаштирувчи сермазмун йиғимдир. Педагогик технология кўпроқ сифатли натижага эришишга қаратилган. +ўлланадиган педагогик технология натижаси эса, биринчи навбатда, педагогнинг маҳоратига, педагогик классификация турларидан моҳир фойдалана олишига, илмий-касбий тажрибасига, шахсий хусусият ҳамда инсоний фазилатларига боғлиқ.

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, киска вакт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қиска вакт орасида муайян назарий билимларни Ўқувчиларга етказиб бериш, улар да маълум фаолият юзасидан куникма ва малакаларни хосил килиш, шунингдек, Ўқувчилар фаолиятини назорат килиш, улар томонидан эгалланган билим, куникма ҳамда малакалар даражасини бахолаш Ўқитувчидан юксак педагогик махорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндошувни талаб этади.

Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамлакатларда бу борада катта тажриба тупланган булиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи методлар интерфаол методлар номи билан юритилмокда. Қуйида таълим амалиётида фойдаланилаётган интерфаол методлардан бир нечтасининг мох.ияти ва улардан фойдаланиш борасида суз юритамиз

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

***«Фикрлар ҳужуми» технологияси.***Мазкур метод Ўқувчиларнинг машгулотлар жараёнидаги фаолликларини таъминлаш, уларни эркин фикр юритишга рагбатлантириш ҳамда бир хил фикрлаш инерциясидан озод этиш, муайян мавзу юзасидан ранг — баранг гояларни туплаш, шунингдек, ижодий вазифаларни хал этиш ечиш жараёнининг дастлабки боскичида пайдо булган фикрларни енгишга ургатиш учун хизмат килади. «Фикрий хужум» методи А.Ф.Осборн томонидан тавсия этилган булиб, унинг асосий тамойили ва шарти Машғулот (баҳс)нинг ҳар бир иштирокчиси томонидан уртага ташланаётган фикрга нисбатан танки дни мутлако таъкиклаш, ҳар кандай лукма ва хазил — мутойибаларни рарбатлантиришдан иборатдир. Бундан кузланган максад Ўқувчиларнинг Машғулот (бахс) жараенидаги эркин иштирокини таъминлашдир. Таълим жараёнида ушбу методлдн самарали ва муваффакиятли фойдаланиш Ўқитувчининг педагогик махорати ва тафаккур куламининг кенглигига боглик булади. «Фикрий хужум» технологиясидан фойдаланиш чогида Ўқувчиларнинг сони 15 нафардан ошмаслиги максадга мувофикдир. Ушбу методга асосланган Машғулот бир соатга кадар ташкил этилиши мумкин.

**«Ялпи фикрлар ҳужуми» методи.**Ушбу метод Ж.Дональд Филипс томонидан ишлаб чикилган булиб, уни бир неча ун (20-60) нафар Ўқувчилар дан иборат синфларда қўллаш мумкин.

Метод Ўқувчилар томонидан янги рояларнинг уртага ташланиши учун шароит яратиб беришга хизмат килади. 5ҳар бири 5 ёки 6 нафар Ўқувчиларни уз ичига олган гуруҳларга 15 дакика ичида ижобий хал этилиши лозим булган турли хил топширик ёки ижодий вазифалар берилади. Топширих ва ижодий вазифалар белгиланган вакт ичида ижобий хал этилгач, бу хакида гурух аъзоларидан бири ахборот беради.

Гурух томонидан берилган ахборот (топширик ёки ижодий вазифанинг ечими) Ўқитувчи ва бошка гуруҳлар аъзолари томонидан мухокама килинади ва унга бахо берилади. Машғулот якунида Ўқитувчи берилган топширик ёки ижодий вазифаларнинг ечимлари орасида энг яхши ва узига хос деб топилган жавобларни эълон килади. Машгулот жараёнида гурух аъзоларининг фаолиятлари уларнинг иштироклари даражасига кўра баҳолаб борилади.

**«6x6x6» методи.**Ушбу метод ёрдамида бир вактнинг ўзида 36 нафар ўқувчини муайян фаолиятга жалб этиш оркали маълум топшириқ ёки масалани хал этиш, шунингдек, гуруҳларнинг ҳар бир аъзоси имкониятларини аниклаш, уларнинг қарашларини билиб олиш мумкин. «6x6x6» методи асосида ташкил этилаётган Машғулотда ҳар бирида 6 нафардан иштирокчи булган 6 та гуруҳ Ўқитувчи томонидан уртага ташланган муаммо (масала)ни мухокама килади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Белгиланган вакт нихоясига етгач Ўқитувчи 6 та гуруҳни кайта тузади. ҳайтадан шаклланган гуруҳларнинг ҳар бирида аввалги 6 та гуруҳдан биттадан вакил булади. Янги шаклланган гурух; аъзолари уз жамоадошларига аввалги гуруҳи томонидан муаммо (масала) ечими сифатида такдим этилган хулосани баён этиб берадилар ва мазкур ечимларни биргаликда мухокама киладилар.

«6х6х6» методининг афзаллик жиҳатлари қуйидагилардир:

1) гуруҳларнинг ҳар бир аъзосини фаол бўлишга ундайди;

2) улар томонидан шахсий карашларнинг ифода этилишини таъминлайди;

3) гуруҳнинг бошка аъзоларининг фикрларини тинглай олиш куникмаларини хосил килади;

4) илгари сурилаётган бир неча фикрни умумлаш — тира олиш, шунингдек, уз фикрини химоя килишга ургатади.

Энг мухими машғулот иштирокчиларининг ҳар бири киска вакт (20 дакика) мобайнида ҳам мунозара қатнашчиси, ҳам тингловчи, ҳам маърузачи сифатида фаолият олиб боради.

— Ушбу методни 5, 6, 7 ва хатто 8 нафар ўқувчидан иборат булган бир неча гуруҳларда ҳам куллаш мумкин. Бироқ йирик гуруҳлар уртасида «6х6х6» методи кулланилганда вактни купайтиришга туғри келади. Чунки бундай машғулотларда мунозара учун ҳам, ахборот бериш учун ҳам бир мунча кўп вақт талаб этилади. Сўз юритилаётган метод қўлланилаётган машғулотларда гуруҳлар томонидан бир ёки бир неча мавзу (муаммо)ни муҳокама қилиш имконияти мавжуд.

«6х6х6» методидан таълим жараёнида фойдаланиш ўқитувчидан фаоллик, педагогик махорат, шунингдек, гуруҳларни максадга мувофиқ шакллантира олиш лаёкатига эга булишни талаб этади. Гуруҳларнинг турри шакллантирилмаслиги топшириқ ёки вазифаларнинг турли хал этилмаслигига сабаб булиши мумкин. «6х6х6» методи ёрдамида Машғулотлар куйидаги тартибда ташкил этилади:

1. Ўқитувчи машғулот бошланишидан олдин 6 та стол атрофига 6 тадан стул куйиб чикади.

2. Ўқувчилар ўқитувчи томонидан 6 та гуруҳга булинадилар. Ўқувчиларни гуруҳларга булишда ўқитувчи куйидагича йул тутиши мумкин: 6 та столнинг ҳар бирига муайян объект (масалан, кема, тулкин, балик, дельфин, кит, акула) сурати чизилган лавхани куйиб чикади. Машғулот иштирокчиларига кема, тулкин, ва-лик, дельфин, кит ҳамда акула сурати тасвирланган (жами 36 та) варакчалардан бирини олиш таклиф этилади. ҳар бир Ўқувчи узи танлаган варакчада тасвирланган сурат билан номланувчи стол атрофига куйилган стулдан жой

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

эгаллайди.

3. Ўқувчилар жойлашиб олганларидан сунг ўқитувчи машғулот мавзусини эълон килади ҳамда гуруҳларга муайян топширикларни беради. Маълум вакт белгиланиб, мунозара жараёни ташкил этилади.

4. Ўқитувчи гуруҳларнинг фаолиятини кузатиб боради, керакли уринларда гуруҳ аъзоларига маслахатлар беради, йул —йуриклар курсатади ҳамда гуруҳлар томонидан берилган топширикларнинг турли хал этилганлигига ишонч хосил килганидан сунг гуруҳлардан мунозараларни якунлашларини сурайди.

5. Мунозара учун белгиланган вакт нихоясига етгач, ўқитувчи гуруҳларни кайтадан шакллантиради. Янгидан шаклланган ҳар бир гуруҳда аввалги 6 та гуруҳнинг ҳар биридан бир нафар вакил булишига алоҳида эътибор қаратилади. Укувчилар уз уринларини алмаштириб олганларидан кейин белгиланган вақт ичида гуруҳ аъзолари аввалги гуруҳларига топширилган вазифа ва унинг ечими хусусида гуруҳдошларига сузлаб берадилар. Шу тартибда янгидан шаклланган гуруҳ аввалги гуруҳлар томонидан қабул қилинган хулосалар (топшириқ ечимлари) ни муҳокама қиладилар ва якуний хулосага келадилар.

**«Бумеранг» технологияси.**Бу технология бир машғулот давомида ûқув материалини чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган. У турли мазмун ва ҳарактерга (муаммоли, мунозарали, турли мазмунли) эга бўлган мавзуларни ўрганишга яроқли бўлиб, ўз ичига оғзаки ва ёзма иш шаклларини қамраб олади. Ҳар бир машғулот давомида талабаларнинг турли топшириқларни бажариши, навбат билан ўқитувчи ёки талаба, иқтисодчи ёки тадбиркор ролида бўлиши, керакли баллни тўплашига имконият яратади. «Бумеранг» технологияси танқидий фикрлаш, мантиқни шакллантиришга имконият яратади ҳамда ғоя ва фикрларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради.Мазкур метод тарбиявий ҳарактердаги қатор вазифаларни амалга ошириш имконини беради, яъни; бўлажак иқтисодчиларда жамоа билан ишлаш маҳорати, муомалалик, хушфеъллик, ўзгалар фикрига ҳурмат, раҳбарлик сифатларини шакллантириш, ишга ижодий ёндашиш, ўз фаолиятини самарали бўлишига қизиқиш, ўзини холис баҳолаш кабилар.

**Аудитория билан ишлашнинг ижтимоий-психологик шартлари шуки, аввало, бизга м**аълумки, ҳар қандай педагогик жараённинг асосий мақсади - таълим олувчида билим, малака ва кўникмалар ҳосил қилишдир. Бу нарса маълумотлар алмашинуви орқали рўй беради. Педагогик мулоқот жараёнидаги маълумотлар алмашинуви асосан уч шаклда амалга оширилади:Монолог;Диалог;Полилог.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

***Монолог*** - маърузачи ёки ўқитувчининг тингловчилар ёки ўқувчи - талабалар қаршисига чиқиб нутқ сўзлаши, дарсни баён этишидир. Айни шу усул таълим-тарбия жараёнидаги асосий восита эканлиги тўғрисида онгимизга ўрнашиб қолган тасаввур мавжуд. Бу ҳолатда гапирувчи маълумотларнинг асосий таянч манбаи ҳисобланади ва фақат ундангина фаоллик талаб қилинади. Монолог эгаси ўзи мустақил тарзда маълумот мазмунини тингловчиларга етказиш ва ўз мавқеини таъкидлаш имконига эга бўлади. Лекин аудитория, яъни тингловчилар унга нисбатан анча пассив мавқеда бўладилар ва бу нарса маълумотнинг фақат кичик бир қисминигина идрок қилиш ва эслаб қолишига сабаб бўлади. Шунинг учун ҳам ўқитувчи бу камчиликнинг олдини олиш учун аудиторияни фаоллаштиришнинг бошқа йўлларини қидиришга мажбур бўлади.

***Диалог*** - ўқув мавзуси ёки муаммони гуруҳ шароитида ўқитувчи билан биргаликда ва ҳамкорликда муҳокама қилиш йўлидир. Шунинг учун бу усул тингловчиларни нафақат фаоллаштиради, балки аудиторияда ижодий муҳитнинг бўлиши ва фикрлар алмашинувидан ҳар бир иштирокчининг манфаатдорлигини таъминлайди. Яъни, тингловчилар ўқув жараёнининг объектидан ***унинг субъектига*** айланадилар.

Диалог жараёнида ўқитувчи билан ўқувчилар ўртасида фикрлар алмашинуви, билимларни ўзаро муҳокама қила олиш учун реал шароит яратилади. Лекин диалогни ташкил этишдан аввал ўқитувчи аудиториянинг у ёки бу хусусда билимлар ва тасаввурларга эга бўлишини инобатда олиши зарур, акс холда ўзаро мулоқот самарасиз ва мазмунсиз тортишувга айланиб кетиши мумкин. Диалог жараёнида уни ташкил этган шахс аудиториянинг у ёки бу муаммо юзасидан билимларини диагностика қилиш ва шунга мос тарзда ўзишини ташкил этиш имкониятига эга бўлади. Айнан шу ҳолат диалогнинг энг муҳим психологик аҳамиятидир.

***Полилог*** - гуруҳ ичидаги мунозарадир. У тингловчилар ёки ўқувчиларнинг фаоллигини янада ошириш, улардаги ижодий қобилиятларни ривожлантириш мақсадида ишлатилади. Полилог жараёнида гуруҳ аъзоларининг ҳар бири муҳокама қилинаётган масала юзасидан ўзфикрини билдириш имкониятига эга бўлади, ўқитувчи эса ушбу жараённинг ташкилотчи сифатида ўқувчилар ёки талабалар фаолиятига бевосита аралашмайди. Бу усул дарс мавзуси кўпрок назарий ҳарактерли бўлиб, янги ғоялардан уларнинг амалий жиҳатлари келтириб чиқарилиши зарурати бўлганда қўл келади. Лекин бу усул машғулотлар ёки мулоқот дарслари энди бошланган пайтда ўтказилиши мақсадга мувофиқ эмас, чунки полилог учун ўқитувчи билан ҳамкорликда ишлаш тажрибасидан ташқари ёшларга ўша соҳа юзасидан маълум билимлар мажмуи ҳамда ҳамкорликда ишлаш тажрибаси зарур. Диалог ва полилог техникасини яхши эгаллаган муаллим мунозара ёки баҳсни самарали ташкил этишга лаёқатли бўлади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, мунозарани самарали

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ташкил этиш қобилияти ўз-ўзидан шаклланмайди, бунинг учун ўқитувчи умуман мунозара методикаларининг моҳияти ва уни ташкил этиш йўлларини илмий-амалий жиҳатдан билиши керак.

**Фаол ўқитиш методлари ва уларни ташкил этиш.**Баҳснинг самарали бўлиши энг аввало баҳслашувчиларнинг бир-бирларига нисбатан фазовий жойлашувларига боғлиқ. Тингловчи ва музокарада қатнашувчиларнинг фазовий жойлашувлари ва уларнинг психологик мавқеларининг моҳияти муҳим бўлганлиги боис биз ушбу холатларни келтирамиз:

- Синф шароити. Бу - анъанавий дарс ўтказиш шакли бўлиб, тингловчилар бир-бирларининг юзларини кўриш имконияти чекланган ва доска олдидаги ўқитувчига ва у баён этаётган мазмунга нисбатан тингловчиларнинг мавқелари, масъулияти турлича. Бу шароитда баҳс ўтказиш мумкин эмас. Чунки синфда охирги қаторда ўтирган бола билан биринчи қаторда ўтирганнинг дарсга муносабати кескин фарқ қилади. Тингловчининг психологик мавқеи - **«Мен» - ўйиндан ташқарида»**.
- **«Мен» - ўйинда»** деб аталувчи ҳолат: тингловчилар доира шаклидаги стол атрофида жойлашадилар ва ўртага ташланган мавзу юзасидан эркин фикр алмашиш, ҳаттоки, айрим ижтимоий ролларга ҳам кириш имкониятига эга бўлади, ҳатто бошловчи ҳам «қаторда» ўтиради. «Ишчанлик ўйинлар» ва бошқа ролли ўйинлар ана шундай шароитда ўтказилиши мумкин.
- **«Мен»- мунозарада»** деб аталувчи бу ҳолат айни баҳс - мунозаралар ўтказиш учун қулай, чунки унда шахс ўз фикрини дадил айтиш учун имкониятни ҳис қилади. Одатда бундай баҳслар тўртбурчак стол атрофида уюштирилади.
- **«Мен» - ҳамкорликдаман»** деган бу ҳолат каттароқ гуруҳлар таркибида ташкил этилади. Мунозара аъзолари тўрт-беш кишидан бўлиб алоҳида столлар атрофида ўтириб, ҳар бир гуруҳ ўз қарорини чиқаради. «Мунозара» клублари» фаолияти шу тарзда ташкил этилади.

Бу келтирилган ҳар бир холат бахс қатнашувчиларида ўзига хос руҳий тайёргарлик ва масъулият хиссини келтириб чиқаради.

Демак, дарс мобайнида ўқитувчи мавзунинг ҳарактери ва у шакллантириш лозим бўлган билим, малака ва фазилатларга мос тарзда мунозара шароитини танлаши ва шундай кейингина машғулотни бошлаши керак. Кўриниб турибдики, анъанавий синфда ташкил этиладиган машғулотларнинг самарадорлиги деярли йўқ, чунки улар олдинги қаторларда утирган тингловчиларнинг фаоллигигагина йўналтирилган, қолганлар «ўйиндан ташқари» ҳолатда, бу нарса уларнинг дарс мазмунига муносабатларида бевосита акс этади.

Кичик, тор доиралардаги компакт гуруҳларда уюштирилган мунозараларнинг ***эркин мавзули, йўналтирилган ва аниқ сценарийли диспут*** турлари мавжуд бўлиб, бу танланган мавзуга ва мунозара гуруҳларининг мулоқот тажрибасига боғлиқдир

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

(«диспут» сўзининг луғавий маъноси - «фикрлаяпман», «тортишаяпман», деган маънони билдиради). Кичик гуруҳлардаги мунозаралардаги асосий нарса - гуруҳ аъзоларининг танланган мавзу хусусиятига қараб, ҳар бириинг ўз фикр мулоҳазаларини охиригача баён этиш имкониятларининг борлигидир. Бундай гуруҳда бошловчи ҳам қаторда ўтириб, мавзунинг ечимини батамом ҳал бўлмагунча фаол мулоқотларнинг иштирокчиси бўлиши мумкин. Лекин асосий рол гуруҳнинг аъзоларига юкланганлигини ва бевосита ажралиб чиққан норасмий лидер асосий баҳс юритувчи бўлиши мумкинлигини унутмаслиги зарур. Бундай гурунглар турли шароитда кўпинча баҳс иштирокчилари учун табиий шароитларда (масалан, синфда, талабалар аудиторияларида, иш хоналарида ва б.к.) ўтказилса, мақсадга мувофиқ бўлади.

Агар бахлашувчилар гуруҳи одатдагидан каттарок ҳажмда (масалан, 30 кишигача) бўлса, унда мунозарани уюштиришнинг ўзига хос томони бор. Бу холда баҳс гуруҳи шартли равишда учга бўлинади. Биринчи гуруҳ - **«фикрларни жамловчилар» - генераторлар** гуруҳи дейилади; иккинчиси - **«танқидчилар»** ва учинчи гуруҳ - **«фикрларни тезлатувчилар» - катализаторлар»** деб аталади. Ҳар бир ажралган гуруҳниниг ўзига хос функциялари бор: «генераторлар» ўртага ташлаган муаммо ёки баҳс мавзуси бўйича ўзларидаги барча фикрларни ўртага холис ташлайдилар. Гуруҳ аъзоларидан бири - лидер - уларни жамлаб, фикрлар иккига бўлинган тақдирда ҳам уларни умумлаштириб баён этади. Сўнгра ўйинга «танқидчилар» киришади. Уларнинг вазифаси - эшитган фикрларига танқидий муносабат билдириш, яъни танқидий нуқтаи назардан улар ичидаги «мағзини» ва «пучак» фикрларни саралаш. Шундан кейин вазиятга қараб, яна сўз «генераторлар» га ёки «катализаторлар» га берилиши мумкин. Билдирилган фикр ва таклифларда мабодо ҳисобга олинмай қолган жиҳатлар ёки ноўрин фикр бўлса, ёки моҳиятан шу мавзуга алокадор бўлган, лекин иккала томон ҳисобга олмаган бирор жиҳат аниқланса, томонлар диққатини айнан шунга қаратиши керак. Сўнгра «тезлатувчилар» баҳсни давом эттиришга руҳсат бериб, агар уни якун қилиш тақозо қилинса, иккала гуруҳнниг ўйинига холис баҳо берган холда мунозарани тўхтатиши мумкин. Улар кўпинча иккала гуруҳ учун холис орбиторлар - «ҳакамлар» ролини ўйнайдилар.

Мактабда бир синф доирасида ёки талабалар гуруҳида ахлоқий маънавий мавзуда баҳс уюштирганда, юқоридаги усулни қўллаш имконияти бўлса, суҳбатдошларнинг *учбурчак шаклдаги берк стол* атрофига ўтиришлари мумкин. Демак, баҳслашувчиларнинг жойлашишлари ҳам бу ўринда маълум аҳамият касб этади.

Катта гуруҳларда баҳс ёки мунозара уюштирилганда, бошловчининг роли айниқса каттадир. Чунки у ҳар бир гуруҳдаги тортишувлар ва фикр

алмашинувларнинг бошида турмоғи керак бўлса, улар фаолиятини мақсадга мувофиқ тарзда йўналтириб турмоғи лозим. Кичик гуруҳдагидан фарқли уларок, катта гуруҳларда бошловчи у ёки бу ички гуруҳга ён босмаслиги ёки уларни ўзининг шахсий фикрига мажбуран эргаштирмаслиги керак. Акс холда, у ўзининг фаолияти билан бошқалар ташаббусига салбий таъсир кўрсатиши ва баҳснинг йўналишини бузиб қўйиши мумкин. Шунинг учун катта гуруҳлар уюштириладиган мунозаранниг мавзуси олдиндан танланган ва унга бошловчи маълум маънода тайёр бўлиши шарт.

**Дарсда мунозара, брейншторминг ва тренинглар ўтказиш технологияси.**Мунозаралар юритишнинг яна бир шакли борки, унинг номини рус тилида «мозговая атака», инглизчасига «brain storming» деб аталади. Бизнинг тилимизда бу тушунчанниг аниқ аналогик таржимаси йўқ, лекин уни «мияга хужум» ёки «фикрлар тўқнашуви», «фикрлар жанги майдони» деб аташ мумкин. Методнинг психологик моҳияти шундаки, оддий мунозарада баҳслашувчилар кўпроқ онгли, асосли фикрларни баён этишга ҳаракат қиладилар. Бунда эса баҳслашувчиларга мияга қандай фикр қўйилиб келса, уни танқидсиз ва асосламай эркин, «тилга нима келса», лекин навбатма-навбат  айтиш имконияти берилади. Бу нарса кўпроқ муаммо анча нотаниш, савол мураккаб ёки ноаниқ бўлган шароитларда қўл келади. Яъни, бунда «эркин ассоциациялар»га имкон  берилади ва охир оқибат гуруҳнинг ўзи маълум рационал «мағизни» ажратиб олади.

Бу усулни биринчи марта америкалик олим **А.Осборн** 30-йиллардаёқ таклиф этган ва бу усул ёрдамида йирик лойиҳаларни режалаштириш ва олдиндан унинг натижаларини башорат қилишда маълум ютуқларни қўлга киритган эди. Лекин кейинчалик мутахассислар уни фақат ностандарт, ўзига хос ечими бўлган вазифаларни муҳокама қилгандагина қўллаш мумкин, деган фикрни билдира бошладилар. Бирок тўғри ташкил этилган брейшторминггнинг амалий афзалликлари кўп. Фақат бунда қуйидаги қоидаларга риоя қилиш керак:

1. Жумлалар жуда қисқа бўлиши керак, уларнинг асосланиши шарт эмас.
2. Ҳар қандай жумла ёки фикр танқид қилиниши мумкин эмас, яъни фикрлар танқиддан холидир.
3. Мантиқий фикрлардан кўра, фантастик ёки қўққисдан, тасодифан мияда пайдо бўлган фикр муҳимроқ.
4. Фикр ёки билдирилган қисқа мулоҳаза қайд этилади.
5. Билдирилган фикр ёки ғоялар у ёки бу иштирокчиники, деб ажратилмайди, яъни улар -  муаллифсиздир.
6. Фикр ёки яхши ғояларни танлаш алоҳида «танқидчилар» ёки гуруҳнниг норасмий лидерлари томонидан амалга оширилади.

Юқоридаги таъкидланган гуруҳ катта бўлган шароитда баҳс уюштиришда ҳам генератор, яъни фикрларни бирламчи жамловчиларларга ушбу усулда ишлашга имкон бериш тажрибада яхши натижа беради. Чунки ўтказилган текширувлар ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

кўплаб синов машғулотларининг кўрсатишича, айнан шу гуруҳда брейнштorминг усулининг қўлланилиши турли-туман ва қарама-қарши фикрларнинг баён этилишига шароит яратади. Акс холда муҳим муаммолар бўйича мунозарани бошлаш ва унда фикрлар ранг-баранглигига эришиш жуда қийин бўлади. Бу усул айникса, катталар аудиториясида жуда яхши самара беради.

Баҳсда иштирок этиш ва ундан манфаатдорлик ҳисси ҳар бир иштирокчида шаклланиши шарт ва бунда бошловчи - ўқитувчининг роли катта. Амалий машғулотларни баҳс-мунозара шаклида ўтказилиши болаларга олдиндан айтилиши ва уларнинг тайёргарлик кўришлари учун саволлар берилиб қўйилиши мақсадга мувофикдир. Баҳс иштирокчилари ҳаяжонланмасликлари учун машғулот бошланишидан аввал уларнинг ўзларини эркин тутишлари учун айрим **енгиллаштирувчи машқлар,** бошқача қилиб айтганда**, психогимнастик машқлар** ўтказиш тавсия этилади. Масалан, ана шу мақсадда ўтказиладиган психогимнастик машқларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

1.Ўқитувчи гуруҳни айлана шаклида туришлари сўрайди ва аъзоларни навбатма-навбат ўртага чиқиб, гурух билан хоҳлаган тарзда, лекин самимий саломлашишни сўрайди. Кейин гуруҳдан кимнинг саломи кўпроқ ёққанини сўрайди.

2.Гуруҳ аъзолари ўқитувчи атрофида ярим айлана шаклида туришади. Навбат билан гурух аъзолари ўртага чиқиб, хохлаган аъзо билан сўзсиз, лекин очиқ юз билан мимика воситасида саломлашиш ва бирор фикрни билдириши сўралади.

3.Ҳамма доира шаклида ўтиради ва ўқитувчи олиб келган копток навбат билан мулоқот катнашчиларига отилади, фақат кимга отилса, ўша одамнинг кучли, яхши бир сифати айтилиб, сўнгра яна отилади. Ўқитувчи коптокнинг албатта ҳар бир кишига тегишини назорат қилади.

Бу каби машқлар мунозара катнашчилари ўртасида ўзаро тангликнинг бўлмаслиги ва ўз фикрини баён этаётганда ўқитувчидан тортинмаслиги учун ўзига хос тренинг ҳисобланади.

Ўқитувчи мунозарани бошлар экан, иштирокчилар онгига қуйидагиларни етказа олиши керак:

а) машғулот ҳар бир иштирокчига албатта фойдали бўлади ва улар бир-бирларига ёрдам бериш учун келганлар;

б) мунозара ўзаро мулоқотнинг бир шакли бўлиб, ҳар бир иштирокчи бир-бирига очиқ ва самимий муносабатда бўлсин;

в) мунозара иштирокчиларнинг ўзаро тажрибаларини алмашинишлари учун қулай шароитдир;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

г) фикр баён этишда керак бўлса таваккал қилайлик, лекин индамаслик шиоримиз бўлмасин;

д) мунозара пайтида кўп ёзиш шарт эмас;

е) агар бирор нарса тушунарли бўлмаса, уни сўрашдан тортинманг;

ж) билган билимларимизни бир-биримиздан аямаймиз, чунки бошқалар ҳам бундан манфаатдор бўлсинлар, «яширинган билим - билим эмас» лигини унутмайлик!

**«Тармоқлар»** (Кластер) методи педагогик стратегия бўлиб, у ўқувчи-талабаларни бир мавзуни чуқур ўрганишларига ёрдам беради. Ўқувчи-талабаларни мавзуга тааллуқли тушунча ёки аниқ фикрни эркин ва очиқ равишда кетма-кетлик узвий боғланган ҳолда тармоқлашларига ўргатади. Бу усул билан мавзуни чуқур ўрганишдан аввал ўқувчи-талабаларнинг фикрлаш фаолиятини жадаллаштириш ҳамда кенгайтириш учун хизмат қилади. Шунингдек, ўтилган мавзуни мустаҳкамлаш, умумлаштириш ҳамда ўқувчи-талабаларни шу мавзу бўйича тасаввурларини чизма шаклида ифодалашга ундайди. “Кластер” методи аниқ объектив йуналтирилмаган фикрлаш шакли саналади. Ундан фойдаланиш инсон мия фаолиятининг ишлаш тамойили билан боқлиқ равишда амалга оширилади. Ушбу метод муайян мавзунинг ўқувчилар томонидан чуқур ҳамда пухта ўзлаштирилгунига қадар фикрлаш фаолиятининг бир маромда бўлишини таъминлашга хизмат қилади.

“Кластер” методи пухта ўйланган стратегия бўлиб, ундан ўқувчилар билан якка тартибда ёки гуруҳ асосида ташкил этиладиган машғулотлар жараёнида фойдаланиш мумкин. Гуруҳ асосида ташкил этилаётган машғулотларда ушбу метод гуруҳ аъзолари томонидан билдирилаётган ғояларнинг мажмуи тарзида намоён бўлади. Бу эса гуруҳнинг ҳар бир аъзоси томонидан илгари сурилаётган фикрларни уйғунлаштириш ҳамда улар ўртасидаги алоқаларни топа олиш имкониятини яратади.

**«Бумеранг»** технологияси бир машғулот давомида ўқув материалини чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган. У турли мазмун ва характерга (муаммоли, мунозарали, турли мазмунли) эга бўлган мавзуларни ўрганишга яроқли бўлиб, ўз ичига оғзаки ва ёзма иш шаклларини қамраб олади.

«Бумеранг» технологияси танқидий фикрлаш, мантиқни шакллантиришга имконият яратади ҳамда ғоя ва фикрларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради. Мазкур метод тарбиявий характердаги қатор вазифаларни амалга ошириш имконини беради, яъни; бўлажак иқтисодчиларда жамоа билан ишлаш маҳорати, муомалалик, хушфеъллик, ўзгалар фикрига ҳурмат, раҳбарлик сифатларини шакллантириш, ишга ижодий ёндашиш, ўз фаолиятини самарали бўлишига қизиқиш, ўзини холис баҳолаш кабилар.

**«Веер»** технологияси мураккаб, кўптармоқли, мумкин қадар муаммо

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

характеридаги мавзуларни ўрганишга қаратилган. Технологиянинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича ахборот берилади ва уларнинг ҳар бири алоҳида муҳокама этилади. «Веер» технологияси танқидий, таҳлилий, аниқ ва мантиқий фикрларни ривожлантиришга ҳамда ўз ғоялари ва фикрларини ёзма ва оғзаки шаклда баён этиш ҳамда ҳимоя қилишга имконият яратади.

Ушбу технология мавзуни ўрганишнинг турли босқичларида қўлланилиши мумкин: билимларни эркин фаоллаштиришда; мавзуни ўрганиш жараёнида унинг асосларини чуқур фаҳмлаш ва англаб етишда; якунлаш босқичида олинган билимларни тартибга солишда.

**Баҳс турлари. Ёзма баҳс ўтказиш усуллари.**Агар машғулотлар бир-бирларини яхши танимайдиган бошлангич гуруҳларда бошланган бўлса, «танишиш» машқларини ўтказиш, албатта ишни кичик гуруҳлардан бошлаш лозим. Бунда **эркин йўналтирилмаган баҳс** шаклини қўллаш ўринлироқ. Бунда ўқитувчи иштирокчиларга бир-бирларини яхши таниб олсалар, биргаликда ҳаракат қилсалар, умумий иш учун манфаатли бўлган натижаларга эришиш мумкинлигини тушунтириши лозим.

Агар иштирокчилар бирор *янги маълумотларга эга бўлиш,* мураккаброқ масала юзасидан умумий нуқтаи назарга эга бўлиш ва мантиқий хулосаларга эришишни мақсад қилган бўлсалар, унда дарс аввалида ўқитувчи ёки олдиндан тайёргарлик кўрган гуруҳ аъзоси маъруза қилиши, маъруза юзасидан кейин баҳс уюштирилиши, дарс охирида имкон бўлса, ўқитувчи ўзи тайёрлаган тарқатма материалларини ҳар бир аъзога бериши керак. Фаоллаштирувчи усуллар материаллар кулга берилгач, ишга солинади.

Агар дарснинг ёки амалий машғулотнинг мақсади тингловчилардаги *аниқ қобилиятларни ривожлантириш,* малакаларни ошириш ва янги тажрибадан фойдаланиш бўлса, унда баҳснинг предмети аввало тажриба алмашинувга қаратилиши, бунда айрим машқлар ҳам бажарилиши, уларнинг натижалари таҳлил қилиниши, ролли ўйинларни бажаришгача олиб борилиши керак. Бунда ўқитувчининг роли анча масъулиятли бўлиб, у машғулотгача конкрет йўриқномаларни ўқувчиларга бериши ва гуруҳ ишини мунтазам кузатиб, назорат қилиб туради.

Агар мунозара дарсларининг мақсади - иштирокчиларнинг *янги, мустақил фикрларга келиши*, уларни шахсий тажриба ва вазиятларга боғлаб айтиб беришларига олиб келиш бўлса, унда ўқитувчи «Мен» - мунозарадаман» ҳолатида гуруҳли баҳсни кичик гуруҳларда ташкил этиши, уларда алоҳида ҳолатлар ва вазиятларнинг таҳлилига барчанинг диққатини қаратиши, иштирокчиларни турли ролларни тасаввур қилишга мажбур қила олиши ва олдиндан тайёрлаб қўйилган саволномаларни дарс охирида тарқатиб, шаклланган янги ғояни ажратиб олиши керак. Демак, бу шаклдаги иш ҳар бир иштирокчидан пухта тайёргарликни ва аниқ кўникмаларни талаб қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Баҳс шаклида машғулот ўтказганда, қабул қилинадиган қарорларнинг аҳамияти катта. Қарорларнинг самарали бўлиши учун қуйидагиларни ёдда тутиш керак:

- машғулот бошланишидан олдин ўқитувчи таҳлил қилиниши лозим бўлган муаммони белгилайди ва унга қай тарзда муносабат билдирилиши лозимлигини тушунтиради;
- қисқа бўлса-да, бу муаммонинг олдинги дарсларга боғлиқлиги, уйга берилган вазифа, муҳокама қилинадиган масалага оид муҳим фактлар эсга туширилади;
- баҳс катнашчилари кичик гуруҳчаларга (4-5 киши) бўлиниб, машғулот охирида фикрлар умумлаштирилиши учун коғозлар тахт қилиб қўйилади;
- гуруҳда ишлаш мобайнида билдирилган фикрларнинг афзал ва камчилик томонлари ҳақидаги ўз мулоҳазаларини оғзаки ёки ёзма тарзда қарорлар шаклида баён этадилар;
- иш якунида гуруҳнинг вакиллари ўз гуруҳининг иши тўғрисида гапириб, уларни бошқаларники билан қиёслайди. Зарурат бўлса, ўқитувчи ҳар бир гуруҳнинг қарорларини ўзаро қиёслаб, саволларга жавоб беради, ноаникроқ қарорларга ўз муносабатини билдиради.

Педагогик амалиётда баҳснинг моҳияти кўпинча фақат оғзаки диалоглар ва тортишувлар тарзида тасаввур қилинади. Лекин оғзаки баҳсларнинг янада самарали ва таъсирчан бўлиши учун ёзма баҳс шакли ҳам қўлланилади. Бу усул ўқувчиларнинг берилган мавзу соҳасидаги билимларини янада чуқурлаштириш, мунозара маданиятини ошириш ва ҳар бир фикрни асослаш қобилиятини ривожлантиради. Ўқитувчи эса ўқувчи ёки талабаларнинг билимларини асосли баҳолаш ва билимдонликни тўла маънода таҳлил қилиш имкониятига эга бўлади. Бу усул айникса, миллий ғоя ва миллий мафкурани шакллантирувчи фанлар - ижтимоий-гуманитар фанлар юзасидан ўтказилса янада самарали бўлади.

Ўқувчилар олдиндан мавзу билан таништириладилар, уйга берилган топшириқлар орасида қай бири ёзма тарзда ўтказилиши маълум қилинади. Ёзма баҳс ўтказиладиган куни ўқитувчи уни қуйидаги тарзда амалга оширади:

1.Ўқитувчи гуруҳни иккига бўлади ва уларни алоҳида қаторларга ўтказади. Ҳар бир гуруҳ мавзу бўйича қайси нуктаи  назарни ҳимоя қилишини маълум қилади. Масалан, биринчи гуруҳ болаларнинг ақлий даражаларини мунтазам ўлчаб туриш ва шу орқали таълим муассасаларига жалб этишни ҳимоя қилса, иккинчи гуруҳ - бу фикрни асосли тарзда инкор қилади.

2.Шундан сўнг ўқитувчи қарама-қарши гуруҳ аъзоларини жуфтлайди ва уларга номери ёзилган вароқларни тарқатади. Ҳар бир иштирокчига бирор фикрни ёзма асослашга 5 дақиқадан берилади. Ёзма далиллар равон тушунарли тилда, асосли тарзда ёзилиши керак.

3.Ёзилган варакчалар қарама-қарши шерикларга берилади. Улар ўз

«рақиблари» фикрига қарши фикрни 8-10 дақиқа мобайнида ўйлаб, ёзишлари керак бўлади ва нариги томондаги шеригига беради.

4.Ёзма далиллар алмашинувининг бундай тартиби 2-3 марта такрорланади, ҳар сафар ҳар бир ўқувчи шеригининг далил-исботини диққат билан ўрганиб чиқиб, жавоб қайтаради.Охирги раундда ўқувчиларнинг ўзларига якунлаш имкони берилади ва ёзма ишлар йиғиб олинади.

5.Ўқитувчи ёзма бахларни якунлашда томонларга «Қарши томоннинг энг яхши далил-исботи қайсилар бўлди?» деб сўрайди ва ўқувчилар билан олдиндан келишган холда улар билимларини якка-якка ёки гуруҳий баҳолайди.

Юқорида келтирилган ёзма баҳсларни ўтказиш тамойиллари Фред Ньюмен материаллари асосида тайёрланди. Уйлаймизки, бизнинг шароитимизда ҳам бу усуллар анча самара беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда таълимда замонавий дидактика ва таълим таркибларининг самарадорлигини ошириш имкониятлари, янги ғоя ва технологияларнинг илмий ишлаб чиқилиши ва амалий асосланиши қўлланилмоқда. Замонавий технологик мутахассис бўлиш учун таълим технологияларининг барчасини, шу жумладан педагогик компонентларини чуқур ўрганиб, таҳлил қилиш лозим.

Педагогик луғатда педагогик технология тушунчасига турли хил йўллар билан ёндашилган, шунинг учун бизнинг тушунчада педагогик технологиялар ҳар хил муаллифларнинг таърифларини умумлаштирувчи сермазмун йиғимдир. Педагогик технология кўпроқ сифатли натижага эришишга қаратилган. қўлланадиган педагогик технология натижаси эса, биринчи навбатда, педагогнинг маҳоратига, педагогик классификация турларидан моҳир фойдалана олишига, илмий-касбий тажрибасига, шахсий хусусият ҳамда инсоний фазилатларига боғлиқ.

Аудитория билан ишлашнинг ижтимоий психологик шартлари, ўқув фаолиятини самарали бўлиши учун фаол ўқитиш методлари ва уларни ташкил этиш усулларини билиш муҳим бўлиб, янги педагогик ва дидактик технологияларни жорий этишнинг ўз психологик қонуниятлари мавжуд. Дарс мобайнида мунозара, брейншторминг ва тренингларларни ўтказиш, дарс самарасини оширади. Ҳар қандай муаммони ечиш учун қўллаш мумкин бўлган баҳс турлари ва асосан ёзма баҳсни ўтказиш қоидалари бор. Ўқитувчи бугуннинг замонавий маҳоратли ўқитувчиси бўлиши керак.

**Адабиётлар**

1. Олимов Қ.Т., Ашуров С.Ю. "Замонавий таълим технологиялари" Тошкент – 2007. 87 б.

2. Ишмуҳамедов Р.Ж. "Инновацион таълим технологиялари" Т.-2008 й

3. Мунавваров А.Қ. умумий таҳрири остида. / Педагогика.-Т.: "Ўқитувчи", 1996.-200б.

4. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш.-Т.2010й

5. Интернет сайтлари.www.edu.uz.

6.www.referat.ru.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# МАЛАКА ОШИРИШ ТАЪЛИМИ ИШТИРОКЧИЛАРИГА ТАНҚИДИЙ ФИКРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИНГ ЎРНИ



**Усмоналиева Рисолат**
**Сурхондарё вилоят ПЯМЎММ катта ўқитувчиси**

**Усмоналиева Рисолат. Малака ошириш таълими иштирокчиларига танқидий фикрлашни ривожлантиришда интерфаол методларнинг ўрни**

*Мақолада малака ошириш таълими иштирокчиларига танқидий фикрлашни ривожлантиришда интерфаол методларнинг мавқеи ва унинг педагогик аҳамияти ҳақида мулоҳаза юритилган. Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш, муаммоларни ҳал қилишда танқидий фикр, мантиқий фикрлашга чорлашнинг муаммоли услублари кўрсатилган.*

**Таянч сўзлар ва иборалар:***танқидий фикр, малака ошириш таълими иштирокчиси,камол топтирувчи ҳамда тарбияловчи принциплар,ўзини ўзи бошқариш.*

Танқидий фикр – бу қўйилган масала ёки муаммо юзасидан ўз фикрини баёнқилиш, ўзгаларнинг фикрларини танқидий қайта идрок этиш, ўз нуқтаи назарини асослаб бериш ва сақлаб қолиш имкониятига эга бўлишга асослангандир. Яна бу қоидага аниқлик киритадиган бўлсак, фикрлаш – буўқиш, ёзиш, сўзлаш ва эшитишга ўхшаш жараён. У фаол, мувофиқлаштирувчи
шундай жараёнки, ўзида бирор ҳақиқат тўғрисидаги фикрларни қамраб олади.

Танқидий (таҳлилий) фикр шу билан аҳамиятлидир:

- ҳаётнинг мураккаб ўзгарувчанлик маъносини тушуниб етишга ёрдам беради;
- жамоанинг очиқ фикрини рағбатлантиради;
- алоқа, тушуниш ва ҳурматнинг икки томонламалигини англатади;
- шахснинг ривожланишига шароит яратиши ва бошқалар.

Таълим жараёнида танқидий (таҳлилий) фикрлашнинг асосланиши:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1. Профессор-ўқитувчи ва малака ошириш таълими иштирокчи ўртасидаги ҳамда малака ошириш таълими иштирокчи биланмалака ошириш таълими иштирокчи ўртасидаги ўзаро ҳурматни тарбиялайди.

2.Машғулот жараёнида малака ошириш таълими иштирокчининг ўз тажрибасиданфойдаланилади.

3. Маълум ўқув мазмуни малака ошириш таълими иштирокчининг талабларига мос ва аниқтарзда фойдаланилади.

4. Муаммони ҳал қилишда ўқув материалларидан фойдаланилади.

5. Ҳар хил фикр ва қарашлар интеграциялашади.

6. Дастлабки шарт-шароитлар қабул қилинади ва текшириб кўрилади.

7.Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг мустақил таълим олиши учун шароитяратилади ва уларнинг тайёргарлик даражасига мувофиқ методлартанланади.

Машғулотлар жараёнида фойдаланиладиган дидактик ўйинли технологиялармалака ошириш таълими иштирокчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, дарслик ва қўшимчаадабиётлар устида мустақил ишлаш, нутқ ва мулоқот маданиятиниривожлантириш, уларни онгли равишда касб-ҳунарга йўллаш, дидактик ўйиндавомида вужудга келган қийинчиликларни бартараф этишда мўлжални тўғриолиш, ҳар хил вазиятларни таҳлил қилиб, тўғри хулоса чиқаришга заминҳозирлайди.

Ўқув дастурлари талабларига мувофиқ муаммоли ёки мунозаралимашғулотларнинг ташкил этилиши танқидий ва таҳлилий фикрларнингривожида муҳим аҳамиятга эга. Ўқув жараёнида мунозарали дарсларнинг иккихили: илмий мунозара дарслари ва эркин фикрлаш дарслариданфойдаланилади.

Интерфаол методлар-ўзаро фикр алмашишга, ўзаро фикрларнитўлдиришга, гоҳ новербал, гоҳо вербал таъсир ўтказишга қаратилганҳаракатлар мажмуасидир. Интерфаол методларни қўллашда ўзаро таъсирасосига қурилган интеллектуал ҳаракатлар шунчаки таъсир ёки турткивазифасини бажариш билан чекланиб қолмайди ва ҳамкорлик субъектлариниижодий изланишга йўналтириш, номаълум ҳолатни очишга(кашф этишга)кўмак берувчи назарий-ақлий мулоҳазаларни яратиш функцияларини ҳамбажариши мумкин.

Таълим мазмунини ўзлаштиришда малака ошириш таълими иштирокчиларнинг билим савияси,ўзлаштириш даражаси, таълим манбаи, дидактик вазифаларга мувофиқ вамуносиб равишда қуйидаги интерфаол методлар қўлланилади:

- ўқитишнинг кўргазмали методи;
- мустақил ишлар методи;
- муаммоли-эвристик моделлаштириш методи;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- илмий тадқиқот методлари;
- ўқитишнинг муаммоли-изланишли ва репродуктив методлари;
- ўқитишнинг индуктив ва дедуктив методлари;
- ўқитишнинг назорат ва ўзини ўзи назорат қилиш методлари.

Методлар қуйидаги гуруҳчаларни ўз ичига олади:

- ўқув ахборотларини эшитиш орқали қабул қилиш методлари (оғзаки методлар: ҳикоя, маъруза, суҳбат ва бошқалар).
- ўқув ахборотларини кўргазмали узатиш ва кўриш орқали қабул қилиш методлари (кўргазмали метод, тасвирий намойиш қилиш ва бошқалар).
- ўқув ахборотларини амалий меҳнат ҳаракатлариорқали бериш (амалий методлар, машқлар, лаборатория ишлари, дастурлартузиш, машқ ва масалалар ҳамда тест топшириқларини ечиш, меҳнатҳаракатлари ва бошқалар).

Интерфаол методлар асосида тузилган дарс тизимларида турлистратегиялардан фойдаланилади. Бунда малака ошириш таълими иштирокчиларга яширинча усуллардан(китоб, конспектлар ва ҳ.к.) фойдаланиш тақиқланмайди, аксинча бундайусулларни қўллаш рағбатлантирилади.

Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш, муаммоларни ҳалқилишда тайёр стандарт ечимлар билан бирга ностандарт ечимлар қилишгаундаш, малака ошириш таълими иштирокчилар ички ҳиссиётларини юзага чиқариб, уларни мантиқийфикрлашга чорлаш, уларни солиштириш, хусусий аналитик фикр юритишга
ўргатиш, уларнинг интеллектуал, зукколик хислатларини шакллантириш ва
маълум йўналишда янада юқори даражада ривожлантириш мақсадидамуаммоли услубдан фойдаланилади.

Муаммоли вазият қандай ҳосил қилинади? Бунинг учун бажарилиши лозим
бўлган топшириқ эълон қилинади. Энди шу вазифани бажариш учун малака ошириш таълими иштирокчи борбилим ва кўникмаларини эслайди, топшириқни бажаришда шу пайтгачаэгаллаган билимларининг етишмаслигини сезиш билан бирга малака ошириш таълими иштирокчи шахсидамаълум психологик қарама-қаршилик шаклидаги ҳолат юз беради. Галдагимуаммо топшириқни бажариш ва шу топшириқни бажариш учун янги билим,иқтидор ва кўникмаларни излаш муаммоси пайдо бўлади. Ана шу вазият эсамуаммоли таҳсилнинг бошланиш жараёни ҳисобланади.

Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг топшириқни мустақил бажариш жараёнинизукколик билан бошқаради, эътибор билан кузатади, керак бўлганда жонлимулоқотга чорлайди. Тингловчилар мантиқий фикрлаш давомида уларнинг

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

жонлимушоҳадаси, фикр доираси профессор-ўқитувчи томонидан изчиллик билан ҳисобгаолинади ва таҳсил охирида фаол малака ошириш таълими иштирокчиларга қўйилган баллар ёки баҳоларниэълон қилади.

Малака ошириш таълими иштирокчиларда умумлашган психологик ва услубий билим, иқтидор вакўникмаларни шакллантириш, ўз тажрибаларини танқидий нуқтаи назарданянада мустаҳкамлаш, реал ҳақиқий амалиётдаги шароитда синаш ва амалийкомпетенцияларни янги билимлар билан янада бойитиш мақсадида шу услубданфойдаланилади.

Маълумки, ҳар қандай фан ўқитилиши учун белгиланган мақсадга кўра,унинг мазмуни танланади. Уни ўзлаштириш учун унга мос методлар танланади.Сўнгра ўқув воситалари ва ниҳоят, буларга мос равишда ўқитиш шаклитанланади.

Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг психологик тайёргарликлари ва фикрлаш ёки олинганбилимларни ўзлаштириш даражаларига қараб ҳар бир таълим босқичи учун мосмазмун ва методлар танланади. Ҳар бир босқичнинг ўзига хос мазмунини баёнқилиш мантиқи ва методлари бор. Таълимда ҳар доим мазмун ва методлармуаммоси мавжуд, бу муаммолар бир-бири билан узвий боғланган. Таълимметодларидаги муаммолар «Кимни қандай ўқитамиз?» деган савол биланбоғлиқ бўлиб, бундан таълим методларини ишлаб чиқиш унинг мазмунигабоғлиқ эканлиги келиб чиқади. Бу икки муаммо ўзаро қарама-қаршиликдабўлиб, бир-бирини тўлдириб боради.

Методиканинг мақсади мазкур фандан янги ўқув фани (ўқув предмети)яратиш ва бу фаннинг ўзлаштирилишини таъминлашдан иборат. Бундай ўқувфанлари малака ошириш таълими иштирокчининг барча талаб ва эҳтиёжларини қониқтириши, замонавийпедагогик технологиялар талаблари асосида «**менга зарур ва мен буни билишга, уни ҳаётда қўллашга қодирман**» принципига асосланиши, малака ошириш таълими иштирокчининг ўқув материалиниўзлаштиришидаги кўрсаткич ва ўзлаштириш даражалари, назарий ва амалийбилимларини эгаллашда «соддадан-мураккабга» қоидасига асосланган назораттопшириқларини белгилаш ҳамда малака ошириш таълими иштирокчиларга индивидуал ва табақалашганҳолда ёндашувлар хусусиятларини ҳисобга олиши лозим.

Анъанавий методикада малака ошириш таълими иштирокчи шахсининг ривожланишини ҳисобга олганҳолда унинг билими кўникмага, ундан эса малакагача ривожланишига аҳамиятберилмаслиги аён. Маърузачи-модератормалака ошириш таълими иштирокчига иложи борича ўрганилаётган мавзуданкўпроқ ахборот беришга ҳаракат қилади. Профессор-ўқитувчи ахборотларни тўплаш,ахборотларни танлаш ва қайта ишлаш, ўрганилган ахборотларни қўллаш кабибилишнинг учта босқичдан иборат моделига ҳар доим ҳам риоя қилавермайди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Кейинги навбатда малака ошириш таълими иштирокчининг билиш фаолияти (олган билими) уни билишфаолиятининг янги поғонасига, яъни бу билиш фаолиятининг фаоллашувжараёнига кўтариши керак. Шундагина билим кўникмага, кўникма эса малакагаайланади. Малака ошириш таълими иштирокчилар билиш фаолиятининг фаоллашуви қатор принципларгатаянади: фанни ўрганишга қизиқтириш, таянч ибораларга асосланиш,муаммоли методларни қўллаш, мустақил ишларни ташкил этиш, ялпи ва яккаишларни ташкиллаштириш, кўргазмали ва техник воситалардан фойдаланиш,таълим мазмунини турмуш билан боғлаш, фанлараро алоқадорликни ўрнатишва ҳоказо. Бундан эса, таълим жараёнида ўқитувчи риоя қилиши керакбўладиган асосий принциплар келиб чиқади:

- малака ошириш таълими иштирокчида ўз кучига ишониш ҳиссиётини уйғотиш;
- малака ошириш таълими иштирокчида ўз вақтида керакли ёрдам бериш.

Малака ошириш таълими иштирокчиларнинг фанларга оид танқидий фикрини билиш мақсадида қуйидагиварақалар тарқатилган:

1. Маърузани эшитиб ёзиб бордим, лекин ўзлаштирилаётган материалмоҳиятини бир даврнинг ўзида тўлиқ тутушуниб етмадим.
2. Илмий тушунчалар, атамалар ва таърифлардан фойдаланишдақийинчиликларни ҳис қиламан.
4. Маъруза ва семинар машғулотларининг моҳиятини тушуна олмайман.
5. Назарий билимлар билан амалиёт ўртасида бирмунчаномутаносибликлар мавжуд.
6. Мустақил фаолиятни режалаштиришнинг оқилона усулларииетишмайди.
7. Мустақил билим олиш учун жуда оз вақт қолади.
8. Ўқув йили давомида бир қанча материаллар индивидуал ишлашгайиғилиб қолади.
9. Рейтинг назоратида ҳис-туйғуда барқарорликнинг етишмаслигисабабли диққатни бир жойга тўплай олмайман.
10.Семинар машғулотлари ва рейтинг назоратига тайёрланиш учунбирламчи манбаларнинг йўқлиги ёмон оқибатларга олиб келади.

Танқидий фикрлашни ривожлантириш осон иш эмас. Бу муайян ёш давридатугалланган ва эсдан чиқарилган вазифа ҳам эмас. Шу билан бирга танқидийфикрлашга олиб борадиган тугалланган йўл ҳам йўқ. Аммо танқидийфикрловчиларнинг шаклланишига ёрдам берувчи муайян ўқув шароитларитўплами мавжуд.

Танқидий фикрлаш тажрибасини эгаллаши учун малака ошириш таълими иштирокчиларга вақт ваимконият бериш зарур, яъни;

- малака ошириш таълими иштирокчиларга фикр юритиш учун имконият бериш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- турли-туман ғоя ва фикрларни қабул қилиш;

-малака ошириш таълими иштирокчиларнинг ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш;

-ҳар бир малака ошириш таълими иштирокчининг танқидий фикр юритишга қодир эканлигига унинг

ўзида ишонч ҳиссини уйғотиш;

- танқидий фикрлашнинг юзага келишини қадрлаш лозим.

Шу муносабат билан малака ошириш таълими иштирокчилар:

- ўзига ишончни орттириш, ўз фикри ҳамда ғояларининг қадрини тушуниш;
- таълим жараёнида фаол иштирок этиш;
- турли фикр ва ғояларни эътибор билан тинглаш;
- ўз ҳукмларини шакллантиришга ва ундан қайтишга тайёр туриши лозим.

Танқидий (таҳлилий) фикрлаш малака ошириш таълимииштирокчининг фаоллиги билан бевоситабоғлиқдир.

Таълим жараёнидаги малака ошириш таълими иштирокчиларнинг фаол иштироки ва таълимга ўзларинингмасъул эканлигига тайёрлиги, танқидий фикрлашда кутилган натижаларниберади. Малака ошириш таълими иштирокчиларни фикр юритишга, ўз ғояси ва фикрлари билан ўзароўртоқлашишга даъват этиш каби педагогик ёндашув уларнинг фаоллигиниўстиради.

Фикрлаш жараёнини ташкил этиш давомида малака ошириш таълими иштирокчиларнинг фикрлари, ўзтанқидий таҳлили натижалари қимматли эканлигини уларнинг онгигасингдириш зарур. Профессор-ўқитувчималака ошириш таълими иштирокчилардан муайян материалнишунчаки қайта ишлашни талаб қилганда тайёр қолиплардан, андозалардан холибўлиши лозим. Бу эса малака ошириш таълими иштирокчиларда ўзгалар ғояларини механик тарзда қайтаишлаб чиқиш энг муҳим ва қимматли эканлигига ишонч ҳосил қилишга олибкелади. Аслида малака ошириш таълими иштирокчиларга ўз фикри, ўзига тааллуқли бўлган ғоя ватасаввурлар қимматли эканлигини кўрсата олиш керак. Тингловчиларнинг ўзлариҳам ўз фикрларининг қимматбаҳо эканлигига ишонч ҳосил қила олишлариҳамда масалаларни муҳокама қилиш жараёнида ўта муҳим ва катта ҳисса бўлибҳисобланишини тан олишлари керак.

Фикрлаш жараёни тингловчиларнинг ўзаро бир-бирлари билан фикралмашишларини кўзда тутади. Ўзаро фикр алмашишда малака ошириш таълими иштирокчилардан диққатбилан тинглаш, ўзининг қарашлари тизимини сўровчига зўрлаб ўтказиш вабошқа сўзловчилар фикрини тузатиб туришдан ўзини тийиб туриши ҳам талабэтилади. Бунга жавобан малака ошириш таълими иштирокчилар бошқаларнинг ялпи фикрлариданфойдаланиш имкониятига эга бўлади. Кенг

доирадаги мунозара оқибатиўларок, малака ошириш таълими иштирокчилар ўзларига тегишли бўлган ғояларни таҳлил қилиш ва унианиқлашга янада қобилияти орта боради ҳамда уларни ўз билимлари ва ҳаётийтажрибаларида яратган ғоялари тизимига тиркаб боради. Фикрлаш жараёниниташкил этишда уни ўтказишнинг бир неча моделлари мавжуд, яъни ўзигаишонч ҳосил қилиш, ишда фаол иштирок этиш, ўртоқлари ва ўқитувчи биланфикр алмашиш, ўзгалар фикрини тинглай олиш ва бошқалар.

Умуман олганда, малака ошириш таълими иштирокчиларнинг танқидий (таҳлилий) фикрниривожлантириш таълимнинг ушбу тури ўқув-тарбия жараёнида камол топтирувчи ҳамда тарбияловчи принципларни амалга оширишда вамалака ошириш таълими иштирокчиларнинг ўзини ўзи бошқаришида муҳим рол ўйнайди.

## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Кларин М.В. «Педагогическая технология в учебном процессе» М.: «Знание», 1981, 84 с.

2. Фарберман Б.Л. «Прогрессивные педагогические технологии». Т.: 1999, 84 с.

3. Махмутов М.И., Ибрагимов Г.И., Чошанов М.А. «Педагогические технологии развития мышления учащихся» Казань., 1993 , 88 с.

4. Н.Х.Авлиёкулов «Укитишнинг Модули тизими ва педагогик технологияси амалий асослари», Бухоро, 2001.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ўқувчи мустақил фикрини ривожлантиришда тренинг усулининг аҳамияти

Утаганов Файзулла Ишбаевич

Сурхондарё вилояти Қумқўрғон тумани

34- мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.**Тарих дарсларида тренинг услубидан фойдаланишнинг педагогик – психологик моҳияти. Ўқувчи мустақил фикрини ривожлантиришда тренинг усулининг аҳамияти. Тарих дарсларини тренинг услубида ташкил этиш усуллари .Тарих дарсларида тренинг услуби самарадорлигини белгиловчи омиллар . Тренинг услубидан фойдаланишда самара берадиган мавзуларни танлаш ва ўқитувчи педагогик маҳорати .

Мустақил Ўзбекистон бугунги XXI асрга дадил кириб бораётган бир даврда мамлакатимиз ва халқимиз ҳаётида туб ижодий ўзгаришлар содир бўлмоқда. Қисқа вақт давомида маънавий меросга, кўҳна ва бой тарихимизга эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Ўзбек халқининг ёркин ва ҳақиқий тарихини ёш авлодга ўргатиш, баркамол шахсни тарбиялаб вояга етказиш бугунги мактаб таълимининг моҳиятини ташкил этади.

Ноанъанавий таълим шаклларидан бири тренинг услубини тарих дарсларида қўллаш орқали бевосита шахс фаолиятига ёндашув концепцияси тамойилларига мос равишда бола ички дунёси, дунёқараши ва шахсий ҳаётий тажрибасини максимал даражада фаоллаштириш, унда ўқув – билув фаолиятига рағбат уйғотиш, ўқувчини дарсга қизиқиши, айниқса, унинг лойиҳачилик мустақил фаолиятига кенг йўл берилади. Ўқувчининг индивидуаллиги ўқув – билув майдонларида намоён бўлади.[75]

Тарих дарсларини тренинг услубида ташкил этиш орқали ўқувчининг аниқ тарихий вазиятга нисбатан ҳосил қилинадиган билимини атрофлича, тарихийлик ва мантиқийлик тамойилларига мос бўлиши ; ўқувчи тарихий хотирасини фанлараро, даврийлик ва дунёвийлик нуқтаи назаридан солиштирилган билимлар

[75] Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Тафаккур, 1998, №2

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

билан бойитиш; ўқувчи мустақил фикри ва тарихий вазиятга нисбатан шахсий қарашини қарор топтириш мавзу долзарблигини белгилайди

Тренинг тушунчасини фанга дастлаб Германиядаги Лейпциг университети мутахассиси М. Форверг олиб кирган. [76]Дастлаб тренинглар фақат психология соҳасида кишиларни мулоқот кўникмасини шакллантириш мақсадида қўлланилган. Кейинчалик тренинг ижтимоий фанлар соҳасига кенг кириб келди. Америкалик психолог Кьеел Рудестам тренинг гуруҳининг фойдали, мақсад бўйича бир неча типларга ажратган.М. Форверг ижтимоий -психологик тренингнинг иккита фаол услубларини ишлаб чиққан. [77]

Ривожланган мамлакатлар таълим тизимида тренинг услубини қўллаш кенг тус олди. Лекин, Ўзбекистон микёсида таълим тизимида тренинг услубини қўллашга доир дастурий адабиётлар ва қўлланмалар ҳалигача яратилмаган бўлсада, мутахассислар Искандаров Э.А.,[78] Акрамова Ф.А.,[79] Б.Муранов ва Р.М.Серсенбаева[80] ҳамда бошқаларнинг мавзу юзасидан илмий мақолалари чоп этилган. Бугунги кун таълим тизимида кенг жорий этилаётган ноанъанавий дарс усулларини ташкиллаштириш трансформация-сини назарда тутувчи тренинг услубини[81], таълим тизимида қўллаш мухим аҳамият касб этмокда.

Тренинг услубидаги дарс жараёнида юзага келган барча жумбоқларга боланинг ўзи жавоб топишига эришиш, унинг фикрлари ўқитувчи ёки ўртоқлари фикрларига мутлақо ўхшамаслиги, лекин, энг муҳими мазкур фикр муаммо ечими бўлиши билан бирга, ўқувчида ўз жавобидан қониқиш ҳосил қилиши, жавобни ўзи излаб топганлигидан ғурурлана олиши ўта аҳамиятлидир.[82] Ўқитувчи ўқувчилар кўз ўнгида топшириқларни шакланти-ради, топқирликка асосланган қизиқарли ечимларга

---

[76] Искандаров Э.А.Педагогик инновацияларининг ижтомоий психологик муаммолари. Таълим муаммолари, 2000, №4, 37-бет

[77] Искандаров Э.А.Педагогик инновацияларининг ижтомоий психологик муаммолари. Таълим муаммолари, 2000, №4,38-бет

[78] Искандаров Э.А.Педагогик инновацияларининг ижтомоий психологик муаммолари - таълим муаммолари 2000, №4.

[79] Акромова Ф.А. Мунозара ва тренингларни қўллашнинг психологик моҳияти. Замонавий илм фан технологияларининг энг муҳим муаммолари. Республика илмий амалий конференсияци тезислари. Жиззах, 2004.

[80] Муронов Б., Серсенбаева Р.М. Таълим муассасаларида "бахс - мунозара" тадбирини ташкил этиш техналогияси. "Олий ма ўрта махсус татълимда сифат самарадорликни ошириш муаммолари" Республика илмий - амалий конференцияси материаллари. II қисм, Самарқанд, 2004, 24-25 март.

[81] Сафарова Р., М усаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистонда умумий ўрта стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни тадқиқ этиш йўллари. Т., Фан, 2005, 3- бет.

[82] Ўша жойда.

йўналтириш учун илғор методлардан фойдаланади.Ва бу билан ўқувчи -ўқитувчи ҳамкорлигига эришиш орқали ўқувчида мавзуга доир мустақил фикр ва муносабатини билдириш, жамоада мулоқат кўникмасига ва ўз позициясига эга бўлиш, плюрализм ва ўзгалар фикрига ҳурмат билан ёндашиш кўникмасини шакллантиради.

Тренинг асосида ташкил этилган тарих дарсларида ўқувчида билим ва тушунчалар ҳосил қилиш билан бирга унинг шахсий "мен"и (яъни жамоадаги ўрнини англаши) ни тарбиялаш мухимдир. Зеро, Президентимиз И. Каримов айтганларидек: "Таълимни – тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди. Бу шарқона қараш, шарқона ҳаёт фалсафаси" [83].

- илмий адабиётлардаги бу масалага доир педагогик - психологик фикрлар таҳлил қилинган ва уларга таянилган ҳолда тренинг услубининг аҳамияти очиб берилди;

- тарих дарсида ташкил этилган тренинг жараёнида ўқувчи мустақил фикрини ривожлантирувчи омиллар кўрсатилди;

- тарих дарсларида тренинг ташкил этиш шартлари ва қоидалари ёритилди;

- тарих дарсларида қўлланилиши мумкин бўлган тренинг услуби шакллари кўрсатилди;

- тарих дарсларини тренинг услубида ташкил этишда самара берадиган мавзулар танлаш талаблари очиб берилди.

"Фикрларни эмас, фикрлашни ўргатмоқ керак."-деганди И.Кант.[84] Бу айни ҳақиқатдир. Ёш авлодга таълим-тарбия берар эканмиз, албатта ёшларни фикрлашга ўргатиш муҳимдир.

Бугун ёш авлодни ақлан етук ва маънавий баркамол қилиб тарбиялашда таълим – тарбия жараёнида қўлланиладиган усул ва воситалар муҳим аҳамиятга эга. Баркамол шахс тарбиясида аввало тарбияланувчида мустақил фикрлаш, ўз ақлий ва амалий фаолиятини мустақил ташкил эта олиш кўникмасини ҳосил қилиш зарур. Бу ҳақда буюк аллома Хожа Баховуддин Нақшбанд шундай ёзади: "Набини вақти суфтин, марди ҳақ нок, ба шогирдин ди хал дурри хатарнок". Мазмуни: "Кўрмайсанми дурга ишлов берувчи уста дурни тешаётган вақтда хатарнок (нозик қимматбаҳо) дурни тешишни шогирдига топширади".[85] Бу фикрдан шу нарса

[83] Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008, 52-бет.
[84] Ҳақиқат манзаралари – 96 мумтоз файласуф: тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар. Тўпловчи ва таржимон Жўраева С. Т. Янги аср авлоди, 2007, 328 – бет.
[2]Холматова Н., Салимова М. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва таълим технологиялари. Ижтимоий- гуманитар фанларни ўқитишда ёшларнинг фаоллиги ва баркамоллигини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

кўринадики, таълимни ўргатиш, бирга бажариш каби босқичларида ўрганувчига эркинлик бериш, ижодий фикрлаш ва ўзлигини тўла намоён қилишига дарс жараёнида имкон беришимиз керак.

Мустақил фикрлаш шундай қобилиятки у туфайли шахс нарса ва ходисалар хусусида ўз қарашига ҳамда ностандарт ечимларга топишга интилади. Масалан: аниқ предмет ручканинг нима эканлиги ва нима мақсадда ундан фойдаланиш мумкинлигини кўпчилик билади. Бу ёзув қуроли, лекин, ностандарт тафаккурга эрк берилса, уни кўрсатгич сифатида ёки санок таёқчаси ўрнида ва яна ип ўраш мумкинлиги каби функциялари ўқувчи томонидан айтилиши мумкин[86]. Демак мустақил фикрлаш ўқувчининг нарса ва ҳодисаларнинг мохияти хусусида ўз қарашлари бўлишини тақазо этади. Унинг билиш ва англаш имкониятлари чегарасани кенгайтиради.

Тарих таълимининг бош вазифаси ёш авлод онгида сиёсий, назарий-илмий, сиёсий дунё қарашини шакллантириш, воқеа ва ҳодисаларга тарихийлик нуктаи назаридан ёндашадиган, хар томонлама баркамол шахсни тарбиялашдир.[87] Мустақил фикрлашни ривожланишига таъсир кўрасатувчи омиллар:

**Биринчидан:** мустақил фикрлаш инсон бирор обектнинг моҳиятини англаб етгандагина юзага келади.[88] Ўқувчи тарихий воқеаларни турли воситалар ёрдамида ўрганиб, унинг моҳиятини ҳис этиб, унга нисбатан ўз фикри ва муносабатини билдира олсагина мустақил фикрлай бошлайди. Мазкур жамоавий интеллектуал жараёнларда иштирокчи, гуруҳ ва қатнашувчиларни билдирилаётган тўғри, ҳақиқатга яқинрок ёки хато фирклар орасидан ўзи учун зарур бўлган рационал хулосани келтириб чиқаради.

**Иккинчидан:** мустақил фикрлаш учун мавжуд маълумотларни хар томонлама таҳлил (синтез) қилиш зарур. Тарих таълимида тренинг услубининг қўлланилиши тараққиётнинг турли босқичларидаги хаёт тарзини солиштириш, таҳлил қилиш, мазкур воқеликка сабаб бўлган тарихий жараёнлар, воқелик ривожи натижаларидан келиб чиққан оқибатларни даврийлик нуктаи назардан ўрганиниш самарали кечади

---

шакллантириш муаммолари. Республика илмий – амалий конференцияси материаллари, Қўқон, 2008, 11 - 12 июнь, 49 – бет.
[3] Қаранг: http//uz.ref.uz/download.php?id=18994 – Таълим муассасаларида инновацион фаолиятни шакллантириш.

[86] Акрамова Ф., Қодирова Н. Мустақил фикрлаш соғлом маънавиятнинг меъзони сифатида. “Ижтимоий – гуманитар фанларни ўқитишга ёшларнинг фаоллиги ва баркамоллигини шакллантириш муаммолари” Республика илмий – амалий конференсияси метериаллари, Қўқон, 2008, 11-12 июн, 24-бет.

[87] Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона консепсияси. Т., 1996, 8-бет.

[88] Калдибекова А, Хўжаев Б. Ўқувчиларни билиш фаоллигини ошириш йўллари Т., 2006, 22-бет

ва ўқув фанларига интергрconsiderацион ёндашувни келтириб чиқаради. Бу хақда мутахассис У.Мусаев шундай фикр билдиради: “Таълимда интеграцияни амалга ошириш ҳам иқтисоди ҳам педагогик ва физиалогик жихатдан ахамиятлидир”[89] . Тарих дарсларида тренинг услубини қўлланилиши «Ўзбекистон тарихи» ва «Жахон тарихи» фанларини ўзаро алоқадорликка ўрганишни назарда тутади.

**Учинчидан** мустақил фикрлаш инсон ўзини англагандагина, ўзгалар фикрини тушуниб, бошқалар билан фаол муносабатга киришгандагина юзага келади. Тренинг услубидаги дарсларда қатнашган ўқувчи ўз имконият даражасини тушуниб етади, тренинг жараёнида унда фаол ўртоқлар даражасига яқинлашиш, баъзан эса, улардан хам ўзиб кетишига имконият ҳосил бўлади.

**Тўртинчидан:** мустақил фикрлашда ўқувчини ўз хатти ҳаракатларига нисбатан ишонч ҳис эттириш зарур. «Жиддий, теран ҳақиқий ирода энг аввало мақсадга эришишга ишонч тасаввурлари билан уйғунликда ифодаланади»[90]- деб ёзганди Иоганн Гёте.

Психолог Дейл Карнеги – кишиларга ҳакорат қилмай ва ранжитмай таъсир кўрсатишнинг 9 қоидасидан бири сифатида шундай ёзади. “Кишиларга шаън яратиб берингки, уни оқлаш ҳаракатига тушиб қолсинлар” ва буни қуйидаги мисол билан изоҳлайди: “Неаполдаги фабрикада ишловчи ўн ёшли болакай қўшиқчи бўлишни орзу қиларди бироқ биринчи ўқитувчиси уни ҳафсаласини пир қилиб қўйди: -сендан қўшиқчи чиқмайди, овозинг дераза тирқишидан кираётган шамолга ўхшайди! Қамбағалгина онаси уни бағрига босиб – Мен биламан сен қўшиқ айта оласан, овозингдаги ўзгаришни сезаяпман – дер эди доим. Бу мақтовлар бола тақдирини белгилаб берди. Ўша болакай (машҳур қўшиқчи) Энрико Карузо эди. ”[91]

**Бешинчидан:** дарсга бефарқ ёки шу фанга қизиқмайдиган ўқувчиларни юмшоқ ва самимий охангда ўқув жараёнига давъат этиш ҳамда нафсониятига дахл қилиш зарур. Маълумки, ҳар қандай киши баҳс-мунозара вақтида маълум позицияда – хох кўпчилик томонда, хох мухолифат томонда бўлсада, ўз қарашига эга бўлади. Камдан – кам кишилар бетарафлик эълон қилади. Бу ҳолат эйниқса, дарсга бефарқ ва дарсдан кўра ўз шахсий уй юмушларини устун қўядиган ўқувчиларга ҳам таъсир этади. Тренингнинг анъанавий дарслардан устунлик тарафи ҳам шу каби хусусиятларида кўринади.

---

[89] Мусаев У. Интеграция - таълим жараёни оптималлаштиришнинг муҳим принципи. – Халқ талими, 2002,№-6,4-бет.

[90] Баркамол авлод орзуси. Тузувчилар: Қурбонов Ш., Ахлиддинов. Саидов Х. Т., Шарқ, 1999, 176-бет

[91] қаранг: Дейл Карнеги. Қандай қилиб дўст орттириш ва одамларга таъсир кўрсатиш мумкин. Наманган, 2007,103-105 бетлар.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Олтинчидан:** тренинг дарсларида ахборот, техника ва кўргазмали воситалардан унумли фойдаланиш оркали ўкувчиларда изланувчанлик ва мантиқий фикрлаш қобилиятини ўстириш муаммоларини ҳал этишда яхши самара беради. Тренинг жараёнининг компьютер имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ташкил этилиши, хусусан, тарихий мавзуларга доир видео роликлар, тасвирий санъат намуналари тарихий қахрамонлар суратларини ўқувчиларга намойиш этиш ўқувчиларга мунозара мавзусини, муаммосининг мазмунини тушунтириш йўналиш бериш мумкин.

**Еттинчидан:** Мустақил фикрлар инсон баҳс-мунозарага кирганда туғилади, шаклланади ва ривожланади. Ўтмиш воқеалари ҳақида бахс юритганда, турли фаразлар, қарашлар юзага келади. Бироқ ҳамма овозлар мухим, уларни эшита олиш ва тўғри хулосаларга келиш лозим[92]. Мунозара жараёнида анъанавий дарслардан фарқли равишда қарама – қарши фикрлар ёки монанд фикрлар борлигини аниқлаш ҳам шахсда ушбу фикрларга нисбаттан анча фаол фикрларни шаклантиради[93].

**Саккизинчидан:** мустақил фикрлар шаклланишида билишга бўлган рағбат (стимул) керак. Тарих фани таълими ва тренинг жараёнида бу борада катта имкониятлар мавжуд. Тренинг дарсларида, аввало, таҳсил олувчиларнинг фаоллигини ошириш талаб этилади. Шунинг учун ҳам ўқувчиларнинг мустақил ва танқидий фикрларини ўстиришда таълимнинг интерфаол усулларидан кенг ҳамда ўринли фойдаланилади. Бунда анъанавий дарслардагидек 5-6 ўқувчи эмас, деярли барча ўқувчи баҳоланади. Тренинг мувоффаққиятли натижа бериши учун тренер-ўқитувчи психолог Дейл Карнегенинг ушбу маслаҳатига амал қилса яхши бўлади: "Кишиларнинг кичик бир ютуқларини ҳам қўллаб кувватланг, ҳар бир мувофаққиятига этибор қаратинг, бахо беришда холис, мақтовга саҳий бўлинг".[94] Юқоридаги қоида ва талаблар асосида ўқувчининг креатив таффакури шаклланади.

Креатив тафаккур–жамият тараққиётини белгиловчи барча индустриал ва постиндустриал илмий техникавий инқилоблар ва кескин ўсиш, жамият келгуси тараққиёт босқичлари учун хизмат қиладиган ноанъанавий фикрлаш қобилияти ҳамда тараққиёт омилларини таъминлашга қаратилган тафаккур шакли ҳисобланади[95].

---

[92] Хўжаев Б. Тарих фанининг мустақил фикрларни шакллантиришдаги имкониятлари. Халқ таълими, 2008 № 4, 62-бет.

[93] http: // uz. Ref. uz/ downnlaoad. Ptp? Id = 15006. - Мунозара методлари ва уларни ташкил этиш технологияси.

[94] Дейл Карнеги. Қандай қилиб дўст орттириш ва одамларга таъсир кўрсатиш мумкин. Наманган., 2007,58-бет.

[95] Тўйчиева Г. Ёшлар ва конфликтлар: конфликтлар ечимига ўрганиш. Т., 2008, 125-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқув билим ижодкорликка йўналтирилса–ўқувчи фаоллиги, ятарувчанлиги ошиб боради[96]. Креатив тафаккур шаклланишида мактаб таълими асосий равишда муҳим рол ўйнайди ва ташкил этилган тренинг машғулотлари унинг пойдевор вазифасини ўтайди. Ўқувчи креатив тафаккури ўсиб боришини натижасида унинг тафаккурида оригинал қарорлар куртак ёзади ва вужудга келади. Оригинал, уникал ва ноанъанавий қарорлар эса замонавий жамиятни илғор тараққиёт ва иқтисодий такомил сари етакловчи кучдир. Айнан шу кучни ҳосил қилиш учун тренер ўқитувчи ўқувчиларни ижодий фаолиятга чорлар экан, улар онгига қуйидагиларни сингдириши керак:

- ўз тафаккурингизни оригинал ечимлар топиш ва уларни тарғиб қилишга чақиринг яъни ғояларни ишлаб чиқишга ўзингизни мажбурланг;

- бошқалар сиз тўғрингизда нотўғри тушунчага боришидан чўчиманг;

-агар биринчи тажрибангиз муваффақиятсиз бўлса ҳам, ўз тажрибан-гиздан воз кечманг, ноанъанавий фикрлашни давом эттириб масала ечимининг бошқа вариантларини қидириб кўринг;

- англашиларсиз ва тушунарсиз нарса ва ҳодисаларнинг моҳиятини англашга ҳаракат қилинг;

- анъанавий усулларда фаолият олиб боришдан воз кечинг, янги усулларда ишлашга уриниб кўринг;

- ғоялардан қўрқманг, уларни кенг қўлланг;

- ғоялар таҳлилида мухокама объекти бўлишга ҳаракат қилинг, мазкур ғоялар сизга эмас, балки бошқа одамларга таълуқли деб ҳисобланг, бу ҳолат сизнинг объектив қарор чиқаришингиз учун ёрдам беради[97]. Юқорида-гилардан кўриниб турибдики, мунозарали усулларининг ижтомоий – психологик аҳамияти – улар ҳар бир ўқувчининг мулоқатдаги билимдонлик ҳамда ўз ақлий потенсиалидан тўлиқ фойдаланиш имконини беради. Яъни ушбу туркум усулларнинг вазифалари ҳам унинг аҳамиятли методларидан келиб чиқади: а) ҳар хил вазиятларда таҳлил қилишга, асосий, муҳим нарсани ноъмуҳим нарсадан ажратишга ва муаммони англашга ўргатади;б) ўзгалар фикри, гапириш маҳоратини кузатиш ва шу асосда улар билан ҳамкорликда ишлашга ундайди; в) муаммога таълуқли ранг – баранг қирраларини

[96] Йўлдашов Ж, Йўлдашова Ф, Йўлдашова Г. Интерфаол таълим сифат кафолатлари (болага дўстона муносабатдаги таълим) Т., 2008, 75-бет.

[97] Тўйчиева Г. Ёшлар ва Конфликтлар: конфликтлар ечимига ўрганиш. Т., 2008, 126-бет.

ажратиш, улар моҳиятини тушуниш имкониятини яратади: г) муаммонинг турли муқобил ечимлари бўлишини намойиш қилади.[98]

Бугун тарих фанини ўқитишга таълимнинг хилма–хил турлари (тушунтиришли, кўргазмали, муаммоли, дастурланган, табақаланган, масофали, модул–блокли) имкониятлари, илғор хусусиятларини ўзида жамлаган тренинг усули тарихий фактларни шархлаш ва асослаш орқали шахсий фикрларини хосил қилади. Бу эса, мустақил фикрлашнинг натижаси сифатида воқеа ходисаларни тушунтуришнинг турли усулларини юзага келтиради. Тарихий воқеаларни бахолашнинг турли кўринишлари билан танишиш ўқувчиларга уларни ҳар томонлама мухокама қилишга имконият яратади. Иккинчидан, бахс-мунозара жараёнида билдириладиган хилма-хил қарашлар тарих муқобиллик асосида тушунтиришни шакллантиради[99].

Бугун тарих таълими ҳозирги замон дидактикаси ва методикасидаги илғор ва самарали ютуқлари ҳамда усулларидан фойдаланишни талаб этади. Чунки замонавий дарсни ҳар бири муаллифлик асари бўлиб, у дарс тартиблиги ва бутунлигини ўқитувчи ҳамда ўқувчи ҳамкорлигидаги фаолиятнинг мақсад ва дидактив топшириқларига бўйсинишни ўз ичига олади.

Ўқувчини ижодий фаолиятга чорлайдиган тренинг қуйидаги принцип-ларга асосланади: мажбурсиз таълим; мураккаб мақсад; болалар билимига хурмат муносабатида бўлиб бахолаш; жавобгарлик ва бурч ҳисларини тақдирлаш; ўзаро таҳлил; синфнинг интеллектуал ва шахсга ёндашув принциплари,[100] изланишга чорлаш; ҳар бир ўқувчи билан индивидуал муносабат бўлиш; ўқувчи дунёқарашини кенгайтириб, тафаккурини ўстиради.[101]

Тренинг дарсларда қандай шаклда қўлланилмасин унинг педагогик- психологик моҳияти шундаки, оддий мунозарада бахслашувчилар кўпроқ онгли, асосли фикрларни баён этишга ҳаракат қиладилар. Бунда дастлаб бахслашувчиларга мияга қандай фикр қуйилиб келса, уни танқидсиз ва асосламай эркин, “тилга нима келса”, лекин навбатма-навбат айтиш имконияти берилади. Бу нарса кўпроқ муаммо анча нотаниш яъни ўқувчи учун ҳали номалум бўлган тарихий мавзу ўрганилаётганида, қўйилаётган савол мураккаб ва ноанъанавий шароитда қўл келади. Жараёнда “эркин

[98]http: // uz. Ref. uz/ downnlaoad. Ptp? Id = 15006.- Мунозара методлари ва уларни ташкил этиш технологияси.

[99] Хўжаев Б. Тарих фанининг мустақил фикрларни шакллантиришдаги имкониятлари. Халқ таълими, 2008, № 4, 64-бет.

[100] http://uz.ref.uz/download.php?id=18994. Таълим муассасаларида инновацион фаолиятни шакллантириш.

[101] Нурмонов А., Икромов Н., Бойназаров Ф. Янги педагогик технология асослари. Т., Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007, 9-10 бетлар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ассоциациялар"га имкон берилади ва охир оқибат гурухнинг ўзи маълум рационал «мағизни» ажратиб олади.[102]

Тренинг дарсларида синф ўқувчилари ва уларда вужудга келтирилган гурухлар билан мунозара жараёнида қуйидаги қоидаларга амал қилади:

Биринчидан, "Шу ерда ҳозир" қоидаси: гурухни ташкил этишда – фикр, мулохазалар, жараённинг кечиши ҳисобга олиниши керак. Шу йўсунда ҳар бир иштирокчининг диққат эътиборини шахсан ўзига ва атрофида кечаётган воқеаларга торта олиш, иштирокчиларнинг ўзини қандай тута олиши, кўрсата олишга эътибор қаратилиши керак.

Иккинчидан, самимият ва очиқчасига қоидаси: шунга эриша олиш керакки, гуруҳ аъзолари тортиниш ёки кўз бўямачилик ва ёлғондан ҳоли бўлишлари шарт, гурухда шахснинг ўзига ишончи ва соғлом ишнинг мақсадли бўлишига туртки бўлади. Бундай муҳитни яратиш ўқувчилар орасидаги мулоқотнинг самарали кечишини таъминлайди.

Бундай ҳолларда тренер ҳар бир иштирокчининг ҳимояланганлиги, очиқчасига ўз фикрини баён эта олишга муҳит яратиш керак. Шундагина гуруҳ иштирокчи мулоқот жараёнида ўзи ўйлаган, айтиши мумкин бўлган фикрни ўша заҳотиёқ айтади, билдиради.

Учинчидан, "Мен" қоидаси: гуруҳларда ҳамманинг фикри ундой ёки бундоқ деб айтиш ман этилади. Фикрлар фақат айрим ўқувчилар томонидан, унинг ўз номидан фикр мулоҳазалари алоҳида - алоҳида билдирилиши керак. Бунда билдирилаётган фикр ёки ғоя ўқувчи шахс маъсулиятига юклатилади. У қандай бўлса шундай қабул қилинади. Шу йўсинда гурухда ҳар бир ўқувчининг ўрни ва роли бўлишига эришилади.

Тўртинчидан, фаоллик қоидаси: гуруҳ ишида пассив кузатувчи бўлмаслик керак. Топшириқлар ечимида ҳамма қатнашчилар шахсан иштирок этиши зарур. Агар гуруҳ аъзоларидан биронтаси фаол қатнашишдан бош тортса, бунга тренер бевосита ўзи ёки фасилитатор[103] ва гуруҳ аъзолари оркали уни мунозарага жалб этиш йўллари қидирилади.

Бешинчидан, гуруҳда нима содир бўлса, ўз жойида қолиш қоидаси: гуруҳда этик талаблар, руҳий ҳолатларни вужудга келтириш учун гурухда содир бўладиган ноўрин, нотўғри фикрларни танқид остига олинмаслиги, муҳокама қилинмаслиги

[102] Акромова Ф.А. Мунозара ва тренингларни қўллашнинг психологик моҳияти. Замонавий илм фан технологияларининг энг мухим муаммолари. Республика илмий амалий конференцияси тезислари. Жиззах, 2004, 371 бет

[103] Фасилитатор – тренер ёрдамчиси, дарс самарадорлигини ошириш мақсадида гуруҳларда гуруҳ ишини ташкил этувчи, олиб борувчи шахс.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

жуда муҳимдир. Нима эса айтилса гурухда қолиб кетиши шарт.[104] Бугун туғридан-тўғри аудиторияга кириб тренинг ташкил эта олмаймиз, чунки, иштирокчилар ҳали бунга психологик жихатдан тайёр бўлишмайди. Уларга “Биз келгуси дарсни тренинг асосида ўтамиз, ўқиб келинг!” дея буйруқ берсак, мунозарадан наф бўлмайди. Аввало ўқувчида тренингга қизиқиш ва ундан манфаатдорлик ҳиссини уйғотишимиз зарур. Ўқувчиларга буйруқ эмас, савол бериб, дарсга нисбатан муносабатини аниқлаш ва буни ижобий томонга ўзгартириш керак. Бунда Сукрот усули [105] самара беради. “Мен борлигим учун шунга мос ҳаракат қиламан, балки қандай ҳаракат қилишимга қараб шаклланаман”[106] - деган эди файласуф. Ўқувчини мантиқий ўрганишда ўқитувчи ушбу фикрни уларга тушунтирган ҳолда, айнан уларни қизиқиш ва қарашларидан келиб чиққан ҳолда оддий ва осон саволлар билан дастлабки яни камида уч бора “Ҳа” жавобини олиш баробарида тренинг улар учун имконият эканлигини тушунтиради. Бу кўпчилик учун оддий ва ахамиятсиз бўлиб кўриниши мумкин. Лекин яхши сухбатдош бўлиб ўқувчидан дастлабки “Ҳа” жавобларини олган ўқитувчи ўқувчи наздида уни тушуна оладиган камдан - кам кишилардан бири бўлиб кўринади. Натижада кейинги жавоблари ва хатти - ҳаракатлари ўқитувчи фойдасига ижобий ҳал бўлади. Бугунги замонавий таълим шу каби оддий ва ахамиятсиз бўлиб кўринган кичик элементларни ҳам этибордан четда қолдирмасликни талаб этади.

Демак, сухбат аввалиданоқ ўқувчини “Ҳа” дейишга эришиш зарур. “Инкор жавоби – деган эди профессор Оверстрит – ўзида енгиб ўтиш анчагина қийин бўлган ғовни намоён этади. Инсонга “Йўқ” дейишимиз хамоно, унинг ғурури ўз фикрида қатъий қолишни талаб этади. Кейинрок у йўқ дегани учун афсуслансада, бироқ ўзининг қимматли нафсонияти билан ҳам ҳисоблашишга мажбур. Қайси бир киши ниманики деган бўлса, ўша гапида туриши керак. Мана бировнинг тасдиқловчи жавоб беришига мойил қилишимизнинг муҳимлиги мана шу ерда ”. [107]

Ташкил этилажак фикрлар жангида иштирокчилар ўзларини қандай тутишлари ва муаммога қандай ечим қидириш керак? Бунда қуйидаги қоидаларга риоя қилиш зарур: жумлалар жуда қиска бўлиши керак, уларнинг асосланиши шарт эмас; ҳар қандай жумла ёки фикр танқид қилиниши мумкин эмас, яъни фикрлар танқиддан ҳолидир; мантиқий фикрлардан кўра, фантастик ёки қўққисдан, тасодифан мияда пайдо бўлган фикр мухимроқ; фикр ёки билдирилган қиска мулоҳаза қайд этилади;

[104] Қаранг: Йўлдошев Ж.., Йўлдашева Ф., Йўлдашева Г. Интерфаол таълим сифатлари, 36-37 бетлар
[105] Сукрот усули – Сукрот томонидан ишлаб чиқилган инсонни мантиқий ўрганишни бир усули. Бунга кўра объектдан дастлабки берилган осон саволларга камида уч бор “ҳа” жавобини олган ўрганувчи кейинги мураккаб саволларга ҳам ўз – ўзидан “ҳа” ижобий жавобини олади.
[106] Ҳақиқат манзаралари, 61 бет.
[107] Дейл Карнеги. Қандай қилиб дўст орттириш ва одамларга таъсир кўрсатиш мумкин, 74 бет

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

билдирилган фикр ёки ғоялар у ёки бу иштирокчиники деб ажратилмайди яъни муаллифсиздир.

Фикр ёки яхши ғояларни танлаш алоҳида “Танқидчилар” гуруҳи ёки гуруҳнинг норасмий лидерлари томонидан амалга оширилади.[108]

Ўқитувчидан мунозара жараёнида ўқувчилар учун педагогик ва психологик маҳорат талаб этилади. Бунда ўқувчилар ўзларини эркин тутушлари учун дастлабки машғулотда айрим енгиллиштирувчи машқлар, бошқача қилиб айтганда психогимнастик машқлар ўтказиш тавсия этилади. Мисол тариқасида қуйидаги психогимнастик машқларини келтириш мумкин:

биринчи: ўқитувчи гуруҳни айлана шаклида жойлаштириб, аъзоларни навбатма навбат ўртага чиқиб, гурух билан ҳоҳлаган тарзда, лекин самимий саломлашишни сўрайди. Кейин гурухдан кимнинг саломлашиши кўпроқ ёққани аниқланади.

иккинчи: гурух аъзолари ўқитувчи атрофида ярим айлана шаклида туришади. Навбатма – навбат гурух аъзолари ўртага чиқиб ҳохлаган ахъзо билан сўзсиз, лекин очиқ юз билан мимика воситасида саломлашиши ва бирор фикрни билдириш сўралади.

учинчи: ҳамма доира шаклида ўтиради ва ўқитувчи олиб келган копток навбат билан мулоқот қатнашчилари фақат кимга отилса, ўша одамнинг кучли яхши бир сифати айтилиб, сўнг ирғитилади. Ўқитувчи коптокнинг албатта ҳар бир кишига тегишини назорат қилади. Бу каби машқлар мунозара қатнашчилари ўртасида ўзаро тенглик бўлмаслиги ва фикрни баён этаётганида ўқитувчидан тортинмаслиги учун ўзига хос тренинг ҳисобланади.

Янги мавзуни тренинг асосида ўрганиш фаол ва қизиқарли кечиши учун ўқувчи қуйидагиларни англаб етиши зарур: янги ўрганилажак мавзуни жуда қизиқлиги ва мазкур тарихий воқеани ўрганишнинг аҳамияти катталиги; ушбу мавзуни ўрганиш ҳар бир иштирокчига албатта фойдали бўлади ва улар бир - бирига ёрдам бергани келганлар; воқеани ўрганишда мунозара ўзаро мулоқотнинг бир шакли бўлиб, ҳар бир иштирокчи бир –бирига очиқ ва самимий муносабатда бўлсин; тарихий воқеани ўрганишда тренинг ўзаро тажриба алмашишлари учун қулай шароитдир; фикр баён этишда керак бўлса, таваккал қилайлик, лекин, индамаслик шиоримиз бўлмасин; мунозара пайтида кўп ёзиш шарт эмас; агар ўрганилаётган тарихий жараёндаги бирон нарса тушунарли бўлмаса, уни сўрашдан тортинманг; билган билимларимизни бир-биримиздан аямаймиз, чунки бошқалар ҳам бундан манфаатдор бўлсинлар, “яширин билим-билим эмас” лигини унутмайлик.

[108] Акрамова Ф.А. Мунозара ва тренингларни қўллашнинг психологик моҳияти,371бет

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ҳозирги кунда тренинг дунё бўйича бир неча шаклда қўлланилади. Америкалик таниқли психолог Кьеел Рудестам "Т-гуруҳ" яъни тренинг гуруҳини фойдали мақсад бўйича уч типга ажратади:

- ташкилотчилик фаолиятини самарадорлиги ошириш учун зарур кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилган.

-шахслараро муносабатларни шакллантиришга ва кичик гуруҳлардаги психологик жараёнларни ўрганишга йўналтирилган.

-сензитивлик тренинг – шахслараро муносабатлар сезгирликни оширишга, шахс ривожлантиришга йўналтирилган.

Германиянинг Лейпсик университети мутахасиси М.Форверг. томонидан ишлаб чиқарилган ижтимоий психологик тренинг шакллари тарих фани учун аҳамиятлидир. Булар:гуруҳий-муҳокама, баҳс; драмалаштириш элементларини ўз ичига олган ролли ўйинлар

Мутахасиснинг ўзи таъкидлашиша тренинг жараёнларида киши фаолияти билан боғлиқ конкрет вазиятларни гуруҳий муҳокама кириш роли ўйинларида қатнашиш орқали ўрганиш жараёни ижтимоий–психологик тренинг қатнашчиларини ўз фаолиятида психологик жиҳатдан асосланган хулқ-атвор намуналарини шакллантириш самарадорлигини оширади.[109]

Бугунга келиб тренинг ташкил этишда мавзу ва ўқувчилар сони ҳамда уларнинг қобилиятлари ҳисобга олинган ҳолда қуйидаги усуллардан фойдаланиш мумкин:гуруҳли – мунозара; ролли ўйини ; ҳар кимни ўз вазиваси бор.

Гуруҳли - мунозара – бу танланган тарихий мавзу юзасидан гуруҳларда муаммоли саволларни ҳамкорликда муҳокама этиш қатнашчиларнинг фикри, ғоя ва стратегиялари асосида кечади. Бу усулда ўрганилаётган тарихий муаммоли вазиятга сабаб бўлган омиллар воқеа ривожи ва оқибатларга турли томонлардан қарашга мўлжалланади. Масаланинг ечимида деярли ҳар бир иштирокчи алоҳида фикр билдиради ҳамда шулар асосида қандайдир ечим келтириб чиқарилади. Яъни мавзу моҳиятини ташкил этувчи сара фикрлар ажратиб олинади тренер мунозара давомида турли саволлар қўйиш билан жараённи бошқаради ва иштирокчиларни муаммо ечиш сари етаклайди. Агар гуруҳ аъзолари мавзуга доир бирор саволни ўртага ташласа бошқарувчисиз ўзлари ечимини топишлари мумкин.

Тренингни ўйинли усуллари билан ўтказиш жуда сермаҳсул бўлиб, ўқувчи ўзлаштираётган билимлари ҳақида тўларок тасаввур ҳосил қиладилар бу уларнинг тарихий дунё қарашини бойитишга сабаб бўлиши билан бирга, гуруҳлар билан ишлаш жараёнида иштирокчиларни ўзаро таништириши бир-бирини ҳис қила олиш улар ўртасида тортишиш зўриқишларнинг олдини олиш ўзини руҳий химоялашда катта рол ўйнайди. Ўйин фаолиятини ташкил этиш гуруҳ аъзолари ўртасида

[109] Искандаров Э.А. Педагогик инновацияларининг ижтомоий психологик муаммолари. Таълим муаммолари, 2000, №4,, 38-бет

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қийинчилик мулоқатларини олиб боришдаги психологик ҳолатларни яхшилайди. Қайси тарихий мавзуда ёки умуман бошқа мавзуда ташкил этилган тренинг самарали кечиши ўқувчиларни янги кўникмаларни эгаллаш актёрлик махоратларини очиш, ижодий фаолиятни ривожланишига олиб келади. Ўқувчиларни тортинчоқликдан ҳоли бўлиб очиқ ойдин фикр айтишлари мумкин бўлади.

Тарих дарсларида ташкил этилган тренингда ўйинли усуллардан фойдаланиш ўқувчиларга расм ва чизмалардан фойдаланиши ҳамда актёрлик кўникмаларини хосил қилиш билан бирга, ўз фикрини турли ижодий воситаларда билдириш кўникмасини шакллантиради. Дарс жараёнида мазкур усуллардан фойдаланиш ўқув материалларига аниқлик киритади, уни конкретлаштиради. Ўқувчи кўз ўнгида ўтмиш ва ҳозирги ҳаётий воқеаларнинг тўлиқ ҳамда ёрқин манзарасини гавдалантиришга уларнинг тарихий тасаввурлари тизимининг мукаммал бўлишига ёрдам беради, билдирилаётган фикрларнинг ишончли ва эмоционал бўлишини таъминлайди. Бу омиллар ўқувчилар тарихий билимларининг тасвирий воситалар орқали жонли бўлишини таъминлайди.

Тренинг машғулотларини ташкил этишни яна бир ўзига хос усули баҳс гуруҳи шиддатли равишда мавқеилари баён қилинган ҳолда учга бўлинади: биринчи гуруҳ – “фикрларини жамловчилар” – яъни «генераторлар» , иккинчи гуруҳ – “танқидчилар”ва учинчи гуруҳ – “фикрларини тезлатувчилар” – булар «катализаторлар» гурухи деб аталади. Ҳар бир ажратилган гуруҳнинг ўзига хос функциялари бор:

“Генераторлар” ўртага ташланган муаммо ёки баҳс юзасидан фикрларни ўртага холис ташлайдилар. Гуруҳ аъзоларидан бири лидер уларни жамлаб, фикрлар иккига бўлинган тақдирда ҳам умумлаштириб баён этади. Сўнгра “танқидчилар” ишга киришади уларнинг вазифаси эшитган фикрларига танқидий муносабат билдириши, яъни танқидий нуқтаи назаридан улар ичидаги “мағзини” ва “пучак” фикрларни саралаш. Шундан сўнг вазиятга қараб янги сўз навбати “генераторлар” ёки “катализаторлар” га берилиши мумкин. Билдирилган фикр ва таклифлар, мабодо ҳисобга олинмай қолган жиҳатлар ёки ноўрин фикр бўлса ёки моҳиятан шу мавзуга алоқадор бўлган, лекин иккала томон ҳам ҳисобга олмаган бирор жиҳат аниқланаса, томонлар диққатини қаратиш керак бўлса, бахсни давом эттиришга ёки уни якун қилиш тақазо қилинса, гуруҳнинг фикрларига баҳо берган ҳолда мунозарани тўхтатиш “катализаторлар”нинг вазифасидир. Улар кўпинча иккала гуруҳ учун арбитр- “ҳакамлар” ролини ҳам ўйнашлари ҳам мумкин.

Синф доирасида тарихий ёки бошқа ахлоқий – маънавий мавзуда баҳс уюштирилганда имкони бўлса, сухбатдошларни учбурчак берк стол атрофига тўплаш

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

мумкин шу ўринда такидлаш керакки, тренингда бахслашувчиларнинг фазовий жойлашишлари ҳам мунозара самарали кечишида маълум аҳамият касб этади.[110]

Тренинг жараёнида гуруҳларни хосил қилиш ҳам маълум қоидалар асосида кечади. Гуруҳларни шаклланиш турлича бўлиши мумкин. Гуруҳларни шакллантиришда кўп холларни мунозарани самарали кечиши учун ўқитувчи – тренер ўқувчилар салоҳиятини ташхис қилиб ўқувчилар имкониятини ҳисобга олади. Бунда вазиятни моделлаштириш зарур. Жараёнда иштирокчининг ўзини қандай қолибдаги хулқи билан иштирок этаётганини кузатишга тўғри келади[111]. Вазиятни моделлаштиришда ташкилотчи тренер жараённи боришида фойдали ва зиён келтираётган ҳолатларни кўра билиши ҳамда буни таҳлил қилган ҳолда тегишли чора- тадбир қўллай билиши зарур.

**Ў**қувчида сензурик сезгирлик туфайли иштирокчи ўқувчи бошқа иштирокчини қабул қила олиш тушиниш сезиш баҳолашга ўрганади, ўз-ўзлигини ва гуруҳини тушина боради[112],дарс самарадорлигини мухим шарти ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бутун дарс жараёнида фаол иштирок этишидир[113].

Тренер тренинг жараёнида асосий ташкилотчи ролини бажаради.У ўқувчини таълим тизимига мослаштирмай аксинча, таълим тизимини турли шахсга хос хусусиятларни (эркинлик, ташббускорлик, мустақил шахсий фикрларнинг мутлоқ ўзига хос тизимига эга бўлиш, ўз ўзини тасдиқлаш эҳтиёжининг мавжудлиги ва бошқаларни) ҳисобга олган ҳолда, ўқувчи ўзига хосликгини (индивидуалликни) ривожлантириш имконини бериши, ўз-ўзини ривожлантириш ва намоён этишига шароит яратиш керак.Юқоридаги хусусиятларга, бугунги ахборот асрида кечаётган глобаллашув жараёнларига ўз муносабатларини билдира оладиган ва ўз муносиб ўрнини топа оладиган баркамол авлод тарбиясида анъанавий дарслардан фарқли холатда дарс ташкиллаштирувчи ўқитувчида қуйидагилар талаб этилади:

- ўқувчида ўз кучига ишонч уйғота олиш ( мутахасис Приссила Прутзман ва бошқалар фикрига кўра , “Кучсиз ўзлик тушунчаси мактабдаги муаммоларнинг бош сабабидир” ва агар ўзимиз тўгримизда ижобий фикрларга эга бўлмасак, бошқалар тўғрисида ҳам ижобий фикрга эга бўла олмаймиз[114]);
- ўқитувчи ўқувчига ўз вақтида хушёрлик билан зарурий ёрдам бера олади. Ўқутувчини вазифаси нафақат билимларни етказиш балки, ўқувчиларнинг таълим

---

110 http: // uz. Ref. uz/ downnlaoad. Ptp? Id = 15006 -Мунозара методлари ва уларни ташкил этиш технологияси.

111 Йўлдашов Ж, Йўлдашова Ф, Йўлдашова Г. Интерфаол таълим сифат кафолатлари (болага дўстона муносабатдаги таълим) Т., 2008, 38-бет.

112 Қаранг: ўша жойда

113 қаранг: Нурқўзиев Ш. Тарих дарсларида қизиқарли ўйинли усуллардан фойдаланиш. Т., 2008., 5-бет

114 Глобал таълим. Ўқутувчилар учун қўлланма. Т., 2005, 15-бет .

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

олиши ва таълим олишни ўрганишлари учун ёрдам беришдир. Дўстона ва ижобий мухитда мувофақаятли таълим олиш ўзига бўлган ишончни шакллантиришда мухим омилҳисобланади.

- ўқитувчи ўқивчилар билан самимий муносабатда бўлади; уларнинг ҳис туйғулари ва фикрларига жиддий эътибор беради;
- мақтов билан муносабат билдиради;
- дунёга ҳар бир ўқувчи нигоҳи билан қарайди;
- кучли касбий методик маҳорат ва тайёргарликка эга, ўқувчиларнинг қизиқиш ва эҳтиёжаларини, қандай ўқиб ўзлаштираётганини билади.
- ўткир зеҳн эгаси ўқувчиларни ҳар бир жавоби ва ҳатти ҳаракатига қизиқиш билан қарайди.
- ўз ўқув предметини жуда яхши кўради. жон - жаҳти ва фидоийлик билан ўқтади.
- ўқув жараёнини ташкил этишда ўқув мавзусига қараб интерфаол метод, замонавий теҳналогиялар асосида дарсни ташкил эта олиш кўникмасига эга ва уни аввалдан лойиҳа ҳамда режалаштира олади.
- ва бошқалар.

Тренинг жараёнида тренер ўрни ва аҳамияати қуйидаги позициялар билан белгиланади:

- ижтомоий алоқалар мехмори (соғлом мунозара мухитини шакллантирувчи) ;
- ташкилотчи;
- фаол катализатор (жараённи фаоллаштирувчи);
- ўқув вазифалари ва асосий концепсияларини талқин этувчи;
- бастакор-дирижёр (шахсан ўзи муаммо ечимига образли тарзда ўқувчини йўналтиради);
- ташаббускор;
- актёр (муаммога нисбатан гуруҳ реаксиясини актёр томошабин реаксиясини қабул қилгандек қабул қилади);
- хизматкор (гуруҳлар ишини фаол кечиши учун асосий хизматчи);
- касбдош (гуруҳлар иштирокчиларини тортиниш ҳислари бўлмаслиги учун ўзини уларнинг дўстдек тутади)[115].

Ўқитувчи тренинг жараёнида ўқув дастури, тренинг мазмуни, тренинг жараёнини олиб бориш ва натижаларини баҳолаш билан шуғулланади. Уни бош мақсади таълим интерфаол усуллари имкониятларини тренинг жараёнида қўллаб, ўқувчиларни билим доирасини кенгайтиш ва мустақил муносабатини шакллантириш, шу асосда тренингларни ўқувчилар эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда лойиҳалаштиради.

[115]қаранг: Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари аёл ҳуқуқлари (Тренерлар учун қўлланма) Т., 2002, 20-21 бетлар.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқув режасидаги мавзулар орасидан тренинг асосида ўрганиш самара берадиган мавзуни танлаш, ўрганиш дастури ва мазмунини шакллантиришда ўқитувчидан катта масъулият талаб этилади. Танланган мавзу ўқувчига тарихий тараққиёт босқичларини даврийлик нуқтаи назаридан таққослаш, мамлакатимиз ва жаҳон тарихида бир вақтда содир бўлган тарихий жараёнларни қиёсий таҳлил қилиш асосида индуктив ва дедуктув хулосалар чиқара олиш, ўзининг мустақил муносабатини билдира олиш имкониятини тақдим этиши керак. Масалан: 8-синф ўқув режасидаги белгиланган "Ўзбек хонликларининг тараққиётдан орқада қолиш сабаблари ва оқибатлари" мавзусини ўрганиш жараёнида ўқувчи анн шу имкониятга эга бўлади.

Шу билан бирга ўқитувчи иштирокчилар сони ва қобилиятларини ҳисобини олиб, жараёнини ташкил этиш инструкцияси, талаб этиладиган барча ўқув, кўргазмали, тарқатма материаллар ва зарурий техник жиҳозлар билан ишлаш ҳисобини қилади[116].

Ўқитувчи тренинг муваффақиятли кечиши учун қуйидагиларга эътибор қаратиши зарур:

- белгиланган ўқув йили иш режасидан тренинг услубида ўрганиш самара берадиган мавзуни танлаш ва лойиҳалаштириш;
- баҳс олиб борувчини ёрдамчилари фасилитаторларни танлаш;
- гуруҳларни ўқувчилар имконияти ва қобилиятидан келиб чиққан ҳолатда шакллантириш;
- бахс учун марказий масалани танлаш;
- мавзу муаммосини очишда хизмат қиладиган тарқатма ва кўргазмали материалларининг хозир қилиш;
- баҳс муддатини белгилаш;
- баҳс учун ассосий қоидаларни ишлаб чиқиш;
- иштирокчилар имконияти ва қобилиятини ҳамда шу хусусиятларини ривожлантурувчи усул ва воситалар билан таъминлаш;
- туркум баҳс мунозара учун дастур яратиш ва иштирокчиларни мунозара жараёнида ечим томон йўналтириш[117].

Тренингни олиб борувчи ҳақида гап кетадиган қуйидаги ҳолат кузатилиши мумкин баҳсда кўрилаётган материал муҳимми ёки баҳс олиб борувчими? Ҳудди "сценарий муҳими ёки актёрми" деган савол каби. Битта нарсани аниқ айтиш мумкинки, материал ҳам, баҳс олиб борувчи ҳам юқори талаб даражасида бўлса баҳс мувофаққиатли бўлади[118].

---

[116] Қаранг: Йўлдашов Ж, Йўлдашова Ф, Йўлдашова Г Интерфаол таълим сифат кафолатлари (болага дўстона муносабатдаги таълим) Т., 2008, 40-бет.

[117] Қаранг: Демократя баҳс дегани. Қадим ва янги демократик жамиятларда фуқаро фаолияти бўйича қўлланма. Мухарир - Сандра Майперс. 1999, 70-71 бет.

[118] "Мунозара" дебат клуби фаолиятини ташкил қилиш бўйича қўлланма. Т., 2006, 68-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқитувчи бола шахсини жамият талабига мувофиқ комил инсон қилиб вояга етказиш вазифасини бажаришга даъват этилган бўлиб у хис туйғулари, фикр мулохазалари орқали ўқувчига таъсир этади.[119] Шу тариқа ўқувчилар реал имкониятлари, индивидуал психологик хусусиятлари ҳисобга олиб таълим жараёнини ўқувчи шахсига йўналтиради.[120] Буни учун ўқитувчидан юқори даражада педагогик – психологик маҳорат талаб этилади.

Бугунги глобаллашув жараёнлари фаол кечаётган шароитда И.Каримов таъкидлаганидек, "Ўта мухим ва долзарб вазифа Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини ҳаётга жорий этиш, дастур орқали юксак замонавий талабларга жавоб берадиган, янгича фикрлайдиган, мамлакатимиз келажак қадрини ишониш, топшириш мумкин бўлган ёш кадрларни тарбиялашдир ".[121] Бироқ , статистик маълумотларга таянадиган бўлсак, 60% ўқитувчилар анъанавий дарс усулларидан фойдаланиб келмокда.[122] Улар учун оддий дарс ўтиш осойишта, тинч, муаммоларсиз бўлиб, меъёрий ва барқарор ҳаётни билишнинг синалган усулидир. Мактаб ўқувчилари бошланғич синфларданоқ ўқитувчи танбеҳлари ("жим ўтир, тўғри ўтир, фикримни бўлма, тинглашни бил") остида таъли-тарбия оладилар. Чет эл тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатдики, хорижлик ёшлар боғча ёшидаёқ хатто оилада хам эркин фикрлашга ўргатилади. Барча муаммоларни ўзлари хал қилишга интилади. Бизнинг тенгқурларимиз ҳамон катталарнинг ёрдамисиз хеч бир муаммоларни хал қила олмайдилар. Буни асосий сабаби -мактаб ёшида уларда мустақил фикрлаш ва мустақил ишлаш кўникмалари шакиллантирилмайди. Дарсларда оддий тингловчи сифатида қатнашувчи ва берилган топшириқни бажарувчи бўлиб қолганлигидир. Зеро, ҳозирги замонавий таълим усуллари асосида ёшларни мустақил фикрлашга ўргатиш мухим аҳамиятга эга, чунки шу ҳислатга эга бўлиш орқали улар интелектуал қобилиятларини номоён этадилар, мустақил тафаккурга эга бўлиб борадилар, ўз фикри билан бахслашишга ўрганадилар.

---

[119] Ишмухаммедов Р. Педагогик техника ва ўқитувчи маҳорати. Педагогик таълим, 2000, №2, 49- бет.

[120] Қаранг; Юсупова Ф. Ўқувчилар индивидуал тайёргарлигини ошириш педагогик психологик жиҳатлари. Халқ таълим, 2005, № 5, 93-бет.

[121] Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд . Т., Ўзбекистон , 1996, 422- бет .

[122] . http//uz.ref.uz/download.php?id=18994 - Таълим муассасаларида инновацион фаолиятни шакллантириш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Интегратив методлар тизимига кирувчи тренинг услуби ёрдамида ўқувчилар гурух, жамоа бўлиб биргаликда ва индивидуал ҳолатда мунозарада қатнашишга ўрганадилар. Улар ўқув фаолияти моҳиятини ҳис этиб мавзу муаммосини ҳал этиш учун ва буни ўзи учун фойдали эканлигини тушуниб , унда мустақил ижодий тафаккур шаклланиб боради, кўпчилик орасида ўз фикрини мустақил айта оладиган ҳамда, кўрилаётган масалага муносабатини билдира оладиган бўладилар.

Агар ўқувчи ўқув фаолиятининг моҳиятини кўра олмаса, у ўқув мақсадини тан олмайди, ўқитувчи қўйган вазифаларни тушунмайди ва қабул қилмайди, у томонидан содир этиладиган барча хатти –ҳаракатлар мажбурият ва таъзик остида содир бўлади. Унинг билимлар формал характерга , педагог фаолияти умидсиз формализм мазмунига эга бўлади. Маълумки, биз уларни олган билимларини амалиётга тадбиқ этишга ўргатсак, ўқувчида мустақил ўқув фаолияти кўникмаси шаклланади. Бу дарслик мазмунидан баъзи маълумотларни шунчаки кўр –кўрона ёдлаб олиш бўлмайди, балки ўқувчининг шахсий, субъектив тажрибасига асосланган ҳақиқий билимлари бўлади. Ушбу фикримиз бундан 2500 йил аввал буюк хитой файласуфи Конфуций такидлаган қуйидаги ҳикматга жуда мос тушади- "Айтсанг-унутаман.Кўрсатсанг-эслаб қоламан. Ўзим бажариб-англаб етаман " [123].

Инсон ҳамиша субъектив моҳиятга эга. Ўқувчи муайян билимларга нисбатан тренинг жараёнида бефарқ бўла олмайди. Ўқитувчи бунга ўқув предметига муносабатини қадриятли , ижобий субъектив муносабатни таркиб топтириш натижасида эришади.

Тренинг жараёнида одатий дарслардан фарқли ҳолатда ўқувчи руҳий хусусиятларини ўрганиш, ўзлаштираётган билимларнинг ўқувчига шахсан қизиқарли ва керакли бўлишлиги тушунтирилади, акс ҳолда уларда одатдагидек бефарқлик, баъзи ҳолларда ўқув предметини рад этилишини кўриш мумкин. Бу ҳолатни образли қилиб ифодаласак, индивидуал тафаккурда билимлар субъективлашади, ўзига хос индивидуал жиҳатларга эга бўлиб қолади. Тескари жараёнда эса, индивидуал тасаввур ва шахсий фикрлар объектив аҳамият касб этаркан , билимлар турли нуктаи назарларнинг тўқнашуви , бахс-мунозара , ўзаро ҳамкорликдаги фаолият натижасида ўзлаштирилади.

Тренинг ўувчи ва ўқитувчининг биргаликдаги фаолиятига асосланади. Ушбу фаолиятга педагогика фанлари доктори Ўткир Толипов қуйидагича таъриф беради – "Фаолият шахс ривожланишининг асосий субстанцияси ҳисобланади. Шахс фаолияти унинг ички ҳиссиётлари билан боғлиқдир. Шахс мотив, ҳиссиёт

[123] Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва баркамоллигини шакллантириш муаммолари . Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, Қўқон, 2008, 11-12 июнь , 95-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ва шахсий фикр доирасида намоён бўлади"[124]. Тренинг дарсларида ўқувчининг ана шу ҳислатлари намоён этилишига йўл берилади.

Ўқув жараёнида анъанавий дарсларга хос бўлган объект қолибидан озод бўлган ўқувчи тренинг услубидаги дарсда фаол субъектга айланади. Ўқитувчи эса, бошқарувчи ва йўналтирувчи субъект бўлади. Ўрганилаётган мавзу илк бор нейтрал объект даражасидан субъектив зарурат даражасига кўтарилади.

Тренинг жараёнида самара берадиган мавзуларни аниқлашда ва гуруҳларни ҳосил қилишда ўқитувчи –тренердан ташхис (диагноз) қила олиш қобилиятини талаб этади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда қуйидагиларни ҳулоса қилиш мумкин:

- ўрганиладиган мавзу ва ўқувчилар имкониятидан келиб чиққан ҳолда тренинг услубида самара берадиган тарихий мавзуларни ўрганишда тренинг методларидан кенг фойдаланиш керак;
- мактаб таълимида тренинг услубидан келиб чиққан ҳолда, ўқувчида мустақил тарихий тафаккурни ҳосил қилишда тарих фани ўқитувчиси замонавий глобал таълим принципларига мос илғор таълим элементларини дарс жараёнига тадбиқ этиши зарур;
- тренинг услуби методларида тарихий мавзулар илмий-назарий ўргатиш баробарида , ўқувчини мустақил фикрлашга, ички имкониятларини ва актёрлик қобилиятларини намоён қилишига йўл берайлик;
- ўқувчиларни ёш хусусиятларини ва ижодий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда методологик билимлар билан қуроллантирайлик, чунки бу билан ўқувчи мустақил ўрганиш ва машғулотларда ҳамда келажакда ўзлигини намоён қилиш имкониятига эга бўлади;
- ижодий муҳитни ҳосил қилувчи ва тарих дарсларида самарали натижалар берадиган ноанъанавий усуллардан фойдаланиш борасида дастурлар ва методик қўлланмалар чоп этиш керак.

Тарих дарсларида ижодий муҳит яратиш билан ўқувчида жараённи ҳар томонлама таҳлил қилиш , индуктив ва дедуктив хулосалар чиқариш, кечаги кундан ўрнак олиш , ҳамда эртасини шу асосда ташкил қилиш кўникмаси ҳосил қилинади. Зеро, "Ўтмиш уни англагангагина хизмат қилишини , келажак эса, ҳақиқий бунёдкоргагина тегишли эканлигини англамоғимиз керак"[125]. Ана шу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолатда бугунги кун ўқув жараёнини замонавийусулларга таяниб ташкил этиш ҳар тарафдан самарали кечади.

**Адабиётлар**

[124] Толипов Ў. Шахс такомилига йўналтирилган таълимий технологиялар. Халқ таълими, 2005, №3, 9-бет.
[125] Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Т.,Маънавият, 1999,22-бет.

1. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.Т., Маънавият, 2008.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилик тарихи. Энг кадимги даврдан Россия босқинига қадар. Т., Шарк, 2000.
3. Акромова Ф.А. Мунозара ва тренингларни қўллашнинг психологик моҳияти. “Замонавий илм фан технологияларининг энг мухим муаммолари” Республика илмий амалий конференцияси тезислари. Жиззах, 2004.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари

Астанакулова Зулайхо Ураловна

Сурхондарё вилояти Қумқўрғон тумани

6- мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Тарих дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш ва дарс самарадорлигига эришиш** .Тарихни илғор педагогик технология асосида ўқитиш-дарс самарадорлигини ошириш гарови сифатида. Тарих дарсларида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил. Ижтимоий фанларни ўқитишда тавсия этиладиган илғор педагогик технологиялар**.**

Умумтаълим мактабларида фан ўқитувчиларининг асосий вазифаси дарс беришдир. Дарс самарадорлигини ошириш, таълим сифатини кўтариш бугунги энг долзарб вазифалардан биридир. Шу сабабли ҳам малака иши мавзуим долзарб мавзулардан бўлиб, дарс жараёнида ўқувчилар фаоллигини ошириш, уларнинг мавзу бўйича берилган топшириқларини мустақил бажаришларига эришиш, фанга бўлган қизиқишини ошириш, асосийси жамиятда ўз ўрнини топишга , ўз фикрига бўлиш, уни асослай олиш, нутқини ўстириш, олган билимларини амалда қўллай олиш компетенцияларини шакллантиришдан иборат. Шу ўринда қуйидаги ибратли ривоятни айтиб ўтмоқчиман: Кунлардан бир кун бўйида қорни оч қолган бир киши балиқ тутиб турган донишмандга дуч келибди ва унга мурожаат қилиб: "Мен очман, менга ёрдам бер!". Донишманд қуйидагича жавоб берибди: "Мен сенга балиқ беришим мумкин, сен тез тўясан ва бироз вақт ўтгач худди шундай яна оч қоласан ва мендан яна ёрдам сўрайсан. Мен сенга қармоқ беришим мумкин, лекин у қачондир синиб қолиши мумкин, унда сен менга яна муражаат қилишингга тўғри келади. Яхшиси мен сенга қармоқ ясашни ўргатаман, бу узоқ ва қийин, лекин кейинчалик сенга менинг ёрдамим керак бўлмайди. Ўз йўлингни танла...".

Юқорида келтирилган ривоятдан келиб чиқадиган хулоса шуки, яхши ўқитувчи ўқувчига "қармоқ ясашни" ўргатиши ва ақлли ўқувчи эса уни ўрганиши лозим. ўқувчилар "қармоқ ясашни" қанчалик тез ва мустаҳкам ўрганиб олсалар, улар

шунчалик бировларга мухтож бўлмасдан ўз “овларига” эга бўладилар. Мана шундай вазифаларни амалга оширишда янги интерфаол ва ноъананавий педагогик муассасаларида ўтказилаётган кўпгина тадқиқотчилар томонидан турли таълим муассасаларида ўтказилаётган кўпгина педагогик тажрибаларининг натижалари тасдиқламоқда. Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган профессор-ўқитувчилар ўз соҳалари бўйича олиб бераётган машғулотларда инновацион технологияларни ўз ўрнида қўллашни билишлари ўта зарур.

Ҳозирги кунда инновацион технологиялар, интерфаол услубларнинг сони жуда кўпайиб кетган. Биз уларнинг таълим муассасаларида кенг тарқалганлари, ўқитиладиган фан ва предметларда қўлланилиши мумкин бўлган баъзи педагогик технологияларнинг фойдаланиш услубиятини келтирамиз. Шуни айтиб ўтиш жоизки, ўқитиш жараёнини самарали ва натижали бўлишини таъминлашга йўналтирилган қуйида келтирилган интерфаол услублар ва ўқитиш технологияларининг барчаси Р.Ишмуҳамедов томонидан кўп йиллар мобайнида яратилган бўлиб, ҳозирги кунда улар республикамизнинг барча умумий ўрта таълим, ўрта махсус, касб-ҳунар ҳамда олий таълим муассасалари, халқ таълими ходимларини малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш худудий марказларида кенг қўлланиб келинмоқда ҳамда ижобий натижалар берилмоқда.

**«КЕЙС – СТАДИ» методи."Кейс"** тушунчаси - ахборот мажмуаси, **"Стади"** тушунчаси- таълим деган маънони билдиради. Кейс стади - бу амалий вазиятни муаммоли ёритиш асосида муаммони тушинишга, бахолашга ва муаммонинг ечимини топишга ёрдам берувчи ахборот мажмуаси.

Кейс – ишлаб чиқаришдаги, давлат бошқарувидаги, иқтисодиёт ёки маданий ривожланишда содир бўладиган, аниқ муаммоли вазиятнинг тафсифидир. Кейс усули юқорида келтирилган йўналишдаги ҳаётий масалаларни ўқув машғулотларида таҳлил этиш ва ҳал қилиш усули ҳисобланади. Унда иштирокчиларга ҳақиқий ҳаётий вазият фикр юритиш таклиф этилади, бу вазият баёнида фақат илмий масала ифодаланиб қолмасдан, ундаги муаммони ечиш жараёнида ўзлаштирилиши зарур бўлган ўқув материали ҳам ифодаланиши керак.

**"Кейс-стади"**лардан фойдаланиш ўқувчиларда аниқ вазиятларни таҳлил қилиш ва баҳолашга, муаммоли вазиятдан чиқишга ёрдам беради.

Кейс усулини қўллаш жараёнида таълим олувчиларни вазиятни таҳлил қилишга ўргатиш мақсадида, вазиятни қуйидаги тартибларда баён қилиш мумкин:

• муаммоли (қўйилган муаммо бўйича муаммоли вазиятлар мажмуасини ажратиш талаб қилиниб, уларнинг турлари, ечиш усулларига мувофиқ ҳолда танланади);

• тизимли (вазиятлар таркибининг тавсифлари ва вазифаларини аниқлаш);

• сабаб-оқибатли (вазиятни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш);

• тавсияли (вазиятни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш ва уни ечиш учун твсиялар бериш);

• дастурий –мақсадли (жорий вазиятлар учун тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш);

• ташхисли (вазиятдаги фаолият мазмунини ташхислаш, уни моделлаш);

Ўқув машғулотларида кейсларни ҳал қилиш алгоритми қуйидагича амалга оширилади:

1. Топшириқни бериш (топшириқни бажариш муддатини белгилаш, кейсни ечимини баҳолаш тизими билан таништириш, дарснинг технологик моделини аниқлаш).
2. Таълим бериувчининг кириш сўзи. Асосй топшириқ ва саволларни қўйилиши.
3. Таълим олувчиларни 4-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратилиши.
4. Кичик гурухлар фаолиятини ташкил этиш (гуруҳларни номлаш, етакчиларни аниқлаш)
5. Кичик гуруҳлар ишини ташкил этиш (мунозара, муҳокама ва тўғри ечимни белгилаш учун вақт ажратиш).
6. Кичик гуруҳларнинг тақдимоти.
7. Ўқитувчининг умумлаштирувчи сўзи, унинг кейслар ечими ҳақидаги фикрлари
8. Гуруҳлар ишини баҳолаш босқичи
9. Ўқитувчининг якунловчи сўзи. Машғулот бўйича хулосалар чиқариш.

Кейсларни ҳал қилишда ўқитувчи таълим олувчиларни йўналтириб туриши, улардаги фаолликни қўллаши, ҳал қилинаётган муаммога нисбатан қизиқишни кучатириб бориши лозим.

**“Идрок харитаси” (Концептуал харита) услуби.“Идрок харитаси” (Концептуал харита)** адабиётда турли номлар билан учрайди: “Идрок харитаси”, “Концептуал харита”, “Картография концепцияси”, “Интеллект-харита” - фикрларни тақдим қилиш ва боғлаш усули бўлиб, у ўқувчиларда тассаввур қилиш ва фикрларни тизимлаштириш, ўтганилаётган мавзудаги бош ғоялар ёки асосий тушунчаларни, бирламчи тушунчаларни изоҳлашга ёрдам берувчи иккиламчи ва учламчи ғоялар ёки тушунчаларни ажратиш кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган.

**“Идрок харитаси” (Концептуал харита)**нинг асосий қоидаларини XX-асрнинг 60 -йиллари Корнелль университетининг профессори Джозеф Новак ишлаб

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

чиққан бўлиб, у ўз навбатида янги концепцияларни шакллантириш учун илгариги тажрибанинг муҳимлигини кўрсата олган Дэвид Озубэл назариясига асосланган.

Таклиф этилаётган усул янги билим ва ахборотларни конспектлаштиришнинг стандарт чизмасини ишлашга хизмат қилади ва дарснинг узундан узоқ конспектини ёзиш юкидан халос этади.

Харитани тузиш ўқувчига:

- асосий, иккиламчи, учламчи (ва ҳ.к.) шохчалар (чизиқлар) ларни ишлатиш ҳисобидан иерархик тартибда мавзунинг асосий ***ғояларни структуралашга***;

- равшан ва рангли образлар орқали ***ғояни кучайтиришга***;

- улар орасидаги ***боғлиқликни намойиш этишга***;

- ранг, шрифт размери, бўрттириш ва ҳ.к.лар билан ***концепцияларни ажратишга***;

- махсус белгилар ёрдамида ***ғояларни баҳолаш ва изоҳлашга*** имкон беради.**Бу қандай амалга оширилади?**

Идрок харитасини тузиш, асосий ғояни расм, белги ёки график шаклда ёзиш ва асосий фикр билан боғланган янги, ассоциацияли ғояларни фикрлаб кўришдан иборат. Ўқувчи ўзи томонидан ёзилган муҳим ғоялар устига диққатни жамлаши орқали билимларни шундай усулда баён қиладики, бу ўқувчига янги ахборотни тушуниш ва эслаб қолишга ёрдам беради.

***Амалга ошириш босқичлари:*****1-қадам. Асосий ғояни марказга қўйинг**

Кўпгина ўқувчиларга идрок харитасини ландшафт усулида чизиш учун дафтар варағининг ёйилган ҳолатида ишлаш қулайроқ туюлади. Бундай вазиятда асосий ғоя ёки мавзу расм, белги ёки график шаклда дафтар варағининг марказида жойлашади ва бу марказий ғоя атрофида бошқа фикрларни ёзишга максимал жой қолдиради.

**2-қадам. Тезкорлик билан мавзунинг асосий ғояларини ифодаловчи чизиқларни чизинг ва унга ғояни ёзинг**

Бу босқичда ҳар бир фикрни идрок харитасига киритиш мухимдир, ахборотни тузатиш учун сизда кейинроқ етарли вақт булади. Баьзида бу мавзуни тушунишда калит сифатида ҳал қилувчи омил булади.

**3-қадам. Боғлиқликларни изланг**

Тафаккур харитада пайдо булган фикрлар орасидаги боғлиқликни кўрсатиши учун, чизиқларни, рангларни, кўрсаткич белгиларини ёки бошқа барча белгиларни ишлатинг.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ушбу боғлиқликлар янги ахборотни тушунишингизда ёки ишнинг структурали режасини тузишда муҳим бўлиши мумкин. Харитани шахсий белгилар ва расмлар ёрдамида тузаётганингизда сизга эслашга ва тушунишга кўмаклашадиган фикрлар орасидаги визуал ва маьноли боғликликларни ўрнатинг.

**4-қадам. Бош ҳарфлардан фойдаланинг**

Бош ҳарфлардан фойдаланиш ғояси фақат муҳим қисмларни ёзишга сизни рағбатлантиришдан иборат. Бош ҳарф билан ёзилган сўзларни диаграммаларда ўқиш осон булади. Бундан ташқари, тушунтирувчи сўзларни майда ҳарфлар билан ёзишни хоҳлаб қолишингиз мумкин. Айрим ўқувчилар буни идрок харитасига яна бир бора кейинги босқичда киришганда амалга оширадилар, айни шу вақтнинг ўзида бошқалар шундай шаклда, мисол учун баҳолаш мезонларини ёзишади.

**5-қадам. Катта жой қолдиринг**

Энг фойдали идрок хариталари – бу вакт ўтиши жараёнида ахборотлар билан тўлдириб бориш имконият бор бўлган хариталардир. Идрок харитасининг дастлабки чизмасини тайёрлаганингиздан сўнг, сиз қандайдир нарсаларни ажратишингиз, ахборот ёки савол билан мавзуни ўрганишнинг бутун даври давомида, то имтиҳонлар бошлангунга қадар тўлдиришингиз мумкин. Шу сабабли кўпроқ жой қолдириш тавсия этилади.

Идрок харитаси тушунча, пункт ёки саволдан иборат ячейкаларни ташкил этади. Ҳар бир ячейка бошқаси билан стрелкаси билан боғланган. Стрелка муносабат йўналишини англатади ва гап сифатида ўқилади.

Бошқа варианти: сиз асосий мавзудан бошлайсиз, унга таалуқли энг муҳим ғояларни киритасиз, ва унинг атрофидаги шохлар каби жойлаштирасиз, сўнгра эса ушбу мавзуларни шохчалар (2, 3 ва ҳ.к. даражадаги шохлар)да ўз ғояларингизни ёки калит сўзларни жойлаштириш орқали ривожлантирасиз.

Интеллект-хариталарни тузиш учун асос - кўришга оид воситалардан фойдаланишдир. Биринчидан, ёнбошида сўзлар ёзилган шохларни чизасиз. шохлар ғояларни кетма-кетлик билан, муҳимлигига қараб тартиблашга, ўзаро бир-бири билан боғлашга ёрдам беради. Иккинчидан, сиз сўзлар билан ифода этилган ғояларни иллюстрацияси ва изоҳи сифатида расмлардан ҳамда ғояларни шарҳлаш, маълум жойларга урғу бериш учун махсус белгилардан фойдаланасиз. Бунинг барчаси харитани ёркин, эсда қолувчи ва тушунарли қилади.

***<u>Уйга вазифа:</u>***

**“Идрок харитаси” ни фан йўналишида тузиб келиш**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

материал ва унинг жавобларини тайёрлаб келади. Материалнинг бир томонида фақат топшириқ, иккинчи томонидан топшириқлар ва уларнинг тўғри жавоблари акс этиши лозим.

**«ЙЎНАЛТИРУВЧИ МАТН» методи.Йўналтирувчи матн**-ўқувчилар мустақил равишда йўналтирувчи саволлар ёрдамида маълумот йиғиш, режалаштириш, амалга ошириш вазифаларини бажарадиган методдир.

«Йўналтирувчи матн» методи лойиҳалаш методи билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу икки методни бир-биридан қуйидаги нуқтаи назар бўйича фарқлаш мумкин:

- «Йўналтирувчи матн» методи ўқувчиларнинг мустақил ўрганишига қаратилган;
- «Лойиҳалаш» методи эса ўқувчиларнинг мустақил ўрганишидан ташқари, эътиборни касб ўрганишда керак бўладиган шахсий қобилиятлар ва кўникмаларни такомиллаштиришга қаратилган.

«Йўналтирувчи матн» методидан ўқув амалиёт дарсларида фойдаланилади. Ушбу методни ўтказиш босқичлари лойиҳалаш методининг босқичлари билан бир-хилдир. Маълумот йиғиш, режалаштириш, амалга ошириш ва текшириш босқичларида ўқувчи мустақил ишлайдилар. Ҳарор қабул қилиш ва хулоса қилиш босқичларида ўқувчи ва ўқитувчи орасида «қайтар алоқа» ўрнатилиб, биргаликда муҳокама қиладилар. Ўқувчиларга бошланғич босқичларда ўқитувчи томонидан тузилган ёзма ҳужжатлар берилади. Бундай ҳужжатларга техник чизмалар, жадваллар, йўналтирувчи саволлар, тарқатма материаллар, топшириқлар варақаси, баҳолаш варақаси ва бошқалар киради.

**«Йўналтирувчи матн» методининг афзалликлари:**

- Ўқувчиларнинг кўникма ва малакаларининг шаклланишига олиб келади;
- Ўқувчиларнинг  мустақил ўрганиш кўникмаларини шакллантиради;
- Ўқувчиларда мулоқот қилиш, ўз натижаларини ўзи текшириш кўникмаларини ривожлантиради;
- Ўқувчиларда иш-ҳаракатларни режалаштириш, мустақил қарор қабул қилиш каби кўникмаларини ривожлантиради.

**«Йўналтирувчи матн» методининг камчиликлари:**

Кўп вақт талаб қилади;
Танланган мавзу ўқувчининг билим даражасига мос келиши талаб этилади;
Ўқитувчидан катта тайёргарлик кўриш талаб этилади.

Таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил этиш, мавжуд имкониятларни сафарбар этиш ўқувчиларнинг асосий вазифаларидан биридир. Ҳар бир педагог шуни эсда тутиши керакки, дарс ўқув-тарбия жараёнининг асосий формасидир. Ўқитувчи ўқувчиларни мустақил фикрлаш, мустақил ижод қилишга ўргатиш лозим.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дарсда уч мақсад кўзда тутилади: таълим-тарбия ва ривожлантириш. Бу уч мақсадни дарс давомида амалга ошириш учун интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс ўтиш яқиндан кўмак беради, деган умиддамиз. Метод нима? Ўзлаштирилаётган тажрибани тўғридан-тўғри ўқувчиларга ўзаро таосир ҳаракати орқали йўналтириш, интерфаол методларни қўллаб дарс ўқитишнинг асоси бўлиб, бундай ёндашувда ўқитувчи тайёр билимларни бермайди, балки ўқувчиларни мустақил изланишга чорлайди. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро таосир ҳаракати ва ўзгаришлар қўллаш интерфаол ўқитишда мўлжал қилинади. Ҳозирги замон дарсига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири ҳар бир дарсда танланадиган мавзунинг илмий асосланган бўлишидир, яони дарсда кўзланган мақсад ва ўқувчилар имкониятини ҳисобга олган ҳолда мавзу ҳажмини белгилаш, унинг мураккаблигини аниқлаш, авалги ўрганилган мавзу билан боғлаш, ўқувчиларга бериладиган топшириқ ва мустақил ишларнинг кетма-кетлигини аниқлаш, дарсда керак бўладиган жиҳозларни белгилаш ва қўшимча кўргазмали қуроллар билан бойитиш, интерфаол методлардан фойдаланган ҳолда дарсда муаммоли вазият
яратишдир. Дарсда қўйиладиган асосий талаблардан бири таълим методлари ва усулларини бир-бири билан боғлаб олиб бориш самарадорлигини оширишдир. Дарсга қўйиладиган асосий талаблардан яна бири барча дидактик вазифалар дарснинг ўзида ҳал этилиши, уйга бериладиган вазифалар ўқувчиларнинг дарсда олган билимларининг мантиқий давоми бўлиши керак. Дарс давомида ўқитувчи ўқувчиларнинг жисмоний ҳолатини, ижодкорлигини,.. тез фикрлашларини ҳисобга олиши керак. Ўтилган ҳар бир дарснинг ўқувчилар билан бирга таҳлил қилиб борилиши ҳам яхши натижа беради. Ўқувчи фаоллиги ўқувчилар фаоллиги олдида ўз ўрнини бўшатиб беради. Ўқитувчининг асосий вазифаси ташаббуслар чиқиши учун шарт-шароитлар ятариш демакдир. Яратилган шароитлардагина дарсни интерфаол усулларда щтиш ва дарс самарадорлигига эришиш мумкин.

## Адабиётлар

1.Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Т., Ўқитувчи, 1988. - 222 б.
2. Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008. - 119 б.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006: Азизхўжаева Н.Н. «Ўқитувчи мутахассислигига тайёрлаш технологияси». - Т. 2000.

4.Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

5. Фарберман Б.Л. «Прогрессивные педагогические технологии» - Т. 1999.; Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.

6.Беспалько В.П. «Слагаемые педагогические технологии». - М. Педагогика 1989.; Беспалько В.П. «Педагогика и прогрессивные технологии» - М. 1995.

7.Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

8.Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарихий ўлкашунослик тўгарагини ташкил қилишнинг таълимий-тарбиявий асослари

Абдиев Асад Садуллаевич
Сурхондарё вилояти Денов тумани
42-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация**. Тарихий ўлкашунослик тўгарагини ташкил қилишнинг таълимий-тарбиявий асослари.Маҳаллий ўлка материалларини ўрганиш, йиғиш ва тарих дарсларида фойдаланиш.. Тарих фанидан синфдан ташқари ишларнинг хусусиятлари,шакл ва усуллари.

Маълумки, мактабда ўқув ишларини ташкил этишнинг асосий шаклли — дарсдир. Тарих дарсларида ўлка материалларидан фойдаланиш орқали ўз ўлкаси тарихини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилади. Дарсда ўлка тарихини йиғилган материаллар асосида ўрганишда синфдан ташқари ишлар соҳасида қилинган ишлар амалий ёрдам беради. Шу сабабли дарс билан бир қаторда таълим — тарбия соҳасида синфдан ва мактабдан ташқари ишлар ҳам жуда муҳим аҳамият касб этади.

Ижтимоий фанлар бўйича синфдан ташқари ишлар ўқувчиларнинг ижтимоий фанлар соҳасидаги билимларини оширади, уларда фанга нисбатан ҳавас, қўшимча маълумотларни ўрганишга қизиқиш уйғотади. Ижтимоий фанлардан дарсдан ташқари машғулот ҳам дарс мақсадлари қандай бўлса, худди шундай мақсадларни амалга оширишга қаратилган, лекин уларга бошқача материалларда ва бошқа воситалар билан эришади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Мен ушбу мақоламда тарих дарсларида ўлка материалларини ўрганишда тўгарак ишларининг муҳим аҳамият касб эътишига тўхталиб ўтишга ҳаракат қилдим.

Тўгарак синфдан ташқари ишларини ташкил қилишнинг ихчам шакли бўлиб, мактабда амалга ошириладиган кўпгина ишларнинг марказига айланиб қолади. Ўқувчиларни ватанпарварлик, халқимизнинг илғор анъаналари руҳида тарбиялашдек долзарб вазифаларни ҳал этишда мактабда тарихий ўлкашунослик тўгарагини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Зеро, ватанпарварлик ўз ўлкасини ўрганиш ва танишдан бошланади. Инсон ўзи туғилиб ўсган жой тарихини билмай, шаҳар, туман, вилоят, воҳа ва водийлар тарихини ўрганмай туриб ўз мамлакатининг тарихини чуқур билиши амри маҳолдир.

Бинобарин, ўқувчиларнинг тарих курсидан олган билими ва кўникмалари ўлкашунослик ишлари натижасида мустаҳкамланади.

Ўлкашунолик тўгарагининг бўлғуси раҳбари нималарни яхши билиши керак? Энг аввало, у ўлкашунослик нима, у нималарни ўрганади ва нимадан баҳс этади, ўлкашуносликнинг манбалари, объектлари, турлари, илмий—назарий ва методологик асосларини яхши билиши керак. Маълумки, «ўлка» тушунчаси тор ва кенг маънода ишлатилади. Ўлка тушунчаси тор маънода инсон туғилиб ўсган жой, яъни киндик қони тўкилган - Она тупроқ, кенг маънода: туман, вилоят, воҳа ва водийдир.

Ўлкашунослик уч турга бўлиниб ўрганилади: Давлат ёки илмий ўлкашунослик, жамоат ўлкашунослиги ва мактаб ўлкашунослиги. Давлат илмий ўлкашунослиги ишларини амалга ошириш вазифаси республикамизда ташкил этилган махсус музейлар, вилоятларда ташкил этилган ўлкашунослик музейлари, ўша жойлардаги архив ҳужжатлари ҳамда уларни ўрганиб, тартибга соладиган илмий ходимлар, шунингдек, Фанлар Академиясининг тарих, археология институтлари илмий ходимлари томонидан олиб бориладиган илмий тадкиқот ишларидаги бевосита ўлкани ўрганишга алоқадор бўлган тадқиқотлари орқали амалга оширилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

Жамоат ўлкашунослиги эса бевосита овул, қишлоқ, туман, вилоят, воҳа ва водийларда яшаб ижод этган, меҳнатда, ижодда, ўзи туғилиб ўсган жой аҳлининг мўътабар кишиларининг ҳаёти ва фаолияти билан шуғулланади. Жамоат ўлкашунослигининг бевосита иштирокчилари кўпчиллик ҳаваскор археологлар сингари қадимий ёдгорликларни ҳам ўрганади ҳамда уларни сақлаш ва асраш ишларига бошчилик қилади.

Мактаб ўлкашунослиги эса мактабларда тарих ўқитувчиларининг бевосита раҳбарлигида ташкил қилинади. Шу билан бирга адабиёт, жуғрофия ва биология ўқитувчилари ҳам жалб қилиниши мумкин. Мактаб ўлкашунослиги фақат шу илм даргоҳи учун хизмат қилмайди, балки у кенгайиб умумжамоатчилик манфатларини ҳам ўзида мужассамлаштиради. Тарихий ўлкашунослик мактаб ўлкашунослигининг бир бўлагидир. У иккига бўлиниб, яъни ўқув жараёнида (ўқув дастури асосида) ва ўқув дастуридан ташқари (мактабнинг тарбиявий ишлар режаси асосланган ҳолда) амалга оширилади.

Ўқув жараёнида (синфда) олиб бориладиган ўлкашунослик ишлари ҳам икки мақсадни кўзлайди. Бири—ўз ўлкаси ўтмишини археологик, этнографик, топономик ва архив ҳужжатлари асосида ўрганиш ва тўпланган материалларни системага солиш; иккинсиси тўпланган ўлкашунослик материалларидан тарих дарсларида фойдаланишдир. Синфда олиб бориладиган ўлкашунослик ишларига барча ўқувчиларнинг иштирок этиши мажбурийдир. Мактабдан ташқари олиб бориладиган ўлкашунослик ишларига, яъни туристик походлар, археологик экспедицияларда ушбу ишга лаёқатли, қизиқувчи ва жисмоний соғлом ўқувчилар ихтиёрий равишда иштирок этадилар. Умуман, ўлкашуносликнинг юқорида зикр этилган уч турини билган одам ушбу фанни бошқа фан билан чалкаштирмайди.

Ўлкашуносликни ўрганиш объектларига: тарихий ёдгорликлар, археологик ёдгорликлар, меъморчилик, шахар қурилиш ёдгорликлари, санъат ёдгорликлари,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ёдгорлик ҳужжатлари, этнографик ва топономик ёдгорликлар, маълум ҳудуднинг ижтимоий—иқтисодий, сиёсий, тарихий маданий ривожи киради.

Ўлкашуносликнинг асосий манбалри эса қуйидагилардан иборат:

1. Археология—лотин тилидан олинган бўлиб, «археo»—қадимги, «логос»—фан деган маънони билдиради.

2. Этнография - «этнос» - халқ, «графейн» - ёзаман маъносини англатади.

3. Топономика—«топос»—жой, «онома»—ном деган маънони билдиради.

4. Архившунослик ва нодир қўлёзма асарлар.

5. Музей материаллари.

Мана шу беш манбани ўрганмай туриб, ўз ўлкамиз тарихини яхши англай олмаймиз.

Тарихий ўлкашунослик тўгарагида аниқ бир ҳудуд ҳар томонлама ўрганилади. Ўлка, туман, шаҳар, микротуманнинг ижтимоий—иқтисодий, сиёсий, тарихий ва маданий ривожланишлари асосий ўрганиш объектлари ҳисобланади. Тарихий ўлкашунослик тўгараги машғулотлари амалий характерга эга бўлиб, маъруза ва суҳбатлар озгина қисмни ташкил этади. Машғулотлар мазмуни оддийдан мураккабгача, оддий қидирув топшириқларни бажариш маъносида мураккаблашиб боради. Хусусан тўгарак аъзолари давлат ва халқ музейларидан топшириқларни бажаришдан олдин мавжуд фактлар асосида жойлар, тарихий ва маданий ёдгорликлар билан танишадилар. Бундай ишлар ўқувчиларни адабиёт билан ишлашга, хотираларни ёза билиш кўникмасига ва бошқаларга ўргатади.

Тарихий ўлкашунослик тўгарагининг асосий иш фаолиятидаги қуйидаги муҳим шартларни кўрсатиш мумкин.

1. Тарих тўгараги ўқувчиларнинг ихтиёрий уюшмаси бўлиб, унда ихтиёрийлик тамойили асосида шу ишга астойдил қизиқадиган ўқувчиларни қабул қилиш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

2. Иш жараёнида тўлиқ ошкоралик бўлиши, яъни тўгарак аъзолари билан бир қаторда бошқа мактаб ўқувчилари ҳам ёш ўлкашуносларнинг изланишларидан хабардор бўлиши.

3. Тўгарак аъзоларининг ҳар бири топширилган ишни масъулият билан бажариши.

Тўгаракнинг иш режасини тузишда, уни ўқувчилар билан фикр алмашиниб, мактабнинг ўлкашунослик ишларига бевосита алоқаси бўлган ўқитувчилар ва болалар, туристик станцияси ходимлари билан маслаҳатлашилгач, барча фикр ва мулоҳазалар ҳисобга олиниб тасдиқланса, айни муддао бўларди. Шунингдек, саёҳат, экспедиция, сайр—саёҳат маршрутларини танлаш, мактабда тўгарак ёзма органини чиқариш ва турли хил масалаларни ҳал этишда ҳам болалар ижодкорлиги ва ташаббусидан кенг фойдаланиш керак.

Режада тўгаракнинг мақсади, иш услуби ўз аксини топиши зарур.

**Тўгаракнинг қуйидаги тахминий иш режасини таклиф қилиш мумкин:**

**Тўгаракнинг мақсади.** Тўгаракнинг мақсади ўқувчиларни ўз ўлкаси билан таништириш, поход, экспедицияларда ишлаш учун тайёрлаш, уларнинг тарихий билим доирасини кенгайтириш. Она Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашдан иборат.

**Тўгаракнинг тузилиши.** Тўгарак тарихни севувчи, у билан астойдил қизиқадиган ўқувчиларни бирлаштиради. Машғулотлар ҳафтада икки марта, айтайлик, чоршанба ва жума куни соат 14.00 дан 16.00 гача ўтказилади. Тўгарак машғулотларини айнан бир мавзуда икки йил давомида ўтказиш мумкин. Чунки, ижодий изланишларни иккинчи йилда ўқувчиларнинг биринчи йили олган билимларини мустаҳкамлаш, кенгайтириш ва чуқурлаштириш имкони бор.

**Тўгаракнинг иш усуллари.** Ўқитувчининг суҳбати. Суҳбат давомида керакли бўлган пайтда фотосуратлар, расмлар кўрсатиш. Ўлкашуносликка доир мунозара, рефератлар танлови ўтказилиб, изоҳли альбомлар яратиш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўлкашунослик объектларини, диққатга сазовор жойларни расмга олиш, лавҳалар ёзиш, объектларни паспортлаштириш.

Мактаб музейлари ва фан кабинетлари учун кўргазмали қуроллар ясаш, турли қўлланма ва материаллар тайёрлаш, археологик, тарихий ёдгорлик жойлари бўйлаб, музейларга, фабрика, завод, жамоа хўжаликларига саёҳат уюштириш. Саёҳатларга чиқиш, экспедиция топшириқларини бажариш, фан, маданият, меҳнат қаҳрамонлари, саноат ва қишлоқ хўжалик ходимлари билан ишлаш, кўргазма, стенд ташкил қилиш, ўлка тарихига оид китоблардан парчалар ўқиш, археологик қазишмаларда қатнашиш.

**Тўгарак аъзоларининг мустақил ишлари.**Тарихий археологик ва меъморчилик ёдгорликларини суратга тушириш, этнографик маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш, архив, ёдгорлик ҳужжатлари, каталоглар билан ишлаш, музей экспонатларини ўрганиш, кўргазмали қуроллар ясаш, маърузалар тайёрлаш ва «Ёш ўлкашунос» деворий газетаси учун мақолалар ёзиш, хронологик масалалар ечиш, Ўзбекистон тарихидан мустақил ишлар дафтарини керакли маълумотлар билан тўлдириш.

Ушбу тўгаракнинг иш режаси тахминий бўлиб, ўқитувчилар маҳаллий шароит, ўқувчиларнинг ёши ва синфларга қараб ўзгартириш киритишлари мумкин.

Тўгарак раҳбари тузилган режа асосида тўгарак аъзоларининг тарихий ўлкашуносликнинг асосий соҳалари бўйича гуруҳларга бўлиб топшириқлар бериши мақсадга мувофиқдир.

1. Ўзи туғилиб ўсган жой тарихи билан қизиққан киши аввало, археология фанига мурожаат қилиши зарур, чунки бу жойда археологик ёдгорликлар борми, ўрганилганми, йўқми, деган саволларга жавоб топмоғи лозим. Агар археологик ёдгорликлар бўлса, унда кишилик жамияти тарихининг жуда катта даврини археологик манбаларга таянган ҳолда кўриб чиқиш мумкин.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ҳозирги кунда республикамизнинг бир қатор вилоят ҳудудларида археология экспедициялари тадкиқот ишларини олиб бормокда.

Ўқувчилар ўқитувчи раҳбарлигида ана шу экспедициялардан бирининг ишида иштирок этишлари мумкин. Шунингдек, ўқитувчи раҳбарлигида ўқувчилар мустақил равишда махсус рухсатномага эга бўлган тақдирда пухта тайёргарликдан кейин қазиш ишларида қатнашсалар бўлади. Бунинг учун аввало, тўгарак раҳбари археологик ёдгорликларни ишлаш ҳақидаги қонун ва қоидалар ҳамда археология асослари билан ўқувчиларни таништириши лозим. Шуни таъкидлаш лозимки, ўлкамиз тарихини ўрганишда археологиянинг аҳамияти жуда катта бўлиб, ўзбек археологлари ўлкамизнинг кўп ерларида ибтидоий даврдан бошлаб, сўнгги феодализмгача бўлган тарихий ёдгорликларни текшириб, қадимги Ўзбекистон худудида маданият юксак даражага кўтарилганлигини аниқладилар. Жумладан, қуйидаги ёдгорликлар: Тешиктош, Зарауткамар, Селенгур ғорлари, Тупроққалъа, Қўйқирилган қалъа, Сополлитепа, Далварзинтепа, Холчаён, Афросиёб, Варахша, Ахсикент, Ёрқўрғон каби шаҳар харобалари бу соҳада машҳурдир. Айникса, Сополлитепанинг тадқиқ этилиши, Ўзбекистон ҳудудида суғорма деҳқончилик қарийиб тўрт минг ёшга эга эканлигини, илк шаҳарлар пайдо бўлиши тарихи ҳам шунча даврни ўз ичига олишини кўрсатди.

2. Ўзбек халқининг ўтмиш тарихини ўрганишда этнографик маълумотлар энг мухим ўрин тутади.

Этнографик объектни ўрганувчи ўқувчилар гуруҳига халқимизнинг келиб чиқиши, миллий анъана ва урф—одатлари, турмуш тарзи, касби—корлари, уй — рузғор буюмлари, маданий—маънавий қадриятлари ҳақида маълумотлар тўплаш ва қайта ишлаш, ҳамда тарғиб қилишни топшириш муҳимдир.

Ёш этнографларнинг аҳоли ўртасида ўтказадиган дала тадқиқотларида қуйидаги усуллар қўлланилади: сўраш—махсус танлаб олинган ёки шу этник гуруҳга мансуб ахборотчилар билан ишлаш: тажриба—этнографик экспедиция пайтида

маълум ижтимоий ва оилавий маросимда иштирок этиш, кузатиш, маданият ва турмушнинг ўзига хос ҳамма этник мажмуасини диққат билан ўрганиб, қайд этилади, дала тадқиқотлари натижасида моддий ва маънавий манбалар ўрганилади. Моддий манбаларга—ёдголиклар, уларнинг тасвирлари, меҳнат қуроллари, турар жойлар, таомлар, абоб анжомлар, кийим кечаклар, тақинчоқ—безаклар ва ҳоказолар киради. Фотоаппарат ва киноаппарат (видеоаппарат) орқали халқнинг маънавий маданияти, анъана, урф—одатлари, маросимлари, эътиқодлари, халқ оғзаки ижоди намуналари қайд этилади. Халқ амалий санъати буюмлари тўпланиб, илмий жиҳатдан қайта ишланди ва музейларга этнографик коллекция сифатида топширилади.

Ўқувчиларга вазифани тақсимлашда уларнинг қизиқиши ва қобилиятларини ҳисобга олиш жуда муҳим. Ўқувчи қизларга «Уйнинг ички ҳолати», «Кийим—кечак ва сарпо, безаклар ва пардоз—андозлар», «Миллий таомлар, пазандачилик ва меҳмоннавозлик», «Бадиий, амалий санъат (каштадўзлик, гиламдўзлик, кигиз босиш санъати, сават ва бўйра тўқиш, дўппидўзлик)», уғил болаларга эса «Уй—жойлар хўжалик бинолари ва жиҳозланиш анъаналари», «Меҳнат ва ов қуроллари» каби мавзуларни тақсимлаб бериш мумкин.

Ўқитувчи этнографик экспедиция аъзосига суҳбат учун алоҳида саволлар тузишда кўмаклашади. Суҳбат пайтида экспедиция аъзоси бу саволлардан фойдаланиши, саволлардаги кетма—кетликка қатъий риоя этиб, белгиланган мавзудан бошқасига ўтмаслиги керак. Берилган саволларга аниқ жавоб олишга эришиш, бир ахборотчидан олинган жавоблар билан бошқаларни таққослаб кўриш жуда муҳимдир.

Тўгарак аъзоси дала ишларида буюм—анжомларни рўйхатга киргизади, расмга туширади ва тасвирга олади. Тўпланган маълумотлар ҳам махсус дафтар ёки кундаликка қайд этилади. Тасвир эса чизилади, суратга олинади, суҳбат лозим бўлса, магнитафон лентасига ёзиб олинади.

Саёҳат вақтида ўқувчиларнинг дала дафтари юритиши жуда муҳимдир. Дафтарнинг биринчи саҳифасида ўрганилаётган мавзу, ўқувчининг фамилияси, исми, синфи, мактабнинг номи ва тартиб рақами, экспедиця ўтказилаётган вақти аниқ кўрсатилади.

Суҳбат бошланиши олдидан экспедиция аъзоси қуйидаги маълумотларни қайд этиши керак:

1. Ёзув жойи, вилоят, шаҳар, туман, қишлоқ, жамао хўжаликлари, корхона ёки муассаса.

2. Ахборот олаётган киши ҳақида маълумот (фамилия, исми, миллати, уруғи, ёши, касби). Ашёвий нарсаларни рўйхатга олганда эгаси ҳақида, маросимларни қайд этганда эса, уларни ўтказиш қоидалари тўғрисида тўлиқ ёзилади.

3. Ёзув олиб борилган кишининг фамилияси, исми ва вақти (кун, ой, йил) қайд этилади.

Дала тадқиқотлари тугагач, ушбу маълумотлар мактаб музейига топширилади ва ўқув—тарбиявий ишларида фойдаланилади.

Ўқувчиларга экспедиция якунлари бўйича иншо, реферат, маърузалар ёзиш топширилади, шунингдек кеча ва конференциялар ўтказиш тавсия этилади. Экспедиция натижалари бўйича альбом тайёрлаш, фотомонтаж чиқариш, диафильм, диапозитив, кинофильмлар ҳам яратиш мумкин.

Тўпланган этнографик маълумотлар ва ашёлар бўйича экспедиция иштирокчиларидан энг фаолларини тақдирлаш, этнографик экспедициянинг ўқув тарбиявий соҳасидаги таъсирини янада оширади.

3. Ўлкамиз тарихини ўрганишда топономика алоҳида аҳамиятга эга. Қадимги греклар уни ер тили деб атаганлар. Ўлкашуносликнинг топономика билан шуғулланувчи гуруҳи қуйидаги терминлар билан таниш бўлиши фойдадан ҳоли эмас:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Антропоним—лотин тилидан олинган бўлиб, «антропо»—одам, «онома»—ном деган маъноларни англатади, яъни антропономика киши исмлари ҳақидаги фандир.

Гидроним—грекча «гидро»—сув, «ономе»—ном, сув иншоатларининг, канал, анҳор, арик, дарё, сой, жилға, ирмок, булоқ, қудуқ, кўл, денгиз, шаршараларнинг номларини ўрганади.

Метатеза—лотин тилида “яметатетис”—жой алмаштириш маъносини билдиради.

Метафара—грекча кўчириш сўзининг кўчма маънода ишлатилишини англатади. (Тучтош — каттақоя, Мингбулок — кўп булоқ).

Метаномия — (грекча қайта ном қўйиш) топономика жой номининг қўшни объект номига ўтиши, масалан, дарё номининг шаҳар номига кўчиши (Вахш дарёси—Вахш тизмаси) ни билдиради.

Микротопония—(грекча «микро»—кичкина, «онома»—ном) кичик объектлар: булоқлар, кудуқлар, далалар, ўтлоқлар, жарлар, йўллар, кичик тепалар, кўчалар, ҳатто атоқли отга эга бўлган айрим дархтларнинг номларини ўрганади.

Орономия—(грекча «орос»—тор, «онома»—ном) тоғлар, чўққилар, қирлар, даралар, текисликлар, жарлар, номларини ўрганади.

Полинимия—грекча «полис»—шаҳар, «онома»—ном дегани: урбономия сўзи лотин тилидан олинган бўлиб, «урбо»—шаҳар, аҳоли пунктлари демакдир. Улар овул, қишлок, посёлка, станция, шаҳарларнинг номларини ўргатадиган махсус фан ҳисобланади.

Маълумки, «Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақидаги Қонуни» га кўра Ўзбекистонда барча тарихий исмлар ва жойларнинг номлари халқнинг миллий мулки ҳисобланади ва давлат томонидан муҳофаза қилинади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ҳа, турли даврларда яратилган ва маданий — тарихий гувоҳликлар бўлмиш тарихий номлар ҳам маданият ёдгорликларидир. Аммо шўролар даврида кўпгина жой номлари йўқотилиб юборилди.

Республикамиз мустақилликка эришгач, тарихий номларни тиклаш борасида олиб борилаётган ишлар анчагина жонланди.

Бу борада Ўзбекистон Президентининг 1996 йил июнида имзо чеккан «Ўзбекистон Республикасида маъмурий—ҳудудий бирликлар, аҳоли пунктлари, ташкилотлар ва бошқа топономика объектларининг номларини тартибга солиш тўғрисидаги қарори муҳим аҳамият касб этади.

Эндиликда ёш ўлкашунослар олдидаги вазифа—географик—тарихий номларнинг «Қизил китоби» ни яратишдир.

Миллий генофондизмни тиклашнинг биринчи босқичида мактаб микрорайонидаги жой номларини, сўнгра қишлоқ, туман, шаҳарнинг номларини мазкур китобга киритиш лозим. «Қизил китоб» ни икки қисмдан иборат қилиб тузиш лозим:

Биринчи кисм—ҳозирги кунда мавжуд бўлган шаҳарлар ва посёлкалар, қишлоқлар, кўчалар, майдонлар, тоғлар, дарёлар, анҳорлар, каналлар, сойлар, машҳур арбобларнинг ҳаёти билан алоқадор бўлган эсталик жойлар рўйхати.

Иккинчи қисм кейинги вақтда ўзгартирилган, бирин—кетин тикланишга, республика харитасига қайтарилишига муҳтож тарихий—географик номларнинг рўйхати. Бунда номларнинг тарихий—маданий жиҳатдан аҳамияти қисқача асослаб берилади. Бу рўйхатлар мактаб педагогик кенгашида муҳокама қилингач, тегишли ҳокимликка кўриб чиқиш учун тақдим қилиниши мумкин.

**4. Ўлкашунослик тўгарагининг иштирокчиси ўлка тарихига оид архив ҳужжатларини ўрганиши зарур.** Ўлкашунослар архив ҳужжатлари билан ишлашдан олдин тўгарак раҳбари бошчилигида ўз ўлкаси ҳудудидаги жамоа

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

хўжалиги ва туман ҳамда муассаса архивлари, уларда ҳужжатларни юритиш тартиби билан архиварус ёки ушбу ишга мутасадди бўлган киши ёрдамида танишишлари шарт. Сўнгра давлат архивларига боришлари лозим, архив маъмурияти эса бу ҳақда олдиндан хабардор қилиниши керак. Архивда давлат муассасалари, корхона, жамоа хўжалиги ҳақида айрим шахсларнинг фаолиятига оид ҳужжатлар сақаланади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архивида Октябрь тўнтаришигача Чор хукуматнинг ўлкада мамлакатчилик сиёсатини амалга ошириш ва унга қарши Туркистон халқларининг миллий—озодлик курашига доир ҳужжатлар алоҳида фодларни ташкил қилади. Архив материаллари хронологик изчилликка амал қилинган ҳолда давлар ва бўлимларга ажратилган. Юртимиз тарихига оид материаллар нодир қўлёзма асарларда ҳам учрайди. Тошкентдаги Шарқшунослик ва қўлёзмалар институтлари фондида ушбу қўлёзма асарларнинг кўп минг жилдлик асл нусхалари сақланади. Вақти—вақти билан мазкур институтлар томонидан аҳоли қўлида бўлган ноёб қўлёзмаларни аниқлаш ва сотиб олиш мақсадида экспедициялар уюштирилиб турилади. Ёш ўлкашунослар бу борада ўз ёрдамларини кўрсатсалар нур устига аъло нур бўлади.

5. Ўлкашуносликнинг муҳим ва сўнгги мақсади — республика, вилоят ва туман миқёсидаги музей экспонатларини ўрганиш, ундан кўчирмалар олиш, шунингдек, ёш ўлкашунослар тўплаган археологик, этнографик, топономик материаллар асосида музей ташкил қилиш ҳисобланади. Музейлар кудратли таълим-тарбия ўчоқларидир. Ўзбекитон Президентининг 1998 йил январида музей ишларини янада яхшилашга қаратилган Фармони бу соҳада муҳим аҳамиятга эгадир. Умуман тарихий ўлкашунослик музейлари ташкил қилинган мактабларда ўқитувчиларнинг гуманитар фанлардаи олаётган билимлари, ўтмиш тарихи ва маданиятига қизиқишлари ўсиб бораётганлиги аниқланмоқда.

**6. Мактабда тарихий ўлкашунолик музей ташкил қилиш**

Мактаб музей олдига ниҳоятда муҳим вазифалар қўйилган бўлиб, у халқ ва давлат музейларидан ўзига хос хусусиятлари билан фарқ қилади. Мактаб музейининг асосий хусусияти шундаки, музей ўқитувчи ва ўқувчилар жамоасининг биргаликдаги меҳнати натижаси бўлиб, у мактаб ўқув—тарбияий ишларини яхшилашга қаратилганлигидадир.

Мактаб музейи илмий системага солинган, барча материаллар тўпланиб, намойиш қилишга тайёрланган, тарих ва маданият ёдгорликларининг иложи борича асл нусхасини ёки ҳар хил воситалар ёрдамида кўчирма (нусха) олиб, ўлкашуносликнинг манбалари бўйича даврлаштирилиб қўйилган, мактаб жамоаси, ўқувчилар ҳамда ўша ҳудудда яшайдиган маҳаллий аҳолига мўлжалланган кичик бир бошланғич илмий—маданий оқартув муассасасидир.

Мактаб музейини ташкил қилишда фақат ёш ўлкашунослар кучига таяниб қолмай, балки уни ушбу ишга мактабнинг барча тўгараклари ҳамда ўқитувчилари ва ўқувчилари жамоасини жалб этиш муҳимдир. Шундай қилганда, унинг ёшларга нисбатан педагогик самараси ошади.

Музейни ташкил қилиш учун қуйидаги ташкилий ишларни амалга ошириш лозим:

Музейнинг асосий соҳаси қилиб тарихий ўлкашунослик танлангач, унинг иш режаси педагогик кенгаш муҳокамасига қўйилиб тасдиқлангандан сўнг, унга раҳбар тайинланади;

Мазкур раҳбар ўқувчилар йиғилишини ўтказиб, ушбу масала бўйича ахборот беради ва йиғилиш натижаси ўларок 10—12 кишидан иборат Музей Кенгаши, даврий газета редколлегияси ҳамда ҳар бир синфдан ўлкашунослик ишига масъуллар сайланади. Ўқитувчи раҳбарлигида музей кенгаши экспозицияларнинг режасини тузиб, мавзуни аниқлайди, топиш лозим бўлган тахминий материаллар рўйхатини ёзиб, уни излаб топиш мақсадида консультациялар ташкил қилади, шунингдек, ҳар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бир синф учун топшириқлар ишлаб чиқади. Музей кенгаши ўртасида ишлар қуйидагича тақсим қилинади:

1. Музей кенгаши раиси. У ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида кенгашнинг иш режасини тузади ва шунга асосан ишларни тақсим қилади, ташкилий масалаларни ҳал қилади. Материал тўплаш, музейдаги навбатчилик графигини тузиш билан бу ишларнинг бажарилишини кузатади.

2. Музейнинг бош сақловчиси. У музейдаги барча материаллар ва экспонатларнинг сақланишига ва ўрнига қўйилишига жавоб беради. Музей материалларини ҳисобга олиш дафтари юритилади ва музей материалларининг асл нусхаларига картотекалар тузилади.

3. Музей кенгашининг котиби. У саёҳат, походлар ва экспедиция ишларининг якунига бағишлаб ўтказиладиган ва бошка ишлар бўйича йиғилишлар қарорларини мунтазам ёзиб боради. Шунингдек, ушбу йўналишга доир барча ишларни ҳисобга олиб боради.

4. Музей кенгаши аъзолари. Улар экспозиция тузишга, материал тўплашга, экспозицияларни безаш ишларига жавобгар шахслар тайинланади, уруш ва меҳнат ветеранлари билан учрашувлар ташкил қилади ва ҳоказолар. Бундан ташқари, Кенгаш аъзолари музейга материал йиғиш, экспедиция, саёҳат ва походлар уюштириш, музейшуносликка оид бўлган адабиётлар ўқиш, жамоат ўлкашунослиги ходимлари ва коллекционерлар билан суҳбатлар, учрашувлар ўтказишнинг аниқ режаларини тузиб чиқадилар. Музей Кенгаши: туман ёки вилоят ўлкашунослик музейи ходимларидан экспозицияларини тўғри ва илмий равишда ўрганиш ва жойлаштиришда доимо консультация олиб туришлари керак. Зарурият туғилганидан музей ўзининг асосий фонди бўйича уларга қуйидаги шаклда маълумот бериб туриши мумкин:

1. Музейдаги топилмаларнинг тартиб рақами.

2. Экспонатларнинг инветарь рақами ва шифри.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3. Топилмаларнинг номи.

4. Топилманинг топилган жойи.

5. Топилманинг ким томонидан топилиб, музейга қачон топширилгани.

Мактаб музейи фондига қуйидагилар, яъни: тарихий ва маданий ёдгорликларнинг ёки топилмаларнинг асл нусхалари, моддий топилмалар, ёзма тарихий манбалар, тасвирий санъат ёдгорликлари, моддий ва маънавий этнографик ва топономик маълумотларни ўз ичига олган материаллар, туман ва вилоят ўлкашунослик музейларидаги мавжуд экспонатлардан кўчирмалар, нусхалар, фотосуратлар, макетлар ясаш ёки расмлар чизиб олиш ва уларни ҳам музейга тартиби билан жойлаштириш каби ишлар киради.

Мактаб музей фонди Ўзбекистан тарихини ўқитишнинг ҳозирги КОНЦЕПЦИЯСИ асосида бўлимларга бўлиб қўйилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Музейнинг асосий фонди билан бирга ёрдамчи фонди ҳам бўлади. Асосий фонддаги предметлар 3 гуруҳга бўлинади:

1. Ашёвий ёдгорликлар (археологик, этнографик).
2. Ёзма ва босма материаллар (қўлёзма китоблар, газеталар, журналлар, ҳужжатлар ва ҳоказо).
3. Тасвирий материаллар (тасвирий санъат асарлари, фотография материаллари).

Ёрдамчи фонд материаллари эса икки гуруҳга бўлинади:

1. Ҳақиқий ёдгорликларни тушунтиришга хизмат қилувчи материаллар (диаграмма, схема, карталар).

2. Ҳақиқий материалларнинг ўрнини қоплаш учун яратилган материаллар (макетлар, муляжлар, расмлар, панорамалар ва ҳоказолар).

Музейнинг асосий фонди билан ёрдамчи фонди ўртасидаги фарқни аниқ билиш зарур. Зотан, ўқувчиларнинг ушбу фондларнинг ўзига хос хусусиятларини тўғри англаши уларни илмий фаолиятига чорлаб, тарихий ёдгорликларга кўз қорачиғидай эҳтиёткорона муносабатда бўлиш ҳиссини тарбиялайди.

Музей мактабдаги барча ўлкашунослик ишларининг маркази бўлганлиги учун унда қуйидагилар мавжуд бўлиши тавсия қилинади: музейнинг иш режаси, ҳар бир синф бўйича топшириқлар, ўлкашуносликка оид турли адабиётлар рўйхати, турли эслатмалар, мактаб, корхона, жамоа хўжалиги, қишлоқ, шаҳар тарихини ўрганиш юзасидан саволлар, ўлкашунослик мавзусига оид турли газета қирқимлари ва бошқа материаллар тўплами, синфдан ташқари турли ишларнинг ишланмаси (викторина, саёҳат, походлар) шу жумладан ўлкашуносликка оид адабиётлар кутубхонаси ва ҳоказо.

Музейга материаллар йиғишнинг турли йўлларидан фойдаланиш мумкин. Улардан асосийси системали равишда танланган мавзу бўйича ўқув даврида топшириқлар орқали йиғиш, саёҳат, экспедиция походлар, учрашувлар вақтида ҳамда турли муассасалар, ташкилотлар ва айрим шахслар билан ёзишмалар воситасида ҳам тўпланади.

Мактаб музейларининг ишини ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, улар фаолиятидаги энг заиф томонларидан бири материаллар тўплаш жараёнида ёдголикларни аниқлаш ва уни ҳисобга олиш ҳамда уни тасвирлашдир. Шунга кўра ўлкашунослар нимани йиғиш лозим ва қандай йўсинда йиғишлари кераклигини билишлари жуда муҳимдир. Шу сабабли ўқитувчи ўқувчилар гуруҳи билан амалий машғулотлар ўтказиш асосида тўпланган материалларни қандай расмийлаштириш, қай тарзда хотира, ҳикояларни тўғри ёзиб олишни тушунтириш ва кўрсатиши зарур. Шунингдек, ўқувчиларга мустақил равишда мавзу мазмуни бўйича материал тўплаш усулларига доир керакли адабиётларни ўқиб чиқишни тавсия этиш даркор.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Музейга олиб келинган ҳар бир буюм тушум дафтарига ёзилади. Экспедиция, саёҳат, походлар якунига кўра йиғилган предметлар эса «Дала дафтарига ёзилади. Шунингдек, расмларни қайд қилиш дафтарига зарур суратлар ҳам киритилади. Шундан сўнг улар керакли равишда ўрганилиб, қайта ишлангандан кейин хама материаллар "Инвентарь дафтари" га киритилади. Ушбу дафтар номерланган, шнурланган бўлиб, мактаб директорининг имзоси билан тасдиқланган ва мухрланган бўлиши шарт.

Музей предметлари системали равишда ҳисобга олиш, уни осонлик билан топиш учун картотекани қўллаш қўл келади. Картотека карточкалардан ташкил топиб, унда қиска шаклда ҳар бир предмет бўйича керакли маълумотлар ёзилади. Қуйида юқоридаги дафтарлар намунасини илова қиламиз.

| Тартиб рақами | Топилган вақти ва жойи | Ёдгорликлар номи | Сони | Материал ва уни тайёрлаш воситаси | Ёдгорлик нима учун мўлжалланган | Фойдаланиш усули, аниқланиш даражаси | Хусусияти кўрсатилган қисқача | Ёдгорликнинг эгаси ва манбаи | Тарихий маълумот | Изоҳлар |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| | | | | | | | | | | |

Фотосуратларни қайд қилиш дафтари

| Лентанинг рақами | Кадрнинг рақами | Съёмканинг вақти ва жойи | Кадрнинг мазмуни | Съёмканинг шароити | Суратнинг эгаси | Изох |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| | | | | | | |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Инвентарь дафтари

| Тартиб рақами | Ёзув вақти | Предметнинг келиш вақти, манбалар ва усуллар, йўлланма хужжат, акт № | Предметнинг номи, киска баён эгаси, аталиши вақти, келиб чиқиши устидаги имзо | Предметлар сони | Материал ва техника | Сақланиши | Нархи (сотиб олинганда) сотиб олиш комиссиясининг акти | Қайси бўлим ёки тўпламга келди | Илмий инвентарь рақами | Изоҳлар |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| | | | | | | | | | | |

Ўлка бўйлаб саёҳат, экспедициялар тарихий ўлкашунослик музейига материал тўплашнинг самарали воситаси бўлганлигидан уларни ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари устида тўхталамиз.

Ўлкашунослик саёҳатлари ўқув ва ўқув дастуридан ташқари ўтказилиб, улар мавзуий ёки шарҳли бўлади. Ўқув саёҳатлари дастур талабларидан келиб чиқиб вақти чекланган бўлса, дастурдан ташқари ўтказилганда бундай чеклаш бўлмайди.

Саёҳат 3 босқични ўз ичига олади: ўқитувчи ва ўқувчиларнининг тайёргарлиги, уни ўтказиш ва якунлаш, унинг материалларидан келгуси ўқув тарбиявий ишларда фойдаланиш.

Саёҳат ўтказиш 2 қисмдан иборат бўлиб, у ўз ичига ахборот ва фаолият қисмини олади. Ахборот қисми ўқитувчи ёки мутахассиснинг музей ва саёҳат объектини тушунтириш, ҳикояси бўлса, фаолият қисми ўқувчиларнинг тадкиқот ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

рўйхатга олиш фаолиятидир (масалан: коллекция тўплаш, унинг расмини чизиш, суратга тушириш, баённома ёзиш, ўлчаш ва ҳоказо).

Саёҳатдан кўзланган мақсадга эришиш кўп жиҳатдан уни ташкилий томондан пухта тайёрланганлигига боғлиқдир.

Тарихий ўлкашунослик саёҳатларини шартли равишда бир неча турга бўлиш мумкин:

1. Кириш саёҳатлари (ўқувчиларни келгуси дарсларга қизиқтириш, мустақил назарий умумлашма хулосалар чиқаришга тайёрлаш учун. Масалан: Тарихни ўрганишда археологиянинг аҳамияти мавзуси).
2. Дарс—саёҳат.
3. Дарс ёки тўгарак машғулотларида бирон мавзуни бўлгандан кейин ташкил этиладиган саёҳат (ўқув машғулотларни конкретлаштириш учун).
4. Дарс ёки тўгарак машғулотларида катта мавзуни ўрганиб бўлгандан кейин ўтказиладиган саёҳат (масалан, Амир Темур ва темурийлар даври).
5. Умумий такрорлаш дарсидан олдин ёки кейин ўтказиладиган саёҳат (ашёвий ва ёзма тарихий ёдгорликлар базасида ўрганиш орқали тарихий материални мутаҳкамлаш мақсадида).
6. Дарсликда баён қилинган материалларни ҳозирги замон билан боғлаш мақсадида саёҳат.
7. Тарихий ишлаб чиқариш саёҳатси (касбга йўналтиришга мўлжалланган).

Саёҳатлар билан бир қаторда таништирув саёҳатлари ҳам ёш ўлкашуносларга бой материал беради.

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Каримовнинг 1996 йил 9 сентябрда «Маънавият ва маърифат жамоатчилик маркази фаолиятини янада такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги Фармонига мувофиқ «Ёшларимизнинг онгига она Ватанга, буюк аждодларимиз мероси ва халқимизнинг бугунги мисли кўрилмаган бунёдкорлик ишларига юксак эҳтиром туйғуларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

сингдириш мақсадида уларни дуёни ҳайратга солган қадимий ёдгорликлар ва мустақиллик даврида бунёд этилган улкан иншоатлар, маърифат масканлари, юртимизнинг гўзал табиати билан мунтазам таништириб бориш учун махсус таништирув саёҳатлари ташкил этиш» мақсадида барча ҳокимликлар томондан таъминлаш юклатилган.

Экспедицияга сафарбарлик эса ўз ичига илмий ва моддий - техник тайёргарликни олади. Илмий тайёргарлик тадқиқот мавзусига, музей коллекциясига тегишли адабиётларни ўрганиш ва ҳоказолардан иборат. Ҳамма жиҳатлар ўрганилиб, тайёргарлик ниҳоясига етгач қуйидагича дастур тузиш тавсия этилади:

1. Экспедиция мавзуси, йиғиладиган ва тадқиқот қиладиган масалалар, материаллар рўйхати.

2. Экспедициянинг мақсади.

3. Унинг иш маршрути.

4. Экспедициянинг маршрут бўйлаб умумий ва айрим ҳолатлардаги иш вақти.

5. Экспедиция гуруҳининг таркиби, изланувчи гуруҳ ва айрим аъзолар учун топшириқлар рўйхати.

6. Мавзу бўйича қисқа методик маслаҳатлар ва тадқиқотнинг хусусиятини очиб берувчи топшириқлар, ёрдамчи ҳужжатлар: сўровнома, анкеталар ва ҳоказо.

**Экспедициянинг дала ҳужжатлари**

1. Қабул қилиш ва топшириш акти.

2. Дала дафтари ва кундалиги.

3. Ҳикоя ва хотираларни ёзиш дафтари.

4. Фотосуратни қайд этиш дафтари.

5. Зарур техника воситалари.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

6. Экспедиция гуруҳининг номи ҳамда қайси мактабга қарашли эканлиги ва раҳбари.

7. Тадқиқот ишлари мавзусининг номи ва иш муддати, ҳужжатларни ёзиб борувчи жавобгар шахс.

Ўтмишни ўрганмай келажакни яратиб бўлмайди. Қайси бир халқнинг маданияти қанчалик қадимий бўлса, ўша халқнинг маънавият илдизи ҳам шунчалик чуқур бўлади. Чунки ҳар қандай ахлоқ, урф одатлар катта инсоний фаолиятининг синовлари, ҳаётий тажрибалари асосида юзага келади ва авлоддан авлодга ўтади.

Халқимизнинг тарихи ва маданияти кўҳна бўлиб, юртимиз тупроғини инсоният тараққиётининг ер юзидаги қадимий ўчоқларидандир. Бу эса бугунги қўлга киритилган ютуқларимизнинг ҳаётбахш асосидир.

Ҳақиқатдан ҳам биз ўтмишдан кул эмас, чўғ оламиз. Шундай экан, бeқиёс меросни асраш, авайлаш, уларни ҳар томонлама жиддий ўрганиш билан уни ёшлар онги ва қалбига жо қилиш масалалари энг муҳим вазифалардан бири бўлиб турибди.

Хўш, бу ҳаётбахш чашмадан барча ёшларимиз бирдай баҳрамандми? Албатта, тўлиқ эмас. Шу сабабли тарихдан тарбиявий ишлар тизимини миллатнинг дардига дармон бўладиган, элим деб, юртим деб ёниб яшовчи мамлакатимизнинг юксак парвозига зўр қанот бўлмиш эркин, ёш, соғлом авлодни етказишни кўзда тутган ҳолда режалаштириб уни амалга оширишимиз зарур.

Шуни унутмаслигимиз лозимки, мазкур ишлар ўқувчиларнинг тарихий тафаккури ва ватанпарварлик руҳини юксалтириш билан бир қаторда, ўқитувчиларнинг ҳам профессионал жиҳатдан такомиллашувига ижобий таъсир кўрсатади.

Биринчидан, дарсда ўлка материалларидан фойдаланишда,ўлкани ўрганиш ишларга муваффақиятли раҳбарлик қилиш учун ўқитувчи ўлкани яхши билиши керакки, бу уни ўз устида янада мустақил ишлашини тақоза қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Иккинчидан, ўқитувчининг ўз билимини ўлкашунослик материаллари билан бойитиши, уни ўша ҳудуд аҳолиси ўртасида, шунингдек маҳаллий, матбуот ва радио маърифий фаолияти учун кенг йўл очади.

Учинчидан, ўлкашунослик материалларини ўқув—тарбиявий тадбирларда ўқувчилар билан бирга иштирок этиш орқали уларнинг характер ва қизиқишларини якиндан билади. Бу эса ўз навбатида ўқувчилар билан ишчанлик муносабатлари ва ўзаро ҳамкорликни ўрнатишга ҳамда уларга индивидуал ёндашишга яқиндан ёрдам беради.

Хуллас, тарих дарсларини қизиқарли, мазмунли, самарали ўтишда тарбиявий ишлар тадбирларини амалиётга татбиқ этиш, ёшлар маънавияти ва юртимиз равнақини юксалтириш омили бўлиб хизмат қилади.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. «Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори». - Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И.А. «Юксак малакали кадрлар – тараққиёт манбаи». - Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: “Ўқитувчи”. 2001.
4. Саъдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон тарихи манбалардан.-Т., 1996.
5. Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / Қўлланма. - Қарши: Насаф, 2000.
6. Саъдиев А., Фузаилова Г., ҲасановаМ. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.- 119 б.
7. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент, 1996.
8. Иброҳимов А. Бизким ўзбеклар... Тошкент. “Шарқ”, 1999.

## Қўшимча Интернет ресурслар

• http://pedagog.zn.uz/

• www.ziyonet.uz

• eduportal.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг айрим жиҳатлари

Жиянова Замира Буриевна

Сурхондарё вилоят Шеробод тумани 41- мактаб

тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини ошириш йўллари.Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишнинг айрим жиҳатлари.Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишда муаммоли таълим. Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишда педагогик технологиялардан фойдаланиш. Тарих дарсларида ўқувчилар ижодкорлигини оширишда интерфаол усуллардан фойдаланиш

Ўқувчиларнинг дунёқарашини кенгайтиришда, фикрлаш қобилиятини ўстиришда муаммоли таълим беришнинг ва замонавий,илғор педагогик технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти каттадир. Биз муаммоли таълим ҳақида фикр юритганимизда, бевосита саволлар туғилади. Бу қандай таълим, унинг назарий асослари нималардан иборат? У анъанавий таълимдан қайси кўринишлари билан фарқ қилади? Муаммоли таълимнинг мақсади нималарга қаратилган?

Дарс ва дарсдан ташқари ишларда ўқувчиларнинг фикрлаш доираларини кенгайтириш, мустақил ўқиб-ўрганиш кўникмаларини шакллантириш, фаол ҳаракатга ундаш, ҳамкорликда ишлаш, уларнинг нутқини ўстириш,шунингдек, дарсда илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчиларни далил ва асослар орқали ўз фикрларини асосли гапиришини, асослаб бера олишини, умумий гаплардан узоқ бўлиш ва ҳар доим далиллар ва фактлар орқали гапиришга ўргатишдан иборат. Тарих дарсларида ўқувчиларнинг ижодкорлигини оширишнинг муаммоли таълим беришни йўлга қўйиш жиҳатларига эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ,деб ўйлайман.

Муаммоли таълим, педагоглар томонидан XX асрнинг 70-80 йилларида олиб борилган узлуксиз изланишлар ва тажрибаларнинг илғор

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

натижасидир. Муаммоли таълим ўқитувчининг фаолиятидаги икки фикрни, яъни ўқувчига бериладиган билимнинг қайси қисмини, қандай йўл билан бериш фикрини самарали ҳал қилинишидир. Муаммоли таълим, дарсда бир вақтнинг ўзида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги ҳаракатидир. Дарсда ўрганиладиган мазмуннинг мураккаб қисмини ўзлаштиришда ўқитувчининг фаолияти қайси даражада бўлса, ўқувчилар фаолиятини хам шу даражага етказишдир. Муаммоли таълим асосан ўқувчиларнинг эркин фикрлашларига ва ушбу фикрни баён қилишларига қаратилган бўлиб, уни янада ривожланишига таъсир этишдан иборат. Муаммоли таълим ўқувчи шахсидаги муҳим белгилар, ижодий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиради. Бунинг учун ўқитувчи тайёр ва қўшимча билимларга таяниб ўқувчиларнинг фикрлашларини турли йўналишларга қаратади, яъни;

а) диққат билан тинглаш;

б) мустақил, ёлғиз фикрлаш;

в) жамоа бўлиб фикрлаш;

г) таҳлил қилиш;

д) кўпчилик бўлиб муҳокама қилиш;

е) фикрни баён қилиш;

ё) тегишли мантиқий ишларни бажариш ва хоказо.

Юқоридаги йўналишларнинг мақсади ўқувчиларнинг ҳаракатларини ҳар томонлама фаоллаштиришдан иборат. Демак, агар ўқувчилар ўқитувчининг топшириғини фаоллик билан эшитсалар, уни таҳлил қилиб аниқ фикр билдирсалар ва шунга мувофиқ бирор кўринишдаги амалий ишни бажарсалар, ўқув жараёни фаоллик билан олиб борилди, деб баҳолаш мумкин.

Шу билан бирга, ўқитувчи янги мавзуни ўрганишда баён усулини қўллаб, баённи таъсирли қилиб, кўргазмалардан унумли фойдаланса, баён ниҳоясида айрим ўқувчилар билан амалий ишлар олиб борилса, ўқув жараёни фаол бўлди, ўрганиш самарали бўлди деб, ҳисоблаш мумкин.

Шуни айтиш жоизки, юқоридаги икки ҳолатда ҳам ўқувчиларнинг фаолияти ўқитувчи томонидан турли йўналишларга қаратилмоқда.

Муаммоли таълим ўқитувчидан аниқ ҳаракат қилишни, вақтни тўғри тақсимлаб, машғулотларнинг самарасини олдиндан англашни талаб қилади. (Яъни ўқувчининг изланишида янги тушунчалар топишини талаб қилувчи ҳаракатлари бўлиши зарур). Бу масалани ҳал этишнинг муҳим шартларидан бири ўқитувчининг бўлажак ўқув машғулотига тайёргарлигидир. Тайёргарликда муаммоли таълимнинг барча кўринишларини ҳисобга олиш, мавзу учун тегишли шаклни аниқлаб, унинг усулини ишлаб чиқиши зарур. Шундагина машғулотлар Давлат таълим стандартида берилган қуйидаги талабларни бажариш имкониятини яратади.

1. Жаҳон мамлакатларида ёки айрим жамиятда кечаётган жараён ва ундаги воқеаларга ўқувчиларнинг мустақил фикр ёки муносабат билдира олишлари.

2. Тарихга оид манбаларни мустақил ўрганиш йўли билан тегишли билимларни ўзлаштиришлари.

3. Ўзлаштирилган билимни таҳлил қилиш, таққослаш, ҳамда исботлаш, хулоса қилишлари.

4. Илмий билимларни пухта ўзлаштиришлари натижасида тегишли маълум бир тарбиявий ҳулосага келишлари ва ҳ.к.

Муаммоли таълимнинг маълум шаклларидан бирини танлаш ва қўллашда қатор қийинчиликлар мавжуд. Бу қийинчиликлар хатто тажрибали ўқитувчиларда ҳам намоён бўладики, булар ўқитувчи касбий маҳоратининг даражасига қараб шаклланади.

Муаммоли таълимга тайёргарлик кўришда асосан тўрт қийинчилик мавжуд.

**Биринчи қийинчилик,** танланган муаммоларни шакллантиришда ва муаммони ўрганиш усулида кўринади. Бу усул ўқув материалини ўзлаштиришнигина таъминламасдан, ўқувчиларнинг билувчанлик фаолиятларидаги мустақилликни таъминлаши зарур. Бу қийинчиликнинг ечими ўқувчилардан қайта жавоб олинганда ва бу жавобнинг тўғрилигида кўринади.

**Иккинчи қийинчилик,** муаммоли таълимнинг кўринишини аниқлаш ва уни синфдаги барча ёки айрим, гурух ўқувчиларига бажартиришда кўринади. Бу қийинчилик ўқитувчида муаммоли вазият ва муаммоли баён ҳақида тасаввурнинг етишмаганлигидан келиб чиқади.

**Учинчи қийинчилик,** ўқитувчининг янги тушунчаларни муаммолаштиришда, уларни табақалаштиришда, тақсимлашда ва уларни ўқувчилар томонидан бажарилишларида кўринади. Чунки, қўйилган муаммони ечишда хар бир ўқувчи уни ўзича талқин қилади.

**Тўртинчи қийинчилик,** ўқитувчининг дарсда ўқувчиларни қизиқишини уйғотиши ва уни узлуксиз ривожлантириб боришида кўринади. Чунки, ўқувчи диққатини бир нуқтага мунтазам тўплашда ўқитувчининг тажрибаси етишмаслиги мумкин.

Ҳозирги замон педагогикасида муаммоли таълим илмий-услубий жиҳатдан тўрт босқичдан иборат (М.И.Маҳмутов).

1. Муаммоли вазиятни яратиш (шакллантириш).
2. Муаммони қўйиш.
3. Муаммони ҳал қилиш.
4. Мантиқий ишлар (натижани текшириш).

Мен кўп йиллик тажрибаларимга асосланиб, тарих фанини ўқитишда муаммоли таълим усулини қўллашнинг ўзига хос шаклланишига эриша олдим.

Муаммоли вазиятни ўқув машғулотларининг барчасида шакллантириш мумкин. Уни қанчалик кўп шакллантириш ўқитувчига боғлиқ. Муаммоли вазиятнинг аҳамияти шундаки, у ўқувчиларнинг диққатини бир нуқтага, яъни муаммога каратади. Бу эса баённинг таъсирчанлигини оширади, ҳамда ўқувчиларнинг маълум

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

даражада изланишларини ташкил қилиши билан ўзлаштириш сифатига ҳам ижобий таъсир қилади. Муаммоли вазиятни ўрганиладиган мавзунинг режаси юзасидан бошлаб, мазмуннинг исталган жойида шакллантириш мумкин. Ўқитувчи мавзу ва унинг режасини ўқувчиларга топширганда, ушбу режанинг қайсилари мураккаб эканлиги ва шу жойда нималарга диққат қилишлари зарурлигини айтиши мақсадга мувофиқдир.

**Муаммоли баён** оддий баёндан фарқ қилади.Оддий баёнда ўқувчиларда мазкур тарихий воқеага қизиқиш ҳосил бўлсада, мазкур билим юзасидан уларнинг фикран изланишлари шаклланмайди. Чунки, тарихий жараёнлар ёки воқеалар дарсликда қандай ифода этилган бўлса, баёнда худди шундай қилиб берилади ёки ўрганилади.

Муаммоли баённинг афзаллиги шундаки, ўқитувчи баёндан сўнг ўқувчилар учун зарур бўлган фикрларни ўзларига айттиради. Аммо, баёнда ўқитувчи ўша фикрларни аниқлашлари ва айтиб беришларига ёрдам берувчи далилларни ёки фикрларни тартиб билан келтиради.

Баёнда ўқитувчининг келтирган илмий далиллари аниқ бўлиши, мазмунга мос келиши зарур. Баёнда ўқитувчининг касбий маҳорати ҳам аҳамиятлидир. Ўқитувчи нутқининг равонлиги, таъсирчанлиги билан барча ўқувчиларни мавжуд муаммога жалб қила олиши кутилган натижага олиб келади. Демак, ўқитувчининг маҳорати мақсадга мувафиқ бўлса, самарадорликка эришди, деб ҳисоблаш мумкин. Муаммоли баён ўқувчиларнинг ижодий изланишларига ва билиш қобилиятларига таъсир этади. Бу фикрнинг қай даражада ҳал этилганлиги ўқувчилардан қайта жавоб олинганда янада маълум бўлади.

Ўтказилган тажрибалардан маълум бўлдики, тарих ва ҳуқуқ фанига оид мавзуларни тўлиқ муаммоли баён усулида олиб бориш мумкин эмас. Агар шундай қилинса ўқитувчи вақтдан ютқазади. Муаммоли баённи мазмуннинг тегишли жойларидагина, яъни мазмуннинг мураккаб жойларида ўқувчиларнинг ўзлаштириши зарур бўлган мазмун юзасидан қўллаш тавсия этилади. Демак, ўқувчи муаммоли баён усулини мавзу мазмунининг қайси жойида қўллаш масаласини дарсга тайёргарлик жараёнида ҳал этиши керак бўлади.

Муаммоли баённи тарихий шахсларнинг ҳаёти, давлатни бошқаришдаги фаолияти, тарихий шахсларнинг қўзғолон ёки ўзаро урушлардаги фаолиятлари, мамлакатларнинг табиий ва иқтисодий ҳолати, меҳнат, ишлаб чиқариш ёки уруш қуролларининг таҳлили давлатларнинг ташқи сиёсати ва экологик муаммолар, халқларнинг этнографияси, санъат асарлари, меъморчилик обидалари каби муаммолар юзасидан ташкил этиш мумкин. Аммо мавзу баёни учун тайёргарликда қуйидаги услубий шартларга амал қилиш керак бўлади.

1. Баён учун керакли материалнинг етарлилиги ва тўлалиги, қўшимча далилларнинг мавжудлиги;

2. Мазмуннинг мураккаблик даражасини аниқлаш ва уларни ўқувчиларнинг билувчанлик қобилиятларига мувофиқлаштиришнинг зарурлиги;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3. Баён темпининг тўғри олиб борилиши. Агар баён тез бўлса, уни ўқувчилар ўзлаштира олмайди ва натижада фикран изланишлари амалга ошмайди. Бу жараён секин бўлса, таъсирсиз бўлади ва ўқувчилар зерикади, вақт бекор кетади.

Муаммоли таълимнинг навбатдаги кўриниши ўқувчиларнинг дарс жараёни ёки дарсдан кейинги вақтларда бажарадиган **мантиқий ишлардир.**

Мантиқий ишлар оддий ўқув ишларидан (дарсликлардан кўчириш, синф доскасидан кўчириб олиш, ўқитувчи баёнидан эшитганларини ёзиб олиш, оддий жадвалларни тўлдириш в.х) фарқ қилади.

**Мантиқий ишлар** – ўқувчилар олдига ўқитувчи томонидан қўйилган муаммони ҳал этиш йўлидаги амалий ишлар ва унинг натижасидир. Мантиқий ишларнинг асл мақсади ўқувчиларнинг фикран изланишларини кучайтириш йўли билан режалаштирилган ўзлаштиришларни таъминлаш билан бирга, уларни узоқ эсда сақлашларига эришиш ҳамда ўқувчиларда бир неча кўникма ва малакалар ҳосил қилишдир.

Ўқувчилар фикран изланиши жараёнида ўйланади, мазмуннинг тегишли жойларида тарихий воқеа ёки жараёнларни таҳлил қилади, таққослайди, жамлаган билимлари асосида хулоса қилади. Шунинг учун мантиқий ишларга унинг мақсади ва аҳамияти нуктаи назарини ҳисобга олиб эътибор бериш зарур. Мантиқий ишлар қандай шаклда бўлмасин, уларни ўқувчилар томонидан қачон, қаерда бажаришларидан қатъий назар ягона мақсадга, - ўқувчилар ўзлаштириши шарт бўлган мазмунга асосланиши зарур. Мақсад - ўзлаштириш сифатини яхшилаш, ўқувчиларнинг узоқ вақт эсда сақлаб қолишларига эришишдир.

Мантиқий ишлар натижасида ўқувчилар, ўқитувчи томонидан ёки унинг кўмагида тарихий воқеа ёки жараён ҳақида маълум тушунчага эга бўладилар.

Юқори синфларда ёки академик лицей, касб-ҳунар коллежларининг юқори курсларида эса мураккаб мавзулар жуда кўп. Айникса, жаҳон тарихининг XIX-XX асрларига оид мавзуларнинг ҳажми катта, уларда мураккаб тушунчалар ҳам бисёр. Ўқитувчи машғулотлари айнан ўша мавзулар юзасидан ўтказилган машғулотлари жараёнида муаммоли баён, муаммоли вазият ҳамда тегишли савол-жавоблар билан минимал даражада ўқувчиларнинг ўзлаштиришига эришмоғи мумкин. Ўзлаштирилган билимларни яхлит ҳолга келтириш, уни илмийлигини талаб даражасига кўтариш, ўқувчиларни шу билимлар юзасидан аниқ хулоса қилиш, ҳамда тарихий жараёнлар улар ишончининг шаклланиш имкониятларини муаммоли баён ёки вазият яратиб беради, айрим ҳолатларда мантиқий ишлар аҳамиятли бўлиб кўринади ва ўз исботини беради.

Бунинг учун ўқитувчи мантиқий ишларни танлашда, аввало, мазкур ўрганилаётган мавзунинг мураккаб қисмини ўзлаштиришдаги аҳамиятини ҳисобга олиши, мантиқий ишнинг ҳажмига эътибор бериши ва унга сарфланадиган вақтни, материалнинг етарли эканлигини, мантиқий ишни ўқувчи-талабалар томонидан бажара олиш имкониятини олдиндан ҳисоблаши зарур. Акс ҳолда мақсадга эришиш қийин.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Мантиқий ишларни шаклан кичик кўринишлари  дарс жараёнида (вақт чегараланганлиги ҳисобга олиниб) берилади.

Мантиқий ишлар айрим ҳолатларда бир бутун дарсни тўла қамраб олиши мумкин. Такрорлаш, умумлаштириш  дарслари бунга мисол бўла олади. Бунинг учун ушбу дарс турини ноанъанавий машғулотга  айлантириш ва «Инновацион усул» даражасига кўтариш лозим (булар ҳақида тегишли мавзуларда алоҳида тўхталамиз).

Такрорлаш-умумлаштириш дарсларида тест ёрдамида амалга ошириладиган машғулотга айлантирилса, юқоридаги фикримиз қисман ўз ечимини топади.

Тест тузиш ёки «тест» ечиш машғулотларини ўқувчиларнинг мантиқий ишлари дея олмаймиз. Бу оддий амалий машғулот сифатида намоён бўлади. Бундай дарсни машғулотни мантиқий ишлар даражасига кўтариш учун ўқувчиларга мақсадли  тест тузишни ўргатиш ва машғулотни тўла шунга йўналтириш лозим.  Буни лабаратория иши дейиш ҳам мумкин.

Демак, мантиқий ишлар турли кўринишларда шаклланса-да, унинг-умумий йўналиши бир хил бўлади ва жадвалда қуйидагича ифода этилади.




Мантиқий ишларни қуйидаги йўналишларда  ташкил этиш мумкин:

- жадвални тўлдириш ва тегишли саволларга жавоб топиш;
- жадвални таҳлил қилиш, қўйилган муаммони ҳал этиш;
- дарсликгидаги расмлардан бирини таҳлил қилиб, ҳикоя ёзиш;
- хат бошини ўқиб, мазмунга қараб сарловҳа топиш;
- икки тарихий воқеа ёки муҳитни таққословчи жадваллар  тузиш;
- меҳнат қуролларининг  ишлаб чиқаришдаги хизматларини ёзма  баён қилиш;
- санъат асарлари, меъморчилик ёдгорликлари, қадамжоларни ўрганиш, ёзма ахборотлар тайёрлаш;
- тест тузиш ёки тестларни таҳлил қилиш ва ҳ.к.

**Замонавий педагогик технология** таълим жараёнига кириб келган турли кўринишдаги янги усуллар бўлиб, унинг мазмуни, ўқувчилар фаолиятининг фаоллашувига қаратилган. Мақсади ва моҳияти жиҳатидан ўқув жараёнида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорлигини шакллантириб, тарихий билимларни фаоллик билан эгаллаш ва уларни фаоллик билан намойиш этишга йўналтиришдир.

Ўқитувчининг ўз фаолиятида ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш учун қилинган ҳаракати қўйилган муаммоларнинг ечимини топишда, хулоса қилишдаги ҳатти ва ҳаракатларни ўрни келганда кўпроқ ўқувчилар зиммасига юклаб қўйилиши

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

янги педагогик технологиянинг мазмунини, ўзлаштиришнинг самарали йўлларининг топилиши эса унинг мақсадини ифода этади.

Педагогик технология таълим жараёнига «Ақлий ҳужум», «Танқидий тафаккур», «Нуқтаи назаринг бўлсин», «Дебатлар», «Ҳар ким ҳар кимга ўргатади», «Кичик гуруҳларда ишлаш» «Инсерт», «Кластер» каби кўринишларда кириб келди ва ҳозирги кунда уларнинг сони 100 га яқинлашди. Лекин, уларнинг шакл ва усуллари ҳар хил бўлишидан қатъий назар мақсади ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш, тарихий билимларини пухта ўзлаштириш ва тегишли малакаларни шакллантиришни таъминлашдан иборат.

Муаммоли таълимнинг, мақсади ҳам ўқувчилар фаолиятини ўқитувчининг фаолияти билан тенглаштириш уларни бир – бири билан ҳамкорликда ишлашларини шакллантиришга қаратилган. Китобхонларга фикримизни янада тушунарли бўлиши учун педагогик технологиянинг айрим кўринишларини муаммоли таълим нуктаи назардан таҳлил қилишга тўғри келади.

Ақлий ҳужум - синфдаги ҳар бир ўқувчига ўқитувчи қўйган савол ёки муаммолар юзасидан ўз фикрини баён этишга имкон берувчи усул. Яъни, ўқитувчи машғулот жараёнида, материалнинг ўқувчилар учун зарур бўлган жойда ўзлаштиришнинг самарали бўлишини ҳисобга олиб фаоллик кўрсатади ва ўқувчиларга ақлий хужумни ташкил этади. Ақлий хужумни ўқитувчи маълум муаммо юзасидан ташкил этиши табиий. Ўқитувчи тайёргарликда ўқувчилар диққатини нимага қаратиш ва шунда қандай усулни қўллаш масаласини ҳал қилиб олади. Масалага шу томондан баҳо берсак, ақлий хужум - муаммоли вазият ва муаммоли баён усулининг янгича кўринишидир.

Аниқ қўйилган муаммони ҳал қилувчи вазият ва шу муаммонинг ечимига ёрдам берувчи баёнгина ўқувчиларнинг ушбу муаммони ечиш юзасидан фикран ҳаракат қилишини шакллантиради.

Оқмачит қалъаси учун бўлган жанг ҳақидаги ҳикояни тинглаб таҳлил қилиб боринг. Мудофаачиларга ғалаба учун нималар етишмади, деган муаммони яратмасдан туриб ўқувчиларнинг ақлий ҳужумини уюштириб бўмайди.

Ёки «Мен ҳозир Римда уч императорнинг фаолиятини гапираман. Сизларга қайси императорнинг қилган ишлари маъқул келди, нима учун?»

Император Константинни қайси ишлари салтанатни мустаҳкамлашга ёрдам берди? деган муаммони яратиб, сўнгра баён қилиш натижасида ақлий ҳужум шаклланади. Ушбу муаммо қўйилмаса-да, ўқитувчи уч императорнинг фаолиятини баён қилса, ўқувчилар фикран изланадими? Қайси масалада фикр билдиришни ўзлари ҳал қила оладими? Йўқ!

Демак, ақлий ҳужум - ҳеч қачон муаммоли вазият ёки муаммоли баёнсиз шакллана олмайди. Ақлий ҳужум - муаммоли таълимнинг таркиби эканлиги табиийдир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

«Танқидий фикрлаш» - ўқувчи қўйилган муаммолар юзасидан ўз фикрини баён қилиш, ўзгаларнинг фикрига нисбатан ижобий ёки танқидий идрок этиш ва фикр билдиришда ўз нуқтаи назарини асослаб беришидир.

Бу усул муаммоли баёндан сўнг ўқувчиларнинг ўз фикрларини билдиришда ёки мантиқий ишлар бажарилгандан сўнг жамоа бўлиб муҳокама қилиш ва муносабат билдиришда намоён бўлади.

Айрим мавзулар юзасидан тегишли адабиётларни ўрганиш ва шу асосда ўқувчилар мунозарасини уюштириш «Танқидий фикрлаш» усулини шакллантиради. Унинг янада самарали бўлишини таъминлаш учун машғулотни (такрорлаш-умумлаштириш дарслари) мунозара кўринишида ташкил этиш зарур.

«Дебат» - замонавий педагогик технологиянинг самарали усулларидан биридир. Чунки, бу усулда ўқувчи ўз нуқтаи назари билан синфдаги барча ўқувчиларнинг баҳслашувида фаол иштирок этишларини таъминлайди. Чунки, дебат жараёнида ўз фикрини билдириш имкониятига эга бўлади. Бунинг учун ўқитувчи саволларни ана шу мақсадга мувофиқлаштириши зарур.

«Нуқтаи назаринг бўлсин» усули ўқувчилар ўртасида юзага келган мунозара жараёнида ўз фикрларини ўз синфдошларидан уларнинг нуқтаи назарини ўзгартиришга олиб борилган ғояларни эшитиб ўзгартириши ёки аввалгисини мустаҳкамлаш имконини беради. Бу усул баҳс-мунозара дарслари ҳамда семинар машғулотларида амалга оширилади. Масалан, «Амир Темурнинг салтанатни бошқариш" усуллари «Темур тузуклари»да ифода этилиши, «иккинчи жаҳон уруши давомида Ўзбекистон халқи инсонпарварлигининг шоир ва ёзувчилар асарларида ифода этилиши» каби мавзуларда ўтказиладиган баҳс-мунозаралар тегишли самараларни беради.

«Ҳар ким ҳар кимга ўргатади», усули кўпроқ мантиқий ишларда намоён бўлади ва самара беради.

Чунки, бу усулда ўқувчилар ўргатувчига айланиш, маълум билимларни ўзлаштиргач, ўртоқлари билан баҳам кўриш имконини беради. Масалан, фан ва маданият мавзуларини ўрганишда асосий муаммолар: фанларнинг шаклланиши ва тараққиёти, илмий кашфиётлар ҳамда адабиёт ва тасвирий санъат, меъморчиликларни ўрганишда лаборатория ишлари яхши натижа беради. Лаборатория ишини ҳар бир ўқувчи ўзи билганча бажаради. Шунда айрим ўқувчилар иқтидорли ўқувчилардан ўрганиши табиий. Иш ўқитувчи раҳбарлигида бажарилади. Чунки, ўқувчилар ўртасидаги иш тақсимотида ўқитувчи ушбу усулнинг самара беришини ҳисобга олади.

Умумий ўрта таълим мактабларида ҳар бир фан бўйича ўтиладиган дарс ва синфдан ташқари ташкил қилинадиган ишларнинг асосини ўқувчи ёшларнинг ижодкорлигини оширишга қаратилган таълим технологиялари ташкил қилади.

Замонавий педагогик технологиянинг барча усуллари ижросидан шундай хулоса келдики, муаммоли таълим - педагогик технологиянинг услубий асосидир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Муаммоли таълимни бир дарахт деб фараз қилсак, муаммоли вазият, муаммоли баён ва мантиқий ишлар унинг йирик шохларидир. Замонавий педагогик технология эса, ушбу учта ҳосил бўлган янги шохларидир. Уларни бир-биридан ажратиб бўлмайди. Муаммоли таълимнинг янги педагогик технологиядан афзаллик томонлари ҳам бор. Яъни муаммоли таълимда ўқитувчининг жонли нутқига эътибор берилган. Янги мавзуни ўрганиш жараёнида ёки ўрганиб бўлинганидан кейинги ўқитувчининг жонли нутки мазмуннинг тарбиявийлигини оширади, ўзлаштириш сифатини яхшилайди. Янги педагогик технология усулларида эса ўқитувчининг жонли нутқи ҳақида фикрлар берилмаган.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий педагогик технологияни самарали қўллаш учун, аввало, муаммоли таълимни ўрганиш, ўзлаштириш ва амалда қўллай билиш малакаларига эга бўлиши керак бўлади.

Муаммоли таълимни янги педагогик технология билан қўшиб олиб борилса таълим мазмуни чуқурлашади, тарбиявийлик кучаяди. Яъни Давлат таълим стандарти талаблари бажарилади.

Ўқитувчи ўзининг меҳнат фаолиятида албатта илғор педагогик технологиялар асосида дарс ўтишга эътиборини қаратмоғи керак бўлади. Ўқувчининг ижодкорлигини ошириш, қобилиятли болалар билан ишлашда бу муҳим саналади.

Тўплаган тажрибаларимга асосланиб ўқитувчиларга қуйидаги тавсияларни беришни лозим,деб ўйладим.

Ўқитувчи, аввало, дарсларни интерфаол усулларда ташкил қилиши ва ўтиши, муаммоли таълимдан фойдаланиши, дарс жараёнида ишчанлик ўйинларидан фойдаланиши, мустақил ўқиб-ўрганиши учун топшириқлар бериши, кўрсатмалиликдан фойдаланиши-дарс самарадорлигининг ошишига сабаб бўлади.

Демак, ўқитувчи ушбу тавсияларни амалга ошириши учун доимо ўз устида ишлаши ва ҳар томонлама билимини ошириб бормоғи талаб этилади.

## ***ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:***

1. Мирзиёев Ш.М. "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз". Т.,2017
2. Ахмедов В. "Тарихдан сабоқлар", Т., "Ўқитувчи", 1994.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. 3-китоб. Шарқ. Т., 2000.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. т.1-2.-Т., ЎзМУ нашриёти, 2000-2001.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006.
6. Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

7. Саидахмадов Н., Очилов М. «Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойихаси». - Т.: ХТБ РТМ, 1999.
8. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.
9. Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006
10. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. -Т: "Ўқитувчи", 2004.
11. Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим янгиланиш йўлида. -Т.: "Ўқитувчи". 2000.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих дарсларида кўрсатмали методдан фойдаланишнинг ўқувчи тасаввурини кенгайтиришдаги роли ва аҳамияти

Адирова Ўғилой Абдуллаевна

Сурхондарё вилояти Термиз тумани

30-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Тарих ўқитишнинг кўрсатмали методи..Кўрсатмали куроллардан фойдаланиш ҳақида. Тарих фанидан кўрсатмалилик асосидаги дарсларни ташкил этишда педагогик технологиялардан фойдаланиш.

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим сифатини янада ошириш борасида қатор ишлар амалга оширилиб борилмоқда. Бу борада, ўқитувчининг дарс самарадорлигини оширишда ва юқори натижаларга эришиши учун барча шароитлар мавжуд ва имкониятлар бор. Дарс сифатини оширишда ўқитувчи замонавий ёндошувларга асосан дарсларни ташкил қилиб ўтиши муҳимдир. Жумладан, дарсларни кўрсатмали методлар асосида ўтиш дарс самарадорлигига эришишда янада ижобий натижага олиб келади.Кўрсатмалилик деганда, аввало ўқитиш ва тарихий билимларнинг ўрганишнинг кўрсатмали усули, ўқитувчи баёнинг манбаи ва уни кўрсатмали бўлиши, унинг ўқувчилардаги аниқ, тайёр образларга суяна билиши, ўқув воситаси материалини баён қилиш вақтида кўрсатмали қуроллардан фойдаланиш ва кўрсатмали қуроллар воситасида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш ҳамда уларнинг ўрганилаётган тарихий фактларни, воқеа ва ҳодисаларни айнан ўзини ёки уларнинг тасвирларини кўриш ёрдамида ўрганишлари тушунилади.

Тарихий хужжатлар ва бадиий адабиётлардан фойдаланиш ўқитувчи баёнини образли қилиб аниқлаштирса, кўрсатмали қуроллар воситасида ўқувчиларда ўтмиш тўғрисида ёрқин ва аниқ тасаввур ҳосил бўлади, ўқувчиларнинг эшитиш фаолиятига кўриш ва сезиш органларининг фаолияти ҳам қўшилади. Шу билан уларнинг билими янада чуқурлашади, мустаҳкамланади.

Тарих ўқитишнинг кўрсатмали бўлишининг таълимий ва тарбиявий аҳамияти ҳам катта. Аввало кўрсатмали қурол ўқувчиларнинг билим олишида муҳим манба

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бўлиб хизмат қилади. Ўқитувчининг баёни ҳар қанча тўлиқ бўлганда ҳам ўқувчиларнинг воқеалар тўғрисидаги тасаввурлари тўла бўлмайди. Шунингдек, безаклардан фойдаланмай туриб, ўрганилаётган даврнинг манзарасини ҳам тўла, аниқ ва чуқур тасаввур қилиб бўлмайди.

Кўрсатмали қуроллар ўқувчиларнинг тарихий тасаввурларига аниқлик киритиш ва бу тасаввурларни аниқлаштиришга ёрдам беради.

Кўрсатмали тасвирлар тарихий факт ва ҳодисаларнинг ташқи кўринишинигина эмас, балки уларнинг ички моҳиятини ҳам очиб беради.

Кўрсатмали қуроллар ўқувчиларнинг мураккаб тарихий ҳодисаларни, тарихий тушунчаларнинг маъносини осонроқ тушуниб олишларига ёрдам беради.

Кўрсатмали қуроллар ўқувчиларда тарихий тушунчаларни шакллантиришга, уларнинг назарий хулосалаш ва умумлаштиришга, якунларини, ижтимоий ривожланишнинг объектив қонуниятларини, ўзаро алоқаларни яхшироқ тушуниб олишларига ёрдам беради, шунингдек, ўқувчиларни эстетик жиҳатдан тарбиялашнинг муҳим воситаси бўлиб ҳам хизмат қилади.

Шу тариқа, кўрсатмалиликнинг аҳамияти тарихий фактларни, ҳодисаларни кўриш органлари иштирокида мушоҳада этиш ва улар ҳақида аниқ тасаввур ҳосил қилиш билан чегараланмайди, мураккаб тарихий ҳодисаларни, тушунчаларни тушуниб олишни ҳам енгиллаштиради, тарихни ҳаққоний тушунишга ёрдам беради.

Шундай қилиб, кўрсатмалилик методи:

1) тарихий билимларнинг асосий манбаларидан бири бўлиб хизмат қилади;

2) ўқув материалининг таълим-тарбия вазифаларини муваффақиятли амалга оширишга ёрдам беради;

3) ўқитувчи баёнининг аниқ, образли ва таъсирчан бўлишига ёрдам беради;

4) ўқувчиларнинг ўқув материалини ўрганишга қизиқишини оширади ва уларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиради;

5) ўқитувчининг баёнини ва унинг дарсда қўлланган бошқа ўқув усулларини ўқувчиларнинг тушуниб олишини енгиллаштиради;

6) ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятини ва ижодий қобилиятини ўстиради;

7) ўқувчилар билимининг аниқ, чуқур ва мустаҳкам бўлишига ёрдам беради.

Кўрсатмали қуроллар ўзининг мазмуни, тарихий образларнинг характери, уларни тайёрлаш техникаси ва фойдаланиш усулларига қараб қуйидаги турларга бўлинади:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1. Предмет кўрсатмалилик - тарихий ёдгорликлар, эсдалик жойлари, меъморий ёдгорликлари хўжаликка доир ва бошқа қурилишлар, меҳнат қуроллари, қурол-яроғлар, рўзғор буюмлари, шу жумладан археологик топилмалар.

2. Тасвирий кўрсатмалар - ўқитишда фойдаланиш учун ишланган тарихий суратлар ва альбомлар, санъат асарлари, портретлар, расмлар, фотоҳужжатлар ва фотонусхалар, дарсликлардаги безаклар, ўқув диапозитивлари, диафильмлар ва кинофильмлар, макетлар, муляжлар, ҳар хил моделлар ва бошқалар.

3. Шартли кўрсатмали қуроллар - тарихий ва контур хариталар, тарихий атласлар, схемалар, графика, диаграмма ва картограммалар, аппликациялар ва педагогик расмлар.

*Предмет кўрсатмалилик* таълимда алоҳида аҳамият касб этади. Физика, химия ёки ботаника ўқитувчилари ўрганилаётган мавзуни ўқувчиларга формула, шакл ва бошқаларда кўрсатиб тушунтирсалар тарих ўқитувчиси ундай имкониятдан махрумдир. Тарих ўқитувчиси ўқувчиларга ибтидоий одамлар ҳаёти ва фаолиятининг айнан ўзини кўрсатиб беролмайди, фақат гапириб беради, кўрсатса фақат ибтидоий киши ишлатган қуролларни, яшаган жойларини, ёки айтайлик феодалларнинг ўзаро урушларини эмас, урушда ишлатилган қуролларни ва бошқа баъзи буюмларни, лекин ҳар ҳолда кишиларнинг ўтмишидан қолган бу ёдгорликлар тарихий воқеалар тўғрисида реал тасаввур қилишга сўзсиз ёрдам беради. Ўқувчилар орадан бир неча асрлар, хатто неча-неча минг йиллар ўтиб кетган замонлардаги воқеалар тўғрисида маълумот берувчи ҳақиқий буюм ва нарсаларни жуда қизиқиш ва ҳаяжон билан ўрганадилар. Шунинг учун ҳам ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарихий ўтмишни ўрганишнинг асосий манбаларидан бири бўлган бу ёдгорликларни тўплаш ва улардан фойдаланишга жуда катта эътибор берилади.

*Тасвирий кўрсатмали* қуроллар ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тажрибасида кўпроқ қўлланилади. Тасвирий кўрсатмалар бир неча хил бўлади:

а) ўтмишдан қолган ҳақиқий асл нусха ҳужжатлар асосида яратилган тасвирий кўрсатмалар, ҳужжатли фотосуратлар ва ҳужжатли кинофильмлар, предмет ёдгорликларининг тасвирлари, меҳнат қуроллари, маданий ёдгорликларнинг тасвирлари ва бошқалар.

б) илмий жиҳатдан асослаб қайта тикланган меъморий ва бошқа ёдгорликлар тасвири, рўзғор буюмлари ёки уларнинг тасвири;

в) рассомнинг ижодий фаолияти билан қилинган тасвирий кўрсатмалар; тарихий санъат асарлари, дарсликда берилган иллюстрациялар, макетлар, моделлар ва бошқалар.

Кўрсатмали қуролларни танлаш ва улардан фойдаланишда ўқитувчи қуйидагиларни эътиборга олиши лозим:

1. Ўқувчиларнинг ёши, билими ва малакалари ўсиб борган сари уларнинг предмет ва тасвирий кўрсатмаларга қизиқиши ортиб боради. Масалан, 5-6-синф ўқувчиларини кўпроқ ўтмишдаги воқеа ва ҳодисаларнинг яхлит манзаралари тасвирланган картиналар, макетлар ва моделлар қизиқтиради. Юқори синфлардаги ўқувчиларни эса предмет ёдгорликларининг айнан ўзи ва шартли кўрсатмалар қизиқтиради.

2. Ҳар бир дарс учун танланган кўрсатмали қурол мазмуни, ғоявийлиги, илмийлиги жиҳатидан талабга жавоб берадиган бўлиши, синф ўқувчиларига мос бўлиши, сони кўпайтириб юборилмаслиги лозим. Агарда кўрсатмали қуроллар кўпайиб кетса, ўқитувчи ва ўқувчилар шу қуроллар билан овора бўлиб қолиб, ўқувчиларнинг дарс материалини ўзлаштиришларига ҳалақит бериши мумкин. Дарсда энг муҳим 2—3 та кўрсатмали қуролни тахлил қилиш ва ўрганиш кифоя.

3. Ўқувчиларнинг кўрсатмали қуролларни онгли равишда пухта ўзлаштириб олишларига эришиш керак. Бунинг учун масалан, ўқитувчи "Полтава жанги"нинг чизмасини тушунтиришдан олдин, ўқувчиларни Карл XII нинг Россияга юриши, Украина ҳудудида олиб борилган жанглар билан таништиради. Сўнгра жанг чизмасини деворга илиб қўяди ва уни бўлимларга бўлиб ўқувчиларга ҳар бир бўлимни алоҳида тушунтириб беради.

4. Кўрсатмали қуроллар ўқитувчининг баёни жараёнида кўрсатиб борилади.

Тарих ўқитишда қўлланиладиган — тасвирий кўрсатмали воситалар ичида ўқув суратлари муҳим ўрин тутади. Суратлар ўрганилаётган воқеалар ва ҳодисалар ҳақида ўқувчиларда ёрқин тасаввур ҳосил бўлишига ёрдам беради. Тарихий мавзуларга бағишланган суратлар мазмуни ва характерига қараб қуйидаги турларга бўлинади:

1. *Воқелик суратлари.* Уларда муҳим воқеалар, ижтимоий ҳаётдаги ноёб фактлар, ҳарбий ҳаракатлар ёритилади. Масалан, бу суратлар ўқитувчидан воқеани ёрқин ҳикоя қилиб беришни, воқеанинг ривожланиши ва ундаги драматизмни очиб беришни талаб этади. Шундагина картина ўқувчиларга аҳлоқий ва ғоявий таъсир этиши мумкин.

2. *Ўрганилаётган давр учун типик бўлган воқеаларни акс эттирувчи суратлар.* Масалан, «Қадимги Грецияда қул савдоси». Суратнинг бу тури катта бир воқеани ёки унинг бир кўринишини ўрганиш билан боғлиқ бўлган ҳамма саволларга жавоб беради. Улар устида ўқувчиларнинг фаол мустақил ишларини ташкил этиш хам мумкин.

3. *Қадимги шаҳарлар, қурилишлар, меъморий ёдгорликлари ёки уларнинг ансамбли тасвирланган тарихий суратлар.* Масалан, "Қадимги дунё тарихи"

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

дарслигида берилган «Афина Акрополи» ва бошқалар. Картиналарнинг бу турини ўқитувчи ўқувчиларга муфассал тасвирлаб тушунтириб беради. Масалан, ўқувчиларни Акрополга хаёлан экскурсия қилдириш.

4. *Тарихий портретлар.* Улар устида ўқувчилар мустақил иш олиб борадиган бўлса, улар тарихий шахсларнинг ҳаёти ва фаолиятини оғзаки ёки ёзма равишда ҳикоя қилиб беради.

Шу тариқа, суратлардан фойдаланиш ва улар устида ишлаш методлари уларнинг мазмуни ва характери билан белгиланади. Ҳозирги вақтда ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарих курсининг деярли ҳамма бўлимлари юзасидан ўқув суратлари яратилган.

*Суратлар билан ишлаш.* Суратлардан унумли фойдаланилиши, уларнинг ўқитишдаги роли ва ўрнини яхши тушуниб олинишига боғлиқ. Суратлар кўрсатмали қуролларнинг ҳамма турлари сингари ўқувчилар учун фаол билим олиш манбаи бўлиб хизмат қилади.

Юқори синфларда суратнинг характери ва уларнинг вазифаси қуйи синфлардагидан кўра бирмунча ўзгаради: сурат юзасидан ҳикоя қилиш усули камдан-кам қўлланиладиган бўлиб қолади. Энди ўқитувчи суратлардан баён қилинган назарий материални безак қилиш учун, аниқлаштириш, тарих курсининг мураккаб масалаларини тушунтириб бериш учун фойдаланади.

Ўқув материали баён қилингандан кейин, шу воқеага доир суратдан фойдаланишда ўқувчилар ўзларидаги мавжуд билимларни ишга соладилар. Дарсда олган билимларига суяниб сурат мазмуни юзасидан ўқитувчи берган саволларга жавоб берадилар.

Шундай қилиб суратлар:1) ўқувчиларни янги материални фаол ўзлаштиришга тайёрлайди, оладиган билимларининг манбаи бўлиб хизмат қилади, янги материални пухта ўзлаштириш учун мавжуд билимларни ишга солиш воситаси ва кириш суҳбатини ўтказиш учун кўрсатмали материал воситасини ўтайди;2) тарихий воқеанинг «жонли идрок» этилишини, ўрганилаётган материалнинг аниқ ва тушунарли бўлишини таъминлайди;3) ўқитувчи баёнининг таъсирчанлигини кучайтиради, ўрганилаётган материалнинг аҳлоқий таъсирини оширади;4) дарсда суратнинг мазмуни тарихий материални таҳлил қилиш ва умумлаштириш объекти бўлиб хизмат қилади, ўқувчиларнинг аниқ образлардан тарихий ҳодисаларни, уларнинг моҳиятини ва қонуниятларини тушуниб олишларига ёрдам беради;5) ўқувчилар онгига таъсир кўрсатади, тарихий материалнинг ва улардан келиб чиқадиган хулоса ва умумлашмаларнинг кўнгилларда жо бўлиш, дарснинг якунловчи

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қисмида фойдаланилган сурат эса, ўрганилганни мустаҳкамлаш ва ўзлаштириш даражасини текшириш воситаси бўлиб ҳам хизмат қилади.

Суратлар устида мустақил ишлай олиш учун ўқувчилар: а) суратни тўғри тахлил қилишлари ва тушунишлари; б) ундан тарихий билим ола билишлари;в) сўзлаганда суратдан фойдаланиб, унга қараб ҳикоя қила билишлари;г) суратни ҳам тарихий манба, ҳам санъат асари сифатида тушуна билишлари лозим.

Бу шартларни ўзлаштириш ўқувчиларнинг нутқи, эътибори, кузатувчанлиги, ижодий тасаввур этиш қобилияти, тарихий тафаккури ўсишида, ақлий ва эстетик тарбиясида, уларда муҳим амалий малака ва иқтидор ҳосил бўлишида ҳам муҳим ўрин тутади.

Безаклар дарслик матнии мазмунининг таркибий қисмини ташкил этади. Улардан дарсда ва дарсдан ташқари машғулотларда билим манбаи сифатида фойдаланилади. Ўқитувчи ўз баёнида бошқа манбалардан фойдалангани каби безаклардан ҳам кенг фойдаланади. Безакларнинг содда ва мураккаблигига қараб ўқитувчи уларнинг мазмунини ўқувчиларга муфассал тушунтириб беради ёки қисқача ҳикоя қилиш билан чегараланади. Ўқувчиларни безаклар устида фаол ишлай олишга, мазмунини мустақил равишда чақиб ола ва сўзлаб бера билишга ўргатиш лозим.

Безаклар мазмунининг мураккаблиги, характери ўқувчиларнинг тайёргарлигига қараб суҳбат йўли билан таҳлил қилиниши мумкин, ўқитувчи ўқувчиларга мустақил таҳлил қилишни ҳам топшириши мумкин.

Безак материаллар қуйидаги турларга бўлинади:

1. Ўтмишдаги буюм ёдгорликларининг тасвирлари:а) Айрим буюмлар ёки уларнинг парчалари, рўзгор ашёлари, уруш қуроллари, меҳнат қуроллари;б) меъморий ёдгорликлар ва санъат асарлари тасвири. Улар ичида буюм ва меъморий ёдгорликларнинг тасвирлари асосий ўринни эгаллайди. Бу гуруҳга кирган безаклар жуда ҳам турли-туман бўлиб, объектни тахлил қилиш, таққослаш ва тегишли хулосалар чиқариш учунгина хизмат қилмасдан, ўқувчиларни эстетик руҳда тарбиялаш ва уларга эмоционал таъсир кўрсатишнинг ҳам муҳим воситаси бўлиб хизмат қилади.

2. Рассомларнинг ҳаётдан олиб яратган сюжетли асарлари.3. Портретлар.

4.Ҳужжатлар, ёзувлар, хужжатли текстлар (тошга ўйилган ёзувлар, қўлёзмалар, нашр этилган ёзмалар, прокламациялар) тасвири. Бу хилдаги безаклар ўқувчиларнинг давр руҳини, тарихий шароитни яхшироқ тушуниб олишларига ёрдам беради.5. Ҳужжатли фотосуратлар ва воқеа шоҳидлари чизган суратлари. Бу хилдаги

безаклар асосан XIX—XX аср воқеаларига доир бўлиб, юқори синфларда фойдаланилади.

Шундай қилиб, безаклар билим манбаларидан бири бўлиб, тарих дарсларида ўқитувчи баёнини аниқлаштиришда унинг ғоявий таъсирини кучайтиришда, ўқувчилар билимини мустаҳкамлаш ва мавжуд билимларни ишга солишда кўрсатмали материал сифатида ҳам хизмат қилади.

Тарихий воқеа маълум бир вақтда ва маълум бир жойда содир бўлади. Ўқувчиларда воқеа содир бўлган жой ҳақида тасаввур яратиш таълимда муҳим ўрин тутади.

Тарихий харита билан ишлаш географик муҳитга тавсиф беришнинг асосий методини ташкил этади. Географик муҳит жамият ривожланишининг ҳаракатлантирувчи кучи бўлмасада, тарихий ривожланишнинг тезлашиши ёки секинлашишига жиддий таъсир кўрсатиши мумкин.

Географик муҳитнинг жамият ривожланишидаги ролига, айниқса 6-синф тарих дарслигида катта ўрин берилган.

5-6- синфларда ўқувчиларга географик муҳит билан одамларнинг машғулоти ўртасидаги алоқани очиб бериш, халқларнинг тарихий ривожланишига географик муҳитнинг таъсирини кўрсатиш учун катта имконият бор.

Харита ёрдамида бирор мамлакатнинг тарихий тараққиётида босиб ўтган турли босқичлардаги аҳволини аниқ тасвирлаб бериш, ўқувчиларда биринчидан, ишлаб чиқарувчи кучларнинг ривожланиши ҳақида аниқ тасаввур яратишга, иккинчидан, инсон аждодлари меҳнатининг бунёдкорлик кучини пухта тушуниб, англаб олишларига ёрдам беради. Бинобарин, харита билан ишлаш жуда катта маърифий ва тарбиявий аҳамиятга эгадир.

Дарсда харитадан фойдаланиб тарихий воқеа содир бўлган жойни кўрсатиш, ўқувчиларда географик муҳитнинг роли ҳақида тасаввур яратиш учунгина эмас, балки тарихий воқеаларнинг моҳиятини, уларнинг қонуниятларини, ўзаро алоқалари ва сабаб-натижаларни очиб беришда ҳам муҳим роль ўйнайди. Харитадан тарихий воқеани тушунтириб беришдагина эмас, балки уни таҳлил қилишда ва умумлаштиришда ҳам фойдаланилади.

Харита ёрдамида тарихий воқеаларнинг сабаб-алоқалари очиб берилади. Масалан, Амир Темур салтанатининг юксалиши сабаблари очиб берилади.

Харита дарснинг бошида ўрганилган материални таҳлил қилиш, умумлаштириш, тарихий тараққиёт ривожланишининг қонуниятларини очиб беришга ёрдам кўрсатади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Тарихий харита ўқув материалини мустаҳкамлашда муҳим роль ўйнайди. Ўқитувчи воқеа бўлиб ўтган жойини деворга осилган харитадан кўрсатган вақтда ўқувчиларнинг ўша жойни ўз харитаси ёки атласидан излаб топиши, ўқитувчи раҳбарлигида хаританинг таҳлил қилиниши, ўқувчиларнинг ўз дафтарларидаги эскизлар ва дарсликдаги хариталар устида уйда мустақил ишлаши, навбатдаги дарсда берилган саволларга харитадан фойдаланиб жавоб бериши ўқув материалининг пухта ўзлаштирилишига ва узоқ вақт эсда сақланишига ёрдам беради.

Тарих ўқитиш тажрибасида тарихий хариталарнинг уч туридан фойдаланилади:

1.**Умумий хариталар**. Улар бир мамлакат ёки бир гуруҳ мамлакатлардаги тарихий воқеаларни, уларнинг мавқеини, тарихий тараққиётнинг маълум босқичидаги аҳволни акс эттиради. 2.**Обзор хариталар**. Ўрганиладиган воқеалар ривожланишининг изчиллигини узоқ давр мобайнида ҳудуднинг ўзгарганлигини акс эттиради. 3.Мавзуий **хариталар**. Маълум тарихий воқеаларга ёки тарихий жараённинг айрим томонларига бағишланади. Масалан, «Амир Темур давлати».

Мавзуий хариталарда ижтимоий ҳаётга доир масалалар, чунончи иқтисодий масалага, ҳаракатларга, синфий кураш ёки ҳарбий ўтмишга доир масалалар тўларок ёритилади. Дарслик ва атласлардаги хариталарнинг кўпчилиги тематик хариталардир. Ўқитувчи босма ёки қўлда тайёрланган осма мавзуий хариталардан ҳам фойдаланади.

Схематик хариталар ёки харита-схемалар ҳам тематик хариталарнинг бир туридир.

Тарих дарсларида ўқувчиларни мамлакатимизнинг табиий шароити ва иқтисодиётининг ривожланиш тарихи билан чуқуррок таништириш мақсадида табиий ва иқтисодий географик хариталардан ҳам фойдаланилади.

Бирорта ҳам дарсни харитасиз тасаввур этиш қийин. Харита тарих дарсининг энг зарурий қўлланмаси бўлиб ҳисобланади. Харита аввало ўрганиладиган мавзуга мос бўлиши лозим. Ўқитувчи воқеалар ривожи давомини баёни жараёнида харитадан кўрсатиб бориши, айни вақтда ўқувчилар ўқитувчи кўрсатадиган жойни қўлларидаги харита ёки атласдаги харитадан излаб топишлари лозим.

Ҳар бир янги харита ўргана бошланганда унга қисқача обзор бериш, уни ўрганилган эски харита билан солиштириб, ўқувчиларни янги харитадаги ўзгаришлар билан таништириш, уларнинг тарихий тараққиётнинг изчиллиги ва ҳар бир босқичнинг ўзига хос муҳим хусусиятларини англаб олишларига ёрдам беради. Ўқувчилар икки харитани солиштириб мамлакат ҳудуди торайган ёки кенгайганини,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

шаҳарларнинг ўсганлиги ва бошқа ўзгаришлар юз берганлигини аниқ тушуниб оладилар.

Ўқитувчи харита юзасидан саволлар ва топшириқлар бериш йўли билан ўқувчиларни 5-6-синфдан бошлаб харита устида ишлашга ўргатиб боради. Ўқувчиларнн харитани ўқиб тушунишга, улардан тарихий билимлар манбаи сифатида фойдалана билишга ўргатиш керак.

Тарих дарсларида таълимнинг техника воситаларидан фойдаланиш дарснинг самарадорлигини оширади. Таълимнинг техника воситалари ўқитиш ва ўрганиш сифатини кўтаришга ўқувчиларнинг ўқув материалини қизиқиб ўрганишига ва пухта ўзлаштиришига хизмат қилади.

Тарих ўқитиш тажрибасига кўра ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида таълимнинг қуйидаги техника воситаларидан фойдаланилмоқда:

1. *Оддий техника қурилмалари:* Харита ва ўқув картиналари илинадиган, ёғочдан ёки бошқа материалдан ясалган силжийдиган оддий қурилмалар; кўчма синф доскаси; синф деворига илиниб икки ёқлама очиладиган доска.

2. *Овозли аппаратлар:* видеомагнитафон, магнитофон ва видеопроекторлар. Ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тажрибасида пластинкалар ва магнит ленталари ёрдамида, шунингдек радиоприёмниклар воситасида ўқувчиларни классик ва бошқа композиторларининг асарлари билан таништириш борган сари кенг қулоч ёймокда. Чунки музикали ижодий асарларга доир ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарих курсининг маданий-тарихий материалини пластинка ва лента ёзувларисиз кўрсатиб бўлмайди. Масалан, маданиятга доир темаларни ўтганда мусиқа асарларини эшитиш дарсни мароқли қилади.

Ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизими тажрибасида бу манбалардан фойдаланишда қуйидаги усуллар қўлланилади:

1) Ёзув материаллари юзасидан ўқувчиларга саволлар бериш билан бу ёзувлар дарс материали таркибига киритилади.

2) Аввало лента ёзуви эшитилади, сўнгра бу ёзув суҳбат ёрдамида таҳлил қилинади.

Овозли техника воситаларига радио эшиттиришлар ҳам киради, ўқитувчи ўқувчилар учун радио орқали махсус дастур ёки умумий дастур бўйича тарихдан бериладиган эшиттиришларни эшитишни ташкил этади. Ҳозирги вақтда, бундай эшиттиришлар кўпинча магнит ленталарига ёзиб олинган бўлади.

Радио ва телевидение орқали бериладиган ўқув ва синфдан ташқари ишларга бағишланган эшиттиришлар, тарихий воқеаларнинг иштирокчилари, меҳнат

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қаҳрамонлари, ёзувчилар ва ижтимоий арбоблар билан ўтказилган учрашув материаллари, жамиятшунослик дарсларида маҳаллий ва хўжалик ходимлари билан учрашув материаллари ана шу магнитофон ёзувларининг асосини ташкил этади. Бу учрашув ва суҳбатлар такрорланмайди, ёзиб олинган магнитофон лентасидан узоқ йиллар давомида ва истаган вақтда дарсда ва дарсдан ташқари машғулотларда фойдаланиш мумкин. Бу ўринда ҳам техника воситаси ўқитувчига қўл келади, хоҳласа ундан ёзувдан тўла, хоҳласа парчадан фойдаланади.

3. Ҳар хил кўрсатув асбоблари ва қўлланмалар таълим техника воситаларининг учинчи гуруҳини ташкил этади.

Тарих дарсларида бундай техника воситаларидан доим фойдаланиш учун ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида зарур техник шароити мавжуд бўлган кино кабинет ёки техника воситаларидан фойдаланишга мосланган махсус тарих кабинети бўлиши керак. Техника воситалари билан таъминланган кабинет асосан қуйидаги талабларга жавоб бериши лозим:

а) кабинетни тезда қоронғилатиш ва тезда ёритиш мумкин бўлсин;

б) қоронғи пайтда ҳам ўқувчиларнинг ёзув-чизув ишларни олиб бориши, экран тасвирларини дафтарга тушириши, дарслик тексти билан ишлаши учун ўтирган ўринлари махсус лампочкалар билан ёритиладиган бўлсин;

в) кабинетда жуда катта доска бўлиши керакки, унинг бир қисми экран билан банд бўлса, бир қисми ёзиш учун бўш бўлсин;

г) харита ва картиналар илинадиган махсус мослама бўлсин;

д) зарур техника воситалари ва уларни кўрсатадиган аппаратлар кабинетда мавжуд бўлиши билан бирга улар ишга яроқли ҳолда сақлансин. Бундай махсус кабинет бўлмаган тақдирда синфни ҳам уни техника воситаларидан фойдаланадиган қилиб жиҳозласа бўлади. Бу ҳолда тегишли восита ва аппаратлар махсус шкафда сақланади.

4. Ўқув кинофильмлари ҳам таълимнинг кўрсатмали воситалари жумласидандир.

Тарих ўқитишда ўқув кинофильмлар ва видеофильмлар энг таъсирчан ва самарали кўрсатмали воситадир. Кинофильм ўқувчилар кўз ўнгида тарихий воқеанинг жонли образини кўрсатмали қилиб тўлиқ ҳаракатда гавдалантиради.

Ўқувчилар бошқа кўргазмали қуроллардан кўра кинофильмлар воситасида тарихий ўтмишни жонлироқ идрок этадилар.

Тарихий мавзуларга бағишланган бадиий фильмлар (масалан, «Муз жанги» ва бошқалар) ўзининг мазмуни ва тарихий воқеаларни жонли қилиб кўрсатиш жиҳатидан тарихий бадиий асарларга ўхшаб кетади. Ҳужжатли хроникал фильмлар эса, ўша даврнинг кўрсатмали ҳужжати бўлиб хизмат қилади.

Кинофильмлар, айниқса бадиий фильмлар ўқувчиларга эмоционал таъсир кўрсатиш, эстетик ва аҳлоқий тарбия бериш воситаси ҳамдир. Кинофильмлар билим олиш вақтини иқтисод қилишга ҳам ёрдам беради. Ўқувчилар оддий шароитда ўқитувчининг баёнидан, музей ва ҳар хил тарихий жойларга экскурсияларда бўлиб соатлар сарф қилиб оладиган билимларини 10 — 15 минутлик фильмни кўриб ҳам олишлари мумкин. Негаки ўқувчилар фильмни томоша қилиб тарихий образларнинг бутун қиёфаси, характери, психологияси, дунёқараши ва бошқа томонларини ҳам кўз билан кўради, мусика овози, куролларнинг гумбирлаши, самолётларнинг увиллаши, завод ва фабрикаларнинг ҳайқириқларини кулоғи билан эшитади. Ўқув фильмларининг эмоционал, эстетик таъсири ҳам бошқа кўрсатмали қуролларга нисбатан шубҳасиз кучлидир.

Кинофильмни ўқувчиларга кўрсатишдан олдин ўқитувчининг ўзи уни синчиклаб кўриб чиқиши ва ўрганиши лозим. Бу билан ўқитувчи фильмнинг умумий мазмуни билан, асосий диққатни жалб қиладиган энг муҳим кадрлар ва диктор тексти билан танишади. Шундан кейин фильм ўқувчиларга кўрсатилади, сўнгра фильм юзасидан суҳбат ўтказилади, энг муҳим кадрлар юзасидан ўқувчиларга саволлар берилади, фильм мазмунига боғлаб уйга вазифа топширилади.

Тарих ўқитиш тажрибасида ўқув фильмларидан фойдаланишнинг қуйидаги асосий усуллари мавжуд:

а) ўқитувчи ўз баёнини ўқув фильмининг энг муҳим ва ёрқин кадрларни кўрсатиш билан боғлаб олиб боради. Танлаб олинган ўша кадрларини изоҳлайди ва тегишли хулосалар чиқаради;

б) 10—15 минутли қисқа ўқув фильмларига бағишлаб дарс ўтказилади;

в) махсус кино дарси ташкил этилади;

г) дарсдан ташқари вақтда фильм томоша қилинади.

Ҳозирги вақтда тарих дарсларида ўқув телеэшиттиришларидан кенг фойдаланилмоқда, ўқитишда телеэшиттиришнинг икки:

а) синфда қабул қилиш учун бериладиган эрталабки кўрсатувлар, б) ўқишдан ташқари вақтлардаги телекўрсатувлар, ўқувчилар бу эшиттиришларни уйда томоша қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқув телекўрсатувларини қабул қилиш учун ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида ойналари парда билан беркитилган, иккита телевизорли, махсус ёритиш аппаратлари мавжуд бўлган синф хонаси бўлиши зарур. Дарсда ўқув телекўрсатувларининг икки хил тури қабул қилинади: а) 15 минутлик телекўрсатув, б) 30—40 минут давом этадиган янги материални баён қилишга бағишланган тематик теледарс ёки такрорлаш дарси. Телекўрсатувга йирик олимларни, ёзувчилар, тажрибали ўқитувчилар, юристларни ҳамда тарихий воқеаларнинг иштирокчиларини жалб этиш ўқув материалини ўрганишнинг долзарблигини ва мазмундорлигини оширади.

Ўқитувчи телеэшиттиришни қабул қилишга пухта тайёргарлик кўради. Ўқувчиларнинг телекўрсатувлар мазмунини пухта ўзлаштириб олишлари учун ўқитувчи уларга эшиттириш мазмуни юзасидан саволлар беради ёки бошқа вазифалар топширади. Натижада ўқувчилар кўрсатишни фаол фикрлаб ўзлаштирадилар. Ўқитувчи теледарсни қабул қилишни суҳбат билан якунлайди.

Шундай қилиб, телеэкран тарих ўқитишда кўрсатмалиликнинг самарадорлигини янада ошириб юборди. Тарих ўқитишнинг теледарс тажрибаси тарбиявий ва дидактик жиҳатдан бошқа кўрсатмали воситалардан кўра хийла афзал эканлигини исботлади.

Дарс жараёнида кўрсатмалиликдан фойдаланиш, аввало ўқитиш ва тарихий билимларнинг ўрганишнинг кўрсатмали усули, ўқитувчи баёнинг манбаи ва уни кўрсатмали бўлиши, унинг ўқувчилардаги аниқ, тайёр образларга суяна билиши, ўқув воситаси материалини баён қилиш вақтида кўрсатмали қуроллардан фойдаланиш ва кўрсатмали қуроллар воситасида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш ҳамда уларнинг ўрганилаётган тарихий фактларни, воқеа ва ҳодисаларни айнан ўзини ёки уларнинг тасвирларини кўриш ёрдамида ўрганишларига ёрдам беради.

Тарих дарсларида тарихий ҳужжатлар ва бадиий адабиётлардан фойдаланиш ўқитувчи баёнини образли қилиб аниқлаштирса, кўрсатмали қуроллар воситасида ўқувчиларда ўтмиш тўғрисида ёрқин ва аниқ тасаввур ҳосил бўлади, ўқувчиларнинг эшитиш фаолиятига кўриш ва сезиш органларининг фаолияти ҳам қўшилади. Шу билан уларнинг билими янада чуқурлашади, мустаҳкамланади.

Тарих ўқитишнинг кўрсатмали бўлишининг таълимий ва тарбиявий аҳамияти катта бўлиб,аввало, кўрсатмали қурол ўқувчиларнинг билим олишида муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Ўқитувчининг баёни ҳар қанча тўлиқ бўлганда ҳам ўқувчиларнинг воқеалар тўғрисидаги тасаввурлари тўла бўлмайди. Шунингдек, безаклардан фойдаланмай туриб, ўрганилаётган даврнинг манзарасини ҳам тўла, аниқ ва чуқур тасаввур қилиб бўлмайди. Шундай экан, мактабда тарих фани дарсларида ўқитувчи кўрсатмалиликдан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир ва дарсни бусиз тасаввур этиб ҳам бўлмайди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқитувчи ҳар бир дарсини кўрсатмалилик асосида ташкил қилиши, дарс самарадорлиги гарови эканлигини унутмаслиги керак. Демак,айтиш мумкинки, тарих дарсларида кўрсатмали методдан фойдаланишнинг ўқувчи тасаввурини кенгайтиришдаги роли ва аҳамияти беқиёсдир.

## *АДАБИЁТЛАР*

1.Мирзиёев Ш.М. "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз". Т.,2017

2.Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон таракдиётининг пойдевори. - Т.: Шарк нашриёт-матбаа концерни. 1997.

3..Замонавий дарс.-Тошкент 2007. Ж.Йўлдошев ва бошқалар.

4.Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Т., Ўқитувчи, 1988.

5.Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. "Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих дарсларида ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда интерфаол усуллардан фойдаланишнинг афзалликлари

**Жураева Хулкар Очилдиевна**

Сурхондарё вилояти Олтинсой тумани

46-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.**Тарих дарсларида математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш компетенциясини шакллантиришда интерфаол усуллардан фойдаланиш йўллари. Тарих дарсларида интерфаол усуллар асосида ўқитиш-дарс самарадорлигини ошириш гарови сифатида. Таълим сифатини оширишда интерфаол усуллардан фойдаланишнинг афзалликлари.Тарих дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил.

Мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби, таълим соҳасида ҳам туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ислоҳотларни ўтказишдан мақсад таълим сифати ва самарадорлигини оширишдан иборат.

Бугунги кунда илм-фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадал ривожланиши кузатилмоқда. Таълим-тарбия жараёнига умумтаълим фанларини ўқитишнинг принципиал янги методологияси сифатида компетенциявий ёндашувга асосланган таълимни жорий этиш сиёсий, умумдавлат ва дидактик аҳамиятга эга бўлган ҳодиса ҳисобланади.

Мазкур жараёнда Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислом Каримов таъкидлаганидек, «Узлуксиз таълимни давлат таълим стандартлари ва тегишли таълим дастурлари билан таъминлашда, аввало, уларнинг жаҳон талаблари даражасида бўлишига, юксак маънавият заминида қурилганига асосий эътибор бериш керак» .Албатта, энг аввало, таълим-тарбия жараёнининг самарадорлиги бугунги кун талаби, жамият эҳтиёжи, фан ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

техниканинг ривожланиш тенденциялари асосида ишлаб чиқилган давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларига боғлиқ.

XXI асрда дунёнинг ривожланган давлатларида таълим мазмунини модернизация қилишнинг асосий йўналишларидан бири сифатида таълимда компетенциявий ёндашувни жорий этиш масаласига асосий эътибор қаратилмоқда. Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим ўқувчиларда эгалланган билим, кўникма ва малакаларини ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий қўллай олиш лаёқатларини шакллантиришга йўналтирилган таълим ҳисобланади.

Мазкур масала бўйича Европа Кенгаши 1996 йилда «Европа учун таянч компетенциялар» мавзусидаги симпозиум ташкил этиб, унда Европа Иттифоқига аъзо давлатларнинг узлуксиз таълим тизими учун дастлабки таянч компетенциялари белгиланган .

Европа Парламенти амалий тажриба ва таклифлар асосида 2006 йил 18 декабрда Европа Иттифоқига аъзо давлатларга узлуксиз таълим тизими жараёнида шакллантирилиши лозим бўлган 8 та таянч компетенцияларни тавсия қилган [3].

Дунёнинг ривожланган давлатларининг давлат таълим стандартларидаги таянч компетенцияларнинг таҳлили бугунги кунда мазкур масалага қараш ва ёндашувлар ҳар мамлакатнинг таълимдан кўзлаган мақсади, имконияти ва шарт-шароитларидан келиб чиққанлигини кўрсатди.

Бугунги кунда биз чукур ўзгаришлар ва силжишлар даврида яшамоқдамиз.Ватанимиз Ўзбекистоннинг равнақи, гуллаб яшнаши ва қудратини оширишда ҳал қилувчи омил бўлмиш фидоий,ҳар жиҳатдан баркамол инсонни етиштириш долзарб вазифалардандир. Олий Мажлис тасдиқлаган Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни ва "Кадрлар тайёрлаш миллий кундадастури" ана шу мақсадга хизмат қилишга қаратилгандир.Бунинг амалий ва тарихий аҳамияти шундаки, унда мавжуд таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилиш,дунё андозалари даражасига кўтариш,миллий кадрлар тайёрлашнинг янги тизимини барпо этиш давлат сиёсатининг устивор йўналиши сифатида белгиланган.Ҳозирги иқтисодий ва социал хаётдаги инновацион жараёнлар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

таълимни сифат жиҳатдан,янги поғонага кўтариш билан таълим ва тарбиянинг янги технологиясига ўтишга олиб келди.

Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти И.А.Каримов Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқида (29.08.1998) алоҳида таъкидлаб айтдики, "Ўқитувчининг бош вазифаси,ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборатлигини кўпинча яхши тушунамиз.лекин.афсуски,амалда,тажрибаларимизда унга риоя қилмаймиз.

Демократик жамиятда болалар,умуман,ҳар бир инсон эркин фикрлайдиган этиб тарбияланади.Агар болалар эркин фикрлашни ўрганмаса,берилган таълим самараси паст бўлиши муқаррар.Албатта билим керак. Аммо билим ўз йўлига. Мустақил фикрлаш ҳам катта бойликдир".

Илғор педагогик технология таълимнинг маълум мақсадга йўналтирилган шакл,усул ва воситалари тизимидир.Унинг имкониятлари кўп бўлиб, бунда ўқитувчи дарснинг ноанъанавий шаклларидан, АКТдан.интерфаол усуллардан,ишчанлик ўйинларидан ва бошқалар орқали амалга ошириши мумкин.

Демак,таълимнинг самарадорлигини ошириш,шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустакил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган,улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун барча фан ўқитувчиларини илғор педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан қуроллантириш ва олган билимларини ўқув тарбиявий машғулотларда қўллаш малакаларини узлуксиз ошириб бориш лозим. Бу эса компетенциявий ёндошувга асосланган таълимдир. Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим – эгалланган билим, кўникма ва малакаларни ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий қўллай олиш лаёқатини шакллантиришга йўналтирилган таълим бўлиб, ўқувчиларда мустақил фикрлаш, фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш, ташаббускорлик, ахборот-коммуникация технологияларидан ўз фаолиятида оқилона фойдалана олиш, онгли равишда касб-ҳунар танлаш, соғлом рақобат ҳамда умуммаданий кўникмаларни ҳосил қилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Тарих дарсларида мавзуларни ёритишда фойдаланиладиган интерфаол усуллар орқали ўқувчиларда математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенциясини шакллантириш муҳим вазифаларимиздандир.

Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси эса, бу — аниқ ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда шахсий, оилавий, касбий ва иқтисодий режаларни туза олиш, кундалик фаолиятда турли диаграмма, чизма ва моделларни ўқий олиш, инсон меҳнатини енгиллаштирадиган, меҳнат унумдорлигини оширадиган, қулай шарт-шароитга олиб келадиган фан ва техника янгиликларидан фойдалана олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади. Мазкур компетенциялар умумтаълим фанлари орқали ўқувчиларда шакллантирилади.

Мақсадимиз, дарс самарадорлигига эришиш ва мазмунли дарс ташкил этиб, уни амалга оширишдир. Асосийси, ўқувчи ёшларнинг дарс жараёнида фаоллигини,қизиқишини,билимини ошириб, олган билимларини мустаҳкамлаб, мустақил билим олишига ҳам эришишдир.

Таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил этиш, мавжуд имкониятларни сафарбар этиш ўқувчиларнинг асосий вазифаларидан биридир. Ҳар бир педагог шуни эсда тутиши керакки, дарс ўқув-тарбия жараёнининг асосий формасидир. Ўқитувчи ўқувчиларни мустақил фикрлаш, мустақил ижод қилишга ўргатиш лозим. Дарсда уч мақсад кўзда тутилади: таълим-тарбия ва ривожлантириш. Бу уч мақсадни дарс давомида амалга ошириш учун интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс ўтиш яқиндан кўмак беради, деган умиддамиз. Метод нима? Ўзлаштирилаётган тажрибани тўғридан-тўғри ўқувчиларга ўзаро таосир ҳаракати орқали йўналтириш, интерфаол методларни қўллаб дарс ўқитишнинг асоси бўлиб, бундай ёндашувда ўқитувчи тайёр билимларни бермайди, балки ўқувчиларни мустақил изланишга чорлайди. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро таосир ҳаракати ва ўзгаришлар қўллаш интерфаол ўқитишда мўлжал қилинади. Ҳозирги замон дарсига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири ҳар бир дарсда танланадиган мавзунинг илмий асосланган бўлишидир, яони дарсда кўзланган мақсад ва ўқувчилар имкониятини ҳисобга олган ҳолда мавзу ҳажмини белгилаш, унинг мураккаблигини аниқлаш, авалги ўрганилган мавзу билан боғлаш, ўқувчиларга бериладиган топшириқ ва мустақил ишларнинг кетма-кетлигини аниқлаш, дарсда керак бўладиган жиҳозларни белгилаш ва қўшимча кўргазмали қуроллар билан бойитиш, интерфаол методлардан фойдаланган ҳолда дарсда муаммоли вазият яратишдир. Дарсда қўйиладиган асосий талаблардан бири таълим методлари ва усулларини бир-бири билан боғлаб олиб

бориш самарадорлигини оширишдир. Дарсга қўйиладиган асосий талаблардан яна бири барча дидактик вазифалар дарснинг ўзида ҳал этилиши, уйга бериладиган вазифалар ўқувчиларнинг дарсда олган билимларининг мантиқий давоми бўлиши керак. Дарс давомида ўқитувчи ўқувчиларнинг жисмоний ҳолатини, ижодкорлигини,.. тез фикрлашларини ҳисобга олиши керак. Ўтилган ҳар бир дарснинг ўқувчилар билан бирга таҳлил қилиб борилиши ҳам яхши натижа беради. Ўқувчи фаоллиги ўқувчилар фаоллиги олдида ўз ўрнини бўшатиб беради. Ўқитувчининг асосий вазифаси ташаббуслар чиқиши учун шарт-шароитлар ятариш демакдир.

Интерфаол усуллардан фойдаланганда ўқувчи қуйидагиларни билиши лозим:

- Интерфаол усуллар,. унинг мазмун-моҳияти;
- таълим мақсадини амалга оширишда интерфаол усулларнинг ўрни ва роли;
- фанлар бўйича интерфаол усулларни қўллаш принциплари;
- таълимий ва изчиллик ўйинлари;
- муаммоли ривожлантирувчи таълим методлари;
- ўқувчиларнинг мустақил фаолиятларни ташкил қилиш ва таоминлаш йўллари;
- ўқувчиларнинг мустақил ишлаш маҳоратини ошириш усуллари;
- кўргазмали ўқитиш усуллари;
- таълим-тарбияни фаоллаштирувчи усуллар;

Интерфаол усулларда ўқитишда ўқувчилар қуйидагиларга эга бўлишларини алоҳида таъкидлаб ўтишимиз мумкин: 1. Ўқувчилар биргаликда, умумий топшириқ ёки ўқитилаётган фаолият устида ишлашади, бу гуруҳий иш орқали яхши ўзлаштирилади.2. 4-5 аъзо таркибидан иборат ўқувчилар кичик гуруҳларда ишлашади. 3. Ўқувчилар умумий вазифаларни ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказиш учун ижтимоий қабул қилинган хулқ-атворни ишлатишади.4. Ўқувчилар ижобий ёки мустақил бўлишади. Умумий вазифалар ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказишда ўқувчилар бир-бирларига кўмак беришади.

Ўқувчилар ўз ишларини натижасига ёки бошқача айтганда, ўқишга, таълим олишга шахсан масоулиятликни ва жавобгарликни хис қиладилар. Қуйида интерфаол усуллардан айримлари билан танишиб ўтамиз:

- Ақлий ҳужум
- Кичик гуруҳларда ишлаш
- Суҳбат
- Жуфтликда ишлаш
- Кичик маоруза
- Роли ўйинлар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- Ишчанлик ўйинлар
- Баҳс мунозара ва ҳоказо.

Ўқитишнинг илғор педагогик технологияларига оид ноаноанавий усуллари атамаларига кўз ташланса, уларнинг кўпчилиги муаллимлар учун ғайриоддий туюлади. Мазкур усулларнинг айримлари дарслар жараёнида қўлланилаётир. Атама номларининг бошқачарокқ айтилишига сабаб эса, улар АҚШ ва Европанинг ривожланган мамлакатлар мактабларида жорий этилиб, синалиб, сайқалланган ҳамда ўзбек тилига сўзма-сўз таржима қилинганидандир. Албатта, биз учун илғор деб тан олинаётган бу усулларни бирданига дарс жараёнига тўлалигича олиб кириш қийин. Чунки бундай усулларда дарс ўтилишига ўқитувчилар ҳам, ўқувчилар ҳам кўникма ҳосил қилишмаган. Зеро, таълим тизимини ислоҳ қилишнинг асосий мақсади ўқувчилар фикрлаш қобилиятларини шакллантиришдан иборат экан, илғор усулларни дарсларимизга қадам-бақадам жорий этиб боришимизни ҳаёт тақозо этмоқда.

Дарсда "Музёрар" усули бу ўқувчиларнинг бир-бирлари билан танишиб олишларида ишлатиладиган усул. Уни турли вариантларда қўллаш мумкин. Синф икки гурухга булиниб, дойра хосил килинади. Биринчи ўқувчи исмини айтади, навбатдаги ўқувчи узидан олдинги уртогининг номини айтиб, сунгра узининг исмини кушади ва шу тарика давом эттирилади. Охирги ўқувчи узидан олдинги барча ўқувчилар номини айтиши керак. Қизиқарлироқ бўлиши учун болалар номларидан олдин исмлари билан бошланадиган сифатларни қўшишлари хам мумкин. Масалан, тиришқоқ- Толибжон, Соҳибжамол-Салима ва ҳоказо. Дарсда

" ПАМО формуласи"методидан фоййдаланиш ҳам ўқувчиларнинг дарсга бўлган қизиқишини орттирииб,уларни фаоллаштиради. Бу усулни қуйидагича изоҳлашимиз мумкин:

П –позиция (сизнинг нуктаи назарингиз нимадан иборат)

МЕНИНГ ФИКРИМЧА,БУ…………………

А – АСОСЛАНТИРИШ (СИЗНИНГ АСОСЛАРИНГИЗНИ КУЛЛАБ-КУВВАТЛОВЧИ САБАБ,НИМАГА АСОЛАНИЯПСИЗ,ПОЗИЦИЯНГИЗ НИМАГА АСОСЛАНАДИ)-

«НЕГАКИ….»,»ЧУНКИ……»

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

М – мисол (сиз келтирган сабабларни асословчи фактлар)- …….масалан…………

О – окибат (хулоса,нима килиш керак,уз позициянгиз)- …….шу сабабли………..

Ушбу усулдан тарих ва хукук дарсларида фойдаланиш мумкин.

Айтиш жоизки,мамлакатимизда таълим жадаллик билан тараққий этиб бормокда.Барча умумий ўрта таълим мактабларида ўқитувчилар ўз дарсларини янгиликлар асосида, интерфаол усуллар, илғор педагогик технология асосида ташкил этиб, ўқувчи ёшларни қизиқтирган ҳолда,уларнинг фаоллигини оширган ҳолда олиб бормокдалар.Республикамиз мактабларида барча фанларда педагогик технологияларни қўллаш ва дарс самарадорлигини оширишни кўзлаган ҳолда тажриба-синов ишлари олиб борилди ва унинг натижалари ўрганилди. Олиб борилаётган ишларнинг барчаси таълим соҳасидаги ўзгаришлар ва унинг тараққий этиб бораётганидан далолат беради.

Мактабда таълим-тарбияжараёнини такомиллаштириш албатта.ўқитувчининг педагогик маҳоратига,дарс жараёнида ижодий завқ уйғота олишига боғлиқдир.Ўқитувчи ўқув жараёнини шундай ташкил қилиш керакки, бунда ўқувчининг мустақил фикрлаш маданияти,шахсий индивидуал қобилиятини ривожлантирадиган энг муҳим воситага айлансин.

Демак,тарихни ўқитишнинг ҳозирги замон илғор педагогик технологияси таълимга янгиликлар киритишнинг муҳим қисми бўлиши билан бирга уни амалда қандай жорий қилиш ва фойдалана олиш кўникмаларини ҳосил қилиш ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Бу эса ўқитувчининг ролини янада ошириб, модернизация жараёнларининг марказий халқасига айлантиради.

Ўқитувчи маҳоратли бўлиши қай даражада муҳим эканлигини Конфуцийнинг қуйидаги сўзларидан янада теранроқ ҳис қилиш мумкин:"Ўзини камол топтира олмаган инсон,ўзгалар камолотини таъминлай олмайди".

Демак, юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб,шуни айтишимиз мумкинки, ўқитувчи ҳозирги куннинг талабига жавоб бера оладиган,маҳоратли,замон билан ҳамнафас бўлиши керак. Айтишимиз мумкинки, "Замонавий ўқитувчи-келажак пойдевори,янги педагогик технологиялар,назариялар,концепцияларнинг муаллифи, ишлаб чиқарувчиси,тадқиқотчиси,фойдаланувчиси ва тарғиботчисидир".

Адабиётлар

И.Каримов . Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.:Шарқ.1997й

Ж.Йўлдошев. Ўзбекистон Республикаси таълими-тараққиёт йўлида.-Т.:Ўқитувчи.1994 й.

ЮНИСЕФ ташкилоти." *Ижтимоий йўналишларда интерфаол ўқитишнинг машқлари ва методлари" . Т.:2011*

*С.Маҳкамов. Тарихни янги педагогик технология асосида ўқитишТ.:1998 й.*

*К.Ангеловский. Учителя инновации. М.:1997 й.*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ўқув жараёнида ўқитишнинг интерфаол усуллари ва техник воситаларидан фойдаланишнинг муҳим жиҳатлари

**Салаков Бахтиёр Аннамуратович**

Сурхондарё вилояти Музробот тумани

28-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Ўқув жараёнида ўқитишнинг техник воситаларива уларни қўллашда ўқитувчининг билим савияси. Интерфаол усулларнинг ўқувчи ёшларни эркин фикрлашини ривожлантиришдаги ахамияти.

Ўқитувчининг ўқув машғулотларини ташкил этишга ижодий ёндашиши ўқитишнинг турли шаклларидан фойдаланиши айникса ўқувчиларнинг мустақил ижодий фикрлаш қлбилиятини ривожлантирувчи миллий педогогикамиздан ва янги педогогик технология усулларидан унумли фойдаланиши тавсия этилади.

Ҳозирги кунда педагогик технологияни қўллаш дарс жараёнини демократлаштириш, ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлигини, ижодкорлигини ривожлантирмокда.

Уларни изланишга, ўз устида ишлашга, дўстона муносабатда бўлишга ундаш билан дарс самарадорлигини ошириш ва ўқувчининг билим доирасининг ўсишига асосий омил бўлмокда ва ҳар бир болада билимга қизиқиш, мустақил фикрлаш ва ижодкорлик каби сифатларини ривожлантириб бориш кўникмаларини белгилаб бермокда.Дарс жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланиб дарслар ўтиш, кўпроқ гуруҳларга бўлиниш ва гуруҳларда ишлаш вақтида укувчилар орасида дустона мухитни яратишга омил бўлади.Ўқувчилар бир-бирларига ёрдамлар беради. Ҳар бир ишни тақдимот қилиш вақтида ҳам укувчилар бир-бирини туликдириб ёрдамлар беради. Шунинг учун ҳам ўқитувчи маҳорати кўп жиҳатдан дарс ўтиш санъатини накадар чуқур эгаллаганлиги билан ўлчанади.Бир соатлик машғулотнинг ўзи ўқитувчи билан ўқувчини яқинлаштиради. Интерфаол усуллардан фойдаланиб дарслар ўтишда уларни ўзига хос ришта боғлайди. Шунинг учун ҳам мутахассислар бир соатлик дарс жараёнини улкан бир саҳна асарига менгзашади.Демак, ҳар бир ўқитувчи ўзининг дарси жараёнида касбий

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

маҳоратга эга бўлиши ва буни дарс жараёнида намоён эта олиши бугунги куннинг энг долзарб талабларидан биридир.

ЮНЕСКО маълумотларига кўра, инсон эшитаётган вақтда нутқ маълумотининг 15% ни, қараганда эса кўрган маълумотининг 25% ни, кўриб ва эшитганда қабул қилган маълумотининг 65% ни эсда сақлаб қолар экан. Демак,ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитишнинг техник воситаларини аудио визуал восита сифатида қўллашнинг зарурлиги шубҳасиз, ҳар хил сезиш аъзоларига таъсир этиши мумкин. Маълумотни ажратиш, етказиш қайта тузиш ва акс эттиришда техник воситаларни қўллаш инсонни бошқариш, лойиҳалаш, текшириш ва шу кабиларга ўхшаш имтиёзлари бўлган интеллектуал жараёнларни машиналаштириш ва автоматлаштириши мумкин. Ўқитишнинг техник воситаларининг зарурлиги шартланган ва ўқитишнинг катта мураккаблашган объектлари: қийин техник ускуналарни, микросхемаларни ёки технологик жараённи намойиш этиш мумкин, фақатгина бўр ва доска ёрдамида жалб этиш мумкин эмас. Ўқитишнинг техник воситалар ёрдамида ўқитиш аудиторияси чегарасидан чиқиш мумкин; қуролланмаган кўз билан кўриш мумкин бўлмаган нарсани кўрсатиб бера олади, ҳар хил вазиятларни тақлид қилиш мумкин. Персонал(шахсий) компьютергача кўпчилик замонавий техник воситалар кўпчилик фойдаланувчиларнинг кундалик турмушда одат тусига кирган ёки одатга айланмоқда.

Ўқитишнинг техник воситаларидан тўғри фойдаланиш ўқитувчининг ҳам, ўқувчининг ҳам иш шароитини яхшилайди, қанчалик катта доирада мақсадга мувофиқ ўқув жойлари ва вақтларини ўзгартиришга мумкинлик яратса, шунчалик унинг баҳоси ортади. Ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш маълумотни етказишни тезлаштиради, суратли материалларни анча кенгайтиради, муаммоли вазиятларни яратади ва ўқувчининг изланиш фаолиятини ташкил қилади, ўқитишнинг эмоционал таъсирини кучайтиради, ўрганувчиларда ўқиш асосларини ташкил қилади ва ўқув жараёнини индивидуаллаштиради ҳамда табақалаштиради.

Ўқитишнинг техник воситалари болалар билан ўқишдан ташқари ва бўш вақтдаги ишларини ўтказишда кўп янги имкониятларни яратади.

Ҳозирги даврда ахборот технологияларининг шиддат билан ривожланаётганлиги ва айниқса, сўнгги йилларда, эшитиш, кўриш қобилияти бузилган, ақлан заиф бўлган болаларни ўқитиш ва тарбиялаш учун мўлжалланган оригинал ўқитишнинг техник воситалари ва компьютер технологиялари ишлаб чиқарилаётганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиздир. Сурдотехник воситаларни шулар турига киритиш мумкин, масалан, жамоага ёки якка шахсга мўлжалланган овоз кучайтириш ускуналаридан фойдаланиш, унинг ёрдамида овоз қолдиғи бор бўлган, эшитиш зеҳни бузилган, эшитиш қобиляти паст бўлган ва кар болаларни ривожлантириш бўйича иш олиб

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

борилмоқда; эшитиш ҳодисалари тўғрисида маълумотларни етказадигин ускуналар ва асбоблар фойдаланилади, бу ускуналар кўриш орқали қабул қилинган маълумотларни ёруғлик сигналлари ёрдамида ёки тананинг юқори қисми қабул қилган маълумотларни тебраниш сигналларида ўзгартиради.

Ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланишнинг самаралиги уни таъминлашнинг ўзаро боғлиқ бўлган учта аспектлари- техник методик ва ташкиллаштиришга қараб аниқланади. Техник таъминлаш мослашишни ўрганувчига маълумотни етказиш учун тескари алоқа ўрганувчининг ўргатувчига; билим назорати, мустақил машқлар ташкил қилиш, маълумотни қайта ишлаш ва ҳужжатлаштириш учун фойдаланилган Ўқитишнинг техник воситаларини мукаммаллаштириш ва тузишни ўз ичига олади.

Лекин, ҳатто юқори даражали замонавий Ўқитишнинг техник воситалари ҳам, агар улар нотўғри фойдаланилса, зарур методик тайёргарликсиз ва дидактик материаллар ишлаб чиқмасдан, эргономик ва психологик-педагогик талабларни бузса, уларни қўллаш соҳалари асоссиз кенгайтирилса, яъни методик саводсизлик билан қўлланилса керак бўлган самарани таъминлаб бермайди.

Ўқув муассасаларида ўқитишнинг техник воситаларини ташкилий таъминлаш катта аҳамиятга эга – иш ҳолатида уларнинг џизмат кўрсатиши ва қўллаб-қувватлаши, замонавийлаштириш ва ўз вақтида ускуналарни алмаштириш керак. Мактабгача бўлган муассасаларда кўпгина ўқитувчи ва тарбиячиларнинг ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланиш сустлигининг сабабларидан бири, таркибида техникани тўлиқ тушунмайдиган гуманитар маълумотига эга бўлганлар, шунга ўхшаш ўқитиш воситаларида техник ишга лаёқатликни таъминлаб бера олишмайди. Ускуналарнинг техник қийинчиликлари пайтидаги қўрқув, унинг бузуқлик пайтида пайдо бўладиган, ўқитишнинг техник воситаларини кенг фойдаланишда кучли психологик тўсиқ бўлиб ҳисобланади. У қанчалик замонавий ва баҳоси бўйича қиммат бўлгани сайин, улардан фойдаланувчи кўпчилик ўқитувчиларнинг ҳаваси шунчалик камаймоқда. Шунинг учун бўлажак педагогни ўқитишнинг техник воситалари билан нафақат таништириш керак ва берилган курс дарсларида улардан фойдаланиш методикаси билан таништириш билан чегараланиб қолмасдан, балки талабаларнинг барча педагогик амалиётида ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш бўйича ҳар хил амалий машқлар бериш керак.

Ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш даражаси ўтилган дарснинг характерига, ўқувчиларнинг хулқига, тайёргарлиги ва қизиқишларига, дарсларнинг турига, ўқитувчининг дастурий-методик усулига боғлиқ. Ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланишнинг шартли белгиланган учта даражаси мавжуд: эпизодик, системали ва синхронли. Эпизодли даражада ўқитишнинг техник

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

воситалари ўқитувчи томонидан баъзи ҳолларда фойдаланилади. Системали ўқитиш жараёнида ўқитувчи ўқитишнинг техник воситаларини ўйлаб ва мунтазам равишда қўлласа, ўрганилаётган маълумотни ҳажмини маълум даражада кенгайтиришга ва қабул қилиш учун тақдим этишнинг хилма хиллигини таъминлайди. Синхронли даражада эса ўқитишнинг техник воситалари ёрдамида тўлиқ дарс жараёнида ёки унинг муҳим бўлган бўлагида материални баён қилишда танаффуссиз узатишга мўлжалланган.

Аммо, ўқитиш жараёнининг барча техник даражаларида етакчи ҳал қилувчи роль ўқитувчига боғлиқ, ўқитишнинг техник воситалари эса, ҳатто энг замонавий хили бўлса ҳам ҳар доим ўқитувчининг фақат ёрдамчиси бўлади. Ўқитиш – тарбиялаш жараёнининг энг юқори техник даражаси ўқувчиларнинг шахсий фазилатларини тарбиялаш ва ўқитишда ўқитувчи шахсиятининг ижодий таъсирини ўзгартира олмайди.

Демакки,дидактик талабнинг асосий мақсади янги мавзу мазмунини ўқувчига етказишдан иборат. Шундай экан, қуйидаги талабларга риоя қилиш лозим бўлади:

а) дарсда ўқувчини билиш фаолиятини фаоллаштириш;б) билимни баён қилишнинг оғзаки, кўргазмали амалий методларидан унумли фойдаланиш;в) дарслик билан ишлаш;

г) билимни чуқурлаштирувчи масала ва машқ бажариш;д) муаммоли вазиятни вужудга келтириш;е) дидактив принциплар ва уларнинг узвийлигини таъминлаш;

ж) тарбияловчи таълимга катта эътибор бериш;

Ҳар бир ўқитувчи билим тажриба ва педагогик маҳоратни ишга солиб, дарснинг самарадорлигини таъминлаш учун мазмунга мос дарс методини танлай билиши зарур. Дарсда асосий вақт янги материални тушунтиришга сарфланмоғи керак.

Дарсда ўқитувчини фаоллаштириш анча олдин ўтилган мавзуни эслаш, уларни ривожлантириш, янги материални ўрганишда таянч билимларни асос қилиб олиш, уларни мустақил иш бажаришга кенг имкон яратиш ва кўргазма дидактик материал, таълимнинг техник воситаларидан унумли фойдаланишни йўлга қўйиш лозимдир.

Ўқитувчи ҳар бир дарсга тайёрланар экан олдиндан қуйидагиларни назарда тутмоғи лозимдир:1. Дарснинг таълимий вазифасини аниқлаш, унинг таркибий қисмлари ҳамда умумий дарслар тизимидаги аниқ ўрнини белгилаш. 2. Ўқув предмети, дастур талаблари, ўқувчиларнинг илмий билимларини ўзлаштириш, ўқув ва малакаларнинг дарсда шаклланиши асосида дарснинг оптимал мазмунини аниқлаш; 3. Дарсдаги назорат, оптимал муносабатлар, билишнинг фаоллашуви, ўқувчилар биргаликдаги фаолиятининг ўзаро уйғунлашуви ўқувчиларнинг мустақил ишларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

уюштириш мумкин бўлган рационал метод ва усуллар излаш. 4. Дарсда фанлараро алоқанинг энг қулай шароит ва принципларини амалга ошириш.

Дарсга қўйиладиган психологик талаб ҳар бир дарсда ўқувчининг психологик хусусиятини ҳисобга олиб, қандай ҳолатда ўқувчининг материал мазмунини онгли равишда ўзлаштиришини пайқаш, шу йўл билан машғулот самарадорлигини оширишдан иборат. Ўқитувчини ўқувчининг психик хусусиятларига, уларнинг бир-бирини тушунишига ўзаро муносабатига катта эътибор бериши керак бўлади.

Ўқувчиларга таълим-тарбия берилаётган жой санитария гигиена қоидаларига тўлиқ жавоб бериши керак. Синф тозалиги, нарсалар ўрни, ёруғлик тушиши миқдори, хонанинг кенглиги, иссиқлиги ва бошқа шарт шароитлар таълим мазмунини англашга катта ёрдам беради.

Дарсда бизга маълум бўлган умумий талабларга риоя қилмоқ керак, яъни:а) ҳар бир дарс маълум бир мақсадни амалга оширишга қаратилган ва пухта ривожлантирилган бўлиши керак; б) дарс турмуш билан ҳозирги шароит амалиёти билан боғлиқ бўлиши зарур; в) дарс хилма-хил метод, усул ва воситалардан кенг ҳамда унумли фойдаланган ҳолда олиб борилиши керак;г) дарсга ажратилган ҳар бир дақиқа тежаб, ундан самарали фойдаланиш лозим; д) дарс ўқитувчи ва ўқувчиларнинг актив фаолият бирлигини таъминламоғи зарур; е) дарсга ўқувчиларнинг қунт билан ишлашларини таъминлайдиган мустаҳкам интизом ўрнатилган бўлиши лозим; ж) дарс ўқувчиларнинг мустақиллигини оширишга қаратилмоғи керак;з) дарс машғулотларини бутун синф билан олиб бориш орқали бирга, айни пайтда ҳар қайси ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш зарур.

Энди эса,дарсга бўлган ташкилий талабларга тўхталадиган бўлсак, уларни қуйидагилардан иборатлигини айтиб ўтишимиз мумкин:1. Мавзу режаси асосида дарсни ўтказишнинг ўйланган умумий режаси бўлиши керак. Ўқитувчи келгуси дарсга тайёрланар экан, дарсда ўрганиладиган янги материал мазмунини ўқувчиларга ҳар томонлама асосланган режасини тузиб чиқиши лозим. Кейинги вазифа шу режа асосида дарсни ташкил этишнинг режасига тўлиқ риоя қилиш. 2. Дарсда вақт фондига аниқ эътибор бериш, дарсни ўз вақтида бошлаш, унинг ҳар бир минутидан унумли фойдаланиш, ўқитишнинг оптимал тезлиги, мантиқий қўрилиши ўқувчиларнинг онгли интизоми кабиларга эътибор бериш. 3. Ўқитишнинг ҳар бир воситаларидан унумли фойдаланиш, уларни олдиндан тайёрлаб, ишлашни текшириб кўриш керак.

Барча юқорида баён қилинганлар ўқитишнинг техник воситалари ва ахборот технологияларини ўрганиш жойи ва аҳамиятини ҳамда замонавий информацион жамиятда ишлаш керак бўлган бўлажак тарбиячилар ва ўқитувчиларни малакали тайёрлаш жараёнида уларнинг фойдаланиш методикасини аниқлаб беради. Ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш соҳасида педагогик ўқув муассасасидаги

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ҳар бир битирувчи чуқур билимга эга бўлиши учун улар махсус курсни тугаллаши керак.

Ўқитишнинг техник воситалари курсини ўрганиш натижасида талабалар:

- ҳар хил турдаги ўқув муассасаларида ўқув тарбиявий ўқитишнинг техник воситаларини ва компьютерни қўллашнинг ҳолати ва истиқболи ҳақида тушунча олиш;
- умумпедагогик ва психологик талаблар асосида ўқув ва тарбиялаш жараёнида ҳар хил ўқитишнинг техник воситарилардан тўғри фойдаланишни ўрганиш;
- дастурий педагогик маҳсулотлардан (ДПМ) фойдаланишни ўрганиш;
- ўқитишнинг техник воситаларини фойдаланиш орқали ўқув ва тарбиявий дарслар режаларини ишлаб чиқишни ўрганиш ва уларни ўтказиш;
- ўқитишнинг техник воситаларидан ва компьютерлардан фойдаланиш орқали ўқув ва тарбиявий дарсларни таҳлил қила олишни;
- маълумотларни йиғиш, қайта ишлов бериш, сақлаш ва етказишда меҳнатни осонлаштириш учун ўқитишнинг техник воситалари ва компьютерлардан фойдалана олиш;
- экран кўрсатмали воситаларни намойиш қилиш;
- тарқатма материални тайёрлай олиш, ўқувчиларнинг индивидуал ишлари учун дастурлар билан таъминлаш ва машқларни танлай олиш;
- замонавий воситалар видео тасвирларни суратга тушириш ёрдамида ўқитиш жараёнига тадбиқ қилиш;
- дунё виртуал кутубхонасига кириш, ўқув жараёнига керакли бўлган маълумотларни топа олиш;
- ўқитишнинг техник воситаларидан шахсий ижодий истедодларни ривожлантириш учун профессионал эхтиёжларни қаноатлантиришда фойдаланиш;
- Техник ускуналарни экспулутация қилиш қоидаларини, санитар-гигиеник талаблар ва ёнғин хафсизлиги талабларини, техника хафсизлиги қоидаларини ўрганиш;

Ўқитишнинг техник воситалари фани ва уларни қўллаш методикаси педагогика, информатика, ахборот технологияси ва педагогик –психология, физика, математика соҳалари билан чамбарчас боғлиқ.

Шунинг учун "Ўқитишнинг техник воситалари" курсини психология ва педагогика курсларидан кейин, хусусий методика курслари билан бир вақтда ёки ундан кейин ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Таълим самарадорлигини ошириш, давлат таълим стандартларининг бажарилишини таъминлаш, таълимнинг сифат кўрсаткичини кафолатлашда замонавий педагогик технология ҳал қилувчи омиллардан бўлиб бормоқда.

Педагогик технологияни ўқув жараёнида қўллаш жаҳон амалиётида кенг тарқалмоқда.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ҳозирги кунда таълим жараёнида ўқувчи ва ўқитувчини доимий изланишга, узлуксиз ўз устида ишлашга ундайдиган ўқитишнинг интерфаол усуллари кириб келмоқда. Бу, ўз навбатида таълимда самарадорликни таъминлайди. Педагогик технология, унинг асосий тамойиллари, янгича ишлаш усуллари, ўқитувчининг ҳамда ўқувчининг ўқув жараёнидаги ўрни, роли ҳақида билиб бориш, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиб ўқув жараёнининг юқори сифат ва самарадорлигини ҳосил қилишга хизмат қилувчи вақт оралигини қисқартириш, таълимни жадаллаштиришга ёрдам беради. Шундай экан мустақил фикрловчи, иродали, ақлли шахсларни шакллантиришда уларнинг ҳар томонлама ўрганиш ҳамда уларга турли томонлама таъсир эта олиш йўллари ва усулларини кўриб чиқиш керак бўлади. Ёшларни ўрганишда уларни нафақат физиологик, балки психологик томонларини, яъни психик жараёнларини, ҳиссий иродавий хусусиятларини ўрганиш зарурий аҳамиятга эга.

Шахснинг ўз эҳтиёжларини қондиришда, олдига қўйган мақсадларига эришишда ва эркин фикрлашида катта аҳамият касб этадиган ҳиссий-иродавий хусусиятларини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиз.

Ҳис туйғулар кишининг ҳаётида нималар юз берганига, нималарни билиб олаётганига ёки нима билан машғул бўлаётганига ўзида билдириладиган турли хил ички муносабатларидир. Ҳис туйғуни бошдан кечиришнинг турли хил усуллари мавжуд бўлиб, уларга ҳиссиёт (эмоция), аффект, кайфият, кучли ҳаёжонланиш (стресс) ва ҳоказолар киради.

Эҳтиёжларнинг қондирилиши ёки қондирилмаслиги кишида турли хил ўзига хос кечинмаларини ҳосил қилади. Шундай кечинмаларнинг бири ҳиссиёт бўлиб ҳисобланади. Ҳиссиётнинг икки хил ижобий ва салбий холатлари бўлиб, ижобий ҳолат шахснинг муносабати ва фаолиятида эҳтиёжларни қондириш жараёнининг хуш келадиган тарзда кечганлигидан далолат берса, эҳтиёжларнинг қондирилмасдан қолиши салбий ҳиссий кечинмаларга сабаб бўлади.

Шундай салбий ҳолатлардан бўлган уятчанлик ва тортинчоқлик айниқса дарс жараёнида ўқувчининг мавзуни эркин ифодалаши ва ўз фикрини баён қилишида тўсиқ бўлади. Бундай ҳолатлар ўқувчининг билими ва фикрларини юзага чиқаришда тўсиқ бўлибгина қолмасдан, ўқитувчининг ўқувчи билимини тўғри баҳолашида ҳам қийинчиликлар туғдириши мумкин. Чунки ўқитувчи назарида бундай ўқувчиларнинг билим савияси паст бўлиб кўринади. Шундай экан, ўқувчилардаги бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш ва бартараф қилиш учун дарсни интерфаол усуллар билан олиб бориш фойдалидир.

Ўқувчилардаги бундай салбий хислатларни бартараф этишда интерфаол усулларнинг қандай таъсири бор деган савол туғилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дарс жараёнида интерфаол усулларни қўллаш ўқувчиларнинг ўз фикрларини эркин ифодалашида бир қанча кулайликлар келтиради. Чунки, интерфаол усулда дарс ўтилса, ўқувчиларнинг бир нечта гурухларга бўлиб, улар орасида ўзаро мусобақа ўтказиш орқали ўқувчиларни фаоллаштиради ва ҳар бир ўқувчининг фикрини нотўғри деб қарамасдан уларнинг фикрларини тинглаб, шу фикрлардан умумий хулоса чиқаришга ўргатади. Натижада дарсга ҳамманинг фаол қатнашишига олиб келади. Ўз-ўзидан бундай вазиятда синфдаги айрим уятчан ва тортинчоқ ўқувчилар ҳам дарсга фаол қатнаша бошлаши мумкин.

Масалан, фаол усуллардан бири муаммоли вазият яратиш орқали дарс ўтишда ўқитувчи ўқувчиларни кичик гуруҳларга бўлади ва уларга муаммоли саволларни беради. Ўқувчилар берган саволларга гуруҳдаги аъзолар билан ўзаро фикрлашиб, умумий жавобни айтишлари керак бўлади. Бундай усулда ўтилган дарсда уятчан ва тартинчоқ ўқувчилар ҳам фаол қатнаша бошлаганини кўриш мумкин. Чунки, биринчидан, ўқувчилар мусобақа тарзида ўтилаётган бу дарсга фаол қатнашиб, ғолиб бўлиш мақсадида бўлса, иккинчидан, бундай вазиятда ўқувчи доскага чиқиб ҳамма ўқувчилар олдида мавзуни тушунтирмасдан, фақат кичик гуруҳга ўз фикрини айтади. Бу эса ўқувчида фикрини эркин айта олишга шароит туғдиради. Шундай фаол усулларни қўллаш орқали дарс ўтиш кўпроқ қўлланилса ўқувчилардаги уятчанлик ва тортинчоқлик ҳолатлари бартараф этилиб, улар энди нафақат кичик гуруҳларда, балки ҳамма ўқувчилар олдида ҳам эркин фикрларини ифодалай олишлари мумкин.

Шундай экан, бугунги кун педагогикаси ўқувчиларнинг ўз фикрларини эркин, тортинмай айтиш имконини берадиган янги интерфаол усулларни ҳаётга яна ҳам чуқурроқ татбиқ этиш йўлидан борилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Таълим самарадорлигини ошириш, давлат таълим стандартларининг бажарилишини таъминлаш, таълимнинг сифат курсаткичини кафолатлашда замонавий педагогик технология хол килувчи омиллардан бўлиб бармокда.

Педагогик технологияни ўқув жараёнида қўллаш жаҳон амалиётида кенг тарқалмокда.

Ҳозирги куннинг талаби ўқитувчининг дарс самарадорлигига эришишдир.Ўқувчиларни сифат жиҳатидан замон талаби даражасида тайёрлашга аввало уларга аниқ билимлар бериш, касбий кўникма ва малакаларни шакллантириш, уларни келгуси фаолиятларида унумли кўллашга ўргатиш орқали эришиш мумкин. Шундай экан, ўқув-тарбия жараёнини таълим назарияси фаолияти нуктаи назаридан кўриб чиқиб, барча таълим-тарбия ишларини “педагогик технология” йуналишига ўтказиш, мактаб амалиётидаги ихтиёрийлик билан унинг ҳар бир элементини жиддий асослаш лозим бўлади.

Таълим жараёнининг самарадорлиги ҳар қандай таълим муассаси ўқитувчисининг янги педагогик технологиялардан фойдаланишнинг илмий ва амалий асосларини қай даражада эгаллаганлиги билан белгиланади.

Мавжуд таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш ва кадрлар тайёрлаш миллий дастурини замонавий илмий тафаккур ютуқларига, ижтимоий тажрибага асосланган холда, узлуксиз таълим тизимини барча шаклдаги таълим муассасаларида таълим жараёнини таъминловчи илғор илмий-методик технология сифатида амалга ошириш бугуннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

## Адабиётлар

Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Т., Ўқитувчи, 1988. .

Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.

Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Баркамол авлод тарбиясида

# соғлом педагогик-психологик муҳитнинг муҳим жиҳатлари

**Чоршанбиев Ихтиёр Жумаевич**

Сурхондарё вилояти Ангор туманидаги алохида таьлим

эхтиёжлари булган кўзи ожиз болалар учун

ихтисослаштирилган "Нурли маскан" мактаб-

интернатининг тарих фани укитувчиси

**Аннотация.** Таълим сифати. Интерфаол усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти. Баркамол авлод тарбиясида соғлом педагогик-психологик муҳитнинг муҳим жиҳатлари. Ўқитувчилар ва синф раҳбарлари диагностикаси.

Таълим сифатини ошириш бугунги кунимизнинг долзарб масалаларидан биридир. Ватанимиз барча соҳаларда ўзгаришлар, ислохотлар амалга оширилди ва оширилмокда. Ҳозирги даврда Ўзбекистонда билимли, малакали кадрларни тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмокда.

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва хаётий зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислох ки-

лиш ва такомиллаштириш, янги сифат босқичига кўтариш, унга илғор педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайерлаш миллий дастури»нинг қабул қилиниши билан узлуксиз таълим тизими орқали замонавий кадрлар тайёрлашнинг асоси яратилди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Узлуксиз таълим чуқур, ҳар тарафлама асосли таълим-тарбия бериш, мутахассис кадрлар тайёрлашнинг турли шакл,усул,восита,услуб ва йўналишларининг мукаммал уйғунлигидан иборатдир. Узлуксиз таълим сифатини турли компоненталар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик,муайян усуллар ва услубларнинг таълим жараёнига оқилона татбиқ этилиши таъминлайди.Бунда албатта, ўқитувчининг роли бекиёсдир. Ўкитувчи мактабда дарс берар экан, унинг педагогик маданиятга эга эканлиги ва ёшларга тарбия беришда соғлом педагогик-психологик муҳитни яратиш мухим ахамият касб этади.

Таълимнинг бугунги вазифаси ўкувчиларни кун сайин ошиб бораётган ахборот-таълим муҳити шароитида мустакил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилона фойдаланишга ўргатишдан иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур. Албатта бунда ўкитувчининг меҳнати ва маҳорати муҳим ахамият касб этади. Ўкитувчининг касбий махорати қанчалик юқори бўлса, унинг мехнати самараси ҳам шунча юқори булади. Педагогик маданиятга эга бўлган ўқитувчи албатта ўз сохасининг устасидир. Ўқитувчининг педагогик маданиятини ҳамда ўқувчи ёшарга таълим-тарбия беришда соғлом педагогик-психологик муҳитни ташкил этувчи омиллар куйидагилар хисобланади: маънавий етуклик, билимдонлик, педагогик технология, педагогик мехнат, педагогик-психологик маҳорат, педагогик техника шулар жумласидандир.

Демакки, ўқитувчининг педагогик маданияти бу мураккаб тузилма бўлиб, у ўз ичига касбий педагогик тажрибани, ундаги педагогик махорат даражаси ва билимларни олади.

Педагогик жараённинг самарали бўлиши ўкитувчига, унинг касбий махоратига боғлиқ. Шунингдек, педагогик жараённинг самарали ва натижали бўлишини интерфаол усуллар таъминлайди. Бу демак, нафақат дарсда бошкалар билан ҳамкорликни билдиради, балки бошқалар билан хамкорлик, бу ўқитувчининг ўқувчи, жамоа,ота-она ва бошкалар билан хамкорлигидир. Дарсда эса ўқитувчи ўқувчилар билан мулоқотда бўлади, болага дўстона муносабатда бўлиш билан бирга, ўртада ўзаро ишончни мустахкамлайди. Бу албатта, ўқитувчининг педагогик маданиятига боғлик. Педагогик маданиятга эга бўлган ўқитувчи- бу хозирги куннинг талабига жавоб бера оладиган замонавий ўқитувчидир.

Умумий ўрта таълим мактабларида болани етук, мукаммал шахс килиб тарбиялаш ва таълим беришда ички имкониятлари, иқтидори, қобилияти,ақл-заковати, қизиқиши,иродаси, ҳис-туйғуси,диққати ва билим даражасини инобатга олган ҳолда психолог хизматини ташкил қилиш ҳам муҳим бўлиб, бу барча педагогларга яқиндан ёрдам беради. Болага ёндошишнинг энг туғри йули, бу,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

таълимнинг турли босқичларида рўй берувчи қийинчиликларида боланинг функционал холати ва ривожланиши, унинг шахсий хусусиятларини хисобга олган холда ёндошишдир. Шу сабабли ёш авлодни тарбиялашда билим олиш эхтиёжини ривожлантиришни, асосий ўқув илмий ва умуммаданий билимларни шакллантиришни, ўқувчиларда меҳнат кўникмалари, мустақил ижодий фикрлаш, касб танлашга ва атроф-оламга онгли муносабатни хосил килишга оид бир қанча ишлар амалда бажарилмоқда.Шу боисдан таълим мазмунини ҳар бир ўқувчининг ўзига хос бетакрор имкониятлари, қизиқишлари ва қобилиятлари кўлами билан мувофиқлаштиришни юқори савияда таъминлашга эришиш халқ таълими тизимининг тез фурсатда хал этиши зарур бўлган долзарб муаммодир. Мазкур муаммонинг хал этилиши эса барча ривожланган давлатларда бўлгани сингари таълим тизимида психологик хизматни татбиқ этилиши билан боғликдир. Шу сабабли, ҳозирги жамиятнинг ривожланишини таъминловчи ижтимоий уйғунлик акс этган ҳар қандай мамлакатнинг буюк келажагини комил инсоннинг шахс сифатида шаклланишига хизмат килувчи психологик хизмат тизими фаолиятисиз тасаввур қилиш ҳозирги кунда қийин. Чунки, узоқ йиллик тажрибалар ва ютуқлар шахс тараққиёти билан белгиланади, шахс тараққиёти эса ижтимоий манфаатларга хизмат килиш билан аҳамиятлидир.Ижтимоий манфаатларга хизмат килувчи шахсни шакллантириш эса, аввало, мазкур шахс истиқболини илмий ва методик жиҳатидан тўғри белгиловчи илғор таълим усулларини татбиқ эта олиш билан бевосита боғликдир.

Мактабларимизда психологик хизматни амалга оширишда амалиётчи психолог  штати жорий этилиб, фаолият олиб бормокда. Мактаб амалиётчи психологи фаолияти ниҳоятда масъулиятли ва машаққатлидир. Мактаб  амалиётчи психологи мутахассис ва тажрибали бўлиши талаб этилади. Бугунги кун психологдан долзарб йуналишдаги масалаларга ечим топишни талаб қилади. Долзарб йуналишлар эса ўқувчилар таълим-тарбиясидаги қийинчиликлар, улар хулқ-атворидаги, мулоқотидаги ва шахси шаклланишидаги бузилишлар билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишга қаратилган. Шу билан бирга мактаб амалиётчи психологи таълим, тарбия, тараққиёт, касб танлаш, ўзаро муносабат, муомала ва мулоқот сирлари, тенгдошлар ва вояга етганлар муносабати, масалан, дунёқараш, қобилият, иқтидор  муаммолари юзасидан индивидуал, гуруҳий тарзда маслаҳатлар уюштиришдир.Бу албатта, психологнинг доимий ишига айланган. Зеро , ҳар бир амалга оширилаётган иш натижасиз қолмайди. Натижа эса, келажагимиз бўлган ёшларнинг олган билими, тарбияси, ўзаро муносабати, одоби,ахлоки, танлаган касби,ватанга мухаббати, шунингдек, жамиятда тутган ўрни билан белгиланади.

Қилинган, амалга оширилган ишларни  албатта диагностика қилиб бориш керак. Диагностика қилиш-психологик хизмат учун жуда муҳим. Диагностика

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

орқали психолог синф раҳбари, ўқитувчилар ва ўқувчилар фаолиятини таҳлил қилиб олади ва келажакда бажарадиган ишларига режа белгилайди.Диагностика қилишда шартли белгилардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Чунки, бирор фикрни изоҳлашда шартли белгилар муҳимдир. Бунда асосий қаратилган фикр чоракларга бўлиб олинади ва ҳар чорак учун алоҳида диагностика ишлари ўтказилади. Чораклар бўйича ўтказилган диагностиканинг афзалликлари шундаки, психолог ҳар чоракдаги ўзгаришларни яққол баҳолай олади. Шартли белгиларнинг изоҳи қуйидагича:

Юлдузча - аъло

Тўртбурчак – яхши

Учбурчак – харакат керак

Айлана – қоникарли

Сурок – қониқарсиз

Бундай диагностика утказиш дарс тахлилларида иштирок этиш орқали амалга оширилади. Бир соатлик дарс тахлилида психолог ҳам, ўқитувчи ҳам ўқувчи фаолиятини таҳлил қилиб олади.

Ўқитувчилар ва синф раҳбарлари диагностикасининг яна бир афзаллик томони шундаки, бунда ходимларни рағбатлантириш қийинчиликларсиз амалга оширилади.

Ўқувчилар диагностика қилинганда эса иқтидорли, истеъдодли ўқувчиларни саралаш мумкин,ёки аксинча, яхши ўзлаштирмайдиган ўқувчиларни аниқлаш ва улар билан мунтазам иш олиб бориш мумкин. Демак, мактаб психологи ёки психологик жараён ўқувчи ёшлар камолотига ижобий таъсир этади ва ёшларни камол топишида муҳим аҳамият касб этади.

Айтишимиз мумкинки, келажак йуналиши ҳар бир шахс индивидуаллигини ривожлантиришга, жамиятда яратувчанлик хаётига психологик тайёрликни шакллантиришга ҳаракат қилмоқдамиз.

Демак, ўқувчи-ёшларни тарбиялашда барча жабҳада яъни оилада ҳам.мактабда ҳам,маҳаллада ҳам соғлом педагогик-психологик муҳит баркамол шахсни шаклланишида муҳим омил ҳисобланади.

**Адабиётлар**

1. 1. Ў.Қ.Толипов, М.Х.Усмонбоева, Г.Эргашева, Ф.Берданова. Ўқув тарбия жараёнига педагогик технологияларни жорий этиш. Тошкент. ЎзПФИТИ, 2004 йил.

2. ғ.И.Муҳаммедов, Х.А.Тўрақулов. Замонавий педагогик-тадқиқотларнинг илмий-назарий асослари. Тошкент. «Фан»2004 йил.

3. В.Каримова. Психология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. «ЎАЖБНТ» маркази, 2002.- 205 бет

4. Йўлдошев Ж.ғ., С.А. Усмонов Педагогик технология асослари. Тошкент-2005 йил.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Мусиқа маданиятининг ёшлар тарбиясидаги ўрни ва аҳамияти

**Бахромова Сабохат Фахриддиновна**

Сурхондарё вилояти Термиз тумани

29-мактаб мусиқа фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Мусиқа маданияти. Мусиқа маданиятининг ёшлар тарбиясидаги ўрни ва аҳамияти. Мумтоз мусиқа, анъанавий касбий мусиқа, халқ бастакорлик йўллари, фолрклор - ҳаваскорлик мусиқий мероси.

Мамлакатимизда мустақиллик шарофати билан миллий-маънавий қадриятларимизга, урф-одатларимизга, унутилаёзган, тарихан қадрли анъаналаримизга бўлган эхтибор, уларни янгидан ислоҳ этиш жараёни устивор йўналиш касб этди. Бугунги кунда миллий қадриятларимиз, урф-одатларимиз, маънавий бойлигимизга бўлган эътибор давлат миқёсига кўтарилди. Мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ ота-боболаримиздан, аждодларимиздан қолган маънавий бойликларни, жумладан, мусиқий маданиятни авайлаб асраш, тиклаш борасида, қолаверса, замон билан ҳамоҳанг қадам ташлаш борасида талайгина ишлар қилинди. Бу борада ўтган аждодларимиз бизларга мерос қилиб қолдириб кетган улкан маънавий бойлигимиз асосий омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Умумий ўрта таълим мактабларида эса мусиқа маданияти дарслари орқали ёшларга маънавиятимизнинг асосий бўғини бўлган мусиқий маданиятимиз, анъанавий қўшиқларимиз, мақом ижролари ҳамиша халқимизнинг кундалик ҳаётида маънавий озуқа сифатида эътироф этиб келинганлиги, халқ оғир кунларида мусиқадан нажот излаганлиги, хурсандчилик кунларида ҳам қўшиқ ва мусиқа уларга ҳамроҳ бўлганлиги ҳақида айтилиб, маданий меросимиз ўргатилиб келинмоқда.

Ўзбек халқининг мусиқа маданияти жуда узоқ тарихга эга. Тарихий тараққиёт давомида халқ мумтоз мусиқаси, анъанавий касбий мусиқа, халқ бастакорлик йўллари, шунингдек, фолрклор - ҳаваскорлик мусиқий мероси сингари шаклан ва услубан бир-бирига яқин ижрочилик кўринишлари бир-бирини тўлдириб келди. Ушбу мусиқий меросимиз бугунги кунимизда ҳам маънавий маданиятимизнинг бир бўлаги сифатида намоён бўлмоқда.

Зеро, бугунги муборак мустақилликка эришган кунимизда, ўзлигимизни англаб бораётган бир даврда улкан маънавиятимизнинг бир бўлаги бўлган, ота-боболаримиздан мерос бўлиб келган миллий мусиқий маданиятимизга суяниш, анъанавий қўшиқларимизга мурожаат қилиш табиий бир ҳолдир. Буларнинг барчаси баркамол авлод тарбиясида, ёшларнинг маънавий дунёқарашини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Анъанавий мусиқа ва қўшиқларимиз одамларни ҳамиша иймонга, меҳр-оқибатга, одамийликка чорлаб келган. Бугунги кунда ҳам шу долзарблигини йўқотмаган ҳолда мустақилликка, меҳнаткашлар онгини шакллантириш йўлида, баркамол авлод тарбиясида восита сифатида асосий омиллардан бўлиб қолаверади.

Ашула, мусиқа, ракс, фолрклор ижрочилиги санъати миллий мусиқа санъатининг халқ ҳаёти ва ижоди билан чамбарчас боғлиқ ҳолда пайдо бўлган ва ривожланиб келган қадимий санъат турларидан ҳисобланади. Айниқса, халқимизнинг анъанавий руҳдаги қўшиқлари ўлмас мерос бўлиб, барча даврлардагидек бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Шунингдек, бугунги куннинг руҳига мос тарзда қўшиқлар яратиш эса миллий мафкурамизни ривожлантиришда бош омиллардан бўлмиш мусиқий санъат билан шуғулланаётган барча мутахассис ва санъаткорларга муҳим вазифа қилиб қўйилиши табиийдир. Мамлакатимиз тамомила янги жамият, янги турмуш ва янги ҳаётни бошлаб юборди. Одамларимиз қалби, тафаккури ва тасаввурида ўзгаришлар пайдо бўлди.

И.Каримов таҳкидлаганларидай, маънавият масаласи миллат тарихи, ахлоқий ва диний қадриятлар, маданий мерос, анъана ва расм- русумлар, миллий мафкура, ватанпарварлик ва инсонпарварлик, миллий ўзликни англаш сингари жуда кўп омилларни ўз ичига олади ва пировардида, инсон шахсини белгилашда асосий мезон вазифасини бажаради.

«Халқимизнинг келажаги, - деб ёзади Ислом Каримов, - энг аввало, унинг ўзига, маънавий кудратига ва миллий онгининг ижодий кучига боғлиқдир. Моддий фаровонликка табиий интилиш миллатнинг маънавий ва ақлий ўсиш эҳтиёжига ғов бўлмаслиги лозим. Маънавийлик ва маърифийлик халқимизнинг кўп асрлик тарихи давомида доимо унинг энг кучли ўзига хос хусусияти бўлиб келди».

Мусиқий маданият ўзининг серқирралиги билан ажралиб туради. Айниқса, ўзининг чуқур илдизлари қадимги даврларга етиб борадиган ўзбек халқининг бой мусиқа мероси ҳозирги кундалик ҳаётимиздан ҳам тушгани йўқ. У халқ ижодининг юксак намуналари, фолрклор ижрочилиги, куй тузилиши, мазмунан ривожланган чолғу ва ашула асарлари, достонлар ижрочилиги ҳамда мураккаб ижрочилик туркуми

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

аталмиш мақом мусиқасини ўз ичига олади. Бундан ташқари, халқ мусиқий маданиятида ўзларининг барча даврларда сезиларли ҳиссаларини қўшиб келаётган халқ бастакорларининг ижоди ҳам салмоқли ўрин тутади.

XIX аср охирларига келиб ўзбек мусиқий маданиятида ўзгаришлар даври бошланди. Бу албатта, Туркистон ўлкасини Руссия томонидан истило қилиниши билан боғликдир. Бу борада икки томонлама қараш билан ўрганмоқ зарур бўлади. Чунки баҳзи бир ҳолларда миллий мусиқа маданиятимизга салбий таъсирини кузатсак, иккинчи томондан, ўзига хос ривожланиш даври бўлганлигини ҳам эътироф этиш зарур бўлади. Чунки нота ёзувининг кириб келиши, ўлкамизда миллий мусиқа санъатимизни илмий равишда ўрганиш, фолрклор ва этнография соҳасидаги ривожланишга сезиларли таъсир этди.

Бу борада В.А. Успенский, Е.Е. Романовская, Н.Н.Миронов сингари мусиқашунос ва этнограф олимларнинг меҳнатларини айтиб ўтиш зурур бўлади. Илёс Акбаров, Мутал Бурхонов, Юнус Ражабий, Толибжон Содиқов, Мухтор Ашрафий сингари мусиқамиз дарғалари улардан сабоқ олдилар. Бундан ташқари, жаҳон мусиқий маданиятининг дурдоналари саналмиш фортопиано сози, опера ва балет, симфоник ижро, жаҳон классик мусиқий созларининг кириб келиши мусиқий маданиятимизнинг ҳар томонлама серқирра ривожига салмоқли ҳисса қўшди. Натижада, ўзбек халқ мусиқалари, қўшиқлари, мақомлари жой олган 20 жилддан ортиқ китоблар дунё юзини кўрди.

Сўнгги 130 йил ичида мусиқий маданиятимиз мураккаб, кескин зиддиятларга, ижобий ва салбий кўринишларга тўла тарихий даврни бошидан кечирди. Ана шу ҳолатларга қарамай, ўтган даврлар мобайнида илм фан, санъат, жумладан, мусиқий маданият соҳасида фахрланишга арзигулик ишлар амалга оширилганлигини эҳтироф этиш зарур. Яққол мисол сифатида мусиқа ижодиёти, ижрочилиги, мусиқа илми, таълими сингари соҳаларни олиш мумкин.

Ҳозирги замон ўзбек мусиқа ижодиёти сержабҳа ва кўлами кенг, услубан бой ва ранг-баранг, ривожланган ва шиддатли жараён сифатида гавдаланади. Зотан, мусиқий маданиятимиз жуда қадим, бетакрор ва ноёб анъаналарга эга бўлгани ҳолда, замона зайли билан янгидан-янги йўналиш, шакл, жанр, услублар билан янада бойиб бормоқда. Демакки, асрлар оша бизгача етиб келган ардоқли навобахш меросимиз қатори бир неча авлод ижодкорларининг кўркам мусиқий анъаналари маданий-маънавий мулкимизга айланди. Ҳар қандай санъат тури ҳар хил воситалар орқали ҳаётий воқеликни акс эттиришга қодир экан, сўнгги юз йиллик мобайнида Ўзбекистон мусиқасининг ривожланиши нечоғлик мураккаб ва ўзгарувчан ижтимоий шароитларда кечганини яққол тасаввур қилиш мумкин. Хусусан, 20-йиллардан эҳтиборан композиторликка хос ифода воситаларининг изчил жорий этила бошланиши мусиқий маданиятимизда мусиқа ижодкорлигининг янги тизими барпо этилишидан далолат берди.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Табиийки, тез орада ўзбек халқ ижодиёти, анъанавий бастакорлик ҳамда ҳаваскорлик сингари ўзаро чамбарчас боғлиқ қатламлар билан узвий боғлиқ равишда миллий қадриятларимизга, «ноанъанавий» композиторлик ижодкорлиги муҳим тармоқ сифатида қўшилади. Умумбашарий маданий тараққиётга мос равишда мазкур жабҳа ўлкамизда тарихан жуда қисқа муддат ичида узил-кесил шаклланиб, самарали ривож топганини алоҳида эҳтироф этиш лозим.

Ғарбий ва Шарқий Европа мамлакатлари тажрибасидан унумли фойдаланибгина қолмай, ўзгача яратувчанлик қонун-қоидаларини ўзлаштириш, уни ўзбек халқ мусиқасининг бой имкониятлари билан моҳирона пайванд қилиш мақсадида илғор композиторларимиз нафақат Марказий Осиё, балки Шарқ минтақаси доирасида улкан ютуқларни қўлга киритишга муваффақ бўлдилар.

Янгича мусиқий услубда ноёб замонавий асар яратиш, жаҳон халқлари мусиқаси ривожланишини ҳисобга олиб, тобора янгидан - янги ижодий уфқларни очиб бериш билан тавсифланувчи байналминал жараёнга Ўзбекистон ўз муносиб улуши билан дадил кира олди. Касбий улғайиш босқичларини тезкорлик билан ўтаб, ҳар томонлама етуклик палласига кўтарилиши билан «Ўзбек композиторлик мактаби» дунё мусиқа маданиятида ўзига муносиб ўринни эгаллашга интилди.

Асосан XX асрнинг иккинчи ярмида вужудга келган ана шундай ижодга мойиллик даражаси илгари айрича ҳолда бўлган икки тоифадаги мусиқий тафаккур анъаналарининг ўлкамизда узвий муштараклигига эришилганлиги билан ҳам характерланади. Шу боисдан кўп овозлик услуб ила бунёд этилган турли жанрлардаги бадиий жиҳатдан баркамол, мумтоз асарлар маънавий қадриятларимизнинг жаҳоншумул салоҳиятини янада оширди.

Мусиқий маданиятимизнинг янги йўналиши бўлган ўзбек симфоник мусиқаси 70-80-йилларда пешқадам сафга чиқиб олганини эслаб ўтайлик. Бу ўринда республикамизда, қўшни ва қатор хорижий мамлакатларда ўтказилган нуфузли маданий тадбирлар, концерт, кўрик-танлов ҳамда фестивалларда катта муваффақият билан ижро этилган ўзбекона поэмалар, сюиталар, увертюралар, фантазиялар, чолғу концертлар ва симфониялар халқаро мусиқа жамоатчилиги диққат-эҳтиборини қайта-қайта ўзига жалб қилган.

Бугунги кунда ўзбек мусиқа санъати нафақат асл анъанавий кўринишларида, балки композиторлик йўналишларида ҳам халқаро миқёсда тобора кенгроқ тан олинмоқда. Бу маънода соф чолғу мусиқаси, хусусан, унинг анча мураккаб саналмиш симфоник ижодиёти алоҳида эҳтиборга молик. Эндиликда республикамиз композиторлиги шунчаки хилма хил мусиқа жанрларида ёзиш ва изланиш тажрибаларидан иборат бўлмай, балки ноёб анъаналарига, мумтоз намуналар хазинасига эга сермаҳсул оқимдир. Уни турли йилларда халқчил куй оҳанглар

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

заминида яратилган ноёб ва бетакрор асарлар ташкил этади. Зеро, ҳар қандай андозада басталанган мусиқанинг миллийлик, бадиий баркамоллик, ўзига хослик, мазмундорлик, таъсирчанлик каби фазилатлари ҳамиша қадрлидир.

Юксак касб маҳорати, теран билимдонлик, нозик дид билан кўҳна миллий анъаналарга таяниб яратилган асарларнинг умри боқийлигини биргина ўзбек симфоник мусиқаси мисолида яққол кўриш мумкин.

Жумладан, 30-йилларнинг иккинчи ярмида яратилган Алексей Козловскийнинг овоз ва симфоник оркестрига мослаштирилган эҳтиросли «Тановар» поэмаси, «Лола» сюитаси, Рейнголрд Глиернинг «Фарғона байрами» шодиёна увертюраси тингловчиларга ҳамон олам-олам завқу шавқ бағишлаб келмоқда. Симфоник оркестр иштирокида ижро этишга мўлжалланган ўлмас кашфиёт даражасидаги асарлар орасида Мутал Бурҳоновнинг яккахон, хор ва симфоник оркестр учун «Алишер Навоийга қасида»си, Мухтор Ашрафий, Георгий Мушелр, Сулаймон Юдаковларнинг қатор симфоник асарлари, Дони Зокировнинг «Лирик поэма»си, Борис Надеждиннинг «Болаларга» сюитаси, Икром Акбаровнинг «Шоир хотирасига», «Эпик поэма»лари, «Самарқанд ҳикоялари» туркуми, Сайфи Жалилнинг «Самарқандномa» симфонияси, Тўлкин Қурбоновнинг симфоник куйлари, Мирсодиқ Тожиевнинг «Шоир севгиси» поэмаси ва 19 та муҳташам симфониялари, Мирхалил Маҳмудовнинг 3 та симфонияси, Нурилла Зокиров, Мустафо Бафоев, Рустам Абдуллаев, Ҳабибулло Раҳимов, Баҳрулло Лутфуллаев ва бошқа ижодкорларнинг ютуқлари мусиқий маданиятимиз равнақига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди.

Заминимиздаги мусиқа санъатининг ривожи уч минг йилга бориб тақалади. Ўтган бу залворли даврлар мобайнида мусиқий маданиятимиз жуда кўп марта ўзининг узоқ ривожланиш даврини босиб ўтди ва халқимиз маънавий бойлигининг негизи сифатида эзгулик ва тараққиёт учун хизмат қилди. Шунинг учун ҳам биз жуда бой, ранг-баранг, кўлами кенг, услубан хилма хил, қиймати чин маънода бебаҳо даражали улуғвор мусиқий меросга эгамиз.

Ўрта асрларда фақат мумтоз ижодкорлик қатламида «Ўн икки мақом»дек муҳташам тизим, унинг негизида шаклланиб бизгача етиб келган Бухоро ва Хоразм мақом туркумлари, Фарғона-Тошкент мақомлари, анъанавий ижрочилик ва сурнай йўллари, халқ бастакорлик ижодкорлиги, мусиқий достончилик санъати мусиқий маданиятимизнинг сарчашмалари сифатида баҳраманд қилиб келмоқда.

Миллий чолғуларимизнинг тоифалари кўплиги, турфа якка ва жўрнавозлик ижро анъаналарининг ўзига хослиги бўйича миллий мусиқа санъатимизга дунё узра тенг келадиганини топиш қийин. Шарқ мусиқа илмининг асосчиси деб бутун жаҳонда тан олинган ватандошимиз Абу Наср Форобий, буюк алломаларимиздан Абу Али ибн Сино, Абдулқодир Марoғий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Зайнулобиддин

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Хусайний, Кавкабий Бухорий, Дарвиш Али Чангий ва бошқалар шарқона жаҳоншумул аҳамиятга молик ноёб назарий ва эстетик қарашларни ишлаб чиққан ҳолда мумтоз мусиқий асарларнинг ҳам муаллифи сифатида кенг танилгандирлар.

Ана шундай халқчил ва устозона қатламлар орқали бизгача етиб келган мусиқий маданиятимиз туфайли тарихан жуда қисқа муддатларда Ўзбекистонда янада янгича, кўп овозли миллий композиторлик ижодиёти узил - кесил шаклланди, ўз қиёфасига эга бўлди, жадал равнақ топди. Бунда халқ мусиқамиз, айниқса, мақомчилик анъаналари фақат ҳаётбахшликни таҳминлабгина қолмай, балки маҳсулдор замин бўлиб хизмат қилди.

Маълумки, улуғвор мақом санъати миллий маънавий мулкимизнинг энг қимматли ва ардоқли хазинасидир. Унинг асл намуналаридан неча-неча авлодлар баҳраманд бўлиб келишмоқда. Ҳатто кенг кўламли тарғибот учун расман тақиқланган пайтларда ҳам мақомларнинг мавқеи, амалий-ҳаётий моҳияти сақланиб қолаверди. Халқимизнинг юксак онги, диди, руҳий талаб ва эҳтиёжларига бастакорлик ижодиёти, устозона ҳофизлик ва созандалик ижрочилиги маънавий озуқа бериб келган. Шу боис бундай санъат усталари эл-юртимиз орасида ҳамиша қадрланганлар ва эъзозланганлар.

Буюк истиқлол туфайли мусиқий маданиятимиз эски сиёсий - мафкуравий тазйиқлардан халос бўлди. Шу билан бирга, у кўҳна мумтоз анъаналаримизнинг тўла тикланишига, айниқса, ёш авлодларни билимдон, саводхон, маънавий баркамол даражада тарбиялашга мисли кўрилмаган имконият яратди. Хусусан, биз айнан мустақиллик даврида кўҳна мақом ижрочилиги ва анъанавий ижодкорлигида юзага келган янгича ижодий салоҳиятнинг тикланишини кузатишга муяссар бўлмоқдамиз.

Диний-фалсафий ашулалар масаласига келсак, булар, аввало бизнинг тарихий бойлигимиздир. Кимгадир ғайри табиий туюлса ҳам, бу йўналишга тўсиқ бўлмаслик аслида озодлик, эркинлик, юксак маданиятга хос чинакам демократик тамойилларнинг амалдаги яққол ифодаси бўлса керак. Чунки мумтоз шарқ шеҳриятида битилган илоҳий, тасаввуфона мавзулар ўтмиш мусиқамизда ўзининг оҳанрабо, таҳсирчан ифодасини топган ва қадрланган. Бундай ашулаларнинг ўз тингловчилари, асосан, кексалар орасида шинавандалари, мухлислари бор. Буни албатта, ҳисобга олиш зарур бўлади.

Кези келганда шуни ҳам эътироф этиш кераки, Европага турдош замонавий мусиқа ижрочилиги бўйича, жумладан, фортепиано, торли, дамли ва зарбли чолғулар, академик услубдаги хонандалик ихтисосликларидан кўплаб иқтидорли ёш мусиқачиларимиз вояга етмоқда. Уларнинг аксарияти республика ва чет мамлакатларда нуфузли халқаро танловларда иштирок этишиб, ғолиб ва совриндорликни қўлга киритишаётгани қувонарли ҳолдир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Айтишимиз мумкинки, мусиқий маданиятимизнинг халқ маънавий ҳаётидаги ўрни беқиёсдир. Мусиқий маданият халқ маънавий дунёсининг ажралмас қисми бўлиб, унинг маънавий эҳтиёжини барча даврларда қондирган ва ҳар доим ҳамдард бўлган, беминнат хизмат қилган. Зеро, бугунги мустақиллик давримизда ҳам ўзининг маънавий бурчини муқаддас билиб, халқимизга хизмат қилмоқда. Шунинг учун ҳам мусиқа маданиятимиз бугунги куннинг улкан ижод майдонига айланди.

Бугунги кунда мактабларимизда мусиқа дарсларининг ўтилиши, мусиқа тўгаракларининг ташкил этилиб, машғулотларнинг мунтазам равишда олиб борилиши, қобилиятли, истеъдодли ёшлар орасидан ҳаваскорлар фольклор ансамблларининг, дуторчи қизлар ансамблининг, доирачи йигитлар ва бошқа ансамблларнинг ташкил этилиши ёшларнинг маънан юксалишида муҳим аҳамият касб этмоқда.

*Адабиётлар*

1. *Абдуллаев А.А. санъат тарихи Т. 1991.*
2. *Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т. 1991.*
3. *Булатов С.С.Амалий санъат қисқача луғоти. Т. 1992.*

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## Таълим сифати ва самарадорлигини ошириш омиллари

**Абдуллаева Ҳавохон Собировна**

Сурхондарё вилояти Термиз тумани

8-мактаб она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Ўқитувчи ҳақида сўз. Замонавий дарс. Таълим сифати ва самарадорлигини ошириш омиллари

Айни вақтда таълим соҳасида ислоҳотлар амалга оширилмоқдаки, бу педагог кадрлар салоҳияти, уларнинг касбий ва методик маҳорати, таълим мазмуни ва сифатини мунтазам ошириб боришга эришишни долзарб масала қилиб қўймоқда.

"Агарки дунё иморатлари ичида энг улуги мактаб бўлса, касбларнинг ичида энг шарафлиси ўқитувчилик ва мураббийликдир" дейди Президентимиз Ислом Каримов.

Юртимизда янги авлодни тарбиялашдек масуълиятли вазифа биринчи галда ўқитувчининг зиммасига юкланади. Эртанги кунда ўрнимизни эгаллайдиган юртимизнинг порлоқ келажаги учун хизмат қиладиган ёшларнинг маънавий дунёсини шакиллантирадиган бу ўқитувчи. Унинг чексиз меҳнати беқиёс хизматидир. Ёш авлодни билимли, саводли маънавий баркамол, жисмоний соғлом қилиб вояга етишида ўқитувчининг ўрни жуда каттадир. Фарзанд эртанги кун умиди унинг истиқболида келажак бор. Мустақиллигимизнинг биринчи кунлариданоқ фарзандларимизнинг баркамол авлод бўлиб етишишига катта эътибор қаратилди. Шунинг учун ҳам бугунги кун ўқитувчиси юртимизда яратилган барча имкониятлардан самарали фойдаланишлари, ўқувчиларимизнинг ҳеч кимдан кам бўлмасдан, замонавий илм сирларини ўрганишда таълим-тарбия самарадорлигини оширишда самарали меҳнат қилишлари керак.

Бугунги кун ўқитувчиси қандай бўлиши керак? Бугунги кун ўқитувчиси ўз устида тинмай ишлаши, ҳар томонлама илғор, теран фикрлайдиган, илғор педагогик ва ахборот технологияларини самарали қўллайдиган ижодкор ўқитувчи, ёшларни

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

маънавият сари етаклайдиган, ажойиб инсоний фазилатлар соҳиби бўлиш керак. Ҳар томонлама етук, баркамол, ўз ўқувчиларига юксак намуна кўрсата оладиган устоз бўлиши керак. Фарзанд таълим – тарбияси, камолати ҳақида қайғуриш ҳар биримизнинг фазилатимиздир ва бу маъсулият янада кўпрок ўқитувчининг зиммасига тушади. Бекорга Дистервег "Хар кандай таълим ва тарбияда асосий омил – муаллим, унинг тафаккур дунёсидир" деб бежиз айтмаган. Ўқитувчи келажак авлоднинг пойдеворини шогирдининг камолати орқали бунёд этади. Ўқитувчи замон талабига хамоҳанг, замон билан бирга қадам ташлаши керак. Чунки бугунги илм-фан тараққиёти шуни тақазо этади. Замонавий ўқитувчи нафақат ўз фаолиятининг билимдони балки ён-атрофдагиларни қизиқтирадиган барча соҳадаги сўнгги янгиликлардан ҳам хабардор бўлиши керак. Хар қандай доирада мустақил фикрини билдириши зарур.

Замонавий ўқитувчи ўз билими, ташқи кўриниши, ички маънавий дунёси билан хам ўқувчиларига ўрнак бўлиши керак. Шу ўринда бир нарсани ёдга олгим келади. Бундан 40 йиллар олдин эндигина 5-синфга қадам қўйганимизда бизга янги синф раҳбар тайинлашди. У киши ҳам синф раҳбар, ҳам она тили ва адабиёт муаллимамиз эдилар. У кишининг чеҳраси ҳам, овози ҳам, ўзи ҳам ёқимли эди. Жуда озода, нозик дидли инсон эдилар. Шунчалик чиройли, ажойиб дарс ўтар эдики, синфимиздаги энг тўполончи болалар ҳам жим ўтириб кулоқ солардилар. Сўзлаб берган эртакларининг қахрамонлари билан бирга юргандек хис этардим ўзимни. Ўша устозим туфайли адабиётга меҳр қўйдим, келажакда мен ҳам улардек ўқитувчи бўлишни орзу қилдим. Ҳозир ҳам китобларни севиб ўқийман. Менда бадиий адабиётга, ўқитувчилик касбига меҳр уйғотган ўша устозимдан умрбод миннатдорман. У киши том маънода ҳакикий педагог, олийжаноб инсон, юксак маънавий фазилат эгаси эди. Демоқчиманки, ўқитувчи яхши билим эгаси бўлиши билан бирга, ўқувчиларнинг қалбига йўл топа оладиган, ўқувчиларига ҳар томонлама намуна бўла оладиган инсон бўлиши керак.

Бугунги кунда ҳар бир ўқитувчи ўз дарсини замонавий ёндашувлар асосида ташкил этиши яъни таълим жараёнини самарали ташкил этиши, дарсни қизиқарли ўтишда замонавий таълим технологияларидан фойдаланишни тақозо этади.

Замонавий таълим технологиялари куйидагилардан иборат:

*муаммоли таълим машғулотларини ташкил этиш ва бошқариш;буни учта босқичда амалга ошириш мумкин:муаммоли вазият ҳосил қилиш,муаммони ечиш тахминларини шакллантириш,ечимнинг тўғрилигини текшириш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

*назарий маълумотларни беришга асосланган амалий ролли ва компьютер ўйинлари;

*ижодий муҳит яратиш, ўқув тарбиявий масалаларни ечишга йўналтирилган технология;

*тренинглар(таълим давомида муайян турдаги масалаларни ечиш,билиш фаолиятига таъсир этувчи омилларга асосланган технология).

Замонавий дарс шундай дарски,унда ўқитувчи ўқувчининг мавжуд имкониятлдаридан уддабуронлик билан фойдаланиб,унинг ақлий лаёқатини ишга солиб,ўсиб боришни таъминлайди. Дарсни шундай ташкил қилиш керакки, унда ўқувчиларни мустақил фикрлаш,ижод этиш ва изланишга сафарбар этиш,дарс жараёнида ишончва эркинлик муҳитини яратиш, ижодий ва амалий мулоқотда бўлишни таъминлаш,ўқувчи фикрини изоҳлаш,таҳлил қилиш,талқин этиш,ижодий муҳит яратиш,кичик гуруҳларда ишлашда ҳамкорлик фаолиятини,ўқитиш самарадорлигини ошириш мумкин бўлсин.

Дарсда инновацион ёндошув ўқитувчи-ўқувчи ҳамкорлигини таъминлайди. Бу борада ўқитувчи аниқ вазиятларни ўрганиш методидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ. Бунда:

*дарс мазмун моҳиятини сингдириш,аниқ фикр билдириш,фикрлашга, изоҳлашга,қидириб топишга,хулосалашга ўргатиш;

*мустақил ишлашга,ўз-ўзини тарбиялашга,ижодий муҳит яратиш,фикрлаш,сўзлаш маданиятига ўргатиш;

*билим,кўникма,малакаларини ошириш,педагогик-психологик муҳит яратиш;

*янги билим ғояларини ижодкорлик билан ўрганиб ўзлаштириш,лойиҳалаш,моделлаштириш,амалиётга татбиқ этиш;

*таълим жараёнини таълим берувчи ва таълим олувчининг ҳамкорлик фаолияти сифатида ташкил этиш;

*таълим берувчилар фаолияти самарадорлигини ошириш,таълим соҳасини ривожлантириш;

*дарсда билим ва фикр эркинлиги,интерфаол методларидан фойдаланиш.

*дарсда АКТдан фойдаланиш ва ш.к.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ҳозирги куннинг талабига жавоб бера оладиган,ҳар томонлама билимли, кўп қиррали, янгиликларни ўзлаштира оладиган ва ҳаётга татбиқ эта оладиган,компьютер саводхонлигига эга ва дарсда АКТдан фойдалана оладиган, ўз тилидан ташқари инглиз ва рус тилларини ҳам билиши ёки

крганишга ҳаракат қиладиган ўқитувчи замонавий ўқитувчидир. Бундай ўқитувчилар баркамол авлод тарбияси йўлида масъуллигини унутмаган ҳолда жўшқинликда фаолият юритади.

Адабиётлар

1. Ж.Ғ.Йўлдошев. Ўзбекистон Республикаси таълими тараққиёти йўлида. Т., «Ўқитувчи», 1994 йил.
2.Таълим жараёнидаги ноанъанавий шакллари (Методик қўлланмалар. Тузувчилар: Толипова Ж. ғофуров А.Т.) Т, 1994 йил.,
3.Йўлдошев Ж.ғ., С.А. Усмонов Педагогик технология асослари. Қўлланма,- Т:. -2004 йил.
4.Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт).- Т.,Молия нашриёти. 2003 йил.
5.Саидахмедов Н. Педагогик амалиётда янги технологияларни қўллаш намуналари.-Тошкент : РТМ 2000 йил.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Таълим сифатини оширишда инновация

**Ахмедова Хуррият Одилбековна**

Сурхондарё вилояти Денов тумани

1-мактаб математика фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Инновация. Ахборот технологиялари. Ўқитишнинг ахборот технологиялари. Таълим сифатини оширишда инновация.

Бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири бу, ёш авлодга чуқур билим берадиган, фикрлаш доираси кенг, касбий кўникмаларга эга бўлган, ҳуқуқий демократик жамият аъзоларини озод ва эркин яшашга, мустақил фикр юритишга ўргата оладиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш асосий вазифа қилиб белгиланган. «Илгари бирор бир мамлакатнинг тараққиёти ва куч-кудратини ифодалаш ва баҳолаш учун унинг мавжуд бўлган табиий бойликлари ва иқтисодий салоҳияти ҳақида сўз юритилар эди. Бугун дунё тараққиётнинг шундай босқичига қадам қўйдики, ҳар қандай миллат ва давлат имкониятларининг хал қилувчи белгиси- бу маърифат, инсонларнинг интеллектуал, касбий ва маънавий салоҳиятидир»-деб таъкидлайди И.А.Каримов.

Таълим сифатини оширишда инновациялар муҳим аҳамият касб этади. Шу ўринда айтиш жоизки, мактаб таълимида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш замонавий дарс ўтишнинг асосидир. Албатта, илғор педагогик технологиялар ва инновациялар ўз-ўзидан таълим тизимига кириб келмайди. Бу ўқитувчи фаолияти ва унинг мотивациясига боғлиқ жараён. Ўқитувчи фаолиятини ўзгартирмай туриб, унинг масъулияти ва фаоллигини оширмасдан таълимда бир кадам олдинга силжиб бўлмайди. Академик А.Н. Леонтьев «Дунёни идрок қилишнинг биринчи шарти -фаолият, иккинчи шарти - тарбиядир. Фаолият жараёнида кишиларнинг қобилияти, билим ва малакалари шаклланади, демак, фаолият-ижтимоий ходиса бўлиб, ҳаётий курашнинг асосий шартидир»,- деб таъкидлайди. Яъни фаолият ижтимоий ҳодиса бўлиб, шахсий, гуруҳий, миллий ёки умуминсоний эҳтиёжларга жавоб берувчи мақсадлар сари йўналтирилган ҳаракат ҳисобланади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Инсон фаолияти ўз олдига қўйган мақсадларига кўра бир-биридан фарқ қилади. Масалан, ижодий фаолият, илмий фаолият, педагогик фаолият, тадбиркорлик фаолияти, ўқув-билув фаолияти, бошқарув фаолияти ва инновацион фаолият кабилар. Фаолиятнинг мазмуни, шарт-шароитлари, воситалари ўзгариб бориши натижасида инсоннинг ахлоқий маданияти такомиллашиб боради.

«Педагогик фаолият - жамиятнинг таълим-тарбияга бўлган эҳтиёжини қондириш мақсадида умуминсоний сифатлар ва миллий фазилатларни шакллантиришни илмий асосланган режа-дастурга мувофиқ амалга ошириш, яъни ёш авлодни ҳаётга тайёрлайдиган ижтимоий зарур фаолият»,-дея таърифлайди Б.Зиёмуҳаммедов .

Педагогик фаолият, унинг тузилиши ва таркибий қисмлари ҳақида жуда кўп олимлар илмий изланишлар олиб борганлар. Жумладан, С.Л.Кузьмина ўз тадқиқотларида педагогик фаолиятнинг гнесеологик (билиш), лойиҳалаш, ташкилотчилик, коммуникатив таркибий кисмлари мавжуд эканлиги баён этиб ўтган.

Бугунги кунда педагогика сохасида янги илмий йўналиш - педагогик инновация ва таълим жараёнини янгилаш ғояларининг пайдо бўлиши натижасида ўқитувчининг педагогик фаолиятида ҳам янги йўналиш «ўқитувчининг инновацион фаолияти» тушунчаси пайдо бўлди.

Педагогикада инновация, инновацион фаолият, инновацион педагогика, таълимда инновацион жараёнларни бошқариш каби тушунчалар XX асрнинг 60-йилларида дастлаб АКШ ва ғарбий Европа мамлакатларида «таълим технологияси» тушунчаси эътироф этилган вақтда пайдо бўлди. Ўша вақтдаёқ Европада педагогик инновациялар маркази ва институти ташкил этилди. Бу тушунчаларнинг пайдо бўлиши ва инновацион таълим назариясининг яратилиши тўғрисида маълумот берувчи манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, бу тушунчалар таълим тизимини технологиялаштириш, педагогик технологияларни таълим тизимига киритиш оркали таълим тизимини ислох қилиш, таълим самарадорлигини ошириш, шахс ижтимоийлашувини таъминлаш, бу борада муайян муваффақиятларга эришиш учун таълим жараёнида болага дўстона муносабатларни шакллантиришга уриниш натижасида вужудга келди. Олиб борилган илмий изланишлар натижасида ўтган аернинг 80-йиллари иккинчи ярмида педагогик фаолият бу -ижодий жараён ва педагогик инновациялар бирлашмаси, деган янги илмий йўналиш таркиб топди. Бу эса ўқитувчининг инновацион педагогик фаолиятининг шаклланиши ва ривожланиш жараёнини таҳлил қилиш имконини берди.

Мамлакатимизда педагогик инновацияни ривожлантириш муаммолари устида педагог олимлардан Н.Азизхўжаева, Б.Фарберман, У.Нишоналиев, Н.Сайидахмедов, М.Очиловлар илмий изланишлар олиб бормокдалар.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Инновацион фаолият-педагогнинг ўз касбини такомиллаштиришдаги мавжуд шакл ва воситаларни эгаллашга ижодий ёндашувини назарда тутади. Таълимдаги инновациялар ва инновацион педагогик фаолият ҳақида барқарор ва ҳаммага маъқул бўлган илмий тасаввурлар ва таснифлар шу пайтгача мукаммал таркиб топган эмаслигини ҳам эътироф этиш лозим. Бундай ҳолатнинг асосий сабабларидан бири таълимга йўналтирилган илмий билимлар тизимлари ўртасидаги қийинчилик билан енгиб ўтиладиган узилишлардир. Яна муҳимроқ сабаб эса таълимий билим ва амалий педагогик фаолият ўртасидаги узилишдир. Ўқитувчи инновацион фаолиятнинг субъекти ва ташкилотчиси сифатида янгиликни яратиш, қўллаш ҳамда оммалаштиришда иштирок этади. У фандаги билим, анъаналардаги ўзгаришлар мазмунини ва моҳиятини таҳлил эта билиши керак.

Инновацион фаолият тушунчаси инновация, инновацион жараён каби тушунчалар билан чамбарчас боғлиқ,. Шу сабабли бу тушунчалар мазмунини изоҳламасдан туриб, инновацион фаолият мазмунини англаш мумкин эмас.

**Инновация** (инг. Innovation-янгилик киритиш) -тизим ички тузилишини ўзгартириш, деб таърифланади. Инновация -амалиёт ва назариянинг муҳим кисми бўлиб, ижтимоий-маданий объект сифатларини яхшилашга йўналтирилган ижтимоий субъектларнинг ҳаракат тизимидир. Бу ғоя назарияси моҳиятининг яратилишига нисбатан турли ёндашувлар ва фикрлар мавжуд бўлиб, унинг моҳияти борасида фанда ягона фикр мавжуд эмас.

**Инновациялар** долзарб, муҳам аҳамиятга эга бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлар. Улар ташаббуслар ва янгиликлар асосида тугилиб, таълим мазмунини ривожлантириш учун истикболли бўлади, шунингдек, умуман таълим тизими ривожига ижобий таъсир кўрсатади. Инновация - маълум бир фаолият майдонидаги ёки ишлаб чиқаришдаги технология, шакл ва методлар, муаммони ечиш учун янгича ёндашув ёки янги технологик жараённи қўллаш, олдингидан анча муваффақиятга эришишга олиб келиши маълум бўлган охирги натижадир.

Бугун таълим тизимидаги инновацияларни куйидагича таснифлаш маъқулланмокда:

- Фаолият йўналишига қараб (педагогик жараёндаги, бошқарувдаги).
- Киритилган ўзгаришларнинг тавсифига кўра (радикал, модификацияланган, комбинацияланган).
- Ўзгаришлар кўламига кўра (локаль, модулли, тизимли).
- Келиб чиқиш манбаига кўра (шу жамоа учун ички ёки ташқаридан олинган).

**Инновациянинг мақсади** - сарфланган маблағ ёки кучдан энг юқори натижа олишдан иборат. Бошқа турли - туман ўз-ўзидан пайдо бўладиган янгиликлардан

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

фаркли ўларок инновация бошқарилувчи ва назорат қилинувчи ўзгаришлар механизмини ташкил этади.

Таълим тизимидаги ҳар қандай янгилик инновация бўла олмайди. Шу сабабли «новация» ва «инновация» тушунчалари ўртасидаги асосий фаркларни кўрсатиб ўтиш зарур. Бунинг учун ислохот фаолиятининг аниқ шакли, мазмуни ва кўлами асос бўлиб хизмат қилади. Агар фаолият қисқа муддатли бўлса ва яхлит тизим хусусиятига эга бўлмаса, ўз олдига муайян тизимдаги фақат баъзи элементларини ўзгартиришни вазифа қилиб қўйган бўлса, у ҳолда биз **новация** билан мулоқот қилаётган бўламиз. Агар фаолият маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилаётган бўлса ва унинг натижаси ўша тизим ривожланишига ёки унинг принципиал ўзгаришига олиб келсагина **инновация** дея оламиз.

Ҳар иккала тушунча мезонлари қуйидагича: новация амалдаги назария доирасида амалга оширилади, кўлам ва вақт бўйича чегараланади, методлар янгиланади ва натижаси аввалги тизимни такомиллаштиради. Инновация эса тизимли, яхлит ва давомли бўлади, маълум амалиётда янги фаолият тизимини лойиҳалайди, амалиёт субъектлари позицияларини тўла янгилайди. Бунда фаолиятнинг янги йўналишлари очилади, янги технологиялар яратилади, фаолиятнинг янги сифат натижаларига эришилади, натижада амалиётнинг ўзи ҳам янгиланади.

Инновациянинг амалиётга киритилиши инновацион жараёнларда амалга оширилади. **Инновацион жараён** деб- инновацион ўзгаришларга тайёргарлик кўриш ва уни амалга ошириш жараёнига айтилади.

Таълим жараёнидаги инновацион ўзгаришлар, таълим тизимига ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита ўқитувчи фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга оширилиши ҳам атрофлича ўрганилган.

Таълим тизимидаги инновациялар, уларни амалиётга киритиш, инновацион жараёнларни бошқаришни таҳлил қилиш орқали инновацион фаолият тушунчасини таърифлаш имконияти пайдо бўлди. Инновацион фаолият - педагогик жамоани ҳаракатга келтирувчи, олға бошловчи, тараққий эттирувчи кучдир. «**Инновацион фаолият** - бу янги ижтимоий талаблар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги, ёхуд амалиётнинг янги шаклланаётган меъёрининг мавжуд меъёр билан тўқнашуви натижасида вужудга келган мажмуали муаммоларни ечишга қаратилган фаолиятдир»,-деб таъкидлайди В.И.Слобадчиков. Инновацион фаолият бу амалиёт ва назариянинг муҳим қисми бўлиб, ижтимоий-маданий объект сифатларини яхшилашга қаратилган ижтимоий субъектларнинг ҳаракат тизими бўлиб, у маълум доирадаги муаммоларни ечиш қобилиятигина эмас, балки ҳар қандай вазиятдаги муаммоларни ечиш учун мотивацион тайёргарликка эга бўлишдир. Ўқитувчи инновацион фаолиятининг марказий масаласи ўқув жараёнини самарали ташкил

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

этишдан иборат.«инновацион ўзгаришларни сезиш, англаш ҳар қандай ўқитувчига ҳам хос бўлавермайди, - деб ёзади У.Нишоналиев, - бу ерда энг асосийси ўқитувчининг ўзи янгиликни сезишга психологик жиҳатдан тайёр бўлишидир».

Инновацион фаолият - узлуксиз равишда янгиликлар асосида ишлаш бўлиб, у узок вақт давомида шаклланади ва такомиллашиб боради. Ўқитувчи инновацион фаолияти хусусиятларини ўрганиб чиққан педагог олимлар фикрларига таянган ҳолда, қуйидагиларни инновацион фаолиятнинг асосий белгилари деб ҳисоблаш мумкин:

- ижодий фаолият фалсафасини эгаллашга интилиш;
- педагогик тадқиқот методларини эгаллаш;
- муаллифлик концепцияларини яратиш қобилияти;
- тажриба - синов ишларини режалаштириш ва амалга ошира олиш;

- ўзидан бошқа тадқиқотчи - педагоглар тажрибаларини қўллай олиш;
- ҳамкасблар билан ҳамкорлик;
- фикр алмашиш ва методик ёрдам кўрсата олишлик;
- зиддиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш;
- янгиликларни излаб топиш ва уларни ўз шароитига мослаштириб бориш.

Ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш муаммосига мурожаат этиш жамиятда инновацион жараёнлар динамикасининг ўсиб бораётганлигини тушуниш натижасида вужудга келди. Унинг таҳлили фақат фан ва техника эришган замонавий ютуқдардан фойдаланишни ўз ичига олмасдан, балки янгиликларни излаш, яратиш, мослаштириш, татбиқ. этиш ва олинган натижаларни қайта текшириш каби жараёнларни ҳам қамраб олади.

Инновацион фаолиятнинг тузилишини ўрганиб чиққан олимлардан бири В.Сластенин уни қуйидагича тузилишга эга деб кўрсатиб ўтади: «Инновацион фаолиятнинг тузилиши - ижодий ёндашув, ижодий фаоллик, янгиликни киритишга технологик ва методологик тайёргарлик, янгича фикрлаш, муомала маданияти. Инновацион фаолиятнинг даражалари: репродуктив, эвристик, креатив бўлиши мумкин»

Инновацион фаолият даврида янгиликлар, инновациялар, том маънода таълим жараёнига кириб келади. Шу сабабли таълим тизимидаги инновацияларни педагогик жараёнга киритиш 4 босқичда амалга оширилади:

1. Муаммони таҳлил асосида аниқлаш.
2. Мўлжалланаётган таълим тизимини лойиҳалаш.
3. Ўзгаришлар ва янгиликларни режалаштириш.
4. Ўзгаришларни амалга ошириш.

Инновацион фаолиятга тайёрлашдан мақсад - ўқитувчининг янгиликка интилувчанлигини, мустақил ўз устида ишлаш кўникмаси ва малакасини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

шакллантириш, янги педагогик технологиялар, интерфаол методлардан фойдаланиб, дарс ва дарсдан ташқари машғулотларни ўтказиш малакасини такомиллаштиришдан иборат.

Инновацион фаолият - бу илмий изланишлар, ишланмалар яратиш, тажриба - синов ишлари олиб бориш ёки бошқа фан - техника ютуқдаридан фойдаланган ҳолда янги технологик жараён ёки янги такомиллаштирилган маҳсулот яратиш бўлиб, унинг прогматик хусусияти шундаки, у ғоялар майдонида ҳам ва алоҳида бир субъектнинг ҳаракат майдонида ҳам амалга оширилмайди, балки бу фаолиятни амалга ошириш тажрибаси кишилар ҳаётида ҳаммабоп бўладиган ҳолдагина хақиқий инновацион ҳисобланади. Инновацион фаолиятнинг асл мазмуни амалда янги технологиянинг шаклланиши бўлиб, унинг натижаси инновация сифатида юзага келган ихтирони - лойиҳага, лойиҳани - технологияга айлантиришга йўналтирилган фаолиятдир. Инновацион фаолиятда илмий тасаввурлар академик илм мантиқи бўйича туғилмайди, балки ривожланиш жараёнининг модификациялари қўллаб - қуватланиши натижасида ривожланаётган амалиёт мулоҳазасидан пайдо бўлади.

«Инновацион фаолият ўқитувчининг ўз фаолиятидан қониқмаслигидан келиб чиқади. У ўқитувчи томонидан у ёки бу педагогик вазифани ҳал қилишда қандайдир тўсиққа дуч келиниб, уни муваффақиятли хал этишга интилиш асосида юзага келади». Инновацион фаолият янги ғояни излашдан бошланади. Педагогик инновация таълим - тарбия жараёнидаги муҳим ва мураккаб масала ечимига йўналтирилганлиги сабабли ўқитувчидан янгича ёндашувни талаб қилади.

Ўқитувчи инновацион фаолияти тузилишини таҳлил қилишга турли хил ёндашувлар мавжуд. Масалан, А.Никольскаянинг фикрича, фаолиятни янгилаш 3 босқичда, яъни тайёргарлик, режалаштириш ва жорий этиш босқичларида амалга оширилади.

Замон шиддат билан ўзгариб борар экан, таълим соҳаси ҳам у билан баробар ўзгаради ва ўқитувчидан ўз фаолиятини ўзгартиришни талаб этади. Бугун ўқитувчининг асосий вазифаси фақат таълим беришгина эмас, балки бошқарувчиликдан иборат бўлиб, у таълим жараёнини тўғри ташкил қилиши ва бошқариши талаб этилмоқда.

Инновацион фаолият ўқитувчининг ҳамма муваффақиятини белгиловчи асосий фаолият бўлиб, у шахснинг касбий, методик маҳоратини сифатли қайта кўриш демакдир.

Бизнинг фикримизча ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятга тайёргарлигини таҳлил қилишни 3 босқичда амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1. Янгиликни педагогик фаолиятда қўллашдан олдинги даврдаги ўқитувчи фаолиятини таҳлил қилиш.

2. Инновацион фаолиятнинг фаол шаклланиш даврини таҳлил қилиш.
3. Педагогик жараёнга янгилик киритилиб бўлгандан кейинги даврдаги фаолиятни таҳлил қилиш.
Маълумки, шахснинг хислат ва фазилатлари фаолият кўрсатиш жараёнида шаклланади ва фаолиятнинг натижаси ҳисобланади. Шу сабабли ўқитувчиларда янгиликка интилувчанлик ва мустақил мутолаа қилишга доимо зарурият сезиш психологиясини сингдириш лозим. Чунки янгилик -инсонга улуғворликдан кўра кўпроқ завқ бағишлайди.

Агар ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш вазифалари малака ошириш жараёнида амалга оширилса, амалиётда таълим - тарбия жараёнига илғор педагогик ва ахборот технологияларини татбиқ этиш ишлари анча самарали бўлади ҳамда масофадан ўқитиш тизими кутилган натижаларга олиб келади.

Юқорида билдирилган фикрларга таянган ҳолда шундай хулосага келиш мумкин. Ўрганиб чиқилган илмий ишларнинг аксариятида «инновацион фаолият» тушунчасига таъриф берилган бўлсада, бу сохада ҳаммага маъқул келадиган ва инновацион фаолиятнинг тўлиқ мазмунини очиб берадиган ягона таъриф яратилмаган, шунингдек, бу фаолиятни шакллантириш жараёнига нисбатан ягона ёндашув мавжуд эмас.

Таълим тизимини мазмунан ислох қилиш жараёнида педагог кадрлар обрў - эътибори, масъулияти ва касб кўникмасини ошириш юзасидан собитқадамлик билан давлат сиёсати олиб борилмоқда. Бу борада ўқитувчи фаолиятини янгилаш ва инновацияларни таълим жараёнига киритиш асосий вазифа ҳисобланади. Ҳар қандай бошқа соха мутахассислари каби ўқитувчиларнинг ҳам касбий тайёргарлик даражаси уларнинг билим, кўникма ва малакалари, ижодий салохияти ҳамда ностандарт тафаккурларида ўз аксини топувчи касбий лаёқати билан баҳоланади.

Ўқитувчи инновацион фаолиятини ташкил этиб, унинг шаклланиш босқичларини қуйидагича белгилаш мумкин:

**Биринчи босқич** - тайёр методик тавсияномалар аниқ қилиб кўчирилади.

**Иккинчи босқич** - мавжуд тизимга айрим янги мослама (модификация)лар, методлар киритилади.

**Учинчи босқич** - янги ғояни амалга ошириш мазмуни, методлари ва шакли тўла ишлаб чиқилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Тўртинчи босқич** — ўқитувчи ўқитиш ва тарбиялашнинг ўз концепциясини ва методикасини ишлаб чиқади.

Ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашда жамоадаги психологик муҳит, жамоа аъзоларининг қанчалик даражада дунё таълим бозоридаги янгиликлардан хабардор эканлигини ҳисобга олиш зарур.

Компьютер имкониятларининг такомиллашуви ҳамда ишлаб чиқариш ва ҳаётнинг турли соҳаларига жадал тарзда кириб бориши мос фан соҳасини информатика фани билан уйғунлаштиришга ва тубдан янгилашга олиб келган. Ҳозирги кундаги компьютерлар ва унга программали таъминотларига муайян билим ва кўникмалар мажмуасини белгилаш имконини беради ва тақозо қилади. Бу йўсиндаги мажбурийлик - компьютер ва унга уланадиган қурилмалар мажмуаси ҳамда мавжуд амалий программалар кўп бўлгани учун бир киши томонидан тўла қонли ўзлаштириш ниҳоятда мушкул масала эканлигидан келиб чиқади.

*Ахборот сифатлари* қаторига: ўрганилаётган нарса ёки ходисани тўлиқ ифодалаш, баҳолаш, ишончлилик даражаларини киритиш мумкин.

*Ахборот икки турда* - узлуксиз ва узилган ҳолда бўлиши мумкин.

Ҳар қандай соҳада фаолият олиб бораётган кишилар кундалик ҳаётда ахборотни йиғиши, сақлаши, узатиши, ўзгартириши, қайта ишлай олиши керак.

**Информатика** – инсон фаолиятидаги соҳалардан бири бўлиб, у ахборотни ҳосил қилиш, сақлаш ва компьютер ёрдамида уларни қайта ишлаш, шу билан бир қаторда табиат муҳити билан ўзаро боғлиқ бўлган жараёнларнинг алоқадорликларини ўз ичига оладиган кўникма ва воситалар тизимидир.

Информатика атамаси 50-йиллар охирида Францияда вужудга келди. У ахборот (information) ва автоматика (automatique) сўзларини бирлаштиришдан ҳосил бўлиб, «маълумотларни автоматик қайта ишлаш» деган маънони билдиради. Инглиз забон мамлакатларда компьютер билан боғлиқ фанлар мажмуаси Computer science деб аталади.

Мустақил фан сифатида информатика, техника, биология, ижтимоий ва бошқа соҳаларда бошқаришнинг умумий тамойиллари ҳақидаги XX-асрнинг 40-йиллари охирида шаклланган кибернетика фани базасида вужудга келди.

*Информатиканинг асосий вазифаси* - ахборотни қайта ишлашнинг янги усуллари ва воситаларини яратиш, ҳамда уларни амалиётда қўллашдан иборат бўлиб, информатика қуйидаги масалаларни *ҳал қилади*:

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- ихтиёрий ахборот жараёнларни текшириш;
- ахборот жараёнларни текшириш натижасида олинган маълумотларни қайта ишлаш учун энг янги технологияларни яратиш ва такомиллаштириш;
- жамиятнинг барча соҳаларида компьютер техникаси ва технологиясидан унумли фойдаланиш илмий ва муҳандислик муаммоларини ечиш.

Информатика *кенг маънода* инсоният фаолиятининг барча соҳаларида ахборотни компьютер ва телекоммуникациялар ёрдамида қайта ишлаш, сақлаш, узатиш билан боғлиқ бўлган соҳадир.

*Тор* маънода информатика уч қисмдан иборат: техник воситалар, программалар ва алгоритмларни ташкил этади. Шунингдек, информатикани халқ хўжалигининг, фундаментал ва тадбиқий фанларнинг бир тармоғи деб қараш мумкин.

*«Таълим технологияси»* - таълимдаги мақсадга эришиш *инструментарийси,* яъни илгаридан лойиҳалаштирган таълим жараёнини яхлит тизим асосида босқичма-босқич амалиётга жорий этиш ва шу мақсадга эришишнинг услуб, усул ва воситалар тизими таълим жараёнини бошқаришдан иборат.

*«Педагогик технология»нинг моҳияти* – дидактик мақсад, талаб этилган ўзлаштириш даражасига эришиш ва уни татбиқ этишни ҳисобга олган ҳолда, таълим жараёнини илгаридан лойиҳалаштиришда намоён бўлади.

Ўқитувчининг фаол тарзда фаолият кўрсатишига йўналтирилган, *дарснинг услубий ишланмасидан фарқли ўлароқ, таълимнинг педагогик технологияси таълим олувчи (ўқувчи)ларга йўналтирилган бўлиб*, уларнинг шахсий ҳамда ўқитувчи билан биргаликдаги фаолиятини ҳисобга олган ҳолда ўқув материалларини ўзлаштиришга қаратилади. Педагогик технологиянинг *марказий муаммоси - ўқувчи шахсини ривожлантириш орқали таълим мақсадига эришишни таъминлашдан иборат.*

Педагогик технологиянинг тамойиллари:

- кафолатланган якуний натижа, таълимнинг маҳсулдорлиги, тўғри ва тескари алоқанинг мавжудлиги;

- таълим мақсадининг аниқ шаклланганликларидан иборат.

Технология кишилар томонидан қандайдир вазифаларни бажаришда турли хил усуллар кўринишини ифодалайди.

**Ахборот технологиялари** – ахборотни йиғиш, сақлаш, узатиш, ўзгартириш ҳамда, қайта ишлашдаги усул ва воситаларнинг йиғиндисидан иборат.

**Ўқитишнинг янги ахборот технологияси** деганда – фақат ўқув-тарбия жараёнига қўлланиши мумкин бўлган энг янги ахборот технологиялар тушунилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ахборот технологиялари воситаларининг марказида турувчи - компьютердир. Ҳозирги кунда **компьютер**лар таълим тизимида асосан тўрт йўналишда:

- ўрганиш объекти сифатида;

- ўқитишнинг техник воситаси сифатида;

- таълимни бошқарувчиси сифатида;

- илмий-педагогик изланишда асосий восита сифатида фойдаланилмоқда.

Таълимни автоматизациялаш: таълимда ахборотлаштириш бўғинларини таъминлаш; билим беришни автоматлаштириш; таълимни автоматизациялашнинг меъёрий асосларини яратиш; телекоммуникация тармоқларини жорий қилиш; таъминот ашёларини яратиш каби жабҳаларини қамраб олади.

Таълимни автоматизациялаш учун: компьютер, модем, программ таъминот, матн конструкторлар, ахборот-мантиқий моделлар, ахборотлар мажмуи ва техник кўникмалар тренажерлари зарур.

Ўқитувчи инновацион фаолиятининг шаклланишида педагогик жамоанинг алоҳида ўрни борлигини кўпчилик олимлар таъкидлаб ўтадилар. Ўқитувчиларнинг новаторлик хусусиятлари ва таълим жараёнидаги янгиликларга бўлган муносабатига қараб, К.Роджерс ва К.Ангеловский педагогик жамоа аъзоларини 5 та гуруҳга ажратишни таклиф этади. 1. Новаторлар. 2. Олдинги реализаторлар, 3. Олдинги кўпчилик. 4. Кейинги кўпчилик. 5. Иккиланувчилар.

Таълим сифатини ошириш жамиятнинг барча жабҳаларида ҳаётни яхшилашга олиб келади. Янгилик киритиш таълим сифатини оширишнинг самарали воситаси бўлганлиги учун ҳам ривожланган давлатлар таълим жараёнига узлуксиз янгилик киритишга ҳаракат қиладилар. Кўпгина мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, инновацион жараёнларда таълим тизимидаги барча бўғинлар иштирок этиши лозим. Аммо инновацион жараёнлар юқоридан пастга қараб ҳаракатланса ва бунда ўқитувчи бўйсунувчи, яъни янгиликнинг фақат истеъмолчиси бўлиб қолса, у ҳолда бу жараён бюрократик тус олади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ўқитувчи инновация фаолиятга тайёр бўлиб, дарсга энг сўнги янгиликларни олиб кириб, ўқувчига қизиқарли ва уни эҳтиёжига мос равишда ташкил этсагина, сифат ва самарадорликни кафолатлаши мумкин.

## Адабиётлар

**1. Ўзбекистон Республикасининг** 2007 йил 29 августдаги «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ, 1997., 31 б.

**2. Ўзбекистон** Республикасининг 1997 йил 29 августидаги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ, 1997., 31 б.

**3. Каримов И.** Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.: Ўзбекистон, 1998., 528 б.

**4. Каримов И**. Ўбекистон XXI асрга интилмоқда.- Т.: Ўзбекистон, 1999.

**5. Абдуқодиров А.А**. Умумтаълим мактаблари учун электрон дарслик яратишнинг назарий асослари//Ж. Педагогик махорат.-Тошкент, 2003, №2.-Б.6-10.

**6.Арипов М**. Интернет - аср мўжизаси// Ж. Физика, математика ва информатика, 2002, № 1. Б. 38-52.

7.http://www. infonnika.ru/text/inftech/edu/design/

8.http://cnit.ssau.ru/kadis/posob/index.htm

9.http://vio.fio.ru/vio_19/cd_site/Articles/art_1_24.htm.

**10.http://cdo.bseu.by/do1/about/vvedenie.htm#top.**

**11.http://www.openet.ru/University.nsf/index.htm.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ўқитувчи - таълим тараққиётида асосий омил

**Джуракулова Мукаррам Бойқобиловна**

**Сурхондарё вилоят Қизирик тумани**

**1-умумий ўрта таълим мактаби директори.**

**Аннотация.** Ўқитувчининг мактабдаги фаолияти. Замонавий ўқитувчи. Ўқитувчи - таълим тараққиётида асосий омил

Ҳар бир мамлакатнинг тараққиёти ундаги таълим тараққиётига боғликдир. Шундай экан таълим сифатини ошириш, ўқитувчи салоҳиятини юқори бўлиши муҳим вазифалардандир. Таълимнинг самарадорлигини ошириш,шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустахкам эгаллашдан ташкари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган,улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун барча фан ўқитувчилари ўз устида ишлаш орқали илғор педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан куролланиши ва олган билимларини ўқув тарбиявий машғулотларда қўллаш, ўқувчилар билан нафақат дарс жараёнида,балки, индивидуал равишда ҳам ишлаши, ўқувчилар билимидаги бўшлиқларни аниқлаш, уни тўлдириш йўлларини билиши, амалда қўллай олиши, малакаларини узлуксиз ошириб бориш лозим. Шу билан бирга тарих фани ўқитувчиси хар доим ўз устида тинмай ишлаши,янгиликлардан бохабар бўлиб бориши, уларни амалда қўллай олиш маҳоратига эга бўлмоғи керак.

Умумий ўрта таълим мактабларида фаолият юритаётган ўқитувчининг асосий вазифаси ёшларга таълим ва тарбия беришдир. Бунда албатта, ўқимтувчининг ўзи билимли, юқори салоҳиятга эга бўлиши керак. Ўқитувчининг мактабдаги фаолиятини қуйидагилар асосида аниқлаш мумкин:

-Ўқитувчининг таълимга тегишли янгиликларни ўқитиш жараёнига тадбиқ қилиш, унинг Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ҳақидаги билимлари;

-Ўқитувчининг техник воситалардан (компьютер саводхонлиги) фойдаланиш (ўқув дастурлари тузиш, мавжуд дастурлардан дарсида фойдаланиш) имкониятлари;

-Ўзига хос ижодий ва ташкилотчилик қобилияти;

-Ўқитаётган фани бўйича синфдан ташқари ўтказаётган ишлари, ўқувчиларининг фан олимпиадалари, мусобақа, тўгарак ва бошқаларда самарали иштирок этиши;

-Иқтисодий-ҳуқуқий ва экологик таълим-тарбия йўналишида олиб бораётган ишлари;

-Ота-оналар, маҳалла ҳамкорлигида олиб бораётган ишлари;

-Дарс ўтишда илғор иш тажрибалардан фойдаланиш маҳорати;

-Дарс ўтишда педагогик технология методларини қўллаш маҳорати

-ахборот коммуникацион технологиялари бўйича билимларга эга бўлиши ва ҳоказолар. Шунингдек, ўқитувчининг касбий тайёргарлигини ҳам қуйидаги мезонлар орқали аниқлаш мумкин:

-«Таълим тўғрисида»ги қонуннинг бажарилиши;

-«Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да белгиланган мақсад ва вазифаларнинг амалга оширилиши;

-Ўз фани бўйича Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури мазмунини тўлиқ билиши;

-Ўқитаётган фанига мансуб бўлган тармоқ билимлар соҳасининг тарихи ва ривожланиш истиқболларини қай даражада билиши;

-Ўқитаётган фанининг ўқув жараёнидаги ўрни ва роли ҳақида тасаввурга эга бўлиши;

-Ўз фанининг замонавий, илмий ва амалий ютуқларини билиши;

-Ўз фанининг тушунча ва таърифлари, қонуниятлари, тамойиллари, усуллари ва услубларини қўллаш;

-Фани бўйича тегишли машғулотлар олиб боришда далиллаш ва инкор қилиш усулларини қўллаши;

-Илғор педагогик технологиялар ва ўқув жараёнини ҳосил қилишни таъминловчи педагогик усулларни қўллаши;

-Малака ошириш учун керак касбий ахборотларни билиши ва қўллай олиши;

-Фани бўйича билим бериш, малака ва кўникмаларни шакллантириш;

-Фанга таълуқли турли маълумотлар (дарс, лаборатория ишлари, амалий машғулоти, семинар ва бошқалар) ни малакали ўтказиш ва услубий таъминлаши;

-Ўқувчиларнинг мустақил билим олишларини ташкилий ва услубий таъминлаши;

-Ўқувчиларни фаоллаштиришда интерфаол методларни қўллаб дарсни ташкил этитш ва информацион (тарқатма материал ва шу кабилар) материаллар билан услубий таъминлаши;

Ўқувчининг фан бўйича олган билимлари, малака ва кўникмаларини назорат қилишнинг объектив (мазмун бўйича) шаклларини ишлаб чиқиш ва қўллаш кўникмаларига эга бўлиши;

-Ўқитувчидаги ижодкорликни ва илмий- методик изланишларни тасдиқлайдиган видеотасвирлар, матбуот материаллар, фанига доир кўргазмалари материаллар, мавжуд бўлган бошқа ҳужжатлари ва ҳоказолар;

Замонавий ўқитувчининг дарсини таҳлил қилиш ва баҳолашда қуйидаги мезонлар орқали кўриб чиқиш мумкин:

1. Бутун дарс давомида барча ўқувчиларнинг билим эгаллаш борасида фаол ижодий ишлаши, ўқитувчи томонидан уларнинг билим ортириш фаолиятини ривожлантириш.
2. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш фаолиятини қай даражада ташкил этишганлиги.
3. Ўқувчиларнинг манбалардан фойдаланиш даражаси.
4. Ўқитувчининг дарснинг ўқув ва тарбия мақсадини қанчалик тўғри белгилаши, дарсда вақтни ва ўқув материалларидан тўғри, самарали фойдаланганлиги.
5. Ўқитувчининг дарсда материалнинг имкони борича кўпроқ ўзлаштиришига эришиши, билимларни ўзлаштириш жараёнида бошқариш маҳорати.
6. Ўқувчиларнинг маълумотлар тўплами, жадваллари хариталаридан, қўшимча адабиётлардан фойдаланиш маҳорати.
7. Дарс жараёнида маҳаллий материаллардан фойдаланиш самарадорлиги.
8. Уй вазифаларини бажарилишини ҳисобга олиш ва баҳолаши.
9. Ўқувчиларда ўқиш учун маҳсулият ҳиссини тарбиялаши.
10. Ўқитишнинг техник воситалари ва дидактик материаллардан фойдаланиш самарадорлиги.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

11. Ўқитувчининг методлари ва ташкилий шакллардан ўз вақтида самарали фойдаланиши.
12. Ўқувчилар ақлий фаолиятининг мустақиллик ва ташаббускорлигини ривожлантириш.
13. Дарс жараёнида ўқувчиларни Ватанга муҳаббат, содиқлик, миллий қадрятларимиз ва маданиятимизга хурмат руҳида тарбиялаши.

Ўқитувчи ўзининг меҳнат фаолияти давомида ўқувчи, ўқитувчи, ота-она ва маҳалла фаоллари билан, турли характердаги одамлар билан мулоқотда бўлар экан, тажриба тўплайди, кўплаб қирралари очилади.Кўз олдимизда эса давр талабига жавоб бера оладиган замонавий ўқитувчи шаклланиб бораверади.

Бугунги кунда таълим соҳасида ҳам кўплаб янгиликлар амалга оширилди ва оширилмоқда. Барча янгиликларнинг тарғиботчиси сифатида масъулият ўқитувчиларга юкланди. Янгиликлар тарғиботчиси ва амалга оширувчиси сифатида бугунги кун ўқитувчини том маънода замонавий ўқитувчи деб айтишимиз мумкин.

Ўқитувчининг дарс жараёнидаги қўллаётган интерфаол методлари ва унинг натижаси ўқувчиларнинг олган билимлари ва ўзлаштириши билан боғлиқ. Ўқувчиларнинг тафаккурини ўстириш, фикрлаш доирасини кенгайтириш айниқса дарсда қўлланиладиган баҳс-мунозара усулининг қўлланилишига кўп жиҳатдан боғлиқ. Албатта, ўқитувчининг баҳсни олиб борувчи киши сифатидаги вазифаси, бир тамондан, гуруҳ ҳаракатининг назорат қилиб туриш бўлса, иккинчи томондан, дарснинг мақсади амалга оширилишини таъминлашдан иборатдир, Шунинг учун у синф ўқувчиларининг етукли даражасива бирдамлигини билиши ва ҳис-ҳаяжонларини эътиборга олган ҳолда, ҳар бир ўқувчининг баҳсда албатта қатнашишига эришиши керак. Асосий вазифалардан бири шуки, синф ўз мақсадига мавзудан четга чиқмасдан эришмоғи даркор. Бунинг учун ўқитувчи барча айтилган фикрларни якунламоғи керак.

- Ўқитувчи иложи борича ўзини эркин тутиши ва ўқувчиларга ижобий таъсир қилишига интилиши керак. У ўқувчиларни мутлақо тазйиқ остига олмаслиги лозим. Аксинча, биз баҳс-дарс ўтказишнинг энг яхши усули-ўзаро ҳамкорлик ўрнатишни танлай билиш, деб ҳисоблаймиз, яъни шаклан буйруқ тарзидаги кўрсатмалар бериш, мазмунан эркин фикр юритишни рағбатлантириш.

- Ўқитувчи:

-айтилган барча фикрларни хурмат қилган ҳолда, ўқувчиларнинг жавобларини дарснинг мақсади ва кутилаётган натижа билан боғлайди;

-умумий гаплардан қочишга ҳаракат қилади, ҳар доим аниқ мисоллар келтиради ва ўқувчилардан ҳам шуни талаб қилади;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

-ўқувчиларнинг ўз шахсий тажрибаларини ўртоқлашишларини рағбатлантиради;

-ўқувчиларнинг жавоблари ва фикрларини ўтилган мунозара-дарсларининг мазмуни билан мантиқий боғлайди;

-имкони бўлса, муқобил мисоллар келтиради;

-ўқувчи томонидан айтилганларни шарҳлдб беради;

-айтилаётган нуқтаи назарларнинг фарқини таъкидлаб кўрсатади;

-синфга ушбу фарқларини муҳокама қилишни тавсия қилади;

-ўқувчилардан уларнинг фикрларига асос бўлган далилларни келтиришнми сўрайди ва синфга далиллар ва фикрлар ўртасидаги фарқни кўришга ёрдам беради;

-ўтмишдаги мутафаккирларнинг сиз ва биз каби реал инсонлар бўлганлигини, улар ҳам бошка одамлар катори қийинчиликларни бошларидан кечирганликларини таъкидлайди;

-вақти-вақти билан муҳокама қилинаётган масалалар бўйича қисқача якунлар чиқаради;

-мунозарада бошқарувчилик вазифасини бажарад: синфга ҳар бир кишининг фикрини тинглашда ёрдамлашади, зиддиятларга эътиборини қаратади, ўқувчининг жавоби дарснинг мақсади ва кутилаётган натижадан четлашса, уни тўхтатади.

- Ўқитувчи синфга ишониши лозим. У ўқувчиларга улар билдираётган фикрларнинг муҳимлигига ишонч ҳиссини сингдиради.
- Мазкур турдаги дарсларда ўқитувчи, баҳс-мунозаранинг бошқарувчиси сифатида, унга раҳбарлик қилиши даркор.

Мактабда ўқитувчининг асосий вазифаси дарс ўтишдир. Дарсни мазмунан бой ва ранг-баранг усулларда ўтиш ўқитувчидан маҳорат талаб этади. Дарс ўтишга қўйилган асосий талаблар эса қуйидагилардан иборатдир:

Дарсни турли шаклларда ўтиш мумкин, аммо ўқувчиларнинг билим, кўникмаларини шакллантириш учун айрим талабларга риоя этиш мақсадга мувофиқ.

1.Ўқитувчи дарснинг мавзуси ва мақсадини аниқ белшилаши шарт.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

2.Ҳар бир дарс таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадга эга бўлиши лозим.

3.Дарс жараёнида ўқувчиларнинг якка ҳолда ва гуруҳларда ишлашлари талаб этилади.

4.Ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчи томонидан мақсадга йўналтирилганлиги

5.Ўқитувчи ўтиладиган мавзуни даср давомида ўқувчилар томонидан тўлиқ ўзлаштириб олинишини таъминлайди.

Мамлакатимизда педагогика илми ҳам, амалиёти ҳам янгиланиб бормоқда. Маълумки, ҳар қандай миллатнинг янгиланиши ёшлар тарбиясидан бошланади. Ёшлар эса бугунги кунда оилада ва асосан таълим-тарбия муассасаларида шакллантирилади. Шунинг учун ҳам, мустақил давлатимиз ва унинг раҳбарияти ана шу муассасалар фаолияти имкон қадар замон талаблари даражасида бўлишига эътиборини қаратмоқда.

Дарсларни илғор педагогик технология асосида ўтиш имкониятлари кенглигини ҳисобга олиб, унинг натижаларини ҳам ўқувчи ёшларнинг олган билимлари, қизиқишларига қараб белгилаш мумкин.

Анъанавий дарсларга қараганда, илғор педагогик технология асосида ўтилган дарслар юқори самарани бермоқда.

Шундай экан, бугунги замонавий ўқитувчидан замон талабларига жавоб бера оладиган, янгиликлар, ахборот технологиялар, педагогик технологиялар билан қуролланган ва дарс бера оладиган, дарс ишланмаларини интерфаол усуллар асосида тайёрлай оладиган,ўқувчи ёшлар билан дўстона муносабатда бўла оладиган, юксак маданиятли,маърифатли, ота-оналар,маҳалла билан ишлай оладиган ўқитувчи бўлиш талаб этилади.

Замон талабига жавоб беришга, фидойилик билан меҳнат қилишга биз ўқитувчилар доим тайёрмиз ва доимо эзгу мақсадимиз йўлида меҳнат қилишда давом этамиз.

Зеро, ўқитувчи келажагимиз бўлган ёшларга таълим ва тарбия беради, бу ишда эса улар масъулдирлар.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: «Шарк», 1999.

2.Каримова В. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. – Т.: Университет, 2000.

3. Толипов У., Усмонбоева. М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005.

4. Пранцкуне Э., Грудене С ва бошқ. Новые роли и компетенция учителя. Литва.- 2011.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READPUB.UZ

**Мактаб ўқитувчиларининг малакасини оширишни такомиллаштириш йўллари**

**Исмайилов Шерзод Чориевич**

**Сурхондарё вилояти, Денов тумани**
**84-умумий ўрта таълим мактаб директори**

**Аннотация.** Тарих фани ўқитувчиси учун ўз устида ишлашдаги вазифалари. Касбий маҳоратини такомиллаштириш ва ўз устида мустақил ишлаш режасининг асосий йўналишлари. Педагогнинг ўз устида мустақил ишлаш,малакавий даражасини ошириш бўйича кейинги уч йил давомида амалга оширилган ишлар мониторингини олиб бориш.

Таълимнинг сифати ва самарадорлигини ошириш,шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган,улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун барча фан ўқитувчиларини илғор педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан қуроллантириш ва олган билимларини ўқув тарбиявий машғулотларда қўллаш малакаларини узлуксиз ошириб бориш лозим. Шу билан бирга ҳар бир фани ўқитувчиси ҳар доим ўз устида тинмай ишлаши,янгиликлардан бохабар бўлиб бориши, уларни амалда қўллай олиш маҳоратига эга бўлмоғи керак.

Мактабда меҳнат фаолиятини олиб бораётган ҳар бир фан ўқитувчиси учун ўз устида ишлашдаги вазифаларини қуйидагиса белгилаб амалга ошириб бориш мумкин: аввало ҳар бир фан ўқитувчиси ўз соҳаси бўйича илмий методик адабиётларни мутолаа қилиб ўз билимини ошириб бориши талаб этилади. Шунингдек,телерадио, интернет ва матбуот ахборот воситаларидан тўлалигича фойдаланиш,даврий газета-журналларига мунтазам обуна бўлиб бориш ва унинг жамғарма банкини вужудга келтириш,илғор иш тажрибаларни ўрганиш,илғор тажриба таянч мактаблари ишида

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

доимий иштирок этиш,ресурс мактабларига қатнашиш ва янгиликларни иш фаолиятига татбиқ этиб бориш,мактаб,туман миқёсидаги методик тадбирларда иштирок этиш (семинар, конференция,методик ҳафталиклар,педагогик кўрик танловлар ва бошқалар),ўқув адабиётлар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш,зарур адабиётларни топа билиш,кутубхона каталогларидан фойдаланиш,ахборотга бўлган эҳтиёжларга мувофиқ уни қидиришнинг замонавий методларини ўрганиш,ўрганилган мақолаларнинг картотекасини тузиш,"Интернет" тармоғи орқали фанга оид янгиликларни мунтазам ўрганиб бориш,фанга оид электрон дарслик ва ўқув адабиётлар жамғармасини ташкил этиш,дидактик ва тарқатма материаллар яратиш,ҳар бир ўрганилган нарсани ўз фани бўйича қайси мавзуларга тегишли эканлигини аниқлаб,унинг картотекасини ишлаб чиқиш ва бу борада шахсий жамғарма банкини тузиш каби вазифаларни бажариши лозим.

Ўқитувчи дарсдан бўш вақтларида қуйидаги ишларни амалга ошириши мақсадга мувофиқдир:

*кутубхонада ишлаш;

*дарсга тайёргарлик кўриш,дарс ишланмалари ёзиш,кўргазма ва тарқатма материаллар тайёрлаш;

*назорат ишларини тайёрлаш,диагностик таҳлилларни амалга ошириш(ўқувчилар билимидаги бўшлиқларни аниқлаш);

*педагогик технологиялар асосида машғулот олиб борувчи ўқитувчилар дарсларига кириш;

*ахборот коммуникация технологиялари бўйича эгаллаган билимларини мустаҳкамлаш;

*илмий ва педагогик ғояларни ўз ишида татбиқ қилиш,синовдан ўтказиш;

*мустақил билим олишни режа асолсида ташкил этиш;

*ўтказилган очиқ дарс ишланмаларини тўплаб бориш;

*фан бўйича ўтказилган дарсдан ташқари тадбирлар материалларини тўплаб бориш;

*мактаб методика кенгаши ва метод бирлашмаларида маърузалар билан чиқиш ва маърузалар тўпламини яратиш;

*педагогик ўқишларга тайёрланиш ва бу ҳақда матбуотга чиқиш;

*ўз устида ишлаш,мустақил билим олиш бўйича ҳисоботлар тайёрлаш ва метод бирлашма йиғилишларида ҳисобот бериш ва ҳ.к.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Касбий маҳоратини такомиллаштириш ва ўз устида мустақил ишлаш режасининг асосий йўналишларини қуйидагича белгилаб олиши ва амалга ошириши мумкин: 1)Сиёсий,иқтисодий,ҳуқуқий ва ижтимоий масалалар йўналишида амалга оширилаган ишлар; 2)Касбий,методик билимлар йўналиши; 3) Педагогик маҳоратни ошириш йўналиши; 4)Педагогик технологияларни ўрганиш йўналиши;5)Маънавий-маърифий йўналишлардир.

Педагогнинг ўз устида мустақил ишлаш,малакавий даражасини ошириш бўйича кейинги уч йил давомида амалга оширилган ишлари ана шу айтиб ўтилган йўналишлар бўйича олиб борилиши мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, метод бирлашма раисининг ўқитувчининг ўз устида ишлаши натижалари ҳақидаги фикрларини қуйидагича изоҳлаб,баҳолаши мумкин: 1) Ўқитувчи режасининг бажарилиш аҳволи; 2) Ўқитувчининг ўз олдига қўйган мақсадига эришганлиги; 3) Ўқитувчининг амалга оширган ишлари; 4) Ўқитувчининг ўтган дарслари ҳақидаги фикрлар; 5) Ўқитувчининг ўзини ўзи таҳлил қила олиш маҳорати; 6) Ўқитувчининг касбий маҳоратига берилган баҳо; 7) Ўқитувчининг ўқувчилар билан ишлаш маҳоратига қўйилган баҳо; 8) Ўқитувчининг ота-оналар билан ишлаш маҳоратига қўйилган баҳо;

9) Ўқитувчининг янгиликларни ўзлаштиришига қўйилган баҳо.

Таъкидлаш жоизки, дарсларда интерфаол усуллардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил ҳисобланади. Ўқитувчи ўз устида доимий ишлаб борар экан, дарс сифати ва самарадорлигини ошириш йўллари ҳақида изланмоғи керак.. Шу ўринда айтишим мумкинки, дарс самарадорлигини оширишда яна бир муҳим жиҳат, дарсда интерфаол усуллардан ,илғор педагогик технологиялардан фойдаланишдир. Демак,ўқитувчи доимо илғор педагогик технологияларни дарсда татбиқ этишда ,юқори натижаларга эришиш учун амалий ишларни бажаришга ҳаракат қилиши ва доимо ўрганиб, ўрганганларини амалда қўллашга ҳаракат қилмоғи мақсадга мувофиқдир.

Шу ўринда интерфаол усуллардан фойдаланганда ўқитувчилар қуйидагиларни билиши лозим деб ҳисоблайман:

- Интерфаол усуллар,. унинг мазмун-моҳияти;
- таълим мақсадини амалга оширишда интерфаол усулларнинг ўрни ва роли;
- фанлар бўйича интерфаол усулларни қўллаш принциплари;
- таълимий ва изчиллик ўйинлари;
- муаммоли ривожлантирувчи таълим методлари;
- ўқувчиларнинг мустақил фаолиятларни ташкил қилиш ва таоминлаш йўллари;
- ўқувчиларнинг мустақил ишлаш маҳоратини ошириш усуллари;
- кўргазмали ўқитиш усуллари;

- таълим-тарбияни фаоллаштирувчи усуллар.

Натижада интерфаол усулларда ўқитишда ўқувчилар қуйидагиларга эга бўладилар:

1. Ўқувчилар биргаликда, умумий топшириқ ёки ўқитилаётган фаолият устида ишлашади, бу гуруҳий иш орқали яхши ўзлаштирилади.

2. 4-5 аъзо таркибидан иборат ўқувчилар кичик гуруҳларда ишлашади.

3. Ўқувчилар умумий вазифаларни ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказиш учун ижтимоий қабул қилинган хулқ-атворни ишлатишади.

4. Ўқувчилар ижобий ёки мустақил бўлишади. Умумий вазифалар ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказишда ўқувчилар бир-бирларига кўмак беришади.

Ўқувчилар ўз ишларини натижасига ёки бошқача айтганда, ўқишга, таълим олишга шахсан масъулиятликни ва жавобгарликни ҳис қиладилар. Қуйида интерфаол усуллардан айримлари билан таништириб ўтаман:

- Ақлий ҳужум
- Кичик гуруҳларда ишлаш
- Суҳбат
- Жуфтликда ишлаш
- Кичик маъруза
- Ролли ўйинлар
- Ишчанлик ўйинлар
- Баҳс мунозара ва ҳоказо.

Зеро, таълим тизимини ислоҳ қилишнинг асосий мақсади ўқувчилар фикрлаш қобилиятларини шакллантиришдан иборат экан, илғор усулларни дарсларимизга қадам-бақадам жорий этиб боришимизни ҳаёт тақозо этмоқда. Шу сабабли барча фан ўқитувчиларига ушбу интерфаол усулларни, илғор педагогик технологияларни қўллаб юқори натижаларга эришишини, шунингдек, уларни дарс сифати ва самарадорлигига эришиб боришини тавсия қиламан.Чунки,ўқувчиларга тез ва қулай шароитда, турли педагогик технологиялар асосида дарс ўтиб, билим бериш бу-ўқувчилар билимини ошириб, уларни мустақил билим олиш кўникмасига эга бўлишига эришиш ва юқори натижаларга эришишдир.

Хулоса қилиб шуни айтишим мумкинки, замонавий фан ўқитувчиси замон талабларига жавоб бера оладиган, ҳар томонлама камол топган бўлмоғи керак. Бунинг учун ўқитувчи тинмай ва доимо ўз устида ишлаши,изланиши даркор.

Таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил этиш, мавжуд имкониятларни сафарбар этиш ўқитувчиларнинг асосий вазифаларидан биридир. Ҳар бир педагог шуни эсда тутиши керакки, дарс ўқув-тарбия жараёнининг асосий шакдидир. Ўқитувчи ўқувчиларни мустақил фикрлаш, мустақил ижод қилишга ўргатиш лозим. Дарсда уч мақсад кўзда тутилади: таълим-тарбия ва ривожлантириш. Бу уч мақсадни дарс давомида амалга ошириш учун интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс ўтиш яқиндан кўмак беради, деган умиддамиз. Метод нима? Ўзлаштирилаётган тажрибани тўғридан-тўғри ўқувчиларга ўзаро таосир ҳаракати орқали йўналтириш, интерфаол методларни қўллаб дарс ўқитишнинг асоси бўлиб, бундай ёндашувда ўқитувчи тайёр билимларни бермайди, балки ўқувчиларни мустақил изланишга чорлайди. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро таосир ҳаракати ва ўзгаришлар қўллаш интерфаол ўқитишда мўлжал қилинади. Ҳозирги замон дарсига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири ҳар бир дарсда танланадиган мавзунинг илмий асосланган бўлишидир, яъни дарсда кўзланган мақсад ва ўқувчилар имкониятини ҳисобга олган ҳолда мавзу ҳажмини белгилаш, унинг мураккаблигини аниқлаш, авалги ўрганилган мавзу билан боғлаш, ўқувчиларга бериладиган топшириқ ва мустақил ишларнинг кетма-кетлигини аниқлаш, дарсда керак бўладиган жиҳозларни белгилаш ва қўшимча кўргазмали қуроллар билан бойитиш, интерфаол методлардан фойдаланган ҳолда дарсда муаммоли вазият яратишдир. Дарсда қўйиладиган асосий талаблардан бири таълим методлари ва усулларини бир-бири билан боғлаб олиб бориш самарадорлигини оширишдир. Дарсга қўйиладиган асосий талаблардан яна бири барча дидактик вазифалар дарснинг ўзида ҳал этилиши, уйга бериладиган вазифалар ўқувчиларнинг дарсда олган билимларининг мантиқий давоми бўлиши керак. Дарс давомида ўқитувчи ўқувчиларнинг жисмоний ҳолатини, ижодкорлигини,.. тез фикрлашларини ҳисобга олиши керак. Ўтилган ҳар бир дарснинг ўқувчилар билан бирга таҳлил қилиб борилиши ҳам яхши натижа беради. Ўқувчи фаоллиги ўқувчилар фаоллиги олдида ўз ўрнини бўшатиб беради. Ўқитувчининг асосий вазифаси ташаббуслар чиқиши учун шарт-шароитлар ятариш демакдир. Яратилган шароитлардагина дарсни интерфаол усулларда ўтиш ва дарс самарадорлигига эришиш мумкин.

Кўзланган мақсадга эришиш мақсадида ўқитувчиларга маслаҳатим, ҳурматли устозлар,ҳамкасблар, биз доимо илғор сафда бўлмоғимиз,бунинг учун эса тинимсиз меҳнат қилишимиз, ижод қилишимиз,ўз устимизда кўпроқ ва доимий ишлашимиз керак бўлади. Бу машаққатли йўлда сизларга куч-қувват, ижодий баркамоллик тилайман.

**Адабиётлар**

**1.Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” “Ўзбекистон”НМИУ,2017**

**2.Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил: қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Т.,2017**

**3.Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз”. Т.,2017**

4.Каримов И. А. Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Ўзбекистон, 1997.

5.Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: Насаф. 2000. .

6.Таълимда янги педагогик технологиялар: муаммолар, ечимлар.- Илмий-амалий конференция материаллари.- Т.: 1999.

7.Сайидаҳмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. –Т.: Ўз МУ. 2003. ;
8.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

# Мактабда ўқитувчининг ўқувчилар билан ишлашдаги касбий маҳоратининг ўрни ва аҳамияти

**Гузарова Нодира Эшниёзовна**

**Сурхондарё вилояти Қизирик туман**

**1-умумий ўрта таълим мактаб**

**она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси**

**Аннотация.** Ўқитувчи.Ўқитувчи вазифаси. Педагогик сифат ҳақида. Замонавий ўқитувчи. Мактабда ўқитувчининг ўқувчилар билан ишлашдаги касбий маҳоратининг ўрни ва аҳамияти.

Мактабда ўқитувчининг асосий вазифаси –дарсдир. Дарс жараёнида ўқитувчи ўз касбий маҳоратига таянган ҳолда, педагогик технология асосида, интерфаол усуллар орқали дарс ўтади. Бу тушунарли,албатта. Демакки, мактабда ўқитувчининг ўқувчилар билан ишлашдаги касбий маҳоратининг ўрни ва аҳамияти каттадир.

Аммо,дарс сўнггида хар доимгидек, уй вазифаси ҳам берилади. Уй вазифаси ўқувчиларнинг мустақил равишда билим олишига, ўрганилган мавзуларни такрорлаш, эсда сақлаб қолиш, фанга бўлган қизиқишини орттиришга ёрдам беради. Уй вазифасининг берилишига эса қуйидаги талаблар қўйилган:

-Ўқитувчи, ўқувчиларга уй вазифасини қўнғироқ чалингунча, тушунтирилган ҳолда бериши;

-Ўқувчиларни толиқтириб қўймаслик учун уй вазифасининг ҳажми ва мураккаблик даражасининг ҳитсобга олиниши;

-Ўқитувчи томонидан, уйга берилган вазифа синф журналига ўз вақтида қайд этиб борилиши;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

-Уйга берилаётган вазифанинг ижобий иш шаклида бўлиши;

-Уйга берилган вазифанинг тўғри бажарилганлигини турли усуллар ёрдамида текшириб борилиши;

-Иқтидорли ёки бўш ўқувчилар учун уй вазифаси алоҳида берилиши ва ҳоказолар.

Ҳар бир синфда ўзлаштирадиган ўқувчилар билан бир қаторда бўш ўзлаштирадиган ўқувчиларимиз ҳам мавжуд.Улар билан қуйидагича иш олиб бориш мумкин:

1. Ўқитувчи, ўқувчи томонидан мавзунинг тўлиқ ўзлаштирмаганлиги сабабларини ўрганиши шарт.
2. Ўқитувчи, ўқувчи томонидан ўзлаштирилмаган мавзуларни қайд этувчи дафтар юритади камчиликларни таҳлил қилади ва уларни бартараф эитш чора-тадбирларини белгилайди.
3. Бўш ўзлаштирувчи ўқувчини иқтидорли ўқувчига бириктириб қўяди ва олиб борилаётган ишларни кузатиб боради.
4. Ўқитувчининг ўзи ҳам бўш ўзлаштирувчи ўқувчи билан алоҳида иш олиб боради. Бу жараён дарсда ва дарсдан ташқари ҳолатларда ҳам амалга оширилади.
5. Ҳар бир ўқитувчи ўз фани бўйича уйга берилган топшириқларни бажарилиши юзасидан алоҳида тушунча беради.
6. Дуч келиши мумкин бўлган қийинчиликларни ўқитувчи олдиндан белгилаб олади ва энг қулай, самарали методлар ёрдамида уларни бартараф этишга, ўқувчиларни ўргатади.

Дейдиларким, Тангри ўз бандаларини яратар экан, ”Сен тўрт нарсадан бирини оласан. Булар: ақл, илм, дунё, дин”, - деди. Одам ақлни танлади, шунда илм айтдики “Мен ақлли одам билан бўламан”, дин эса “Ақлли, ҳам илмли одам билан бўламан”, - деди. Навбат дунёга келди,у “Сизлар қаерда бўлсаларинг мен хам ўша ердаман”, - дейди. Ақл ҳаммасига эга бўлди. Демак, инсон учун ақлдан улуғроқ нарса яратилмади.

Ўқитувчининг маданияти ва маънавияти деганда унинг эстетик хис – туйғуси , илмий фаразі (фантазия), илмий фаҳм-фаросати (интуиция) кўргазмали рамзий тасаввурларининг ўзига хос тасвирий умумлаштиришларга мойиллигини тушунамз.Хар бир болани ривожлантиришда тарбия етакчи роль ўйнайди.Ҳар тамонлама тарбиялаш – узоқ муддатли ва мураккаб жараён бўлиб, уни мактабгача таълим муассасалари тарбиячилари ва ўқитувчилари амалга оширадилар. Улар ўз мехнатлари билан жамиятнинг ижтимоий буюртмасини бажарадилар,Яъни ўзида маънавий бойлик, ахлокий софлик ва жисмоний мукаммалликни мужассамлаштирган, ҳар тамонлама ривожланган шахсни таркиб топтиришдир.Педагогнинг (тарбиячи, ўкитувчи) бола шахсини шакллантиришдаги етакчи ролини назарда тутиб, педагогнинг юксак заковати ҳамда унинг болалар ва

педагогик фаолиятга муносабатини шахс сифатларини эгаллашини қамраб олувчи юксак талаблар қўяди. Педагог ўзи ким ?

Бизга маълумки, "Педагогика" атамаси –бола етакламоқ деган маънони англатади.

Эрамиздан олдин III – I асрларда қадимги Юнонистонда қулдорни боласини овқатлантирадиган, сайрга олиб борувчи, табиат қўйнида ўйнатувчи тарбиячи – қулларни "педагог" деб аташган. У боланинг камолга етишига маъсул бўлган. Қулдорнинг боласини етаклаб мактабга олиб борган ва олиб келган. Мактабда ишловчи ўқитувчиларни "дидаскол" лар (дидайко – мен ўқитаман)дейишган.Феодализм жамиятига келиб хар икки касбдаги кишилар ҳамкорлиги натижасида таълим-тарбия билан шуғулланувчилар вужудга келган, уларни "Педагог" деб номлаганлар ва бу сўз ҳозир ҳам таълим-тарбия барувчи ўкитувчиларга нисбатан қўлланилади. Билимдонлик – педагог учун шарт бўлган фазилатдир. Яъни бугунги кун замонавий педагоглардан чуқур билимдонликни, фан, ахборот каммуникатив технологиялар, санъат, этиканинг турли соҳаларига оид билимларни, фан-ўқитувчисидан ўзи ўқиётган фандан мукаммал билимга эга бўлишини, шу фаннинг ривожланиш тарихи, замонавий кашфиёт ва муаммоларини билишни талаб қилади. Аммо бу билимларнинг қуруқ ўзи билангина эмас, балки ўқитувчи юксак фазилат ва сифатларга эга бўлмаса, муваффақият қазона олмайди. Ана шундай сифатларнинг асосийлардан бири – болаларни севишдир, бу эса ўз навбатида педагогнинг мураккаб ва маъсулиятли меҳнатини жозибали ва қизиқарли қилади. Ҳар бир боланинг шахсига ҳурмат ва талабчанлик ҳам шу билан бир қаторда туради. Болаларнинг ички дунёсини кўра билиши, фикр – ўйларини тушуна билиши зарурдир. Педагог ўзини бошқа одам ўрнига қўйиши унинг билим, ҳаётий тажрибаси, ҳар хил ҳаётий вазиятдаги холатини ҳисобга олиши, хато – камчиликларни ва қийинчиликларини олдиндан кўра билиши керак. Бу қобилият болага шахс сифатида инсоний муносабатда бўлишида хайриҳоҳлик ва хушмуомалаликда, болалар ҳаётига қизиқишида, ишончда, уларнинг шодлик ва қайғуларига шерик бўлишига тайёрликда акс этади. Педагогнинг бундай инсоний сифатлари тарбиячи учун айниқса муҳимдир.

Педагогик сифатларнинг яна бири бу юзага келаётган хар қандай вазиятдан болаларни тарбиялаш ва ривожлантиришда фойдаланиши, вазиятда ўзгаришни англаш ва шунга кўра эмоционал – ирода таъсири педагогнинг жаҳли, ишонтиришнинг мантиқийлиги, талабчанлик ва ҳазил – мутойибани ҳис қила билиши, қарорларни қабул қилишдаги ташаббускорлиги ва мустақиллиги, кашфиётчилиги билан ифодаланадиган педагогик таъсирни қўллай билишида намоён бўлади. Педагог ишининг ижодий табиати кутилмаган вазиятларда шошилинч тўғри ечимга келишдир. Салбий ҳис туйғуларга қарши тура билиш, оптимистик кайфият, ўзини тута билиш, сабр тоқатлилик, кувноқликнинг устунлиги бу сифатлар – ўқитувчи, тарбиячи иши самарадорлигининг

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

мулоқот услуби болалар жамоасида, ота – оналар, ҳамкасблар жамоасида кўтаринки ижобий муҳитини ярата билишда намоён бўлади. Педагогнинг нафақат муайян сифатлари балки педагогик қобилиятларининг бўлиши, зарурдир, бажараётган фаолиятни муваффақиятли амалга оширишининг гаровидир. Булар: кузатувчанлик, педагогик тасаввур, диққатни тақсимлаш, ташкилотчилик қобилияти ва педагогик муомала. Ўз вазифасига,меҳнатига виждонан ёндошишга боғлиқ. Шунингдек, педагогларимизнинг ташкилотчилик қобилиятлари хам шаклланиши зарурдир.

Педагогнинг асосий вазифалари қуйидагилар:

1.Ривожлантирувчи вазифа – асосий ҳисобланади.

2. Конструктив – ташкилотчилик.

3. Диагностик вазифа.

4. Педагогнинг мувофиқлаштирувчи вазифаси.

5. Коммуникатив вазифалар.

6. Оналик вазифалари.

Замонавий педагог кенг ихтисосга эга бўлган мутахассис сифатида тушунилади.Мактаб ёки мактабгача таълим тарбиячиси методик ишга фаол қўшилар экан, айнан у педагоглик фаолиятини такомиллаштиради, илғор педагоглик тажрибасини яратади,педагогик билимларини омма ўртасида тарғиб қилади, шунинг учун эгаллаган билимлари билан чекланиб қолмайди. У ўз билимларини доимо ривожлантириб, чуқурлаштириб бориши керак – бусиз педагог касбига оид етакчи кобилият – педагог ижодини аста – секин йўқотиб боради. Жорий қилинаётган янгилик ва ўзгаришларни тезкорлик билан ўрганиш орқали болалар таълим - тарбияси мазмуни ҳамда сифатига янгилик ва ўзгаришлар киритишдан иборат. Замон талабларига жавоб берадиган, юқори малакали мутахассис педагог кадрларнинг ёшларимизни юксак маънавиятли, чуқур билимли, ватанпарвар, кенг мушоҳадали, ижодкор ва фаол қилиб тарбиялаши бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидандир. Ўз фикрини равон, гўзал ва лўнда ифода эта олмайдиган мутахассисни замон талабидаги мутахассис ёки замонавий педагог деб бўлмайди.

“ Ватан, эл манфаати муқаддасдир, Унинг бахт – саодати, ёруғ истиқболи, фаровон келажаги учун яшаш, курашиш, керак бўлса, жон фидо қилиш шу муқаддас заминда яшаётган ҳар бир инсон учун шарафдир...” – деган эди И.А.Каримов.

Бугунги кун ўқитувчиси болаларнинг тафаккури қай даражада ривожланганлигини дарс ўтиши давомида эътиборга олмоғи лозим. Тарбиялаш ғоят нозик санъат бўлиб, унга жуда жиддий ёндошмоқ даркор. Айниқса, педагоглик ишини ўзига касб қилиб олган кишилар буни яхши билишади. Психологларнинг такидлашича,

ўқувчиларнинг фанни ўзлаштиришга бўлган қизиқишларининг 25 фоизи шахсий қизиқишларига, 25 фоизи ўқитиш усулига, 50 фоизи эса ўқувчиларнинг руҳиятига боғлиқ экан, бугунги кун тарбиячиси бола руҳиятига, уларнинг кайфиятига ижодий таъсир кўрсатиши лозим. бунга эса ўқитувчи қиёфаси ҳар тарафдан намуна бўлишини талаб этади. Дарҳақиқат жамиятда, кундан – кунга тезлашиб бораётган ижтимоий ҳаётда, бу мураккаб ва шарафли касб эгалари – педагоглар, яққол ажралиб туради. Ўқитувчи эса ўз устида доимий ишласагина олдига қўйган мақсадга эриша олади.

Ўқитувчининг ўз устида ишлаши, мустақил билим олишининг асосини эса қуйидагилар ташкил этади:

*илмий методик адабиётларни мутолаа қилиш;

*телерадио, интернет ва матбуот ахборот воситаларидан тўлалигича фойдаланиш;

*даврий газета-журналларига мунтазам обуна бўлиб бориш ва унинг жамғарма банкини вужудга келтириш;

*илғор иш тажрибаларни ўрганиш,илғор тажриба таянч мактаблари ишида доимий иштирок этиш;

*ресурс мактабларига қатнашиш ва янгиликларни иш фаолиятига татбиқ этиб бориш;

*мактаб,туман миқёсидаги методик тадбирларда иштирок этиш (семинар, конференция,методик ҳафталиклар,педагогик кўрик танловлар ва бошқалар):

*ўқув адабиётлар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш;

*зарур адабиётларни топа билиш,кутубхона каталогларидан фойдаланиш;

*ахборотга бўлган эҳтиёжларга мувофиқ уни қидиришнинг замонавий методларини ўрганиш;

*ўрганилган мақолаларнинг картотекасини тузиш;

*"Интернет" тармоғи орқали фанга оид янгиликларни мунтазам ўрганиб бориш;

*фанга оид электрон дарслик ва ўқув адабиётлар жамғармасини ташкил этиш;

*дидактик ва тарқатма материаллар яратиш;

*ҳар бир ўрганилган нарсани ўз фани бўйича қайси мавзуларга тегишли эканлигини аниқлаб,унинг картотекасини ишлаб чиқиш ва бу борада шахсий жамғарма банкини тузиш ва ҳоказо.

Хулоса қилиб айтганда, бу ёруғ оламда қайси касб эгаси бўлишидан қатъий назар: таниқли олимми, давлат арбобими, халқ севган шоирми, сиёсатчими ёки қўли гул косибми ҳамма – ҳаммаси устоз муаллимнинг таълим – тарбиясисиз бу мавкеларга, бу даражаларга етишиши мушкул, даргумон бўлар эди. Доно муаллим, мураббий, устозларсиз олам нурафшон бўлмас эди. Шунинг учун айтишадики: " Устоз отангдек улуғдир!". Демак, айтиш жоизки, замонавий фан ўқитувчиси замон талабларига жавоб бера оладиган, ҳар томонлама камол топган бўлмоғи керак. Бунинг учун ўқитувчи тинмай ва доимо ўз устида ишлаши,изланиши даркор.

АДАБИЁТЛАР

1. Баркамол авлод орзуси. «Шарк» нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. Т., 1999.
2. Йўлдошев.Ж.Г, Усмонов. С. Педагогик технология асослари. Тошкент 2003.
3. Онищук.И. Урок в современной школе. Москва, 1986 г.
4. Махмутов М.И. Проблемное обучение в школе. Москва, 1974 г.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ўқувчи ёшларда компетенцияларни шакллантиришнинг айрим жиҳатлари

**Валиева Дилрабо Абдусатторовна**

Сурхондарё вилоят Денов тумани
80-мактаб тарих фани ўқитувчиси

Биз яшаётган ҳозирги давр техника тараққиёти даври.Бугунги кунда илм-фан, техника, технология ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиб бораётганлиги таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини оширишга асос бўлган талабларни қайта кўриб кириб чиқиб, ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этишни талаб этмоқда. Тезлик ва ўта шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан бир қаторда, унинг салбий оқибатлари ҳам ҳаётимизга кириб келмоқда. Бундай хатарлардан ҳаётимизни асраш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, авваломбор, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган асарлар орқали, бугун жаҳон майдонида юз бераётган кескин ақл-заковат ва истеъдод мусобақасида беллашувга қодир бўладиган ёшларни тарбиялашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.Ёшлар келажагимиз. Биз педагоглар ёшлар тарбиясида масъулдирмиз.

Ҳозирги кунда таълимга компетенция,компетентлилик,компетенциявий ёндошув тушунчалари кириб келди ва тез оммалашмоқда. Компетенция, компетентлилик замонавий тадқиқотлар асосий йўналишларининг марказий муаммосига айланиб улгурди, дейиш мумкин. Янги аср, XXI аср бозор муносабатлари шахсда конкрет билимларнигина шакллантиришга эмас,балки ходимларнинг компетенциясини,шахсий профессионал,социал-психологик ва мулоқот хислатларини ривожлантиришни тақозо қилмоқда.

Илмий педагогик,психологик манбаларда берилишича (профессор Б.Менглиев ва РТМ методисти Г.Зиёдуллаеванинг мақоласида компетенция, компетентлилик ҳақидаги маълумотларни беришича), компетенция, компетентлилик ўта мураккаб, кўпқисмли, кўпгина фанлар учун муштарак бўлган тушунчалардир. Шу боисдан унинг талқинлари ҳам ҳажман,ҳам таркибига кўра,ҳам маъно,мантиқ мундарижаси

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

жиҳатидан турли-тумандир. Терминнинг моҳияти “самарадорлик”, ”мослашувчанлик”, ”ютуқлилик”, ”муваффақиятлилик”, “тушунувчанлик”, ”натижалилик”, ”уқувлилик”, ”хосса”, ”хусусият”, ”сифат”,”миқдор”каби тушунчалар асосида таърифланмоқда.

“Компетентлилик”, ”Компетенция” тушунчалари тавсифларида қуйидаги ҳолатларга алоҳида эътибор қаратилади:

*билимлар мажмуининг амалда қўлланилиши;

*шахснинг уқуви,хислатлари,фазилатлари;

*амалий фаолиятга тайёргарлик ўлчови;

*муаммоларни ҳал этиш,амалда зарур натижаларни қўлга киритиш лаёқати;

*шахснинг профессионал фаолиятини таъминловчи билим, кўникма, малакалар яхлитлиги;

*фаоллашган (амалиётга татбиқ этилган) уқув, билим, тажрибалар мажмуи;

*шахснинг мақсадли йўналтирилган эмоционал ирода кучи.

Айтилганларни умумлаштирган ҳолда,компетенцияни шахснинг ўз имкониятлари (билим,уқув,тажриба,шахсий сифат)ларини уларнинг ижтимоий аҳамиятини онгли уқиб,натижалари учун масъулиятни ҳис этган,доимий такомиллаштириб бориш заруратини англаган ҳолда профессионал ҳамда социал муҳитда ижодкорлик асосида ишга солишга тайёргарлик даражаси сифатида баҳолаш мумкин.Талқинларда компетенция ва компетентлилик терминлари гоҳ маънодош,гоҳ маъноси фарқланадиган сўзлар сифатида учрайди. Уларни имконият ва воқелик диалектикаси асосида изоҳлаш,фарқлаш лозим . Бунга кўра, компетенция шахснинг муайян фаолиятини амалга ошириш учун имконият сифатидаги тайёргарлик даражаси бўлса, компетентлилик унинг муваффақиятли равишда воқеаланган,реаллашган,амалиётда юзага чиққан кўринишидир. Масалан,ҳунарманднинг ўз ҳунари бўйича билим ва лаёқати кабилар компетенция, у яратган маҳсулотда юзага чиққан билим, тажриба, лаёқат ва бошқа шахсий сифатларнинг “из”лари компетентлиликдир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Компетенция имконият табиатига эга бўлганлиги сабабли унинг тўла намоён бўлиши учун зарур шарт-шароит талаб қилинади.Компетенциянинг юзага чиқиши(компетентлиликка айланиши) ташқи омилларга ҳам боғлиқ. Компетенция-компетентлиликнинг дастури. Ҳар бир шахс компетенцияси айрича,компетентлилик эса турли вазият,ҳар хил шароитда ўзига хос тарзда намоён бўлади.Компетенция тушунчаси қуйидаги унсурларни ўз ичига олади: билим,мақсад,шахсий хислатлар,лаёқат(кўникма,малака,тажриба),ирода.

Компетенциянинг турлари ҳам мавжуд бўлиб,қуйидаги мисолда кўришимиз мумкин: бир неча ҳунар эгаси бўлган шахсда ҳар бир ҳунарга хос компетенция шаклланади,бир кишида профессионал компетенция ҳам,социал-психологик компетенция ҳам мавжуд бўлади.Профессионал компетенция шахснинг муайян бир соҳада фаолият юритишига потенциал тайёргарлик даражаси бўлса,социал-психологик компетенция шахснинг ҳаётда ўз ўрнини топиши,жамият ҳамда унинг аъзолари билан уйғунлик касб этишга тайёргарлик даражасини ифодалайди.Ҳар бир компетенцияда юқоридаги билим,мақсад,қадрият,шахсий хислат,лаёқат ва ирода унсурлари яхлит ҳолда намоён бўлади.

Тарих таълимининг когнитив-прагматик усули талабларига кўра,ўқувчи мавзу бўйича белгиланган билим,кўникма,малакаларни эгаллаши учун,дарсликдаги топшириқларни ўн босқичли мустақил,ижодий изланиш иерархияси асосида бажариши керак.Улар қуйидагилар:кузатиш,изланиш алоҳидаликларни шарҳлаш, умумийликни топиш,фарқларни аниқлаш, қиёслаш, таснифлаш,хулоса чиқариш,алоқадорликларни очиш,амалда қўллаш. Ўқувчи изчил кетма-кетликдаги бу амалиётни бажариш учун дарсликнинг ёрдамчи воситалари бўлган бой ахборот банки ( луғатлар, қомуслар, маълумотлар, матнлар тўплами, тарихий ҳужжатлар ва бошқалар)га эга бўлиши лозим. Таъкидлаш лозимки,мустақил изланиш ва ижодий фикрлаш машғулотлари ўқув материали таркибида фойдали тарихий билим бўлиши керак.

Шу маънода айтишимиз мумкинки, т*арих фани бўйича ўқувчилар Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартларида белгиланган билим кўникма ва малакаларни эгаллашлари натижасида;*

- **назарий билимларни намоён қилиш:** ўрганилган тарихий воқеа ва ҳодисаларга холисона баҳо бериш, тарихий атамаларни таърифлаш, уларни амалда қўлланилишига мисоллар келтириш.
- **ахборотларни мустақил равишда излаш:** Турли манбалар (ўқув матни, луғат, қўлёзма ва бадиий асарлар, илмий-оммабоп адабиётлар, компьютер маълумотлари базаси, Интернет ресурслари)дан фойдаланиб илмий-амалий мазмундаги ахборотларни излаш ва фойдаланиш.
- **амалда билиши ҳамда қўллай олиши керак:** Қадимги давлатлар, хонликлар, давлат хукмдорлари, уларнинг амалга оширган ишлари, халқ қаҳрамонлари, уларнинг мардонавор курашлари, халқнинг турмуши, маданияти, уларнинг аҳамияти, буюк аждодлар ёди, инсоният ва жамият ривожига оид бўлган билим, кўникма ва малакаларни давр билан боғлай олиш, ижобийларини ажратиб олиб, салбийлари тўғрисида хулоса қила олиш лаёқатини шакллантириш назарда тутилади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда ўқувчилар Тарих фанидан белгиланган билим, кўникма ва малакаларни эгаллашлари замирида қуйидаги лаёқат(компетентлилик) га эга бўлишлари лозим:

1. **Мазмун ва мақсадга йўналтирилган компетенция**-ўқувчиларни қизиқишлари ва уларнинг дунёқарашларини ўзида мужассам этиши, уларнинг атроф муҳит билан боғлиқ ҳолда жамиятда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга нисбатан ўз муносабатини билдира олиши ва мустақил қарор қабул қила олиши. Бу компетенция ўқувчини ўз олдига қўйган мақсад вазифаларига эришиш траекториясини белгилаб, ўқув жараёни ва бошқа фаолиятда ўзини англаш механизмини шакллантиради. Ўқувчининг жамиятда ўз ўрини топа олиши ушбу механизм билан боғлиқ бўлади.
2. **Умуммаданий – компетенция** - ўқувчининг юксак тайёргарлилик даражаси, малакаси, маданий ва маънавий-ахлоқий савияси, умуминсоний ва миллий

қадриятларни ўзининг фаолиятида акс эттириши, анъана ва қадриятларга асосланган ҳаёт фаолияти. Ўқувчининг жамиятда ўрнатилган одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиши, масалан ўзининг бўш вақтини фойдали равишда ташкил эта олиши, (музейларга бориши, уй ишларига қарашиши, китоб мутолаа қилиш, бошқаларнинг қадр-қимматни эътироф этиш ва уни ҳурмат қилиш в ҳ.к.).

Жисмоний, маънавий ва маърифий ўз-ўзини ривожлантириш, ўзининг ҳис туйғуларини бошқара олишга йўналтиради. Шахсий тушуниш ва ўрганиш эҳтиёжларини кузатиб бориш; мос келувчи манбаларни аниқлаш; билим олишни бир жабҳадан бошқасига кўчириб ўта олиш.

**3. Ўқув-таълимий – компетенция – ўқувчининг таълим жараёнида олган билимларини амалиётга тадбиқ эта олиши.**

Қуйидаги элементларни ўзи ичига олган ўзини-ўзи англашидаги билимлар йиғиндиси. Жумладан; мантиқий, методологик, қиёслаш, идрок қилиш, тадбиқ этиш, ўз-ўзини баҳолаш фаолияти. Мазкур компитентлилик доирасида ўқувчида фактларни асосийларидан ажрата олиш ва хулоса чиқариш малакаси шаклланади.

**4. Ахборотлашган- компетенция** интернет, ОАВ ва бошқа тармоқлардан зарур бўлган ахборотларни излаб топиш, маълумотлар базасини яратиш мустақил тўплай олиш, уларни таҳлил этиш, баҳолаш, ахборотни қайта ишлаш ва уларни узатиш, асосийларини танлаб олиш, фойдалана олиш.

**5. Коммуникатив компетенция-** ўқувчиларда гуруҳларда ва жамоаларда ижодий ишлай олиш, ҳамкорлик қила олиш.

Ўқувчиларнинг билим, кўникма, малакалари ва компетентлилик даражаларини шакллантириш бўйича тарих фани таълими мақсадларини ва баҳолаш мезонларини аниқроқ ва яққолроқ белгиловчи қуйидаги тамойиллар белгиланди.

**Билиш, ўрганиш** – ўрганилган материални билиб олиш, қайта айтиб бера олиш.

**Тушуниш, идрок қилиш** — ўрганилган материални хотирада сақлаб қолиш, моҳиятини идрок этиш ва тушунганликни намойиш қилиш, бир дарвдан бошқа даврга кўчира олиш. У ёки бу ҳолатга танқидий баҳо бера олиш. Мунозараларда иштирок

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

эта олиш. Ўзининг фикрини ва қарашларини Тарих таълимида олган билимлари асосида ҳимоя қила олиш.

**Қўллай олиш** — ўрганилган умумий тушунча, атамаларни, муаммоли вазиятларга, мисол орқали тадбиқ эта олиш ҳамда самарали қўллай олиш; Жамоада ишлай олиш ва етакчилик қобилиятларини намоён этиш; турли хил роллар ва масъулиятларни қабул қила олиш; бошқалар билан биргаликда самарали меҳнат қила олиш;

**Анализ (таҳлил) ва синтез, фильтр қилиш** — берилган муаммони ҳал қилиш учун зарур маълумотларни турли хил манбалардан тўплаш, тартибга солиш, таҳлил қилиш; ўрганилган бир бутун материални майда бўлакларга, таркибий қисмларга ажрата олиш ва улар орасида муносабатларни ўрнатиш ва таҳлил қила олиш; аниқланган хусусий натижаларни умумлаштириб, асосийларини ажратиш, хулоса чиқара олиш. Танқидий фикрлаш ва тизимли фикрлаш - Масалани англашда ва мураккаб қарорлар қабул қилишда пухта далиллар келтиришдан фойдаланиш; тизимлар воқеалар ва ҳодисалар, вазиятлар ўртасидаги узвий боғлиқликни англаш.

**Баҳолаш ва хулоса чиқариш** — Воқеа ва ҳодисаларга баҳо бера олиш, муаммоли вазиятни маълум ички ёки ташқи мезонлар асосида баҳолаш ва таққослаш, сабаб ва оқибатларини ўрганиш, натижаларни таҳлил қилиш асосида танқидий фикрлаш, хулоса чиқаришдир.

**Масалан, умумтаълим мактабининг 5-синфида тарихдан** жами 68 соат дарс ўтилади. Дарс ўтиш жараёнида ўқувчиларга мазмун ва мақсадга йўналтирилган, ўкув- таълимий, умуммаданий, ахборотлаштирилган компетенцияларни шакллантиришга алохида эътибор қаратилади. Берилган компетенциялар дарслик ва харита билан ишлаш, сухбат, савол-жавоб, кўргазмали қуроллар билан ишлаш, ақлий хужум, кўшимча манбалар билан ишлаш, ўқувчиларнинг кузатувчанлик хусусиятларини шакллантириш, мустақил ишлаш усуллари билан руёбга чиқаришга харакат қилинади. Ҳар бир дарс жараёнида ўқувчиларнинг қобилияти, ёши, писихологик хусусиятлари, физиологик ривожланишига

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

мавзулларни оғирлик қилмаслиги, мавзуларнинг кетма- кетлиги фанлараро боғлиқлиги ҳисобга олинади.

Ўтказилган машғулотлар натижасида шу нарса аниқландики, берилган лойиҳа асосида ўқувчиларда мавзуларга доир компетенцияларни шакллантириш имконияти мавжуд. Масалан: “Ёзувнинг пайдо бўлиши” мавзусини ўтиш жараёнида ўқувчиларда умуммаданий ва ахборотлаштирилган компетенцияларни шакллантириш вазифаси қуйилган. Бу дарсда ўқувчиларда умуммаданий компетенцияларни шакллантириш учун ўқитувчи томонидан компетенцияларни шакллантиривчи саволлар билан мурожаат қилиш мумкин. Жумладан, “Ёзувнинг инсон ҳаётидаги аҳамияти”, «Ёзувнинг пайдо бўлишига нималар сабаб бўлган?”, “Ёзувнинг пайдо бўлиши тараққиётга қандай ҳисса қўшган?”. Ушбу саволлар орқали ўқувчиларда умуминсоний ва миллий қадриятларда, анъаналарда фаол иштирок этиш, миллий маданий меросни ҳурмат қилиш уни кўз корачиғидек асраш лаёқати шаклланади. Шу билан бирга ўқувчиларда ахборотлашган компетенция ҳам шаклланади. Бу компетенцияни шакллантириш учун ўқитувчи томонидан ўқувчиларга оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиб “Илк ёзувлар қандай бўлган?”, “Дастлабки ёзувлар олимлар томонидан қандай аталган?” деган саволлар билан мурожаат қилинса, ўқувчида оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиб кўпроқ маълумотлар тўплашга ва тўпланган маълумотларини бошқаларга етказиш лаёқати шаклланади. Мавзуни ўзлаштириш жараёнида хусусан она тили фани билан алоқадорликга тўхталиб ўтилади.

Ёки “Амир Темур жасорати ва унинг давлати” мавзусини ўтиш жараёнида ўқувчиларда умуммаданий компетенцияни шакллантириш вазифаси қуйилган. Бу дарсда ўқувчиларда умуммаданий компетенцияларни шакллантириш учун “Амир Темурни нима сабабдан биз миллий қаҳрамон сифатида эътироф этамиз?”, “Амир Темурнинг Мовароуннаҳр учун хизмати нимадан иборат” каби компетенцияларни шакллантиришга оид саволлар билан мурожаат қилиш самарали бўлди. Шунингдек, ушбу саволларга жавоб топиш жараёнида ўқувчиларда умуминсоний ва миллий

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қадриятлар, анъаналар, миллий қаҳрамонларни ҳурмат қилиш ва уни эъзозлаш лаёқати шакллантирилади. Бундан ташқари "Амир Темур ўз давлатини қандай ташкил этган эди?", "Амир Темурнинг ҳаёт ва фаолияти ҳақида нима биласиз?" деган саволлар билан мурожаат қилинса, ўқувчилар саволларга жавоб топиш учун оммавий ахборот воситаларидан кўпроқ маълумотлар тўплашга ва тўпланган маълумотларини бошқаларга етказиш лаёқати шакллантирилади. Ушбу мавзуни ўтишда Ватан туйғуси фани билан алоқадорликга тўхталиб ўтилса мақсадга мувофиқ бўлади.

"Иккинчи жаҳон уруши" мавзусини ўтиш жараёнида ўқувчиларда тарихий жараён ва ходисаларни тўғри таҳлил қилиш идрок этиш баҳолаш ҳамда уларда умуммаданий, ўқув-таълимий ва коммуникатив компетенцияларни шакллантириш вазифаси қўйилган ва шу билан биргаликда бу мавзуни ўтиш жараёнида ахборотлашган компетенцияларни шакллантириш мумкин. Бунинг учун дарс жараёнида иккинчи жаҳон уруши ҳақида тарихий филмлардан лавҳалар намоиш этилса ўқувчилар мавзу ҳақида кўп маълумотга эга бўлади. Шу билан биргаликда урушининг аянчли оқибатлари ҳақида тасаввурлари анча кенгаяди. Дарс ўтиш жараёнида ўқувчиларнинг компетентлик даражаларини янада ошириш учун баҳс мунозара усулидан фойдаланиб дарс ўтилса ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобиляти ривожланади. Албатта савол бераётган вақтда ўқувчиларнинг ёши, физиологик ривожланиши ва бу ёшдаги болалар қандай даражадаги саволларга жавоб беришлари мумкинлигини эътиборга олиш шарт. Ўқувчиларга қуйидагича саволларни бериш мумкин "Иккинчи жаҳон урушини юз бермасдан олдини олиш мумкинмиди? ", "Иккинчи жаҳон урушининг фожеали оқибатлари инсониятга қандай сабоқ берди?", "Уруш йилларида ватандошларимизнинг кўрсатган жасоратлари ҳақида нима дея оласиз?", "Маҳалламизда, туманимизда яшаган уруш иштирокчиларини биласизми, уларнинг кўрсатган қаҳрамонликлари ҳақида нималар дея оласиз?" деган саволлар билан ўқувчиларга мурожаат қилиш мумкин. Бундай мазмундаги саволлар билан мурожаат қилинса ўқувчиларнинг мустақил

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

фикрлаш қобилиятлари ривожланади ва ҳар бир даврдаги тарихий жараён ва ходисаларни таҳлил қилиш, тўғри баҳолаш, идрок этиш ва ҳозирги давр ва ўша даврдаги бошқа давлатлар ва воқеалар билан мавзуни таққослаб хулоса чиқариш лаёқатига эга бўладилар.

Хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, ҳозирги кунда фанни замонавий ёндошув ва инновациялар асосида, илғор педагогик технологияларни қўллаб, дарсни қизиқарли ва мазмунли, ўқувчиларни фаоллаштириб, қизиқишини оширишга хизмат қиладиган усуллар асосида ташкил қилиш керак. Бунинг учун эса ўқитувчи тинимсиз ўз устида ишлаши, изланиши, татбиқэтиши, касбий компетентликка эга бўлиши, бир сўз билан айтганда маҳоратли замонавий ўқитувчи бўлмоғи керак. Зеро, ўқитувчи ёшлар таълим-тарбиясида масъулдирлар.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. “Маънавият” нашриёти, Тошкент. 2008 й. 4.Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа педагогика // Педагогика. - 2005. - № 4.

2. Алексеева Л. П., Шаблыгина Н.С. Преподавательские кадры: состояние и проблемы профессиональной компетентности. М.: НИИВО, 1994.

3. Байденко В.И., Джерри ван Зантворт. Модернизация профессионального образования: современный этап. Европейский фонд образования. М., 2003.

4. Гришанова Н.А. Развитие компетентности как важнейшее направление реформирования профессионального образования. Десятый симпозиум. Квалиметрия в образовании: методология и практика / Под науч. ред.Н.А. Селезневой и А.И. Субетто. Кн. б. М., 2002.

5. Г. Шоисаева( Н.Турдиев таҳрири остида). Хусусий ва умумпредмет компетенциялари. “Умумтаълим фанлари методи- каси”. 2014.№5-сон. 2-4 б.

6. Н. Ш. Турдиев. Тажриба тадқиқот натижалари қандай бўлди?. “Умумтаълим фанлари методикаси” журнали, 2014 й, №7, 2-5 б.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

7. Н. Ш. Турдиев. Дастлабки натижалар ва амалий таклифлар. “Умумтаълим фанлари методикаси” журнали, 2014 й, № 12, 2-7 б.

8. Темиров Д.Ш. Организационно - педагогические факторы управления образовательным учреждением. “Образование через всю жизнь непрерывное образование в интересах устойчивого развития». Санкт-Петербург 2015 й. 29-31 май

9. Темиров Д.Ш. Таълим муассасасини бошқаришда ташкилий- педагогик тамойилларнинг узлуксизлиги. “Таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш–соҳа тараққиётининг муҳим мезони” 2015 йил. 16 март 102-103 б.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих ўқитувчиларида педагогик маҳоратни шакллантиришни лойиҳалаштириш

**Исакова Нилуфар Абдумаликовна**

Сурхондарё вилоят Денов тумани
80-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Тарих ўқитувчиларида педагогик маҳоратни шакллантиришни лойиҳалаштириш. Ҳамкорликда ўқитиш методи. Танқидий фикрлаш методи.

Бугунги кун вазифалари қаторида ҳар томонлама билимдон, зукко ва маънавий етук мутахассисларни тайёрлаш таълим тизимининг асосий мақсадларидан биридир. Кадрлар тайёрлаш ва таълим тизимидаги, ўқув-тарбия ишлари соҳасидаги муаммоларни изчиллик билан, босқичма-босқич ҳал этиш йўллари ва воситалари таълим тўғрисидаги давлат ҳужжатларида белгилаб берилган. Шунингдек, узлуксиз таълим тизимида ёш авлодни таълим-тарбиялаш, уни шакллантириш ва ривожалантириш борасидаги амалий ишлар муҳим омил сифатида эътироф этилади. Таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёнини ҳозирги замон талаблари асосида ташкил қиладиган, янгича фикрлайдиган, мустақил ва ижодий фаолият кўрсатадиган юқори малакали педагогларга эҳтиёж катта. Бугунги кунда таълим муассасалари учун етук, юксак ахлоқий фазилатларга эга, ҳар томонлама билимдон мутахассислар тайёрлаш долзарб вазифалардан биридир. Ҳозирги кунда таълим муассасаларида ўқув-тарбия жараёнини янги педагогик технологиялар асосида ташкил этиш замонавий таълимни йўлга қўйиш мақсадига эришишни амалга оширмоқда.

Айнан таълим тизимини ривожлантириш мақсадида ўқув-тарбия жараёнига инновацияларни тадбиқ этиш таълим муассасаларининг истиқболи учун педагогик технология ҳаракатлантирувчи куч бўлиб хизмат қилади. Бу масала таълим соҳасида қабул қилинган Қонун ҳужжатларида ўқитувчи шахси, унинг жамиятдаги ижтимоий мавқеи ва унга қўйилган талаблар атрофлича аниқ келтириб ўтилган. Педагог нафақат талабалар ўқиш фаолиятининг ташкилотчиси ва ўқиш жараёнини ташкил этувчиларнинг ўзаро алоқасини илхомлантирувчи бўлиб хизмат қилиш билан бирга маълум маънода билим, тарбия бериш ва демак, умумий мақсадларга эришишда уларнинг тенгдоши сифатида қатнашиши зарур. Бу эса талабалар олдига доимо ўзларининг ташкилотчилик, коммуникатив хусусиятларини педагогик-психологик билимларни ўзлаштириш жараёнида ривожлантириб боришларини ва улардан педагогик амалиётлардан самарали фойдаланишга интилишини юзага келтиради. Тарих ўқитувчиларида педагогик маҳоратни шакллантиришда уларнинг ўз устида ишлаши, дарсни лойиҳалаштириши, илғор педагогик технологиялар, интерфаол усуллардан фойдаланиши, дарсни замонавий ёндошув асосида ташкил этиши талаб этилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дарс - ўқув ишларининг асосий ташкилий шаклидир. Ҳар бир дарснинг муваффақияти кўп жиҳатдан машғулотни тўғри ташкил этишга боғлиқ. Таълим масканларида дарснинг бошланиш даврини - дарснинг ташкилий дақиқалари деб аталади. Бироқ, бу дарс шаклининг бирор босқичи ёки тузилишига кирмаслиги керак. Ташкилий дақиқада синфнинг тайёргарлигини синчиклаб кузатиш муҳимдир. Тажрибали ва маҳоратли ўқитувчилар фурсатни қўлдан бермай, ўқувчилар диққатини чалғитмай, дарҳол иш бошлаб юборадилар. Айни пайтда ўқитувчи олдида икки вазифа – бутун синф ўқувчилари диққатини ўзига жалб қилиш ва бутун синф ўқувчиларини тезлик билан машғулотга фаол киришишларини таъминлаш вазифалари туради.

Дарс машғулотдан кўзланган мақсадни равшан ва аниқ қилиб ўқтириш билан бошланади. Дарс янги материални баён қилишга қаратилган бўлса, дарс мавзуси айтилади. Дарсда режада мўлжалланган материални ўтиб бўлингач, у албатта якунланиши, хулосалар чиқарилиши керак. Шунингдек, ўқитувчи дарсни илғор педагогик технологиялар асосида олиб бориши, турли хил таълим методларидан унумли фойдаланиш ва ўқувчиларга кўпроқ муаммоли вазиятлар яратиш орқали уларга янги материални баён қилиши дарс сифатини оширади.

Дарсни ташкил этиш ва олиб боришдаги бош мақсад – таълим жараёнининг самарадорлигини таъминлашдир. Бунинг учун:

а) ўтилаётган мавзудан кўзланган мақсадни ўқтириш билан бир вақтда, ўқувчилар материални фаол идрок қилишга сафарбар етилган бўлишлари керак. Яъни ўқитувчи баён қилаётган мавзу ўқувчиларни мустақил фикр юритишга, онгли ўзлаштиришга интилишларини таъминламоғи лозим;

б) Ажратилган вакт ичида ўқитувчи материалларни тизимли ва изчил баён қилиш билан бир вақтда, ўқувчиларни ҳам, албатта, мавзуга оид мустақил иш олиб боришларини таъминлаш жуда муҳимдир. Ўқитувчи дарсда мавзуни баён қилиш давомида ўқувчиларга муаммоли вазият туғдирадиган саволлар бериб, уларни фикрлаш ва изланишга ундаса ўқувчилар ушбу материални пухта ўзлаштириб олади.

в) Билимларни баён қилиш жараёнида ўқувчилар фаоллиги (оғзаки, ёзма машқлар ва лаборатория-тажриба ишлари, мустақил ижодий ишлар) ишга солинмоғи лозим. Бу ўз навбатида, ўқувчиларнинг олдиндан ўзлаштирган билимларини ҳам ишга туширишга хизмат қилади ва тўғри баҳолаш учун катта имконият туғдиради.

г) дарс жараёнида ўтилаётган ўқув материаллари бошқа фанларнинг алоқадор мавзулари билан боғланишини кўрсатиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Дарсда ўқув – тарбия ишларининг барча компонентлари: мақсад, мазмун, воситалар, методлар, ташкил этиш ва бошқариш фаолияти ҳамда унинг ҳамма дидактик элементлари мужассамланган деб ҳисоблаш қабул қилинган. Шунга асосан ўқитувчи дарс муаммоларига тўғри ёндошиши учун таълим жараёнининг асосий компонентларини билиши, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва бир-бирига таъсирини тушуниши лозим.

Дарс - ўқитувчилар ва ўқувчилар фаолиятини ташкил этишнинг шакли бўлиб, у болаларни ўқитиш, тарбиялаш ва камол топтириш вазифаларини амалга оширади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дарс ўқитишни ташкил этишнинг ўзгармас шакли эмас. Ўқув амалиёти ва педагогик тафаккур доимо уни такомиллаштириш йўлларини излайди. Бу сохада кўпгина ислоҳатлар амалга оширилмоқда.

Турли-туман фикр ва мулоҳазаларни ҳисобга олган ҳолда дарс қуйидаги умумий дидактик талабларга жавоб бериши лозим:

1. Ҳар бир дарс маълум бир мақсадни амалга оширишга қаратилган ва пухта режалаштирилган бўлмоғи лозим.

2. Ҳар бир дарс мустаҳкам ғоявий-сиёсий йўналишга эга бўлоғи лозим.

3. Ҳар бир дарс турмуш билан, амалиёт билан боғланган бўлмоғи, шунингдек хилма хил усул, услуб ва воситалардан унумли фойдаланган ҳолда олиб борилмоғи лозим.

4. Дарсга ажратилган ҳар бир соат ва дақиқаларни тежаб, ундан унумли фойдаланмоқ зарур.

5. Дарс ўқитувчи ва ўқувчиларнинг фаоллиги бирлигини таъминламоғи лозим.

6. Дарсда ўқув материалининг мазмунига оид кўрсатмали қуроллар, техник воситалар ва компютерлардан фойдаланиш имкониятини яратмоқ лозим.

7. Дарсда ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ҳам ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир.

Таълим тизимида енг кўп қўлланиладиган дарс турлари қуйидагилар:
1) Янги билимларни баён қилиш дарси (маъруза).
2) Ўтилган материалларни мустаҳкамлаш дарси.
3) Ўқувчиларнинг билим, малака ва кўникмаларини текшириш ва баҳолаш дарси.
4) Такрорлаш – умумлаштирувчи ва кириш дарслари.
5) Аралаш дарс (юқоридаги дарс турларининг бир нечтасини бирга қўлланиши).

Ҳар бир дарс турининг маълум тузилиши ва хусусиятлари бор, бу нарса ўқитувчининг ўқув материалини тўғри ва самарали тушунтиришига, мустаҳкам есда қолдиришга, такрорлашга ва унинг ўзлаштиришини назорат қилиб боришига ёрдам беради.

Таълимни ташкил этиш методикаси таълим мазмунини шакллантириш каби эркин танланиши мумкин эмас. Бу борада муайян ижтимоий, психологик ва педагогик талабларни инобатга олиш зарур. Бундай талаблар т<u>аълимнинг ташкилий-методик тамойиллари</u> деб юритилувчи тамойиллар мазмунида ўз ифодасини топган:
- таълимнинг изчиллиги, тизимлилиги, кетма-кетлиги;
- таълимда онглилик ва ижодий фаоллик;
- таълимда кўргазмалилик;
- таълимнинг самарадорлиги ва ишончлилиги (мустаҳкамлиги);
- таълимнинг тушунарлилиги;
- гуруҳли ва индивидуал таълим бирлиги;
- таълимнинг ўқувчилар ёши ва индивидуал хусусиятларига мос келиши;
- оқилона талабчанлик билан бола шахсини ҳурмат қилишнинг мувофиқлилиги;
- педагогик ҳамкорлик.

Таълим бериш, ҳар бир мавзунинг мағзини талабалар онгига етказиш маҳорати ўқитувчидан кўп изланишни, кўп мутола қилишни талаб қилади. Билим уммонига бой

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бўлган устозгина мавзуни мағзини талабалар онгига моҳирона етказа олади. Мавзунинг мақсадига қараб, таълим методларини танлай билади.

Таълим жараёнидаги муваффақиятларга фақат билим беришда ўқувчи-талабанинг ўзига хос шахсий хусусиятларини ҳисобга олганда эришиш мумкин. Шунинг учун ўқитувчида болалар психологиясидан тегишли билимлар етарли бўлиши лозим. Дарс жараёнида шу синф ўқувчиларига тегишли умумий хусусиятларни ва ҳар қайси ўқувчига тегишли хусусиятлар таълимнинг ҳар бир босқичида эътиборга олиниши даркор. Бунга эришиш учун ўқитувчи ўқувчиларни кузатиши ва уларнинг руҳий оламини ўрганиши лозим. Фақат шундагина ўқувчидаги камчиликларнинг келиб чиқиш сабаблари аниқланади ва уларни бартараф қилиш учун изланишлар олиб борилади. Таълим методларидан оқилона фойдаланиб, илмий дарс ўтиш, ўқувчиларни ҳаётда ўз ўрнини топишга, онгнинг шаклланишига катта асос бўлиб хизмат қилади.Ўқитувчининг маълум фан илмини ўқувчилар онгига етказа олиш маҳорати, шу ўқувчиларни бўлғуси ҳаёт йўлларини танлашда муҳим аҳамиятга эга.

Ўқитувчининг баркамол инсонни тарбиялаш, унда миллий ва умуминсоний фазилатларни таркиб топтириш вазифаси энг олийжаноб, юксак ва энг мураккаб вазифадир. Ҳар бир бола ўз хулқ-атворига, характерига эга. Ёшларни тарбиялашда уларнинг ана шу ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш, ўрганиш ниҳоятда мураккаб. Бунда одамлар ўртасидаги ижтимоий муносабатларнинг мураккаблигига мос келадиган махсус усуллардан фойдаланилади. Педагогик фаолиятга тайёргарлик кўраётган ёшлар ана шундай хусусиятларини билишлари лозим.

**Ўқитувчи учун зарурий билимлар, бу п**едагогика ва психология фанининг методологик асосларини эгаллаш,ўқувчи ривожланишининг психологик, физиологик хусусиятларини билиш,дарс ўқитишнинг педагогик-психологик йўлларини билишдир,шунингдек,тарбиянинг моҳияти, унинг мақсад, вазифалари ва методларини билиш,турли синф ўқувчилари билан тарбиявий ишлар олиб бориш методикасини билиш,фан ва маданият соҳасида умумий билимларни эгаллаб боришдир.

Ўқув-тарбия жараёнида интерфаол методларни қўллаш зарурияти ва ўқитиш технологияси яъни ўқув жараёнини лойиҳалаштириш хусусида тўхталадиган бўлсак, айтиш мумкинки, бугунги куннинг таълим мазмуни ўқитиш, ўргатиш жараёнида ўқувчини кўпроқ ўйлаш, фикрлаш, ижодий фаолият кўрсатишга ундайдиган дидактик механизмни тақозо қилмоқда. Бу дидактик механизм шундай бўлмоғи даркорки, унда ўқитувчи ҳам ўқувчи ҳам, бор имкониятини максимал ишга сола олсин, ўқитишнинг таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи функциялари тўла амалга ошсин, шахс камолотини таъминлаш учун замин яратиш. Бундай механизм – педагогик технологиянинг интерфаол методларидир.

Ҳозирги илмий-техникавий тараққиёт, миллий мустақиллик ўқувчи-талабаларни фикрлаш, ўйлаш, ижодий фаолият кўрсатиш, изланишга

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

йўналтирадиган, ундайдиган методлардан фойдаланиш зарурлигини талаб этмокда. Шунга асосан ўқитувчи, аввало, барча ўқитиш методларини мукаммал билиши, уларни оқилона танлаш ва моҳирона қўллаш маҳоратига эга бўлиши ҳамда ҳар бир методдан фойдаланганда ўз имкониятларини, таълим муассасаси шарт-шароитларини хисобга олиб иш тутмоғи лозим.

Шу ўринда шуни ҳам эътироф этиб ўтиш жоизки, инсон ҳаёти, унинг фикри, қизиқиши, ўзини ўраб турган воқъеликни билишга интилиши шунчаки бир мавҳум, номоддий, ҳеч қандай маъно ва кучга эга бўлмаган бир нарса эмас, балки, маълум нарсаларни ўрганишга интилувчи, кашф этишга йўналтирилган фаолият ва кучни англатувчи жараёндир. Шунга асосан инсон билан қизиққан, унинг воқъеликни фаол идрок этишга интилишларини англаб етган ўтмиш мутафаккирлари билиш, англаш, тушуниб этиш, ижодий фикрлашни шакллантириш ва ривожлантиришнинг бош омили ўқитиш методлари деб билганлар.

Илмий педагогик назарияни ўрганиш ва таҳлил қилиш шундан далолат бермокдаки ҳеч бир вақт, замон ва маконда ўқитиш методларини танлаш, қўллаш ва таснифлашга ягона ҳолатда, бир хилда ёндашмаган. Биргина XX аср «Педагогика назариясини» олиб қарайдиган бўлсак дидактик олимлар таълим методларини дидактиканинг турли йўналишида туриб шархлаганлар. XX асрнинг машҳур рус дидактлари М.Н.Спаткин ва И.Я.Лернерлар ўқувчилар билиш фаолиятларини ташкил қилиш ва ривожлантириш хусусиятидан келиб чиқиб, ўқитиш методларини қуйидагича таснифлайдилар: тушунтириш – намойиш этиш (инфоцион - рецептив), муаммоли (проблемали) баён қилиш, репродуктив, қисман изланувчан (эвристик), изланувчанлик (тадқиқот ижодийлик) каби методларга бўладилар.

Табиат, жамият инсон тафаккурининг такомиллашуви унинг тўхтовсиз ривожланиб, такомиллашиб бориши, илм-фан, техника ва технологиянинг жадаллашуви таълим методларига танлаш ва қўллашда янгича ёндашишни уларни ўзлаштириш ва фаоллаштиришни тақозо этмокда. Шунга асосан ҳозирги давр дидактикасида ўқитишнинг Янги педагогик технологияга асосланган интерфаол методлари майдонга келди.

Таълим жараёнида шундай ўқитиш методларини тадбиқ этиш жоизки, улар охир-оқибатда ўқувчи-талабаларни мустақил ўқиш, фикрлашга, илмий-техникавий ахборотлар билан ижодий ишлашга ўргатсин, ўқувчи-талабаларни ўзига хос ва ностандарт фикрлашга йўлласин ва ишчанлик қобилиятини ривожлантириш, ўқишга, мустақил билим олишга қизиқиши ва эҳтиёжини оширсин, ўз ишига фаолиятига, фикрлашига тадқиқот ёндашишини тарбияласин, ўзгарувчан ишлаб чиқариш шароитига тез мослашиш кўникмаларини шакллантирсин. Илмий педагогик назария ва амалиётнинг кўрсатишига бундай дидактик жараён лойиҳасини интерфаол методларга ёрдам бера олади.

**Ҳамкорликда ўқитиш методи ҳақида айтадиган бўлсак,** ҳамкорликда ўқитиш методининг асосий ғояси – бирор – бир топшириқни биргаликда бажариш эмас, балки ҳамкорликда ўқишдир.

Шахсга йўналтирилган таълим технологиясида ҳамкорликда ўқитиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, Ҳамкорликда ўқитишни бу бирор бир вазифани, топшириқни ҳамкорликда бажариш эмас, балки ҳамкорликда ўқитишдир. Буюк рус

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тарбияшунослигининг асосчиларидан бири А.С.Макаренко «Тарбияланувчиларни тарбиялаш жараёнида, ўзим ҳам тарбияланиб бордим»,- деб ёзади. Демак ўқитиш жараёнида, ўқитувчи болаларни ўқитар экан, айни пайтда ўзи ҳам ўқишга мажбурдир. Бу ҳамкорликда ўқитиш орқали амалга ошади.

Ҳамкорликда ўқитиш, яъни кичик, кичик гуруҳларга бўлиб ўқишлар Ғарб педагогикасида XIX аср охирларида пайдо бўлган. Аммо гуруҳларда, ҳамкорликда ўқитишга асос – солиниши XX асрнинг 20- йилларига тўғри келади. Унинг асосий технологиясини ишлаб чиқиш ва унинг биринчи натижаларини матбуотда эълон қилиш 1970 йилларнинг охирлари 1980 йилларнинг бошларида тўғри келади. Бу даврда Буюк Британия, Ғарбий Германия, Нидерландия, Япония, Исроил, Австралия ва бошқа мамлакатларнинг таълим муассасаларида ҳамкорликда ўқитиш методининг назарияси ва амалиёти тўғрисида педагогик матбуотда маълумотлар эълон қилинди. Аммо ушбу ғоянинг мантиқий асосномаси Америкадаги учта университет профессорлари – Р.Славин (Ж.Хоппине университети, 1990), Р.Жонсон, Д.Жонсон (Миннесот университети, 1987), Ж.Аренсон (Калифорния университети, 1978) ва Исроилдаги Тель–Авив университетида, 1988 йилда Ш.Шарон томонидан ишлаб чиқилди. Америка олимлари ва Исроил олимларининг ҳамкорликда ўқитиш ғояси маълум жиҳатлари билан бир – биридан фарқ қилсада, уларда мазкур ғояни ёндошиш қоидалари ва принципларини асослашда яхлитлик мавжуд. Масалан, Америка олимлари томонидан ишлаб чиқилган ҳамкорликда ўқитишда асосан ўқувчиларни фан асослари билан таништириш, уларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш назарда тутилса, Исроил ва Европа олимлари ишлаб чиққан ҳамкорликда ўқитиш методининг мазмунида дарсларда мунозарали ўқув баҳсини ташкил қилиш орқали фаолиятни лойиҳалаш ётади. Бу ҳол ғояларнинг бир – бирини тўлдириши дидактик жиҳатдан бир бирини бойитиши билан характерланади ва ўқувчиларнинг шахсий фаолиятларини лойиҳалаштириш учун замин яратади. Бу эса ҳар бир ўқувчида ақлий мехнатга тайёрланиш, ижодий ва мустақил фикр юритишлари шахс сифатида ўзларини эркин тутиб ўқишга онгли, маъсулият билан ёндашишга ундайди ҳамда ўз сафдошлари билан ҳамжиҳатликда, ҳамкорликда ишлашга даъват этади.

**Ҳамкорликда ўқитиш методларидан фойдаланишда ўқитувчи:**

а) Қайси мавзуни ҳамкорликда ўқитишни олдиндан белгилайди;

б) Мавзу учун ўқув топшириқлари ва уларни бажариш тавсияномасини режалаштиради;

в) Ҳамкорликда ўқитиш дарс – ишланмаси ва унинг тузилмасини ишлаб чиқади ва ниҳоят;

г) Мавзу бўйича билимларни назорат қилишнинг тест топшириқларини тўзади

**Шунингдек, ўқувчи тафаккурини ўстиришга ёрдам берадиган методлардан яна бири, бу, «Танқидий фикрлаш»га ўргатиш методидир.**

Ўқитиш методлари ўзининг фаоллиги, ижодийлиги, таъсирчанлиги билан фарқлашиб, ўқувчи-ёшларни фикрларини ифодалашга, маълумотларни танқидий идрок қилиш, ўз нуқтаи-назарини ҳимоя қилиш ва далиллаш, ўз-ўзига ишончи

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ривожлантириш, танқидий фикр юритишга ишончни тарбиялаш, турли ғоя ва фикрларни мустақил ҳамда танқидий қабул қилишга ўргатиш учун хизмат қилади. Ўқитувчилар ўқув-тарбия жараёнида ушбу методларнинг оқилона ва моҳирлик билан фойдалансалар, методларини мавзу мазмунидан келиб чиқиб тўғри қўлласалар, тайинки, билимларни ўзлаштиришнинг сифат кўрсаткичлари юксак бўлишига эришадилар. Ўқувчи-талабаларнинг саводхонлик ва тарбияланганлик даражаси такомиллашувини тажриба кўрсатмокда. Зеро, бугунги давр, фан-техника тараққиётининг талаби ҳам, ўқув-тарбия жараёнида ўқувчиларга ҳар доимгидан кўпрок, аникрок маълумотлар бериш, эгалланган маълумотларни мустақил таҳлил қилиш, қўлга киритиш, ҳолатга танқидий муносабат билдирган ҳолда ижобий ҳамда ижодий қарорлар қабул қилишдан иборатдир.

Интерфаол методларнинг назарий соҳалари ўрганилиб, уларни амалга қўллашнинг методик томонлари ёритилди. Ушбу педагогларнинг фикрларига қўшилган ва айрим ҳолларда уларнинг мулоҳазаларидан танқидий фойдаланган ҳолда биз қуйида Янги педагогик технология лойиҳасининг интерфаол методларидан бири «Танқидий фикрлаш методи» хусусида фикр юритамиз.

«Танқидий фикрлаш» - онгли мустақил тахлилий фикрлаш жараёни бўлиб, бунда – ўқувчи ўзига таклиф этилган маълумотлар, ахборотлар, нуқтаи-назар ва ахлоқ кодекслари тўғрисида соғлом фикр юритиш имкониятини берадиган методдир. Шундай қилиб, танқидий фикрлаш, ахборотларни қабул қилишдан бошланиб, карор қабул қилиш билан тугайдиган фикрлаш, уйлаш жараёни экан, бу жараёнда ўқувчи-ёшлар бахсли муаммоларни ечиш вақтида тинглаш, мулоқотга киришиш маданиятини ўрганадилар, турлича нуқтаи назарларни таққослайдилар, хулосалар чиқарадилар, ўзгалар фикрига бефарқ қарамайдиган, аналитик фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга интиладиган инсонлар бўлишга ҳаракат қиладилар. Шунинг учун ҳам бу метод фаолдир.

«Ўқитиш ва ёзиш» учун танқидий фикрлашни ривожлантириш дастурининг асосчилари ўқитишнинг таянч моделини уч босқичга ажратадилар – ***чакирув, мазмунни, англаш, фикрлаш.***

**«Танқидий фикрлаш» методида** ўртага ташлаган масала ёки муаммо юзасидан фикр айтиш, ўзгалар фикрини танқидий идрок этиш, ўз нуқтаи назарини асослаб бериш ва сақлаб қолиш имкониятига эга бўлишга ундайдиган технологиядир. Бу методдан баҳс-мунозара хусусиятига эга бўлган масалалар муҳокамасида фойдаланилади.

1. Бахс-мунозара хусусиятига эга бўлган муаммо ёки топширик қўшилиб саволлар ўртага ташланади.
2. Ўқувчи талабага ўз нуқтаи назарини аниқлаш, фикрлаш бир жойга туплаш учун вақт берилади.
3. Ўқувчи талаба ўз нуқтаи-назарини асослайди, далиллар келтиради.
4. Муҳокама қилиниётган масала юзасидан ўз фикрларини эркин билдиришлари учун ўқувчи-талабаларга имкон яратилади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

5. Билдирилган фикрлар, нуқтаи-назарлар ўқувчи-талабалар ҳамкорлигида муҳокама қилинади.
6. Ўзаро фикр олишиш ўқувчи-талабалардан ҳамсуҳбатини диққат билан тинглаш, унинг сўзини бўлмаслик, сўз қўшмаслик талаб этилади.
7. Муҳокама қилинган ахборотни тахлил қилиш, изоҳлаш, ғоялардан якуний хулоса чиқариш билан якунланади.

**«Танқидий фикрлаш» методини қўллаш қоидалари қуйидагичадир:**

1. Танқидий фикрлаш учун вазият яратиш.
2. Ўқувчиларнинг фикр-ғояларини асослаш учун гуруҳларни ташкил қилиш.
3. Ҳар бир гуруҳ фикрини аниқ ёхуд муҳокама жараёнига ахборотларни таҳлил қилиш ва хулоса чиқариш учун кузатувчи (эксперт)лар тайинлаш.
4. Аниқ хулосалар, тахлил фикрлар кузатувчилар (экспертлар) томонидан рағбатлантиришга имкон яратиш.

«Танқидий фикрлаш» баҳсли-тортишувларга сабаб бўладиган муаммоларни ечишга қаратилганлиги сабабли, ўқувчи-талабаларда тинглаш, ўзгалар фикрини бўлмаслик, унга танқидий кўз билан қараш, таққослаш, тегишли хукм чиқаришга эътиборни қаратиш лозим. Унинг натижасида ҳар қандай ўқувчи-талабада:
- ўзига ишонч кўзи билан қараш;
- мунозарада фаол иштирок этиш;
- ўзгалар фикрига ва тақдирига бефарқ бўлмаслик;
- тенгдошлари, кузатувчи (эксперт)лар билан фикр тортишиш;
- ўз нуктаи-назарини, фикрини далиллашга интилиш ҳис-туйғулари тарбияланади. Бу ўз навбатида аналитик фикрлаш қобилиятини ривожланишига, босқичма-боқич тафаккур юргизиш бир-бирларини чуқуррок ўрганиш имкониятининг яратилишига ҳамда ўзгарувчан танқидий фикрлашга олиб келади. Оқибат-натижада ўқувчиларнинг фикрлаши фаоллашади, қизиқиш кучаяди, ўзини ифода этиш ишончи уйғонади, танқидий фикрлаш ривожланиб боради.

Таълим муассасаларида ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишда педагогик технологиялар, ахборот технологиялари асосида замонавий ўқитиш методикасини яратиш натижасида ўқув жараёнига қўйилган талабларни тўлиқ амалга ошириш, таълим жараёнида ўқувчи фаоллигини ошириб таълимдан кўзланган натижага эришишни осонлаштиради, шунингдек, баркамол шахсни шакллантириш учун асосий омил саналган педагогик жараённи такомиллаштириш, уни янада жадаллаштириш ва техник воситалардан фойдаланиб замонавий дарс ишланмаларини тайёрлашни талаб этади.

Ўқитувчи ўзининг дарсини ўзи таҳлил қилаётганда, қуйидагиларга эътибор бериши тавсия этилади:

- кўзланган мақсад ва дарс натижасини таққослаш;
- ўқувчилар билими, кўникмаси ва камол топишидаги силжишларни кўзлаган натижага муваффақиятлигини аниқлаш;
- ўқувчилар дарсда иштиёқ билан ишлаганликларига алоҳида эътибор бериш.

Дарс сифатини анъанавий усулда: сўраш, тушунтириш, мустаҳкамлаш, уй вазифаси схемасида аниқлаш ҳам мумкин. Лекин, илғор тажрибалар замонавий дарс сифатини «кенг» ва «тор» мазмунда, дидактик тоифа ва таркибий тузилиши қисмлари бўйича таҳлил қилиниши лозимлигини таъкидлайди.

Агар ўқитувчи ижодкор ва изланувчан бўлса, ўқувчи билим даражаси ҳам баланд бўлади. Ўқитувчиларимиз бугунги замон талабларига мос билимлар соҳиби, янгиланган таълим мазмунини эгаллаган бўлишлари керак. Шундай таҳлилий хулосалар ва амалий фаолиятдаги ютуғлари асосида ҳар бир ўқитувчи ўқув-тарбия жараёнини тўғри ташкил этади, ўтказади, ўқувчиларининг ўзлаштириш фаолиятини яхши йўлга қўя олади. Натижада ўқув жараёнининг асосий шакли бўлган дарсни ноанаънавий ўқитиш методлари асосида ташкил этади ва таълим мақсади, натижасига аниқ эриша олади.

Шундай экан, ўқув-тарбия жараёнини таълим назарияси фаолияти нуқтаи назаридан кўриб чиқиб, барча таълим-тарбия ишларини, ўқув-тарбия жараёнини лойиҳалаштириш, ноанъанавий дарсларни ташкил этиш асосида "педагогик технология" йўналишида дарсларни ўтказиш муҳим аҳамиятга эгадир.

## АДАБИЁТЛАР

1. **Ш.Мирзиёев."Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак". Т.,2016**

2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2009 й.
3. Азизхужаева Н.Н. Ўқитувчи мутахассислигига тайёрлаш технологияси – Тошкент, 2000
4. Асқаров М, Ҳайитбоев М, Нишонов М, Педагогика. Дарслик.-Т.:Талқин 2008.-289 бет.
5. Азизхужаев Н.Н. Замонавий педагогик технологиялар (Реклама - режалар). – Тошкент, 2002
6. Нишоналиев У. Таълим стандарти ва педагогик инновациялар. – «Халқ таълими», 1999 6-сон
7. 11.Сайидахмедов Н.С. Педагогик махорат ва педагогик технология. – Тошкент, 2003
8. http:// ppsy. ru

9. http:// www.iro.yar.ru
10. www. inter – pedagogika. ru

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДА ПЕДАГОГНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Ахмедова Фотима Нурмаматовна

Сурхондарё вилояти Денов тумани

1-мактаб бошланғич таълим ўқитувчиси

Асримиз техника асри. Ижтимоий жамият тараққиёти, таълим тизимидаги ислоҳотларнинг амалга оширилиши таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилгандир. Таълим-тарбия тизимида унинг ҳар бир бўғини муайян мақсадга йўналтирилгани каби бошланғич таълим ўқувчиларни эркин фикрлашга ўргатиш ва мустақил мутолаага рағбат уйғотиш алоҳида аҳамият касб этади. Ёшларнинг ҳар томонлама камол топиши, ўқишга ҳавас қўйиши эса мактабга илк бор қадам қўйиб ўзлаштирадиган билимлари, кўникма ва малакалари даражасига бориб тақалади. Болалар келажагимиз пойдевори. Шу боисдан ҳам Биринчи Президентимиз И.А. Каримов “Биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор куч ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, беқиёс аҳамият касб этади. Ватанимизнинг келажаги, халқимизнинг эртанги куни, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътибори, аввало мбор, фарзандларимизнинг униб-ўсиб, улғайиб, қандай инсон бўлиб, ҳаётга кириб боришига боғлиқдир. Биз бундай ўткир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмаслигимиз керак”23, деб таъкидлаган эди. Бинобарин, “Мустақил фикр юритадиган, тўғри ва ҳалол, жасур авлодни тарбиялаш давримизнинг долзарб муаммоларидандир”24. Дарҳақиқат, XXI аср интеллектуал, ўз мустақил, соғлом фикрига эга ёшларни тарбиялайдиган асрдир.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзуидаги анжуманда сўзлаган нутқида ёш авлод тарбияси ҳақида алоҳида тўхталиб: "Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда", — дейди.

Шу боис, болаларнинг пухта билим олишлари, теран фикрлашлари учун, энг аввало, таълим берувчининг маҳорати, билими, лаёқати муҳим специфик характерга эга. Бугун ўзини педагогман деб ҳисоблаган мутахассис, албатта, болаларнинг таълим-тарбия олишига жиддий эътибор қаратмоғи лозим.

Ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялашимизда катталар адабиётининг ажралмас бир бўлаги бўлган болалар адабиётининг аҳамияти ҳам каттадир. Болалар адабиёти ўз олдига келажак авлодни жисмонан бақувват, руҳан пок, фикран соғлом, имон-эътиқоди бутун, билими, маънавияти юксак, мард ва жасур, ватанпарвар авлодни тарбиялашдек катта ва мураккаб вазифани қўйганлиги билан ажралиб туради.

Ўқувчиларни юксак эътиқодли, билимдон кишилар қилиб тарбиялашда ўқув предметлари бўйича ўтказиладиган асосий дарслар билан бир каторда ўқиш дарсларининг ҳам аҳамияти катта. Бу дарсларнинг асосий вазифаси ўқувчида бадиий китобларни ўқишга ҳавас уйғотиш, ўқиган китоблари юзасидан кундалик юрита олишга ўргатиш, болалар адабиётининг машҳур адиблари ҳаёти ва ижодлари билан элементар тарзда таништириш, ҳикояларни онгли, ифодали ўқиш оркали ўз мустақил фикрини баён эта олиш усулларини ўргатишдан иборат.

23. Каримов И..А. Юксак маънавият –енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 4-бет.

24. Каримов И.А.. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. 193-бет.

Ўқиш методикаси адабиёт назариясига асосланади. Чунки ўқувчилар бадиий асарни амалий тарзда таҳлил қиладилар. Бошланғич синфларда адабиётшуносликдан назарий маълумот берилмайди, аммо методика адабий асарнинг яратилиш қонуниятларини ва унинг ўқувчиларга таъсирини айниқса, адабиётшуносликка оид мавзулардан асарнинг ғоявий мазмуни, унинг мавзуси, қурилиши, жанри, тасвирий воситаларини ҳисобга олиши зарур. Таълим жараёнида мустаҳкам билим ва кўникмалар шаклланиши ўқувчиларнинг мустақил ўқишлари билан боғлиқ бўлса, маълум ёшда ўқувчилар ёши ва савиясига мос танланган китобларни ўқиб ўрганиш улар билимларини чуқур ўзлаштиришлари учун муҳим восита бўлиб хизмат қилиши аён бўлади.

Маълумки, давр барча соҳада жадаллаштиришни талаб қилмоқда. Фан-техника тез суръатлар билан ривожланмоқда. Кишилар меҳнати тобора енгиллашмоқда. Радио, телевидения, матбуот инсонларга руҳий озуқа, маънавий бойлик бахш этмоқда. Булар ёш авлод камолатига ҳам ижобий тасир этмоқда. Болалар ҳар соҳада қизиқ нарсаларга дуч келмоқдалар. Уларнинг келиб чиқиш сабабларини, натижаларини англамоқдалар. Бироқ, ижтимоий муносабат билдиришда мустақил фикр сустлиги кўзга ташланади. Бунинг учун, кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида дунёқараш элементлари – бурч, ахлоқий қоидалар, ўқувчиларнинг вазифалари, яхши нима-ю ёмон нима эканлигини фарқлаш, яхши ишларнинг ижодкорларига эргашиш, жасур бўлиш, ўзаро ёрдам, виждонли бўлиш каби инсоний фазилатларни тарбиялашга алоҳида аҳамият берилади. Файласуф Форобийнинг асарларига мурожаат қилсак, олим илм олувчининг олдига муҳим талабларни қўяди. Унинг таъкидлашича: "Ҳар кимки илм-ҳикматни деса, уни ёшлигидан бошласин, соғ-саломатлиги яхши бўлсин, яхши одоб ва ахлоқли бўлсин, билимли ва нотиқ бўлсин"25. Бу талабларнинг масъулияти тарбиячи ва ўқитувчининг зиммасига тушади. Болаларда нарса ва ҳодисаларга нисбатан қизиқиш, эътибор ҳиссини уйғотиш ўқитувчи ва тарбиячилардан алоҳида маҳорат кўрсатиш, ишга ижодий ёндашишни тақозо этади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Бу эса, болаларда китоб ўқишга бўлган қизиқишини орттиришга, ўқиган асарларини идроки даражасида таҳлил қилишга ундаш, ижтимоий воқеликларга мустақил ёндашиш, соғлом фикрлаш туйғусини шакллантиришга қаратилган.

Мустақил фикрлаш ўзи нима? Бу саволга шундай жавоб бериш мумкин. Мустақил фикрлаш шахснинг билимларни, борлиқни билишида зарур умумий кўникма ва малакаларни мукаммал эгаллаш, туғилажак вазиятларда уларни амалий қўллаш билан боғлиқ қобилиятдир. Мустақил фикрлаш икки томонга, яъни ўқувчига ва ўқитувчига боғлиқ.

Ўқувчиларнинг мустақил фикрлашини асосан ижодий, мантиқий ва танқидий турларга ажратиш мумкин. Ўқув жараёнида ўқитишнинг самарали усуллари орқали ўқувчилар фикрлашга, мустақил фаолият юритишга йўналтирилади. Чунки бир фикрни турли шаклларда ифодалаш ўқувчилар фикрлаш қобилиятини ўстиришга ёрдам беради. Ўз-ўзидан бу ҳолат мустақил фикрлашнинг ривожланишига, пировард натижада ўқувчилардаги қобилиятнинг намоён этилишига имкон беради.

Фикр юритишдаги мустақиллик - бу ўқувчининг муайян нарса, воқеа-ҳодиса, жараёнга аниқ маълумот ёки далил-ашёга нисбатан шахсий муносабати, қараши ва уни ҳеч кимнинг кўмагисиз, кўрсатмасисиз, ўз заковати, қувваи ҳофизасига таянган ҳолда тегишли усул, воситаларда ифодалашидир. Фикрлашнинг чегараланганлиги таҳлил этиш, муносабат билдириш жараёни учун тўсиқ бўлади. Ҳосил қилинган ҳукмларни эълон қилишда, хулосаларни ўзгартириш ўқувчидаги ҳадиксираш, фикрда аниқликнинг йўқолишига сабаб бўлади. Бу ўзлаштиришнинг, фикр самарадорлигининг сифатини пасайтиради. Фикрлаш жараёнидаги эркинлик эса, ўқувчиларнинг мустақил ижодий фаолияти учун муҳим бир омил бўлиб хизмат қилади. Дарҳақиқат, ўқувчининг фикрлаши ўз-ўзидан туғилмайди. Бунинг учун унда маълум бир тушунчалар, маълумотлар базасига эҳтиёж сезилади. У қанчалик бой бўлса, фикрлашнинг истиқболи шунчалик чексиз бўлади. Шу боис, ўқувчиларда бошланғич

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

25. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: 1993. 164-бет.

яълимданок ўқиш билан бирга укишни ҳам шакллантириб бориш лозим. Ўқитувчи энг аввало қуйидаги мезонларга амал қилиши лозим:

-ўқувчиларнинг қизиқиши қай даражада эканлигини ҳис қила олиши;

- боланинг тафаккур қилиш фаолиятларини англаши, жамият аъзолари билан эркин мулоқотда бўла олиш кўникма ва малакаларини ривожлантиришга эътибор қаратиши;

- ўз фикрини равон, эркин ифодалай олиш кўникмасини шакллантириш;

- қизиқишига мос асарларни ўқиб, мазмунини сўраб бориш орқали китоб ўқиш кўникмасини ҳосил қилиш, шу ўринда кундалик тутишга ўргатиш;

- ёзма нутқ белгиларини талаффузда ифодалаш, матнни ифодали ўқий олиш малакасини ривожлантириш;

Бу мезонлар ўқувчилар билимини системага солиш, тасаввурларини кенгайтириш, ўрганилган материалларни ўзаро таққослаш, билимларини бир-бири билан боғлаш ва мустаҳкамлашга ёрдам беради. Шунингдек, айрим ўқувчилар томонидан ўзлаштирилмай қолинган материалларни аниқлаш имконини беради.

Ёш авлодга таълим-тарбия бериш, ёшларнинг тафаккурини, фикрлаш доирасини кенгайтириш, ҳамкорликда ишлаш, ҳаётий кўникмаларни шакллантириш бугунги кун талабларига жавоб бера оладиган замонавий педагогнинг олдига қўйган асосий вазифаси бўлмоғи керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Адабиётлар

1. Саидахмедов Н. Интерфаол усуллар. -Т.: ―Университет‖, 2005.

2. Азизходжаева А.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. –Т: 2006.

3. Мавлянова Р.А. Бошланғич таълимда инновация.-Т.: 2007.

4. Ишмухаммедов Р.Ж. ва бошқалар. Тарбияда иннвацион технологиялар. -Т.:2010.

5. Таълимда инновацион технологиялар. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. –Т.: Истеъдод, 2008.

6. http://ru.wiktionary.org/wiki.

7. http://ru.wikipedia.org/wiki

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих фани давлат таълим стандартлари талаблари асосида ўқувчиларда компетентлиликни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари

**Тохирова Мадина Холмурод кизи**
**Сурхондарё вилоят Шеробод тумани**
**46-мактаб тарих фани ўқитувчиси**

**Аннотация.** дарсга замонавий ёндошув, , компетенция, компетенцияга асосланган ёндашув, билим,кўникма,малака.

Бугунги кунда илм-фан, техника, технология ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суратларда жадаллик билан ривожланиб бораётганлиги таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини оширишга асос бўлган талабларни қайта кўриб кириб чиқиб, ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этишни талаб этмоқда. Тезлик ва ўта шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан бир қаторда, унинг салбий оқибатлари ҳам ҳаётимизга кириб келмоқда. Бундай хатарлардан ҳаётимизни асраш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, авваламбор, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган асарлар орқали, бугун жаҳон майдонида юз бераётган кескин ақл-заковат ва истеъдод мусобақасида беллашувга қодир бўладиган ёшларни тарбиялашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.

Шу маънода тарих *фани бўйича ўқувчилар Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартларида белгиланган билим кўникма ва малакаларни эгаллашлари натижасида:* **назарий билимларни намоён қилиш:** тарих фанини ўрганишда ўқувчилар тарихий воқеликни тушуниш ва уни мантиқий изчилликда тушунтира олиш, тарихий манба ва адабиётлар билан ишлаш ;**ахборотларни мустақил равишда излаш:** Турли манбалар (ўқув матни, луғат, илмий-оммабоп адабиётлар, компьютер маълумотлари базаси, Интернет ресурслари)дан фойдаланиб илмий-амалий мазмундаги ахборотларни излаш ва фойдаланиш; **амалда билиши ҳамда қўллай**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**олиши керак:** билим, кўникма ва малакаларни амалиётга татбиқ эта олиш лаёқактини шакллантириш назарда тутилади.

Юқоридагилардан келиб чиққан холда ўқувчилар давлат ва ҳуқуқ асослари фанидан белиланган билим, кўникма ва малакаларни эгаллашлари замирида қуйидаги лаёқат(компитентлилик) га эга бўлишлари лозим.

**Демак,мазмун ва мақсадга йўналтилган компетенция -** ўқувчиларни қизиқишлари ва уларнинг дунёқарашларини ўзида мужассам этган, уларнинг атроф муҳит билан боғлиқ ҳолда жамиятда ўз ўрнини топиши учун ҳатти-ҳаракатларини амалга ошириш ва мустақил қарор қабул қила олиши. Бу компетенция ўқувчини ўз олдига қўйган мақсад вазифаларига эриши траекториясини белгилаб, ўқув жараёни ва бошқа фаолиятда ўзини англаш механизмини шакллантиради. Ўқувчининг жамиятда ўз ўрини топа олиши ушбу механизм билан боғлиқ бўлади.

**Умуммаданий – компетенция** - ўқувчининг юксак тайёргарлилик даражаси, малакаси, маданий ва маънавий-ахлоқий савияси, умуминсоний ва миллий қадриятларни ўзининг фаолиятида акс эттириши, анана ва қадриятларга асосланган ҳаёт фаолияти. Ўқувчининг жамиятда ўрнатилган одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиш. Масалан ўзининг бўш вақтини фойдали равишда ташкил эта олиши, (музейларга бориши, уй ишларига қарашиши, китоб мутоалла қилиши, бошқаларни қадр-қимматни эътироф этиш ва уни ҳурмат қилиш в ҳ.з.).

Жисмоний, маънавий ва маърифий ўз-ўзини ривожлантириш, ўзининг хис туйғуларини бошқара олишга йўналтиради. Шахсий тушуниш ва ўрганиш эхтиёжларини кузатиб бориш; мос келувчи манбаларни аниқлаш; билим олишни бир жабҳадан бошқасига кўчириб ўта олиш.

**Ўқув-таълимий – компетенция – ўқувчининг таълим жараёнида олган билимларини амалиётга тадбиқ эта олиши бўлиб,**қуйидаги элементларни ўзи ичига олган ўзини-ўзи англашидаги билимлар йиғиндисидир. Жумладан, мантиқий, методологик, қиёслай, идрок қилиш, татбиқ этиш, тажриба ўтказиш, анализ-синтез

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

қилиш, ўз-ўзини баҳолаш фаолиятидир. Мазкур компитентлилик доирасида ўқувчида фактларни асосийларидан ажрата олиш ва хулоса чиқариш малакаси шаклланади.

**Шунингдек,ахборотлашган-компетенция** интернет, ОАВ ва бошқа тармоқлардан зарур бўлган ахборотларни излаб топиш, маъумотлар базасини яратиш мустақил тўплай олиш, уларни таҳлил этиш, баҳолаш, ахборотни қайта ишлаш ва уларни узатиш, асосийларни танлаб олиш, фойдаланишдир.

**Коммуникатив компетенцияни шакллантириш орқали эса,** ўқувчиларда гуруҳларда ва жамоларда ижодий ишлай олиш, ҳамкорлик қилиш, масъулиятни шакллантиради.

Ўқувчиларнинг билим, кўникма, малакалари ва компетентлилик даражаларини шакллантириш бўйича, тарих фани таълими мақсадларини ва баҳолаш мезонларини аниқроқ ва яққолроқ белгиловчи қуйидаги тамойилларни таянч тушунчалар сифатида белгиланганини айтиб ўтиш жоиз. Бу эса қуйидагилардир: б**илиш, ўрганиш** – ўрганилган материални билиб олиш, қайта айтиб бера олишдир. **Тушуниш, идрок қилиш эса,** ўрганилган материални хотирада сақлаб қолиш, моҳиятини идрок этиш ва тушунганликни намойиш қилиш, бир дарвдан бошқа даврга кўчира олиш, олган билимларини амалиёт билан боғлай олиши,у ёки бу холатга танқидий баҳо бера олиши,мунозараларда иштирок эта олиши,ўзининг фикрини ва қарашларини тарих таълимида олган билимлари асосида ҳимоя қила олиши,воқеа ва ходисларга баҳо бера олишидир. Шунингдек,ўрганилган умумий тушунча, атамаларни, муаммоли вазиятларга, мисол орқали татбиқ эта олиш ҳамда самарали қўллай олади,жамоада ишлай олади ва етакчилик қобилиятларини намоён эта олади, турли хил вазифа ва масъулиятларни қабул қила олади, бошқалар билан биргаликда самарали меҳнат қила олади.

**Ўқувчи ёшлар** берилган муаммони ҳал қилиш учун зарур маълумотларни турли хил манбалардан тўплаш, тартибга солиш, таҳлил қилиш; ўрганилган бир бутун материални майда бўлакларга, таркибий қисмларга ажрата олиш ва улар орасида муносабатларни ўрнатиш ва таҳлил қила олиш; аниқланган хусусий натижаларни

умумлаштириб, асосийларини ажратиш, хулоса чиқара олиш кўникмаларига эга бўлади ва танқидий фикрлаш ва тизимли фикрлашда эса масалани англашда ва мураккаб қарорлар қабул қилишда пухта далиллар келтиришдан фойдаланиш; тизимлар воқеалар ва ходисалар, вазиятлар ўртасидаги узвий боғлиқликни англай олади. Ўқувчи ёшларнинг б**аҳолаш ва хулоса чиқаришига тўхталадиган бўлсак,** муаммоли вазиятни маълум ички ёки ташқи мезонлар асосида баҳолаш ва таққослаш, сабаб ва оқибатларини ўрганиш, натижаларни таҳлил қилиш асосида танқидий фикрлаш, хулоса чиқаришни ўрганади .

Етакчи компетенциялар ҳар бир фаннинг мазмунидан келиб чиққан ҳолда белгиланади. Агар мактаб битирувчиси муайян фанданг олган билим,кўникма ва малакаларини ўз ҳаётида қўллай олса,уни ўша йўналишда етарли компетенцияга эга дейиш мумкин. Дарс жараёнида ўқувчиларда таянч ва фанга оид коипетенцияларни шакллантиришда интерфаол усуллардан фойдаланиш муҳим бўлиб, бу ўқувчиларнинг тафаккурини ўстириш билан бирга олган билим,кўникма ва малакаларини кундалик ҳаётда қўллай олишга ёрдам беради. Бугунги ўзгартиришлардан мақсад мамлакатимизда яратилган узлуксиз мажбурий таълим тизимида ягона ва мукаммал давлат таълим стандартлари татбиқ этилмоқда, ўқувчи-ёшларга чуқур билим беришдан ташқари,амалда самарали фойдалана олиш лаёқати ҳам шакллантирилмоқда. Албатта,бу шубҳасиз ҳар томонлама баркамол шахсларни вояга етказиш вазифасини амалга оширишга, шунингдек, "Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт"қуриш ғоясини амалга оширишга хизмат қилади. Баркамол авлод, комил инсон тарбияси йўлида хизмат қилиш шарафли ва масъулиятли вазифамиздир.

**Адабиётлар**

1. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

2. Имомназаров М., Саидов М. Миллий тараққиётнинг маънавий-ахлоқий асослари. (Ўқув қўлланма). – Тошкент: Akademiya, 2005.

3. Мавланов Ў., Абдувахитова И. Тарихий-маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014.

4. Равшанов И. Ўзбекистонда фуқоролик жамиятини шакллантиришнинг назарий-методологик асослари. – Тошкент: ABU MATBUOT KONSALT. 2015.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Адабиёт дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришда илғор педагогик технологияларнинг роли ва аҳамияти

Қаххорова Дилбар Ғаниевна

Сурхондарё вилоят Қизириқ тумани

26-мактаб ўзбек тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Адабиёт дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришда илғор педагогик технологияларнинг роли ва аҳамияти. Дарсга замонавий ёндашув. Интерфаол усуллар.

Илм-фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши таълим тизими ходимларидан таълим-тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтаришни талаб этиб, ўқитувчилар зиммасига янада юксак масъулият ва вазифаларни юклайди.Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва хаётий зарурати булган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Таълим соҳасида қандай ўзгаришлар ва янгиликлар килинмасин, буларнинг барчаси таълим тараккиёти учун хизмат қилади ва қилмокда. Хозирги кунда замонавий ўқитувчининг замонавий дарси, педагогик маданияти, болага дўстона муносабатда бўлиш, педагогик технология асосида дарс ўтиш – давр талабидир.

Дарсларни замонавий ёндашувлар асосида ташкил қилиш ва ўтиш ўқувчиларда хаётий кўникмаларни шакллантиришда, тафаккурини ўстиришда, фикрлаш доирасини кенгайтиришда, ҳамкорликда ишлаш кўникмасини шакллантиришда, оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришда, эркин фикрлашда, ҳар бир воқеликка нисбатан муносабат билдира олишда, фикрларини асослашда муҳим аҳамиятга эгадир.

Адабиёт дарслари эса ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқларини ўстиришда беқиёс катта имкониятларга эга. Адабиёт дарсларида “Кичик гуруҳларда ишлаш”, “Кластер”, “ФСМУ”, “Инсерт”,”Брифинг”,”Блиц-ўйин технологияси”,”Т-жадвал технологияси”,”Диалог”,”Ақлий ҳужум” ва бошқа интерфаол методлардан фойдаланиш ўқувчилар фаоллигини ва дарс самарасини оширади.

Демак, бу ерда адабий ўқиш, ифодали ўқиш, матнни изоҳлаш, ёд олиш, қайта ҳикоялаш, матннинг режасини тузиш, асарнинг ажратиб олинган алоҳида бир қисми, номланмаган асарлар (хусусан, классик адабиётимиздаги лирик асарлар)га сарлавҳа топиш, асар муаллифи ёки қаҳрамонларга мактублар ёзиш, адабий асар ёки адабий-танқидий мақолаларга тақриз ёзиш сингари бир-бирига ўхшамайдиган иш турлари мавжуд. Иншо ёзиш ўқув фаолиятидаги энг қийин нуқталардан биридир.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Иншо жуда узоқ ва мураккаб тайёргарлик ва тажрибаларни талаб қиладиган ижодий жараёндир. Иншо ёзиш учун нималар талаб қилинади? Бунинг биринчи асоси муайян адабий-бадиий материални ўқиш, англаш ва унинг асосий моҳиятини, факт ва ҳодисаларини пухта ўзлаштириш билан боғлиқ. Ниҳоят, мана шу ўзлаштирилган адабий факт ва ҳодисаларнинг қайта ифодаси, ўқувчининг мушоҳадаси билан тўлдирилган ва унинг онгида қайта ишланган шаклда и н ш о шаклига келади. Ўқувчилар ўз тажрибаларида диктант, баён сингари ёзма иш турлари билан яхши таниш бўлишади. Бу тажрибалар уларга бошланғич синфларданоқ яхши маълум. Юқори синфларда уларга бундай ёзма ишларнинг

и ж о д и й топшириқли турларини кўпроқ бериш мақсадга мувофиқ бўлади. Буларнинг орасида ўқувчининг ўзи мустақил тарзда давом эттирадиган баён турлари ўзига хос ўрин тутади. Унинг асосий моҳияти шундан иборатки, ўқувчига муайян бир матн тавсия этилади. Бу матн тугалланмаганлиги билан ўзига хослик касб этади. Матннинг асосий хусусияти шундаки, унда муайян типдаги фикр (тасвир, тавсиф, ҳикоя) бошлаб берилади. Бу фикр ўқувчининг қизиқишларини, диққат-эътиборини ўзига тортгунга қадар (матн мазмунига кўра бир-икки, баъзан бешолтитагача гап доирасида) давом эттирилади ва худди шу ерда тўхтатилади (узиб қўйилади). Уни давом эттириш ва якунлаш ўқувчининг ўзига топширилади. Демак, «воқеалар»ни давом эттириш, ривожлантириш ва уларни ўзаро боғлаш, шулар асосида 149 мантиқий бир ечим ва якунга келиш ўқувчининг ўзига қолади. Худди мана шу жараёнда ўқувчининг бевосита ўзига, унинг индивидуаллигига хос бўлган барча жиҳатлар: ижодкорлик, дунёқарашнинг кенглиги, мантиқийлик, сўзни ҳис этиш ва ҳис этилган ҳодиса ва ҳолатларга мос келадиган сўзларни ўз ўрнида қўллай олиш тўлиғича намоён бўлади. Тажрибаларнинг кўрсатишича, машқдан машққа ўтган сари бундай ижодий ишларнинг натижалари анча сезиларли ва жиддий бўлиб боради. Бунинг айрим намуналарини тавсия этишимиз мумкин. Ўқитувчилар бу намунага қараб истаганча эркин ва ижодий ёндошишлари мумкин: Иншони ёзишга тайёргарлик ва уни ўтказиш қанчалик муҳим бўлса, уни таҳлил қилиш, хатолар устида ишлаш ва баҳолаш ҳам шунчалик катта педагогик аҳамиятга моликдир. Таълим босқичларида ёзма ишларни, жумладан, иншоларни таҳлил қилишнинг ҳозирги аҳволи, афсуски, кўп жойларда бир мунча ўзгартишга, такомиллаштиришга муҳтождир: «баъзан унинг ўтказиб юборилиши, нотўғри муносабат билдириш, хатоларни тузатишда касб маҳоратининг етишмаслиги, кўпинча хатоларни тузатишда, оғзаки тузатишлар ва тақризлар ёзишда бир хилликнинг етишмаслиги» 1 кузатилади. Иншоларни баҳолашда бир қатор мезонлар амал қилади. Булар орасида энг муҳимлари сифатида ёзма нутқнинг тўғрилиги, равонлиги, мавзуга мутаносиблик даражаси, ифоданинг аниқлиги ва ҳаққонийлиги, мантиқийлиги, таъсирчанлиги, бойлигини кўрсатиш мумкин. Хатолар устида ишлаш билан боғлиқ фикрларда мутахассисларнинг иккига ажралганини кўриш мумкин: бир гуруҳ

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

методистлар ўқувчи иншосидаги бирорта ҳам хато эътибордан четда қолмаслигини мақсадга мувофиқ деб билишса, бошқалари кўпчиликда учрайдиган, асосий хатолар устидагина тўхталиб, майда хатолар устида тўхташни шарт эмас, деб ҳисоблашади. Буни агар ўқувчининг ҳар бир хатоси кўрсатиб борилаверса, унинг ўзига бўлган ишончи бутунлай йўқолиб кетиши мумкинлиги билан изоҳлашади. Демак, бундай ишларни амалга оширишда ҳам меъёрга амал қилиш энг тўғри йўл бўлади. Д.Қуронов: «Бадиий асарни у яратилган давр воқелигига боғлаб қўйишлик унга ноижодий ёндашишнинг натижасидир. Ҳолбуки, бадиий коммуникациянинг якунловчи босқичи – асарнинг ўқилиши ва уқилиши ҳам том маънодаги ижодий жараёндир. Ўқувчининг диққат эътибори асар бадиий воғелигининг реал воқеликка нечоғли мослигига эмас, унинг замиридаги МАЪНОга қаратилиши лозим. Ўқувчи ўз воқелигидан кечиб бадиий асар воқелигида тўлақонли яшасагина ижод онларидаги санъаткорга руҳан яқинлашади, шундагина ўша санъаткор МАЪНО воситасида англаган оламу одам моҳияти унга очилиши мумкин бўлади. МАЪНОнинг «скелети» бўлмиш моҳият ўзгармас табиатга эгадирки, унинг воситасида ўқувчи ўз замонасини, замондошларини, ўзини теранроқ идрок этади» . Бунинг амалга ошишида  эса ўқитувчининг танлаган ва қўллаган  методи муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар

1.  Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд, Пандлар, ибратлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари.. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Б.Қосимов. – Тошкент, Маъавият, 1998.

2. А.АбдуҚафуров. Буюк бешлик сабоқлари. Мақолалар. - Тошкент, ў.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995,

3.эАзизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент, 2003.

4. Ахмедов С. Адабиёт дарсларида эпик жанрларни ўрганиш. Адабиёт ўқитувчиларига ёрдам. – Т.: Ўқитувчи, 1986

5. Долимов С., Убайдуллаев Х. «Адабий ўқиш методикаси» Ўқув.пед.давнашр Т.: 1952 й.

6. Долимов С., Убайдуллаев Ў., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси, - Т.: Ўқитувчи, 1967.

# Тарих дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил

**Шодмонов Қудратилла Назарович**

Сурхондарё вилояти Денов тумани

3-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** **И**нтерфаол усуллар асосида ўқитиш-дарс самарадорлигини ошириш гарови сифатида. Тарих дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил. Ижтимоий фанларни ўқитишда тавсия этиладиган интерфаол усуллар. **«КЕЙС – СТАДИ» методи.**

Таълим- тарбиянинг сифат ва самарадорлигини ошириш,шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз сохасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган,улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун барча фан ўқитувчиларини илғор педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан куроллантириш ва олган билимларини ўқув тарбиявий машғулотларда қўллаш малакаларини узлуксиз ошириб бориш лозим.

Дарс жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланганда,албатта синф хонасида шарт-шароит яратиб олиш билан бирга, ўқувчиларда интерфаол усулларда дарс ўтиш, уларни фаол ҳаракат қилишда кўникма ҳосил қилиш керак бўлади.Шунингдек,**интерфаол усуллардан фойдаланганда ўқувчи қуйидагиларни билиши лозим:**

- Интерфаол усуллар,. унинг мазмун-моҳияти;
- таълим мақсадини амалга оширишда интерфаол усулларнинг ўрни ва роли;
- фанлар бўйича интерфаол усулларни қўллаш принциплари;
- таълимий ва изчиллик ўйинлари;
- муаммоли ривожлантирувчи таълим методлари;
- ўқувчиларнинг мустақил фаолиятларни ташкил қилиш ва таоминлаш йўллари;
- ўқувчиларнинг мустақил ишлаш маҳоратини ошириш усуллари;
- кўргазмали ўқитиш усуллари;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

- таълим-тарбияни фаоллаштирувчи усуллар.

Интерфаол усулларда ўқитишда ўқувчилар қуйидагиларга эга бўладилар:

ўқувчилар биргаликда, умумий топшириқ ёки ўқитилаётган фаолият устида ишлашади, бу гуруҳий иш орқали яхши ўзлаштирилади.

4-5 аъзо таркибидан иборат ўқувчилар кичик гуруҳларда ишлашади.

ўқувчилар умумий вазифаларни ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказиш учун ижтимоий қабул қилинган хулқ-атворни ишлатишади

ўқувчилар ижобий ёки мустақил бўлишади. Умумий вазифалар ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини ўтказишда ўқувчилар бир-бирларига кўмак беришади.

Ўқувчилар ўз ишларини натижасига ёки бошқача айтганда, ўқишга, таълим олишга шахсан масоулиятликни ва жавобгарликни ҳис қиладилар. Интерфаол методларини қўллаб дарс ўтилганда синфда қолоқ, ўзлаштирмайдиган ўқувчи қолмайди. Ўқувчилар ўртасида дўстона муҳит яратилади. Деярли барча ўқувчилар дарс жараёнига жалб этилиб, уларни дарсга қизиқишлари ортади. Ўқувчиларни келгуси мустақил билим олишларига ҳунар ўрганишларига имкон яратади. Шунингдек,

ташкилий қисмда дарс мавзуси ва мазмуни ҳақида ахборот берилади;

ўтилган дарсни такрорлаш учун бериладиган саволлардан ўқитувчи дарснинг бошланишида муаммоли вазиятни вужудга келтириш учун фойдаланади;

янги мавзуни тушунтиришда дарс суҳбат асосида олиб борилиб, ўқувчилар мавзуни "Аклий ҳужум" асосида ўқитувчи билан биргаликда таҳлил қиладилар;

гуруҳларнинг ҳар бирида ўқувчилар "Ақлий ҳужум" асосида жавоб берадилар ва бошқалар билан бирга дарс якунини чиқарадилар;

уйга топшириқлар босқичида берилган мавзу, масала ёки машқ қисман ўқитувчи томонидан тушунтирилади.

Зеро, таълим тизимини ислоҳ қилишнинг асосий мақсади ўқувчилар фикрлаш қобилиятларини шакллантиришдан иборат экан, илғор усулларни дарсларимизга қадам-бақадам жорий этиб боришимизни ҳаёт тақозо этмоқда. Мақсад, ўқувчилар билимини ошириб, уларни мустақил билим олиш кўникмасига эга бўлишига эришиш ва юқори натижаларга эришишдир. Айрим методлар хусусида тўхталадиган бўлсак, аввало, "Кейс-стади"методидан фойдаланишнинг айрим жиҳатларини айтиб ўтиш жоиздир. **"Кейс"** тушунчаси - ахборот мажмуаси, **"Стади"** тушунчаси- таълим деган маънони билдиради. Кейс стади - бу амалий вазиятни муаммоли ёритиш асосида

муаммони тушинишга, бахолашга ва муаммонинг ечимини топишга ёрдам берувчи ахборот мажмуаси.

Кейс – ишлаб чиқаришдаги, давлат бошқарувидаги, иқтисодиёт ёки маданий ривожланишда содир бўладиган, аниқ муаммоли вазиятнинг тафсифидир. Кейс усули юқорида келтирилган йўналишдаги ҳаётий масалаларни ўқув машғулотларида таҳлил этиш ва ҳал қилиш усули ҳисобланади. Унда иштирокчиларга ҳақиқий ҳаётий вазият фикр юритиш таклиф этилади, бу вазият баёнида фақат илмий масала ифодаланиб қолмасдан, ундаги муаммони ечиш жараёнида ўзлаштирилиши зарур бўлган ўқув материали ҳам ифодаланиши керак.

**"Кейс-стади**"лардан фойдаланиш ўқувчиларда аниқ вазиятларни таҳлил қилиш ва баҳолашга, муаммоли вазиятдан чиқишга ёрдам беради.

Кейс усулини қўллаш жараёнида таълим олувчиларни вазиятни таҳлил қилишга ўргатиш мақсадида, вазиятни қуйидаги тартибларда баён қилиш мумкин:

• муаммоли (қўйилган муаммо бўйича муаммоли вазиятлар мажмуасини ажратиш талаб қилиниб, уларнинг турлари, ечиш усулларига мувофиқ ҳолда танланади);

• тизимли (вазиятлар таркибининг тавсифлари ва вазифаларини аниқлаш);

• сабаб-оқибатли (вазиятни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш);

• тавсияли (вазиятни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш ва уни ечиш учун твсиялар бериш);

• дастурий –мақсадли (жорий вазиятлар учун тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш);

• ташхисли (вазиятдаги фаолият мазмунини ташхислаш, уни моделлаш);

Ўқув машғулотларида кейсларни ҳал қилиш алгоритми қуйидагича амалга оширилади:

10.Топшириқни бериш (топшириқни бажариш муддатини белгилаш, кейсни ечимини баҳолаш тизими билан таништириш, дарснинг технологик моделини аниқлаш).

11.Таълим бериувчининг кириш сўзи. Асосй топшириқ ва саволларни қўйилиши.

12.Таълим олувчиларни 4-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратилиши.

13.Кичик гуруҳлар фаолиятини ташкил этиш (гуруҳларни номлаш, етакчиларни аниқлаш)

14.Кичик гуруҳлар ишини ташкил этиш (мунозара, муҳокама ва тўғри ечимни белгилаш учун вақт ажратиш).

15.Кичик гуруҳларнинг тақдимоти.

16.Ўқитувчининг умумлаштирувчи сўзи, унинг кейслар ечими ҳақидаги фикрлари

17.Гуруҳлар ишини баҳолаш босқичи

18.Ўқитувчининг якунловчи сўзи. Машғулот бўйича хулосалар чиқариш.

Кейсларни ҳал қилишда ўқитувчи таълим олувчиларни йўналтириб туриши, улардаги фаолликни қўллаши, ҳал қилинаётган муаммога нисбатан қизиқишни кучатириб бориши лозим.

Тўпланган тажрибалар шуни кўрсатмоқдаки, дарсни интерфаол усулларда ўтиш дарс самарадорлигини оширишда катта ёрдам беради.

Таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил этиш, мавжуд имкониятларни сафарбар этиш ўқитувчиларнинг асосий вазифаларидан биридир. Ҳар бир педагог шуни эсда тутиши керакки, дарс- ўқув-тарбия жараёнининг асосий формасидир. Ўқитувчи ўқувчиларни мустақил фикрлаш, мустақил ижод қилишга ўргатиш лозим. Дарсда уч мақсад кўзда тутилади: таълим-тарбия ва ривожлантириш. Бу уч мақсадни дарс давомида амалга ошириш учун интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс ўтиш яқиндан кўмак беради, деган умиддамиз. Метод нима? Ўзлаштирилаётган тажрибани тўғридан-тўғри ўқувчиларга ўзаро таосир ҳаракати орқали йўналтириш, интерфаол методларни қўллаб дарс ўқитишнинг асоси бўлиб, бундай ёндашувда ўқитувчи тайёр билимларни бермайди, балки ўқувчиларни мустақил изланишга чорлайди. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро таосир ҳаракати ва ўзгаришлар қўллаш интерфаол ўқитишда мўлжал қилинади. Ҳозирги замон дарсига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири ҳар бир дарсда танланадиган мавзунинг илмий асосланган бўлишидир, яъни дарсда кўзланган мақсад ва ўқувчилар имкониятини ҳисобга олган ҳолда мавзу ҳажмини белгилаш, унинг мураккаблигини аниқлаш, авалги ўрганилган мавзу билан боғлаш, ўқувчиларга бериладиган топшириқ ва мустақил ишларнинг кетма-кетлигини аниқлаш, дарсда керак бўладиган жиҳозларни белгилаш ва қўшимча кўргазмали қуроллар билан бойитиш, интерфаол методлардан фойдаланган ҳолда дарсда муаммоли вазият яратишдир. Дарсда қўйиладиган асосий талаблардан бири таълим методлари ва усулларини бир-бири билан боғлаб олиб бориш самарадорлигини оширишдир. Дарсга қўйиладиган асосий талаблардан яна бири барча дидактик вазифалар дарснинг ўзида ҳал этилиши, уйга бериладиган вазифалар ўқувчиларнинг дарсда олган билимларининг мантиқий давоми бўлиши керак. Дарс давомида ўқитувчи ўқувчиларнинг жисмоний ҳолатини, ижодкорлигини,.. тез фикрлашларини ҳисобга олиши керак. Ўтилган ҳар бир дарснинг ўқувчилар билан бирга таҳлил қилиб борилиши ҳам яхши натижа беради. Ўқувчи фаоллиги ўқувчилар фаоллиги олдида ўз ўрнини бўшатиб беради. Ўқитувчининг асосий вазифаси ташаббуслар чиқиши

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

учун шарт-шароитлар яратиш демакдир. Яратилган шароитлардагина дарсни интерфаол усулларда ўтиш ва дарс самарадорлигига эришиш мумкин.

Адабиётлар

**1.**Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

2.Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

3.Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

4. Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.

5. www.uzedu.uz

6. www.eduportal.uz

7. www.ziyonet.uz

8. www.multimedia.uz

9. www.arxiv.uz

10. www.kitob.uz

11.www.tarixchi.zn.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Умумтаълим мактабларининг тарих дарсларида Ўзбекистон тарихи манбаларидан фойдаланишнинг айрим жиҳатлари

Ниязова Умида Заировна

Сурхондарё вилояти Шеробод тумани

24-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация**.Ўзбекистон тарихини ўтишда манбалардан фойдаланишнинг роли ва аҳамияти.Тарихий ҳужжатлар билан ишлаш йўллари.Дарсда дарсликлар билан ишлаш йўллари

Мамлакатимизда барча сохаларда ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, таълим сохасида ҳам янгиланишлар бўлмоқда, таълим сифатини оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда ўқитувчилар олдига қўйилган асосий вазифа таълим сифати ва дарс самарадорлигига эришишдир. Шундай экан, ҳар бир фан ўқитувчиси ўқувчи ёшларга пухта билим берибгина қолмай уларда ҳаётий кўникмаларни ҳам шакллантириши зарур.

Умумтаълим мактабларининг тарих фани дарсларида пухта билим бериш билан бирга дарсда интерфаол усуллардан фойдаланиш муҳимдир. Зеро, пухта билимни ўқитувчининг маҳорати ила танлаган усули ва уни қўллай олиши натижасида амалга ошириш мумкин.

Ўқитувчи тарих дарсида аввало, ўқувчиларни дарслик, тарихий ҳужжатлар,манбалар билан ишлашга йўналтирмоғи лозим. Ўрта таълим тизимида тарих ўқитишда қўлланиладиган матнларга эса дарслик матни, тарихий ҳужжатлар, асарлари, илмий-оммабоп ва бадиий, тарихий адабиётлар ва бошқалар киради. Босма матнлар ўқувчилар тарихий билимларининг асосий манбаи бўлгани каби ўқитувчининг билим манбаини, баёнининг асосини ташкил этади. Табиийдирки, ўқитувчи шу манбалардан тўғри ва унумли фойдаланган тақдирдагина, унинг баёни дидактика талабларига, умуман ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарих таълимининг юксак талабларига жавоб бериши, ўқитувчи баёнининг ўқувчиларга тушунарли, мазмундор, мароқли, ғоявий ва илмий жиҳатдан ишонарли, образли ва таъсирчан бўлиши мумкин. Шунингдек матнлар устида ишлаш ўқувчилар билимини кенгайтиради, тарихий факт ва ҳодисаларнинг моҳиятини, уларнинг қонуниятларини чуқурроқ тушуниб олишларига ёрдам беради, илмий дунёқараши шаклланади. Ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида ўқувчилар ҳар хил матнлар устида ишлаб мустақил иш олиб бориш малакасини ҳосил қиладилар ва тарихий тадқиқот ишларининг дастлабки методлари билан амалий равишда танишадилар.

Ўқитувчи ўзининг баёнини бошқа матнлар асосида янада аниқлаштиради ва бойитади. Дарслик матни ўқувчиларнинг дарсда ва дарсдан ташқари тарихни ўрганиш, ўзлаштириш ва уни эсда сақлаб қолишининг, билиш фаолиятининг, ижодий изланиш ишларини олиб боришнинг муҳим манбаидир. Матн ва улардаги саволлар, топшириқлар тарих курсининг мазмунини ижодий ўзлаштиришга ва олинган билимларни ҳаётда қўллашга ўргатади.

Дарслик матни устидаги ишлар ўқув материалини ўзлаштириш ва уни эсда сақлаб қолиш ўқув матнини таҳлил қилиш ва ундан тарихий воқеа, ҳодисаларнинг муҳим белгиларини топиш, фактик материалларни ва тарихий фактларнинг муҳим белгиларини бир-бирига таққослаш, аниқлаштириш ва умумлаштириш каби турли хил мақсадларда олиб борилади. Шунингдек, матн устида ишлашда хронологияни, тайёр тарихий тушунчалар таърифини ўзлаштириш ва уларни мустақил аниқлаш, дарсликда баён қилинган воқеа ва ҳодисаларнинг ривожланишини кузатиб бориш, аниқ тарихий фактлар ва статистик маълумотлар асосида ижтимоий ривожланиш анъаналарини билиб олиш, маҳаллий, вақтли, сабаб-натижали ва тарихий алоқаларнинг қонуниятларини ўзлаштириш ва аниқлаштириш, луғат ишларини мазмунли ва суратли режалар, жадваллар тузиш ва бошқа шу каби унча мураккаб бўлмаган ёзув ва графика ишларини олиб бориш, матн устида программалашган таълим элементларини амалга ошириш каби вазифалар ҳам кўзда тутилади.

Ўрта таълим тизими тажрибасида дарслик матни устида ишлашнинг қуйидаги усулларини айтиб ўтиш жоиз:

1. Тушунтириб ва изоҳлаб ўқиш. 5-синфда “Тарихдан ҳикоялар”ни ўрганишда ва 6-синфда “Қадимги дунё тарихи”ни ўқитишнинг дастлабки ойларида ўқитувчи бутун мавзу ёки унинг бирор бўлимини гоҳ баён қилади ва гоҳ дарслик матнини ўқиб, тушунтириб беради. Ўқитувчи матнни мураккаб жойларига келганда ҳикоясини тўхтатиб, матнни овоз чиқариб оҳиста ўқиб беради, ўқувчилар эса матнга қараб кузатиб боришади, тушуниш осон жойларни ўқувчиларнинг ўзларига ҳам ўқитиш мумкин. Матнни ўқиш жараёнидаёқ унинг мазмунини ўқувчилар томонидан тушуниш даражаси текширилади. “Қани Рустам айтиб бергин-чи, мана бу абзацдаги «энг қадимги одамлар жамоаси одамлар тўдаси»— деган жумлани қандай тушунасан? Энг қадимги одамларнинг ҳозирги одамлардан фарқиничи? Ўқитувчи ана шу тариқа саволлар бериб ўзининг баёни давомида дарслик матнига тез-тез мурожаат қилиб, ундаги янги иборалар, терминларни, қийин жумлалар мазмунини тушунтириб беради. Бу билан ўқитувчи ўқувчиларни дарслик матнига эътибор бериб, тушуниб ўқишга ўргатади, уларнинг дарслик матнини пухта ўрганиб олишнинг аҳамиятини англаб олишларига ёрдам беради, уйда дарслик устида мустақил ишлашларига тайёрлайди. Ўқувчилар тарихий материални тушуниб, матнни ўқишда маълум даражада малака ҳосил қилганларидан кейин матннинг энг муҳим ва қийин жойларини изоҳлаб ўқишга

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ўтилади. Изоҳли ўқиш ҳам ўқитувчининг баёни билан бирга олиб борилади. Ўқитувчининг ўз баёни давомида дарслик матнини, хусусан матндаги айрим мураккаб жойларни изоҳли ўқиш усули ҳамма синфларда ҳам қўлланилади.

2. Ўқитувчи ўз баёнида ўқувчилар диққатини дарслик матнидаги айрим жумлалар ва ибораларга жалб этади. Масалан, ўқитувчи 6-синф тарих дарслигидаги «Чорвачилик ва деҳқончиликнинг бошланиши»—деган мавзуни ҳикоя қилиб бераётганда, дарсликда "Деҳқончилик ва чорвачиликнинг вужудга келиши ибтидоий одамлар ҳаётида жуда катта аҳамиятга эга бўлди», ёки «Қадимги Мисрнинг табиати ва аҳолисининг машғулотлари»—деган мавзуни ҳикоя қилишдан олдин, дарсликнинг «Одамларнинг зўр бериб қилган меҳнати туфайли, Нил водийсининг қиёфаси ўзгариб борганлиги, Миср одам яшаши учун деярли яроқсиз бўлган бир жойдан аҳолиси гавжум бўлган деҳқончилик мамлакатига айланганлиги» ҳақидаги жумлаларга ўқувчиларнинг диққати жалб қилиниб, сўнгра уларнинг маъноси тушунтириб берилади.

3. Дарслик матни мазмунини ўзлаштиришда унинг ҳар бир параграфини таҳлил қилиш ва улар устида ўқувчиларнинг мулоҳазаларини уюштириш катта аҳамиятга эгадир. Масалан, ўқитувчи ўқувчиларга дарсда ўтилаётган параграф матнида қўйилган муаммоларни ва унинг тематик тузилишиини ажратиб беришни топширади ёки ўқувчилар олдига: «мана бу абзацда нима хақда гапирилган?» «унга қандай сарлавҳа қўйса бўлади?» деган савол қўйилади. Бу йўл билан ўқувчилар матнни эътибор билан ўқиб, ундаги бош масалаларни иккинчи даражадаги масалалардан ажратиб олишга, улар асосида режа тузишга ўрганади.

4. Ўқувчилар боб, параграф ва ундаги пунктларни бир-биридан ажрата билишга ўргатилади. Ўқитувчи янги материални баён қилишдан олдин ўқувчиларга шу параграф ичидаги кичик сарлавҳаларни ўқишни тавсия қилади ва дарсни баён қилиш режаси билан таништиради, уларнинг мазмуни ва ифодаланишидаги тафовутларнинг сабабларини изоҳлаб беради. Ўқитувчи ўзининг баёни давомида кичик сарлавҳалар ичидаги мавзуларга такрор-такрор қайтиши мумкин. Айниқса янги тушунчаларга дуч келинганда шундай бўлади.

5. Дарслик матни мазмунини бевосита ўзлаштириш билан боғлиқ бўлган ишлар. Бу дарслик матни устида олиб бориладиган ишнинг марказий масаласидир. Бу ишлар матнни таҳлил қилиш, умумлаштириш, тарихий фактларга баҳо бериш, улар ўртасидаги сабаб ва бошқа алоқаларни очиб кўрсатиш ва уларни таққослашдан иборатднр. Бу ишлар қуйидаги методик усуллар билан:

ҳар бир параграф ёки мавзу мазмунининг энг муҳим масалалари юзасидан тест туздириш йўли билан;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ўқитувчи берган саволларга ўқувчиларнинг дарслик матнидан жавоб топиш йўли билан;

дарслик матнидан ўқитувчининг хулосасини тасдиқловчи фактларни топтириш йўли билан;

дарслик матнида баён этилган воқеаларнинг бир-бирига ўхшашлигини, фарқларини аниқлаш йўли билан;

тасдиқлаб беришни талаб қиладиган вазифалар билан амалга оширилади.

6. Дарслик матни устида ишлашнинг муҳим элементларидан бири — ўқувчиларни уйда ишлаш учун бериладиган вазифасини бажаришга ўргатишдир. Ўқувчилар бу вазифани муваффақиятли бажариш учун топширилган вазифанинг мазмунини ва уни бажариш йўлини яхши англаб олишлари шарт. Бинобарин, ўқитувчи уй вазифасини топширишда, унинг характерини белгилашда ўқувчиларнинг билим ва малакаларини эътиборга олиши, ҳар гал бериладиган вазифа олдингидан кўра мураккаб бўлиши ва шу билан уларнинг билимлари ва малакалари ошиб боришига хизмат қилиши лозим. Режа тузиш, шунга мувофиқ ҳикоя қилишга ўргатиш, матн юзасидан берилган саволларга жавоб топиш, тарихий расмларга қараб ҳикоя ёзиш, жадвал, схема, диаграммалар туздириш ва бошқа хил график ишларни бажариш уй вазифасини ижодий ва мустақил бажариш намуналаридир.

7. Ўқувчиларни дарслик матнидан зарур жойни тез топа билишга ўргатиш ҳам таълимнинг муҳим элементидир.

8. Ўқувчиларнинг фаол ақлий фаолиятининг муҳим методларидан бири, уларнинг ўқитувчи баён қилган янги материални ўзлаштиришда мавжуд билимларни ишга сола билишидир. Ҳар бир дарсда ўқувчиларни мавжуд билимлардан фойдалана билишга ўргатиш лозим. Ўқувчилар олган билимларини эсдан чиқариб юбормасликлари учун вақти-вақти билан уларнинг эътибори дарслик матнига қаратилади.

9. Уйда ишлаб келиш учун берилган топшириқларни ўқувчилар қандай бажарганликларини текширишда маълум бўлган, оғзаки ёки ёзма жавобларидаги хатоларни, аниқсизликларни тўғрилаш учун ҳам дарслик матнига мурожаат қилинади.

Демак, дарслик матни устидаги ишлар турли хил методик усуллар ёрдамида, ўқитиш жараёнининг барча босқичларида — материални ўзлаштириш, билимларни мустаҳкамлаш, ўзлаштириш даражасини текшириш пайтларида олиб борилади.

Тарихий ҳужжат аввало, ўқитувчининг баёнини конкретлаштириш, чуқурлатиш ва унга аниқлик киритиш учун хизмат қилади, баённинг ишончли ва эмоционал бўлишини таъминлайди, ўтмишнинг ёрқин образларини, тарихий воқеаларнинг яхлит

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

манзарасини гавдалантиришга, ўрганилаётган давр хусусиятларини англаб олишга ёрдам беради. Ҳужжат устида ишлаш ўқувчиларни фактлар ва ҳодисаларни мустақил равишда аниқлашга, уларни пухта англаб олиб, хулосалар чиқаришга ўргатади. Шу билан бирга ҳужжат маълум вазиятни аниқлашга, уни аҳамиятини билиб олишга, уларнинг билиш фаолиятини, фикрлашини фаоллаштиради, ўқув ишлари фаолиятининг янги усуллари билан қуроллантиради, хужжатни тушуниб олиш малакасини ҳосил қилади.

Тарихий ҳужжатлар билан ишлашнинг яна бир муҳим томони шундаки, бу иш ўқувчиларни тарихий тадкиқот методининг элементлари билан таништиради ҳамда уларни тарихий ҳужжатларга танқидий қарашга ўргатади.

Ўрта таълим тизимида таълимнинг янги мазмуни амалга ошиши муносабати билан тарих ўқитишда тарихий ҳужжатларнинг роли янада ошди. Янги дастур асосида ёзилган дарсликлар мазмунининг асосий қисмини тарихий ҳужжатлар ташкил этади. Дарс ва дарсдан ташқари машғулотларда ҳам тарихий ҳужжатлар билан ишлаш зарурдир.

Дарсликлардаги тарихий ҳужжатлар ҳар бир синфдаги ўқувчиларнинг ёши, билим савияси, ўша синфда ўрганиладиган тарих курсининг хусусиятларига қараб киритилган. Шу сабабдан дарсликлардаги тарихий ҳужжатлар ўзларининг ҳарактери, кўлами ва мазмуни жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади.

6-синф дарсликлари ўқувчиларининг ёши, билими ва уларнинг тарихий ҳужжатлар билан деярли биринчи марта танишишларини эътиборга олиб, дарсликда асосан, иллюстрациялар, ҳикоя ва тавсифлаб бериш характеридаги ҳужжатлар киритилган. 6-синф тарих дарслигига киритилган хужжатли манбаларни асосан уч гуруҳга бўлиш мумкин: 1) моддий маданият буюмлари, 2) тасвирий санъат асарлари, 3) ёзма манбалардир. **Моддий маданият** буюмларига — бизгача сақланиб келаётган ёки илмий асосда қайта тикланган бурунги меҳнат қуроллари, курол-яроғлар, зеб-зийнат буюмлари, уй-рўзғор анжомлари, турар жойлар, қўрғонлар, мақбаралар, қадимги шаҳар харобалари ва бошқалар киради. Ўқувчилар меҳнат қуроллари ва бошқаларга қараб, одамларнинг машғулотларини, ҳашаматли иморатлар ва пастқам кулбалар мавжудлигини, диний маросимларга ва кишиларнинг дафн қилинишидаги расм-русумларга доир топилмалар асосида ўша замондаги диний эътиқодларини билиб оладилар. **Тасвирий санъат асарларига** — моддий воқеликни, одамлар ва уларнинг бир-бирига муносабатини ҳамда уларнинг теварак-атрофидаги нарсаларни — ҳар хил буюмларни, географик муҳитни бевосита тасвирлаб берувчи асарлар, одамларнинг ҳар хил маъбудлар, руҳ-арвоҳлар, жинлар, алвастилар, афсонавий қаҳрамонлар, девлар ва ҳоказолар ҳақидаги хаёлий тасаввурларини акс эттирувчи асарлар киради. **Ёзма манбаларга** — қонунлар, буйруқлар, хўжалик ишларига доир ёзувлар, шартномалар,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

хизмат вазифасига оид ёзишмалар, суд ҳукмлари, йилномалар, хроникалар, мемуарлар, шаҳар ва мамлакатлар тасвирлаб ёзилган асарлар, хатлар ва ёзувлар киради. Қадимги дунё тарихида берилган бу ҳужжатли материаллар ўқувчиларни эстетик жиҳатдан тарбиялашда муҳим ўрин тутади.

Ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарих ўқитишнинг ҳар бир янги босқичида дарсликлардаги ҳужжатли материалларнинг характери ўзгариб, кўлами ортиб ва мураккаблашиб боради.

Ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизимида тарих ўқитиш тажрибасида тарихий ҳужжатлар билан ишлашнинг қуйидаги икки усули, яъни тарихий ҳужжатлардан ўқитувчининг баёнида фойдаланиш усули билан ўқувчиларнинг матн устида ишлаш усули қўлланилади.

8-9-синф ўқувчиларини кўпроқ мемуар характердаги материаллар, тарихий воқеаларнинг замондошлари ва қатнашувчилари берган маълумотлар қизиқтиради. Фойдаланилган тарихий ҳужжатнинг кўрсатмаси бўлиши керак, бу кўрсатма ўқитувчи баёнининг кўрсатмали ва ифодали бўлишини таъминлайди.

Тарихий ҳужжат ўқитувчи баёнини, баёндаги характеристика ва чиқарилган хулосаларни тасдиқлайди.

Ўқитувчи дарслик ёки хрестоматиядан олинган ҳужжатнинг мазмуни ва ўқувчиларнинг тайёргарлигига қараб уни таҳлил қилиши, синф ўқувчиларига ҳужжат юзасидан саволлар бериши ёки умумлаштирувчи аналитик суҳбат ёрдамида таҳлил қилиши мумкин. Тарихий ҳужжатлар устида ишлашда ўқувчилар уларни нима учун хизмат қилишини, танишилаётган ҳужжатлар қачон ва кимлар томонидан яратилганини, улардан нималарни билиб олиш мумкинлигини тушуниб олишлари лозим. Агар ҳужжатларда тушуниш қийин бўлган атамалар учраб қолса, улар доскага ёзиб тушунтирилади, ўқувчилар луғат дафтарчасига ёзиб олади.

Тарихий ҳужжатлар устида ишлашнинг турли усуллари бўлиб,улар:1. Ўқитувчи тарихий ҳужжатни ўзи таҳлил қилиб бериши мумкин.2. Тарихий ҳужжатларни ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида ўқувчилар дарсда таҳлил қилиши мумкин.3. Ўқитувчи ўқувчиларга маълум ҳужжатларни уйда мустақил таҳлил қилиб келишни топшириши мумкин, шунингдек,4. Ўқувчиларни кичик гуруҳларга бўлиб, ҳар бир гуруҳда ҳужжатлар билан мустақил ишлашни ташкил этиш мумкин.

Тушуниш қийин бўлган мураккаб тарихий ҳужжатларни ўқитувчининг ўзи ўқийди, таҳлил қилиб изоҳлаб беради. Ўқувчилар матнни кузатиб боришади ва ўқитувчининг тушунтиришларини диққат билан тинглайди. Юқори синфларда ҳужжат изоҳ бериб ўқилади. Ўқитувчи ҳужжат юзасидан ўқувчиларга саволлар бериб, муаммолар қўйса, ўқувчиларнинг билиш ва фикрлаш фаолияти фаоллашади. VI—VII синфларда

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ўқитувчи ҳужжатни ўзи таҳлил қилиб беради, аммо шу билан бирга ўқувчиларни ҳужжатлар билан ишлашга ҳам ўргатади.

Ўқитувчи ҳужжатлар билан ишлашнинг яна бир усулини, яъни хужжатларни ўқувчилар билан бирга таҳлил қилиш усулини қўллайди. Ҳар бир матнда ҳам осон ва мураккаб жойлар бўлади. Матндаги мураккаб жойларни ўқитувчининг ўзи ёки суҳбат ёрдамида савол-жавоб йўли билан тушунтиради. Осон жойларини ўқувчиларга мустақил ўқиб ўрганишни вазифа қилиб топшириш мумкин.

Ўқувчиларга уларнинг билим ва малакаларига яраша тушунарли ҳужжатлар танлаб берилган ва ҳужжатлар устида мустақил ишлашни илгари ҳам машқ қилиб кўрган бўлсалар ўқитувчи вазифалар қилиб берган ҳужжатларни мустақил ўқиб, пухта тушуниб олишлари мумкин. Лекин бунда ҳам ўқитувчи бу ишга раҳбарлик қилади, қийин жойларини ўқитувчи раҳбарлигида, осон жойларини ўқувчиларнинг ўзлари мустақил ўрганадилар. Хўжалик, юридик ва шу каби бошқа қийинроқ характердаги ҳужжатлар ўқитувчи раҳбарлигида таҳлил қилинади.

8-9 синфдан бошлаб баъзи дарслар соатининг бир қисми ёки бутун дарс ҳужжатлар устида ишлашга бағишланади. Ўқувчиларнинг дарсда ва уйдаги мустақил ишларига талаб ортиб боради. Тарихий ҳужжатлар асосида қисқача ахборот ва рефератлар тайёрлаш, ҳикоя қилишга тайёрланиш, схематик режа ва бошқа графика ишларини бажариш, иншо ёзиш ва ҳ. қ ўқувчиларнинг ҳужжатлар устидаги мустақил ижодий ишлари қаторига киради. Ўқувчиларни ҳужжатларни ўрганишга қизиқтириш, бунга уларда иштиёқ уйғотиш керак. Бунинг учун уларга ҳужжатлар маълум даврнинг моддий ёдгорлиги ва янги билимларни эгаллашнинг муҳим манбаларидан бири эканлигини алоҳида уқтириш лозим. Ҳужжатни ўрганишда унинг ким томондан, қачон ёки қандай нуқтаи назаридан яратилганини, уша вақтдаги мамлакатнинг ички ва ташқи аҳволини тушунтириб бериш зарур.

Ўқувчилар 6-синф тарих дарслигининг кириш қисмида ёзма манбалар ҳақида маълум тушунча ҳосил қиладилар. Кейинчалик бу тушунчалар ҳар хил ёзма ёдгорликларни ўрганиб бориш, турли музей ва архивлардаги ёзма ёдгорликлар билан танишиш жараёнида аниқлашиб, бойиб кенгайиб боради.

2022-2023 ўқув йилидан эса дарсликлар анча соддалаштирилиб, иллюстрациялар, тарихий расмлар билан бойитилиб, матнлар соддалаштирилди. Бундан мақсад, ўқувчиларнинг тасаввурларини кенгайтириб, мавзуни осон тушуниб,ўзлаштиришидир.

Шундай қилиб, тарихий ҳужжатлар ўқитувчи баёнини аниқлаштиради, мазмунини чуқурлаштиради, унга аниқлик киритади, ишонарли ва эмоционал бўлишини таъминлайди, ўқувчиларнинг билиш фаолиятини, фикрлашини фаоллаштиради,

билимлари пухта ва мустаҳкам бўлишига ёрдам беради, билим олишнинг янги усуллари, илмий тадқиқотнинг элементар шакллари билан таништиради.

Бадиий адабиёт образларидан фойдаланиш ўқитувчи баёниииг кўрсатмалилигини таъминлайди, уни аниқлаштиради, ўқувчилар ўтмиш ҳақида жонли тасаввур ҳосил қилади. Бадиий адабиётнинг роли бу билан тугамайди.

Маълум даврнинг ижтимоий ҳодисаларини реал акс эттирувчи ҳақиқий бадиий образ, типик образлар ўша ижтимоий ҳодисанинг моҳиятини ифодалайди.

Ўқитувчи баёнида бадиий адабиётдан олинган намуналар баённинг таъсирчан бўлишини ҳам таъминлайди, ўрганилаётган тарихий воқеаларга нисбатан ўқувчиларда хайрихохлик, завқланиш, афсусланиш кайфиятларини, нафрат ёки ҳайрат туйғуларини туғдиради.

Тарих ўқитишда фойдаланиладиган бадиий адабиётларни ўрганилаётган даврнинг адабий ёдгорликлари ва тарихий беллетристик асарларидан иборат икки гуруҳга бўлиш мумкин.

Адабий ёдгорликларга тарихий ҳодиса ва воқеаларни ўз замондошлари ёзиб қолдирган асарлар киради. Бу гуруҳга кирган асарлар тарих фани учун ўтмишнинг ўзига хос манбаи бўлиб хизмат қилади. Бадиий адабиёт ёдгорликлари ёзиб олинган оғзаки ижодиёт асарларини: афсоналар, достонлар, қўшиқлар, масаллар ва бошқаларни ўз ичига олади. Бундай асарларнинг жуда кўпида воқелик қайта-қайта ишланган, халқ фантазияси билан бойитилган ва безатилган бўлади. Воқеликни объектив суратда тасвир қилган асарлар, ёдгорликлар бизгача етиб келмаган тақдирда узоқ ўтмишни, масалан қадимги Греция тарихини ёритиб беришда ана шундай асарлардан ҳам танқид ғалвиридан ўтказиб фойдаланилади. Гомер давридаги жамият тарихи Гомер достонларидан ва қисман грек афсоналаридан олинган эпизодларни таҳлил қилиш асосида таърифлаб берилади, Бадиий ёдгорликларнинг асосий аҳамияти шундан иборатки, улар ўз замонидаги жамиятнинг ғоясини акс эттиради ва буни ўқувчиларнинг тушуниб олишларига, тарихий ҳодисалар ва арбобларнинг ёрқин бадиий образларини равшан тасаввур қилишларига ёрдам беради. Шу билан бирга ўқувчилар бадиий адабиётнинг жамият ҳаётидаги роли билан ҳам аниқ мисолларда танишадилар. Масалан, «Роланд ҳақида қўшиқ» номли асарда Карлнинг ўзи ва унинг жангчилари идеаллаштирилиб у олиб борган урушлар тарихи бузиб кўрсатилади. Шу билан бирга, бу асар рицарларнинг мардлиги, ўз сенъорига содиқлиги, фидокорлиги билан, шунингдек ўрта асрлар адабиётининг ана шу тури билан таништиради. «Роланд ҳақида қўшиқ» шу адабиёт турининг энг яққол намунасидир. Роланд уйдирма образ бўлсада ундаги ажойиб фазилатлар ўқувчиларга ижобий тарбиявий таъсир кўрсатади. Ўрта асрларда яратилган «Тулки ҳақида роман» дан шаҳарликларнинг феодалларга

муносабатини, улар ўртасида кескинлашиб бораётган курашини ҳамда уни ёритишда ҳажвиядан қандай фойдаланилганлигини ўқувчилар тушуниб олади.

Қадимги дунё ва ўрта асрларда яратилган афсоналардан, қаҳрамонлик достонлари ва бошқа адабий асарлардан тарих дарсларида фойдаланганда, ўқувчиларни бу асарларга танқидий кўз билан қарашга ўргатиб бориш керак. Шунингдек, уларга бу асарлар ўтмишдан қолган бадиий ёдгорликлар эканлигиии, улардан ўша даврларда бўлиб ўтган воқеаларга оид баъзи маълумотлардан фойдаланиш ва қай тариқа фойдаланиш мумкинлигини, бу асарларнинг қайси жойи уйдирма ва қайси жойларида реал воқелик акс этганини тушунтириш лозим.

Беллетристик асарларга эса тарихий романлар, тарихий темаларда ёзилган повестлар, ўрганиладиган давр ҳақидаги бадиий асарлар, ҳикоялар киради. Бу асарлар тарихий манбалар, мемуарлар ва ҳужжатлар, илмий текшириш ишлари ва монографияларни ўрганиш асосида ёзилган бўлиб, уларда ўтмиш воқеалари бадиий тасвирлар ва бадиий образлар орқали ифодаланади.

Беллетристика тарих фани учун ҳужжатли манба бўла олмасада, ўқувчиларга ўтмишни аниқ тушунтиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Тарихий роман ва повестларни ўқиш натижасида ўқувчиларда тарихга қизиқиш уйғонади.

Ўрганилаётган даврга доир адабий ёдгорликлар тарих дарсларида кўпинча дарс материалини хулосалаш ва умумлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилади. Беллетристика баён қилинаётган ўқув материалини аниқлаштиришга ва баённи мароқли қилишга ёрдам беради.

Ўқитувчи бадиий адабиётни танлашда материалнинг таълим-тарбия жиҳатидан қиммати тарихий ҳодисаларнинг нақадар ҳаққоний реал ва илмий қилиб ёритилганлигини эътиборга олади.

Ўқитувчи тарих дарсларида фойдаланиш учун бадиий адабиётдан:

а) ўрта таълим ва ўрта махсус таълим тизими дастурида кўзда тутилган тарихий воқеаларнинг тасвирига;

б) тарихий арбоблар ва халқ оммаси вакилларининг образларини, халқ оммасининг ролини кўрсатишга;

в) муҳим тарихий воқеалар бўлиб ўтган жойларни ва у ерларнинг аниқ шароитини тасвирлашга ва ш. к. ларга бағишланган асарларни танлайди.

Ўқитувчи ўз баёнида бадиий адабиётлардан фойдаланиш билан бирга ўқувчиларнинг синфда ва синфдан ташқари бадиий асарларни ўқишлари устидан доимий  назорат олиб боради.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Умуман тарих дарсларида таълимнинг техника воситаларидан фойдаланиш дарснинг самарадорлигини оширади. Техника воситалари ўқитиш ва ўрганиш сифатини кўтаришга, ўқувчиларнинг ўқув материалини қизиқиб ўрганишига ва пухта ўзлаштиришига хизмат қилади.

Ўқитишнинг техник воситалари экран қўлланмалар яъни телевизор, компьютер,видиопректор, видеофильмлар, слайдлар, , кинофильмлар, радио-телеэшиттиришлар киради. Ўқитувчи техника воситаларининг ўзига хос ўқув қўлланмаси эканлигини айтади. Дарсда ўқув фильмларидан фойдаланишнинг ўзига хос томонлари мавжуд. Тарих ўқитиш тажрибасида ўқув фильмларидан фойдаланишнинг бир қанча усуллари бўлиб,улар:

ўқитувчи ўз баёнини ўқув фильмининг энг муҳим ва ёрқин саҳифаларини кўрсатиш билан боғлаб олиб боради;

10-15 минутда қисқа ўқув фильмларига бағишлаб дарс ўтказилади;

махсус кино дарслари ташкил этилади.

Дарснинг самарали бўлиши албатта ўқитувчи ва унинг касбий маҳоратига боғдиқ албатта. Бунинг учун ўқитувчи доимо ўз устида ишлаши, таълимга кириб келаётган янгиликлардан бохабар бўлиши, уларни амалда қўллай олиши ва натижаларга эриша олиши, қисқа қилиб айтганда замонавий ўқитувчи бўлмоғи керак.

**Адабиётлар**

1.Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

3.Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.

4.Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Таълим сифати ва дарс самарадорлигини оширишда интерфаол усулларнинг роли ва аҳамияти**

Темирова Фотима

Сурхондарё вилояти Шеробод тумани

12-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Ўқув фаолиятини фаоллаштирувчи усуллар ва улардан ўқув машғулотларида фойдаланиш -дарс самарадорлигини ошириш гарови сифатида. Тарих дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш-ўқувчилар фаоллигини оширишдаги муҳим омил.

**Таълим сифати ва дарс самарадорлигини оширишда интерфаол усулларнинг роли ва аҳамияти каттадир. Замонавий педагогик технологиялардан дарс жараёнида фойдаланиш бу дарс самарадорлигини ошириши билан бирга давр талабидир.Ўқувчи ёшларга таълим-тарбия берилар экан, уларни комил инсон қилиб тарбиялаш,жамиятда ўз ўрнини топа оладиган, ватанпарвар, инсонпарвар, янгиликларга интилувчан ва энг муҳими Ватанимиз тараққиётига ўзининг муносиб ҳиссасини қўша оладиган фарзандлар қилиб вояга етказиш биз педагогларнинг олдимизда турган муҳим мақсадимиз,вазифамиз , бурчимиздир.**

Дарсда илғор педагогик технологияларни маҳорат билан қўллай олган ўқитувчи албатта олдига қўйган мақсадга эришади, юксак натижалар билан бирга дарс самарадорлигига ҳам эришади.

Ўқитувчи меҳнат фаолияти давомида ўз касбининг устаси, маҳоратли педагог экан, дарслари хилма хил, бир биридан қизиқарлилиги, самаралилиги билан ажралиб туради. Бу эса бугуннинг талаби, долзарб вазифадир. Ўқувчиларни фаоллигини оширишга ва дарс сифати ва самарасини оширишга ёрдам берадиган айрим методлардан бири бу **«Зинама-зина» технологиясидир.** Ушбу технология ўқувчиларни ўтилган ёки ўтилиши керак бўлган мавзу бўйича якка ва кичик жамоа бўлиб фикрлаш ҳамда хотирлаш, ўзлаштирилган билимларни ёдга тушириб,тўпланган фикрлани умумлаштира олиш ва уларни ёзма, расм, чизма кўринишида ифодалай олишга ўргатади. Бу технология ўқувчилар билан бир гуруҳ ичида якка ҳолда ёки гуруҳларга ажратилган ҳолда ёзма равишда ўтказилади ва тақдимот қилинади. **Технологиянинг мақсади.** Ўқувчиларни эркин, мустақил ва мантиқий фикрлашга, жамоа бўлиб ишлашга, изланишга, фикрларни жамлаб улардан назарий ва амалий тушунча ҳосил қилишга, жамоага ўз фикри билан таъсир эта олишга, уни маъқуллашга, шунингдек, мавзунинг таянч тушунчаларга изоҳ беришда эгаллаган билимларини қўллай олишга ўргатишдир. Ушьу технологияни маъруза (имконият ва шароит бўлса), семинар, амалий ва лаборатория машғулотларида якка

тартибда ёки кичик гуруҳларда ўтказиш ҳамда назорат дарсларида қўллаш мумкин.**Машғулотда** А-3, А-4 форматли қоғозларда тайёрланган (мавзуни ажратилган кичик мавзучалар сонига мос) чап томонига кичик мавзулар ёзилган тарқатма материаллар, фломастер (ёки рангли қалам) воситаларидан фойдаланилади.**Машғулотни қуйидагича ўтказиш мумкин:**

- Ўқитувчи талаба (ёки ўқувчи)ларни мавзулар сонига қараб 3-5кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади (гуруғлар сони 4 ёки 5 та бўлгани маъқул);
- Талаба (ёки ўқувчи) лар машғулонинг мақсади ва унинг ўтказилиш тартиби билан таништирилади. Ҳар бир гуруҳга қоғознинг чап қисмидан кичик мавзу бўлган варақлар тарқатилади;
- Ўқитувчигуруҳ аъзоларини тарқатма материалда ёзилган кичик мавзулар билан танишларини ва шу мавзу асосида билганларини фломастер ёрдамида қоғоздаги бўш жойига жамоа билан биргаликда фикрлашиб ёзиб чиқиш вазифасини беради ва вақт белгилайди;
- Гуруҳ аъзолари биргаликда тарқатма материалда берилган кичик мавзуни ёзма (ёки расм, ёки чизма) кўринишда ифода этадилар. Бунда гуруҳ аъзолари кичик мавзу бўйича имкон борича тўлароқ маълумот беришлари керак бўлади.
- Тарқатма материаллар тўлдирилгач, гуруҳ аъзоларидан бир киши тақдимот қилади. Тақдимот вақтида гуруҳлар томонидан тайёрланган материал, албатта, аудитория (синф) доскасига мантиқан тагма-таг (зина шаклида) илинади;
- Ўқитувчи гуруҳлар томонидан тайёрланган материалларга изоҳ бериб, уларни баҳолайди ва машғулотни якунлайди.

**Шунингдек,"3 х 4" технологиясидан фойдаланиш ҳам ижобий натижалар беради. Технологияни қўллаш** ўқувчиларни аниқ бир муаммони (ёки бирор мавзуни) яккаҳолда (ёки кичик жамоа бўлиб) фикрлаб ҳал этиш, ечимини топиш, кўп фикрлардан керагини танлаш, танлаб олинган фикрларни умумлаштириш ва улар асосида қўйилган муаммо (ёки мавзу) юзасидан аниқ бир тушунча ҳосил қилишга, шунингдек, ўз фикрларини маъқуллай олишга ўргатади. Бу технология ўқувчилар билан аввал якка ҳолда, сўнгра уларни кичик гуруҳларга ажратилган ҳолда ёзма равишда ўтказилади.**Технологиянинг мақсади,** ўқувчиларни эркин, мустақил ва мантиқий фикрлашга; жамоа бўлиб ишлашга, изланишга; фикрларни жамлаб, улардан назарий ва амалий тушунча ҳосил қилишга; жамоага ўз фикрини ўтказишга, уни маъқуллашга; қўйилган муаммони ечишда ва мавзуга умумий тушунча беришда ўтилган мавзулардан эгаллаган билимларини қўллай олишга ўргатишдир.**Технологияни** семинар, амалий ва лаборатория машғулотларида якка тартибда (ёки кичик гуруҳларга ажратилган ҳолда) ўтказиш ҳамда гуруҳ аъзоларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бир неча маротаба жойларини ўзгартириб берилган вазифаларни бажаришга мўлжалланган.Машуғлотда фойдаланиладиган воситалар бу, А-3, А-4 форматдаги қоғоз варақалари (гурух сонига қараб), фломастер (ёки рангли қалам)дир.

**Машғулотни қуйидагича ўтказиш тавсия қилинади:**

- Ўқитувчи ўқувчи ларнинг умумий сонига қараб, 3-5 кишидан иборат кичик гурухларга ажратади (кичик гурухлар сони 4 ёки 5 та бўлган мақсадга мувофиқ);
- Ўқитувчи ўқувчиларни машғулотнинг мақсад ва ўтказилиш тартиби билан таништиради ва хар бир кичик гурухга қоғознинг юқори қисмида ёзуви бўлмаган варақларни тарқатади;
- Ўқитувчи кичик гурух аъзоларини тарқатма материалда ёзилган асосий фикрни фақат учта фикр, яъни учта сўз ёки сўзлар бирикмаси, ёки учта гап билан давом эттиришлари мумкинлигини уқтиради ва бунда амалга ошириш учун аниқ вақт бўлмайди;
- Гурух аъзолари биргаликда тарқатма материалда берилган фикрни ёзиб давом эттирадилар;
- Вазифа бажрилганч, гурух аъзолари ўринларидан туриб соат мили йўналиши бўйича жойларини ўзгартирадилар, яъни 1-гурух 2 2-гурухнинг 2-гурух 3-гурухнинг, 3-гурух эса 4-гурухнинг (бошқа кичик гурухлар бўлса, шу тариқа ) ўрнига ўтадилар;
- Янги жойга келган гурух аъзолари шу ерда қолдирилган тарқатма материаллардаги фикрлар билан танишиб, унга яна янги учтадан ўз фикрларини ёзиб қўядилар;
- Гурух аъзолари яна юқоридаги каби жойларини ўзгартирадилар, шу тариқа кичик гурухлар ўз жойларига қайтиб келгунларига қадар жойларини алмаштириб, тарқатма материлларга ўз фикрларини қўшиб борадилар;
- Ўз жойларига қайтиб келган кичик гурухлар тарқатма материалда тўпланган барча фикрларни диққат билан ўқиб, уларни умумлаштирган холда битта яхлит таъриф ёки қоида холатига келтиради;
- Хар бир кичик гурухнинг муаллиф таърифлари ёки қоидаларини гурух аъзоларидан бири тақдимот қилади;
- Ўқитувчи кичик гурухлар томонидан берилган таърифлар ёки қоидаларга изох бериб, уларни бахолайдилар, сўнгра машғулотларни якунлайди.

***Шуни хам айтиб ўтиш керакки,*** *гурухлар тақдимотидан сўнг улар берган таъриф ёки қоидаларасосида кичик гурухларнинг хар бир аъзоси якка тартибда ўзининг муаллиф таърифи ва қоидасини келтириб чиқариб тақдимот қилиш хам мумкин.*

Кичик гурухлар сони 4 та бўлгани мақсадга мувофиқ. Бундай холда кичик гурухлар ўз жойларини фақат 3 марта алмаштирадилар ва бу билан ўқув жараёнинизерикарли ўтишининг олди олинади. Агар кичик гурухлар сони 4 тадан кўп

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

бўлса, у ҳолда уларни икки потокка бўлиб, кичик гуруҳ аъзоларининг алмашинувини ҳар бир поток ўртасида алоҳида, тақдимотни эса биргаликда ўтказиш мумкин.

Агар аудитория (ёки синф) кичик гуруҳларнинг жойларини алмаштиришга мосланган (ёки алмаштиришга ноқулайликлар) бўлса, у ҳолда ўқувчи ларни жойларини алмаштириш ўрнига гуруҳларга тарқатилган материалларни алмаштириш орқали, улар дастлабки олинган гуруҳларга қайтиб келгунга қадар алмаштирилиб, ўқувчи фикрлари тўпланади, улардан умум ий таъриф (ёки қоида) келтириб чиқарилади ва тақдимот қилиш ҳам мумкин.

Оммалашиб бораётган интерфаол усуллардан яна бири бу **"Блиц-сўров" усулидир.** Ушбу усул ўқувчиларни ҳаракатлар кетма-кетлигини тўғри ташкил этишга, мантиқий фикрлашга, ўрганаётган предмети асосида хилма-хил фикрлар, маълумотлар ичида кераклигини танлаб олишни шу билан бир қаторда, ўзгалар фикрини хурмат қилиш ва уларга ўз фикрини ўтказа олиш ҳамда ўз фаолияти, кунини режалаштира олишни ўргатишга қаратилган. ушбу усул орқали ўқувчиларга тарқатилган қоғозларда кўрсатилган ҳаракатлар кетма-кетлигини аввал якка тартибда мустақил равишда белгилаш, кичик гуруҳларда ўз фикрини бошқаларга ўтказа олиш ёки ўз фикрида қолиш, бошқалар билан ҳамфикр бўла олиш каби кўникмаларни шакллантириш иборат. Ушбу усул бир неча босқичда ўтказилади.

- Ўқитувчи ўқувчи ларга ушбу машғулот бир неча босқичда ўтказилиши ҳақида тушунча беради. Ҳар бир босқичга мўлжалланган вазифаларни бажаришга аниқ вақт берилиши, тингловчилар эса шу вақтдан учунли фойдаланишлари кераклиги ҳақида уларни огоҳлантиради:
- ўқитувчи ҳамда ўқувчи ларга алоҳида-алоҳида тарқатма материал беради ва улардан ушбу материални синчиклаб ўрганишларини сўрайди;
- ўқитувчи тарқатма материал мазмуни ва бажариладиган вазифа (тарқатма материалларда берилган ҳаракатлар кетма-кетлигини тўғри белгилаш, белгини қоғозда алоҳида ажратилган бўлимга рақамлар билан қўйиш кераклиги)ни тушунтиради;
- тарқатма материалда берилган вазифа дастлаб якка тартибда бажарилишини таъкидлайди;
- ҳар бир ўқувчи ўзининг шахсий фикри асосида тарқатма материаллардаги "якка баҳо" бўлимига берилган ҳаракатларнинг мантиқий кетма-кетлигини рақамлар билан белгилаб чиқади;
- ўқувчиларнинг якка тартибдаги ишлари тугагач, ўқитувчи улардан 3 кишидан иборат кичик гурухлар ташкил этишларини сўрайди. Кичик гуруҳлар ўқувчиларнинг хоҳишларига қараб ёки рақамлар бўйича ташкил этилиши мумкин;
- кичик гуруҳлардаги ўқувчиларнинг ҳар бири ўз қоғозидаги **"якка баҳо"** бўлимида белгиланган ҳаракатларкетма-кетлиги биланбир-бирларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

таништирадилар, кейин улар 3 кишида 3 хил бўлган кетма-кетлигни биргалашиб (бир-бири билан тортишиб, баҳслашиб, бир-бирларига таъсирўтказиб, ўз фикрларига ишонтириб) келишган ҳолда, тарқатилган қоғоздаги **“гуруҳ баҳоси”** бўлимига муқобил рақамларни белгилабчиқадилар;

- барча кичик гуруҳлар ўз ишларини тугатгач, ўқитувчи ҳаракатлар кетма-кетлиги бўйича тўғри жавобни беради, яъни ўқувчи лардан уларга тарқатилган қоғозлардаги **“тўғри жавоб”** бўлимига у томонидан айтилган ҳаркатларкетма-кетлиги рақамларини ёзишни сўрайди;
- ўқитувчи “тўғри жавоб” бўлимида берилган рақамлар билан “якка баҳо” ҳамда “гуруҳ баҳоси” бўлимидаги рақамларнисолиштириш ва каттасидан кичигини айриш, айримларни мос ҳолда “якка хато” ва “гуруҳ хатоси” бўлимларига ёзишларини сўрайди;
- ўқитувчи якка ва гуруҳ хатоларини умумий сони бўйича тушунча беради ва уларни ҳар бирини алоҳида-алоҳида шарҳлаб беради;
- ўқитувчи машғулотни якунлаб, баъзи гуруҳларнинг машғулот мобайнидаги иш фаолиятларига ўз фикрини билдиради ва ўқувчиларнинг билимини иловадаги мезонлар асосида баҳолайди ёки мос келган тўғри жавоблар сонига қараб ҳар бир ўқувчи ўз баҳосини иловада кўрсатилгандек аниқлайди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, дарс жараёнида интерфаол усуллардан фойдаланиш дарс самарадорлигини оширибгина қолмай,балки, ўқувчиларнинг дарсга,фанга бўлган қизиқишини орттиради,фикрлаш доирасини кенгайтиради, фаоллигини оширади,зеро, мақсадимиз ҳам юксак маънавият ва интеллектуал салоҳиятга эга бўлган баркамол инсонни тарбиялашдир.

***Адабиётлар***

1. Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.
2.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:
3.Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.
4. Фарберман Б.Л. «Прогрессивные педагогические технологии» - Т. 1999.;
5.Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.
6.Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих дарсларида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланишнинг айрим жиҳатлари

Кулбаева Назира Тошбуриевна

Сурхондарё вилояти Қизириқ тумани

40-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.**Таълим жараёнига интерфаол, инновацион технологияларни қўлланнилиши.«Бумеранг» технологияси.«3х4» технологияси.Муаммо технологияси.Дидактик ўйинлар технологияси.

Таълим жараёнига интерфаол, иннавацион, педагогик ва ахборот технологияларини қўллашга эътибор кундан - кунга ортиб бормоқда. Бунинг сабабларидан бири, шу кунгача анъанавий таълимда ўқувчилар фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган, ривожлантирувчи таълимда эса билимларни ўрганувчиларнинг ўзлари мустақил излаб топиш, мустақил ўқиб таҳлил қила олиш, хулосаларини ҳам ўқувчиларнинг ўзлари келтириб чиқариб талаб қилинишидадир. Шунингдек, ўқувчиларда ҳаётий кўникмаларни шакллантириш муҳимдир. Бу мақсадга эришишда анъанавий методлардан фойдаланиш кутилган натижаларини бермаслиги мумкин.

Шу сабабдан ўқитувчи инновацион технологияларни ўзлаштириб олиши ва улардан дарс жараёнида самарали фойдаланиши талаб қилинмоқда. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритишни назарда тутиб, ўқитувчи инновацион фаолиятининг самараси сифатида намоён бўлади ва уни амалга оширишда интерфаол методлардан тўла фойдаланиш лозим.

Бу методларниг ўзига хослиги шундаки, улар педагок ва ўқувчиларнинг биргаликда ҳаракат қилиши, бирга фаолият кўрсатиш орқали амалга оширилади.

Маълумки ҳар бир дарс, фан ёки мавзуни ўрганишда ўзига хос технология, метод ва воситаларни танлаш ва фойдаланишга тўғри келади. Ўқитиш жараёнида юқори натижага эришиш учун дарс жараёнини олдиндан лойиҳалаштириш зарур.

Лойиҳалаштириш жараёнида ўқитувчи предметнинг ўзига хос томонларини, ўқув жойини ва шароитини, ўқувчиларнинг эҳтиёжларини ва имконият ларини, билим савиясини, шароитига қараб ишлатиладиган технологияларни танлаши керак.

Ўқитувчи ҳар бир дарсни яхлит ҳолатда кўра билиши ва уни тасаввур этиш учун ҳам бўлажак дарс жараёни лойиҳаланиши керак. Бунда дарснинг технологик харитасини туза олиш жуда муҳимдир, чунки дарснинг технологик харитаси дарснинг қизиқарли бўлиши учун асосий восита ҳисоланади ва дарсда ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган билимларнинг кафолатланишига ёрдам беради.

Дарснинг технологик харитасининг қандай кўринишида ёки қандай шаклда тузиш ўқитувчининг маҳорати, тажрибаси, ўз олдига қўйган мақсади ва имкониятига боғлиқдир.Дарс технологик харитасининг кўплаб вариантлари мавжуд.

Технологик харита қандай тузилган бўлмасин, унда дарс жараёни яхлит холатда акс этган бўлиши, дарснинг мақсади, вазифалари ва кутилаётган натижалар, дарсда ишлатиладиган технология ва методлар аниқ белгилаб қўйилиши керак.

Технологик харитани тузишда дарснинг мақсадини шакллантиришга алоҳида эътибор бериш талаб этилади. Дарснинг мақсади тўғри шакллантирилгандагина ўқувчи таълим жараёнинг марказига чиқади ва ўқув жараёнида турли инновацион технологияларни қўллаш учун имконият яратилади.Масалан, **«Бумеранг»** технологияси дарс жараёнида янги мавзуни ўрганишда, дарсдан ташқари қўшимча манбалар, матнлар ва адабиётлар билан ишлаганда қўлланиладиган технологиялардан бири бўлиб, бу технология ўқувчининг мустақил билим эгаллаши ва шу эгалланган билимни бошқа ўқувчиларга ўргатишга асосланади. Бунда ўқувчида ўз билимини бошқаларга ўргатиш орқали эслаб қолиш қобилияти ва нутқ маданияти ривожланади. Дарсда **«3х4» технологиясидан фойдаланиш эса** ўқувчини эркин фикрлашга ўргатувчи технология- лардан бири бўлиб турли ғоя ва фикрларни якка ҳолда ёки кичик гуруҳларда таҳлил этиб, хулоса чиқариш, таъриф бера олиш малакасини шакллантиришга ёрдам беради. Ўқувчиларга тарихий воқеаларнинг сабаб ва оқибатларини таҳлил қилишда нимага эътибор бериш кераклигини ўргатади. Шунингдек, дарс жараёнида **«Кластер » (Тармоқлар)** методидан фойдаланиш ўқувчиларнинг мантиқий фикрлашга, умумий фикр доирасининг кенгайтиришга, атамалар, тушунчалар ва воқеаларнинг бир-бири билан боғлиқлигини англаб олишга ўргатувчи метод ҳисобланади. Бу методдан асосан дасрнинг якуний қисмида ёки боб юзасидан такрорлаш ўтказилганда, умуман, аввал эгалланган билимларни такрорлаш ва мустаҳкамлаш мақсадида фойдаланиш мумкин. **Муаммо технологияси** тарих дарсларида бирор муаммони ечиш жараёнида қўлланилади, масалан: XX асрдаги жаҳон иқтисодий инқирозини муаммо сифатида оламиз.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқувчилар биринчи навбатда ушбу муаммонинг келиб чиқиш сабабларини ва ва оқибатлари мустақил излаб топишлари керак. Кейинги босқичда эса ушбу муаммони ҳар бир давлат қандай ҳал қилганлигини ва яна қайси йўллар орқали иқтисодий инқироз муаммосини ҳал қилиш мумкинлигини ҳар бир ўқувчи мустақил ишлаб чиқиши талаб этилади. Бу технологиядан фойдаланиш орқали ўқувчиларда муаммоларни ечиш малакасини шакллантириш мумкин.

Ўқувчилар фаоллигини оширишда, олган билимларини мустаҳкамлашда дидактик ўйинлар технологиясилан фойдаланиш самарали натижа беради. Таълим жараёнида дидактик ўйинли технологиялар дидактик ўйинли дарс шаклида қўлланилади. Ушбу дарсларда ўқувчиларнинг билим олиш жараёнини ўйин фаолияти билан уйғунлаштиради. Шу сабабли, ўқувчиларнинг билим олиш фаолияти , ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар дидактик дарслар деб аталади.

Маълумки, инсон ҳаётида ўйин фаолияти қуйидаги функцияларни бажаради:

1. Ўйин ҳар доим шахснинг маълум бир фаолиятга бўлган қизиқишини орттиради.

2. Ўйин давомида шахснинг мулоқотга киришиши коммуникатив- мулоқот маданиятини эгаллашга ёрдам беради.

3. Шахснинг ўз иқтидори, қизиқиши, билимини ва ўзлигини намоён этишга имкон яратади.

4. Ҳаётда ва ўйин жараёнида юз берадиган турли қийинчиликларни енгишга, мўлжални тўғри олиш кўникмалари таркиб топади.

5. Ўйин жараёнида ижтимоий нормаларга мос хулқ-атворни эгаллаш, камчиликларга барҳам бериш имконияти яратилади.

6. Шахс структурасига тегишли ўзгартиришлар киритилади, яъни ижобий хислат ва фазилатларни шакллантиришига замин тайёрлайди.

7. Инсоният учун аҳамиятли бўлган қадриятлар тизимини, айниқса ижтимоий, маънавий – маъданий қадрятларни ўрганишга этибор қаратилади.

8. Ўйин иштирокчиларига жамоавий мулоқот маданиятини ривожлантириш ва дўстона мухит яратилиши кўзда тутилган.

Ўйин фаолияти ўзининг қуйидаги хусусиятлари билан тавсифланади:

1. Ўйин иштирокчилари ролларни, вазифаларини танлаши натижасида эркин ривожлантирувчи фаолият,яъни ўқувчиларнинг ўз фаолиятини таҳлил ва назорат қилиши, мақсадга мувофиқ натижага эришган ҳолларда ўз фаолиятидан кўнгил тўлиши, ўз билимига ва кучига ишонч вужудга келади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

2. Ижодий муҳит таркиб топади. Ўйин иштирокчилари муаммоларни ҳал этишда тегишли ижодий ва мустақил фаолиятга эга бўладилар.

3. Ўйин давомида мусобақа, рақобат, ҳамкорлик, ўзаро ёрдам вужудга келади. Шу аснода ҳис ҳаяжонли вазият пайдо бўлади ҳис ҳаяжонга йўғрилган билим, кўникмалар инсон хотирасида бир умр муҳрланиб қолади.

4. Ўйин давомида белгиланган қонун қоидаларга амал қилинади. Ўйин иштирокчиларига ижтимоий нормаларга мос онгли интизом вжудга келишига замин тайёрлайди.

5. Ўйин мазмуни, бориши, мантиқий кетма-кетлиги, вакт баланси ва ўқувчиларнинг муаммоли вазиятларни зудлик билан ҳал этиш, мўлжални тўғри олишга ўргатади.

Бошқа ўкув ва меҳнат фаолияти каби ўйин фаолияти таркибига қуйидагилар:

А) ўйиннинг сюжети;

Б) ўйин иштирокчилари бажарадиган муайян роллар ва вазифалар;

В) ушбу ролларни амлга ошириш учун бажариладиган амаллар;

Д) ўйин иштирокчилари ўртасидаги муносабат, мулоқот киради.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ўйин фаолияти билан уйғун ҳолда ташкил этиш қуйидаги босқичлардан иборат бўлади:

1. Дидактик ўйиндани кўзда тутилган мақсадни аниқлаш,

2. Дидактик ўйин сюжети ва иштирокчилар фаолиятини лойиҳалаш;

3. Ўйинда кўзда тутилган мақсадни амалга ошириш йўлларини белгилаш;

4. Дидактик ўйинни мақсадга мувофиқ ташкил этиш, унинг мазмуни, бориши мантиқий кетма-кетлиги, вакт баланси ва ўқувчиларнинг муаммоли ва зиятларни зудлик билан ҳал этишга этиборини қаратиш;

5. Ўйин иштирокчиларини рағбатлантириш;

6. Олинган натижаларни таҳлили қилиш;

7. Олинган натижаларга мувофиқ ҳолда ўйин структурасини ва боришга тегишли ўзгартиришлар киритиш.

Дидактик ўйинли дарслар орқали қуйидаги функциялар амалга оширилади:

-Таълим-тарбия бериш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READPUB.UZ

-Шахсни ривожлантириш;

- Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини йўналтириш;

-Билимларни назорат қилиш ва таҳлил қилиш;

-Касблар билан таништириш ва касбга йўналтириш;

-Ўқувчиларнинг мулоқот ва нутқ маданиятини ривожлантириш, улар ўртасидаги дўстона муҳитни яратиш.

Таълим-тарбия жараёнида бу функциялар мажмуа ҳолда амалга оширилади, лекин ўйинда ўрганиладиган дидактик ўйин турларида қайсидир функция устунлик қилади.

Масалан, конференция дарсларида шахсни ривожлантирш устунлик қилади, қолган функциялар унга илова бўлади, ижодий ўйинларда ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш, уларнинг мулоқот ва нутқ маданиятини ривожлантириш орқали дўстона муҳитни яратиш устунлик қилади, қолган функциялар уни тўлдиради.

Ўқитувчи дидактик ўйинли дарсларни ўтказишга қизғин тайёргарлик кўриши ва уни ўтказишга қуйидаги дидактик талабларга амал қилиш лозим:

1. Дидактик ўйинли дарслар дастурда қайд этилган мавзуларнинг таълимий, тарбиявий ва ривлжлантирувчи мақсад ва вазифаларнинг ҳал қилишга қаратилган бўлиши;

2. Амалиётдаги ва жамиятдаги муҳим муаммоларга бағишланиб улар ўйин давомида ҳал қилиши;

3. Баркамол шахсни тарбиялаш тамойилларига, шарқона одоб-ахлоқ нормаларига мос келиши;

4. Ўйин структурасини мантиқий кетма-кетликда бўлиши;

5. мазкур дарслардан дидактик принципларга мамал қилиши ва энг кам вақт сарфланишига эришиш керак.

Дидактик ўйинли дарсларнинг муваффақияти, аввало ўқувчиларнинг мазкур ўйинларга пухта ва қизғин тайёргарлик кўришларига, ўқитувчининг мазкур фаолиятини ташкил этиш ва моҳирлик билан бошқаришга боғлиқ.

Ўқитувчи аввал ўқувчиларни индивидуал, сўнгра гуруҳли ўйинларга тайёрлаши ва ўтказиши ва улар муваффақиятли чиққандан сўнг, оммавий ўйинларга тайёргарлик кўрилиши лозим. Шунингдек, дарсда **ижодий ўйинлардан фойдаланиш ўқувчиларнинг** ижодий изланиши, мустақиллиги мантиқий фикрлашини

ривожлантиришда, қўшимча билим олишга бўлган эҳтиёжларини қондиришда муҳим аҳамиятга эга.

Таълим жараёнида вужудга келтирилган муаммоли вазиятларни ўқувчилар гуруҳининг ўзаро ҳамкорликда аввал ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларни ижодий қўллаш ва изланиши орқали ҳал этишга замин тайёрлайдиган дидактик ўйинларни ижодий ўйинлар дейишимиз мумкин.

Ҳозирги кунда дарсни замонавий ёндошув асосида ўтиш, илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш, дарс самарадорлиги ва таълим сифатини ошириш энг муҳим жиҳатдир. Шу сабабли ўқитувчи доимий равишда ўз устида ишлаши, замон талабларига жавоб бериши керак.Ўқитувчи дарсда интерфаол усуллардан фойдаланиши дарс самарасини оширади. Асосийси, бунда ўқувчилар мустақил ўқиб-ўрганадилар, мустақил фикрлайдилар, ҳамкорликда ишлашни ўрганадилар. Шунингдек, нутқи ўсади, фикрлаши кенгаяди. Дарс муқаддас. Дарсни қизиқарли ва мазмунли ўтказиш, ўқувчиларни фанга бўлган қизиқишларини ошириш, уларда компетенцияларни шакллантириш ўқитувчининг касбий маҳоратига боғлиқ албатта. Демак, ўқитувчи доимий равишда ўзининг касбий маҳоратини ошириб бориши керак.

**Адабиётлар**

1.Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. “Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008.

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

3.Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.

4.Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

**Адабиёт дарсларида муаммоли таълимнинг ўрни ва аҳамияти**

Мамаюсупова Арзигул

Сурхондарё вилоят Жарқўрғон туман

43-мактаб ўзбек тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Адабиёт дарсларининг ўзга хос хусусиятлари. Адабиёт дарсларининг шакл ва турлари ҳақида. Адабиёт дарсларида муаммоли таълимнинг ўрни ва аҳамияти.

Ўқувчи ёшларнинг нутқининг равон бўлишида албатта адабиёт дарсларининг аҳамияти каттадир. Демак,адабиёт ўқитишнинг ўзак нуктасини адабиёт дарслари ташкил этади. Айни мана шу жараёнда ўқитувчи ва ўқувчи мулоқотларининг олий нуқтаси кўзга ташланади, Айни шу ерда улардаги хилма-хил нуқтаи назарларининг ўзаро рўпара келиши содир бўлади. Адабиёт дарсларини тасниф қилишда бир қатор қарашлар мавжуд. Улардан энг кенг тарқалганлари сифатида анъанавий ва ноанъанавий адабиёт дарсларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Шундай экан, адабиёт дарсининг мазмуни қандай бўлиши керак, у қандай типологик хусусиятларга эга, адабиёт дарсининг самарадорлиги нималарга боғлик, бунда ўқитувчининг ўрни ва мавқеи қандай белгиланади, ўқувчининг адабий жиҳатдан ривожи учун қандай йўл-йўриқлар тутилади, адабиёт дарсларининг ташкилий жиҳатларида қандай ўзига хосликлар бор? каби бир қатор саволлар пайдо бўлади. Гарчи адабиёт ўқитиш методикасига оид кўплаб тадқиқотларда бу саволларга хилма-хил жавоблар берилган бўлсада, амалиётчи ўқитувчилар уларга берилган яхлит ҳолдаги аниқ жавоб ва кўрсатмаларга мухтож бўлиб турибди. Адабиётга оид дарсларнинг шакллари кўп. Энг кўп тарқалган турлар сифатида маъруза, суҳбат, семинар, конференция, баҳс-мунозара, мусобақа ва бошқа дарсларни кўрсатиш мумкин.

Адабиёт дарсларининг назарий жиҳатлари ҳақида М.И.Махмутов, М.Н.Скаткин, Ю.К.Бабанский, В.В.Голубков, Н.И.Кудряшев, О.Ю.Богданова, Г.И.Беленький, Л.Н.Лесохина, Л.С.Айзерман, Е.Н.Ильин, А.Зуннунов, М.Мирқосимова, Қ.Йўлдошев, С.Матжонов ва бошқа методист олимларнинг тадқиқотлари мавжуд. Уларда адабиёт дарсларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари, уларга қўйиладиган замонавий талаблар, адабиёт дарсларида ўқувчилар фаолиятини йўлга қуйиш ва уни фаоллаштириш, замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиш, дарс самарадорлигини ошириш, адабиёт дарсларининг маърифий, тарбиявий, эстетик жиҳатлари, бадиий асарни таҳлил қилишда адабиёт дарсларининг ўрни ва аҳамияти, бунда ўқувчиларнинг мустақил, ижодий ишларни ташкил этишнинг йўл ва усуллари ҳақида батафсил маълумотлар берилган. Мазкур тадқиқотлар назарий жиҳатдангина эмас, амалий жиҳатдан ҳам ўқитувчиларимиз учун дастурул амал бўла олади Адабиёт дарсларида ўқувчилар билан ишлашнинг турли шаклларидан фойдаланиш имконлари мавжуд.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Хусусан, гуруҳ билан ва ҳар бир ўқувчи билан алоҳида ишлашнинг қўшиб олиб борилиши яхши самаралар беради. Адабиёт дарсларида ўқитувчи шахсининг мавқеи алоҳида ўрин тутади. Айнан мана шу шахс дарснинг мақсад ва вазифаларини, адабий материални танлашни, қайси мавзуларни ўтишда қандай метод ва шакллардан фойдаланишни белгилайди, дарс жараёнининг ташкил этилишини бошқариб боради. Адабиёт дарсларнинг олдига қуйилган педагогик вазифаларнинг ечилишидаги воситалар сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин: 1. Адабий матриалнинг мазмуни. 2. Уни ўрганиш усуллари. 3. Ўқитишнинг техник воситалари. 4. Ўқувчиларнинг мустақил ишларини амалга ошириш имиконини берадиган дидактик материаллар. 5. Ўқувчилар фаолиятини ташкил этиш. 6. Ўқитувчи шахси (М. Н. Скаткин) Адабиёт дарсларининг таркибий қисмлари ва бу қисмларнинг ўзаро муносабаталари алоҳида эътиборга молик . Анъанавий дарсларда одатда дастлаб уй вазифаси ёппасига сўраб чиқилади, кейин янги мавзу ўтилади, у мустаҳкамланади, ўқувчиларга уй вазифаси топширилади. Бу жараёнларни ташкил этиш ва амалга оширишда етакчи шахс сифатида ўқитувчи майдонга чиқади. Узоқ йиллар давомида ҳукмронлик қилиб келган мазкур шакл бугунги кунда замонавий талабларга жавоб бермай қолди. Шунинг учун ҳам унинг ўрнига янгича шакл ва усуллар кириб келяпти, таълим жараёнида янгича педагогик технологиялар даври бошланди деб айта оламиз.

Эндиликда илғор адабиёт ўқитувчилари дарсни уй вазифасини сўрашдан эмас, тўғридан – тўғри уй вазифасини беришдан, янги мавзуни баён этишдан, ўқувчиларга мустақил вазифалар топширишдан бошлаётганлари одатдаги ҳолга айланиб бормоқда. Бу жараёнларда, айниқса, ўқувчи шахсининг фаоллашувига имкон берадиган усул ва шаклларга устиворлик берилаётганлиги очиқ сезилади. Дарсда ўқувчиларнинг олдин олган билимлари фаоллаштирилади, уларда янги тушунчалар, кўникма ва малакалар шакллантирилади. Адабиёт дарслари ҳам одатда, янги билимларни бериш, мавжуд билим ва малакаларни мустаҳкамлаш, ўтилганларни такрорлаш, ўқувчилар эгаллаган билим, кўникма ва малакаларни назорат қилиш каби турларга бўлинади. Алоҳида адиблар, адабий асарлар, улар яшаган ёки яратилган тарихий даврлар билан боғлиқ ҳолда эса кириш машғулотлари, ўқиш, бадиий асарни таҳлил қилиш якунловчи машғулотлар ташкил этилиши мумкин. Бевосита материалнинг мазмуни ва мақсадидан келиб чиққан ҳолда бадиий асарнинг ўзини ўрганиш, адабий-назарий тушунчаларни ўрганиш, ўқувчилар нутқини ўстириш каби дарслар ажратилади. Бадиий асарни идрок этиш, унинг матни устида ишлаш, асар устидаги умумлаштирувчи ишларни ташкил этиш билани боғлиқ бўладиган дарслар ҳам мавжуд. Адабиёт дарсларида ўқувчилар олган билимларини, эгаллаган кўникма ва малакаларини назорат қилиш ҳам муҳим амалий аҳамиятга эга. Кейинги пайтларда бу соҳада айниқса, тест саволларига жавоб олиш йўли билан ўқувчилар билимини баҳолаш кенг ёйилди.

Айрим тарихий саналарни билишда, ёзувчининг ҳаётига, адабий асарнинг яратилишига боғлиқ факт ва ходисаларни ўрганиш билан алоқадор ҳолда бу усулдан фойдаланиш яхши самаралар беради. Аммо ўқувчининг адабий асарни идрок этиш даражасини, унинг адабий қобилият ва истеъдодини тўла билиш ва баҳолаш учун фақат

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тест синовларининг ўзи камлик қилади. У оғзаки суҳбат, ўқувчиларнинг ёзма нутқ малакаларини кузатиш билан қўшиб олиб борилсагина баҳолаш тўлақонли, мукаммал ва бенуқсон бўлади. Адабиёт дарсларининг самараси ҳақида гапирганда, биринчи навбатда, унинг ўқувчи шахсининг камол топишидаги фойдалилиги назарда тутилади. Бунда, табиийки, унинг фикрлаш қобилиятига ижобий таъсир ўтказиш имконияти асосий ўрин тутади.

Адабиёт дарслари шундай ташкил этилиши керакки, ўқувчилар бутун дарс давомида ўқув фаолиятининг ичида бўлсин, бирор дақиқа бўлсин ижодий ишлаш имкониятидан ташқарида қолмасин. Биз буни бежиз айтаётганимиз йўқ. Айрим тадқиқотчиларнинг гувоҳлик беришича, «анъанавий мактабларда ўқувчилар меҳнат таълими, хорижий тиллар, жисмоний тарбия дарсларида, амалий ҳамда назорат ишларини бажариш вақтида энг фаол тарзда иштирок этишади. Қолган барча аралаш типдаги дарсларда ўқувчининг дарсдаги фаоллиги жуда пастлигича қолмоқда. Тахминан тўртдан бир қисм ўқувчиларгина эътиборли, меҳнаткаш, қолган (75 %гача) кам ҳаракат, тахминан 1/4 и дарсда умуман ишламайди» 1 . Агар руҳшунос олимларнинг соғлом туғилган болаларда қайсидир бир соҳага табиий равишда қобилиятнинг бўлмаслиги мумкин эмаслиги ҳақидаги хулосаларини назарда тутадиган бўлсак, бундай натижалар учун болалар, ўқувчилар айбдор эмаслигини тан олишга тўғри келади. Бундай кўрсаткичларнинг асосий омили дарсларни ташкил этишдаги асосий методлар, ўқитувчининг иш тажрибаси ва педагогик маҳорати билан чамбарчас боғлиқдир. Тошкент шаҳридаги 70-мактабнинг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси, илғор ўқитувчиларнинг Республика танлови ғолиби Дилфуза Ғаниеванинг эътирофича, синфда ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий фаолиятлари ҳукмронлик қилмас экан, бу ерда уларнинг фаол иштироки ҳақида гап, тўлақонли ўзлаштиришлари ҳақида ҳам гап бўлиши мумкин эмас. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг ҳам назарий, ҳам амалий аҳамияти мавжуд. Мустақил фикрлаш кўникмасига эга бўлган ўқувчининг билими кенг ва чуқур, пишиқ ва барқарор бўлади. Бундай ўқувчилар билимларини турли шароитларда амалиётга қўллай оладиган бўлишади. Мустақил ишлар туркумига қуйидагиларни киритиш мумкин: - ўқувчиларнинг ақлий-иродавий, жисмоний кучларини талаб этадиган ишлар; - муайян билимларни эгаллаш билан боғлиқ ишлар; - бевосита амалий топшириқларни бажаришга йўналтирилган ишлар; - муаммоли вазифтни ҳис этиш ва уни бартараф қилиш билан боғлиқ ишлар; - топшириқ ёки вазифани бажариш жараёнида ижодий ёндашишни талаб қиладиган ишлар; Мақсадига кўра эса мустақил ишларни қуйидагича ажратиш мумкин бўлади: 1. Янги билимларни ўзлаштиришни кўзда тутадиган мустақил ишлар. 2. Олинган билимларни амалиётга татбиқ қилиш билан боғлиқ мустақил ишлар. 3. Такрорлаш билан алоқадор бўлган мустақил ишлар. 4. Ўқувчиларнинг олган билимлари, эгаллаган кўникма ва малакаларини текшириш, назорат қилиш учун қўлланадиган мустақил ишлар. В.П.Стрезокозин мустақил ишларнинг қуйидаги турларни кўрсатади: 1. Дарсликлар билан ишлаш. 2. Маълумотнома характеридаги адабиётлар билан ишлаш. 3. Мисоллар устида ишлаш ва уларни қиёслаш. 4. Ўқув машқларини бажариш. 5. Иншо ва баёнлар ёзиш. 6. Ҳар хил чизма, жадвал ва расмлардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

мустақил ишлар. Ўқитувчининг ўз дарси олдига қўйган мақсади, таълим муассасасининг белгилаган вазифасига кўра таълим муаммоли ёки оддий – муаммосиз бўлиши мумкин. Ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини ривожлантиришни асосий мақсад қилиб олган педагогик жамоа, уларнинг ижодкорлигига йўл излаётган ўқитувчилар муаммоли таълимни четлаб ўтишолмайди. Муаммоли таълимни танлаган ўқитувчи ҳам, пдагогик жамоа ҳам ўз олдига қўйган мақсад ва вазифаларни тўғри ва самарали ҳал этиши мумкин. Шундай экан, биз дастлаб бир саволни ўртага қўйишимиз ва унга жавоб излашимиз керак бўлади. Табиийки бу савол «Муаммоли таълим деганда нимани тушунамиз? Унинг моҳияти нимадан иборат?» тарзида шаклланади. Дастлаб, муаммолилик тушунчасининг ўқув жараёнининг тузилишига, ўрганилаётган материалнинг мазмунига, ўқувчиларнинг ўқув-билув жараёнларини ташкил этиш усулларига, бу жараёнларни бошқаришга дахлдор эканлигини таъкидлаш жоиз. Бу нарса ўқувчиларга ўтиладиган дарснинг ўзини ҳам, улар олиши лохим бўлган билим, эгаллашлари лозим бўлган кўгикма ва малакаларни ҳам қамраб олади. Ўқитувчи қўлга киритадиган ютуқ, унинг педагогик фаолиятидаги юксак самара кўп жиҳатдан муаммоли таълим жараёнини ташкил этиш назариясининг мазмуни ва моҳиятини нечоғлик англаб етганига, таълим методлари, техник воситаларини қанчалик ўзлаштирганига, олган назарий билимлари ва ўзи тўплаган тажрибаларни амалиётга қанчалик узвий ва тизимли тарзда татбиқ этишга боғлиқ. Ўқитувчининг юксак назарий тайёргарлиги, ўз соҳасидаги фан асосларини пухта билиши, айни пайтда педагогика нрахарияси ва тарихидаги асосий кашфиёт ва қонуниятларни пухта эгаллаганлиги, методика соҳасидаги янгиликлар ичида яшаши муҳим омиллар қаторида туради. Лекин булар силсиласида дарс жараёнининг ўзини алоҳида таъкидлаш жоиз. Чунки дарс ўқитувчининг борлигини намоён қиладиган жараён. Худди шу жараёнда ўқитувчи ўзининг бутун маҳоратини намоён қилиши, ўқитувчилкнинг санъаткорлик даражасидаги касб эканлигини амалда кўрсатиши ёки унинг аксига эришиши мумкин. Яхши ўқитувчининг дарси бир соатлик спектаклга айланади. Бунинг натижасида эса бутун синф шу фанга нисбатан айрича меҳр ва муҳаббат билан қарайдиган бўлади. Кўплаб ўқув предметларининг ўқувчилар томонидан «яхши кўриб қолинишига» айнан ўқитувчилар сабабчи эканлигини тасдиқловчи мисоллар жуда кўп.. 2. Муаммоли таълимнинг назарий асослари. Бугун жамиятимиз олдидаги асосий вазифа – баркамол авлодни тарбиялаб етиштиришдан иборат. Баркамолликнинг белгиси нимада? Бу дастлаб, ёш авлоддаги фикрлаш қобилиятининг даражалари орқали белгиланади. Агар уларда юқори даражадаги фикрлаш қобилиятлари шаклланган бўлса, демак, мақсад амалга ошган бўлади. Бунинг асосий белгилари эркин ва ижодий фикрлашда намоён бўлади.

Муаммоли таълимнинг методлар тизими ҳақида М.Н.Скаткин ва И.Я.Лернерлар таснифи маълум ва машҳурдир. Уларга кўра: 1) Тушунтирувчи - иллюстрацияли; 2) Репродуктив; 3) Муаммоли баён; 4) Қисман изланувчилик; 5) Тадқиқотчилик усуллари мавжуд. Муаммоли таълимга асосланган дарсларнинг таркиби: 1) ўқувчиларнинг олдин олган билимларини фаоллаштириш; 2) Янги билимлар ва ҳаракат усулларини эгаллаш; 3) улардаги кўникма ва малакаларни

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

шакллантиришдан иборат бўлиши мумкин. Муаммоли дарс кўрсаткичларининг энг асосийси унда изланувчилик элементининг мавжуд бўлиши билан белгиланади. Демак, айни шу қисм муаммоли дарснинг асосий ички бўғинини ташкил этади. У: 1) муаммоли вазиятни юзага келтириш ва муаммонинг қўйилишини таъминлайди; 2) тахминларни олға суриш ва гипотезани асослашни тақазо этади; 3) гипотезани исботлайди; 4) муаммони ҳал қилишнинг тўғрилигини тасдиқлашга хизмат қилади. Буларнинг барчаси ўқувчиларнинг мустақил фикрлашига, ҳар бир адабий ҳодисага нисбатан ижодкорлик билан ёндошишларига имконият яратади. «Ҳар бир дарсда пайдо бўлган муаммоли вазият ўқувчиларда асарни бир бутун таҳлил қилишда фикрни фаоллаштиради, узлуксиз таҳлилни юзага келтиради. Муаммоли таҳлилда ўқитувчининг ўртага қўядиган саволидан ташқари, асар юзасидан ўқувчилар ҳам саволлар берадилар. Саволлар асосида қилинадиган таҳлилнинг афзаллиги шундаки, биринчидан, ўқувчилар таҳлилда қийинчиликни ҳис этадилар ва уларни енгишга ҳаракат қиладилар, иккинчидан, таҳлил бир мақсад томон йўналтирилиб, ўқувчилар умумий масалани ҳал қилишга имконият берадиган йўлни топишга ҳаракат қиладилар. Шу зайлда таҳлилда бир бутунлик ҳам юзага келади» 1 . Муаммонинг тўғри қуйилиши, муаммоли вазиятдан ўз ўрнида фойдаланиш қанчалик муҳим ва аҳамиятли, самарали бўлса, ундан нотўғри фойдаланиш, муаммоли вазият моҳиятини тўла идроек этмаслик шунчалик хато ва зарарлидир2 . Буларнинг барчаси адабиёт дарсларининг мазмунни бойитиши, ўқувчи шахсининг маънавий жиҳатдан бойиши, эстетик жиҳатдан сезувчанлигининг, ҳиссиётларининг кучайишига ижобий таъсир кўрсатадионини...фазилатлари бўйича....

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, дарсларни замонавий ёндашувлар асосида ташкил қилиш ва ўтиш, дарсда интерфаол усуллардан фойдаланиш ўқувчи ёшларнинг ёзма ва оғзаки нутқини ўстирибгина қолмай,балки уларнинг тафаккурини ўстиради,фикрлаш доирасини кенгайтиради, таҳлил қилишга ўргатади, муаммо ечимини топишга,маълумотларни кераклиларини саралашга, баҳс маданиятига ўргатади,хаёьтй кўникмаларни шакллантиради.

Адабиётлар

1. Долимов С., Убайдуллаев Ў., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси, - Т.: Ўқитувчи, 1967.

2. А.АбдуҚафуров. Буюк бешлик сабоқлари. Мақолалар. - Тошкент, ў.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995,

3.эАзизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент, 2003.

4. Ахмедов С. Адабиёт дарсларида эпик жанрларни ўрганиш. Адабиёт ўқитувчиларига ёрдам. – Т.: Ўқитувчи, 1986

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

5. Долимов С., Убайдуллаев Х. «Адабий ўқиш методикаси» Ўқув.пед.давнашр Т.: 1952 й.

.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Таълим сифатини оширишда компетенциявий ёндошув ва инновациялар ҳамда дарс самарадорлигини ошириш омиллари**

**Бўтаев Сайдулла Бобоқулович**

Сурхондарё ввилояти Шеробод тумани

15-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Таълим сифатини оширишда компетенциявий ёндошув . Таълим сифатини оширишда инновациялар. Дарс самарадорлигини ошириш омиллари

Ҳозир умумтаълим мактабларимизда ўқитувчи шахси, унинг обрў ва нуфузи, моддий ва маънавий қўллаб-қувватланиши ҳам ҳавас қилса арзигулик. Галдаги вазифа эса таълим-тарбия жараёнини мазмунан такомиллаштириш, уни сифат жиҳатдан тамоман янги босқичга кўтаришдан иборатдир.

Тараққиёт ўз шиддати билан ҳаёт тарзимизга кириб келаётган бир пайтда мураккаб техника ва технологиялар фарзандларимиз онгу шууридан ҳам мустаҳкам ўрин эгалламоқда. Бундай вазиятда ўқувчига бирор янги билим бериш, уни ўқиш ва изланишга ўргатиш учун ўқитувчидан жуда катта маҳорат талаб қилинмоқда. Табиийки, бу жараён касбини севган, ардоқлаган, ўзини ҳурмат қилган ҳар бир педагогни изланишга, янгидан-янги педагогик усул ва услублар, технологияларни ўрганишга, кашф қилишга ундамоқда.

**М**устақиллик йилларида таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини замон талаблари даражасига кўтариш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Таълим устуворлиги, таълим мазмуни ва тузилиши ўзгармоқда, янги стандартлар жорий этилмоқда, таълим сифати ривожланишнинг янги, янада юқори босқичига кўтарилмоқда. И.А.Каримов таъбири билан айтганда, “Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта, бахтли бўлишлари” учун мустақиллик йилларида халқ таълими тизимида барча шарт-шароитлар яратилмоқда, шахсга йўналтирилган таълим стратегияси амалга оширилмоқда, таълим тизимида инновацион фаолликнинг жадаллашуви кузатилмоқда. Бугунги кунда илм-фан, техника ва ахборот коммуникацион технологиялар, ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши таълим тизими ходимларидан таълим-тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтариш, бунда инновацион технологиялардан самарали фойдаланишни талаб этиб, ҳар бир тизим ходими, айниқса ўқитувчилар зиммасига янада юксак масъулият ва вазифаларни юклайди. Умумий ўрта таълим муассасалари таълим жараёнига инновацияларни татбиқ этиш ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятидан бошланади. Чунки ўқитувчи таълим ва тарбия жараёнининг етакчиси, ташкилотчиси бўлиб, унинг инновацион маданияти, ташаббускорлиги, ижодий фаоллиги, креатив фикрлаши, новаторликка бўлган интилиши таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ҳисобланади. "Инновация" сўзи лотин тилидаги "inovatis" (in - ичига, novus – янги, янгилик) сўзидан олинган бўлиб, таржима қилганда "янгилик киритиш, ижобий ўзгариш, янгиланиш" деган маъноларни англатади. Инновациялар илмий-амалий жиҳатдан асосланган, бирон-бир соҳада аниқ мақсадга қаратилган ҳамда амалий татбиқ этишга йўналтирилган юқори самарадорликка эга янгилик ҳисобланади. Педагогик инновация дейилганда самарали натижага эришиш мақсадида таълим-тарбия жараёнига янгиликлар, ижобий ўзгаришлар киритиш тушунилади. Педагогик инновациялар илмий мактабларда, таълим амалиётида ҳамда олим ва педагогларнинг ижодий фаолияти натижасида вужудга келади. Инновация ҳар томонлама пухта режалаштирилган, ўқув жараёнига мақсадли киритилаётган янги таълимий амалиёт (янги тартиб, услуб, метод, методология, технология ва бошқ.) ҳисобланади. Инновациянинг ўзига хос хусусияти қуйидагилар ҳисобланади: – инновациялар доимо долзарб муаммонинг янги ечимини ўз ичига олади; – улардан фойдаланиш янги сифатли натижаларни олиш имконини беради; – инновацияларни татбиқ этиш тизимдаги барча компонентларнинг сифатий ўзгаришларига олиб келади. Педагогик инновацияларнинг самарадорлигини аниқлашда диагностика методидан фойдаланиш яхши натижа беради. Мазкур метод уч босқичда амалга оширилади. Педагогик инновацияларнинг самарадорлигини аниқлашга йўналтирилган диагностика методининг биринчи босқичида ўқитувчилардан анкета сўровномалари олинади. Анкета сўровномалари экспертизадан ўтказилади. Индивидуал суҳбат жараёнида анкета маълумотлари аниқлаштирилади. Диагностик маълумотлар таҳлил қилинади. Педагогик инновацияларнинг самарадорлигини аниқлашга йўналтирилган диагностика методининг иккинчи босқичида биринчи босқичдан олинган аниқ маълумотлар асосида ўқитувчиларнинг касбий-педагогик малака даражасини ошириш бўйича иш режа тузилади ва 4 режа амалга оширилади. Диагностика материаллари таълим муассасаси методик фаолият, фан йўналиши бўйича методик комиссия иши, индивидуал методик иш режаларига киритилади. Педагогик инновацияларнинг самарадорлигини аниқлашга йўналтирилган диагностика методининг учинчи босқичида ишнинг якуний натижаси чиқарилади. Мазкур босқичнинг вазифаси ўқитувчи фаолиятининг оралиқ ва якуний натижаларини аниқлаш, педагогик жамоа ичида содир бўлган ўзгаришларни таҳлил қилиш, фан йўналиши бўйича методик бирлашма ва комиссиялар ишини баҳолаш ва таҳлил қилишга йўналтиришдан иборат. Инновацион педагогик жараёнларни диагностика методидан фойдаланиб ўрганиш қуйидагиларни назарда тутади: – ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятда муайян қийинчиликларни бартараф этиш асосида шаклланадиган касбий-педагогик қизиқиш, эҳтиёж ва қадриятларини тизимли ўрганиш; – ўқитувчиларнинг эҳтиёж ва қизиқишларини қондиришга йўналтирилган илғор педагогик тажриба йўллари, концепция ва технологияларини излаб топиш; – ўқитувчиларнинг хусусиятига мос келадиган педагогик инновацияларни ўзлаштириш

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ва татбиқ этиш турларини танлаш. Педагогларнинг инновацион маданиятини ривожлантиришдан кўзланган асосий мақсад бу сифатли таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш орқали самарадорликка эришишдан иборат

Айни вақтда таълим соҳасида ислоҳотлар амалга оширилмоқдаки, бу педагог кадрлар салоҳияти, уларнинг касбий ва методик маҳорати, таълим мазмуни ва сифатини мунтазам ошириб боришга эришишни долзарб масала қилиб қўймоқда.

Таълим жараёнини самарали ташкил этиш, дарсни қизиқарли ўтишда қуйидагилар: кичик маъруза,амалий машғулотлар,қўшимча дарслар, тренинг,баҳс-мунозара,конференция,экскурсия,тақдимот,кичик гуруҳларда ишлаш,беллашувлар,кластер,БББ,ФСИ каби усулларни қўллаш,дарсда замонавий таълим технологияларини қўллашни тақозо этади.

Замонавий таълим технологиялари қуйидагилардан иборат:

*муаммоли таълим машғулотларини ташкил этиш ва бошқариш;буни учта босқичда амалга ошириш мумкин:муаммоли вазият ҳосил қилиш,муаммони ечиш тахминларини шакллантириш,ечимнинг тўғрилигини текшириш;

*назарий маълумотларни беришга асосланган амалий ролли ва компьютер ўйинлари;

*ижодий муҳит яратиш, ўқув тарбиявий масалаларни ечишга йўналтирилган технология;

*тренинглар(таълим давомида муайян турдаги масалаларни ечиш,билиш фаолиятига таъсир этувчи омилларга асосланган технология).

Замонавий дарс шундай дарски,унда ўқитувчи ўқувчининг мавжуд имкониятлдаридан уддабуронлик билан фойдаланиб,унинг ақлий лаёқатини ишга солиб,ўсиб боришни таъминлайди. Дарсни шундай ташкил қилиш керакки, унда ўқувчиларни мустақил фикрлаш,ижод этиш ва изланишга сафарбар этиш,дарс жараёнида ишончва эркинлик муҳитини яратиш, ижодий ва амалий мулоқотда бўлишни таъминлаш,ўқувчи фикрини изоҳлаш,таҳлил қилиш,талқин этиш,ижодий муҳит яратиш,кичик гуруҳларда ишлашда ҳамкорлик фаолиятини,ўқитиш самарадорлигини ошириш мумкин бўлсин.

Дарсда инновацион ёндошув ўқитувчи-ўқувчи ҳамкорлигини таъминлайди. Бу борада ўқитувчи аниқ вазиятларни ўрганиш методидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ. Бунда:

*дарс мазмун моҳиятини сингдириш,аниқ фикр билдириш,фикрлашга, изоҳлашга,қидириб топишга,хулосалашга ўргатиш;

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

*мустақил ишлашга,ўз-ўзини тарбиялашга,ижодий муҳит яратиш,фикрлаш,сўзлаш маданиятига ўргатиш;

*билим,кўникма,малакаларини ошириш,педагогик-психологик муҳит яратиш;

*янги билим ғояларини ижодкорлик билан ўрганиб ўзлаштириш,лойиҳалаш,моделлаштириш,амалиётга татбиқ этиш;

*таълим жараёнини таълим берувчи ва таълим олувчининг ҳамкорлик фаолияти сифатида ташкил этиш;

*таълим берувчилар фаолияти самарадорлигини ошириш,таълим соҳасини ривожлантириш;

*дарсда билим ва фикр эркинлиги,интерфаол методларидан фойдаланиш.

*дарсда АКТдан фойдаланиш ва ш.к.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ҳозирги куннинг талабига жавоб бера оладиган,ҳар томонлама билимли, кўп қиррали, янгиликларни ўзлаштира оладиган ва ҳаётга татбиқ эта оладиган,компьютер саводхонлигига эга ва дарсда АКТдан фойдалана оладиган, ўз тилидан ташқари инглиз ва рус тилларини ҳам билиши ёки крганишга ҳаракат қиладиган ўқитувчи замонавий ўқитувчидир. Бундай ўқитувчилар баркамол авлод тарбияси йўлида масъуллигини унутмаган ҳолда жўшқинликда фаолият юритади.

Таълим-тарбия мазмунининг узвийлиги ва изчиллигини таъминлаш мақсадида **таянч компетенциялар** *(бугунги кунда тажриба тадқиқотдан ўтказилаётган компетенциялар: Коммуникатив, Ахборот билан ишлаш, Шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш, Ижтимоий фаол фуқаролик, Умуммаданий, Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш)* ҳамда таълимда ҳар бир ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида ўқувчиларда, шу фаннинг ўзига хослиги, мазмунидан келиб чиққан ҳолда, соҳага тегишли **фанга оид компетенцияларни** шакллантириш назарда тутилган. Бу вазифани амалга ошириш учун педагог кадрларимиз тайёрми, бунинг учун ўқитувчининг ўзида қандай компетенциялар шаклланган бўлиши керак? Замонавий ўқитувчи, маҳоратли ўқитувчи… – компетентли ўқитувчими? У қандай талабларга жавоб бериши лозим? каби кўплаб саволлар туғилиши табиий. Ўқитувчининг касбий компетентлиги талабларидан айримларини кўрсатиб ўтамиз:

– давлат таълим стандартига мос келадиган таълим – тарбия мақсадини аниқ ва равшан белгилаши керакки, натижада маълум вақт ичида унга эришишни таъминлайдиган ижобий натижа тўғрисида хулоса қилиш мумкин бўлсин;

– ўқув-тарбиявий жараён мазмунини Давлат таълим стандарти талаблари ва ўқув дастури бўйича чуқур эгаллаши, мунтазам равишда ўз педагогик маҳоратини илмий-техникавий тараққиёт талабларига мос ҳолда ривожлантириб бориши лозим;

– Дидактик жараённи амалга ошириш талаблари билан таниш бўлиши керак: бу – жадаллаштириш ва табиатан монандлик талабидир. Жадаллаштириш дидактик масалаларни маълум вақт доирасида бир мунча тез ва юқори савияда еча оладиган метод ва усулларни қўллашни талаб этади. Таълим ва тарбияда бу талабни аниқлаб берувчи омил-ўқувчиларнинг маълум компетенцияларни ўзлаштириш тезлиги ҳисобланади. Иккинчиси ўқув-тарбиявий жараённи шундай ташкил этишга асосланганки, бунда мумкин қадар ўқувчиларнинг кенг доирада таянч ҳамда фанга оид компетенцияларни эгаллашига имкон туғдирадиган ва уларнинг компетентлигини ривожлантира оладиган бўлиши шарт.

– ўқув-тарбия жараёнини амалга оширишда ўқитишнинг самарали шаклларидан фойдалана олиши керак. Ўқитишнинг ташкилий шакллари ва воситалари тўғри танланиши педагогик жараён элементларининг маълум қонуният асосида бир-бирлари билан боғлиқ ҳолда таъминлаш.;

– ўқув-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ҳаёти, соғлиғи ва ахборот хавфсизлигини таъминловчи ижобий психологик-педагогик шарт-шароитни яратиш;

– ўқувчининг таълим мазмуни ва тарбия таъсирини яъни компетенцияларни қай даражада эгаллаётганлигини энг мақбул усуллар ёрдамида доимо назорат қилиб бориши лозим. Бу тўғрида олинган ахборотлар эса педагогик жараённи мақсадга мувофиқ тарзда бошқариш имкониятини беради.

Ўқувчиларда компетенцияларни, компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш фақат ўқитувчи томонидан ёки фақат таълим муассасасида амалга оширилмайди. Бу жараён оилада, атроф-муҳитда, жамоада ва инсон иштирокидаги барча вазиятларда юз беради ва унинг бутун ҳаёти мобайнида давом этади. Демак, фарзандларимизнинг компетентли бўлиши учун ҳар биримиз ўз соҳамиз, касбимиз бўйича компетентли бўлмоғимиз лозим.

***Адабиётлар***

1. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

3.Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

4. Фарберман Б.Л. «Прогрессивные педагогические технологии» - Т. 1999.;

5.Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001.

6. Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. "Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишда ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришнинг аҳамияти

**Джалилова Башорат Атахановна**
Сурхандарё вилоят Денов тумани

10- ИТФЧЎИУМ ҳуқуқшунослик фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишда ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришнинг аҳамияти . Ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришда ўқитувчиларнинг вазифаси.

Биз ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этияпмиз. Олдимизда турган вазифалар талайгина. Ҳуқуқий давлат ва фуқароик жамиятини барпо этишда ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришнинг аҳамияти каттадир. Ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришда эса ўқитувчиларимизнинг вазифаси муҳимдир. Ўқитувчи ўз дарслари ва синфдан ташқари ишлари орқали бу вазифаларни бажариб боради. Ўкувчи ёшларга билим бериш билан бирга уларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш,маънавиятини юксалтириб бориш жоиздир.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг ҳуқуқий саводхонлигини оширишда нафақат ҳуқуқ дарслари, балки синфдан ташқари ишларни ҳам ўтказиш, оила, ўқувчи, маҳалла билан ҳам алоқада бўлиб,давра сухбатлари ташкил қилиш ҳам самарали усуллардандир.

Мактаб ўқувчилари томонидан қонун бузилишларининг олдини олиш учун масъуллик кўпроқ уларнинг зиммасига тушганлиги учун машғулотлар орқали керакли маслаҳатларни бериш зарур. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясисининг 64-моддасида ота-оналарнинг ўз фарзандлари вояга етгунга қадар боқиш ва тарбиялаш мажбурлиги ёзиб қўйилган. Бу модданинг мазмуни ва моҳияти ўзбек менталитетига, миллий хусусиятимизга қанчалик тўғри келиши барчага аён. Ота-она бутун ҳаётини фарзандига бағишлайди. Бу хусусиятни барча миллатга намуна қилиб кўрсатса арзийди.Шундай бўлса-да, ёмон ота ёки ёмон она ҳам баъзида учраб қолади. Бундай салбий хусусият уларда қачон пайдо бўлган? Буни оила кодексидаги, конституциямиздаги мазкур қонунлар мазмунини билмаслик, моҳиятини англаб етмаслик, деб тушуниш керак. Агар уларнинг қачонлардир мактаб партасида ўтирганлигини ҳис қилсак,мустақил ҳаётга тайёр бўлмаганликларини англаймиз.Бу ерда вазифа ўқитувчига келиб тушади. Демак, ўқитувчи бу ҳолни

оилага, маҳаллага тўнкаб, бу муаммони копток мисол ирғитмасдан, ўз фарзанди каби меҳр билан қараб, болаларнинг камолотини белгилаб берганда эди, жамиятимизда ёмон отлиқ одамлар учрамаган бўлар эди. Фан ўқитувчиси, ҳуқуқ фани ўқитувчиси ва синф раҳбарлари ўз устида ишлаб, давлат, ҳуқуқ, бола ҳуқуқлари кафолатлари, қонун устиворлиги каби ҳуқуқий билимларни пухта эгаллаб, мактабда дарс ўтиш жараёнида мавзуга мослаб ёки тарбиявий соатларда уларни ўқувчиларга етказиши керак. Ўқитувчи олий маълумотли мутахассис бўлганлиги учун бундай ишларни маҳорат билан бажара олади. Натижада, ўқувчилар бутун ҳаёти давомида устозларидан миннатдор бўлиб яшайдилар.

Болаларга тўғри йўл кўрсатсангиз, ширин гапирсангиз, сизни энг яқин кишиси сифатида қабул қиладилар. "Бекор юрмай фойдали иш билан машғул бўл", "Бўш вақтингда спорт билан шуғуллан","Тўгарак машғулотларига бориб, ёқтирган касбинг бўйича дастлабки билимларни эгалла", деган йўл-йўриқларингизнинг аҳамияти қанчалик катта эканлигини, улар кейинчалик тушунадилар.

Умумтаълим мактабларида ҳуқуқшунослик фанларининг ўқитилиши,хусусвн, 8-синфда "Давлат ва ҳуқуқ асослари", 9-синфда "Конституциявий ҳуқуқ асослари" дарсларида ҳуқуқ, бурч, ўзаро муносабат меъёрлари тўғрисида билимлар берилса, ўқувчилар ёшлик чоғларидан бошлаб,масъулият ҳисси билан яшайдиган бўладилар. Қонун бузилишлари, майда безорилик, ўғирлик, товламачилик каби жиноятни келтириб чиқарувчи сабаблардан ўзларини ҳимоя қвиладилар. Шу ўринда нос чекиш, кашандалик, гиёҳвандлик, қиморбозлик каби зарарли одатлардан ўзларини сақлайдилар.

Оила муҳитидаги соғлом турмуш тарзи баркамол авлодни тарбиялаш омилидир. Бунда ота-она намунаси, боболар ўгити кўп нарсаларга боғлиқ. Буюк Муаллим-Конфуций ота-онани ҳурмат қилиш инсонийликнинг ибтидоси эканлиги ҳақида қуйидагиларни айтади:"Болалар уйида ота-оналарини ҳурмат қиладилар, кўчада катталарнинг гапига кирадилар, эҳтиёткор ва адолатли бўладилар, ҳаммани севадилар, мурувватли кишиларга яқин бўладилар. Имконияти бўлса, илм ўрганишга интиладилар". Шунингндек, Ўзбекистон Республикаси Констимтуциясининг 66-моддасида ҳам вояга етган, меҳнатга лаёқатли фарзандларнинг ўз ота-оналарига нисбатан ғамхурлик қилиши тўғрисида кўрсатиб ўтилган. Шундай экан, оилада катталар шахсий намуна кўрсатмаса, фарзанд ота-онасидан қўрқса, тортинса, кимдан андоза олади, қандай одам бўлиб етишишни кимдан сўраб ўрганади?

Жанжалкаш оила маҳаллада саноқли, аммо битта бўлса ҳам жамиятимиз учун зарарли. Бундан ташқари, нотинч оила фарзандлари маънавиятли бўлиб ўсмайдилар. Мактабда бир нафар маънавиятсиз боланинг мавжудлиги кечирилмас ҳол. Шундай бола келгусида ота-онасини ҳурмат қилмайди, жамиятга фойда келтирмайди.

ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Бировларга таъсир ўтказишга ўч, жиноятга мойил бўлади. Бундай ўқувчи билан тарбиявий ишларни олиб бориш режали, узлуксиз педагогик-психологик ташхис асосида олиб бориладиган жараён.

И.Каримов бу борадаги вазифаларни кўяр экан, "Юксак маънавият-енгилмас куч"номли асарида:"Чиндан ҳам, агар одамзот бу дунёда руҳан пок бўлиб, ироддаси бақувват,имони бутун,виждони уйғоқ бўлиб яшамас экан,инсон ҳаётининг қандай маъноси қолади? Мана шу савол ҳар бир соғлом фикрлайдиган одамни ҳамиша ўйлантириши,сергакликка чорлаб туриши зарур. Бундай эзгу мақсадларга тэса,фақат юксак маънавият,узлуксиз маънавий тарбия орқалигина эришиш мумкин",-деган эди.

И.Каримов таъкидлаганидек,эртанги кунимиз учун, болаларимиз,фарзандларимизнинг бахти учун меҳнат қилиш,фидойилик кўрсатиш-бу барчамизнинг муқаддас бурчимиздир.

Юқоридаги фикрларни таҳлил этган ҳолда, куйидаги хулосага келиш мумкин:

*таълим муассасаларида олиб борилаётган маънавий-маърифий ишлар ўз самарасини беради;

*маънавий ҳаётда бўшлиқ бўлмагани каби,тарбияда ҳам бўшлиққа йўл қўйиб бўлмайди;

*битта бола тарбиясидаги нуқсон-оила,маҳалла,мактаб,бутун жамиятнинг оғриқ нуқтаси сифатида қаралмоғи шарт.

**Keywords:** modern technology, technology, components, categories, pedigographic research ,ualual talent, creativeness.

Жаҳон таълим тизимида бўлажак ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнининг асосий босқичи сифатида кўрилаётган ижодий компетентликни ривожлантириш асосида бўлажак мутахассисларнинг педагогик маҳоратини ошириш, интеллектуал ижодий компетентлигини такомиллаштириш бўйича илмий изланишлар амалга оширилмоқда. Ижодий компетентликни ривожлантиришда таълим муассасаларида ижодий ёндашувдан фойдаланиш, ижодкорлик компетенциясини ривожлантиришнинг дидактик таъминотини яратиш, ўқитувчиларини тайёрлашда иш берувчининг талабларини

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

инобатга олган ҳолда касбий ва шахсий сифатларни инновацион технологиялар асосида ривожлантириш масалаларининг илмий ечими билан бевосита боғлиқдир.

Бўлажак ўқитувчиларининг мустақил таълим фаолиятининг якуний ва оралиқ натижалари иншо (эссе), очиқ дарс, илмий конференция ёки педагогик кенгашдаги чиқиш, иш дастури, дидактик материал, методик қўлланма, илмий-методик журналда мақола чоп қилиш каби ижодий маҳсулотларни тайёрлаш ва тақдим этишда қайд қилинади. Оралиқ ижобий натижаларнинг мавжудлиги ижодкор шахс ҳаёт стратегиясининг зарурий элементларидан биридир. Агар ўқитувчи эришилган якуний натижаларни ютуқ, муваффақият сифатида қабул қилса, бундай натижалар кейинги ижодий ўсиш учун бошлаш нуқтасига айланади.

Замонавий ахборот технологияларини қўллаш ижодий тўгарак иши доирасида мустақил таълим фаолиятини янада шароитларга мослашувчан ва ҳаракатчан қилиш имконини беради. Интернет тармоғи бўлажак ўқитувчиларга мустақил таълим учун бой имкониятлар яратади.



TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Интернет тармоғи воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил таълим олиш имкониятлари

Мустақил таълим ўқитувчининг ижодий ўз-ўзини ривожлантириш ва унинг ички шахсий ресурсларини фаоллаштиришга қаратилган. Бўлажак ўқитувчиларининг мустақил таълим фаолиятининг мақсади ижодий компетентлик ва касбий маҳоратнинг янги даражасига эришишдир. Ижодий компетентликни ривожлантириш жараёнида ўқитувчи нафақат касбий фаолият субъекти сифатида, балки шахс даражасида шаклланиши ҳам амалга ошади. Ижодий фаолиятни амалга ошириш ва ташкил этишга бўлган зарурият ва тайёрлик ўртасидаги фарқлар ҳамда номутаносибликлар ўқитувчиларни ижодий мустақил таълимнинг яна бир жабҳасига ўтишга ундайди. Ўқитувчининг ички дунёсини ўзгартириш, унинг мазмун ва моҳиятан ўзгартириши, педагогик фаолиятда ижодий ўз шахсияти қобилияти ва имкониятларини намоён этиш учун янги имкониятларни излаш зарурлигини англаши ўқитувчининг ижодий ривожланишининг асосий шартидир. Ўқув фаолиятининг бойлиги, кўп қирралилиги ва эмоционал интенсивлиги ўқитувчиларнинг ўзларини касб-ҳунар сифатида ўрганишга ундайди. Қўшимча касбий таълим муассасалари негизида педагогик мулоқотни амалга ошириш, малака ошириш жараёнида ижодкор ўқитувчи ўзида касбий жиҳатдан аҳамиятли хусусиятлар етарли даражада шаклланмаганлигини англайди ва мустақил таълим фаолиятида мавжуд муаммоларни ҳал қилишни ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Ўқитувчи ўзи хоҳлаган натижаларга эришиш имконини берувчи мақсад, вазифа, босқич ва фаолиятлар шаклларини белгилайдиган мустақил таълим дастурини ишлаб чиқади. Психологлар шахснинг ривожланиши инсоннинг хатти-ҳаракатлари муайян мақсадга йўналтирилган ва ички асосланган бўлсагина юзага келадиган унинг ўз фаол ҳаракати фаолияти жараёнида амалга ошади. Мустақил таълимнинг инсоннинг ўзига мақсадли таъсир кўрсатиш сифатидаги асосий механизми шахснинг белгиланган хусусиятлари, сифатлари ва касбий фаолиятнинг объектив талаблари ўртасидаги зиддиятларни ҳал қилиш, тинимсиз мураккаблашиб борувчи ижодий вазифаларни бажаришдир.

Касбий фаолият жараёнида ривожланиш механизмига ифода беришади: ривожланиш онгли, йўналтирилмаган тартибга солиш томонга ташқи тартибга солувчи кучларнинг кучи, ташқи омиллар белгилайдиган ҳаракат усули билан амалга оширилади. Касбий ўз-ўзини ривожлантириш механизмини бундай тушуниш бизни бўлажак ўқитувчиларининг ижодий компетентлигини ривожлантиришга кўмаклашувчи ва тўсқинлик қилувчи педагогик шарт-шароитларни ўрганишга ундайди. Бу масалаларни кейинги параграфда кўриб чиқамиз.

Мустақил таълим фаолиятида ақлий, жисмоний, маънавий-ахлоқий, меҳнат ва эстетик ривожланишидан иборат бўлмиш шахснинг ҳар томонлама ривожланиши амалга ошади. Ақлий ривожланиш билим олишни, дунёқараш ва эътиқодни ривожлантиришни англатади. Ахлоқий ривожланиш - хулқ-атвор меъёрлари ҳақида билимларга асосланиб инсонга ижобий шахс хусусиятларини тарбия қилишдан иборат. Эстетик ривожланишда ҳам, ахлоқий ривожланишда ҳам эстетик тарбияга, санъат соҳасида билимларни ва бадиий ижоднинг махсус турларини ўзлаштиришга аҳамият берилади.

Шахснинг у ёки бу сифатларида ифодаланадиган ривожлантирувчи таъсир бевосита ҳам, билвосита ҳам намоён бўлади. Мустақил таълим жараёнида ақлий, жисмоний, ахлоқий, меҳнат ва эстетик ривожланиш ўртасида алоқалар ўрнатилади.

Ижтимоий етуклик-инсоннинг фаолият субъекти сифатида шаклланиши ва ижодий имкониятлари намоён бўладиган инсоннинг фаол меҳнат фаолияти давридир. Ижодий фаолият ностандарт педагогик фаолиятни бажариш учун мақсадга йўналтирилганлиги билан ажралиб туради. Мустақил таълим жараёнида ўқитувчи ўз ҳамкасблари билан ижодий муносабатларга киришади, бунинг натижасида унинг мулоқот субъекти ва билим субъекти сифатида шаклланиши амалга ошади. Бўлажак ўқитувчиларининг касбий фаолияти билиш соҳасининг ўзига хос хусусиятларининг шаклланишига ва, албатта, турли педагогик вазиятларни ижодий кўра билишни зарур қобилиятини ривожлантиришга таъсир кўрсатади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Демак, бўлажак ўқитувчилари турли таъсир манбаларидан: махсус методик адабиётлар, Интернет, босма манбалар, радио, телевидениедан ҳаддан ташқари жуда кўп ортиқ касбий маълумотлар олади. Бу маълумотларнинг бир оқими одамлар гуруҳларининг таълим даражасига кўра педагогик мақсадлар учун ташкил этиладиган каналлар орқали келади. Яна бир ахборот оқими бўлажак ўқитувчиларга оммавий ахборот воситалари орқали етиб боради ва унинг мустақил таълим фаолиятига таъсир кўрсатади. Ҳар иккала оқим ҳам ўқитувчига бутун ҳаёти давомида таъсир қилади ва ўз дунёсини тушуниш, қабул қилишини (идрокини) педагогик нуқтаи назардан бошқаришни талаб қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

**1.** Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. – T.: O’zbekiston, 2016. –13-14 b.

2. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. “Kasbiy ta’lim pedagogikasi“. Metodikqo’llanma.-T.2005 y

3. N. Bayturayeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Vritual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA

http://euroasiaconference.com January 20th 2021

# XORIOAMNIONIT HAVF OMILLARI

**Nurimbetova Dilnura Sarsenbay qizi**
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Xorioamnionit homiladorlikning keng tarqalgan asoratlari bo'lib, ona va bolada uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. Onada kelib chiqadigan salbiy oqibatlari tug'ruqdan keyingi infektsiyalar sepsisni o'z ichiga oladi, chaqaloqning salbiy oqibatlariga o'lik tug'ilish, erta tug'ilish, neonatal sepsis, surunkali o'pka kasalligi, bosh miya shikastlanishi va boshqa neyrorivojlanish nogironliklari kiradi. So'nggi yigirma yildagi tadqiqotlar xorioamnionit va muddatidan oldin tug'ilish,shuningdek muddatidan oldin tug'ilgan va o`z muddatida tug'ilgan chaqaloqlarning kasalliklari o'rtasidagi o'z-aro bog'liqliklar haqidagi tushunchamizni kengaytirdi.

**Kalit so'zlar:** Xorioamnionit, infektsiya, homiladorlik, muddatidan oldin tug'ilish, *bakteriemiya,* qog'onoq parda.

**Tadqiqot maqsadi:** Xorioamnionit havf omillari o`rganilgan masalalarini qamrab oluvchi zamonaviy ilmiy adabiyot manbalarini tahliliy ko'rib chiqish.

**Materiallar va uslublar**. Ushbu mavzu bo'yicha 17 ta xorijiy adabiyot manbalari tahlili o'tkazildi.

**Natijalar:** Xorioamnionit yoki intraamniotik infektsiya - bu qog'onoq pardaning va yo'ldosh xorionining o'tkir yallig'lanishi bo'lib, odatda qog'onoq parda yorilishi sharoitida polimikrobiyal bakterial infektsiyaning ko'tarilishi tufayli kelib chiqadi. Xorioamnionit qog'onoq pardaning barvaqt va muddatidan oldin yorilishi bolgan homilador ayollarda paydo bo'lishi mumkin va bu ayniqsa ayollarning 70% dan ortig'ining pastki jinsiy yo'llarida uchraydigan *Ureaplasma* turlari va *Mycoplasma kabi jinsiy mikoplazmalar orqali kelib chiqadi[1]. Listeria monocytogenes* kabi xorioamnionitning gematogen tarqalishi kamdan-kam uchraydi[2 ]. Xarakterli klinik belgilar mavjud bo'lganda, holat klinik xorioamnionit yoki klinik intraamniotik infektsiya deb ataladi. Klinik va gistologik xorioamnionit o'rtasida sezilarli o'xshashlik mavjud bo'lsada, ikkinchisi klinik jihatdan noaniq (subklinik) xorioamnionitni va klinik xorioamnionitni o'z ichiga olgan yo'ldoshni mikroskopik tekshirishda patologik namunalar asosida tashxis qo`yiladi**.**

Umuman olganda, dunyodagi barcha tug'ilishlarning 1-5% da xorioamnionit kuzatilishi mumkin[2]; ammo, xorioamnionitning uchrash chastotasi diagnostika mezonlari, o'ziga xos xavf omillari va homiladorlik muddati bilan sezilarli darajada farq qiladi[3]. Xorioamnionit (klinik va gistologik kombinatsiya) muddatidan oldin tug'ilish va muddatidan oldin qog'onoq parda yorilishida 40-70% uchraydi[4]. 10-13% o'z muddatiga etib tug'ilishda ham uchraydi[5].Kesarcha kesish jarroqliq amalyoti bilan tug'ilishda 12% da klinik xorioamnionit kuzatiladi, ko`p hollarda kesarcha kesishga jarroqlik amalyotiga ko'rsatma qog'onoq parda yorilishidan so'ng kuzatiladi[6].

Ko'pgina tadqiqotlar xorioamnionit uchun xavf omillari: qog'onoq pardoning barvaqt va muddatidan oldin yorilishi, ko'p marta vaginal tekshiruvlar, qog'onoq suvini punksiya qilib tekshirish ,shuningdek chekish, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni qabul qilish, immunitet tanqisligi[7] kiradi. Shuningdek, B guruhi streptokokklar , bakterial vaginoz,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

jinsiy yo'l bilan yuqadigan genital infektsiyalar va ureaplasma kiradi.[8]. Davolanmagan B guruhi streptokokklar bakteriuriyasi va xorioamnionit o'rtasidagi kuchli bog'liqlik genital traktdagi B guruhi streptokokklarning yuqori konsentratsiyasini aks ettirishi mumkin[9]. Aksariyat akusherlik sharoitlaridan farqli o'laroq, oldingi homiladorlikdagi xorioamnionit keyingi homiladorlikda xorioamnionit kelib chiqish xavfini oshirmaydi[10]. Qog'onoq pardoning barvaqt yorilishi klinik xorioamnionit uchun asosiy xavf omili bo'lsada, muddatidan oldin tug'ilish bilan birga qog'onoq pardoning barvaqt yorilishi ko'pincha subklinik xorioamanionitni keltirib chiqaradi[11]. Muddatidaga yetib tug'uvchi homilador ayollarda ko'p martalab qin ko'rigi homiladorlik davrida ≥8 o'tgan bemorlarda klinik xorioamnionit xavfini oshiradi[12].

| Xorioamnionitning keng tarqalgan bakterial sabablari | Erta tug'ishda kuzatilishi mumkin bo'lgan ba'zi mikroorganizmlar: | |
|---|---|---|
| • Bacteroides sp., ayniqsa Prevotella bivius<br>• Streptococcus agalactiae<br>• Enterobakteriyalar<br>• Gardnerella vaginalis<br>• Mycoplasma pneumoniae<br>• Chlamydia trachomatis<br>• Ureaplasma urealyticum<br>• Fusobacteria sp.<br>• Escherichia coli | 4. Fusobacterium nucleatum<br>5. Sneathia sanguinegens<br>6. Ureaplasma urealyticum<br>7. Streptococcus mitis<br>8. Gardnerella vaginalis<br>9. Peptostreptokokklar<br>10. Leptotrichia amnionii<br>11. Mycoplasma hominis | 3. Streptococcus agalactiae<br>4. Lactobacillus turlari<br>5. Bacillus turlari<br>6. Koagulaza-salbiy stafilokokk turlari<br>7. Prevotella turlari<br>8. Delftia acidovorans<br>9. Neisseria cinerea |

| Klinik xorioamnionit bilan og'rigan bemorlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan ba'zi mikroorganizmlar: | | |
|---|---|---|
| E) Ureaplasma urealyticum<br>F) Gardnerella vaginalis<br>G) Mycoplasma hominis<br>H) Streptococcus agalactiae<br>I) Lactobacillus turlari<br>J) Bacteroides turlari<br>K) Acinetobacter turlari<br>L) Sneathia<br>M) Streptococcus viridans | 3) Porphyromonas turlari<br>4) Veillonella turlari<br>5) Peptostreptokokk turlari<br>6) Escherichia coli<br>7) Pseudomonas aeruginosa<br>8) Staphylococcus aureus<br>9) Eubacterium turlari<br>10) Gram manfiy tayoqchalar | - Enterokokk turlari<br>- Fusobacterium turlari<br>- Candida turlari<br>- Micrococcus luteus<br>- Firmicute<br>- Propionibacterium acnes<br>- Abiotrofiya nuqsonli |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

| | | |
|---|---|---|
| | | - Staphylococcus epidermidis |

**Homila boshlig'iga infektsiyalarning kirib borish yo`llari**

Oddiy sharoitlarda infektsiyalarning homila boshig'iga amniotik bo'shliqqa yetib boruvchi to'rtta yo'l :[13].

1) pastki jinsiy yo'ldan ko'tarilish; 2) gematogen; 3) kindik tizimchasidan qon olish, fetoskopiya yoki boshqa invaziv muolajalar paytida tasodifiy infektsiya tusishi; 4) bachadon naylaridan, qorin bo'shlig'idan retrograd urug'lanish(EKO).

Bachadon bo'g'zi va qin bo'shlig'idagi floraning servikal kanal orqali ko'tarilishi xorioamnionitning eng keng tarqalgan yo'lidir (1-rasm)[14]. Barcha homilador ayollar pastki genital traktda mikroorganizmlar bo'lsada, ko'pchilikda intra-amniotik bo`shliqda infektsiya yo'q. Shilliq tiqin homiladorlik davrida infektsiya ko'tarilmasligi uchun anatomik va funktsional to'siq vaziasini bajaradi. Homilador bo'lmagan holatda bachadon bo'shliq steril emas, lekin homiladorlik davrida steril deb hisoblanadi[15].




**1-rasm**

Erta tug'ilishda ko'tarilgan infektsiya bosqichlari. Ko'tarilgan infektsiya jarayonining I bosqichi vaginal/bachadon bo'yni mikrobial florasining o'zgarishiga yoki bachadon bo'yni patologik organizmlarning mavjudligiga to'g'ri keladi. Mikroorganizmlar amniotik bo'shliqqa kirish imkoniga ega bo'lgach, ular membranalar va xorion o'rtasida bachadonning pastki qutbida joylashadilar (II bosqich). Mikroorganizmlar homila tomirlariga kirib borishi (xoriovaskulit) yoki amnion (amnionit) orqali amniotik bo'shliqqa o'tishi mumkin, bu esa intraamniotik infektsiyaga olib keladi (III bosqich). Mikroorganizmlar homilaga turli kirish portlari orqali kirishi mumkin (IV bosqich).

*Kamdan kam hollarda xorioamnionit ona bakteriemiyasi (masalan, Listeria monocytogenes*, *Treponema pallidum*, *Yersinia pestis* , Sitomegalovirus, *Plasmodium* ) natijasida gematogen yo'l bilan yoki invaziv muolajalar (masalan, amniosentez, fetoskopiya) natijasida amniotik bo'shliqning ifloslanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin[16]. Homiladorlik davrida siydik yo'li infektsiyasi qin bo'shlig'i bakterial patogenlari bilan birga neonatal sepsis keltirib chiqaruvchi xavf omili hisoblanadi[17].

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Xulosa:**

Xorioamnionit homiladorlik davrida keng tarqalgan kasallik bo'lib, odatda qog'onoq pardaning barvaqt va muddatidan oldin yorilishi bilan tug'uvchi homilador ayollarda yuzaga keladi. Bu kasallik klinik belgilari: onada isitmalash, puls soni >100, ko'p terlash, bemorni o'zini yomon sezishi, holsizlik, tez charchash.Shuningdek, qindan patologik hidli yashil rangli yoki qonli ajralma kelishi mumkin. Kam hollarda xorioamnionit klinik belgilarsiz kechishi mumkin va muddatidan oldin tug'ish va tug'ruqdan keying davrda oziga xos asoratlar yuzaga kelishi bilan tashxislanadi.

Xorioamnionit og'ir asoratlari fetoplasentar yetishmovchilik, muddatidan oldin qog'onoq parda yorilishi, normal joylashgan yoldoshning ko'chishi, muddatidan oldin tug'ish. Homilador ayolda bakteriemiya, tug'ruq faolligi sustligi, tug'ruqdan keyin atonik qon ketish, tromboemboliya, tug'ruqdan keyingi endometrit, septik shok va bolada tug'ma neonatal sepsis,pnevmoniya serebral paralish. Xorioamnionit profilaktikasi uchun qog'onoq parda muddatidan oldin yorilishi bo'lgan homilador ayollarda antibakterial davo olib borish, bu kasallik yuzaga shiqishini kamaytiradi va neonatal asoratlar kelib chiqishining oldini oladi.

**Adabiyotlar:**

1. Fahey JO. Clinical management of intra-amniotic infection and chorioamnionitis: a review of the literature. J Midwifery Womens Health. 2008;53(3):227–35.
2. Tran SH, Caughey AB, Musci TJ. Meconium-stained amniotic fluid is associated with puerperal infections. Am J Obstet Gynecol. 2013;189:746.
3. Apantaku O, Mulik V. Maternal intra-partum fever. J Obstet Gynaecol. 2007 Jan;27(1):12–5.
4. Yoon BH, Romero R, Moon JB, et al. Clinical significance of intra-amniotic inflammation in patients with preterm labor and intact membranes. Am J Obstet Gynecol. 2011;185:1130.
5. ACOG Committee on Practice Bulletins-Obstetrics. ACOG Practice Bulletin No. 80: premature rupture of membranes. Clinical management guidelines for obstetrician-gynecologists. Obstet Gynecol. 2007;109(4):1007–19.
6. Seong HS, Lee SE, Kang JH, Romero R, Yoon BH. The frequency of microbial invasion of the amniotic cavity and histologic chorioamnionitis in women at term with intact membranes in the presence or absence of labor. Am J Obstet Gynecol. 2008;199(4):375.e1–5.
7. Blume HK, Li CI, Loch CM, Koepsell TD. Intrapartum fever and chorioamnionitis as risks for encephalopathy in term newborns: a case-control study. Dev Med Child Neurol. 2008;50(1):19–24.
8. Rouse DJ, Landon M, Leveno KJ, et al. The Maternal-Fetal Medicine Units cesarean registry: chorioamnionitis at term and its duration-relationship to outcomes. Am J Obstet Gynecol. 2014;191:211.
9. Anderson BL, Simhan HN, Simons KM, Wiesenfeld HC. Untreated asymptomatic group B streptococcal bacteriuria early in pregnancy and chorioamnionitis at delivery. Am J Obstet Gynecol. 2007;196(6):524.e1–5.

10. Wu HC, Shen CM, Wu YY, Yuh YS, Kua KE. Subclinical histologic chorioamnionitis and related clinical and laboratory parameters in preterm deliveries. Pediatr Neonatol. 2009;50(5):217–21.

11. van de Laar R, van der Ham DP, Oei SG, Willekes C, Weiner CP, Mol BW. Accuracy of C-reactive protein determination in predicting chorioamnionitis and neonatal infection in pregnant women with premature rupture of membranes: a systematic review. Eur J Obstet Gynecol Reprod Biol. 2009;147(2):124–9. Epub 2009 Oct 12.

12. Helen B. Gomes Slagle MD, Metyu K. Hoffman MD, MPH Yaneve N. Fonge MD, Richard Caplan PhD, Entoni C. Sciscione DO. Incremental risk of clinical chorioamnionitis associated with cervical examination - Volume 4, Issue 1, January 2022, 100524.

13. Romero R, Espinoza J, Kusanovic JP, Gotsch F, Hassan S, Erez O, et al. The preterm parturition syndrome. *BJOG.* 2006;113(Suppl 3):17–42.

14. Romero R, Dey SK, Fisher SJ. Preterm labor: one syndrome, many causes. *Science.* 2014;345(6198):760–5.

15. Mitchell CM, Haick A, Nkwopara E, Garcia R, Rendi M, Agnew K, et al. Colonization of the upper genital tract by vaginal bacterial species in nonpregnant women. *Am J Obstet Gynecol.* 2015;212(5):611, e1–9.

16. Donders GG, Van Calsteren K, Bellen G, et al. Predictive value for preterm birth of abnormal vaginal flora, bacterial vaginosis and aerobic vaginitis during the first trimester of pregnancy. *BJOG*. 2009 Sep. 116(10):1315-24.

17. Sheiner E, Mazor-Drey E, Levy A. Asymptomatic bacteriuria during pregnancy. *J Matern Fetal Neonatal Med*. 2009 May. 22(5):423-7.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Teaching tenses through games.

**Nurimbetova Gulbakhar Sarsenbaevna**

gulbkharnurimbetova@gmail.com

**English teacher Specialized School № 31**

**Nukus city,Republic of Karakalpakstan**

***Abstract: This article is devoted to the features of the use of tenses in the process of teaching a foreign language. The process of learning tenses is inextricably linked with the problem of interaction of two language systems in using.***

***Key words: learning process, foreign language, games, tenses.***

***Introduction:*** English is now the most widely spoken language in the world: more than 400 million people speak English. English is the language of navigation, aviation, literature, education, modern music, international sports, tourism, programming. 75% of the world's correspondence is conducted in English, 60% of radio stations broadcast in English, more than half of the world's periodicals are published in English, 80% of the information is stored in this language.

***Main part:*** The concept o f communicativeness meets the needs of students and presents objectives, content and methods as a prevalent basis of the CEFR, being the accepted framework in the field of language teaching and learning; makes it possible to facilitate communication and interaction among students in order, to promote students' mobility.

The following types o f learning are associated with the Communicative Approach:

1. Interactive Learning: This concept goes right to the heart of communication itself, stressing the dual roles o f ≪receiver≫ and ≪sender≫ in any communicative situation. Learning through interaction is proposed as alternative to learning through repetition and habit formation. Interaction and negotiation o f meaning are seen as central o f learning through tasks that require attention to meaning, transfer o f information, and pushed output. The concept of interactive learning entails to be a lot of pair and group work in the classroom, as well as genuine language input from the ≪real world≫ for meaningful communication.

*2.* Learner-centered Learning: This kind of instruction involves the giving over o f some ≪power≫ in the language learning process to the learners themselves. It also strives to allow for personal creativity and input from the learners, as well as taking into account their learning needs and objectives. Learner-centered curricula are designed by considering the needs and interests of students, and process-oriented syllabuses which center on procedures, tasks and content.

3. Cooperative/Collaborative Learning essentially involves students learning from each other in groups. It has been comprised as a way o f encouraging communicative instruction in the classroom and is seen as a stretch of the procedures of CLT. It is viewed as a learner-centered approach offering the advantages over teacherfronted classroom methods, fostered competition rather than cooperation and favored majority o f students. The concept o f this type o f learning stresses the ≪team≫ like nature of the classroom and emphasizes *cooperation* as opposed to *competition.* Learners share information and try to achieve their learning goals in a group. Within this approach teachers teach students collaborative or social skills so that they can work together more effectively.

4. Content-based Learning as an instruction in which teaching is arranged around the content of information that students will acquire. It joins language learning to content/subject matter and engages them both concurrently. Special information provides natural content for language instruction. Language is seen as a tool

or medium for acquiring knowledge about other things, instantly proving its usefulness. An important factor in this kind o f learning is that the content itself determines what language items need to be mastered, not the other way around. When learners study math or science using English as the medium, they are more intrinsically motivated to learn more of the language.

5. Task-based Learning: This type of learning proposes tasks as useful vehicles and instruction in FLT. This concept equates the idea of a ≪learning task≫ to a language learning technique in itself. This could be a problem solving activity or a project, but the task should have a clear objective, appropriate content, a working/application procedure, and a set range o f outcomes. As learners work to complete a task, they have abundant opportunity to interact. During interaction they facilitate language acquisition, they get to listen to the language which may be beyond their present ability, but which may be assimilated into their knowledge of the target language for use at a later time.

As we mentioned above, learners can learn easily through interactive games or activities. Given materials are to use while teaching or learning tenses as without knowing tenses it will be difficult to work with sentences and texts. Here are some useful sample games for tenses:

***Present Continuous (1) Function: expressing actions happening "now"***

This is a simple miming game where students take turns performing an action

In front of the other students, who try to make guesses about what the student is doing using the Present Continuous. The game could be made a little more competitive by counting each incorrect guess as a penalty, with the object of the game being to try and keep the number of penalties to an absolute minimum 9 this version is great for encouraging accuracy, but be aware that is can also risk-taking)

***Present Continuous(2) Expressing actions happening " now"***

The game is called "Why can't you play with me right now?"(though, it could of course be given any number of other names) and focuses on the idea of using Student 1: Let's go out to play! Student 2: I can't. I'm washing the dishes right now g Present continuous to explain that a present ongoing action prevents us from doing another (suggested/offered) activity. In this game, one student pretends to call the other students on the telephone. The student says "Let's go out to play", and the other students reply in the negative, offering an explanation as to why. For example:

Student 1: Let's go out to play!

Student 2: I can't. I'm washing the dishes right now.

Student 1: Let's go out to play!

Student 3: I can't . I'm doing my homework right now.

Student 1: Let's go out to play!

Student 4: I can't . I'm eating the dinner right now.

The game can be a little more difficult and /or goal-oriented by asking let's play

Student to summarize the result at the end of a complete round of the class watching to a third person application. This involves the teacher as well, and could be run like this (utilizing the beginning example above):

Teacher: Why can't Rose go out to play with you?

Student1: She is washing the dishes right now.

Teacher: Why can't Ben go out to play with you?

Student1: He is doing homework right now.

Teacher: Why can't Steve go out to play with you?

Student1: He is eating dinner right now.

The follow up version could be scored by giving a point to student for each correct action, they recalled and another point for using present continuous correctly in the explanation.

***Present Simple ( 1 )Function: showing regular/habitual behavior***

This game helps to contrast present simple with present continuous involving some questions and choral speaking. It focuses on identifying activity that happens regularly or habitually at certain times of the day, for example morning, afternoon or night. The teacher begins by introducing a time of the day and eliciting from students all the action s that normally happen in their lives that period of the day.

If the selected time is' morning', the teacher then writes two lists on the whiteboard beneath two headings –one titled 'this morning' and the other titled "every morning". Verbs are written in both lists in present continuous form and present simple form (1st version) respectively. One student is then selected to stand in front of the class and be "this morning's deer". The activity is then run as per the following example:

Teacher: What are you doing this morning, Sam?

Student1: I'm getting up(Motions as if getting up

Teacher: Do you do this every morning, Sam?

Student1:Yes ,I do.

Teacher: What does Sam do every morning?

Students: Sam gets up every morning.

Each student 'does' can be given a chance to do three actions each, to do with the teacher eliciting from the students how to say this when it is an everyday /habitual questions. The game can be made more difficult by not including lists on the whiteboard and asking the 'actors' to think of actions on the spot.

**Past Simple. [Concentration]**

This game helps the students practice past tense verb forms.
1. As preparation, give the students small cards or slips of paper on which they create pairs of word cards. On one card they write the present tense, on the other the past of verbs used in the lesson. Once they have prepared 12 to 15 pairs or word cards, they are ready to play the card game Concentration.
2. Have the students form groups of from two to six.
3. In all the groups, the cards are shuffled and placed facedown in rows (6 x 4, or 6 x 5).
4. The students in each group take turns upturning pairs of cards. The object of the game is to remember the locations of the different cards and to find "matches" (matching cards).
When a student makes a match, those cards are taken out of play, to be counted at the end of the game. The student with a match may then take a second turn. If no match is made, the cards are simply turned

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

back over and the game continues on to the next person. The game is played until all matches are uncovered. At that point, the player with the most cards wins.

***Conclusion:*** Learning Tenses is the most complicated process for Second Language Learners at school but consequently, learning tenses fetch them knowledge of understanding the sentences or sentence construction and trying to
comprehend the meaning of sentences or paragraphs whenever they study English Language Books. Without understanding proper or perfect usage of tenses no one can become good learner or speaker. If they are mastered in learning tenses along with usage of time factor they can read and understand this language and other subjects too. At a result, they can improve their communication skills also. Eventually it is advisable to learn tenses to improve their listening skills, speaking skills, reading skills and writing skills. They can also develop their communicational skills and they can compete with others without
fear. Tenses are not common things because they are the pillars for English Language as well as English Grammar. Furthermore, it is advisable to know the structure of each tense in order not to confuse with other tenses as well.

***References:***

1. J.J.Jalolov, G.T.Makhkamova, Sh.S.Ashurov. English Language Teaching Methodology (theory and practice). - T.: ≪Fan va texnologiya≫, 2015

2. Teacher's Handbook for the Video Series. ***Language Teaching Methods*** by *Diane Larsen Freeman* Office of English Language Programs, Materials Branch. United States Department of State Washington, D.C. 20547.1990

3. Фарходжонова, Нодира Фарходжоновна. "ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ." *Инновационные тенденции, социально-экономические и правовые проблемы взаимодействия в международном пространстве*. 2016.

**Nurimbetova Gulbakhar Sarsenbaevna**

| | |
|---|---|
| **Лавозими, илмий даражаси, унвони** | Нукус шахар 31IDUM укитувчи |
| **Телефон рақами (коди билан)** | +998913072186 |
| **E-mail** | gulbkharnurimbetova@gmail.com |

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## Nofilologik yo'nalishlarda chet tillarni o'qitishning innovatsion metodlari va ularning chet til o'qitishdagi ahamiyati

**Xoshimova Dildora Madaminovna, Namangan muhandislik-texnologiya institute, "Chet tillar" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola nofilologik ta'lim yo'nalishlarida chet til o'qitishning innovation metodlarining til o'rgatishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Bunda til o'rgatishga innovatsion tarzda yondashuv masalalari, mutaxassislikka oid terminlarni o'rganish va ularni ishlab chiqarish sohalariga tadbiq etish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Audiolingval metod, til sistemasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, lingvistika va chet til o'qitish metodika, nofilologik ta'lim yo'nalishlari, axborot texnologiyalari va zamonaviy o`qitish usullari

Bugungi kunda nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalarini chet til o'qitishda asosiy e'tibor soha terminologiyasiga qaratildi. Bundan asosiy maqsad talabalarning bilim saviyasini oshirish, chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada yuksaltirish, o'z sohalari doirassida chet tilde bemalol muloqotga kirishishni o'rgatishdan iboratdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyayev tomonidan 2021yil 20 mayda "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi va talab darajasida o'rganish mas'uliyatini chet til o'raganuvchialr zimmasiga yukladi.

Bizga ma'lumki, avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan, hozirda esa chet til o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu talabalarni chet til nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Chet til o'rganishdagi muhim jihatlar, lingvistika va chet til o'qitish metodikasi fanlaridagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: Audiolingval metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, ya'ni struktural oqimni ta'siri bo'ldi. U quyidagi omillarni o'z ichiga oladi: - Chet til o'rgatish avval og'zaki nutqqa o'rgatishdan boshlanmog'i zarur; - Til o'rganish turli strukturalar, nutq na'munalari asosida amalga oshiriladi; - Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi kerakligini taqozo etadi; - Grammanik

namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog‘liq bo‘lishi kerak. - Talaffuzga katta e'tibor talab etiladi. Bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko‘pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir. Bu metod asoschilari metodist olimlar Ch.Friz va R.Ladolardir. Masalan: Ch.Friz: boshlang‘ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o‘rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Gramatikaning ko‘nikmalarni hosil qilish xam shunga asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chet til o’rganish ko‘p qirrali ta’imot bo’lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o’zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o’rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o’rgatish samarali natija beradi. Har qaysi chet tilini o’rganishda albatta o’z ona tilisida taqosslab o’rgatish samarali hisoblanadi. Humbold universiteti talabalariga chet tilidan dars berayotgan chog’imda albatta ularni ona tilisida tushuntirish va chet tilini o’qitshda albatta bu til ko’prik vazifasini o’tashini yana bir bora amin bo’ldim. Chet til o’rganayotgan shu mamlakat madaniyati bilan bog’lab o’rgatish ham o’ziga xos xususiyatga ega Ayfer Durdu xonim darslarida ishtirok etganimda bu metod til o’rgatishda muhim ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo’ldim. Chet til o’rgatishda albatta biz uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo‘ishimiz va foydalanishimizni taqazo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida keng qo‘llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi[128]. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kunda chet tillari kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Turli soha egalari xorijlik hamkorlar bilan aloqa qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli, ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqori bo’lmoqda. Turli darajadagi til bilimiga ega bo’lmoqchi bo’lganlar uchun o`quv materiallarning inavatsion turlari mavjud. Chet tilini mukammal bilish va ma`lum darajani olish o‘qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga ham bog‘liq bo’ladi, albatta. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o`qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli

[128] Zayniddin Sanaqulov Baxromjon Jo'raboyev 2021.532-bet]

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar dars mobaynida ko'proq xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakillanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Zamonilgarilab borganisarihar bir sohada yangilik ko'paymoqda. [Feruza Zaipova, Sabohat O`rinova Xorijiy 2-bet] Chet tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar 1.boshlang'ich bosqichda o'qitish, 2.o'rta bosqichda o'qitish, 3.yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus faol dastur ishlab chiqiladi. Ta'limning faol usullari nafaqat o'quv jarayonida o'quvchilarni faol fikrlashga va amaliy faoliyatga undashga yordam beradi, balki ijobiy o'qitish motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy qobiliyatlarni ochib berish va rivojlantirishga yordam beradi, o'quv materialini yuqori samaradorlik bilan o'zlashtirishga yordam beradi.

Gapirish qobiliyatini rivojlantirish uchun dars davomida "Intellektual isinish" tamoyilidan foydalanish mumkin. Qoida tariqasida, bunday mashqlarning leksik tayanchlari doskada, ayniqsa dastlabki bosqichda joylashgan. "Qor to'pi" ning o'sishi ikki yo'nalishda davom etishi mumkin: so'z boyligi ko'payishi va/yoki grammatikaning murakkabligi oshishi bilan. (O'RNAK: Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman Elektron kitoblarni o'qishni yaxshiko'raman. Elektron kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman, chunki ulardan foydalanish oson). Signal kartalari bilan ishlash Bu o'tgan materialni kartalar ko'rinishidagi taqdimoti. Ushbu uslub materialni tuzishga, o'quvchilar e'tiborini tiklashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar va o'yinlar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'yektlariga aylantiradi. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta'lim

texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keldi. Innavatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir. Nofilologik ta'lim yo'nalishlarida chet tilni maxsus maqsad yo'lida bu to'g'ri yo'l ekanligi, ishlab chiqarish bilan hamohang olib borilishi ham o'ziga xos chet tilni o'rgatishga yondashuvdir.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-5117 Qarori. https://lex.uz/docs/-5426736#-5427970
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012, b-67
3. Отабоева, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion
4. Khasanova, Gulsanam Khusanovna Main Trends in the Development of Education and Professional Training in the World //Orienss. 2021. №Special Issue. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/main-trends-in-the-development-of-education-andprofessional-training-in-the-world (дата обращения: 05.01.2022).
5. Khasanova, G. K. "The Success and Education System of South Korea and Japan." Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа (2021):
6. https://president.uz/oz/lists/view/4327
7. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# AMIR NASRULLOH VA ROSTGO'Y HOZIQ MUNOSABATLARI

O`ZMU tarix fakulteti 3 bosqich talabasi

Jabborqulov Jahongir Jo'raqul o'g'li

**Annonatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Mang'itlar sulolasi vakili bo'lgan ,xalq orasida 'xoni shahid ' nomi bilan atalgan Amir Nasrulloh va XIX asrda faoliyat yuritgan mashhur shoir, tarjimon, tabobat ilmida o'z davrining yetuk shaxslaridan biri Junaydulloh Hoziq o'rtasidagi ba'zi bir mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Nasrulloxon, Junaydulloh Hoziq, Qori Rahmatulloh Buxoriy, 'Tuhfat al ahbob fi tazkirat al as'hob', ' Ansob us -salotin va Tavorix'.

Amir Nasrulloh haqida o'z davrining tarixchilari yoxud hozirgi kun tadqiqotchilari tomonidan ko'plab ayblar qo'yib kelinadi (mashhur shoira Mohlaroyim Nodiraning o'limi shu jumlasidandir). Bu tabiiy hol bo'lib hukmdordan hamma vaqt ham hamma rozi bo'lavermaydi. Xuddi shunday Amir Nasrullohga qo'yiladigan asosiy ayblardan yana biri u shoir Junaydulloh Hoziqning qotili sifatida ko'rilishidir. Amirga qo'yiladigan bu ayb qay darajada to'g'ri? Hoziq adolatsizlik qurbonimi u nohaq o'ldirilganmi? Aslida bu voqea tafsilotlari qanday bo'lgan?

Mavzuni yoritishdan maqsad ham aynan shudir. Yana bir masala Amir Nasrullohga bu shoirning o'limi nega kerak bo'ldi degan savolga javob topish. Balki bu o'sha davr ichki siyosati uchun juda zarur bo'lgandir. Shu o'rinda ustozimiz tarix fanlar doktori Qahramon Rajabovning bir fikrini eslatib o'tmoqchimiz "Amir Nasrulloh haqida bugungi kunda faqat ilmiy maqolalar yozish bilan cheklanmasdan, tarixiy manbalar asosida uning fenominini chuqur o'rganish, hukmdor sifatidagi siyosiy faoliyatini butun murakkabliklari va ziddiyatlari bilan xolis tasvirlash, yurt tarixiga xolis nigoh tashlash yo'lidagi yana bir qadam bo'lur edi[129]".

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki biz tarixchi sifatida bu masalalarga obyektiv yondoshmog'imiz lozim. Zero o'z tariximizni bilishimiz biz uchun har kun va har

[129] Rajabov.Q.K Nasrullohxon.T."Abu Matbuot-Konsalt" 2011yil.44 b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

daqiqada zarurdir. O'z davrining marifatparvari bo'lgan mashhur jadidlarimizdan biri Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek "moziyga qarab ish tutmoq iymondandir."

Gap avvalida Junaydulloh Hoziq shaxsiyatiga aniqlik kiritib olsak. Aslida Junaydulloh Hoziq kim edi? Shayxulislom Hirotiyning o'g'li bo'lgan Mirzo Junaydulloh Hoziq XVIII asrning 80-yillarida Hirotning Karx nomli mahallasida tavallud topgan.[130] Ilmga bo'lgan ishtiyoqi bois, u Buxoroga kelib madrasada tahsil oladi, din, tibbiyot, adabiyot ilmlarini puxta o'rganadi. Shu tariqa u o'z she'rlari, tabobatda erishgan natijalari, notiqlik san'ati bilan Buxoroyi sharifda shuhrat qozonadi. Dastlab o'zi tahsil olgan "Oliy" madrasasida imom, keyin esa Amir Haydar (1800-1826 yillar) saroyida faoliyat yuritadi.

Uning Buxoroga kelib faoliyat yuritganini Qori Rahmatulloh Buxoriyning 'Tuhfat al ahbob fi tazkirat al as'hob' (Do'stlar haqida zikr qilingan sevimli sovg'a) asarida eslatib o'tadi. Junaydulloh Mahdum – Buxoroga kelib ko'pchilik tomonidan hurmat va ehtiromga sazovor bo'ldi, hatto bunga Buxoro ulug'lari va fozillari hasad qiladigan bo'ldilar. Hoziq deydi u davom etib, bu yerda tabiblik ilmida zo'r mahorat ko'rsatib, Hoziq ( mohir ustabilarmon tabib ) degan taxallus oldi.[131]

Ammo haqiqatparvar shoir saroy o'yinlari, fisqu fasod va maishiy tiyiqsizlikning Amir Haydar devonida avj olganini ko'rib Buxoroni tark etadi.[132] Buxoroga nisbatan madaniyatga, san'atga e'tibor kuchli bo'lgan Qo'qon hukmdori Amir Umarxon huzuriga boradi. Uning ijodiga, yashashga qolaversa taklif mulohazalariga ijobiy qaragan Umarxon, Hoziqni doimo maslahatgo'y sifatida hurmat qilgan. Biroq Amir Umarxoning 1822-yilda vafot etganidan so'ng, u yana Qo'qon saroyini tark etib, el orasida yurgancha tabiblik bilan mashg'ul bo'ladi.

1826-yilda uning Buxoro va Qo'qon saroyida yurganini, bilim va tafakkurini eshitgan Xiva xoni Ollohqulixon Hoziqni Xorazmga taklif etadi. Hoziq bu yerda ham saroy ishlaridan ko'ra, ijod bilan mashg'ul bo'lishni afzal deb biladi. Munis Xorazmiydek mirob

[130] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html
[131] A.Irisov,A.Nosirov,I.Nizomiddinov-O'rta osiyolik qirq olim.T. "O'zbekiston SSR fanlar Akademiyasi" nashiryoti 1961-yil. 94-b.
[132] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

va shoir bilan do‘stlashadi. Xonni, uning a’yonlari va xalqni tabib sifatida davolab, shuhrat qozonadi.

Hoziq rost so‘zlashdan hech qaytmaydigan, o‘z fikri va mulohazasini bildirishga juda ham dovyurak bo‘lgan. O‘sha paytlarda Xorazm xoni bir hammom qurdirgan ekan. Bu voqea har tomonga ovoza qilinib, xonning ko‘p maddohlari unga bag‘ishlab madhiyalar to‘qishgan, uni ko‘klarga ko‘tarib maqtashgan. Xonning taklifiga ko‘ra Hoziq ham borib ko‘rib o‘z fikrini bildiradi. Hammom yaxshi deydi Hoziq, ammo unga tushgan odam o‘zi bilan chiroq ,oyoq kiyim, issiq to‘n va qur’on olib kirishi kerak deydi. Chiroq hammomni yoritish uchun, oyoq kiyim sirg‘alib yiqilib tushmaslik uchun, issiq to‘n sovuq qotmaslikka, Qur’on esa bu hammomga ikkinchi marta kirmaslik uchun qasam ichish uchun kerak bo‘ladi .[133]

Bu tanqid uchun Xorazm xonidan ko‘p balolarga giriftor bo‘lgan va yana bir muddat Qo‘qonga ketadi va o‘sha yerda ijod qiladi.[134] Ma’lum muddatdan so‘ng Buxoroga qaytib keladi va u yerdagi madrasada, keyin esa elma-el yurib, tabibchilik faoliyatini davom ettiradi, ba’zida esa Amir Nasrullohning taklifiga ko‘ra, noilojlikdan saroyga ham borib turishga majbur bo‘ladi.

Bizga ma’lumki Amir Nasrulloh o‘zining asosiy raqib davlatlaridan hisoblaydigan Qo‘qon xonligi sarhadlari Muhammad Alixon davrida (1822-1841-yillar) anchayin kengayib, Nasrullohoning g‘azabini qo‘zg‘ay boshlaydi. Keyin uning qalbida bu davlatni tamoman bosib olish fikri paydo bo‘la boshlaydi va tez orada buning uchun bahona topiladi. Bu bahona quyidagicha edi: Muhammad Alixon hukmronligining oxirida davlat amaldorlaridan hech kimning hattoki mamlakat ishlarida faol ishtirok etayotgan onasining ham gaplariga quloq solmasdan nojo‘ya ishlar bilan shug‘illana boshlaydi. U hattoki o‘z otasi bo‘lgan marhum Umarxoning haramidagi joriyalaridan biriga uylanadi va undan farzand ko‘rgan degan gap xalq orasida yoyiladi. Tarixi Farg‘ona asarining muallifi

[133]Qayumov.A. Hoziq T. “O‘z FA nashiryoti”.1957-yil. 15-b.
[134] Irisov.A, Nosirov,A, Nizomiddinov.I. O‘rta osiyolik qirq olim. 94-b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Is'hoqxon To'ra Ibratning yozishicha "bu ayolning ismi Podshoxon oyim bo'lib, u Farg'ona beklaridan Mahmudbekning qizi bo'lgan".[135]

Qo'qonda Muhammad Alixonning shariatga zid ishlarni qilishda davom etishi Nasrullohxonning 1841-yilning noyabr oyida Qo'qon ustiga yurish qilishiga undaydi. Bu yurish natijasida Qo'qon zabt etiladi. 1842-yil aprel oyida Qo'qonga yangi yurish qilinadi. Tarixchi olim va shoir Mirzo olim Toshkandiy Mushrif o'zining XIX asr oxirida yozgan ' Ansob us -salotin va Tavorix' nomli asarida keltirishicha – Qo'qonga qilingan yangi yurishni eshitgan Muhammad Ali hamda inisi Sulton Mahmudxon taxtni tashlab Oyim qishloqqa qochishadi. Amir Nasrulloh bundan xabar topadi va ularni tutdirib keltiradi va Qo'qon xoni Sulton Mahmudxon, Muhammad Alixon ,Muhammad Alixoning 14- yoshli o'g'li Muhammad Aminbekni Qo'qondagi 'zarrin' degan xos imoratga olib kelinib, qatl qilinadi. Biroq Nasrullohxon bu bilan cheklanmasdan, uni haqorat qilgan xonzodalarning onasi- mashhur shoira Nodirabegimni, Muhammad Alining zavjasi, Oyim va Joriyasini – 4 nafar ayolni va boshqa bekzodalarni ham o'ldirtiradi va mudhish xatoga yo'l qo'yadi.[136]

Muhammad Hakimxon To'raning 'Muntaxab ut tavorix asarida yozishicha : Mavlono Hoziq Farg'ona mamlakatining fath etilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan va u bu voqeani quyidagicha tasvirlaydi:

Yillar davomida Farg'ona hokimi qilib hatto,
Zulm sahrosida kezdi tubanlikni ko'rib ravo.
Zalolat ishining kasofati urdi o'g'liga oxir,
Buxoro shohi bilan qilib urush tarxin bino[137].

Amir Nasrullohxon Qo'qonni o'ziga tobe qilgandan so'ng, o'zi bilan qanchadan-qancha hunarmand olimlarni asir sifatida olib ketadi. Asirlar ichida mavlono Hoziq ham bor edi.

Mushrif qalamiga mansub 'Ansob us -salotin va tavorix ul-xavoqin' asarining Hoziq qatli voqeasi deb nomlangan faslida Amirning g'alaba bilan Buxoroga kirib kelishi juda

---

[135] Ishoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona /tarjimonlar Dolimov.U, Jabborov.N.T "Ma'naviyat' 2005-yil 15-b.
[136] Mirzolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul havoqin: Qo'qon xonligi tarixi.-T."G'afur G'ulom nashiryoti"1995. 20-21-betlar.
[137] Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab At-Tavorix. T. "Yangi asr avlodi", 2010-yil. 191-bet.

ajoyib tarzda tasvirlangan. Amir Nasrulloh Buxoroga yaqinlashib qolgach o‘z nadimi hisoblangan Junaydulloh Hoziqqa g‘alaba tugagan o‘z safari to‘risida bir fard aytishini so‘raganda, Hoziq ushbu mazmundagi Forscha baytni o‘qiydi:

"O‘z qaddinga lanatlardan shunday bir libos tikib kiydingki, U libos ustingda qiyomatgacha qoladi" degan ma'noda so‘z aytadi.[138]

Mushrif o‘z asarida Amirning shu paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: "Amirning ziyoda jahli chiqib, rangida qatra qon qolmadi. To o‘rdasiga doxil bo‘lmaguncha so‘zlamadi"[139]

Tojirning "G‘aroiyibi sipoh" asarida Hoziq haqida ham ma'lumot uchraydi. Uning mashhur " Nadomat va benomuslikdan o‘zingga qiyomat kunigacha libos tiktirding" degan misralariga Tojirning quyidagi ma'lumoti ilova hisoblanadi: muallif xabaricha, Hoziq bir kuni yo‘lda bir choparni uchratadi. U amirga bir xat olib borib, unda Qo‘qoning amir tasarrufiga o‘tib, bu mulkda ham u hokim ekani ma'lum etilmoqda edi. Hoziq nomani o‘qib bir chekkasiga quyidagicha mazmunda yozib amirga jo‘natadi:" Hazratim bugun Payg‘ambarlikka da'vo qiladi. Kelasi yil nasib etsa xudo bo‘lsa ajab emas. [140] Buni ko‘rgan amirning ziyoda jahli chiqadi.

Buxoroga asir sifatida olib kelingan Hoziq bu yerda bir kun ham yashamasdan amirning qahridan qo‘rqib do‘stlarining taklifiga ko‘ra tunda Shahrisabzga ketishga majbur bo‘ladi. Bu paytda garchi Shahrisabz amirlikka qarashli hudud bo‘lsada, o‘lka beklari amir Nasrulloning muxolifi sifatida siyosat maydoniga chiqqandilar. Hoziq Shahrisabz hokimi Xo‘jaquli parvonachi panohida yashay boshlaydi. Amir Nasrulloh Shahrisabzga Hoziqning yaqinlaridan va o‘g‘li Mirzo Muhtashamdan 3 bora Hoziqning aybidan o‘tganligi va Buxoroga qaytishi mumkinligi to‘g‘risida maktub yuboradi.[141] Nasrullohning fe'lini yaxshi bilgan Hoziq bunga rozi bo‘lmaydi va "Huzuringda bo‘lishim tabiating ranjishiga sabab

---

[138] Rajabov.Q.K. Nasrullohxon. 24-b.
[139] Mirzolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul havoqin: Qo‘qon xonligi tarixi. 21-22-betlar.
[140] SH.Vohidov- Qo‘qon xonligi tarixi ( xonlik tarixi manbalarda). 115- b.
[141] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html

bo'ldi. Senga yana malol keladigan ish qilmay deb nari yuribman" – degan mazmunda bir fard yozib yuboradi.[142]

Hoziqning javobini o'qib, amirning battar jazavasi tutadi va "Uch bora chaqirtirsamda, kelmasa Shahrisabzga qo'shin tortib Hoziqni ham, uning tarafdorlarini ham daf etgum " deya a'yonlariga o'shqiradi. Shunda Rahmonberdi ismli vaziri amirga maslahat beradi: bir shoirga o'chakishib, kek deya cherik tortsak, el oldida isnodga qolamiz deya maslahat beradi.[143]

Hoziq Shahrisabz kenagaslari ichida yashab, markaziy hokimiyat va amir Nasrullohga qarshi turli ig'volarni avj oldiradi. U va Eshon Shofi'iy Kenagaslarning g'oyaviy mafkurachisi sifatida ularning separastik harakatini qo'llab quvvatlaydi. Separatizmning kuchayishi yoki pasayishi tashqi va ichki omillarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ichki sabablarni kuchaytiruvchi, o'z maqsadlari yo'lida bu sabablardan foydalanuvchi kuchlar separastik harakatning paydo bo'lishi va kuchayishiga olib keladi. Shahrisabzda ham ana shunday separastik harakatlar kuchaygan edi.

Nihoyat sabr-kosasi to'lgan Amir Nasrulloh 1843-yil Do'shaboy degan o'g'rini zindondan chiqarib, unga Hoziq va Eshon Shofi'iyni o'ldirish vazifasini yuklaydi. Mirzo Olim Mushrifning " Qo'qon xonligi tarixi" asarida bu voqea batafsil yoritilgan. Unda aytilishicha: " Do'shaboy Shahrisabzga kelib, necha kunlar qasd qilib, poylab yurdi va Shahrisabz hokimi qirq nafar mirshablarni poylatib qo'yg'on erdi. Kechasi atroflarni uxlamay aylanib chiqar edi. Qazo bir kun amir buyurgan Do'shaboy nomlig' o'g'ri erdi, biro dam kasal suratida qilib oldilariga olib keldi:- "taqsir , mung'a doru bering, kasal bo'lubdir" deb. Shul kecha yotib, boshlarini olib, kechalab amiri Buxoroga manzur qildi ersa, inom-ehson banohayalar sarafroz ayladi.[144]

Mash'um voqeadan xabar topgan Xo'jaquli boshchilgida ahli olomon Kitob bekligining Oxund mozoriga dafn etishadi.[145]

---

142 A.Irisov,A.Nosirov,I.Nizomiddinov-O'rta osiyolik qirq olim.'O'zbekiston SSR fanlar Akademiyasi"nashiryoti.-Toshkent-1961-yil. 96-b.
143 https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html
144 Mirzolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul havoqin: Qo'qon xonligi tarixi. 21-22-betlar.
145 https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html

Shuning uchun ham fuzalo kishilar uni shahid deb biladilar -deydi " G'aroyibi sipoh " asarining muallifi Tojir va quyidagi mashhur baytni keltiradi:

Men na chalajon bo'ldimu, na ovlangan qatorda bo'ldim.

Qonimdan yer ham bo'yalmadi, biror pok etakni ham bo'yamadim.[146]

Garchi Junaydulloh Mahdum Hoziq 1843-yil yanvarida suiqasd qurboni bo'lgan bo'lsada " voqea Islomi", " Tahqiq-ul kafonad", "Yusuf va Zulayho " kabi tabobat va adabiyotga oid asarlari va har qanday sharoitda ham rost so'zlay olishi, o'z davrining donishmandi sifatida o'z nomini tarixga muhrladi.

Xulosa qilib aytganda amir va shoir o'rtasidagi munosabat juda ham murosali hisoblanadi. Amir Nasrulloh o'z davrining yetuk hukumdori hisoblansada, uning Qo'qonga qilgan yurishi va hukumdorlarini, davrining buyuk shaxslarini qatl qildirishi uning nomini tarixda qora harflar bilan yozilishiga sabab bo'ldi. Shu jumladan Hoziqning o'limi ham. Mamlakatning ichki siyosatini hamda mamlakat sarhadlarini qo'lda ushlab turish uchun ba'zida davlatning ko'zga ko'ringan shaxslarining bahridan o'tishga to'g'ri keladi. Hoziq taqdiri ham xuddi shu kabi yakunlandi. Uning o'limi mamlakat sarhadlarini qo'lda ushlab qolishga imkon berdi. Yuqoridagi tarixiy ma'lumotlar va fikrlardan kelib chiqqan holda biz bu masalaga ozgina bo'lsada aniqlik kiritdik degan umiddamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov.Q.K Nasrullohxon.T."Abu Matbuot-Konsalt" 2011.
2. A.Irisov,A.Nosirov,I.Nizomiddinov-O'rta osiyolik qirq olim.T. "O'zbekiston SSR fanlar Akademiyasi" nashiryoti 1961.
3. Rajabov.Q.K. Nasrullohxon. 24-b.
4. Mirzolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul havoqin: Qo'qon xonligi tarixi. 21-22-betlar.
5. .Vohidov Sh - Qo'qon xonligi tarixi ( xonlik tarixi manbalarda). 115- b.
6. Ishoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona /tarjimonlar Dolimov.U, Jabborov.N.T "Ma'naviyat' 2005-yil 15-b.

[146] SH.Vohidov- Qo'qon xonligi tarixi ( xonlik tarixi manbalarda). 115- b.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

7. Muhammad Hakimxon To‘ra. Muntaxab At-Tavorix. T. “Yangi asr avlodi”, 2010-yil. 191-bet.
8. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-votvot-turdi-hoziq.html.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Тарих дарсларида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантиришда тренинг усулларидан фойдаланишнинг аҳамияти

**Каршиева Завра**

Сурхондарё вилоят Олтинсой тумани

37-мактаб тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Интегратив методлар тизими. Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантиришда тренинг усулларидан фойдаланиш.

Бугунги глобаллашув жараёнлари фаол кечаётган шароитда Президентимиз Ш.Мирзиёев айтганларидек, **“Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. Демак,** ўта мухим ва долзарб вазифа Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини ҳаётга жорий этиш, дастур орқали юксак замонавий талабларга жавоб берадиган, янгича фикрлайдиган, мамлакатимиз келажак қадрини ишониш, топшириш мумкин бўлган ёш кадрларни тарбиялашдир . Бироқ , статистик маълумотларга таянадиган бўлсак, 60% ўқитувчилар анъанавий дарс усулларидан фойдаланиб келмоқда.[147] Улар учун оддий дарс ўтиш осойишта, тинч, муаммоларсиз бўлиб, меъёрий ва барқарор ҳаётни билишнинг синалган усулидир. Мактаб ўқувчилари бошланғич синфларданоқ ўқитувчи танбеҳлари (“жим ўтир, тўғри ўтир, фикримни бўлма, тинглашни бил”) остида таъли-тарбия оладилар. Чет эл тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатдики, хорижлик ёшлар боғча ёшидаёқ хатто оилада ҳам эркин фикрлашга ўргатилади. Барча муаммоларни ўзлари ҳал қилишга интилади. Бизнинг тенгқурларимиз ҳамон катталарнинг ёрдамисиз хеч бир муаммоларни ҳал қила олмайдилар. Буни асосий сабаби -мактаб ёшида уларда мустақил фикрлаш ва мустақил ишлаш кўникмалари шакиллантирилмайди. Дарсларда оддий тингловчи сифатида қатнашувчи ва берилган топшириқни бажарувчи бўлиб қолганлигидир. Зеро, ҳозирги замонавий таълим усуллари асосида ёшларни мустақил фикрлашга ўргатиш муҳим аҳамиятга эга, чунки шу ҳислатга эга бўлиш орқали улар интелектуал қобилиятларини номоён этадилар, мустақил тафаккурга эга бўлиб борадилар, ўз фикри билан баҳслашишга ўрганадилар.

---

[147] . http//uz.ref.uz/download.php?id=18994 – Таълим муассасаларида инновацион фаолиятни шакллантириш.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Интегратив методлар тизимига кирувчи тренинг услуби ёрдамида ўқувчилар гурух, жамоа бўлиб биргаликда ва индивидуал ҳолатда мунозарада қатнашишга ўрганадилар. Улар ўқув фаолияти моҳиятини ҳис этиб мавзу муаммосини ҳал этиш учун ва буни ўзи учун фойдали эканлигини тушуниб , унда мустақил ижодий тафаккур шаклланиб боради, кўпчилик орасида ўз фикрини мустақил айта оладиган ҳамда, кўрилаётган масалага муносабатини билдира оладиган бўладилар.

Агар ўқувчи ўқув фаолиятининг моҳиятини кўра олмаса, у ўқув мақсадини тан олмайди, ўқитувчи қўйиган вазифаларни тушунмайди ва қабул қилмайди, у томонидан содир этиладиган барча хатти –ҳаракатлар мажбурият ва таъзиқ остида содир бўлади. Унинг билимлар формал характерга , педагог фаолияти умидсиз формализм мазмунига эга бўлади. Маълумки, биз уларни олган билимларини амалиётга тадбиқ этишга ўргатсак, ўқувчида мустақил ўқув фаолияти кўникмаси шаклланади. Бу дарслик мазмунидан баъзи маълумотларни шунчаки кўр –кўрона ёдлаб олиш бўлмайди, балки ўқувчининг шахсий, субъектив тажрибасига асосланган ҳақиқий билимлари бўлади. Ушбу фикримиз бундан 2500 йил аввал буюк хитой файласуфи Конфуций такидлаган қуйидаги ҳикматга жуда мос тушади- “Айтсанг-унутаман.Кўрсатсанг-эслаб қоламан. Ўзим бажариб-англаб етаман “ [148].

Инсон ҳамиша субъектив моҳиятга эга. Ўқувчи муайян билимларга нисбатан тренинг жараёнида бефарқ бўла олмайди. Ўқитувчи бунга ўқув предметига муносабатини қадриятли , ижобий субъектив муносабатни таркиб топтириш натижасида эришади.

Тренинг жараёнида одатий дарслардан фаркли ҳолатда ўқувчи руҳий хусусиятларини ўрганиш, ўзлаштираётган билимларнинг ўқувчига шахсан қизиқарли ва керакли бўлишлиги тушунтирилади, акс ҳолда уларда одатдагидек бефарқлик, баъзи ҳолларда ўқув предметини рад этилишини кўриш мумкин. Бу ҳолатни образли қилиб ифодаласак, индивидуал тафаккурда билимлар субъективлашади, ўзига хос индивидуал жиҳатларга эга бўлиб қолади. Тескари жараёнда эса, индивидуал тасаввур ва шахсий фикрлар объектив аҳамият касб этаркан , билимлар турли нуктаи назарларнинг тўқнашуви , бахс-мунозара , ўзаро ҳамкорликдаги фаолият натижасида ўзлаштирилади.

Тренинг ўқувчи ва ўқитувчининг биргаликдаги фаолиятига асосланади. Ушбу фаолиятга педагогика фанлари доктори Ўткир Толипов қуйидагича таъриф беради – “Фаолият шахс ривожланишининг асосий субстанцияси ҳисобланади. Шахс фаолияти унинг ички ҳиссиётлари билан боғлиқдир. Шахс мотив, ҳиссиёт

[148] Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва баркамоллигини шакллантириш муаммолари . Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, Қўқон, 2008, 11-12 июнь , 95-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ва шахсий фикр доирасида намоён бўлади"[149]. Тренинг дарсларида ўқувчининг ана шу ҳислатлари намоён этилишига йўл берилади.

Ўқув жараёнида анъанавий дарсларга ҳос бўлган объект қолибидан озод бўлган ўқувчи тренинг услубидаги дарсда фаол субъектга айланади. Ўқитувчи эса, бошқарувчи ва йўналтирувчи субъект бўлади. Ўрганилаётган мавзу илк бор нейтрал объект даражасидан субъектив зарурат даражасига кўтарилади.

Тренинг жараёнида самара берадиган мавзуларни аниқлашда ва гуруҳларни ҳосил қилишда ўқитувчи –тренердан ташҳис (диагноз) қила олиш қобилиятини талаб этади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда қуйидагиларни ҳулоса қилиш мумкин:

- ўрганиладиган мавзу ва ўқувчилар имкониятидан келиб чиққан ҳолда тренинг услубида самара берадиган тарихий мавзуларни ўрганишда тренинг методларидан кенг фойдаланиш керак;
- мактаб таълимида тренинг услубидан келиб чиққан ҳолда, ўқувчида мустақил тарихий тафаккурни ҳосил қилишда тарих фани ўқитувчиси замонавий глобал таълим принципларига мос илғор таълим элементларини дарс жараёнига тадбиқ этиши зарур;
- тренинг услуби методларида тарихий мавзулар илмий-назарий ўргатиш баробарида , ўқувчини мустақил фикрлашга, ички имкониятларини ва актёрлик қобилиятларини намоён қилишига йўл берайлик;
- ўқувчиларни ёш хусусиятларини ва ижодий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда методологик билимлар билан қуроллантирайлик, чунки бу билан ўқувчи мустақил ўрганиш ва машғулотларда ҳамда келажакда ўзлигини намоён қилиш имкониятига эга бўлади;
- ижодий муҳитни ҳосил қилувчи ва тарих дарсларида самарали натижалар берадиган ноанъанавий усуллардан фойдаланиш борасида дастурлар ва методик қўлланмалар чоп этиш керак.

Тарих дарсларида ижодий муҳит яратиш билан ўқувчида жараённи ҳар томонлама таҳлил қилиш , индуктив ва дедуктив хулосалар чиқариш, кечаги кундан ўрнак олиш , ҳамда эртасини шу асосда ташкил қилиш кўникмаси ҳосил қилинади. Зеро, "Ўтмиш уни англагангагина хизмат қилишини , келажак эса, ҳақиқий бунёдкоргагина тегишли эканлигини англамоғимиз керак"[150]. Ана шу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолатда бугунги кун ўқув жараёнини замонавийусулларга таяниб ташкил этиш ҳар тарафдан самарали кечади.

## Адабиётлар

[149] Толипов Ў. Шахс такомилига йўналтирилган таълимий технологиялар. Халқ таълими, 2005, №3, 9-бет.
[150] Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Т.,Маънавият, 1999,22-бет.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

1.Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” “Ўзбекистон”НМИУ,2017

2.Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил: қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Т.,2017

3. Акромова Ф.А. Мунозара ва тренингларни қўллашнинг психологик моҳияти. “Замонавий илм фан техналогияларининг энг мухим муаммолари” Республика илмий амалий конференцияси тезислари. Жиззах, 2004.

4. Глобал таълим. Ўқутувчилар учун қўлланма. Т., 2005 .

# Дарсни илғор педагогик технологиялар асосида ташкил қилишнинг ўрни,аҳамияти ва улардан амалда фойдаланиш йўллари

Мустарамов Собир Туракуловмич

Сурхондарё вилояти Термиз шаҳри 11-мактаб

тасвирий санъат ва чизмачилик фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Таълим сифатини ошириш.Дарсни илғор педагогик технологиялар асосида ташкил қилишнинг ўрни,аҳамияти ва улардан амалда фойдаланиш йўллари. Дидактик ўйинлар. Ижодий ўйинлар. Замонавий ўқитувчи.

**Мамлакатимизда таълим соҳасини ривожлантириш,таълим сифатини оширишга катта эътибор қаратилган. Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш:**

узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш;

таълим муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш, уларни замонавий ўқув ва лаборатория асбоблари, компьютер техникаси ва ўқув-методик қўлланмалар билан жиҳозлаш орқали уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш юзасидан мақсадли чора-тадбирларни кўриш;

мактабгача таълим муассасалари тармоғини кенгайтириш ва ушбу муассасаларда болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш, болаларнинг мактабгача таълим билан қамраб олинишини жиддий ошириш ва фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, педагог ва мутахассисларнинг малака даражасини юксалтириш;

умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш, чет тиллар, информатика ҳамда математика, физика, кимё, биология каби бошқа муҳим ва талаб юқори бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш;

болаларни спорт билан оммавий тарзда шуғулланишга, уларни мусиқа ҳамда санъат дунёсига жалб қилиш мақсадида янги болалар спорти объектларини, болалар мусиқа ва санъат мактабларини қуриш, мавжудларини реконструкция қилиш;

касб-ҳунар коллежлари ўқувчиларини бозор иқтисодиёти ва иш берувчиларнинг эҳтиёжларига жавоб берадиган мутахассисликлар бўйича тайёрлаш ҳамда ишга жойлаштириш борасидаги ишларни такомиллаштириш;

таълим ва ўқитиш сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш асосида олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, олий таълим муассасаларига қабул квоталарини босқичма-босқич кўпайтириш;

илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш, олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот институтлари ҳузурида ихтисослаштирилган илмий-экспериментал лабораториялар, юқори технология марказлари ва технопаркларни ташкил этиш. Бундан кўриниб турибдики, таълимни ривожлантириш, таълим сифатини ошириш муҳим масалалардан биридир. Шундай экан,таълим жараёнига интерфаол, иннавацион, педагогик ва ахборот технологияларини қўллашга эътибор кундан - кунга ортиб бормоқда. Бунинг сабабларидан бири, шу кунгача анъанавий таълимда ўқувчилар фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган, ривожлантирувчи таълимда эса билимлар ни ўрганувчиларнинг ўзлари мустақил излаб топиш, мустақил ўқиб таҳлил қила олиш, хулосаларини ҳам ўқувчиларнинг ўзлари келтириб чиқариб талаб қилинишидадир. Бу мақсадга эришишда анъанавий методлардан фойдаланиш кутилган натижаларини бермаслиги мумкин.

Шу сабабдан ўқитувчи иннова- цион технологияларни ўзлаштириб олиши ва улардан дарс жараёнида самара ли фойдаланиши талаб қилинмоқда. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритишни назарда тутиб, ўқитувчи ин- новацион фаолиятининг самараси сифатида намоён бўлади ва уни амалга оширишда интерфаол методлардан тўла фойдаланиш лозим.

Бу методларниг ўзига хослиги шундаки, улар педагок ва ўқувчиларнинг биргаликда ҳаракат қилиши, бирга фаолият кўрсатиш орқали амалга оширилади.

Маълумки ҳар бир дарс, фан ёки мавзуни ўрганишда ўзига хос техноло гия, метод ва воситаларни танлаш ва фойдаланишга тўғри келади. Ўқитиш жараёнида юқори натижага эришиш учун дарс жараёнини олдиндан лойиҳалаштириш зарур.

Лойиҳалаштириш жараёнида ўқитувчи предметнинг ўзига хос томонларини, ўқув жойини ва шароитини, ўқувчиларнинг эҳтиёжларини ва имконият ларини, билим савиясини, шароитига қараб ишлатиладиган технологияларни танлаши керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ўқитувчи ҳар бир дарсни яхлит ҳолатда кўра билиши ва уни тасаввур этиш учун ҳам бўлажак дарс жараёни лойиҳаланиши керак. Бунда дарснинг технологик харитасини туза олиш жуда муҳимдир, чунки дарснинг техноло- гик харитаси дарснинг қизиқарли бўлиши учун асосий восита ҳисоланади ва дарсда ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган билимларнинг кафолатланишига ёр дам беради.

Дарснинг технологик харитасининг қандай кўринишида ёки қандай шаклда тузиш ўқитувчининг маҳорати, тажрибаси, ўз олдига қўйган мақсади ва имкониятига боғлиқдир.Дарс технологик харитасининг кўплаб вариантлари мавжуд.

Технологик харита қандай тузилган бўлмасин, унда дарс жараёни яхлит холатда акс этган бўлиши, дарснинг мақсади, вазифалари ва кутилаётган натижалар, дарсда ишлатиладиган технология ва методлар аниқ белгилаб қўйилиши керак. Шунингдек, дидактик ўйинлар технологиясидан фойдаланиш ҳам дарс самарасини оширишга катта ёрдам беради.

**Дидактик ўйинлар технологияси -** Таълим жараёнида дидактик ўйинли технологиялар дидактик ўйинли дарс шаклида қўлланилади. Ушбу дарсларда ўқувчиларнинг билим олиш жараёнини ўйин фаолияти билан уйғунлаштиради. Шу сабабли, ўқувчиларнинг билим олиш фаолияти , ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар дидактик дарслар деб аталади.

Маълумки, инсон ҳаётида ўйин фаолияти куйидаги функцияларни бажаради:

1. Ўйин ҳар доим шахснинг маълум бир фаолиятга бўлган қизиқишини орттиради.

2. Ўйин давомида шахснинг мулоқотга киришиши коммуникатив- мулоқот маданиятини эгаллашга ёрдам беради.

3. Шахснинг ўз иқтидори, қизиқиши, билимини ва ўзлигини намоён этишга имкон яратади.

4. Ҳаётда ва ўйин жараёнида юз берадиган турли қийинчиликларни енгишга, мўлжални тўғри олиш кўникмалари таркиб топади.

5. Ўйин жараёнида ижтимоий нормаларга мос хулқ-атворни эгаллаш, камчиликларга барҳам бериш имконияти яратилади.

6. Шахс структурасига тегишли ўзгартиришлар киритилади, яъни ижобий хислат ва фазилатларни шакллантиришига замин тайёрлайди.

7. Инсоният учун аҳамиятли бўлган қадриятлар тизимини, айниқса ижтимоий, маънавий – маъданий қадрятларни ўрганишга этибор қаратилади.

8. Ўйин иштирокчиларига жамоавий мулоқот маданиятини ривожлантириш ва дўстона муҳит яратилиши кўзда тутилган.

Ўйин фаолияти ўзининг қуйидаги хусусиятлари билан тавсифланади:

1. Ўйин иштирокчилари ролларни, вазифаларини танлаши натижасида эркин ривожлантирувчи фаолият,яъни ўқувчиларнинг ўз фаолиятини таҳлил ва назорат қилиши, мақсадга мувофиқ натижага эришган ҳолларда ўз фаолиятидан кўнгил тўлиши, ўз билимига ва кучига ишонч вужудга келади.

2. Ижодий муҳит таркиб топади. Ўйин иштирокчилари муаммоларни ҳал этишда тегишли ижодий ва мустақил фаолиятга эга бўладилар.

3. Ўйин давомида мусобақа, рақобат, ҳамкорлик, ўзаро ёрдам вужудга келади. Шу аснода ҳис ҳаяжонли вазият пайдо бўлади ҳис ҳаяжонга йўғрилган билим, кўникмалар инсон хотирасида бир умр муҳрланиб қолади.

4. Ўйин давомида белгиланган қонун қоидаларга амал қилинади. Ўйин иштирокчиларига ижтимоий нормаларга мос онгли интизом вжудга келишига замин тайёрлайди.

5. Ўйин мазмуни, бориши, мантиқий кетма-кетлиги, вақт баланси ва ўқувчиларнинг муаммоли вазиятларни зудлик билан ҳал этиш, мўлжални тўғри олишга ўргатади.

Бошқа ўқув ва меҳнат фаолияти каби ўйин фаолияти таркибига қуйидагилар:

А) ўйиннинг сюжети;

Б) ўйин иштирокчилари бажарадиган муайян роллар ва вазифалар;

В) ушбу ролларни амлга ошириш учун бажариладиган амаллар;

Д) ўйин иштирокчилари ўртасидаги муносабат, мулоқот киради.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ўйин фаолияти билан уйғун ҳолда ташкил этиш қуйидаги босқичлардан иборат бўлади:

1. Дидактик ўйиндани кўзда тутилган мақсадни аниқлаш,

2. Дидактик ўйин сюжети ва иштирокчилар фаолиятини лойиҳалаш;

3. Ўйинда кўзда тутилган мақсадни амалга ошириш йўлларини белгилаш;

4. Дидактик ўйинни мақсадга мувофиқ ташкил этиш, унинг мазмуни, бориши мантиқий кетма-кетлиги, вақт баланси ва ўқувчиларнинг муаммоли ва зиятларни зудлик билан ҳал этишга этиборини қаратиш;

5. Ўйин иштирокчиларини рағбатлантириш;

6. Олинган натижаларни таҳлили қилиш;

7. Олинган натижаларга мувофиқ ҳолда ўйин структурасини ва боришга тегишли ўзгартиришлар киритиш.

Дидактик ўйинли дарслар орқали қуйидаги функциялар амалга оширилади:

-Таълим-тарбия бериш;

-Шахсни ривожлантириш;

- Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини йўналтириш;

-Билимларни назорат қилиш ва таҳлил қилиш;

-Касблар билан таништириш ва касбга йўналтириш;

-Ўқувчиларнинг мулоқот ва нутқ маданиятини ривожлантириш, улар ўртасидаги дўстона муҳитни яратиш.

Таълим-тарбия жараёнида бу функциялар мажмуа ҳолда амалга оширилади, лекин ўйинда ўрганиладиган дидактик ўйин турларида қайсидир функция устунлик қилади.

Масалан, конференция дарсларида шахсни ривожлантирш устунлик қилади, қолган функциялар унга илова бўлади, ижодий ўйинларда ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш, уларнинг мулоқот ва нутқ маданиятини ривожлантириш орқали дўстона муҳитни яратиш устунлик қилади, қолган функциялар уни тўлдиради.

Ўқитувчи дидактик ўйинли дарсларни ўтказишга қизғин тайёргарлик кўриши ва уни ўтказишга қуйидаги дидактик талабларга амал қилиш лозим:

1. Дидактик ўйинли дарслар дастурда қайд этилган мавзуларнинг таълимий, тарбиявий ва ривлжлантирувчи мақсад ва вазифаларнинг хал қилишга қаратилган бўлиши;

2. Амалиётдаги ва жамиятдаги муҳим муаммоларга бағишланиб улар ўйин давомида ҳал қилиши;

3. Баркамол шахсни тарбиялаш тамойилларига, шарқона одоб-ахлоқ нормаларига мос келиши;

4. Ўйин структурасини мантиқий кетма-кетликда бўлиши;

5. мазкур дарслардан дидактик принципларга мамал қилиши ва энг кам вақт сарфланишига эришиш керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Дидактик ўйинли дарсларнинг муваффақияти, аввало ўқувчиларнинг мазкур ўйинларга пухта ва қизғин тайёргарлик кўришларига, ўқитувчининг мазкур фаолиятини ташкил этиш ва моҳирлик билан бошқаришга боғлиқ.

Ўқитувчи аввал ўқувчиларни индивидуал, сўнгра гуруҳли ўйинларга тайёрлаши ва ўтказиши ва улар муваффақиятли чиққандан сўнг, оммавий ўйинларга тайёргарлик кўрилиши лозим.

**Ижодий ўйинлар -** Ўқувчиларнинг ижодий изланиши, мустақиллиги мантиқий фикрлашини ривожлантиришда, қўшимча билим олишга бўлган эҳтиёжларини қондиришга ижодий ўйинлар муҳим аҳамиятга касб этади.

Хулоса шуки, дарс жараёнида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш шубҳасиз, дарс сифатини оширишга ёрдам беради. Зеро, мақсадимиз ҳам таълим сифатини оширишдир.Ўз педагогик фаолиятингизда тажрибаларимдан ижодий ёндошган ҳолда фойдалансангиз, маҳоратингиз ошиб бориши шубҳасиз.

Гап интерфаол усулларни чукур ўрганиб, ўзлаштириб, дарс жараёнингизда қўллай билишдадир.

Дарсларингиз ўзаро фаолликда, ўқувчининг шахсий иштирокида, дарс жараёни улар билан дўстона муносабатда ҳамкорликда, ҳамижодкорликда кечса-муваффақиятлар Сиз билан бўлади.

Ҳар қандай дарснинг пировард мақсади ўқувчининг дарсда фаол иштирок этиб мустақил фикр юритганлиги, ўз позициясини ҳимоя кила олганлигидадир.

Шу аснода Сиз ўқув-билув жараёнида пировард натижада сифат ва самардорликни кафолатлай оласиз.

Бугунги кун ўқитувчиси ўз устида тинмай ишлаши, ҳар томонлама илғор, теран фикрлайдиган, илғор педагогик ва ахборот технaлогияларини самарали қўллайдиган ижодкор ўқитувчи, ёшларни маънавият сари етаклайдиган, ажойиб инсоний фазилатлар соҳиби бўлиш керак. Ҳар томонлама етук, баркамол, ўз ўқувчиларига юксак намуна кўрсата оладиган устоз бўлиши керак. Фарзанд таълим – тарбияси, камолати ҳакида қайғуриш ҳар биримизнинг фазилатимиздир ва бу маъсулият янада кўпрок ўқитувчининг зиммасига тушади. Бекорга Дистервег “Ҳар кандай таълим ва тарбияда асосий омил – муаллим, унинг тафаккур дунёсидир” деб бежиз айтмаган. Ўқитувчи келажак авлоднинг пойдеворини шогирдининг камолати орқали бунёд этади. Ўқитувчи замон талабига хамоҳанг, замон билан бирга қадам ташлаши керак.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Чунки бугунги илм-фан тараққиёти шуни тақазо этади. Замонавий ўқитувчи нафақат ўз фаолиятининг билимдони балки ён-атрофдагиларни қизиқтирадиган барча соҳадаги сўнгги янгиликлардан ҳам хабардор бўлиши керак. Хар қандай доирада мустақил фикрини билдириши зарур.

Замонавий ўқитувчи ўз билими, ташқи кўриниши, ички маънавий дунёси билан хам ўқувчиларига ўрнак бўлиши керак.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

**1.Ш.Мирзиёев."Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак". Т.,2016**

2.И.Каримов . Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.:Шарк.1997й

3.Саъдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. "Тарих ўқитиш методикаси. – Т., Низомий номли ТДПУ, 2008. - 119 б.

4. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., 2006:

5. Очилов М. «Янги педагогик технологиялар» / қўлланма. - қарши: Насаф, 2000.

6. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004

7.Толипов Ў.К., Усмонбоева М.. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари - Т., 2006.

**Internet saytlari**

http://www.google.uz/

http://www.google.com/

http://www.google.ru/

http://www.vikipediya/

http://www.uzedu.uz

http://www.ziyonet.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

http://www.bilimdon.uz

http://www.kitob.uz/

http://www.eduportal.uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Интерфаол усулларнинг ўқувчи ёшларни эркин фикрлашини ривожлантиришдаги ахамияти

Халлиева Тозагул Джораевна

Сурхондарё вилояти Термиз шаҳри

11-мактаб тарих-хукук фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Замонавий ўқитувчи.Интерфаол усулларнинг ўқувчи ёшларни эркин фикрлашини ривожлантиришдаги ахамияти.Бинго.Инсерт.

Таълими ривожланган давлатнинг келажаги буюк бўлади. Мамлакатимизда ҳам бугунги кунда таҳлим сифати ва дарс самарадорлигига эътибор кучайтирилган. Айтишимиз мумкинки,таълим самарадорлигини ошириш, давлат таълим стандартларининг бажарилишини таъминлаш, таълимнинг сифат кўрсаткичини кафолатлашда замонавий педагогик технология ҳал қилувчи омиллардан бўлиб бормоқда.Демакки,ҳозирги ўқитувчи дарсларни замонавий педагогик технологиялар асосида ташкил қилиб ўтишга тайёр бўлиши керак. Бир сўз билан айтганда ҳар бир фан ўқитувчиси замонавий, етук, касбий маҳорат ва компетентликка эга бўлган ўқитувчи бўлиши керак.

Педагогик технологияни ўқув жараёнида қўллаш жаҳон амалиётида кенг тарқалмоқда.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида ўқувчи ва ўқитувчини доимий изланишга, узлуксиз ўз устида ишлашга ундайдиган ўқитишнинг интерфаол усуллари кириб келган. Бу, ўз навбатида таълимда самарадорликни таъминлайди. Педагогик технология, унинг асосий тамойиллари, янгича ишлаш усуллари, ўқитувчининг ҳамда ўқувчининг ўқув жараёнидаги ўрни, роли ҳақида билиб бориш, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиб ўқув жараёнининг юқори сифат ва самарадорлигини ҳосил қилишга хизмат қилувчи вақт оралигини қисқартириш, таълимни жадаллаштиришга ёрдам беради. Шундай экан мустақил фикрловчи, иродали, ақлли шахсларни шакллантиришда уларнинг ҳар томонлама ўрганиш ҳамда уларга турли томонлама таъсир эта олиш йўллари ва усулларини кўриб чиқиш керак бўлади. Ёшларни ўрганишда уларни нафақат физиологик, балки психологик томонларини, яъни психик жараёнларини, ҳиссий иродавий хусусиятларини ўрганиш зарурий аҳамиятга эга.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Шахснинг ўз эҳтиёжларини қондиришда, олдига қўйган мақсадларига эришишда ва эркин фикрлашида катта аҳамият касб этадиган ҳиссий-иродавий хусусиятларини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиз.

Ҳис туйғулар кишининг ҳаётида нималар юз берганига, нималарни билиб олаётганига ёки нима билан машғул бўлаётганига ўзида билдириладиган турли хил ички муносабатларидир. Ҳис туйғуни бошдан кечиришнинг турли хил усуллари мавжуд бўлиб, уларга ҳиссиёт (эмоция), аффект, кайфият, кучли ҳаёжонланиш (стресс) ва ҳоказолар киради.

Эҳтиёжларнинг қондирилиши ёки қондирилмаслиги кишида турли хил ўзига хос кечинмаларини ҳосил қилади. Шундай кечинмаларнинг бири ҳиссиёт бўлиб ҳисобланади. Ҳиссиётнинг икки хил ижобий ва салбий холатлари бўлиб, ижобий ҳолат шахснинг муносабати ва фаолиятида эҳтиёжларни қондириш жараёнининг хуш келадиган тарзда кечганлигидан далолат берса, эҳтиёжларнинг қондирилмасдан қолиши салбий ҳиссий кечинмаларга сабаб бўлади.

Шундай салбий ҳолатлардан бўлган уятчанлик ва тортинчоқлик айниқса дарс жараёнида ўқувчининг мавзуни эркин ифодалаши ва ўз фикрини баён қилишида тўсиқ бўлади. Бундай ҳолатлар ўқувчининг билими ва фикрларини юзага чиқаришда тўсиқ бўлибгина қолмасдан, ўқитувчининг ўқувчи билимини тўғри баҳолашида ҳам қийинчиликлар туғдириши мумкин. Чунки ўқитувчи назарида бундай ўқувчиларнинг билим савияси паст бўлиб кўринади. Шундай экан, ўқувчилардаги бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш ва бартараф қилиш учун дарсни интерфаол усуллар билан олиб бориш фойдалидир.

Ўқувчилардаги бундай салбий хислатларни бартараф этишда интерфаол усулларнинг қандай таъсири бор деган савол туғилади.

Дарс жараёнида интерфаол усулларни қўллаш ўқувчиларнинг ўз фикрларини эркин ифодалашида бир қанча кулайликлар келтиради. Чунки, интерфаол усулда дарс ўтилса, ўқувчиларнинг бир нечта гуруҳларга бўлиб, улар орасида ўзаро мусобақа ўтказиш орқали ўқувчиларни фаоллаштиради ва ҳар бир ўқувчининг фикрини нотўғри деб қарамасдан уларнинг фикрларини тинглаб, шу фикрлардан умумий хулоса чиқаришга ўргатади. Натижада дарсга ҳамманинг фаол қатнашишига олиб келади. Ўз-ўзидан бундай вазиятда синфдаги айрим уятчан ва тортинчоқ ўқувчилар ҳам дарсга фаол қатнаша бошлаши мумкин.

Масалан, фаол усуллардан бири муаммоли вазият яратиш орқали дарс ўтишда ўқитувчи ўқувчиларни кичик гуруҳларга бўлади ва уларга муаммоли саволларни беради. Ўқувчилар берган саволларга гуруҳдаги аъзолар билан ўзаро фикрлашиб, умумий жавобни айтишлари керак бўлади. Бундай усулда ўтилган дарсда уятчан ва

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

тартинчоқ ўқувчилар ҳам фаол қатнаша бошлаганини кўриш мумкин. Чунки, биринчидан, ўқувчилар мусобақа тарзида ўтилаётган бу дарсга фаол қатнашиб, ғолиб бўлиш мақсадида бўлса, иккинчидан, бундай вазиятда ўқувчи доскага чиқиб ҳамма ўқувчилар олдида мавзуни тушунтирмасдан, фақат кичик гуруҳга ўз фикрини айтади. Бу эса ўқувчида фикрини эркин айта олишга шароит туғдиради. Шундай фаол усулларни қўллаш орқали дарс ўтиш кўпроқ қўлланилса ўқувчилардаги уятчанлик ва тортинчоқлик ҳолатлари бартараф этилиб, улар энди нафақат кичик гуруҳларда, балки ҳамма ўқувчилар олдида ҳам эркин фикрларини ифодалай олишлари мумкин.

Шундай экан, бугунги кун педагогикаси ўқувчиларнинг ўз фикрларини эркин, тортинмай айтиш имконини берадиган янги интерфаол усулларни ҳаётга яна ҳам чуқуррок татбиқ этиш йўлидан борилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Масалан,"**Бинго"методи ҳам ўқувчиларни ўтилган мавзуни такрорлаб боришга, гуруҳларда ишлаш орқали мулоқот қилишга ўргатади.** Ушбу машқни ўтказиш учун ҳар бир иштирокчи учун олдиндан тарқатма материалларни тайёрлаб қўйиш керак. Уни қуйидагича ўтказиш мумкин.

- Бошловчи ҳар бир иштирокчига тарқатма материалини беради. Иштирокчилар бошқа ўқувчилардан олинган имкон қадар кўпроқ ахборот тўртбурчакларини тўлдиришлари лозим. Мамлакатлар номлари ва ўқувчининг исми тегишли тўртбурчакда ёзилиши кераклигини таъкидлаш лозим. Иштирокчилар ўртасида иложи борича кўпроқ ҳамкорлик ҳосил бўлиши учун ҳар бир ўқувчининг исми варақда фақат бир марта ёзиб қўйилиши мумкин. Ҳар доим тўртта тўртбурчакдан иборат қатор – горизонтал, вертикал ёки диагонал йўналиш бўйича тўлдирилгандан сўнг, ўқувчи "бинго" деб овоз чиқариб айтиши, кейин эса бошқа қаторларни ҳам тўлдиришга уриниб кўриши керак. Бу жараёнда ўқувчилар пассив равишда варақларини алмашишларини эмас, бир-бирига фаоллик билан савол беришларини рағбатлантириш муҳимдир.
- Машқнинг муҳокамасини ўтказиш:
    1. Сиз машқни ўтказиш вақтида нималарни ҳис қилдингиз?
    2. Ўз синфдошларингиз тўғрисида қандай янгиликларни билиб олдингиз?
    3. Машқ давомида мамлакатлар ўртасида қандай алоқаларни ўрнатдингиз (савдо, ахборот ва ш.ў.)
    4. Машқни ўтказиш вақтида нималарга ўргандингиз?
    5. Ушбу машқдан сўнг қандай хулосалар чиқариш мумкин?

*Бу машқдан* ҳар қандай ўқув фанида саволларни маълум ўқув мавзусига ва ҳар қандай ёшдаги ўқувчилар гуруҳларига мослаштиришда фойдаланиш мумкин. Унинг афзалликлари шундаки,ўқувчиларнинг коммуникатив (мулоқот) кўникмаларини ривожлантиради, глобал ўзаро боғлиқликни намойиш этади, ўз синфдошларини янада яхши билиб олишга имкон яратади.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**Ўқувчиларни ахборот билан танишишга,ахборотлар билан ишлашга, шунингдек, матн устида ишлашга ўргатадиган яна бир метод,бу, “Инсерт”методидир. Инсерт методи қўлланганда аввало,**

**-м**атнни ўқиш ва бир вақтнинг ўзида ҳошияга маркировка қилиш. Бунда қуйидаги белгилар қўлланилади: V (зағча) – таниш маълумот; “+” (плюс) – янги маълумот; “-” (минус) – сиз аллақачон билганларингиз, биламан деб ўйлаганларингизга қарама-қарши; “?” (савол белгиси) – бу тушунарсиз, ёки сиз ушбу масала бўйича тўлиқроқ маълумотга эга бўлмоқчисиз.

-Жуфтликларда сўнг гуруҳларда бажарилган маркировкага таянган ҳолда, ўқиб чиқилганларни муҳокама қилиш.

-Гуруҳдаги муҳокамалар «белгидан белгига” олиб борилади, Маркировка қилинган ахборот ўқувчиларга улар билганларидан бошлаб, саволларга қадар тақдим этилади. Якунида мавзу бўйича хулоса чиқарилади. Бу методдан фойдаланишнинг афзаллиги шундаки, янги материал билан танишиш, ҳар қандай ўқув фанида ахборот билан ишлаш услубидир. Шунингдек,маркировкани амалга ошириш усули самарали мутолаа қилиш ва ўйлашга ёрдам беради, матн билан мулоқот юритиш усули эса ахборотни кузатиб бориш ва тушунишга хизмат қилади. Мустақил иш олиб бориш кўникмаларини ривожлантиради.

Демак, дарсларда интерфаол усулларнинг ўқувчи ёшларни эркин фикрлашини ривожлантиришдаги аҳамияти каттадир, зеро бу ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиради,ҳаётий кўникмаларни ҳосил қилади.

## Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017
2. Голиш Л.В. Фаол ўқитиш усуллари: мазмун танлаш, амалга ошириш. Экспресс қўлланма. - Тошкент: ТАСИС, 2001.
3. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув-услубий қўлланма. Инновацион таълим технология серияси. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2011.
4. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: Ниҳол, 2013.
5. Сагдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2008.

**Интернет ресурслар**

1. http://www.edu.uz - Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги портали
2. http://www.uzedu.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги веб сайти
3. http://www.eduportal.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ахборот таълим портали
4. http://www.multimedia.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Мультимедиа умумтаълим дастурларини ривожлантириш маркази сайти
5. http://www.bimm.uz - Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Бош илмий-методик маркази сайти
6. http://www.pedagog.uz - Тошкент давлат педагогика университети веб сайти
7. http://www.giu.uz - Тошкент давлат педагогика университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази сайти
8. http://www.ziyonet.uz. – ахборот таълим портали

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# Сифатли таълим ва дарс самарадорлига эришишда педагогик клиниканинг ўрни ва роли

Кароматулло Каримов

Сурхондарё вилоят Бойсун тумани

**Аннотация.** Сифатли таълим ва дарс самарадорлига эришишда педагогик клиниканинг ўрни ва роли. Педагогик клиника. Доктор “П”. Ўқитувчи маъсулияти.

Таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар албатта таълим тараққиёти учун хизмат қилмокда. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда билимли, малакали кадрларни тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмокда.

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётий зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Таълим сохасида қандай ўзгаришлар ва янгиликлар қилинмасин, буларнинг барчаси таълим тараққиёти учун хизмат қилади ва қилмоқда. Ҳозирги кунда замонавий ўқитувчининг замонавий дарси, педагогик маданияти, болага дўстона муносабатда бўлиш, педагогик технология асосида дарс ўтиш – давр талабидир.

Бу талабларнинг барчаси ўқитувчидан юксак маъсулиятни талаб этади. Маъсулиятни англаган ўқитувчи доимий равишда ўз устида ишлайди, янгиликлардан бохабар бўлади ва уларни амалда татбиқ этади, ахборот коммуникацион технологиялардан унумли фойдала-нади.

Бугунги кунда мустақил тараққиёт йулидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, янги сифат босқичига кўтариш, унга илғор педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»нинг қабул қилиниши билан узлуксиз таълим тизими орқали замонавий кадрлар тайёрлашнинг асоси яратилди.

Узлуксиз таълим чуқур, хар тарафлама асосли таълим-тарбия бериш, мутахассис кадрлар тайёрлашнинг турли шакл, усул, восита,услуб ва йуналишларининг

мукаммал уйғунлигидан иборатдир.Узлуксиз таълим сифатини турли компонентлар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик,муайян усуллар ва услубларнинг таълим жараёнига оқилона татбиқ этилиши таъминлайди.

Таълимнинг бугунги вазифаси ўқувчиларни кун сайин ошиб бораётган ахборот-таълим мухити шароитида мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилона фойдаланишга ўргатишдан иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур. Албатта бунда ўқитувчининг меҳнати ва маҳорати муҳим аҳамият касб этади. Ўқитувчининг касбий маҳорати қанчалик юқори бўлса, унинг меҳнати самараси ҳам шунча юқори бўлади. Аммо, айрим ҳолатларда ўқитувчи методик ёрдамга ҳам муҳтож бўлиб қолади. Албатта, бундай ҳолатларда устоз ўқитувчиларнинг, метод бирлашма аъзоларининг, услубчи ва илғор тажрибали ўқитувчиларнинг методик маслаҳати, методик ёрдами катта аҳамиятга эга.

Ҳар бир мактабда ана шундай устоз ўқитувчи ва илғор тажрибали ўқитувчи, мутахассислардан таркиб топган «Педагогик клиника» педагогларга яқиндан методик ёрдам бериши кўзда тутилган.Педагогик клиника албатта, ўз низомига эга бўлиши керак.. Педагогик клиниканинг асосий мақсади ўқитувчининг касбий маҳоратини ошириш ва таълим самарадорлигига эришишдир. Мактабларда ёки фанлар кесимида таянч мактабларда педагогик клиника жорий этилса мақсадга мувофиқ бўлади. Педагогик клиникада "Доктор "П" жавоб беради рукни асосида мактаб ўқитувчиларидан тушган саволларга атрофлича мутахассислар томонидан жавоб берилади. Қуйида педагогик клиниканинг "Доктор "П"рукнига тушиши мумкин бўлган саволлар ва мутахассисларнинг намунавий жавобини намуна сифатида келтириб ўтаман:

Доктор «П» жавоб беради:

Савол:*Замонавий ўқитувчи қандай бўлиши керак?

Жавоб: Замонавий ўқитувчи-келажак бунёдкори, илғор педагогик технологиялар, назариялар, концепцияларнинг муаллифи, ишлаб чикарувчиси, тадкиқотчиси, фойдаланувчиси ва тарғиботчисидир.

Савол: Ўқитувчига қандай талаблар қўйилади?

Жавоб: Ўқитувчи:

*ўқувчилар билан муомалада босиқ ва жиддий бўлиши;

*берилаётган билимни ўқувчилар қандай ўзлаштириб олаётганига алоҳида эътибор бериш;

*таълимда турли услуб ва шакллардан фойдаланиш;

*ўқувчининг хотираси,билимларни эгаллаш қобилияти,шахсий хусусиятларини билиш;

*ўқувчиларни фанга қизиқтира олиш;

*ўқувчиларга ўзатилаётган билимларнинг энг муҳимини ажратиб бериш;

*билимларни ўқувчиларга тушунарли ҳамда уларнинг ёши, ақлий даражасига мос равишда бериш;

*ҳар бир сўзнинг ўқувчилар ҳиссиётини уйғотиш даражасида бўлишига эришиш;

*билимли ва ўз билимларини амалиётда қўллай олиши;

*педагогик маҳорат ва маданиятга эга бўлиши керак.

*болага дустона муносабатда бўлиш.

Савол: Педагогик маҳорат ва маданият нима?

Жавоб: Маданият-ўқитувчининг юксак фазилатларидан дарак беради, маҳорат-уни касб эгаси даражасига кўтаради.

Савол: Ўқитувчининг педагогик жараёндаги асосий вазифаси нима?

Жавоб: Бошқарувчилик. Ўқитувчининг ва жамоанинг шаклланиши, ривожланиши, билим олиши ва тарбияланиши жараёнини бошқаради.

Савол: Бошқариш нима?

Жавоб: Бошқариш-бу,йуналтириш, вазифа қўйиш, ўргатиш, ёрдам бериш, қўллаб-кувватлаш, маслаҳат бериш, раҳбарлик қилиш, кузатиш, талаб килиш, кўрсатма бериш.

Савол: Ўкувчининг педагогик жараёндаги асосий вазифаси нима?

Жавоб: Излаш;керакли билимларни мустақил қидириб топиш;ахборот тўплаш ва уларни ишлата билиш.

Савол: Ўқитувчининг педагогик маҳоратини ташкил этувчи омиллар нима?

Жавоб: Педагог шахси, юксак ахлоқийлик;педагогик тажриба, ўз устида ишлаш, педагогик маданият, меҳнатни илмий ташкил этиш.

Савол: Ўқитувчининг педагогик маҳоратини қандай изоҳлаш мумкин?

Жавоб: Ишга бўлган фидойилик,билим ва тажрибаларнинг бирикмаси бўлиб,педагог фаолиятининг энг юкори чўққисидир.Чунки, у ўзига ажратилган жуда қиска вакт ичида энг юқори мукаммал натижага эришади.

Савол: Педагогик маҳоратнинг таркибий қисмлари нима?

Жавоб: Инсонпарварлик,педагогик қобилият,касбий билимлар,педагогик техника.

Савол: Педагогик техника компонентлари нима?

Жавоб: Бу ўқитувчининг ўз хулк-атворини бошқара олиш билан боғлик бўлган кўник-маси (мимика, пантомимика, ҳис-туйғусини бошқариш, ижтимоий-перцептив қобилияти, нутқ техникаси);иккинчиси,ўқитувчининг якка шахс ва жамоага таъсир этиш билан боғлик бўлган кўникмаси (дидактик кўникма, ташкилотчилик кўникмаси,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

конструктив ва коммуникатив кўникмаси, педагогик муносабатни бошқариш, жамоанинг ижодий ишини ташкил этиш).

Савол: Тарбиячи қандай бўлиши керак,деб ўйлайсиз?

Жавоб: Тарбиячи-ташкил этишни, юришни, ҳазиллашишни, қувноқ, жаҳлдор бўлишни билиши лозим, у ўзини шундай тутиши лозимки,унинг ҳар бир ҳаракати тарбияласин.

Савол: Ўқитувчи ўз-ўзини бошқариш маданиятига эга бўлиши керак,-дейишади.Буни қандай изоҳлаган бўлар эдингиз?

Жавоб:Ҳа,албатта,ўқитувчи ўз-ўзини бошкариш маданиятига эга бўлиши керак. Бу-ортиқча ҳаяжонни йуқ қила олиш;сўзга чиқишдан олдин журъатсизликни енга олиш; қаттиқ ҳаяжон. руҳий зарба (стресс) вақтида ўзини бошқара олиш; ўзида ишга,фаолиятига керакли бўлган кайфиятни ҳосил қила олишдир.

Савол: Ўқитувчининг нутқ маданияти қандай бўлиши керак?

Жавоб: Нутқнинг грамматик жиҳатдан тўғрилиги; сўз бойлиги;нутқнинг ифодалилиги ва ҳис-туйғу билан суғорилганлиги; нутқ техникаси (нутқнинг жарангдорлиги, масофаси; талаффузнинг ва овознинг майинлиги;овоз кучининг тўғри танланиши;нутқ тезлигининг тўғри танланганлиги; нутқнинг талаффуз тарзи, сўзларнинг аниқ, равшан айтилиши; нутқ гигиенасига риоя қилиниши ва ш.к.).

Савол: Ўқитувчининг педагогик маданиятини ташкил этувчи омиллар нима?

Жавоб: Маънавий етуклик,билимдонлик,педагогик технология,педагогик меҳнат, педагогик маҳорат, педагогик техника.

Савол: Ўқитувчининг педагогик маданияти нима?

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

Жавоб: Бу мураккаб тузилма бўлиб,у ўз ичига касбий педагогик тажрибани,ундаги педагогик маҳорат даражаси ва билимларни олади.

Савол:Педагогик жараённинг самарали ва натижали бўлишини нима таъминлайди?

Жавоб: Педагогик жараённинг самарали ва натижали бўлишини интерфаол усуллар таъминлайди.

Савол:Интерфаол усуллар қандай усуллар?

Жавоб: «Интерфаол»-инглизча сўз бўлиб, «интеракт»:»интер»-«ўзаро» ва «акт»-«ҳаракат қилмок»,уларни умумлаштирганда эса, «интерфаол»-«ўзаро ҳаракат қилмок»маъносини англатади. Ineraction-бошқалар билан ҳамкорликни билдиради.

Педагогик клиниканинг аҳамияти шундаки, барча педагогларнинг меҳнат фаолиятида дуч келадиган ва қизиқтирадиган саволларига жавоб бериш, шунингдек, барча педагогларга методик ёрдам беришдан иборатдир. Албатта, бу педагогларимизнинг меҳнати самарасини оширади,деган умиддамиз.

## Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017
2. Голиш Л.В. Фаол ўқитиш усуллари: мазмун танлаш, амалга ошириш. Экспресс қўлланма. - Тошкент: ТАСИС, 2001.
3. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: Ниҳол, 2013.
4. Сагдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2008.

## Интернет ресурслар

1. http://www.uzedu.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги веб сайти
2. http://www.eduportal.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ахборот таълим портали

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

3. http://www.multimedia.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Мультимедиа умумтаълим дастурларини ривожлантириш маркази сайти

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# O'ZBEK MILLIY TAOM NOMLARI VA ULARNING TAYYORLANISHIGA OID KO'RSATMALARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqola tarjima jarayoni haqidagi nazariy ma'lumotlarni, unda qo'llanuvchi metodlar va tarjima turlarining muhim jihatlarini ochib beradi. Shuningdek, tarjima jarayonida realiya ya'ni malum bir xalqning madaniyatiga oid bo'lgan, uning milliylik belgilarini o'zida aks ettirgan so'zlarni boshqa bir tilda ifodalashda vujudga keluvchi muommolar haqida fikr yuritilgan.

**KALIT SO`ZLAR:** tarjima turlari, Ketma-ket tarjima qilish, notetaking, visual tarjima, og'zaki tarjima, Sinxron tarjima, grammatik farqlar, realiya, madaniyat, mentalitet.

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qildi. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirdi, undan doim samarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo'ldi, o'zaro borish-kelish qildi. Tarjimonlar xalqlaming bir-birlarini bilish va o'rganishlariga tengsiz hissa qo'shdi. Birinchi tarixchilar, geografiya, geodeziya bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tarjimonlar ichidan yetishib chiqdi.Tarjima xalqlarni bir biriga yaqinlashtiruvchi vosita bo'lib, tarjima qilingan asarlarni o'rganish orqali tarjima qilingan til egalarining madaniyati, kundalik hayoti, tarixi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganish mumkin. Mazkur jarayonda bir necha metodlar va tarjima turlarini qo'llash tarjima jarayonini osonlashtiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tarjima jarayoni murakkab bosqichlarga ega bo'lib, tarjimonlar vazifasini qiyinlashtiruvchi ba'zi vaziyatlar mavjuddir[1]. Tarjima muommolarini o'rganishdan avval tarjima turlariga nazar solamiz.

Ketma-ket tarjima qilish usuli bu bir tildagi og'zaki axborot beriigandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

asosiy abzasni tinglaydi va so‘ng tinglash chog‘ida yozib olingan eslatmalar (notetaking) yordamida nutqni tarjima qiladi. Tarjimon shu tariqa asosiy so‘zlovchi nomidan ketmaketlikda so‘zlaydi. Ba'zi so‘zlovchilar bir nechta gap so‘zlab, so‘ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u o‘z xotirasida aytilgan gaplarni saqlaydi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima so‘zlovchining nutqini tinglangandan so‘rig bajariladi[2]. Bunday vaziyatda axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokaralar, konferensiyalar davlat arboblari va siyosiy shaxslaming uchrashuvlarida va delegatsiyani kuzatib yurish chog‘ida qo‘llaniladi. Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga ko‘ra 2 bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqich, so‘zlovchining nutqini o‘z ichiga oladi va bu bosqicnda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin. Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Navbatdagi tarjima turi bu visual tarjima qilishdir. Ba’zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtiradigan matnni ko‘rib chiqadi. Kabinada, matnni ko‘rib tarjima qilish, yozma matnni o‘qishga o‘xshab emas, balki og‘zaki nutq singari eshitilishi kerak. Vizual tarjima qilish bo‘lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega.Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga o‘girib o‘qishga aytiladi. Og‘zaki va yoziladigan axborotni ko‘rish jarayoni qamrab olinganligi sababli ko‘rib tarjima qilishni yozma tarjimaning maxsus turi, shuningdek, og‘zaki tarjimaning o‘ziga xos varianti sifatida qabul qilish mumkin. Vizual tarjima qilish ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak.

Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o‘tiradi va naushnik (quloq eshitgich) orqali so‘zlovchini tinglaydi, so‘ng tinglash chog‘ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni naushnik orqali tinglashadi. Sinxron tarjimon imo-ishoralar orqali ham bajariladi (kar va soqovlar uchun). So‘zlangan tildan imo-ishora tiiiga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar kabinada o‘tirishmaydi: ular so‘zlovchini ko‘ra oladigan va boshqa qatnashchilarga ko‘rina oladigan konferensiya xonasida turishadi. Pichirlab tarjima qilish sinxron tarjimaning shunday shakliki, bunda,

tarjimon konferensiya xonasining kabinasida emas, balki tarjima kerak bo‘lgan delegatning ortida o‘tiradi va nutqning asosiy mazmunini delegatning quloqiariga pichirlaydi. Tarjimonning bu shakllardan foydalanishi konferensiya muhitida chegaralanmagan. Sinxron tarjima, misol uchun katta konferensiyalarda, forumiarda ishlatiladi va pichirlab tarjima qilish biznes uchrashuvlarda ishlatilishi mumkin. Shu ayonki, sinxron tarjimaga ketma-ket tarjimaga qaraganda kamroq vaqt sarflanadi. Bundan tashqari, sinxron tarjima bilan ko‘p tillilik tarjimani ta’minlash imkoni ko‘proqdir, xuddi olti tillilik (BMT) yoki yetti tillilik (Yevropa jamiyati)ga o‘xshab. Ushbu imkoniyat berilgach va halqaro tashkilotlar orasidagi hamkorlik kengaygach, ko'proq tarjimalar sinxron tarzda qilinmoqda[3].

Yuqorida keltirib o’tilganidek, tarjima jarayoni ba’zi muommolarga egadir. Hususan, tillar o’rtasidagi grammatik farqlarlar tarjima jarayonidagi muommoga sabab bo’ladi. Bundan tashqari, ma’lum bir millatgagina oid bo’lgan so’zlar ilmiy tilda aytganda realiyalarni boshqa bir til egasiga tushuntirish, mazkur so’zning tag ma’nosini o’zgartirmagan holda tarjima qilish tarjimonlikdagi eng murakkab jarayondir. Realiyalar asosan, ma’lum bir xalq yoki millarning madaniyatiga, urf- odatiga oid so’zlardan tashkil topadi. Madaniyat xalqning mentaliteti bilan o’zaro chambarchas bog’liq tushunchadir. Shu sababdan bir tushunchani xalqlar orasida tushunish turlicha bo’lishi mumkin. Albatta, bu ularning mentalitetiga uzviy yondashgandir. Shunday holatlar bo’ladiki, har bir tarjimon milliy so’zlarni tarjima qilishga turlicha yondashadi[4]. Ayrim tarjimonlar ham borki, ular milliy bo’yoqdan holi bo’lgan va, tarjima tilida o’zlarining ma’no va vazifalari jihatlaridan uyg’un ekvivalentiga ega bo’lgan vositalarni ham milliyligini saqlab qolish maqsadida transliteratsiya usulida tarjima qilishadi. Masalan, birgina “ayvon” so’zi tarjimasining transliteratsiya va transkripsiya usulida 3 xil variantini sanash mumkin:

Ayvan [7, 2008]; Aivan [5, 2017]; Iwan [8, 2016]

“Hovuz” so’zi ham tarjimaga 3 xil ko’chgan: Hovuz-reservoir (o’zbekcha realiya inglizcha realiya bilan almashtirilgan), [7, 2008] Hovuz-haouze (transkripsiya), [7, 2008] Hovuz-hauz (transkripsiya), [8, 2016]

Huddi shu kabi holatlarni ko'plab madaniyatga oid so'zlarda uchratishimiz mumkin. Madaniyat tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u ma'lum bir xalqning milliy urf-odatlari, milliy kiyimlari, milliy taomlari, milliy bayramlari kabi qator ifodalarni o'zida jamlaydi. Milliy taom nomlarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ham yuqorida qayd etilgan muommolarga duch kelishimiz tabiiy holdir. Bunda tarjima jarayoniga mos tarjima turi va metodlaridan foydalanish vaziyatdan oqilona chiqishga ko'mak beradi. Albatta, bu tarjimonning mahorati va malakasiga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, milliy so'zlarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan ushbu usullarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olib milliy koloritni saqlagan olda tarjima qilish talab etiladi. E.Ochilov ham o'zining "Badiiy tarjima masalalari" kitobida asar tarjimasida milliy koloritni saqlab qolishga bag'ishlangan qismini "Muammolar muammosi" deb atagani bejiz emas, albatta. Shunday ekan, tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qilish, ayniqsa ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T. 1990.
2. Sharipov J. Badiiv tarjimalar va moxir tarjimonlar. Toshkent. 1977.
3. G 'ofurova G. 0 'zbekistonda tarjimaning rivojlanishi. Toshkent. 1973.
4. Q.Musayev "Tarjima nazariyasi asoslari"-Toshkent, 2005.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

***Primova Zarifa Otaqul qizi***
*Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani "Õrikzor" mahallasi 31-maktabning boshlanğich sinf õqituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari o'rgatish, o'zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarni tarbiyalashni ko'rsatib berish to'g'risida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *metod, metodika, taqqoslash, didaktik maqsadlar, malaka va ko'nikmalar, dars turlari, yangi maqsadlar, didaktik materiallar*

Ta'lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»[1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

• o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

• o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

• o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

• o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarn aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

• o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G‘iyosovna. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-“Fan va texnologiya’’-2005.

2. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligida medodik qo‘llanma. T.: “Uzinkomsentr’’ , 2003.

3. Bikboyeva N.U va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (Pedagogika bilim yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma). T.: "O'qituvchi'' , 1996.

4. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T.: "O'qituvchi, 2004.

5. Jumayev E.E . Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. T.: "Ilm-Ziyo" , 2005.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

**Surxondaryo viloyati Angor tumani**

**3-sonli umumta'lim maktabining**

**oliy toifali tarix fani o'qituvchisi**

**Bo'riyeva Oyjamol O'ralovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlarga ajratish, o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi. Tarix darslarida "Pisa " testlaridan foydalanish, "Krossvord" uslubi, "Xaritalar ustida ishlash" va "Raqamli tarix" uslublari ushbu maqola orqali keng va atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, raqamli tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

**Ангорский район Сурхандарьинской области**

**общеобразовательной школы №3**

**учитель истории высшей категории**

**Бориева Ойжамол Ораловна**

**Аннотация**: В данной статье при организации уроков истории устанавливается межпредметная связь, и уроки делятся на определенные группы по темам, а темы изучаемых предметов интегрируются в учебный план. релевантности; обеспечение образовательного качества занятий, организованных на основе межпредметной связи и усиление ее воспитательных аспектов; на уроках с помощью понятий предметных или смешанных учебных предметов выявляются такие особенности, как формирование у учащихся научного мировоззрения, конкретных умений и навыков. Использование тестов Пизы на уроках истории, метода кроссворда, работы с картой

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

и методов цифровой истории подробно и всесторонне рассматривается в этой статье.

**Ключевые слова:** история, цифровая история, PISA, дидактические термины, карта, междисциплинарность, интеграция, инновационные методы

**Angor district of Surkhandarya region**

**of general education school No. 3**

**a high-class history teacher**

**Boriyeva Oyjamol Oralovna**

**Abstract:** In this article, in the organization of history lessons, interdisciplinary connection is established, and lessons are divided into certain groups based on topics, and the topics of the studied subjects are integrated into the curriculum. introduction of class hours organized on the basis of relevance; ensuring the educational quality of classes organized on the basis of interdisciplinary communication and strengthening its educational aspects; in the lessons, with the help of the concepts of the content-related or mixed academic subjects, features such as the formation of the students' scientific worldview and specific skills and qualifications are revealed. The use of Pisa tests in history classes, Crossword method, Map work and Digital history methods are covered extensively and comprehensively in this article.

**Key words:** history, digital history, PISA, didactic terms, map, interdisciplinarity, integration, innovative methods.

**REJA:**

**I.Kirish.**

**II.Asosiy qism.**

1.Tarix fanini o'qitishda innovatsion usullar

2. Tarix fanini bilish obekti.

3. Tarix fani haqidagi falsafiy yo’nalishlar.

4. Tarix fanining tarmaqlari tuzilmalari.

**III.Xulosa.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida.Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixiu va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2.Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi,

aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

TA’LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi.

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch

hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi " , «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat -e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. " Didora-Doro I . qadimgi Fors shoxi"). "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Quyida sizlar uchun hozirgi zamonda innovatsiyon dars o'tish usul va uslublaridan misollar keltirilgan.

1-darslarda "Rasmli testlardan " foydalanish. Bu usul orqali o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati shakllanadi hamda hayotiy masdalalarni hal etishga bo'lgan qarashlari uyg'unlashadi

1. Ushbu rasmda ko'rsatilgan inshoot qaysi shahrda joylashgan?

A. Buxoroda

B. Samarqandda

C. Toshkentda

D. Shaxrisabzda

2.Abdullaxon II ga atab ishlangan ushbu miniatura qaysi yilga oid?

A. 1570-yil B. 1572-yil C. 1575-yil D. 1577-yil

2. Tarix darslarda « Krossvord« uslubidan foydalanish. Bu uslubda o'quvchilarning matematik savodxonligi ortadi. Ularning fikrlash va mustaqil ishlay olish qobiliyatlari shakllanadi.

KROSSVORD - O'YIN METODI Bolalar faqat ular o'zlari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo'ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o'rgatmoqchi bo'lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz.

J. Puaje

Quyida 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining bo'limlar yuzasidan tuzilgan krossvordlar jamlanmasini tavsiya etiladi:

1-5-MAVZULAR BO'YICHA KROSSVORDLAR

1-VARIANT KROSSVORD (Ismlar bo'yicha) ENIGA_

2. To'qqiz kitobdan iborat "Tarix" asarining muallifi. 4. Maqbarasiga temirdan bezak ishlatgan Misr fir'avni.

BO'YIGA

1. "Aleksandr anabasisi" asarining muallifi.

3. Miloddan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod qilgan. O'z asarida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan qadimgi yunon tarixchisi va geografi.

2

3

4

4. arix darslarida turli xil mavzulashtirilgan xaritalardan foydalanish. Tarix darslarida avvolo o'quvchilarga xarita bilan ishlashni o'rgatish lozim . lekin afsuski ba'zi darsliklarimizda mavzulashtirilgan xaritalar kamlik qiladi. Ayniqsa 6-sinf o'quvchilari uchun qadimgi manzilgohlarning joylashgan o'rnini o'rganish uchun xaritalarning o'rni beqiyos Shuning uchun quyida beriladigan xaritalar orqali mavzuni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

SONLAR ISHTIROKIDAGI "RAQAMLI TARIX" TA'LIMIY O'YINI

O'quvchilaringiz tarix fanida berilgan sonlarni yodlashga erinchoqlik qilayaptimi yoki qiynalayaptimi? Unda o'quvchilaringizni qiziqtirishning samarali yo'llarini havola etamiz.

Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi. Agarda o'quvchiga mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin:

Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. O'quvchida qiziqish bo'lmasa, har qanday metod, usulni qo'llamang samara berishi qiyin.

Men tarix darslarida o'zim yaratgan qiziqarli boshqotirmalardan iborat "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinidan samarali foydalanishga harakat qilaman.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yini quyidagicha o'tkaziladi:

Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo'lgan sanalari, statsitik ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulida (amallarni noodatiy usullarda hisoblash) shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma'lum son izohlanadi.

Tarix darslarida o'quvchilarning matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini mavzuni mustahkamlash va takrorlash vaqtida o'quvchilar yoki guruhlar bilan ishlashda qo'llanishi maqsadga muvofiq.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur.

Qiziqarli boshqotirmalardan iborat bo'lgan "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini tarix darslarida qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

• Tarix fanini o'rganishning eng murakkab tomonlaridan biri hisoblangan sanalar va statistik ma'lumotlarni o'quvchilarni qiziqtirgan holda ularning xotirasida saqlab qolishida yordam beradi;

• Xayolan davrlararo sayohat paydo bo'ladi;

• Tarixiy voqealar qaysi davrda yuz berganligini izohlay olish ko'nikmasini shakllantiradi;

• Matematik savodxonlikni oshirishga yordam beradi.

6-sinflar uchun 1-10-mavzular bo'yicha Masalan:

1-BOSHQOTIRMA: Hurmatli bilimdonlar! Quyidagi boshqotirmani yeching?

Gerodotning mashhur «Tarix» asaridagi kitoblar soni.

2

Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng qisqa masofasi (km)

Miisrliklar

birinchi bo'lib tuzgan taqvim-dagi bayram kunlari

Boshqotirmaning yechimi

■

1-boshqotirma: "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinida berilgan boshqo.,irmanmg javobi 22

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining 1-10-mavzular ichidan 22 soni bilan bog'liq ixtiyoriy bitta ma'lumot ayting?

Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng uzun masofasi 22 km




"I" Tarix bu – tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Tarix faninin g bilish ob'ekti insoniyat tarixining barcha davrlarida sodir bo'lgan voqealar "Bilish ob'ekti" jarayonl ar voqeliklar ning majmuidir. ob'ektiv voqelik.




TARIX FANINING BILISH OB'EKTI: Insoniyat tarixining barcha davrlarida sodir bo'lgan voqealar, jarayonlar, voqeliklar (ko'rinishlar)ning majmuasi. Ijtimoliy-gumanitar fanlar o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda bilish ob'ektlari hamda ilmiy tadqiqot uslublari yordamida bugungi jamiyat hayotining u yoki bu sohalarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa, tarix fani esa o'tmishni o'rganib, komleks xususiyatlik kasb etadi va

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

fanlarning ilmiy sohadagi yutuqlari bilan interatsiyalashgan holda umumlashtiradi. Ayni paytda tarix fani ilmiy xulosalarni chiqarishda tarixiy tadqiqotlarning natijasiga asoslanadi. Bu aloqalar bugungi fanlarning alohida xususiyati bo'lib, ilmiy natijalar chiqarilishiga imkon beruvchi fanlararo yondashuvdan iborat. Jamiyatda sodir bo'lgan voqealarning tarkibi, jarayonlarning o'zaro bog'likligi va ko'lami jihatdan kengligi bilish ob'ektini yaxlit holda tadqiq etilishi imkorniyatini cheklab qo'yadi. SHundan kelib chiqqan holda tadqiqtchidan tadqiqot predmetini ham aniqlash talab etiladi. Ayni vaqtda tadqiqotchi tomonidan tadqiqotning vazifalari, voqelikning alohida o'ziga xosliklari, ko'lami va xususiyatlari aniqlanadi.



Tarix fanining ob'ekti: aholi va hoziri haqidgi faktlar jamiyat, davlat hayotining o'tmishi



Tarix fanining ixtsoslashuv darajasiga ko'ra guruhi. 1 -guruh. Jamiyatning butun va alohida tomonlarini o'rganuvchi bo'lim va sohalardan iborat: 2 -guruh. Yordamchi va maxsus tarix fanlari.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ




1 -guruh. Jamiyatning butun va alohida tomonlarini o'rganuvchi bo'lim va sohalardan iborat: - insoniyait tarixining ayrim hodisalari alohida o'rganiladi; - hududiy-geografik tamoyilga ko'ra tarixan bir-biri bilan bohliq yirik mintaqalar – Evropa va dunyoning boshqa qismlari, Qadimgi SHarq, O'rta Osiyo va boshqa alohida mamlakatlar va xalqlarga ajratiladi; - kompleks muammolarni tadqiq qilish bir guruh mamlakatlar va xalqlar tarixida ro'y bergan bosqichlar, davrlarni va xodisalarni o'rganish zaruratidan kelib chiqadi; - Jahon tarixida global yondashuv bilan bir qatorda mikro tarix (shahar va qishloqlar, alohida shaxslar, kundalik maishiy turmush. . . ) ham o'rganiladi; Tarixning alohida tomonlarini o'rganish uchun tarix fanining alohida sohalarini ajratishni taqozo etadi. Masalan, harbiy tarix, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, din, fan, san'at, intellektual, madaniyat, diplomatiya tarixi va. . .




2 -guruh. Yordamchi va maxsus tarix fanlari. Xususiy tadqiqot usullariga ko'ra antropologiya, arxeologiya, etnografiya. Yordamchi tarix fanlari – manbashunoslik,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

arxeografiya, paleografiya, numizmatika va. . . Maxsus guruh – boshqa fanlar ehtiyojidan kelib chiqadi, masalan, tabiiy fanlar tarixi, texnika tarixi, davlat va huquq tarixi. . .




Tarix haqidagi falsafiy qarashlar…. Neokantchilar esa pozitivistlarga qarshi fikr bildirib, tarixning asosiy vazifasi qonuniyatlarni ochish emas, balki tarixni tashkl qiluvchi alohida, individual, takrorlanmas hodisalarni o'rganishni taklif qildilar. Marksistlar esa jamiyatdagi bilish qonuniyatlari g'oyasini ilgari surib, tarixni o'rganishga bo'lgan boshqa qarashlarni soxtalashtirilgan ijtimoiy hodisalarni o'rganish deb hisobladilar Pozitivistlar tabiiy fanlar va gumanitar fanlar metodlari o'rtasida prinsipial farqlar mavjud emas degan qarashdan kelib chiqqan holda o'z qarashlarini ilgari suradilar. (Pozitivistlar tarixni "pozitiv" bilimga aylantirishga harakat qildilar. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo'q, degan g'oyaga asoslangan subektiv qarashga edilar. Ular tarixiy dalillar bilan qanday ishlash, manbalarni tahlil qilish bo'yicha bir qancha metodlarni taklif qildilar).



TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Tarix fani tarmoqlari Siyosiy tarix Harbiy tarix Ijtimoiy tarix Diplomatiya tarixining Iqtisodiy tarix

Xulosa.

Tarixni o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarlarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqea-hodisalarlarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir voqea, hodisalarni boshqa, voqea-hodisalarlar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea-hodisalarning umumiy tarixiy jarayonidagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har-bir voqea-hodisalarga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur. Har bir hodisalarga qanday tarixiy sharoitda, muxitda paydo bo'lganligini bu hodisalar o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy tarixiy jarayon deb, o'tmish Hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

Tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondashuv printsipiga rioya etish zarur bo'ladi. Ijtimoiy yondoshuv metodologiyasini tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa-kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bo'lib, u tarixni soddalashtiradi, to'g'ri xulosaga olib kelmaydi.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlarini, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondoshmok kerak. Xayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyatini ahloqiy mezonlarini ikkiga – ekspluatatorlik madaniyati va ahloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va ahloqiga bo'lish va birinchisini qoralashdan iborat bol'sheviklarcha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatdi. Ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarning oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, ma'rifatparvar ziyolilar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini xech kachon unutmaslik kerak. Tarixni o'rganishda yuqoridagi metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni takkoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

sotsialistik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.

2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil
Adabiyotlar ro'yhati: • Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" –T: . 1997 • Ilhomov. Z. A "Tarix fani metadologiyasi"-T: . 2012 • Atadjanov Sh, Ilhomov Z, Ishquvatov V, Allaeva N. O'zbek xonliklari tarixshunosligi –T: . 2011 • Jo'rayev N. "Tarix falsafasi" –T: . T 1999 • Ковальченю И. Д. Методы исторического и а тедования М. . 1987. • Ilhomov Z. A. Tarix fani tadqiqotlarida manbalar bilan ishlashning metadologiyasi (ilmy maqolalar to'plami)). T 2012 • Ilhomov Z. A. Tarix fani tadqiqotlarida manbashunoslik masalalari. –T: . 2012

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

**BOBOJONOVA ZARINA MURODXONOVNA**

**Sirdayo viloyati Guliston shahar 5- maktab ingliz tili o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** maqolada maktab ta'lim sohasida ham xorij ta'limidan foydalanib, keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirish kerakligi haqida so'z boradi. Jahonda ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda maktab ta'lim tizimini takomillashtirish kerakligi haqida ma'lumotlar berilgan. Xorij tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerakligi haqidagi fikrlar aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** maktab ta'limi, chet el tajribasi, intelektual, kreativ texnologiyalar, interaktiv, xorij ta'limi.

Yurtimiz ta'lim tizimida ayniqsa, maktab ta'limi sohasida keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad – maktab ta'limi faoliyatini tubdan yaxshilash, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv- tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri rivojlangan mamlakatlarning maktab ta'limi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali biz ta'limda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari, ta'lim-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakli va uslublaridan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida umumiy o'rta ta'limning sifat menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy- amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda umumiy o'rta ta'limni boshqarishning axborot- metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli- vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy- innovatsion kompetentliligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda har tomonlama yetuk, ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalshga qaratilgan zamonaviy umumiy o'rta ta'lim tashkilotini tashkil qilish bo'yicha juda ko'p chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda ta'lim ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan- yilga oshib bormoqda.

O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. Biz foydalanadigan ta'lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishlashga o'rgatishi zarur. CHet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Davrlar o'tishi bilan insoniyat ehtiyoji kuchayib boradi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim tizimini mukammal va puxta reja asosida tashkil etishni talab etadi. Mamlakatni dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishda uni ta'lim tizimini mukammal reja asosida tashkil etishni talab qildi.

Har bir davlat va jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli, farovoniligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori infellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlashtirgan yoshlariga bog'liq hisoblanib, vatan taqdiri uchun sitqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish, avvalo, o'qituvchilar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim sohasida izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, ta'lim tizimiga yangiliklar olib kirish bilan birgalikda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi maktab ta'limi tizimi faoliyatlari bilan yaqindan tanishishlari va ulardagi ilg'or usullarni o'rganishlari hamda ularni ilmiy asoslagan holda mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim tizimiga keng joriy etish orqali belgilangan vazifalarni talablar darajasida ado etilishiga hissa qo'shishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ham chet el ta'lim tizimidan na'muna olgan holda ta'lim tizimini yanada mukammal va sifatli tashkil etishimiz kerak. Buning uchun eng birinchi o'rinda malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Ta'lim tashkilotlarini innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlab, kichik yoshdan boshlab innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rgatib ularni mustaqil, o'ziga ishonadigan shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Shundagina bizning mamlakatimizdan ham jahonga mashhur buyuk shaxslar, İbn Sino, al-Beruniy, al Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Farobiy kabi ajdodlarimizga mos avlodlarni yetishtiramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isaqulova N.J, Qosimova Z.H. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim(ma'ruza) T., 2011
2. Mutalipova M.J., Xodjaev B.X. Qiyosiy pedagogika.-T: 2015y.
3. Yo'ldoshev G'.J. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim T.,1995
4. Yoldosheva M.B. Obrazovanyie za rubejom. T.,2006

**Internet resurslari**

5. www.edu.uz.
6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog. uz
8. www.Ziyonet. uz

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA USULLARI SAMARADORLIGI

**DAVLATOV NURALI SHERMUHAMMAD O'G'LI**

**Jizzax viloyati Zomin tumani 33- maktab o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Yurtimizda ta'lim tizimi islohatiga ustivor vazifa sifatida qaralishining zamirida kelajagimiz, ertangi taraqqiyotimizni ko'rish istagi mujassam. Ana shu maqsadlarni amalga oshirishimiz uchun, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.

**Kalit so'zlari:** Pedagogik faoliyat, uzluksiz ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ilg'or pedagogik tajribalar, innovatsiya.

Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarni egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. Bilamizki, ilg'or tajriba pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishning hal qiluvchi usuli bo'lib, katta ahamiyatga ega.

Ilg'or pedagogik tajriba – bu eng foydali, eng qulay, eng muvofiq faoliyat bo'lib ijodiy izlanish natijasidir. Bu albatta, o'quvtarbiya jarayonini eng muhim tomonlarini hal etishga yordam beradi.

Pedagogik tajriba – muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz, o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, o'quvchilarning ta'limtarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Pedagogik texnologiyalar darslarni o'tishda ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga oid ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

O'quv tarbiya jarayonining asosiy shakli bo'lgan darsning samaradorligi uning qanday tashkil etilishiga bog'lik. Bu esa, o'z navbatida, darsda foydalaniladigan ta'lim metodlarining uyg'unligini ta'minlashni talab etadi. Buning uchun dars jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida xamkorlik, o'zaro muloqot qilish va ijodiy faollik ko'rsatish uchun qulaylik yaratilishi kerak. Yangi maqsadlarning qo'yilishi darsning yangi strukturasini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu bilan bir qatorda, maktab ta'limi jarayoniga ilmiy jihatdan asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati kuchaymoqda.

"Innovatsiya" inglizcha "Innovation" so'zidan olingan bo'lib, "yangilik" degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar orqali pedagogik jarayonga, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga bog'lik yangilik, o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalaniladi.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv- tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv- tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar, ilg'or texnologiyalarni kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish eng avval maktabdan boshlanadi. Bu har bir maktab direktori, o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, ma'naviy va ma'rifiy

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari hamda metod birlashmalar faoliyatining asosini tashkil etmog'i kerak. Maktab pedagogik jamoasi ilg'or tajriba egasining faoliyatini to'liq bilishi, o'rganishi va uning foydali tomonlarini ma'qullashi natijasida metod birlashma, tuman, shahar metodika bo'limlariga o'rganish uchun tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Pedagogik texnologiyalarni aniqroq tasavvur qilish uchun avvalambor, o'qitish (ta'lim) texnologiyasini tanlab olish darkor. O'qitish texnologiyasining boshi - maqsad, oxiri esa - natija xisoblanadi. Boshqacha aytganda, avval maqsad belgilab olinadi, so'ng esa undan kelib chiqib muayyan natija rejalashtiriladi.

O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati talab etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalanadi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib, o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi san'at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo'ladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. "Raqamli iqtisodiyot: Yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 4-seksiya. Toshkent. 2020-yil
2. Begimkulov U.Sh. "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari" Monografiya .. T.;Fan, 2007-yil
3. Ishmuhammedov R.J. "Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent. 2000 -yil

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**4.** J.G'.Yo'ldoshev. Xorijda ta'lim. "Sharq" nashriyot matbaa konserinining bosh taxririyati. – Toshkent: 1995.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# BUGUNGI TA'LIM, ERTANGI KELAJAK SARI

**DJALIBOYEVA AMINA URALOVNA**

**Sirdayo viloyati Sardoba tumani 15- maktab o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limda qilinishi kerak bo'lgan ishlar bo'yicha amaliy va nazariy tavsiyalar berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga puxta bilim berish va ularni ma'naviy yetuk ong egasi qilib tarbiyalashda o'qituvchilar ishining mas'uliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlari:** ta'lim, ma'naviy yetuklik, amaliy ishlar, o'quvchilar tipi,

Ta'limning tarbiyaviy ta'sir kuchi faqat uning g'oyaviy mazmunigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki o'quv ishlari metodikasini to'g'ri tashkil etilishiga ham bog'liq bo'lib, bunda o'qituvchi muhim rol o'ynaydi.

Kuzatishlardan ma'lumki, o'quvchilarga ta'lim berishda fanga oid bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmaslik, balki o'quvchilarda ma'naviy yetuklik, iroda va xarakter kabi sifatlarni kamol toptirish, qobiliyat va iste'dodlarni o'stirib borish hozirgi hayotimizning zaruriy shartlaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'zlariga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular

har bir ishga zo'r qiziqish bilan kirishadilar. Lekin o'z faoliyatlarida bir oz qiyinchiliklarga duch kelib, ishning uddasidan chiqa olmasalar yoki tushunmasalar ularning qiziqishlari susayib ketadi. Buning natijasida o'z qobiliyatlariga, bilim olishga, umuman, o'qishga nisbatan salbiy qarashlar paydo bo'ladi. Shu boisdan ta'lim metodlaridan juda ustalik bilan foydalanish va o'quvchilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak-ki, ular o'z faoliyatlaridan qoniqish hosil qilsinlar.

Ta'limda qilinishi kerak bo'lgan amaliy ishlardan biri o'quvchilar tipini aniqlashdan iboratdir. O'quvchilar tipini belgilash o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va uni bartaraf

etish yo'llarini belgilashga imkon beradi. Mavjud adabiyotlarda o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tiplarga ajratish asosan o'rta yoshdagi o'quvchilar bilimini hisobga olish orqali belgilangan. Bu o'rinda esa maktabga birinchi bor kelgan bolalar bilan ishlash va birinchi navbatda o'zlashtirmaslikning oldini olish haqida fikr yuritilmoqda shu boisdan masalaning metodik tomonlarini hisobga olgan holda bo'sh o'zlashtirayotgan (o'zlashtirmay sinfda qoluvchilar emas) o'quvchilarni o'rganish orqali ularning 3 tipga bo'linishi aniqlandi.

1-sinf o'quvchilarini tiplarga ajratishda asosan ularning o'zlashtiruvchanlik darajalari va o'qishga munosabatlari hisobga olindi.

1 tipga – uzoq vaqt kasallanib qolganliklari uchun bo'sh o'zlashtirayotgan, aslida esa o'qishga qiziqadigan bolalar kiradi;

2 tipga – kiritilgan bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilarning fikrlari tarqoq, diqqatlari bo'linib turadigan, o'qishga qiziqishlari ham o'zgaruvchan, faqat darslardagina o'qish o'rganish haqida o'ylaydigan bolalardir.

3 tipga - kiradigan o'quvchilarda maktabgacha tayyorgarlik mutlaqo sezilmaydi. Ularning umumiy o'sish darajsi ham past bo'lib, o'quv mashg'ulotlariga layoqatsizliklari bilan ajralib turadilar.

Lekin 1-sinfdagi bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilarni tiplarga ajratishda o'zlariga sezdirish yaramaydi. Chunki o'quvchilarning o'rtoqlari oldida layoqatsizligi aytilsa, ruhan ezilishi, kayfiyati buzilishi, psixologik jihatdan zarbaga uchrashщi mumkin. Shuningdek, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni boshqalardan ustun qo'yib, o'ta rag'batlantirish ham ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Ayrim holatlarda o'qituvchilarning o'quvchilarga do'q, po'pisa qilib, ularga «sen hech narsani bilmaysan», «o'zlashtirmaysan», «qoloqsan» singari ta'na qilishlarini eshitishga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham bu o'rinda «o'zlashtirmaydigan», «sekin o'zlashtiradigan», «qiyin o'zlashtiradigan» va «bo'sh o'zlashtiradigan» kabi tushunchalarni qisqacha izohlab o'tsak.

Psixologlar fikriga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablariga jalb qilingan bolalar orasida o'zlashtirmaydiganlari bo'lmasligi kerak. Chunki «o'zlashtirmaydigan», «o'zlashtirmovchi» tushunchalar dars materiallarini o'zlashtirishga mutlaqo layoqatsiz degan ma'noni ifodalaydi. Bunday o'quvchiga hech qanday pedagogik tadbir ta'sir etmasligi kerak. Lekin umumiy o'rta ta'lim maktablariga tibbiy ko'rikdan o'tgan, aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom bolalargina qabul qilinadi. Bunday bolalarning esa o'zlashtirmay qolishlari mumkin emas. Aqliy zaif va jismoniy jihatdan nuqsonli bolalar esa maxsus maktablarda o'qitilishi ma'lum. Ular ham o'z navbatida maxsus reja va dasturlar asosida ta'lim oladilar. Demak, umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarini «o'zlashtirmaydigan» yoki «o'zlashtirmovchi» deb atash o'rinli emas. Mabodo o'zlashtirmovchi bola umumiy ta'lim maktabiga qabul qilingan bo'lsa, ular maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, otaonalarining roziligini olib maxsus maktablarga o'tkazilishi zarur. Bu masala «Alifbe» ni o'rganish darsigacha hal etilishi kerak. Chunki o'quvchi ayrim tovush va harflarni o'zlashtirgan bo'lsa, u holda ham bunday o'quvchini «o'zlashtirmovchi» deb bo'lmaydi. Ammo umumiy ta'lim maktabi o'quvchilari orasida bilimlarni qiyin o'zlashtiradigan, sekin o'zlashtiradiganlari va bo'sh o'zlashtiradiganlari uchraydi.

Boshlang'ich sinfdayoq bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan ishlash metodlarini belgilashda quyidagi talablarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1) Bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilarning dastur talablari darajasida bilim olishlarini ta'minlash uchun ularning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib borish.

2) Darsda o'quvchilarning jamoa ishlarini uyushtirish, har bir bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchiga individual munosabatda bo'lish orqali sinf o'quvchilarining to'la va puxta o'zlashtirishiga erishish.

3) Darsda o'quvchilar faoliyatini darslikdagi didaktik materiallarini noan'naviy

yo'llar bilan o'zlashtirishga qaratish, turli qiyinchiliklarni birgalikda hal etishga o'rgatib borish.

Belgilangan maqsadga erishish uchun:

a) darsda hamma o'quvchilar bilan, guruhlar bo'yicha va individual ishlash jarayonida bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilarga alohida e'tibor berish;

b) ta'lim jarayonida bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar ishlarini kuzatib, ularning imkoniyatlariga moslab ish usulini tanlash;

v) Bo'sh o'zlashtirayotgan o'kuvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda (umumiy, guruhlar bo'yicha va individual ishlash uchun) mustaqil bajarish uchun topshiriqlar tayyorlash;

g) bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shcherbakov A.I. tahriri ostida. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum.- Toshkent: O'qituvchi, 1991. 46 b

2. Yusupov M. Birinchi sinfda bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan ishlash.- Toshkent: O'qituvchi, 1997. 59 b

3. Usmanova E.Z., Azizova T.M. va boshqalar. Psixologik tuzatish ishlarining ayrim jihatlari.- Toshkent. 1995. 69

# INTERFAOL TA'LIM UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**KAZAKBAYEVA FERUZA URALOVNA**

**Sirdayo viloyati Shirin shahar 4- maktab o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada interfaol ta'lim uning didaktik imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ma'lumki ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tadbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshribgina qolmay, ilm- fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlari:** interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar, shaxs ongi, individual, guruhli, ommaviy.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan- kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahmin qilish, katta yakuniy xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi , bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar metodi", "Sinkveyn" "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs – munozara", "Rolli o'yin", "FSMU", Kichik guruhlarda ishlash, "Yumaloqlangan qor", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi interfaol metodlar qo'llanilmoqda. Mazkur interfaol metod mashg'ulotlarida xususan o'yin topshiriqlarni takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Ma`lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning poydevori boshlang'ich ta`limda beriladi. Shaxs ongi va uning dunyoqarashining rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham aynan shu bosqichda beriladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o`qituvchilarining ma`naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk bo`lishlari ular ta`lim- tarbiya berayotgan o`quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Dars oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.

3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.

5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.

6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.

7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.

8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini tahlil qilish.

Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi.

Zamonaviy ta'limni rivojlantirish sharoitida o'qituvchi maktabda yuz beradigan innovatsion jarayonlarning ahamiyati va zarurligini tushunishi, o'qitishning innovatsion

texnologiyalarini va ularni o'quv jarayonida qanday amalga oshirishni bilishi nihoyatda muhimdir. Shuni ta`kidlash lozimki, o`tkazilgan tadqiqotlar natijasida, maktab tizimida innavatsion texnologiyalar hususan, AKT dan foydalanish orqali o`quvchilarda bilim olish uchun qo`shimcha motivatsiya paydo bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

Interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim- tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarni bayon etish orqali, o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga amaliy yordam berish mumkin. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

-o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob ) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

-o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy ushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

-o'quvchilar oz harakatlarining mohiyatini izohlaydilar;

Metoddan individual guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fiklash doiralarini kengaytirish bilan birga, ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni interfaol metodlar , ilg'or pedagogik hamda kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim- tarbiya jaroyoni sifatini yuksalishini kafolatlaydi.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Gafforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –T. "Tafakkur" 2011

2.Axmedova N, Inoyatovqa M, Matnazarova K. Boshlang'ich ta'limdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari. Metodik tavsiyalar . – T. ziyonet

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# TA'LIM SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

**MAMANOVA FARIDA PAYG'AMBARQULOVNA**

**Sirdayo viloyati Guliston tumani 5- maktab ingliz tili o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimi sifati samaradorligini oshirishda o'zimizning ta'lim tizimidagi ilg'or milliy ta'lim- tarbiya berishda qo'llaniladigan o'qitish texnologiyalardan o'qitishdagi ilg'or usul va uslublardan hamda xorijiy mamlakatlardagi zamonaviy ta'lim berish tajribalaridan unumli foydalangan holda amalga oshirish mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'lim tizimidagi dolzarb muammolarni to'g'ri yechimini topish va uni sifatli amalga oshirish bo'yicha fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** ta'lim tizimi, o'qitish texnologiyalari, zamonaviy bilimlar, layoqatli pedagog, ilg'or tajribalar.

Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'gri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek: “Eng katta boylik – bu aql- zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak, deb mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruzasida bayon qilingan va aniq belgilangan.

Ilg'or xorijiy davlatlarda ta'lim- tarbiya tizimida qo'llanilib, yaxshi natijalar olish imkoniyatini bergan zamonaviy ta'lim berish majburiyatlaridan unumli foydalanish metodlarini ishlab chiqish va o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv jarayoniga uni joriy etishimiz maqsadga muvofiqdir. Shu kabi masalalar yuzasidan yechimni topishga qo'yilgan maqsadlar, uzluksiz ta'limda faoliyat olib borayotgan har bir ta'lim tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadigan tarbiyachi, fan o'qituvchiari va pedagog olimlar oldidagi eng dolzarb vazifadir. Bu dolzarb vazifalarning yechimini topish va so'zsiz uzluksiz ta'lim

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

tizimida farzandlarimizni aql- zakovat va ilm ziyosi bilan ta'minlab ularni bilimli va ma'naviyatli kadrlar sifatida shakllantirayotgan pedagog, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kompetentligiga bevosita bog'liq. Bu vazifani o'z soxasi bo'yicha bilimdon va tajribali to'g'ri muloxaza yurita oladigan, o'zi dars beradigan soxasi bo'yicha yuqori saviyali o'ziga va o'qitadigan jarayoniga, ta'lim- tarbiya berayotgan talabalariga va o'quvchilariga nisbatan talabchan, ta'lim sifati va samaradorligini zamon talabiga asosan, amalga oshiradigan layoqatli pedagoglar, o'qituvchilar va tarbiyachilargina amalga oshira oladi. Birinchidan bizning dinimizga layoqatli pedagog o'qituvchilar va tarbiyachilar yuqorida bayon qilinganidek muammolar yechimini topishda, bugun ajdodlarimiz bo'lgan Sharq mutafakkirlarining ilmiy tajribasini o'rganishi va ulardagi beqiyos ma'naviy boyliklardan biri bo'lgan inson ta'lim- tarbiyasiga oid g'oyalaridan, fikr muloxazalaridan olib ta'lim maktablari o'quvchilariga beriladigan ta'lim- tarbiya maqsadini amalga oshirishda, uning zamon talabiga javob beraoladigan mazmunidagi o'quv tarbiyaviy ishlarni ro'yobga chiqarishda foydalanish yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining sifati samaradorligini oshirish birinchi galda albatta, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari xar bir o'qitilayotgan o'quv fanlaridan amalga oshiradigan bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilinadigan kompetentsiyalarni shakllantiradigan darslarni amaliy mashg'ulotlarni biroz jadallashtirib, qisqa vaqtda o'quvchilarni o'ylaydigan, chuqur fikrlaydigan mustaqil xulosa chiqaradigan qilib yetishtirish mumkin. Tajribalardagi baxolash dasturini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish asosida ta'lim tizimidagi o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, o'qitishda sifat va samara berayotgan innavatsion va interfaol metodlarni o'z o'rnida qo'llash natijasida erishayotgan yutuqlarimizni siyosiy taxlil qilish orqali ro'yobga chiqadi. Ta'lim- tarbiya tizimiga qo'yilgan yuqorida bayon qilingan muammolar yechimini topish, ikkinchidan to'g'ridan-to'g'ri hayot ta'limi xodimlarini hayotga tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazlari professor o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifadir. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa markaz professor o'qituvchilari o'z soxasi bo'yicha

malakasini oshirish uchun kelgan umumiy o'rta ta'lim fan o'qituvchilariga amaliyotda o'qitilib bilim beriladigan zamonaviy darslar mazmunidan keib chiqqan holda DTS va DT meyoriga yangi bilimlarni berish pedagogik va innavatsion texnologiyalardan, interfaol va milliy o'qitishda yaxshi natijalar beradigan usullardan, AKT va multimedia vositalaridan dars jarayonida unumli foydalangan holda xar bir soatlik dars sifati va samaradorlikka erishish yo'llarini o'rgatishi zarur. Bu o'z- o'zidan amalga oshmaydi. Buni amalga oshirish uchun har bir ta'lim- tarbiya beruvchi  professor o'qituvchi o'z soxasini va buni amalga oshirish metodlarini sifatli o'rgatish va topish uchun o'z ustida doimiy ishlashi, o'qitiladigan fan soxasidagi yangiliklarni chuqur bilish uchun tinimsiz izlanishi, o'qitishning zamon talabiga javob beradigan samarali yo'llarni izlash va uni o'zimizdagi va xorijiy davlatlardagi holatini taxlil qilish asosida ularning samara beradiganini tanlay bilishi hamda amaliyotga qo'llashi natijasida tinglovchilarga o'rgatish ta'limda sifat samaradorligini ta'minlashga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda buyuk Sharq allomalarining ilmiy merosidagi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid g'oyalaridan, rivojlangan xalqaro mamlakatlar tajribasidan va O'zbekistonning ta'lim tizimidagi barcha o'quv fanlaridan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlarida o'qitishning yangi texnologiyalaridan interfaol metodlardan, AKT va multimedia vositalaridan unumli o'z o'rnida o'quvchi yoshlarga bilim berishda ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda undan foydalanish uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlaridagi o'quv jarayonning sifat va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi, va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojatnomasida ta'lim-tizimini oldiga qo'ygan dolzarb muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

**1. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish // Kasb- hunar ta'limi- 2004.- №1.-B. 3-4.**

**2. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy madaniyati shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.-T.:1993.-289 b.**

**3. Yusupov E.Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T. Universitet, 1998-184 b.**

**4. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lim-tarbiya sifati va qirralari". T; «Fan va texnologiyalar». 2004.**

**5. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007. - 349 b.**

**6. Kushvaktov N.X. O'quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o'rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006. -174 b.**

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.READNPUB.UZ

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rganishni didaktik loyihalashtirish.**

**Guliston davlat universiteti akademik litseyi psixologi.**

Eshonqulova Zebo Rashidovna.

**Anotatsiya:**Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ingliz tili faoliyatiga qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish maqsadida qo'llanuvchi didaktik o'yinlar materiallari mazmun va tarbiyalanuvchilardagi ingliz tilida gapira olish qobilyatlarini rivojlantirish ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, malaka, sifat, texnologiya, psixoanalistika, audio yozuv, pedagogik mahorat, ta'lim sifati.

Hozirgi kunda ingiliz tilini maktabgacha ta`lim tashkilotlarda bolalarga o'yin orqali o'rgatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqimizda "Til bilgan el biladi" deb bejiz aytilmagan. Maktabgacha ta`lim tashkilotlaridanoq bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish va maktab ta`limiga tayyorlab borish masalasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishida dars jarayonini didaktik loyixalashtirish dolzarb msala bo'lib unga ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurdir.

Didaktika kechiktirmay o'rganishi zarur bo'lgan muommolrdan biri, ta`limni samarador loyixalash masalasi. Loyixalash o'quv materiallarini o'rganish va mustaxkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiq qilish umumiylashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan qanchalik uzviy bog'liq bo'lsa, ta`lim jarayonining samaradorligi shuncha oshadi. Shuning uchun ham, ta`lim jarayonining yo'nalishlarini emas, balki uning ta`lim qirrasini samarador loyixalashga ehtiyojmand yo'nalishlardan biri samarali didaktik o'yinlar to'plami tayyorlashdir. Mazkur murakkab vazifani bajarishda ingiliz tili darsini bolalarga didaktik o'yinlar vositasida tashkillashtirish asosiy omil hisoblanadi.

Bolalarda o'yin orqali diqqat xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynayotgan paytidagi ma`lumotlarni ham bajonidil qabul qiladi. Ya`ni o'yin faoliyati orqali beriladigan ma`lumotlar bolalar xotirasidan muommolarsiz o'rin oladi. Bu o'rinda pedagogik,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

texnologik va fiziologik omillarga tayangan holda ingiliz tilini o'rganish samaralar garovidir. Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'yinlar jarayonida ingiliz tilini o'rganar ekan, albatta ma`lumotlarning ko'rgazmalilik tamoillariga amal qilish maqsadga muvofiq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy til bilishi jarayonlari ijtimoiy ta`sirlar asosida shakllanadi. Ularning diqqati, xotirasi, aqliy faoliyati va muloqatga kirishishi, ko'p hollarda ashqi munosabatlar va o'yin faoliyatining ta`sirchanligiga bog'liq ekanligi olimlar tomonidan taqiqlanadi. Bolaning ona tilini egallash prosseslari ustida kuzatishlar olib borar ekan, bolalar o'yin jarayonida o'z faoliyatlarini mantiqiy xranologik izchillikda bayon qilishi, harakatlarini sharxlash ehtiyojini his qilishlarining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni sharxlash ehtiyojini his qilishining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni shu tarzda bayon qilish va sharhlash tilini o'rgatish zaminida yotadi. Shuning uchun ham ularni chet tillarni o'qitishga asos qilib olish kerak degan xulosaga olib keladi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan manashu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari, nutqi rivojlanadi, xorijiy tilni tez o'rganish xususiyatlari takomillashadi, hamda shaxsiy individual xususiyatlari insoniy fazilatlari tarkib topa boshlaydi. Shuningdek, ona tilini va xorijiy tilni parallel ravishda o'zlashtirgan bolalarda idrok etish, taxmin qilish, tushunish, qiyoslash kabi ko'nikma, malakalar hosil bo'ladi. Ta`lim – tarbiya ta`siri bilan birga bolalar psixik xususiyatlarining taraqqiyotiga ularning faol faoliyati rolini ham hisobga olish zarurdir. Chunki bola tarbiyaning passiv obektigina bo'lib qolmasdan, balki o'z faoliyatlari biln o'ziga ya`ni o'zining psixik taraqqiyotiga faol ta`sir qilib turadigan mavjudotdir.

Tarbiya bolaning faol faoliyatlarini har doim to'g'ri tashkil qilib, yo'lga solib tursa undagi mavjud sifatlar faoliyatining har xil turlarida o'yin, mehnat, o'qish namayon bo'lib mustahkamlana boradi. Bola psixikasi o'yin, o'qish, o'rganish, mehnat va turli ijtimoiy faoliyat jarayonlarida taraqqiy qiladi. Faoliyatning bu turlari bolaning o'sishi va yosh xususiyatlariga mos ravishda o'zgarib, biri ikkinchisi bilan almashib turadi. Masalan: bog'chagacha va maktabgcha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yindir. Chunki o'yin bola tabiatining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bola o'yin orqali atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni o'rgana boshlaydi. Bundan tashqari bu yoshda bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati aqliy rivojlanishning dastlabki poydevor qo'yiladi. Bola bu yoshda moddiy borliq g'zalliklarini his etish, go'zallik hamda afosatdan zavqlana olish, milliy urf – odatlarni o'ziga singdirish orqali hamda rioya qilish ko'nikmalarini ham shakllantira boshlaydi. Vaholanki, bu yoshda bola yetarli so'z boyligiga ega bo'lib, unga xorjiy

o'rganishga imkoniyat bo'ladi. Bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularning makonda joylashishini bilish bilan birga, ularni taqqoslay oladi. Bu yoshda normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladi. Bola rasmlarda atrofdagi narsalarning kichiklashtirib tasvirlanganligi anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik badiy didni rivojlantiradi. Bu jarayon bolalar bilan o'yin sifatida tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham o'yinlar umuminsoniy madaniyatning qimmatli manbasi va uni yuksaltirish vositasi hisoblanadi. Hech qanday faoliyat shaklida inson o'zining ruhiy fiziologik va aqliy imkoniyatlarini o'yin jarayonidagi kabi yorqin tarzda namoyon eta olmaydi. Shuning uchun ham o'yinlar bolaning hayotiy mavqeylarini o'zlashtiruvchi pedagogik xodisa hisoblanadi. O'yinlar bola hayotining ajralmas qismi hisoblanar ekan, ulardan maqsadli foydalanish o'z samarasini bermay qolmaydi. Didaktek o'yinlarning o'z tabiatiga ko'ra " Ijtimoiy ahamiyat kasb etishini takidlagan holda o'yinlarda ijtimoiy munosabatlar arefmitikasi" deya ta`rif berildi va ularning pedagogik mohiyatini batafsil ochib berishta muvoffiq bo'ldi. Chunki o'yin o'z mohiyatiga ko'ra bolaning ko'z ungida jamiyatdan ijtimoiy vaziyatlar va kattalar hayotini yaqqol gavdalantirishg xizmat qiladi. O'yinlar muayyan faoliyat shakli bo'lib, bolaning ruhiy holatlari va bilish ko'nikmalari rivojlanish shakli hayotning muayyan bosqichida vujudga keladi. Bolalarning muloqatga chorlashning asosiy, o'ziga xos shakli sifatida alohida pedagogik ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, har bir maktabgacha ta'lim muasasasi hozirgi innovatsion rivojlanish davrida muassasada tarbiyalanuvchi bolalarni chet tilini o'rgatishga chuqurroq e'tibor qaratib ularga ta'lim beruvchi tarbiyachilarni pedagogik mahorat va ta'lim berish uchun metodik asoslari mahorat darslari orqali o'rgatishni tashkil etish lozim. Respublikasida maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillardan og`zaki nutqini o`stirishning zamonaviy metodikalariga berilgan katta ahamiyat, hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy o'qitish usullarini kengroq joriy qilish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi».«O'qituvchi»T.,1991y.
2.«Uchinchi mingyillikning bolasi» T..,Ma'rifat-madadkor.2002. 3.T.S.Komarova.

3.Metodika obucheniya izobrazitelnoy deyatelnosti i konstruirovani Y.M..,«Prosvesheniye»1991.

4. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T.., Ma'rifat-madadkor.2002.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

**УДК: 615.099:57.044**

# Влияние пестицидов на состояния микроциркуляторного русла и тканевых структур репродуктивных органов у крыс

(Эксперментальное исследование)

Хожаназарова С.Ж.

**(Ташкентская медицинская академия)**

**Ключевые слова:** хроническая интоксикация пестицидом, мать-потомство, яичники, матка, сосуды, ткани.

В мировом сельском и народном хозяйстве широко используются различные пестициды, ядохимикаты. Синтезируются препараты с коротким периодом распада в объектах окружающей среды и полным разложением в растениях. В настоящее время проводится ряд широкомасштабных исследовательских работ, направленных на разработку и совершенствование методов профилактики, ранней диагностики и лечения отрицательных воздействий пестицидов на потомство в условиях внутриутробного и раннего постнатального их воздействия через организм матери[1,2, 3].Все изложенное позволяет заключить, что изучение макроскопических и микроскопических исследований постнатального онтогенеза яичников и матки у потомства[4,5,6], рожденного в условиях хронического токсического воздействия на организм матери, является актуальной проблемой, имеющей как научно--фундаментальное, так и прикладное значение.

## Материал и методы исследований.

***Для решения поставленных задач были использованы белые беспородные крысы-самки,которые разделены на 2 группы:1- контрольные(n-30),2-подопытные(n-30). Опытные группы крыс самок ежедневно, вплоть до окончания опытов, получали пестициды Вантекс из расчета 4,0 мг/кг.*** Изучались морфологические особенности развития и становления внутриорганных сосудов и тканей женских половых органов у матерей и в динамике у потомства.На 7, 14, 21 и 30 - сутки после рождения как контрольных, так и опытных крыс забивали путем декапитации под легким эфирным наркозом.

Для изучения ангиоархитектоники яичника, через брюшную аорту медленно вводили массу Герота, полученный материал просветляли по методу Т. А. Сагатова,

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

и после соответствующей проводки заливали в парафин. Для гистологических препаратов из разных отделов матки и яичника выделялись участки размером 0,3-0,6 мм, которые фиксировали в жидкости Карнуа, 10% нейтральном формалине. После соответствующей проводки кусочки заливали в парафин. Срезы толщиной 5-7 мкм окрашивали гематоксилин-эозином. Для выявления маркерных субстратов использовали иммуногистохимические методы. Для определения пролиферирующих клеток использовали моноклональные кроличьи антитела Ki-67,а апоптозные клетки выявляли с помощью моноклональных кроличьих антител BcL-2.Срезы докрашивали метиленовым синим и нейтральным красным.

**Результаты исследований.** Результаты наших исследований показывают, что у 3-и сутки в яичника как у контрольных,так и подопытных крыс не выявляется четкая граница между корковым и мозговым веществом, белочная оболочка яичника крысы образована тонкими пучками коллагеновых и эластических волокнами. Они направлены преимущественно продольно. В корковом веществе выявляются примордиальные фолликулы, большая плотность их расположения обнаруживается в области полюсов яичника. Исследование яичника у потомства с введением вантекса в этот срок не выявило существенных морфологических различий по сравнению с контрольной группой.

В строме яичника крысы 7-и дневного возраста контрольной группы увеличивается плотность расположения волокнистых структур соединительной ткани. Граница между мозговым и корковым веществом различимы. Соединительнотканные прослойки между корковым веществом отделяют фолликулы яичника друг от друга. В этом возрасте в примордиальных фолликулах сформирован овоцит. Он располагается в центре фолликула. Они по сравнению с примордаильными фолликулами имеют более крупные размеры. Вокруг овоцита располагается не один, а два слоя клеток фолликулярного эпителия. В центре овоцита имеется одно ядро, пространство заполнено фолликулярной жидкостью. Фолликулярный эпителий становится многослойным. Внутрений образован клетками овальной формы, наружный состоит из клеток веретенообразной формы. В экспериментальных группах у крыс на 7 сутки при действии пестицидов Вантекса в яичнике вторичные фолликулы не обнаруживаются.К 14 суткам у крыс контрольной группы в строме яичника пучки коллагеновых и эластических волокон имеют разную плотность расположения. Сети ретикулярных волокон с большими размерами выявлены на периферии коркового вещества. Соединительнотканные прослойки в корковом веществе имеют четкие границы. В корковом веществе

